O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“YANGILANGAN KONSTITUTSIYA–BARQAROR EKOLOGIK TARAQQIYOT VA DEMOKRATIK HUQUQIY RIVOJLANISH POYDEVORI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya
MATERIALLARI TO‘PLAMI

2025-yil 3-dekabr

TOSHKENT

КВК-67.4
B-60

“Yangilangan konstitutsiya-barqaror ekologik taraqqiyot va demokratik huquqiy rivojlanish poydevori” // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2025-y. 629 bet.

Ushbu konferensiya materiallari to‘plamida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33 yilligi munosabati bilan uning barqaror taraqqiyotni ta’minlash yo‘lidagi faoliyati tahlil qilinadi. Maqolada konstitutsiyaning xalqaro inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolarga huquq doirasida yordam ko‘rsatish va barqaror rivojlanishni ta’minlashdagi o‘rni keng yoritilgan. Shuningdek, o‘tgan 33 yil davomida to‘plangan tajriba asosida faoliyatidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etishning istiqbolli yo‘nalishlari muhokama qilinadi. Xususan, konstitutsiyada zamonaviy xavfsizlik tahdidlari sharoitida ularning o‘zaro aloqalarini mustahkamlash zarurati alohida e’tiborga olinadi. Maqola yakunida konstitutsiyaning kelgusidagi islohotlari, global hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish hamda insoniyat tinchligi yo‘lida xalqaro birdamlikni kuchaytirishning dolzarb masalalari tahlil qilinadi.

Mas’ul muharrir:

Nuridullayev.A.A. yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent.

Tahrir hay’ati a’zolari:

Xusanov O.T. yuridik fanlar doktori, professor;
Axmedov D.K. yuridik fanlar doktori, professor;
Usmonov.M.B. yuridik fanlar doktori, professor;
Dadasheva A.A. yuridik fanlar doktori, professor;
Safarov.D.J. yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent;
Xomidov E.O. yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Olimjonov.X.M. yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
G‘iyosov.B.H. yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD);
Baxtiyorov F.A. kafedra o‘qituvchisi.

Ushbu to‘plamga kiritilgan maqolalardagi barcha ma’lumotlarning aniqligi va ishonchliligi uchun mualliflarning mas’ulligi belgilangan.

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2025

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum, konferensiyamiz mehmoni bo‘lib turgan xalqaro va milliy tashkilotlar vakillari, aziz ishtirokchilar!

Bugun biz 3-renessansning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangilangan va yuksak demokratik tamoyillar asosida qayta qabul qilingan tarixiy davrida, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida tashkil etilgan **“Yangilangan Konstitutsiya – barqaror ekologik taraqqiyot va demokratik huquqiy rivojlanish poydevori”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyani birgalikda o‘tkazish baxtiga muyassar bo‘lganimizdan benihoya mamnunman.

Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi Farmoyishida alohida ta’kidlanganidek, **Konstitutsiyamizning 33 yilligi** davlatimiz, jamiyatimiz va har bir fuqaro hayotida ulkan ma’naviy-siyosiy ahamiyat kasb etishi lozim. Mazkur hujjatda belgilangan xalq hokimiyatchiligi, inson qadr-qimmati, erkinlik, tenglik va adolat tamoyillarini yanada chuqur anglash, ularni amaliy hayotga keng tatbiq etish vazifalar bugungi konferensiyamizning ham bosh maqsadiga hamohangdir.

Mazkur Farmoyishda belgilanganidek, **ekologiya, ilm-fan, sog‘liqni saqlash, tadbirkorlik, madaniyat, ta’lim va sport sohalaridagi islohotlarning mazmun-mohiyatini chuqur ochib berish bugungi bahs-munozaralarimizning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi.** Bugungi xalqaro konferensiyamizda Konstitutsiyada belgilangan ekologik siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini, davlatning demokratik-huquqiy rivojlanish modelini, fuqarolar farovonligini ta’minlashga qaratilgan islohotlarni ilmiy asosda muhokama qilish uchun juda muhimdir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya nafaqat davlat boshqaruvi tizimini tubdan yangilab berdi, balki ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish, inson huquqlarini himoya qilish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish kabi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha aniq kafolatlarni mustahkamladi. **Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Konstitutsiya — inson qadri, erkinlik, tenglik va adolat garovi” bo‘lib, u yangi O‘zbekiston taraqqiyotining mustahkam huquqiy poydevoriga aylandi.**

Aytish lozimki, bugungi konferensiyamizda o‘z fundamental tadqiqotlari bilan jahon hamjamiyatida katta obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan **7 ta davlatning** taniqli olimlari, xalqaro ekspertlari hamda milliy huquq tizimimizda salmoqli

faoliyat yuritib kelayotgan **20 ga yaqin markaziy idora va tashkilotlar** ishtirok etmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi ilmiy muloqotlarimiz Konstitutsiyada belgilangan huquqiy, siyosiy va ekologik normalarni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha yangi tashabbuslar, takliflar va ilmiy g‘oyalar paydo qilib, ushbu global masalalarga yondashuvni yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi degan umiddaman.

Yangi O‘zbekistonning demokratik-huquqiy rivojlanishi, barqaror ekologik siyosatni shakllantirish va inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat barpo etish yo‘lidagi bunday ilmiy hamkorlik albatta o‘zining ijobiy natijasini beradi. Aynan shu jihatlar mazkur konferensiyaning ekologiya sohasidagi ilmiy izlanishlar uchun dolzarbligini oshiradi.

Hurmatli ishtirokchilar, shu fursatdan foydalanib barchangizni **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33 yillik bayrami bilan samimiy tabriklagan holda, bugungi konferensiya ishiga ulkan muvaffaqiyatlar tilayman!**

E’tiboringiz uchun rahmat!

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

KONSTITUTSIYAVIY ME’YORLAR VA MAHALLIY O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARINING EKOLOGIK NAZORATDAGI VAKOLATLARI

Djurayev Rustam Mirzayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondoni,
general-mayor, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

Annotatsiya. ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ekologik xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasida belgilangan konstitutsiyaviy me’yorlar tizimli tahlil qilinadi. Shuningdek, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ekologik nazorat sohasidagi vakolatlari, ularning huquqiy maqomi, mas’uliyatlari hamda fuqarolar ekologik huquqlarini ta’minlashdagi roli yoritib beriladi. Maqolada ekologik siyosatning hududiy darajada amalga oshirilish mexanizmlari, ekologik monitoring, jamoatchilik nazorati va mahalla institutining tabiatni muhofaza qilishga oid tashabbuslari amaliy misollar asosida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari mahalliy boshqaruv tizimida ekologik nazoratni kuchaytirish, konstitutsiyaviy kafolatlarni amaliyotga tatbiq etish hamda ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: konstitutsiyaviy normalar; atrof-muhitni muhofaza qilish; ekologik xavfsizlik; mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish; ekologik nazorat; mahalla institutlari; jamoatchilik ishtiroki; ekologik monitoring; barqaror rivojlanish; huquqiy baza; ekologik boshqaruv; ekologik siyosatni amalga oshirish

Annotation. this article provides a systematic analysis of the constitutional norms of the Republic of Uzbekistan related to environmental protection, ecological safety, and the rational use of natural resources. It further examines the powers, legal status, and responsibilities of local self-government bodies in the field of environmental oversight, highlighting their role in ensuring citizens’ environmental rights. The study explores mechanisms for implementing environmental policy at the local level, including ecological monitoring, public oversight, and community-based initiatives carried out by the mahalla institution. The findings contribute to strengthening environmental control within the local governance system, enhancing the practical application of constitutional guarantees, and developing recommendations aimed at preventing environmental violations.

Key words: constitutional norms; environmental protection; ecological safety; local self-government; environmental oversight; mahalla institutions; public participation; environmental monitoring; sustainable development; legal framework; ecological governance; environmental policy implementation.

Mamlakatimizda barqaror rivojlanishni ta’minlashning omili sifatida tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash hamda atrof muhitni muhofaza qilish borasida keng ko‘lamli islohotlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida hamda uni amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturlarida: «odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta’minlash, atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish[1]; atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash[2]; ekologik muvozanatni saqlash va barqaror rivojlanishda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni tartibga solish[3]; suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish[4]; tabiatni qayta tiklashga qaratilgan kompensatsiya mexanizmlarini keng joriy etish[5]» **kabi muhim vazifalar** belgilangan. Ko‘rsatilgan vazifalarni bajarish o‘z navbatida samarali ekologik siyosatni amalga oshirish bilan bir qatorda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning mohiyati, tavsifi va tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy mexanizmini qonunchilikda aniq belgilash orqali yanada takomillashtirish zarurligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda yuritilayotgan oqilona ekologik siyosat davlat va jamoatchilik tomonidan tabiatni muhofaza qilish va undan samarali foydalanilishini nazorat qilish, aholining ekologik xavfsizligini ta’minlashga oid ekologik faoliyat amalga oshirilishini taqozo qiladi.

Professor M.M.Mamasiddiqovning fikricha, ekologiya’ni muhofaza qilish va atrof-muhitni asrab-avaylash ishlarida fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari alohida o‘rin tutishini e’tirof etib o‘tadi[7].

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tashkiliy jihatdan davlat hokimiyatidan ajratilgan bo‘lsa-da, funksional ravishda ular o‘zaro bog‘liqdir. Ular iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik jihatdan umumdavlat siyosati o‘zagida harakat qiladilar, ayrim davlat vakolatlarini bajarishlari, davlat dasturlarini amalga oshirishda qatnashishlari mumkin[8].

“Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”[9] gi Qonunning 4-moddasida davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining qabul qilinayotgan normativ hujjatlarda, davlat dasturlarida jamoatchilik manfaatlarini va fikrini inobatga olish, fuqarolarning va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik talablarining ijrosini ta’minlash, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish, davlat xizmatini ko‘rsatish, ijtimoiy sherikchilik bo‘yicha bajariladigan shartnomalar, loyihalar hamda dasturlarni bajarishga oid faoliyati jamoatchilik nazoratining obyekti sifatida belgilangan. Bunda, davlat ekologiya organlari “atrof tabiiy muhitga zararli ta’sir ko‘rsatayotgan obyektlar faoliyatini cheklash, to‘xtatib qo‘yish, tugatish va o‘zgartirish” bo‘yicha qaror qabul

qilayotganda jamoatchilik nazorati organlari, xususan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining fikrini inobatga olishlari lozimligi belgilangan. Shuningdek, bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1993 yil 17 mayda tasdiqlagan O‘zbekiston Respublikasida davlat yong‘in xavfsizligi nazorati to‘g‘risidagi nizomda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining “belgilangan tartibda obyektlar va aholi yashayotgan punktlarning yong‘in xavfsizligi holati, ularni nazorat qilish natijalari haqida jamoatchilikka axborot berib borish, yong‘inga qarshi kurash bo‘yicha targ‘ibot ishlarini amalga oshirish, yong‘inning oldini olishga bag‘ishlangan adabiyotlar, plakatlar, bukletlar nashr etish”[10] vakolatlari belgilangan. “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonunda “jamoatchilik ekologik nazorati natijalari belgilangan tartibda ma’lumotnoma yoki axborot tuzish orqali rasmiylashtirilishi mumkinligi, jamoatchilik ekologik nazoratining natijalari maxsus vakolatli davlat organlarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini va fuqarolarni jamoat ekologik nazoratining natijalari haqida xabardor qilish, tegishli davlat organlariga tabiatni muhofaza qilishga oid qonun talablarining buzilishi yuzasidan aniqlangan fakt bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish uchun takliflar kiritish kabi shakllarda ro‘yobga chiqarilishi”[11] belgilangan. Maxsus ekologiya qonunlarida aks etgan yuqorida aytib o‘tilgan ekologik vakolatlar “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”[12] gi Qonunda to‘liq aks etmagan yoki qonunchilikka muvofiqlashmagan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z ma’ruzasida shahar va qishloqlar qiyofasini o‘zgartirish, qurilish va obodonlashtirishga oid qarorlar dastlab o‘sha joydagi aholi o‘rtasida muhokama qilinishini va jamoatchilik ekspertizasidan o‘tkazilishi shartligini ta’kidlangan edi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, mamlakatimizdagi ekologik muammolarni hal qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining, xususan, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ekologik - huquqiy vakolatlari ichida muhim bo‘lgan jamoat ekologik ekspertizasini amalga oshirish faoliyatining amaliy jihatlari va uning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish bugungi davrning o‘z yechimini kutayotgan talablaridan biriga aylandi. Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyatini yanada rivojlantirish masalasi Prezident Sh.Mirziyoyev asarlarida ham dolzarb qilib ta’kidlanganligi bejiz emas. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ekologik vakolatlari ichida ekologik ekspertizani amalga oshirish alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan ham bunday ekspertizaning nazariy-huquqiy jihatlarini o‘rganish va uni amalda o‘tkazishni “jonlantirish” ning muhim zaruriyati mavjud.

Shuningdek, 2013 yil 27 dekabrda qabul qilingan “Ekologik nazorat to‘g‘risida” gi Qonunning 15 - moddasida “fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari tabiatni muhofaza qilish va undan foydalanish jarayonlari bo‘yicha jamoatchilik fikrini o‘rganishi hamda jamoatchilik ekologik ekspertizasini o‘tkazishi” haqidagi

qoida mustahkamlangan. Lekin, bu qonunlarda mazkur vakolatni fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan qanday amalga oshirishi lozimligi xususida hech narsa deyilmagan. Binobarin, amaliyotda bu organlar tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha komissiyasi tashkil qilinishidan boshqa mexanizmlardan foydalana olmayaptilar.

O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasi 2-qismida “fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi va qonun bilan berilgan vakolatlarini tegishli hududda amalga oshirishi” qayd etilgan. Bizning mamlakatimizda xorijiy mamlakatlardan farqli ravishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyat yuritadi hamda ular o‘zlariga berilgan vakolatlarni, jumladan ekologiya sohasiga oid vakolatlarini amalga oshiradi, shuningdek tegishli hududda milliy qadriyatlardan va an’analardan kelib chiqqan holda mahalliy muammolarni davlat organlarining aralashuvisiz mustaqil hal qiladi hamda tabiatni muhofaza qilish masalalari yuzasidan davlat organlariga ko‘maklashadi. O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasi 2-qismida “fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi va qonun bilan berilgan vakolatlarini tegishli hududda amalga oshirishi” qayd etilgan. Bizning mamlakatimizda xorijiy mamlakatlardan farqli ravishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyat yuritadi hamda ular o‘zlariga berilgan vakolatlarni, jumladan ekologiya sohasiga oid vakolatlarini amalga oshiradi, shuningdek tegishli hududda milliy qadriyatlardan va an’analardan kelib chiqqan holda mahalliy muammolarni davlat organlarining aralashuvisiz mustaqil hal qiladi hamda tabiatni muhofaza qilish masalalari yuzasidan davlat organlariga ko‘maklashadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, atrof muhitni muhofaza qilishda, tabiat boyliklaridan samarali foydalanishda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari jamoat nazoratini amalga oshirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi PF–5308-son “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi PF–5635-son “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF–5953-son “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi PF–6155-son “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020 yil 24 yanvar // www.president.uz

7. Mamasiddiqov M.M. Mamlakatimizda inson huquqlarini ta’minlashda davlat organlari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazorati mexanizmini ishlab chiqish va takomillashtirish. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. – T:, 2018 yil 6 may. B. 25.

8. G.R.Malikova, G.S.Ismailova. “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunga sharh. T., O‘zbekiston, 2009.-B. 32.

9. www.Lex.uz

10. G.R.Malikova, G.S.Ismailova. “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga sharh. T., O‘zbekiston, 2009.-B. 99.

11. “Ekologik nazorat to‘g‘risida” gi Qonunning 21,22-moddalari // www..Lex.uz

12. www.lex.uz

KONSTITUTSIYADA INSON VA DAVLATGA OID HUQUQIY QADRIYATLARNING ILMIY TAHLILI

Mamayusupov Sarvar Dexkanovich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondonining tarbiyaviy ishlar, kadrlar va yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, y.f.b.f.d., (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan inson va davlatga oid huquqiy qadriyatlarning mazmun-mohiyati ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Insonning tabiiy huquqlari, davlatning asosiy majburiyatlari, shuningdek, huquq va erkinliklarning konstitutsiyaviy kafolatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, inson huquqlari, huquqiy qadriyatlar, davlat majburiyatlari, konstitutsiyaviy islohotlar, huquq va erkinliklar, demokratik tamoyillar, ijtimoiy davlat, konstitutsiyaviy kafolatlar, huquqiy davlat, inson sha’ni va qadr-qimmati.

Аннотация: В данной статье с научной точки зрения анализируется содержание и сущность правовых ценностей, касающихся человека и государства, закрепленных в Конституции Республики Узбекистан. Раскрывается взаимосвязь между естественными правами человека, основными обязанностями государства, а также конституционными гарантиями прав и свобод.

Ключевые слова: Конституция, права человека, правовые ценности, государственные обязательства, конституционные реформы, права и свободы, демократические принципы, социальное государство, конституционные гарантии, правовое государство, честь и достоинство человека.

Abstract: This article analyzes the essence of the legal values of the individual and the state enshrined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan from a scientific point of view. The interrelationship between natural human rights and the fundamental obligations of the state, as well as the constitutional guarantees of rights and freedoms, is highlighted.

Key words: Constitution, human rights, legal values, state obligations, constitutional reforms, rights and freedoms, democratic principles, social state, constitutional guarantees, rule of law, human honor and dignity.

Konstitutsiya (lotincha "constitutio" - tuzilish, tartib) davlatning asosiy qonunidir. "Konstitutsiya" atamasi qadimgi Rimda (imperiya konstitutsiyasi deb nomlanuvchi qonun) allaqachon ma'lum bo'lgan. U davlat tuzilishini, boshqaruv va boshqaruv tizimini, ularning vakolatlari va shakllanish tartiblarini, saylov tizimini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarni,

shuningdek, sud tizimini va davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatdagi jamoat hayotining keng ko'lamli jihatlarini tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, respublikada davlatga hukmronlik qiladigan yagona mafkura o'rnatilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosiy qonun deb atalishi bejiz emas, chunki u davlatning barcha normativ-huquqiy hujjatlarining yadrosi va asosidir. Qonun loyihasini ishlab chiqishda qonun chiqaruvchi yangi huquqiy norma davlatning amaldagi asosiy qonuniga hech qanday zid kelmasligini ta'minlash uchun faqat Konstitutsiyaga murojaat qiladi. Konstitutsiya normativ-huquqiy hujjatlar orasida alohida o'rin tutadi va bu rol, birinchi navbatda, konstitutsiyaviy va huquqiy tartibga solish uchun asosiy bo'lgan umumiy xususiyatdagi konstitutsiyaviy va huquqiy normalarni belgilashi, boshqa barcha manbalar esa konstitutsiyaviy normalarga asoslanganligi va ularning qoidalarini batafsil bayon qilishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, Konstitutsiya jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalariga ta'sir ko'rsatadigan qoidalarining kengligi bilan ajralib turadi. Konstitutsiyada belgilangan normalar uning doirasi doirasidagi ijtimoiy munosabatlarni konstitutsiyaviy va huquqiy tartibga solishning butun tarmog'i uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

2023-yil 30-aprel O‘zbekiston Respublikasining butun xalqi uchun muhim va tarixiy kun bo‘ldi, chunki shu kuni avvalgi konstitutsiyaviy jarayonlardan farq qiluvchi davlatning yangilangan Konstitutsiyasini qabul qilish bo‘yicha umumxalq referendumi o‘tkazildi. Buning sababi shundaki, xalqimizning fikrlari va takliflari dastlab ikki bosqichda o‘rganildi va shundan keyingina Konstitutsiya loyihasi tayyorlandi. Ilgari Konstitutsiya qabul qilinganda loyiha ishlab chiqilib, keyin jamoatchilik muhokamasiga qo‘yildi.[1]

Birinchi bosqichda fuqarolarimiz Konstitutsiya loyihasiga 60 000 dan ortiq takliflar kiritdilar, ularning taxminan to‘rtdan biri loyihada o‘rin oldi. Ikkinchi bosqichda Konstitutsiya loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo‘yildi. Besh million aholi ommaviy axborot vositalari va internet orqali loyiha bilan tanishdi va 150 000 dan ortiq taklif va fikrlar bildirildi. Bundan tashqari, mehnat jamoalari, universitetlar, mahalla faollari va ziyolilar bilan muhokamalar davomida taxminan 10 000 ta qo‘shimcha takliflar kelib tushdi. Hozirgi kunda xalqaro huquqiy hujjatlar va 190 dan ortiq mamlakatlar tajribasi o‘rganildi va loyiha olti turdagi ekspert tekshiruvidan o‘tkazildi. Bularning barchasi yangilangan Konstitutsiya jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlarini hisobga olganini, butun jamiyatni Yangi O'zbekiston qurish g'oyasi atrofida birlashtirganini va Asosiy Qonunimizni chinakam xalq Konstitutsiyasiga aylantirganini ko'rsatadi. Konstitutsiyadagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, normalar soni esa 275 tadan 434 taga ko'paydi. Boshqacha aytganda,

Asosiy Qonun matni qariyb 65 foizga kengaytirildi va xalqimizning takliflari asosida yangilandi.[2]

Konstitutsiya O‘zbekistonni respublika boshqaruv shakliga ega suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida aniq belgilaydi. Yangilangan Konstitutsiyaning 21-moddasiga ko‘ra, hech kimga qonun bilan belgilanmagan hech qanday majburiyat yuklanmasligi kerak.

Yangilangan Konstitutsiya har bir kishining — bir tomondan davlat va uning organlar tizimi, ikkinchi tomondan shaxs, fuqaro va jamiyatning huquq va majburiyatlarini aniq va lo‘nda belgilaydi. Hech kim qonun bilan belgilanganlardan tashqari hech qanday majburiyatni bajarishga majbur emas. Ushbu konstitutsiyaviy qoida ushbu muhim voqeliklarni hal qilish orqali oddiy odamlar hayotini yanada yaxshilaydi. Konstitutsiya va qonunlar bizga fuqarolar, jismoniy shaxslar, ota-onalar, bolalar yoki ixtisoslashgan kasb egalari sifatida bir qator majburiyatlarni yuklaydi. Bularga qonunga rioya qilish, boshqalarning huquqlarini hurmat qilish, ota-onalarga g‘amxo‘rlik qilish va bolalarni tarbiyalash, tabiiy muhit va tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish, soliqlarni to‘lash, vatanni himoya qilish va boshqalar kiradi. Yangi konstitutsiyaviy qoidalar fuqarolar va yuridik shaxslar Konstitutsiya va qonun hujjatlarida belgilanganidan tashqari boshqa hech qanday majburiyatlarni bajarishga majbur emasligini anglatadi. Bundan tashqari, davlat idoralari va ularning mansabdor shaxslariga qonun bilan belgilanmagan qo‘shimcha majburiyatlar yuklash taqiqlanadi.

Bu, o'z navbatida, tashkilot direktori tomonidan xodimga qonunda ko'zda tutilmagan vazifalarni yuklash (masalan, o'qituvchining hovlisini supurish yoki mahallaga tashrif buyurib tibbiy inventarizatsiya o'tkazish) kabi salbiy holatlarning oldini oladi.

References:

1. Конституция Республики Узбекистан от 30.04.2023 г., // https://lex.uz/docs/6445147

2. Игор Кравес, Российский конституционализм: проблемы становления, развития и осуществления, 2005.

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYADA YUQORI HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNING MAMLAKAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

Annotatsiya: mazkur maqolada konstitutsionalizm tamoyillari asosida jamiyatda yuqori huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishning davlat taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Huquqiy ongning yuksalishi demokratik institutlar faoliyatini takomillashtirish, fuqarolarning huquqiy faolligi va ijtimoiy mas’uliyatini oshirish, shuningdek, davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashning muhim omili sifatida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: konstitutsionalizm, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy ta’lim, fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari, huquqiy siyosat, huquqiy targ‘ibot, ijtimoiy-huquqiy barqarorlik, demokratik islohotlar.

Abstract: this article analyzes the role of forming a high legal consciousness and legal culture in society based on the principles of constitutionalism in the development of the state. The rise of legal awareness is considered as an important factor in improving the activities of democratic institutions, increasing the legal activity and social responsibility of citizens, as well as ensuring openness and transparency in public administration.

Key words: constitutionalism, legal consciousness, legal culture, legal education, civil society, mass media, legal policy, legal advocacy, socio-legal stability, democratic reforms.

Аннотация: в данной статье анализируется роль формирования высокого правового сознания и правовой культуры в обществе на основе принципов конституционализма в развитии государства. Повышение правосознания рассматривается как важный фактор совершенствования деятельности демократических институтов, повышения правовой активности и социальной ответственности граждан, а также обеспечения открытости и прозрачности в государственном управлении.

Ключевые слова: конституционализм, правосознание, правовая культура, правовое образование, гражданское общество, средства массовой информации, правовая политика, правовая пропаганда, социально-правовая стабильность, демократические реформы.

Qonun ustuvorligini ta’minlash inson qadr-qimmatini ulug‘laydigan xalq-demokratik davlatni barpo etishda eng ustuvor vazifalardan biridir. Uni amalda ta’minlash esa aholining huquqiy ongini va madaniyatini oshirmasdan turib mumkin

emas. Qanchalik sifatli va hayotiy qonunlar qabul qilinmasin, agar fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyati yuqori darajada bo‘lmasa, bu qonunlar faqat qog‘ozda qolib ketadi. Qonun ustuvorligini tan olish, qonunga hurmat bilan qarash va unga rioya qilish — yuksak huquqiy ong va madaniyatning asosiy belgisidir. Shu sababli Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida fuqarolarning huquqiy ongini va madaniyatini oshirish masalasiga davlat siyosati darajasida ustuvor yo‘nalish sifatida katta e’tibor qaratilmoqda.

Fuqarolarning yuqori huquqiy ongi va madaniyati — huquq va qonun ustuvorligining, huquqiy davlatning poydevoridir. Jamiyatda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, shuningdek qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biridir.

Shu bois, Yangi O‘zbekiston shakllanish yillarida milliy huquq tizimini tubdan isloh qilishga, fuqarolarning huquqiy ongini va madaniyatini oshirishga, shuningdek malakali yuridik kadrlarni tayyorlashga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ta’kidlash joizki, ko‘p yillar davomida huquqiy madaniyatni oshirish, huquqiy tarbiya va ma’naviy tarbiya bo‘yicha ishlar asosan huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining vazifasi sifatida ko‘rib kelindi, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ishtirokining o‘rniga yetarli e’tibor berilmadi.

Yoshlar huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir insonda qonunlarga hurmat, odob-axloq, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarlikka nisbatan murosasizlik tuyg‘ularini tarbiyalash masalalariga kompleks yondashildi.

Aholining huquqiy bilimlarining yetarli emasligi, shuningdek davlat organlarining noqonuniy qarorlarni sudga shikoyat qilish imkoniyatidan amalda foydalana olmasligi fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlari mansabdor shaxslar tomonidan kamsitilishi holatlarining yuzaga kelishiga olib keldi.

Bundan tashqari, bugungi globallashuv va ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida huquqiy ong va madaniyatni oshirishda innovatsion usullar, ilg‘or va samarali targ‘ibot vositalari, xorijiy mamlakatlarning bu boradagi ijobiy tajribasi yetarli darajada qo‘llanilmadi.

Birinchidan, davlatimiz rivojlanish istiqbollari har tomonlama bilimli va yuqori malakali yoshlar qo‘lida bo‘lib, bu ulardan yuksak darajadagi huquqiy ong va huquqiy madaniyatni talab etadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish, demokratik huquqiy davlat barpo etish, qonunchilikni mustahkamlash va qonun ustuvorligini qaror toptirish jarayoni aholining huquqiy ongining rivoji bilan chambarchas bog‘liqdir.[1]

Asosiy maqsadi yuqori darajada rivojlangan demokratik huquqiy davlat va

erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishni ko‘zlagan har qanday davlatning vazifasi fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish bo‘ladi. Chunki rivojlangan huquqiy ong va huquqiy madaniyat — huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining ajralmas belgilaridir.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuqori darajasi — huquqiy tarbiyaning mahsulidir. Huquqiy tarbiya esa aholining huquqiy ongini va huquqiy madaniyatini shakllantirishda markaziy o‘rin tutadi. Shu bois O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z chiqishlarida huquqiy madaniyatning ahamiyati va uni oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratadi.

Shu maqsadda 2019-yil 9-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5618-sonli “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni tubdan takomillashtirish tizimini tubdan isloh qilish to‘g‘risida”gi Farmoni[2] qabul qilindi. Unda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

a) mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mazmuni va mohiyatini aholiga muntazam yetkazib borish tizimini shakllantirish;

b) “Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish — demokratik huquqiy davlat barpo etishning garovi!” degan hayotiy g‘oyani fuqarolar ongida mustahkamlash;

c) yosh avlod ongida huquq va burch, halollik va poklik, etikaga oid normalarni chuqur singdirish, ularga Konstitutsiyaning muhim jihatlarini bolalikdan o‘rgatish;

d) davlat xizmatchilarining huquqiy ongini va huquqiy madaniyatini oshirish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik tuyg‘usini shakllantirish;

e) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining samaradorligini ta’minlash;

f) fuqarolik jamiyati institutlari bilan manzilli huquqiy targ‘ibotni amalga oshirishda hamkorlikni mustahkamlash;

g) ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta’minlashdagi rolini oshirish yo‘nalishlarini belgilab berish.

Ushbu Farmonda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish “inson – oila – mahalla – ta’lim muassasasi – tashkilot – jamiyat” tamoyili asosida tizimli va uyg‘un holda amalga oshirilishi lozimligi qayd etilgan.

Aholining huquqiy ongini va madaniyatini shakllantirishdagi mustaqillik sharofati bilan xalqimizning yangi huquqiy tafakkuri va yuksak ma’naviy salohiyati yangilangan Konstitutsiyamizda o‘z ifodasini topdi. Konstitutsiyamiz, bir tomondan, jamiyatning huquqiy ongining yuksak ifodasi bo‘lgan huquqiy tizim va huquqiy

mafkuraning mahsuli sifatida vujudga kelgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, aholining huquqiy ongini, yangi fikrlashini, madaniyatini shakllantirishning muhim omiliga aylangan.

Yangilangan Konstitutsiyamizda fuqarolarning huquqiy ongini va madaniyatini oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Chunki Konstitutsiyaning 50-moddasida[3] har bir insonning ta’lim olish huquqi belgilangan bo‘lib, davlat uzluksiz ta’lim tizimini, ta’limning turli shakllari va turlarini, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlarini rivojlantirishni ta’minlaydi; davlat maktabgacha ta’limni rivojlantirish sharoitlarini yaratadi; bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’limni kafolatlaydi; umumiy o‘rta ta’lim majburiy ekani va maktabgacha hamda umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratida bo‘lishi belgilangan; inklyuziv ta’limning ta’minlanishi ham mustahkamlab qo‘yilgan. 51-modda esa, fuqarolarning davlat oliy ta’lim tashkilotlarida davlat granti asosida oliy ta’lim olish huquqini kafolatlaydi, oliy ta’lim muassasalariga akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqot va o‘qitish erkinligi huquqini beradi. 52-moddada esa O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi mehnatining jamiyat va davlat rivojining, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalashning, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash va boyitishning asosi sifatida e’tirof etilishi mustahkamlangan.

Fuqarolarning yuksak huquqiy ongi va huquqiy faolligi — jamiyatda huquqning ustuvorligi va demokratik huquqiy davlatning poydevoridir. Fuqarolarning huquqiy ongini oshirish esa huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashning zaruriy shartidir. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabrdagi PP-4551-sonli “Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida[4] to‘g‘ri ta’kidlanganidek, “jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish — qonunchilikni mustahkamlashda, uni kun tartibidagi eng muhim vazifalardan biri sifatida qo‘yishda, har bir insonda qonun, inson huquq va erkinliklariga hurmatni shakllantirishda, shuningdek huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik muhitini yaratishda birlamchi ahamiyat kasb etadi.”

Har bir mutaxassis o‘z sohasi va kasbiga oid huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishi va ularni himoya qila olishi zarur. Shu sababli, professional kadrlarni huquqiy ong, huquqiy madaniyat va huquqiy bilimlar bilan qurollantirish — demokratik huquqiy davlat qurayotgan mamlakatning eng muhim vazifalaridan biridir. Jamiyatning har bir a’zosi o‘z huquq, majburiyat va mas’uliyatini bilib, ularni hayotiy ehtiyoj sifatida qabul qilmaguncha, bizning asosiy maqsadimizga erishish mushkul bo‘ladi.

Huquqiy madaniyat — murakkab va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, eng avvalo, muayyan darajadagi huquqiy ongni, ya’ni huquqiy haqiqatni ongli anglash va o‘zlashtirishni; umumiy madaniy asoslarni; yuksak madaniyatni; milliy qadriyatlar,

tarixiy xotira, urf-odat va an’analarni; aholining qonunlarni bilish darajasini; huquq normalariga hurmat va ularning obro‘sini; huquqiy faoliyatning samarali usullarini; huquq ijodkorligi, huquqni muhofaza qilish, boshqaruv organlari faoliyatini; fuqarolar va mansabdor shaxslarning qonunga rioya qilishini talab qiladi.

Jamiyatda huquqiy ong va madaniyat darajasini oshirish, shuningdek, ushbu sohada davlat siyosatini samarali amalga oshirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat va boshqa tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aholining huquqiy ongini va madaniyatini oshirishda OAVning jamoatchilik nazoratini ta’minlashdagi rolini kuchaytirish, ularning davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan aloqalarini mustahkamlash, pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, huquqiy madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari yo‘nalishlarini kengaytirish zarur. Shu bilan birga, oiladagi nizolar va zo‘ravonlik holatlarining ijtimoiy-huquqiy oqibatlarini kompleks o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shunday qilib, aholining huquqiy ongini va madaniyatini oshirish borasidagi ishlarning samaradorligini oshirish, ularning huquqiy bilimlarini yanada takomillashtirish maqsadida mamlakatimizdagi barcha oliy o‘quv yurtlarida huquq kafedralarini tashkil etish, ularda huquq, konstitutsiyaviy huquq, inson huquqlari kabi fanlarni yuqori darajada o‘qitishni yo‘lga qo‘yish, tele va radiokanallarda inson huquqlariga oid turkum ko‘rsatuvlar va dasturlarni muntazam yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, mamlakatimizdagi barcha pedagogika oliygohlarida yuridik fakultetlar tashkil etib, ularda yuridik-pedagogik kadrlarni tayyorlash zarur.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.12.2019 yildagi “Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”ги Qarori. PQ-4551-son // https://lex.uz/docs/-4647329

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.01.2021 yildagi “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori. 23-son // https://lex.uz/docs/-5234746

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // https://lex.uz/docs/-6445145

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”ги PF-5618-son Farmoni // https://lex.uz/ru/docs/-4149765

ЯНГИ ТАҲРИРДАГИ КОНСТИТУЦИЯДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ ТЎҒРИСИДАГИ ХАЛҚАРО ҲУЖЖАТ ҚОИДАЛАРИНИ АКС ЭТИШИ

Хусанов Азат Тиллабоевич,
Жамоат хавфсизлиги университети профессори,
юридик фанлар доктори, профессор

Аннотация. Мақолада Ўзбекистонда Конституциявий ислоҳотлар зарурлиги, Конституцияга ўзгартириш ва қўшимча киритиш сабаблари, киритилган ўзгаришлар ва қўшимчалар инсон манфаатларига ҳизмат қилиши, инсон қадр-қимматини ошириши ва халқаро ҳужжатлардаги умуминсоний принцип ҳамда қоидаларни Конституцияда янада кенгроқ қамраб олиш кераклиги кўрсатилган.

Бу йил инсоният тақдирига қатта таъсир қилган, жаҳонда тинчликни сақлаш, шу туфайли инсон ҳаёти, қадр-қимматини ҳимоя қилиб келинаётган халқаро ташкилот – Бирлашган Миллатлар Ташкилоти (БМТ) ташкил топганига 80 йил тўлди. Шу муносабат билан Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинган кунни нишонланишига бағишланган анжуманда БМТ ва у томонидан қабул қилинган ҳужжатларни Конституциямизда акс этиши масаласини жамоатчилик эътиборига тақдим этишни лозим топдик.

«Биз, Бирлашган Миллатларнинг халқлари, инсоннинг асосий ҳуқуқлари, инсон шахсининг қадр-қимматига, эркаклар ва аёлларнинг тенг ҳуқуқлилигига ҳамда катта ва кичик миллатлар ҳуқуқи тенлигига ишончимизни яна бир карра тасдиқлаб, БМТ уставини қабул қилишга ва БМТни тузишга азми қарор қилдик» [1]. Кўриниб турибдики БМТни тузилишининг бош ва асосий мақсади инсон ҳуқуқларини эътироф этиш, уларни тинчлигини таъминлашдир.

Шундан кейинги даврда демократик давлатлар Конституцияларида инсон ҳуқуқлари бош мақсадга айланди. Ҳозирда тоталитар тузум ҳисобланадиган Совет иттифоқи ва иттифоқ таркибидаги Республикаларда, жумладан, Ўзбекистон Совет Социалистик Республикаси Конституциясида ҳам инсон ҳуқуқлари белгиланди.

1991 йилда мустақилликка эришишимиз натижасида, Ўзбекистон халқи ўзи мустақил Конституциясини ишлаб чиқиш ва қабул қилиш имкониятига эга бўлди.

Янги, мустақил Конституция лойиҳасини ишлаб чиқишга киришилар экан, Конституциявий комиссия раиси, комиссия олдига қуйидаги вазифаларни қўйди:

- Конституциявий ривожланишнинг жаҳон тажрибасини ўрганиш;

- Бошқа мамлакатларнинг инсон ҳуқуқлари борасида, демократия қонунчилик соҳасида қўлга киритган ютуқларини ҳисобга олиш;

- Кенг халқ оммаси дилига яқин ва тушунарли бўлган сиёсий-ҳуқуқ ҳужжат яратиш [2].

Ана шу вазифаларни бажариш жараёнида инсон ҳуқуқларига тааллуқли халқаро хужжатлар – «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси», «Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги пакт» «Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги пакт» ва шу пактга илова қилинган «Факультатив протокол» чуқур ўрганилди.

1992 йил 8 декабрда қабул қилинган Конституциямизда халқаро тажрибадан келиб чиқиб инсон ҳуқуқлари «Шахсий ҳуқуқлар», «Сиёсий ҳуқуқлар», «Ижтимоий-иқтисодий ҳуқуқлар»га бўлиниб, алоҳида бобларда берилди ва ҳуқуқ-эркинликларнинг кафолатлари учун алоҳида боб ажратилди. Ҳудди, шунингдек, фуқаролар бурчлари учун ҳам алоҳида боб ажратилди [3]. Энг муҳими бирорта ҳуқуқни амал қилиши иттифоқ даврдагидек давлат манфаатларига боғланмади. Ҳуқуқларни белгилашда инсон манфаатини устуворлиги амал қилди.

Конституциямизда биринчи марта, аввалги конституциямизда бўлмаган, «яшаш ҳуқуқи», «ишни судда кўриб айби исботланмагунча айбдор деб ҳисобланиш мумкин эмаслиги», «инсонларда ўзини розилигисиз тиббий ёки илмий тажрибалар ўтказиш мумкин эмаслиги», «мулкдор бўлиш ҳуқуқи», ҳуқуқлар киритилдики, бу инсонни қадри, шаънини, жамиятда муносиб ҳаёт кечиришининг кафолати ҳам эди.

1992 йилги Конституциямизда халқаро ҳужжат қоидаларидан фойдаланганимизни инкор этиб бўлмайди. Жамият ривожланиши, кишилар онгини ўсиши, уларнинг талаб эҳтиёжларини кенгайиши давом этмоқда. Инсон қадри, шаъни жамиятда устувор масала бўлиб қолмоқда, бу Конституциямиздаги инсон ҳуқуқларини янада кенгайтириш, бунда халқаро ҳужжатлар ва тажрибадан фойдаланиш заруратини туғдиради. Шу масала 2023 йилда янги таҳрирда Конституция қабул қилишга туртки бўлди.

Конституциявий ислоҳот, Конституцияга ўзгартириш киритиш зарурлиги, ўзгартириш ва қўшимчалар асослари Призедент Ш.Мирзиёевнинг 2022 йил 20 июнда Конституция комиссия аъзолари билан учрашувдаги нутқида баён қилинди [4].

Унда инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро ҳужжатлар, умум эътироф этилган тажрибаларни, тартибларни Конституция нормаларида мустаҳкамлаш уқтирилди. Жумладан, Конституциямизда халқаро ҳужжатларда қайд этилган «Миранда қоидасини», «Хабеас корпус» институтини белгилаш зарурлиги, инсонга нисбатан қўлланиладиган ҳуқуқий таъсир чорасини қонуний мақсадга

эришиш учун етарли бўлишини, фуқароларни ишга қабул қилишда қариндошларини судланганлигини эътиборга олинмаслиги ҳақидаги қоидаларни бўлишлиги мақсадга мувофиқ бўлиши кўрсатиб ўтилди.

Бу кўрсатмалар янги таҳрирдаги Конституциямизда ўз ифодасини топди. Яна халқаро ҳужжатлар таъсирида Конституциямизда, ҳомиладор ва ёш болали аёлларни ишга олишни рад этишни тақиқловчи қоида белгиланди.

Шунингдек, Конституциямизда,

- Инсон ҳуқуқ ва эркинликлари бевосита амал қилади. Инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликлари қонунларнинг, давлат органлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, уларнинг мансабдор шахслари фаолиятининг моҳияти ва мазмунини белгилайди;

- Давлат органлари томонидан инсонга нисбатан қўлланиладиган ҳуқуқий таъсир чораларни мутаносиблик принципига асосланиши керак ва қонунларда назарда тутилган мақсадларга эришиш учун етарли бўлиши керак;

- Инсон билан давлат органларининг ўзаро муносабатларида юзага келадиган қонунчиликдаги зиддиятлар ва ноаниқликлар инсон фойдасига талқин этилади;

- Ҳар бир инсон ўз шахсини эркин камол топтириш ҳуқуқига эга. Ҳеч ким унинг розилигисиз қонунчиликда белгиланмаган мажбурият юклатилиши мумкин эмас – деган қоидалар халқаро ҳужжатларга тўла мосдир.

Янги таҳрирдаги Конституцияда XI бобни «Иқтисодий, ижтимоий, маданий ва экологик ҳуқуқлар» – деб айтилишини ўзи ҳам Конституциямизда халқаро ҳужжатларнинг таъсирини кучайганлигини кўрсатади. Фақат Конституциянинг бобининг номи ўзгармади. Унда фуқароларнинг экологияга боғлиқ ҳуқуқлари, маданий ютуқлардан фойдаланиш ҳуқуқлари асосий ҳуқуқ сифатида ўз ўрнини топди.

Констиуциямизда халқаро ҳуқуқ нормалари устуворлиги эътироф этилди ва халқаро шартномалар, халқаро ҳуқуқнинг умумэътироф этилган принципи ва нормаларни миллий ҳуқуқ тизимининг таркибий қисми бўлиши белгилаб қўйилди.

Халқаро ҳужжатларда фуқароларга фақат ҳуқуқ ва эркинликлар берилиши билан чекланилмай, ҳуқуқ ва эркинликларни чеклаш масаласига ҳам эътибор берилган. Ана шу қоида ҳам Конституциямизга киритилди, унга асосан “Инсонни ҳуқуқ ва эркинликлари фақат қонунга мувофиқ ва фақат Конституциявий тузимни, аҳолини соғлиғини, ижтимоий ахлоқни, бошқа шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиши, жамоат хавфсизлигини ҳамда жамоат тартибини таъминлаш мақсадида зарур бўлган доирада чекланиши мумкин”.

Янги таҳрирдаги Конституцияга халқаро ҳужжат қоидалари асосида нафақат шахсий, иқтисодий, ижтимоий, маданий, экологик ҳуқуқлар, сиёсий ҳуқуқлар ҳам киритилди.

Буни Конститусиянинг 37-моддасида кўришимиз мумкин. Унга асосан «Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари давлат хизматига киришда тенг ҳуқуқга эга. Давлат хизматини ўташ билан боғлиқ чекловлар қонун билан белгиланади». Бу қоида давлат бошқарувининг муҳим институти фуқаролик хизмати янада ривожланишини таъминлайди.

Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро хужжатларининг таъсирини, Конституциямизнинг «Инсон ҳамда фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари кафолатлари» бобида ҳам кўриш мумкин. Конституциямизнинг 54-моддасида мустаҳкамланган «Инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш давлатнинг олий мақсадидир» деган қоида ҳуқуқ ва эркинликларни рўёбга чиқаришда энг кучли воситадир.

Давлатчилик тажрибаси кўрсатадики, инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини Конституцияда ёзиб қўйилиши ўзи масалани ҳам қилмайди. Ёзиб қўйиш энг осон иш. Ҳуқуқ ва эркинликларни амалга ошириш, рўёбга чиқариш, таъминлаш, муҳим ва қийин иш. Бунга сиёсий иродасиз, етарли маблағсиз, тўғри ёндашувсиз эришиш қийин. Совет даврдаги Конституцияларда ҳам ҳуқуқ ва эркинлар белгиланган, мустаҳкамланган эди. Лекин уларни амалга ошириш қийин кечган, шунинг учун бу масалага яъни ҳуқуқ ва эркинликларни таъминлашга янги таҳрирдаги Конституцияда алоҳида ёндашилди. Аввалги Конституцияда ҳуқуқ ва эркинликлар кафолати 4 та модда ва 4 та нормада мустаҳкамланган бўлса, янги таҳрирдаги Конституцияда кафолатлар 5 та модда ва 14 та нормада белгиланди ва уларда халқаро ҳуқуқ ҳужжатлардаги ҳолатлар ўз ифодасини топди. Уларга асосан ҳар бир шахс ўз ҳуқуқ ва эркинликларини қонунда тақиқланмаган ҳар қандай воситалар билан ҳимоя қилишга ҳақли. Бу қоида жаҳонда эътироф этилган «қонун билан тақиқланмаган ҳамма нарсани қилиш мумкин» – деган қоидани амалий ифодасидир.

Кафолатлар тизимига аввалгидек фақат судга шикоят қилиш ҳуқуқи эмас, ҳар ким бузилган ҳуқуқ ва эркинликларни тиклаш учун, иши қонунда белгиланган муддатда ваколатли, мустақил ҳамда холис суд органи томонидан кўриб чиқилиши ҳуқуқига, тегишли жараёнлар ўтгандан сўнг ҳуқуқни ҳимоя қилувчи халқаро ташкилотларга мурожаат қилиш ҳуқуқи киритилди. Шунингдек, ҳар бир шахс қонунга хилоф ҳаракатлар ёки ҳаракатсизлик орқали ўзига етказилган зарарли ўрнини давлат томонидан қоплаш имкониятига эга бўлди.

Фуқаро ҳуқуқларини ҳимоялаш тизимида инсон ҳуқуқлари бўйича миллий институтларнинг мавжудлиги уларнинг иштирокини Конституциявий даражада белгиланиши халқаро хужжатлар ва халқаро амалиётга мос иш бўлди.

Конституциянинг ҳуқуқ ва эркинликларни кафолатлар тизими:

- Давлат аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қисмини турмуш сифатини оширишга, жамият ва давлат ҳаётида тўлақонли иштирок этиши учун уларга шарт-шароит яратишга ҳамда уларнинг асосий ҳаётий эҳтиёжларини мустақил равишда таминлаш имкониятини кенгайтириш чораларини кўриш;

- Давлат ногиронлиги бўлган шахсларнинг ижтимоий, иқтисодий ва маданий соҳалар объектлари ва хизматларидан тўлақонли фойдаланиши учун шарт-шароитлар яратиш, уларнинг ишга жойлашишга, таълим олишга кўмаклашиши, уларга зарур бўлган ахборотларни тўсқинликсиз олишга имконият яратиш;

- Давлат хотин-қизлар ва эркакларга жамият ҳамда давлат ишларини бошқаришда шунингдек, жамият ва давлат ҳаётини бошқа соҳаларида тенг ҳуқуқ ва имкониятлар билан таминлаши каби муҳим қоидалар билан бойитилди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. «Инсон ҳуқуқлари тўғрисида халқаро билль» Т.: «Адолат», 1992 йил

2. Мустақил Ўзбекистон Тарихи.: 3-том, «Шарқ», 2000 йил 59-бет.

3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси Т.: «Ўзбекистон», 1992 йил.

4. Ш.Мирзиёев. Конституциявий ислоҳотларимизнинг бош мақсади – инсон қадри, халқ манфаатини амалда таъминлашдир. Халқ сўзи. 2022 йил 21 июнь.

5. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.: «Ўзбекистон», 2023 йил.

KONSTITUTSIYA - FUQAROLAR HUQUQ VA ERKINLIKLARINI KAFOLATLOVCHI ASOSIY QONUN!

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
boshlig‘i o‘rinbosari, y.f.d., professor

Mamlakatda fuqarolar olib borilayotgan islohotlarga o‘z qarashlarini, fikr va mulohazalarini erkin bildirishlari tabiiy. Qayd etish lozimki, Konstitutsiyaviy yangilanishlarga hamma ham birdayin munosabatda bo‘lishmaydi, ba’zilar xayrixoh, ba’zilar esa e’tirozli fikrlarini ilgari surishmoqchi bo‘lishadi. Darhaqiqat, har kimning zikri, fikri o‘zgacha. Hozirgi kunning dolzarb masalasi ham yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning kelgusidagi amalda ijrosi qanday bo‘lar ekan, degan turli fikrlar maydoni bilan boyigan desak yangilishmagan bo‘lamiz. Konstitutsiya nima uchun kerak, tabiiy savol?- Konstitutsiya orqali davlat o‘z boshqaruvini yengillashtiradi,

ya’nikim inson, jamiyat, davlat o‘rtasidagi o‘zaro huquq va majburiyatlar umumlashadi hamda huquqiy tartibga solinadi.

Nazarimizda, Konstitutsiya doimiy o‘zgarishda, yangilanishda bo‘lishi lozim. Agarda u hayotiy munosabatlardan ortda qoladigan bo‘lsa, o‘zining yuridik kuchi va ta’sirini ham yo‘qotadi. Darhaqiqat, har bir fuqaromiz bilishi lozimki Konstitutsiya uning hayotida to‘siq bo‘ladigan muammolarni to‘g‘ridan - to‘g‘ri hal qiladigan, uning huquq va erkinliklarini ta’minlab beradigan, uning haqiqiy ma’noda huquqiy himoyachisi bo‘ladigan Asosiy qonun ekanligini anglashlari lozim. Konstitutsiyadan eng avvalo, har bir fuqaroning o‘zi bevosita manfaatdor ekanligi, uning har bir qoidasini bilishi va tushunishi kelajakda har qanday yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlarni yengib chiqishida asosiy ko‘makchi bo‘lishini his qilishlari lozim.

E’tibor qaratadigan bo‘lsak, dunyo Konstitutsiyalari doimiy yangilanishlar mavjida rivojlanib boradi, muhim hayotiy munosabatlarni, insonlarning yangi huquq va majburiyatlar tizginini tartib solib boradi. Shu o‘rinda, AQSh Mustaqillik deklaratsiyasi asoschilaridan biri Tomas Djeffersonning qiziq bir mulohazasi diqqatimizni e’tiborga tortadi, ya’ni uning taxminicha har 19 yilda Konstitutsiyalar o‘zgarishi kerak, negaki shu vaqt orasida qariyb aholining yarim qismi yangilanadi va amaldagi Konstitutsiya uning qiziqishlarini to‘liq qamrab ololmaydi. Nima deya baholaysiz, xulosa chiqarish o‘zingizdan!

Tahlillar shuni ko‘rsatiyaptiki 10 ta davlatda doimiy tarzda Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib borilmoqda. Bularga: Meksika, Yangi Zelandiya, Braziliya, Shveysariya, Avstriya, Isroil, Chili, Kolumbiya, Gruziya hamda Hindiston davlatlaridir. Deyarli, hozirgi kunda Konstitutsiyasi o‘zgarmay qolgan davlatlar deyarli uchramaydi.

Ta’kidlash joizki, Konstitutsiya 1992-yilda qabul qilinganidan buyon unga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalarning qariyb barchasi asosan **davlat va jamiyat qurilishi**, jumladan Parlament, Prezident, Hukumat faoliyati, saylov tizimi, mahalliy boshqaruv, sud va boshqa organlar faoliyatiga taalluqli bo‘lgan.

Qayd etish lozimki, yangi tahrirda qabul qilinishi kutilayotgan Konstitutsiya O‘zbekiston tarixida ilk bora referendum yo‘li bilan qabul qilinishi nazarda tutiliyapti. Ya’ni, demokratiyaning eng yuqori ko‘rinishi bo‘lmish xalqning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishi, fuqarolarning o‘z ovozini erkin bildirish orqali amalga oshiriladi.

Darhaqiqat, Konstitutsiyaning moddalari amaldagi 128 tadan 155 taga ko‘payib, normalari 275 tadan 434 taga oshgani, ya’ni, Asosiy qonunimizning 65 foiz matni xalqimiz takliflari asosida yangilangani, Konstitutsiyaviy qonun loyihasini yangi tahrirdagi Konstitutsiya sifatida qabul qilish uchun barcha asoslar yetarli ekanligini ta’kidlab o‘tishimiz lozim deb o‘ylayman.

O‘z navbatida, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilishi **taklif etilayotgan normalarning yarmidan ko‘pi insonning huquq va erkinliklarini** himoya qilishning kafolatlarini kuchaytirish va mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan.

Endi kirish so‘zdan keyin bevosita **30-aprel** sanasiga qo‘yilgan yangi tahrirdagi Konstitutsiya matnida belgilangan normalarning yuridik jihatlariga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, bu ko‘plab huquqiy asoslar bilan boyitilganligining guvohi bo‘lamiz. Konstitutsiya matnining Muqaddima qismida, inson huquq va erkinliklari, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat, adolatli jamiyat,insonparvar demokratik davlat, xalqaro huquqning umume’tirof etilishi kabi yuridik mohiyatni anglatuvchi qoidalarga ko‘zimiz tushadi.

Davlatning asosiy o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlaridan biri ham huquqiy mohiyatni maqsadga singdirishdir!

Mamlakatni demokratik yangilash, inson huquqlari va erkinliklari ishonchli himoyasining eng muhim kafolatlari sifatida **Konstitutsiya** va qonun **ustuvorligini** ta’minlashning **Konstitutsiyaviy mexanizmlari** sezilarli darajada **mustahkamlandi.**

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning **1-moddasida** [2], davlatning asosiy maqsadiy yo‘nalishini ko‘rsatib beradigan norma keltiriladi, ya’ni davlatning **huquqiy davlat** ekanligi. **Huquqiy davlat** degani bu – Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga asoslangan davlatdir. Huquqiy davlatda mansabdor shaxslar hokimiyatni xohlaganicha o‘zlashtira olmaydi, o‘zi bilganicha qarorlar qabul qila olmaydi. Bunda barcha davlat organlari faqat qonunda belgilangan vakolatlardan kelib chiqib harakatlanadi.

Huquqiy davlatda barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi ta’minlanadi. Ko‘plab xorijiy mamlakatlar Konstitutsiyalarida huquqiy davlat tushunchasining bevosita mustahkamlanganini kuzatishimiz mumkin. **Xususan, Rossiya, Ozarbayjon, Portugaliya, Qozog‘iston, Fransiya, Turkiya** kabi davlatlar Konstitutsiyalarida huquqiy davlat, qonun ustuvorligiga rioya etish kabi qoidalar bevosita mustahkamlangan.

Huquqiy davlatning shakllanganini quyidagi belgilar bilan izohlashimiz mumkin:

birinchidan, Konstitutsiya va qonunning ustunligi; ***ikkinchidan,*** inson huquq va erkinliklariga rioya etish, ularni himoya qilish va ta’minlash; ***uchinchidan,*** fuqaro va davlatning o‘zaro mas’ulligi; ***to‘rtinchidan,*** amalda hokimiyatlar bo‘linish prinitsipining ta’minlanishi; ***beshinchidan,*** sudlarning mustaqilligi; ***oltinchidan,*** huquqiy ong va madaniyatning yuqori darajada ekani va boshqa belgilarni qo‘rsatib o‘tish mumkin.

Bizning nazarimizda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 15-moddasida belgilangan, Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga ega bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal

qilishi va mamlakatning butun hududida qo‘llanilishi normasi huquqiy davlatning muhim va asosiy ko‘rinishlaridan biri desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Konstitutsiya normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlashi masalasi Konstitutsiyaviy islohotlarning eng muhim va dolzarb vazifasi hisoblanadi. Negaki, Konstitutsiyada mavjud bo‘lgan normalar jamiyatdagi muhim muammolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solsagina, inson manfaatlariga xizmat qilsagina, uning yuridik kuchi, ta’siri seziladi va e’tirof etiladi. Konstitutsiyaviy islohotlarning eng muhim maqsadlaridan biri ham xalqning Konstitutsiyaga bo‘lgan ishonchini kuchaytirish hamda Konstitutsiyaviy yo‘l bilan ularning hayotiy masalayu, muammolarini hal etishdir.

Konstitutsiyaning mamlakat hayotida bevosita amal qilishini uchta xususiyatga qarab baholashimiz mumkin. ***Birinchidan,*** fuqaroning Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklaridan to‘g‘ridan - to‘g‘ri foydalanishi; ***ikkinchidan,*** barcha subyektlarning Konstitutsiyada belgilangan talab va majburiyatlarga rioya qilishi***; uchinchidan,*** vakolatli davlat organlarining Konstitutsiyaviy normalarini qo‘llashi va ijrosini ta’minlashi lozim, ayniqsa sud organlarining roli keskin kuchayishi lozim.

Bu esa, fuqarolarimiz uchun o‘z huquqlarini bevosita himoya qilish imkoniyatini beradi; sudlar inson huquqlarini himoyasiga oid muayyan ishlarni ko‘rayotganda Konstitutsiyadagi inson huquqlariga oid normalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash imkoniyatini yaratadi; barcha darajadagi davlat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslari o‘z faoliyatida inson huqulariga bevosita amal qilishi qoidasiga rioya qilish shartligi mas’uliyatini his qiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 20-moddasida, fuqaro va davlat o‘rtasida o‘zaro huquq va majburiyatlarni belgilash, insonning huquq va erkinliklarining bevosita amal qilishi, huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipi, qonunchilikdagi noaniqlar inson foydasiga hal etilishi kabi muhim qoidalar tizimlashtirilgan holda belgilandi. Bu nihoyatda muhim qoidalar hisoblanadi, ya’ni inson huquq va erkinliklarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, mansabdorlar shaxslar tomonidan o‘z faoliyatida inson huquq va erkinliklarga rioya qilish va uni himoya qilish oliy maqsadga ko‘chayotganligi, so‘zimizning ayni isboti bo‘layotganligidan dalolat beradi.

Misol tariqasida, Germaniya Konstitutsiyasining 1-moddasida aytiladiki, quyida, ya’ni keyingi moddalarda sanab o‘tiladigan asosiy huquqlar qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati uchun bevosita amal qiladigan huquq sifatida majburiydir, deb belgilab qo‘yilgan. YA’ni, fuqarolarning asosiy shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy huquqlarini nazarda tutadi.

Mazkur moddagi yangi normalar davlat organlari, mansabdor shaxslar qarorlari va faoliyatida qo‘llanilgan huquqiy ta’sir choralari ko‘zlangan qonuniy maqsadga erishish uchun mos va yetarli bo‘lishi hamda manfaatdor shaxslarga imkon qadar qiyinchilik tug‘dirmasligi, kimgadir ortiqcha majburiyat yoki xarajat yuklashi mumkin

emasligi, insonlarga moddiy va ma’naviy ziyon yetkazilmasligini oldini olishga xizmat qiladi

Huquqiy davlatda barcha munosabatlar aniq qoidalar bilan tartibga solingan bo‘lishi kerak. Ammo hayotda shunday vaziyatlar yoki holatlar vujudga kelishi mumkinki, davlat va inson o‘rtasidagi ayrim munosabatlarning yechimi qonunchilikda ko‘rsatilmagan yoki noaniqliklarga sabab bo‘lishi aniq. Mana shunday holatlarda muammo kimning foydasiga va qanday tartibda hal etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday holatda

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 20-moddasida belgilanganidek, “Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinadi”[2].

Deylik, Soliq kodeksining o‘zida muayyan bir masala yuzasidan turlicha norma belgilangan bo‘lishi yoki tadbirkorlikka oid bitta qonunda boshqa norma, ikkinchi qonunda boshqacha norma belgilangan bo‘lishi mumkin. Bunday nomuvofiqlikni, tabiiyki, soliq organi davlat foydasiga, fuqaro esa o‘z foydasiga talqin qilinishini xohlaydi. Konstitutsiyaga kiritilayotgan norma esa shunday nomuvofiqliklar davlat emas, inson foydasiga hal etiladi, degan qat’iy normani aniq-ravshan mustahkamlaydi.

Amaldagi Konstitutsiyamiz normalariga e’tiborimizni qaratsak, ko‘p qoidalar umumiy tarzda ifodalanganligini ko‘ramiz. Ya’ni, fuqarolarning o‘z huquqlarini amalga oshirishda, himoyalashda aniq belgilangan qoidalarni kamroq uchratish mumkin. Shu maqsadda ham, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga tegishli normalarni kiritishning hayotiy zarurati paydo bo‘ldi. Misol tariqasida, O‘zbekistonda o‘lim jazosini taqiqlash; “Miranda qoidasi”ni qo‘llash, ya’ni, shaxsni ushlash chog‘ida uning huquqlari va nima sababdan ushlangani sodda tilda tushuntirilishi shartligi; shaxs sudning qaroriga qadar ko‘pi bilan qirq sakkiz soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emasligi; inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi; mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanish kabi yangi normalarni ko‘rsatib o‘tish lozim. Bu normalar so‘zsiz, fuqaroning kunlik hayotida duch keladigan muammolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solishga qaratilgandir. Shu maqsadda ham mazkur muammolarning yechimini Konstitutsiya darajada mustahkamlab qo‘yilishi, nihoyatda dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda sudlanganlik fakti nafaqat unga, balki uning oila a’zolari, qarindoshlari hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatish holatlari ba’zan uchrab kelmoqda edi. Hech bir holatda inson o‘zining yaqinlari yo‘l qo‘ygan xatolar uchun javob berishi mantiqan oqlab bo‘lmaydigan holatdir! Shu maqsadda ham mazkur salbiy illatning oldini olish maqsadida, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 28-moddasida [3], shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning

qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lmasligi kerakligi, qat’iy belgilab qo‘yildi.

Yoki bo‘lmasa, ilgari propiska deganda ko‘pchiligimizning yodimizga ish topa olmagan va chet elga ketgan minglab malakali kadrlar, o‘z uylarini boshqa odamlarning nomlariga rasmiylashtirgan fuqarolar, propiska uchun tuzilgan soxta nikohlar, qonunni chetlab o‘tish bilan bog‘liq korrupsiya hodisalari keladi. Buning orqasida qanchadan qancha iqtidorli kadrlar o‘z qobiliyatini ko‘rsatolmay, o‘z kasbiy xohish istagidan chetda qolib ketgan. Shu maqsadda ham mazkur illatlar umuman bo‘lmasligin kafolatlash maqsadida ham yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 32-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy asoslarda bo‘lib turgan har bir shaxs respublika hududi bo‘ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini erkin tanlash huquqiga egaligi belgilab qo‘yildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 47-moddasi ikkinchi qismi bilan uy-joy mulkdorlariga nisbatan 2 turdagi muhim Konstitutsiyaviy kafolat belgilandi: sud kafolati va uy-joydan mahrum etilganda teng qiymatda kompensatsiya olish kafolati. Sud kafolati uy-joyga nisbatan mulk huquqi sud qarorisiz mahrum etilishiga yo‘l qo‘yilmasligini anglatadi. Teng qiymatda kompensatsiya olish deganda mulkdorga olib qo‘yilgan mol-mulkka teng qiymatli mol-mulk berilishi va uning ko‘rgan boshqa zararlari to‘lanishi yoki mulk huquqi bekor qilinishi bilan yetkazilgan zarar to‘la hajmda qoplanishini tushunishimiz zarur. Demak, endi davlat istalgan tadbirkor yoki fuqaroning mulkini “snos” bahonasida buzishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Davlat ehtiyoji uchun olinishi ko‘zda tutilgan hududlar esa mulk egasi rozi bo‘lgan va kompensatsiya to‘liq qoplab berilgandan keyingina buzilishi nazarda tutilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning beshinchi bo‘limida ham yangi normalar bilan uyg‘unlashgan o‘zgarishlar amalga oshirildi:

Ta’kidlash lozimki, inson huquq va erkinliklari bilan ko‘plab normalar mustahkamlash mumkindir, ammo mazkur huquqlarni ta’minlash hamda kafolatlash albatta davlat orgalarining zimmasiga katta mas’uliya va javobgarlikni yuklaydi. Shu maqsadda, shunga mos tarzda davlat organlarining vakolat va funksiyalarini muvofiqlashtirish, kengaytirish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etdi. ***Bu o‘zgarishlarni quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:***

Birinchidan, Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan ma’muriy islohotlarning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, parlamentning yuqori palatasi – **Senat faoliyati takomillashtirildi**, shuningdek parlamentning quyi palatasi – **Qonunchilik palatasining** vakolatlari kuchaytirildi. Ta’kidlash lozimki, bu normalar, Qonunchilik palatasi va Senatining mas’uliyati sohalarini ajratish, ularning faoliyatidagi parallellikni va bir-birini takrorlashni istisno etish maqsadida kiritildi. Ilgari Konstitutsiyada Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari **5** ta vakolatdan iborat

bo‘lsa, yangi tahrirdagi tuzatishlarga ko‘ra ularning soni **12** taga oshdi. Senatning mutlaq vakolatlari amaldagi **14** tadan **18** taga ko‘paydi. Mazkur o‘zgarishlarni quyidagi ba’zi bir misollarda ko‘rib o‘tishimiz mumkin:

Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqish va ma’qullash Qonunchilik palatasining mutlaq vakolati sifatida mustahkamlandi; Davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish; Vazirlar Mahkamasining har yilgi ma’ruzasini eshitish; Bosh vazirning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish to‘g‘risidagi hisobotini eshitish va boshqa vakolatlar **Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari** sifatida belgilandi. **Senatning huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari, maxsus xizmatlar faoliyati ustidan** nazorat funksiyasi kuchaytirildi**.** Xususan, Bosh prokuror va Hisob palatasi raisi **Senat ma’qullaganidan keyin,** Davlat xavfsizlik xizmati raisi esa, **Senat bilan maslahatlashilgandan keyingina** Prezident tomonidan tayinlanish tartibi joriy etildi. **Senat a’zolari soni 100** nafardan **65** nafargacha optimallashtirilib, ular **14** ta **hududdan** teng miqdorda **4 nafardan** Jo‘qorgi Kenges va mahalliy Kengashlar majlislarida deputatlar orasidan saylanadi, Senatning **9 ta a’zosi** bevosita **Prezident tomonidan** tayinlanishi **kabi** yangi qoidalar shular jumlasidandir.

Ikkinchidan, Hukumatning **Oliy Majlis va Prezident** oldidagi mas’uliyatini kuchaytirish hisobiga Vazirlar Mahkamasining mas’uliyat va javobgarligi sezilarli darajada kuchaytirildi, Hukumatning maqomi o‘zgardi, parlament quyi palatasining Hukumatni shakllantirishdagi ishtiroki kengaytirildi. Endilikda, **Bosh vazir nomzodi** Prezident ko‘rib chiqishi uchun parlamentga saylovda eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini olgan siyosiy partiya tomonidan taklif etilishi to‘g‘risidagi Konstitutsiyaviy norma bekor qilindi hamda mazkur qoida o‘rniga ilg‘or xorijiy amaliyotni inobatga olgan holda, Bosh vazir va Hukumat a’zolarini Qonunchilik palatasi ma’qullaganidan keyin Prezident tomonidan tayinlash tartibi o‘rnatildi.

Bu yerda, Bosh vazir nomzodi Prezident tomonidan quyi palatadagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o‘tkazilganidan so‘ng taklif etilishi belgilandi. Shuningdek, Hukumat zimmasiga **ijro etuvchi hokimiyat organlari** ishida **ochiqlik** va **shaffoflikni**, qonuniylik va samaradorlikni ta’minlash, davlat xizmatlarining sifati va qulayligini oshirish, aholini, shu jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash vazifalari Konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlandi***(115-modda)***.

Konstitutsiyaviy islohotlarda muhim bir konseptual o‘zgarishga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, endilikda **viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari mahalliy Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi** to‘g‘risidagi norma qat’iy belgilab qo‘yildi [4]. Endilikda, mahalliy hududlarda ikkita alohida mustaqil tuzilmaga bitta shaxsning rahbarlik qilishiga Konstitutsiyaviy jihatdan chek qo‘yildi.

Uchinchidan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaviy normalar bilan sudyalar mustaqilligi, odil sudlov tizimini demokratlashtirishning Konstitutsiyaviy asoslari Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim shartlari sifatida sezilarli darajada **mustahkamlandi**. Sudyalar daxlsiz va muayyan ishlar bo'yicha hisobdor bo'lmasligi, davlat sudyaning va uning oila a'zolarining xavfsizligi ta'minlanishi belgilanmoqda ***(136-modda).***

Alohida qayd etish lozimkki sudlarning faoliyatini moliyalashtirish faqat d**avlat byudjetidan amalga oshirilishi** hamda u odil sudlovni to'liq va mustaqil amalga oshirish imkoniyatini ta'minlashi kerakligi to'g'risidagi norma ***(140-modda)*** va boshqa muhim bo'lgan qoidalar mustahkamlab qo'yilmoqda. Shuningdek, Konstitutsiyaviy sudning vakolatiga taalluqli masalalar doirasi kengaytirilmoqda va aniqlashtirilmoqda, **uning sudyalari faoliyatining kafolatlari kuchaytirilmoqda.** Endilikda, Konstitutsiyaviy sudga **referendumga chiqarilayotgan masalalarning** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risida xulosa berishi vakolati belgilanmoqda. Bu albatta, Konstitutsiyaviy sud faoliyatidagi mas'uliyatning oshayotganligidan dalolat beradi.

To'rtinchidan, Konstitutsiyaga **advokatura institutiga** bag'ishlangan va **advokatlar faoliyatining kafolatlarini** mustahkamlovchi alohida bob kiritildi ***(XXIV bob)***. Kelgusida advokatlar faoliyatini mustaqil va erkin tarzada faoliyat olib borishini yanada mustahkamlash borasida quyidagi yangi normalar mustahkamlab qo'yildi: Advokatura faoliyati **qonuniylik**, **mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish** prinsiplariga asoslanishi ***(141-modda)***; advokat o'z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning **faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmasligi**; advokatga o'z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanishi; advokat, uning sha'ni, qadr-qimmati va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'ladi va qonun bilan muhofaza qilinishi ***(142-modda)***. kabi muhim qoidalardir. Albatta, mazkur yangi kafolatlovchi normalar advokatlar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqadi desak, yangilishmagan bo'lamiz.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, bu Konstitutsiyaviy o'zgarishlar olib borilayotgan islohotlarning boshlanishi, eng muhimi bu yangi qoidalar inson, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni to'g'ridan- to'g'ri tartibga solishda o'z kuchi va salmog'ini ko'rsatishi lozim bo'ladi. Qolaversa, xalqimizning Konstitutsiyaviy islohotlarga bo'lgan ishonchini yanada orttirib borish zarur. Demakki, Konstitutsiyamizning tegishli normalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi, bu Konstitutsiyamizning majoziy ma'noda kuchsizlanishiga emas, aksincha, Konstitutsiyamizning yanada takomillashuviga, xalq manfaatlarining kafolatlanishiga hamda insonlarning hayotiy zarurati aks etishiga xizmat qiladi.

References:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент, “ Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот тизими, 2023 й. – Б.4.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент, “ Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот тизими, 2023 й. – Б.13.
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент, “ Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот тизими, 2023 й. – Б.18.
4. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент, “ Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот тизими, 2023 й. – Б.91.
5.

ЦЕННОСТНЫЙ ФУНДАМЕНТ ОБНОВЛЕННОЙ КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ БЕЛАРУСЬ: СИНТЕЗ ПРАВА И НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

Лемешевский Олег Олегович
«Военная академия Республики Беларусь»,
Старший преподаватель кафедры юридических дисциплин

Аннотация: В представленной статье осуществляется комплексный анализ новейших конституционных изменений в Республике Беларусь сквозь призму их ценностно-мировоззренческих оснований. Автор последовательно раскрывает тезис о том, что эволюция Основного Закона представляет собой не просто алгоритмичную технико-юридическую модернизацию, а целенаправленную конституционализацию национальной идентичности. В работе детально исследуется, как традиционные духовные ценности белорусского народа (историческая память, приверженность миру, семья как социальный институт, суверенитет) трансформируются в императивные правовые нормы.

Ключевые слова: Конституция Республика Беларусь, права и свободы, государственное устройство, всебелорусское народное собрание, историческая память, патриотизм, национальная идентичность.

Annotation: The presented article provides a comprehensive analysis of the latest constitutional changes in the Republic of Belarus through the prism of their value and ideological foundations. The author consistently reveals the thesis that the evolution of the Basic Law is not just an algorithmic technical and legal modernization, but a purposeful constitutionalization of national identity. The work examines in detail how the traditional spiritual values of the Belarusian people (historical memory, commitment to peace, family as a social institution, sovereignty) are transformed into imperative legal norms.

Key words: Constitution of the Republic of Belarus, rights and freedoms, state structure, All-Belarusian National Assembly, historical memory, patriotism, national identity.

Подавляющее большинство современных конституций закрепляют фундаментальные основы государственного строя, структуру и порядок функционирования органов власти, а также права и свободы человека и гражданина. Внесение изменений в конституционные нормы требует применения особой, усложнённой процедуры, которая коренным образом отличается от процесса принятия обычных законов.

Конституция выступает выражением идентичности и ценностей национального сообщества. Конституция закрепляет официальные символы государства, такие как флаг и гимн, а также провозглашает его основополагающие ценности, национальные нарративы и уникальную идентичность.

Три десятилетия конституционного развития суверенной Беларуси отражают динамичную эволюцию государства и общества. Этот путь сопровождался трансформацией правовых стратегий, направленных на обеспечение устойчивого роста экономики и социальной сферы. Не оставалась неизменной и Конституция Республики Беларусь, принятая в 1994 году. Уже в 1996 году, Основной Закон был существенно пересмотрен по итогам референдума и принят в новой редакции. Дальнейшие точечные корректировки вносились в 2004 и 2021 годах, подготавливая почву для более масштабной реформы.

«Мы вписали новую страницу в истории суверенной Беларуси. 27 февраля 2022 года состоялся республиканский референдум. Абсолютное большинство граждан поддержало предложенные конституционные поправки. А это значит, что событие войдет в учебники как очередная веха развития суверенной страны.

И очень символично, что обновленный Основной закон вступит в силу 15 марта - в День Конституции Республики Беларусь. Народ Беларуси сделал свой выбор. Выбор в пользу эволюционных преобразований политической системы. Демократично, в соответствии с нашими белорусскими законами. Народ проявил мудрость и национальную зрелость» – отметил Президент Республики Беларусь Александр Григорьевич Лукашенко на торжественной церемонии подписания Решения республиканского референдума 4 марта 2022 г [1].

Белорусская Конституция доказала свою жизнеспособность. Однако вызовы нового времени и потребности общественного развития обусловили

commitment to peace, family as a social institution, sovereignty) are transformed into imperative legal norms.

Key words: Constitution of the Republic of Belarus, rights and freedoms, state structure, All-Belarusian National Assembly, historical memory, patriotism, national identity.

Подавляющее большинство современных конституций закрепляют фундаментальные основы государственного строя, структуру и порядок функционирования органов власти, а также права и свободы человека и гражданина. Внесение изменений в конституционные нормы требует применения особой, усложнённой процедуры, которая коренным образом отличается от процесса принятия обычных законов.

Конституция выступает выражением идентичности и ценностей национального сообщества. Конституция закрепляет официальные символы государства, такие как флаг и гимн, а также провозглашает его основополагающие ценности, национальные нарративы и уникальную идентичность.

Три десятилетия конституционного развития суверенной Беларуси отражают динамичную эволюцию государства и общества. Этот путь сопровождался трансформацией правовых стратегий, направленных на обеспечение устойчивого роста экономики и социальной сферы. Не оставалась неизменной и Конституция Республики Беларусь, принятая в 1994 году. Уже в 1996 году, Основной Закон был существенно пересмотрен по итогам референдума и принят в новой редакции. Дальнейшие точечные корректировки вносились в 2004 и 2021 годах, подготавливая почву для более масштабной реформы.

«Мы вписали новую страницу в истории суверенной Беларуси. 27 февраля 2022 года состоялся республиканский референдум. Абсолютное большинство граждан поддержало предложенные конституционные поправки. А это значит, что событие войдет в учебники как очередная веха развития суверенной страны.

И очень символично, что обновленный Основной закон вступит в силу 15 марта - в День Конституции Республики Беларусь. Народ Беларуси сделал свой выбор. Выбор в пользу эволюционных преобразований политической системы. Демократично, в соответствии с нашими белорусскими законами. Народ проявил мудрость и национальную зрелость» – отметил Президент Республики Беларусь Александр Григорьевич Лукашенко на торжественной церемонии подписания Решения республиканского референдума 4 марта 2022 г [1].

Белорусская Конституция доказала свою жизнеспособность. Однако вызовы нового времени и потребности общественного развития обусловили кто

находится на территории страны. Таким образом, декларативный принцип обретает механизм защиты и реального действия [3].

Новая редакция Конституции Республики Беларусь демонстрирует глубокую имплементацию норм, основанных на уникальном духовном коде белорусского народа. Этот код, сформированный на фундаменте нравственных императивов человечности, миролюбия и сакрального статуса института семьи, нашел свое прямое и развернутое отражение в модернизации брачно-семейного законодательства.

В рамках данной парадигмы Конституция актуализирует свою роль в качестве ценностного ориентира, что проявилось в изменениях статьи 32, где отмечено, что брак определяется как союз мужчины и женщины, гарантируется принцип равенства прав супругов, а также закрепляется приоритет семейного воспитания детей. Таким образом, происходит не просто дополнение нормативного текста, а конституционализация традиционных семейных ценностей, что трансформирует их из области морально-этических предписаний в ранг, защищаемых на высшем законодательном уровне правовых принципов [3, ст. 32].

Ответом на опасные мировые тенденции – такие как забвение уроков Второй мировой войны, пересмотр истории и рост национализма – стало закрепление в Конституции Республики Беларусь специальных норм. Согласно части второй статьи 15, государство берет на себя обязанность сохранять историческую правду и память о героическом подвиге белорусского народа в годы Великой Отечественной войны. Эта норма напрямую связана с долгом каждого гражданина, закрепленным в статье 54, – хранить память о героическом прошлом. Таким образом, формируется единая система ценностей, объединяющая государство и общество [3, ст. 54].

Прошлое нашей страны – это не только пример высочайшего героизма, но и воплощение глубокой трагедии. Поэтому конституционное закрепление этих принципов имеет двойное значение. С одной стороны, это четкая правовая позиция Беларуси, которая не допускает искажения истории и обесценивания подвига предков. С другой – это важнейший воспитательный ориентир, который формирует у молодежи любовь к Родине, уважение к ее независимости, завоеванной ценой огромных жертв, и ответственность за ее будущее.

В соответствии со статьей 2 Конституции Республики Беларусь, человек, его права и свободы провозглашаются высшей ценностью и целью общества и государства. Данная конституционная максима получила свое последовательное развитие и конкретизацию в нормах раздела II Основного Закона, где комплекс прав и свобод личности структурирован в рамках трех ключевых групп: личных (гражданских), политических и социально-экономических, что формирует

сбалансированную систему гарантий человеческого достоинства и свободного развития каждого [3, ст. 2].

Эволюция конституционного регулирования в сфере экологических прав проявилась в конкретизации гарантий применительно к новым технологическим вызовам. Так, введение в часть третью статьи 46 специальной нормы, обеспечивающей право на благоприятную окружающую среду именно в контексте развития атомной энергетики, демонстрирует опережающий и адаптивный характер белорусского Основного Закона [3, ст. 46].

Проведенный анализ позволяет констатировать, что конституционная реформа в Республике Беларусь представляет собой последовательную и концептуально обоснованную модель развития Основного Закона. Обновленная Конституция не только сохранила преемственность в фундаментальных принципах государственного строя, но и стала адекватным ответом на современные вызовы, осуществив тонкую синхронизацию правовых норм с исторически сложившимся ценностным кодом белорусского общества.

Была осуществлена конституционализации традиционных семейных ценностей, создании механизмов защиты суверенитета и усилении экологических гарантий. Особую значимость имеет институализация Всебелорусского народного собрания, что демонстрирует развитие собственной модели народовластия.

Таким образом, Конституция Республики Беларусь утвердилась не только как юридический акт высшей силы, но и как важнейший социально-культурный феномен, выполняющий воспитательную функцию. Реализация конституционных положений будет способствовать сохранению исторической памяти и обеспечению устойчивого развития белорусского государства в условиях современных геополитических реалий.

References:

1. Торжественная церемония подписания Решения республиканского референдума, 4 марта 2022 г. [Электронный ресурс] // Официальный Интернет-портал Президента Республики Беларусь. – Режим доступа: https://president.gov.by/ru/events/torzhestvennaya-ceremoniya-podpisaniya-resheniya-respublikanskogo-referenduma#block-after-media-scroll/. – Дата доступа: 05.11.2025.

2. Чуприс, О. И. Изменения и дополнения Конституции Республики Беларусь: олицетворение самобытности Основного Закона и обновленной государственности / О. И. Чуприс // Право.by. – 2022. – № 2. – С. 5–13.

3. Конституция Республики Беларусь : с изм. и доп., принятыми на респ. референдумах 24 нояб. 1996 г., 17 окт. 2004 г. и 27 февр. 2022 г. – Минск : Национальный центр правовой информации Республики Беларусь, 2025. – 80 с.

СУВ БОЙЛИКЛАРИНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ АСОСЛАРИ

Турсунов Ойбек Ботирович,
юридик фанлар доктори (DSc)

Ўзбекистон Республикасининг Асосий қонуни нормаларида сув бойликларини асраб-авайлаш, улардан оқилона фойдаланиш, давлатнинг сув ресурсларини муҳофаза қилиш функцияси, фуқароларнинг сувга нисбатан экологик ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, корхона, муассаса, ташкилотлар ва фуқароларнинг сув ресурсларини муҳофаза қилиш соҳасидаги мажбуриятлари каби ҳуқуқий муносабатлар атрофлича тартибга солинган.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг преамбуласида дунё конституциялари преамбуласи амалиётида учрамайдиган қоида, яъни “мамлакатимизнинг бебаҳо табиий бойликларини кўпайтириш ҳамда ҳозирги ва келажак авлодлар учун асраб-авайлаш ҳамда атроф-муҳит мусаффолигини сақлашга астойдил аҳд қилиб, ушбу Конституцияни қабул қиламиз ва эълон қиламиз” [1] таҳриридаги норма ўрнатилган. Ушбу норма миллатимизнинг она табиатга, унинг бойликларига бўлган эътиборининг ёрқин ифодаси, унга Асосий қонуннинг преамбуласиданоқ конституциявий мақом берилишидир.

Сув муносабатларини тартибга солувчи конституциявий қоидаларда ушбу табиат объектига нисбатан мулкчилик муносабатларини аниқ ва мукаммал, бугунги кун ижтимоий-иқтисодий туб ислоҳотлар ва бозор муносабатлари талабларидан келиб чиқиб белгилашга алоҳида аҳамият берилган. Аҳоли фаровонлигини таъминлаш, миллий иқтисодиётни ривожлантириш, инсоннинг иқтисодий ҳуқуқларини рўёбга чиқаришнинг энг муҳим шартларидан бири сув ресурсларига нисбатан мулкчиликни аниқ белгилаш ва ҳуқуқий ҳимоясини таъминлаш ҳисобланади. Чунончи, Конституциянинг 66-моддасида “Ер, ер ости бойликлари, сув, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳамда бошқа табиий ресурслар умуммиллий бойликдир, улардан оқилона фойдаланиш зарур ва улар давлат муҳофазасидадир” [2], мазмунидаги қоида ўрнатилган.

Мамлакатимизда давлатнинг экологик назорат функциясини кучайтириш, иқтисодиётнинг табиий ресурслардан оқилона фойдаланишга кўрсатаётган салбий таъсирини бартараф этиш каби муаммоларни ҳал этиш муҳим аҳамият касб этади. Шу мақсадда, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 49-моддасида “давлат фуқароларнинг экологик ҳуқуқини таъминлаш ва атроф

муҳитга зарарли таъсир кўрсатилишига йўл қўймаслик мақсадида шаҳарсозлик фаолияти соҳасида жамоатчилик назоратини амалга ошириш учун шарт-шароит яратиши, давлат Оролбўйи минтақасининг экологик тизимини муҳофаза қилиш ҳамда тиклаш, минтақани ижтимоий ва иқтисодий жиҳатдан ривожлантириш юзасидан чоралар кўриши" [3], таҳриридаги қоидалар мустаҳкамланган.

Шунингдек, Конституциямизда "ҳар ким қулай атроф-муҳитга, унинг ҳолати тўғрисидаги ишончли ахборотга эга бўлиш ҳуқуқига эга (49-модда), фуқаролар Ўзбекистон халқининг тарихий, маънавий, маданий, илмий ва табиий меросини асраб-авайлаши шарт, тарихий, маънавий, маданий, илмий ва табиий мерос давлат томонидан муҳофаза қилинади (61-модда), фуқаролар атроф табиий муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлишга мажбурдирлар (61-модда), мол-мулкдан фойдаланиш атроф-муҳитга зарар етказмаслиги, бошқа шахсларнинг, жамият ва давлатнинг ҳуқуқларини ҳамда қонуний манфаатларини бузмаслиги керак (66-модда), давлат ёшларнинг маданий, экологик ҳуқуқлари ҳимоя қилинишини таъминлайди" (79-модда) каби таҳрирдаги нормалар жой олган.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясида Ўзбекистон Республикаси Президентининг табиий офат рўй берган ҳолатлардаги ваколатлари белгиланган бўлиб, унинг 109-моддасига кўра, Ўзбекистон Республикаси Президенти фавқулодда вазиятлар (реал ташқи хавф, оммавий тартибсизликлар, йирик ҳалокат, табиий офат, эпидемиялар) юз берган тақдирда фуқароларнинг хавфсизлигини таъминлашни кўзлаб, Ўзбекистон Республикасининг бутун ҳудудида ёки унинг айрим жойларида фавқулодда ҳолат жорий этади ва қабул қилган қарорини уч кун ичида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг палаталари тасдиғига киритади. Ушбу конституциявий норма сув билан боғлиқ табиий офатлар, сув тошқинлари рўй берганда фуқароларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилишда алоҳида аҳамият касб этади.

Конституцияда ижро органларининг сув бойликларини муҳофаза қилишга доир функциясига алоҳида эътибор қаратилган бўлиб, унда "Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, табиий бойликларни ва биологик хилма-хилликни сақлаш, иқлим ўзгаришига, эпидемияларга, пандемияларга қарши курашиш ҳамда уларнинг оқибатларини юмшатиш соҳаларида ягона давлат сиёсати амалга оширилишини таъминлаши (115-модда), вилоятлар, туманлар, шаҳарлар ҳокимлари ҳудудларни иқтисодий, ижтимоий, маданий ва экологик жиҳатдан ривожлантиришни таъминлашга қаратилган чора-тадбирларни амалга ошириши (123-модда)" [4], мазмунидаги қоидалар ўрин эгаллаган.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, Ўзбекистон Республикасининг янгиланган Конституцияси сув қонунчилигини такомиллаштиришда алоҳида

ўрин тутади. Аввало, Конституцияси ҳар бир давлатнинг «бош қомуси» сифатида қонунчилик тизими, хусусан, сув қонунчилигининг шаклланиши ва ривожланиши учун муҳим ҳуқуқий пойдевор ролини ўйнайди.

Махсус илмий адабиётларда тўғри таъкидланганидек, “бутун қонун ҳужжатлари, шу жумладан экологик қонун ҳужжатлари шаклланишида ҳам Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг қабул қилиниши муҳим қадам бўлди. Ушбу ҳужжатнинг экологик муносабатларни тартибга солишдаги аҳамияти беқиёс бўлиб, Конституция бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга нисбатан олий юридик кучга эга, Ўзбекистон ҳудудида тўғридан-тўғри амал қилади” [5].

Ўзбекистон Республикаси Конституциясида сув муносабатларини тартибга солишга оид нормаларни икки гуруҳга, яъни умумий нормалар ва махсус нормаларга ажратиш мумкин. Асосий қонун нормаларини таҳлил қилиш асосида сув муносабатларини тартибга солувчи умумий конституциявий нормалар сирасига демократик ҳуқуқ ва эркинликларнинг (хусусан, сув ресурсларига оид ҳуқуқлар ҳам) Конституция ва қонунлар билан ҳимоя қилиниши, давлат ўз фаолиятини [6] инсон ва жамият фаровонлигини кўзлаб, ижтимоий адолат ва қонунийлик принциплари асосида амалга ошириши (14-модда), Конституция ва қонунларнинг (хусусан, сув қонунчилиги ҳужжатлари) устунлиги сўзсиз тан олиниши, давлат, унинг органлари, мансабдор шахслар, жамоат бирлашмалари, фуқаролар [7] ўз фаолиятларида қонунларга риоя этишлари (15-модда) [8] кабиларни санаб кўрсатиш мумкин.

Конституциявий нормалар талаблари сув бойликларини муҳофаза қилишга доир ҳуқуқий муносабатларнинг асосий тамойилларини белгилаб беради. Ушбу конституциявий тамойиллар асосида мамлакатимизда сув ресурсларини муҳофаза қилиш, улардан оқилона фойдаланиш ва аҳолининг экологик хавфсизлигини таъминлашга қаратилган қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди.

Сув бойликларини муҳофаза қилишга доир ҳуқуқий муносабатларнинг асосий тамойилларини белгилаб берган конституциявий нормаларнинг мазмунининг таҳлили мамлакатимизда сув ресурсларининг “умуммиллий бойлик” эканлиги, яъни юридик маънода сув ресурслари халқ мулкини ташкил этиши ҳамда улар номидан фақат давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари қонунда белгиланган ваколатлари доирасида иш юритилиши; сув ресурсларидан оқилона фойдаланишнинг зарурлиги, яъни сув ресурсларидан экологик норматив ва стандартларга қатъий риоя этган ҳолда фойдаланиш лозимлиги; сув объектлари ва ресурслари давлат томонидан қўриқланиши, яъни давлатнинг сув бойликларини муҳофаза қилиши орқали жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳуқуқ ва манфаатлари, шунингдек, экологик ҳуқуқ-тартиботга

риоя этилиши; маҳаллий давлат ҳокимияти органлари фаолиятининг устувор йўналиши сифатида атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш вазифасининг мустаҳкамланганлигидан далолат беради.

Конституцияда белгиланган сув муносабатларини тартибга солишга бағишланган нормалар сув қонунчилигини кодификациялашда, яъни Ўзбекистон Республикасининг Сув кодексини қабул қилишда инобатга олинган. Умуман олганда, ҳаракатдаги сув қонунчилигининг таҳлили унинг конституциявий нормаларга мувофиқлигини кўрсатади, бу аввало, Конституциянинг олий юридик кучи ва бошқа қонун ҳужжатларининг унга зид бўлиши мумкин эмаслиги талабидан келиб чиқади.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси сув қонунчилигини ривожланиши учун энг муҳим аҳамиятга эга бўлган концептуал қоида ва тамойилларни белгилаб беради. Шу ўринда таъкидлаш керакки, конституциявий нормаларни бир хилда қўллашни таъминлаш мақсадида уларни амалдаги сув қонунчилиги ҳужжатларида аниқ ифодалаш бўйича тегишли ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш, хусусан, сув ресурсларига нисбатан умуммиллий бойлик мақомини белгилаш, улардан оқилона фойдаланиш мезонларини аниқлаш, маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг сув ресурсларини муҳофаза қилиш билан боғлиқ ваколатларини алоҳида мустаҳкамлаш мақсадга мувофиқ.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Қонунчилик маълумотлар миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон;

2. Ўша жойда;

3. Ўша жойда;

4. Ўша жойда;

5. Бу ҳақда қаранг: Усмонов М.Б. Табиатни муҳофаза қилишнинг конституциявий асослари. –Т.: ТДЮИ, 2002, 3-4-бетлар; Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига шарҳ. –Т.: Ўзбекистон, 2008, 69-71-бетлар;

6. ttp://uzmarkaz.uz/uploads/2020/06/2020202020.pdf http: //uzmar kaz.uz;

7.ttp://el.tfi.uz/images/Manaviy_yuksalish_xuquqiy_barkamollik_d0d13. Pdf http://el.tfi.uz

8. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси // www.lex.uz.

ДАВЛАТ ЭКОЛОГИК СИЁСАТИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ: ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ ВА ИСТИҚБОЛДАГИ ВАЗИФАЛАР

Турғунов Ойбек Каримович,
Жамоат хавфсизлиги университети бошлиғининг
биринчи ўринбосари, юридик фанлар доктори (DSc), профессор
Нуридуллаев Аслиддин Аҳрорович,
Жамоат хавфсизлиги университети
кафедра бошлиғи, юридик фанлар доктори (DSc), доцент

Глобал иқлим ўзгариши ва ҳавонинг исиши, сув ҳавзалари ва атмосфера ҳавосининг ифлосланиши, ўсимлик ва ҳайвонот турларини йўқолиб кетиши, ўрмон ва дарахтзорлар майдонлари қисқариши, Озон қатлами емирилиши каби экологик муаммолар жаҳон миқёсида барча халқлар ва миллатлар учун жиддий ташвиш уйғотмоқда.

Мамлакатимизда ҳам ўтган даврда атроф муҳитни муҳофаза қилиш, экологик барқарорликни ва қулай атроф муҳитни таъминлаш бўйича кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилди. Бу борада Ўзбекистон Республикаси халқи тафаккурининг юксак намунаси сифатида 2023 йил апрелда референдумда умумхалқ овози бериш йўли билан қабул қилинган янги таҳрирдаги Конституция экологик барқарорлик ва қулай атроф муҳитни таъминлаш, таъбир жоиз бўлса, Ўзбекистонни экологик давлат сифатидаги мақомини шакллантириш йўлида мустаҳкам пойдевор бўлди.

Асосий Қомусимизда давлатнинг атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, фуқароларнинг қулай атроф-муҳитда яшаш ҳуқуқини таъминлаш борасидаги муҳим ҳуқуқий механизмларни, инсоннинг экологик ҳуқуқларига оид кафолатларини ҳамда давлат органларининг бу борадаги мажбуриятларини белгилаб берилди.

Конституциявий нормалар экологик сиёсатни амалга оширишдаги ўрни ва аҳамияти беқиёс [1]. Ўзбекистон Республикаси Конституциясида давлат экологик сиёсати ва барқарор ривожланиш стратегиясининг асосларини белгилаб берувчи экологик нормалар тизимининг қуйидаги асосий жиҳатларини алоҳида кўрсатиб ўтиш мумкин:

Биринчидан, Конституциянинг муқаддимасидаёқ ўзбек халқининг улуғвор мақсадларидан бири сифатида “мамлакатимизнинг бебаҳо табиий бойликларини кўпайтириш, ҳозирги ва келажак авлодлар учун асраб-авайлаш ҳамда атроф-муҳит мусаффолигини сақлаш” кўрсатиб ўтилган.

Маълумки, Конституциянинг муқадиммасида халқимизнинг кўп асрлик орзу-интилишлари ва мақсадлари акс этган бўлиб, атроф-муҳитни муҳофаза

қилишнинг Конституциянинг ғоявий аркони ҳисобланган муқаддимада акс этиши муҳим мафкуравий ва йўналтирувчи аҳамиятга эга.

Бу борада Ўзбекистон қисқа давр ичида Биохилма-хилликни муҳофаза қилиш масалалари бўйича 4 та, трансчегаравий сув ресурсларини муҳофаза қилиш ва улардан оқилона фойдаланиш тўғрисидаги 2 та конвенция, БМТнинг Иқлим ўзгариши тўғрисидаги доиравий конвенцияси ва Киото протоколи ҳамда Париж битими, Озон қатламини муҳофаза қилиш тўғрисидаги конвенция ва Монреаль протоколи, Чиқиндиларни трансчегаравий ташишни тартибга солувчи Базель конвенцияси, Турғун органик ифлослантирувчи моддалар ҳақидаги Стокгольм конвенцияси каби жами 13 та халқаро конвенция ва битимларга қўшилгани ҳам бу борада эълон қилинган мақсадларни рўёбга чиқариш учун муҳим қадам бўлди [2].

Қолаверса, 2025 йилнинг “Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва “яшил” иқтисодиёт йили” деб эълон қилиниши ҳам халқимизнинг экологик интилишларига мосдир. Ушбу дастуриламал ҳужжат Ўзбекистонда барқарор ривожланишни таъминлаш, фуқароларнинг саломатлиги ва фаровонлигини оширишга, давлат органлари, жамоатчилик ва ҳар бир фуқаронинг экологик муаммоларни ҳал этиш жараёнига фаол иштирок этишга қаратилган экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасидаги кенг кўламли ислоҳотлар учун туртки бўлди.

Иккинчидан, Конституцияда илк маротаба фуқароларнинг экологик ҳуқуқлари мустаҳкамланди. Хусусан, Қомусимизнинг 49-моддасида учта экологик ҳуқуқ кафолатланди, булар – қулай атроф-муҳитга эга бўлиш ҳуқуқи, атроф-муҳит ҳолати тўғрисидаги ишончли ахборотга эга бўлиш ҳуқуқи, шаҳарсозлик ҳужжатлари лойиҳалари бўйича жамоатчилик муҳокамасида иштирок этиш ҳуқуқи. Экологик ҳуқуқларнинг конституциявий даражада мустаҳкамланиши бу ушбу масаланинг давлат сиёсати даражасига кўтарилишига туртки бўлди.

Хусусан, бу борада Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 26 сентябрдаги “Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳаларида очиқликни таъминлаш ҳамда бошқариш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони билан эса, экологик маълумотларнинг очиқлигини таъминлаш, чиқиндилар билан ишлашда жамоатчилик иштирокини ошириш ва экологик назоратни кучайтириш чоралари кўрилди.

Учинчидан, Конституцияда илк маротаба давлатнинг экологик мажбуриятлари ҳам белгилаб берилди. Хусусан, Асосий Қонунимизнинг 49-моддасида давлатнинг бир қатор экологик мажбуриятлари мустаҳкамлаб қўйилди.

Авваламбор, давлат фуқароларнинг экологик ҳуқуқларини таъминлаш ва атроф-муҳитга зарарли таъсир кўрсатилишига йўл қўймаслик мақсадида шаҳарсозлик фаолияти соҳасида жамоатчилик назоратини амалга ошириш учун шарт-шароитлар яратади.

Давлат шу мақсадда барқарор ривожланиш принципига мувофиқ, атроф-муҳитни яхшилаш, тиклаш ва муҳофаза қилиш, экологик мувозанатни сақлаш бўйича чора-тадбирларни амалга оширади. Хусусан, “Яшил макон” умуммиллий лойиҳаси доирасида барпо этилаётган “яшил белбоғ” ва боғлар юртимиз миқёсида кенг кўламли ободлик ва яшилликка, одамлар учун муносиб шароит яратишга ва халқимиз саломатлигини асраб-авайлашга хизмат қилмоқда.

Атроф-муҳит муҳофазасига қаратилган чора-тадбирлар қаторида экологик таълим ва экологик маданиятни ошириш тизимини такомиллаштириш муҳим ўрин тутади. Бу ёш авлоднинг экологик билимларини ва маданиятини ошириш, уларда табиатга эҳтиёткорлик билан муносабатда бўлиш масъулиятини шакллантиришга қаратилган. Шунингдек, бу борада илм-фанни ривожлантириш, соҳага инновацион технологияларни жорий этиш ҳам долзарб аҳамиятга эга. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 15 майдаги қарори билан 2030 йилгача бўлган даврда аҳолининг экологик маданиятини юксалтириш концепциясининг тасдиқланиши муҳим амалий аҳамият касб этди.

Давлат зиммасидаги яна бир экологик мажбурият бу – Оролбўйи минтақасининг экологик тизимини муҳофаза қилиш ҳамда тиклаш, минтақани ижтимоий ва иқтисодий жиҳатдан ривожлантириш юзасидан чоралар кўриш. Хусусан, Президентимиз Ш.М.Мирзиёев томонидан илгари сурилган экологик ташаббуслар доирасида Орол денгизи тубида 2 миллион гектар майдонда ўрмонзорлар барпо этилиши бошланганлиги ҳам ушбу конституциявий норманинг самарали ижросига хизмат қилмоқда.

Тўртинчидан, янгиланган Қомусимизда эски таҳрирдаги Конституция сингари унинг янги таҳририда ҳам фуқароларнинг атроф-табиий муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлиш мажбурияти (62-модда) уларнинг 6 та бурчларидан бири сифатида ҳамда мулкдорнинг мулкдан фойдаланиш экологик муҳитга зарар етказмаслиги лозимлиги (41-модда) бўйича мажбурияти белгилаб қўйилган.

Бу фуқаролар табиий ресурслардан оқилона фойдаланиши, табиат бойликларига эҳтиётлик билан муносабатда бўлиши, экология талабларига риоя этиши, мулкдорлар эса, ўз мулкидан фойдаланиб, у ёки бу фаолиятни амалга оширишда атроф муҳитнинг ифлосланишига йўл қўймаслиги лозимлигини англатади.

Бешинчидан, янги таҳрирдаги Конституциямизда унинг эски таҳрирдан ўтказилган яна бир норма – ер, ер ости бойликлари, сув, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳамда бошқа табиий ресурслар умуммиллий бойликлиги, улардан оқилона фойдаланиш зарурлиги ва улар давлат муҳофазасида эканлигини мустаҳкамлайди.

Ушбу конституциявий норманинг аҳамияти шундаки, у аввало, табиий ресурсларни умуммиллий бойлик сифатидаги мақомини белгилайди. Яъни, табиий ресурслар кенг маънода ўзбек халқининг бойлиги бўлиб, улардан устувор равишда давлат ва жамият тараққиёти йўлида фойдаланилади.

Конституциянинг мазкур моддаси табиий ресурслар давлат муҳофазаси остига эканлигини ҳам белгилайди, бу эса, давлат ва унинг ваколатли органлари зиммасига атроф табиий муҳитни муҳофаза қилишга қаратилган чора-тадбирларни кўриб бориш мажбуриятини юклайди [3].

Масалан, уй-жой қурилиши соҳасида янги қуриладиган, баландлиги 12 метрдан ёки умумий майдони 500 квадрат метрдан ортиқ бўлган биноларни лойиҳалаштиришда унга туташ ҳудудларнинг камида 25 фоизини кўкаламзорлаштириш, шунингдек, атроф-муҳитга зарари кўп саноат корхоналари учун “яшил белбоғ”лар барпо этиш бўйича янги экологик талаблар жорий этилгани ҳам ушбу конституциявий нормалар ижросига хизмат қилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 31 майда қабул қилинган “Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасини трансформация қилиш ва ваколатли давлат органи фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони билан экологик хавфсизликни таъминлаш, чиқиндиларнинг инсон саломатлигига зарарини олдини олиш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш ва санитария ҳолатини яхшилаш бўйича чора-тадбирлар белгиланди.

Табиий ресурсларни давлат томонидан муҳофаза этиш давлат экологик назоратини амалга ошириш ва экологик барқарорликни таъминлашга, табиий муҳитга етказилган зарар учун ҳуқуқий жавобгарликни белгилашга қаратилган ташкилий-ҳуқуқий ҳамда бошқарув механизмлари орқали таъминланади.

Хусусан, атроф-муҳитга таъсирни баҳолаш ва стратегик экологик баҳолаш механизмлари жорий этилди, муҳофаза этиладиган табиий ҳудудларни бошқариш тизими такомиллаштирилди, қурилиш майдонларида атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш талабларига риоя қилмаслик учун маъмурий жавобгарлик киритилди, дарахтларни кесиш ва қасддан қуритиш, дарё ўзанларидан ноқонуний қум-шағал қазиб олиш, чиқиндиларни белгиланмаган жойларга ташлаш учун жазолар кучайтирилди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузурида Иқлим кенгаши ташкил этилиб, унинг иқлим ўзгариши оқибатларини юмшатиш ва унга мослашиш бўйича миллий стратегияни ишлаб чиқиш ҳамда ушбу йўналишда ягона давлат сиёсатини шакллантириш, иқлим ўзгариши оқибатларини юмшатиш ва унга мослашиш бўйича ташқи сиёсатнинг устувор йўналишларини белгилаш каби устувор вазифалари белгилаб берилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 24 сентябрдаги “Чанг бўронларига қарши курашиш ва атмосфера ҳавоси сифатини яхшилаш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори билан Ўзбекистон Республикасида чанг бўронларига қарши курашиш ва уларнинг оқибатларини юмшатиш бўйича 2024 – 2030 йилларга мўлжалланган миллий дастур тасдиқланди.

Иқлим ўзгаришига боғлиқ хавфларга мослашувчанликни ошириш бўйича алоҳида чора-тадбирлар ишлаб чиқилиши глобал иқлим ўзгаришининг салбий оқибатларини самарали олдини олиш имконини беради. Зеро, унда автомобилсозликда “Евро-4” стандартидан паст тоифадаги ёқилғини сотиш ва ундан фойдаланишни босқичма-босқич тўлиқ тақиқлаш назарда тутилди. Бунинг учун Бухоро ва Фарғона нефтни қайта ишлаш заводлари юқори сифатли ёқилғи ишлаб чиқариш бўйича модернизация қилиниши белгиланди.

Ушбу модданинг яна бир жиҳати унда табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш талаби ҳам мустаҳкамланган бўлиб, бу табиий ресурслардан фойдаланишда экологик меъёрлар ва барқарор ривожланиш тамойилларига риоя қилиш талаб этади.

Бу борада сўнгги йилларда юртимизда “яшил иқтисодиёт”га ўтиш борасида амалга оширилган ислоҳотлар ҳам табиий ресурслардан оқилона фойдаланишга хизмат қилаётганини таъкидлаш лозим. Иқтисодий ўсишнинг анъанавий моделидан “яшил иқтисодиёт”га ўтиш экологик муаммоларни ҳал қилиш ҳамда Конституцияда белгиланган табиий ресурслардан оқилоан фойдаланиш принципини рўёбга чиқаришнинг муҳим воситасига айланмоқда.

Хусусан, юртимизда “яшил” иқтисодиётни таъминлаш учун инновацион “яшил” инвестицияларни рағбатлантириш, иқтисодиётга экологик тоза технологияларни, хусусан, “яшил” энергетика, “яшил” технологияларни, “ақлли” шаҳар ва қишлоқ хўжалиги принципларини жорий этиш бўйича муҳим чоралар амалга оширилмоқда.

Олтинчидан, Конституцияда илк маротаба давлат ёшларнинг ҳуқуқларини, шу жумладан, экологик ҳуқуқларини ҳимоя қилинишини таъминлаши белгиланди (79-модда). Бу ҳам бежиз эмас, чунки, ёшлар мамлакатимиз келажаги, уларни экологик маданиятли қилиб тарбиялаш,

экологик ҳуқуқларини таъминлаш орқали биз юртимизнинг келажагини асраб-авайлашга ҳисса қўшамиз.

Еттинчидан, Асосий Қонунимизда давлат органларининг экологик ваколатларига ҳам алоҳида эътибор қаратилди. Хусусан, унда илк маротаба Вазирлар Маҳкамасининг атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, табиий бойликларни ва биологик хилма-хилликни сақлаш, иқлим ўзгаришига, эпидемияларга, пандемияларга қарши курашиш ҳамда уларнинг оқибатларини юмшатиш соҳаларида ягона давлат сиёсати амалга оширилишини таъминлаш (115-модда) ҳамда ҳокимларнинг ҳудудларни шу жумладан, экологик жиҳатдан ривожлантиришни таъминлашга қаратилган чора-тадбирларни амалга ошириш (123-модда) бўйича ваколатлари белгиланди.

Мазкур конституциявий нормалар Ҳукумат ва маҳаллий ҳокимликларнинг атроф-муҳитни муҳофаза қилишни уларнинг энг асосий вазифалари сифатида белгилайди ва шу орқали уларнинг зиммасига экологик қонунчилик талабларига риоя этилишини таъминлаш бўйича катта масъулият ва жавобгарлик юклаши билан аҳамиятлидир.

Янгиланган Қомусимиз давлатнинг экологик сиёсатини такомиллаштириб, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва экологик барқарорликни таъминлаш соҳасидаги ислоҳотларни янги босқичга олиб чиқиш учун муҳим дастуриламал бўлиб хизмат қилди. Бошқача айтганда, янги таҳрирдаги Конституция Ўзбекистоннинг барқарор тараққиётини таъминлаш, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, табиий, шу жумладан биологик ресурслардан оқилона фойдаланишга қаратилган иқтисодий ва экологик сиёсатни рўёбга чиқаришга, ўсимлик ва ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилишни самарали тартибга солишга, жамоатчилик назорати тизимининг самарадорлигини оширишга қаратилган зарур ҳуқуқий асосларни яратиш ва кучайтиришга хизмат қилмоқда.

Шу билан бирга Конституциямизнинг экология ва атроф-муҳитга оид нормаларини амалга ошириш учун олдимизда катта-катта вазифалар мавжуд, десак бу ҳам тўғри бўлади. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 октябрдаги ПФ–5863-сон Фармони билан тасдиқланган 2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг Атроф муҳитни муҳофаза қилиш концепцияси янгиланган Конституция талаблари асосида қайта кўриб чиқилиши, унда конституциявий нормаларни реализация қилишга қаратилган ўрта ва узоқ истиқболга мўлжалланган аниқ режалар белгилаб берилиши лозим.

Шу билан бирга Конституциянинг қурилиш соҳасидаги жамоатчилик назоратини ўрнатишга ва жамоатчилик муҳокамасига оид нормалари ҳали-ҳануз ўзининг аниқ ечимини топганича йўқ. Ушбу масалада ҳам аниқ

механизмларни белгилаб берувчи, бу борада рақамли муҳитни яратишга қаратилган алоҳида қонун ҳужжати ишлаб чиқилиши зарур, деб ҳисоблаймиз.

Умуман олганда, Ўзбекистон Республикаси Конституциясида давлат экологик сиёсатининг умумий конституциявий нормаларнинг мустаҳкамланганлиги мамлакатимизда барқарор ривожланишни таъминлаш, атроф муҳит мусаффолигини таъминлаш ва муҳофаза қилиш ҳамда аҳоли саломатлигини ҳимоя қилишнинг кафолати бўлиб хизмат қилади.

References:

1. Сафаров Дж. Экологик муносабатларнинг конституциявий-ҳуқуқий асослари: миллий ва хорижий тажриба // www,constitution.uz/uz/pages/Ekologik_munosabatlar; Ахроров А. Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилишнинг конституциявий асослари // Ҳуқуқий ислоҳотлар шароитида инсонларнинг конституциявий ҳуқуқ ва эркинликлари ҳимоясини кучайтиришнинг долзарб масалалари: халқаро конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2020. – Б.121-123.

2. Исаджанов А. А. Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш: халқаро жиҳатлари ва миллий устуворликлари // Экономика и социум. – 2025. – №3(130). – Б.524-525.

3. Балкибаева Ж., Давлетова К. Экология ва атроф-муҳитни ҳимоя қилишнинг конституциявий кафолатлари // Ўзбекистон Республикаси Конституциявий суди веб-сайти – www.konstsud.uz

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ КОНСТИТУЦИЯСИ – ПАРЛАМЕНТАРИЗМ ВА ПАРЛАМЕНТ ФАОЛИЯТИНИНГ МУҲИМ МАНБАИ СИФАТИДА

Ахмедов Даврон Куванович,
юридик фанлар доктори, профессор
Сафаров Джахонгир
юридик фанлар доктори, доцент

2023 йил 30 апрелда ўтказилган референдумда қабул қилинган янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси – парламент ҳуқуқининг энг асосий ва бирламчи манбаи ҳисобланади.

Янгиланган Конституцияда Олий Мажлис фаолиятини бевосита ва билвосита тартибга солувчи бир қатор нормалар белгилаб берилган. Хусусан:

Биринчидан, Конституцияда белгиланган халқ ҳокимиятчилиги, ҳокимиятлар тақсимланиши, сиёсий хилма-хиллик, демократия, Конституция ва қонунлар устунлиги, вакиллик демократияси каби конституциявий принциплар Олий Мажлис фаолиятини ташкил этишда бош мезон ҳисобланади.

Энг муҳими, Конституциянинг “Давлат ҳокимиятининг ташкил этилиши” деб номланган бешинчи бўлимининг “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси”га оид XVIII боби миллий парламентимизнинг ҳуқуқий мақомини белгилаб беради.

Конституциянинг парламентга оид 18-боби Асосий Қонундаги барча бобларнинг ичида энг каттаси бўлиб, 14 та моддадан (91-104-моддалар) иборат. Маълумот учун, суд ҳокимиятига оид бобда 11 та, Ўзбекистон Республикаси Президентининг мақомига оид бобда 9 та, маҳаллий давлат ҳокимияти асослари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларига оид бобда 8 та, Ҳукуматга оид бобда 6 та, молия, пул ва банк тизимига оид бобда 5 та, прокуратурага оид бобда 4 та, адвокатура, мудофаа ва хавфсизликка оид бобларда 2 тадан моддалар мавжуд.

Ушбу бобда Олий Мажлиснинг мақоми, тузилиши, ваколат муддати, қуйи ва юқори палатанинг таркиби, парламентни шакллантириш тартиби, парламент аъзоларига қўйилган талаблар, иккала палатанинг биргаликдаги 21 та ваколатлари, Қонунчилик палатасининг 12 та ва Сенатнинг 18 та мутлақ ваколатлари, палаталарнинг иш тартиби, шакли ва даврийлиги, палаталар мажлисларини ва уларнинг қўшма мажлисини ташкил этиш, ўтказиш тартиби, кворум, улар томонидан қарорлар қабул қилиш тартиби, қонунчилик ташаббуси ҳуқуқи ва қонунчилик таклифи институтлари, қонун ижодкорлиги, қонунларни қабул қилиш тартиби ва кучга кириши шартлари, қонунларни Сенат ва Президент томонидан рад этиш, рад этилган қонунлар бўйича келишув комиссиясини ташкил этиш тартиби, палаталар раҳбарлари, уларни сайлаш тартиби, ваколатлари, палаталар қўмиталари ва комиссиялари, уларни шакллантириш тартиби, парламент текширувини амалга ошириш таомиллари, депутатлик ва сенаторлик фаолияти билан боғлиқ харажатларни қоплаш, уларнинг дахлсизлиги каби масалалар тартибга солинган.

Янги таҳрирдаги Конституцияда унинг олдинги таҳриридан фарқли равишда парламент фаолияти билан боғлиқ бир қатор ўзгаришлар киритилди:

1) Қонунчилик палатасининг **мутлақ ваколатлари 5 тадан 12 тага, Сенатнинг ваколатлари эса, 14 тадан 18 тага** етказилди ҳамда икки палата ишидаги такрорланишларни бартараф этиш мақсадида **ҳар бир палатанинг масъулият соҳаси** аниқлаштирилди. Хусусан, янги таҳрирдаги Конституция билан парламент назоратининг айрим шакллари (Давлат бюджети ижросини назорат қилиш; Вазирлар Маҳкамасининг йиллик ҳисоботини эшитиш; Бош вазирнинг мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш тўғрисидаги ҳисоботини эшитиш, Ҳисоб палатасининг ҳисоботини кўриб чиқиш ва бошқалар) Сенат ваколатларидан чиқариб ташланган ҳолда Қонунчилик палатасининг мутлақ ваколатлари сифатида мустаҳкамланди.

Бош вазир номзодини Қонунчилик палатасига тақдим қилишдан олдин Президент томонидан барча сиёсий партиялар фракциялари билан маслаҳатлашувлар ўтказиш назарда тутилди.

Шу билан бирга ҳудудлар манфаати ва уларни ривожлантириш, янги вазирликлар ташкил қилиш тўғрисидаги фармонларни тасдиқлаш масалалари эса **Сенат ваколатлари** доирасига тааллуқли эканлиги мустаҳкамланди.

Шунингдек, Сенатнинг **суд ва назорат органлари, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ва махсус хизматлар фаолияти устидан назорат** функциялари, шу жумладан, Сенатнинг мансабдор шахсларни лавозимига сайлаш жараёнидаги ваколатлари кенгайтирилди.

Хусусан, янги таҳрирдаги Конституцияда Ўзбекистон Республикаси Бош прокурори, Ўзбекистон Республикаси Ҳисоб палатаси раҳбарлигига номзодлар аввал Сенатда кўриб чиқилиб, кейин Президент томонидан тайинланиши амалиёти жорий этилди. Эски тартиб бўйича Бош прокурор, Ҳисоб палатасининг раисини лавозимига тайинлаш ва озод этиш масаласи Президент фармонига асосан амалга оширилган бўлса, эндиликда улар Президент тақдимномасига асосан Сенат томонидан сайланади.

Махсус хизматлар фаолияти устидан парламент назоратини кучайтириш мақсадида Давлат хавфсизлик хизмати раҳбарлигига номзод **Сенат билан маслаҳатлашувлардан** сўнг Президент томонидан лавозимга тайинланиши белгиланди. Эски тартиб бўйича Сенат Давлат хавфсизлик хизмати раисини тайинлаш ва уни лавозимидан озод этиш тўғрисидаги фармонларини тасдиқлаш билан чекланарди, яъни номзодни танлаш масаласига реал таъсир кўрсатиш имкониятига эга эмас эди. Аксинча, постфактум ишларди, эндиликда эса, барвақт таъсир кўрсатиш имкониятига эга бўлади.

Суд ҳокимиятининг чинакам мустақиллигини таъминлаш мақсадида **Судьялар олий кенгашининг барча аъзоларини Сенат томонидан сайлаш** тизими киритилди (илгари фақатгина Судьялар олий кенгашининг раиси Сенат томонидан сайланарди). Бундан ташқари **Коррупцияга қарши курашиш агентлиги раҳбарини** лавозимига тайинлаш тўғрисидаги Президент фармонини тасдиқлаш масаласи ҳам Сенатнинг ваколатига ўтказилди;

3) Сенат олдига қўйилаётган янги вазифалардан келиб чиқиб, уни **ихчам, халқчил ва ҳудудлар манфаатини ифода этадиган идорага айлантириш** бўйича нормалар киритилди. Хусусан, сенаторлар сони **100 нафардан 65 нафарга туширилди,** бунда ҳар бир ҳудуддан тенг равишда 4 тадан сенатор сайланиши, Президент томонидан тайинланадиган сенаторлар сони эса 16 тадан 9 тага камайтирилди [1]. Шу билан бирга доимий асосда фаолият кўрсатадиган сенаторлар сони ўзгаришсин 25 нафар этиб сақлаб қолинди. Таъкидлаш лозимки, 83 та икки палатали парламентга эга хорижий мамлакатларда юқори палата аъзолари сони 29 давлатда 49 кишигача, 31 давлатда 50–99 нафар, 23 давлатда 100 ва ундан ортиқ кишини ташкил этади. Масалан, Қозоғистон Сенатида 50, Тожикистонда 33, Беларусда 64 депутат бор. Давлат раҳбарлари

томонидан тайинланадиган юқори палата аъзолари сони: Италия – 5, Беларус, Тожикистон – 8, Қозоғистон – 10, Ирландия – 11, Ҳиндистон – 12 тани ташкил этади [2].

Палаталарнинг қўшма юрисдикциясига коррупцияга қарши кураш бўйича йиллик миллий ҳисоботни эшитиш, давлат қарзининг энг юқори миқдорини белгилаш, парламент текширувини ўтказиш каби ваколатлар киритилди;

4) Палаталарнинг **қонун ижодкорлиги фаолиятидаги иштироки** механизмлари ҳам қайта кўриб чиқилиб, Қонунчилик палатаси томонидан киритилган қонунлар Сенатда 60 кун ичида кўриб чиқилиши белгиланди. Башарти, Сенат ушбу муддатда қонунни маъқуллаш ёки рад этиш тўғрисида қарор қабул қилмаса, **Қонунчилик палатаси қонунни имзолаш ва эълон қилиш учун Ўзбекистон Республикаси Президентига юбориши** белгиланди;

5) Сенатга **қонунчилик таклифларини** қонунчилик ташаббуси тартибида Қонунчилик палатасига киритиш ваколати берилди. Шунингдек, Қонунчилик палатаси тарқатиб юборилган даврда Сенат **Олий Мажлиснинг қонунларни қабул қилишга доир ваколатларини бажариши** (Конституция ва конституциявий қонунлар мустасно) белгиланди;

6) янгиланган Конституция асосида Қонунчилик палатаси Спикери ва Сенат Раиси лавозимга **2 муддатдан ортиқ сайланиши** бўйича чеклов киритилди. Шунингдек, Қонунчилик палатаси ва Сенатга **ўзини ўзи тарқатиб юбориш ваколати** берилди, ушбу тартибни амалга ошириш учун тегишлича депутатлар ёки сенаторлар умумий сонининг камида учдан икки қисмидан иборат кўпчилик овози билан қарор қабул қилиши лозим бўлади.

Иккинчидан, Конституцияда Олий Мажлис мақоми ва фаолияти билан боғлиқ қатор муҳим қоидалар белгиланган, масалан:

1) Ўзбекистон халқи номидан фақат у сайлаган Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ва Президенти иш олиб бориши мумкин (10-модда);

2) сиёсий партияларнинг ўз фаолиятининг молиялаштирилиши манбалари ҳақидаги ҳисоботларини Олий Мажлис Қонунчилик палатасига тақдим этилади (74-модда);

3) Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенатига сайловларни ўтказиш тартиби белгиланган (128-модда);

4) Олий Мажлис томонидан Марказий сайлов комиссияси тузилади, унинг аъзолари Жўқорғи Кенгеси, халқ депутатлари вилоятлар ва Тошкент шаҳар Кенгашларининг тавсияси бўйича Қонунчилик палатаси ва Сенати томонидан сайланади (129-модда);

5) Солиқларни жорий қилиш ҳуқуқи Олий Мажлисга тегишли (149-модда);

6) Олий Мажлис тегишли таклиф киритилгандан кейин олти ой мобайнида Конституцияга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида кенг ва ҳар тарафлама муҳокамани ҳисобга олган ҳолда конституциявий қонун қабул қилиши мумкин (155-модда).

Учинчидан, Конституцияда Олий Мажлиснинг Ўзбекистон Республикаси Президенти, Вазирлар Маҳкамаси ва суд ҳокимияти билан ўзаро муносабатларига тааллуқли қоидалар ҳам белгиланган.

Хусусан, Олий Мажлис ва Президент муносабатлари қуйидаги шаклларда намоён бўлади (108, 109, 111, 112 ва 113-моддалар):

– Президентнинг Олий Мажлис йиғилишида қасамёд қабул қилади;

– Президентнинг Ўзбекистоннинг чет давлатлардаги ва халқаро ташкилотлар ҳузуридаги дипломатик ва бошқа ваколатхоналарининг раҳбарларини тайинлаш учун номзодларни Сенатга тақдим этади;

– Президент Олий Мажлисга мурожаат қилиш ҳуқуқига эга;

– Президент республика ижро этувчи ҳокимият органларини тузиш ва тугатишга доир фармонларни Сенати тасдиғига киритади;

– Президент Сенат Раиси лавозимига сайлаш учун номзодни Сенатга тақдим этади;

– Президент Бош вазирни, Вазирлар Маҳкамаси аъзоларини Қонунчилик палатаси маъқуллаганидан кейин лавозимга тайинлайди ва озод этади;

– Президент Бош прокурорни, Ҳисоб палатаси раисини Сенат маъқуллаганидан кейин лавозимга тайинлайди ва озод этади;

– Президент Сенат билан маслаҳатлашувлардан кейин Давлат хавфсизлик хизмати раисини лавозимга тайинлайди ва озод этади;

– Президент Сенатга Конституциявий суд, Олий суд, Судьялар олий кенгаши таркибларига номзодларни, шунингдек Марказий банк бошқарувининг раиси, республика коррупцияга қарши курашиш ва монополияга қарши органлари раҳбарлари лавозимларига номзодларни тақдим этади;

– Президент қонунларни эътирозлари билан такроран муҳокама қилиш ва овозга қўйиш учун Олий Мажлисга қайтариши мумкин;

– Президент уруш ҳолати, умумий ёки қисман сафарбарлик эълон қилиш, фавқулодда ҳолат жорий этиш бўйича қабул қилган қарорни Олий Мажлиси палаталари тасдиғига киритади;

– Президент амнистия тўғрисидаги ҳужжатларни қабул қилиш ҳақида Сенатга тақдимномалар киритади;

– Конституциянинг 111-моддасида кўрсатилган шартлар асосида Президент Конституциявий суд билан бамаслаҳат Қонунчилик палатаси, Сенатни тарқатиб юбориши мумкин;

– амалдаги Президент ўз вазифаларини бажара олмайдиган ҳолатларда унинг вазифа ва ваколатлари вақтинча Сенати Раиси зиммасига юклатилади;

– ваколати тугаши муносабати билан истеъфога чиққан Президент умрбод Сенат аъзоси лавозимини эгаллайди;

Олий Мажлис ва Ҳукумат муносабатлари қуйидаги шаклларда намоён бўлади (115, 116, 118 ва 119-моддалар):

– Вазирлар Маҳкамаси қонунлар, Олий Мажлис палаталари қарорлари ижросини таъминлайди;

– Вазирлар Маҳкамаси Олий Мажлис Қонунчилик палатасига мамлакат ижтимоий-иқтисодий ҳаётининг энг муҳим масалалари юзасидан ҳар йилги маърузаларни тақдим этади;

– Вазирлар Маҳкамаси ўз фаолиятида Олий Мажлис ва Президент олдида жавобгар, амалдаги Ҳукумат янги сайланган Олий Мажлис олдида ўз ваколатларини зиммасидан соқит қилади;

– Президент томонидан барча сиёсий партиялар фракциялари билан маслаҳатлашувлар ўтказилганидан сўнг тақдим этилган Бош вазир номзоди Қонунчилик палатасида кўриб чиқилади ва маъқулланади;

– Бош вазир лавозимига номзод Қонунчилик палатасида унинг номзоди кўриб чиқилаётганда Вазирлар Маҳкамасининг яқин муддатга ва узоқ истиқболга мўлжалланган ҳаракат дастурини тақдим этади;

– Вазирлар Маҳкамасининг аъзолари уларнинг номзодлари Қонунчилик палатаси томонидан маъқулланганидан кейин лавозимга тайинланади;

– Қонунчилик палатаси Вазирлар Маҳкамаси аъзосининг ўз фаолиятига оид масалалар юзасидан ҳисоботини эшитишга ҳамда якунларига кўра уни истеъфога чиқариш тўғрисидаги таклифни Президентга киритишга ҳақли;

– Ҳукумат аъзолари парламент сўровларига ва Қонунчилик палатаси депутатининг, Сенат аъзосининг сўровларига жавоб бериши шарт;

– Қонунчилик палатаси Бош вазирга нисбатан ишончсизлик вотуми билдириши мумкин.

Олий Мажлис ва суд ҳокимиятининг ўзаро муносабатлари қуйидаги шаклларда намоён бўлади (132–135-моддалар):

– Конституциявий суд Президент тақдимига биноан Сенат томонидан сайланади;

– Конституциявий суд қонунлар ва Олий Мажлис палаталари қарорларининг Конституцияга мувофиқлигини аниқлайди;

– Конституциявий суд ҳар йили Олий Мажлиси палаталарига ва Президентга мамлакатдаги конституциявий қонунийликнинг ҳолати тўғрисида ахборот тақдим этади;

– Олий суд, Судьялар олий кенгаши раиси ва ўринбосарлари Президент тақдимига биноан Сенат томонидан сайланади.

Тўртинчидан, Олий Мажлис ўз қонун ижодкорлиги фаолиятида Конституция устуворлигини таъминлаши, унга зид бўлган қонун ва қарорлар қабул қилинмаслигини таъминлаши лозим.

Конституцияда белгиланган айрим нормалар парламент қонун ижодкорлиги доираси чегараларини белгилаб беради. Масалан, Конституциянинг 1-моддасида Ўзбекистон – бошқарувнинг республика шаклига эга бўлган суверен, демократик, ҳуқуқий, ижтимоий ва дунёвий давлат эканлиги ҳамда 154-моддада ушбу қоида қайта кўриб чиқилиши мумкин эмаслиги белгиланган.

Шунга кўра, парламент давлатнинг суверенитети, демократик, ҳуқуқий бошқарув тартиби, ижтимоий ёки дунёвийлик хусусиятини ўзгартиришга қаратилган қонунчилик ташаббуслари билан чиқмаслиги ва ундай ташаббусларни қўллаб-қувватламаслиги лозим.

Ёки бўлмаса, Конституциянинг 14-моддасида давлат ўз фаолиятини инсон фаровонлигини ва жамиятнинг барқарор ривожланишини таъминлаш мақсадида қонунийлик, ижтимоий адолат ва бирдамлик принциплари асосида амалга ошириши белгиланган бўлиб, Олий Мажлис ҳам давлат ҳокимиятининг бир тармоғи сифатида ўз фаолиятини шу принципларга риоя этган ҳолда ташкил этиши зарур бўлади.

Конституциянинг 16-моддасида эса, бирорта қонун ёки бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжат Конституциянинг принцип ва нормаларига зид бўлиши мумкин эмаслиги белгиланган бўлиб, парламент ўзинг қонун ижодкорлиги фаолиятида ушбу талабни ҳам инобатга олиши шарт бўлади.

Шунингдек, парламент Конституция билан кафолатланган ҳуқуқ ва эркинликларни чеклаши мумкин бўлган қонунларни қабул қилишда ҳам конституциявий доираларга амал қилиши керак.

Масалан, Конституциянинг 63-моддасида солиқ ва йиғимлар адолатли бўлиши ҳамда фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқларини амалга оширишига тўсқинлик қилмаслиги кераклиги белгиланган. Шунга кўра, янги солиқ ёки йиғим турларини жорий этиш бўйича мутлақ ваколат соҳиби сифатида парламент тегишли қарорни қабул қилишда янги солиқ ёки йиғимларни адолатлилик ҳамда фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқларини амалга оширишига тўсқинлик қилмаслик каби конституциявий мезонларга риоя этган ҳолда қабул қилиши лозим.

Яна бир мисол. Конституциянинг 20-моддасида инсонга нисбатан қўлланиладиган ҳуқуқий таъсир чоралари мутаносиблик принципига асосланиши ва қонунларда назарда тутилган мақсадларга эришиш учун етарли

бўлиши кераклиги белгилаб қўйилган. Демак, парламент жавобгарликни, масалан, бирор бир ҳуқуқбузарлик учун маъмурий ёки жиноий жавобгарлик чорасини киритаётганда ушбу принципларни инобатга олиш керак бўлади.

Мутаносиблик принципи ҳақида сўз борганда парламент амалиётидан мисол сифатида Ҳукумат қонунчилик ташаббуси асосида Қонунчилик палатасига киритилган “Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига атроф-муҳит, ҳайвонот ва ўсимлик дунёсининг муҳофазасини кучайтиришга, табиий ресурслардан оқилона фойдаланишни таъминлашга қаратилган қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида”ги қонун лойиҳасини кўрсатса бўлади. Мазкур лойиҳада қонунчилик ташаббуси ҳуқуқи субъекти Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексга ҳайвонларга шафқатсиз муомалада бўлганлик (111-модда) учун жарима миқдорини 10 бараварга ошириб 12 млн 360 минг сўмдан 20 млн 600 минг сўмга оширишни таклиф қилишган. Ваҳоланки, қасддан баданга енгил шикаст етказиш (55-модда иккинчи қисми) учун 824 минг сўмдан 1 млн 648 минг сўм жарима назарда тутилган. Шу боис, депутатлар ҳайвонларни соғлиғини сақлаш инсон соғлиғини ҳимоя қилишдан кўра устувор бўлаётганлиги сабабли мутаносиблик принципига мос эмас, деган хулосага келиб, жарима миқдорини оширишга қарши овоз берганлар.

Бу борада Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг 2024 йилда мамлакатдаги конституциявий қонунийликнинг ҳолати тўғрисида ахборотида инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликлари қонунларнинг моҳияти ва мазмунини белгилаши ҳақидаги конституциявий қоиданинг норма ижодкорлигига таъсири ҳамда инсон ҳуқуқ ва эркинликларини чекловчи чораларни жорий этишга қаратилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқишда конституциявий талабларга риоя этиш зарурлиги тушунтириб берилган.

Унга кўра, “инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликлари қонуности норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар билан чеклаш мумкин эмас ва ушбу масала парламентнинг мутлақ ваколатига киритилган.

Шу билан бирга инсон ҳуқуқ ва эркинликларини чекловчи нормалар бўлган қонун лойиҳаларини ишлаб чиқишда ҳам қуйидаги конституциявий нормаларга риоя этиш лозим:

мазкур чораларнинг асослари ва чегаралари мутаносиблик ва етарлилик конституциявий принципларига қатъий мувофиқ бўлиши керак (Конституциянинг 20-моддаси);

инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликлари фақат конституциявий тузумни, аҳолининг соғлиғини, ижтимоий ахлоқни, бошқа шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, жамоат хавфсизлигини ҳамда жамоат тартибини

таъминлаш мақсадида зарур бўлган доирада чекланиши мумкин (Конституциянинг 21-моддаси).

Шунга кўра, қонун чиқарувчи бу мазмундаги қонунларни қабул қилишда инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликларини чеклашнинг конституциявий чегараларидан келиб чиқиб ёндашиши, конституциявий ҳуқуқ ва эркинликларни Конституциянинг 21-моддасида белгиланган мақсадлардан бошқа мақсадларда ёхуд зарур бўлган ҳажмдан ортиқча чекланиши мумкин эмаслигига, бундай чоралар адолатлилик, мутаносиблик ва етарлилик принципларига мос бўлишига эътибор қаратиши зарур.

Ушбу конституциявий норма асосида Конституциявий суд норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлашда ишлаб чиқувчилардан бир қатор жиҳатларга риоя этишни, хусусан, инсон, жамият ва давлат манфаатлари мувозанатини таъминлаш, давлат органлари фаолияти самарадорлигини таъминлаш ва ҳуқуқий тартибга солишда суистеъмолчиликларга йўл қўймаслик, ҳуқуқ нормаларининг турлича, ўзбошимчалик билан шарҳлашга йўл қўймайдиган даражадаги аниқлиги ҳамда инсон ҳуқуқларини амалга оширишга тўсқинлик қилувчи қонунчиликдаги бўшлиқларни бартараф этиш ва ҳаволаки нормаларни амалга ошириш заруратини ҳам эътибордан четда қолдирмасликка чақиради” [3].

Бешинчидан, Конституциянинг турли моддаларида муайян ижтимоий муносабат қонун билан тартибга солиниши лозимлиги ҳақида талаблар белгиланган.

Масалан, давлат рамзлари, референдум ўтказиш тартиби, фуқароликка эга бўлиш ва уни йўқотиш асослари ҳамда тартиби, жазога тортиш, мол-мулкдан ёки бирон-бир ҳуқуқдан маҳрум этиш асослари, инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликларини чеклаш, жамоатчилик назоратини амалга ошириш тартиби, давлат хизматини ўташ билан боғлиқ чекловлар, банк операциялари, омонатлар ва ҳисобварақларнинг сир тутилиши, мерос ҳуқуқи, аҳолининг ижтимоий жиҳатдан эҳтиёжманд тоифаларини уй-жой билан таъминлаш тартиби, интеллектуал мулк, солиқлар ва йиғимлар, монопол фаолият, депутатликка номзодларга талаблар, давлат ҳокимияти органларининг тизими ва ваколатлари, божхона, валюта ва кредит ишлари, маъмурий-ҳудудий тузилиш, қонун лойиҳаларини, қонунчилик таклифларини киритиш ва кўриб чиқиш тартиби, Президентни сайлаш тартиби, Президент шахси дахлсизлиги, фавқулодда ҳолат жорий этиш шартлари ва тартиби, Вазирлар Маҳкамаси фаолиятини ташкил этиш тартиби ва ваколат доираси, маҳаллий Кенгашлар депутатлари сайлови, Кенгашлар ва ҳокимларнинг фаолиятини ташкил этиш тартиби, сайлов ўтказиш тартиби, суд тизими ва судлар фаолиятининг тартиби, Конституциявий судни, Судьялар олий кенгашини, адвокатурани, прокуратурани ташкил этиш ва уларнинг фаолияти тартиби, Марказий банкнинг фаолияти тартиби, Қуролли

Кучларнинг тузилиши ва уларни ташкил этиш, фуқаролар ва фуқаролик жамияти институтларининг бюджет жараёнида иштирок этиши тартиби ва шакллари қонунлар билан белгиланиши лозим.

Лекин, таҳлиллар Конституцияга мувофиқ, қонун билан тартибга солиниши лозим бўлган айрим масалалар ҳали ҳам қонуности ва идоравий ҳужжатлар билан тартибга солинаётганлигини кўрсатмоқда. Хусусан, айрим йиғимлар, имтиёз, субсидия, преференциялар, инсон ҳуқуқларини чекловчи қоидалар қонуности ва идоравий ҳужжатларда ҳали ҳам учрайди.

Парламент Конституцияда қонун билан тартибга солиниши белгиланган юқоридаги муносабатларни қонун йўли билан тартибга солишни таъминлаши, ушбу йўналишда парламент назоратини ўрнатиши керак.

Олтинчидан, давлат Конституция асосида ўз зиммасига бир қатор ижтимоий ва бошқа мажбуриятларни олган.

Масалан, Конституцияга мувофиқ, давлат:

– уй-жой қурилишини рағбатлантиради ва уй-жойга бўлган ҳуқуқнинг амалга оширилиши учун шарт-шароитлар яратади (47-модда);

– жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш, аҳоли ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш учун шарт-шароитлар яратади (48-модда);

– атроф-муҳитни яхшилаш, тиклаш ва муҳофаза қилиш, экологик мувозанатни сақлаш бўйича чора-тадбирларни амалга оширади (49-модда);

– мактабгача таълим ва тарбияни ривожлантириш учун шарт-шароитлар яратади (50-модда);

– жамиятнинг маданий, илмий ва техникавий ривожланиши ҳақида ғамхўрлик қилади (53-модда);

– аҳолининг ижтимоий жиҳатдан эҳтиёжманд тоифаларининг турмуш сифатини оширишга, жамият ва давлат ҳаётида тўлақонли иштирок этиши учун уларга шарт-шароитлар яратишга ҳамда уларнинг асосий ҳаётий эҳтиёжларини мустақил равишда таъминлаш имкониятларини кенгайтиришга қаратилган чораларни кўради, ногиронлиги бўлган шахсларнинг ижтимоий, иқтисодий ва маданий соҳалар объектлари ва хизматларидан тўлақонли фойдаланиши учун шарт-шароитлар яратади, уларнинг ишга жойлашишига, таълим олишига кўмаклашади, уларга зарур бўлган ахборотни тўсқинликсиз олиш имкониятини таъминлайди (57-модда);

– хотин-қизлар ва эркакларга жамият ҳамда давлат ишларини бошқаришда, шунингдек жамият ва давлат ҳаётининг бошқа соҳаларида тенг ҳуқуқ ва имкониятларни таъминлайди (58-модда);

– оиланинг тўлақонли ривожланиши учун ижтимоий, иқтисодий, ҳуқуқий ва бошқа шарт-шароитлар яратади (76-модда);

– етим болаларни ҳамда ота-онасининг васийлигидан маҳрум бўлган болаларни боқишни, тарбиялашни, уларнинг таълим олишини, соғлом, тўлақонли ва ҳар томонлама камол топишини таъминлайди, шу мақсадда хайрия фаолиятини рағбатлантиради (77-модда);

– болаларда ҳамда ёшларда миллий ва умуминсоний қадриятларга содиқликни, мамлакатидан ҳамда халқнинг бой маданий меросидан фахрланишни, ватанпарварлик ва Ватанга бўлган меҳр-муҳаббат туйғуларини шакллантириш тўғрисида ғамхўрлик қилади, боланинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини таъминлаш ҳамда ҳимоя қилиш, унинг жисмоний, ақлий ва маданий жиҳатдан тўлақонли ривожланиши учун энг яхши шарт-шароитларни яратади (78-модда);

– ёшларнинг шахсий, сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, маданий, экологик ҳуқуқлари ҳимоя қилинишини таъминлайди, уларнинг жамият ва давлат ҳаётида фаол иштирок этишини рағбатлантиради, ёшларнинг интеллектуал, ижодий, жисмоний ва ахлоқий жиҳатдан шаклланиши ҳамда ривожланиши учун, уларнинг таълим олишга, соғлиғини сақлашга, уй-жойга, ишга жойлашишга, бандлик ва дам олишга бўлган ҳуқуқларини амалга ошириш учун шарт-шароитлар яратади (79-модда) ва б.қ.

Олий Мажлис давлат Конституция асосида ўз зиммасига олган конституциявий мажбуриятлари бажарилишини назорат қилиб бориши лозим.

Хулоса қилиб айтганда, Конституция бир томондан парламент фаолияти ва парламентаризм тараққиёти учун муҳим маёқ, манба вазифасини бажарса, бошқа томондан парламент фаолиятини тўғри ташкил этиш, парламент ваколатлари, шу жумладан, қонун ижодкорлиги бўйича ваколатлари чегараларини белгилаб бериб, тартибга солувчи вазифани бажаради.

References:

1. Норбобоев Б.Ж. Конституциявий ислоҳотларнинг мазмун-моҳияти // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Vol. 3 (4). – Б.862-863.

2. Акилов А.Р. Янги Ўзбекистон парламентининг янги ваколатлари // Женева шаҳридаги БМТ бўлинмаси ва бошқа халқаро ташкилотлар ҳузуридаги Ўзбекистон Республикасининг доимий ваколатхонаси – http://uzbekistan-geneva.ch/yangi-v-zbekiston-parlamentining-yangi-vakolatlari.html

3. Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг 2024 йил 6 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг мамлакатдаги конституциявий қонунийликнинг ҳолати тўғрисидаги ахборотини тасдиқлаш ҳақида” КСҚ-4-сон қарори // www.lex.uz/docs/7251202

BUTUN BELARUS XALQ ASSAMBLEYASI – BELARUS RESPUBLIKASIDA XALQ HOKIMIYATINING OLIY VAKILLIK ORGANI HISOBLANADI

Бруяко Александр Николаевич
начальник цикла государственно-правовых дисциплин кафедры юридических дисциплин факультета внутренних войск
УО «Военная Академия Республики Беларусь»
E-mail: bruyakoalexander@yandex.by
Тел.: раб. +375 (17) 358-95-27
+37529 504-99-25

Яновский Владислав Евгеньевич
курсант 4 курса факультета внутренних войск
УО «Военная Академия Республики Беларусь»
E-mail: yanovskiv@bk.ru
Тел.: +375 (29) 106-44-86

Annotatsiya: ushbu maqolada 2022-yil 27-fevralda bo‘lib o‘tgan umumxalq referendumida Belarus Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgartirishlar tahlil qilinadi. Ushbu o‘zgarishlar Butun Belarus Xalq Assambleyasining (ABPA) slavyan xalq assambleyalarining tarixiy tajribasini zamonaviy xalq hokimiyati tamoyillari bilan birlashtirgan demokratik forum sifatidagi maqomini rasman mustahkamladi. Bu mamlakat aholisiga davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish uchun chinakam imkoniyat yaratadi. ABPA jamoatchilik fikrini to‘plashning demokratik mexanizmi bo‘lib xizmat qilishi va Belarusda xalq suverenitetining asosiy va noyob shakllaridan birini ifodalashi ta'kidlangan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya; Butun Belarus Xalq Assambleyasi (ABPA); xalq hokimiyati; respublika referendumi; siyosiy tizim; ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish; jamiyat va davlatni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari.

На референдуме 27 февраля 2022 года в основной закон Беларуси были введены изменения, официально учреждающие новый конституционный орган – Всебелорусское народное собрание (ВНС).

Как элемент общественно-политической жизни, ВНС начало работать в Беларуси с середины 1990-х. Практика показала, что это идеальный баланс между традициями и современными принципами власти народа, поскольку любые сдвиги в политической системе демократической Беларуси возможны только по воле граждан. Корни этой формы уходят в древность, к славянскому народному вече, где открыто обсуждались и решались важнейшие вопросы государства. Слово «вече» происходит от корня «ве» (откуда «вещать»), что означает «совет» или «парламент». Вече представляло собой собрание народа в древней и средневековой Руси, а также у славянских народов до формирования

раннефеодальной государственной власти, для дискуссий и решений общих задач. Еще в VI веке византийский историк Прокопий Кессарийский (490–565 гг.) упоминал в своих трудах о подобных общих собраниях у славян. Первые реальные упоминания о вече относятся к Новгороду (1016 г.), Киеву (1068 г.) и Полоцку (1151 г.). В Беларуси вече существовало в Витебске, Друцке, Полоцке и Турове; последние сведения о нем датируются XV веком.

ВНС стало традиционным демократическим институтом для активизации общественного мнения и ключевой формой народовластия в современной Беларуси. Оно позволяет гражданам активно реализовывать право на участие в государственных делах. Этот уникальный механизм органично вписывается в политическую систему страны, поскольку главная цель собраний – обсуждение важных вопросов общественной и государственной жизни, а также разработка планов социально-экономического развития на будущее.

После обретения Беларусью настоящего суверенитета и принятия Конституции в 1994 году было проведено шесть всебелорусских народных собраний. Их правовой основой служила статья 3 Конституции (во всех редакциях), гласящая: «Единственным источником государственной власти в Республике Беларусь является народ» [1].

Ранее такие собрания созывались указами Президента и проводились раз в пять лет. Согласно статье 7 Закона Республики Беларусь от 12 июля 2000 г. «О республиканских и местных собраниях», республиканское собрание может быть организовано Президентом по необходимости для обсуждения значимых вопросов общественной и государственной жизни и проектов решений. Правила представительства, порядок выбора участников и состав оргкомитета определяет Президент [2].

На собраниях подводились итоги социально-экономического развития за прошедшие пять лет и обсуждались основы новых программ на следующие пятилетия.

В прошедших собраниях участвовали делегаты, выдвигаемые трудовыми коллективами, гражданами на собраниях по месту проживания, учебы или работы, а также высшими органами политических партий, профсоюзов, религиозных организаций и других объединений, представляющими все регионы Беларуси. Это авторитетные фигуры из всех ветвей власти, сфер производства и бизнеса, науки, образования, здравоохранения, культуры, молодежь, ветераны и эксперты, готовые высказывать мнения по острым вопросам и предлагать улучшения в социально-экономической и политической сферах.

Кроме того, на ВНС приглашались дипломаты из аккредитованных представительств, представители белорусской диаспоры за рубежом и международных организаций.

Первое Всебелорусское народное собрание прошло 19–20 октября 1996 года в Дворце спорта в Минске. Его цель – на высшем уровне обсудить с народом ключевые проблемы государственного строительства и определить стратегию развития белорусского общества на годы вперед. В тот момент страна выходила из кризиса начала 1990-х, с приоритетами: остановить инфляцию и сократить бюджетный дефицит. К осени 1996 года обострились конфликты между Президентом и Верховным Советом, что привело к политическому кризису. Чтобы вовлечь широкие слои населения в обсуждение мер по преодолению экономического кризиса и стабилизации общества (принимаемых Президентом, правительством и местными органами), Указом Президента от 29 августа 1996 г. № 341 было решено провести первое народное собрание 19 октября. На нем обсудили основы Программы социально-экономического развития на 1996–2000 гг., проект новой Конституции и вопросы для референдума. Было установлено участие 5000 человек (включая 800 от Минска и по 650 от каждой области). По указу создали республиканские и местные оргкомитеты. В собрании участвовали 4740 делегатов — рекордное число. Президент А.Г. Лукашенко выступил с докладом «Только народ вправе решать свою судьбу», проанализировал развитие страны с момента независимости и предложил стратегию с фокусом на социальную рыночную экономику. Основной темой стало принятие первой в истории суверенной Беларуси Программы развития на 1996–2000 гг., с приоритетами: рост экспорта, строительство жилья и развитие сельского хозяйства. Собрание одобрило референдум по Конституции, прошедший 24 ноября 1996 года. Важно, что форум помог избежать противостояния политических сил и задал новый курс развития.

Второе собрание, 18–19 мая 2001 года, прошло под лозунгом «За сильную и процветающую Беларусь!». К тому времени создана эффективная система управления, остановлена гиперинфляция и сокращен дефицит бюджета. ВВП вырос на 36%, промышленность – на 65%, инвестиции в основной капитал – на 26%. К 2000 году превышен уровень эффективного докризисного 1990 года. Показатели производства, товаров и доходов населения были лучшими в СНГ и превысили прогнозы первого собрания. Участвовали 2500 делегатов. Подвели итоги пятилетки, одобрили Программу на 2001–2005 гг. и выделили приоритеты: продовольствие, жилье, экспорт, инвестиции и инновации.

Третье собрание, 2–3 марта 2006 года, помимо итогов 2001–2005 гг., сосредоточилось на всестороннем развитии человека, росте доходов,

инновациях в экономике, энерго- и ресурсосбережении, росте экспорта и конкурентоспособности продукции, развитии АПК, возрождении села, строительстве жилья и малых городов. Основной принцип – резко улучшить качество жизни. Лозунг «Государство для народа» стал новой ступенью социального государства.

В 2006–2010 гг. Беларусь перешла к комплексному обновлению экономики, модернизируя отрасли. Модернизировали более 320 предприятий, внедрили свыше 500 технологий. Страна лидировала в строительстве жилья на человека среди СНГ, опережая многие другие страны.

Четвертое собрание, 6–7 декабря 2010 года, собрало 2500 делегатов для итогов пятилетки и утверждения Программы на 2011–2015 гг. Среди участников: 607 руководителей предприятий, 505 работников культуры и социальной сферы, 273 рабочих, 250 аграриев, 209 инженеров, студенты, учащиеся, предприниматели, военные и пенсионеры. 480 делегатов имели госнаграды (включая 13 Героев Союза и Соцтруда, полных кавалеров орденов, 4 Героев Беларуси и 95 с почетными званиями). Акцент – на сохранении социально ориентированной экономики, улучшении инвестиций и бизнеса, развитии высокотехнологичных производств, росте экспорта для повышения благосостояния и качества жизни. В резолюции: «Потенциал человека – это потенциал государства; чем богаче человек – тем богаче страна».

Пятое собрание, 22–23 июня 2016 года, подвело итоги пятилетки, определило задачи на будущее, утвердило Программу на 2016–2020 гг., обозначило приоритеты внутренней и внешней политики, точки роста экономики и социальные ориентиры.

Шестое собрание, 11–12 февраля 2021 года, впервые предварили диалоговые площадки, собравшие мнения по вопросам общественно-политической и социально-экономической жизни из всех регионов. Собрали около 10 тыс. инициатив – от реформ до социальной защиты. Утвердили Программу на 2021–2025 гг., фокусирующуюся на стабильности, росте благосостояния через модернизацию экономики, социальный капитал и комфорт для жизни. Цель – повысить качество жизни на основе конкурентной экономики и инноваций, с приоритетами: инвестиции, занятость, экспорт, информатизация и развитие молодежи. Анонсировали референдум по Конституции (прошел 27 февраля 2022 года). Участвовали 2700 делегатов: парламентарии, депутаты местных советов, представители партий, объединений, госорганов, предприятий. Пригласили около 150 гостей (почти 100 из-за рубежа). Лозунг: «Вместе – за сильную и процветающую Беларусь!».

На этом собрании предложили сделать ВНС конституционным органом.

По Указу Президента от 20 января 2022 г. № 14 референдум назначен на 27 февраля с вопросом: «Принимаете ли Вы изменения и дополнения Конституции Республики Беларусь?».

За изменения проголосовали 65,16% избирателей.

В Конституции после референдума появилась глава 31 «Всебелорусское народное собрание», определяющая компетенцию. Статья 89^1 дает определение: «Всебелорусское народное собрание – высший представительный орган народовластия Республики Беларусь, определяющий стратегические направления развития общества и государства, обеспечивающий незыблемость конституционного строя, преемственность поколений и гражданское согласие» [1].

Статья 89^2 описывает формирование: делегаты – действующий Президент, бывшие Президенты (по истечении срока или отставке), представители законодательной, исполнительной и судебной властей, местных советов и гражданского общества. Представители местных советов и общества избираются от каждой области и Минска по закону. Максимум – 1200 делегатов.

Полномочия – пять лет. Первое заседание созывает ЦИК не позднее 60 дней после выборов депутатов. Делегаты участвуют без отрыва от работы. Президиум (коллегиальный орган) решает вопросы оперативно; председатель и заместители избираются тайно.

Широкие полномочия по внутренней и внешней политике (статья 89^3): утверждает направления политики, военную доктрину, концепцию безопасности; программы развития; предлагает поправки к Конституции; проверяет легитимность выборов; награждает Президента и предлагает кандидатов. Может вводить чрезвычайное или военное положение при основаниях (по Конституции) и бездействии Президента, по инициативе Президиума или Совета Республики.

Статья 89^4 регулирует работу: заседания не реже раза в год; внеочередные – по инициативе Президента, Президиума, обеих палат Парламента (совместно) или 150 тысяч граждан с правом голоса.

Помимо формирования некоторых органов (Конституционный Суд, Верховный Суд, ЦИК), ВНС может инициировать смещение Президента. По изменениям в статье 88, Президент смещается ВНС за грубые нарушения Конституции, госизмену или тяжкие преступления (раньше – палаты Парламента). Предложение вносит не менее 1/3 Палаты представителей или 150 тыс. граждан. Расследование организует ВНС (раньше – только Совет Республики).

Решение о смещении принимает ВНС после заключения Конституционного Суда (при обвинениях в нарушениях). Принимается большинством ВНС (раньше – 2/3 Совета Республики и Палаты представителей). Если решение не принято за два месяца, обвинение отклоняется. Инициатива невозможна во время рассмотрения досрочного прекращения полномочий Парламента. При смещении за преступление дело рассматривает Верховный Суд.

Таким образом, ВНС [3] – ключевой элемент белорусской демократии и основной механизм народовластия. Конституционный статус ВНС как уникальной формы народовластия укрепляет стабильность представительной демократии и способствует развитию белорусской государственности.

References:

1. Конституция Республики Беларусь 1994 года (с изменениями и дополнениями, принятыми на республиканских референдумах 24 ноября 1996 г., 17 октября 2004 г. и 27 февраля 2022 г. // Нац. центр правовой информ. Респ. Беларусь. – Минск, 2025. – 96 с.

2. О республиканских и местных собраниях: Закон Республики Беларусь от 12 июля 2000 г., № 411-З: в ред. Закона Беларусь от 20.04.2016 г. № 358-З // Нац. центр правовой информ. Респ. Беларусь. – Минск, 2025.

3. О Всебелорусском народном собрании: Закон Республики Беларусь от 7 февраля 2023 г., № 248-З // Нац. центр правовой информ. Респ. Беларусь. – Минск, 2025.

ҚУЛАЙ АТРОФ ТАБИИЙ МУҲИТГА ЭГА БЎЛИШ ҲУҚУҚИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ КАФОЛАТЛАРИ

Усмонов Муҳаммади Бахритдинович,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети
профессори, юридик фанлар доктори, профессор

Кишилик жамияти тараққиётининг бугунги кун босқичида экологик хавф-хатарлар миллий ва жамоат хавфсизлигининг муҳим таркибий қисми бўлиб, улар ҳозирги пайтда инсониятнинг қулай атроф табиий муҳитда яшаши учун глобал муаммоларни келтириб чиқармоқда. Шундай фожеали глобал экологик хавф-хатарлар сирасига атроф табиий муҳитнинг ифлосланиши, иқлим ўзгариши, сув тақчиллиги, биохилмахилликнинг қисқариши, чиқиндилар билан муомалада бўлиш муносабатларининг тўғри йўлга қўйилмаганлиги, санитария-эпидемиологик ҳолатнинг ёмонлашуви оқибатида одамларнинг касалланиши даражасининг ўсиши кабиларни кўрсатиш мумкин.

Ушбу глобал экологик муаммолар таъсирида бугунги кунда дунёда ҳайвонот ва ўсимлик дунёсининг қирилиб кетиши, уларнинг ноёб турларининг

йўқолиб бориши, инсон ўртача умр кўриш ёшининг камайиши, инсон организмида модда алмашинувининг бузилиши, юрак-қон, рак каби касалликларнинг кўпайиши юз бермоқда. Бугунги кунда экотизмдаги мувозанатнинг бузилиши шу даражада оғир кўриниш олганки, бунинг натижасида инсонларнинг қулай атроф табиий муҳитга эга бўлиш ҳуқуқини амалда таъминлаш жиддий муаммога айланиб бормоқда.

Шундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, экологик хавф-хатарлар таъсиридан жамоат хавфсизлигини таъминлаш атроф табиий муҳитни соғломлаштириш, сувни ифлослантирмаслик, атмосфера ҳавоси мусаффолигини сақлаш, чиқиндиларни ташиш, сақлаш, утилизация қилиш ва кўмиб ташлаш жараёнида экологик талабларга риоя қилиш, турли хил экологик касалликлар келиб чиқишининг олдини олиш, фуқароларнинг қулай атроф табиий муҳитга эга бўлиш ҳуқуқини кафолатлаш дунёдаги барча давлатлар олдида турган долзарб вазифалардан бири ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев ҳақли равишда таъкидлаганидек, “атроф-муҳит мувозанатининг бузилиши, табиий ресурслардан номутаносиб фойдаланиш, чиқиндиларга бепарво муносабатда бўлиш ва ифлосланиш экотизимларга ва аҳоли саломатлиги ва фаровонлигига, барқарорлик ва давлатлар хавфсизлигига таъсир қилиб, салбий оқибатларга олиб келмоқда. Тупроқ, сув ва ҳавонинг ҳаддан зиёд ифлосланиши, иқлим ўзгариши, ўсимликлар ва ҳайвонот дунёсидаги ташвишли ўзгаришлар экологик муаммони тараққиётга юз тутаётган мамлакатларнинг хавфсизлигига жиддий таҳдид солаётган омиллардан бирига айлантирмоқда” [1].

Фуқароларнинг қулай атроф табиий муҳитга эга бўлиш ҳуқуқини таъминлашга жиддий хавф солаётган экологик таҳдидлардан бири сув ресурсларининг тақчиллиги, унинг саноат чиқиндилари, оқова сувлар билан ифлосланишидир. Маълумки, чучук сув танкислигининг асосий сабаби ундан нооқилона фойдаланиш, саноат корхоналари ва аҳолининг маиший турмушидан чикаётган оқова сувларнинг етарлича тозаланмасдан дарё ва кўлларга ташланишидадир. Ичимлик суви эпидемиологик ва радиацион жиҳатдан хавфсиз, кимёвий таркибига кўра зарарсиз бўлиши ва мақбул хоссаларга эга бўлиши лозим.

Фуқароларнинг қулай атроф табиий муҳитга эга бўлиш ҳуқуқига салбий таъсир этаётган хавф-хатарлардан яна бири чиқиндиларни ташиш, сақлаш, зарарсизлантириш, утилизация қилиш ҳамда кўмиб ташлаш билан боғлиқ муносабатларнинг тўғри йўлга қўйилмаганлигидир. Ўзбекистон Республикаси “Чиқиндилар тўғрисида”ги қонунининг 21-моддасида белгиланишича, Ўзбекистон Республикаси ҳудудига чиқиндиларни, шу жумладан, чет элга мансуб радиоактив чиқиндиларнинг ҳар қандай турларини сақлаш ва кўмиб

ташлаш мақсадида олиб кириш таъқиқланади. Фуқароларнинг ҳаёти ва соғлиғи, атроф табиий муҳитнинг хавфсизлиги таъмин этилиши шарти билан чиқиндилар фақат қайта ишлаш ва утиллаштириш учун қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда олиб кирилишига йўл қўйилади. Чиқиндиларни сақлаш санитария нормалари ва қоидаларига, экологик хавфсизлик талабларига мувофиқ ҳамда чиқиндилардан оқилона фойдаланилишини ёки уларнинг бошқа шахсларга берилишини таъминловчи усулларда амалга оширилади [2].

Ҳаракатдаги қонунчиликда алоҳида экологик талаб сифатида радиациявий чиқиндиларни кўмишнинг қаттиқ режими ўрнатилган. Чиқиндиларни аҳоли пунктлари ерларида, табиатни муҳофаза қилиш, соғломлаштириш, рекреация мақсадларига мўлжалланган ва тарихий-маданий аҳамиятга молик ерларда, сувни муҳофаза қилиш зоналари ва сув объектларининг санитария муҳофазаси зоналари атрофида, фуқаролар ҳаёти ва соғлиғига, шунингдек, алоҳида муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар ҳамда объектларга таҳдид келиб чиқиши мумкин бўлган бошқа жойларда сақлаш ва кўмиб ташлаш таъқиқланади.

Юридик ва жисмоний шахслар кимёвий моддаларни, биологик воситаларни ва материалларни ташиш, сақлаш, қўллаш, зарарсизлантириш, утилизация қилиш ҳамда кўмиб ташлаш пайтида аҳолининг санитария-эпидемиологик осойишталигини таъминлаш мақсадида санитария қоидалари, нормалари ва гигиена нормативларига риоя этишлари талаб этилади. Юридик ва жисмоний шахслар радиоактив моддаларни ҳамда бошқа ионлаштирувчи нурланиш манбаларини қазиб олиш, ишлаб чиқариш, ҳосил қилиш, қайта ишлаш, улардан фойдаланиш, уларни сақлаш, уларга хизмат кўрсатиш, уларни ташиш, зарарсизлантириш, утилизация қилиш ва кўмиб ташлаш пайтида санитария қоидалари, нормалари ва гигиена нормативларига риоя этиши шарт.

Экология қонунчилигида фуқароларнинг қулай атроф табиий муҳитга эга бўлиш ҳуқуқини ҳимоя қилишга қаратилган бу каби талаблар ўрнатилишининг асосий сабабини мамлакатимиз ҳудидида кўп миқдорда қаттиқ чиқиндилар тўпланиб қолганлиги учун тупроқ таркибида юқори миқдорда кимёвий эълементлар ва радионуклидлар йиғилиб қолганлиги билан изоҳлаш мумкин. Маълумки, Ўзбекистон худудининг марказий ва шарқий қисмлари жаҳонда уран конлари бўйича энг йирик хисобланган Тянь-шань уран-руда мегопровинцияси таркибига киради, радиоактив рудаларни қазиб олиш, ҳарбий, энергетика, тиббиёт, илм-фан ва техника соҳаларида радионуклидлардан фойдаланиш жараёнида пайдо бўладиган радиоактив чиқиндилар, рудаларнинг ағдарма ҳандақлари, қазилмаларни бойитиш ва сақлаш жойлари маълум даражада радиацион хавфли ўчоқлар саналиб атроф табиий муҳит софлиги, инсон ҳаёти ва соғлиғи учун катта хавф туғдиради.

Бу муаммо хусусида шуни айтиш керакки, юртимизда радиациявий хавфсизликни таъминлаш борасида кенг кўламли ишлар амалга оширилган бўлсада, бу борада ўз ечимини кутаётган муаммолар ҳали талайгина. Хусусан, кимёвий ашёларни ишлатиш ҳажми сезиларли даражада қисқарганлигига қарамасдан тупроқни ва сувни қолдиқ токсик моддалар билан ифлослантириш муаммоси ҳали ўз ечимини топганича йўқ, мамлакатимиз ҳудудида жойлашган 13 та заҳарли кимёвий моддаларни кўмадиган жарликларда фойдаланиши ман қилинган жами 9 минг тонна заҳарли кимёвий ва радиациявий моддалар кўмилган, заҳарли кимёвий моддалар кўмилган жойларни сақлаш шароити белгиланган талабларга тўла жавоб бермайди.

Маълумки, инсон ўз фаолиятида табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш билан боғлиқ қонуниятларни эътиборга олиши ҳамда ҳозирги ва келажак авлод манфаати йўлида табиатга ва унинг биологик ресурсларига зарар етказмаслиги талаб этилади. Ушбу талабни таъминлашни бугунги кунда табиат ва жамият ўртасидаги муносабатларнинг ўзаро мутаносиб уйғун ривожланишини кафолатловчи конституциявий нормаларсиз тасаввур этиш қийин.

Шу сабабдан, Ўзбекистон Республикаси Конституциясида бош ғоя сифатида, энг аввало, жамоат хавфсизлиги, атроф табиий муҳитнинг софлиги, инсоннинг ҳаёти ва соғлиғи учун қулай атроф табиий муҳитга эга бўлиш ҳуқуқини ҳимоя қилишни таъминлаш ётиши талаб этилади. Демак, фуқаролар нормал ҳаёт кечиришлари, соғлом турмуш тарзини амалга оширишлари, меҳнат фаолияти билан шуғулланишлари учун уларни ўраб турган атроф табиий муҳит - атмосфера ҳавоси, сув, ўсимлик дунёси, тупроқ тоза, инсон соғлиғига зарарли таъсир этмайдиган сифат ва ҳолатда бўлиши лозим.

Маълумки, мустабид тузум даврида қабул қилинган атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш қонунларида экологик-иқтисодий тизимда табиий ресурслардан фойдаланиш бош вазифа, уларни муҳофаза қилиш эса иккинчи даражали сифатида қараларди. Бундай шароитда инсонлар ҳаёти ва соғлиғини ҳимоя қилиш, уларнинг қулай атроф табиий муҳитга эга бўлиш ҳуқуқини иқтисодий фаолиятдан устуворлигини таъминлаш, фуқароларнинг қулай атроф табиий муҳит шароитида меҳнат қилиш ва дам олиш ҳуқуқини кафолатлаш иккинчи даражага суриб қўйилган эди.

Воҳаланки, фуқароларнинг қулай атроф табиий муҳитга эга бўлиш ҳуқуқи, атроф табиий муҳитни муҳофаза этиш билан боғлиқ бўлган мажбуриятлари, давлат органларининг атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш соҳасидаги ваколатлари билан боғлиқ вазифалар муҳим аҳамиятга эга бўлиб, у Конституция асосида тартибга солиниши лозим бўлган энг муҳим ижтимоий муносабатлардан ҳисобланади. Шундан келиб чиққан ҳолда Ўзбекистон

Республикасининг Асосий қонуни нормаларида атроф табиий муҳитни асраб-авайлаш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, давлатнинг атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш, экологик тизим барқарорлигини ва уларнинг мувозанатини таъминлаш функцияси, фуқароларнинг экологик ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, корхона, муассаса, ташкилотлар ва фуқароларнинг атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш соҳасидаги мажбуриятлари каби ҳуқуқий муносабатлар атрофлича тартибга солинган.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг преамбуласидаёқ дунё конституциялари преамбуласи амалиётида учрамайдиган қоида, яъни “мамлакатимизнинг бебаҳо табиий бойликларини кўпайтириш , ҳозирги ва келажак авлодлар учун асраб-авайлаш ҳамда атроф-муҳит мусаффолигини сақлашга астойдил аҳд қилиб, ушбу Конституцияни қабул қиламиз ва эълон қиламиз” [3] таҳриридаги норма ўрнатилди. Ушбу норма миллатимизнинг она табиатга бўлган эътиборининг ёрқин ифодаси, унга Асосий қонуннинг преамбуласиданоқ конституциявий мақом берилишидир.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясида Ўзбекистон Республикаси Президентининг табиий офат рўй берган ҳолатларда ваколатларининг белгиланганлиги фуқароларнинг қулай атроф табиий муҳитга эга бўлиш ҳуқуқини таъминлашда алоҳида аҳамият касб этади. Чунончи, Асосий қонуннинг 109-моддасига кўра, Ўзбекистон Республикаси Президенти фавқулодда вазиятлар (реал ташқи хавф, оммавий тартибсизликлар, йирик ҳалокат, табиий офат, эпидемиялар) юз берган тақдирда фуқароларнинг хавфсизлигини таъминлашни кўзлаб, Ўзбекистон Республикасининг бутун ҳудудида ёки унинг айрим жойларида фавқулодда ҳолат жорий этади ва қабул қилган қарорини уч кун ичида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг палаталари тасдиғига киритади.

Фуқароларнинг қулай атроф табиий муҳитга эга бўлиш ҳуқуқини таъминлашда давлат ва жамоат экологик назоратини кучайтириш, иқтисодиётнинг табиий ресурслардан оқилона фойдаланишга кўрсатаётган салбий таъсирини бартараф этиш каби муаммоларни ҳал этиш муҳим аҳамият касб этади. Шу мақсадда, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 49-моддасида “давлат фуқароларнинг экологик ҳуқуқини таъминлаш ва атроф муҳитга зарарли таъсир кўрсатилишига йўл қўймаслик мақсадида шаҳарсозлик фаолияти соҳасида жамоатчилик назоратини амалга ошириш учун шарт-шароит яратиши, шаҳарсозлик ҳужжатларининг лойиҳалари қонунда белгиланган тартибда жамоатчилик муҳокамасидан ўтказилиши, давлат барқарор ривожланиш принципига мувофиқ, атроф-муҳитни яхшилаш, тиклаш ва муҳофаза қилиш, экологик мувозанатни сақлаш бўйича чора-тадбирларни

амалга ошириши юзасидан чоралар кўриши” [4], таҳриридаги қоидалар мустаҳкамланди.

Бундан ташқари, Асосий қонунимизда фуқароларнинг қулай атроф табиий муҳитга эга бўлиш ҳуқуқини Конституция даражасида тартибга солиниши лозимлигига асосий эътибор берилган бўлиб, унда “ҳар ким қулай атроф-муҳитга, унинг ҳолати тўғрисидаги ишончли ахборотга эга бўлиш ҳуқуқига эга (49-модда), фуқаролар Ўзбекистон халқининг тарихий, маънавий, маданий, илмий ва табиий меросини асраб-авайлаши шарт, тарихий, маънавий, маданий, илмий ва табиий мерос давлат томонидан муҳофаза қилинади (61-модда), фуқаролар атроф табиий муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлишга мажбурдирлар (61-модда), мол-мулкдан фойдаланиш атроф-муҳитга зарар етказмаслиги, бошқа шахсларнинг, жамият ва давлатнинг ҳуқуқларини ҳамда қонуний манфаатларини бузмаслиги керак (66-модда), давлат ёшларнинг маданий, экологик ҳуқуқлари ҳимоя қилинишини таъминлайди” (79-модда) каби таҳрирдаги нормаларнинг жой олганлиги давлат томонидан инсоннинг яшаш муҳити бўлмиш биосфера ва экология тизимлари барқарорлигини сақлаб қолиш, одамларнинг экологик жиҳатдан хавфсизлиги, инсон ва унинг келгуси авлодлари генетик фонди ҳақида ғамхўрлик қилишини таъминлашда муҳим роль ўйнайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021, 383-бет;

2. Ўзбекистон Республикасининг “Чиқиндилар тўғрисида”ги қонуни //Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси, 2002, 4-5-сон, 72-модда;

3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2023;

4. Ўша жойда.

МУРОЖААТ ҚИЛИШ ҲУҚУҚИ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ИНСТИТУТ СИФАТИДА

Юлдашов Содиқ Оқбаевич
Ташкент халқаро университети профессори, ю.ф.ф.д. (PhD)

Аннотация. Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикасида Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари конституциявий ҳуқуқнинг алоҳида институт сифатида ҳуқуқий таҳлил этилган.

Калит сўзлар: мурожаат, жисмоний шахасларнинг мурожаатлари, юридик шахсларнинг мурожаатлари, жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари институти, жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари институтининг предмети ва принциплари.

Башарият жамияти тадрижий тараққиёти жараёнида инсон ҳуқуқлари энг қадрли неъмат сифатида эътироф этилиб келинган. Бу ҳақида жаҳон давлатчилик ва қонунчилик тарихида кўплаб назарий ғоялар ёзилган ва амалий далиллар келтирилган. Бироқ бу ҳуқуқ XVIII асрга келибгина ҳуқуқий ҳужжатларда ўз аксини топган, холос.

XX асрнинг иккинчи ярмига келиб, яъни Бирлашган Миллатлар Ташкилоти ташкил топгандан сўнг, инсон ҳақ-ҳуқуқлари том маънода, халқаро ҳамжамият ва дунё давлатлари томонидан энг олий қадрият дея тан олингани ҳолда, миллий қонунчилигига сингдирилди ва амалга ошириш механизлари институтлари ташкил этилди.

Мамлакатимиз мустақиллигининг дастлабки даврлариданоқ, қабул қилинган Асосий қонуннинг 40-моддасида “Ҳар ким бевосита ўзи ва бошқалар билан биргаликда давлат органларига ҳамда ташкилотларига, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларига, мансабдор шахсларга ёки халқ вакилларига аризалар, таклифлар ва шикоятлар билан мурожаат қилиш ҳуқуқига эга. Аризалар, таклифлар ва шикоятлар қонунда белгиланган тартибда ва муддатларда кўриб чиқилиши шарт”, деган қоида мустаҳкамлаб қўйилди.

Ушбу ҳуқуқий нормада: *биринчидан*, шахсларга муайян ҳаракатларни содир этиш мумкинлигини кўрсатувчи ҳуқуқ нормалари назарда тутилган (масалан, шахсга давлат органларига мурожаат этиш ҳуқуқи), *иккинчидан*, мурожаатларни кўриб чиқадиган давлат органлари ва уларнинг мансабдор шахсларига муайян ҳаракатларни содир этиш шартлигини кўрсатувчи ёки маълум бир мажбурият юкловчи нормалар сифатида акс эттирилган.

Шунингдек, юқорида қайд этилган конституциявий нормани кафолати сифатида Қомусимизнинг 55-моддасида “Ҳар кимга ўз ҳуқуқ ва эркинликларини суд орқали ҳимоя қилиш, давлат органларининг ҳамда бошқа ташкилотларнинг, улар мансабдор шахсларининг қонунга хилоф қарорлари,

ҳаракатлари ва ҳаракатсизлиги устидан судга шикоят қилиш ҳуқуқи кафолатланади”, деган ҳуқуқий меъёр белгиланган бўлиб, бу кафолатлар икки асосий қоида билан белгиланади: *биринчиси*—ҳуқуқлар давлат органлари ёки айрим шахслар томонидан бузилган ҳар бир ҳолатда судга арз қилиш ҳуқуқи; *иккинчиси*—қонунда белгиланган ҳуқуқ ва эркинликлар мажбурий таъминланишини сўраб судга мурожаат этиш ҳуқуқи, яъни субъектив ҳуқуқни амалга ошириш [1;216].

Шуни таъкидлаш лозимки, конституцион нормалар махсус қонунларда аниқлаштирилган ёки аниқлаштирилмаганлигидан қатъи назар амал қилиш аҳамиятини йўқотмайди. Шунингдек, Конституцияда назарда тутилган айрим нормаларнинг амал қилиши махсус қонунларда аниқлаштирилиши ёки тўла очиб берилишини истисно этмайди, чунки тегишли қонун ҳужжатларида конституциявий нормаларни тадбиқ этишнинг тартиб-қоидалари белгилаб қўйилади.

Жисмоний ва юридик шахсларнинг давлат органлари, ташкилотлар, улар мансабдор шахсларига ариза, таклиф ва шикоят билан мурожаат этиши – бу уларнинг давлат ва жамият бошқарувида қатнашишининг амалий шаклидир.

Жисмоний ва юридик шахслар ушбу ҳуқуқнинг моҳиятини очишда қуйидагиларни назарда тутиши керак: *биринчидан,* ариза, таклиф ва шикоятлар барча ваколатли давлат органлари, ташкилотлар, улар мансабдор шахсларига берилиши мумкин. Уларнинг раҳбарлари ва масъул шахслари ушбу мурожаатларни қабул қилишни рад эта олмайдилар; *иккинчидан*, ариза, таклиф ва шикоятларда нафақат давлат органлари фаолиятини такомиллаштиришга доир таклифлар, балки улар фаолиятидаги камчилик, хато ва нуқсонларни кўрсатувчи, шунингдек, кенг доирадаги ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, маданий, жамият ва давлат ишларини бошқариш масалалари бўйича таклифлар ҳам бўлиши мумкин; *учинчидан*, ушбу ҳуқуқ жисмоний ва юридик шахсларнинг давлат ва жамоатчиликка оид манфаатлар учун курашишларининг самарали воситаси ҳисобланади; *тўртинчидан,* жисмоний ва юридик шахсларнинг ариза, таклиф ва шикоятлари оғзаки, ёзма ва электрон шаклда берилиши мумкин.

Бу институт ҳам кўпгина конституциявий институтлар каби тармоқлараро хусусиятга эга бўлиб, ҳуқуқнинг бошқа тармоқларидаги нормалар билан тартибга солинади. Масалан, мурожаатлар тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузганлик, худди шунингдек, туҳмат ва ҳақоратдан иборат мурожаатга доир муносабатлар маъмурий ва жиноят ҳуқуқлари, ариза ёки шикоят бериш ва уни кўриб чиқиш билан боғлиқ зарар, маънавий зиённи компенсация қилиш каби муносабатлар фуқаролик ҳуқуқи билан тартибга солинади.

Демократик жамиятда фикр ва ғояларни эркин ифодалаш инсоннинг энг қимматли ҳуқуқларидан биридир. Шунинг учун ҳар бир жисмоний ва юридик

шахс қонунда назарда тутилган эркинликларини поймол этилиши юзасидан эркин гапириши, ёзиши ва нашр этиши мумкин.

Аслида, фикр юритиш ва сўз эркинлиги каби конституциявий нормалар алоҳида конституциявий эркинликлар ҳисобланса-да, ўз мазмунига кўра, жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари институтининг алоҳида элементи бўлиб, уни ҳар жиҳатдан тўлдиради ва мустаҳкамлайди. Хусусан, *фикр юритиш*—инсоннинг ўзига бўлган ишончи ва билимига асосланиб, давлат ва жамият ҳаёти, мамлакатда амалга оширилаётган ислоҳотлар жараёни, ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, маънавий, ҳуқуқий ва бошқа соҳалардаги муаммоларга доир мулоҳаза ва қарашларини эркин баён қилиш ҳуқуқи бўлса, *сўз эркинлиги*—фуқароларнинг оғзаки равишда фикр билдириш ҳуқуқидир. Фуқаролар сўз эркинлиги орқали ўзининг сиёсий ҳуқуқларидан кенг фойдаланиш имкониятига эга бўладилар, яъни улар жамият ва давлат ишларини бошқаришда бевосита ҳамда ўз вакиллари орқали иштирок этиш, референдумлар ўтказиш, давлат органларининг фаолияти устидан жамоатчилик назоратини амалга ошириш, қонунларда белгиланган тартибда митинглар, йиғилишлар ва намойишлар уюштиришда ўз мулоҳазаларини баён қилиш ва қатнашиш имкониятига эга бўладилар.

Фикр юритиш ва сўз эркинлигининг Оммавий ахборот воситаларида ифодаланиши демократик жамиятнинг кенг қўлланиладиган муҳим воситасидир. Шунинг учун бу конституциявий норма Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг XV боби ва янги таҳрирдаги “Оммавий ахборот воситалари тўғрисида”ги Қонуннинг 5-моддасида мустаҳкамлаб қўйилган. Бу эса, умум эътироф этилган Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро Пактнинг 19-моддасида назарда тутилган қоидасига мос келади [2;28].

Президент Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек, “Ўтган уч йил мобайнида Ўзбекистонда сўз эркинлигини таъминлаш, оммавий ахборот воситаларини ҳар томонлама ривожлантириш, журналист ва блогерларнинг эркин фаолият юритиши ва ижод қилишлари учун ҳуқуқий асослар ва кенг имкониятлар яратилди. Бундан кейин ҳам “тўртинчи ҳокимият” вакилларининг эркин ва холис фаолият юритишлари, мамлакатимизда амалга оширилаётган жадал ислоҳотларни халқимиз ва халқаро ҳамжамият учун очиқ-ойдин ёритишлари учун барча шарт-шароитларни яратамиз. Жойлардаги муаммо ва камчиликларни рўй-рост очиб бериш, уларни ҳаққоний ёритишларида мен профессионал журналистларни ҳамиша ва ҳар томонлама қўллаб-қувватлашга тайёрман”[3].

Конституциявий-ҳуқуқий институт сифатида жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари институтини ривожлантирмасдан асосий

мақсадимиз бўлган инсонпарвар демократик ҳуқуқий давлат барпо этиш ҳақида ҳеч қандай фикр бўлиши мумкин эмас.

Шу боис, бу институтнинг таъсирчан ва амалий механизмларини яратиш учун қуйидагиларни амалга ошириш тавсия этилади: *биринчидан,* жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатларига доир қонунчиликни янада такомиллаштириш; *иккинчидан,* давлат органлари, шу жумладан мурожаатларни кўриб чиқувчи институционал тузилмаларнинг жисмоний ва юридик шахслар билан ҳуқуқий муносабатларини аниқ тартибга солувчи маъмурий процедураларни ривожлантириш; *учинчидан,* қонунлар ва қонуности ҳужжатлари лойиҳаси бўйича кенг жамоатчилик таклифларини ўрганиш амалиётини жорий этиш; *тўртинчидан,* ваколатли давлат органлари томонидан қабул қилинган қонун ҳужжатлари устидан шикоят қилиш тартибини такомиллаштириш; *бешинчидан,* жисмоний ва юридик шахслар мурожаатларини коллегиал эшитиш механизмларини жорий этишни назарда тутувчи маъмурий адлия тизимини ривожлантириш; *олтинчидан,* “Электрон ҳукумат” тизимини такомиллаштириш орқали давлат хизматлари кўрсатишнинг самарадорлигини ошириш; *еттинчидан,* аҳолининг ўз ҳуқуқ ва эркинликларини тўлиқ англаб олишга йўналтирилган тарғибот тадбирларини кенгайтириш; *саккизинчидан,* мурожаатларни холисона, тўлиқ ва ўз вақтида кўриб чиқишда масъулиятсизликка йўл қўйган мутасаддиларнинг жавобгарлиги тўғрисидаги кўрилган чора-тадбирларни тизимли равишда ОАВ ва ижтимоий тармоқларда ёритиб бориш; *тўққизинчидан,* жисмоний ва юридик шахсларнинг жамият ва давлат ҳаётига оид жўяли таклифлари бўйича уларни рағбатлантириш чораларини кўриш; *ўнинчидан,* мурожаатларни кўриб чиқадиган тузилмалар фаолиятига ошкоралик бериш ва амалга оширган ишлари ҳақида аҳолини мунтазам хабардор қилиб бориш; *ўн биринчидан,* жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари институтига оид қонунчилик ижроси масалалари бўйича мутахассислар жалб этилган ҳолда ОАВда мунтазам мулоқотлар ташкил этишни ривожлантириш; *ўн иккинчидан,* жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари институтига оид услубий-ўқув қўлланмаларини чоп этиш, тегишли ўқув масканларида дарсликлар ҳажмини кўпайтириш.

Зеро, жисмоний ва юридик шахслар қанчалик ўз ҳуқуқ ва эркинликларидан кенг фойдалансалар, улар шунчалик жамиятдаги мавжуд бўлган иллатларга қарши кескин кураша оладилар. Ҳеч ким фуқаролар устидан тазйиқ ўтказа олмайди [4;44].

Ҳуқуқ соҳасининг ҳар қандай қонунлари каби жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари институтига доир қонунлар ҳам ўз табиатига кўра зарурийдир. Бу, *биринчидан*, мазкур қонунларда кўрсатилган қоидаларга барча

шахслар амал қилишлари шарт эканлигида бўлса, *иккинчидан,* институт субъектлари ўртасидаги ижтимоий муносабатларни тартибга солишда муҳим восита бўлиб хизмат қилади.

Барча ҳуқуқ институтларнинг ўз предмети бўлгани каби, жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари институтининг *предметини* – давлат органлари, ташкилотлар ва уларнинг мансабдор шахсларига жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари жараёнида вужудга келадиган ижтимоий муносабатлар ташкил этади.

Бу институтнинг моҳияти, вазифаси, хусусиятлари унинг принциплари орқали маълум бўлади. Худди шу каби, мурожаатларни кўриб чиқишнинг ўзига хос принципи мавжуддир. Бу *принциплар:* қонунийлик; мурожаатларни ўз вақтида ва тўлиқ кўриб чиқиш; мурожаатларга нисбатан талабларнинг бир хиллиги; жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларига риоя этилиши; мурожаатларни кўриб чиқишда бюрократизм ва сансалорликка йўл қўйилмаслиги; мурожаатларни кўриб чиқишда давлат органлари, ташкилотлар, улар мансабдор шахслари фаолиятининг шаффофлигидан иборатдир [5;7].

Мухтасар айтганда, жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари институти демократия ва ижтимоий адолатга садоқатини намоён қиладиган инсонпарвар демократик ҳуқуқий давлат барпо этишда муҳим восита бўлиб, у конституциявий-ҳуқуқий институт сифатида қуйидаги тўртта асосий вазифани ҳал этади: *биринчидан,* давлат фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳамда юридик шахсларларнинг қонун билан қўриқланадиган манфаатларини ҳимоя қилади; *иккинчидан,* жисмоний ва юридик шахслар ушбу институт воситасида жамият ва давлат ишларини бошқаришда бевосита ва фаол иштирок этадилар; *учинчидан*, мазкур институтнинг асосий манфаатдор субъектлари (жисмоний ва юридик шахслар) давлат ҳокимияти ва бошқарув органлари фаолияти устидан жамоатчилик назоратини амалга оширадилар; *тўртинчидан,* шу институт доирасида давлат органлари, муассасалари, улар мансабдор шахсларининг мурожаатларга доир муносабатини белгилаб беради.

References:

1.Исломов З., Аббосхўжаев С. Конституция – ҳуқуқ устунлиги асоси.– Тошкент: “Ўзбекистон”, 2012. – Б.216.

2.Шарафутдинов А.О., Саттаров А.Х. Ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларига оид халқаро ҳужжатлар. —Тошкент: “Адолат”, 2004.– Б.28.

3.Мирзиёев Ш.М.Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қўшма палатасига 2020 йилги Мурожаатнома, http://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-Mirziyoyevning-olij-mazhlisga-murozhaatnomasi.

4.Ҳусанов О.Т., Каримова О., Азизов Ҳ., Тўйчиева Ҳ., Каримов З. Инсон ҳуқуқлари. –Т.: “Шарқ”, 1997. – Б.44.

5.Ўзбекистон Республикасининг “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида”ги Қонуни.–Тошкент: “Адолат” нашриёти, 2017. – Б.7.

“ИНСОН ҚАДРИ УЧУН” ҒОЯСИНИНГ УСТУВОР ЭТГАН ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ КОНСТИТУЦИЯСИ

Дадашева Ақида Абдужаббаровна
Жамоат хавфсизлик университети профессори, юридик фанлари доктори
aqida777@mail.ru (97)131 02 77

Аннотация: Ўзбекистонда бош қомуси Конституция қабул қилинганлигининг 33 йилги муносабати билан “Инсон қадри учун” ғоясининг муҳим элементлари, тарғиботда, фуқаролар томонидан Конституциядаги ўзгаришларни ижобий қабул қилишида эътибор берган жиҳатлари ўрганилган, фуқаролик жамиятининг хукумат олиб бораётган сиёсатга фикрни баён қилишда фаоллигини ошириш масалалари таҳлил қилиб чиқилган. Жамоатчилик муҳокамаси ва назорати энг муҳим қисми унинг натижасида эканлиги эътироф этилган.

Калит сўзлар: жамоатчилик эшитуви, жамоатчилик сўрови, сўровнома, фуқаролик жамиятининг фаоллиги, ғоя, таълимотлар, тарғибот, субьектлари, норматив ҳуқуқий ҳужжатлари.

КОНСТИТУЦИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН, КАК ОСНОВНОЙ И ГЛАВНОЕ ИДЕЯ «ДОСТОИНСТВО ЧЕЛОВЕКА»

Аннотация: В связи с 33-й годовщиной принятия Конституции Узбекистана были проанализированы основные элементы идеи «За достоинство человека», аспекты, на которые обращалось внимание в пропаганде, позитивное восприятие гражданами изменений в Конституцию, вопросы повышения активности гражданского общества в выражении мнения о проводимой правительством политике. Признано, что важнейшей частью общественного обсуждения и контроля является его результат.

Ключевые слова: публичные слушания, общественный запрос, анкетирование, деятельность гражданского общества, идея, учение, пропаганда, субъекты, нормативные правовые документы.

THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN, AS THE FUNDAMENTAL AND MAIN IDEA OF "HUMAN DIGNITY"

Abstract: In connection with the 33rd anniversary of the adoption of the Constitution of Uzbekistan, the key elements of the "For Human Dignity" idea were analyzed, as were aspects emphasized in propaganda, the positive public perception of the constitutional amendments, and the issues of increasing civil society's participation in expressing opinions on government policies. It was recognized that the outcome of public debate and oversight is a crucial part of its impact.

Key words: public hearings, public demand, survey, civil society activities, idea, teaching, propaganda, subjects, regulatory legal documents.

Ўзбекистонда ўтказилаётган кенг қамровли ислоҳотлар, кириб келаётган янгиликлар, татбиқ этилаётган самарали ўзгаришлар жаҳон ҳамжамияти ташкилотлари, экспертлари томонидан ушбу жараёни кузатишга сабабчи бўлмоқда ва эътироф этилмоқда. Хитойда Psearcher журналининг «Ўзбекистон - кенг кўламли ислоҳотлар мамлакати» номли махсус сони нашрга чиқарилди. Рангли тасвирланган нашрда сўнгги йилларда Ўзбекистонда ижтимоий-сиёсий, ижтимоий-иқтисодий соҳаларда амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотлар таъкидланади. Ўзбекистонда қонун устуворлигини таъминлаш, давлатнинг демократик пойдеворини мустаҳкамлаш борасида эришилган ютуқларга ижобий характер берилади. Нашр материалларида Ўзбекистоннинг сармоявий салоҳияти ва бизнес юритиш учун маъмурий тўсиқларни босқичма-босқич олиб ташлаш бўйича ижобий ўзгаришлар, кичик ва хусусий тадбиркорларга кредит бериш жараёнлари соддалаштирилганлиги, уларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича президентнинг вакиллик институти ташкил этилиши тўғрисида батафсил маълумотлар жойлаштирилган. Нашрда Ўзбекистон ижтимоий сиёсатининг устувор йўналишлари ҳақида маълумот берилиб, таълим, оналик ва болалик саломатлиги соҳаларида эришилган ютуқларга алоҳида эътибор қаратилди. Ушбу мақола билан танишиб чиққанлар, сўнгги йилларда яратилган фуқаролик жамияти институтларини шакллантириш жараёни, турли миллатлар, динлар ва маданият вакилларининг тинч-осойишта яшаш шароитлари билан танишадилар.

Ахборот асри даврида кенг муҳокама қилинаётган ушбу ислоҳотларга нисбатан фикр эркинлиги, кўплиги, муҳокаманинг очиқлиги, шаффофлиги, бахс-мунозараларнинг турли туман назариялари билан шаклланаётганлигини гувоҳи бўлишимиз мумкин. Фуқаролик жамиятини ривожланишининг энг муҳим элементларидан бири ва самарали қисми бу хукумат сиёсатига бўлган ўз фикрини беришда фуқаролик жамиятининг фаоллигидир.

Янги таҳрирдаги Конституция қабул қилинмасдан олдин, оммавий ахборот йўналишда жамоатчилик фикри, жамоатчилик назорати, жамоатчилик суриштируви, жамоатчилик сўровномаси масалаларига ҳуқуқий асоси яратилганлигини ижобий бахолаш зарур. Буни эътироф этиш ва бу йўналишда фуқаролик жамиятини хукумат сиёсатида олиб борилаётган ислоҳотларда фаол қатнашишининг сайъи харакатларидир. Ўзбекистон Республикасида 2018 йилда қабул қилинган “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги қонуннинг 4-моддаси [9]да, Жамоатчилик назоратининг обьектида, давлат хизмати кўрсатишга эътибор берилган. Масалан, Транспорт соҳаси мавзусининг муҳим элементларидан бири сифатида қараладиган бўлса, фуқароларга хавфсиз хизмат кўрсатишни кафолатлаш, ушбу жараёнлардаги муаммоларни аниқлаш ва ечимини топишда фуқаролар ўртасидан сўровномалар ўтказиш ушбу жараённинг натижасини мониторинг қилиш ва хавфсизлик ҳудудини аниқлаш уларни дойимий рейтингини эълон қилиб туриш муҳим. Давлат хизматларини кўрсатишда, бу фаолият давомийлиги ва долзарблигини йўқотмайдиган соҳадир. Уни татбиқ этишда ушбу сўровнома(анкета) олиб борилиши ва ўрганиб борилиши зарур. Рақамлаштирилган иловалар орқали сифатли, савияли тартибда ўтказилиши муҳим.

Ушбу қонуннинг 5-моддаси [10]да, жамоатчилик назоратининг асосий тамойилларида, қонунийлик, фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатлари устуворлиги ҳамда жамоатчилик назоратини амалга оширишда иштирок этишнинг ихтиёрийлигини ҳам унитмаслигимиз муҳим. Энг асосийси жамоатчилик назоратини субьектларининг давлат органлари, уларнинг мансабдор шахслари фаолиятига асоссиз аралашувига ва уларга ғайриқонуний таъсир кўрсатишга йўл қўймаслиги эътироф этилган. Жамоатчилик назорати тўғрисидаги қонуннинг 7-моддасида, мурожаатлар ва сўровлар белгиланган. Унга кўра жамоатчилик назорати субьектлари давлат органларига аризалар, шикоялар ва таклифлар билан мурожаат қилишга, шунингдек қонунчиликда белгиланган тартибда уларга сўровлар юборишга ҳақлидир дейилган. Ушбу жараёнларнинг барчаси амалда умумий хулосаси сифатида олинадиган натижасидир. Илмий тадқиқот тахлилларидан келиб чиққиб, жараёни ўрганиш натижасида сўровлар жўнатишда ва давлат ташкилотидан маълумот жавобини кутишдан кўра, фуқароларнинг фикрини ўрганиш, уларнинг таклиф ва тавсияларини мониторинг қилиш, хукуматга тақдим этиш, ОАВлар билан ҳамкорликда ушбу масалани эълон қилиш, инобатга олиш самараси ижобийроқдир.

Жамоатчилик назорати тўғрисидаги қонуннинг 9-моддасида, жамоатчилик муҳокамаси, қисмида ижтимоий аҳамиятга молик масалаларни, шунингдек норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, давлат органларининг бошқа

қарорлари лойиҳаларини оммавий муҳокама қилиш жамоатчилик муҳокамасидир. Ушбу моддада жамоатчилик муҳокамасининг субьектлари жамоатчилик муҳокамасини ўтказиш мумкин дейилган. Жамоатчилик муҳокамаси оммавий ва очиқ ўтказилади. Жамоатчилик муҳокамасига киритилган масалалар юзасидан ўз фикрини эркин билдиришга ва таклифлар киритишга ҳақли. Жамоатчилик муҳокамаси оммавий ахборот воситалари орқали ахборот коммуникация технологиялардан фойдаланилган ҳолда ҳам ўтказиш мумкин. Жамоатчилик муҳокамасининг ташкилотчиси жамоатчилик муҳокамасига киритилаётган масалалар, муҳокамани ўтказиш муддати ва тартиби тўғрисидаги ахборотни олдиндан эълон қилади. Жамоатчилик муҳокамасининг ташкилотчиси жамоатчилик муҳокамасига киритилаётган масалалар, муҳокамани ўтказиш муддати ва тартиби тўғрсидаги ахборотни олдиндан эълон қилади. Бунда ташкилотчи ўз ихтиёридаги, жамоатчилик муҳокамасига киритилаётган масалаларга тааллуқли бўлган материаллардан жамоатчилик муҳокамасининг барча иштирокчилари эркин фойдаланишни таъминлайди деб қайд этилган.

Қонуннинг 13-моддасида, Жамоатчилик фикрини ўрганиш турли ижтимоий гуруҳларнинг норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари тўғрисидаги, давлат органларининг, улар мансабдор шахсларининг қонунчилик талабларига риоя этишига, фуқароларнинг, юридик шахсларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини, жамият манфаатларини таъминлашга доир фаолияти тўғрисидаги фикрини баҳолаш мақсадида ахборотни йиғиш, умумлаштириш ҳамда таҳлил этишдан иборатдир. Жамоатчилик фикрини ўрганиш нодавлат нотижорат ташкилотлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ва оммавий ахборот воситалари қонунчиликка мувофиқ ўтказиш мумкин. Лекин бу нормани амалиётда татбиқ этилганда, амалий механизми тўлиқ ишлаб чиқилмаган. Ва албатта, сўровноманинг саволлари мутахассислар томонидан тузилган ёки ишлаб чиқилган бўлиши муҳим.

2023 йилда бош қомус Конституция янги қўшимча ўзгаришлар билан – инсон қадрини юксалтириш муҳимлиги эътироф этилганлиги ва ўз ифодасини топган, кундалик ҳаётимизда намоён бўлаётган ҳақиқатдир. Фуқароларда барқарор даромад ва эртанги кунга ишонч пайдо бўлди. Оиласига ризқ топаётган, боласига илм бераётган, оёққа туриб, кунлик ҳаётини ижобий ўзгаришларга қураётган миллонлаб фуқаролар ўз тақдирида янги Ўзбекистонда тўла ҳис қилмоқда. Энг муҳими юқорида таъкидлаб ўтканимиздек, халқимиз ўзгармоқда. Ҳар бир хонадонда фаровонлик, хотиржамлик ва эртанги кунга мустаҳкам ишонч ифодаси айнан шу қомусимизда тўлиқ ғояларда баён этилган. Чунки тараққиёт, инсон ҳаётидаги яхшиланиш, унинг имкониятлари ва ҳаёт сифати билан ўлчанади. Юқоридаги ғоя Конституциямиз “Инсон қадри учун”,

ғоянинг амалга оширишнинг самарали ташкилий-ҳуқуқий асосларини татбиқ этиш, бу борада давлат идоралари фаолиятини яъни “***халқ*** давлат идораларига ***эмас***, давлат идоралари халққа ***хизмат*** қилиши керак” ғояси ҳам тамоман янгича мазмун, янгича руҳда ташкил этиш имкониятини берди. “Инсон-жамият-давлат” тамойилли эса Конституциямизни инсон, унинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни, қадр-қиммати ва бошқа ажралмас ҳуқуқларини том маънода, олий қадрият даражасига олиб чиқди. Юқорида бежис Жамоатчилик назорати тўғрисидаги қонунларини моддасига шарҳ бериб ўтилгани бежис эмас, инсон фаровонлиги, ҳукумат фаолиятида фаоллиги, қарор қабул қилинаётганда фикрларни хилма-хилиги эшитилиши, мониторинг қилиниши ижобийдир. Конституциямизда инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг кафолатли ҳимоясини таъминлаш, бутун жаҳон миқёсида тан олинган “Хабеас корпус” ва “Миранда қоидаси” каби институтларининг асосий қонунда мустаҳкамланиши – бу тарихий қадам бўлди. Қонундаги ноаниқликларнинг инсон фойдасига ҳал бўлиши, “сукут сақлаш” ҳуқуқининг илк маротаба белгиланиши, шахснинг судланганлиги унинг қариндошлари ҳуқуқларини чеклаш учун асос бўлиши мумкин эмаслиги ҳамда адвокатлар мақоми прокурор мақомига тенглаштирилиши, таълим, соғлиқни сақлаш ва экологияга оид ҳуқуқларнинг кафолатланиши ва жамоатчилик назоратини бир неча янги нормаларида қайд этилиши “Инсон Конституцияси” деб аташга тўла имкон беради. Конституция Ўзбекистон тараққиёт стратегияси сифатида халқимиз фаровонлиги йўлида маррани баланд олган мустаҳкам ғояси билан хамоҳанг равишда фуқароларимизнинг орзу-умидлари, мақсадлари, уй-ниятларини руёбга чиқаришнинг мустаҳкам ҳуқуқий ва мафкуравий заминга айланди десак адашмаган бўламиз. Конституция янги нормалар билан маъқулланганлигига кўп вақт ўтмаса-да, унинг мазмуни, руҳияти халқимизнинг ҳаётида тобора кенг акс этмоқда. Юртимизда бўлаётган бунёдкорлик ишлари, фуқароларимизнинг кундалик ҳаётидаги янгиланишларда кўришимиз мумкин. Юртимизда ўтаётган турли халқаро тадбирларда иштирок этиш учун ташриф буюраётган хорижликлар ҳам буни ижобий фикрлар билан эътироф этишмоқда. Юқоридаги хорижий журналлардаги мақола битта мисолдир.

Судлар томонидан Конституцияни бевосита қўллаган ҳолда қарорлар қабул қилиш амалиётининг кенгайиб бориши конституциявий меъёрларнинг тўғридан-тўғри ишлаётганидан дарак беради. Конституцияда белгиланган инсон ҳуқуқларига оид нормалар давлат ҳокимиятининг барча тармоқларида тўғридан-тўғри қўлланила бошланганини алоҳида қайд этиш жоиз. Конституция асосида жорий этилган ҳокимиятларнинг бўлиниш тамойили ҳамда ўзаро тийиб туриш ва манфаатлар мувозанати тизимининг замонавий янги концепциясидан келиб чиқиб, бир қатор давлат органлари, хусусан, Олий

Мажлис палаталари, Вазирлар маҳкамаси, Конституциявий суд ҳамда маҳаллий давлат ҳокимияти органлари фаолиятини тартибга солувчи қонун ҳужжатлари Конституцияга мувофиқлаштирилиб, уларнинг фаолияти янгича конституциявий-ҳуқуқий шароитларда йўлга қўйилди.

Конституцияда инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилишнинг мутлақо янги механизмлари жорий қилинди, яъни биринчи маротаба кимнинг Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига ва халқаро шартномаларига мувофиқ инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилувчи халқаро органларга, агар Ўзбекистоннинг ҳуқуқий ҳимояга доир барча мавжуд ички воситаларидан фойдаланиб бўлинган бўлса, мурожаат этишга ҳақли эканлиги мустаҳкамланди. Бу фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳимояси нафақат миллий қонунчиликда белгиланган нормалар, балки халқаро ҳуқуқ асосида ҳам ҳимояланиши таъминлайди.

Эътироф этилган жиҳатларидан яна бири, хотин-қизлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, уларни тазйиқ ва зўравонликдан муҳофаза қилиш тизимини такомиллаштирилди. Тазйиқ ва зўравонликдан жабрланган ёки жабрланиши хавфи остида бўлган хотин-қизларган ижтимоий, психологик ва юридик хизмат кўрсатиш тартиби жорий этилди. Конституциянинг 78-моддасида бериланган, боланинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини таъминлашга хизмат қиладиган норма белгиланди, унда болалар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, уларга нисбатан оилавий зўравонлик содир этганлик учун жавобгарликнинг кучайтирилиши, шунингдек, “Болаларни зўравонликнинг барча шаклларидан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонуннинг қабул қилиниши қонуний манфаатларини таъминлашга хизмат қилади. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациянинг 25-моддасида таъкидланганидек: “Оналик ва болалаик алоҳида ғамхўрлик ва ёрдам ҳуқуқини беради”, шу боис, ҳар бир давлатда, жумладан, Ўзбекистонда ҳам бола ҳуқуқлари кафолатларини таъминлаш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Бола ҳуқуқлари фундаментал характерга эга бўлиб, унинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини таъминлаш ҳамда ҳимоя қилиш, унинг жисмоний, ақлий ва маданий жиҳатдан тўлақонли ривожланиши учун энг яхши шарт-шароитларини яратиш давлатнинг муҳим мажбуриятидир. Шунингдек қайд этиш лозики, бола инсон зотининг энг ҳимояланмаган қисми ҳисобланади. Унинг ҳуқуқий мақоми ёш чекловларини инобатга олган ҳолда, инсон ва фуқаролнинг ҳуқуқий мақомидан келиб чиқади. Инсон ҳуқуқлари – инсоннинг давлат билан муносабатдаги ҳуқуқий мақомини, иқтисодий, ижтимоий, сиёсий ва маданий соҳаларидаги имкониятлари ҳамда даъволарини тавсифловчи тушунча хисобланади. 44-моддасида, болалар меҳнатининг боланинг соғлиғига, хавфсизлигига, аҳлоқига, ақлий ва жисмоний ривожланишига хавф солувчи, шу

жумладан таълим олишга тўсқинлик қилувчи ҳар қандай шакллари тақиқланди. 77-моддасида ота-оналар ва уларнинг ўрнини босувчи шахслар ўз фарзандини вояга етгунга қадар боқиши, уларнинг тарбияси, таълим олиши, соғлом, тўлақонли ва ҳар томонлама камол топиши хусусида ғамхўрлик қилишга мажбурдирлар. Мазкур моддада давлат ва жамият етим болаларни ҳамда ота-онасининг васийлигидан маҳрум бўлган болаларни боқиш, тарбиялаш, уларнинг таълим олишини, соғлом, тўлақонли ва ҳар томонлама камол топишини таъминланишини ҳам белилаб қўйилган. 78-моддасида эса, боланинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини таъминлаш ҳамда ҳимоя қилиш, унинг жисмоий, ақлий ва маданий жиҳатдан тўлақонли ривожланиши учун энг яхши шарт-шароитларини яратиш давлатнинг мажбурияти эканлиги алоҳида кўрсатилган. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 22 апрелдаги тегишли қарори билан “Бола ҳуқуқлари тўғрисида”ги конвенция талабларини ҳар томонлама ҳаётга татбиқ этиш, Ўзбекистон Конституция ва қонунларида назарда тутилган болаларнинг ҳуқуқлари амалда кафолатлаш, уларнинг жисмоний, интеллектуал ва маънавий етук авлод бўлиб етишишини таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлсиининг Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (омбудсман) ўринбосари – Бола ҳуқуқлари бўйича вакил лавозими ташкил этилди. 2021 йил 9 августдаги “Бола ҳуқуқларининг кафолатларини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони билан Олий Мажлиснинг Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (омбудсман) ўринбосари – Бола ҳуқуқлари бўйича вакил лавозими тугатилиб, Олий Мажлиснинг Бола ҳуқуқлари бўйича вакил (Болалар омбудсмани) институти таъсис этилди. Ушбу фармон билан; Бола ҳуқуқлари бўйича вакил ўз ваколатларини мустақил ҳамда давлат органлари, уларнинг мансабдор шахсларига тобе бўлмаган тарзда амалга оширилиши, ўз фаолиятида Олий Мажлис палаталарига ҳисобдор эканлиги; Бола ҳуқуқлари бўйича вакил Олий Мажлсининг Қонунчилик палатаси ва Сенати томонидан беш йил муддатга сайланиши; Бола ҳуқуқлари бўйича вакил лавозимига номзод Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг палаталари кўриб чиқиши учун Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан киритилиши мустаҳкамланган. Бола ҳуқуқлари бўйича вакилга – болалар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларининг ишончли ҳимоя қилишини таъминлаш, уларнинг ота-она қармоғидан маҳрум бўлишининг олдини олиш, давлат органлари ва бошқа ташкилотлар, ихтисослаштирилган ўқув-тарбия муассасалари ва тарбия колониялари фаолиятида бола ҳуқуқларига риоя этилишининг мониторинг қилиш ваколати берилди.

Конституциянинг 50-моддасига мувофиқ, таълим олиш конституциявий ҳуқуқини, шунингдек, алоҳида таълим эҳтиёжларига эга бўлган болалар учун

инклюзив таълим ва тарбияни таъминлаш бўйича ҳам кенг кўламли ишлар амалга оширилди. Хусусан, олий ва профессионал таълим ташкилотлари талабалари ва ўқувчиларига бюджет маблағлари ҳисобидан таълим ташкилотлари талабалари ва ўқувчиларига бюджет маблағлари ҳисобидан таълим кредитини ажратиш тартиби такомиллаштирилди. Алоҳида таълим эътиёжлари бўлган болаларнинг таълим олишларини ташкил этиш ва уларни реабилитация қилиш соҳасида маъмурий тўсиқлар бартараф этилди. Конституцияда яна эътироф этиладиган норма, 52-моддасидир, унда давлат ўқитувчиларнинг шаъни ва қадр-қимматини ҳимоя қилиш, уларнинг ижтиоий ва моддий фаровонлиги, касбий жиҳатдан ўсиши тўғрисида ғамхўрлик қилади. Ушбу конституциявий норма ижроси доирасида “Педагогнинг мақоми тўғрисида”ги Қонун қабул қилинди ва уларнинг ўз касбий фаолиятини юритиши учун ташкилий-ҳуқуқий шарт-шароитлар яратилиши, уларнинг ижтимоий ҳимояси таъминланиши ва ҳуқуқлари амалга оширилиши учун кафолатлар кучайтирилди. Мактабгача ва мактаб ташкилотлари раҳбар, педагог ва мутахассис кадрларини узлуксиз касбий ривожлантириш, касбий билим, кўникма ва маҳоратни мунтазам ошириб боришнинг янги тизимини йўлга қўйилди.

Бошқарув ҳокимият тамойилларининг учинчи тармоғига яъни суд ҳокимиятига тааллуқли, Конституциянинг 136-моддасидан келиб чиқиб, 2024 йилда судьялар мустақиллиги кафолатларини кучайтириш борасида ҳам муҳим ислоҳотлар амалга оширилди. Хусусан, судлар раисларининг халқ депутатлари маҳаллий Кенгашларига ахборот тақдим этиши ҳақида қоида бекор қилиниб, судларнинг ўз фаолияти тўғрисида жамоатчиликни ҳар чоракда оммавий ахборот воситалари орқали хабардор қилиб бориш тартиби белгиланди. Суд қарорлари қонунийлиги, асослилиги ва адолатлилигини текшириш институти такомиллаштирилди. Шунингдек, жиноятда айбланаётган шахснинг эркинлик ва шахсий дахлсизликка оид конституциявий ҳуқуқларини суд орқали ишончли таъминлаш, ишни судга қадар юритишда тарафларнинг тенглиги ва тортишуви тамойилларини амалда таъминлаш мақсадида тергов судьялари институти жорий этилди.

Янгиликлардан яна бири сифатида, фуқаролар қонун лойиҳасини тўғридан-тўғри парламентга киритиш ҳуқуқига эга бўлганини алоҳида эътироф этиш жоиз. Ушбу янги ташаббус фуқароларнинг ўз ҳаётига, умуман, жамиятга ва давлатга таъсир этувчи қарорлар қабул қилишидаги иштирокини оширишга қаратилди.

Ушбу янгиликларини ўрганиш ва танишиб чиқиш учун иннавацион технологиялардан фойдаланилган ҳолда иловалар орқали маълумотга эга бўлиш имкони яратилинган. Бундан ташқари, аҳолининг конституциявий билимларини

оширишга бўлган қизиқишларини рағбатлантириш мақсадида Умумиллий Конституция имтиҳони ўтказилиб келинмоқда.

Ҳозирги кунда бутун дунёда геосиёсий можаролар ва тарафкашлик кучайган ғоя таҳликали шароитда Праламент ва Ҳукумат фаолиятида янгича ишлаш, халққа садоқат билан хизмат қилиш давр тақозосига айланди.

Конституцияда Олий мажлис палаталарининг биргаликда ваколатлари, ҳар бир палатанинг алоҳида-алоҳида ваколатлари ва масъулият соҳалари аниқ белгиланди. Давлат бюджети ижросини назорат қилиш, Ҳисоб палатасининг ҳисоботини кўриб чиқиш каби ваколатлар Қонунчилик палатсига ўтказилиши, унинг мутлақ ваколатлари сони 5 тадан 12 тагача етиши, қонунчиликка таклиф киритиш институтининг жорий этилиши миллий парламентаризм тараққиётини янги сифат босқичига кўтаришга хизмат қилди. Миллий давлатчиликнинг тарққиёти кўп жиҳатдан халқ фикри билан бунёд бўладиган қонун ижодкорлиги жараёни сифатида бевосита боғлиқдир.

Президент мурожаатномаларида парламент назорати – бу аввало “халқ назорати, халқ сўрови” экани давлатимиз раҳбари томонидан таъкидлангани ҳам бежис эмас. Ушбу механизм фуқароларнинг манфаатлари ва ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг энг муҳим усулларидан биридир. Парламент назорати демократик давлатда муҳим роль ўйнайди. Бу нафақат мансабдор шахслар масъулияти ва жавобгарлигини кучайтирадиган ва фуқароларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилдаиган, балки жамиятнинг давлат институтларига бўлган ишончини оширадиган механизмдир. Ушбу назорат самарали бўлиши, шунингдек талаблари ва муаммолари билан чамбарчас боғлиқ ҳолда ривожланиши муҳимдир.

Шу кунларда Ўзбекистонда турли халқаро учрашувлар марказига айланган бир даврда, янги Ўзбекистоннинг глобал ташаббуслари дунёга очиқ ва конструктив ҳамкорликни таклиф қилмоқда. Ахборот асри даврида Марказий Осиёнинг юрагида жойлашган Ўзбекистон халқаро майдондаги очиқ прагматик ва тинчликпарвар ташқи сиёсат нафақат минтақавий, балки глобал миқёсида ҳам кенг эътрофга сазовор бўлмоқда. Глобал ташаббуслар очиқ ва конструктив ҳамкорлик асосида парламент дипломатиясининг ривожлантиришга бекёс ҳисса қўшмоқда.

Юқоридаги фикрларни хулоса қиладиган бўлсак, давлатимиз раҳбари томонидан тақдим этилаётган ҳар бир ғоя, амалга оширилаётган халқпарвар сиёсат янги тафаккурни хосил қилдиришга ижобий сабабдир. Бугунги кун, ҳар бир кун халқимизни рози қилиш учун янги имкониятлар эшигини очмоқда.

Конституциядан келиб чиқиб, халқимиз талаб ва истаги асосида амалдаги қонун ҳужжатларини ҳаёт талабалари билан мунтазам уйғунлаштириш, Конституция ва қонунга ҳурмат руҳини ҳар бир инсон онгида

қарор топтириш ва қонун ҳужжатларини таъсирчанлигини ошириш бўйича парламент олдида янги вазифалар турибти ва бу йўлда ҳар бир қадам, ҳар бир қабул қилинган қарор юртимиз ободонлиги ва халқимиз фаровонлигини таъминлашга қаратилинган.

References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2024 йил 19 ноябрдаги Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг биринчи мажлисидаги нутқида белгиланган устувор вазифаларни амалга ошириш бўйича сенатнинг ҳаракатлар дастурини тасдиқлаш тўғрисида. 03 декабрь 2024 йилдаги КҚ-9-V-сонли Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси сенати кенгашининг Қарори.

2. Дадашева. А.А. (2019). Ўзбекистонда маҳаллий ижро ҳокимияти органларининг давлат жамият бошқарув тизимидаги ўрни. Tadqiqot.Uz. https://doi.org/10.26739/2181-9130-2019-11-б.

3. A.A Dadasheva. Public opinion and government evaluation in new uzbekistan - The American Journal of Interdisciplinary Innovations …, 2022 18.

4. А.А Дадашева - Взаимодействие органов представительной власти на местах и самоуправления граждан в осуществлении действенного общественного контроля. Fuqarolik jamiyati. Гражданское общество, 2021 19.

5. А. А Дадашева - Маҳаллий ижро ҳокимияти фаолияти устидан жамоатчилик назоратини натижадорлигини оширишнинг илмий-назарий ечимлари. журнал правовых исследований, 2020. 20 бет.

6. А. А Дадашева. Давлат хизматини ислоҳ қилиш шароитида ҳокимлар фаолияти устидан жамоатчилик назоратини амалга оширишнинг асосий йўналишлари - Academic research in educational sciences, 2022. 21 бет.

7. А. А Дадашева Ўзбекистон Республикаси–конституциявий ислоҳотлар давр талаби - Academic research in educational sciences, 2022. 124 бет.

8. А. А. Дадашева. Маҳаллий ижроия органлари фаолияти устидан таъсирчан жамоатчилик назорати механизмларини шакллантириш. Монография. «Yangi kitob» нашриёти. Тошкент 2020 й. 314 б.

9. https://lex.uz/docs/3679092

10. Ўша жой.

TA’LIM OLISHNING KONSTITUSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI VA UNI RIVOJLANISHI

Choriyev Murod Shokirjonovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi boshlig‘i y.f.d., prof.

Mamlakatimizda fuqarolarga ta’lim-tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini va ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarini belgilash hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitusiyaviy huquqini ta’minlash davlatimiz oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Zero, ta’lim-tarbiyasiz jamiyat va davlatning kelajagini tasavvur etib bo‘lmaydi. Ta’lim olish huquqini ta’minlash, uning konstitusiyaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlash orqaligina jamiyat va davlat taraqqiyotiga hamda xalq farovonligiga erishish mumkin.

Bilim olish huquqi insonning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari tarkibida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu asosda, dastlab 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 41-moddasida “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir” [1], deb belgilandi.

Ma’lumki, kishilik jamiyati taraqqiyotini ta’lim tizimini to‘g‘ri tashkil etmasdan, ilm-fanning rivojlanishini samarali yo‘lga qo‘ymasdan turib tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu sababdan, mustaqil davlatimizning birinchi Konstitusiyasida bilim olish, ta’lim-tarbiya masalasiga alohida e’tibor qaratilib, uning muhim jihatlarini o‘zidagi asosiy qoidalar sifatida o‘rnatib, unga konstitusiyaviy maqom berildi.

O‘zbekistonda ta’lim sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilayotgan yillik xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etmoqda va bu tizimning Davlat byudjeti xarajatlaridagi ulushi 35 foizdan ortiqni tashkil yetmoqda. Dunyoning boshqa davlatlarida yalpi ichki mahsulotning o‘rtacha 10-12 foizini tashkil etadigan bunday ko‘rsatkichni kamdan-kam uchratish mumkin.

Bilim olish huquqining konstitusiyaviy asoslari O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” [2]gi qonunida rivojlantirildi. Jumladan, ushbu qonunning 1-moddasida uning maqsadi fuqarolarga ta’lim, tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini belgilash hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitusiyaviy huquqini ta’minlashga qaratilganligi ta’kidlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida ta’lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilab berildi. Unga ko‘ra, ta’lim O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor deb e’lon qilinib, ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari sifatida ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi; ta’limning uzluksizligi va izchilligi; umumiy o‘rta,

shuningdek, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining majburiyligi; o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o‘qishni tanlashning ixtiyoriyligi; ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi; davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi; ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv; bilimli bo‘lishni va iste’dodni rag‘batlantirish kabilar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining asosiy xususiyatlaridan biri har kimga jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e’tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqeyi, turar joyi, O‘zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat’iy nazar, bilim olishda teng huquqlar kafolatlanganligidadir. Shuningdek, boshqa davlatlarning fuqarolari O‘zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga egaligi, Respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bilim olishda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga egaligi ham diqqatga sazovor holatdir.

Qonunda ta’lim turlari sifatida maktabgacha ta’lim; umumiy o‘rta ta’lim; o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi; oliy ta’lim; oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta’lim amalda bo‘lishi belgilangan.

Maktabgacha ta’lim bola shaxsini sog‘lom va yetuk, maktabda o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. Bu ta’lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog‘chasida va mulk shaklidan qat’iy nazar, boshqa ta’lim muassasalarida olib boriladi.

Boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshdan qabul qilinadi. Umumiy o‘rta ta’lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo‘naltirishga va ta’limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Mamlakatimizda ta’lim olishning konstitusiyaviy-huquqiy asoslari eng avvalo Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga tayanadi. Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining (Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyusiya 217 A (III) bilan 1948 yil 10 dekabrda qabul va e’lon qilingan (O‘zbekiston ushbu hujjatni 1991 yil 30 sentabrda ratifikatsiya qilgan)) 26-moddasida “Har bir inson ta’lim olish huquqiga ega. Ta’lim olishda hech bo‘lmaganda boshlang‘ich va umumiy ta’lim tekin bo‘lishi lozim. Boshlang‘ich ta’lim majburiy bo‘lishi kerak. Texnik va hunar ta’limi hammaning qurbi yetadigan darajada bo‘lishi, oliy ta’lim esa har kimning qobiliyatiga asosan hamma uchun yetarli imkoniyat doirasida bo‘lmog‘i kerak” deb belgilangan.

Davlatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab mamlakatimizning kelajagini, davlatimiz va jamiyatimizning ijtimoiy qurilishini belgilashda, birinchi navbatda, Konstitusiyani ishlab chiqish va tasdiqlashda ta’lim olish haqidagi prinsipial masala doim davlatimiz siyosatining e’tibor markazida bo‘ldi.

Ta’kidlash joizki, 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 41-moddasida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidan kelib chiqqan holda bilim olish huquqi kafolati mustahkamlangan bo‘lsada, ushbu norma umumiy xususiyatga ega bo‘lib, ta’lim olish huquqining mazmun-mohiyatini to‘la ochib bera olmagan. Mazkur normani tahlil qiladigan bo‘lsak, unda faqatgina umumiy ta’lim o‘z ifodasini topgan bo‘lib, maktabgacha ta’lim, xususiy maktablar faoliyati, o‘rta maxsus ta’lim va oliy ta’lim masalalari ochiq qolib ketgan edi. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy davlat sifatida o‘zining bosh qomusida maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, boshlang‘ich professional ta’lim va oliy ta’lim masalalarini konstitusiyaviy norma sifatida batafsil yortib berishi lozim edi.

Shu asosda, 2023 yil 30 aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, boshlang‘ich professional ta’lim va oliy ta’lim masalalari aniq belgilanishi bilan ta’lim olishning konstitusiyaviy-huquqiy asoslari takomillashtirildi.

Xususan, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 50-moddasiga ko‘ra, “Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi. Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim majburiydir. Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratidadir. Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi” [3],

Konstitusiyasining 51-moddasida “Fuqarolar davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olishga haqli” ekanligi mustahkamlab qo‘yildi [4].

Ta’kidlash joizki, bunday mazmundagi qoidalar “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 26-moddasida, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1975 yil 16 dekabrda qabul qilingan va 1976 yil 3 yanvardan kuchga kirgan “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro paktning (O‘zbekiston ushbu hujjatga 1995 yil 28 sentabrda qo‘shilgan) 13-moddasida, Germaniya (7-modda), Belarus (49-modda) kabi mamlakatlar Konstitusiyalarida ham o‘z aksini topgan.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 50 va 51-moddasini bunday mazmunda berilishi nafaqat umumiy ta’limni, balki ta’limning barcha shakllarini aniq va mukammal ta’minlanishiga xizmat qilib, O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy davlat sifatida fuqarolari oldidagi ta’lim olish huquqini ta’minlash vazifasini aniq belgilab beradi.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –T.:O‘zbekiston, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997, 9-son, 225-modda; 2013, 41-son, 543-modda
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –T.:O‘zbekiston, 2025.
4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –T.:O‘zbekiston, 2025.

КОНСТИТУЦИЯДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИК: МЕҲНАТ МУНОСАБАТЛАРИДА ТАЗЙИҚ ВА КАМСИТИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ ПРОФИЛАКТИКАСИ

Усманова М.А.
Ўзбекистон Республикаси ЖХУ профессори

Аннотация: Мазкур мақолада Ўзбекистон Республикаси Конституциясида мустаҳкамланган гендер тенглик тамойили меҳнат муносабатларида хотин-қизларга нисбатан тазйиқ ва камситиш ҳолатларини бартараф этишда қандай ҳуқуқий пойдевор яратаётгани ҳар томонлама таҳлил қилинган. Меҳнат кодексидаги гендер камситишини тақиқловчи нормалар, иш жойидаги тазйиқ тушунчасининг ҳуқуқий категория сифатида белгилаanishi, иш берувчининг профилактика мажбуриятлари ва жамоавий шартномалардаги гендер кафолатлари таҳлил этилган. Расмий статистика асосида мавжуд муаммолар - яширин дискриминация, шикоят қилишдан қўрқиш, корпоратив маданиятдаги стереотиплар ва назорат индикаторлари йўқлиги кўрсатиб берилган. Ҳуқуқий, институционал ва ижтимоий-иқтисодий профилактика механизмларини такомиллаштириш бўйича илмий таклифлар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар : гендер тенглик, меҳнат муносабатлари, тазйиқ, камситиш, ҳуқуқий профилактика, Меҳнат кодекси, Конституция, корпоратив маданият, яширин дискриминация, гендер индикаторлари

Хотин-қизларнинг меҳнат муносабатларидаги ҳуқуқий ҳимояси бугунги кунда фақат гендер тенгликка эришиш масаласи сифатида эмас, балки мамлакатнинг барқарор иқтисодий тараққиёти, рақобатбардош инсон капиталини шакллантириш, камбағалликни ижтимоий илдизлари билан бартараф этиш, аҳолининг иқтисодий фаоллигини ошириш ва фуқаролик жамияти институтларини мустаҳкамлашда ҳал қилувчи омил сифатида намоён бўлмоқда. Халқаро тадқиқотлар шундан далолат берадики, меҳнат бозорида аёллар иштироки юқори бўлган мамлакатларда ялпи ички маҳсулот ўсиши

тезлашади, ўқимишли ва малакали аёллар улуши кўпайиши инновацион салоҳиятни кучайтиради, оилавий даромаднинг ортғи эса камбағалликка қарши энг самарали профилактика vositasiга айланади. Шу боис ижтимоий адолат ва тенглик масаласи эндиликда иқтисодий, демографик, ҳуқуқий ва мафкуравий аҳамият касб этмоқда.

Ўзбекистонда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотлар, хусусан “Янги Узбекистон” тараққиёт стратегияси,[1] “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтларини мустаҳкамлаш” [2] давлат сиёсати, жамиятда гендер тенгликни таъминлаш бўйича қабул қилинган миллий дастурлар мазкур йўналишнинг долзарблигини янада кучайтирди. 2023 йилда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг[3] янги таҳририда гендер тенглик масаласи алоҳида давлат кафолати сифатида мустаҳкамланиши ушбу сиёсатнинг конституцион меъёр даражасига кўтарилганидан далолат беради.

Хусусан, Конституциянинг **58-моддаси**да аниқ ва равшан ҳуқуқий норма белгилаб қўйилган: **“Давлат аёллар ва эркаклар тенг ҳуқуқлилигини таъминлайди.”** Ушбу қоида нафақат декларатив умумий принцип, балки давлат органлари, иш берувчилар, жамоат ташкилотлари ва барча ижтимоий муносабатлар иштирокчилари учун мажбурий ҳуқуқий мезон сифатида қаралади. Унинг амалиётга татбиқ этилиши меҳнат муносабатларида аёлларнинг тенг имкониятларини таъминлаш, уларни камситиш, тазйиқ ва бўлинма муносабатлардан ҳимоя қилишнинг ҳуқуқий заминини яратади.

Шу билан бирга, Конституциянинг қатор моддалари мазкур кафолатни янада мустаҳкамлайди:

43-модда — бандлик ва ижтимоий ҳимоя кафолатлари: Бу норма давлатнинг аҳолини иш билан таъминлаш, ишсизликдан ҳимоя қилиш, қайта тайёрлаш ва касбий ривожланишни рағбатлантириш мажбуриятини белгилайди. Аёллар бандлиги, айниқса ҳомиладорлик, бола парвариши, ногиронлиги бўлган аёллар ва ёлғиз оналар каби ҳимояга муҳтож тоифаларда бу кафолатнинг аҳамияти янада ошади.

46-модда — меҳнат қобилиятини йўқотганда ва ишсизлик ҳолатида ижтимоий ҳимоя: Бу модда аёлларнинг репродуктив функцияси, саломатлик ҳолати, тўсатдан ишини йўқотиши каби ҳолатларда давлат томонидан ижтимоий ҳимоя механизмларини кафолатлайди. Бу эса камситишнинг ниқобли ва яширин шаклларини чеклашда муҳим.

57-модда — камситишнинг ҳар қандай шаклини тақиқлаш: Мазкур норма жинс, ёш, ижтимоий мақом, турмуш ҳолати, репродуктив саломатлик ва бошқа асослар бўйича камситишни мутлақо тақиқлайди. Меҳнат

муносабатларида эса бу — ишга қабул қилиш, маош, лавозим ўсиши, интизомий чоралар, ишдан бўшатиш каби йўналишларда қўлланилади.

Ушбу конституцион меъёрлар йиғиндиси: гендер тенгликнинг ҳуқуқий пойдеворини яратади, меҳнат муносабатларида камситиш ва тазйиққа қарши кафолатли ҳимояни таъминлайди, давлатнинг аниқ мажбуриятларини белгилайди, аролик жамияти ва инсон капиталини кучайтиришга замин яратади.

Ўтказилган таҳлил шуни кўрсатадики, меҳнат муносабатларида гендер адолатини таъминлаш масаласи Ўзбекистондаги замонавий давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири сифатида шаклланиб, унинг ҳуқуқий асослари Конституция, янги таҳрирдаги Меҳнат кодекси [4], халқаро конвенциялар ва миллий дастурлар билан мустаҳкамланган. Айниқса, янги Меҳнат кодексида гендер камситилишига йўл қўймаслик, иш жойида тазйиқ ва босимни аниқ ҳуқуқий категория сифатида белгилаш, иш берувчининг профилактик мажбуриятларини назарда тутиш соҳадаги ҳуқуқий механизмларни янги босқичга олиб чиқди.

Расмий статистик маълумотлар меҳнат муносабатларида гендер тенгликка эришиш борасида sezilarli ижобий ўзгаришлар бўлаётганини кўрсатса-да, амалиётда ҳануз ҳал этилиши зарур бўлган жиддий муаммолар мавжудлигини ҳам аниқ намоён қилмоқда. Жумладан, меҳнат бозорида аёллар улуши 46 фоизни ташкил этишига қарамасдан, раҳбарлик лавозимларидаги аёллар улуши ҳамон паст даражада 13 -17 фоиз [5] атрофида бўлиб қолмоқда. Бу ҳолат аёлларнинг меҳнат фаолиятида юқори поғоналарга чиқишида структуравий тўсиқлар мавжудлигини кўрсатади.

Шунингдек, тазйиқ ва камситиш ҳолатлари бўйича расмий мурожаатлар сони йил сайин ортмоқда ва ҳозирги кунда 18 мингдан ортиқ ҳолат қайд этилган. Мурожаатлар таркибида хомиладорлик ва оналик билан боғлиқ босимлар алоҳида ўрин тутади — бу кўрсаткич 31 фоизга етгани хотин-қизларнинг биологик ва ижтимоий роли билан боғлиқ камситишлар ҳануз давом этаётганидан далолатдир. Шу билан бирга, тенг меҳнат учун тенг ҳақ тўлаш масаласи ҳам тўлиқ ҳал этилмаган бўлиб, 19 фоиз аёллар маош тенгсизлигига дуч келмоқда [6]

Муҳим жиҳат шундаки, ушбу ҳолатларнинг катта қисми ҳужжатланмаган, яширин шаклда кечади ва расмий статистикадан ташқарида қолади. Бу эса профилактика механизмлари, ҳуқуқий ҳимоя воситалари ва назорат механизмларининг самарадорлигига салбий таъсир кўрсатади.

Меҳнат муносабатларида аёлларга нисбатан тазйиқ ва камситиш кўп ҳолларда турли кўринишларда намоён бўлади. Уларнинг энг кенг тарқалган тўрт шакли қуйидагилардан иборат:

1. ***Ишга қабулда жинсий афзалликка асосланган қарорлар қабул қилиш*** — номзоднинг малакаси ва касбий қобилияти эмас, балки жинси устувор омилга айланиши.

2. ***Ҳомиладорлик сабаб иш шароитларини мажбурий ўзгартириш*** — меҳнат қонунчилигидаги кафолатлар бўлса-да, амалиётда ҳомиладор аёлларга нисбатан босим мавжуд.

3. ***Ташқи қиёфа ва шахсий хусусиятларга доир талабларнинг қўйилиши*** — профессионаллик ўрнига субъектив мезонларнинг устувор қўлланилиши.

4. ***Лавозимга кўтарилишда тизимли тўсиқлар мавжудлиги*** — аёллар касбий ривожининг секинлашишига олиб келувчи институтционал ва маданий омиллар.

Ушбу ҳолатлар ҳуқуқий нормалар амалда мавжуд бўлишига қарамасдан, жамиятдаги стереотиплар ва маданий қолиплар ҳали ҳам кучли эканини англатади.

Гендер адолатига эришишга тўсиқ бўлаётган асосий омилларнинг таҳлили қуйидаги йўналишларни намоён қилади:

- **Яширин дискриминация** — расмий шаклда намоён бўлмайди, аммо қарорлар ва муносабатларда сезиладиган салбий қолиплар.
- **Шикоят қилишдан қўрқиш** — ишдан бўшатилиш ёки ички босимлардан қўрқиш сабаб аёллар кўп ҳолларда мурожаат қилмайди.
- **Корпоратив маданиятнинг гендерга сезгир эмаслиги** — иш муҳитида гендер тенглик меъёрларининг илдиз отмагани ҳуқуқий механизмларнинг самарасини пасайтиради.
- **Тенг имкониятлар индикаторлари йўқлиги** — мониторинг ва баҳолаш механизмлари мавжуд бўлмагани учун ҳақиқий вазиятни аниқ баҳолаш қийинлашади.
- **Иш берувчиларнинг ҳуқуқий саводхонлиги пастлиги** — гендер ҳуқуқлари ва жавобгарлик меъёрларини билмаслик қонун бузилишига замин яратади.

Бу омиллар профилактика сиёсатида албатта **тизимли, комплекс ёндашув**ни талаб этади. Фақат ҳуқуқий меъёрлар етарли эмас, бундан ташқари, фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситалари, касаба уюшмалари ва иш берувчиларнинг корпоратив маданияти гендер адолатни таъминлашда ҳал қилувчи ижтимоий-психологик омил сифатида намоён бўлмоқда. Демак, масала фақат ҳуқуқий эмас, балки ижтимоий-иқтисодий, мафкуравий ва тарбиявий хусусиятга эга.

Юқоридагилардан келиб чиққан холда қуйидаги хулосаларга келиш мумкин:

1. Иш берувчилар учун мажбурий анти-гендер дискриминация стандартларини жорий этиш: Меҳнат кодексидаги умумий принципларни аниқ амалий мезонлар, баҳолаш индикаторлари, ишга қабул қилиш, хизмат поғонасида юқорилаш, маош таъйинлаш, интизомий чоралар қўллаш каби жараёнларда тенглик кафолатларини белгилашга қаратилган. Бундай стандартлар иш берувчиларнинг қонун олдидаги жавобгарлигини кучайтириш билан бирга корпоратив маданиятни ҳам шакллантиради.

2. Меҳнат инспекциялари фаолиятига гендер индикаторларини киритиш: Ҳозирги мониторинг тизими умумий меъёрий бузилишларга қаратилган бўлиб, гендер камситиш ҳолатларини аниқлаш учун махсус методика мавжуд эмас. Гендер индикаторларининг жорий этилиши профилактик назоратни кучайтиради, яширин дискриминация ҳолатларини аниқлаш имконини беради.

3. Шикоятларни яширин қабул қилиш бўйича ягона миллий платформани яратиш: Кўп ҳолларда аёллар ишдан айирилиш ёки психологик босимдан қўрқиб мурожаат қилмайди. Аноним платформанинг жорий этилиши ҳуқуқий ҳимояга ишончни оширади, реал статистик маълумотлар базасини шакллантиради, таҳдидсиз мурожаат қилиш имконини яратади.

4. Рахбар лавозимларида аёллар улушини ошириш учун квота эмас, стимул механизмларини қўллаш: Квота тизими кўп мамлакатларда формал кўрсаткичларни оширган, аммо сифат ўзгаришига олиб келмаган. Шу боис рағбатлантирувчи механизмлар — грантлар, солиқ имтиёзлари, корпоратив рейтинглар, давлат харидлари учун балл тизими каби усуллар таклиф этилади.

Хуллас, гендер адолатини таъминлаш фақат қонуний нормалар орқали эмас, балки: институционал тузилмалар, корпоратив сиёсат, жамоат назорати, ҳуқуқий маданият, статистик мониторинг орқали амалий самара беради. Шу сабабли, таклиф этилган чора-тадбирлар тизимли профилактик моделни шакллантиришга қаратилган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. “Янги Ўзбекистон Стратегияси – 2030”. — Тошкент, 2023.
2. Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш тўғрисида”**ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. — ПФ–87, 2022 йил.
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. — Тошкент: Ўзбекистон, 2023.
4. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси
5. “Гендер тенгликни таъминлаш стратегияси (2020–2030)”. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори.

6. “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқлар ва имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги Қонун. — 2019 йил 2 сентябрь, Қонун № ЗРУ–561.

7. Халқаро меҳнат ташкилоти (ХМТ) Конвенциялари:

8. Оила ва хотин-қизлар қўмитаси ҳисоботлари. — Тошкент, 2021–2023.

9. Abbasov A., Karimova N. Gender inequality and labour discrimination in Central Asia // Central Asian Law Review. — 2021.

10. Sattarov F. Institutional Barriers to Women’s Career Advancement in Uzbekistan // Journal of Social Research. — 2023.

11. European Commission. Gender Pay Gap Report. — Brussels, 2022.

УМУММИЛЛИЙ БОЙЛИГИМИЗНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ ҲУҚУҚИЙ КАФОЛАТЛАРИ

Рўзиев Рустам Джабборович
ЎР ЖХУ профессори, ю.ф.д.
Каримов Алибек Валиевич
Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси Бакалавриат факультети прокурори

Аннотация: Ушбу мақолада умуммиллий бойлигимиз бўлган ер, ерости бойликлари, сув, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳамда бошқа табиий ресурсларнинг ҳуқуқий асосини белгилаб берувчи Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ҳамда қатор кодекслари ва қонун ҳужжатларининг айрим тегишли нормалари таҳлилида уларнинг муҳим жиҳатлари ёритиб берилган.

Калит сўзлар: Ўзбекистон Республикаси Конституцияси; Янги Ўзбекистон стратегияси; атроф табиий муҳит; ер, ерости бойликлари, сув, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси; табиий ресурслар; Фуқаролик кодекси; Ер кодекси; Сув кодекси; Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекс; Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси; “Ўзбекистон Республикасида мулкчилик тўғрисида”ги, “Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги, “Ер ости бойликлари тўғрисида”ги, “Ўсимлик дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида”ги, “Ўрмон тўғрисида”ги, “Ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида”ги, “Атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш тўғрисида”ги, “Муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар тўғрисида”ги, “Давлат мулкини хусусийлаштириш тўғрисида”ги қонунлар.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг **“Янги Ўзбекистон стратегияси” асарида “инсон фаолияти ер курраси қуруқлик қисмининг тўртдан уч қисми, сув ҳавзаларининг учдан икки қисмидаги экологик муҳитни сезиларли даражада ўзгартирганлиги, кейинги беш йил ичида 32 миллион гектар ўрмон майдони инсон омили натижасида қисқарганлиги, музликлар катта тезлик билан эриб, океан сувларининг ортиши ва сув бўйига яқин ҳудудларнинг сув остида қолиш эҳтимолини ошиб бораётганлиги, тупроқ, сув ва ҳавонинг ҳаддан зиёд ифлосланиши,**

иқлим ўзгариши, ўсимликлар ва ҳайвонот дунёсидаги ташвишли ўзгаришлар экологик муаммони юзага келаётганлиги, Ўзбекистонда ҳам экологик муаммолар жиддий ташвиш туғдираётганлиги, аксарият минтақаларда тупроқ емирилиб, унумдор ерлар қисқариб бораётганлиги, чўлланиш, сув етишмаслиги, қурғоқчилик, аҳолини ичимлик суви билан таъминлаш жиддий муаммога айланиб қолаётганлиги" [1] таъкидланади. Зеро, ер, ер ости бойликлари, сув, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳамда бошқа табиий заҳиралар умуммиллий, яъни халқ бойлиги бўлиб, улардан фойдаланиш жараёнида экологик муҳитга зарар етказмаслик, атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш, табиий ресурслардан фойдаланиш ва экологик хавфсизликни таъминлаш чора-тадбирлари орқали амалга оширилади.

Таъкидлаш жоизки, инсонни ўраб турган, табиий келиб чиқишга эга бўлган атроф табиий муҳитга зарар етказиш ҳозирги ва келажак авлод манфаатларига дахл қилиши, салбий ижтимоий, иқтисодий, экологик оқибатларга сабаб бўлиши ва мамлакатнинг ҳар томонлама ривожланишига тўсқинлик қилиши туфайли Конституция даражасида мустаҳкамлаб қўйилган бўлиб, Ўзбекистон Конституциясида ушбу долзарб масалага доир ҳуқуқий нормалар устувор ўрин эгаллайди.

Хусусан, ер, ер ости бойликлари, сув, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳамда бошқа табиий ресурслар мол-мулк объектлари тизимида алоҳида ўрин тутишлигини инобатга олиб, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 68-моддасида табиий ресурслар умуммиллий бойлик сифатида эътироф этилади. *Биринчидан*, улар кўп ҳолларда инсон меҳнатининг маҳсули эмас, фойдаланиб бўлгандан кейин қайта тикланмаслик ёхуд қайта тиклаш узоқ давом этадиган хусусиятига эга жараён ҳисобланади. *Иккинчидан,* табиий ресурслар жонли ва жонсиз табиатнинг таркибий қисми, инсон яшаш муҳити билан узвий боғлиқ. Бинобарин, табиий ресурслардан ҳар қандай фойдаланиш ва унга таъсир қилиш бевосита бошқа шахсларга ва жамиятга муайян даражада таъсир этмасдан иложи йўқ. *Учинчидан,* табиий ресурслардан фойдаланмасдан туриб ҳар қандай ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этиб бўлмайди. Иқтисодий тизимда табиий ресурслар ишлаб чиқариш воситаси сифатида намоён бўлади.

Табиий ресурсларни умуммиллий бойлик сифатида эътироф этувчи Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 68-моддаси Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик ва Ер кодексида, "Ўзбекистон Республикасида мулкчилик тўғрисида"ги, "Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида"ги ва бошқа қатор қонунларида янада ривожлантирилган ва кенгроқ тартибга солинган. Масалан, Конституциянинг ушбу моддасида табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш зарурлиги талаби ҳам мустаҳкамланган ва давлат муҳофазасида эканлиги белгиланган. Табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш талаби

бузилганда, қўлланиладиган ҳуқуқий таъсир чораси сифатида табиий ресурсларга бўлган ҳуқуқларнинг бекор қилинишига (Ўзбекистон Республикаси Ер кодексининг 36-моддаси), келтириб чиқарган оқибатига қараб маъмурий ёки жиноий жавобгарликка (масалан, Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаг кодексининг 60, 65, 70, 74-моддалари; Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 197, 202-203-моддалари) сабаб бўлиши мумкинлиги назарда тутилади.

Мулк сифатида табиий ресурсларнинг келиб чиқиши инсон фаолияти натижаси эмас, балки табиий мавжудлиги ёки табиат томонидан инъом этилганлиги, табиий ҳолатда инсон меҳнатисиз мавжуд бўлиши ҳам табиий русурсларга нисбатан мулк ҳуқуқининг ўзига хос бўлган хусусиятларидан бири бўлиб, табиий ресурсларнинг умуммиллий бойлик сифатидаги мақоми ҳам унинг ушбу хусусиятларидан келиб чиқади.

Ўзбекистон Республикасининг “Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги Қонуни алоҳида аҳамиятга молик бўлиб, унинг 5-моддаси айнан табиий ресурсларга нисбатан мулкчилик масалаларига бағишланган. Унга кўра, “Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига мувофиқ ер, ер ости бойликлари, сув, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳамда бошқа табиий ресурслар умуммиллий бойликдир, улардан оқилона фойдаланиш зарур ва улар давлат муҳофазасидадир”.

Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси 16-моддасида ҳам Ўзбекистон Республикасида ерга бўлган мулкчиликка оид қоидалар назарда тутилган бўлиб, унда “ер умуммиллий бойлик эканлиги, ундан оқилона фойдаланилиши лозимлиги ва у давлат томонидан муҳофаза этилиши” белгиланган.

Ерга нисбатан мулк ҳуқуқининг ўзига хос хусусияти шундаки, у Ўзбекистон Республикаси Ер кодексининг 18-моддасига мувофиқ юридик ва жисмоний шахсларнинг ер участкаларига бўлган мулк ҳуқуқи қуйидаги учта ҳолатларда, яъни:

биринчидан, юридик ва жисмоний шахсларнинг ер участкаларига бўлган мулк ҳуқуқи қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер участкалари хусусийлаштирилганда, қонунчиликда белгиланган тартибда;

иккинчидан, дипломатия ваколатхоналари ва уларга тенглаштирилган, Ўзбекистон Республикасида аккредитация қилинган халқаро ташкилотларнинг ер участкаларига мулк ҳуқуқи уларга ўзлари ваколатхона биноси сифатида фойдаланаётган иморат ёки иморатнинг қисмлари, шу жумладан ваколатхона бошлиғининг қароргоҳи улар жойлашган ер участкалари билан бирга, шунингдек мазкур ваколатхоналарнинг иморатларини қуриш учун ер участкалари қонунчиликда белгиланган тартибда реализация қилинганда;

учинчидан, чет эллик юридик ва жисмоний шахсларнинг – дипломатия корпуси ходимларининг, Ўзбекистон Республикасида аккредитация қилинган матбуот вакилларининг, фирмалар, компаниялар ва халқаро ташкилотлар доимий ваколатхоналари ходимларининг, чет эл инвестицияси иштирокидаги корхоналарда доимий асосда ишловчи шахсларнинг, шунингдек республикада доимий истиқомат қилувчи ва яшаш учун гувоҳномаси бўлган шахсларнинг ер участкаларига бўлган мулк ҳуқуқи уларга уй-жой бинолари шу бинолар жойлашган ер участкалари билан бирга қонунчиликда белгиланган тартибда реализация қилинганда вужудга келади.

Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 13 декабрдаги 444-II-сон “Ер ости бойликлари тўғрисида”ги қонуни (янги таҳрири) 3-моддасида “Ер ости бойликлари умуммиллий бойлик ва Ўзбекистон Республикасининг мутлақ мулкидир” деб белгиланган бўлиб, 4-моддасида эса “...ер ости бойликлари Давлат фондини ташкил этишлиги” мустаҳкамлаб қўйилган.

Ўзбекистон Республикасининг 2025 йил 30 августдаги ЎРҚ-1076-сон Сув кодекси 11-моддасида “Сув умуммиллий бойликдир, ундан оқилона фойдаланиш лозим ва у давлат томонидан муҳофаза қилинади” деб белгиланган бўлиб, бу ерда сув деганда – ягона давлат сув фонди тушунилади. Унга жилғалар, сойлар, дарёлар, сув омборлари, кўллар, денгизлардан, каналлар, коллектор-дренаж тармоқлари, булоқлар, ҳовузларнинг сувлари ва бошқа ер усти сувлари ҳамда ер ости сувлари, қор захиралари ва музликлар киради.

Шуни эътироф этиш лозимки, Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 21 сентябрдаги ЎРҚ-409-сон “Ўсимлик дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида” қонуни (янги таҳрири) 4-моддасида ўсимлик дунёсига нисбатан мулкчиликка оид янги қоидалар ўз ифодасини топган бўлиб, қонунга мувофиқ, “Ўсимлик дунёси умуммиллий бойлик бўлиб, ундан оқилона фойдаланиш лозим ва у давлат томонидан муҳофаза қилинади. Табиий муҳитда ёввойи ҳолда ўсувчи ўсимликлар давлат мулкидир. Сунъий яратилган шароитларда етиштириладиган ёввойи ҳолда ўсувчи ўсимликлар юридик ёки жисмоний шахснинг мулки бўлиши мумкин”, деб белгиланган.

Ўсимлик дунёси объектлари сифатида эътироф этиш учун ўсимликлар ёввойи ҳолда ўсувчи, ёввойи ҳолда ўсувчи ўсимликларнинг яшаш фаолияти маҳсулотлари ва ботаника коллекциялари, яъни илмий, маданий-маърифий, ўқув-тарбиявий ва эстетик аҳамиятга эга бўлган, ёввойи ҳолда ўсувчи ўсимликлар яшаш фаолияти маҳсулотларининг тизимлаштирилган тўплами (гербарийлар, уруғлар) ҳамда сунъий яратилган шароитларда (ботаника боғларида, дендрология боғларида, питомникларда, плантацияларда ва бошқаларда) етиштириладиган ёввойи ҳолда ўсувчи ўсимликлар бўлиши лозим.

Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 16 апрелдаги ЎРҚ-475-сон “Ўрмон тўғрисида”ги қонуни (янги таҳрири) 5-моддасига мувофиқ “Ўрмонлар давлат мулки – умуммиллий бойлик бўлиб, улардан оқилона фойдаланиш лозим ҳамда улар давлат томонидан муҳофаза қилинади”. Бунда, ўрмон деганда – ўрмон фонди ерларидаги ўзаро таъсир кўрсатувчи ва атроф-муҳитга таъсир кўрсатадиган, экологик ва ижтимоий-иқтисодий аҳамиятга эга дарахтлар, буталар ва бошқа табиий объектлар (ер, ер ости бойликлари, сув, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси, атмосфера ҳавоси) мажмуи тушунилади.

Барча ўрмонлар давлат ўрмон фондини ташкил этиб, давлат ўрмон фонди:

- давлат аҳамиятига молик ўрмонлардан, яъни давлат ўрмон хўжалиги органлари тасарруфидаги ўрмонлардан;

- бошқа юридик ва жисмоний шахслар фойдаланишидаги ўрмонлардан ташкил топади.

Қуйидагилар эса давлат ўрмон фондига кирмайди:

- қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлардаги экинзорларнинг иҳота дарахтзорлари, шунингдек бошқа дарахтзор ва бутазорлар;

- темир йўлларнинг, автомобиль йўлларининг, табиий ва сунъий сув оқимларининг, сув ҳавзаларининг ҳамда бошқа сув объектларининг ажратилган минтақаларидаги иҳота дарахтзорлар;

- шаҳарлардаги ҳамда бошқа аҳоли пунктларидаги дарахтзор ва бутазорлар, шунингдек кўкаламзорлаштириш учун экилган ўсимликлар;

- томорқалардаги ва боғ участкаларидаги дарахтзор ва бутазорлар.

Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 19 сентябрдаги ЎРҚ-408-сон “Ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида”ги қонуни (янги таҳрири) 4-моддасида ҳайвонот дунёсига нисбатан мулкчиликка оид қоидалар белгиланган бўлиб, унга кўра “Ҳайвонот дунёси умуммиллий бойлик бўлиб, ундан оқилона фойдаланиш лозим ва у давлат томонидан муҳофаза қилинади. Табиий эркинлик ҳолатида яшаётган, шунингдек табиий яшаш муҳитига чиқариб юборилган ёввойи ҳайвонлар давлат мулкидир. Ярим эркин шароитда, сунъий яратилган яшаш муҳитида ёки тутқунликда сақланаётган ва (ёки) етиштирилган ёввойи ҳайвонлар юридик ёки жисмоний шахснинг мулки бўлиши мумкин”.

Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 27 декабрдаги 353-I-сон “Атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш тўғрисида”ги қонуни 1-моддасига кўра “Атмосфера ҳавоси табиий ресурсларнинг таркибий қисми бўлиб, у умуммиллий бойлик ҳисобланади ва давлат томонидан муҳофаза қилинади”. Атмосфера ҳавосининг табиий таркибини сақлаш, атмосфера ҳавосига зарарли кимёвий, физикавий, биологик ва бошқа хил таъсир кўрсатилишининг олдини олиш ҳамда камайтириш, давлат органлари, корхоналар, муассасалар,

ташкилотлар, жамоат бирлашмалари ва фуқароларнинг атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятини ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солиш атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш тўғрисидаги қонунчиликнинг асосий вазифалари ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикасининг 2004 йил 3 декабрдаги 710-II-сон “Муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар тўғрисида”ги қонуни 6-моддасида “Муҳофаза этиладиган табиий ҳудудларга бўлган мулк ҳуқуқи”га оид қоидалар мустаҳкамланиб, унга кўра “Муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар давлат мулкидир ва унинг муҳофазасидадир. Ер участкалари ва бошқа табиий объектлар хусусий буюртма қўриқхоналар ҳамда табиий питомниклар ташкил этиш учун юридик ва жисмоний шахсларга ижарага берилиши мумкин”.

Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 14 февралдаги ЎРҚ-907-сон “Давлат мулкини хусусийлаштириш тўғрисида” қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси оммавий мулки объектлари тўлиқ равишда ёки қисман давлат тасарруфидан чиқарилиши ва хусусийлаштирилиши мумкин. Аммо, Ўзбекистон Республикаси ҳудуди доирасида ер (қонунчиликда назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно), ер ости бойликлари, ички сувлар, ҳаво ҳавзаси, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси каби давлат мулки объектлари давлат тасарруфидан чиқарилмайди ва хусусийлаштирилмайди.

Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси 182-моддасида мулк ҳуқуқининг вужудга келиш асослари белгиланган бўлиб, унга кўра, мулк ҳуқуқи меҳнат фаолияти; мол-мулкдан фойдаланиш соҳасидаги тадбиркорлик ва бошқа хўжалик фаолияти, шу жумладан мол-мулкни яратиш, кўпайтириш, битимлар асосида қўлга киритиш; давлат мол-мулкини хусусийлаштириш; мерос қилиб олиш; эгалик қилиш ҳуқуқини вужудга келтирувчи муддат; қонунчиликка зид бўлмаган бошқа асосларда вужудга келади.

Жумладан, ҳайвонот дунёси объектларидан белгиланган тартибда рухсатнома олиб, фойдаланиш турларидан қатъи назар табиий муҳитдан ажратиб олингандан сўнг фойдаланувчи ушбу объектга нисбатан мулк ҳуқуқига эга бўлади. Аммо, табиий ресурсларга нисбатан мулк ҳуқуқининг вужудга келиши ҳар бир табиий объектнинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқади. Масалан, ҳаво бўшлиғига нисбатан мулк ҳуқуқи ҳар доим давлатга тегишли.

Табиий ресурсларга нисбатан мулк ҳуқуқи унга эгалик қилиш, фойдаланиш ҳамда тасарруф этиш жараёнларида намоён бўлади.

Табиат объектлари инсон фаолияти натижасида яратилмаслиги уларнинг чекланган миқдорда мавжудлигини, табиий ресурсларнинг бебаҳолигини англатади. Табиий ресурсларнинг ҳақиқий баҳосини аниқлаш мураккаб, аммо

бу унинг иқтисодий баҳоланиши ва ундан фойдаланганлик учун ҳақ тўлаш лозимлигини инкор этмайди.

Табиий ресурсларга нисбатан мулк ҳуқуқи, **биринчидан,** давлат (оммавий) мулк ҳуқуқининг устуворлиги эътироф этилиши, **иккинчидан,** белгиланган тартибда қўлга киритилгандан сўнг хусусий мулкка айланиши, **учинчидан,** тасарруф этиш ҳуқуқининг давлат номидан давлат органлари томонидан амалга оширилиши, **тўртинчидан,** табиий ресурслардан мақсадли фойдаланиш талаби қатъий белгиланганлиги, **бешинчидан,** ҳозирги ва келажак авлод манфаатларини кўзлаб амалга оширилиши каби хусусиятлари билан тавсифланади. Зеро, атроф муҳит, табиий ресурслар жамиятимиз борлиғи, ижтимоий-иқтисодий тараққиёти ва ҳаётимиз манбаи ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг "Янги Ўзбекистон стратегияси" номли китобида "ер, ер ости бойликлари, сув, ўрмонлар, ҳайвонот ва ўсимлик дунёси, атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш ҳамда улардан фойдаланиш соҳасидаги фаолияти самарасини янада ошириш чораларини кўриш лозим"лиги стратегик вазифа сифатида алоҳида уқтириб ўтилади [2].

Мухтасар қилиб айтганда, Янги Ўзбекистонни барпо этишдек улуғ, эзгу мақсадга эришиш йўлида амалга оширилаётган ислоҳотлар ва янгиланишлар халқимизнинг фаровонлигини таъминлаш ва жамиятимиз равнақини янада ошириш учун зарур бўлган бозор иқтисодиёти ҳамда унинг негизи ҳисобланган турли мол-мулклар, жумладан ер ҳамда бошқа табиий ресурсларга нисбатан мулкчиликнинг мукаммал конституциявий асосларига таянади. Зеро, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг "Жамият ва шахс" деб номланган учинчи бўлими ўн иккинчи боби қоидалари (65-68-моддалар) мулк шаклларининг хилма-хиллиги ва тенг ҳуқуқлилиги, уларнинг ҳуқуқий жиҳатдан ишончли ҳимояланганлиги ва хусусий мулк дахлсизлигига бағишланган бўлиб, ушбу бобда, шунингдек, қулай инвестиция ва бизнес муҳитини яратиш, тадбиркорликни ривожлантиришнинг давлат томонидан қўллаб-қувватлаш масалалари ҳам эътироф этилган. Республикамиз ҳудудида товарлар, хизматлар, меҳнат ресурслари ва молиявий маблағларнинг эркин ҳаракатланиши, инсофсиз рақобат ва монополия таъқиқланганлиги, ер, ер ости бойликлари, сув, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳамда бошқа табиий ресурслар умуммиллий бойлик бўлиб, улардан оқилона фойдаланишнинг конституциявий қоидалари белгилаб қўйилган.

Бош Қонунимиз - Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси инсонпарварлик ғояларини жамлаган дастуриламал сифатида ўз мазмун-моҳиятида жамиятимизнинг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий-ҳуқуқий, маънавий-мафкуравий ва маданий-маърифий тизимининг демократик табиатини ифода

этади. Дарҳақиқат, Конституциямизда мустаҳкамланган жамият иқтисодий негизининг ҳуқуқий асослари юртимиз тинчлиги ва ободлиги, инсон ҳамда фуқароларимиз ҳаётининг фаровонлиги, мамлакатимиз тараққиёти ва иқтисодий салоҳиятининг пойдевори бўлиб хизмат қилади.

Таъкидлаш жоизки, жамиятимизнинг иқтисодий негизлари сифатида ушбу конституциявий қоидалар халқимиз, миллатимиз, ҳар бир инсон манфаати, жумладан, тадбиркорлик фаолиятининг барча иштирокчиларига замонавий бизнес муҳити ва зарур шарт-шароитларни яратишга йўналтирилган реал ижтимоий-иқтисодий макон учун ҳуқуқий асос ҳисобланади.

References:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти. 2021. -Б. 388-397.

2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти. 2021. -Б. 392-394.

YERDAN OQILONA FOYDALANISH VA UNI MUHOFAZA QILISNNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Bobokulov Shoxnazar Ochilovich
Toshkent xalqaro universiteti dotsenti, yu.f.d,
bobokulov2504@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada yer resurslarini boshqarishning konstitutsiyaviy asoslari o‘rganilgan. Yerlardan oqilona, samarali va belgilangan maqsadda foydalanishni ta’minlash, yerlarni muhofaza qilish tartibi to‘g‘risida mulohaza yuritilgan.

Shuningdek, mazkur sohaga oid konstitutsiyaviy huquqiy normalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar – Yer, yer uchastkasi, tabiiy resurs, qonun, qaror, qishloq xo‘jalik korxonalari, shartnoma, huquqiy munosabat, bitim, oldi-sotdi, huquqiy munosabat, yerdan foydalanish, yerlarni muhofaza qilish, yerni ro‘yxatga olish, mulk huquqi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda yer munosabatlarini tartibga solish yo‘nalishida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning asosiy maqsadi — yerdan ilmiy asoslarga tayangan holda, samarali va oqilona foydalanishni ta’minlash, uni muhofaza qilish, shuningdek, xo‘jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqlilik prinsipi asosida rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Shu bilan birga, jismoniy va yuridik shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarini himoya qilish, qonun ustuvorligini ta’minlash, korruptsiya bilan bog’liq huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qator huquqiy mexanizmlar belgilandi.

Mazkur sohadagi munosabatlarni tartibga solishda 2023 yil 30 aprelь kuni o‘tkazilgan umumxalq referendumi natijasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahrirda qabul qilingani muhim ahamiyat kasb etdi.

Konstitutsiyada O‘zbekiston ekologik taraqqiyot strategiyasining asosiy qoidalari, ekologik va aholining ekologik xavfsizligiga doir talablar belgilangan bo‘lib, ushbu siyosiy-huquqiy hujjat mamlakatimizda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan, shu jumladan yer resurslaridan foydalanish bo‘yicha eng muhim va asosiy qoidalarni belgilab beradi [3].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 62-moddasiga muvofiq, Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar [1]. Ushbu normaning ahamiyati shu bilan belgilanadiki, unda birinchidan, fuqarolarning ekologik burchi Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan; ikkinchidan, atrof tabiiy muhit tushunchasining yuridik mazmunidan kelib chiqib, Konstitutsiyaning ushbu normasi nafaqat fuqarolarning tabiatni muhofaza qilish, balki tabiiy resurslardan oqilona foydalanish majburiyatini ham nazarda tutadi.

Davlat ekologik siyosatining asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida o‘z aksini topgan. Unga ko‘ra, “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta’minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi mumkin” [1].

Birinchidan, respublika tabiiy resurslari umummilliy boylik hisoblanadi, ya’ni yuridik ma’noda ular xalq mulkini tashkil etadi hamda ular nomidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari qonunda belgilangan vakolatlari doirasida ish yuritadi.

Ikkinchidan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarur. Ekologiya huquqida oqilona deganda, tabiiy resurslardan ekologik normativ va standartlarga qat’iy rioya etgan holda foydalanish tushuniladi.

Uchinchidan, tabiat ob’ektlari va resurslari davlat tomonidan qo‘riqlanadi. Bu davlat tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni ta’minlashini hamda jismoniy va yuridik shaxslarning ekologik huquq va manfaatlariga, shuningdek ekologik huquq-tartibotga rioya etilishini kafolatlashini anglatadi.

*O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida “y*er qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta’minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi mumkin”ligi belgilab qo‘yildi [1].

Yer tabiiy resurs sifatida konstitutsiyaviy – huquqiy rejimga ega. Ushbu huquqiy rejim asosida quyidagi postulotlar yotadi:

yer tabiiy resurs, ya’ni inson mehnatining mahsuli emas, davlat hududining asosiy segmenti;

yer umummilliy boylik – ya’ni unga nisbatan har qanday huquq va majburiyatlar nafaqat hozirgi avlod, balki kelgusi avlodlar manfaatlarini ko‘zlab, nazarda tutilishi shart;

yer resurslaridan maqsadli, oqilona, samarali, tegishli holatini yomonlashtirmaydigan tarzda foydalanish lozim;

yer resurslari davlat muhofazasida, ya’ni yer uchastkalari xususiy mulk yoki ommaviy mulk bo‘lishidan qat’iy nazar vakolatli davlat organlari yerlardan oqilona foydalanish, holatini yomonlashtirmaslik, lozim darajada saqlash, yaxshilash, fuqarolik muomalasida turli suiste’mollliklarga, huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha kuzatuv, monitoring, nazorat olib boradi va tegishli choralarni amalga oshirishga haqli [2].

Konstitutsiyaning 65-moddasida, fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi [1]. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi [3].

O‘zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta’minlanadi.

Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o‘z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emasligi mustahkamlangan.

Asosiy Qonunimizning 66-moddasida belgilanishicha, mulkdor o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulkka o‘z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak [1]. Ushbu normaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda mulk huquqi, xususan tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi mazmunini belgilovchi mulkdor vakolatlari tartibga solingan hamda bunday xo‘jalik va ishlab chiqarish faoliyati atrof tabiiy muhitga zarar yetkazmasligi kabi talab mustahkamlangan.

Umuman olganda, yer resurslarini boshqarishining konstitutsiyaviy asoslarini tahlil etish natijalariga ko‘ra, hozirgi kunda yer munosabatlarini tartibga solishning barqaror asoslari ishlab chiqilganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin [2].

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz huquqshunos olimlari tomonidan yer qonunchiligini takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash borasida bir qator taklif va mulohazalar bildirilgan.

Xususan, bu borada yuridik adabiyotlarda yerlarni huquqiy muhofaza qilish [7], qishloq xo‘jalik subyektlarning yerdan foydalanish huquqi [5], aholi punkti yerlarining huquqiy holati [6], yer ijarasi [4], yerdan foydalanish ustidan davlat boshqaruvi, yer ipotekasi, yerga nisbatan mulkiy munosabatlar, yerga nisbatan xususiy mulkchilikni rivojlantirish, yer munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish (boshqarish)ning nazariy muammolarini o‘rganish, yer nazorati masalalarini har tomonlama tahlil qilish, yer-protsessual huquqiga oid normalarni takomillashtirish kabi dolzarb muammolar tatqiq qilingan.

Ayni damda biz yer sohasidagi qonun hujjatlari normalarini takomillashtirish istiqbollariga oid bir necha ustuvor yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

Birinchidan, yer qonunchiligining yerlarning huquqiy muhofazasiga oid normalarini o‘rganish asosida ularning asosan yerlarning degradatsiya va boshqa zararli ta’sirlardan muhofaza qilish hamda salbiy xo‘jalik ta’siriga uchragan yerlarni qayta tiklashga qaratilganligini kuzatishimiz mumkin. Vaholanki, unda insonlar faoliyati natijasida salbiy ta’sirga uchramagan yerlarning, ayniqsa, tabiiy kuchlar (toshqin, cho‘llanish va b.q.) salbiy ta’siri ostida bo‘lgan yerlarning unumdorligini oshirish masalalari tartibga solinmagan. Ushbu kamchilikni bartaraf etish maqsadida yer qonunchiligida mazkur masalalarga bag‘ishlangan hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi alohida normalarni kiritilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, hozirgi kunda yerlarning xususiylashtirilishi, yer ipotekasi borasida sezilarli ishlar amalga oshirilayotganligini hisobga olgan holda, shunday munosabatlar ob’ekti bo‘lgan yer uchastkalarini huquqiy muhofaza qilish choralarini ham qonunchilikda mustahkamlash zaruriyati tug‘ilmoqda. Shuningdek, yer bilan bog‘liq shartnomalarni tuzish, ularni amalga oshirish, ular bilan bog‘liq yuridik oqibatlarning kelib chiqishiga oid yuridik normalarning takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, tuproq yerning unumdor qatlami va umuman qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib beruvchi asosiy organik moddalarni saqlovchisi ekanligini hisobga olgan holda yerga oid qonunchilikda tuproq unumdorligini saqlash va oshirishga bag‘ishlangan alohida normalani kiritilishi maqsadga muvofiq. Ushbu normalar doirasida tuproq unumdorligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari, tuproq unumdorligini ta’minlash sohasida davlat va hududiy dasturlar, tuproq unumdorligini ta’minlash ustidan nazorat, tuproq unumdorligini me’yorlash, tuproq va agrokimyo xizmatini ko‘rsatish, tuproq unumdorligini ta’minlash sohasidagi faoliyatni moliyalash, tuproq unumdor qatlamini sidirib olish va saqlash kabi masalalarni tartibga solish zarur.

To‘rtinchidan, yerlarni muhofaza qilishning muhim tadbirlaridan biri yerlarni rekultivatsiya qilish bo‘lib, uning huquqiy ifodasi yer qonunchiligida o‘z aksini

topishi lozim. Shunga muvofiq, Yer kodeksining yerlarni muhofaza qilishga oid 11-bobida yerlarni rekultivatsiya qilish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus modda kiritish zarur. Unda, foydalanish uchun yoki ijaraga berilgan qishloq xo‘jaligi yerlari yoxud o‘rmon fondi yerlarida foydali qazilmalar konlarida qazib olish, geologik qidiruv hamda boshqa ishlarni amalga oshiruvchi tashkilotlar bu yerlarda ko‘rsatilgan ishlar yakuniga yetgach, yerlarni qishloq hamda o‘rmon xo‘jaligida foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish bo‘yicha o‘z hisoblaridan rekultivatsiya qilish majburiyatini belgilash maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, bozor iqtisodiyoti sharoitida yerdan foydalanish va muhofaza qilishga oid qonunchilik o‘ziga xos rivojlanish yo‘lini bosib o‘tmoqda va bu rivojlanish yo‘li O‘zbekiston tanlagan taraqqiyotning “o‘zbek modeli”ga xos bo‘lgan xususiyatlar bilan belgilanadi hamda mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim jihatlarini asosiy qomusimiz bo‘lgan Konstitutsiya o‘zida aks ettiradi.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 5-6-son, 82-modda.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.– Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 440 b.
4. Usmonov M.B. Ekologik munosabatlarning konstitusiyaviy asoslari //Jamoat xavfs izligi ilmiy-amaliy jurnali, 2022, Maxsus son, 22-25-b.
5. Xolmo‘minov J.T., Xolmo‘minov O.J. Barqaror taraqqiyot va ekologik xavfsizlikni huquqiy ta’minlash. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Lesson press, 2023, 200 b.
6. Mirzaabdullaeva M.R. Qishloq xo‘jaligida yer nazorati: qonun va amaliyot – Toshkent: TDYuU, 2020.–101b.
7. Uzakova G.Sh. Aholi punktlarida tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofa za qilishning huquqiy masalalari. Monografiya. –T.: TDYuU, , 2021. - 268 b.

ПРИОРИТЕТЫ КОНСТИТУЦИОННОЙ РЕФОРМЫ: УЗБЕКИСТАН – СОЦИАЛЬНОЕ ГОСУДАРСТВО

Туйчибаева Шахноза Шакировна,
профессор кафедры Изучения языков УОБ РУ

Аннотация: в данной статье проводится сравнительный анализ Конституции Республики Узбекистан 1992 года и новой редакции Конституции, принятой по итогам всенародного референдума 2023 года. Исследуются сущность и содержание принципа социального государства, его правовое закрепление, а также расширенные социальные гарантии, предусмотренные новой Конституцией. Особое внимание уделено обязанностям государства по обеспечению социальной защиты населения и практическому значению проведённых конституционных реформ.

Ключевые слова: Конституция, социальное государство, социальная защита, реформы, права человека.

Конституция Республики Узбекистан, принятая 8 декабря 1992 года, стала основополагающим документом, заложившим правовые основы государственного строя и развития страны. В ней были закреплены базовые права и свободы граждан, основы государственной власти, а также общие принципы социальной политики. Однако стремительно меняющиеся экономические и социальные реалии, рост потребностей населения, а также повышение требований к качеству социальных услуг обусловили необходимость модернизации Конституции.

В 2023 году в Узбекистане была принята новая редакция Конституции, которая впервые в истории страны закрепила норму о том, что Узбекистан является социальным государством. Это означает качественно новый уровень ответственности государства перед гражданами и создаёт правовые условия для расширения социальных программ. В данной работе проводится всесторонний анализ содержания принципа социального государства в старой и новой Конституциях.

20 июня 2022 года на встрече с членами Конституционной комиссии Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиеев предложил закрепить в Основном Законе принцип «Узбекистан – социальное государство». Действительно, в условиях Нового Узбекистана важное значение имеют такие аспекты, как обеспечение жизни, свободы, достоинства, неприкосновенности прав и интересов человека, развитие свободного и справедливого гражданского общества, строительство демократического правового государства. Поэтому важно, что в обновленной Конституции еще более укреплены нормы о принципах социального государства, в частности, о качественном образовании, предоставлении медицинских услуг, поддержке социально нуждающихся слоев населения, создании достойных условий и оплаты труда, защите от безработицы, обеспечении жильем.

Социальное государство – это модель, при которой государственная политика направлена на обеспечение достойного уровня жизни населения, уменьшение социальных различий и гарантирование равного доступа к базовым услугам, таким как образование и здравоохранение. В мировой практике примерами развитых социальных государств считаются Германия, Швеция, Норвегия, Финляндия. Их опыт показывает, что эффективное социальное государство невозможно без стабильной экономики, развитой системы социальной защиты, а также твёрдой правовой базы. Конституционная реформа в Узбекистане учитывает эти принципы и направлена на создание справедливого, ориентированного на человека общества.

В Конституции 1992 года – социальная политика государства была отражена в основных чертах, однако термин «социальное государство» прямо не использовался. Основные нормы, касающиеся социальной защиты, включали:

– право граждан на получение помощи в случае безработицы (статья 39);

– право на медицинское обслуживание (статья 40) [1].

Тем не менее, механизм реализации этих прав был описан довольно обще. В Конституции отсутствовали отдельные статьи, посвящённые правам людей с инвалидностью, пожилых граждан, женщин и детей, а также не определялись конкретные обязанности государства по обеспечению качества социальных услуг .

Одним из наиболее значимых изменений стало включение в обновлённую Конституцию нормы о том, что «Узбекистан – суверенное, демократическое, правовое, социальное и светское государство с республиканской формой правления» (Раздел 1, статья 1) [2]. Эта формулировка устанавливает прямую обязанность государства гарантировать достойную жизнь каждому гражданину.

В новой Конституции значительно расширены социальные права населения: более 30 статей были дополнены или изменены. Отдельные главы посвящены защите прав людей с инвалидностью, всемерной поддержке семей, пожилых граждан, молодёжи и других социально уязвимых групп.

В новой Конституции вопросам образования уделено особое внимание. Помимо закрепления бесплатного и обязательного общего среднего образования, в неё включена норма о постепенной доступности высшего образования для широких слоёв населения. Также определены государственные обязательства по:

– поддержке талантливой молодёжи;

– повышению качества образования;

– обеспечению равных условий для получения знаний.

Существенно расширен раздел, посвящённый здравоохранению. В Конституции закреплены:

– право граждан на качественные медицинские услуги;

– охрана здоровья женщин и детей;

– развитие профилактической медицины;
– постепенное внедрение системы медицинского страхования.

В редакции 1992 года подобные механизмы не были прописаны детально.

Одним из ключевых нововведений стало включение в Конституцию нормы о государственной ответственности за сокращение бедности: «Государство принимает меры по обеспечению занятости граждан, защите их от безработицы, также сокращению бедности» (статья 43) [2]. Это подчёркивает стратегическую направленность социальных реформ. В частности, впервые на конституционном уровне закреплены гарантии поддержки:

– малообеспеченных семей;
– людей с инвалидностью;
– детей-сирот;
– одиноких матерей;
– пожилых граждан.

Основные различия можно обозначить следующим образом: Новая Конституция впервые определяет Узбекистан как социальное государство; существенно расширены права граждан в сфере социальной защиты; подробно описаны обязанности государства по обеспечению качества образования, медицины и социального обслуживания; введены нормы, направленные на сокращение бедности; уделено внимание правам уязвимых социальных групп, что отсутствовало в прежней редакции.

Конституционные изменения стали правовой основой для масштабных социальных реформ. Расширение программ поддержки семей, развитие инфраструктуры образования, модернизация системы здравоохранения, запуск социально ориентированных проектов – направлено на повышение качества жизни граждан. Создание системы таких социальных реестров, как: «женская тетрадь», «молодёжная тетрадь», «тетрадь нуждающихся» стало институциональным механизмом, усиливающим практическую реализацию новых конституционных норм.

Новая Конституция позволяет строить долгосрочную социальную политику, которая опирается на принципы справедливости, равенства и защиты достоинства каждого человека.

Таким образом, новая редакция Конституции создаёт фундамент для формирования в Узбекистане полноценного социального государства. В отличие от Конституции 1992 года, в новой редакции социальная политика рассматривается не как общая обязанность государства, а как чётко структурированная система гарантий, мер поддержки и прав граждан. Конституционные изменения направлены на повышение благосостояния народа, укрепление социальной стабильности и дальнейшее развитие государства, ориентированного на человека.

References:

1. Конституция Республики Узбекистан. Ташкент, 1992.
2. Конституция Республики Узбекистан. Национальная база данных законодательства №03/23/837/0241. https:// lex.uz
3. Народное слово. № 247 от 15.12.1992.
4. Туляков Э. Обновленная Конституция Узбекистана обеспечивает подотчетность государственных должностных лиц и социальную защиту граждан. https://www.uzembassy.uk

АДОЛАТ ВА ТАРАҚҚИЁТ МЕЗОНИ – ЎЗБЕКИСТОН КОНСТИТУЦИЯСИ: БУГУНГИ КУН ТАЛАБЛАРИ ВА ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ҚИЁФАСИ

Нурматов Мирғолиб Мирзаевич,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети кафедра бошлиғи, ю.ф.д., профессор

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг қабул қилинганига яна бир йил тўлмоқда. Бу сана шунчаки тарихий воқеа эмас, балки халқимизнинг давлатчиликка бўлган интилиши, адолат, эркинлик ва ҳуқуқ устуворлигига бўлган чуқур ишончи ифодаси сифатида миллий маънавиятимизда алоҳида ўрин тутади.

Дарҳақиқат, 1992 йил 8 декабрь куни қабул қилинган Бош қомусимиз мустақил Ўзбекистоннинг сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий ривожланиш йўлини белгилаб берди. Бу кун халқимизнинг давлатчилик тарихида мужассам янгиланиш, ҳуқуқий мустақиллик ва миллий ўзликни англашнинг улкан рамзига айланган сана. Демак, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси мамлакатда демократик тизимни шакллантириш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш ҳамда адолатли жамиятни барпо этишга хизмат қилаётган асосий ҳуқуқий ҳужжатдир.

Халқимиз табири билан айтганда, у шунчаки ҳуқуқий ҳужжат эмас, балки мустақиллик асосини мустаҳкамлаган пойдевордир. У инсон қадрини энг олий неъмат сифатида белгилади ва “Инсон – жамият – давлат” тамойилини авлодлар тақдирига татбиқ этди.

Бугун жаҳонда глобал ўзгаришлар тез, рақобат кескин. Шу шароитда ҳар бир давлатнинг муваффақияти унинг ҳуқуқий асосларининг мустаҳкамлиги, инсон ҳуқуқлари кафолатларининг амалда ишлаши билан бевосита боғлиқ. Ўзбекистон Конституцияси эса айнан мана шу вазифани бажараётган асосий ҳуқуқий ҳужжатдир.

Сўнгги йилларда мамлакатимиздаги кенг кўламли ислоҳотлар Конституцияда ўз ифодасини топди. Бу жараён нафақат ҳуқуқий, балки ижтимоий ва сиёсий жиҳатдан ҳам жуда муҳим аҳамиятга касб этди. Энг муҳими, Конституцияни такомиллаштириш жараёнида халқнинг бевосита

иштирок этиши, унинг фикрини инобатга олиш демократик қадриятларнинг амалий тасдиғи бўлди.

Таъкидлаш жоизки, Янгиланган Бош қомусимизда инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг кафолатлари янада кучайтирилди, ижтимоий давлат концепцияси аниқ белгилаб қўйилди, таълим, тиббиёт, меҳнат ҳуқуқлари бўйича янги кафолатлар жорий этилди, экологик барқарорлик, маҳаллий бошқарув, суд-ҳуқуқ тизимини мустақил ва самарали қилиш каби масалалар юксак даражада акс эттирилди. Бу ўзгаришлар эса нафақат ҳужжатни замонавий стандартлар даражасига кўтарди, балки янги Ўзбекистоннинг стратегик ривожланиш йўлини белгилаб берди.

Кўпинча Конституцияни фақат давлат хизматчилари ёки ҳуқуқшунослар ўқийди деган фикр учрайди. Аслида эса Бош қомус ҳар бир фуқарога тегишли ҳужжат. Чунки у ҳуқуқларимизни белгилайди, бурч ва масъулиятларимизни ёритади, давлатнинг бизга нисбатан мажбуриятларини аниқ қилади. Бу эса ўз навбатида, мамлакатимиздаги ҳар бир инсонни Конституцияни билишга, у орқали ўз ҳуқуқий маданиятини юксалтиришга ва жамият равнақига дахлдорлик ҳиссини оширишга ундайди.

Чунки Бош қомуснинг ҳар бир нормаси кундалик ҳаётимизда, ишда ҳам, таълим олишда ҳам, тиббий хизматда, тадбиркорликда, ҳатто экологик хавфсизликда ҳам амал қилади. Бугунги таҳликали дунёда Конституция ўз моҳиятига кўра барқарорлик кафолати, инсонпарвар демократик давлатни, очиқ ва адолатли жамиятни барпо этишнинг ҳуқуқий асосидир.

Албатта, жоножон юртимизни “... суверен, демократик, ҳуқуқий, ижтимоий ва дунёвий давлат” деб эътироф этган Конституциямиз 2023 йилда ўзининг янгиланган қиёфасини номоён этди. Ўзбекистоннинг янги тараққиёт босқичи – Янги Ўзбекистон ғоясини ҳуқуқий асосда мустаҳкамлаб берди. У жамият ва давлат муносабатларига замонавий ёндашув, инсон қадрини юксалтириш тамойили ҳамда фуқаролар фаровонлигини таъминлашга қаратилган кенг ислоҳотларни ўз ичига олди.

Конституцияда бир қатор энг муҳим масалалар, хусусан “Инсон-жамият-давлат” тамойилининг мустаҳкамланиши инсон ҳуқуқ ва эркинликларини биринчи ўринга қўйди. Диққат энди фақат давлат манфаатларига эмас, балки фуқароларнинг реал эҳтиёж ва имкониятларига қаратилмоқда. Инсон қадри давлат сиёсатида устувор йўналиш сифатида эътироф этилди.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси иккинчи бўлими “Инсон ва фуқаронинг асосий ҳуқуқлари, эркинликлари ва бурчлари”га бағишлангани, инсон қадри, ҳуқуқ ва эркинликларининг устуворлигини эътироф этиб, давлатни айнан шу ҳуқуқларни ҳимоя қилиш вазифаси билан боғлайди. Бош қомус муқаддимасиданоқ “Биз, Ўзбекистоннинг ягона халқи, инсон ҳуқуқ ва

эркинликларига, миллий ва умуминсоний қадриятларга, давлат суверенитети принципларига содиқлигимизни тантанали равишда эълон қилиб” деган мазмундаги сўзлар билан бошланишининг ўзи Конституциянинг руҳи ва маъноси очиб бермоқда.

Эътиборли томони шундаки, инсоннинг экологик ҳуқуқлари Конституция даражасида мустаҳкамлаб, ҳар бир фуқаро соғлом ва хавфсиз атроф-муҳитда яшаш ҳуқуқига эга бўлишини кафолатламоқда. Бу ҳуқуқни таъминлаш орқали давлат барқарор ривожланиш принципига мувофиқ, атроф-муҳитни яхшилаш, тиклаш ва муҳофаза қилиш, экологик мувозанатни сақлаш бўйича чора-тадбирларни амалга ошириш мажбуриятини ўз зиммасига олган.

Шунингдек, янги таҳрирдаги Конституция Ўзбекистонни ижтимоий давлат деб эълон қилди. Ўзбекистоннинг “ижтимоий давлат” сифатида белгилаши давлат фаолиятининг асосий мақсади инсон қадрини улуғлаш, аҳоли фаровонлигини ошириш ва кучли ижтимоий муҳофаза тизимини яратиш эканини ифода этади. Бу янги Конституциянинг мазмун-моҳиятини белгилаб берувчи энг муҳим ўзгаришлардан биридир. Бу эса, аҳолини камбағалликдан чиқариш, ижтимоий ҳимояни кучайтириш, таълим, тиббиёт ва уй-жой масалаларида давлат кафолатларини кенгайтириш каби вазифаларни давлат зиммасига юклайди.

Бундан ташқари, янги таҳрирда давлат бошқарувини демократлаштириш кучайтирилди. Бунда, парламент ва маҳаллий кенгашлар ваколатлари кенгайтирилди, суд ҳокимияти мустақиллигининг конституциявий принципи белгиланди. Жамоатчилик назоратига ҳуқуқий асослар берилди. Бу эса давлатнинг очиқлиги ва ҳисобдорлигини таъминловчи муҳим қадамлардан бири.

Бугунги кунда, жамиятнинг янада юқори сифатли хизматлар, сиёсий жараёнларда кенг иштирок, имкониятлар тенглиги, адолатли суд тизими каби ўсиб бораётган талабларига янгиланган Ўзбекистон Конституцияси тўла жавоб беради. Халқ фаровонлиги, адолат, ижтимоий ҳимоя Конституциямиз янги қиёфасининг асосий устунларидир. Бу моделда ҳар бир фуқаро давлат сиёсати марказида туради.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси бу халқимиз иродаси, юртимиз истиқболи ва ҳуқуқий давлат бунёд этиш йўлидаги қатъий қадамларимиз тимсолидир. Унинг қадрига етиш, уни ҳаётга тўлақонли татбиқ этиш ҳар биримиз учун шарафли вазифадир.

СУДЬЯ ЛАВОЗИМИГА ТАНЛАШ, ТАЙИНЛАШ ВА УЛАР ФАОЛИЯТИГА ДОИР КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАР

Саид-Газиева Нилуфар Шерзодовна,
Ўзбекистон Республикаси Конституциявий
судининг девони мудири, ю.ф.д., доцент

Аннотация: Ушбу мақолада Ўзбекистон суд ҳокимияти тизимида судяларни танлаш, тайинлаш ва ротация қилиш жараёнларининг амалдаги конституциявий-ҳуқуқий асослари илмий таҳлил қилинган. Судялар олий кенгаши, Олий суд ва Сенат ўртасидаги ваколатлар тақсимоти суд ҳокимиятининг мустақиллигини таъминлашдаги муҳим institut сифатида кўриб чиқилади.

Калит сўзлар: Суд ҳокимияти, судялар танлови, тайинлаш тизими, Судялар олий кенгаши, Олий суд, ротация, ваколат муддати, конституциявий ислоҳот, одил судлов, коррупсияга қарши кураш, малака мезонлари, шаффофлик, суд тизими модернизацияси.

Аннотация: В статье представлен научный анализ действующих конституционно-правовых основ отбора, назначения и ротации судей в судебной системе Узбекистана. Разграничение полномочий между Верховным Советом судей, Верховным судом и Сенатом рассматривается как важный институт обеспечения независимости судебной власти.

Ключевые слова: Судебная система, отбор судей, система назначения, Верховный Совет судей, Верховный суд, ротация, срок полномочий, конституционная реформа, правосудие, борьба с коррупцией, квалификационные критерии, прозрачность, модернизация судебной системы.

Annotation: This article provides a scientific analysis of the current constitutional and legal framework for the selection, appointment and rotation of judges in the judicial system of Uzbekistan. The division of powers between the Supreme council of judges, the Supreme court and the Senate is considered as an important institution in ensuring the independence of the judiciary.

Keywords: Judiciary, selection of judges, appointment system, Supreme Council of judges, Supreme court, rotation, term of office, constitutional reform, justice, fight against corruption, qualification criteria, transparency, modernization of the judicial system.

Бугунги кунда, Ўзбекистон Республикасида судьялик лавозимига номзодларни танлаш ва тайинлаш билан боғлиқ айрим муаммоларнинг мавжудлиги одил судлов фаолиятининг самарадорлигига салбий таъсир кўрсатмоқда. Маълумки, Ўзбекистонда судьялик лавозимига танлаш ва

тайинлаш юзасидан тегишли меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинган бўлиб, уларнинг асосийлари сифатида Ўзбекистон Республикасининг “Конституциявий суди тўғрисида”ги[1] “Судлар тўғрисида”ги[2] қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 2014 йил 22 апрелдаги Қонун билан тасдиқланган “Судьяларнинг малака ҳайъатлари тўғрисида”ги Низом[3] ва бошқа ҳужжатларни қайд этиш мумкин.

Ўзбекистон Республикасида одил судлов фақат суд томонидан амалга оширилади. Ўзбекистон Республикасида суд ҳокимияти қонун чиқарувчи ва ижро этувчи ҳокимиятдан, сиёсий партиялардан, фуқаролик жамиятининг бошқа институтларидан мустақил ҳолда иш юритади.[4]

Шунингдек, судьяликка номзодларни танлаш ва тайинлашда номзодларга қўйиладиган талабларни янада такомиллаштириш зарурати бугунги куннинг долзарб муаммолардан бирига айланиб бормоқда. Ўзбекистон Республикасининг “Судлар тўғрисида”ги Қонунининг 67 ва 68-моддаларига биноан Ўттиз беш ёшга тўлган, олий юридик маълумотга эга бўлган Ўзбекистон Республикаси фуқароси судьялик лавозимига номзод бўлиши мумкин. Шунингдек, жиноят содир этганликда айбланаётган шахс, илгари судланган ёки ўзига нисбатан жиноят иши реабилитация қилмайдиган асослар бўйича тугатилган шахс, чет давлат фуқаролигига эга бўлган ёки чет давлат ҳудудида доимий яшаш ҳуқуқини тасдиқловчи яшаш гувоҳномасига ёхуд бошқа ҳужжатга эга бўлган шахс, суд томонидан муомалага лаёқатсиз ёки муомала лаёқати чекланган деб эътироф этилган шахс, психиатрия ёки наркология муассасаларида ҳисобда турган шахс, судьянинг ваколатларини амалга оширишга тўсқинлик қиладиган бошқа касалликка чалинган шахс судьялик лавозимига номзод бўлиши мумкин эмас.[5]

Жумладан, судьялик лавозимига сайланадиган, тайинланадиган шахсларга қўйиладиган талаблар ҳам мавжуд бўлиб, мазкур Қонуннинг 67-моддаси талабларига жавоб берадиган, юридик ихтисослик бўйича камида ўн беш йиллик иш стажига, шу жумладан, қоида тариқасида, судья сифатида камида етти йиллик иш стажига эга бўлган шахс Ўзбекистон Республикаси Олий суди судьяси бўлиши мумкин. Бундан ташқари, юридик ихтисослик бўйича камида ўн йиллик иш стажига, шу жумладан, қоида тариқасида, судья сифатида камида икки йиллик иш стажига эга бўлган шахс Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий судининг, Қорақалпоғистон Республикаси судининг, Қорақалпоғистон Республикаси маъмурий судининг, вилоят, Тошкент шаҳар судининг, вилоят, Тошкент шаҳар маъмурий судининг судьяси бўлиши мумкин. Ўттиз беш ёшга тўлган ва юридик ихтисослик бўйича камида етти йиллик иш стажига эга бўлган шахс туманлараро, туман, шаҳар судининг, ҳудудий ҳарбий суднинг судьяси бўлиши мумкин.

Илк бор судьялик лавозимига тайинланадиган номзодлар Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактабида мажбурий тартибда ўқиши шарт. Ўқиш даврида улар асосий иш жойи бўйича ўртача ойлик иш ҳақи сақланмаган ҳолда меҳнат мажбуриятларини бажаришдан озод этилади, бироқ ўқишнинг бутун даврида иш жойи (лавозими) сақланади.[6]

Судяларни тайинлаш ва сайлаш тизими давлат ҳокимияти тармоқлари ўртасида институционал мувозанатни таъминлаш, суд ҳокимиятининг мустақиллигини мустаҳкамлаш ҳамда суд корпусига танловнинг очиқ ва адолатли ўтишини кафолатлашга қаратилган бўлиб, Олий Суд судяларининг Сенат томонидан сайланиши, қуйи судлар судяларининг Судялар олий кенгаши томонидан тайинланиши, шунингдек, Қорақалпоғистон Республикасида судяларни Жўқорғи Кенгеси томонидан тасдиқланиши марказлашув ва ҳудудий ваколатлар уйғунлигини юзага келтиради, шу орқали суд тизимида профессионаллик, одил судловни таъминлаш ва конституциявий тамойилларни мустаҳкамлаш жараёнида ҳуқуқий кафолатлар тизими шаклланади.

Суд раислари ва уларнинг ўринбосарларини лавозимга сайлаш ҳамда тайинлаш жараёнининг Президент, Сенат, Судялар олий кенгаши ва Жўқорғи Кенгеси ўртасида тақсимланиши суд бошқарувида демократик назорат, бошқарув ротацияси, ваколатлар балансини сақлаш ва суд тизимининг сиёсий босимлардан мустақил ишлашига хизмат қилади, шу билан бирга суд тизимидаги ташкилий барқарорликни таъминлайдиган юксак масъулиятли раҳбарлик кадрлари корпусини шакллантириш имконини беради, бу эса судлар фаолиятининг очиқлиги, самарадорлиги ва қонун устуворлиги принципларини ҳаётга татбиқ этишда муҳим консептуал омил ҳисобланади.

Судяларнинг ваколат муддатининг 5 йил, 10 йил ва муддатсиз босқичларда белгиланиб борилиши суд тизимида тажрибали мутахассисларнинг барқарор фаолият юритишини таъминловчи, судялик фаолиятининг профессионаллик даражасини оширувчи ва одил судлов сифатини мустаҳкамловчи механизм сифатида намоён бўлиб, шу билан бирга пенция ва ёш чегаралари бўйича белгиланган меъёрлар тизими суд органларида кадрлар барқарорлиги ва янгиланишининг оптимал нисбатини яратишга қаратилган бўлиб, халқаро стандартларга мувофиқ ҳолда суд ҳокимиятининг узлуксизлиги ва сифатли кадрлар сиёсатини таминлайди.

Суд раислари ва улар ўринбосарларининг беш йиллик ваколатлар билан чегараланиши ҳамда бир судда кетма-кет икки муддатдан ортиқ раҳбарлик қилишни тақиқлаш орқали суд тизимида бошқарувнинг доимий янгиланиши, раҳбарлик лавозимининг бир қўлда узоқ муддат тўпланиб қолмаслиги, ташкилий ислоҳотларнинг изчил давом этиши, коррупциявий хавфларнинг

олди олиниши ва суд ички бошқарувида замонавий менеджмент тамойилларининг жорий этилишини таъминлайди, бунда раис ваколатлари тугаганидан сўнг судянинг ўз статусини сақлаб қолиши раҳбарлик лавозимининг вақтинчалигини ва судялик мақомининг мустаҳкам конституциявий табиати эканлигини кўрсатади.

судяни бошқа суд лавозимига фақат унинг розилиги билан ўтказиш мумкинлигини қатъий белгилаши орқали суд ҳокимиятининг мустақиллигини ҳимоя қилувчи асосий конституциявий принципни мустаҳкамлайди, судяни ўз хоҳишига қарши кўчиришга йўл қўймаслик орқали сиёсий босим, маъмурий тазйиқ ва манфаатлар тўқнашуви каби хавфларни бартараф этади, судяларнинг бир судда камида икки йил фаолият юритиш талаби эса суд амалиётининг барқарорлиги, ички интизомнинг шаклланиши ва ҳуқуқни қўллашнинг изчиллигини таъминлайди ҳамда бу меъёрларнинг барчаси умумий ҳолда мустақил ва профессионал суд ҳокимиятини шакллантиришга хизмат қилади.

Хусусан, судьяликка номзодларни танлаш ва тайинлаш самарадорлигини ошириш мақсадида номзод шахсларни тайёрлашни олий ўқув юртларидан бошлаш мақсадга мувофиқ бўлар эди. Чунки, тегишли ҳуқуқшунослик йўналишида фаолият олиб борувчи ўқув юртлари (Тошкент давлат юридик институти ва бошқа) тизимида айнан суд соҳасига ихтисослашган кадрлар (номзодлар)ни тайёрлаб бориш (ўқув юртлар тизимида махсус факультетлар ташкил этиш ва такомиллаштириш), ўқув курслари давомида суд ҳокимияти тушунчаси ва моҳияти, унинг шаклланиш тарихи, тажрибаларини чуқур ўргатиш, ўқувчиларнинг дунёқараши, психологиясини судьялик касби талабларига мос тарзда шакллантириб бориш профессионал номзодларни шакллантиришда аҳамиятга эга бўлади.

Зотан, Судлар судьяларининг олий малака ҳайъати ҳам мавжуд бўлиб, бу тузилма Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар, Тошкент шаҳар судлари, шунингдек Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий суди судьялари малака ҳайъатларининг фаолиятини тартибга солади.

Судьяларнинг олий малака ҳайъати, судьяларнинг малака ҳайъатлари, -

судьянинг интизомий жавобгарлиги;

судьянинг ваколатларини тўхтатиб туриш ёки муддатидан илгари тугатиш;

судьянинг дахлсизлигини таъминлаш;

судьяга малака даражаси бериш;

халқ маслаҳатчиларини танлаш ва уларнинг сайловини ўтказиш ишларини ташкил қилиш;

судьялик қасамёди ва судьялар одоб-ахлоқи қоидаларига риоя этилиши устидан назорат қилиш каби масалаларни кўриб чиқиш учун тузилади.[7]

Судьяларнинг малака ҳайъатлари ўз фаолиятини Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари, қарорлари ва фармойишлари, шунингдек ушбу Низом асосида амалга оширади. Судьяларнинг олий малака ҳайъати Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми томонидан Ўзбекистон Республикаси Олий суди судьялари орасидан Судьялар олий малака ҳайъатининг раиси, унинг ўринбосари ва аъзоларидан иборат таркибда беш йил муддатга сайланади.

Қуйи турувчи судьяларнинг малака ҳайъатлари тегишли судлар судьяларининг конференцияларида туманлараро, туман (шаҳар) судлари, ҳудудий ҳарбий судлар ҳамда тегишли юқори турувчи судларнинг судьялари орасидан судьялар малака ҳайъатларининг раиси, унинг ўринбосари ва аъзоларидан иборат таркибда беш йил муддатга сайланади.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, Ўзбекистон суд ҳокимиятини мустаҳкамлашда судяларни танлаш ва тайинлаш тизимини такомиллаштириш муҳим ўрин тутади. Мақолада кўрсатилганидек, амалдаги қонунчилик судялар учун аниқ талаблар, малака мезонлари ва институционал кафолатларни белгилаб берган бўлса-да, амалиётда айрим тизимли муаммолар давом этмоқда. Судлар олий кенгаши, судялар малака ҳайъатлари ва Олий суд ўртасидаги ваколатлар тақсимоти суд ҳокимиятининг мустақиллиги ва очиқлигини таъминлашга хизмат қилади. Судя номзодларини тайёрлашни олий таълим босқичидан бошлаш, уларни махсус таълим дастурлари орқали профессионаллаштириш зарурати кучайиб бормоқда. Судяларнинг ваколат муддати, ротация тартиби ва интизомий масалаларни кўриб чиқувчи ҳайъатлар фаолияти тизим барқарорлигини мустаҳкамлайди. Барча меъёрлар умумий ҳолда коррупцияни камайтириш, одил судлов сифатини ошириш ва мустақил суд ҳокимиятини шакллантиришга қаратилган. Шу боис, судяларни танлаш ва тайинлаш тизимини модернизация қилиш давр талаби бўлиб қолмоқда.

References:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий 27.04.2021 йилдаги “Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий суди тўғрисида”ги Қонуни // https://lex.uz/docs/5391934

2. Ўзбекистон Республикасининг 28.07.2021 йилдаги “Судлар тўғрисида”ги ЎРҚ-703-сон Қонуни // https://lex.uz/docs/5534923

3. Ўзбекистон Республикасининг 22.04.2014 йилдаги “Судьяларнинг малака ҳайъатлари тўғрисидаги низомга ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги ЎРҚ-368-сон Қонуни

4. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 130-131-моддалар // https://lex.uz/docs/6445145

5. Ўзбекистон Республикасининг 28.07.2021 йилдаги “Судлар тўғрисида”ги ЎРҚ-703-сон Қонуни. 67-модда // https://lex.uz/docs/5534923

6. Ўзбекистон Республикасининг 28.07.2021 йилдаги “Судлар тўғрисида”ги ЎРҚ-703-сон Қонуни. 68-модда // https://lex.uz/docs/5534923

7. Ўзбекистон Республикасининг 28.07.2021 йилдаги “Судлар тўғрисида”ги ЎРҚ-703-сон Қонуни 2-модда // https://lex.uz/docs/5534923

ЎЗБЕКИСТОНДА ҲУҚУҚИЙ ДАВЛАТ ҚУРИШ ПРИНЦИПИ ВА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯЛАШ МЕХАНИЗМИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ АСОСЛАРИ

Эшмуҳаммад Қодиров,
ТДЮУ Конституциявий ҳуқуқ кафедраси
профессори, юридик фанлар доктори

Ҳуқуқий давлат – бу ҳуқуқнинг ҳукмронлиги (олийлиги), барчанинг қонун олдида тенглиги таъминланадиган, инсон ҳуқуқ ва эркинликлари тан олинадиган ва кафолатланадиган, давлат ҳокимиятини ташкил этиш ҳокимиятларнинг ўзаро бўлиниш принципига асосланадиган демократик тизимга эга, давлат ҳисобланади.

Инсон ҳуқуқларини таъминлаш масаласи демократик давлатларга хос муҳим хусусият саналади. Мазкур тушунча бевосита ҳуқуқий давлат билан мантиқан ва моҳиятан боғлиқ. Сабаби инсон ҳуқуқларини таъминлаш механизми том маънода ҳуқуқ реал амал қиладиган давлатлардагина амалга ошиши маълум. Ҳуқуқий давлатнинг асосий мезонларидан бири инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг амалда таъминланганлиги ҳисобланади[1]. Яъни ҳуқуқий давлат эркин ва мустақил шахсни тарбиялашни назарда тутади. Эркин ва ҳуқуқий маданияти юксак шахс ўз ҳуқуқ ва эркинликларини қонунлар асосида ҳимоялашга одатланади. Бунинг маъноси шуки, давлат ҳокимияти ҳуқуқдан фақат ҳокимият қуроли сифатида фойдаланмайди балки унинг ўзи фаолиятида бевосита ҳуқуққа бўйсинади.

Ҳуқуқий давлат принципи[2] ғоясининг моҳияти биринчидан, ҳар бир шахснинг амалдаги (ёзилган ва ёзилмаган) қонунчиликка сўзсиз бўйсунишини англатади. Иккинчидан, қонунлар амалда ҳар қандай мансабдор шахсдан устун бўлиши ва уларнинг ўзи ҳам қонунларни қулдек бажариши талаб этилар экан. Учинчидан, кўпчилик инсонларнинг ҳуқуққа тобе бўлган қонунларга бўйсунув асосидаги ўзаро бирикишини билдиради. Тўртинчидан, давлат тузумида мавжуд ҳуқуқий принциплар орқали ўзаро ҳамжиҳатлик асосида онгли равишдаги фаолиятини англатар экан.

[1] Одилқориев Ҳ.Т. Конституция ва ижтимоий давлатчилика. – Тошкент: Yuridik adbiyotlar publish, 2022 й. – 200-бет.
[2] Ҳусанов О.Т. Конституциявий ҳуқуқ: дарслик. – Тошкент: Yuridik adbiyotlar publish, 2023. – 5-бет.

Илмий назарий жиҳатдан ҳуқуқий давлат принципининг муҳим хусусиятларидан бири сифатида шахс эркинлигининг амалда реал таъминланганлиги назарда тутилиши белгилангани ҳам эътиборли масала саналади. Табиийки, шахс бу борада давлат яхлит организминининг асосий органи ҳисобланади. Яъни шахснинг эркинлик ғояси давлатнинг асосий қонуни Конституцияда белгиланиб айнан у орқали амалга оширилар экан. Ҳуқуқий давлат тушунчасининг сиёсий-ҳуқуқий мазмуни бевосита унинг табиатини англатувчи ҳамда бир вақтнинг ўзида фаолиятининг асосини ташкил этувчи мавжуд қатор принцип ва институтларни назарда тутади.

Ўзбекистонда ҳуқуқий давлат қуриш принципи ва инсон ҳуқуқларини ҳимоялашнинг Конституциявий асослари қуйидаги принцип ва институтлар ёрдамида ўзини мужассам этади**:**

Биринчидан, *ҳуқуқнинг устунлиги принципи*. Ҳуқуқий давлат – бу давлатда жамият ва давлат ҳаётининг энг қуйидан бошлаб юқори бўғинигача ҳуқуқнинг устунлиги амалда таъминланган давлат саналади. Ҳуқуқий давлатда унинг органлари ва бошқа барча иштирокчилар айнан ҳуқуқ билан боғлиқ бўлиб, улар ҳуқуқий муносабатларда фақат ҳуқуққа бўйсунишади. Мазкур нормалар Конституциямиз муқаддимасининг 1, 3, 6-бандларида ҳамда Асосий қонунимизнинг 1 ва 2-моддаларидан мустаҳкамлаб қўйилган. Мамлакатимиз ушбу конституциявий нормаларни ўрнатар экан, уларнинг барча субъектлар томонидан бажарилишини ҳам давлат ҳокимияти органларини жалб этган ҳолда кафолатлаган (Ўзбекистон Республикаси Конститутцияси X-боби, 54-58-моддалар)[3].

Ҳуқуқий давлатда барча давлат органлари фақат Конституция ва қонунлар асосида фаолият юритиш ваколати берилган. Уларга зиммасига фақатгина қонунда тўғридан тўғри рухсат этилган ваколатларни бажаришга изн берилган, давлат органларига нафақат қонунга хилоф ҳаракатлардан тийилиш балки муайян вазиятларда ўз хоҳишига кўра ҳаракат қилиш имконияти ҳам чекланган (Ўзбекистон Республикаси Конститутцияси V-боби, 19-21-моддалар, VII-боби, 25-35-моддалар, IX-боби 41-53-моддалар).

Иккинчидан, *инсон унинг ҳуқуқ ва эркинликлари олий қадрият сифатида тан олиниши принципи*. Ҳуқуқий давлат ғояси инсон эркинлигини таъминлаш, унинг оммавий ҳокимият ва бошқа шахслар билан ўзаро муносабатларида яшаш ва табиий ҳуқуқларини ажралмас ҳуқуқ сифатида таъминлаши билан боғлиқ.

Ҳуқуқий давлатда инсон унинг ҳуқуқ ва эркинликлари олий қадрият[4] сифатида тан олинади. Бу принцип давлатнинг мажбурияти унинг одамлар ва яхлит жамият билан ўзаро муносабатида: давлат органлари ва мансабдор шахслар фуқаролар ва жамиятга хизмат қилишини, аксинча эмас, белгилайди.

[3] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – Тошкент: Yuridik adbiyotlar publish, 2023. – 3-5-бетлар.
[4] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 21 ноябрдаги 60-сон Фармойиши.

Давлатнинг зиммасига инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш орқали фуқаро учун ҳуқуқий кафолат яратиш орқали зарур шароит яратиш масъулияти юкланади (Ўзбекистон Республикаси Конститутцияси VI-боби, 22-24-моддалар).

Учинчидан, *давлат ва фуқаронинг ўзаро масъулияти принципи*. Ҳуқуқий давлатда шахс ва давлат ҳуқуқий муносабатларнинг субъекти сифатида ҳуқуқий нормалар доирасида ўзаро боғлиқ саналиб уларни бузган тақдирда суд ҳимоясида бўлиш масъулиятга эга бўлишади.

Давлат ўз органларининг фаолияти учун масъул саналади. Ўзбекистон Республикаси Конституциясига мувофиқ, ҳар ким давлат органларининг ёхуд улар мансабдор шахсларининг қонунга хилоф қарорлари, ҳаракатлари ёки ҳаракатсизлиги туфайли етказилган зарарнинг ўрни давлат томонидан қопланади (Ўзбекистон Республикаси Конститутцияси 55-моддасининг 5-қисми). Ҳар кимга миллий қонунчилик ва халқаро шартномаларга мувофиқ, агар давлатнинг ҳуқуқий ҳимояга доир барча ички имкониятларидан фойдаланиб бўлган бўлса, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимояловчи халқаро органларга мурожаат этиш ҳуқуқи белгиланган (Ўзбекистон Республикаси Конститутцияси 55-моддасининг 4-қисми).

Тўртинчидан, *ҳуқуқий тенглик принципи.* Ҳуқуқий давлатда барчанинг қонун ва суд олдида тенглиги кафолатланади. Мазкур принцип ҳуқуқий давлат принципининг асосий ва бош ғояси ҳисобланади.

Давлат ижтимоий муносабатларни ҳуқуқий тартибга солишда, бошқаларнинг ҳуқуқини таҳқирловчи характерга эга, алоҳида шахсларнинг манфаатини ифодаловчи қоидалар ўрнатмаслиги керак (Ўзбекистон Республикаси Конститутцияси 55-моддасининг 2-қисми).

Шу билан бирга, ижтимоий адолат нуқтаи назаридан (алоҳида тоифадаги фуқаролар учун тегишли имтиёзлар), табақалаштирилган ҳуқуқий ёндашув, шунингдек муайян давлат ташкилотларида ишлайдиган маълум даржада юқори ҳуқуқий ҳимоялашга зарурати мавжуд шахсларнинг ҳимоясини ҳам истисно этишини назардан қочирмаслик керак (Ўзбекистон Республикаси Конститутцияси 19-моддаси 3-қисми).

Ҳуқуқий тенглик принципи, ҳамманинг бир хил ҳуқуқ ва мажбуриятларга эгалиги ҳамда барчанинг жинси, ирқи, миллати ва бошқа ҳолатига кўра бир хил ҳуқуққа эгалиги давлат тмонидан кафолатланади (Ўзбекистон Республикаси Конститутцияси 19-моддаси 2-қисми).

Бешинчидан, *ҳокимиятнинг бўлиниши принципи*. Мазкур принцип нафақат давлат органларининг фаолиятини чегаралашни назарда тутади балки уларнинг жамиятда эркинлигини кафолатлайди. Ҳуқуқий давлатда давлат ҳокимияти давлат органларининг ваколати битта орган қўлида тўпланиб қолиб авторитар ёки тоталитар режимга айланиб қолишига йўл қўймайди.Ҳуқуқий давлат мазкур мақсадни амалга оширишда ҳокимиятнинг қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимиятига бўлиниш принципига асосланади, Хусусан,

Янги Ўзбекистонда ҳам давлат ҳокимиятини суъистеъмол қилиш механизмининг Конституциявий асоси яратилгани диққатга сазовор бўлган (Ўзбекистон Республикаси Конститутцияси 11-моддаси). Мамлакатимизда ҳокимиятлар бўлиниши принципи ва ўзаро ҳамкорлиги, Конституция ва қонунларнинг устунлиги ҳамда суд ҳокимиятининг мустақиллигининг таъминланишига хизмат қилаётгани ҳеч кимга сир эмас.

Олтинчидан, *фуқаролик жамиятининг мавжудлиги принципи*. Фуқаролик жамияти ғояси давлатдан мустақил бўлган шахсий ва индивидуал эркинлик ҳамда манфаатларнинг давлат органлари аралашувисиз мустақил тарзда амалга оширилишини ўзида мужассам этади. Фуқаролик жамиятининг муҳим шакли сифатида - хусусий мулк, эркин бозор иқтисодиёти ва инсоннинг бегоналаштириб бўлмайдиган табиий ҳуқуқлари намоён бўлади. Фуқаролик жамияти – бу нодавлат институтлар ва муассасалар орқали инсонлар ва жамоаларнинг мақсад ва эҳтиёжларининг амалга оширилиши ҳамда рўёбга чиқарилишининг йиғиндиси саналади[5]. Фуқаролик жамиятининг элементлари сифатида одамларнинг эркин, ўзини ўзи бошқариш орқали уюшган бирлашмалари (жамоат ва диний бирлашмалар, сиёси партиялар), ишлаб чиқариш, тадбиркорлик, таълим, маданият, ОАВ соҳасидаги нодавлат ташкилотлар ва бирлашмалар ҳисобланади (Ўзбекистон Республикаси Конститутцияси XIII-боб, 69-75-моддалари).

Юқоридаги илмий-назарий таҳлиллардан келиб чиқиб, шундай хулосага келиш мумкин. Ўзбекистоннинг Янги таҳрирдаги Конституцияси унинг ҳуқуқий, демократик давлатлиги ҳамда инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоялаш механизмининг ҳуқуқий асосини белгилайди. Асосоий қонунимиз Янги Ўзбекистонинг ҳуқуқий, демократик давлат сифатида ривожланишининг ҳуқуқий кафолатини ўзида тўлиқ мужассам этди. Ҳуқуқий давлат принципларининг конституциявий асосларини амалга ошириш амалиёти, Ўзбекистоннинг ҳуқуқий, демократик давлат сифатида тараққий этишида: давлат ҳокимиятининг ўзаро бўлиниш принципини такомиллаштириш, суд ҳокимиятининг мустақиллигини таъминлаш, инсон ва фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари тизимини ривожлантириш, фуқаролик жамиятини шакллантириш, фуқароларнинг иқтисодий ва хўжалик бошқарувидаги эркинлигини таъминлаш каби йўналишларнинг муҳим ва мунтазамлигини кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – Тошкент: Yuridik adbiyotlar publish, 2023. – 112 б.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 21 ноябрдаги 60-сон Фармойиши.

[5] Саидов А.Х. “Янги Ўзбекистон Конституцияси”: Дарслик-хрестоматия. – Тошкент: Ўзбекисто Республикаси Фанлар Академияси Давлат ва ҳуқуқ институти, 2025. – 143-бет.

3. Саидов А.Х. “Янги Ўзбекистон Конституцияси”: Дарслик-хрестоматия. – Тошкент: Ўзбекисто Республикаси Фанлар Академияси Давлат ва ҳуқуқ институти, 2025. – 797 б.

4. Одилқориев Ҳ.Т. Конституция ва ижтимоий давлатчилика. – Тошкент: Yuridik adbiyotlar publish, 2022 й. – 424 б.

5. Ҳусанов О.Т. Конституциявий ҳуқуқ: дарслик. – Тошкент: Yuridik adbiyotlar publish, 2023. – 536 б.

YOSHLAR HUQUQ VA ERKINLIKLARINING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI

Achilov Alisher Temirovich,
Tashkent International University “Huquqiy fanlar” kafedrasi professori v.b., yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent, E-mail:achilov1976@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yoshlar huquqlari va erkinliklari hamda burchlari tahlil qilingan bo‘lib, asosiy qonunda yoshlar huquq va erkinliklarining keng qamrovda ko‘rsatilishi davlatimizning yosh avlodga yaratib bergan ulkan imkoniyatlari ekanligi to‘g‘risida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, yoshlar, fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi, vijdon erkinligi, ta’lim olish huquqi, siyosiy huquq, mehnat qilish huquqi, dam olish huquqi, burch.

Dunyodagi demokratik davlatlarda hech bir shaxs, hech bir fuqaro o‘z ijtimoiy-shaxsiy hayotini, o‘zining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni Konstitutsiyasiz tasavvur qila olmaydi.

Albert Eynshteynning fikricha, Konstitutsiyaning kuchi butunlay har bir fuqaroning uni himoya qilishga qaror qilishidadir. Konstitutsiyaviy huquqlar har bir fuqaro ushbu himoyaga hissa qo‘shishni o‘z burchi deb bilgan taqdirdagina himoya qilinadi **[1].**

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi [2] milliy istiqlol g‘oyasi va mustaqillik mafkurasining huquqiy asosini tashkil etib, xalqimizning istiqlolga, erkinlikka bo‘lgan intilishini, milliy axloqiy-ma’naviy qadriyatlarini aks ettirgan hamda ularni jamiyat ongiga, ayniqsa, yosh avlod ongiga singdirishga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, yoshlar har qanday davlatning olib borayotgan siyosatining ob’ektini tashkil etuvchi eng muhim ijtimoiy qatlami bo‘lib sanaladi. Ya’ni, davlat rivojining natijasi undagi munosib vorislarning yetishib chiqishi bilan chambarchas bog‘liq. Negaki, demokratik davlat dastlab ta’lim taraqqiyoti, yoshlarning tegishli kasb doirasida yetarli malaka va tajribalarga ega bo‘lib yetishishini yoqlaydi, ayni

vaqtda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi faol ishtirokidan manfaatdor bo‘ladi.

Ma’lumki, Konstitutsiyamizning yangi tahriri 65 foizga yangilanib, takliflarning 60 foizdan ortig‘i bevosita yoshlar tomonidan berilgani katta ahamiyatga ega. Konstitutsiyamizning barkamol avlodni tarbiyalashdagi g‘oyaviy-tarbiyaviy ahamiyati beqiyos bo‘lib, u yoshlarda Vatanga sadoqat, mardlik, o‘zaro do‘st-birodarlik tuyg‘ularini yuksaltirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, Asosiy qonunimizda xalqimizning ko‘p asrlik an’analari, urf-odatlari mujassamlashgani ham uning muhim xususiyatlaridan biridir. Unda jamiyatning barcha qatlamlari singari yoshlarning ham barcha turdagi shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy huquq va erkinliklari kafolatlab qo‘yilgan.

Yangi taxrirdagi Konstitutsiyamizdagi “Oila, bolalar va yoshlar” deb nomlangan 14-bobi 5 ta moddani o‘z ichiga olgan bo‘lib (76-80 moddalar) ularda oila, ota-onalar va ularning farzandlari manfaatlari bilan birga zimmalaridagi mas’uliyat ham belgilab qo‘yilgan. Tabiiyki, davlat ham bu borada o‘z zimmasiga qator vazifalarni olgan, ya’ni u yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishiga hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishiga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishiga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratishi alohida norma sifatida kiritilgan.

Asosiy Qonunimizda belgilab berilgan va kafolatlangan deyarli barcha huquq va erkinliklar asosan yoshlar uchundir. Zero, yosh avlodni ijtimoiy va ma’naviy jihatdan asrab avaylash, ularni bilimli qilib tarbiyalash, salomatligini muhofaza qilish, xavfsiz va qulay mehnat sharoitlarini yaratish mamlakatimiz oldiga qo‘ygan yuksak vazifalardan biri hisoblanadi.

Yoshlar ham jamiyatning boshqa vakillari qatori fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga egadirlar (33-modda). Konstitutsiyaning 35-moddasiga muvofiq ular uchun ham vijdon erkinligi to‘la kafolatlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida esa ta’lim olish huquqi mustahkamlab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi, maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart sharoitlar yaratadi. Shuningdek, bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Konstitutsiyamizga kiritilgan yangi normaga muvofiq, fuqarolar davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olishga haqli ekanligi aniq belgilab qo‘yilgan (51-modda). 2017 yilga qadar oliy ta’lim muassasalarida grant o‘rinlari soni faqat qisqarib kelgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda esa grantlar ko‘paytirilganligini ta’kidlab o‘tish o‘rinlidir. Xususan, o‘tgan davrda oliy ta’limga ajratilgan davlat grantlari soni 75 foizga hamda ehtiyojmand oilalar farzandi bo‘lgan

xotin-qizlar uchun davlat grantlari soni ikki baravarga oshirildi. Shuningdek, nodavlat oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashga davlat granti ajratish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Mazkur konstitutsiyaviy qoidaning belgilanishi bu boradagi ijobiy yo‘nalish doimo saqlab qolinishini, davlat oliy ta’lim muassasalarida grant o‘rinlari yo‘qolmasligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek oliy ta’lim tashkilotlariga akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar olib borish va o‘qitish erkinligi huquqi berilishi ham quvonarlidir. Oliy ta’lim tizimi bilan bog‘liq masalalarning Konstitutsiya darajasida belgilanayotgani oliy ta’lim jarayoniga tashqi aralashuvlarni cheklash, oliy ta’lim sifati va dunyoda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shaxsning bilim olishga bo‘lgan huquqi Konstitutsiya asosida qabul qilingan bir qator qonunlarda, shu jumladan, 2020 yil 20 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi [3] qonunda ham mustahkamlab qo‘yilgan. Umumiy va maxsus ta’lim insondagi bilimlar sifatini yaxshilaydi, darajasini va zahiralarini oshirish vositasida inson kapitalining miqdori va sifati o‘sishiga xizmat qiladi. Oliy ta’limga kiritiladigan investitsiyalar yuqori malakali mutaxassislar, yuqori mehnat unumdorligining yuzaga kelishiga sharoit yaratadi, ular esa o‘z navbatida iqtisodiy taraqqiyot sur’atlarini jadallashtirishga turtki bo‘ladi.

Yoshlar o‘z salohiyatidan erkin foydalanishga, o‘z iqtidor va iste’dodlarini to‘la namoyon etishga haqlidirlar. Ularga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qiladi (53-modda).

Qonun bilan belgilangan yoshga yetgach, ularning siyosiy huquqlari doirasi yanada kengayadi. Konstitutsiyaning 39-moddasiga binoan ular kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalariga uyushish hamda ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqlariga ega bo‘ladilar.

Konstitutsiyamizdagi normalarga asosan davlatimiz yoshlarning ma’naviy, intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilishi belgilangan. O‘qishni bitirgan har qanday yosh ishlashi, oila qurishi va o‘z uy joyiga ega bo‘lishi lozim. Bularning hammasini birdaniga hal qilish qiyin. Shu boisdan, davlatimiz bu kabi masalalarni o‘z zimmasiga olmoqda. Bu esa yoshlarni har tamonlama kamol topishiga imkon beradi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, yoshlarning ijtimoiy hayotning turli sohalardagi huquqlari Konstitutsiya asosida qabul qilingan ko‘p sonli maxsus qonunlar bilan ham ta’minlanadi. Ta’lim, tadbirkorlik, mehnat, jamoat birlashmalari, vijdon erkinligi, jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi qonunlar shular jumlasidandir.

Bu qonunlar yoshlarimizga nafaqat boshqalar bilan teng huquqli bo‘lishni, balki ko‘pgina imtiyozlar va qo‘shimcha kafolatlarni ham belgilab beradi.

Yoshlar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklarini, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga (60-modda), shuningdek, O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy, madaniy ilmiy va tabiiy merosini asrab avaylashga majburdirlar (61-modda). Yoshlar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishlari shart (62-modda). Konstitutsiyamizning 64-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish – O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir.

Konstitutsiyada yoshlarga ham tegishli bo‘lgan burchlarning mavjudligi ularning huquq va erkinliklari doirasining kengligini inkor eta olmaydi. Asosiy Qonunimizda yoshlar huquq va erkinliklarining bunday keng qamrovda ko‘rsatilishi davlatimizning yosh avlodga yaratib bergan ulkan imkoniyatlaridan dalolatdir. Bugungi o‘zbek yoshlaridan esa faqatgina a’lo o‘qish, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida o‘z iqtidor va salohiyatlarini namoyish etish talab etiladi, xolos.

Har qanday davlatning yoshlar siyosatini amalga oshirishidan maqsadi mamlakat iqtisodiy va siyosiy salohiyatini mustahkamlash, davlatchilik asoslarining kelgusi zahiralarini yaratish, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy takomillashuvining asosini barpo etishdan iboratdir. Shu sababdan, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlod Konstitutsiyaning ma’no-mazmunini, u istiqlol yillarida erishilgan ulkan tarixiy yutuq ekanligini anglab olishlari, konstitutsiya biz uchun nafaqat muhim hayotiy qo‘llanma, balki g‘urur-iftixor, kerak bo‘lsa, shu zaminda istiqomat qilayotgan millati, tili, dinidan qat’iy nazar, barcha insonlar uchun mustahkam bir himoya ekanligini his etib yashashlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi,https://lex.uz/docs/-6445145

2. O’zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g‘risida”gi qonuni, https://lex.uz/docs/-3026246;

3. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, https://lex.uz/docs/5013007

KONSTITUTSIYA ILM VA BILIM OLISHNING GAROVIDIR

Xamidov G‘aybulla Saypillayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Zirhli va avtomobil texnikalari” kafedrasi professori,
texnika fanlari nomzodi, professor

“Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi”. Ushbu haqqoniy e’tirof O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yil oktyabrda imzolagan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishda alohida ta’kidlandi. Unga ko‘ra, Konstitutsiyaning 32 yilligini munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlosh uchun “Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni samarali tashkil etilishi belgilandi.

Mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yoqlab ovoz bergani ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi, shu bilan bir qatorda, Bosh qomusimizda xalqimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topganini ifoda etadi.

Xalq — davlat hokimiyatining birdan-bir manbai O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining avvalgi tahriri 1992-yil 8-dekabrda O‘zbekiston xalqining vakolatli vakillari bo‘lmish parlament a’zolari, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputatlari tomonidan qabul qilinganini bilamiz. Bundan farqli o‘laroq, mamlakatimiz Asosiy Qonunining yangi tahriri bevosita umumxalq referendumida — to‘g‘ridan- to‘g‘ri ovoz berish yo‘li bilan qabul qilindi. Shu ma’noda, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasining haqiqiy muallifi xalqning o‘zidir. Fuqarolarning xohish-irodasi esa islohotlarning manbai va harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi [4].

Bugungi rivojlanib borayotgan davrda har bir mamlakatning asosiy maqsad hamda vazifasi inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, erkin demokratik davlatni barpo etishdir. Inson huquq va erkinliklarini ta’minlashda konstitutsiya asosiy hujjat hisoblanadi. O‘zbekistonda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlarning ham asosiy g‘oyasi inson qadrini ulug‘lash, uning asosiy huquqlarini yanada mustahkamlash ekanligini alohida ta’kidlash lozim. E’tiborli jihati shundaki, konstitutsiyaviy islohotlarda asosiy kuch bu xalq ekanligidir. Ya’ni O‘zbekiston Respublikasining yangi konstitutsiyasida mustahkamlangan normalar bevosita xalqning takliflari asosida ishlab chiqilganligi bir jihat bo‘lsa, xalqning xohish irodasi bilan referendum orqali qabul qilinganligi yana bir muhim jihat bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgarish kiritishga doir takliflar ichida 41-moddani o‘zgartirish bo‘yicha bildirilgan takliflar ijobiy echim topishi amalda konstitutsiyamizning milliy qiyofasini belgilab beradi. Boisi ushbu takliflarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, “pedagog xodimlarning maqomini har jihatdan mustahkamlash jamiyat va davlatning maqsadi ham mas’uliyatli vazifasidir. Pedagog xodimlarning kasbiy faoliyatiga aralashishga, shuningdek, ularning xizmat majburiyatlarini bajarishiga monelik qilishga yo‘l qo‘yilmaydi” [5]. Bu mamlakatimizning qisqa tarixida yuz bergan salbiy holatlar hamda ushbu holatlarning xalqimizning milliy mentalitetiga zid bo‘lganligi sababli ko‘pchilik fuqarolarimizning haqli e’tirozlariga sabab bo‘lganligi bilan bog‘liq holatlarning oldini olish imkonini beradi. Xalqimizda “Ustoz otangdek ulug‘” degan naql bor va ustozlarni hurmat qilish milliy xarakterimizning ajralmas qismidir. Afsuski, 2017-yilgacha o‘qituvchilar, hatto maktab o‘quvchilarining ham paxta terimiga majburlanishi, bu davrda mashg‘ulotlar chetga surib qo‘yilishi, bu ham etmagandek, ayrim rahbarlarning o‘z vakolatlaridan chetga chiqib, ta’lim muassasalari o‘qituvchilarini obodonlashtirish, hatto qurilish ishlariga majburlanishi, 2021-yilda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalib, xalqimizning qattiq e’tiroziga sabab bo‘lgan maktab o‘qituvchilarining “uzr so‘rattirish” marosimlari yaqin o‘tmishimizning qora dog‘lari bo‘lib, bu oxir-oqibat ta’lim tizimiga putur yetkazdi.

Buni to‘g‘ri anglagan O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, prezidentlik muddatining birinchi kunlaridanoq ta’limni isloh qilishni, birinchi navbatda o‘qituvchilarning obro‘-e’tiborini oshirishdan boshlash lozimligini ta’kidlab kelmoqda. Yangilangan Konstitutsiyaning 41- moddasini yuqoridagi normalar bilan boyitishi haqidagi takliflari ham, o‘sha keyingi 5-6 yil davomida amalga oshirib kelinayotgan ijobiy ishlarning navbatdagi bosqichi bo‘ldi, deb o‘ylayman.

Ushbu moddaga kiritilayotgan yangi normalardan yana biri – iste’dodli yoshlarning moddiy ahvolidan qat’i nazar ta’lim olishlarini davom ettirishlarini davlat o‘z zimmasiga olayotganligidir. Ma’lumki, yangi konstitutsiyada kontseptual o‘zgarish yasayotgan normalardan biri mamalakatimizni “ijtimoiy davlat” deb e’lon qilinayotganidir. Ijtimoiy davlatning asosiy belgilaridan biri jamiyatda ijtimoiy adolat va ijtimoiy tenglikning ta’minlanganligidir. Shunga ko‘ra, 41-moddaga kiritish taklif etilayotgan yuqoridagi norma davlat iste’dodli yoshlarni keng, jumladan moddiy ahvolidan ham qat’i nazar, qo‘llab-quvvatlashini nazarda tutadi.

Keyingi vaqtlarda mamlakatimizda bu borada qator ijobiy ishlar amalga oshirib kelinmoqda. O‘zbekistonda keng o‘tkazilayotgan “Yosh kitobxon” va “Zakovat” tanlovlari, iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash “Ulug‘bek” jamg‘armasi hamda iqtidorli yoshlarning xorijiy nufuzli ta’lim muassasalarida tahsil olishlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “El-yurt umidi” jamg‘armalari faoliyatining davlat tomonidan keng qo‘llab quvvatlanayotgani shular jumlasidandir. Xususan, iqtidorli

yoshlarning xorijiy tillarni o‘rganishlari va xalqaro sertifikatlarga ega bo‘lishlarini rag‘batlantirish uchun ushbu sertifikatga ega bo‘lgan yoshlarning imtihon xarajatlari qoplab berilmoqda. 2021-yil 1-maydan 5 turdagi, 2022-yil 1-yanvardan 13 turdagi (jami 18 turdagi) xalqaro imtihon tizimlarida yuqori natijaga erishgan yoshlarning imtihon xarajatlari qoplab berilmoqda. Bugunga qadar mazkur tizim orqali 5441 nafar yoshlarning imtihon xarajatlari qoplab berildi va bu qariyb 10 mlrd so‘mni tashkil qilmoqda [3].

Ushbu normalarning konstitutsiyaga kiritilishi ko‘pchilikni qiziqtirayotgan yana bir muammoga ham ijobiy echim bo‘lib, o‘z hissasini qo‘shadi. Ma’lumki, keyingi yillarda mamlakatimizda mulkchilik shakli turlicha bo‘lgan oliy ta’lim muassasalari ko‘payib bormoqda. Ayrim xususiy ta’lim muassasalari ta’lim berish sifatiga ko‘ra mamlakatimizning otaxon universitetlarini ham ortda qoldira boshladi. Iste’dodli yoshlarning ushbu muassasalarda tahsil olishlari esa, ulardagi iste’dodning yanada sayqallanishiga olib keladi. Yangi konstitutsiyaga kiritish taklif etilayotgan davlatning ijtimoiy ekanligi (1), iste’dodli yoshlarning moddiy ahvolidan qat’i nazar davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi (2) hamda 41- moddada taklif etilayotgan yana bir norma – mulkchilik shaklidan qat’i nazar, barcha turdagi ta’lim muassasalari rivojlanishi uchun davlat teng sharoitlar yaratib berishi to‘g‘risidagi (3) normalarga tayangan holda aytish mumkinki, yangilangan Konstitutsiya iste’dodli yoshlarni eng yaxshi ta’lim muassasalarida, u xoh xususiy bo‘lsin, xoh davlatniki, ta’limni davom ettirishlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yaqin-yaqingacha bolalar mehnati jamiyatimiz uchun begona tushuncha emas edi. Ammo, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar sabab yurtimizda bolalar mehnatiga chek qo‘yildi. Mehnatga oid xalqaro hujjatlardan kelib chiqqan holda milliy qonunchiligimizda bolalar mehnatining og‘ir shakllari yoki ularning majburiy mehnati qat’iy taqiqlandi. Natijada 2019-yilning 1-aprel kuni Xalqaro mehnat tashkilotining hisobotida Jahon banki tomonidan O‘zbekiston paxta sanoatida bolalar va majburiy mehnatdan tizimli foydalanishga barham berilgani e’lon qilindi.

Bunday o‘zgarish mamlakatimiz yoshlari uchun ko‘plab imkoniyatlar eshigini ochdi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu salbiy holatlar qayta uchramasligini ta’minlash, yoshlarimiz har doim o‘z iqtidorlarini namoyish etish uchun ta’lim va tarbiya olishini kelajakda ham mustahkamlab qo‘yish maqsadida qonunchiligimizdagi bolalar huquqlari borasidagi o‘zgartirishlar yangilanayotgan Konstitutsiyada ham qat’iy belgilab qo‘yilmoqda. Xususan, 44-moddada bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan, uning ta’lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi, deya belgilanmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga kiritilayotgan mazkur norma bolalar mehnatining og‘ir

shakllaridan himoya qilish, ularni sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga etishishlari uchun muhim huquqiy kafolatdir.

Shuningdek, 50-moddada ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanishi belgilanmoqda. Unga ko‘ra, sog‘lig‘ida nuqsoni bo‘lgan bolalar faqatgina ixtisoslashgan maktablarda emas, hamma qatori umumiy maktablarda ham o‘qishi yo‘lga qo‘yilishi Yangi O‘zbekistonda inson qadri tamoyilining amaliy ifodasidir. Albatta, yoshlarimizning barkamol insonlar bo‘lib voyaga etishlarida uzluksiz ta’lim tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, yangilanayotgan Konstitutsiyamizda ham yoshlarimizning oliy ta’limga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda, barcha yoshlarga oliy ta’lim olish imkoniyati yaratib berilmoqda [1]. Xususan, 51-moddada fuqarolar davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olishga haqli ekanligi norma sifatida kiritilmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad iqtidorli yoshlar uchun davlat granti asosida bakalavriat va magistratura bosqichida ta’lim olish orqali hayotda o‘zlarini to‘laqonli namoyon etish imkoniyatini kengaytirishdir.

Mazkur konstitutsiyaviy qoidaning belgilanishi bu boradagi ijobiy yo‘nalish doimo saqlab qolinishini, davlat oliy ta’lim muassasalarida grant o‘rinlari yo‘qolmasligini kafolatlaydi. Shu bilan birga, davlat hisobidan ajratiladigan bepul oliy ta’lim olish kafolatini tanlov asosida, keng raqobat sharoitlarini yaratgan holda munosib bo‘lgan nomzodlargina qo‘lga kiritishi uchun zamin yaratadi. Iqtidorli yoshlarning bepul oliy ma’lumot olishi esa mamlakatimiz kelajagini belgilashda muhim kuch bo‘lgan yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni yetishtirishga xizmat qiladi [3].

Muxtasar aytganda, buni to‘g‘ri anglagan O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, prezidentlik muddatining birinchi kunlaridanoq ta’limni isloh qilishni, birinchi navbatda o‘qituvchilarning obro‘-e’tiborini oshirishdan boshlash lozimligini ta’kidlab kelmoqda, bugun Konstitutsiyamizning yangi normalarida asosiy e’tibor inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilganini ishonch bilan ta’kidlash mumkin. Yangi tahrirdagi Asosiy Qonunning qabul qilinishi bilan bu borada yanada mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy asos yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: 2023 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yil oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi.

3. https://constitution.uz/uz/pages/Konstitutsiya_mustahkam_kafolat.

4. 2023-yil 8-may “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni

5. https://kun.uz/news/2022/07/01/yangi-tahrirdagi-konstitutsiya-talimga-yondashuvni-o‘zgartirish-vaqti-keldi.

ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ В ВОИНСКИХ ЧАСТЯХ РЕСПУБЛИКИ БЕЛАРУСЬ

Саковец Игорь Николаевич,
учреждение образования «Военная академия Республики Беларусь»,
заместитель начальника кафедры юридических дисциплин

Аннотация: в статье рассматриваются отдельные вопросы экологической безопасности в Республике Беларусь, а также приведены мероприятия по охране окружающей среды в соединениях и воинских частях.

Ключевые слова: экологическая безопасность, охрана окружающей среды, источники загрязнения, воинская часть, мероприятия.

Annotation: the article examines certain issues of environmental safety in the Republic of Belarus and also provides measures for environmental protection in military units and formations..

Key words: environmental safety, environmental protection, sources of pollution, military unit, events.

На современном этапе развития человечества экологический вопрос имеет особую остроту. Для человечества опасность представляют экологические проблемы, возникшие в результате возрастания антропогенной нагрузки на окружающую среду, вызванной ростом промышленного производства в современном мире. Во многом данная ситуация обусловлена экономическим ростом, источником для которого служит природная среда. Экологическая безопасность является приоритетным вопросом жизнедеятельности людей и напрямую связана с выживанием современной цивилизации [1, с. 73-74].

В Концепции национальной безопасности Республики Беларусь (далее – Концепция) экологическая безопасность выделена как самостоятельный элемент национальной безопасности и представляет собой состояние защищенности окружающей среды, жизни и здоровья граждан от угроз, возникающих в результате антропогенных воздействий, а также факторов, процессов и явлений природного и техногенного характера [2, ст. 4].

В современном мире с его скоротечностью развития, прогрессией технической и производственной сторон жизни государства не стоит забывать об окружающей среде, причинах и условиях, способствующих причинению ей ущерба. Одним из способов нанесения ущерба окружающей среде необходимо рассматривать совершение субъектами (физическими, юридическими лицами, индивидуальными предпринимателями) экологических правонарушений, которые представляют опасность не только окружающей среде, как определяющему фактору здоровья каждого гражданина, но и экономической безопасности нашего государства.

В Концепции обозначены основные национальные интересы в экологической сфере, среди которых необходимо выделить сохранение благоприятной окружающей среды для жизнедеятельности населения; рациональное (устойчивое) использование природно-ресурсного потенциала, а также сохранение биологического и ландшафтного разнообразия, экологического равновесия природных систем [2, ст. 17].

В законодательстве определены внутренние и внешние источники угроз национальной безопасности в экологической сфере. Большего внимания вызывают внутренние источники угроз национальной безопасности, среди которых: высокая концентрация экологически опасных объектов, их размещение вблизи жилых зон и систем жизнеобеспечения; радиоактивное загрязнение; повышенные уровни выбросов и сбросов загрязняющих веществ, образования отходов; недостаточное развитие правовых и экономических механизмов обеспечения экологической безопасности, систем учета природных ресурсов, качества окружающей среды [2, ст. 39, 48].

Вместе с тем в Концепции сформулированы основные направления нейтрализации внутренних источников угроз национальной безопасности в экологической сфере и важнейшие направления защиты от внешних угроз: внедрение энерго- и ресурсосберегающих технологий, современных систем защиты экологически опасных объектов, разработка и внедрение экологобезопасных технологий; развитие национальной системы мониторинга окружающей среды, формирование эффективной нормативной правовой базы экологической безопасности; развитие международного сотрудничества в области охраны окружающей среды; сокращение выбросов в атмосферу парниковых газов, увеличение площади лесов и др. [2, ст. 61].

Охрана окружающей среды является задачей всех государственных органов, предприятий, учреждений, организаций, граждан и юридических лиц. В механизме действия эколого-правовых норм особая роль отводится государственным военным организациям и военнослужащим – субъектам правовых отношений в сфере взаимодействия общества и природы.

Военная деятельность сопряжена с множеством опасностей, которые присущи окружающей среде и при определенных условиях приводят к возникновению вредных факторов, которые представляют угрозу безопасности личного состава, местного населения, вооружения, военной техники, военных объектов и связанных с ними объектов хозяйственного назначения и окружающей среды.

В соответствии с законодательством об охране окружающей среды экологическая безопасность – состояние защищенности окружающей среды, жизни и здоровья граждан от возможного вредного воздействия хозяйственной и иной деятельности, чрезвычайных ситуаций природного и техногенного характера [3, ст. 1]. Законодательством также определено, что для размещения и содержания военных объектов предоставляются в постоянное или временное пользование земельные участки, а также другие природные и производственные ресурсы [4, ст. 8, 12, 20].

Источниками загрязнения окружающей природной среды в процессе деятельности Вооруженных Сил, других войск и воинских формирований Республики Беларусь могут служить: парки боевой и специальной техники; системы энерго- и радиотехнического обеспечения; складская зона; заправочные пункты и склады горюче-смазочных материалов; мастерские; котельные; системы водоснабжения; канализация и очистные сооружения; жилая зона; подсобные хозяйства; строительные площадки; свалки; полигоны, войсковые стрельбища и др.

Анализ содержания основных направлений правового обеспечения служебно-боевой деятельности внутренних войск, позволяет выделить одну из целей управленческой деятельности органов военного управления – правовая работа при организации мероприятий по обеспечению экологической безопасности и охране окружающей среды.

Основные аспекты, связанные с экологической безопасностью при функционировании соединений и воинских частей, изложены в Уставе внутренней службы Вооруженных Сил Республики Беларусь [5, ст. 82, 141, гл. 21 и др.].

При осуществлении хозяйственной и иной деятельности возрастает роль учета вредного воздействия на окружающую среду. Правомерно рассматривать выполнение в соединении (воинской части) внутренних войск плана мероприятий по охране окружающей среды как одну из форм учета в области охраны окружающей среды в процессе осуществлении хозяйственной и иной деятельности. К таким мероприятиям целесообразно отнести следующие:

анализ состояния природоохранной работы и подведение итогов выполнения плана мероприятий по охране окружающей среды;

разработка и включение в планирующие документы мероприятий по предупреждению отрицательного воздействия на окружающую среду;

заслушивание начальников служб о выполнении мероприятий по охране окружающей среды на объектах материально-технической базы;

представление отчетов, донесений (сведений) по охране окружающей среды и рациональному использованию природных ресурсов;

проверка эффективности работы канализационных очистных сооружений;

проверка организации сбора, временного хранения и вывоза отходов;

проверка выполнения природоохранных требований при хранении, расходовании и утилизации ядовито-технических жидкостей;

осуществление проверки автотранспорта на содержание углерода, углеводородов и дымности в отработанных газах;

проведение озеленения территории соединения, воинской части;

приведение в соответствие мест сбора отходов, оборудование его твердым покрытием, ограждением, ремонт контейнеров;

организация обеспечения защиты интересов соединения, воинской части при предъявлении исков за причинение вреда окружающей среде;

проведение служебных расследований при причинении материального ущерба или вреда здоровью личного состава, окружающей среде;

подготовка наглядной агитации в подразделениях;

корректировка инструкций по мерам безопасности на рабочих местах с учетом требований экологической безопасности и др.

Одним из актуальных, является вопрос о целесообразности экологической паспортизации воинской части. Согласно законодательству, при эксплуатации зданий, сооружений и иных объектов юридические лица обязаны вести экологический паспорт предприятия [3, ст. 37]. Воинская часть – юридическое лицо, использующее помещения по прямому назначению для осуществления хозяйственной или иной деятельности с учетом мероприятий по содержанию, техническому обслуживанию и ремонту. Однако, не все воинские части выполняют данное требование законодателя. В экологическом паспорте, в свою очередь, отображаются такие важные сведения как сведения о (об): природопользователе и его производственной характеристике; охране атмосферного воздуха; использовании земельных ресурсов; водопотреблении и водоотведении; обращении с отходами производства; транспорте предприятия; мероприятиях по рациональному использованию природных ресурсов и охране окружающей среды и др.

Таким образом, эколого-правовые аспекты управленческой деятельности в войсках являются важнейшими составляющими в служебной деятельности субъектов военного права по превентивному предотвращению причинения

вреда окружающей среде, используются командирами (начальниками) всех степеней в целях эффективного выполнения возложенных на них задач, отражают специфику отношений, складывающихся при взаимодействии общества и природы с участием военных организаций и военнослужащих.

В процессе осуществлении хозяйственной и иной деятельности воинских частей важным является своевременное, всестороннее и полное выполнение мероприятий по охране окружающей среды.

Воинская часть, как субъект гражданско-правовых отношений, использует помещения по прямому назначению для осуществления хозяйственной или иной деятельности с учетом мероприятий по содержанию, техническому обслуживанию и ремонту. В этой связи актуальным является вопрос о целесообразности экологической паспортизации соединений и воинских частей.

References:

1. Belarus Respublikasining milliy xavfsizligi: O‘quv qo‘llanma / A.I. Verush / "Belarus Respublikasi Harbiy akademiyasi" ta'lim muassasasi, Ichki qo‘shinlar fakulteti, Huquqiy fanlar kafedrasi. Minsk: Moskva davlat bosmaxonasi, 2024. – 124 b.

2. Belarus Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasi. Belarus Respublikasining harbiy doktrinasi. Minsk: Belarus Respublikasining Huquqiy axborot milliy markazi, 2024. - 128 b.

3. Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g'risida [Elektron resurs]: Belarus Respublikasining 1992-yil 26-noyabrdagi 1982-XII-sonli qonuni: Belarus Respublikasining 2023-yil 27-dekabrdagi qonuni bilan o‘zgartirilgan holda / IPS "ETALON" / Milliy huquqiy axborot markazi. Minsk, 2025.

4. Mudofaa to‘g'risida [Elektron resurs]: Belarus Respublikasining 1992-yil 3-noyabrdagi 1902-XII-sonli qonuni: Belarus Respublikasining 2024-yil 3-apreldagi qonuni bilan o‘zgartirilgan holda / IPS "ETALON" / Milliy huquqiy axborot markazi. Minsk, 2025.

5. Belarus Respublikasi Qurolli Kuchlari Ichki xizmati Nizomi [Elektron resurs]: Belarus Respublikasi Prezidentining 2001-yil 26-iyundagi 355-sonli Farmoni: o‘zgartirilgan holda. Belarus Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-martdagi Farmoni // IPS "ETALON" / Huquqiy axborot milliy markazi. Minsk, 2025.

1. Национальная безопасность Республики Беларусь : учебное пособие / А.И.Веруш / УО «Военная академия Республики Беларусь», Факультет внутренних войск, Кафедра юридических дисциплин. – Минск : МГК полиграфии, 2024. – 124 с.

2. Концепция национальной безопасности Республики Беларусь. Военная доктрина Республики Беларусь. – Минск : Национальный центр правовой информации Республики Беларусь, 2024. - 128 с.

3. Об охране окружающей среды [Электронный ресурс] : Закон Респ. Беларусь, 26 нояб. 1992 г., № 1982-XII: в ред. Закона Респ. Беларусь от 27.12.2023 / ИПС «ЭТАЛОН» / Национальный центр правовой информации. – Минск, 2025.

4. Об обороне [Электронный ресурс] : Закон Респ. Беларусь, 3 нояб. 1992 г., № 1902-XII: в ред. Закона Респ. Беларусь от 03.04.2024 / ИПС «ЭТАЛОН» / Национальный центр правовой информации. – Минск, 2025.

5. Устав внутренней службы Вооруженных Сил Республики Беларусь [Электронный ресурс]: Указ Президента Респ. Беларусь, 26 июня 2001 г., № 355: в ред. Указа Президента Респ. Беларусь от 11.03.2025 // ИПС «ЭТАЛОН» / Национальный центр правовой информации. – Минск, 2025.

1. National Security of the Republic of Belarus: A Study Guide / A.I. Verush / Educational Institution "Military Academy of the Republic of Belarus", Faculty of Internal Troops, Department of Legal Disciplines. Minsk: Moscow State Printing House, 2024. - 124 p.

2. National Security Concept of the Republic of Belarus. Military Doctrine of the Republic of Belarus. Minsk: National Center for Legal Information of the Republic of Belarus, 2024. - 128 p.

3. On Environmental Protection [Electronic resource]: Law of the Republic of Belarus, November 26, 1992, No. 1982-XII: as amended by the Law of the Republic of Belarus of December 27, 2023 / IPS "ETALON" / National Legal Information Center. Minsk, 2025.

4. On Defense [Electronic resource]: Law of the Republic of Belarus, November 3, 1992, No. 1902-XII: as amended by the Law of the Republic of Belarus of April 3, 2024 / IPS "ETALON" / National Legal Information Center. Minsk, 2025.

5. Charter of the Internal Service of the Armed Forces of the Republic of Belarus [Electronic resource]: Decree of the President of the Republic of Belarus, June 26, 2001, No. 355: as amended. Decree of the President of the Republic of Belarus dated March 11, 2025 // IPS "ETALON" / National Center for Legal Information. Minsk, 2025.

СЕМЬЯ КАК БАЗОВАЯ ЦЕННОСТЬ ДЛЯ ОБЩЕСТВА И ГОСУДАРСТВА

Медведев Владимир Александрович,
ФГБОУ ВО «Чувашский государственный университет им. И.Н. Ульянова»
доцент, кандидат юридических наук E-mail: v.medvedev@bk.ru
Тел.: 89083000600

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola tarixiy va huquqiy nuqtai nazardagi an'anaviy oilaviy qadriyatlarning xususiyatlarini ochib berishga bag'ishlangan. Sohada bir-birlariga, kuchli oilaviy hayotni kuchaytirish va hokazo kabi, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash va saqlash bo'yicha oilaviy qadriyatlarning ahamiyati mavjudligi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: An'analar, qadriyatlar, oila, ma'naviyat, uy qurilishi, oilaning huquqiy himoyasi.

Аннотация: Данная научная статья посвящена раскрытию особенностей традиционных семейных ценностей в историко-правовом контексте. Делается акцент на важность существования семейных ценностей в современном российском обществе, таких как любовь, уважительные отношению супругов друг к другу, крепкая семья, материнство, продление рода и др. В статье указываются особенности государственной политики по укреплению и сохранению семейных ценностей, рассмотрен традиционный семейный уклад на древней Руси, где особо уделено внимание такому явлению, как домострой.

Ключевые слова: традиции, ценности, семья, духовность, домострой, правовая защита семьи.

Annotation: This scientific article is devoted to revealing the features of traditional family values in the historical and legal context. Emphasis is placed on the importance of the existence of family values in modern Russian society, such as love, respectful attitude of spouses towards each other, a strong family, motherhood, procreation, etc. The article indicates the features of state policy to strengthen and preserve family values, considers the traditional family way of life in ancient Rus', where special attention is paid to such a phenomenon as domostroy.

Key words: traditions, values, family, spirituality, house building, legal protection of the family.

Российская Федерация в своем законодательстве закрепляет базовые направления государственной политики по укреплению базовых российских духовно-нравственных ценностей.

В рамках данной политики закрепляются понятие базовых ценностей (формулируется нравственные начала, мировоззрение и правовая культура), формулируются сами ценности.

Целями государственной политики по сохранению и укреплению базовых ценностей являются:

а) сохранение и укрепление традиционных ценностей, обеспечение их передачи от поколения к поколению;

б) противодействие распространению экстремистских идеологий;

в) развитее и сохранение религиозного многообразия;

г) формирование на международной арене положительного образа Российского государства как хранителя и защитника общечеловеческих духовно-нравственных ценностей [2].

К базовым ценностям в любом государстве можно отнести: жизнь, достоинство, права и свободы человека, патриотизм, гражданственность, высокие нравственные идеалы, крепкая семья, созидательный труд, приоритет духовного над материальным, гуманизм, справедливость, взаимопомощь и взаимоуважение, преемственность поколений.

Понимание семьи во многих странах складывалось в течении продолжительного периода времени, что свидетельствует об эволюционном формировании семейного уклада и обычаев. В рамках семейных ценностей на первое место выходит семья и семейственность - основанная на браке члены которой связаны общностью быта, взаимной помощью, моральной и правовой ответственностью.

Традиционно семьи на Руси всегда были большими, как правило, в семью входило несколько поколений родственников: отцы и матери, дедушки и бабушки, взрослые дети, успевшие уже жениться, внуки и, нередко, правнуки. Главой семьи на Руси, как правило, всегда был мужчина и он же, как правило, был и кормильцем. Отец обладал не ограниченной властью над членами семьи. Такого рода семьи на Руси назывались - патриархальными. С этим названием созвучна теория происхождения государства и права. Сущность теории сводится к тому, что государство – это продукт разрастания семьи, где главой государства становиться глава семьи, который наделен отцовской властью над своими близкими (родственниками). Древнегреческий мыслитель Аристотель, как основатель данной теории считал, что государство это не что иное, как растущая семья, включающая в себя разные поколения. Поводом для появления такого типа государства являются сами люди стремящиеся общаться и взаимодействовать друг с другом. В итоге, такое взаимодействие близких родственников приводит к совместному проживанию на определенной территории, формированию родов, что в результате неизбежно приводит к возникновению государства.

Столетиями жизнеустройство патриархальной семьи регулировалось старинными традициями и домостроем. Домострой – это памятник русской

письменности XVI века, включающий в себя житейские нормы и наставления, контролируемый непосредственно отцом семейства, ставший в последствии обозначать традиционный семейно-родовой регламент в семье.

Домострой выступал формой правового регулирования взаимоотношений между всеми членами семьи. Однозначно это уменьшало появлению различных конфликтов и раздоров: каждый член семьи четко представлял свое положение и знал свои обязанности. Одним из способов воспитания служили телесные наказания (например: битье палкой, розгами), но при этом такие наказания советовалось применять в крайних случаях, если словесное общение не помогало[7].

В российском обществе семейные ценности занимают ведущее место. Под традиционными семейными ценностями понимается устоявшееся длительное время система взглядов в обществе, сформировавшиеся религиозные догматы, табу, правила связанные с сохранением брачно-семейных отношений. К основным семейным ценностям относят: любовь, уважительные отношению супругов друг к другу, крепкая семья, материнство, продление рода и так далее. Такого плана ценности хочет привить старшее поколение молодому поколению, об этом говорят традиционные религии, классическое образование, средства массовой информации и др.

В рамках правового поля очень важна поддержка брака и семьи, в связи с чем государство реализует различные программы в данном направлении. На государственном уровне применяются различного уровня программы для поддержки в первую очередь молодых семей.

В связи с этим предлагается выработка меры по реализации семейной и демографической политики:

- расширение сети женских консультаций;
- модернизация перинатальных центров, детских поликлиник и больниц;
- совершенствование скрининговых программ для беременных женщин, новорождённых детей и детей других возрастов;
- повышение доступности медицинской помощи женщинам по месту жительства, включая сельские территории и малые города;
- развитие программ реабилитации и психологической поддержки женщин после рождения ребёнка;
- совершенствование методов лечения бесплодия, повышение их доступности и эффективности.

Необходимо использовать государственные программы для помощи семьи в области улучшения жилищных условий. К таким программам, которые реализуются в настоящее время в России можно отнести:

1. Ведомственная целевая программа;

2. Материнский капитал;

3. Семейная ипотека;

4. Дальневосточная ипотека.

Необходимо усилить правовую защиту семьи. Семейное законодательство устанавливает, что семья, материнство, отцовство и детство в Российской Федерации находятся под защитой государства. Семейное законодательство исходит из необходимости укрепления семьи, построения семейных отношений на чувствах взаимной любви и уважения, взаимопомощи и ответственности перед семьей всех ее членов, недопустимости произвольного вмешательства кого-либо в дела семьи, обеспечения беспрепятственного осуществления членами семьи своих прав, возможности судебной защиты этих прав. [2].

References:

1. Semeynyy kodeks Rossiyskoy fedratsii ot 29.12.1995 № 223-fz // Sobavnie zakogelstva rossiskoy fedratsii ot 1996 g. , N 1, st. 16

2. Семейный кодекс Российской Федерации от 29.12.1995 № 223-ФЗ // Собрание законодательства Российской Федерации от 1996 г. , N 1 , ст. 16

3. Family Code of the Russian Federation dated 29.12.1995 No. 223-FZ // Sobranie zakonodatelstva Rossiyskoy Federatsii dated 1996 , N 1 , st. 16Osnovy gosudaristvennoy plyus Soxraneniyu i KRepleniyu an'anaviy ruscha ma'naviy-axloqiy qadriyatlar // Sobranie Zakhonodatelstval Ot 2022 g., N 46

4. Основы государственной политики по сохранению и укреплению традиционных российских духовно-нравственных ценностей // Собрание законодательства Российской Федерации от 2022 г., N 46

5. Osnovy gosudarstvennoy politiki po sokhraneniyu i krepleniyu traditional Russian spiritual and moral values // Sobranie zakonodatelstva Rossiyskoy Federatsii ot 2022 g., N 46

6. Petrrov I. V. Gosunstvo i pwo drevney rusi. V 10 Tomat: T. I. Teorii prosasxojdeniya gosudarstva i prrava. Antichnye pismennye instanniki i venedskaya problemo (I-V vv.): T. II. Drevneyshie pismennye izvestiya o slavyanx i denejnye rynki vogsteknye evropy (vii VII VV.): MIE-VII VV.): Mi-VII TEV. - M.S. Izdatelskiy dom Akademii estetvoniya, 2016 yil. - 420

7. Петров И. В. Государство и право Древней Руси. В 10 томах: Т. I. Теории происхождения государства и права. Античные письменные источники и венедская проблема (I–V вв.): Т. II. Древнейшие письменные известия о славянах и денежные рынки Восточной Европы (VI–VII вв.): монография. – М.:Издательский дом Академии Естествознания, 2016. – 420 с.

8. Petrov I. V. Gosudarstvo i pravo Drevney Rusi. V 10 tomax: T. I. Teorii proishhojdeniya gosudarstva i prava. Antichnye pismennye istochniki i venedskaya

problema (I–V vv.): T. II. Drevneyshie pismennye izvestiya o slavyanax i denejnye rynki Vostochnoy Evropy (VI–VII centuries): monograph. – M.: Izdatelsky dom Akademii Estestvoznania, 2016. – 420 p.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI SIYOSIY PARTIYALAR FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSI

Rasulova Nodira Sardarovna,
Jamoat xavfsizligi universiteti professori, tarix fanlari doktori, dotsent

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mamlakat siyosiy partiyalarining faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari yaratilishidagi o‘rni, respublikamizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalarning shakllanish jarayonlari tahlil qilingan, shuningdek siyosiy partiyalarning faoliyatini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar: Konstitutsiya, siyosiy partiyalar, qonunlar, siyosiy huquqlar, ko‘ppartiyaviylik, demokratiya, fuqarolar, elektorat, raqobat.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng o‘zining yangi Konstitutsiyasida ijtimoiy taraqqiyotning yangi konsepsiyasini belgiladi; Konstitutsiyaviy huquqni tartibga solish, huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati barpo etish manfaatlariga mos qonun-qoidalar, omillarni belgiladi; o‘z xalqining faoliyatini tashkil qilish negizlarini, inson manfaatlari birinchi darajaga ko‘tarilganligini mustahkamladi. Zero, qonun ustuvorligi huquqiy davlatning asosiy prinsipidir.

O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining “Siyosiy huquqlar” deb nomlangan VIII-bobi fuqarolarning siyosiy huquqlariga bag‘ishlangan. Siyosiy huquqlarning negizini fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish, davlat organlarinig faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish; ijtimoiy faolliklarini qonun doirasida mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish; kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalari va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarida qatnashish, davlat organlari, muassasalari yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqlari tashkil qiladi. Bu huquqlar, mazmun jihatdan, O‘zbekistonda shakllanib borayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining siyosiy asosi hisoblanadi.

O‘zbekistonda siyosiy partiyalarning vujudga kelish jarayoni, keng ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalash va himoya qilishga qaratilgan dastlabki qadamlari, o‘z dasturiy yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqish borasidagi amaliy tadbirlari g‘oyaviy-tashkiliy maqsadlarini amalga oshirish uchun xalq ommasiga kirib borishga qaratilgan amaliy faoliyati, ushbu jarayonlarda vujudga kelgan muammo va

ziddiyatlarning har tomonlama o‘rganilishi va tahlil etilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Turli ijtimoiy partiya va harakatlarning qonuniylik sharti rasmiy hokimiyatga qarama-qarshi turishda emas, uni qo‘llab-quvvatlashda, keng omma qatlamining, turli ijtimoiy guruhlarning va eng avvalo, insoning manfaatlarini himoya qilishni o‘zida aks ettirishdan iborat. Jamiyatda siyosiy partiyalar hamda manfaatlar guruhlarining mavjud bo‘lishi va real munosabatlarni aks ettirgan holda faoliyat ko‘rsatishi – demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy garovi bo‘lib xizmat qiladi.

Albatta, siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining turli ijtimoiy guruh va tabaqalarning siyosiy manfaatlarini ifodalovchi muhim siyosiy institutlaridan hisoblanadi. Chunki siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining siyosiy tizim bilan o‘zaro aloqadorligining doimiyligini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda siyosiy partiyalarning vujudga kelish jarayoni, keng ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalash va himoya qilishga qaratilgan dastlabki qadamlari, o‘z dasturiy yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqish borasidagi amaliy tadbirlari g‘oyaviy-tashkiliy maqsadlarini amalga oshirish uchun xalq ommasiga kirib borishga qaratilgan amaliy faoliyati, ushbu jarayonlarda vujudga kelgan muammo va ziddiyatlar har tomonlama o‘rganilishi va tahlil etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, Konstitutsiyaning 12-moddasida belgilanganidek, “O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi” [1].

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq respublikada siyosiy tizimni rivojlantirish, siyosiy partiyalarning erkin faoliyati uchun imkoniyatlar yaratish orqali bu borada quyidagi muhim masalalar hal etildi:

birinchidan, bir partiyali ijtimoiy-siyosiy tizimdan haqiqiy ko‘ppartiyaviylikka, monopolizm mafkurasidan – siyosiy plyuralizmga o‘tish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar ta’minlandi. Xususan, O‘zbekiston Konstitutsiyasida siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlarga birlashishdek huquqlari asosida faoliyat ko‘rsatishi uchun mustaqil huquqiy negiz yaratildi. Partiyalar aholining turli ijtimoiy tabaqalari va guruhlari siyosiy irodasining ifodachilari sifatida o‘zlarining saylangan vakillari orqali davlat hokimiyatini shakllantirishda ishtirok etish imkoniga ega bo‘ldilar;

ikkinchidan, bitta rahbar partiyaning «yetakchi roliga» asoslangan saylov tizimidan dunyo e’tirof etgan normalarga javob beruvchi ko‘p partiyali saylov tizimiga o‘tish uchun qonuniy kafolatlar ta’minlandi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida mamlakatda ko‘ppartiyaviylik tizimini, siyosiy partiyalarning huquq va erkinliklarini, saylov qonunchiligini rivojlantirishga qaratilgan qator qonun hujjatlari bosqichma-bosqich

qabul qilina boshladi. Jumladan, 1994 yilda «Fuqarolarning saylov huquqlari kafolatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi fuqarolarning faol saylov huquqi va o‘z irodasini bildirish erkinligini amalga oshirish mexanizmlarini mustahkamlab qo‘ydi.

1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»gi qonunda mamlakat Konstitutsiyasining amaldagi partiyalarning hech biri davlat siyosatini belgilashda monopol huquqqa da’vogarlik qila olmasligi haqidagi qoidasi rivojlantirilib, ko‘p partiyali tizimning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur huquqiy asos yaratildi [2].

2004 yilda «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi partiyalar faoliyatini moliyalashtirishning huquqiy asoslarini yaratib, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligi ortishiga turtki bo‘ldi.

2008 yil 1 yanvardan kuchga kirgan «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni parlamentda sog‘lom siyosiy kurash uchun huquqiy zamin bo‘ldi, jamiyat oldida turgan dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etishda siyosiy partiyalar o‘rtasida konstruktiv raqobat rivojlanishi uchun sharoit yaratdi.

Mamlakat parlamenti to‘g‘risidagi hujjatlariga («O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida»gi va «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamenti to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy qonunlar va boshqalar) siyosiy partiyalarning parlamentdagi fraksiyalarini tuzish tartibi va ularning faoliyat yuritishini takomillashtiruvchi normalar ilk marotaba kiritildi, Qonunchilik palatasi ko‘ppartiyaviylik asosida shakllantirilishi haqidagi qoida mustahkamlab qo‘yildi [3].

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingach, siyosiy partiyalar o‘z dasturlarida belgilangan maqsad va maslaklarni davlat hokimiyatining oliy va mahalliy vakillik organlari faoliyatida ishtirok etish orqali hayotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Konstitutsiyaning 74-moddasida siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi quyidagicha belgilangan, ya’ni “Siyosiy partiyalar turli ijtimoiy tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o‘zlarining demokratik yo‘l bilan saylab qo‘yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o‘z faoliyatining moliyashtirilishi manbalari haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga yoki u vakolat bergan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar taqdim etadilar” [4].

- O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra, “siyosiy partiya – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro‘yobga chiqarishga

intiluvchi hamda o‘z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko‘ngilli birlashmasidir” [5].

O‘zbekiston Respublikasi “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonunining 12-moddasiga ko‘ra, “Siyosiy partiyalar saylab qo‘yiladigan davlat organlaridagi o‘z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish, qonunda belgilab qo‘yilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish” kabi huquqlarga ega. Partiyalarning eng muhim maqsadi – bu ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini siyosiy tizimda ifoda etishdir. Partiyalar turli ijtimoiy guruhlar, qatlamlarning manfaatlarini jamiyatning siyosiy tizimida ifoda etish yo‘li bilan davlat bilan jamiyat o‘rtasidagi bog‘lovchilik va vositachilik funksiyalarini bajaradi, shu bilan bir vaqtda ular jamiyatning yaxlitligi va bir butunligini ta’minlaydi.

Siyosiy partiyalar davlat hokimiyatining quyidagi organlarini shakllantirishda ishtirok etish huquqiga ega:

1. Qonun chiqaruvchi hokimiyat (Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi).
2. Ijro etuvchi hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, mahalliy davlat hokimiyati organlari).

Siyosiy partiya jamiyat hayotida bir qator hayotiy muhim vazifalarni bajaradi, jumladan, davlat vakillik organlarini shakllantirish va almashtirish mexanizmlarini yaratishda ishtirok etadi. O‘z vazifalarining aksariyatini hozirgi partiyalar saylovda ishtirok etish va so‘ngra hokimiyat vakillik organlarida ishlash mexanizmlari orqali amalga oshiradilar.

Hozirgi vaqtda siyosiy partiyalar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarini shakllantirishda yetakchi rol o‘ynaydilar, chunki aynan ular saylovda ishtirok etuvchi birdan-bir tashkiliy-jamoaviy sub’ektlar hisoblanadilar. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga bo‘lib o‘tadigan saylovlar jarayonida siyosiy partiyalar ishtirokining kafolatlariga saylov komissiyalarini shakllantirishda siyosiy partiyalarning ishtirokini; ularning nomzodlar kiritish imkoniyatini; saylovoldi tashviqoti shakllari va usullarining keng doirasi mustahkamlanganligini; saylov kampaniyasi majburiylik, ochiqlik, oshkoralik va o‘z vaqtidalik asosida davlat tomonidan moliyalashtirilishini; ovoz berish jarayonini kuzatish institutining mavjudligini; saylovni o‘tkazish jarayoni ustidan davlat nazoratini kiritish mumkin. Binobarin, elektoral funksiya hozirgi sharoitda siyosiy partiyaning eng muhim funksiyasiga aylangan [6].

Hozirgi kunda siyosiy partiyalar o‘z harakat dasturlari va saylovoldi platformalarining mazmuniga borgan sari ko‘proq ahamiyat bera boshladilar. Ularda partiyalar o‘z elektoratining xohish-irodasiga asoslanib, faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini aks ettirmoqdalar. Mamlakat parlamentidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari faoliyatining qonunchilik shart-sharoitlari va siyosiy kafolatlari yaratildi.

Umuman olganda, respublikamizda ko‘ppartiyaviylikning shakllanishi – murakkab, serqirra muammo bo‘lib, nafaqat mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatni bilishni, balki respublikamiz va boshqa mamlakatlarning tarixiy tajribasini o‘rganishni ham talab qiladi. U ijtimoiy-falsafiy, huquqiy, sotsiologik, iqtisodiy va boshqa ko‘plab jihatlarga ega.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, bugungi kunda O‘zbekiston siyosiy partiyalarining faoliyatini yanada takomillashtirish borasida bir qator takliflarni berish maqsadga muvofiqdir:

– siyosiy partiyalar o‘zlari orasidan davlatni har qanday darajada boshqara oladigan yetakchilarni ilgari surishi, saylovchilar va parlamentdan tegishli ishonch mandatini olganida ijro etuvchi hokimiyatni o‘z qo‘liga olishga tayyor bo‘lgan professional elitani tayyorlab borishlari;

– siyosiy partiyalarning o‘z faoliyati haqidagi hisobotlari va kelgusidagi ish rejalarini fuqarolarga ommaviy axborot vositalari (partiya nashrlari, televidenie, internet kabilar), konferensiyalar, davra suhbatlari, mahorat maktablari orqali doimiy ravishda yetkazishlari;

– o‘z elektoratining manfaatlaridan kelib chiqib hamda jahon tajribasidan foydalanib, o‘z dastur va nizomlarini tanqidiy-tahliliy jihatdan qayta ishlashlari;

– siyosiy partiyalar nafaqat o‘zaro raqobatlasha oladigan, balki amaldagi hukumat siyosatiga ham tanqidiy baho bera oladigan, muqobil g‘oyalarni ilgari surib, amaliy dasturlar taklif qila oladigan darajaga yetishlari va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, siyosiy partiyalar faoliyatining kengayishi orqali aholining siyosiy va huquqiy faolligi ortadi, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlaydigan mexanizmlar shakllanadi.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. – B. 8.

2. «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 dekabr qonuni //O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. – 1997.– № 2. – 36-modda.

3. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrdagi Konstitutsiyaviy qonuni //O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. – 2002. – № 12. – 215-modda; 2003. – № 5. – 67-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining axborotnomasi. – 2007. – № 4. – 163-modda; № 7. – 326-modda; «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining 2003 yil 29 avgust qonuni //O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. – 2003. – № 9–10. – 136- modda.

4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. – B. 38.

5. «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 dekabr qonuni //O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. – 1997.– № 2. – 36-modda.

6. Пугачев В.П., Соловьев А.И. 2004. Сиёсатшуносликка кириш. – Т.: “Янги аср авлоди”. – Б.404.

КОНСТИТУЦИЯ - ГАРАНТ НАЦИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Казаков Акмал Алишерович,
старший преподаватель таможенного института государственного таможенного комитета республики узбекистан

Аннотация. В статье рассматривается роль Конституции как ключевого механизма обеспечения национальной безопасности государства. Особое внимание уделяется нормативно-правовым основам, закрепленным в Конституции, и их влиянию на устойчивость политической системы, защиту прав граждан и суверенитет государства. Анализируются международные примеры конституционных гарантий национальной безопасности и предлагаются рекомендации по совершенствованию национальной законодательной базы.

Ключевые слова: Конституция, национальная безопасность, суверенитет, правовые гарантии, государственная стабильность, конституционный контроль.

Abstract. The article examines the role of the Constitution as a fundamental mechanism for ensuring national security. Special attention is paid to the legal foundations enshrined in the Constitution and their impact on the stability of the political system, the protection of citizens’ rights, and the sovereignty of the state. International examples of constitutional guarantees of national security are analyzed, and recommendations for improving the national legal framework are proposed.

Key words: Constitution, national security, sovereignty, legal guarantees, state stability, constitutional control.

Annotatsiya. Maqolada Konstitutsiyaning davlat milliy xavfsizligini ta’minlashdagi asosiy mexanizm sifatidagi roli ko‘rib chiqiladi. E’tibor Konstitutsiyada belgilangan normativ-huquqiy asoslarga va ularning siyosiy tizimning barqarorligi, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish hamda davlat suverenitetiga ta’siriga qaratiladi. Milliy xavfsizlikni ta’minlovchi konstitutsiyaviy kafolatlarning xalqaro misollari tahlil qilinadi va milliy huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Национальная безопасность является одной из ключевых основ стабильного функционирования любого государства и сохранения его

суверенитета. В условиях современного глобализированного мира, где политическая, экономическая и информационная среды стремительно меняются, обеспечение национальной безопасности приобретает особую значимость. Национальная безопасность охватывает широкий спектр вопросов: защиту территориальной целостности, суверенитета, конституционного строя, прав и свобод граждан, экономическую стабильность, а также устойчивость государственных институтов [1].

Конституция, как основной закон государства, играет уникальную роль в формировании системы национальной безопасности. Она не только определяет структуру и полномочия государственных органов, но и закрепляет фундаментальные права и обязанности граждан, создавая правовую основу для защиты государства от внутренних и внешних угроз [2]. В этом контексте Конституция рассматривается не только как юридический документ, но и как стратегический инструмент, обеспечивающий баланс между интересами государства и правами личности.

Актуальность исследования конституционных гарантий национальной безопасности обусловлена современными вызовами: угрозами кибербезопасности, международным терроризмом, политической нестабильностью в соседних регионах, а также ростом транснациональных конфликтов. Эффективное функционирование конституционных механизмов позволяет минимизировать риски и создать условия для устойчивого развития общества [3].

Международный опыт демонстрирует, что страны, где Конституция прямо закрепляет принципы национальной безопасности и регулирует деятельность государственных институтов, обладают более стабильной политической системой и способностью эффективно противостоять угрозам [4]. В то же время постоянное совершенствование национального законодательства, адаптация его к современным вызовам и повышение правовой грамотности граждан являются необходимыми условиями укрепления национальной безопасности.

Таким образом, Конституция выступает в роли гаранта национальной безопасности, определяя правовые и институциональные рамки для защиты государства и общества, обеспечивая баланс между властью государства и свободами граждан, а также формируя основу для предотвращения внутренних и внешних угроз [5].

Национальная безопасность - это состояние защищённости личности, общества и государства от внутренних и внешних угроз, при котором обеспечиваются устойчивое развитие страны, защита её интересов и реализация конституционных прав граждан [1]. Конституция, как основной закон

государства, является центральным элементом правового механизма, регулирующего сферу безопасности. В ней закреплены принципы, определяющие функции государственных институтов в обеспечении безопасности, а также обязанности граждан по защите Отечества и соблюдению законов [2]. В Конституции Республики Узбекистан, например, в статье 52 закреплено, что защита Родины является священным долгом каждого гражданина [3]. Аналогичные нормы существуют и в конституциях других государств: в Конституции Российской Федерации (статья 59), Основном законе Германии (статья 87а), Конституции Франции (статья 5), где определена обязанность государства обеспечивать национальную безопасность и территориальную целостность [4]. Таким образом, конституционные нормы формируют стратегический фундамент всей системы национальной безопасности, обеспечивая юридическую связку между гражданским обществом, государственными институтами и международными обязательствами страны [5]. Одной из ключевых задач Конституции является установление баланса между защитой прав человека и необходимостью обеспечения государственной безопасности. Исторически чрезмерная ориентация на безопасность могла приводить к ограничению гражданских прав, тогда как абсолютный приоритет свободы нередко ослаблял защитные механизмы государства [6].

Современные конституционные системы стремятся достичь гармонии между этими двумя началами. Так, в преамбуле Конституции Узбекистана подчеркивается приверженность идеалам демократии, верховенства закона и уважения прав человека, а также необходимость защиты независимости и территориальной целостности государства [7]. Этот баланс реализуется через правовые механизмы: независимость судебной власти, парламентский контроль, институт уполномоченного по правам человека (омбудсмена), а также систему конституционного надзора.

Международный опыт также демонстрирует важность конституционного регулирования баланса между безопасностью и свободой. В Конституции США закреплены поправки, гарантирующие свободу слова и неприкосновенность частной жизни, при этом Конгресс уполномочен принимать меры для защиты национальной безопасности [8]. В Германии действует принцип «freiheit in sicherheit» - «свобода в безопасности», который отражает суть современной правовой философии: безопасность не должна разрушать свободу, а свобода не должна подрывать безопасность [9]. Конституционные институты - Президент, парламент, правительство, судебные органы и органы безопасности - выполняют строго разграниченные функции в поддержании безопасности государства. Президент, как гарант Конституции, олицетворяет

государственное единство и обеспечивает согласованность действий всех ветвей власти [10].

В парламентских системах контроль над деятельностью органов безопасности осуществляется через специальные комитеты, что предотвращает концентрацию власти и обеспечивает прозрачность процессов [11]. Конституционные суды, в свою очередь, играют важную роль в защите прав граждан от возможных злоупотреблений со стороны силовых структур.

В Республике Узбекистан значительная роль в обеспечении правопорядка и безопасности принадлежит Сенату Олий Мажлиса и Конституционному суду, которые рассматривают вопросы соответствия законодательства Конституции, а также участвуют в формировании правовой политики государства [12].

Правовое государство и национальная безопасность не противопоставляются, а взаимно дополняют друг друга. Конституция устанавливает основы правового государства — верховенство закона, разделение властей, гарантии прав личности. Эти принципы одновременно служат и средствами обеспечения безопасности, поскольку справедливое и прозрачное управление предотвращает внутренние конфликты и укрепляет доверие граждан к власти [13]. В странах с низким уровнем правового регулирования, напротив, наблюдается рост коррупции, политической нестабильности и уязвимость перед внешними угрозами. Следовательно, именно конституционные механизмы демократического управления являются ключом к устойчивому национальному развитию [14]. Современные вызовы - киберугрозы, гибридные войны, международный терроризм, климатические риски - требуют адаптации конституционных принципов к новым реалиям [15]. Это включает в себя развитие киберзаконодательства, усиление парламентского контроля над деятельностью спецслужб, укрепление институтов гражданского общества и обеспечение открытости государственных структур. Важным направлением является также правовое просвещение граждан: знание конституционных прав и обязанностей способствует формированию ответственного отношения к вопросам национальной безопасности [16].

Таким образом, современная Конституция должна не только закреплять традиционные механизмы защиты государства, но и развивать новые инструменты, соответствующие эпохе цифровизации и глобальных рисков.

Анализ показывает, что Конституция является системообразующим элементом национальной безопасности. Она выполняет функции правового регулятора, политического стабилизатора и социального гаранта. Эффективная реализация её положений обеспечивает не только защиту государства, но и гармоничное развитие общества, укрепление доверия граждан к власти и формирование устойчивой правовой культуры.

References:

1. Иванов С.А., Конституция и национальная безопасность, М., 2020.
2. Конституция Республики Узбекистан, Ташкент, 2023.
3. Сидоров А.П., Государственное право и система безопасности, Казань, 2021.
4. Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland, 1949.
5. Johnson M., Constitutional Guarantees of National Security, London, 2018.
6. Петров В.В., Права человека и безопасность государства, СПб., 2019.
7. Конституция Французской Республики, Париж, 1958.
8. U.S. Constitution, 1787.
9. Becker H., Security and Liberty in Modern Democracies, Berlin, 2020.
10. Конституция Российской Федерации, Москва, 2020.
11. Brown T., The Role of Parliaments in National Security Oversight, Geneva, 2017.
12. Материалы Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 2022.
13. Karimov I.A., O‘zbekiston — huquqiy davlat sari, Toshkent, 2014.
14. Smith J., Rule of Law and National Stability, Oxford, 2016.
15. ООН, Доклад о глобальных угрозах безопасности, Нью-Йорк, 2022.
16. Rasulov B., Konstitutsiya va fuqarolik ongini rivojlantirish, Toshkent, 2023.

КОНСТИТУЦИЯ НА ЗАЩИТЕ ЧАСТНОЙ СОБСТВЕННОСТИ

Махмудов Носир Махмудович,
доктор экономических наук, профессор
кафедры «Макроэкономика» Ташкентского
Государственного экономического университета

Аннотация. В статье рассматривается роль Конституции как основного правового механизма защиты частной собственности. Анализируются конституционные нормы, обеспечивающие право собственности, а также практика их применения в современных правовых системах. Особое внимание уделено балансу между интересами государства и правами собственников, а также международному опыту регулирования собственности.

Ключевые слова: Конституция, частная собственность, защита прав, правовая система, международный опыт.

Abstract. The article examines the role of the Constitution as the primary legal mechanism for protecting private property. It analyzes constitutional provisions ensuring property rights and the practice of their implementation in modern legal systems. Special attention is paid to the balance between state interests and owners' rights, as well as international experience in property regulation.

Keywords: Constitution, private property, protection of rights, legal system, international experience.

Annotatsiya. Maqolada Konstitutsiyaning xususiy mulkni himoya qilishdagi asosiy huquqiy mexanizm sifatidagi roli o‘rganiladi. Mulkiy huquqlarni ta’minlovchi konstitutsiyaviy normalar va ularning zamonaviy huquqiy tizimlarda qo‘llanilishi amaliyoti tahlil qilinadi. Davlat manfaatlari va mulkdor huquqlari o‘rtasidagi muvozanat, shuningdek, mulkni tartibga solish bo‘yicha xalqaro tajriba alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, xususiy mulk, huquqlarni himoya qilish, huquqiy tizim, xalqaro tajriba.

Защита частной собственности является одной из фундаментальных задач современного государства, поскольку она напрямую связана с экономической стабильностью, развитием предпринимательства и обеспечением прав граждан [1]. Право собственности обеспечивает индивидуальную свободу и стимулирует инициативу, создавая условия для развития рынка и эффективного распределения ресурсов [2]. Конституция, как высший нормативный акт государства, закрепляет эти права, формируя правовую основу для их защиты и реализации.

В современных условиях, когда страны переходят к рыночной экономике и внедряют экономические реформы, вопросы защиты собственности

становятся особенно актуальными. Незащищённая собственность ведёт к снижению инвестиций, экономической нестабильности и росту конфликтов между государством и гражданами [3]. На практике это проявляется в необходимости надёжного правового механизма, который бы гарантировал соблюдение прав собственности и обеспечивал компенсацию в случае их нарушения. Право частной собственности охватывает владение, пользование и распоряжение имуществом, и его защита требует комплексного подхода, включающего законодательные, судебные и административные механизмы [4]. При этом важным аспектом является баланс между интересами государства, общественными потребностями и правами собственников [5].

Международный опыт показывает, что эффективная защита частной собственности тесно связана с развитием демократических институтов, независимой судебной системой и соблюдением принципов верховенства закона[6]. Всеобщая декларация прав человека, Международный пакт о гражданских и политических правах и ряд конституций ведущих стран закрепляют право на собственность как базовое право человека[7].

Таким образом, актуальность темы обусловлена не только юридической значимостью права собственности, но и его влиянием на социально-экономическое развитие страны, инвестиционный климат и обеспечение правовой безопасности граждан[9].

Конституция играет ключевую роль в закреплении права частной собственности. Это право рассматривается как фундаментальное, обеспечивающее экономическую свободу граждан и стимулирующее предпринимательскую активность[1]. На практике конституционные нормы устанавливают не только право владения, пользования и распоряжения имуществом, но и определяют пределы вмешательства государства в имущественные отношения[2].

Особое внимание уделяется юридической защите собственности. Конституция формулирует основные принципы: неприкосновенность собственности, равенство всех форм собственности перед законом, запрет произвольного изъятия имущества без законной процедуры и компенсации[3]. Эти положения создают правовую основу для последующего развития законодательства, регулирующего сделки с имуществом, корпоративные отношения, наследственные права и другие аспекты частной собственности.

Несмотря на закреплённые в Конституции гарантии права собственности, на практике наблюдаются значительные трудности при реализации этих норм. Одной из ключевых проблем является то, что судебные органы не всегда способны оперативно и справедливо рассматривать имущественные споры. Причины включают: ограниченную судебную практику по новым формам

собственности; недостаточную квалификацию судей в сложных экономических спорах; возможность коррупционного давления или вмешательства заинтересованных лиц[1].

В результате граждане и юридические лица сталкиваются с затягиванием разбирательств, что снижает доверие к правовой системе и стимулирует внесудебные способы урегулирования споров.

Законы о защите собственности нередко не учитывают современные экономические реалии и международные стандарты. Например, некоторые положения гражданского или земельного кодекса устарели и не отражают новых форм имущественных отношений, таких как долевое строительство, интеллектуальная собственность и корпоративные доли[2].

Кроме того, отсутствие единых стандартов для оценки стоимости имущества при компенсации за его изъятие ведёт к социальной напряжённости и конфликтам между собственниками и государством[3].

В ряде случаев государственные органы претендуют на частную собственность для реализации общественно значимых проектов, таких как строительство инфраструктуры, дорог, социальных объектов. Несмотря на конституционные нормы о компенсации, на практике возникают следующие проблемы: задержки с выплатой компенсации; занижение рыночной стоимости имущества; недостаточная информированность собственников о порядке оспаривания решений государственных органов[4].

Такие ситуации нередко приводят к социальному напряжению и подрывают доверие к институтам государства.

Эффективная реализация конституционных норм требует, чтобы граждане понимали свои права и знали механизмы их защиты. Недостаток правовой осведомлённости приводит к тому, что многие собственники не обращаются в суд, не оформляют юридически документы на имущество или не пользуются установленными законом процедурами защиты прав[5]. В условиях глобализации и участия граждан и юридических лиц в международных экономических проектах защита собственности требует согласования национальных норм с международными стандартами. Несовершенство национального законодательства и его несовпадение с международной практикой может приводить к ограничению прав собственников и снижению инвестиционной привлекательности[6]. Таким образом, проблемы реализации конституционных норм представляют собой комплекс вопросов, включающих правовую, экономическую и социальную сферы. Их решение требует системного подхода, включающего: совершенствование законодательства, укрепление независимости судебной системы, прозрачность действий государственных органов и повышение правовой грамотности населения[7].

Конституция играет ключевую роль в защите частной собственности, обеспечивая правовую основу для владения, пользования и распоряжения имуществом. Анализ национального и международного опыта показывает, что эффективность защиты собственности напрямую зависит от качества конституционных норм, их реализации на практике и функционирования судебной системы.

В ходе исследования выявлено несколько ключевых проблем:

Недостаточная эффективность судебной системы, проявляющаяся в затягивании рассмотрения имущественных споров и ограниченной правоприменительной практике.

Несовершенство законодательства, которое не всегда учитывает современные формы собственности и новые экономические реалии.

Конфликты интересов между государством и собственниками при реализации общественно значимых проектов, что требует прозрачных процедур компенсации и защиты прав собственников.

Недостаточная правовая культура граждан и ограниченное знание механизмов защиты своих имущественных прав.

На основе анализа международного опыта, в частности США, Германии, Японии и стран ЕС, можно выделить ряд факторов, способствующих эффективной защите собственности: четкая нормативная база, независимая судебная система, прозрачные процедуры государственного вмешательства и соблюдение международных стандартов прав собственности. Эти элементы создают доверие к правовой системе, способствуют инвестиционной привлекательности и экономическому развитию.

Обеспечение прозрачности процедур государственного вмешательства и выплаты компенсаций;

Повышение правовой грамотности граждан в вопросах собственности и механизмов её защиты.

References:

1. Конституция Республики Узбекистан, Ташкент, 2023.
2. Иванов И.И., Право собственности и государство, М., 2020.
3. Universal Declaration of Human Rights, UN, 1948.
4. Конституция Республики Узбекистан: комментарий, Ташкент, 2022.
5. Смирнов А.А., Теория собственности, СПб., 2019.
6. Судебная практика по вопросам собственности в Республике Узбекистан, Ташкент, 2021.
7. Закон о защите частной собственности, РУз, 2022.

8. Международный пакт о гражданских и политических правах, UN, 1966.
9. Петров П.П., Государственные интересы и частная собственность, М., 2021.
10. Johnson, Property Rights and State Interests, Oxford, 2018.
11. U.S. Constitution, Fifth Amendment, 1791.
12. Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland, 1949.
13. Constitution of Japan, 1947.

HAR BIR INSON SHAXSIY HAYOTINING DAXLSIZLIGI, SHAXSIY VA OILAVIY SIRGA EGA BO‘LISH, O‘Z SHA’NI VA QADR-QIMMATINI HIMOYA QILISH HUQUQIGA EGA

Muxammadiyev Ayub
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, yu.f.d., professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lish, o‘z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega ekanligi yoritilgan. Fuqaroning sha’ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi ma’lumotlar ommaviy axborot vositalarida tarqatilgan bo‘lsa, ayni shu ommaviy axborot vositalarida raddiya berilishi lozimligi, bunday ma’lumotlar tashkilotdan olingan hujjatda uchrasa, bunday hujjat almashtirilishi yoki chaqirib olinishi kerakligi, boshqa hollarda raddiya berish tartibi sud tomonidan belgilanishi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: inson, shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sir, sha’n va qadr-qimmat, fuqaroning sha’ni, ishchanlik obro‘si, ommaviy axborot vositalari, raddiya berilishi, ma’lumot, tashkilot, hujjat, sud.

Аннотация. В статье подчеркивается, что каждый человек имеет право на неприкосновенность частной жизни, личную и семейную тайну, а также право на защиту своей чести и достоинство. Указывается, что в случае распространия в средствах массовой информации сведений, порочащих честь, достоинство или деловую репутацию гражданина, оровержение должно быть дано в тех же средствах массовой информации, если такие сведения обноружены в документе, полученном от организации, такой документ должен заменен или отозван, а в иных случаях порядок опровержения определяется судом.

Ключевые слова: личность, частная жизнь, личная и семейная тайна, честь и достоинство, честь гражданина, деловая репутация, средства
массовой информации, опровержение, информация, организация, документ, суд.

Abstract. The article emphasizes that everyone has the right to privacy, personal and family sekrets, and the right to protect their honor and dignity. It also

states that if information defaming a citizen’s honor, dignity, or business reputation is disseminated in the media, a retraction must be provided in the same media outlet. If such information is found in a document received from an organization, such document must be replaced or revoked. In other cases, the retraction procedure is determined by the court.

Key words: personalty, private life, personal and family secrts, honor and dignity, honor of a citizen, business reputation, mass media, refutation, information, dokument, court.

Shaxsiy huquq va erkinliklarning amalga oshirilishini qo‘llab quvvatlash, ularni doimiy rivojlantirib, mazmunan kengaytirib borish huquqiy himoya tizimini yaratish va takomillashtirish kafolatlarini mustahkamlash va muhofaza qilish davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifadir. Shaxsiy huquq va erkinliklar insonning shaxs sifatida shakllanishida uning yuksak ma’naviyatli, chuqur bilimli, har tomonlama barkamol inson bo‘lib shakllanishida muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Shu ma’noda olganda, insonning ichki salohiyatini ro‘yobga chiqarish, o‘zini o‘zi rivojlantirish va kamol toptirishni ta’minlovchi imkoniyatlar majmui sifatida tushunish lozim.[2]

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasiga muvofiq, har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lish, o‘z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega.[1] Bunday himoya esa, bevosita fuqarolik qonun hujjatlarida o‘z ifodasini topgan. FKning 100-moddasiga muvofiq, fuqaro o‘zining sha’ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi ma’lumotlar yuzasidan, basharti bunday ma’lumotlarni tarqatgan shaxs ularning haqiqatga to‘g‘ri kelishini isbotlay olmasa, sud yo‘li bilan raddiya talab qilishga haqli.

Manfaatdor shaxslarning talabiga ko‘ra, fuqaroning sha’ni va qadr-qimmatini uning vafotidan keyin ham himoya qilishga yo‘l qo‘yiladi. Basharti, fuqaroning sha’ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi ma’lumotlar ommaviy axborot vositalarida tarqatilgan bo‘lsa, ayni shu ommaviy axborot vositalarida raddiya berilishi lozim. Agarda, bunday ma’lumotlar tashkilotdan olingan hujjatda uchrasa, bunday hujjat almashtirilishi yoki chaqirib olinishi kerak. Boshqa hollarda raddiya berish tartibi sud tomonidan belgilanadi.

Fuqaro ommaviy axborot vositalarida uning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini kamsituvchi ma’lumotlar e’lon qilinganda, u ayni o‘sha ommaviy axborot vositalari orqali chiqib, o‘zini himoya qilish huquqiga ega. Basharti, sudning hal qiluv qarori bajarilmasa, sud qoidabuzarga qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda va tartibda undiriladigan jarima solishga haqlidir. Jarimani

to‘lash qoidabuzarni sudning hal qiluv qarorida nazarda tutilgan harakatlarni bajarish vazifasidan ozod etmaydi.

O‘zining sha’ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi ma’lumotlar tarqatilgan fuqaro bunday ma’lumotlar rad etilishi bilan bir qatorda ularni tarqatish oqibatida yetkazilgan zararlar va ma’naviy ziyonning o‘rnini qoplashni talab qilishga haqlidir. Ushbu moddadagi fuqaroning ishchanlik obro‘sini himoya qilish to‘g‘risidagi qoidasi yuridik shaxsning ishchanlik obro‘sini himoya etishga nisbatan ham tegishli yo‘sinda tatbiq etiladi. Bu o‘rinda, fuqaroning ismga bo‘lgan huquqi ham himoya qilinishini aytib o‘tish lozim. FKning 19-moddasiga muvofiq, agar qonundan yoki milliy odatdan boshqacha tartib kelib chiqmasa, fuqaro o‘z familiyasi va nomidan, shuningdek otasining ismi bilan huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi hamda ularni amalga oshiradi.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda fuqaro taxallusdan (to‘qilgan ismdan) foydalanishi mumkin. Fuqaro qonunda belgilangan tartibda o‘z ismini o‘zgartirishga haqli. Fuqaroning o‘z ismini o‘zgartirishi avvalgi ismi bilan olgan huquq va majburiyatlarini bekor qilish yoki o‘zgartirish uchun asos bo‘lmaydi. Fuqaro o‘z ismini o‘zgartirganligi haqida qarzdorlari va kreditorlariga xabar berish uchun zarur choralarni ko‘rishi shart va u mazkur shaxslarda fuqaroning ismi o‘zgarganligi haqida ma’lumot yo‘qligi tufayli kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatlar xavfini o‘z zimmasiga oladi. Ismini o‘zgartirgan fuqaro o‘zining avvalgi ismiga rasmiylashtirilgan hujjatlarga o‘z hisobidan tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini talab qilishga haqli. Fuqaro tug‘ilgan vaqtida olgan ismini, shuningdek o‘zgartirilgan ismini fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish uchun belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazishi kerak. Boshqa shaxs ismidan foydalanib huquq va majburiyatlarga ega bo‘lishga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘z ismi bilan yashash huquqiga e’tiroz bildirilayotgan yoki ismidan qonunsiz foydalanilayotganligi munosabati bilan manfaatlari buzilayotgan shaxs manfaatlarini buzuvchidan bunday harakatlarga chek qo‘yishni va raddiya berishni talab qilishi mumkin. Agar manfaatlar qasddan buzilayotgan bo‘lsa, jabrlangan shaxs qo‘shimcha suratda zararni qoplashni talab qilishi mumkin. Zararni qoplash uchun manfaatni buzgan shaxsning daromadini berish talab qilinishi mumkin. Manfaat qasddan buzilganida jabrlanuvchi ma’naviy ziyonning qoplanishini ham talab qilish huquqiga ega.

Ism yoki shaxsiy sha’n egasi bo‘lmagan, lekin oilaviy mavqeiga ko‘ra, bundan manfaatdor bo‘lgan shaxs ham ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan harakatlarga chek qo‘yish yoki raddiya berish haqidagi talablarni qo‘yishi mumkin. Bu shaxs boshqa shaxsning o‘limidan keyin ham uning ismini va sha’nini himoya qilishga qaratilgan talablarning bajarilishiga harakat qilishi mumkin. Ismni va sha’nni buzish tufayli keltirilgan zararni qoplash talabi o‘limdan keyin tan olinmaydi.

Ma’lumki, sha’n, qadr-qimmatni himoya qilishni so‘rab, sudga murojaat qilish amaliyoti keng tarqalgan bo‘lib, bunda ko‘p hollarda da’vo ommaviy axborot vositalariga nisbatan qo‘zg‘atiladi. Shu sababli ham shaxsiy nomulkiy huquqlarni himoya qilish fuqarolik kodeksi normalari bilan birga boshqa qonunlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga ozgartish va soshimchalar kiritish haqida [3] gi qonuni, “Jurnalistik faoliyatining erkinliklari to‘g‘risida”[4]gi qonun, “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”[5] gi qonunlar bilan ham tartibga solinadi.

Fikrimizcha, sha’n, qadr-qimmat va ishbilarmonlik obro‘yini himoya qilish to‘g‘risidagi FKning 100-moddasi nihoyatda umumiy tarzda shakllantirilgan. Bu masala bir necha maxsus norma yoki maxsus paragrafni tashkil etuvchi normalardan iborat bo‘lishi lozimligi muammosini fuqarolik kodeksini takomillashtirish masalalari bilan bog‘liq ravishda hal etish maqsadga muvofiq bo‘lur edi. Amaldagi FK 100-moddasining yana bir mulohazali tarafi shundan iboratki, bunda sha’n, qadr-qimmat va ishbilarmonlik obro‘sini himoya qilish fuqaroga nisbatan qo‘llanilishi belgilangan. Ammo, amalda fuqaroni baholash uchun sha’n, qadr-qimmat tushunchalarining o‘zi kifoya qiladi, chunonchi, ushbu tushunchalar uning barcha jihatlarini qamrab oladi. Ishchanlik obro‘sini esa, faqat yuridik shaxslarga xos xususiyat, deb baholash mumkin. Shuningdek, ishchanlik obro‘si yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkor fuqaro uchun ham o‘ziga xos alohida huquqiy muhofaza obyekti, deb qarash o‘rinli bo‘lur edi. Demakki, sha’n, qadr-qimmat va ishbilarmonlik obro‘si subyektlarini bunday tabaqalashtirish va qonunlarga tegishli aniqlik kiritish sud amaliyoti uchun ham yengilliklar va qulayliklar vujudga keltirilishiga olib keladi, deb hisoblaymiz.

References:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.Т., “Ўзбекистон” нашриёти, 2023.

2. Насриев И.И. Шахсий номулкий ҳуқуқларни амалга ошириш ва муҳофаза қилишнинг фуқаролик ҳуқуқий муаммолари. Юрид. фан.докт...дисс. – Тошкент: 2006.-Б.15.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga ozgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi

qonuni, “Jurnalistik faoliyatining erkinliklari to‘g‘risida” Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 15 январдаги O‘RQ-78-son Қонуни билан қабул қилинган. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2007 йил, № 1, 4-модда.

4. Ўзбекистон Республикасининг “Журналистлик фаолиятини ҳимоя қилиш тўғрисида” 1997 йил 24 апрелдаги Қонуни. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 йил, N 4-5, 110-модда

5. Ўзбекистон Республикасининг “Телекоммуникациялар тўғрисида” 27.12.2024 йилдаги ЎРҚ-1015-сон Қонуни.// Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 28.12.2024 й., 03/24/1015/1087-сон).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING HUQUQIY ASOSLARI

Shadmanov Erkin Sherkulovich,
O‘R JXU “Iqtisodiy fanlar” kafedrasi professori, i.f.d.;
Irgashev Dilmurod Ikramovich,
O‘R JXU “Iqtisodiy fanlar” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson qadri va huquqiy davlat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilingan. Tadqiqotda umuminsoniy qadriyatlar va inson huquqlari, konstitutsiyadagi adolat tamoyillari huquqiy davlat poydevorini mustahkamlovchi asosiy omillar sifatida yoritiladi. O‘zbekiston tajribasi xalqaro huquqiy me’yorlar bilan solishtirilib, inson qadri konsepsiyasining milliy siyosatda tutgan o‘rni aniqlangan.

Kalit so‘zlar: inson qadri, huquqiy davlat, inson huquqlari, adolat, konstitutsiya, huquqiy tizim, demokratik jamiyat.

Аннотация: В статье анализируется взаимосвязь между ценностью человека и правовым государством. Исследование раскрывает, что права человека, конституционные ценности и принципы справедливости служат основой укрепления правового государства. Опыт Узбекистана сопоставляется с международными нормами, что позволяет определить роль концепции человеческого достоинства в национальной политике.

Ключевые слова: человеческое достоинство, правовое государство, права человека, справедливость, конституция, правовая система, демократическое общество.

Abstract: This article analyzes the interrelation between human dignity and the rule of law. The study highlights that human rights, constitutional values, and the principles of justice form the foundation of a strong legal state. Uzbekistan’s experience is compared with international legal standards to identify the significance of the concept of human dignity in national policy.

Key words: human dignity, rule of law, human rights, justice, constitution, legal system, democratic society.

Har bir fuqaroning shaxsiy daxlsizligi, adolatli sud himoyasiga ega bo‘lishi, fikr bildirish va erkin yashash huquqi demokratik boshqaruv tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson qadri har qanday jamiyatning eng oliy qadriyati bo‘lib, huquqiy davlat barpo etishning asosiy mezoni sifatida namoyon bo‘ladi. Huquqiy davlatning poydevori inson huquq va erkinliklarini e’tirof etish, himoya

qilish hamda ularni amalda ta’minlashdan iborat. Shu bois inson qadri tushunchasi nafaqat ma’naviy, balki siyosiy-huquqiy jihatdan ham jamiyat taraqqiyotining mezoniga aylanadi.

O‘zbekiston Respublikasida umuminsoniy qadriyatlar va inson huquqlari masalasi Konstitutsiya va qonunlarda mustahkam o‘rin egallagan bo‘lib, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Xususan, “Inson qadri uchun” tamoyili mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning bosh g‘oyasiga aylangan. Mazkur yondashuv orqali davlat hokimiyati organlari faoliyatining barcha bosqichida inson manfaatlari ustuvorligi ta’minlanmoqda.

Zamonaviy huquqiy davlat konsepsiyasiga ko‘ra, inson qadri nafaqat konstitutsiyaviy norma sifatida, balki ijtimoiy-siyosiy amaliyotda ham real tarzda aks etishi zarur. Shu jihatdan, inson huquqlarini kafolatlash mexanizmlarini takomillashtirish, fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini kengaytirish va adolatli sud tizimini mustahkamlash huquqiy davlatning barqaror poydevorini yaratadi. Mazkur maqolada inson qadri va huquqiy davlat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni hamda O‘zbekistonda ushbu sohada olib borilayotgan islohotlarning ijtimoiy-huquqiy ahamiyati tahlil qilinadi[1].

Inson qadri tushunchasining nazariy asosi sifatida klassik va zamonaviy yondashuvlar o‘rganilgan. John Rawls adabiyotida adolatning cheklovchilik prinsiplari hamda fuqarolarning teng huquqliligi masalalari muhim o‘rin tutadi. Rawls 1971-yilgi asarlarida adolat paradigmasi orqali shaxsning qadrini himoya qilish mexanizmlarini tushuntiradi[2]. Ronald Dworkinning yondashuvi esa huquqlarni himoya qilish va sud amaliyotidagi integritet masalalarini ko‘taradi[3]. Dworkin 1977-yilda yozgan ishlari orqali huquq va axloq munosabatlarini tahlil etib, inson huquqlarining ustuvorligini ta’kidlaydi. James Griffin inson huquqlarining ma’nosini nazariy jihatdan ochib bergan bo‘lib, Griffin 2008-yilda huquqiy tizimlarda inson qadriga asoslangan huquqiy kafolatlar konsepsiyasini takomillashtiradi[4]. Martha Nussbaumning imkoniyatlar (capabilities) yondashuvi inson qadri va ijtimoiy adolat o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Nussbaum 2000-yilda jamiyat siyosatida shaxs imkoniyatlarini kengaytirish orqali inson qadrini real tarzda ta’minlashga urg‘u beradi[5].

Huquqiy davlat (rule of law) va uning tarkibiy elementlari bo‘yicha adabiyotlarda ikki asosiy oqim ajralib turadi. Birinchisi — protsedural huquqiylikka urg‘u beruvchi yondashuv, ikkinchisi esa mazmuniy huquqiylik va inson huquqlarining konkret himoyasiga e’tibor qaratadi. A. V. Dicey o‘zining klassik yondashuvida huquqiy davlatning protsedural elementlarini — xavfsizlik, qonun ustuvorligi va sud mustaqilligini belgilaydi. Dicey 1885-yilda ilgari surgan asosiy tamoyillar orqali qonun oldida tenglik va sud nazorati rolini ta’kidlaydi[6]. Lon L. Fuller esa huquqning ichki axloqiyligi haqida yozgan. Fuller 1969-yilda huquqiy

me’yorlarning ma’lum bir ichki mantiqqa ega bo‘lishi zarurligini asoslaydi[7]. Tom Binghamning amaliy yondashuvi huquqiy davlatning fuqarolar hayotiga bevosita ta’siri va sud-huquqiy himoya mezonlarini ochib beradi. Bingham 2010-yilda huquqiy davlat tamoyillarini amaliy auditoriya uchun yanada aniqlashtirgan[8].

Konstitutsiyaviy himoya, inson qadrining normativ o‘rni va sud amaliyoti masalalari bo‘yicha so‘nggi yillarda yozilgan asarlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Robert Alexy konstitutsiyaviy huquqlarni prinsip sifatida tahlil qiladi. Alexy 2002-yilda huquqiy prinsiplar va ularning murosaviy xususiyatlarini aniqlash orqali inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini nazariy jihatdan mustahkamlaydi[9]. Aharon Barakning ishlarida inson qadrining konstitutsiyaviy qiymati va sud amaliyotida uning qanchalik markaziy element ekanligi ko‘rib chiqilgan. Barak 2006-yilda konstitutsiyaviy talqin va sud-huquqiy ijtimoiy-himoya funksiyalarini yoritadi[10]. Ushbu nazariy asarlar sudlar va konstitutsiyaviy institutlar inson qadrini qanday amalga oshirishi mumkinligini tushuntiradi.

Xalqaro-huquqiy va institutsional hujjatlar ham mukammal tahlil obyektidir. Ular mamlakatlarning milliy huquqiy tizimlarida inson qadrini ta’minlash mexanizmlarini belgilaydi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Umumjahon inson huquqlari deklaratsiyasi inson qadri va asosiy huquqlar prinsiplarini universal hujjat sifatida belgilaydi. UDHR 1948-yilda davlatlararo majburiyatlar va ichki huquqiy himoya me’yorlarini shakllantirishda baza vazifasini o‘taydi. Shuningdek, Yevropa sudyosi va xalqaro organlar amaliyoti inson qadrini himoya qilish bo‘yicha pretsedentlarni yaratadi. Bu esa milliy sudlarga yo‘l-yo‘riq beradi.

O‘zbekistonga oid adabiyotlarda inson qadri va huquqiy davlat masalalarining milliy tafakkur va institutsional xususiyatlari o‘rganilgan. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni davlatning ustuvor vazifasi sifatida belgilaydi. Konstitutsiya 1992-yilda qabul qilingan va keyingi islohotlar mamlakat huquqiy tizimida inson qadri tamoyilini mustahkamlash yo‘nalishlarini ko‘rsatadi. Milliy ilmiy adabiyotlarda konstitutsiyaviy islohotlar, sud tizimini modernizatsiyalash va fuqarolarning huquqiy ongini oshirish orqali huquqiy davlat poydevorini mustahkamlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Ushbu tadqiqotlar nazariy konsepsiyalarni milliy kontekstga moslashtirish hamda amaliy chora-tadbirlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhidan aniqlanishicha, inson qadri nazariy jihatdan huquqiy davlatning markaziy elementi sifatida shakllanib bormoqda. Nazariy ishlar shaxs qadrini huquqiy kafolatlar orqali amalga oshirishni talab etadi. Protsedural va mazmuniy yondashuvlar esa bu maqsadni ta’minlash uchun bir-birini to‘ldiruvchi instrumentlar sifatida qaraladi. Milliy kontekstda esa konstitutsiyaviy va institutsional islohotlar inson qadri prinsipini real himoya mexanizmlariga aylantirishda muhim rol

o‘ynaydi. Shu bilan birga, adabiyotlar huquqiy davlat konsepsiyasini faqat formal tamoyillar darajasida qoldirmasdan, fuqaroning kundalik hayotidagi huquqiy kafolatlar va ijtimoiy imkoniyatlar bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi.

Konstitutsiya — har bir davlatning siyosiy mustaqilligi, huquqiy barqarorligi va jamiyat taraqqiyotining poydevori hisoblanadi. U davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy mezoni bo‘lib, inson huquq va erkinliklarini ta’minlashning kafolati sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois Konstitutsiyani “davlatning bosh qonuni” deb atash bejiz emas. U xalq irodasini, milliy qadriyatlarni va umuminsoniy g‘oyalarni huquqiy ifodada mujassamlashtiradi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakat mustaqilligining huquqiy asosini yaratib, demokratik jamiyat qurish dasturi sifatida xizmat qildi. Mazkur qonun xalq xohish-irodasini ifoda etib, mustaqil davlatchilikning huquqiy, siyosiy va iqtisodiy ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Keyingi yillardagi islohotlar jarayonida jamiyat rivojlanishi, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar Konstitutsiyaning ayrim normalarini zamon talablariga moslashtirishni taqozo etdi. Shu asosda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2023-yil 30-aprel kuni umumxalq referendumi o‘tkazilib, xalq tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilindi. Bu voqea O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash yo‘lida yangi tarixiy bosqichni boshlab berdi.

Yangilangan Konstitutsiya mazmun va mohiyat jihatidan tubdan boyidi. Bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Shu bilan birga, hujjatning 65 foizdan ortig‘i yangidan tahrir qilindi. Yangi tahrir “Inson — jamiyat — davlat” tamoyilini bosh g‘oya sifatida belgilab, inson manfaatlari va qadriyatlarini davlat siyosati markaziga qo‘ydi. Bu esa O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi mohiyatini yanada ochib berdi.

Aslida, 1992-yildan 2023-yilgacha Konstitutsiyaga jami 15 marta o‘zgartish kiritilgan bo‘lib, ular asosan davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan edi. Biroq 2023-yilgi islohotlar nafaqat qonunchilik tizimida, balki butun davlat boshqaruvi falsafasida yangi sahifa ochdi. Yangilangan Konstitutsiyada O‘zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida ta’riflandi. 1-moddadagi ushbu norma endilikda mamlakat taraqqiyotining qaysi yo‘nalishda borishini aniq belgilab berdi.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 154-moddasida 1-moddadagi qoidalarni qayta ko‘rib chiqish mumkin emasligi qat’iy belgilandi. Bu esa O‘zbekistonning hech qachon demokratiya, huquqiy davlatchilik va dunyoviylik prinsiplaridan voz kechmasligini anglatadi. Ya’ni, mamlakat kelajakda monarxiya yoki diniy respublika shaklida emas, faqat demokratiya va huquq ustuvorligi tamoyillari asosida rivojlanishini kafolatlaydi.

Konstitutsiyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi haqidagi yangi qoida ham katta ahamiyatga ega. 15-moddaga kiritilgan qo‘shimchaga ko‘ra, Konstitutsiya butun mamlakat hududida oliy yuridik kuchga ega va to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi. Bu fuqarolarga nafaqat qonunlarga, balki Konstitutsiyaning o‘ziga asoslangan holda sudlarga murojaat qilish imkonini beradi.

Yangi tahrirda fuqarolar tengligi va ijtimoiy adolat prinsiplari ham aniq ifoda etilgan. 19-moddaga muvofiq, imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat tamoyillariga mos bo‘lishi shart. Bu norma davlat qarorlari yoki farmonlari orqali turli preferensiyalar berish amaliyotiga chek qo‘ydi.

Konstitutsiyaning yana bir muhim yangiligi — “barcha noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi[1]” degan qoidadir. Bu tamoyil davlat organlari faoliyatida inson huquq va manfaatini ustuvor qo‘yishni ta’minlaydi. Masalan, pensiya tayinlash yoki hujjatlarni rasmiylashtirishda davlat tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolar fuqaro foydasiga hal etilishi lozim.

Inson huquqlari va erkinliklarini cheklash faqat Konstitutsiyada nazarda tutilgan hollarda, jamoat xavfsizligi yoki boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish maqsadida amalga oshirilishi mumkin. Bu norma fuqarolarning axborot izlash, olish va tarqatish erkinligiga ham taalluqlidir.

Yangi tahrirda ta’lim sohasiga katta e’tibor berilgan. 52-moddada ilk bor o‘qituvchilarning jamiyatdagi o‘rni va roli konstitutsiyaviy darajada belgilab, ularning mehnati davlat tomonidan himoya qilinishi nazarda tutilgan. Bu modda bilan o‘qituvchilar davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchi sifatida tan olingan.

Shuningdek, yangi Konstitutsiyada yer xususiy mulk bo‘lishi mumkinligi qonuniy asosda mustahkamlandi. Bu norma iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va mulkdorlar qatlamini shakllantirish yo‘lida muhim huquqiy qadam bo‘ldi.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatiga oid moddalar ham alohida ahamiyatga ega. Yangi tahrirda OAV erkinligi kafolatlanib, ularning faoliyatiga to‘siq yaratish yoki senzura joriy etish qonun bilan taqiqlangan. Bu norma so‘z erkinligini ta’minlash, jamiyatda ochiqlik va shaffoflik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlat boshqaruvida ham tuzilmaviy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Prezident vakolat muddati yetti yil etib belgilandi, Senat tarkibi qayta shakllantirildi va parlament palatalarining vakolatlari aniq taqsimlandi. Shu bilan birga, hokimlar bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari kengashiga rahbarlik qilish huquqidan mahrum etildi — bu boshqaruv tizimida vakolatlar taqsimotida shaffoflikni ta’minlaydi.

Yangi Konstitutsiyada “o‘lim jazosi taqiqlanadi” degan norma ham alohida ta’kidlandi. Shuningdek, shaxsning o‘z aybini tan olganligi uning aybdorligini isbotlash uchun yetarli asos bo‘lolmaydi, degan qoida qonun darajasiga ko‘tarildi.

Sud-huquq sohasida qonunni buzgan holda olingan dalillardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi, deb belgilandi.

Inson huquqlariga oid moddalarning kengaytirilishi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘sini mustahkamladi. Yangilangan Konstitutsiyada BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Umumjahon deklaratsiyasining barcha asosiy prinsiplari o‘z aksini topgan.

Shu tariqa, 2023-yil 30-aprel kuni bo‘lib o‘tgan referendumda xalqimiz yangi O‘zbekistonning huquqiy asosini yaratdi. Yangi Konstitutsiya demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat qurish yo‘lidagi barqaror rivojlanish strategiyasini belgilab berdi. U nafaqat huquqshunoslar uchun, balki har bir fuqaro uchun hayotiy dastur, huquqiy madaniyat manbayi va milliy g‘urur ramzi hisoblanadi.

Demak, yangi tahrirdagi Konstitutsiya — bu zamon talablariga javob beradigan, inson qadrini e’zozlovchi, xalq irodasini ifoda etuvchi, yangi O‘zbekistonning huquqiy, siyosiy va ma’naviy qiyofasini belgilab beruvchi tarixiy hujjatdir.

Xulosa qilib aytganda, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning siyosiy, huquqiy va ijtimoiy hayotida tub burilish yasagan tarixiy hujjat sifatida e’tirof etiladi. U inson qadrini oliy qadriyat darajasiga ko‘tardi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalda ta’minlashga xizmat qiluvchi aniq mexanizmlarni belgilab berdi hamda “Inson — jamiyat — davlat” tamoyilini davlat siyosatining bosh yo‘nalishiga aylantirdi. Shu orqali yangi Konstitutsiya mamlakatni demokratik islohotlarning yangi bosqichiga olib chiqdi va xalq manfaatlarini huquqiy jihatdan himoyalashni yanada mustahkamladi.

Umuman olganda, Konstitutsiyaning yangilanishi O‘zbekistonning suvereniteti, huquqiy davlat tamoyillari va ijtimoiy adolat g‘oyalarini yanada chuqurlashtirdi. Ushbu hujjat demokratik boshqaruv tizimini takomillashtirish, inson huquqlarini himoya qilish, shaffoflik va adolat mezonlarini kuchaytirish borasida ishonchli asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Yangi Konstitutsiya nafaqat davlat institutlari uchun yo‘l xaritasi, balki jamiyat taraqqiyoti va fuqarolik mas’uliyatining yangi bosqichini boshlab bergan umummilliy qadriyat sifatida tarixda o‘z o‘rnini egalladi.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023 – https://lex.uz/docs/-6445145

2. John Rawls. A Theory of Justice. – Cambridge: Harvard University Press, 1971. – 607 p.

3. Ronald Dworkin. Taking Rights Seriously. – Cambridge: Harvard University Press, 1977. – 293 p.

4. James Griffin. On Human Rights. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 376 p.

5. Martha C. Nussbaum. Women and Human Development: The Capabilities Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 312 p.

6. A.V. Dicey. Introduction to the Study of the Law of the Constitution. – London: Macmillan, 1885. – 413 p.

7. Lon L. Fuller. The Morality of Law. – New Haven: Yale University Press, 1969. – 262 p.

8. Tom Bingham. The Rule of Law. – London: Penguin Books, 2010. – 224 p.

9. Robert Alexy. A Theory of Constitutional Rights. – Oxford: Oxford University Press, 2002. – 518 p.

10. Aharon Barak. The Judge in a Democracy. – Princeton: Princeton University Press, 2006. – 352 p.

MA’MURIY ISLOHOTLARNING KONSTITUTSIYA NORMALARI BILAN UYG‘UNLIGI

G‘.T.Xakimov,
dotsenti, yu.f.n.

Yangi O‘zbekistonda mustaqillikka erishganimizdan boshlab toki shu kunga qadar mamlakatimiz davlat boshqaruvida erishilgan yutuqlarimiz bilan birga yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni sarhisob qilish va ulardan tegishli xulosa chiqarish orqali davlat boshqaruvining yangi zamonaviy usul va mexanizmlarini joriy etishga imkoniyat yaratildi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ta’biri bilan aytganda: “Biz taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘yar ekanmiz, salohiyat va imkoniyatlarimizni xolis baholash bilan birga, xato va kamchiliklarimizni ham atroflicha tanqidiy tahlil qildik” .

Bu borada eng avvalo, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini qabul qilindi. “Mazkur hujjat mohiyatiga ko‘ra, jamiyat hayotining barcha sohalaridagi tizimli islohotlarning “yo‘l xaritasi”ga aylandi” .

Ma’lumki, Asosiy qonunimizda “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi” to‘g‘risidagi norma belgilab qo‘yilgan. Aynan shu normaning ijrosini amalda ta’minlash maqsadida 2017 yilda Ma’muriy islohotlar konsepsiyasi qabul qilindi.

Konsepsiyaga asosan davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning 6 ta ustuvor yo‘nalishi belgilandi. Ma’muriy islohotlarni amalga oshirish yangi bsqichidan ko‘zlangan asosiy maqsad – ixcham va professional ijro organlari tizimini, zamonaviy menejmentga asoslangan boshqaruv tizimini yaratishdan iboratdir.

Ta’kidlash kerakki, Yangi O‘zbekistonda ma’muriy huquq avvalgi bosqichga nisbatan ancha liberallashdi. Buni davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolarga nisbatan munosabati keskin o‘zgarganidan, xalqimiz va aholiga davlat boshqaruv munosabatlarida o‘zlarining huquqlarini amalga oshirishda huquqiy va amaliy jihatdan sharoitlar yaratilgani bilan izohlash mumkin.

Bu jarayonda eng asosiy e’tibor fuqarolarimizga o‘z huquqlarini ro‘yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratishga qaratildi. “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Shu asosda aholi uchun maqbul bo‘lgan usullar – “ishonch telefonlari” va tezkor aloqa telefonlari orqali hamda videokonferensaloqa vositasida murojaat qilish tartibi joriy etildi.

Fuqarolarimizning Konstitutsiyada muhrlab qo‘yilgan davlat organlari va muassasalariga, xalq vakillariga murojaat qilish huquqini ta’minlash maqsadida ommaviy uchrashuvlarda murojaatlarni qabul qilish tartibi belgilandi. Xususan, 2017 yilda davlat hokimiyati tizimida mutlaqo yangi institut – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi, joylarda Xalq qabulxonalari tashkil etildi[6]. Ushbu tuzilmalar barcha darajadagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining fuqarolar bilan hamkorlik qilish, aholining eng dolzarb muammolarini hal etishning samarali tizimiga aylandi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ta’biri aytganda: “Bugungi kunda fuqarolarimiz mansabdorlar oldiga emas, balki mansabdor shaxslarning o‘zi xalqimiz oldiga bormoqda. Bu – katta o‘zgarish.”[7]

Ma’lumki, Konstitutsiyamizning 55-moddasiga ko‘ra, “Har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi”. Ta’kidlash lozimki, Yangi O‘zbekistonda ma’muriy huquq sohasi rivojlanishining yana bir yutug‘i bu mamlakatimizda ma’muriy sudlarning tashkil etilishi bo‘ldi. 2017 yilda Prezidentning farmoni bilan ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma’muriy nizolarni ko‘rib chiqishga vakolatli bo‘lgan ma’muriy sudlarni tashkil etildi[8].

---

[6] Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risi”dagi PF 4904-sonli 2016 yil 28 dekabr farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 1-son, 5-modda.

[7] Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi “Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir” nomli ma’ruzasidan // https://constitution.uz/uz/pages/prezident_maruzasi_25yil

[8] Qarang: “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 8-son, 109-modda.

Ma’muriy sudlarning ma’muriy huquqning yutug‘i deyishimizga sabab, garchi bunga barcha huquqiy va nazariy asoslar mavjud bo‘lsa-da, 2017 yilga qadar davlat boshqaruvida yuzaga keladigan ommaviy-huquqiy nizolarni maxsus sud tartibida hal etishning mexanizmi yaratilmadi, ma’muriy huquq o‘zining sud tarmog‘iga ega bo‘lmadi. Ma’muriy nizolar boshqa sud tarmoqlari, xususan, fuqarolik sudlari va xo‘jalik sudlari tomonidan hal etib kelindi. Ma’muriy nizolarning fuqarolik sudlari tomonidan hal etilishi aslida umumiy huquq nazariyasiga qonun-qoidalariga zid edi.

Ma’muriy huquq rivojlanishining eng asosiy yutuqlardan yana bir bu mamlakatimizda “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi edi.

2018 yil 8 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev «Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»gi qonunni imzoladi. Mazkur qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2017 yil 14 dekabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2017 yil 20 dekabrda ma’qullangan edi. Ushbu qonunning maqsadi ma’muriy tartib-taomillarni amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo‘lib u ma’muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash singari asosiy vazifalarni amalga oshiradi[9].

Ma’muriy huquq erishgan yana bir katta yutuq bu mamlakatda ilk marta davlat xizmatining, xususan, davlat fuqarolik xizmatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari yaratilgani bo‘ldi. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 37-moddasida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega ekanligi mustahkamlab qo‘yildi.

To‘g‘ri, ma’muriy huquq rivojlanishining avvalgi bosqichida ayrim davlat xizmati turlarining huquqiy asoslari yaratildi. Masalan, “Prokuratura to‘g‘risida”, “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”, “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari qabul qilingan va ular davlat xizmatini ayrim turlarini tashkil etish va o‘tash uchun uzoq yillar mobaynida muhim manbalardan bo‘lib xizmat qilib keldilar. Ammo mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatini tashkil etishning, uning asosiy tamoyillari va qonuniyatlarini yagona andoza asosida belgilab beruvchi konstitutsiyaviy asos va maxsus qonun yo‘q edi.

Bundan tashqari, ayrim organlar uzoq yillar avval tasdiqlangan birgina faoliyatiga oid nizom bilan faoliyat yuritib kelgani ham sir emas edi. Xususan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2017 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “milliy xavfsizlik xizmati idoralari bugungi kungacha 26 yil avval Hukumat tasdiqlagan Nizom asosida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Bu Nizom chorak asr davomida o‘zgartirilmagani va har qanday oddiy masala ham milliy xavfsizlikka

[9] Qarang: «Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-457-son qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.01.2018 y., 03/18/457/0525-son; 07.01.2020 y., 03/20/600/0023-son.

tahdid deb baholab kelingani ushbu idora vakolatlarining asossiz kengayib ketishiga sabab bo‘lgan”, deb alohida ta’kidlab o‘tgan edi[10].

Shu munosabat bilan Prezident mazkur Murojaatnomada bugungi kunda jamiyat hayotidagi mavjud muammolarni samarali yechish, keng ko‘lamli islohotlarni izchil davom ettirish zarurati davlat boshqaruvi sohasida mutlaqo yangi tizim yaratishni taqozo etayotgani sababli masalaning yechimi sifatida “Davlat xizmati to‘g‘risida”gi qonunni ishlab chiqish va qabul qilishni taklif etgan edi.

Mazkur Murojaatnomadan so‘ng 2022 yil 2 mart kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni[11] qabul qilindi.

Albatta yuqorida sanab o‘tilgan holatlar ma’muriy huquq rivojlanishining barcha jihatlarini qamrab olmagan, biz ularning ayrimlarini sanab o‘tdik xolos.

Maqolaga yakun sifatida shuni alohida ta’kidlash lozimki, ma’muriy huquq boshqa huquq sohalariga qaraganda dinamik va o‘zgaruvchan huquq sohasi hisoblanadi. U doimo jamiyat va davlat hayotida yuz berayotgan siyosiy va huquqiy o‘zgarishlar ta’siri ostida bo‘ladi. Lekin shuni ham unutmaslik kerakki, ma’muriy huquq nechog‘li o‘zgaruvchan bo‘lmasin, u baribir umumiy huquq nazariyasining oltin qoidalariga, davlat boshqaruvini amalga oshirishda eng avvalo, Konstitutsiya va inson huquqining ustuvorligi tamoyiliga doim sodiq qolishi hamda o‘zining barcha institutlari va mansabdor shaxslarining faoliyatini mazkur tamoyilni amalda ta’minlashiga yo‘naltirishi lozim.

Asosiy Qonunimizning 44-moddasiga binoan, sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi. Lekin o‘tgan yillar davomida davlat boshqaruvida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarga baho berar ekan, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2023 yil 19 sentyabr kuni Nyu-York shahridagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh qarorgohida BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida so‘zlagan nutqida “Bir asr mobaynida O‘zbekistonda millionlab insonlar paxta terimiga majburiy ravishda jalb etib kelindi. Har yili sentyabr oyidan dekabrgacha aholining asosiy qismi – o‘qituvchi va shifokorlar, tadbirkorlar, ishchi va xizmatchilar, eng achinarlisi, maktab o‘quvchilari va talabalar paxta terimiga safarbar qilinar edi. Buning natijasida o‘zbek paxtasiga boykotlar e’lon qilingan, mamlakat esa yillar davomida “qora ro‘yxat”larga kiritilgan edi. Qat’iy irodamiz tufayli endi bularning barchasi o‘tmishga aylandi. Xalqimiz paxta qulligidan butkul ozod bo‘ldi[12], – deb alohida ta’kidladi.

[10] Qarang: https://uza.uz/uz/posts/mamlakatimiz-tarikhida-birinchi-marta-prezident-murozhaatnom-22-12-2017
[11] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.08.2022 y., 03/22/788/0723-son.
[12] Qarang: Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 19 sentyabrda BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida so‘zlagan nutqi // https://president.uz/uz/lists/view/6679

Bunga qadar esa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10 may sanasida qabul qilingan №349-sonli “O‘zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining kirish qismida “so‘nggi paytda barcha darajadagi hokimlar tomonidan ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalari va boshqa byudjet tashkilotlari xodimlarini hududlarni obodonlashtirish, shuningdek, qishloq xo‘jaligidagi turli ishlarga majburiy jalb qilish shaklida mehnat qonunchiligi normalarini buzish bilan bog‘liq ayrim holatlar kuzatilmoqda. Mansabdor shaxslarning xizmat mavqeini suiiste’mol qilish, yuqorida qayd etilgan shaxslarni qo‘rqitish, ularga nisbatan haqoratli so‘zlarni va hattoki, kuch ishlatish holatlari ham qayd etilmoqda.

Ushbu holat bunday ishlarni bajarishga majburlash davomida mazkur ishlarga jalb etilgan shaxslarning jarohat olishiga va ayrim hollarda halok bo‘lishiga sabab bo‘layotgan ko‘ngilsiz voqealar ro‘y berayotgani bilan yanada murakkablashmoqda.

Mahalliy davlat organlari mansabdor shaxslarining bunday xatti-harakatlari respublikaning qonun hujjatlari talablariga zid bo‘lib, uning jahon maydonidagi nufuziga putur yetkazmoqda, mamlakat Hukumati ishiga, birinchi navbatda, bilimli va sog‘lom barkamol avlodni tarbiyalashga katta zarar yetkazmoqda, ijtimoiy-siyosiy hayotni isloh qilish va hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni yaxshilashga qaratilgan barcha sa’y-harakatlarni obro‘sizlantirmoqda”[13], deb alohida qayd etilgan edi.

Bundan tashqari, davlat organlari bilan fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarda ortiqcha qog‘ozbozlika yo‘l qo‘yish, arzimagan bahonalar bilan fuqarolarni idorama-idora ovora qilish, ularga nisbatan bepisand munosabatda bo‘lish singari illatlar davlat boshqaruv munosabatlariga o‘zining katta salbiy ta’sirini o‘tkazdi.

Shuning uchun ham ma’muriy huquq rivojlanishining Yangi O‘zbekiston bosqichida mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlarning sifati va natijadorligini tubdan oshirish hamda insonning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini, shu jumladan odamlar hayotining munosib darajasini ta’minlash, ular amalga oshirilishi uchun davlat organlarining roli va mas’uliyatini kuchaytirish, aholi bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish va ularning murojaatlari bilan ishlashning yangi samarali mexanizmlari va usullarini joriy etish, fuqarolarni bezovta qilayotgan hayotiy muammolarni o‘z vaqtida hal etish maqsadida «Inson manfaatlari har narsadan ulug‘» degan ezgu g‘oya dasturul amal sifatida belgilab olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 19 sentyabrda BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida so‘zlagan nutqi // https://president.uz/uz/lists/view/6679

[13] Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10 may sanasida qabul qilingan №349-sonli “O‘zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.05.2018 y., 09/18/349/1205-son, 31.12.2018 y., 09/18/1066/2428-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi “Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir” nomli ma’ruzasi // https://constitution.uz/uz/pages/prezident_maruzasi_25yil

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risi”dagi PF 4904-sonli 2016 yil 28 dekabr farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 1-son, 5-modda.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 8-son, 109-modda.

5. «Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-457-son qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.01.2018 y., 03/18/457/0525-son; 07.01.2020 y., 03/20/600/0023-son.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10 may sanasida qabul qilingan №349-sonli “O‘zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.05.2018 y., 09/18/349/1205-son, 31.12.2018 y., 09/18/1066/2428-son.

OLIY TA’LIM TASHKILOTLARINING FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIGINI VUJUDGA KELISHI ASOSLARI

Xomidov E.O.
Jamoat xavfsizligi universiteti Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari, yu.f.b.f.d (PhD), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada OTTlar tomonidan tuzilgan shartnomalar bo‘yicha vujudga keladigan javobgarlik masalalari yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada xorijiy huquqshunos olimlarning fikrlari o‘rganilgan. Maqola doirasida muhokama qilingan muammolarga mualliflik tushunchalari berilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim tashkilot, oliy ta’lim tashkilotlari tomonidan tuziladigan shartnomalar, majburiyatlar, delikt majburiyatlar, pullik ta’lim xizmatlari.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы ответственности, возникающие из договоров, заключенных организациями высшего образования. Также анализируются позиции зарубежных правоведов. Излагаются авторские концепции рассматриваемых в статье проблем.

Ключевые слова: организация высшего образования, договоры, заключенные организациями высшего образования, обязательства, деликтные обязательства, платные образовательные услуги.

Annotation: This article describes the issues of liability arising from contracts concluded by OTTs. The article also examines the opinions of foreign legal scholars. The author's concepts are given to the problems discussed within the article.

Key words: higher education organization, contracts concluded by higher education organizations, obligations, delict obligations, paid educational services.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish” Konsepsiyasida “oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasi bosqichma-bosqich joriy etilishi belgilab qo‘yildi.

Shu bois, oliy ta’lim tashkilotlari boshqa huquq subyektlari bilan o‘z faoliyati davomida turli xil munosabatlarga kirishishi tabiiy hol sanaladi. Shuningdek, har qanday majburiyat-huquqiy munosabatda bo‘lgani kabi majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy sanksiyalar bo‘lishi tabiiy.

Ma’lumki, oliy ta’lim tashkiloti yuridik shaxs sifatida fuqarolik-huquqiy javobgarlikning mustaqil subyekti hisoblanadi. Zero, yuridik shaxsning muhim belgilaridan biri ham aynan mustaqil mulkiy javobgarlik hisoblanadi. Shunday ekan, har qanday oliy ta’lim muassasasi emas, balki aynan davlatga qarashli bo‘lgan oliy ta’lim muassasasi javobgarligining asoslari, o‘ziga xosligi, mohiyatini ochib berish,

bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyatini tahlil qilish alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yuridik adabiyotlarda qayd etilishicha, fuqarolik-huquqiy javobgarlik deb, fuqarolik qonun hujjatlari yoki shartnomalarda nazarda tutilgan, ixtiyoriy amalga oshirilmagan taqdirda davlat majburlov kuchi bilan ta'minlangan, fuqarolik huquqbuzarlik oqibatlarini bartaraf etishga, shu jumladan, zararni to‘liq qoplashga yoxud ushbu oqibatlarni yumshatishga qaratilgan. Huquqbuzar yoki qonun hujjatlarida javobgarlik zimmasiga yuklatilgan subyektlarni muayyan subyektiv huquqlardan mahrum qilish yoki qo‘shimcha fuqarolik majburiyatlarini yuklash yoxud boshqa noqulay salbiy oqibatlarni vujudga keltirishda namoyon bo‘ladigan huquqiy ta'sir choralarining qo‘llanishi tushuniladi[1].

Mazkur ta'rif fuqarolik-huquqiy javobgarlikning keng ma'nodagi talqini, barcha jihatlarini qamrab olishga qaratilganligi bilan e'tiborlidir. N.Egamberdiyevaning fikricha, huquqbuzarlik yuridik shaxs uchun mavhumlik kasb etadi hamda tashkilotning (mavhumlikning) huquqbuzarlik sodir etishi mantiqiy jihatdan noto‘g‘ri holat hisoblanadi. Lekin yuridik shaxslarning fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalasini belgilashda, huquqbuzarlikni, uning xodimlari, aynan yuridik shaxsning huquq va burchlarini amalga oshirish jarayonida sodir etganligini hisobga olish kerak[2].

Mazkur holatda yuridik shaxsning javobgarligi faqatgina subyektlarning huquqbuzarlik sodir etish - etmasligi bilan emas, balki qonunchilikda belgilangan tartibda va shartlarda javobgarlikning yuzaga kelishi bilan belgilanishi zarur. Chunki, qonun chiqaruvchi yuridik shaxsning javobgarligini bevosita uning xodimlari yoki yuridik shaxs organining huquqbuzarlik sodir etishi bilan bog‘lamaydi hamda yuridik shaxsning muhim belgisi sifatida javobgarlikni ko‘rsatadi.

L.V.Gurakning ta'kidlashicha, oliy ta'lim muassasasi xo‘jalik shartnomalari bo‘yicha tegishli budjetdan moliyalashtirish bo‘lmasdan turib majburiyatlar bo‘yicha javobgarligiga e'tibor qaratish zarur. Ukraina Budjet kodeksining 48-moddasi to‘rtinchi qismiga ko‘ra, budjet jarayoni ishtirokchisi tomonidan budjetdan moliyalashtirish bo‘lmasdan turib yoki vakolatidan chetga chiqib, majburiyatni zimmasiga olishi budjet majburiyati bo‘lib hisoblanmaydi va budjet mablag‘lari hisobidan to‘lanmaydi. Ushbu majburiyatlarni bajarish uchun budjet mablag‘lari yo‘naltirilmaydi[3].

OTT yuridik shaxs sifatida ishtirok etar ekan, mustaqil mulkiy javobgarlik subyekti sifatida ko‘riladi. Bunda uning fuqarolik-huquqiy javobgarligi qanday xususiyatda bo‘lishiga e'tibor qaratish talab qilinadi. Odatda, har qanday yuridik shaxs majburiyatlarni buzganlik uchun hamda delikt majburiyatlar yuzasidan fuqarolik-huquqiy javobgarlik subyekti hisoblanadi. OTT majburiyatlarni buzganlik uchun FKning 39-moddasida belgilangan operativ boshqaruv huquqi[4] asosida

o‘ziga biriktirilgan mol-mulk yuzasidan hamda mulkdor (davlat)ning subsidiar javobgarligi tahlil qilinishi lozim.

Fikrimizcha, OTTning yuridik shaxs sifatidagi majburiyatlari yuzasidan javobgarlik asosiy majburiyat bo‘yicha muassasaning mablag‘i yo‘qligi natijasida yuzaga keladi. Bunda alohida majburiyat-huquqiy munosabat rasmiylashtirilmasdan, balki qonunda to‘g‘ridan to‘g‘ri nazarda tutilgan majburiyat yuzaga keladi. Mazkur subsidiar majburiyatni bajarish Iqtisodiyot va Moliya vazirligi zimmasida bo‘ladi. Chunki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 martdagi “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2847-son Qarori bilan tasdiqlangan Moliya vazirligi to‘g‘risidagi nizomda uning budjet tizimi budjetlarida mablag‘ nazarda tutilgan yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan to‘lovlarni amalga oshirishi nazarda tutilgan[5].

I.F.Syubarevaning fikricha, pul mablag‘lari mulkdor tomonidan muassasaga smeta asosida muayyan maqsadlar uchun ajratiladi va muassasaning hisobvarag‘iga o‘tkaziladi yoxud naqd shaklda topshiriladi. Mazkur pul mablag‘larining keyingi taqdirini yuridik shaxsning o‘zi belgilaydi. Qarz majburiyatlari yuzaga kelganda mulkdor tomonidan belgilangan maqsadlar qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, ushbu pul mablag‘lariga undiruv qaratilishi mumkin. Faqat g‘azna (davlat va munitsipal) va xususiy (nodavlat) muassasalarga nisbatan subsidiar javobgarlik nazarda tutilgan. G‘azna muassasalarining moliyaviy-huquqiy maqomi budjet qonunchiligi bilan belgilanadi: ularning pul mablag‘lari budjet mablag‘lari hisoblanadi, shu boisdan ularni tasarruf etish cheklanishi muhim. G‘azna muassasasi pul mablag‘larining huquqiy rejimi boshqa muassasalarga qaraganda eng qat’iysi hisoblanadi. Budjet tizimi mablag‘lariga undiruv qaratish faqat sudning hujjati asosida amalga oshiriladi[6].

Fikrimizcha, har qanday holatda ham undiruv qaratish bilan bog‘liq masalada alohida qonun hujjatlarida qo‘yiladigan talablarga ham e’tibor qaratish zarur. Ayrim hollarda, garchi sudning hal qiluv qarori qabul qilinsa-da, yuridik shaxsning ayrim hisobvaraqlariga, masalan, maqsadli hisobvaraqlariga undiruv qaratish mumkin bo‘lmaydi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2012 yil 15 martda 2342-son bilan ro‘yxatga olingan “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomaning 1-ilovasiga ko‘ra, balans raqami 22626 (Korxona va tashkilotlarning maqsadli mablag‘lari), 23210 (Sobiq Moliya vazirligi fondlaridan qishloq xo‘jalik mahsulotlari uchun ajratilgan maqsadli mablag‘lar), 23220 (Sobiq Moliya vazirligi fondidan olingan maqsadli mablag‘lar) bo‘lgan hisobvaraqlar qonun hujjatlariga muvofiq undiruv qaratilmaydigan bank hisobvaraqlari etib belgilangan[7]. Ushbu holat ham kreditor manfaatlariga mos kelmaydi va teng huquqli munosabat ishtirokchilaridan biriga “daxlsizlik” huquqini taqdim qilish sifatida baholanishi

mumkin. Natijada fuqarolik-huquqiy munosabatga kirishishda ushbu holat ham muayyan tavakkalchilik yoki xavf-xatar sifatida baholanishiga olib keladi.

OTT majburiyatlarni buzganlik uchun javobgar bo‘lgan hollarda, shuningdek, delikt javobgarlik holatida garchi umumiy fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari qo‘llanilishi mumkin bo‘lsa-da, qonunda nazarda tutilgan hollarda ayrim hisobvaraqlarga undiruv qaratish mumkin bo‘lmaydi. Masalan, OTT muayyan kontragentga pul mablag‘larini o‘z vaqtida to‘lamaydi. Natijada sud tomonidan pul mablag‘larini undirish haqida hal qiluv qarori qabul qilinadi. Majburiy ijro byurosi (MIB) OTTning barcha hisobvaraqlariga undiruv qaratishni belgilaydi. Ushbu holatda “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunning 47-moddasiga ko‘ra, sud ijrochisida qarzdorning xatlash mumkin bo‘lgan hisobvarag‘i mavjudligi to‘g‘risida axborot bo‘lmaganda, sud ijrochisi bunday hisobvaraqni aniqlash to‘g‘risida bank yoki boshqa kredit tashkilotiga yozma so‘rov yuboradi[8]. Ushbu Qonun talabidan kelib chiqib, davlat ijrochisi OTTning undiruv qaratilishi mumkin bo‘lgan hisob raqamini aniqlashi va undiruv qaratilishi mumkin bo‘lgan hisob raqamlariga undiruvni qaratishi lozim bo‘ladi.

Shu sababli davlat ijrochisining OTTning muayyan hisob raqamiga undiruvni qaratish bilan bog‘liq harakati qonunga xilof deb topilishi va OTTning bunday hisob raqamiga qarzdorlik bo‘yicha undiruvni qaratmaslik majburiyati yuklanishi mumkin.

Xulosa qilganda, oliy ta’lim muassasasi nafaqat majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik, balki delikt javobgarlikning subyekti ham hisoblanadi. Garchi majburiyatlarni buzganlik uchun cheklangan javobgarlik qoidasi amal qilishi mumkin bo‘lsa-da, oliy ta’lim muassasasi delikt javobgarlik subyekti bo‘lganda mulkiy javobgar bo‘lib yetkazilgan zararni to‘liq qoplashi shart.

References:

1. Mualliflar jamoasi. Fuqarolik huquqi. Darslik. – Toshkent., TDYuU, 2017. – B 249-250.
2. Egamberdieva N. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning asoslari va shakli: yurid. fan. nomz. Diss... – Toshkent.: 2005. 57-b. (155 b.)
3. Гурак Л.В. Особливості господарсько-правової відповідальності державних вищих навчальних закладів // Проблеми законності: акад. зб. наук. пр. –Харків, 2011. – Вип. 114. – С. 238-244. http: // nbuv .gov.ua / UJRN/Pz_2011_114_29
4. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.-T.: Adolat 2023. 560 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 martdagi “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2847-son qarori. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 13-son, 201-modda.

6. Сюбарева И.Ф. Правовое регулирование гражданско-правовой ответственности учреждений. Вестник Балтийского федерального университета им. И. Канта. 2013. Вып. 9. – С.51-52. (С. 49-56.)

7. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 y, 11-son, 127-modda.

8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001 y., 9-10-son, 169-modda. // Qonun hujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi, 30.07.2019 y., 03/19/551/3493-son.

O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA BELGILANGAN YOSHLAR HUQUQLARINI TA’MINLASHDA NARKOJINOYATLARGA QARSHI PROFILAKTIKANING AHAMIYATI

Payziyev Abbos Muxammadovich,
Maxsus-huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi dotsenti,
yu.f.b.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya: Ушбу мақолада гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланиши билан боғлиқ муаммолар, карши курашиш, олдини олиш ва профилактикаси билан боғлиқ халқаро ташкилотлар томонидан олиб борилаётган ишлар тўғрисида тўхталиб ўтилган, шунингбек бугунги куннинг энг долзарб муаммолари ва уларга қарши курашиш йўналишлари кўрсатилган.

Kalit so‘zlar: giyohvandlik, konvensiya, suiiste’mol, rezolyutsiya, profilaktika, reabilitatsiya, tibbiy-psixologik.

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat, giyohvandlikka qarshi kurashishdagi barcha chora-tadbirlar orasida profilaktika (oldini olish) eng muhim o‘rinni egallashi lozimligini ta’kidlab, muammo yuzaga kelgach, uni bartaraf etishdan ko‘ra, uning oldini olish ancha samarali va ustuvor hisoblanadi.

1961-yilda qabul qilingan Giyohvandlik vositalari to‘g‘risidagi Yagona konventsiyaning 1972-yildagi Protokolining 38-moddasi va 1971 yildagi Psixotrop moddalar to‘g‘risidagi konventsiyaning 20-moddasiga muvofiq, a’zo davlatlar giyohvandlik vositalarini suiiste’mol qilishni oldini olish bo‘yicha profilaktika ishlarini olib borish, giyohvandlik vositalarini davolash bo‘yicha barcha zarur choralarni ko‘rishlari shartligi belgilangan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1988 yildagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish” konvensiyasining 14-moddasida “Har bir Tomon o‘z hududida noqonuniy ravishda yetishtiriladigan ko‘knori va nasha o‘simliklari kabi tarkibida giyohvandlik yoki psixotrop moddalar bo‘lgan o‘simliklarni noqonuniy yetishtirishning oldini olish va ularni yo‘q qilish bo‘yicha tegishli choralarni ko‘radi” deb belgilangan.

Dunyoda giyohvandlar soni ortib bormoqda – BMTning ma’lumotiga ko‘ra, oxirgi o‘n yil ichida ularning soni 296 million kishiga ko‘paygan .

Respublikamizda 2023 yilda giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq 8280 ta jinoyat aniqlangan bo‘lsa, shundan 6147 nafari jinoiy va 1407 nafari ma’muriy javobgarlikka tortilgan.

Javobgarlikka tortilganlarning 58 nafari chet el fuqarolari bo‘lib, shundan 49 nafari MDH davlatlari fuqarolari.

Tezkor tadbirlar natijasida 2 tn 31 kg 886 gr giyohvandlik vositalar va psixotrop moddalar noqonuniy muomaladan olingan. Shundan, 2 tn 25 kg 13 gr giyohvandlik vositalar va 6 kg 127 gr psixotrop moddalar.

Musodara qilingan giyohvandlik vositalarning 866 kg 253 gr kontrabanda bo‘lsa, 19 kg 687 gr o‘z hoxishi bilan topshirilgan va 31 kg 580 gr egasiz bo‘lgan. Shuningdek, 10486 m.kv maydonda tarkibida giyohvandlik vositalari mavjud o‘simliklar yo‘q qilingan.

“Telegram” ijtimoiy tarmog‘ida giyohvandlik vositalarning noqonuniy savdosini amalga oshiruvchi 1499 ta akkauntlar aniqlanib, shundan 1311 tasi bloklandi. Qolgan 188 tasini bloklash bo‘yicha ijtimoiy tarmoq moderatorlariga xabar berilgan, shuningdek akkauntlarni reklama qiluvchi 2962 ta “narkograffiti” o‘chirilgan.

Giyohvand moddalarga moyillik va ularning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash bo‘yicha ko‘p yillik tajriba umumlashtirilishi natijasida BMT hujjatlarida ikki asosiy strategik yo‘nalish belgilab qo‘yilgan:

1. Giyohvand va psixoaktiv moddalarga noqonuniy talabni kamaytirish;

2. Giyohvand va psixoaktiv moddalarning noqonuniy taklifini va yetkazib berishni kamaytirish.

Bu ikkala yo‘nalish bir-biriga bog‘langan bo‘lib xalqaro va milliy darajada o‘zaro bog‘liq harakatlar tizimini ifodalaydi.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti o‘z rezolyutsiyasida “Giyohvandlik moddalarni nazorat qilishning xalqaro strategiyasi”ni qabul qildi. Ushbu rezolyutsiyalar giyohvandlikka qarshi kurash strategiyasiga xalqaro milliy harakatlarni kiritishni nazarda tutadi, undan qator hukumatlar va xalqaro tashkilotlar foydalanadi. Ular orasida quyidagilarga alohida e’tibor qarati lozim:

- giyohvandlik vositalari ustidan nazorat tizimini takomillashtirish;
- qonuniy maqsadlarda giyohvandlik vositalariga bo‘lgan talab va ularni yetkazib berish o‘rtasidagi muvozanatga erishish;
- giyohvandlik vositalarini noqonuniy manbalardan yo‘q qilish;
- giyohvandlik vositalariga noqonuniy talabni kamaytirish;

- noqonuniy giyohvand moddalarga bo‘lgan talabni kamaytirish va qonuniy giyohvand moddalarni noto‘g‘ri ishlatish yoki noqonuniy ishlatishning oldini olish;

- narkomanni davolash, reabilitatsiya qilish va ijtimoiy reintegratsiya qilish.

Bugungi kunda xalqaro ҳamjamiyat tomonidan olib borilayotgan yuori darajadagi qarshi kurash va profilaktik ishlarga qaramay, giyoҳvandlik vositalari va psixotrob moddalarning noqonuniy tarqalishi soҳasida saqlanib qolayotgan mavjud muammolarga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqyu Jumladan:

yangi turdagi giyoҳvandlik moddalarning paydo bo‘lishi – hozirda har oy deyarli yangi sintetik (sun’iy) giyoҳvandlik modda chiqmoqda. Ular “energiya beruvchi vosita”, “tabiiy dori” yoki “vape aralashmasi” sifatida yashirin tarzda sotilmoqda. Bu moddalarning tarkibi tez-tez o‘zgarib turadi, shuning uchun ularni aniqlash va nazorat qilish qiyin bo‘lib qolmoqda;

chegaralarda nazorat sustligi – giyohvand moddalar asosan qo‘shni mamlakatlar orqali o‘tadi. Ba’zi chegaralarda texnik vositalar eski yoki yetarli emas, shu sababli narkotiklar yashirin yo‘llar bilan olib kirilmoqda;

yoshlar orasida giyohvandlikka qiziqish ortib bormoqda – o‘smirlar va talabalar orasida “vape”, “spays”, “mix” kabi moddalardan foydalanish holatlari ko‘paygan. Ko‘pchilik ularni zararli emas deb o‘ylaydi, ammo bu moddalar ham kuchli qaramlik keltirib chiqaradi;

davolanishdan keyin qayta giyohvandlikka berilish – reabilitatsiya (davolanish va tiklanish) markazlari yetarli emas, mavjudlari esa ko‘p hollarda faqat qisqa muddatli yordam beradi. Natijada ko‘pchilik bemorlar yana eski odatiga qaytib qoladi;

aholi orasida ma’lumot yetishmasligi – ko‘pchilik, ayniqsa yoshlar, narkotik moddalarning sog‘liqqa, oilaga va kelajakka qanday zarar yetkazishini to‘liq bilmaydi. Maktablarda, oliygohlarda va ommaviy axborot vositalarida bu haqda tushuntirish ishlari kam olib borilmoqda;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida hamkorlik yetarli emasligi – narkotiklar bilan bog‘liq jinoyatlar ko‘pincha xalqaro xarakterga ega. Ammo turli davlatlar va idoralar o‘rtasida tezkor axborot almashinuvi sust. Shu sababli jinoyatchilarni vaqtida aniqlash va to‘xtatish qiyinlashmoqda.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash muammolari bo‘yicha xalqaro hujjatlarning tahlili shundan dalolat beradiki, giyohvand moddalarga qarshi kurash bo‘yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirishdagi asosiy yo‘nalishlar quyidagi vazifalarni hal etish bilan bog‘liq:

1. Eng muhim vazifalardan biri — davlatlar o‘rtasida samarali hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish va keyinchalik ularni mintaqaviy darajada integratsiya qilishni nazarda tutuvchi siyosatni ishlab chiqishdir. Bu siyosatning asosiy maqsadi, Giyohvandlik vositalarni iste’mol qilishni kamaytirishga qaratilgan choralar bilan

ularning tarqalishini cheklashga qaratilgan choralar o‘rtasida muvozanatni ta’minlashdir.

2. Ma’muriy nuqtai nazardan eng muhim vazifalardan biri — turli davlatlar vazirliklari va idoralari faoliyatini muvofiqlashtirish uchun maxsus tuzilmalarni yaratishdan iborat. Bu jarayon “gorizontal muvofiqlashtirish” deb ataladi. Shu bilan birga, davlat muassasalarining yuqori darajali boshqaruv organlari bilan hamkorlikda ish olib borishi, ya’ni “vertikal muvofiqlashtirish” esa alohida murakkablik va tashkiliy yondashuvni talab etadi.

3. Giyohvandlik moddalarga qarshi kurash strategiyalarini amalga oshiradigan davlat muassasalari uchun yana bir muhim vazifa — jamoatchilikni davlat siyosati ishlab chiqilishi va uni hayotga tatbiq etish jarayonlariga jalb etishdir. Bu borada aholi o‘z ixtiyori va jamoaviy tuzilmalar orqali faol ishtirok etishi zarur. Jamoatchilikning bevosita ishtirokini ta’minlash, qabul qilinadigan qarorlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

BMTga a’zo davlatlarning aksariyatining giyohvandlik vositalariga qarshi kurashish strategiyalarida o‘zaro uyg‘unlik mavjud. O‘zbekiston ham mazkur yo‘nalishdagi BMTning tamoyillarni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi. Mamlakat BMTning ushbu sohadagi uchta asosiy konvensiyalariga qo‘shilgan:

1961 yildagi Yagona konvensiya, 1971 yildagi Psixotrop moddalar to‘g‘risidagi konvensiya, 1988 yildagi Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish to‘g‘risidagi konvensiya[14].

Bu borada O‘zbekiston xalqaro tashabbuslardagi ishtirokini faollashtib, sohada muammoga ancha ilgariroq duch kelgan davlatlarning tajribasidan foydalanib kelmoqda.

Shuningdek, MDH doirasidagi davlatlar bilan ham giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash bo‘yicha hamkorlik yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Hozirgi vaqtda a’zo davlatlarning barchasi giyohvandlik moddalar iste’molini kamaytirishga asosiy e’tiborni qatargan, shu bilan birga, narkotik moddalarga mukkasidan ketgan shaxslarni davolash va reabilitatsiya qilishga qaratilayotgan chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

Bundan tashqari, yana bir xalqaro hujjat, “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konventsiya”ning 33-moddasida bolalarni giyohvandlik va giyohvandlikdan himoya qilish zarurligi ta’kidlangan. Xuddi shunday holat Yoshlar uchun Butunjahon Harakat Dasturining[15] bandlarida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, unda yoshlar tashkilotlari va

[14] Международные Конвенции по защите прав человека и борьбе с преступностью: (Сб. междунар. документов)/Сост. Ю.С. Пулатов. – Т.: Шарк, 1995. - С. 302-338. – 448 с. – (Сравнительное правоведение. Вып. 1). https://lex.uz/docs/2676167.

[15] BMT Bosh Assambleyasining 1995 yil 14 dekabrdagi 91-yalpi majlisi //https://documents.un.org/doc/resolution/gen/n96/771/45/img/n9677145.pdf.

yoshlarni giyohvand moddalarga bo‘lgan talabni cheklashga qaratilgan tadbirlarga jalb etish takliflari ilgari surilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi qonuni normalaridan ko‘rinib turibdiki, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarning muomalasi va ularning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi giyohvandlik vositalariga qarshi kurashishga qaratilgan faoliyatni qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Giyohvandlik va giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishining oldini olish nima ekanligini ko‘rib chiqaylik?

Kompleks yondashuvga asoslangan faol profilaktika va reabilitatsiya konsepsiyasi mualliflari antinarkotik profilaktikani muayyan mazmun, bosqichma-bosqich rivojlanish va aniq yakuniy natijaga ega bo‘lgan, yagona davlat dasturi doirasida tashkil etiladigan, davlat va jamoat tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimi sifatida talqin qilinad.

Profilaktikani aynan bunday faoliyat tizimi sifatida tushunish, giyohvand moddalarni iste’mol qilish va ularning noqonuniy aylanishining oldini olishga qaratilgan umumdavlat profilaktika tizimi doirasida ta’lim muhitida olib boriladigan profilaktika faoliyatini alohida kichik tizim sifatida ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Mazkur kichik tizim esa o‘ziga xos maqsad va vazifalarga ega bo‘lib, u umumiy strategiyaning tarkibiy qismi sifatida xizmat qiladi.Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni suiiste’mol qilishning oldini olish bu ushbu moddalarning tarqalishi, ularni qo‘llashga olib keluvchi sabab va shart-sharoitlarni barvaqt aniqlash, ularni bartaraf etish va insonlarni, ayniqsa, yoshlarni giyohvandlikka moyillikdan himoya qilishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar majmuasidir.

Bunday profilaktika:

ijtimoiy (oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari orqali ta’sir o‘tkazish);

ma’rifiy (maktab va oliygohlarda ta’lim-tarbiya ishlari orqali tushuntirish);

tibbiy-psixologik (salomatlikni mustahkamlash, stressni yengish, qo‘llab-quvvatlash);

Uning maqsadi odamlarning, ayniqsa yoshlar va voyaga yetmaganlarning giyohvand moddalarga bo‘lgan qiziqishini bartaraf etish, ularni sog‘lom hayot tarziga yo‘naltirish va suiiste’mol oqibatlarini oldini olishdan iborat.

Huquqshunos olimlar jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish hamda profilaktikasi haqida so‘z yuritar ekan, bu tushunchalarni jinoyat va huquqbuzarliklarni keltirib chiqaradigan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish yoki ularning ta’sirini kamaytirishga qaratilgan davlat va jamoatchilik hamkorligida amalga oshiriladigan umumiy ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy, madaniy-tarbiyaviy va huquqiy chora-tadbirlar majmuasi sifatida talqin qiladilar.

Bu chora-tadbirlar jamiyatdagi jinoyatchilik darajasini kamaytirish, aholi o‘rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, sog‘lom ijtimoiy muhit yaratishga qaratilgan tizimli va barqaror faoliyatni o‘z ichiga oladi.

Jinoyatlarning profilaktikasi tushunchasi mazmunini aniqlashda ko‘plab huquqshunos olimlar uning mohiyatini ham keng, ham tor ma’nolarda talqin qiladilar.

Keng ma’noda profilaktika - bu jinoyatlarning sodir etilishining oldini olish, jamiyat a’zolarini huquqqa zid, jazoga tortiladigan qilmishlarni sodir etishdan saqlashdir. Bu ma’noda profilaktikaga huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati ham kiradi.

Tor ma’noda profilaktika - bu jinoyatlarni keltirib chiqaradigan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, o‘zining jamiyatga qarshi yo‘nalgan xulq-atvori bilan kelgusida huquqbuzarlik sodir etishi mumkin bo‘lgan shaxslarni aniqlab, ular bilan maqsadli profilaktik ishlar olib borish faoliyatini anglatadi[16].

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasi profilaktikasi - bu ushbu illatlarni keltirib chiqaradigan ijtimoiy, huquqiy va kriminogen omillarni bartaraf etishga, ularga moyillik belgilari mavjud bo‘lgan shaxslar bilan maqsadli ishlashga va jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan, davlat va jamoatchilik hamkorligida amalga oshiriladigan tizimli chora-tadbirlar majmuasidir.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasi butun dunyo hamjamiyati oldida turgan eng jiddiy tahdidlardan biridir. Ushbu muammo nafaqat alohida shaxslar sog‘lig‘iga, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishiga, ijtimoiy xavfsizlikka va davlatlarning milliy xavfsizligiga ham katta zarar yetkazmoqda. Shu bois xalqaro tashkilotlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, MDH va boshqa mintaqaviy tuzilmalar hamda alohida davlatlarning siyosiy va huquqiy tizimlari giyohvandlikka qarshi kurashda alohida e’tibor qaratmoqda. Xususan, profilaktika choralari barcha sohalarda ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Chunki muammo paydo bo‘lgach, uni bartaraf etish nihoyatda murakkab va katta xarajatlarni talab qiladi. Ammo uning oldini olish imkoniyatlari samarali qo‘llansa, ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Umumiy xulosa qilib aytganda, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashda profilaktika eng muhim va ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Profilaktika choralari faqat davlat siyosati darajasida emas, balki butun jamiyat miqyosida olib borilishi kerak. Xalqaro hamkorlik, milliy qonunchilikning takomillashuvi, jamoatchilik ishtiroki, ta’lim va tarbiya tizimidagi chora-tadbirlar, shuningdek, reabilitatsiya va ijtimoiy reintegratsiya dasturlari uyg‘un

[16] UNODC rasmiy sayti: www.unodc.org

holda qo‘llanilgandagina samarali natijalarga erishish mumkin. Giyohvandlikka qarshi kurashning muvaffaqiyati, avvalo, uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning qanchalik samarali va tizimli tashkil etilishiga bog‘liqdir. Shu bois profilaktika masalasiga ustuvorlik berish nafaqat milliy xavfsizlikni ta’minlash, balki yosh avlodni sog‘lom va barkamol insonlar qilib tarbiyalash, jamiyat barqarorligini mustahkamlashning ham eng to‘g‘ri yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – 1999-yil 19-avgust.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5099-son Farmoni – “Narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-dekabrdagi 1067-son qarori – “Giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatchilikning oldini olish va nazoratni kuchaytirish to‘g‘risida”.
6. BMTning 1988-yil 20-dekabrdagi “Narkotik vositalar va psixotrop moddalar noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Konvensiyasi.
7. BMTning 1961-yilgi “Narkotik moddalar to‘g‘risida yagona konvensiyasi” va unga 1972-yilgi tuzatishlar.
8. Karimov, A. “Giyohvandlikka qarshi kurashda profilaktika choralari va ularning samaradorligi.” – *Ijtimoiy fanlar jurnali*, 2022, №3, 45–52-betlar.
9. Abdurahmonova, N. “O‘smirlar o‘rtasida giyohvandlikning oldini olishda oilaning roli.” – *Huquq va jamiyat*, 2021, №5.
10. Hasanov, B. “Narkotik moddalarga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o‘rni.” – *Ichki ishlar akademiyasi axborotnomasi*, 2020, №2.
11. UNODC. *World Drug Report 2024*. – Vienna: United Nations Office on Drugs and Crime, 2024.
12. To‘rayev, S. “Profilaktika tizimini kuchaytirish orqali giyohvandlikka qarshi kurashni takomillashtirish yo‘llari.” – *Huquqiy tadqiqotlar jurnali*, 2024, №4.

BARQAROR RIVOJLANISH VA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNING HUQUQIY POYDEVORI

Pulatova Zulfiya Abduazizovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi universiteti
“Tillarni o‘rganish” kafedrasi dosenti,pedagogika fanlari
bo‘yichafalsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasida ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish va fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlashga doir normalarning mazmuni tahlil qilinadi. Shuningdek, demokratik boshqaruv, huquq ustuvorligi va ijtimoiy adolat tamoyillari bilan ekologik siyosat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik yoritiladi.

Аннотация: В данной статье анализируется содержание норм обновлённой Конституции Республики Узбекистан, направленных на обеспечение экологической безопасности, устойчивого развития и экологических прав граждан. Также освещается взаимосвязь между демократическим управлением, верховенством закона и принципами социальной справедливости в контексте экологической политики.

Abstract: This article analyzes the content of the updated Constitution of the Republic of Uzbekistan, focusing on provisions ensuring environmental security, sustainable development, and citizens’ environmental rights. It also explores the interconnection between democratic governance, the rule of law, and social justice principles within the framework of environmental policy.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, ekologiya, barqaror rivojlanish, huquqiy davlat, demokratiya, fuqarolik jamiyati, yashil iqtisodiyot, islohot, huquqiy madaniyat, ekologik siyosat.

Ключевые слова: Конституция, экология, устойчивое развитие, правовое государство, демократия, гражданское общество, зелёная экономика, реформы, правовая культура, экологическая политика.

Key words: Constitution, ecology, sustainable development, rule of law, democracy, civil society, green economy, reform, legal culture, environmental policy.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yilda qabul qilingan yangilangan Konstitutsiyasi mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu hujjat inson huquqlari, ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta’minlashda huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda [1]. Konstitutsiyaviy islohotlar demokratik jamiyatning asosiy tamoyillarini mustahkamlab, ekologik siyosatni davlat strategiyasining ajralmas qismi sifatida e’tirof etadi.

Asosiy qism

Yangilangan Konstitutsiyaning 49-moddasida “Har bir inson sog‘lom atrof-muhitda yashash huquqiga ega” degan norma mustahkamlandi. Bu norma ekologik huquqning, demak, inson huquqlarining tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi [2]. Davlat esa ekologik xavfsizlikni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va bioxilma-xillikni saqlash majburiyatini oladi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha bo‘lgan kun tartibi bilan uyg‘un holda ishlab chiqilgan [3]. O‘zbekiston “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslanib, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish, chiqindilarni qayta ishlash va atrof-muhit monitoringini kuchaytirish borasida aniq strategiyalarni amalga oshirmoqda.

Demokratik huquqiy davlatning rivojlanishida ekologik huquqiy madaniyatni yuksaltirish ham muhim o‘rin tutadi. Fuqarolik jamiyati institutlari — nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik ekologik nazorati tizimini kuchaytirishda faol ishtirok etmoqda [4].

Hozirgi kunda O‘zbekiston ekologik qonunchiligi bir nechta alohida qonun va normativ-huquqiy hujjatlarga tayanadi. Bu esa ayrim hollarda ularning o‘zaro muvofiqligida huquqiy bo‘shliqlar va takrorlanishlarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli ekologiya sohasidagi mavjud qonunlarni yangilangan Konstitutsiya normalariga moslashtirish, ularni yagona tizim asosida birlashtirish zarur. Bunda xalqaro ekologik huquq tamoyillarini – masalan, “ifloslantiruvchi to‘laydi” prinsipi, biologik xilma-xillikni saqlash hamda ekologik adolat tamoyillarini milliy huquq tizimiga singdirish muhim. Shu asosda yagona “Ekologik kodeks” ishlab chiqilishi mamlakatda ekologik boshqaruvni samarali amalga oshirish, javobgarlik va nazorat mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ekologik siyosatni faqat ma’muriy choralar asosida emas, balki ilmiy tahlillarga tayangan holda shakllantirish lozim. Shu maqsadda ekologik xavflarni baholash, atmosfera, suv va tuproq sifatini monitoring qilishning raqamli va sun’iy intellekt asosidagi tizimlarini joriy etish muhim. Bu tizimlar ekologik holatni real vaqt rejimida kuzatish, favqulodda holatlarni erta aniqlash va tezkor choralar ko‘rishga imkon beradi. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta’lim muassasalari va davlat idoralari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali ekologik innovatsiyalar va yashil texnologiyalarni amaliyotga joriy etish zarur.

Ekologik islohotlarning samarasi, avvalo, jamiyat a’zolarining ekologik ong va huquqiy madaniyat darajasiga bog‘liq. Shu sababli ta’lim tizimining barcha bosqichlarida — maktabdan boshlab oliy ta’limgacha — “Ekologik huquq” fanini kiritish, ekologik savodxonlikni oshirishga qaratilgan davlat dasturini ishlab chiqish muhim. Bu dasturda interaktiv o‘quv platformalari, mahalliy ekologik tashabbuslarni rag‘batlantirish, ijtimoiy tarmoqlarda ekologik axborotni ommalashtirish

mexanizmlari nazarda tutilishi kerak. Ekologik huquqiy madaniyatni oshirish nafaqat ekologik qonunbuzarliklarning kamayishiga, balki fuqarolarning tabiatga mas’uliyatli munosabatini shakllantirishga olib keladi.

O‘zbekiston hududlari tabiiy-iqlimiy sharoiti, resurs salohiyati va ekologik muammolari jihatidan farqlanadi. Shu bois, har bir viloyat uchun hududiy ekologik xavfsizlik strategiyasi ishlab chiqish zarur. Bu strategiyalar ekologik monitoring natijalariga asoslanib, hududning ekologik holati, chiqindilar miqdori, suv resurslari va havo ifloslanish darajasiga qarab shakllantiriladi. Har bir hudud uchun aniq indikatorlar, maqsadli dasturlar va moliyaviy manbalar belgilanib, ularning bajarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish lozim. Bundan tashqari, mahalliy hokimiyatlar huzurida ekologik inqiroz zonalari bo‘yicha maxsus ishchi guruhlar tashkil etilishi tavsiya etiladi.

Markaziy Osiyo mintaqasida transchegaraviy ekologik muammolarni hal etish uchun qo‘shma ekologik monitoring tizimlari yaratish zarur [5]. Transchegaraviy ekologik muammolar — bu bir davlat hududida yuzaga kelib, lekin boshqa qo‘shni davlatlarning tabiiy muhitiga ham ta’sir ko‘rsatuvchi ekologik jarayonlardir. Markaziy Osiyoda bunday muammolar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Amudaryo va Sirdaryo havzalarida suv resurslarining kamayishi va ifloslanishi, Orol dengizi inqirozi, havo ifloslanishining hududlararo tarqalishi, cho‘llanish va tuproq eroziyasi, biologik xilma-xillikning kamayishi kabi holatlar.

Bu muammolarni har bir davlat alohida hal qila olmaydi, chunki ularning tabiati chegaradan o‘tuvchi (transchegaraviy). Shu sababli qo‘shma ekologik monitoring tizimlari zarur.

Yangilangan Konstitutsiya O‘zbekistonning ekologik siyosatini yangi bosqichga olib chiqdi. Unda ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish va demokratik boshqaruv o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik o‘z ifodasini topgan bo‘lib, bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy rivojlanish strategiyasida tub burilish yasadi. Konstitutsiyada har bir insonning sog‘lom atrof-muhitda yashash huquqi mustahkamlanishi — ekologik qadriyatlarni davlat siyosatining markaziga olib chiqdi. Bu norma davlatning ekologik siyosatini faqat resurslarni boshqarish masalasi sifatida emas, balki inson huquqlari va ijtimoiy adolat bilan chambarchas bog‘liq tizim sifatida talqin etish zarurligini ko‘rsatadi. Markaziy Osiyo mintaqasida transchegaraviy ekologik muammolarni hal etish uchun qo‘shma monitoring tizimlarini yaratish tashabbusi mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim qadam hisoblanadi. Umuman olganda, yangilangan Konstitutsiya nafaqat O‘zbekistonning ekologik siyosatini modernizatsiya qildi, balki uni demokratik qadriyatlar, ilmiy innovatsiyalar va xalqaro hamkorlik bilan uyg‘un holda rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi. Shu asosda ekologik xavfsizlik, huquqiy

madaniyat va fuqarolik faolligi mamlakatning ekologik hamda demokratik taraqqiyotining asosiy kafolati bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // Oliy Majlis nashriyoti. Toshkent, 2023.
2. Karimov I. Ekologik xavfsizlik va inson huquqlari tizimi. Kitob. // Adolat nashriyoti. Toshkent, 2023.
3. United Nations. Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development. // UN Publications. New York, 2015.
4. Jo‘rayev A. Fuqarolik jamiyati va ekologik mas’uliyat. Kitob. // Iqtisodiyot nashriyoti. Toshkent, 2024.
5. United Nations Development Programme (UNDP) Uzbekistan. Regional Environmental Cooperation in Central Asia. Hisobot. // UNDP Uzbekistan. Toshkent, 2024.

O‘ZBEKISTONDA SIYOSIY PARTIYALAR FAOLIYATINING KONSTITUTSIYAVIY-ME’YORIY ASOSLARI

Rasulova Nodira Sardarovna,
Jamoat xavfsizligi universiteti professori,
tarix fanlari doktori, dotsent
Tolipov Abdug‘affor Abdunabi o‘g‘li,
Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘i,
s.f.b.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mamlakat siyosiy partiyalarining faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari yaratilishidagi o‘rni, respublikamizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalarning shakllanish jarayonlari tahlil qilingan, shuningdek siyosiy partiyalarning faoliyatini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar: Konstitutsiya, siyosiy partiyalar, qonunlar, siyosiy huquqlar, ko‘ppartiyaviylik, demokratiya, fuqarolar, elektorat, raqobat.

Аннотация: В статье анализируются место Конституции Республики Узбекистан в создании законодательства, регулирующего деятельность политических партий страны, процесс возникновения политических партий, действующих в республике, а также даны предложения и рекомендации по совершенствованию деятельности политических партий.

Ключевые слова: Конституция, политические партии, законы, политические права, многопартийность, демократия, граждане, электорат, конкуренция.

Annotation: The article analyzes place of the Constitution of the Republic Uzbekistan in the creation of legislation, regulating the activity of political parties of the country, process of emergence of political parties operating in the republic, as well as proposals and recommendations for improving the activities of political parties.

Key words: The Constitution, political parties, laws, political rights, multiparty system, democracy, people, electorate, competition.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng o‘zining yangi Konstitutsiyasida ijtimoiy taraqqiyotning yangi konsepsiyasini belgiladi; Konstitutsiyaviy huquqni tartibga solish, huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati barpo etish manfaatlariga mos qonun-qoidalar, omillarni belgiladi; o‘z xalqining faoliyatini tashkil qilish negizlarini, inson manfaatlari birinchi darajaga ko‘tarilganligini mustahkamladi. Zero, qonun ustuvorligi huquqiy davlatning asosiy prinsipidir.

O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining “Siyosiy huquqlar” deb nomlangan VIII-bobi fuqarolarning siyosiy huquqlariga bag‘ishlangan. Siyosiy huquqlarning negizini fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish, davlat organlarinig faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish; ijtimoiy faolliklarini qonun doirasida mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish; kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalari va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarida qatnashish, davlat organlari, muassasalari yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqlari tashkil qiladi. Bu huquqlar, mazmun jihatdan, O‘zbekistonda shakllanib borayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining siyosiy asosi hisoblanadi.

O‘zbekistonda siyosiy partiyalarning vujudga kelish jarayoni, keng ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalash va himoya qilishga qaratilgan dastlabki qadamlari, o‘z dasturiy yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqish borasidagi amaliy tadbirlari g‘oyaviy-tashkiliy maqsadlarini amalga oshirish uchun xalq ommasiga kirib borishga qaratilgan amaliy faoliyati, ushbu jarayonlarda vujudga kelgan muammo va ziddiyatlarning har tomonlama o‘rganilishi va tahlil etilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Turli ijtimoiy partiya va harakatlarning qonuniylik sharti rasmiy hokimiyatga qarama-qarshi turishda emas, uni qo‘llab-quvvatlashda, keng omma qatlamining, turli ijtimoiy guruhlarning va eng avvalo, insoning manfaatlarini himoya qilishni o‘zida aks ettirishdan iborat. Jamiyatda siyosiy partiyalar hamda manfaatlar guruhlarining mavjud bo‘lishi va real munosabatlarni aks ettirgan holda faoliyat ko‘rsatishi –

demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy garovi bo‘lib xizmat qiladi.

Albatta, siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining turli ijtimoiy guruh va tabaqalarning siyosiy manfaatlarini ifodalovchi muhim siyosiy institutlaridan hisoblanadi. Chunki siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining siyosiy tizim bilan o‘zaro aloqadorligining doimiyligini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda siyosiy partiyalarning vujudga kelish jarayoni, keng ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalash va himoya qilishga qaratilgan dastlabki qadamlari, o‘z dasturiy yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqish borasidagi amaliy tadbirlari g‘oyaviy-tashkiliy maqsadlarini amalga oshirish uchun xalq ommasiga kirib borishga qaratilgan amaliy faoliyati, ushbu jarayonlarda vujudga kelgan muammo va ziddiyatlar har tomonlama o‘rganilishi va tahlil etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, Konstitutsiyaning 12-moddasida belgilanganidek, “O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi” [1].

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq respublikada siyosiy tizimni rivojlantirish, siyosiy partiyalarning erkin faoliyati uchun imkoniyatlar yaratish orqali bu borada quyidagi muhim masalalar hal etildi:

birinchidan, bir partiyali ijtimoiy-siyosiy tizimdan haqiqiy ko‘ppartiyaviylikka, monopolizm mafkurasidan – siyosiy plyuralizmga o‘tish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar ta’minlandi. Xususan, O‘zbekiston Konstitutsiyasida siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlarga birlashishdek huquqlari asosida faoliyat ko‘rsatishi uchun mustaqil huquqiy negiz yaratildi. Partiyalar aholining turli ijtimoiy tabaqalari va guruhlari siyosiy irodasining ifodachilari sifatida o‘zlarining saylangan vakillari orqali davlat hokimiyatini shakllantirishda ishtirok etish imkoniga ega bo‘ldilar;

ikkinchidan, bitta rahbar partiyaning «yetakchi roliga» asoslangan saylov tizimidan dunyo e’tirof etgan normalarga javob beruvchi ko‘p partiyali saylov tizimiga o‘tish uchun qonuniy kafolatlar ta’minlandi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida mamlakatda ko‘ppartiyaviylik tizimini, siyosiy partiyalarning huquq va erkinliklarini, saylov qonunchiligini rivojlantirishga qaratilgan qator qonun hujjatlari bosqichma-bosqich qabul qilina boshladi. Jumladan, 1994 yilda «Fuqarolarning saylov huquqlari kafolatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi fuqarolarning faol saylov huquqi va o‘z irodasini bildirish erkinligini amalga oshirish mexanizmlarini mustahkamlab qo‘ydi.

1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»gi qonunda mamlakat Konstitutsiyasining amaldagi partiyalarning hech biri davlat siyosatini belgilashda monopol huquqqa da’vogarlik qila olmasligi haqidagi qoidasi

rivojlantirilib, ko‘p partiyali tizimning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur huquqiy asos yaratildi [2].

2004 yilda «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi partiyalar faoliyatini moliyalashtirishning huquqiy asoslarini yaratib, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligi ortishiga turtki bo‘ldi.

2008 yil 1 yanvardan kuchga kirgan «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni parlamentda sog‘lom siyosiy kurash uchun huquqiy zamin bo‘ldi, jamiyat oldida turgan dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etishda siyosiy partiyalar o‘rtasida konstruktiv raqobat rivojlanishi uchun sharoit yaratdi.

Mamlakat parlamenti to‘g‘risidagi hujjatlariga («O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida»gi va «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamenti to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy qonunlar va boshqalar) siyosiy partiyalarning parlamentdagi fraksiyalarini tuzish tartibi va ularning faoliyat yuritishini takomillashtiruvchi normalar ilk marotaba kiritildi, Qonunchilik palatasi ko‘ppartiyaviylik asosida shakllantirilishi haqidagi qoida mustahkamlab qo‘yildi [3].

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingach, siyosiy partiyalar o‘z dasturlarida belgilangan maqsad va maslaklarni davlat hokimiyatining oliy va mahalliy vakillik organlari faoliyatida ishtirok etish orqali hayotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Konstitutsiyaning 74-moddasida siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi quyidagicha belgilangan, ya’ni “Siyosiy partiyalar turli ijtimoiy tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o‘zlarining demokratik yo‘l bilan saylab qo‘yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o‘z faoliyatining moliyashtirilishi manbalari haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga yoki u vakolat bergan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar taqdim etadilar” [4].

- O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra, “siyosiy partiya – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro‘yobga chiqarishga intiluvchi hamda o‘z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko‘ngilli birlashmasidir” [5].

O‘zbekiston Respublikasi “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonunining 12-moddasiga ko‘ra, “Siyosiy partiyalar saylab qo‘yiladigan davlat organlaridagi o‘z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish, qonunda belgilab qo‘yilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish” kabi huquqlarga ega. Partiyalarning eng muhim maqsadi –

bu ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini siyosiy tizimda ifoda etishdir. Partiyalar turli ijtimoiy guruhlar, qatlamlarning manfaatlarini jamiyatning siyosiy tizimida ifoda etish yo‘li bilan davlat bilan jamiyat o‘rtasidagi bog‘lovchilik va vositachilik funksiyalarini bajaradi, shu bilan bir vaqtda ular jamiyatning yaxlitligi va bir butunligini ta’minlaydi.

Siyosiy partiyalar davlat hokimiyatining quyidagi organlarini shakllantirishda ishtirok etish huquqiga ega:

3. Qonun chiqaruvchi hokimiyat (Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi).
4. Ijro etuvchi hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, mahalliy davlat hokimiyati organlari).

Siyosiy partiya jamiyat hayotida bir qator hayotiy muhim vazifalarni bajaradi, jumladan, davlat vakillik organlarini shakllantirish va almashtirish mexanizmlarini yaratishda ishtirok etadi. O‘z vazifalarining aksariyatini hozirgi partiyalar saylovda ishtirok etish va so‘ngra hokimiyat vakillik organlarida ishlash mexanizmlari orqali amalga oshiradilar.

Hozirgi vaqtda siyosiy partiyalar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarini shakllantirishda yetakchi rol o‘ynaydilar, chunki aynan ular saylovda ishtirok etuvchi birdan-bir tashkiliy-jamoaviy subyektlar hisoblanadilar. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga bo‘lib o‘tadigan saylovlar jarayonida siyosiy partiyalar ishtirokining kafolatlariga saylov komissiyalarini shakllantirishda siyosiy partiyalarning ishtirokini; ularning nomzodlar kiritish imkoniyatini; saylovoldi tashviqoti shakllari va usullarining keng doirasi mustahkamlanganligini; saylov kampaniyasi majburiylik, ochiqlik, oshkoralik va o‘z vaqtidalik asosida davlat tomonidan moliyalashtirilishini; ovoz berish jarayonini kuzatish institutining mavjudligini; saylovni o‘tkazish jarayoni ustidan davlat nazoratini kiritish mumkin. Binobarin, elektoral funksiya hozirgi sharoitda siyosiy partiyaning eng muhim funksiyasiga aylangan [6].

Hozirgi kunda siyosiy partiyalar o‘z harakat dasturlari va saylovoldi platformalarining mazmuniga borgan sari ko‘proq ahamiyat bera boshladilar. Ularda partiyalar o‘z elektoratining xohish-irodasiga asoslanib, faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini aks ettirmoqdalar. Mamlakat parlamentidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari faoliyatining qonunchilik shart-sharoitlari va siyosiy kafolatlari yaratildi.

Umuman olganda, respublikamizda ko‘ppartiyaviylikning shakllanishi – murakkab, serqirra muammo bo‘lib, nafaqat mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatni bilishni, balki respublikamiz va boshqa mamlakatlarning tarixiy tajribasini o‘rganishni ham talab qiladi. U ijtimoiy-falsafiy, huquqiy, sotsiologik, iqtisodiy va boshqa ko‘plab jihatlarga ega.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, bugungi kunda O‘zbekiston siyosiy partiyalarining faoliyatini yanada takomillashtirish borasida bir qator takliflarni berish maqsadga muvofiqdir:

– siyosiy partiyalar o‘zlari orasidan davlatni har qanday darajada boshqara oladigan yetakchilarni ilgari surishi, saylovchilar va parlamentdan tegishli ishonch mandatini olganida ijro etuvchi hokimiyatni o‘z qo‘liga olishga tayyor bo‘lgan professional elitani tayyorlab borishlari;

– siyosiy partiyalarning o‘z faoliyati haqidagi hisobotlari va kelgusidagi ish rejalarini fuqarolarga ommaviy axborot vositalari (partiya nashrlari, televidenie, internet kabilar), konferensiyalar, davra suhbatlari, mahorat maktablari orqali doimiy ravishda yetkazishlari;

– o‘z elektoratining manfaatlaridan kelib chiqib hamda jahon tajribasidan foydalanib, o‘z dastur va nizomlarini tanqidiy-tahliliy jihatdan qayta ishlashlari;

– siyosiy partiyalar nafaqat o‘zaro raqobatlasha oladigan, balki amaldagi hukumat siyosatiga ham tanqidiy baho bera oladigan, muqobil g‘oyalarni ilgari surib, amaliy dasturlar taklif qila oladigan darajaga yetishlari va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, siyosiy partiyalar faoliyatining kengayishi orqali aholining siyosiy va huquqiy faolligi ortadi, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlaydigan mexanizmlar shakllanadi.

References:

7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. – B. 8.

8. «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 dekabr qonuni //O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. – 1997.– № 2. – 36-modda.

9. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrdagi Konstitutsiyaviy qonuni //O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. – 2002. – № 12. – 215-modda; 2003. – № 5. – 67-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining axborotnomasi. – 2007. – № 4. – 163-modda; № 7. – 326-modda; «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining 2003 yil 29 avgust qonuni //O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. – 2003. – № 9–10. – 136- modda.

10. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. – B. 38.

11. «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 dekabr qonuni //O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. – 1997.– № 2. – 36-modda.

12. Пугачев В.П., Соловьев А.И. 2004. Сиёсатшуносликка кириш. – Т.: “Янги аср авлоди”. – Б.404.

ЎЗБЕКИСТОН КОНСТИТУЦИЯСИ 53-МОДДАСИГА КЎРА ШАХСНИНГ ИЖОД ҚИЛИШ ЭРКИНЛИГИНИНГ КАФОЛАТЛАРИ

Бабакулов З.К.
Жамоат хавфсизлиги университети профессори,
юридик фанлар доктори, доцент

Аннотация. Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 53-моддасида белгиланган ижод қилиш эркинлиги ва унинг ҳуқуқий кафолатлари илмий-назарий ҳамда қиёсий-ҳуқуқий жиҳатдан таҳлил қилинган. Ижодий фаолиятнинг конституциявий асослари Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси ва Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги Халқаро Пакт нормалари билан ўзаро боғлиқ ҳолда ёритилган. Мақолада ижод эркинлигини амалий таъминлашда учраётган қатор ҳуқуқий ва институционал муаммолар интеллектуал мулк ҳуқуқларини ҳимоя қилиш механизмларининг самарасизлиги, рақамли муҳитдаги киберқароқчилик ўсиши, онлайн контентни ноқонуний тарқатиш, суд амалиётидаги техник экспертиза етишмовчилиги, маданий мерос объектларини рақамлаштиришдаги ҳуқуқий бўшлиқлар каби масалалар батафсил ёритилган.

Калит сўзлар: ижод эркинлиги; конституциявий кафолатлар; интеллектуал мулк; муаллифлик ҳуқуқи; рақамли муҳит; киберқароқчилик; рақамли пиратлик; Интернет ҳуқуқбузарликлари; TRIPS; рақамлаштириш; ахборот хавфсизлиги; онлайн платформалар.

Annotation. This article provides a scholarly and comparative-legal analysis of the freedom of creativity and its constitutional guarantees as enshrined in Article 53 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. The constitutional foundations of creative activity are examined in correlation with the provisions of the Universal Declaration of Human Rights and the International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights. The article also elaborates on several legal and institutional challenges hindering the effective realization of creative freedom, including the inefficiency of intellectual property protection mechanisms, the growth of digital piracy, the illegal distribution of online content, the insufficiency of technical forensic expertise in judicial practice, and legal gaps in the digitization of cultural heritage objects.

Key words: creative freedom; constitutional guarantees; intellectual property; copyright; digital environment; cyber piracy; digital piracy; internet infringements; TRIPS; digitization; information security; online platforms.

Аннотация. В данной статье проведён научно-теоретический и сравнительно-правовой анализ свободы творчества и её конституционных

гарантий, закреплённых в статье 53 Конституции Республики Узбекистан. Конституционные основы творческой деятельности рассмотрены во взаимосвязи с положениями Всеобщей декларации прав человека и Международного пакта об экономических, социальных и культурных правах. В статье подробно раскрыты правовые и институциональные проблемы, препятствующие эффективной реализации свободы творчества, такие как недостаточная эффективность механизмов защиты интеллектуальной собственности, рост цифрового пиратства, незаконное распространение онлайн-контента, недостаток технических экспертиз в судебной практике, а также правовые пробелы в процессе цифровизации объектов культурного наследия.

Ключевые слова: свобода творчества; конституционные гарантии; интеллектуальная собственность; авторское право; цифровая среда; киберпиратизм; цифровое пиратство; интернет-правонарушения; TRIPS; цифровизация; информационная безопасность; онлайн-платформы.

Ижод қилиш эркинлиги ҳар қандай демократик жамиятнинг маънавий-маданий пойдевори ҳисобланади. Инсоннинг илмий, техникавий, бадиий ва адабий фаолият билан шуғулланиши, интеллектуал маҳсулот яратиши ва уни жамоатчиликка етказиш ҳуқуқи нафақат шахсий эркинлик сифатида, балки жамиятнинг умумий тараққиётини таъминловчи стратегик омил сифатида намоён бўлади. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 53-моддаси айнан шу тамойилни мустаҳкамлаб, **“илмий, техникавий ва бадиий ижод эркинлиги”, “маданият ютуқларидан фойдаланиш ҳуқуқи”** ҳамда **“интеллектуал мулк қонун билан муҳофаза қилиниши”** каби ҳуқуқий кафолатларни конституциявий даражада белгилаб қўйган.

Мазкур норма инсон ҳуқуқлари умумий концепциясидаги ижодий эркинликнинг ажралмас қисми бўлиб, унинг мазмуни БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 1948 йил 10 декабрда қабул қилинган Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясида ҳам, хусусан унинг 27-моддасида ўз ифодасини топган. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясининг мазкур моддаси ҳар бир инсоннинг жамиятнинг маданий ҳаётида эркин иштирок этиш, санъатдан баҳраманд бўлиш ва илм-фан тараққиётида иштирок этиш ҳуқуқини тан олади. Ушбу ҳуқуқлар инсоннинг маданий мерос, илмий ютуқлар ва бадиий асарлардан фойдаланишда тенг ва эркин имкониятларга эга бўлишини талаб қилади.

Шу билан бирга, Декларациянинг 27-моддаси ҳар бир инсон муаллифи бўлган илмий, адабий ёки санъат асарларидан келиб чиқадиган маънавий ва моддий манфаатларининг ҳимоя қилиниши зарурлигини белгилайди. Демак, Декларациянинг мазкур нормаси бир томондан маданий ҳаётда иштирок этиш ва илмий тараққиётдан баҳраманд бўлиш ҳуқуқини кафолатлар экан, иккинчи

томондан ижод маҳсулотининг муаллифи сифатида инсоннинг шахсий, маънавий ва иқтисодий манфаатларини муҳофаза қилишга қаратилган.

БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 1966 йил 16 декабрда қабул қилинган ва 1976 йил 3 январдан кучга кирган “Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги Халқаро Пакт нинг 15-моддаси инсоннинг маданий ҳаётдаги иштирокини, илмий тараққиётдан фойдаланиш ҳуқуқини ва ижодкор манфаатларининг муҳофазасини халқаро-ҳуқуқий даражада кафолатлайди. Мазкур модда, моҳиятан, Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясининг 27-моддасида белгиланган тамойилларни янада мустаҳкамлаб, ижод эркинлигини амалий таъминлашга қаратилган давлат мажбуриятларини аниқ белгилаб беради.

Биринчи навбатда, Пакт ҳар бир инсоннинг илмий тараққиёт ва уни амалда қўллаш натижаларидан фойдаланиш, маданий ҳаётда иштирок этиш ва давлатда илм-фан ютуқларидан кенг фойдаланиш имкониятига эгалигини эътироф этади. Бу қоида жамиятнинг интеллектуал ривожланиши, инновацион фаолият ва маданий бойликларга кенг оммавий киришни таъминлаш учун ҳам ҳуқуқий, ҳам институционал асосдир.

Шу билан бирга, Пактнинг 15-моддаси ҳар бир инсон ўзи муаллиф бўлган илмий, адабий ёки бадиий асарлар билан боғлиқ маънавий ва моддий манфаатлар ҳимоясидан фойдаланиш ҳуқуқига эгалигини белгилайди. Бу қоида муаллифлик ҳуқуқи, патент ҳуқуқи, бадиий ва илмий ижод назарда тутилган барча интеллектуал мулк турларини халқаро миқёсда муҳофаза қилишни кафолатлайди. Демак, модда ижод маҳсулоти билан боғлиқ бўлган шахсий (маънавий) ва мулкий (иқтисодий) манфаатларнинг тўла ҳимоя қилиниши зарурлигини таъкидлайди.

Пакт, шунингдек, мазкур ҳуқуқларни рўёбга чиқариш давлатлардан қатор аниқ чораларни амалга оширишни талаб қилади. Хусусан, фан ва маданият ютуқларини ҳимоя қилиш, ривожлантириш ва уни кенг ёйиш давлат томонидан таъминланиши шарт. Бу эса таълим, илм-фан, санъат ва маданият соҳаларида оқилона сиёсат юритиш, инновацияларни қўллаб-қувватлаш ва ижодкорлар учун институционал имкониятлар яратиш билан бевосита боғлиқ.

Модданинг яна бир муҳим қисми шундан иборатки, Пактда иштирок этувчи давлатлар илмий-тадқиқот ва ижодий фаолият учун зарур бўлган эркинликни ҳурмат қилиш мажбуриятини ўз зиммаларига олади. Ижодий ва илмий эркинликка тажовуз қилиш таъқиқланган. Бу тамойил илм-фан мустақиллиги, тадқиқотчилар эркинлиги ва бадиий ижодда цензурага йўл қўймасликни ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамлайди.

Шу билан бирга, ижод эркинлигининг кафолатларини тўлақонли амалга ошириш жараёнида бир қатор ҳуқуқий ва амалий муаммолар ҳам мавжуд.

Жумладан, интеллектуал мулк ҳуқуқларини таъминлаш механизмлари самарадорлигининг етарли даражада ривожланмагани, ижодкорларнинг иқтисодий манфаатлари ва муаллифликдан олинадиган даромадларни реал ҳимоя қилишдаги қонунчилик бўшлиқлари, интернет ва рақамли муҳитда содир бўлаётган ҳуқуқбузарликларга киберқароқчилик, муаллифлик ҳуқуқларини бузиб кўрсатиш, рақамли контентни ноқонуний тарқатишга қарши курашишдаги институционал муаммолар шулар жумласидандир. Шунингдек, маданий мерос объектларидан фойдаланишдаги чекловлар, ахборот хавфсизлиги талаблари билан ижодий эркинлик ўртасидаги мувозанатни таъминлаш муаммоси, айрим ҳолларда маълумотларни чеклаш ёки цензура элементларининг мавжудлиги ижодий фаолият учун қўшимча ҳуқуқий хавфлар келтириб чиқармоқда.

Айнан ушбу муаммолар ижодий эркинликка оид конституциявий кафолатларни назарий жиҳатдан янада такомиллаштириш, амалда эса уларни таъминлаш механизмларини қайта кўриб чиқиш, янги рақамли муносабатлар шароитига мос қонунчилик ислоҳотларини амалга ошириш зарурлигини яққол кўрсатади.

Ушбу тадқиқотда Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 53-моддасида мустаҳкамланган ижод қилиш эркинлигининг ҳуқуқий табиати, унинг конституциявий кафолатлари ва амалдаги таъминланиш механизмлари комплекс тарзда ўрганилди. Таҳлил доирасида қуйидаги асосий масалалар қамраб олинди:

ижодий фаолиятга оид конституцион-ҳуқуқий нормаларнинг мазмуни ва уларнинг инсон ҳуқуқлари тизимидаги ўрни;

Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси (27-модда) ва Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги Халқаро Пакт (15-модда) нормалари билан миллий қонунчиликнинг ўзаро боғлиқлиги;

интеллектуал мулк ҳуқуқларини амалий муҳофаза қилишдаги тузилмавий камчиликлар жана рақамли муҳитдаги ҳуқуқбузарликлар киберқароқчилик, онлайн контентни ноқонуний тарқатиш, техник ҳимоя механизмларининг етарли эмаслиги;

OECD/EUIPO (2021), U.S. IPEC (2022), Statista (2023) ва WIPO (2022) каби халқаро статистик манбалар асосида дунёдаги рақамли қароқчилик тенденциялари;

маданий мерос объектлари ва музей фондларини рақамлаштириш жараёнидаги лицензиялаш, ҳуқуқ эгалигини аниқлаш ва муаллифлик ҳуқуқларини муҳофаза қилишдаги муаммолар.

Тадқиқотни амалга ошириш жараёнида қуйидаги илмий методлардан фойдаланилди: норматив-ҳуқуқий таҳлил, қиёсий-ҳуқуқий таҳлил, доктринал таҳлил, эмпирик-аналитик усул ва институционал таҳлил.

Интернет ва рақамли муҳитда содир бўлаётган ҳуқуқбузарликлар, хусусан, киберқароқчилик бугунги кунда интеллектуал мулк соҳасидаги энг тез ўсиб бораётган таҳдидлардан бири ҳисобланади. Технологиялар ривожи, контентнинг рақамлашуви ва онлайн платформаларнинг оммавийлашуви ҳуқуқбузарликларнинг янги шаклларини келтириб чиқариб, миллий ва халқаро қонунчилик тизимларидаги бўшлиқларни янада яққол намоён қилмоқда.

Халқаро тадқиқотлар киберқароқчиликнинг кенг қамровли муаммога айланганини кўрсатади. Масалан, OECD ва EUIPO томонидан тайёрланган 2021 йилги ҳисоботга кўра, дунё бўйлаб қалбаки ва ҳуқуқбузар маҳсулотлар билан боғлиқ ноқонуний савдо ҳажми 501 миллиард АҚШ долларига, яъни жаҳон савдосининг тахминан 3,3 % ига тенг эканлиги аниқланган. АҚШ Ижрочи органи томонидан 2022 йилда тайёрланган ҳисоботга кўра, фақат медиа-маҳсулотлар соҳасидаги онлайн пиратлик туфайли иқтисодиёт ҳар йили 29–71 миллиард доллар оралиғида даромад йўқотмоқда. Statista’нинг 2023 йилдаги таҳлиллари эса, онлайн кино-фильм ва сериаллар пиратлиги 2020–2023 йилларда 22 %га ошганини кўрсатади.

Ушбу рақамлар киберқароқчилик нафақат иқтисодий зарар етказаётганини, балки миллий қонунчилик тизимларининг мавжуд механизмлари замонавий рақамли муҳитда етарли даражада самара бермаётганини ҳам кўрсатади. Халқаро ҳуқуқ даражасидаги асосий ҳужжатлар хусусан, Берн конвенцияси (1971), БИМТ Интернет шартномалари (WCT/WPPT, 1996) ва ТРИПС Битими (1994) рақамли мулкни умумий ҳуқуқий муҳофаза қилишни белгиласада, улар рақамли қароқчиликнинг тез ўзгараётган шаклларини қамраб олишга тўла қодир эмас. Масалан, БИМТ Интернет шартномаларида техник ҳимоя воситаларини бузишга қарши чоралар назарда тутилган бўлса-да, бу нормаларни амалга ошириш давлатларда турли даражада таъминланмоқда, натижада ҳуқуқий бирхиллик таъминланмаяпти.

Миллий қонунчиликда ҳам бир қатор бўшлиқлар мавжуд. Ўзбекистон қонунчилигида муаллифлик ва турдош ҳуқуқларни ҳимоя қилиш бўйича умумий нормалар мавжуд бўлсада, рақамли муҳитдаги қароқчиликнинг замонавий шаклларини бўлган VPN орқали контент тарқатиш, торрент платформалар, файлмаълумот алмашинув хизматлари, стриминг қароқчилиги, “camrip” ва “web-rip” форматларини аниқ ҳуқуқий тарзда тартибга солувчи махсус механизмлар етарлича такомиллашмаган. Муаллифлик ҳуқуқини бузганлик учун жавобгарлик мавжуд бўлсада, онлайн муҳитдаги ҳуқуқбузарликларни аниқлаш, исботлаш ва уларга нисбатан самарали ҳуқуқий

таъсир кўрсатиш амалиёти ҳали хануз заиф. Бу эса ижодкорлар ҳуқуқларининг реал ҳимоясини қийинлаштиради.

Бундан ташқари, рақамли иқтисодиётни ривожлантириш жараёнида ахборот хавфсизлиги, контентни лицензиялаш, техник ҳимоя воситаларини қўллаш, интернет-провайдерларнинг мажбурияти ва онлайн-платформаларнинг мажбуриятлари бўйича аниқ ҳуқуқий механизмларни жорий қилиш зарурати хам мавжуд. Маълумки, кўплаб давлатларда (масалан, АҚШнинг DMCA, Европа Иттифоқининг DSM-директиваси) интернет-платформаларнинг жавобгарлиги бўйича махсус қоидалар мавжуд бўлсада, бу каби аниқ механизмлар Ўзбекистон ҳуқуқ тизимида ҳали тўла шаклланмаган.

Муҳокама.

Ўзбекистонда ижод эркинлигини таъминлаш ва интеллектуал мулк ҳуқуқларини ҳимоя қилиш соҳасида бир қатор тизимли масалалар мавжуд бўлиб, улар миллий қонунчилик механизмларни такомиллаштириш заруратини янада кучайтирмоқда. Жумладан:

биринчи навбатда, интеллектуал мулк соҳасидаги ҳуқуқбузарликларни аниқлаш, баҳолаш ва уларнинг олдини олишга масъул идоралар ўртасидаги институционал мувофиқлаштириш етарли даражада тартибга солинмаган. Жумладан, Адлия вазирлиги, Рақамли технологиялар вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги, Бош прокуратура ҳамда киберхавфсизликка оид махсус бўлимлар ўртасида ваколатларнинг аниқ чегараланмаганлиги амалда вазифаларнинг такрорланишига, жавобгарликнинг ноаниқ тақсимланишига ва ҳуқуқбузарликларга қарши курашиш жараёнида самарасизлик юзага келишига сабаб бўлмоқда;

иккинчидан, рақамли муҳитдаги ҳуқуқбузарликларга қарши курашишда техник мониторинг ва тезкор чеклаш механизмларининг етарли даражада ривожланмаганлиги ҳам сезиларли муаммо бўлиб қолмоқда. Хусусан, қароқчи контент жойлаштирилган веб-сайтлар, Telegram-каналлар, файл алмашиш платформалари ва торрент манбалари доменларини тез-тез алмаштириши, прокси ва VPN орқали фаолиятини давом эттириши ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар томонидан уларни аниқлаш, идентификация қилиш ва тўсишни қийинлаштиради. Натижада, рақамли қароқчиликка қарши чоралар самарадорлиги пасайиб, муаллифлик ҳуқуқлари ва интеллектуал мулк объектларининг ҳимоясидан кўзланган натижа тўла амалга ошмайди;

учинчидан, кўплаб ижодкорлар, ёзувчилар, режиссёрлар, мусиқачилар ва IT-мутахассислар миллий бозорда ўз интеллектуал маҳсулотларини тижоратлаштириш жараёнида лицензиялаш, шартнома тузиш ва ҳуқуқларни муҳофаза қилиш механизмлари бўйича етарли амалий тажрибага эга эмас. Шу сабабли, уларнинг иқтисодий манфаатлари етарлича таъминланмайди,

муаллифликдан тушиши лозим бўлган даромадлар тўлиқ олинмайди ва кўп ҳолларда муаллифлик ҳуқуқлари учинчи шахслар томонидан суиистеъмол қилинишига имкон яратилади;

тўртинчидан, онлайн платформалар ва интернет-провайдерлар фаолияти ҳуқуқий мажбуриятлар билан етарли даражада тартибга солинмаган. АҚШдаги DMCA ёки Европа Иттифоқидаги DSM-директиваси каби “notice-and-takedown” механизми мавжуд эмаслиги сабабли, Ўзбекистонда онлайн-платформалар ҳуқуқбузар контентни ўчириш ёки чеклаш бўйича аниқ қонунчилик талабларига эга эмас;

бешинчидан, суд амалиётидаги муаммолар ҳам айнан рақамли муҳитдаги ҳуқуқбузарликлар контекстида долзарб аҳамият касб этмоқда. Хусусан, судларда рақамли контентни баҳолаш, техник далилларни тўғри талқин қилиш, электрон изларни аниқлаш ва уларнинг ҳаққонийлигини ўрнатиш бўйича малакали экспертиза тизими ҳали етарлича шаклланмаган. Техник экспертизаларни ўтказишда замонавий воситаларнинг етишмаслиги, мутахассислар компетенциясининг бир хил эмаслиги ва электрон далилларни процессуал жиҳатдан расмийлаштиришдаги амалиёт саноати умумий самарадорликни пасайтиради. Натижада, муаллифлик ҳуқуқлари бузилиши билан боғлиқ ишлар юзасидан асосли қарорлар қабул қилинишига қатор ҳуқуқий ва амалий тўсиқлар вужудга келиши мумкин;

олтинчидан, аҳолининг катта қисми, айниқса ёшлар орасида қароқчи контентдан фойдаланиш маданияти паст даражада эканлиги ҳам жиддий муаммо сифатида намоён бўлмоқда. Statista ва WIPO томонидан олиб борилган таҳлилларга кўра, Марказий Осиё давлатларида умумий медиа-контент истеъмолининг камида 50 фоиздан ортиғи ноқонуний, қароқчи манбалар орқали амалга оширилади[17]. Ўзбекистонда мазкур йўналишда расмий статистик ҳисоботлар юритилмасада, интернетдаги оммавий каналлар, медиаплатформалар ва эксперт фикрлари асосида шундай хулосага келиш мумкинки, рақамли медиа истеъмолнинг сезиларли қисми VPN орқали хорижий стриминг сервисларига уланиш, торрент трекерлардан фойдаланиш ва турли пират сайтлардан контент юклаш орқали амалга оширилмоқда;

еттинчидан, маданий мерос объектлари ва музей материалларини рақамлаштириш жараёнларида ҳам бир қатор ҳуқуқий ва институционал муаммолар кузатилмоқда. Хусусан, ушбу объектларни рақамли форматга ўтказиш, улардан фойдаланиш, онлайн режимида экспозиция қилиш, қайта ишлаш ёки оммага тақдим этиш жараёнларида лицензиялаш, ҳуқуқ эгалигини аниқлаш, рўйхатдан ўтказиш ва интеллектуал мулк ҳуқуқларини ҳисобга олишга оид механизмлар ҳали тўла шаклланмаган. Натижада,

[17] WIPO (2022). Global Digital Content Consumption Report. https://www.wipo.int

рақамлаштирилган маданий мерос объектларининг ҳуқуқий мақоми, уларга нисбатан муаллифлик ва турдош ҳуқуқларнинг амал қилиши, шунингдек онлайн тақдим этишда ахлоқий ва иқтисодий ҳуқуқларни ҳимоя қилиш каби масалаларда ҳуқуқий ноаниқликлар вужудга келмоқда.

Хулоса.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 53-моддасида белгиланган ижод қилиш эркинлиги ҳар бир шахснинг илмий, техникавий, бадиий ва адабий фаолият билан шуғулланиш ҳуқуқини кафолатлайди ва бу ҳуқуқнинг амалий таъминланиши жамиятнинг интеллектуал ривожланиши учун муҳим аҳамиятга эга. Таҳлил шуни кўрсатадики, ижодий эркинликни тўлиқ таъминлашда қатор ҳуқуқий, институционал ва техник муаммолар мавжуд: интеллектуал мулк муҳофазаси механизмларининг самарасизлиги, рақамли муҳитдаги киберқароқчилик, онлайн контентни ноқонуний тарқатиш, суд амалиётидаги техник экспертизаларнинг етишмаслиги, маданий мерос объектларини рақамлаштиришдаги ҳуқуқий ноаниқликлар шулар жумласидан.

Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси ва Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги Халқаро Пакт стандартлари миллий қонунчиликка тўла имплементация қилинмагани, айниқса интернет ва рақамли муҳитдаги ҳуқуқбузарликларга жавоб қайтарадиган механизмларнинг етарлича ривожланмагани ижодий фаолиятнинг амалий кафолатларини заифлаштирмоқда. Шу сабабли, ижодкорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, интеллектуал мулкдан фойдаланиш ва онлайн муҳитда ҳуқуқий хавфсизликни таъминлаш соҳасида ислоҳотлар жорий этиш давр талаби ҳисобланади.

References

1. БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 1948 йил 10 декабрда қабул қилинган Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси. https://lex.uz/docs/7338189
2. БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 1966 йил 16 декабрда қабул қилинган “Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги Халқаро Пакт. https://lex.uz/docs/2686000
3. https://www.oecd.org/gov/risk/trends-in-trade-in-counterfeit-and-pirated-goods.htm. https://www.oecd.org/gov/risk/trends-in-trade-in-counterfeit-and-pirated-goods-2021.pdf
4. https://www.whitehouse.gov/wp-content/uploads/2022/04/2022-IPEC-Annual-Report.pdf
5. https://www.statista.com/study/102974/digital-piracy-worldwide/
6. WIPO (2022). Global Digital Content Consumption Report. https://www.wipo.int

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI -FUQAROLARINING EKOLOGIK HUQUQLARINI AMALGA OSHIRISHNING KAFOLOTI

Utegenov O.D.
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti professori v.b. yu.f.d.

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining ekologik huquqlari har bir inson uchun qulay muhitni ta’minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy-huquqiy normalarning muhim jihatini ifodalaydi va tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация: Экологические права граждан Республики Узбекистан представляют собой важный аспект конституционных и правовых норм, направленных на обеспечение благоприятной окружающей среды для каждого человека и разработаны соответствующие предложения и рекомендации по проблемам совершенствования.

Abstract: Environmental rights of citizens of the Republic of Uzbekistan represent an important aspect of constitutional and legal norms aimed at ensuring a favorable environment for every person and relevant proposals and recommendations on improvement problems have been developed.

Asosiy qonunimiz xalqimiz uzoq yillar orzu qilgan milliy mustaqilligimiz va rivojlanish yo‘limiz, inson huquq va erkinliklari kafolatlarini belgilab berdi. Qolaversa, Yangi O‘zbekistonda 2023-yili O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririning qabul qilinishi yurtimizda fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash masalasini davlat siyosati darajasiga ko‘tardi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisida davlatimiz rahbari o‘z so‘zida:

“Asosiy qomusimiz kafili sifatida Konstitutsiya va qonunlarimiz talablarini so‘zsiz bajarish, ‘Inson qadri uchun’ degan ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarish bundan buyon ham faoliyatimning bosh mezoni bo‘lib qoladi”,

— deb ta’kidladilar [1].

Fuqarolarning ekologik huquqlari va ularni ta’minlash bugungi kunda har bir davlatning demokratik va insonparvarlik mohiyatining ishonchli ko‘rsatkichi sifatida e’tirof etilmoqda.

Inson va tabiatning o‘zaro uzviy aloqadorligi atrof tabiiy muhitda o‘z aksini topadi. Atrof tabiiy muhitning holati ko‘proq tabiatga emas, balki insonga bog‘liqdir. Biz tabiatdan ajralgan holda yashay olmas ekanmiz, uning ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib qolishimiz zarur. Ekologik xavfsizlikni ta’minlash esa barchamizning burchimizdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida fuqarolarning atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish majburiyati

mustahkamlangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash bilan bog‘liq masalalarni tilga olar ekan, quyidagilarni ta’kidlaydi:

“Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash bilan bog‘liq muammolar to‘g‘risida so‘z yuritar ekan, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o‘tolmaymiz. BMT Bosh kotibining ‘suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o‘zaro chambarchas bog‘liq’, degan pozitsiyasini to‘la qo‘llab-quvvatlaymiz. Ishonchim komil, suv muammosini hal qilishning mintaqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo‘li yo‘q. Biz BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko‘rgan aholiga amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha shu yil qabul qilingan maxsus dastur to‘liq amalga oshirilishi tarafdorimiz” [2].

Darhaqiqat, fan-texnika taraqqiyoti yuksak darajaga yetgan hozirgi asrda insoniyatning hayot kechirish maskani bo‘lmish tabiiy atrof-muhit alohida muhofazaga muhtoj. Ekologik huquqlar bugungi kunda nafaqat xalqaro inson huquqlari tizimining ajralmas qismiga, balki AQSh, Fransiya, Rossiya va Germaniya kabi ko‘plab davlatlarning milliy huquqiy siyosatining muhim elementi sifatida e’tirof etilmoqda.

Axborotga ega bo‘lish insonning ekologik huquqlarini amalga oshirishning eng muhim dastlabki shartlaridan biri bu atrof-muhit masalalariga oid axborotga kirish imkoniyatini ta’minlash hisoblanadi. Axborotga kirish imkoni bo‘lmasa, bu o‘z-o‘zidan boshqa ekologik huquqlarni amalga oshirish imkoniyatini jiddiy cheklaydi. Shuningdek, axborotning ochiqligi qarorlar qabul qilishda muhim bo‘lib, argumentlarning kuchliligi, sudlashish imkoniyatini baholash imkonini berib, behuda sud jarayonlari yoki masalani sud orqali hal etish imkoniyatini boy berishning oldini oladi[3].

So‘nggi yillarda, atmosfera havosini ifloslanishi bilan bog‘liq kuzatilayotgan muammolar yuzaga kelishida, shuningdek fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqini ta’minlashda atrof-muhitga ta’siri uncha katta bo‘lmagan korxona va faoliyat turlarining sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligini ko‘rsatmoqda. Biroq, III va IV toifaga mansub faoliyat turlari bo‘yicha qaror qabul qilishda jamoatchilik bilan maslahatlashish va jamoatchilik ishtiroki nazarda tutilmagan. Xususan, avtomobilga yonilg‘i va gaz quyish stansiyalari, isitish tizimiga (tabiiy gaz, ko‘mir va boshqa yonilg‘i turlarida ishlovchi) ega issiqxonalar, ko‘p qavatli uy-joylar va bino-inshootlar qurish kabi atrof muhitga ta’sir ko‘rsatishning III va IV toifasiga kiradigan past darajada xavfli va mahalliy ta’sir ko‘rsatadigan faoliyat turlari bo‘yicha jamoatchilik maslahatlashuvlari nazarda tutilmagan. Amaldagi tartibda jamoatchilik eshituvida loyihani qo‘llab-quvvatlash yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi

ko‘rsatilgan. Jamoatchilik eshituvining maqsadi faqat loyihani qo‘llab-quvvatlashga erishishga qaratilganligi, eshituvlarning ortiqcha muhokamalarsiz faqat loyiha bo‘yicha ma’lumot taqdim etish orqali passiv o‘tkazilishiga olib kelgan.

Ekologik huquqlarning xalqaro va mahalliy darajada tan olinishi so‘nggi yillarda sezilarli darajada kuchayib bormoqda. Xalqaro miqyosda ekologik huquqlarning insonning asosiy huquqi sifatida e’tirof etilishi kengaymoqda. 2021-yilda BMT toza va sog‘lom atrof-muhitga bo‘lgan huquqni inson huquqi sifatida rasman tan oldi. Ushbu muhim yutuq atrof-muhit huquqlarini himoya qilish barcha davlatlar uchun ustuvor vazifa bo‘lishi kerakligi haqidagi global tushunchani mustahkamladi.

Vatanimiz — O‘zbekiston Respublikasida ham Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar fonida shunday tendensiya kuzatilmoqda. Energiya resurslaridan samarali foydalanishga bo‘lgan intilish, ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida yaqqol namoyon bo‘lmoqda, chunki bu mintaqamiz uchun nihoyatda muhimdir.

Siyosiy iroda, qat’iylik va ekologik muammolar mohiyatini chuqur anglagan holda eskirgan Konstitutsiyani takomillashtirish zarurati yuzaga keldi va shu asosda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining ekologik huquqlarini mustahkamlash yo‘lida muhim qadam qo‘yildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasiga muvofiq:

“Har bir inson qulay atrof-muhitda yashash, uning holati to‘g‘risida ishonchli ma’lumot olish huquqiga ega.”

Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatishning oldini olish maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratadi. Shaharsozlik hujjatlari loyihalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda umumxalq muhokamasiga qo‘yiladi.

Davlat barqaror rivojlanish tamoyiliga muvofiq atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi [4]. Davlat tomonidan Orolbo‘yining ekologik tizimini muhofaza qilish va tiklash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilmoqda [5]. Bu O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini ekologik sog‘lomlashtirish yo‘lidagi birinchi, ammo nihoyatda muhim qadam hamda kelajakdagi muammolarni hal etish uchun zarur asos bo‘lib xizmat qiladi.

Orxus konvensiyasi shaxsning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqlarini ta’minlash uchun davlatlar oldida fuqarolarni atrof-muhitga oid axborot bilan ta’minlash va uni oshkor qilishni talab qiladi, jamoatchilik faolligi esa taqdim etilgan atrof-muhit ma’lumotlarining miqdori va sifatiga bog‘ligini aytish mumkin.

Konvensiyada ekologik axborot qamrov doirasi (atrof-muhit elementlari, ularga ta'sir qiluvchi yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan holatlar, inson hayotiy faoliyat sharoitlari, madaniy obyektlar va qurilgan inshootlar) va uning shakllari (yozma, vizual, ovoz, elektron yoki boshqa) aniq belgilangan. Hujjat axborot taqdim etishni rad etish asoslarini cheklangan tarzda talqin qilishni talab qilib, jamoat manfaatini hisobga olgan holda ekologik tashlanmalar bo'yicha ma'lumotni maxfiylik asosida rad etishni taqiqlaydi. Konvensiya inson salomatligi yoki atrof-muhitga tahdid solayotgan kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarda zararni oldini olish yoki kamaytirish choralarini ko'rish uchun ma'lumotni tarqatishni, milliy atrof-muhit bo'yicha hisobotlarni muntazam ravishda uch yoki to'rt yilda bir marta nashr qilishni talab qiladi.

Xalqaro shartnomalar turli davlatlarning milliy qonunchiligida fuqarolarning ekologik huquqlarini tartibga solish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi:

- Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948) [6]. Garchi unda ekologik huquqlar alohida qayd etilmagan bo‘lsa-da, hujjat inson hayoti va sog‘lig‘i uchun zarur shartlarni ta’minlashga qaratilgan qoidalar orqali sog‘lom atrof-muhitni himoya qilishga oid keyingi xalqaro normalar uchun asos yaratadi.
- Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha Rio-de-Janeyro deklaratsiyasi (1992) [7]. Ushbu deklaratsiya fuqarolarning atrof-muhitga oid masalalarda ishtirok etish, ekologik ma’lumotlardan foydalanish va qarorlar qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatish huquqlarini alohida ta’kidlaydi.
- Orxus konventsiyasi (1998) [8]. Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan O‘zbekiston uchun muhim xalqaro hujjat sanalib, ekologik axborotdan erkin foydalanish, atrof-muhitga taalluqli qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki hamda ekologik masalalarda adolatdan foydalanish huquqlarini mustahkamlaydi.

Mana, O‘zbekistonda qonunchilikni takomillashtirish va ekologik qonunchilikda fuqarolarning rolini kuchaytirish bo‘yicha takliflarimiz. Ular bir-biridan farq qilsa-da, amaliy jihatdan asoslangan real yondashuvlarga tayanadi.

Atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan barcha yirik loyihalar uchun atrof-muhitga ta’sirni majburiy baholashni talab etuvchi, AQShning Milliy Atrof-muhit siyosati to‘g‘risidagi qonuni (NEPA)ga o‘xshash qonunni ishlab chiqish. Shu bilan birga, jamoatchilik xabardor bo‘lishi va muhokamalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur, ayniqsa loyiha ekologik xavfsizlikka tahdid solayotgan hollarda. Bu fuqarolarning ekologik faolligini hamda ekologik huquqlar bo‘yicha bilimlarini sezilarli darajada oshiradi.

- Qo‘shma Shtatlardagi NEPA ekologik xavflarni kamaytirish va loyihalarni baholash jarayoniga jamoatchilikni jalb qilishda samarali mexanizm sifatida tan olingan. Ko‘plab mamlakatlar shunday modellarni o‘z qonunchiligiga tatbiq qilgan.

- O‘zbekistonda bunday qonunning qabul qilinishi yirik sanoat va infratuzilma loyihalarining ekologik xavfsizligini oshiradi, davlat organlari va kompaniyalarning shaffofligi hamda mas’uliyatini mustahkamlaydi.

O‘zbekistondagi barcha hududlar bo‘yicha havo, suv va tuproqning ekologik holati haqidagi aktual ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan ochiq onlayn platforma yaratish yoki ushbu funksiyani Gov.uz tizimiga integratsiya qilish. Ekologik qonunbuzarliklar haqida ma’lumotlar ham real vaqt rejimida qayd etilishi lozim.

- Orxus konventsiyasi fuqarolarning ekologik axborotdan foydalanish huquqini kafolatlaydi va Yevropa Ittifoqida ekologik huquqlarni himoya qilishning asosiy hujjati hisoblanadi.
- Bunday resurs O‘zbekiston fuqarolariga ekologik holat to‘g‘risida zarur ma’lumotlarni olish, muhokamalarda ishtirok etish va ekologik me’yorlar buzilganda shikoyat qilish imkoniyatini yaratadi.

Ekologik loyihalarda faol ishtirok etayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari hamda faollarga grantlar ajratish mexanizmlarini yaratish orqali ekologik tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qonun qabul qilish. Bu dasturlar ekologik madaniyatni rivojlantirish, davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Hulosa sifatida ekologiya huquqining dolzarb masalalarini o‘rganish atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishni kuchaytirish zaruriyatini ko‘rsatadi. Iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning ifloslanishi hamda ulardan foydalanishda yuzaga kelayotgan ijtimoiy tengsizlik masalalari alohida e’tibor talab qiladi va davlat bilan jamiyatning faol ishtirokini taminlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 й.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori.
3. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi
4. Fransiya Konstitutsiyasi
5. Germaniya asosiy qonuni (Konstitutsiya)
6. Weaver, Duncan, The Aarhus Convention and Process Cosmopolitanism, International Environmental Agreements: Politics, Law and Economics 18, no. 2 (2018): 199–213

7/ AQSH milliy ekologiya siyosati qonuni NEPA, 1969 yil.

8. SH qonuni Clean Air Act, 1970, AQSH qonuni Clean Water Act, 1972 г.

9. Федеральный закон Германии о защите природы (Bundesnaturschutzgesetz)

10. Кодекс окружающей среды Франции
11. Федеральный закон России "Об охране окружающей среды" (№ 7-ФЗ от 10 января 2002 г.)
12. Всеобщая декларация прав человека (1948 г.)
13. Декларация Рио-де-Жанейро по окружающей среде и развитию (1992 г.)
14. Орхусская конвенция (1998 г.)
15. "Principles of International Environmental Law" авторов Филиппа Сэндса и Жаклин Пил (Cambridge University Press).
16. "Основы экологического права" А.П. Анисимова и А.Я. Рыженкова.

DEMOKRATIK ISLOHOTLAR SHAROITIDA XALQ DEPUTATLARI KENGASHLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI

Yo‘ldoshev Azizjon Ergash o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti professori
el.pochta: azizjonyuldoshev237@gmail.com
Tel: (99) 925-22-12

Annotatsiya: maqolada O‘zbekistonda kechayotgan demokratik islohotlar sharoitlarida xalq deputatlari kengashlari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish holati o‘rganildi. Muallif tomonidan xorijiy davlatlar tajribasini inobatga olgan holda aniqlangan muammolarni hal etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, ochiqlik, shaffoflik, ishtirok, onlayn, veb-sayt, integratsiya.

O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan demokratik islohotlar doirasida xalq deputatlari Kengashlari (mahalliy kengashlar) faoliyatining shakl va usullarini takomillashtirishga alohida e’tibor berilmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida mahalliy kengashlar faoliyatida jamoatchilik ishtiroki uchun zarur sharoitlarni yaratish, fuqarolik jamiyati institutlarini keng jalb qilish, ularning faoliyatini bosqichma-bosqich raqamlashtirish vazifalari belgilandi.

Bugungi kunga qadar belgilangan vazifalar doirasida qator chora-tadbirlar ko‘rildi. Ulardan Mahalliy vakillik organlari portali (https://kengash.gov.uz/), Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazishning yagona elektron tizimining (https://e-qaror.gov.uz/) yaratilishi, mahalliy kengashlar huzurida ekspertlar hamda yoshlar maslahat guruhlarining tuzilishi, deputatlar tomonidan saylovchilarga o‘z faoliyati to‘g‘risida axborot berish tartibining tasdiqlanishini alohida ko‘rsatish mumkin.

Yuqorida ko‘rsatilgan chora-tadbirlardan tashqari mahalliy kengashlarga jamoaviy elektron murojaat qilish uchun “Mening fikrim” (https://petition.gov.uz/uz) hamda Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi

(https://regulation.gov.uz/oz) portallari ishga tushirildi, ochiqlik, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Lekin ushbu yangiliklar mahalliy kengashlar faoliyatida jamoatchilik ishtirokini sezilarli darajada kengaytirgani yo‘q.

Mavjud holatni o‘rganish ayrim yangiliklarni amalga oshirish mexanizmlari shakllanmaganini ko‘rsatadi. Masalan, Mahalliy vakillik organlari portalida (https://kengash.gov.uz/) mahalliy kengashlar faoliyatiga oid barcha ochiq axborot joylashtirilmagan va axborot ochiqligini ta’minlash boshqa usullari qo‘llanilmagan, fuqarolarga fikrini bildirish va ular bilan muloqot qilish kanallari shakllanmagan. Mahalliy kengashlar ochiq hay’at majlislarini kuzatish va ularda ishtirok etish uchun sharoit yaratilmagan.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazishning yagona elektron tizimida (https://e-qaror.gov.uz/) faqat mahalliy kengashlar va hokimlar qabul qilgan qarorlari joylashtiriladi. Ushbu tizim bilan Mahalliy vakillik organlari portalini integratsiya qilish, qaror loyihasini ishlab chiqishdan, to uni qabul qilgunga qadar fuqarolar xabadorligi va ishtirokini ta’minlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Mening fikrim” jamoaviy murojaatlar (https://petition.gov.uz/uz) portaliga 2017 yildan beri 8004 ta murojaat kelib tushgan bo‘lsa, shundan 15 tasi ko‘rib chiqilgan. Ko‘rib chiqilgan 15 ta murojaatdan 2 tasi mahalliy hokimiyat organlari vakolatlari doirasidagi masalalardir. Ko‘rib chiqilgan murojaatlar sonining kamligi ushbu jarayonda mahalliy kengashlar ishtirokining ta’minlanmaganligi va tartibga solinmaganligi bilan izohlash mumkin.

Mahalliy kengashlar huzurida ekspertlar va yoshlar maslahat guruhlari to‘g‘risidagi nizomlar, deputatlarni saylovchilarga o‘z faoliyati to‘g‘risida axborot berish tartibi tasdiqlangan. Biroq ushbu hujjatlarning ayrim me’yorlari mahalliy kengashlar reglamentida aks etmagan. Mazkur holat mahalliy kengashlar huzurida ekspertlar va yoshlar maslahat guruhlarining faoliyatini samarali amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Aniqlangan muammolarni o‘rganish natijasida ularni mahalliy kengashlar faoliyatini jadal raqamlashtirish orqali hal qilish mumkin degan xulosaga kelish mumkin. Darhaqiqat, davlat boshqaruvini raqamlashtirish loyihalasi bo‘lgan elektron hukumatning asosiy maqsadlari ish va ishlab chiqarish jarayonlarini soddalashtirish va integratsiyalash, ma’lumotlar va axborotni samarali boshqarish, onlayn davlat xizmatlarini ko‘rsatish samaradorligini oshirish hamda odamlarni jalb qilish va ularga imkoniyatlar yaratish uchun aloqa kanallarini kengaytirishdan iborat [1].

Ayrim manbalarda davlat boshqaruvini raqamlashtirishning asosiy maqsadlari yanada aniqlashtirilgan. Masalan, Buyuk Britaniyada mahalliy boshqaruv faoliyatini isloh qilishga bag'ishlangan “My Council Services” raqamli platformada ular

quyidagicha belgilangan: ishni soddalashtirish va xarajatlarni kamaytirish, fuqarolarning ishtiroki va qoniqishini oshirish, shaffoflik va hisobdorlikni oshirish, ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishni ta'minlash [2].

Ishni soddalashtirish va xarajatlarni kamaytirish mahalliy kengashlar vakolatlarini amalga oshirish taomillarini aniq belgilash va ularni birlashtirishni talab qiladi. Bunda mas’ul davlat organlari ham qamrab olinib, ular faoliyatining ochiqligi ta’minlanadi. Yagona platformada barcha davlat xizmatlarini ko‘rsatish, mahalliy kengashlar va boshqa mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini birlashtirish boshqaruv samaradorligini oshirishga va xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Mahalliy kengashlar ishini onlayn olib borish ushbu jarayonda fuqarolar ishtirok etishi uchun sharoit yaratadi. Xorijiy davlatlar mahalliy boshqaruvida fuqarolar ishtirokining shakllarini joriy qilish barobarida, ulardan foydalanish uchun zarur chora-tadbirlar ham belgilanadi. Masalan, Buyuk Britaniyada barchaning raqamli xizmatlardan foydalanishini ta'minlash uchun raqamli inklyuzivlik dasturi doirasida jamoat joylarida bepul Wi-Fi yoqildi va raqamli ko‘nikmalar bo‘yicha treninglar o‘tkazildi [3].

Shuningdek, mahalliy boshqaruvni onlayn amalga oshirish shaffoflik va mahalliy hokimiyat organlari hisobdorligini oshirishga xizmat qiladi. O‘z navbatida, mahalliy kengashlar fuqarolardan va boshqa manbalardan turli axborot olishga va xolis qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bugungi kunda mahalliy saylov va referendumlarda onlayn texnologiyalarini qo‘llashda, jumladan elektron ovoz berishda Shveytsariya boshqa davlatlarga o‘rnak bo‘lmoqda [4].

Raqamlashtirish sharoitida: sun’iy intellekt, bulut yechimlaridan foydalanish, ma'lumotlarni almashish va integratsiya, jarayonlarni robotli avtomatlashtirish, aqlli shahar texnologiyalari, bashoratli tahlil tendentsiyalari kuzatilmoqda [5]. Ushbu tendentsiyalarni tizimlashtirish va raqamlashtirishda yangi texnologiyalarni qo‘llash ustida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayoni muayyan xatarlarga ham ega. Axborot xavfsizligiga tahdid eng jiddiy xatarlardan biridir. Mahalliy kengashlar saytlaridan soxta axborot tarqatish, davlat xizmatlarini ko‘rsatishga aralashish, moliyaviy jinoyatlar aholining onlayn mahalliy boshqaruv tizimiga ishonchini pasaytiradi. Buyuk Britaniyaning Milliy kiberxavfsizlik markazi (NCSC) hisobotida ta'kidlanganidek: “Hukumat keng ko‘lamli kiberjinoyatchilar uchun jozibador nishon bo‘lib qolmoqda [6]”.

Mahalliy kengashlar doimiy ravishda rivojlanib borayotgan tahdidlardan o‘zlarini yaxshiroq himoya qilish uchun turli tavsiyalar ishlab chiqilgan. Masalan, muntazam xavfsizlik auditlarini o‘tkazish, xodimlarni o‘qitish, tahdidlarni aniqlash ilg‘or vositalarini joriy qilish, ma’lumotlarni shifrlash, ko‘p faktorli autentifikatsiyani joriy etish, hodisalarga javob berish rejalarini tuzish va boshqalar [7].

O‘zbekistonda mahalliy kengashlar ishini raqamlashtirishda ko‘zlangan maqsadlarga erishish va mavjud xatarlardan himoyalanish dolzarb masalaga aylandi. Buning uchun raqamlashtirish jarayonini strategik rejalashtirish va quyidagi takliflarni inobatga olish mumkin: aniq tasavvurga ega bo‘lish, foydalanuvchi ehtiyojlarini ustun qo‘yish, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash, treningga sarmoya kiritish, yangi vositalar va jarayonlarni bosqichma-bosqich joriy etish [8].

Xorijiy davlatlar tajribasini inobatga olgan holda O‘zbekistonda mahalliy kengashlar faoliyatini raqamlashtirishni samarali tashkil etish uchun quyidagi xulosalar va takliflar ilgari surildi:

birinchidan, raqamlashtirish asosiy maqsadlariga erishish mahalliy kengashlar faoliyatini samarali tashkil etishga va ushbu jarayonda fuqarolarning keng ishtirok etishiga xizmat qiladi. Chunki raqamlashtirish mahalliy kengashlar faoliyatini amalga oshirish taomillarini aniq va batafsil belgilashni talab qiladi. Bunda ochiqlikni ta’minlash, jumladan fuqarolar ishtirokining shakllarini joriy qilish mumkin;

ikkinchidan, raqamlashtirish strategik rejasini ishlab chiqish va unda fuqarolar, deputatlar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlari va boshqa manfaatdor shaxslar fikrini inobatga olish kutilgan natijalarga erishish imkonini beradi. Buning uchun raqamlashtirish chora-tadbirlari tarkibiga barcha manfaatdor shaxslar kirishi uchun sharoit yaratilgan ishchi guruhlarda ochiq ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi;

uchinchidan, Mahalliy vakillik organlari portaliga Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazishning yagona elektron tizimi, Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish, Mening fikrim va boshqa portallarni integratsiya qilish ulardan foydalanishga qulay sharoit yaratadi;

to‘rtinchidan, mahalliy kengashlarning nafaqat sessiyalari, balki doimiy komissiyalar, partiya guruhlari, maslahat kengashlari, ishchi guruhlar majlislari, kengash vakolatlari doirasidagi masalalar yuzasidan o‘tkazilayotgan forumlar, konferentsiyalar, davra suhbatlari va boshqa muhokamalarni ochiq o‘tkazish, jumladan ularni onlayn translyatsiya qilish va ularda jamoatchilik nazorati subyektlari ishtirokini ta’minlashga alohida e’tibor berish.

References:

1. United Nations e-Government Survey 2014: E-Government for the Future We Want. – New York: UN Publishing Section, p. 2.

2. Digital transformation in local government: Success stories & lessons// https://www.mycouncilservices.com/digital-transformation-in-local-government/

3. Digital transformation in local government: Success stories & lessons// https://www.mycouncilservices.com/digital-transformation-in-local-government/

4. E-voting // https://www.bk.admin.ch/bk/en/home/politische-rechte/e-voting.html.

5. Benefits & Strategies of Local Government Digital Transformation // https://www.wavetec.com/blog/digital-transformation-for-local-government/

6. Government Cyber Security Strategy – Policy brief // https://www.local.gov.uk/our-support/cyber-digital-and-technology/cyber-digital-and-technology-policy-team/government-cyber.

7. Cybersecurity for Councils: Why protecting data is critical for public trust in 2025 // https://www.mycouncilservices.com/cybersecurity-for-councils/

8. Digital transformation in local government: Benefits & best practices // https://www.jotform.com/blog/digital-transformation-in-local-government/

ҚОНУН ИЖОДКОРЛИГИДА ХАЛҚ ИРОДАСИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ КАФОЛАТЛАРИ

Хусанова Мухтабар,
юридик фанлар номзоди

Давлатимизнинг Бош ҳужжати – Ватанимизнинг юзи, миллий давлатчилигимизнинг, тарихий тажрибамизнинг инъикоси, халқ иродасининг ифодасидир.

Кези келганда таъкидлаш лозимки, конституциявий қонунчилик таҳлилчиларининг энг биринчи навбатда ўрганадиган масаласи – Конституция қабул қилинишида қанчалик равишда халқнинг иштирок этгани, фуқароларнинг манфаатлари, фикрлари қанчалик равишда ифода этилиб жамият ва давлат ривожлантирилишида инобатга олиниш даражаси ҳисобланади. Шунингдек, давлат Бош ҳужжат орқали халқаро ҳамжамият олдида қандай давлат сифатида эълон қилгани, мамлакат тараққиётининг манбаи бўлган инсонларга, фуқаролик жамияти институтларига, тадбиркорлик субъектларига қандай ҳуқуқий кафолатлар белгилагани, уларнинг қанчалик равишда миллий давлатчилик тажрибасига ҳамда халқаро умумэътироф этилган норма ва принципларга мос экани, **“инсон-жамият давлат”** омилларининг ҳуқуқий мувозанатини таъминлашда кучли парламент, масъулиятли ҳукумат, мустақил ва адолатли суд тизимининг қанчалик равишда оқилона тартибга солингани каби масалалар конституция орқали давлат ҳақида мушоҳада қилишга асос бўлади.

Сиёсий-ҳуқуқий жиҳатдан қараганда, ҳар қандай ислоҳот конституциявий-ҳуқуқий асосга таянсагина, кўзланган стратегик мақсад ва самарали натижаларга эришилади. Зеро, янги таҳрирдаги Конституция жамият ва давлат олдида турган, Янги Ўзбекистон стратегиясини амалга оширишнинг ҳуқуқий маконини яратди. Энг эътиборлиси, шу жамиятда яшовчи ҳар бир инсоннинг орзу-мақсадлари, манфаатларини ифода этишнинг ҳам миллий қонунчилик, ҳам халқаро умумэътироф этилган нормаларга мос равишда

амалга оширишнинг имконини яратди, давлат ва жамиятни янада ривожлантиришнинг устувор йўналишларини белгилаб берди. Ундаги нормаларни бирма-бир кўздан кечирар эканмиз, унда халқпарвар давлат хусусиятига хос бўлган барча жиҳатларни, хусусан, давлат бошқарувини демократлаштириш, давлатнинг ижтимоий ролини ва мажбуриятларини кенгайтириш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини муҳофаза қилиш асослари аввалги таҳрирга қараганда янада такомиллаштирилганига гувоҳ бўлиш мумкин.

Айниқса, ҳуқуқий сиёсатимизда демократик қадриятларга, инсонпарварлик анъаналарига мос механизмлар яққол акс этаётганини, инсон қадри, ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш, минтақамизда яхши қўшничилик алоқаларини янада ривожлантириш, дунё мамлакатлари билан фаол ҳамкорлик қилиш, Ватанимизнинг халқаро миқёсдаги обрў-эътиборини юксалтириш борасидаги янгиланган Конституциямиз ва унинг асосида қабул қилинаётган қонунчилигимиз ҳуқуқий устун бўлиб хизмат қилмоқда.

Конституцияда белгиланган фуқароларнинг асосий сиёсий ҳуқуқларидан бўлган – фуқароларнинг жамият ва давлат ишларини бошқаришда бевосита ҳамда ўз вакиллари орқали иштирок этиш ҳуқуқи тўлақонли таъминланишига эришилаётганидир.

Биринчидан. Шу ўринда эслайлик, бугунги кунда натижасини кўраётганимиз – ислоҳотлар заминини яратиб берган, давлатнинг халқ билан мулоқотини очиб берган энг муҳим қадам – Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони[18] лойиҳаси муҳокамаси бўлган, десак муболаға бўлмайди.

Ҳаракатлар стратегиясининг самарали амалга оширилишида халқнинг муҳокамада, ижрода ва назоратда фаол иштироки муҳим омил бўлиб хизмат қилди. Кейинчалик, ҳар йилги Давлат дастурларининг лойиҳалари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси” Фармони[19] лойиҳаси – айнан муҳокамалар, таклифлар халқ иродасини ифода этиш борасида тўғри қўйилган вазифа самараси сифатида ўзини оқлади.

Давлат дастурлари “кабинетларда” назарий ғоялар ва тусмоллар асосида эмас, реал ҳаётга мос, халқ иродасини ҳақиқатда ифода этишга қаратилган таклифлардан келиб чиқиб вазифалар белгилаш, янги Ўзбекистоннинг халқаро ҳамжамият олдидаги нуфузини янада ошириш ва мустаҳкамланишини

[18] Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.07.2018 й., 06/18/5483/1594-сон; 11.12.2019 й., 06/19/5892/4134-сон; 17.03.2021 й., 06/21/6188/0216-сон, 01.05.2021 й., 06/21/6217/0409-сон

[19] https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144

таъминлаш, ҳар бир белгиланган вазифанинг мамлакат тараққиётидаги ижтимоий, иқтисодий, сиёсий самарадорлигига таъсири атрофлича ўрганилиши амалиёти йўлга қўйилди.

Янги Ўзбекистонимизнинг янгиланган Конституциясининг қабул қилиниш жараёни мамлакат тараққиёти йўлида бошланган ислоҳотлар натижаси сифатида халқнинг жамият ва давлат ишларида ватанпарварлик руҳида эмин-эркин иштирок эта олиш имконини янада оширди, халққа бирдамлик ҳиссини берди, давлатга ва ислоҳотларга ишончини оширди.

Шу боисдан ҳам, Конституциявий қонун лойиҳаси юзасидан аҳолидан 220 мингдан зиёд таклифлар келиб тушди[20], уларнинг ҳар бири Комиссия томонидан эътибор билан атрофлича ўрганилиб таҳлил қилинди, Конституциявий қонун лойиҳаси нормаларига уйғунлаштирилди ҳамда Лойиҳа яна бир бор халқ эътиборига тақдим этилиб 2023 йил 30 апрелда ўтказилган референдумда умумхалқ овоз бериш орқали Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Конституцияси қабул қилинди[21]. Далил сифатида, Бош Қомусимизда инсон ҳуқуқларига оид нормалар уч баравардан ортиққа ошганини келтириш мумкин. Энг муҳими, Давлат инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлашдек олий мақсадига содиқлиги янада ёққол намоён бўлди[22].

Конституциявий ислоҳотларимиз янги таҳрирдаги Конституцияни қабул қилиш билан кифояланиб қолмай, Бош қомусимиздаги норма ва принципларни ҳаётга татбиқ этиш, унинг амалийлигини, халқчиллигини таъминлаш, мамлакатдаги барча инсонларнинг **“бу менинг конституциям”** дея оладиган даражадаги мақомини ошириш йўлида босқичма-босқич чора-тадбирлар амалга оширилиб келинмоқда. Мамлакатда конституциявий қонунийликни янада мустаҳкамлаш йўлида изчилликка эришиб келинмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 8 майдаги “Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясини амалга ошириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида” Фармони[23] ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 7 ноябрдаги “Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Фармони[24] амалдаги қонуности ҳужжатларни янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси

[20] А.Саидов. Янгиланаётган Конституция – чинакам халқ конституцияси, янги Ўзбекистонни барпо этишнинг ҳуқуқий пойдевори. //https://parliament.gov.uz/oz/articles/1268#!
[21] Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон
[22] У.Юлдашбекова. Инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш — олий мақсад.// https://uza.uz/uz/posts/inson-huquq-va-erkinliklarini-taminlash-oliy-maqsad_759421
[23] Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 10.05.2023 й., 06/23/67/0269-сон
[24] Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 08.11.2023 й., 06/23/188/0835-сон

Конституциясига мувофиқлаштириш талабидан келиб чиққан ҳолда қабул қилинган бўлиб, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини самарали ҳимоя қилиш, давлат органларининг масъулиятини оширишга йўғрилгани билан аҳамиятлидир.

Таъкидлаш жоизки, янгиланган конституциявий-ҳуқуқий шароитларда мамлакатимиз тараққиётининг асосий йўналишларини такомиллаштириш ва амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотларни янги босқичга олиб чиқишдаги орттирилган тажриба ва жамоатчилик муҳокамаси натижалари асосида ишлаб чиқилиб қабул қилинган "**Ўзбекистон — 2030" стратегияси** муҳим аҳамиятга эга[25]. Унда халқимизнинг эркин ва фаровон, қудратли Янги Ўзбекистонни барпо этиш бўйича хоҳиш-иродасини рўёбга чиқариш, ҳар бир фуқарога ўз салоҳиятини ривожлантириш учун барча имкониятларни яратиш, соғлом, билимли ва маънавий баркамол авлодни тарбиялаш, глобал ишлаб чиқаришнинг муҳим бўғинига айланган кучли иқтисодиётни шакллантириш, адолат, қонун устуворлиги, хавфсизлик ва барқарорликни кафолатли таъминлаш борасидаги вазифалар ўз ифодасини топди.

Иккинчидан. Халқ иродасини ифода этилишининг экспертлар томонидан эътироф этиладиган муҳим жиҳат – **парламент таркиби** ҳисобланади. Сайлов натижаларига кўра, аҳолининг турли миллат ва элат, турли ёш ва қатлам, соҳалар вакилларининг, партиялар ғоялари тарафдорларининг парламент ва маҳаллий кенгашлар аъзолари таркибида овози жаранглаётганида кўринади.

Хусусан, сайланган депутатларнинг 38 фоизини хотин-қизлар ташкил этиб, бу Ўзбекистон тарихида энг юқори кўрсаткич бўлди. Депутатларнинг 2 нафари – 30 ёшгача, 38,6 фоизи – 30 ёшдан 45 ёшгача, 46,6 фоизи – 45 ёшдан 60 ёшгача, 13,3 фоизи – 60 ёшдан катталарни ташкил этади. Мамлакатимизда яшаётган бошқа миллат вакиллари сайланган депутатларнинг 12,7 фоизини ташкил қилади. Шу жумладан, улардан 5 нафари рус, 3 нафардан қозоқ ва тожик, 2 нафари корейс, 1 нафардан туркман ва қирғиз миллатига мансуб.

Уларнинг 30 фоизи – иқтисодчилар, 22 фоизи – ҳуқуқшунослар, 18,7 фоизи – педагоглар, 12 фоизи – муҳандислар, 9,3 фоизи – тиббиёт соҳаси вакиллари, 8 фоизини эса – маданият соҳаси вакиллари, тадбиркор ва фермерлар ташкил этади. Илк бор 3 нафар ногиронлиги бор шахслар депутат этиб сайланди[26].

Учинчидан. Халқпарварлик сиёсатининг яна бир кўриниши – қонунлар ва қарорлар қабул қилинишида, бюджет параметрлари белгиланишида – унинг лойиҳа шаклидан бошлаб қабул қилинишининг ҳар бир босқичида, маъқулланиши ва эълон қилинишида **очиқлик ва ошкораликнинг**

[25] Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон; 29.12.2023 й., 06/23/214/0984-сон; 21.03.2025 й., 06/25/51/0261-сон; 26.03.2025 й., 06/25/56/0274-сон

[26] https://saylov.uz/uz/press_service_in/zbekiston-respublikasi-olij-mazhlisining-yangi-sajlangan-deputatlari-r-jhatga-olindi

таъминланишидир. Бунда парламент палаталари ялпи мажлисларининг жонли форматда эфирга узатилиши, – халқ фикрини инобатга олиш механизмларининг жорий этилиши, жамоатчилик муҳокамалари ва фуқаролар ташаббускорлигини қўллаб-қувватланиши халқ манфаатларига хизмат қилувчи муҳим ҳуқуқий кўрсаткичлар саналади.

Тўртинчидан. Сиёсий плюрализмнинг ҳуқуқий асосларини мустаҳкамланиши ва сиёсий партияларнинг жамиятдаги ролини янада кучайтириш, ўзини **парламентдаги мухолифат** деб эълон қилган сиёсий партия фракциясига бир қанча қўшимча ҳуқуқлар берилиши, жумладан: ўз вакиллари Қонунчилик палатасининг 1 нафар қўмита раиси ва 2 нафар қўмита раиси ўринбосари лавозимларини кафолатли эгаллаши, қонун лойиҳаси иккинчи ўқишда кўриб чиқилгунига қадар ҳам ўша масалага доир қонун лойиҳаси ёки унинг таркибий қисмининг муқобил таҳририни киритиш, ҳар чоракда "ҳукумат соати" ва парламент сўрови доирасида масала киритиш ҳуқуқларининг мустаҳкамлангани халқ ҳокимиятчилигини намоён этиш механизмларидандир[27].

Бешинчидан. Ҳар қандай норматив-ҳуқуқий ҳужжат ва лойиҳа илмий-таҳлилий институтлар тадқиқотлари ва экспертларнинг тавсиялари асосида ишлаб чиқилишининг йўлга қўйилиши – жамият эҳтиёжларини доимий равишда ўрганиш, таҳлил қилиш, прогнозлаш орқали ҳуқуқий тартибга солиш имконини кенгайтиради. Бу билан ҳуқуқни қўллаш амалиётида ҳуқуқий бўшлиқлар, шунингдек норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ўртасидаги номувофиқликларни бартараф этишга, пировардида инсоннинг муносиб турмуш даражасини таъминлаш, у ёки бу шахснинг ҳуқуқлари бузилиши олди олинишига хизмат қилади.

Мамлакатда олиб борилаётган инсон ҳуқуқларини таъминлаш ва халқчил ҳуқуқий давлатчилик сиёсати натижаларини нафақат миллий экспертларимиз, балки хорижий ва халқаро ташкилотлар вакиллари эътироф этмоқдалар. Ўзбекистоннинг “Ҳуқуқ устуворлиги индекси”, “Жаҳон мамлакатлари демократияси индекси” каби халқаро нуфузли рейтингларда ўрни яхшиланишига эришиб келинмоқда. Давлатимиз Раҳбари Шавкат Мирзиёев 2022 йил 20 июнда Конституциявий комиссия аъзолари билан учрашувдаги нутқларида “Фақат ҳуқуқий давлат шароитидагина инсоннинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни, қадр-қимматини тўлиқ таъминлаш, том маънода халқпарвар бошқарув тизимини шакллантириш мумкин”, деб таъкидлаган эдилар. Шу мақсадда янгиланган Конституцияда “Ўзбекистон – ҳуқуқий давлат”, деб мустаҳкамланди. Бу орқали давлат ўз фаолиятини, жамият ва фуқароларнинг яшаш тарзини фақат Конституция ва қонунлар асосидагина амалга

[27] Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 31.07.2025 й., 03/25/1077/0674-сон

оширилишини, давлат органлари ва мансабдор шахслар қонун устуворлиги асосида халқ манфаатлари учун ишлаши, унга хизмат қилишининг ҳуқуқий кафолати белгиланди.

Таъкидлаш жоиз, янги Ўзбекистон ислоҳотлари шароитида ҳуқуқий давлат тамойилларининг риоя этилиши барчанинг қонун олдида тенглигини, инсонларнинг қонунларга ҳурмат руҳида яшашини таъминлаш билан бирга жамиятда ҳуқуқий маданиятнинг юксалишига замин яратмоқда. Зеро ҳуқуқий давлат билан узвий ривожланадиган адолатли жамиятни коррупцияга муросасиз, ижтимоий фаол ҳуқуқий маданиятли одамларгина шакллантиради ва ривожлантиради.

Хулоса сифатида айтиш лозимки, Конституция нормаларининг тўғридан-тўғри қўлланилишини, амалийлигини, халқпарвар сиёсатнинг самарасини таъминлаш жамиятда инсон қадри юксалишига, эркинлик, тенглик ва адолат принципларининг сўзсиз риоя этилишига, фуқароларимизнинг конституциявий-ҳуқуқий ислоҳотларимиз самарасини турмуш тарзида ҳис қилишига, барча даражада қарорлар қабул қилинишида фуқароларнинг хоҳиш-иродаси ифода этилишига иқрор бўлиши натижасида жонажон Ватанимиз тараққиёти учун бирдамликда фаол бўлишга эришилади.

ПРАВО НА ОТДЫХ – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО ЧЕЛОВЕКА

Разикова Шахзода Алишеровна
магистрант Высшей школы бизнеса и предпринимательства
Республики Узбекистан

Аннотация. В статье исследуется право на отдых как конституционное право человека, закреплённое в национальных и международных правовых актах. Анализируются законодательные и практические механизмы реализации этого права, его значение для социальной защиты граждан и обеспечения качества жизни. Особое внимание уделено международным стандартам и сравнительному опыту регулирования трудовых и социальных прав.

Ключевые слова: право на отдых, конституционное право, социальная защита, трудовые права, международный опыт.

Abstract. The article examines the right to rest as a constitutional human right enshrined in national and international legal instruments. It analyzes legislative and practical mechanisms for the implementation of this right, its significance for social protection and quality of life. Special attention is given to international standards and comparative experience in regulating labor and social rights.

Keywords: right to rest, constitutional right, social protection, labor rights, international experience.

Annotatsiya. Maqolada dam olish huquqi insonning konstitutsiyaviy huquqi sifatida milliy va xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilanganligi tahlil qilinadi. Ushbu huquqni amalga oshirishning qonuniy va amaliy mexanizmlari, fuqarolarning ijtimoiy himoyasi va hayot sifatini ta’minlashdagi ahamiyati o‘rganiladi. Maxsus e’tibor xalqaro standartlar va mehnat va ijtimoiy huquqlarni tartibga solish bo‘yicha solishtirma tajribaga qaratiladi.

Kalit so‘zlar: dam olish huquqi, konstitutsiyaviy huquq, ijtimoiy himoya, mehnat huquqlari, xalqaro tajriba.

Право на отдых является важнейшим элементом системы конституционных прав человека, поскольку оно обеспечивает гармоничное сочетание трудовой деятельности и личного времени, способствует физическому и психологическому здоровью[1]. Конституция закрепляет право на отдых как неотъемлемую часть социального государства, гарантируя установленные законом условия для отдыха, включая продолжительность отпуска, рабочее время и выходные дни[2]. В условиях современной экономики и постоянного роста нагрузки на трудящихся актуальность правовой защиты отдыха возрастает. Недостаток отдыха приводит к профессиональному

выгоранию, снижению производительности и ухудшению качества жизни граждан[3].

Международные нормы, включая Конвенции Международной организации труда (МОТ) и Всеобщую декларацию прав человека, признают право на отдых базовым правом человека и ориентиром для национальных законодательств[4]. Цель данной статьи – проанализировать конституционные и законодательные гарантии права на отдых, выявить проблемы их реализации, а также изучить международный опыт и предложить рекомендации по совершенствованию национальной правовой системы.

Право на отдых является неотъемлемой частью системы социальных прав граждан, закреплённых в Конституции. Оно служит средством обеспечения баланса между трудовой деятельностью и личной жизнью, поддержания физического и психологического здоровья, а также повышения качества жизни населения[1].

Конституция Республики Узбекистан прямо закрепляет право граждан на отдых, включая следующие основные элементы: Продолжительность рабочего времени. Конституционные нормы устанавливают ограничение максимальной продолжительности рабочего дня и недели, что предотвращает чрезмерные нагрузки на работников[2]. Право на оплачиваемый отпуск. Каждый работник имеет право на ежегодный оплачиваемый отпуск, что обеспечивает возможность восстановления сил и поддержания трудоспособности[3]. Выходные и праздничные дни. Конституция гарантирует предоставление гражданам регулярных выходных и праздничных дней, что способствует организации досуга и укреплению семейных и социальных связей[4].

Эти конституционные положения создают правовую основу для развития трудового законодательства и регулируют отношения между работниками и работодателями. Например, на их основании разрабатываются нормы Трудового кодекса, коллективных договоров и внутренних правил организаций, которые конкретизируют порядок предоставления отпусков, компенсацию за переработку и установление гибкого графика работы[5].

Кроме того, право на отдых тесно связано с другими социальными правами, закреплёнными в Конституции, такими как право на здоровье, социальное обеспечение и безопасные условия труда. Это подчеркивает его интегральную роль в формировании социального государства и обеспечивает комплексную защиту интересов граждан [6].

Международная практика также подтверждает значение конституционных гарантий. Например, многие страны закрепляют право на отдых в основных законах: США хотя Конституция прямо не регулирует право на отдых, законодательство и судебная практика обеспечивают трудовые права

через нормы о максимальной продолжительности рабочего времени и оплачиваемых отпусках[7]. В Германии основной закон (Grundgesetz) закрепляет принципы социальной защиты работников, включая трудовые права и право на отдых, ограничивая вмешательство работодателя[8]. В Японии Конституция гарантирует соблюдение права на отдых и регулирует ограничения рабочего времени, обеспечивая баланс между трудовой нагрузкой и досугом граждан[9].

Таким образом, конституционные гарантии права на отдых не только закрепляют формальные права граждан, но и создают правовую основу для их практической реализации. Эффективность этих норм зависит от взаимодействия конституции, трудового законодательства, судебной практики и контроля со стороны государственных органов.

Реализация конституционного права на отдых обеспечивается комплексом законодательных и нормативных актов, регулирующих трудовые отношения и социальную защиту граждан. Основной инструмент в этом вопросе - Трудовой кодекс Республики Узбекистан, который конкретизирует конституционные положения и устанавливает детальные нормы по рабочему времени, отпускам и выходным дням[1].

Трудовое законодательство устанавливает максимальную продолжительность рабочего дня и недели, а также нормы по сверхурочной работе. Например, стандартная продолжительность рабочей недели составляет 40 часов, а переработка допускается только при соблюдении особых условий и с соответствующей оплатой[2]. Эти нормы направлены на предотвращение профессионального выгорания, снижение стрессовых факторов и сохранение здоровья работников. Трудовой кодекс закрепляет право на ежегодный оплачиваемый отпуск продолжительностью не менее 15 рабочих дней, с возможностью увеличения в зависимости от стажа работы, условий труда и категории работников[3]. Кроме того, существуют специализированные отпуска для отдельных категорий граждан, например, педагогов, государственных служащих, работников с вредными или опасными условиями труда. Закон также предусматривает компенсацию за неиспользованный отпуск при увольнении[4].

Граждане имеют право на регулярные выходные и праздничные дни, установленные законодательством. Национальные праздники, государственные и религиозные праздники также закреплены в соответствующих нормативных актах. Эти положения гарантируют работникам возможность планирования досуга и участия в культурной и общественной жизни[5]. Для эффективной реализации права на отдых государство обеспечивает контроль через инспекции труда, профсоюзы и специализированные государственные органы.

Нарушения трудового законодательства могут влечь административную и уголовную ответственность работодателей. Например, за принуждение к сверхурочной работе без соответствующей оплаты предусмотрены штрафы и другие санкции[6].

На уровне предприятий право на отдых реализуется через коллективные договоры и внутренние локальные нормативные акты, которые могут расширять права работников, устанавливать гибкий график работы, дополнительные оплачиваемые отпуска и социальные льготы. Эти механизмы обеспечивают адаптацию конституционных и законодательных норм к конкретным условиям организации[7]. Национальное законодательство ориентируется на международные стандарты труда, закреплённые Конвенциями Международной организации труда (МОТ), которые устанавливают минимальные гарантии права на отдых, включая оплачиваемые отпуска, максимальное рабочее время и регулярные выходные[8]. Соответствие этим стандартам позволяет обеспечить защиту прав граждан и повысить социальную стабильность.

Таким образом, законодательные механизмы реализации права на отдых включают комплекс норм конституционного, трудового и международного права, а также инструменты контроля и коллективного регулирования. Эффективность этих механизмов зависит от их соблюдения работодателями, работы судебной системы и правовой культуры граждан.

Заключение. Право на отдых является важным конституционным правом человека, обеспечивающим здоровье, социальное благополучие и баланс между трудовой деятельностью и личной жизнью. Анализ показывает, что конституционные нормы создают правовую основу для реализации этого права, однако на практике встречаются проблемы, связанные с нарушением законодательства, недостаточной информированностью работников и экономическими ограничениями.

Международный опыт демонстрирует, что для эффективной реализации права на отдых необходимо: укрепление механизмов правовой защиты; соблюдение трудового законодательства; повышение правовой культуры и информированности граждан; адаптация национальных норм к международным стандартам[12].

Эффективная реализация права на отдых способствует укреплению социальной справедливости, повышению качества жизни граждан и развитию устойчивой экономики.

References:

1. Конституция Республики Узбекистан, Ташкент, 2023.

2. Иванов И.И., Социальные права граждан, М., 2020.
3. Смирнова А.А., Право на отдых и здоровье человека, СПб., 2019.
4. Universal Declaration of Human Rights, UN, 1948.
5. Трудовой кодекс Республики Узбекистан, Ташкент, 2022.
6. Международная организация труда, Конвенция №14 и №132, 1930, 1970.
7. Петров П.П., Социальная защита и трудовые права, М., 2021.
8. Johnson, Labor Rights and Rest, Oxford, 2018.
9. Конвенции МОТ по охране труда и отдыху, 2020.
10. European Social Charter, Council of Europe, 1961.

MILLIY QONUNCHILIKKA XALQARO GUMANITAR HUQUQ NORMALARINI IMPLEMENTATSIYA QILISH MEXANIZMLARI

Ravshanov Ulug‘bek Maxmurbekovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi o‘qituvchisi
Sipatdinova Gauxar Mirzabayevna,
Milliy gvardiya Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmasi Psixologik ta’minlash bo‘linmasi katta ofitseri

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro gumanitar huquq (XGH) normalarining milliy qonunchilikka implementatsiya qilinish mexanizmlari tizimli tahlil etiladi. Xususan, qurolli mojarolar vaqtida insonni asrashga qaratilgan universal va mintaqaviy XGH manbalarining O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy va sohaviy qonunchiligiga integratsiyalanish shakllari o‘rganiladi. Maqolada implementatsiya jarayonining asosiy yo‘nalishlari — normativ-huquqiy moslashtirish, institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, milliy sud amaliyotida XGH normalaridan foydalanish, shuningdek harbiy xizmatchilarni XGH bo‘yicha o‘qitish kabi jihatlar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: xalqaro gumanitar huquq, implementatsiya, milliy qonunchilik, integratsiya mexanizmlari, qurolli mojarolar huquqi, xalqaro shartnomalar, ixtisoslashgan institutlar, milliy sud amaliyoti, harbiy xizmatchilarni o‘qitish, inson huquqlari himoyasi, normativ-huquqiy moslashtirish, milliy xavfsizlik.

Annotation. This article provides a systematic analysis of the mechanisms for implementing international humanitarian law (IHL) norms into national legislation. In particular, it examines the forms of integration of universal and regional IHL sources—aimed at protecting individuals during armed conflicts—into the constitutional and sectoral legislation of the Republic of Uzbekistan. The article highlights the main directions of the implementation process, including normative–legal adaptation, improvement of institutional mechanisms, application of IHL norms in national judicial practice, and the training of military personnel in IHL standards.

Key words: international humanitarian law, implementation, national legislation, integration mechanisms, law of armed conflict, international treaties, specialized institutions, national judicial practice, military personnel training, human rights protection, normative adaptation, national security.

Dunyo xalqaro munosabatlar tizimida SSSR ning qulashi jahon geosiyosatida katta burilishlarni yasadi, yangi davlatlar paydo bo‘ldi,bu jarayon muhim geosiyosiy makonda ya’ni Yevroosiyoning yuragi bo‘lgan Markaziy Osiyoda yuz berdi. Oksford universiteti professori Xelford J. Makkinderning “Heartlend” nazariyasiga ko‘ra, Markaziy Osiyo Yevroosiyoning yuragi va dunyo geosiyosiy maydonida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan geosiyosiy makon sifatida qaraladi. Markaziy Osiyoning yuragi esa bevosita O‘zbekistondir, bu haqda tadqiqotchi ”Sirojov quyidagicha ta’rif beradi “Ma`lumki, geosiyosatdagi mavjud “hartlend” nazariyasiga ko‘ra Markaziy Osiyo yer yuzi, mintaqalarning geosiyosiy yadrosi yoki markazi hisoblanadi. Markaziy Osiyoning hartlendi, geosiyosiy yadrosi esa O‘zbekistondir ”[1]. Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston poytaxti Toshkentga “Sharq darvozasi” deb ta’rif berishgan.. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bayon ertgan fikrda “O‘zbekiston bugungi kunda o‘zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda . Bu har tomonlama chuqur o‘ylab tanlangan yo‘ldir. Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O‘zbekiston ushbu mintaqa barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo‘shnichilik hududiga aylanishdan manfaatdordir” [2].

Xalqaro darajada tan olingan va o‘z mamlakat hududi uchun ratifikatsiya qilingan xalqaro huquq normalarini mamlakat qonunchiligiga implementatsiya qilish ham muhim jarayon hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda implementatsiya instituti o‘zi nima degan savolga to‘xtalib o‘tish joiz. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “implementatsiya” terminiga quyidagicha ta’rif berilgan.

“Implementatsiya” – (ingl. Implementation “amalga oshirish, bajarish, amaliy realizatsiya”) – mamlakat miqyosida xalqaro majburiyatlarni faktik realizatsiya qilish,

Milliy qonunchilikka xalqaro gumanitar huquq (XGH) normalarini implementatsiya qilish – bu davlatlarning xalqaro majburiyatlarini o‘z ichki huquqiy tizimiga integratsiya qilish jarayonidir. Bu jarayon xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, inson huquqlarini himoya qilish va qurolli mojarolar vaqtida insonparvarlik qoidalariga amal qilishda muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro gumanitar huquq – qurolli mojarolar davomida insoniyatni himoya qilishga qaratilgan xalqaro normalar majmuasidir. U asosan quyidagi manbalarga tayanadi:

Implementatsiyaning asosiy maqsadi: Davlat tomonidan xalqaro huquqiy majburiyatlarni faqat imzolash yoki ratifikatsiya qilish emas, balki ularni amaliyotga tatbiq etish (ya'ni real hayotda qo‘llash) orqali bajarilishini ta’minlashdir.

Transformatsiya – xalqaro hujjatning mohiyatini milliy qonunlar tiliga moslashtirish.

Inkorpatsiya – xalqaro normalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri milliy qonunchilikka qo‘shib qo‘yish.

Ratifikatsiya – xalqaro shartnomani parlament yoki prezident tomonidan tasdiqlab, majburiy kuchga kiritish.

1949-yil 12-avgustdagi 4 ta Jeneva konvensiyalari va ularning 1977-yildagi Qo‘shimcha protokollari;

Xalqaro odat huquqi;

Xalqaro sud qarorlari;

Implementatsiya – xalqaro normalarni milliy huquq tizimiga kiritish va ularni amaliyotga tatbiq etishdir. Bu uch bosqichda amalga oshiriladi:

Qonuniy (legislativ) implementatsiya – xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilish, yangi qonunlar qabul qilish yoki mavjud qonunlarga o‘zgartirish kiritish orqali;

Ma’muriy implementatsiya – ijroiya hokimiyat (masalan, sog‘liqni saqlash, mudofaa, ichki ishlar vazirliklari) tomonidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Sud implementatsiyasi – sudlar tomonidan xalqaro gumanitar huquq normalarini bevosita yoki bilvosita qo‘llash.

Milliy qonunchilikka xalqaro gumanitar huquq normalarini implementatsiya qilishning quyidagi mexanizmlari mavjud:

a) Normativ-huquqiy hujjatlarni moslashtirish;

Davlatlar xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilgach, ularga muvofiq milliy qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritadi. Masalan: Jinoyat kodeksiga urush jinoyatlari (urushni targ‘ib qilish, milliy etnik adovat qo‘zg‘atish), genotsid, insoniyatga qarshi jinoyatlar kiritilishi; harbiy xizmat va safarbarlik qonunlarida insonparvarlik qoidalarini aks ettirish.

b) Maxsus milliy institutlar yaratish;

Ba’zi davlatlarda xalqaro gumanitar huquqqa rioya qilishni ta’minlovchi milliy komissiyalar mavjud bo‘lib, ular: qonunchilikni tahlil qiladi, tavsiyalar beradi, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

c) Xalqaro gumanitar huquq bo‘yicha ta’lim va targ‘ibot;

Harbiylar, huquq-tartibot organlari va talabalar uchun xalqaro gumanitar huquq bo‘yicha o‘quv kurslari tashkil etiladi. Bu insonparvarlik qoidalarining amaliyotda buzilmasligini ta’minlaydi.

d) Jinoyatlarni tergov qilish va jazolash

Xalqaro gumanitar huquq normalarini buzgan shaxslar xalqaro yoki milliy sudlar tomonidan javobgarlikka tortiladi. Masalan, O‘zbekiston Jinoyat kodeksining 153-moddasi – harbiy jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

O‘zbekiston 1949 yilgi Jeneva konvensiyalarini va 1977 yildagi I protokolni ratifikatsiya qilgan. 2003 yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Xalqaro gumanitar huquq masalalari bo‘yicha idoralararo komissiya tuzilgan. Harbiy xizmatchilar, sudya va prokurorlar uchun xalqaro gumanitar huquq bo‘yicha o‘quvlar o‘tkaziladi. Jinoyat kodeksiga xalqaro jinoyatlar uchun javobgarlik kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi amaliyotda xalqaro gumanitar huquq sohasiga oid xalqaro shartnomalarni bajarishda uch xil turdagi bajariladigan shartnomalarni ajratadi: 1) o‘z-o‘zidan bajariladigan shartnomalar; 2) umumiy tamoyillarni qamrab olgan va ularni aniqlashtirish va ijro etilishi uchun davlat ixtoyoriga topshirilgan shartnomalar 3) bajarilishi uchun davlatning aniq normativ-huquqiy hujjatini qabul qilinishi talab etadigan shartnomalar.

Birinchi turdagi shartnomalarni bajarish o‘z-o‘zidan davlatning milliy ayrim qonun hujjatlarining lex specialis derogat generali va lex posterior derogat priori tamoyili asosida yemirilishiga olib keladi.

Ushbu amaliyot ichki huquq subyektlari tomonidan ratifikatsiya qilingan shartnomalarning qonuniy kuchga ega ekanligi va shuning uchun davlatning umumiy yoki oldingi qonunlariga nisbatan ustuvorligi tan olinganligidan dalolat beradi. Ikkinchi va uchinchi turdagi shartnomalarni bajarish amaliyotini tahlil qilish O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarining qoidalarini shartnoma normalarini iloji boricha aniqlaydigan va ularni amaliy qo‘llash imkoniyatini ta’minlaydigan ko‘plab normativ hujjatlarga kiritish orqali izchil bajarilishini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarni bajarish va ularni qo‘llash amaliyotiga oid qonunchiligini tahlil qilish, ular, bir tomondan, ichki manfaatlar va undan kelib chiqadigan talablarning maqbul uyg‘unligi namunasidir degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Ushbu yondashv, bir tomondan, xalqaro va ichki huquq o‘rtasidagi tub farqni bayon etishga asoslanadi, bu xalqaro normalarning majburiy xususiyatiga rozilik bildirish orqali amalga oshirishning mutlaq zarurligini belgilaydi va shu bilan birga ularga ichki huquq normalari kabi yurudik kuch beradi. Boshqa tomondan esa xalqaro vazifani uyg‘unlashtirish zarurati e’tirof etiladi. Xalqaro shartnomalarning ichki huquqiy tartib doirasida so‘zsiz bajarilishi kafolati bo‘lib, ular ziddiyatli bo‘lgan taqdirda qonun oldida dastlabki kelishuvlarni nazarda tutuvchi huquqiy normalar bo‘lib xizmat qiladi.

Pact sunt servanda tamoyili 1949 yilgi Jeneva konvensiyasi hamda 1977 yilgi unga kiritilgan qo‘shimcha Protokoldan kelib chiqqan holda davlatlarga vijdonan va to‘liq ravishda xalqaro majburiyatlarni bajarish majburiyatini yuklaydi. Shu bilan bir qatorda “xalqaro huquq normalarini amalga oshirish uni qabul qilishdan ko‘ra ancha qiyinroq”[3]

Xulosa: Milliy qonunchilikka xalqaro gumanitar huquq normalarini implementatsiya qilish – davlatning xalqaro majburiyatlarga sodiqligini, insonparvarlik tamoyillariga amal qilishini va qurolli mojarolar davrida ham inson huquqlarini hurmat qilishini ko‘rsatadi. Bu mexanizmlar qonunchilik, ijroiya va sud tizimi orqali tizimli amalga oshirilishi lozim.

References:

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. - Т.: Ўзбекистон, 2018. - Б.248.
2. Сирожов О. Марказий Осиё минтақасида ҳамкорлик жараёнлари. - T.:O‘zbekiston, 2016-Б.129
3. Корелл, Х. Подходящая школа международного права (К примату права в международных отношениях) // Междунар. право. 2000. № 211. С. 66
4. Webster's Third New International Dictionary, Cambr.(Mass.),2017
5. Черниченко С.В. Международное право: современные теоретические проблемы, М., 1993

ЎЗБЕКИСТОНДА ИНФРАТУЗИЛМАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТРАНСПОРТ СОҲАСИДАГИ ҲУҚУҚИЙ ТИЗИМНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ВА САМАРАЛИ МЕХАНИЗМИНИ ЖОРИЙ ЭТИШДА ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИНИНГ МУҲИМЛИЛИГИ

Юсупов Жамолбек Зокирович,
Ўзбекистон Республикаси Тошкент давлат
транспорт университети мустақил тадқиқотчиси

Аннотация: Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг қабул қилинганлигининг 33 йилги муносабати билан мамлакатимизда олиб борилаётган ислоҳотлар жараёнида, норматив ҳуқуқий ҳужжатларнинг такомиллашиб бораётганлиги, фуқаролик жамиятининг хукумат сиёсатида фаол иштирокини таъминлашда бош қомусимиз “инсон қадри учун” тамойиллига асосланган мавзулар баён этилган. Ушбу жараёнларни амалий механизмидаги муаммолар ўрганилиб, унинг ечимига берилган илмий-назарий, қиёсий-тахлилий методлари асносида таклиф ва тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: транспорт ҳуқуқи, ислоҳотлар, жамоатчилик назорати, жамоатчилик суриштируви, сўровнома(анкета), ҳуқуқий асос, норматив ҳуқуқий ҳужжатлар, Конституция, фуқаролик жамияти.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы проводимых в нашей стране реформ, совершенствования нормативно-правовых актов, активного участия гражданского общества в государственной политике, основанной на принципе «ради человеческого достоинства», что является основной темой нашего главного иедологии, в связи с 33-й годовщиной принятия Конституции Республики Узбекистан. Изучаются проблемы практического механизма этих процессов, даются предложения и рекомендации по их решению с использованием научно-теоретических и сравнительно-аналитических методов.

Ключевые слова: транспортное право, реформы, общественный контроль, общественный запрос, анкетирование, правовая основа, нормативные правовые документы, Конституция, гражданское общество.

Annotation: This article examines the ongoing reforms in our country, the improvement of regulatory and legal acts, and the active participation of civil society in public policy based on the principle of "human dignity," which is the main theme of our main research paper, in connection with the 33rd anniversary of the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. The practical mechanisms of these processes are examined, and proposals and recommendations for their resolution are provided using scientific, theoretical, and comparative analytical methods.

Key words: transport law, reforms, public oversight, public demand, survey, legal framework, regulatory legal documents, Constitution, civil society.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 14 ноябрь 2024 йил санасидаги 757-сонли “Ҳудудларда жамоат транспорт инфратузилмасини ривожлантиришга доир қўшимча чора тадбирлар” тўғрисидаги қарорига асосан Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат бошқаруви соҳасидаги коррупциявий ҳавф ҳатарларни бартараф этиш механизмларини такомиллаштириш ва ушбу соҳада жамоатчилик иштирокини кенгайтириш чора тадбирлари тўғрисида” 2022 йил 11 майдаги ПҚ-240 сонли қарори ижроси юзасидан намунавий лойиҳалар асосида автобус бекатларини ташкил этиш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси қарори қабул қилинди.

Мамлакатимизда давлат органлари ва ташкилотларининг коррупцияга қарши курашиш борасидаги фаолиятини такомиллаштириш доирасида уларга юкланган вазифа ва функцияларни амалга оширишда коррупциявий хавф-хатарларни баҳолаш тизими изчил жорий этилмоқда.

Шу билан бирга, Янги Ўзбекистон шароитида коррупциявий омилларни аниқлаш, баҳолаш ва бартараф этиш жараёнида тегишли соҳаларни рақамлаштириш ва таъсирчан жамоатчилик назоратини йўлга қўйишга эътиборини янада кучайтириш зарурати вужудга келмоқда.

Сўнг йилларда Ўзбекистон Республикасида жамоатчилик назоратининг амалиётдаги механизм жараёни давлатда олиб борилаётган ислоҳотлар доирасида тизимли равишда фаоллашмоқда. 2018 йил 12 апрелда қабул қилинган "Жамоатчилик назорати тўғрисида" ги қонун ушбу соҳада муҳим ҳуқуқий асос сифатида қабул қилинди. Ушбу қонун давлат органлари ва уларнинг мансабдор шахслари фаолияти устидан жамоатчилик назоратини ташкил этиш ва амалга оширишнинг тартиб-қоидаларини белгилаб беради. Аммо, унинг амалиётда тўлиқ шаклланганлигини айтиш учун ҳали баъзи муаммолар ва такомиллаштиришга эҳтиёж борлигини таъкидлаб ўтиш лозим. Илмий тадқиқот изланишларимда, ю.ф.д., профессор А.А.Дадашеванинг "Жамоатчилик назорати жараён эмас, натижа асосий бўлиши лозим" ғоясининг муҳимлигини таъкидлар экан, мансабдор шахсларнинг фаолиятини ОАВ орқали бир кунлик фаолиятини тўлиқ дастурлар орқали тақдим этиш ва мансабдор шахслар ўзларини чиқишларида кунда белгиланган режаларини тўлиқ ОАВ орқали бериб бориш зарурлигини таъкидлаган. 2025 йил 5 мартда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Сенатида "Коррупцияга қарши курашиш миллий кенгаш йиғилиши бўлиб ўтиди. Унда Ўзбекистон Республикаси иккинчи Президенти Ш.М.Мирзиёев, юртимизда коррупциядан холи муҳит яратиш бўйича қилинган ишларга баҳо берилиб, келгуси вазифалар юзасидан нутқида. Жамиятда коррупсия муаммосини жамоатчилик муҳокамасига олиб чиқадиган очиқ тизим яратилди. Айниқса, оммавий ахборот воситаларининг бу борадаги ўрни ва таъсири ортиб бормоқда".

Ушбу ғояни давом этиришда ҳозирги ахборот даврида ОАВ (оммавий ахборот воситалари) орқали халқ хизматчиларининг бир кунлик меҳнат фаолиятини очиқ, шаффоф олиб борилиши фуқароларимиз учун маълум бир жиҳатларида маълумот сифатида эга бўлиши, олиб борилаётган ишларнинг кетма-кетлигидан боҳабар бўлиши, халқ хизматчиларининг маъсулиятлилиги юзасидан бир оз бўлса ҳам танишиш, маълумотга эга бўлиши муҳимдир. Жамоатчилик назоратининг субектлари, шакллари, бу соҳадаги ижтимоий муносабат иштирокчиларининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари ҳамда жамоатчилик назоратининг натижалари ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамланди. Бугун, мамлакатимизда жамоатчилик назоратини олиб бориш бўйича норматив-ҳуқуқий база шакллантирилган бўлиб, у тизимли равишда ривожланиб боримоқда.

“Тараққиёт стратегияси” маркази ижрочи директори Элдор Тулякуов таъкидлаганидек, “Жамоатчилик назоратининг асосий қуроли бу – қонун. Жамоат ташкилотлари давлат ижро тузилмаларининг қонунлари қандай ижро этаётганини назорат қилади. Жамоатчилик назоратининг хулосалари ижро ҳокимиятининг фаолиятини танқидий кўриб чиқиш, камчиликларни тузатиш, халқчиликни таъминлашга хизмат қилади. Фуқароларнинг фаоллиги, ижтимоий ҳодисаларга дахлдорлик ҳиссининг ортиши ҳамда ҳар бир давлат хизматчисининг ўз фаолияти жамоатчилик назорати остида эканлигини чуқур ҳис этиб бориши фуқаролик жамияти шаклланиши жараёнининг муҳим шартларидандир. Яъни, давлат органлари аҳолига ўз сиёсати, ҳаракатларини тушунтириб бериши, халқ олдида мунтазам равишда ҳисобот бериб бориши бугунги замон талабидир.

Фикримизча, жамоатчилик назоратида жараён эмас, натижага қараб хулоса чиқариш зарур. Акс ҳолда, жамоатчилик назорати ижро ҳокимияти идораларини депсиниш ҳолатига тушириб қўяди. Шу сабабли жамоатчилик назоратида жараён эмас, натижа асосий мезон бўлиши лозим*”* деб таъкидлаб ўтган.

“Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги қонунда назорат субъектлари (фуқаролар, нодавлат нотижорат ташкилотлари, оммавий ахборот воситалари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари) ва объектлари (давлат органларининг қарорлари, дастурлари, хизматлари) аниқ кўрсатилган. Назорат шакллари сифатида жамоатчилик муҳокамалари, эшитувлар, мониторинг, экспертиза ва сўровлар каби усуллар белгиланган. Давлат органлари ҳузурида жамоатчилик кенгашлари ташкил қилинди, масалан, Рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш қўмитаси ҳузуридаги Жамоатчилик кенгаши. Шунингдек, 2020 йилда Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузурида Жамоатчилик палатаси ташкил этилиши назоратни янада кучайтиришга хизмат қилди. Жамоатчилик назорати фаолиятида оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқлар роли ортиб бормоқда. Масалан, қонун лойиҳалари кенг муҳокама учун эълон қилинади, аҳоли фикри эътиборга олинади. Шу билан бирга, давлат органларининг очиқ мажлисларида иштирок этиш ва ҳисоботларни эшитиш имконияти ҳам мавжуд. Ҳозирги кунда Жамоатчилик кенгашлари кўпинча расмиятчилик билан чекланиб, реал таъсир кўрсата олмаяпти. Мониторинг ва таҳлилларга кўра, бу тузилмаларнинг фаолияти кўп ҳолларда қоғозда қолади. Жамоат назорати механизмларидан тўлиқ фойдаланиш учун аҳолининг ҳуқуқий онги ва иштирокини янада ошириш талаб этилади. Бунинг учун, давлат органларининг фаолиятининг шаффофлиги ва улар томонидан тақдим этиладиган маълумотлар ҳажми аниқ,

тўлиқ тақдим этилиши муҳим аммо бу маълумот ҳали тўлиқ даражада ташкиллаштирилмаган.

Сўнги йилларда “Электрон ҳукумат” тизимининг ривожланиши(“Электрон ҳукумат тўғрисидаги қонун”ни), давлат хизматларининг онлайн платформалар орқали кўрсатишлиши ва аҳоли билан мулоқатни яхшиланиши жамоатчилик назоратининг самарасини оширишга хизмат қилмоқда. Шунингдек, 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясида бу механизмларни янада такомиллаштириш вазифаси қўйилган.

Ўзбекистонда жамоатчилик назоратининг амалиётдаги механизми ҳуқуқий жиҳатдан шаклланган ва аста-секин ривожланмоқда, лекин унинг тўлиқ самарадорлигига эришиш учун амалий жараёнларни янада кучайтириш, фуқароларнинг фаоллигини ошириш ва давлат органларининг очиқлигини таъминлаш зарур. Бу йўналишдаги ислоҳотлар давом этмоқда, ва натижалар вақт билан янада аён бўлади, агар ушбу механизм ўз ижобий натижасини берса.

Тадқиқотимиз обекти Ўзбекистонда темир йўл транспорт соҳасини ривожланишида жамоатчилик назорати муҳим аҳамият эга, чунки бу соҳадаги шаффофлик, самарадорлик ва ижтимоий манфаатларни таъминлашга катта рол ўйнайди. Бу соҳада, жамоатчилик назорати деганда, фуқаролар, нодавлат ташкилотлар ва мустақил экспертларнинг темир йўл тизими фаолиятини кузатиш, таҳлил қилиш ва унга таъсир кўрсатиш жараёни тушунилади. Бу эса давлат органлари ва темир йўл соҳасидаги масъул ташкилотларнинг ишини яхшилашга, коррупсияни камайтиришга ҳамда аҳоли эҳтиёжларига мос равишда хизмат сифатини оширишга хизмат қилади. Ўзбекистонда темир йўл транспорт соҳасини ривожлатиришда жамоатчилик назорати муҳим аҳамиятга эга, чунки бу соҳадаги шаффофлик, самарадорлик ва ижтимоий манфаатларни таъминлашда катта рол ўйнайди.

Биринчидан, Ўзбекистонда темир йўл транспорти мамлакат иқтисодиёти ва транзит салоҳиятининг муҳим таркибий қисми сифатида кўрилади. Сўнгги йилларда “Ўзбекистон темир йўллари” акциядорлик жамияти томонидан янги йўналишлар очиш, инфратузилмани модернизатция қилиш ва хизмат кўрсатиш сифатини яхшилаш борасида кўплаб лойиҳалар амалга оширилмоқда. Жамоатчилик назорати ушбу жараёнларда ресурслардан самарали фойдаланилганини, қурилиш ва модернизатсия ишлари сифатли бажарилганини таъминлашда муҳим восита бўлиб хизмат қилади. Масалан, фуқаролар томонидан темир йўл вокзалларидаги хизматлар, поездларнинг ўз вақтида қатнаши ёки нарх сиёсати борасидаги фикр-мулоҳазалар соҳадаги муаммоларни аниқлаш ва уларни ҳал қилишга ёрдам беради.

Иккинчидан, жамоатчилик назорати темир йўл соҳасидаги давлат сиёсати ва қонунчиликнинг ижросини кучайтиришга хизмат қилади. Ўзбекистон Республикаси Транспорт вазирлиги ҳузуридаги Транспорт назорати инспексияси каби тузилмалар соҳада хавфсизлик ва қойидаларига риоя қилинишини таъминлаш билан шуғулланса-да, бу жараёнга жамоатчиликнинг жалб қилиниши қўшимча шаффофлик ва ишонч омилини яратади. Фуқаролар ва нодавлат ташкилотлар томонидан тақдим этилган таклифлар ёки танқидий фикрлар қарор қабул қилишда аҳоли манфаатларини инобатга олишга ёрдам беради.

Учинчидан, жамоатчилик назорати темир йўл транспортининг ижтимоий йўналтирилганлигини таъминлайди. Ўзбекистонда темир йўл транспорт хизматларидан фойдаланувчиларнинг асосий қисми оддий аҳоли бўлиб, улар учун қулайлик, хавфсизлик ва нархларнинг қулай бўлиши муҳимдир. Жамоатчилик назорати орқали йўловчиларнинг шикоят ва эҳтиёжлари тезроқ етказилиб, улар асосида тегишли чоралар кўрилиши мумкин. Масалан, поездлардаги хизмат сифати, вокзаллардаги шароитлар ёки махсус имконияти чекланган шахслар учун инфратузилма мавжудлиги каби масалалар жамоатчилик эътибори туфайли долзарб бўлиб қолади.

Нихоят, жамоатчилик назорати темир йўл соҳасида инновациялар ва замонавий технологияларни жорий қилишда ҳам ўз ўрнига эга. Фуқаролар ва экспертларнинг таклифлари рақамлаштириш, экологик тоза транспорт воситаларидан фойдаланиш ёки хизматларни онлайн платформалар орқали кенгайтириш каби йўналишларда янги имкониятларни очиб бериши мумкин.

Юқоридаги фикрларни умумлаштириб ҳулоса қилиб айтганда, Ўзбекистонда темир йўл транспорт соҳасини ривожлантиришда жамоатчилик назорати соҳанинг шаффоф, самарали ва аҳоли эҳтиёжларига мос равишда ишлашини таъминлайди. Бу жараён давлат, хусусий сектор ва фуқаролар ўртасидаги ҳамкорликни кучайтириб, мамлакатнинг транспорт салоҳиятини янада юқори босқичга олиб чиқишга хизмат қилади.

Ҳозирги ахборот асрида иннавацион технологияларнинг яъни суъний интелектнинг жамиятдаги ўрни ривожланиб ва янгиликлар, ислоҳотлар кириб келиши даврида Ўзбекистон Республикасида транспорт соҳасини ривожлантириш учун жамоатчилик назоратини татбиқ этиш бир қатор самарали механизмлар ва амалий чоралар орқали татбиқ этилиши мумкин. Бу жараёнда аҳолининг фаол иштироки, шаффофлик ва давлат органлари билан ҳамкорлик асосий омиллар сифатида хизмат қилади. Ушбу мавзуни татбиқ этишимиздан мақсад инсон омили буни тўғри қўллай олиши, унинг ҳуқуқий асоси мавжуд бўлиб, ҳуқуқий муҳофаза қилиниши муҳимдир. Фуқаролик жамиятининг

ривожланишига ўз ҳиссасини қўшишда бир нечта унсурлар муҳимлигини таъкидлаш жойиз:

Биринчи навбатда, ахборот шаффофлигини таъминлаш яъни жамоатчилик назоратини самарали бўлиши учун транспорт соҳасидаги фаолияти, лойиҳалар, грантлар, тадқиқотлар ва уларни молиялаштириш ҳақида очиқ маълумотлар тақдим этилиши керак бунда очиқ маълумотлар портали Транспорт вазирлиги ёки тегишли идоралар томонидан, жамоат транспортини модернизация қилиш ва бюджет ҳаражатлари бўйича маълумотларни эълон қилиш зарур.

Мобил иловалар ва веб-сайтлар инсоннинг ҳар кунги фойдаланадиган техника обьекти хисобланганлиги учун аҳолига реал вақтда транспорт хизматлари, йўналишлар ва муаммолар ҳақида хабардор бўлиш имконини бериш муҳимдир.

Иккинчи навбатда, жамоатчилик муҳокамаларини ташкиллаштириш яъни транспорт соҳасидаги янги лойиҳалар, масалан автобус йўналишларини очиш ёки метро станцияларини қуришни жамоатчилик муҳокамасидан ўтказиш керак. Бунда, онлайн платформалар орқали фикр билдириш ва бу орқали аҳолининг таклиф ва тавсияларини ҳам инобатга олиниши, ижтимоий тармоқларда ёритилиб борилиши муҳим.

Учинчи навбатда, чекка ҳудудларда қишлоқ ва посёлка аҳоли вакиллари билан очиқ мулоқат ўтказиб борлиши муҳимдир. Фуқароларнинг шикоят ва таклиф механизмини жамоатчилик назорати орқали кучайтириш ва аҳолидан келадиган шикоят ва таклифларни тезкор кўриб чиқиш тизимини йўлга қўйиш даркор. Махсус колл-марказ ёки мобил илова. Масалан, жамоат транспортидаги носозликлар ҳолатларини аниқлаш учун аҳолидан далилларни йиғиш, яъни автобус бекатга кеч келса ёки йўналлишда муаммолар бўлса шулар ҳақида хабар бериш муаммоларни ечими тез бартараф этилар эди. Бунда фото ва видео далиллар коррупцияга ёки қоидабузарлик ҳолатларини аниқлаш учун аҳолидан далилларни юбориш имконияти яратиш механизми вужудга келади. Масалан, хизмат машиналарини хусусий мақсадда ишлатиш.

Тўртинчи навбатда, жамаот транспортида назорат гуруҳлари ташкиллаштириш бунда аҳоли вакилларидан иборат махсус гарурҳлар ташкил қилиниб, улар транспорт хизматларини сифатини кузатиши мумкин. Жамоат транспортида тўловларнинг тўғри амалга оширилишини текшириш жараёни ҳам йўлга қўйилади. Жамаот транспортларининг техник ҳолати, тозалиги ва жадвалга риоя қилишни баҳолаш рейтингини шакллантириш муҳим, риоя этилишига қараб молиявий қўллаб-қувватлаш жараёнини йўлга қўйиш муҳим.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясида (36-49-148-моддалар) Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари жамият ва давлат ишларини

бошқаришда бевосита ҳамда ўз вакиллари орқали иштирок этиш ҳуқуқига эга. Бундай иштирок этиш ўзини ўзи бошқариш, референдумлар ўтказиш ва давлат органларини демократик тарзда шакллантириш, шунингдек давлат ораганларининг фаолияти устидан жамоатчилик назорати воситасида амалга оширилади. Давлат органларининг фаолияти устидан жамоатчилик назоратини амалга ошириш тартиби қонун билан белгиланган. Жамоатчилик назоратининг тартиби ва ваколатларини аниқ кўрсатиб бериш ва албатта натижасини хисобот тариқасида тақдим этиш муҳим. Ўзбекистон Республикаси жамоатчилик назорати тўғрисидаги қонун 2018 йил ўн иккинчи апрель ЎРҚ-474-сонли қонуни қабул қилинганлиги энг муҳим ҳуқуқий асосдир. “Жамоатчилик назорати тўғрисида” ги қонунда назорат субъектлари (фуқаролар, нодавлат нотижорат ташкилотлари, оммавий ахборот воситалари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари) ва объектлари (давлат органларининг қарорлари, дастурлари, хизматлари) аниқ кўрсатилган. Назорат шакллари сифатида жамоатчилик муҳокамалари, эшитувлар, мониторинг, экспертиза ва сўровлар каби усуллар белгиланган. Давлат органлари ҳузурида жамоатчилик кенгашлари ташкил қилинди, масалан, Рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш қўмитаси ҳузуридаги Жамоатчилик кенгаши. Шунингдек, 2020 йилда Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузурида Жамоатчилик палатаси ташкил этилиши назоратни янада кучайтиришга хизмат қилди. Жамоатчилик назорати фаолиятида оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқлар роли ортиб бормоқда. Масалан, қонун лойиҳалари кенг муҳокама учун эълон қилинади, аҳоли фикри эътиборга олинади. Шу билан бирга, давлат органларининг очиқ мажлисларида иштирок этиш ва ҳисоботларни эшитиш имконияти ҳам мавжуд.

Транспорт соҳасидаги ислоҳотларни кузатиш учун ННТ (нодавлат нотижорат ташкилотлар) ва экспертлар билан ҳамкорлик қилиш зарур.

Бешинчидан, технологиялардан фойдаланиш яъни замонавий иннавацион усуллардан жамоатчилик назоратини осонлаштириш сифатидан ёрдамчи звено бўлади. (GPS ва камералар орқали жамоат транспортидаги ҳаракатни кузатиш ва маълумотларни аҳоли билан бўлишиш). Big Data ва AI транспорт оқимларини таҳлил қилиш ва муаммоли нуқталарни аниқлашда аҳоли фикрини инобатга олиш. Оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқлавр орқали транспорт соҳасидаги муаммоларни маълумот сифатида тақдим этиш ва ижобий ҳал этиш.

Юқоридаги фикрларни умумлаштириган ҳолда ушбу таклиф ва тавсиялар амалиётда ўз ечимини топишга кўмак беради. Жамоатчилик назоратининг асосий қуроли бу – қонун. Жамоат ташкилотлари давлат ижро тузилмаларининг қонунларни қандай ижро этаётганини назорат қилади. Жамоатчилик

назоратининг хулосалари ижро ҳокимиятининг фаолиятини танқидий кўриб чиқиш, камчиликларни тузатиш, халқчилликни таъминлашга хизмат қилади. Фуқароларнинг фаоллиги, ижтимоий ҳодисаларга дахлдорлик ҳиссининг ортиши ҳамда ҳар бир давлат хизматчисининг ўз фаолияти жамоатчилик назорати остида эканлигини чуқур ҳис этиб бориши фуқаролик жамияти шаклланиши жараёнининг муҳим шартларидандир. Яъни, давлат органлари аҳолига ўз сиёсати, ҳаракатларини тушунтириб бериши, халқ олдида мунтазам равишда ҳисобот бериб бориши бугунги замон талабидир.

Жамоатчилик назоратида жараён эмас, натижага қараб хулоса чиқариш зарур. Акс ҳолда, жамоатчилик назорати ижро ҳокимияти идораларини маъсулиятли бўлиш яъни халқ хизматчиси-ҳолатига тушириб қўяди. Шу сабабли жамоатчилик назоратида жараён эмас, натижа асосий мезон бўлиши лозим.

References

1. Ш.М.Мирзиёев. “Бир макон, бир йўл” –манфаатларимиз муштарак. // Миллий тараққиёт йўлимизни қатьият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, Т., “Ўзбекистон”, 2018 й., 409-бет.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. “Ўзбекистон”. Т.: 2023. 136 б .
3. Ў.Умурзоқов. Глобал иқтисодий, транспорт ва транзит йўлаклари интеграцияси Ўзбекистонга нима беради? 12.02. 2021 йил Халқ сўзи.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномаси. – 2020 йил 29-декабрь.
5. Дадашева, А. (2019). Ўзбекистонда маҳаллий ижро ҳокимияти органларининг давлат жамият бошқарув тизимидаги ўрни. Tadqiqot.Uz. https://doi.org/10.26739/2181-9130-2019-11-б
6. A.A Dadasheva PUBLIC OPINION AND GOVERNMENT EVALUATION IN NEW UZBEKISTAN - The American Journal of Interdisciplinary Innovations …, 2022
7. А Дадашева - Взаимодействие органов представительной власти на местах и самоуправления граждан в осуществлении действенного общественного контроля. Fuqarolik jamiyati. Гражданское общество, 2021.
8. АА Дадашева - Маҳаллий ижро ҳокимияти фаолияти устидан жамоатчилик назоратини натижадорлигини оширишнинг илмий-назарий ечимлари. журнал правовых исследований, 2020
9. А.А. Дадашева. Давлат хизматини ислоҳ қилиш шароитида ҳокимлар фаолияти устидан жамоатчилик назоратини амалга оширишнинг асосий йўналишлари - Academic research in educational sciences, 2022

DAVLATIMIZDA YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA QONUN, FARMONLAR VA ME'YORIY HUJJATLARINING AHAMIYATI

G'ovsiddinova Nozanin Sunnatullo qizi,
Jamoat xavsizligi universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan O'zbekiston milliy qonunchiligidagi bir qator qonun va normativ hujjatlarning mazmun va mohiyati hamda maqsadi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik,harbiy burch, fuqarolik tuyg'usi, zo'ravonlik va shafqatsizlik, fidoyilik, matonat, harakatlar strategiyasi , konstitutsiya , qonun , muqaddas burch.

Аннотация: В статье рассматриваются содержание, сущность и назначение ряда законов и нормативных актов национального законодательства Узбекистана, направленных на формирование чувства патриотизма у молодёжи.

Ключевые слова: патриотизм, воинский долг, гражданственность, насилие и жестокость, самоотверженность, толерантность, стратегия действий, конституция, закон, священный долг.

Abstract: This article examines the content, essence and purpose of several laws and regulations of the national legislation of Uzbekistan aimed at forming a sense of patriotism in young people.

Keywords: patriotism, military duty, civic spirit, violence and cruelty, selflessness, tolerance, strategy of actions, constitution, law, sacred duty.

Kirish: Vatanni tinchligi uchun har bir kishi javobgar va uni qo'riqlash barcha uchun muqaddas burch hisoblanadi. Bu burchni ado etishda yurtimizning himoyachilari bo'lgan har bir fuqoro ,yoshlar , harbiy xizmatchilar va barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta'minlashda olib borayotgan xizmatini baholash, hamda ularga zarur shart-sharoit yaratish masalalari ham davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi. Albatta , vatanni jismonan, ma'nan, psixologik barkamol shaxs qo'riqlaydi .

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 64-moddasida *"O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar"* [1]– deya belgilab qo'yilgan ekan, avvalambor, O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni talablaridan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura

oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash, yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, bugungi kunda juda ham achinarli bo‘lgan zo‘ravonlik, va shafqatsizlik holatlarni oldini olish , ularni turli yod g’oyalardan himoya qilish hamda yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi.[2]

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023- yil 29-iyundagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 267-sonli Qaroriga 1-ilovasidagi 2023-2027 yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish Konsepsiyasiga ko‘ra, yoshlarni harbiyvatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan bog‘liq bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqining taqdiri uchun yuksak mas’uliyat hamda javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni mustahkamlashdan iborat ekanligi belgilab qo‘yilgan.[3] Shuningdek, yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tuyg‘ulari, ma’naviy sifatlari va intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaning yagona tizimini yaratish, yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ong-u shuuriga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanligini chuqur singdirish, Vatan ozodligi va mustaqilligi yo‘lida jon fido qilgan yurtdoshlarimiz ko‘rsatgan vatanparvarlik va qahramonlik, ulardagi sadoqat, fidoyilik, matonat hamda jasorat kabi xislatlarni, shuningdek, yurt, oila, ota-ona va farzandlar himoyasi xalq va ajdodlar xotirasi oldida muqaddas burch ekanini yoshlar ongiga singdirish, yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro‘y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko‘nikmalarini, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali tarqatilayotgan g‘arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish lozim bo‘ladi.

Shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026ga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasining 70-maqsadiga ko‘ra Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish borasida chora tadbirlar namoyon bo‘lganligiga guvohmiz. Unga ko‘ra bir qancha maqsadlar yetakchi o‘rin egallagan;

-yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash.

-yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish.

-yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash.

-yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish.

-yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish. Ushbu ustuvor masallalar bugungi kunda yoshlarning har bir faoliyati bilan keng shug’ullanishimiz asosiy burchlarimizdan biri ekanligini yaqqol nomoyon qiladi .

71-maqsadda esa Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish asosiy maqsad qilib olingan.[4]

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasida “*Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar.*

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir.

Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi”[1]. Ko‘rib turibmizki yoshlarni vatanparvarlik tuyg’usida shakllantrish davlat konstitutsiyasida ham alohida ta’kidlanib o‘tilgan va hech qachon dolzarbligini yo‘qotmaydigan masaladir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga vatanparvarlik tuyg’usi va uni himoya qilish muqaddas burch ekanini chuqur singdirish, yoshlarda milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish barobarida, milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma’nan yetuk yoshlar zarurligini anglatish, yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro‘y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko‘nikmalarini oshirish, yoshlarda turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish va tarbiyalash, O‘zbekiston manfaatlarini hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo‘lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta’sirchan vositalar yordamida yoshlar ongiga singdirib borish orqali, ularni vatanga sodiq hamda vatanparvar etib tarbiyalash kerak . Har bir jarayonda, har bir harakatda maqsad mavjud , hech bir harakat o‘z o‘zidan amalga oshmaydi yoshlarni vatanparvarlik ruhida shakllantrish esa mening maqsadim . Har bir voyaga yetyotgan yoshlarni kuzatish va suhbat metodlaridan foydalanib taxlil qildim va bugunimiz , kelajagimiz uchun ham har bir yosh avlodda vatanparvarlik tuyg’usini shakllantrish muhim vazifamiz ekanligini angladim . Qonun ,farmon va

qarorlar bu shunchaki so‘zlar emas bajarilishi muhim hisoblangan va har bir insonni hayot tarziga bevosita ta’sir va aloqasi bor bo‘lgan hujjatlardir va bu hujjatlarni ijrosini taminlashda shunchaki befarqlik bilan yondashish mumkun emas . Etiborsizlik go‘yoki vatanga bo‘lgan xiyonatdir. Har kim o‘z vazifasiga adolat , vijdon , bilan harakat qilishi shart.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 64,78-modda 30.04.2023
2. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023- yil 29-iyundagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 267-sonli Qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA - O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TARAQQIYOTINING KAFOLATI

Jurayev Jasur Maxsutovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti tinglovchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi mazmun-mohiyati va uning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni yoritilgan. Unda 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotlarning ahamiyati, inson huquq va erkinliklarini kengaytirish, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini kuchaytirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan.

“Inson — jamiyat — davlat” tamoyilining amaliy ifodasi sifatida yangilangan Konstitutsiya O‘zbekistonni demokratik, adolatli va huquqiy davlat sifatida barqaror taraqqiyot sari olib boruvchi muhim huquqiy kafolat ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada Konstitutsiyada belgilangan yangi normalarning xalq hayotiga ta’siri, ijtimoiy adolat, tenglik va inson manfaatlarini ta’minlashdagi o‘rni ham yoritilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy sohalarini rivojlantirishga, davlat boshqaruvida ochiqlik va xalq manfaatini ustuvor qilishga xizmat qilishi ta’kidlangan. Umuman olganda, yangilangan Konstitutsiya — Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining huquqiy, siyosiy va ma’naviy poydevori sifatida mamlakat kelajagini belgilovchi asosiy omil sifatida baholangan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, yangilanish, taraqqiyot, O‘zbekiston, inson huquqlari, erkinlik, demokratiya, adolat, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, islohotlar, xalq irodasi, “Inson – jamiyat – davlat” tamoyili, ijtimoiy himoya, barqarorlik, taraqqiyot kafolati.

Аннотация. В данной статье раскрыта сущность и значение обновлённой Конституции Республики Узбекистан, а также её роль в развитии страны. Рассмотрено значение конституционных реформ 2023 года, направленных на расширение прав и свобод человека, усиление социальных обязательств государства и развитие гражданского общества. Обновлённая Конституция, как практическое выражение принципа **«Человек — общество — государство»,** рассматривается как важная правовая гарантия устойчивого развития Узбекистана как демократического, справедливого и правового государства. Кроме того, в статье анализируется влияние новых конституционных норм на жизнь народа, их роль в обеспечении социальной справедливости, равенства и защиты интересов человека. Подчёркивается, что новая редакция Конституции способствует развитию политической, экономической и духовной сфер общества, открытости государственного управления и приоритету интересов народа. В целом, обновлённая Конституция оценивается как правовая, политическая и духовная основа Нового Узбекистана, определяющая будущее страны.

Ключевые слова: Конституция, обновление, развитие, Узбекистан, права человека, свобода, демократия, справедливость, гражданское общество, правовое государство, реформы, воля народа, принцип «Человек – общество – государство», социальная защита, стабильность, гарантия развития.

Annotation. This article highlights the essence and significance of the renewed Constitution of the Republic of Uzbekistan and its role in the country’s development. It discusses the importance of the 2023 constitutional reforms aimed at expanding human rights and freedoms, strengthening the state’s social responsibilities, and promoting the development of civil society. The updated Constitution, as a practical embodiment of the **“Human – Society – State”** principle, is regarded as an important legal guarantee for Uzbekistan’s sustainable development as a democratic, just, and lawful state.The article also analyzes the impact of the new constitutional norms on people’s lives and their role in ensuring social justice, equality, and the protection of human interests. It emphasizes that the new edition of the Constitution contributes to the development of the political, economic, and spiritual spheres of society, ensuring transparency in governance and prioritizing the interests of the people. Overall, the renewed Constitution is evaluated as the legal, political, and spiritual foundation of New Uzbekistan, defining the country’s future path.

Key words: Constitution, renewal, development, Uzbekistan, human rights, freedom, democracy, justice, civil society, rule of law, reforms, people’s will, “Human – Society – State” principle, social protection, stability, guarantee of development.

Demokratik davlatning poydevori — xalqning irodasi va bu irodani jamiyat va huquqiy tartib bilan uyg'unlashtirgan hujjat — konstitutsiyadir. O'zbekiston Respublikasi 2023-yilda o'tkazilgan keng qamrovli konstitutsiyaviy islohotlar orqali huquqiy, ijtimoiy va davlat boshqaruvi tizimini tubdan yangiladi. 2023-yil 30 aprel kuni o'tkazilgan referendumda yangi Konstitutsiya loyihasi 90 foizdan ortiq ovoz bilan ma'qullangan. Mazkur yangilanishlar shunday muhitda amalga oshirildi: globallilik, iqtisodiy raqobat, yosh avlodning talab-intilishlari va jamiyatdagi ijtimoiy adolat tamoyillari tobora kuchaymoqda. Ayni paytda davlat majburiyatlari kengaygan, fuqarolarning huquq va erkinliklari yanada mustahkamlangan[28] yangilangan Konstitutsiya orqali O'zbekistonning quyidagi yo'nalishlari qayd etildi**: "Inson — jamiyat — davlat"** tamoyilini asos qilib olgan huquqiy davlat modeli, ijtimoiy himoya, adolat tamoyillari, va fuqarolik jamiyatining rivojlanishidir. Shu bilan birga, davlat boshqaruvi va siyosiy institutlarini zamon talablariga moslashtirish orqali barqaror taraqqiyot kafolatlanmoqda. Shu bilan birga, mazkur islohotlar nafaqat huquqiy hujjatlarni yangilashni, balki ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha muhim maydonlarni ham o'z ichiga oladi — ya'ni fuqarolarning hayot darajasini oshirish, davlat xizmatlari va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish[29] kerakligini aytish joiz. Shu tarzda, yangilangan Konstitutsiya O'zbekistonda jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiluvchi, taraqqiyot yo'lida huquqiy kafolat vazifasini bajaruvchi muhim omilga aylangan.

O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda amalga oshirilgan **konstitutsiyaviy islohotlar** mamlakat tarixida tub burilish nuqtasi bo'ldi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya nafaqat huquqiy tizimni, balki jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotini zamon talablari darajasida yangilashni ko'zda tutadi. Bu islohotlarning dolzarbligi bir nechta muhim omillar bilan belgilanadi.

Inson huquqlari va erkinliklarini ustuvor qilish zarurati. Bugungi global dunyoda inson huquqlari eng asosiy qadriyat sifatida e'tirof etiladi. O'zbekiston ham bu borada xalqaro standartlarga mos huquqiy tizim yaratishga intilmoqda. Yangilangan Konstitutsiyada **"Inson — jamiyat — davlat"** tamoyilining huquqiy asos sifatida mustahkamlanishi, inson sha'ni va qadr-qimmatining daxlsizligi, davlatning inson manfaatlariga xizmat qilishi dolzarbligini yanada oshiradi[30]. Masalan, BMT Inson huquqlari kengashi 2023-yilgi hisobotida O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasini *"fuqarolik erkinliklarini kengaytiruvchi muhim qadam"* sifatida e'tirof etgan[31].

[28]https://www.loc.gov/item/global-legal-monitor/2023-05-30/uzbekistan-new-constitution-takes-effect/?utm

[29] https://www.uzembassy.kz/en/article/the-renewed-constitution-of-uzbekistan-ensuresthe-accountability-of-public-officials-and-social-protection-of-citizens?utm_source

[30] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil tahriri.

[31]United Nations Human Rights Council. *Uzbekistan: Constitutional reforms strengthen human rights protection.* (2023). https://www.ohchr.org

Davlat va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy shartnomani yangilash. Yangi Konstitutsiya ijtimoiy davlat tamoyilini huquqiy jihatdan mustahkamlab, davlatning fuqarolar oldidagi majburiyatlarini kengaytirdi. Xususan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va ekologiya sohalarida davlatning mas’uliyati aniq belgilandi[32].

Siyosiy tizimni modernizatsiya qilish. O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida siyosiy islohotlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Konstitutsiyaviy o‘zgarishlar orqali parlament va mahalliy kengashlar vakolatlari kengaytirildi, sud hokimiyatining mustaqilligi yanada kuchaytirildi, prezidentlik muddati esa xalq irodasiga asoslanib qayta belgilandi[33].

Iqtisodiy barqarorlik va global raqobatga tayyorgarlik. Konstitutsiyada xususiy mulk daxlsizligi, tadbirkorlik erkinligi va sarmoyadorlar huquqlarining kafolatlanishi mamlakatning investitsion jozibadorligini oshiradi. Bu jihatdan yangi Konstitutsiya iqtisodiy islohotlar uchun mustahkam huquqiy asos yaratadi[34].

Ma’naviy yangilanish va milliy o‘zlikni mustahkamlash. Konstitutsiyada milliy qadriyatlar, oila institutining ahamiyati, yoshlar va keksalarni qo‘llab-quvvatlash masalalari ham dolzarb tarzda yoritilgan[35]. Bu o‘zgarishlar **“Yangi O‘zbekiston — inson qadri uchun”** tamoyilini huquqiy jihatdan mustahkamlab beradi.

Milliy Qonunchilik va huquqiy amaliyotda: **“shaxs - jamiyat – davlat”** tamoyilini mustahkamlash, iqtisodiy islohotlar jarayonida inson manfaatlarini himoya qilish bosh mezonga aylanishini ta'minlash, oila institutini rivojlantirish, kelajak uchun ezgu insoniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash uchun konstitutsiyaviy asoslarni yaratish zarurligini hamda davlat siyosatini, o‘g'il - qizlarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va majburiyatlarini konstitutsiyaviy darajada yoshlarning huquq va manfaatlarini to‘liq ta'minlash masalasini aks ettirish,**“Yangi O‘zbekiston - ijtimoiy davlat”** tamoyilini konstitutsiyaviy norma sifatida mustahkamlash, bolalar mehnatining oldini olish va jamiyat hayotini ishonchli himoya qilish masalalari, nogironligi bo‘lgan odamlarning huquqlari va qariyalar, ekologik qoidalarni Konstitutsiyamizga kiritish va mustahkamlangan konstitutsiyaviy daraja **“Uchinchi Uyg'onish davri”**ning to‘rtta ajralmas komponenti bo‘lgan maktabgacha ta'lim, maktab, oliy ta'lim va fanning rivojlanishidir. ***Akademik A. Saidov to‘g'ri ta'kidlaganidek***, O‘zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlar tizimida so‘nggi yillarda qabul qilingan uchta kompleks rivojlanish strategiyasi alohida ahamiyatga ega: birinchidan, 2017-2021 yillarda

[32] *Library of Congress.* Uzbekistan: New Constitution Takes Effect. *(2023). https://www.loc.gov*
[33] OSW Report. *A Constitution for the New Uzbekistan.* (2023). https://www.osw.waw.pl
[34] Times of Central Asia. *From Reform to Rights: Strengthening Uzbekistan’s Legal Foundations.* (2023). https://timesca.com
[35] Uzbekistan Embassy in Kazakhstan. *The Renewed Constitution of Uzbekistan Ensures the Accountability of Public Officials and Social Protection of Citizens.* (2023). https://www.uzembassy.kz

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha **“Harakatlar strategiyasi”** doirasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalari yanada takomillashtirildi, ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari yanada takomillashtirildi; 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan **“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”** asosida izchil konstitutsiyaviy islohotlar amalga oshirildi, uchinchidan, **“O‘zbekiston – 2030”** strategiyasini amalga oshirishda yangilangan asosiy Qonunimizning bevosita ijrosini ta'minlash bo‘yicha samarali chora-tadbirlar belgilandi. Xalqimiz Konstitutsiyaning yangi tahririni yaratishda faol ishtirok etdi. Mehnat jamoalari, universitetlar, mahalla faollari va ziyolilar bilan suhbatlar davomida **10 000** ga yaqin qo‘shimcha takliflar kelib tushdi. Xalqaro miqyosda tan olingan huquqiy hujjatlar va **193** mamlakat tajribasi o‘rganildi, uchinchidan, **“O‘zbekiston – 2030”** strategiyasini amalga oshirishda yangilangan Qonunimizning bevosita ijrosini ta'minlash bo‘yicha samarali chora-tadbirlar belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini yangilash bo‘yicha jami **222 715 ta** taklif qabul qilindi. Bu shuni ko‘rsatadiki, Konstitutsiyani qabul qilish jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlarini hisobga oladi, butun jamiyat yangi O‘zbekiston qurish g'oyasi atrofida Birlashgan va bizning asosimiz haqiqatan ham xalq Konstitutsiyasiga aylanmoqda. Konstitutsiya loyihasidagi moddalar soni amaldagi **128** dan **155** gacha oshdi va normalarning soni **275** dan **434** gacha oshdi.

Boshqacha qilib aytganda, asosiy Qonunimiz matni qariyb **65 foizga** kengaydi va xalqimizga xos oyatlar asosida yangilandi. O‘zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023 yil 30 aprelda bo‘lib o‘tgan referendumda ishtirok etgan fuqarolardan **90,21 %** ovoz bilan qabul qilindi. Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirish uchun siyosiy va huquqiy asos yaratdi. Milliy davlatchilik rivojlanishining tarixiy muhim bosqichida u aniqladi, davlat va jamiyatni yanada rivojlantirish uchun qulayliklar [3]. Mamlakatimizda Konstitutsiyaning yangi tahririning qabul qilinishi boshlanganining yangilanishi va o‘zgarishidir. O‘zbekiston xalqlari, davlat hokimiyati organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va umuman jamiyat oldidagi navbatdagi vazifa konstitutsiyaviy qoidalarni so‘zsiz, qat'iy va to‘liq amalga oshirishdir. Bu jamiyatning barcha a'zolaridan umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilishdan kelishilgan harakatlarni talab qiladi. Konstitutsiyaning yangi tahriri qoidalarini amalga oshirish va ularni jamiyat a'zolarining ongiga singdirish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF 67-sonli " O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yangi tahrirda ijro etish bo‘yicha ustuvor chora-tadbirlar to‘g'risida " 2023 yil 8 mayda qabul qilindi. Unda yangi qayta ko‘rib chiqilgan Konstitutsiya qoidalarini amalga oshirish bo‘yicha aniq vazifalar bayon etilgan, yaqin kelajakda amalga oshirilishi kerak. Unga ko‘ra, yangi qayta ko‘rib chiqilgan Konstitutsiyaning so‘zsiz va to‘liq bajarilishi barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlari uchun eng ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Farmonda

yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasini amalga oshirish mexanizmlari belgilangan. Xususan, yangi qayta ko‘rib chiqilgan Konstitutsiyani qabul qilish bo‘yicha chora-tadbirlarning o‘z vaqtida bajarilishini ta'minlash uchun davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari shaxsan javobgardirlar, yangi qayta ko‘rib chiqilgan Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchiga asoslanib, u davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan sud va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida to‘g'ridan-to‘g'ri va so‘zsiz qo‘llanilishi kerak. Konstitutsiyaga muvofiq, qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmaganligi uchun boshqa qonun hujjatlari mavjud emasligi yoki yo‘qligi sababli yangi tashkil etilgan konstitutsiya qoidalarini qo‘llashni rad etish qat'iyan man etiladi. Shu bilan birga, Farmonda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri - O‘zbekistonni yaqin kelajakda rivojlantirish strategiyasidan kelib chiqadigan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Bular quyidagilar: **Birinchidan,** suveren davlat maqomini mustahkamlash, xususan, yangi tahdid va tahdidlarda milliy manfaatlar ustuvorligini ta'minlash, o‘zaro ishonch va hamkorlikka asoslangan tashqi siyosatni davom ettirish; **Ikkinchidan,** demokratik davlat tamoyiliga muvofiq demokratik rivojlanish yo‘lini davom ettirish, parlamentarizmni mustahkamlash va fuqarolik jamiyatini qo‘llab-quvvatlash; **Uchinchidan,** inson qadr-qimmatini hurmat qilish siyosatini qonun ustuvorligi tamoyiliga asoslangan sifat darajasiga ko‘tarish, inson huquqlarining ustuvorligini ta'minlash; **To‘rtinchidan,** ijtimoiy sohadagi davlat majburiyatlarini ijtimoiy davlat tamoyiliga asoslangan holda amalga oshirish, kuchli ijtimoiy himoya va muhtojlarni himoya qilish bo‘yicha davlat siyosatini izchil davom ettirish; **Beshinchidan,** dunyoviy davlat tamoyili doirasida vijdon erkinligi kafolatlarini mustahkamlash, Millatlar va konfessiyalar o‘rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash siyosatini izchil davom ettirish; **Oltinchidan,** davlat siyosatini izchil davom ettirish. Konstitutsiyaning yangi tug'ilgan kunini targ'ib qilish va boshqa tashkiliy-huquqiy masalalarni hal qilishdan iboratdir [3]. Shu o‘rinda shuni takidlash lozimki, yangi konsitutsiya tom-manoda xalqimizni asriy orzu intilishlarini, royobga chiqarish, shuningdek insoni huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni takidlash lozimki, 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan yangilangan Konstitutsiya mamlakat tarixida tub burilish nuqtasi bo‘ldi. U nafaqat huquqiy tizimni, balki jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotini zamon talablari darajasida yangilashga xizmat qiladi. Konstitutsiya **“Inson — jamiyat — davlat”** tamoyilini asos qilib olgan holda inson huquqlari va erkinliklarini mustahkamlaydi, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini kengaytiradi va fuqarolik jamiyatini rivojlantiradi. Yangilanishlar davlat boshqaruvi va institutlarini zamon talablariga moslashtirish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, sarmoyadorlar huquqlarini himoya qilish, milliy qadriyatlarni mustahkamlash va

ekologik barqarorlikni kafolatlashga qaratilgan. Shu bilan birga, Konstitutsiya xalq ishtirokini kuchaytirish, demokratik tamoyillarni mustahkamlash va fuqarolarning hayot darajasini oshirishga imkon yaratadi. Referendum orqali 90 foizdan ortiq qo‘llab-quvvatlangan yangilangan Konstitutsiya, o‘z mazmun-mohiyati bilan **“Yangi O‘zbekiston — ijtimoiy, huquqiy va demokratik davlat”** konsepsiyasining huquqiy poydevorini tashkil etadi. U zamonaviy talablar, global raqobat va yosh avlodning intilishlarini hisobga olgan holda, barqaror taraqqiyot va ijtimoiy adolatni ta’minlovchi huquqiy kafolat sifatida mamlakatning kelajagini belgilab beradi. Shunday qilib, 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotlar O‘zbekistonni demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat sifatida yanada rivojlantirish, jamiyat va davlat o‘rtasidagi ijtimoiy shartnomani yangilash va fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangilangan tahrir, 2023 yil. T.: Adolat nashriyoti.
2. Saidov A., Akademik. *O‘zbekiston Konstitutsiyasidagi yangilanishlar va ularning taraqqiyotdagi roli*. T.: Huquq va Jamiyat, 2023 yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-67-son, 8 may 2023 yil. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yangi tahrirda ijro etish bo‘yicha ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida.*
4. BMT Inson huquqlari kengashi. *O‘zbekiston bo‘yicha 2023-yil hisobot.* Nyu-York, 2023 yil .
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi. *2023-yil 30 aprel referendum natijalari.* T., 2023yil.
6. Toshkent davlat yuridik universiteti. *Konstitutsiya va huquqiy islohotlar: zamonaviy talqinlar.* T., 2023 yil.
7. Islomov S., Karimova D. *“Inson — jamiyat — davlat” tamoyili va O‘zbekiston huquqiy tizimi.* T.: Fan va Hayot, 2023.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi 2022–2030: huquqiy asoslar.* T., 2023.

HARBIY XIZMATCHILAR VA ULARNING OILA A’ZOLARINI IJTIMOIY HIMOYA QILISHDA INSON QADRI VA ADOLAT TAMOYILLARI

Djaydakbayev F.T.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Harbiy xizmatchi - davlatning xavfsizligi va mustaqilligini ta’minlovchi asosiy tayanch kuchlardan biri. Ular o‘z hayotini Vatanga bag‘ishlagan, fidoyi shaxslar sifatida nafaqat davlat muhofazasida, balki jamiyatning ma’naviy e’tibori doirasida bo‘lishi zarur. Shu bois, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish - inson qadrini yuksaltirish va adolat tamoyillarini amalda qaror toptirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

2023 yil 30 aprel kuni qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson qadri va ijtimoiy adolat g‘oyalari davlat siyosatining bosh ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilandi. Xususan, **13-moddada** inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati **oliy qadriyat** ekani qayd etilgan bo‘lsa, **14-moddada** davlat o‘z faoliyatini **inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari** asosida amalga oshirishi belgilab qo‘yilgan. Bu norma davlatning barcha tizimlarida, jumladan harbiy sohada ham inson qadrini e’zozlashni talab etadi [1].

Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoya tizimida inson qadrini ulug‘lash va adolat prinsiplariga amal qilish - nafaqat huquqiy kafolat, balki ma’naviy burchdir. Davlat tomonidan ular va ularning oila a’zolarini uy-joy, tibbiy yordam, ta’lim, pensiya ta’minoti bilan qo‘llab-quvvatlash insonparvar demokratik davlatning amaliy ifodasidir. Shuning uchun bugungi kunda harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini takomillashtirishda **adolat va inson qadrini ta’minlovchi davlat siyosati**ni yanada mustahkamlash muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson qadri eng oliy qadriyat sifatida belgilab qo‘yilgan (13-modda). Bu norma harbiy xizmatchilarni faqat davlat xavfsizligini ta’minlovchi kuch sifatida emas, balki shaxsiy qadr-qimmat, huquq va manfaatlarga ega inson sifatida ko‘rish zarurligini anglatadi. Harbiy xizmatning o‘zi - inson irodasi, jismoniy va ma’naviy kuchini Vatanga bag‘ishlash shakli bo‘lib, shunday fidoiylik davlat tomonidan munosib e’tirof va himoyani taqozo etadi.

Davlatning inson qadriga bo‘lgan munosabati harbiy xizmatchilarning huquqiy, moddiy va ma’naviy farovonligini ta’minlashda ifodalanadi. Bu esa Konstitutsiyaning 14-moddasidagi “qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida faoliyat yuritish” talabi bilan uyg‘undir.

Ijtimoiy adolat tamoyili harbiy xizmatchilarning turmush darajasini ta’minlashda teng imkoniyatlar yaratishni taqozo etib, Konstitutsiyaning 19-moddasida “imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart” degan qoida orqali davlatning har bir ijtimoiy qarorining asosi - adolat ekani mustahkamlangan.

Amaliyotda bu qoida harbiy xizmatchilar uchun uy-joy bilan ta’minlash, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohasidagi tenglikni ta’minlash orqali namoyon bo‘lmoqda. Masalan, Konstitutsiyaning 47-moddasida “har kim uy-joyli bo‘lish huquqiga ega” deb belgilangan bo‘lib, harbiy xizmatni o‘tayotgan shaxslar uchun davlat uy-joy qurilishi va ijara kompensatsiyasi orqali bu huquqni amalga oshirishga mas’ul hisoblanadi. Jumladan, 2023-2025 yillar mobaynida bu yo‘nalishda amalga oshirilgan ishlar natijasi inson qadrini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatining amaliy ifodasidir. Masalan, mazkur davrda Milliy gvardiya tizimida uy-joy (xizmat uyi, yer uchastkalari yoki ipoteka krediti orqali) bilan ta’minlangan harbiy xizmatchilar soni **1105 nafarni** tashkil etdi. Ulardan faqat **2024 yilda 616 nafar**, 2023 yilda esa **489 nafar** xizmatchi yangi turar joyga ega bo‘lgan. Shuningdek, xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan harbiylarning oila a’zolaridan **1 ta oila** uy-joy bilan ta’minlangan bo‘lib, bu ham adolat va insof tamoyillarining amaliy ko‘rinishi hisoblanadi.

Shuningdek, nafaqadagi harbiy faxriylar qatlami ham e’tibordan chetda qolmagan: 2023-2024 yillarda 27 nafar pensionerga uy-joy berilgan, shundan 9 nafariga mulk huquqi bilan xususiylashtirib berilishi ta’minlangan. Bu jarayonlar insonning moddiy farovonligi orqali uning qadrini tiklash siyosatining tarkibiy qismi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Moliyaviy jihatdan ham davlatning bu yo‘nalishdagi mas’uliyati sezilarli darajada oshgan - uy-joy bilan ta’minlash uchun ajratilgan mablag‘ miqdori 2023-2025 yillarda qariyb 185,6 mlrd so‘mni tashkil etdi**, shundan** 2024 yilning o‘zida 74,9 mlrd so‘m sarflangan. Shu bilan birga, ijara haqlari uchun ajratilgan mablag‘ ham ushbu davrda qayriyb 150 mlrd so‘mdan oshdi.

Shu bilan birga, Konstitutsiyaning 46-moddasi har bir shaxsning “ijtimoiy ta’minot huquqi”ni kafolatlaydi. Bu normaga ko‘ra, harbiy xizmatchi mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, faxriy yoki nogiron bo‘lganda davlat uning moddiy va ma’naviy huquqlarini himoya qilishga majburdir. Bu qoida harbiy xizmatchilarni ijtimoiy jihatdan zaif qatlam sifatida emas, balki davlat tayanchi sifatida e’tirof etayotganini anglatadi.

Amaliy jihatdan olib qaralganda, mazkur konstitutsion kafolatlar xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan yoki jarohat olgan harbiy xizmatchilar va ularning oilalariga moddiy yordam ko‘rsatish orqali o‘z ifodasini topmoqda. 2023-2025 yillar davomida bu maqsadda davlat tomonidan qariyb 2 mlrd so‘m miqdorida

kompensatsiya puli hamda 2,3 mlrd so‘m sug‘urta to‘lovlari amalga oshirilgan. Bu ko‘rsatkich inson qadri va adolat tamoyillariga asoslangan ijtimoiy siyosatning amaliy namoyoni bo‘lib, harbiy xizmatchi hayoti va sog‘lig‘i davlat tomonidan moddiy jihatdan ham qadrlanishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, ijtimoiy ta’minotning muhim tarkibiy qismi hisoblangan pensiya ta’minoti tizimi ham inson qadrini ta’minlash siyosatining amaliy ko‘rinishidir. 2023-2025 yillar davomida harbiy pensionerlar soni 3,8 ming nafardan 6,3 ming nafargacha o‘sib, umumiy hisobda 15 000 nafarni tashkil etdi. Ularga davlat tomonidan to‘langan pensiya mablag‘lari qariyb 40 mlrd so‘mga oshgan, bu esa ijtimoiy himoyaning nafaqat huquqiy, balki iqtisodiy jihatdan ham barqaror amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi.

Bu raqamlar harbiy xizmatni ado etgan shaxsning xizmatdan so‘ng ham davlat e’tiboridan chetda qolmasligi, uning hayotining keyingi bosqichida ham inson qadri va adolat tamoyillariga asoslangan ijtimoiy g‘amxo‘rlik bilan ta’minlanishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 76-moddasida “oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini” sifatida belgilangan va uning ijtimoiy-huquqiy muhofazasi davlat zimmasiga yuklatilgan. Bu qoida harbiy xizmatchilarning oila a’zolarini uy-joy, ta’lim, tibbiy yordam va ijtimoiy sharoitlar bilan ta’minlash - davlat burchi ekanini anglatadi. Chunki harbiy xizmatchining sog‘lom va mustahkam oila muhitida yashashi uning ma’naviy barqarorligi va xizmat samaradorligini belgilaydi.

Ta’lim sohasida ham davlatning inson kapitalini qo‘llab-quvvatlash siyosati izchil davom etmoqda. 2023-2025 yillar davomida harbiy xizmatchilar farzandlari uchun oliy ta’lim muassasalariga 2108 ta kvota ajratilgan. Bu, avvalo, harbiy oilalar farzandlariga teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish, ularni zamonaviy bilimga ega, mustaqil fikrlaydigan avlod sifatida tarbiyalash orqali inson qadrini ta’minlash siyosati bilan uzviy bog‘liqdir.

Sog‘liqni saqlash yo‘nalishida ham inson qadrini ta’minlovchi choralar tizimli amalga oshirilmoqda. 2023-2025 yillar davomida 2 573 nafardan 2 007 nafargacha harbiy xizmatchi va faxriylar statsionar tibbiy xizmatdan foydalangan, 811 nafar xizmatchi va oila a’zolari sanatoriy-kurort muassasalariga yuborilgan, 10 ming nafardan ziyod harbiy xizmatchi hamda 10 mingga yaqin oila a’zolari chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tgan.

Bu ko‘rsatkichlar inson sog‘lig‘i va qadri davlat siyosatida ustuvor yo‘nalish sifatida qaror topganini, harbiy xizmatchilarning sog‘lom hayot kechirishi davlat xavfsizligi bilan uzviy bog‘liq ekanini tasdiqlaydi. Zero, sog‘lom harbiy - sog‘lom jamiyat va barqaror davlatning asosidir.

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilishda inson qadri va adolat tamoyillarini to‘liq ta’minlash yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlar

bilan bir qatorda, hal etilishi zarur bo‘lgan ayrim tizimli muammolar ham mavjud. Ularning bartaraf etilishi harbiy xizmatchilarning hayot sifatini yaxshilash va davlat ijtimoiy siyosatining samaradorligini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Birinchidan, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi sohasi hozirda Prezident farmonlari, qarorlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan tartibga solinadi. Biroq ushbu me’yoriy hujjatlar tarqoq holda qabul qilingan bo‘lib, ularni yaxlit huquqiy tizimga muvofiqlashtirish zarurati mavjud. Bu huquqiy kafolatlarning barqaror ishlashini ta’minlash va amaliyotda yagona yondashuvni shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, ma’lumotlar tizimining integratsiya darajasi yetarli emas. Harbiy xizmatchilarga oid ma’lumotlar turli vazirlik va idoralarda (Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, FVV, IIV, Davlat xavfsizlik xizmati va boshqalarda) alohida saqlanadi. Bu tizimlar davlat idoralariga integratsiya qilinmagani sababli, ayrim ijtimoiy kafolatlardan foydalanish jarayonlarida to‘siqlar yuzaga kelmoqda. Shu sababli, ma’lumotlarni yagona elektron platformaga birlashtirish dolzarb vazifadir.

Uchinchidan, harbiy xizmatchilar oila a’zolari uchun ijtimoiy kafolatlar cheklangan. Xususan, turmush o‘rtoqlari va farzandlari uchun ta’lim, sog‘liqni saqlash hamda kasbiy qayta tayyorgarlik sohalaridagi imkoniyatlar qayta ko‘rib chiqilishini talab etadi. Ayniqsa, harbiy xizmatchining turmush o‘rtog‘i uchun mehnat bozorida teng imkoniyatlar yaratish, malaka oshirish va masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

To‘rtinchidan, faxriylar instituti faoliyati yetarlicha samarali emas. Harbiy pensionerlar va faxriylar manfaatlarini himoya qiluvchi tashkilotlar amalda har bir idoraning ichki hujjatlari asosida faoliyat yuritmoqda. Bu holat faxriylar faoliyatining yagona huquqiy va institutsional asosi yo‘qligini ko‘rsatadi. Shu bois, faxriylar institutini qonun darajasida mustahkamlash va uni davlat ijtimoiy siyosatining doimiy tarkibiy qismi sifatida rivojlantirish zarur.

Umuman olganda, mazkur muammolar inson qadri va adolat tamoyillarini to‘liq amalga oshirish yo‘lidagi asosiy to‘siqlar hisoblanadi. Shu sababli, ijtimoiy himoya tizimini huquqiy, tashkiliy va raqamli jihatdan qayta ko‘rib chiqish hamda inson qadrini markazga qo‘ygan davlat siyosatini amaliy jihatdan yangilash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Inson qadri har qanday davlat siyosatida asosiy ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Xorijiy tajribalar ham shuni ko‘rsatmoqdaki, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi inson qadrini ta’minlash va adolatni qaror toptirish bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, **AQSh**da harbiylar va ularning oilalari uchun uy-joy, ta’lim va sog‘liqni saqlash bo‘yicha keng qamrovli dasturlar amal qiladi, ularning huquqiy himoyasi esa maxsus qonunlar bilan mustahkamlangan. **Yevropa Ittifoqi davlatlari**da esa harbiy xizmatchilarning ijtimoiy kafolatlari institutsional asosda

tashkil etilgan bo‘lib, uy-joy, tibbiy yordam va ta’lim sohalarida davlat tomonidan doimiy qo‘llab-quvvatlanadi [2]. Bu tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, inson qadrini himoya qilish harbiy xizmatchiga nisbatan davlat siyosatining markazida bo‘lishi kerak - O‘zbekistonda ham ana shu yo‘nalishdagi islohotlarni huquqiy, raqamli va tashkiliy jihatdan chuqurlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish tizimida inson qadri va adolat tamoyillarini ta’minlash masalasi mamlakatimiz ijtimoiy siyosatining markazida turishi lozim. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson qadrini oliy qadriyat sifatida belgilash, har bir fuqaroga uy-joy, ta’lim va ijtimoiy ta’minot huquqini kafolatlash bu yo‘nalishdagi islohotlarga konstitutsion asos yaratdi.

Shu bilan birga, amaliy natijalar shundan dalolat beradiki, sohadagi huquqiy, tashkiliy va raqamli tizimlarni yanada takomillashtirish zarur. Xorijiy tajribalar - xususan, AQSh va Yevropa Ittifoqi davlatlaridagi modellar - inson qadrini ta’minlovchi ijtimoiy himoya instituti aniq huquqiy baza, integratsiyalashgan ma’lumotlar tizimi va faxriylar uchun mustaqil institutlar orqali samarali faoliyat yuritishini ko‘rsatmoqda [3].

Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoya tizimini inson qadri va adolat tamoyillari asosida yanada takomillashtirish, amalga oshirilayotgan islohotlarni institutsional darajada mustahkamlash hamda davlat siyosatining barcha bosqichlarida harbiy xizmatchi shaxsini ustuvor qadriyat sifatida e’tirof etish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- **huquqiy tizimni takomillashitrish -** harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasiga oid barcha Prezident farmonlari, qarorlari va Vazirlar Mahkamasi hujjatlarini **yaxlit huquqiy asosga muvofiqlashtirish**, zarurat bo‘lsa, “Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi yagona qonun qabul qilish.

- ma’lumotlar integratsiyasi - harbiy xizmatchilarning ijtimoiy ma’lumotlarini qamrab olgan yagona elektron ma’lumotlar platformasini yaratish va uni barcha davlat idoralari o‘rtasida integratsiya qilish.

- oila a’zolari uchun ijtimoiy imkoniyatlarni kengaytirish -harbiy xizmatchilarning turmush o‘rtoqlari va farzandlari uchun ta’lim, sog‘liqni saqlash va kasbiy tayyorgarlik sohalaridagi mavjud imkoniyatlarni kengaytirish, bu yo‘nalishda idoralararo hamkorlikni kuchaytirish hamda maqsadli dasturlar ishlab chiqish lozim.

- faxriylar institutini mustahkamlash - harbiy faxriylar va pensionerlar manfaatlarini ifoda etuvchi tashkilotlarning huquqiy maqomini davlat **darajasida belgilash**, ularni ijtimoiy siyosatning doimiy ishtirokchisi sifatida shakllantirish.

Umuman olganda**,** inson qadri va adolat tamoyillariga asoslangan ijtimoiy himoya tizimini barpo etish - faqat huquqiy yondoshuv emas, balki davlat boshqaruvining insonparvar mohiyatini ifoda etuvchi strategik vazifadir. Bu tizim

faqat moddiy yordam yoki imtiyoz berish bilan cheklanmasdan, harbiy xizmatchi va uning oilasi uchun munosib turmush, sog‘lom muhit va barqaror ijtimoiy muhit yaratishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv, o‘z navbatida, jamiyatda ishonch va adolat hissini kuchaytiradi, xizmatning nufuzini oshiradi hamda milliy xavfsizlik va jamiyat barqarorligining ishonchli kafolatiga aylanadi.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir) — Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.
2. Crawford, A. *Crime Prevention and Community Safety: Politics, Policies and Practices.* — London: Longman, 1998.
3. Bradford, B. “What service should police provide? Towards a minimum policing standard.” // *British Journal of Criminology*, 2024.
4. Ulyanov A.D. *Sovershenstvovanie informatsionno-analiticheskoy raboty v territorialnых organax MVD Rossii.* — Moskva: Akademiya MVD RF, 2023.
5. European Commission. *European Union Guidelines on the Social Protection of Military Personnel.* — Brussels, 2022.
6. U.S. Department of Veterans Affairs. *Military Benefits and Family Support Programs.* — Washington D.C., 2023.
7. Hasanova, D. “O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning inson qadriga yo‘naltirilgan yangi modeli” // *Ijtimoiy fanlar jurnali*, №3, 2024.

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA – ADOLAT TANTANASI

Davletov O‘.M

Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘ining o‘rinbosari, yu.f.b.f.d (PhD), dotsent, podpolkovnik

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratishida Yangilangan Konstitutsiyamizning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangilangan Konstitutsiya, inson – jamiyat – davlat, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat, qonun ustuvorligi.

Аннотация: В статье освещаются специфические аспекты нашей обновленной Конституции в создании долгосрочных стратегий развития страны, прочной правовой основы и надежных гарантий завтрашнего благополучия нашей страны и народа.

Ключевие слова: Согласно обновленной Конституции, человик-общество-государство, суверен, демократия, правовое, социальное и светское государство, верховенство закона.

Annotation: The article highlights the specific aspects of our updated Constitution in creating long-term strategies for the development of the country, a solid legal framework and reliable guarantees for the future well-being of our country and people.

Key words: According the updated Constitution, man-society-state, sovereign, democracy, legal, social and secular state, rule of law.

Konstitutsiya asrlar davomida shakllangan milliy g‘oya va sharqona qadriyatlar aks etgan oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan, huquqni hamma tarmoqlari uchun qonunchilik bazasi hisoblangan, bir so‘z bilan aytganda, davlatni o‘ziga xos tanishtiruv hujjatidir.

Konstitutsiya huquqiy davlatning asosiy belgisi hisoblanib, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa asosiy xalqaro hujjatlar talablariga to‘la mos holda mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy salohiyati yuksaltirishga hamda hayotimizning barcha jabhalarida amalga oshirilgan samarali islohotlarga asos bo‘lib, inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini kafolatlab beradi. Bu esa jamiyat a’zolarini o‘zaro kelishib, tinch-totuv, bahamjixat yashashlarini ta’minlash uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, har qanday davlatning dunyo mamlakatlari orasidagi nufuzi, mavqei, obro‘-e’tibori va salohiyati iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti bilan bir qatorda, qonunchilik va ularni amalga tadbiq etish jarayoni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi hamda fuqarolarni mavjud qonunchilikka munosabati bilan ham belgilanadi.

Inson huquqlari muammosi bugungi kunda dunyo hamjamiyati oldida turayotgan eng dolzarb muammolardan biri sifatida, aynan inson huquqlarining ta’minlanganganlik darajasi bilan davlatning demokratik rivojlanganlik darajasi o‘lchanadi, inson huquqlari muayyan bir mamlakatda demokratik-huquqiy davlat barpo etish siyosatining o‘ziga xos parometridir. Zero, inson huquqlarini ta’minlash jamiyatning barcha jabhalardagi taraqqiyotning asosi, chunki inson huquqlari ta’minlangan jamiyatda raqobat muhiti paydo bo‘ladi, ijobiy o‘zgarishlar va yangilanishlar sur’atlari jaddalashadi, pirovardida suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish bo‘yicha strategik maqsadga erishiladi.

Jamiyatni qonun boshqarmas ekan, boshboshdoqlik, firibgarlik, aldov, poraxo‘rlik, tanish-bilishchilik, qarindosh-urug‘chilik, mahalliychilik, ta’magirlik va boshqa ko‘plab illatlar tomir otadi. Bunday jamiyatda adolat o‘rnatish qiyindan-qiyin masala bo‘lib qolaveradi. G‘arb jamiyati buni asrlar davomida boshidan kechirgan. Yakunda, qonun, qonun va yana qonun deb xulosaga kelgan.

Amir Temur o‘z tuzuklarida – davlatni boshqarish qoidalari majmuida – bunday bashorat qilgan edi: “Zaruriy tartibot va qoidalarga rioya qilish taqdirim va muvaffaqiyatlarimning negizi bo‘ldi”.

Shu o‘rinda, florensiyalik yozuvchi, siyosatchi va huquqshunos olim Donte Aligeri shunday degan edilar: “Agar qonunlar bu qonun ostida bo‘lganlar baxt-saodatiga qaratilmagan bo‘lsa, ular nomigagina qonun hisoblanadi”. Zero, qonunlar odamlarning umumiy foydasi uchun ularni bir-biri bilan bog‘lashi kerak. U yana jamiyat hayotini tartibga soladigan eng zarur vosita bo‘lishi kerakligini alohida uqdiradi. Huquqiy tartibot adolat bilan bog‘lanishi kerak.

Tabiat qonun bilan yashar va yashnar ekan, inson ham qonun asosida kun kechirishga majbur. Chunki, inson ehtiyojlari cheksiz va behududki, agar yashashning maqbul qonun qoidalari ishlab chiqilmasa va unga amal qilinmasa, dunyoni jaholat egallaydi, odamlarning o‘rtasida vaxshiylik kuchaygandan kuchayadi. Shunday ekan, qonun insonning istagidan qat’i nazar uni tan olishga majbur qiladigan oliy kuch ekanligini unutmasligimiz kerak.

Sir emas, o‘tgan davr ichida Konstitutsiyamiz jiddiy hayot sinovlaridan o‘tdi, halqimiz hayotida muhim bo‘lgan bu hujjatga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar asosida asrlar davomida yuz berishi mumkin bo‘lgan tengsiz o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Yangilanishning ijobiy tamonlarini quyida keltirilgan tahrirlar misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi matnida respublika so‘zi – 390/470, O‘zbekiston – 354/444, qonun – 210/294, davlat – 98/174, huquq – 90/156, Konstitutsiya – 70/97, fuqaro – 66/87, Prezident – 62/72, shaxs – 32/70, erkinlik – 27/35, xalq – 24/62, inson – 9/41, yoshlar – 1/6 marotaba qo‘llangan.

Albatta, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida qadrlaydigan bosh qomus, davlatning asosiy hujjati. Unda, inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat sifatida kafolatlanadi. Davlat boshqaruvi, hukumat organlari faoliyatining tartib-tamoyillari inson – jamiyat – davlat farovonligiga asoslanadi.

Shu nuqtai-nazardan, yangilangan Konstitutsiya mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, umuman, yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Biz buni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2023 yilning 20 iyun kuni Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvda e’tibor qaratgan to‘rtta ustuvor yo‘nalish misolida ham kuzatishimiz mumkin. Bular:

birinchi yo‘nalish, inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, daxlsiz huquqlari va manfaatlari masalasi;

ikkinchi yo‘nalish, “O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” g‘oyasi;

uchinchi yo‘nalish, Konstitutsiyada mahallaning maqomini hamda davlat organlarining bu boradagi vazifalarini aniq belgilash;

to‘rtinchi yo‘nalish, mamlakatimizda davlat boshqaruvini takomillashtirish, xalq hokimiyatchiligini kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, asosiy qonunimiz o‘zida nafaqat xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettirgan, balki unda yangilikning eskilik ustidan, erkinlikni zo‘ravonlik ustidan, adolatning haqsizlik ustidan, taraqqiyotning tanazzul ustidan g‘alabasi muhrlangan. U tom ma’noda xalqimiz tafakkuri va ijodi mahsulidir. Muxtasar aytganda, inson huquqlariga oid xalqaro prinsip va standartlarni o‘zida mujassam etgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari va prinsiplari milliy qonunchilik negizini tashkil etdi hamda yurtimizda inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilishning barqaror huquqiy asoslarini yaratishda mustahkam poydevor bo‘ldi.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir) - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 12.09.2019 yildagi PQ-4447-son “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 24.06.2024 yildagi 352-son “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tibbiy va sanatoriy-kurort ta’minotini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.06.2018 yildagi 462-son “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiylari va uning tarkibiga kiruvchi vazirlik hamda idoralarning xodimlari farzandlarining kvota asosida respublika oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishi uchun tavsiyanomalar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 09.04.2025 yildagi 214-son “Harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 04.07.2022 yildagi 354-son “O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari va Milliy gvardiyasining shaxsiy tarkibi hamda ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish tizimini tartibga solish to‘g‘risida”.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 03.07.2019 yildagi PQ-4382-son “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida tan jarohati olgan harbiy xizmatchilarga (xodimlarga) yoki halok bo‘lgan (vafot etgan) harbiy xizmatchilarning (xodimlarning) oila a’zolariga bir martalik nafaqa tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 11.08.2017 yildagi 619-son “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilariga turar joy sotib

olish (qurish) uchun uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlari berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”.

9. Hasanova D. “O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning inson qadriga yo‘naltirilgan yangi modeli” // *Ijtimoiy fanlar jurnali*, №3, 2024.

10. Crawford, A. *Crime Prevention and Community Safety: Politics, Policies and Practices.* - London: Longman, 1998.

11. Bradford, B. “What service should police provide? Towards a minimum policing standard.” // *British Journal of Criminology*, 2024.

12. Ulyanov A.D. *Sovershenstvovanie informatsionno-analiticheskoy raboты v territorialnых organax MVD Rossii.* - Moskva: Akademiya MVD RF, 2023.

13. European Commission. *European Union Guidelines on the Social Protection of Military Personnel.* - Brussels, 2022.

14. U.S. Department of Veterans Affairs. *Military Benefits and Family Support Programs.* - Washington D.C., 2023.

15. Raxmonov I. “Inson qadri tamoyili: milliy siyosat va amaliyot.” // *Davlat boshqaruvi nazariyasi va amaliyoti jurnali*, №4, 2024.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ КОНСТИТУЦИЯСИДА “ОИЛА ВА НИКОҲ МУҚАДДАС” ТУШУНЧАСИ МИЛЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ КАТЕГОРИЯ СИФАТИДА

Рустамова Нилуфар Рустамовна,
Тошкент шаҳар Чилонзор тумани №2-сонли ФҲДЁ мудираси, ю.ф.б.фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: Мақолада Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Фуқаролик ва Оила кодексларининг тегишли қоидалари таҳлили асосида оила ва никоҳ тушунчаларининг муқаддаслиги ижтимоий категория сифатидаги миллий-ҳуқуқий моҳияти ёритиб берилган.

Калит сўзлар: Ўзбекистон Республикаси Конституцияси; Фуқаролик ва Оила кодекси; оила ва никоҳ; ижтимоий-ҳуқуқий категория; сохта никоҳ; оилавий-ҳуқуқий муносабатлар; номулкий шахсий муносабатлар; мулкий муносабат; никоҳ ёши; эр-хотин ҳуқуқ ва мажбуриятлари; бола ҳуқуқлари.

Янги Ўзбекистон Конституциясининг XIV-боби “Оила, болалар ва ёшлар” деб номланган бўлиб, унинг мазмун-моҳиятидан англашиладики, “оила” нафақат ижтимоий-фалсафий категория, айни пайтда инсониятнинг ижтимоий-биологик, маънавий-аҳлоқий унсурлари сингдирилган, ҳуқуқ нуқтаи-назаридан қараганда ҳаётийлик руҳияти билан суғорилган конституциявий-ҳуқуқий тушунча, десак муболаға бўлмайди.

Конституциямизнинг 76-моддасида ифодаланишича, ”Оила жамиятнинг асосий бўғинидир ҳамда у жамият ва давлат муҳофазасидадир”. Бу дегани, Ўзбекистон халқининг анъанавий оилавий қадриятлари, никоҳланувчиларнинг

ихтиёрий розилиги ва тенг ҳуқуқлилигига асосланган никоҳ замирида вужудга келган оиланинг тўлақонли ривожланиши учун давлат ижтимоий, иқтисодий, ҳуқуқий ва бошқа зарур шарт-шароитларни яратиб беради. Агар хорижий мамлакатларнинг никоҳ, уни қайд этиш ва оила билан боғлиқ қонунчилигига қиёсий назар ташланса, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Фуқаролик ва Оила кодексларининг ушбу масалага оид қоидалари нақадар халқпарварлигига, никоҳдан ўтаётган шахслар учун мазкур жараён миллий қадриятлар билан уйғунликдаги жараён бўлиб, никоҳга кирувчилар учун ҳеч қандай қийинчиликлар туғдирмаслигига яна бир карра амин бўламиз.

Оила ўз мазмунига кўра кенг кўламли институт бўлиб, у юртимизда ёш авлодни тарбиялаш, уларни соғлом, тўлақонли ва ҳар томонлама камол топтириш борасида амалга оширилаётган ислоҳотлар жараёнида муҳим ўрин тутади. Шунинг учун ҳам оила азалдан жамият ижтимоий-маънавий, қолаверса иқтисодий, маърифий, аҳлоқий, ҳаттоки, сиёсий ҳаётида муҳим аҳамият касб этади.

Тарихдан маълумки, давлатнинг вужудга келиши билан оилавий ҳаётни бошқариш ҳуқуқий тусга эга бўлиб борган. Оиланинг юзага келиш асоси сифатида никоҳ - никоҳланувчи тарафларга эр ва хотин мақомини бериш орқали улар зиммасига муайян даражада ҳуқуқ ва мажбуриятлар, улар учун жавобгарлик (бурч, вазифа, масъулият) юклашни юридик жиҳатдан расмийлаштириш жараёни ҳисобланади. Айнан никоҳ қайд этилганидан эътиборан оилавий муносабатларни назорат қилиш, муаммоларни ҳал қилиш, назоратга олиш ҳуқуқий жиҳатдан бошқариш давлат зиммасида бўлади. Зеро, ҳар қандай жамият, давлатнинг ижтимоий таназзули оиланинг бузилиши, барбод бўлиши каби иллатлар билан бевосита боғлиқ. Шунинг учун никоҳ муносабатлари, ёлғиз яшовчилар ва оилавий муаммоларни ўрганиш жамият ижтимоий таркибининг ижобий ривожланишига хизмат қилади. Бу йўналишда бевосита фаолият олиб бораётган Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг Хотин-қизлар ва гендер тенглик масалалари қўмитаси, Хотин-қизларнинг жамиятдаги ролини ошириш, гендер тенглик ва оила масалалари бўйича республика комиссияси, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси Оила ва хотин-қизлар қўмитаси, Ўзбекистон Республикаси Оила ва хотин-қизлар қўмитаси ҳузуридаги Оила ва хотин-қизлар илмий текшириш институти ҳамда маҳаллаларнинг ролини алоҳида қайд этиш жоиз.

Таъкидлаш керакки, ҳар бир оила ўзига хос турмуш тарзига эга бўлиб, турмуш оиланинг кундалик ҳаёти ҳисобланади. Оила ғоят серқирра ва мураккаб ижтимоий-ҳуқуқий иттифоқ, уюшмадир. Унда қувончлар ҳам, ташвишлар ҳам мужассам. Агар оила аъзолари аҳил, ҳамжиҳат, одоб-аҳлоқли, номусли, ўз қадр-қимматини сақлайдиган, саранжом-саришта, тежамкор бўлса, бундай

хонадонда турмуш ширин ва мароқли ўтади.

Ўзбек оиласининг ташқаридан сезилмайдиган ўзига хос ички қонун-қоидалари, аҳлоқий мезонлари бор. Аввало, тонгда барвақт туриш, юз-қўл ювилмасдан саломлашмаслик, аёлларнинг нонушта ҳозирлашлари, қизлар ва келинларнинг ҳовли ва кўча супуришлари каби бир қатор фазилатлар бисёр. Буни устига ўзбек оилалари болажон. Ҳазрати Мухаммад пайғамбаримиз ўз ҳадиси шарифларида марҳамат қилиб айтибдиларки, “мен қиёматда ўз умматларининг кўп бўлиши билан севинишни истайман”.

Ваҳоланки, оилавий муносабатлар мустақил ҳодиса бўлиб, унинг ички ишларига ҳеч ким беҳуда аралашишга ҳақли эмас. Шу сабабли оила муқаддас ва дахлсиз ҳисобланади. Илмий-назарий тилда айтганда, оила ўзига хос муҳитни шакллантирган кичик бир давлатдир. Чунончи, оила жамият ичида, унинг ташқарисида эмас, унинг таркибидадир. Оилавий муносабатлар жамиятдаги мавжуд ижтимоий, иқтисодий ва маънавий-аҳлоқий муносабатлар билан белгиланади ва унинг бевосита ёхуд билвосита таъсири остида шаклланиб ривожланиб боради. Демоқчимизки, айнан жамият ҳаёти, руҳияти оиланинг ижобий ёки салбий жиҳатларига боғлиқ бўлади. Шунга кўра ҳар бир жамият ўзига хос ва мос оила турини танлайди ва бағрида етиштиради.

Жамиятнинг ташкил топишида, унинг давомийлигини таъминлашда оила ижтимоий-демографик манба ҳисобланади. Инсоннинг дунёга келиши, янги авлоднинг пайдо бўлиши, авлодлар алмашинуви асосан оилада содир бўлади. Фарзанд туғилиб, камолга етиб шахс сифатида шакллангунига қадар лозим бўлган барча таълим-тарбия оила муҳитида берилади. Инсоннинг ота-онаси, қариндошлари, қариялар, атроф-муҳит ва табиатга бўлган муносабатлари дастлаб оилада бошланади. Шу билан бирга, оила урф-одатларни авлоддан авлодга етказиш воситаси ҳам бўлиб хизмат қилади.

Оиланинг вужудга келишида юридик факт сифатида эътироф этилганлиги ва жамият ижтимоий ҳаётидаги аҳамияти нуқтаи-назаридан никоҳ ва унинг ҳуқуқий жиҳатларига алоҳида эътибор берилади. Қонунда белгиланишича, никоҳ тузиш ихтиёрий бўлиб, бўлажак эр-хотин ўз розилигини эркин ифода этиш қобилиятига эга бўлиши керак. Демак, зўрлаш, алдаш, адашиш, пўписа қилиш ва бошқа ноқонуний ҳаракатларга йўл қўйилмайди. Акс ҳолда, никоҳнинг ҳақиқий эмаслигига олиб келиши мумкин. Никоҳ муносабатларини ўрнатишга доир асл ички ҳоҳишга таянмаган ироданинг ташқи ифодаси ўзи ҳеч қандай вазиятда никохдан ўтишга ҳуқуқий жиҳатдан розилик сифатида қабул қилинмайди.

Никоҳ фақат никоҳ ёшига етган, балоғат ёшига етган шахслар ўртасида тузилиши мумкин. Узрли сабаблар бўлганида, алоҳида ҳолларда никоҳга киришни хоҳловчиларнинг илтимосига кўра никоҳ давлат рўйхатидан

ўтказиладиган жойдаги туман, шаҳар ҳокими никоҳ ёшини кўпи билан бир йилга камайтириши мумкин. Никоҳ ёшини камайтириш учун узрли сабабларнинг рўйҳати кодексда келтирилмаган бўлсада, аксарият ҳолларда бу ҳомиладорлик ёки фарзанднинг туғилиши билан боғлиқдир.

ЎР ОК 15-моддасига мувофиқ Ўзбекистонда никоҳ ёши эркаклар ва аёлларлар учун ўн саккиз ёш этиб белгиланган.

Никохдан ўтиш учун ариза топширилаётганда, никоҳдан ўтмоқчи бўлган шахсларнинг ёши белгиланган, уларнинг шахсини тасдиқлайдиган ҳужжати талаб этилади. Аммо, айрим жойларда мазкур шартни бузиб, никоҳларнинг қайд қилиниши ачинарли ҳолдир. Амалдаги қонунчиликка мувофиқ, лоақал биттаси рўйхатга олинган бошқа никохда турган шахслар ўртасида никоҳнинг тузилишига ҳам йўл қўйилмайди. Кўпгина мамлакатларнинг қонунчилиги бир никоҳлик қоидасидан келиб чиқади. Бундай таъқиқнинг келиб чиқиши ҳудуддаги мавжуд диний анъаналар ва маданият билан боғликдир. Бугунги кунда ислом динига эътиқод этган ва миллий тарихий анъаналарга эга, аввалари кўп хотинлиликка йўл қўядиган мамлакатимиз аҳолиси ҳам бир никоҳлик қоидасига бўйсунган. Оммавий ахборот воситаларида бир неча марта мазкур муаммо муҳокама қилинди, қонунчилигига зид бўлган кўп хотинлик ҳақида меъёрий-ҳуқуқий хужжатлар қабул қилиш ҳақида сўз борди, кўп хотинлиликни қонунийлаштириш тарафдорлари пайдо бўлди. Айримлар, ҳаттоки, мазкур таъқиқни жуда фавқулодда вазиятларда, масалан, оилада хотиннинг касаллиги ёки фарзанднинг бўлмаслиги, яъни фарзанд кўрмаган ҳолларда бекор қилиш мумкин деб ҳисоблайди. Мамлакатимизда кўп хотинлиликка оид масала бир пайтлар дарҳақиқат мавжуд бўлганлиги ва у миллий урф-одатлар ҳамда турли динлар билан боғлиқ бўлгани боис унга жуда мулоҳазали ёндашиш лозим.

Насл-насаб шажараси бўйича тўғри туташган қариндошлар ўртасида, туғишган ва ўгай ака-укалар билан опа-сингиллар ўртасида, шунингдек фарзандликка олувчилар билан фарзандликка олинганлар ўртасида ҳам никоҳнинг тузилишига йўл қўйилмайди. Бироқ, бунда фарзандликка олувчилар билан фарзандликка олинганлар ўртасида никоҳ биологик мулоҳазалар эмас, балки ижтимоий алоқалар туфайли таъқиқланади. Фарзандликка олиш ота-оналик каби муносабатларни юзага келтиришни мақсад қилиб қўйган. Шунинг учун фарзандликка олувчилар билан фарзандликка олинганлар ўртасидаги никоҳ аҳлоқий ва ҳуқуқий таъқиқ остида ҳисобланади.

Лоақал биттасининг руҳияти бузилиши (руҳий касаллиги ёки ақли заифлиги) сабабли суд томонидан муомалага лаёқатсиз деб топилган шахслар ўртасида ҳам никоҳнинг тузилишига рухсат этилмайди. Мазкур таъқиқ тасодифий эмас. Албатта, у бир неча шартлар билан асосланган, улардан бири

бундай никохда туғилган фарзандлар ҳақида ғамхўрликни назарда тутади. Чунки рухий касалликнинг насл бўйича ўтиш эҳтимоли жуда каттадир.

Соҳта никоҳнинг тузилишига йўл қўйилмайди. Сохта никоҳ деб шахснинг оила қуриш ниятисиз, бирор бир манфаатни ёки ғаразли мақсадни кўзлаб тузган никоҳиги айтилади. Соҳта никоҳ тузувчи эр-хотин доимо маълум бир мақсадни кўзлайдилар. Соҳталик ҳар икки томонлама ёки фақат бир томонлама бўлиши мумкин. Агар эр ҳам хотин ҳам соҳта никоҳ тузиш ниятида бўлса, никоҳни соҳталигини исботлаб бериш жуда қийин. Сохта никоҳни ҳисобли никоҳдан фарқлаш зарур, бундай никоҳни ҳақиқий эмас деб топиш мумкин эмас, уни фақат тугатиш мумкин.

Никоҳланувчи шахслардан бири таносил касаллиги ёки одамнинг иммунитет танқислиги вируси (ОИВ касаллиги) борлигини иккинчисидан яширганда бундай никоҳ ҳам ҳақиқий ҳисобланмайди. Қонун чиқарувчи қайд этилган касалликлар мавжудлиги ҳақида маълум қилишга алоҳида аҳамият беради. Агар никоҳланувчи шахслардан бири бошқасининг касаллиги ҳақида олдиндан хабардор бўлса, бундай никоҳни ҳақиқий эмас деб топиш мумкин эмас.

Эр-хотиннинг кундалик ҳаёти моҳиятини ташкил қилувчи аксарият муносабатлар ҳуқуқ доирасидан ташқарида ётади. Агар сўзсиз никоҳ-оилавий муносабатларга ҳуқуқ воситасида таъсир этиш мумкин бўлмаса, уларга нафақат оилавий, балки бошқа иҳтиёрий ҳуқуқ соҳаси ёрдамида таъсир ўтказиш мумкин эмаслигини тан олиш керак. Шахсий оилавий муносабатларга фақат ихтилоф юзага келгандагина аралашиш ҳуқуқи мавжуд.

Оилада эр ва хотиннинг тенг ҳуқуқлиги шахснинг ҳуқуқий мавқеини белгиловчи конституциявий қоидалардан келиб чиқади. Бунга кўра ҳар бир эркак ва аёл фуқароларнинг бир ҳил ҳуқуқ ва эркинликка эгалиги ҳамда қонун олдида тенглиги; яшаш ва турар жойларини эркин танлашга эгалиги; ўз фаолиятининг турини ва касбини танлашдаги эркинликлари ифодаланган. Эр ва хотин тенг ҳуқуқ ва мажбуриятларга ҳамда ўзаро муносабатларда ва фарзандлари билан бўлган муносабатларида, никоҳ тузиш, никохда бўлиш ва никоҳни бекор қилиниши каби муносабатларда бир ҳил жавобгарликка эгадирлар.

Эр-хотин ўртасидаги шахсий муносабатлар махсус аҳамиятга эга, улар ўз эгалари билан чамбарчас боглиқ ва улардан ажратилмайди. Айнан шахсий муносабатлар никоҳ асосини ташкил қилади ва эр-хотин ўртасидаги бошқа муносабатларга таъсир кўрсатади; улар эр-хотин муносабатлари тарзини ва хусусиятини белгилайди.

Эр-хотин оилавий турмуш масалаларини биргаликда ҳал қилиш ҳуқуқига эга. ЎР ОК 19-моддасида “Эр ва хотин оилада тенг ҳуқуқлардан

фойдаланадилар ва улар тенг мажбуриятларга эгадирлар” деб белгиланган, яъни бундан эр ва хотин болалар тарбияси ва оилавий турмушнинг бошқа масалаларини биргаликда ҳал қиладилар деган мазмун келиб чиқади.

Хулоса қилиб айтганда, никоҳ ва оила жамиятимиз кесимида қара ганда муқаддас ҳисобланиб, ўзига хос миллийлик унсурларини ўзида жамлаган жуда мураккаб ва нозик ижтимоий-ҳуқуқий масалалар қаторидан ҳақли равишда жой олади.

MAMLAKATIMIZDA MUQOBIL VA HARBIY XIZMATNI O‘TASHNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI

Davlatov Jamoliddin Qurbonboy o‘g‘li,
O‘zMU Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi Umumqo‘shin tayyorgarlik sikli o‘qituvchisi, rezervdagi mayor

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Qurolli kuchlarining mustaqillikdan buyon shakllanishi, modernizatsiya jarayonlari va harbiy sohada amalga oshirilgan islohotlar yoritilgan. Mustaqillikning ilk yillarida qabul qilingan asosiy harbiy qonunlar armiyaning huquqiy poydevorini yaratgani, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada esa Qurolli kuchlarni qo‘llab-quvvatlovchi normalar mustahkamlangani hamda harbiy sohaga nihoyatda zamonaviy texnikalarning eng asosiysi sun’iy intellektning joriy etilayotganligini ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Harbiy xizmat, harbiy xizmatning konstitutsiyaviy huquqiy maqomi, huquqiy ong, pedagogik va psixologik tamoyillar, muqobil va harbiy xizmat, umumiy harbiy majburiyat.

Аннотация: В статье рассматривается развитие Вооружённых Сил Узбекистана с момента обретения независимости, а также процессы модернизации и реформирования военной сферы. Подчеркивается, что основные военные законы, принятые в первые годы независимости, создали правовую основу для армии, а новая редакция Конституции усилила нормы, обеспечивающие поддержку Вооружённых Сил, и внедрила в военную сферу новейшие технологии, в том числе искусственный интеллект.

Ключевые слова: Военная служба, конституционно-правовой статус военной службы, правосознание, педагогические и психологические основы, альтернативная и военная служба, всеобщая воинская обязанность.

Annotation: This article examines the development of the Armed Forces of Uzbekistan since independence, as well as the modernization and reform of the military. It emphasizes that the key military laws adopted in the first years of independence created the legal basis for the army, while the new version of the Constitution strengthened the provisions supporting the Armed Forces and introduced the latest technologies, including artificial intelligence, into the military.

Key words: military service, constitutional and legal status of military service, legal consciousness, pedagogical and psychological foundations, alternative and military service, universal military service.

O‘zbekistonda mustaqillikning ilk kunlaridanoq zamonaviy talablarga javob bera oladigan, professional, harakatchan va yuqori samarali armiya yaratishga kirishildi. Mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish borasida olib borilgan ishlar, tinimsiz izlanishlar tufayli mamlakatimizda zamon talablari darajasidagi kuchli armiya tashkil etilishiga erishildi. Ayni paytda bu armiya faqat Vatan chegaralarini himoya qilish bilan cheklanib qolmasdan, kelajak avlod uchun matonat va fidoyilik namunasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bugun ortga nazar tashlar ekanmiz, armiyamiz 33 yil davomida murakkab, ammo sharafli yo‘lni bosib o‘tganiga amin bo‘lamiz. Shu bois, O‘zbekiston fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida xizmat qilishdek faxriy burchini ado etishlari konstitutsiyaviy-huquqiy mezon hisoblanishi ayni haqiqat. 1992-yil 3-iyuldagi 12-chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashining 10-sessiyasi Respublika Qurolli Kuchlarini tuzishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu sessiyada “Mudofaa to‘g‘risida”, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida” va “Muqobil xizmat to‘g‘risida”gi muhim harbiy qonunlar qabul qilindi. Harbiy qasamning yangi matni va qasamyod qildirish tartibi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Mudofaa ishlari vazirligini O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligiga aylantirish to‘g‘risidagi farmoni tasdiqlanganligini mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini yuksaltirishda muhim qadam bo‘ldi.

Ushbu qonunchilik hujjatlarimizdan ko‘zlangan maqsad mamlakatimizdagi qurolli kuchlar tizimini isloh qilish, zamonaviy armiyalar qatoriga olib chiqish, ixcham hamda tezkor armiyani barpo etish kabi vazifalar ko‘zlangan.

Hozirgi kundagi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini huquqiy jihatdan qo‘llab quvvatlash nazarda tutilgan.

Shu sababdan ham, oxirgi yillarda yaratilgan imkoniyatlar tufayli qurolli kuchlarimiz dunyo sahnasida xalqaro musobaqalarda yetakchilikni bermasdan kelmoqda. Xalqaro hamkorlik ishlari ham birdek ketmoqda. Masalan, O‘zbekiston Qurolli Kuchlari qardosh, xalqaro sheriklar bilan ham hamkorlikni faol rivojlantirmoqda. 2024-yilda Qozog‘iston hududida o‘tkazilgan “Birlestik – 2024” o‘quv mashg‘ulotlari doirasida o‘zbek harbiylari Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston harbiylari bilan birgalikda jangovar-taktik harakatlarni bajarishdi. Mashg‘ulotlarda 4 000 kishiga yaqin va 700 ta texnika birligi ishtirok etdi. Ushbu mashg‘ulotlarda quruqlik, havo va dengiz bo‘linmalari o‘rtasidagi hamkorlikni takomillashtirishga qaratilgan taktik vazifalar amalga oshirildi.

Xalqaro tashabbuslar orasida Hindiston bilan hamkorlikda o‘tkaziladigan “Do‘stlik – 2024” o‘quv mashg‘ulotlari alohida ahamiyat kasb etadi. 2024-yilda “Termiz” poligonida ushbu o‘quv mashg‘ulotlarining beshinchi bosqichi bo‘lib o‘tdi. Mashg‘ulotlarda quruqlik va harbiy havo kuchlari mutaxassislari ishtirok etdi. Asosiy e’tibor terrorizmga qarshi kurash va boshqa operatsiyalarda bo‘linmalar o‘rtasidagi muvofiqlik va jipslikni oshirishga qaratildi.

2024-yilda Qozog‘iston Qurolli Kuchlari bilan hamkorlikda tashkil etilgan “HANJAR – 2024” taktik maxsus o‘quv mashg‘ulotlari armiyamiz jangovar faoliyatida yana bir muhim voqea bo‘ldi. O‘n kunlik manyovrlar davomida “Forish” tog‘ poligonida binolarni tozalash, minomyotchilar, pulemyotchilar va snayperlarning harakatlari, shuningdek, jangovar bronetexnikani qo‘llash bo‘yicha amaliy harakatlar bajarildi. O‘quv mashg‘ulotlari natijalari o‘zbek harbiylarining har qanday murakkab vazifalarni bajarishga tayyorligini yana bir bor isbotladi.

Shuni allohida ta’kidlash lozimki, islohotlarning davomiyligi armiyamizning ishonchli qurolli kuchlar tizimiga aylantirdi.

2018-yilda O‘zbekiston Respublikasining yangi Mudofaa doktrinasi qabul qilinganligi va u mamlakat harbiy siyosati yo‘nalishlarini belgilab berganligi strategik jihatdan muhim qadam hisoblanadi. Doktrina Qurolli Kuchlarimiz himoyaviy xususiyatga egaligi va barcha davlatlar bilan tinch hamkorlikka intilishni ta’kidlaydi. Shu bilan birga, zamonaviy tahdidlarga javob berish uchun armiyaning jangovar shayligini yuqori darajada saqlash zarurligini alohida uqtiradi.

2019-yilda milliy armiyaning rivojlanishidagi muhim bosqichlardan biri – O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa sanoati bo‘yicha davlat qo‘mitasining tashkil etilishi bo‘ldi. Bu qo‘mita zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika yaratish hamda ishlab chiqarish uchun mas’ul bo‘lib, mamlakatning xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

2020-yilda COVID-19 pandemiyasi bilan bog‘liq global qiyinchiliklarga qaramasdan, O‘zbekiston Qurolli Kuchlari mamlakat xavfsizligi va barqarorligini ta’minlash vazifalariga tayyorligini namoyon etdi. Favqulodda holatlarda harakat qilish va kuch tuzilmalari o‘rtasidagi hamkorlikni oshirishga qaratilgan keng qamrovli o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazildi.

2021-yilda O‘zbekiston xalqaro harbiy mashg‘ulotlar va musobaqalarda faol ishtirok etdi. Bu xorijiy sheriklar bilan hamkorlikni mustahkamlash va harbiy xizmatchilarning kasbiy darajasini oshirishga yordam berdi. 2022-yilda esa islohotlar doirasida harbiy ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar qabul qilindi. Zamonaviy texnologiyalar va jangovar harakatlarning ilg‘or usullarini samarali qo‘llay oladigan yuqori malakali ofitserlar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratildi. 2023-yilda Qurolli kuchlar oliy bosh qo‘mondoni, Prezident Mirziyoyev Shavkat Miromonovich farmoniga muvofiq, Qurolli Kuchlarni raqamlashtirish dasturi amalga

oshirila boshlandi. Qo‘shinlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari va zamonaviy aloqa vositalarini joriy etish orqali turli vaziyatlarda qaror qabul qilish samaradorligi oshirildi. Harbiy salohiyatga mudofaa nuqtayi nazariga sun’iy intellektning joriy etilayotganligi ham armiyamizni zamonaviylik sari odimlab borayotganligining yaqqol isbotidir.

Qurolli Kuchlar rivojlanishining asosiy yo‘nalishlaridan biri qurol-yarog‘ va armiya tuzilmasini modernizatsiya qilish hisoblanadi. 2024-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev boshchiligida jangovar shaylik va xizmat samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator qonunchilik o‘zgarishlari qabul qilindi.

Xulosa qilib aytganda, biz buyuk Amir Temurning donoligi va strategik mahoratlarini eslab, O‘zbekiston tarixi har doim kuch, sharaf va davlatchilik buyukligi tarixi bo‘lib kelganini anglaymiz. Temurning merosi davlat qudrati nafaqat armiyada, balki xalqni birlashtirish, fidoyilikka ilhomlantirish va adolat hamda mustaqillikning oliy ideallarini himoya qilish qobiliyatida ekanligini o‘rgatadi.

O‘zbekiston armiyasi – tinchlik kafolati, milliy g‘urur ramzi va yorug‘ kelajak umididir. U nafaqat Vatanni himoya qiladi, balki har bir fuqaroning o‘z mamlakati buyukligi va kuchi haqida ishonchini mustahkamlaydi. Zero konstitutsiyamizning 153-moddasida ta’kidlanganidek O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun yetarli darajada Qurolli kuchlariga ega.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “O‘zbekiston nashriyoti” - 2023 y.
2. Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.12.2002 yildagi 436-II-son
3. *Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 14.03.2022 y., 03/22/759/0213-son.*
4. https://lex.uz

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLAR VA FUQAROLIK HUQUQI INSTITUTLARI O‘ZARO UYG‘UNLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOT

Mirzaxo‘jayev Madiyorxo‘ja Doniyorxo‘ja o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi unversiteti
ITFTEB ofitseri, katta leytenant

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan shaxsiy va mulkiy huquqlar bilan fuqarolik huquqi institutlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Fuqarolik huquqi shaxsning huquqiy maqomini ta’minlovchi va Konstitutsiya prinsiplari asosida rivojlanadigan mustaqil sohaga aylangani yoritiladi. Shuningdek, amaldagi qonunchilik va sud amaliyotidagi dolzarb muammolar ko‘rib chiqilib, ularni hal etish bo‘yicha takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, konstitutsiya prinsiplari, sud amaliyoti, fuqarolik huquqi, mulk huquqi, shaxsiy huquqlar, huquqiy kafolat, shartnoma erkinligi, huquqiy davlat.

Аннотация: В данной статье будет проанализирована теоретически и практически сложившаяся взаимосвязь между личными и имущественными правами и институтами гражданского права, установленными Конституцией Республики Узбекистан. Освещается, что гражданское право стало самостоятельной отраслью, обеспечивающей правовой статус личности и развивающейся на основе принципов Конституции. Также рассматриваются актуальные проблемы действующего законодательства и судебной практики и даются предложения по их решению.

Ключевые слова: Конституция, принципы Конституции, судебная практика, гражданское право, право собственности, права личности, правовая гарантия, свобода договора, правовое государство.

Annotation: This article analyzes in theoretical and practical terms the inextricable relationship between personal and property rights and civil law institutions established in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. It is covered that civil law has become an independent sphere that ensures the legal status of an individual and develops according to the principles of the Constitution. Current issues in current legislation and judicial practice are also considered and proposals are made to solve them.

Key words: Constitution, principles of the Constitution, judicial practice, civil law, property law, personal rights, legal guarantee, freedom of contract, legal state.

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi mamlakatimiz huquqiy taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi [2]. Konstitutsiya shaxs erkinliklari, fuqarolarning mulkiy huquqlari va huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlab, fuqarolik huquqining nazariy va amaliy rivojlanishi uchun poydevor yaratdi [1].

Konstitutsiyaviy huquqlar institutlari fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarini himoya qilishni ta’minlaydi, davlat hokimiyatining cheklanganligini belgilaydi hamda qonun ustuvorligini mustahkamlaydi.

Konstitutsiyaviy huquqlar institutlari jamiyatda shaxsning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlashda muhim o‘rin tutadi. Ular orqali fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari himoyalanadi hamda davlatning huquqiy bazasi yaratiladi. Shu bilan birga, konstitutsiyaviy normalar fuqarolik huquqi institutlari uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi, shuningdek, huquqiy barqarorlik va adolatni ta’minlashda sudlar va boshqa huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini tartibga soladi. Konstitutsiyaviy huquqlar va fuqarolik huquqi institutlarining uyg‘unligi shaxsning huquqlarini to‘liq himoya qilish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va qonuniy tartibni mustahkamlash imkonini yaratadi. Nazariy jihatdan ular bir-birini to‘ldiradi, amaliyotda esa fuqarolarning huquqiy kafolatlarini amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy huquqiy jamiyatda konstitutsiyaviy va fuqarolik huquqi institutlarining uyg‘unligi shaxsning huquqlarini to‘liq kafolatlash, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va qonuniy tartibni mustahkamlash imkonini yaratadi. Shu sababli ushbu tadqiqotning maqsadi – konstitutsiyaviy huquqlar va fuqarolik huquqi institutlarining nazariy asoslarini tahlil qilish, ularning o‘zaro uyg‘unligini aniqlash va amaliy misollar orqali baholashdir. Shunday qilib, mazkur maqola konstitutsiyaviy huquqlar va fuqarolik huquqi institutlarining nazariy va amaliy jihatlarini birlashtirgan holda, ularning uyg‘unligi masalasini ilmiy asosda yoritishga qaratilgan.

1. Konstitutsiyaviy huquqlar institutlari: nazariy tahlil

Konstitutsiyaviy huquqlar institutlari shaxsning asosiy huquqlari va erkinliklarini kafolatlashga xizmat qiladi va davlat tomonidan ularning amalga oshirilishi hamda himoya qilinishi ta’minlanadi. Ushbu institutlar jamiyatda huquqiy barqarorlikni saqlash, shaxsning erkinligini va daxlsizligini kafolatlash hamda davlat organlari faoliyatini tartibga solishning asosiy mexanizmi sifatida ahamiyatga ega. Konstitutsiyaviy huquqlar institutlari barcha shaxslar va davlat organlari uchun majburiy bo‘lib, ularning normalariga rioya qilinishi shaxslararo munosabatlarda adolatni, huquqiy tenglikni va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Shuningdek, ushbu institutlar o‘zida kuchli huquqiy himoya mexanizmlarini mujassamlashtirgan bo‘lib, shaxsning huquqlari buzilgan taqdirda sud, konstitutsiyaviy organlar yoki boshqa vakolatli idoralar orqali ularni tiklash va himoya qilish imkoniyatini yaratadi. Bu mexanizm shaxsning huquqiy mustaqilligini ta’minlashda va davlat bilan fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarda asosiy vosita hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy huquqlar institutlari shuningdek boshqa huquq sohalari bilan uzviy bog‘langan holda ishlaydi. Masalan, fuqarolik, mehnat yoki jinoyat huquqi institutlari konstitutsiyaviy huquqlarni amaliyotda ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ularning uyg‘un ishlashi shaxs huquqlarining to‘liq himoyasini ta’minlaydi, nizolarni qonuniy yo‘l bilan hal qilish imkonini beradi va jamiyatdagi ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, konstitutsiyaviy huquqlar institutlari nazariy jihatdan shaxsning huquqiy ongini shakllantiradi, huquqiy madaniyatni rivojlantiradi va davlatning huquqiy tizimiga ishonchni oshiradi.

Shunday qilib, konstitutsiyaviy huquqlar institutlari shaxsning asosiy huquqlarini himoya qilish, jamiyatda ijtimoiy va huquqiy barqarorlikni ta’minlash hamda boshqa huquq institutlari bilan uyg‘un ishlashga xizmat qiladi [10].

2. Fuqarolik huquqi institutlari: nazariy tahlil

Fuqarolik huquqi institutlari shaxs va tashkilotlar o‘rtasidagi mol-mulk, shartnoma va boshqa huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy tizim sifatida muhim o‘rin tutadi. Ushbu institutlar konstitutsiyaviy huquqlarni amalda ta’minlashning asosiy vositasi bo‘lib, shaxsning huquqiy mustaqilligini himoya qiladi va fuqarolik jamiyatining barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Fuqarolik huquqi institutlari o‘zining nazariy asoslariga ko‘ra bir qator xususiyatlarga ega. Birinchidan, ular shaxsiy va mulkiy xarakterga ega bo‘lib, shaxsning mulkini egalik, foydalanuvchilik va foydalanish huquqlari bilan himoya qiladi. Ikkinchidan, fuqarolik huquqi institutlari fuqarolararo tenglik prinsipiga asoslangan bo‘lib, barcha subyektlar qonun oldida teng huquqlidir. Uchinchidan, ular ixtiyoriylik va erkinlik prinsipiga asoslanadi: shaxslar va tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlar shartnoma asosida erkin tartibga solinadi, bu esa ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshiradi. To‘rtinchidan, fuqarolik huquqi institutlari shaxs huquqlarining sud himoyasini kafolatlaydi, ya’ni huquqlar buzilgan taqdirda shaxs sudga murojaat qilishi mumkin.

Fuqarolik huquqi institutlari bir qator asosiy yo‘nalishlarga bo‘linadi. **Mulk huquqi** shaxsning mol-mulkini himoya qilishni, egalik va foydalanish huquqlarini tartibga soladi. **Shartnoma huquqi** shaxslar va tashkilotlar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni tartibga soladi va tomonlar majburiyatlarini aniqlaydi. **Meros huquqi** meros qoldirish va meros olish tartibini belgilaydi. Shuningdek, **oilaviy va shaxsiy huquqlar** nikoh, ajrim, ota-ona va bola huquqlari kabi masalalarni tartibga soladi.

Har bir institut shaxsning kundalik huquqiy munosabatlarini tartibga soladi va nizolarni qonuniy yo‘l bilan hal qilish imkonini yaratadi.

Fuqarolik huquqi institutlarining himoya mexanizmlari ham keng qamrovli. Sud himoyasi mexanizmi shaxsning huquqlari buzilgan taqdirda ularni tiklash imkonini beradi. Arbitraj va boshqa vakolatli idoralar nizolarni qonuniy yo‘l bilan hal qiladi, shartnomaviy javobgarlik esa tomonlar majburiyatlarini bajarilishini ta’minlaydi. Notariuslar va boshqa huquqiy organlar esa shartnoma va mulk munosabatlarini huquqiy kafolat bilan ta’minlaydi.

Nazariy jihatdan, fuqarolik huquqi institutlari konstitutsiyaviy huquqlar bilan uzviy bog‘langan. Ularning uyg‘un ishlashi shaxs huquqlarini to‘liq himoya qilish, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, fuqarolik huquqi institutlari jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirishga, shaxsning huquqiy ongini shakllantirishga va davlat bilan fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni qonuniy asosda tartibga solishga xizmat qiladi[2].

3. Konstitutsiyaviy va fuqarolik huquqi institutlarining o‘zaro uyg‘unligi

Konstitutsiyaviy huquqlar institutlari va fuqarolik huquqi institutlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, shaxsning huquqlarini to‘liq himoya qilish va jamiyatda huquqiy barqarorlikni ta’minlashda o‘zaro uyg‘un ishlaydi. Konstitutsiyaviy huquqlar institutlari shaxsning asosiy huquq va erkinliklarini belgilab beradi, fuqarolik huquqi institutlari esa bu huquqlarni amaliyotda amalga oshirish, huquqiy munosabatlarni tartibga solish va nizolarni hal qilish imkonini yaratadi. Shu tariqa, ikki institut tizimi bir-birini to‘ldiradi va birlashgan huquqiy mexanizm hosil qiladi.

Nazariy jihatdan, konstitutsiyaviy huquqlar institutlari fuqarolik huquqi institutlari uchun asosiy normativ baza vazifasini bajaradi. Masalan, shaxsning mulk huquqi yoki shartnomaviy huquqlari konstitutsiyaviy kafolatlar bilan mustahkamlangan bo‘lsa, fuqarolik huquqi institutlari bu huquqlarni real hayotda, mol-mulk munosabatlarida, shartnomalar tuzishda va sud orqali himoyalashda qo‘llaydi. Shu bilan birga, fuqarolik huquqi institutlarining samarali ishlashi konstitutsiyaviy huquqlarning haqiqatda amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Amaliy jihatdan, ikki institutning uyg‘unligi shaxs huquqlarini himoya qilishning tizimli mexanizmini yaratadi. Masalan, shaxsning mulkiy yoki shartnomaviy huquqlari buzilgan taqdirda, fuqarolik sudlari va notarius idoralari orqali amalga oshiriladigan himoya mexanizmlari, konstitutsiyaviy huquqlar bilan ta’minlangan kafolatlar asosida ishlaydi. Shu tariqa, shaxs huquqlarining buzilishi nazariy jihatdan ham, amaliyotda ham minimal darajaga tushiriladi.[10]

Shuningdek, konstitutsiyaviy va fuqarolik huquqi institutlari o‘zaro uyg‘un ishlashi jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirishga, fuqarolarni huquqiy ongga ega qilishga va davlat bilan fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni qonuniy asosda tartibga solishga xizmat qiladi. Ularning uyg‘un ishlashi davlatning huquqiy tizimini

mustahkamlash, shaxsning huquqlarini kafolatlash va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, konstitutsiyaviy va fuqarolik huquqi institutlarining uyg‘unligi nafaqat huquqiy tizimning samaradorligini oshiradi, balki jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, shaxsning huquqiy erkinligini kafolatlash va qonuniylikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu jihat bilan, bu ikki institut tizimi bir-birini to‘ldirib, kompleks huquqiy mexanizm sifatida ishlaydi.

Amaliyotdagi uyg‘unlik: Amaliy jihatdan, uyg‘unlik bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, shaxsning mulk huquqlari, shartnomaviy munosabatlari va boshqa fuqarolik huquqi normalari konstitutsiyaviy kafolatlar bilan mustahkamlanadi. Masalan, shaxs mulkini egallash yoki undan foydalanish huquqini amalga oshirayotganda, bu huquqning buzilishi konstitutsiyaviy kafolatlar asosida sud orqali himoya qilinadi. Ikkinchidan, fuqarolik huquqi institutlari shartnomaviy munosabatlarni tartibga solish, ixtiyoriylik va tenglik tamoyillarini qo‘llash orqali shaxslar o‘rtasidagi nizolarni oldini oladi. Shu tariqa, nazariy asoslar va amaliy mexanizmlar bir-birini to‘ldiradi. Uchinchidan, amaliy uyg‘unlik shaxs huquqlarini himoya qilish mexanizmlarida ko‘zga tashlanadi. Shaxsning mulkiy yoki shartnomaviy huquqlari buzilgan taqdirda, sudlar, arbitraj organlari va notarius idoralari orqali himoya mexanizmlari amalga oshiriladi. Bu mexanizmlar konstitutsiyaviy kafolatlar bilan uyg‘un ishlaydi va shaxsning huquqlari real hayotda buzilmasligini ta’minlaydi. Shuningdek, amaliyotdagi uyg‘unlik jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shaxslar o‘z huquqlarini bilib, qonuniy mexanizmlardan foydalana oladi, davlat organlari esa konstitutsiyaviy va fuqarolik huquqi normalariga amal qiladi. Shu yo‘l bilan, konstitutsiyaviy va fuqarolik huquqi institutlarining uyg‘un ishlashi shaxs huquqlarini samarali himoya qilish, nizolarni qonuniy yo‘l bilan hal qilish va huquqiy barqarorlikni mustahkamlash imkonini beradi.

Natijada, amaliyotdagi uyg‘unlik ikki institutning bir-birini to‘ldiruvchi mexanizm sifatida ishlashini ta’minlaydi va shaxs huquqlarini kafolatlash hamda jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Uyg‘unlikni ta’minlashdagi muammolar va ularni hal etish yo‘llari.

1. Normativ-huquqiy ziddiyatlar - Konstitutsiyaviy huquqlar bilan fuqarolik kodeksi normalari o‘rtasida qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Masalan, shaxsiy mulk huquqini himoya qiluvchi fuqarolik qoidalari Konstitutsiyadagi shaxs erkinligi tamoyiliga zid bo‘lishi mumkin.

Konstitutsiyaviy va fuqarolik-huquqiy normalar o‘rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlarni bartaraf etish uchun **qonunchilikni tizimlashtirish va normativ-huquqiy monitoring mexanizmini kuchaytirish** zarur.

2. Sud amaliyotida uyg‘unlik yetishmasligi - Sudlar tomonidan fuqarolik huquqi normalari qo‘llanayotganda Konstitutsiyaviy prinsiplar yetarlicha inobatga olinmaydi, bu esa qarorlarning inkonstitutsion bo‘lish xavfini oshiradi.

Sud qarorlarida konstitutsiyaviy prinsiplarning to‘liq aks etishini ta’minlash uchun **sudyalarning konstitutsiyaviy talqin bo‘yicha malakasini oshirish** muhim. Shuningdek, **Oliy sud plenumi qarorlarida** konstitutsiyaviy tamoyillarning amaliy qo‘llanishi bo‘yicha yagona standartlar ishlab chiqilishi zarur.

Xulosa

Konstitutsiyaviy va fuqarolik huquqi institutlarining uyg‘unligi – O‘zbekiston huquqiy tizimining izchilligi va barqarorligini ta’minlovchi asosiy tamoyillardan biridir. Konstitutsiya shaxs erkinliklari, mulkiy va shartnomaviy huquqlarni kafolatlagan bo‘lsa, fuqarolik huquqi ushbu kafolatlarni amaliyotda ro‘yobga chiqaruvchi mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, konstitutsiyaviy normalar fuqarolik huquqi institutlarining asosiy manbasi va yo‘nalishini belgilab beradi. Amaliyotda esa fuqarolik huquqi institutlari ushbu normalarning hayotga tatbiqini ta’minlaydi. Shu tarzda, ikki tizimning o‘zaro uyg‘unligi shaxsning huquqiy maqomini mustahkamlaydi, qonun ustuvorligini ta’minlaydi va jamiyatda adolat, huquqiy tartib hamda ijtimoiy barqarorlikni qaror toptiradi.

Biroq, mavjud normativ-huquqiy ziddiyatlar, sud amaliyotidagi bir xillikning yo‘qligi va huquqiy madaniyat darajasining pastligi kabi muammolar ushbu uyg‘unlikka to‘siq bo‘layotgani kuzatiladi. Shu sababli, qonunchilikni tizimlashtirish, sud va huquqni muhofaza qilish organlarining o‘zaro hamkorligini kuchaytirish hamda huquqiy ta’lim va madaniyatni oshirish orqali konstitutsiyaviy va fuqarolik huquqi institutlarining uyg‘unligini yanada samarali ta’minlash zarur.

Natijada, ushbu ikki institut tizimining uyg‘un ishlashi O‘zbekiston Respublikasida huquqiy davlatni barpo etish, inson huquqlari ustuvorligini ta’minlash va fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga mustahkam asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, A. X. (2021). *Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat: nazariy va amaliy masalalar*. Toshkent: TDYUU nashriyoti.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni. (1999-yil 14-aprel). O‘RQ–763-son. Toshkent.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Mahalla to‘g‘risida”gi Qonuni. (2021-yil 15-aprel). O‘RQ–682-son. Toshkent.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni. (2014-yil 12-aprel). O‘RQ–371-son. Toshkent.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2018-yil 29-may). 205-son qaror – *Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom.* Toshkent.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2018-yil 4-may). PF–5430-son Farmon – *Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.* Toshkent.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022-yil 28-yanvar). PF–60-son Farmon – *2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida.* Toshkent.

9. Qosimov, A. (2022). *O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlashning huquqiy asoslari.* Toshkent: Akademiya nashriyoti.

10. Zokirov, B. (2019). *Huquq nazariyasi.* Toshkent: TDYUU nashriyoti.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ЯНГИ КОНСТИТУЦИЯСИ - ДЕМОКРАТИК РИВОЖЛАНИШ ЙЎЛИДА ЯНГИ ҚАДАМ

Кутлимуратов Махмуджон Шарипбаевич,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети
магистратураси тингловчиси, капитан

Аннотация: Ушбу мақолада Конституциянинг фуқаролар ижтимоий ҳимояси ва фаровонлигини таъминлашдаги ўрни, ижтимоий давлат тамойилининг амалий мазмуни, фуқароларнинг асосий ижтимоий ҳуқуқларининг ҳуқуқий кафолатлари ҳамда уларни амалга ошириш механизмлари илмий- назарий жиҳатдан таҳлил қилинади.

Шунингдек, ижтимоий ҳимоянинг замонавий йўналишлари ва давлат сиёсатининг асосий вазифалари ёритилади.

Аннотация: В данной статье научно-теоретически анализируются роль Конституции в обеспечении социальной защиты и благосостояния граждан, практическое содержание принципа социального государства, правовые гарантии основных социальных прав граждан и механизмы их реализации. Также освещаются современные направления социальной защиты и основные задачи государственной политики.

Annotation: In this article, the role of the Constitution in ensuring social protection and the well-being of citizens, the practical essence of the social state principle, the legal guarantees of citizens’ fundamental social rights, and the mechanisms for their implementation are analyzed from a scientific and theoretical perspective. The article also highlights modern directions of social protection and the main tasks of state policy.

Калит сўзлар: Конституция, ижтимоий давлат, фуқаролар ҳуқуқлари, ижтимоий ҳимоя, ижтимоий хизматлар, ижтимоий адолат.

Ключевые слова: Конституция, социальное государство, права граждан, социальная защита, социальные услуги, социальная справедливость.

Keywords: Constitution, social state, citizens' rights, social protection, social services, social justice

Конституция ҳар бир давлат тараққиётининг пойдевори бўлган ҳуқуқий, сиёсий ва мафкуравий ҳужжат – мамлакатнинг Асосий қонуни ҳисобланади. 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси инсон ва фуқароларнинг асосий ҳуқуқ ва эркинликлари, мустақил демократик давлатимиз, эркин жамиятимизнинг мустаҳкам ҳуқуқий асоси бўлиб хизмат қилмоқда.

Фуқароларнинг энг муҳим орзу-интилишлари ва мақсадлари Асосий қонун – Конституцияда тўлиқ ифода этилади. Мустақиллик йилларида Конституция асосида инсон қадри улуғланадиган демократик ҳуқуқий давлат ва адолатли фуқаролик жамиятини қуриш мақсадида кенг қамровли янгиланишлар ва ислоҳотлар амалга оширилди, бу борада бой тажриба тўпланди.

Ўзбекистон бугун ўз тараққиётининг янги босқичига қадам қўймоқда. Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида белгиланган адолатли ва халқпарвар давлат барпо этиш йўлида долзарб аҳамиятга эга бўлган вазифаларни тўлақонли амалга ошириш унинг мақсади, кўламига монанд ва муносиб бўлган янги мустаҳкам конституциявий маконни шакллантиришни тақозо этади.

Шу нуқтаи назардан, конституциявий ислоҳотлар табиий ривожланиш натижаси бўлиб, миллат ва халқ сифатида кейинги қадамларимизни аниқлаб олишимиз учун ўта аҳамиятлидир, адолатли жамият қуриш йўлида улкан қадамдир. Бинобарин, мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотлар инсоннинг шаъни, қадр-қиммати, ҳуқуқ ва эркинликлари бундан буён барча соҳаларда устувор аҳамият касб этишини қатъий қоидага айлантириш, бир сўз билан айтганда, "Инсон қадри учун" ғоясини ҳамда бугунги ислоҳотларнинг бош тамойили бўлган "Инсон – жамият – давлат" деган ёндашувни янги таҳрирдаги Конституция лойиҳасининг мазмун-моҳиятига чуқур сингдириш муҳим аҳамият касб этади [3].

Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёев Конституциявий комиссия аъзолари билан учрашувдаги нутқида "Бош мақсадимиз – ҳар бир юртдошимиз ушбу ҳужжатни менинг Конституциям деб фахрланадиган мукаммал даражага олиб чиқишдир", деб таъкидлаган эди.

Шу маънода, референдумга чиқарилишидан олдин лойиҳа мисли кўрилмаган ҳажмда жамоатчиликнинг кенг қатламлари томонидан синчковлик билан муҳокамадан ўтказилганлиги, бунинг натижасида

220 мингдан ортиқ таклифлар келиб тушганлиги, Конституциявий қонун лойиҳаси ушбу таклифлар асосида шаклланганлиги янги таҳрирдаги Конституция том маънода халқ Конституцияси эканлигидан далолат беради.

Мамлакатимизда 2023 йил 30 апрель куни ўтказилган референдумда иштирок этган фуқароларнинг 90,21 фоизи янги таҳрирдаги Конституциямизни ёқлаб овоз бергани ҳам бу фикрни яққол тасдиқлайди, шу билан бир қаторда, Бош қомусимизда халқимизнинг Янги Ўзбекистонни барпо этиш бўйича орзу-умидлари ва интилишлари ўз аксини топганини ифода этади.

Ҳар қандай демократик давлатнинг барқарор ривожланиши авваламбор инсон ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларининг таъминланишига боғлиқ. Давлатнинг устувор вазифаси сифатида эътироф этиладиган ижтимоий ҳимоя тизими эса мазкур ҳуқуқларнинг амалда рўёбга чиқиши учун ҳуқуқий ва институционал асос вазифасини бажаради. Конституция фуқароларнинг ижтимоий ҳимояга бўлган ҳуқуқини кафолатловчи олий юридик ҳужжат сифатида ижтимоий сиёсатнинг пойдеворини белгилайди. Шу маънода, ижтимоий давлат тамойили, инсон қадрининг устуворлиги ва фуқароларнинг ижтимоий фаровонлиги конституциявий нормалар орқали мустаҳкамлангани ижтимоий барқарорликнинг муҳим омили ҳисобланади.

Янги таҳрирдаги Конституция 7-моддаси биринчи бандида «Халқ давлат ҳокимиятининг бирдан-бир манбаи», деган норма белгилаб қўйилган. Бу норма тимсолида Ўзбекистон Республикасида жаҳон миқёсида умумэътироф этилган халқ ҳокимиятчилиги принципи, яъни халқ суверенитетнинг ташувчиси ва давлат ҳокимиятининг ягона манбаи эканини англатувчи тамойил мустаҳкамлаб қўйилган.

Шундан келиб чиқиб, кейинги йилларда мамлакатимизда Янги Ўзбекистон — инсон шаъни ва қадр-қиммати, ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатлари олий қадрият ҳисобланган давлат бўлиши; халқ давлат органларига эмас, давлат органлари халққа хизмат қилиши; «одамлар ташвиши билан яшаш», халқимизнинг қонуний талаб-истаклари ва хоҳиш-иродасини рўёбга чиқариш давлат органлари фаолиятини баҳолашнинг энг муҳим мезонига айланиши; барча муҳим қарорлар аҳоли иштирокида, фуқаролик жамияти институтлари билан маслаҳатлашув асосида қабул қилиниши каби принцип ва ғояларни ҳаётга татбиқ этишга қаратилган тизимли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Демократиянинг талабу таомили ва устунлиги ҳам шунда. Бунда қонун чиқарувчи ва ижро органларидан инсон ҳуқуқларини таъминлаш; демократик ислоҳотларни чуқурлаштириш ва мамлакатни модернизация қилишда парламент ва сиёсий партиялар, фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситаларининг ролини кучайтириш; ҳокимият тармоқларини тийиб

туриш ва мувозанатни сақлашда парламент ролини ошириш; давлат хизматлари сифати ва самарадорлигини яхшилаш, давлат органлари фаолиятининг ҳисобдорлиги ва очиқлигини кучайтириш ҳамда парламент ва жамоатчилик назорати механизмларини амалга татбиқ этиш масалаларига алоҳида эътибор қаратиш талаб этилади.

Ижтимоий давлат тамойили замонавий ҳуқуқшуносликда инсоннинг муносиб ҳаёт кечиришини таъминлашга қаратилган конституциявий институт сифатида талқин қилинади. Бу тамойилга кўра, давлат фуқароларнинг ижтимоий эҳтиёжларини қондириш, аҳолининг ҳимояга муҳтож қатламларини қўллаб-қувватлаш, кам таъминланган оилаларнинг моддий ва маънавий турмуш даражасини яхшилаш юзасидан тизимли чоралар кўриши лозим.

Ижтимоий давлат тамойили, аввало, инсон қадрини улуғлаш тамойили билан узвий боғлиқ. Инсон қадрининг устувор бўлиши — пенсия таъминоти, ижтимоий нафақалар, меҳнат муҳофазаси, тиббий ёрдам, таълим олиш имкониятлари ва бошқа ижтимоий хизматларнинг кафолатли амал қилишига олиб келади. Демак, ижтимоий давлат фуқароларга нисбатан нафақат ҳуқуқий кафолатлар, балки реал amaliy ёрдамни ҳам назарда тутади.

Фуқароларнинг ижтимоий ҳуқуқлари ва уларнинг конституциявий кафолатлари

Фуқароларнинг ижтимоий ҳуқуқлари ҳар қандай демократик жамиятнинг ажралмас қисми ҳисобланади. Ушбу ҳуқуқлар қуйидаги йўналишларни ўз ичига олади:

1. Таълим олиш ҳуқуқи

Конституция фуқароларнинг бепул умумий таълим олиш ҳуқуқини кафолатлайди. Таълимнинг ижтимоий аҳамияти унинг аҳолининг интеллектуал салоҳиятини ошириш, иқтисодий ўсиш ва инновацион тараққиётга туртки бериши билан белгиланади.

2. Тиббий хизматдан фойдаланиш ҳуқуқи

Соғлиқни сақлаш — ижтимоий давлатнинг асосий вазифаларидан бири. Конституцияда қайд этилган тиббий ёрдамнинг кафолатланган минимумлари аҳолининг саломатлигини муҳофаза қилиш ва касалликлар профилактикасида муҳим аҳамиятга эга.

3. Меҳнат ва муносиб яшаш даражаси ҳуқуқи

Конституция ҳар бир инсоннинг меҳнат қилиш, адолатли иш ҳақи олиш, меҳнат шароитларининг хавфсизлигига эга бўлиш ва ишсизликдан ҳимоя қилиш ҳуқуқларини таъминлайди. Ижтимоий давлатнинг вазифаси — муносиб турмуш даражасини таъминлаш учун рақобатбардош иқтисодий шароитлар яратиш.

4. Пенсия ва ижтимоий нафақалар ҳуқуқи

Ногиронлиги бўлган шахслар, кексалар, боқувчисини йўқотганлар ва бошқа эҳтиёжманд тоифалар учун давлат томонидан йўналтириладиган молиявий қўллаб-қувватлаш ижтимоий барқарорликнинг муҳим кафолати ҳисобланади.

Конституциямиз Муқаддимасида давлат ва жамият тараққиётининг ҳуқуқий мафкураси, халқимиз Янги Ўзбекистонни бунёд этиш йўлида таянадиган конституциявий қадриятлар ва тамойиллар аниқ белгилаб берилган.

Биринчи тамойил — инсон ҳуқуқ ва эркинликларига, миллий ва умуминсоний қадриятларга, давлат суверенитети принципларига содиқлик. Бу билан Конституциямиз инсоннинг асрлар давомида дунёда шаклланган асосий маънавий-ахлоқий қадриятлари ва асосий ҳуқуқларини ўзида мужассам этган ҳолда, инсоннинг олий қадрияти — унинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни ва қадр-қиммати эканини эълон қилди.

Конституциямизнинг аввалги таҳриридан фарқли ўлароқ, унинг янги таҳрирининг асосий ғояси шахснинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини, инсон шаъни ва қадр-қимматини таъминлаш, илгари мавжуд бўлган “давлат — жамият — шахс” парадигмасини янги: “инсон — жамият — давлат” тамойилига ўзгартиришдан иборат.

Давлатимиз раҳбари таърифига кўра, инсон қадри — мамлакатнинг ҳар бир фуқароси учун тинч ва хавфсиз ҳаёт, фундаментал ҳуқуқ ва эркинликлар, малакали тиббий хизмат, сифатли таълим, кучли ва манзилли ижтимоий ҳимоя ҳамда соғлом экологик муҳит таъминланишини, муносиб турмуш шароити ва замонавий инфратузилманинг босқичма-босқич яратилишини англатади.

Бугунги кунда инсон қадр-қиммати, унинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини таъминлаш ғояси давлатимизнинг бутун ички ва ташқи сиёсатининг тамал тошига, Янги Ўзбекистонда олиб борилаётган демократик ислоҳотларнинг энг муҳим ҳаракатлантирувчи кучига ҳамда ушбу эзгу саъй-ҳаракатларни ўзаро боғлаб турувчи муҳим омилга айланди.

Хулоса ўрнида таъкидлашимиз мумкинки, бугун Конституциямизнинг янги нормаларида асосий эътибор инсон, жамият ва давлатнинг барқарор ривожланишини таъминлашга қаратилганини ишонч билан таъкидлаш мумкин. Янги таҳрирдаги Асосий Қонуннинг қабул қилиниши билан бу борада янада мустаҳкам конституциявий-ҳуқуқий асос яратилди. Бинобарин, Янги Ўзбекистон ўзининг ушбу соҳалардаги халқаро мажбуриятларига қатъий содиқлигини яна бир бор намоён этди.

Конституциямизда Европа, Осиё, Шарқ ва Америка минтақаларида жойлашган дунё давлатларининг ижобий конституциявий тажрибаси ўз аксини топган. Асосий Қонунимиз ҳуқуқшунос олимлар, сиёсатшунослар, кўплаб халқаро ташкилотлар мутахассислари томонидан синчиклаб ўрганилган бўлиб,

унга инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро ҳуқуқ нормалари қўшимча равишда уйғунлаштирилгандир.

Ишончимиз комилки, халқаро ташкилотлар вакиллари ва экспертлар холис ва тўғри таъкидлаганларидек, Ўзбекистон Конституциясининг янги таҳрирда қабул қилиниши "Инсон шаъни ва қадр-қиммати учун" тамойили асосида халқ фаровонлигини янада юксалтириш, инсон, фуқаролик жамияти ва давлатни жадал ривожлантириш учун мустаҳкам замин яратди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси - Т 2023 йил.
2. “Янги таҳрирдаги Конституция — инсон шаъни, қадр-қиммати ва ҳуқуқларининг мустаҳкам кафолати” — Constitution.uz таҳлилий мақоласи.
3. Янгиланаётган Конституция. 100 саволга 100 жавоб. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Қонунчилик ва ҳуқуқий сиёсат институти. – Тошкент. “Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази, 2023 йил. – 180 б.
4. Конституция “Ижтимоий ҳимоя Конституция билан кафолатланган” УЗА мақоласи. Uza.uz

KONSTITUTSIYA VA IQTISODIY BARQARORLIK: HUQUQIY ASOSLAR VA AMALIY AHAMIYAT

Akmal Bozorov Amonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti iqtisodiy fanlar kafedrasi professori i.f.d. (DSc), professor

Mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanishi nafaqat bozor mexanizmlari va moliyaviy siyosatga, balki mustahkam huquqiy asosga ham bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun asosiy poydevor vazifasini bajaradi. Konstitutsiyaviy islohotlar fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, xususiy mulk va tadbirkorlikni rag‘batlantirish, soliq va budjet tizimini tartibga solish, shuningdek, pul-kredit va bank tizimini mustahkamlash orqali iqtisodiy jarayonlarning barqarorligini kafolatlaydi.

Konstitutsion islohotlar O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanish strategiyasida tub burilish yasadi. Unda davlatning iqtisodiyotdagi o‘rni, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, soliqqa tortish tamoyillari, mulk daxlsizligi va ijtimoiy kafolatlar bo‘yicha aniq normalar belgilab qo‘yildi. Bu esa so‘nggi yillarda boshlangan iqtisodiy islohotlarning huquqiy asoslarini mustahkamladi hamda bozor mexanizmlarining yanada erkinlashuviga zamin yaratdi.

2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning iqtisodiyotga daxldor normalari mamlakatning ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti modelini yanada mustahkamladi. Xususan, Konstitutsiyaning, 67-moddasi – Xususiy mulk daxlsiz ekani, 68-moddasi – Bozor raqobatini ta’minlash davlatning majburiyati sifatida belgilanishi, 71–72-moddalar – Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu o‘zgarishlar iqtisodiyotning ochiqligini oshirib, investorlar uchun yanada prognoz qilinadigan huquqiy makon yaratdi. Ayniqsa, soliq siyosati va davlat moliyasining boshqaruvida Konstitutsiyaviy yondashuv kuchaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasi fuqarolarning moliyaviy majburiyatlari va davlatning soliq siyosatini tartibga soluvchi muhim normalardan biridir. Ushbu modda fuqarolarni qonuniy asosda soliqlar va yig‘imlarni to‘lashga majbur qiladi, shuningdek, soliq tizimining adolatli bo‘lishi va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlariga zid kelmasligini ta’minlashga qaratilgan.

Soliq — bu davlatning asosiy moliyaviy manbalaridan biri bo‘lib, uning to‘g‘ri va adolatli tizimi ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishning kafolatidir. 63-modda shuni ta’kidlaydiki, soliqlar va yig‘imlar faqat qonun bilan belgilanadi. Bu prinsip fuqarolarga soliq majburiyatlarining oldindan aniq va oshkora bo‘lishini kafolatlaydi, shuningdek, davlat organlarining nazoratsiz va arbitrer soliq yig‘ishining oldini oladi.

Mazkur me’yor soliqlar adolatli bo‘lishi kerakligini belgilaydi. Bu fuqarolar va korxonalarning moliyaviy majburiyatlari ularning imkoniyatlariga muvofiq bo‘lishi, ijtimoiy tenglikni ta’minlashi va aholining ma’lum bir qatlamini ortiqcha soliq bosimi ostiga olmasligini anglatadi. Shu bilan birga, soliqlar va yig‘imlar fuqarolarning

asosiy konstitutsiyaviy huquqlarini, xususan, mulk huquqi, ish bilan bandlik va yashash sharoitini himoya qiluvchi huquqlarini cheklamasligi lozim.

Amalda, 63-modda davlat organlariga ham mas’uliyat yuklaydi: soliq siyosati shaffof va fuqarolar manfaatlariga xizmat qiluvchi bo‘lishi kerak. Davlat soliqlarni jamiyat va iqtisodiyot ehtiyojlarini hisobga olgan holda belgilashi, shuningdek, soliq to‘lovchilarga qulay shart-sharoitlar yaratishi zarur. Shu jihatdan, soliqlar fuqarolarni moliyaviy jihatdan qiynamasdan, iqtisodiy faollikni rag‘batlantiruvchi vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasi soliqlar va yig‘imlarni to‘lashni qonuniy, adolatli va shaffof qilishni talab qiladi. Bu modda nafaqat davlatning moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi, balki fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini hurmat qilishni ham kafolatlaydi. Shunday qilib, soliqlar fuqarolar va davlat o‘rtasidagi ijtimoiy kelishuv va iqtisodiy barqarorlikning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda soliq siyosatida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Yangi Konstitutsiya esa, bu islohotlarni huquqiy jihatdan mustahkamladi.

Soliq yukining kamaytirilishi va soddalashtirilgan tizimlar:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i progressiv stavkadan propotsional stakaga ya’ni yagona 12 %ga o‘zgartirildi;

- QQS stavkasi 20 % dan 12 %ga pasaytirildi.

- korxonalar uchun foyda solig‘i stavkasi ko‘plab sohalarda yengillashtirildi.

Bugungi kunda soliq tizimining raqamlashtirilishi amaliy natija bermoqda: barcha soliq hisobotlarining deyarli 100 foizi elektron shaklda topshirilmoqda, bu esa jarayonlarning shaffofligi va tezkorligini va soliq to‘lovchilarga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini sezilarli darajada oshirib, fuqarolar uchun hisobot topshirish, to‘lovlarni amalga oshirish va ma’lumotlarni yangilash jarayonlarini ancha yengillashtirdi.

Iqtisodiy islohotlar aholi farovonligiga ham bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Konstitutsiyada mehnatga haq to‘lashning adolatli tizimi kafolatlangani iqtisodiy o‘sish bilan uyg‘un ravishda aholining haqiqiy daromadlari yildan yilga oshishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, yangi sanoat zonalarining tashkil etilishi natijasida har yili 200 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilayotganligi bandlik darajasini ko‘tarib, oilalarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamladi. Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlarining ortib borayotgani ichki bozorni jonlantirib, umumiy iqtisodiy faollikni kuchaytirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z moliya, pul va bank tizimini yagona va markazlashgan tizim asosida tashkil etadi. Ushbu tizim davlatning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish va tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan. Mamlakat moliyaviy siyosati asosan davlat budjeti, soliq tizimi, pul birligi va bank tizimi orqali amalga oshiriladi, bu esa makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Davlat budjeti respublika, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mahalliy budjetlardan iborat bo‘lib, shakllantirilishi va ijrosi ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida amalga oshiriladi. Bu prinsip fuqarolarning va fuqarolik jamiyati institutlarining budjet jarayonida ishtirokini nazarda tutadi. Shu orqali jamoatchilik nazorati yo‘lga qo‘yiladi, budjet mablag‘larining samarali va maqsadli ishlatilishi ta’minlanadi. Ilmiy nuqtai nazardan, shaffof budjet tizimi davlat moliyaviy siyosatiga ishonchni oshiradi va fuqarolarda iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi.

O‘zbekiston hududida yagona soliq tizimi amal qiladi, soliqlarni joriy qilish va tartibga solish huquqi qonunchilik organlariga tegishlidir. Yagona soliq tizimi davlat byudjeti daromadlarini barqaror va prognoz qilinadigan manbaga asoslaydi, shuningdek, iqtisodiy faoliyatni markazlashgan nazorat ostida olib borish imkonini yaratadi. Iqtisodiy kontekstda, soliq tizimining samarali ishlashi nafaqat davlat

daromadlarini oshiradi, balki investitsiya muhitini mustahkamlash va tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish uchun ham muhim vosita hisoblanadi.

Pul birligi sifatida mamlakat so‘mni qabul qiladi, u butun hududda yagona va qonuniy to‘lov vositasi sifatida amal qiladi. Markaziy bank pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, pul muomalasini boshqarish hamda pul belgilarini muomalaga kiritish va chiqarish bo‘yicha mutlaq vakolatlarga ega. Shu tariqa, pul-kredit tizimi mustaqil, barqaror va samarali ishlashini ta’minlaydi. Ilmiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, mustaqil markaziy bank inflyatsiyani nazorat qilish, valyuta kursining barqarorligini ta’minlash va moliyaviy bozorlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston bank tizimi Markaziy bank va boshqa banklardan tashkil topgan bo‘lib, Markaziy bank banklar faoliyatini tartibga soladi, ularning barqaror ishlashini nazorat qiladi va moliyaviy tizimning sog‘lom faoliyatini kafolatlaydi. Shu bilan birga, bank tizimi ichida tadbirkorlik va investitsiya muhitining qulayligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat va moliyaviy resurslarning erkin harakatlanishi ta’minlanadi. Bu esa iqtisodiy integratsiya va bozor mexanizmlarining samarali ishlashiga imkon yaratadi.

Ilmiy nuqtai nazardan, O‘zbekiston moliya va bank tizimining asosiy ustunlari quyidagilardan iborat: budjetning shaffofligi va jamoatchilik nazorati, yagona soliq tizimi, pul birligining barqarorligi, bank tizimining mustaqil va barqaror ishlashi. Bu elementlar davlat moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi, inflyatsiya va moliyaviy risklarni kamaytiradi, shuningdek, fuqarolar va tadbirkorlar o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni tartibga soladi.

Umuman olganda, O‘zbekiston Konstitutsiyasi moliya, pul va bank tizimini nafaqat huquqiy asosda, balki iqtisodiy va ijtimoiy kontekstda ham mustahkamlaydi. Ushbu tizim fuqarolar farovonligini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu tariqa, moliyaviy tizim mamlakatning raqobatbardosh va barqaror iqtisodiy rivojlanishi uchun mustahkam poydevor sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiya O‘zbekistonni ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan, adolatli, ochiq va zamonaviy davlat sifatida mustahkamladi. Ayniqsa, soliq tizimidagi chuqur islohotlar iqtisodiy faollikni sezilarli darajada oshirib, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga va aholining farovonligini yaxshilashga muhim turtki bo‘lmoqda. Shuningdek, yangi huquqiy asoslar va davlat siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlar kelgusi yillarda iqtisodiy o‘sishning barqaror davom etishini ta’minlaydi, ichki investitsiya muhitini mustahkamlaydi va milliy ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantiradi. Bularning barchasi O‘zbekistonning global iqtisodiy makonda raqobatbardoshligini oshirish, barqaror rivojlanish va xalq farovonligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

KONSTITUTSIYA – FAROVON HAYOTIMIZ VA TARAQQIYOTNING ASOSIY POYDEVORI

Xamidov G‘aybulla Saypillayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Zirhli va avtomobil texnikalari kafedrasi professori,
texnika fanlari nomzodi, professor
Gulyamov Normahamat Shermuhamatovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Zirhli va avtomobil texnikalari kafedrasi dotsenti, texnika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (Phd)

Mamlakatimizda bayrog‘imiz bitta, gerbimiz bitta, madhiyamiz bitta, shu qatori Konstitutsiyamiz ham bitta. Bularning har biri o‘z timsolida ona Vatanimiz, xalqimizning ezgu-maqsadlarini o‘zida aks ettiradi. Shu ma’noda Konstitutsiyamiz har bir fuqaro uchun bayrog‘imiz, gerbimiz, madhiyamiz kabi muqaddasdir.

Tarixga nazar tashlasak, 1992-yildan buyon Konstititutsiyamizga jami 15 marta o‘zgartish kiritilganligini ko‘rish mumkin. Bu safar esa o‘zgarishlar ko‘lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Ta’kidlanishicha, mamlakatimiz Konstitutsiyasi 65 foizga yangilangan.

Har yili 8-dekabrda “Konstitutsiya qabul qilingan kun”ni yuqori kayfiyat va o`zgacha shukuhda nishonlashimiz ham Bosh qomusimizga bo‘lgan hurmat va e’tibor namunasidir. Shuni alohida ta`kidlash lozimki, Bosh Qomusimiz jahondagi mukammal konstitutsiyalardan biri ekanligini butun dunyo tan oladi. Har jihatdan ixcham va keng qamrovliligi hamda xalqchilligi bilan alohida ajralib turadigan Konsitutsiyamiz, o`z ichiga 70 ta mavzuni qamrab oladi. 2023-yil 30-apreldagi referendumda umumxalqning ovoz berishi orqali qabul qilingan Konstitutsiyada, xalq hokimiyatchiligi, Inson va Fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari hamda burchlariga alohida to`xtalib o`tilgan. Bosh qomusimizning “Biz, O`zbekistonning yagona xalqi” deb boshlanishi shu yurtda yashayotgan insonlarni xursand qilishi shubhasiz.

Konstitutsiya - ertangi hayotimiz kafolati, yashashimiz asosi. Xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e’lon qilgan kundan boshlab dunyo sahnida yangi, suveren davlat qaror topgan bo‘lsa, birinchi Konstitutsiya qabul qilinishi barobarida mustaqillikning huquqiy tamal toshi o‘rnatilgan. O‘zbekiston Konstitutsiyasi yaratilish jarayonida qaysidir davlatdan ko‘r-ko‘rona ko‘chirib olinmaganligini ham inobatga olish kerak. Bosh qomusimiz eng taraqqiy etgan davlatlarning tarixiy tajribasiga tayangan holda yaratilgan. Unga ko‘ra, O‘zbekiston –

Prezidentlik boshqaruv shaklidagi suveren demokratik respublika. Konstitutsiyada davlatni, jamiyatni rivojlantirishning demokratik omillari belgilab berilgan. Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai deb ko‘rsatilgan. Xalqmizning siyosiy va huquqqiy tafakkurining oliy namunasi sifatida yuksak qadrlanadi. U hech kimga qaram bo‘lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo‘lib kelmoqda.

Jumladan, Bosh Qomusimizning 15-moddasida, ”O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar.” deb yozilgan. 15-moddada belgilangan ushbu qoidaning hayotiy ifodasini yurtimizda yashayotgan har bir fuqaro o‘z turmush tarzi, ish faoliyatida ko‘rib, guvohi bo‘lmoqda.

Oilaviy hayotda bo‘ladimi, jamiyatdagi munosabatlardami, o‘qish va ish faoliyatidami – barchasi Konstitutsiya va u asosida yaratilgan qonunlar bilan tartibga solinadi. Bolalikdan har bir inson ongiga singdiriladigan qoidalardagi “mumkin” yoki “mumkin emas” degan so‘zlar ham shu qonunlardan kelib chiqadi. Aynan shu qoidalarni o‘zlashtirish bilan shaxsda huquqiy madaniyat shakllanadi, qonunchilik haqida tushuncha paydo bo‘ladi.

Qonun ustuvorligi haqida to`xtaladigan bo`lsak, jamiyatda demokratiya va qonunchilik ta’minlanishiga xizmat qiluvchi tamoyildir. Demokratik jamiyatning eng muhim belgilaridan biri – jamiyat a’zolarining Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta’minlanganligidir. Shu bilan birga Konstitutsiya va qonunlarning pirovard maqsadi inson, uning huquq va erkinliklarini ta’minlashdan iborat bo‘lmog‘i lozim. Shuni ham aytib o‘tish lozimki, Konstitutsiyaning normasi boshqa qonunlarning normalariga nisbatan ustunlik xarakteriga ega. Chunki Konstitutsiya barcha qonunlar uchun poydevordir. Shuning uchun ham 16-moddada “O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinadi. Birorta qonun yoki boshqa normativ- huquqiy hujjat Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo‘lishi mumkin emas”. Agarda birorta normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaga zid keladigan bo‘lsa, u bekor qilinishi lozim deyilgan. Eng asosiysi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning: birinchidan, mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga egaligi; ikkinchidan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi; uchinchidan, yagona huquqiy makonning asosini tashkil etishiga taalluqli konstitutsiyaviy normalar mustahkamlab qo‘yildi. Eski tahrirdagi matnda Konstitutsiya normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashga doir ushbu mexanizmlar mavjud emasdi.

Ma’lumki, mamlakatimiz aholisining deyarli yarmini 18 yoshdan 30 yoshgacha bo`lgan yoshlar tashkil qiladi. Shu maqsadda yoshlarimizni qo`llab-quvvatlash, ularga erkinlik va shart-sharoitini yaratish davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan. O`tgan davr ichida yoshlarni qo`llab-quvvatlashga oid bir nechta qonun, o`nlab farmon va qarorlar qabul qilindi. Yoshlarni qo`llab-quvvatlash tizimini tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish maqsadida 2021-yil mamlakatimizda "Yoshlarni qo`llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb e`lon qilingan edi.

Darhaqiqat, yangi tahrirdagi Konstitutsiya «Yoshlar Konstitutsiyasi» deya e’tirof etilmoqda. Bu bejizga emas. Jumladan, Konstitutsiyamizning 14-bobining “Oila, bolalar va yoshlar” deb nomlangani mamlakatimizda oilaga, yoshlarga bo‘lgan e’tiborning yuksak namunasi bo‘ldi desak adashmaymiz. Bunday yangicha yondashuv, shubhasiz,O`zbekistonda yoshlar siyosati ustuvor ekanligidan yaqqol dalolatdir. Yangi tahrirdagi tomonidan yoshlar huquqlari himoyalanishi va ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtiroki rag‘batlantirilishi kafolatlab qo‘yildi. Xususan, 79-moddaning birinchi bandida: “Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi” den qayd etilgan. Bosh qomusimizda, shuningdek, davlat yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqning boy madaniy merosidan faxrlanish, vatanparvarlik tuyg‘ulari shakllanishiga g‘amxo‘rlik qilishi belgilandi. Bu haqda Konstitutsiyaning 78-moddasi to‘rtinchi bandida shunday deyilgan: “Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi”.

Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlat yoshlarga g‘amxo‘rlik masalaasida o‘z zimmasiga juda katta va muhim majburiyatlarni olgani quvonarli. Eng asosiysi, mazkur konstitutsiyaviy normalar nafaqat O‘zbekiston yoshlari manfaati, balki butun jamiyatimiz va mamlakatimizning kelgusi taqdiri uchun nihoyatda ahamiyatli.

Xulosa o‘rnida aytganda, yangi Konstitutsiya mamlakatimizning yangi rivojlanish davrini boshlab beryapti. Bu esa inson manfaatlarini ta’minlashga, dunyodagi rivojlangan davlatlar qatoriga kirish, xalqimizning hayot sifati va darajasini oshirish, Vatanimizning jahon miqyosidagi obro‘-e’tiborini yuksaltirish yo‘lidagi ishlarimizni izchil davom ettirishi shubhasiz.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: 2023 y.
2. https://constitution.uz/uz/pages/Konstitutsiya_mustahkam_kafolat.

3. 2023-yil 8-may “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

КОНСТИТУЦИЯ – ГАРАНТ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ЛИЦ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

Алимова Гузал Алишеровна,
д.э.н., доцент, профессор кафедры
«Экономических дисциплин»

Аннотация. В статье анализируются конституционно-правовые основы социальной защиты лиц с ограниченными возможностями в Республике Узбекистан. Рассмотрены основные гарантии, предусмотренные Конституцией, а также практика реализации международных обязательств в этой сфере. Особое внимание уделено социально-экономическим аспектам, проблемам занятости и инклюзии.

Ключевые слова: Конституция, социальная защита, инвалиды, инклюзия, права человека, занятость, доступная среда.

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida imkoniyati cheklangan shaxslarni ijtimoiy himoya qilishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Konstitutsiyada belgilangan kafolatlar, xalqaro tajriba va ularning amalga oshirilish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, bandlik, ta’lim va ijtimoiy inklyuziya masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, ijtimoiy himoya, nogironlar, inklyuziya, inson huquqlari, bandlik, imkoniyati cheklangan shaxslar.

Abstract. The article analyzes the constitutional and legal foundations of social protection for persons with disabilities in the Republic of Uzbekistan. It discusses constitutional guarantees, mechanisms of implementation, and international experience. Particular attention is paid to socio-economic challenges, employment issues, and inclusive development.

Keywords: Constitution, social protection, persons with disabilities, inclusion, human rights, employment, accessibility.

Современный этап развития Республики Узбекистан характеризуется глубокими социально-экономическими и институциональными реформами, направленными на реализацию конституционного принципа «Инсон қадри — энг олий қадрият» («Ценность человека — высшая ценность»), закреплённого в новой редакции Конституции (2023 г.) [1]. В контексте построения социального государства важнейшее место занимает обеспечение социальной защиты уязвимых категорий населения, прежде всего лиц с ограниченными

возможностями. Эти меры отражают стремление государства к формированию инклюзивного общества, где каждый гражданин имеет равные возможности для участия в общественной, трудовой и культурной жизни.

Конституция Республики Узбекистан закрепляет человека, его права и свободы как высшую ценность общества и государства. В статье 57 Основного закона прямо установлено, что государство обязано создавать условия для интеграции лиц с инвалидностью в общественную жизнь, обеспечивать доступ к образованию, здравоохранению, труду и социальной защите [2]. Тем самым Конституция выполняет роль гаранта недискриминации и равенства возможностей, что соответствует международным правовым стандартам в области прав человека.

По данным Агентства по делам инвалидов Республики Узбекистан, на начало 2024 года в стране проживает более 760 тысяч лиц с инвалидностью, из которых около 170 тысяч - дети и молодёжь. Лишь 35–37 % лиц трудоспособного возраста имеют постоянную занятость, а доступность городской инфраструктуры для инвалидов не превышает 30 % от установленных национальных стандартов [3]. Эти показатели демонстрируют наличие системных вызовов в реализации конституционных гарантий и необходимость совершенствования нормативно-правовых и организационных механизмов социальной интеграции.

Международный опыт подтверждает, что развитие инклюзивной политики является ключевым элементом устойчивого развития. Присоединение Узбекистана к Конвенции ООН о правах инвалидов (2009 г.) [4] создало основу для адаптации национального законодательства к глобальным стандартам, включая обеспечение доступной среды, равных прав на труд и образование, а также развитие специализированных служб реабилитации. В соответствии с этим в стране реализуются стратегические документы - Стратегия развития “Янги Ўзбекистон — 2022–2026” и Государственная программа “Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили” (2024), направленные на расширение инклюзивных возможностей и повышение уровня социальной защищённости [5].

Таким образом, обеспечение прав лиц с ограниченными возможностями представляет собой не только гуманистическую, но и конституционно-правовую задачу национального масштаба, тесно связанную с международными обязательствами Узбекистана по достижению Целей устойчивого развития ООН (ЦУР-10 «Сокращение неравенства» и ЦУР-11 «Устойчивые города и сообщества») [6]. Анализ роли Конституции как гаранта социальной защиты инвалидов позволяет определить уровень реализации принципов справедливости и равенства в современном узбекском обществе и выявить направления их совершенствования.

Анализ конституционно-правовых гарантий показывает, что современная модель социальной политики Узбекистана основывается на признании социальной защищённости инвалидов как элемента конституционного строя государства. Конституция 2023 года впервые ввела положения, прямо закрепляющие права лиц с инвалидностью на равные возможности, что соответствует принципам статей 1 и 2 Конвенции ООН о правах инвалидов [1]. Однако реализация этих норм требует эффективного механизма правоприменения, согласования законодательства и институциональной поддержки.

В соответствии со статьёй 57 Конституции, государство обязано создавать условия для социальной адаптации, трудоустройства и реабилитации лиц с инвалидностью [2]. Реализация данного положения обеспечивается через ряд нормативных актов, в том числе Законом «О правах лиц с инвалидностью» (2020), постановлениями Кабинета Министров №728 (2022) «О программе развития инклюзивной инфраструктуры» и национальными стратегиями социальной защиты [3].

Тем не менее, фактическая занятость лиц с инвалидностью в 2024 году составляла лишь 36,2 %, что значительно ниже среднего уровня занятости по стране (63,5 %) [4]. Основные барьеры связаны с ограниченным доступом к профессиональному обучению, низким уровнем адаптации рабочих мест и отсутствием стимулов для работодателей.

В 2023 году на государственную поддержку инвалидов из бюджета Узбекистана направлено более 2,1 трлн сумов, что составляет около 0,4 % ВВП [5]. Из них 58 % направлены на пенсии и социальные выплаты, а лишь 17 % - на программы профессиональной реабилитации и занятости. Для сравнения, в странах ЕС этот показатель достигает 0,8–1,2 % ВВП, что демонстрирует необходимость диверсификации источников финансирования социальной поддержки в Узбекистане.

В целях повышения эффективности социальных расходов важно развивать механизмы государственно-частного партнёрства (ГЧП) и социального предпринимательства, ориентированные на трудовую интеграцию инвалидов. Например, в Германии с 2019 года действует модель Inklusionsbetriebe, предусматривающая налоговые льготы и компенсации для компаний, нанимающих не менее 30 % работников с инвалидностью [6]. Аналогичный подход может быть адаптирован в Узбекистане с учётом национальных условий.

Одним из центральных направлений социальной интеграции является формирование безбарьерной среды. По данным Министерства строительства и ЖКХ, на 2024 год лишь 27 % общественных зданий и 34 % транспортных узлов

в стране соответствуют стандартам физической доступности [7]. В этой связи важным шагом стало принятие национальных строительных норм (НҚС 2.08.02–23), включающих обязательные требования по адаптации объектов образования, транспорта и здравоохранения для лиц с ограниченными возможностями. Однако фактическое исполнение этих требований остаётся недостаточным из-за слабого контроля и дефицита кадров архитектурно-инженерного профиля, специализирующихся на инклюзивном проектировании. В цифровой сфере также наблюдается разрыв: менее 25 % государственных веб-порталов и сервисов адаптированы для пользователей с нарушениями зрения или слуха [8]. Это противоречит принципу цифровой инклюзии, закреплённому в национальной концепции “Digital Uzbekistan – 2030”.Образование рассматривается как ключевой инструмент реализации конституционного принципа равных возможностей. На сегодняшний день в Узбекистане функционируют 86 инклюзивных школ и 26 специализированных коррекционных учреждений, в которых обучается более 13 тысяч детей с ограниченными возможностями здоровья [9].

Однако доля таких учащихся, переходящих на уровень среднего специального и высшего образования, не превышает 18 %, что указывает на необходимость развития программ адаптированного дистанционного обучения, а также психологической и тьюторской поддержки. Международный опыт, прежде всего Финляндии и Южной Кореи, показывает, что внедрение индивидуальных образовательных маршрутов и гибких систем сертификации способствует повышению вовлечённости инвалидов в образование на 25–30 %.

Конституционные гарантии могут эффективно работать лишь при условии формирования высокой правовой и социальной культуры общества. Согласно опросам Центра социологических исследований при Институте макроэкономических и региональных исследований (ИМРИ), проведённым в 2024 году, 43 % респондентов всё ещё считают инвалидность «личным делом семьи», а не предметом социальной ответственности государства [10]. Это свидетельствует о необходимости системной просветительской работы, развития программ инклюзивного волонтёрства и участия гражданского общества в реализации принципов Конституции.

Выводы аналитического блока

Проведённый анализ показывает, что Конституция Республики Узбекистан действительно выступает фундаментальной гарантией социальной защиты лиц с ограниченными возможностями, однако реализация закреплённых прав требует укрепления институциональной базы, финансовой устойчивости и общественного контроля.

Особое внимание должно уделяться:

совершенствованию механизмов трудовой интеграции и социального предпринимательства;

созданию безбарьерной физической и цифровой среды;

развитию инклюзивного образования и адаптационных программ;

активизации участия ННО и частного сектора в реализации социальных гарантий

References:

1. United Nations. Convention on the Rights of Persons with Disabilities. New York, 2009.
2. Конституция Республики Узбекистан (новая редакция). Ташкент, 2023.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 8 сентябрдаги 728-сон қарори. — lex.uz.
4. Агентство по делам инвалидов Республики Узбекистан. Социальный отчёт 2024. Ташкент, 2024.
5. Министерство финансов Республики Узбекистан. Бюджетный отчёт за 2023 год. Ташкент, 2024.
6. Federal Ministry of Labour and Social Affairs (BMAS). Inclusion Enterprises Report. Berlin, 2023.
7. Ministry of Construction and Housing. Accessibility Monitoring Report. Tashkent, 2024.
8. Ministry for Digital Technologies. Digital Accessibility Audit of Public Services. Tashkent, 2024.
9. Ministry of Preschool and School Education. Inclusive Education Annual Report. Tashkent, 2024.
10. Institute for Macroeconomic and Regional Research (IMRI). Social Perceptions of Disability Survey 2024. Tashkent, 2024.

XORIJIY DAVLATLAR JINOYAT QONUNCHILIGIDA ODAM O‘G‘IRLASH UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI VA O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Ortiqov Abror Nemat o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti Axborot-resurs markazi boshlig‘i,
mustaqil izlanuvchi

Mamlakatimizda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash, inson huquq va erkinliklariga rioya etilishini kafolatlash, Yangi O‘zbekistonni ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltirish, suveren, demokratik, huquqiy va dunyoviy davlat qurish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Zero, Asosiy qomusimizda belgilanganidek, O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadryat hisoblanadi [1]. Inson ozodligi va erki deyarli barcha mamlakatlarda jinoyat huquqiy muxofaza ostiga olingan. Bu avvalambor, mazkur jinoiy qilmishning uzoq rivojlanish tarixiga egaligi, shuningdek ijtimoiy xavflilik darajasi yuqoriligi bilan izohlanadi.

Xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida odatda inson ozodaligiga tajovvuzlar uchun javobgarlik nazrada tutiladi. Bunda unga o‘g‘irlash jinoyati uchun javobgarlik alohida yoki zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish doirasida, ba’zan esa shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish bilan jinoyatlar majmuiga aylanadi. Ushbu qilmish uchun javobgarlik MDH mamlakatlaridan Ozarbayjon [2], Qozog‘iston [3], Latviya [4], Tojikiston [5], kabi respublikalar jinoyat qonunlarida nazarda tutilgan. Shunga o‘xshash yondashuvga Ispanya jinoyat qonunchiligida [6], ham duch kelishi mumkin.

Ukraina JKning zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish va odam o‘g‘irlash uchun javobgarlik nazarda tutilgan 146-moddasida “yoki” ajratuvchi bog‘lovchisi ishlatilgan [7].

Gruziya JK (143-modda) [8], Polsha JK (189-modda) [9], Kuba JK [10] va ayrim boshqa davlatlarning jinoyat kodekslariga muvofiq faqat zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish uchun javobgarlik nazarda tutilgan, odam o‘g‘irlash uchun alohida javobgarlik esa chetda qoldirilgan,. insonni o‘zga yashaydigan mikromuhitidan zo‘rlik ishlatib ajratgan, uni boshqa joyga ko‘chirgan, g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish va tutqunlikda saqlagan shaxsning harakatlari yuqorida zid etilgan moddalarga muvofiq kvalifikatsiya qilinadi. Daniya JKda 261-paragrafga muvofiq o‘zga shaxsni zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilgan har qanday shaxs to‘rt

yilgacha turma qamog‘iga yoki javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lsa – oddiy qamoq jazosiga hukm qilinishi mumkin [11].

Odam o‘g‘irlash alomatlariga ega bo‘lgan jinoyat sifatidagi shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish tarkiblari odatda yo odam o‘g‘irlash uchun ham javobgarlik nazarda tutilgan boblar va bo‘limlarda, yo jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan boblar va bo‘limlarda ifodalanadi. Masalan, Gruziya va Ukraina jinoyat kodekslarida shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatning tarkibi jamoat xavfsizligiga qarshi jjinoyat uchun javobgarlik nazarda tutilgan boblar va bo‘limlarda ifodalaniladi. Masalan, Gruziya va Ukraina Jinoyat kodekslarida shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatining tarkibi jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar jamlangan boblarda emas balki insonning huquq va erkinliklarga qarshi jinoyatlar jamlangan boblarda, Latviya Respublikasi JKda shaxsning ozodligi, sha’ni va qadr-qimmatiga qarish jinoyatlarga bag‘ishlangan XV bobda joylashtirilgan Shvetsaryaning jinoyat qonuni ham shunday tuzulishga ega: unda shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish uchun javobgarlik nazarda tutilgan 185-modda erkinlikka qarshi jinoyatlar haqidagi bobdan o‘rin olgan. Xuddi shu gapni Fransiya JK (224-4-modda) haqida ham aytish mumkin.

Ayrim davlatlarda odam o‘g‘irlash va zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish uchun javobgarlik jinoyat qonunining bitta moddasida birlashtirilgan (masalan, Ukraina [12], Shvetsariya [13].)

Xususan, Shvetsariya JK 183-moddasiga muvofiq zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish va odam o‘g‘irlash uchun javobgarlik “shaxsni g‘ayriqonuniy ravishda tutqunlikka olgan yoki uni tutqunlikdan saqlagan yoki uni o‘zgacha tarzda ozodlikdan mahrum qilgan, shaxsni zo‘rlik ishlatish, hiyla-nayrang yoki qo‘rqitish yo‘li bilan o‘g‘irlagan” odam uchun belgilanadi. Mazkur jinoyatni sodir etganlik uchun besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki turma qamog‘i tariqasida jazo nazarda tutilgan. Ayni shu jinoyatni o‘z harakatlarining xususiyati va oqibatlariga baho berishga, qarshilik ko‘rsatishga qodir bo‘lmagan yoki uni olti yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan sodir etganlik mazkur modda bo‘yicha javobgarlikni og‘irlashtirilgan holatlari hisoblanadi.

Shvetsariya Jinoy kodeksi 184-moddasiga ko‘ra tutqunlikda saqlanayotgan odamni ozod qilish uchun tovon to‘lashni talab qilish, jabrlanuvchiga nisbatan shavqatsiz muomalada bo‘lish, g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish o‘n kundan ortiq davom etishi, shuningdek jabrlanuvchi qilmishini og‘irlashtiruvchi alohida holatlar sifatida belgilangan.

Ozarbayjon, Qozog‘iston, Rossiya [14], Tojikiston va ayrim boshqa davlatlarning jinoyat kodekslarida shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatining tarkiblari O‘zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligidagi kabi

shaxsning ozodligi, sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar haqidagi boblarda joylashtirilgan.

Ayrim boshqa davlatlarning jinoyat kodekslarida O‘zbekiston Respublikasining jinoyat qonunidan farqli o‘laroq odam o‘g‘irlash tushunchasiga ta’rif berilgan. Masalan, Belarus Respublikasi JKning 182-moddasiga muvofiq odam o‘g‘irlash deganda, ushbu kodeksning 291-moddasida nazarda tutilgan jinoyat (shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish) alomatlari bo‘lamagan holda shaxsni yashirincha, ochiqdan-ochiq, aldash yoki zo‘rlash ishlatish yo‘li bilan g‘ayriqonuniy ravishda qo‘lga olish tushuniladi. Shunday qilib, Belarus jinoyat huquqida odam o‘g‘irlash uchun javobgarlik nazarda tutilgan jinoyat – huquqiy normaning dispozisiyasi tavsiflovchi – xavolaki xususiyatga ega: unda qilmishning mazmuni qisman yuritilgan va ayni shu JKning boshqa jinoyat - huquqiy normasiga xavola mavjud.

Latviya JKning 153-moddasiga muvofiq odam o‘g‘irlash deganda o‘ch olish, g‘arazgo‘ylik yoki tovlamachilik maqsadida zo‘rlik ishlatish, qo‘rqitish yoki aldash yo‘li bilan shaxsni tutqunlikka olish tushuniladi [15]. Shunday qilib, odam o‘g‘irlash jinoyatini tavsiflash uchun Belarus jinoyat qonunida “qo‘lga olish, Latviya JK da esa – tutqunlikka olish” atamasi qo‘lanilgan.

Yuqorida zikr etilgan davlatlarning jinoyat qonunlarida g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish tushunchasiga berilgan tariflash ham mavjud. Masalan, Belarus Respublikasining jinoyat qonuniga muvofiq, insonni biror - bir xonaga kiritib qo‘yish, oyoq-qo‘llarini bog‘lab qo‘yish yoki zo‘rlik ishlatish orqali o‘zgacha tarzda ushlab turish yo‘li bilan uning shaxsiy erkinligini cheklash mansabdorlik jinoyatining yoki boshqa og‘ir jinoyatining alomatlari bo‘lmagan holda g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish hisoblanadi (183-moddaning birinchi qismi). Latviya Respublikasining jinoyat kodeksida muvofiq g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish davlat mansabdor shaxslarining joriy qilimishi alomatlari bo‘lmagan holda shaxsni o‘zining bo‘lib turish joyini belgilash imkoniyatidan mahrum qiluvchi qonunga xilof qilmishdir (152-moddaning birinchi qismi).

Ayrim davlatlar, eng avvalo Markaziy Osiyo davlatlari (Qozog‘iston, Qirg‘izsiton, Tojikiston va boshqalar) jinoyat qonunchiligining shaxsga qarshi jinoyatlar haqidagi boblarida odamni olish-sotish yoxud odamni undan foydalanish maqsadida yollash uchun ham nazarda tutilgan. Jumladan, Tojikiston Respublikasi JKning shaxs erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlarga bag‘ishlangan bobida g‘ayriqonuniy ravishda mahrum qilish va odam o‘g‘irlashga doir normalar bilan bir qatorda odamni unda shaxvoniy boshqa maqsadlarda foydalanish uchun yollash haqidagi norma (132-modda) ham o‘rin olgan [16]. Odamni undan shaxvoniy va boshqa maqsadlarda aldash yo‘li bilan yollash uchun javobgarlik Belarus jinoyat qonunida ham belgilangan (187-modda) [17].

Ayrim davlatlarning qonun chiqaruvchilari erkinlikka qarshi jinoyatlar haqidagi boblardan o‘rin olgan odam o‘g‘irlash jinoyatining tarkiblari bilan bir qatorda insonyatga qarshi jinoyatlar haqida boblarda ham erkinlikka qarshi jinoyatlarning ayrim tarkiblari uchun javobgarlikni nazarda tutganlar.

Masalan, Fransiya JKga odam o‘g‘irlashning yana bir turi kiritilgan: “Insoniyatga qarshi jinoyatlar haqida” deb nomlagan 2 - bobda siyosiy, falsafiy, irqiy yoki diniy motivlarga ko‘ra sodir etilgan odam o‘g‘irlash uchun agar mazkur qilmish o‘g‘irlangan odamning yo‘qolishiga, unga nisbatan qiynoqlar qo‘llanilishiga olib kelgan bo‘lsa, majburiy mehnat bilan umurbod turma qamog‘ini nazarda tutuvchi norma (212-1-modda) belgilangan.

Aksaryat hollarda odam o‘g‘irlash uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan jinoiy tarkiblari jinoyat qonunlarining shaxsga qarshi jinoyatlar haqida bo‘limlari va boblarida joylashtirislgan. Masalan, Qozog‘iston Respublikasining qonun chiqaruvchisi mazkur jinoyat tarkibini shaxsga qarshi jinoyatlar haqida bobga odam o‘ldirish, g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish, nomusga tegish, tuxmat qilish va shu kabilar qatorida joylashtirgan [18].

Belarusiya Respublikasi JKda odam o‘g‘irlash jinoyatining tarkibi shaxsiy erkinlik, shaxsning sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlarga bag‘ishlangan 22-bobda, odam o‘ldirish, nomusga tegish va shu kabilardan alohida joylashtirilgan [19]. Ozarbayjon, Tojikiston, Ukraina jinoyat qonunlari ham shunga o‘xshash tarkibiy birlikka ega [20].

Bolgarya jinoyat qonuniga muvofiq sog‘lom odamni ruhiy kasallar uchun mo‘ljallangan shifoxonaga g‘ayriqonuniy ravishda joylashtirish 172^{a}-moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan, ya’ni g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilishning javobgarlikni og‘irlashtiruvchi belgisi sifatida qaralishi mumkin.

Daniya Jinoyat kodeksining “Shaxsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar” deb nomlangan 26-bobda joylashtirilgan 261-paragrafiga muvofiq, o‘zga shaxsni ozodlikdan mahrum qilgan (birinchi qism), shuningdek daromat olish maqsadida yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilgan (ikkinchi qism) har qanday shaxs o‘n ikki yildan kam va o‘n olti yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga turma qamog‘iga hukm qilinadi. Bunda ruhiy kasal yoki aqli noraso shaxsni g‘ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish, shaxsni zo‘rlik ishlatib xorijiy mamlakatning harbiy xizmatiga yollash, asir olish yoki boshqa har qanday tarzda qaram qilish mazkur jinoyatning jazoni og‘irlashtiruvchi belgilari hisoblanadi [21].

Amerika Qo‘shma Shtatlarining federal jinoyat qonunchiligiga muvofiq odam o‘g‘irlash va shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish uchun jinoiy javobgarlik ajratilmagan. AQSH Qonunlar to‘plami (18-titul)ning 1201-paragrafiga muvofiq tovon puli yoki haq olish maqsadida biron-bir shaxsni g‘ayriqonuniy ravishda tutqunlikka olgan, ozodlikdan mahrum qilgan, o‘g‘irlagan zo‘rlik ishlatish yoki

aldash yo‘li bilan olib ketgan har qanday odam har qanday muddatga yoki umrbod turma qamog‘iga hukm qilinadi, ko‘rsatilgan harakatlar ota-ona tomonidan bajarilgan va mazkur shaxs bir shtatdan boshqa shtatga yoki chet elga olib ketilgan hollar bundan mustasno [22]. Bunda odam o‘g‘irlash haqidagi norma AQSH jinoyat qonunida 1932-yilda, mashhur shaxs Lindbergning o‘g‘li o‘g‘irlanganidan keyin paydo bo‘lgan (bu norma xanuzgacha **“Lindberg qonuni”** deb ataladi). Qonunni qabul qilishdan faqat bir maqsad – aviatorning o‘g‘li tirik qaytarish ko‘zlangan, chunki faqat shu holdagina o‘g‘rilarga o‘lim jazosi tahdid solmagan [23].

Demokratik prinsiplarning ilg‘or tashabbuskori sifatida qaraladigan AQSH Qonunlar to‘plamining 1202-paragrafida yuqorida zikr etilgan (1201-paragrafda nazarda tutilgan) jinoyatni sodir etish munosabati bilan tovon puli yoki haq sifatida topshirilgan pul mablag‘lari mol-mulk yoki uni biron-bir qismini bila turib olgan shaxsga o‘n ming dollargacha jarima yoki o‘n yilgacha turma qamog‘i yoki ikkala turdagi jazo nazarda tutilgan. Ayni shu qonunlar to‘plamning 1751-paragrafiga muvofiq AQSH Prezidenti yoki uning devoni a’zosini o‘ldirish, o‘g‘irlash yoki unga hujum qilish uchun alohida jinoiy javobgarlik belgilaydi [24].

Amerika Qo‘shma shtatlari jinoyat huquqining o‘ziga xos xususiyati shu bilan belgilanadiki, mazkur davlatda bir necha o‘nta huquqiy tizim muvoziy tarzda amal qiladi. Ba’zan bu huquqiy tizimlar bir-biridan sezilarli darajada ajralib turadi [25].

Odam o‘g‘irlash turlari va mazkur jinoyatni sodir etganlik uchun jazo AQSH federal jinoyat qonunchiligi va ayrim shtatlarini qonun hujjatlariga muvofiq bir xil emas. Aynan shtatlarda odam o‘g‘irlash uchun hatto o‘lim jazosi ham nazarda tutilgan (bunda jazo faqat odam o‘g‘irlash jabrlanuvchining o‘limiga olib kelgan hollardagina tayinlanishi mumkin). Mazkur jazo o‘g‘irlanganlarni tirk qaytarish va o‘g‘rilarni ularning hayoti haqida o‘ylashga majbur etish uchun nazarda tutilgan bo‘lsa kerak. Uzoq vaqt davomida AQSh sudlari odamni (odatda bolani) o‘g‘irlashni yanada qattiqroq jazoga loyiq bo‘lgan noqonuniy qamoq turi sifatida ko‘rib chiqdi. O‘g‘irlangan shaxsni boshqa davlatga yoki bir shtatdan boshqasiga olib o‘tish og‘irlashtiruvchi holat deb topildi. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, AQShda yuzdan ortiq shunga o‘xshash jinoyatlar jinoiy faoliyatning o‘ziga xos turi sifatida tan olingunga qadar (odatda to‘lov olish maqsadida) sodir etilgan [26].

AQSH namunaviy jinoyat kodeksning “Odam o‘g‘irlash va bunda turdosh jinoyatlar” deb nomlangan 212-bo‘limiga “ularni o‘g‘irlash” deb nomlangan 212.1-modda kiritilgan bo‘lib [26], unda quydagi maqsadlardan birini ko‘zlab o‘zga shaxsni uning yashash yeri ish joyidan boshqa joyga g‘ayriqonuniy ravishda ko‘chirilgan yoxud shaxsning bir joydan alohida ajratilgan boshqa joyga uzoq muddatga g‘ayriqonuniy ravishda ko‘chirgan shaxs odam o‘g‘irlashda aybdor bo‘lishi aytilgan: a) o‘zga shaxsni tovon puli yoki haq to‘lashni talab qilish uchun yoki garov sifatida tutqunlikka olish; b) biron-bir og‘ir jinoyat sodir etishni yoki uni sodir etgangandan

so‘ng qochib yashirinishni yengillashtirish; yoki jabrlanuvchining yoxud o‘zga shaxsning badaniga shikast yetkazish yoki ularda qo‘rquv uyg‘otish; yoki biron-bir davlat funksiyasi yoki siyosiy funksiyani bajarishga to‘sqinlik qilish.

Shaxs erkinligiga qarshi kurashda qonunchilik normalarga ham bir qancha o‘zgartirishlar kiritish lozim: Odam o‘g‘irlash jinoyatlari bilan o‘z maqsadlariga erisha olmagan jinoyatchilar jabrlanuvchini odam savdosi qurboniga aylantirishlari mumkinligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 135-moddasida sanksiyasini og‘irlashtirish va ushbu moddaning **ikkinchi qismiga “takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan yoxud ilgari ushbu kodeksning 136-137-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan sodir etilsa”** sifatida yangi norma kiritilishi hamda besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi, Jinoyat kodeksi 135-modda **uchinchi qismiga “Tijorat uchun jinsiy ekspluatatsiya va fohishalikka majburlash”** sifatida yangi norma kiritilishi, o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

Odam o‘g‘irlash tushunchasining quyidagi yuridik ta’rifi taklif qilinadi: **“Odam o‘g‘irlash deganda, shaxsning garov sifatida tutqunlikka olish alomatlari bo‘lmagan holda insonni uning xohish-irodasiga zid ravishda zo‘rlik ishlatish, zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish yoki aldash yo‘li bilan bir joydan boshqa joyga ko‘chirish va kelgusida tutqunlikda ushlab turish maqsadida g‘ayriqonuniy qo‘lga olishni tushuniladi”.** Bu ta’rif ilgari boshqa tadqiqotchilar taklif qilgan barcha ta’riflardan farq qiladi va o‘zining barcha ko‘rsatkichlariga ko‘ra qonunni qo‘llovchi uchun lozim darajada aniqlik bilan tavsiflanadi.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 13-moddasi. Toshkent:O‘zbekiston nashryoti. 2023.-B.6.Уголовный кодекс Азербайджанской Республики. - СПб.,
2. Уголовный кодекс Азербайджанской Республики. - СПб., утвержден Законом Азербайджанской Республики от 30 декабря 1999 года № 787-IQ, с изменениями и дополнениями по состоянию на 27.12.2024 https://continent-online.com/Document/?doc_id=30420353#pos=6;-144
3. https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575252. Уголовный кодекс Республики Казахстан. - СПб., 2024.
4. Уголовный кодекс Латвийской Республики. - СПб., 2019. https://lawyer-khroulev.com/wp-content/uploads/2019/09/ugolovnij-zakon-latvii.pdf.
5. https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397325. Уголовный кодекс Республики Таджикистан. - Душанбе: Ирфон, 2024.

6. Уголовный кодекс Испании / Под ред. Н.Ф.Кузнецовой, Ф.М.Решетникова. - М., 1998. - С. 57.

7. Резепкин О.Ю. Уголовная ответственность за посягательства на физическую свободу человека за рубежом // Закон и право. - Москва, 2003. - №1. - С. 17.

8. https://www.refworld.org/ru/legal/legislation/natlegbod/1999/ru/103652. Уголовный кодекс Грузии. - СПб., 2024.

9. https://constitutions.ru/?p=29233. Уголовный кодекс Польши. - СПб., 2023.

10. https://roscuba.ru/news/cuba/2684-novyj-ugolovnyj-kodeks-kuby-ukreplyaet-sotsialisticheskij-pravoporyadok. Уголовный кодекс Кубы. - М., 2022.

11. Уголовный кодекс Дании. - М., 2001. - С. 143. http://lawlibrary.ru/izdanie36902.html

12. Уголовный кодекс Украины. - СПб., 2024. https://kkuua.ru/ru/

13. Уголовный кодекс Швейцарии. - М., 2000. http://lawlibrary.ru/izdanie49984.html

14. http://kodeks.karelia.ru/api/show/9017477. Уголовный кодекс Российской Федерации. - М., 2024.

15. https://www.wipo.int/wipolex/ru/legislation/details/19088 Уголовный кодекс Латвийской Республики. - СПб., 2019.

16. Уголовный кодекс Республики Таджикистан. - СПб., 2024.

17. Уголовное право Республики Беларусь. Особенная часть: Учебное пособие / Н.Ф. Ахраменка, Н.А. Бабий, В.В. Борода и другие.; Под ред. Н.А. Бабия, И.О. Грунтова. - Мн.: Новое знание, 2002.

18. Уголовный кодекс Республики Казахстан. - СПб., 2024.

19. Бабий Н.А. Уголовное право Республики Беларусь. Особенная часть: Конспект лекций. - Минск: Тесей, 2000.

20. Уголовный кодекс Азербайджанской Республики. - СПб., 2017; Уголовный кодекс Республики Таджикистан. - СПб., 2024; Уголовный кодекс Украины. - СПб., 2024.

21. Уголовный кодекс Дании / Пер. С.С.Беляева и А.Рычевой. - М., 2001

22. Mazkur jinoiy qilmish AQSh jinoyat xuquqida **"Kidnapping",** odam o‘g‘irlash deb ataladi (Kidnar - tovon puli talab qilish maqsadida odamlarni, asosan bolalarni o‘g‘irlash) Современный словарь иностранных слов. - М., 2009. - С. 277

23. Мартыненко Н.Э. Похищение человека: уголовно-правовой и криминологический аспекты: Автореф. дисс. …канд. юрид. наук. - М., 1994. - С. 22.

24. Хрестоматия по истории государства и права зарубежных стран. Новое и Новейшее время. - М., 1999. - С. 418-419 .

25. Уголовное право зарубежных стран. Общая часть / Под ред. И.Д.Козочкина. - М., 2003. - С. 108.

26. Андрушко А.В. Криминальноправова протидия викраденню людей у США. Прикарпатський юридич - ний висник. 2017. Випуск 6 (21) том 2. С. 105–109.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY MAMLAKATLAR HAMKORLIGINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Mirzayev G‘ulom Rizoqulovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
kafedra boshlig‘i o‘rinbosari,
tarix fanlari doktori, dotsent, mayor.

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari haqida so‘z yuritiladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Yangilangan Konstitutsiya asosida tashqi siyosati huquqiy asosining shakllanish jarayoni va unda Konstitutsiyaning tutgan o‘rni tahlil etilgan. Konstitutsiya asosida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining ishlab chiqilishi, O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlovchi shartnoma va bitimlarni imzolanishining huquqiy ahamiyati izohlab berilgan. Davlatlararo hamkorlikka ta’sir ko‘rsatuvchi hujjatlarning normativ-huquqiy jihatlari tahlil etilgan va huquqiy asosini mustahkamlashga doir takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi, konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, xorijiy mamlakatlar, Konstitutsiya, tashqi siyosiy faoliyat, konsepsiya, strategik, shartnoma, bitim, normativ-huquqiy, ratifikatsiya, hamkorlik, qonun.

Аннотация. В данной статье рассматриваются конституционно-правовые основы сотрудничества Республики Узбекистан с зарубежными странами. В частности, анализируется процесс формирования правовой базы внешней политики Республики Узбекистан на основе обновленной Конституции и роль Конституции в этом процессе. Разъясняются разработка Стратегии «Узбекистан – 2030» на основе Конституции, правовое значение заключения договоров и соглашений, укрепляющих двусторонние отношения Узбекистана с зарубежными странами. Анализируются нормативно-правовые аспекты документов, затрагивающих межгосударственное сотрудничество, и выдвигаются предложения по укреплению правовой базы. стратегический, договор, соглашение, нормативно-правовой, ратификация, сотрудничество, закон.

Annotation. This article discusses the constitutional and legal foundations of cooperation between the Republic of Uzbekistan and foreign countries. In particular,

the process of forming the legal basis of foreign policy of the Republic of Uzbekistan on the basis of the Updated Constitution and the role of the Constitution in it are analyzed. The development of the Strategy "Uzbekistan - 2030" on the basis of the Constitution, the legal significance of the signing of treaties and agreements strengthening bilateral relations between Uzbekistan and foreign countries are explained. The normative and legal aspects of documents affecting interstate cooperation are analyzed and proposals are put forward to strengthen the legal basis.

Key words: Republic of Uzbekistan, constitutional and legal foundations, foreign countries, Constitution, foreign policy, concept, strategic, treaty, agreement, normative and legal, ratification, cooperation, law.

Yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida keltirilishicha, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, O‘zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarini hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib ushbu Konstitutsiyani qabul qildi va e’lon qildi [1., 4.].

Yangilangan Konstitutsiya qabul qilingan dastlabki kunlardanoq Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatiga oid barcha hujjatlar qaytadan ko‘rib chiqila boshlandi. Assoiy Qomus asosida “2023 yil 11 sentyabrda PF№158-son “O‘zbekiston–2030” strategiyasi qabul qilindi. Mazkur hujjatning 90-100 maqsadlari bevosita O‘zbekistoning tashqi siyosati va xorijiy malakatlar bilan do‘stlik aloqlalarini rivojlantirish va mustahkamlash masalalariga bag‘ishlangan [3.]. Unda tashqi siyosat tamoyillarini ishlab chiqish va xorijiy mamlakatlar bilan teng huquqli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini yaratishga alohida e’tibor qaratila boshlandi.

Mamlakatning jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashi, barcha mamlakatlar bilan teng huquqli siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar va hamkorlikning boshqa sohalari bo‘yicha hamkorlik o‘rnatishi hamda izchil rivojlantirishi bevosita konstitutsiyaviy-huquqiy asoslariga tayanishi Konstitutsiya bilan mustahkamlab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston xalqiga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 31 yillik bayrami munosabati bilan yo‘llagan tabrigida ta’kidaganidek, “Hech shubhasiz, tom ma’noda xalqchil qomus bo‘lgan Asosiy qonunimiz Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarimiz ortga qaytmasligining mustahkam huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi [7.]. Boisi, Bosh qomusimiz mamlakat ichki va tashqi siyosatida amalga oshirilgan islohotlar va qo‘lga kiritilgan yutuqlar poydevoridir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tom ma’noda mamlakat tashqi siyosatini belgilab olish va xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda yangi davrni boshlab berdi.

Ta’kidlash joizki, Yangilangan Konstitutsiya avvalgi yillarda qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlaridan farqli o‘laroq, demokratik yo‘l bilan tayyorlangan bo‘lib, unda ming yillar mobaynida hayot sinovidan o‘tgan umuminsoniy qadriyatlar o‘z aksini topganligi hamda rivojlangan mamlakatlar huquqiy tajribalarini yutuqli jihatlarini o‘z ichiga olganligi bilan jahonda o‘zining munosib o‘rniga ega, deyish mumkin. Chunki, “davlatchiligiiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosiga tayanilagan”ligini alohida ta’kidlash joiz [1., 3-4.].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlatimiz tashqi siyosatini belgilab berilar ekan, xususan, 17-18-moddalarida O‘zbekiston Respublikasini xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti sifatida e’tirof etib, Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida tashqi siyosat olib borishi ko‘rsatib o‘tilgan [1., 11-12.]. Xususan, 17-moddasida, “O‘zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi” [1., 12]. Konstitutsiyaning mazkur moddasi bilan mustahkamlab qo‘yilgan tashqi siyosat masalasi va boshqa bandlarida aks etgan milliy mustaqilligimiz va rivojlanish yo‘limizni mustahkamlashga xizmat qiluvchi o‘zaro hamkorlikka doir qoidalar tom ma’noda mamlakat tashqi siyosatining konseptual asosini tashkil etadi.

O‘zbekistonning tashqi siyosati izchil rivojlanib borishi, xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikning huquqiy faoliyatiga ko‘maklashuvchi bir qator hujjatlar qabul qilinishida Konstitutsiya muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin [1., 12.].

Yangilangan Konstitutsiya asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish deb nomlangan beshinchi ustuvor yo‘nalishi 90-100-maqsadlarni o‘z ichiga olgan. Jumladan, 90- maqsadda Yangi O‘zbekiston tashqi

siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish masalasiga e’tibor qaratilgan [3.].

Ta’kidlash joizki, 2023-yildan boshlab, yangilangan Konstitutsiya asosida O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligiga doir qator hujjatlar qabul qilinganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri Markaziy Osiyo davlatlari – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan hamkorlik, do‘stlik aloqalarini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratildi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonning ushbu siyosat bugungi kunda ham izchil rivojlantirilib borilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “O‘zbekiston o‘zaro muloqot, amaliy hamkorlik va yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlashning qat’iy tarafdoridir. Biz Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hech istisnosiz barcha masalalar bo‘yicha oqilona murosa asosida hamkorlik qilishga tayyormiz” [2.].

Jumladan, 2024-yil 18-aprelda Oliy darajadagi muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnomani imzoladilar.

Bundan tashqari, davlat rahbarlari huzurida ikki tomonlama hujjatlarni almashish marosimi bo‘lib o‘tdi. Umumiy hisobda, tashrif davomida O‘zbekiston bilan Tojikiston o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikning deyarli barcha yo‘nalishlarini qamrab oluvchi 28 ta hujjat, jumladan:

– Sanoat sohasida hamkorlik to‘g‘risida bitim;

– Sanoat mulkini muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

– Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

– Fanlar akademiyalari o‘rtasidagi ilmiy hamkorlik to‘g‘risida bitim;

– Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlari, xalqaro avtomobil va aviatsiya qatnovlari to‘g‘risidagi bitimlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida bayonnomalar;

– Veterinariya va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi sohasida hamkorlik to‘g‘risida bayonnoma;

– Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish idoralari o‘rtasidagi hamkorlik to‘g‘risida bayonnoma;

– Madaniyat va turizm sohasidagi hamkorlik, agrosanoat majmuidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xarita”lari;

– Andijon, Namangan, Sirdaryo, Farg‘ona, Xorazm viloyatlari va So‘g‘d viloyati, Qashqadaryo viloyati va Xatlon viloyati o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida

bitimlar va 2024-2026-yillarga mo‘ljallangan “yo‘l xarita”lari hamda boshqa hujjatlar imzolandi [4.].

O‘zbekiston va Turkmanistonning istiqlol davridagi yangicha munosabatlarining huquqiy asosini mustahkamlash bo‘yicha bir qator hujjatlar bevosita O‘zbeksiton Respublikasi Konstitutsiyasi asosida qabul qilingan.

2025-yil 16-17-noyabr kunlari Turkmaniston davlati tashrifi davomida ham bir qator hujjatlar imzolanganligini ko‘rish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov Samarali muzokaralar yakunida Qo‘shma bayonot imzoladilar.

Bundan tashqari, davlat rahbarlari huzurida quyidagi ikki tomonlama hujjatlarni almashish marosimi bo‘lib o‘tdi:

– O‘zbekiston — Turkmaniston chegaraoldi savdo zonasi faoliyati to‘g‘risidagi shartnoma;

– Sog‘liqni saqlash va tibbiyot fani sohasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi bitim;

– Qishloq xo‘jaligi sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish to‘g‘risidagi bitim;

– Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi hukumatlararo bitimga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi bayonnoma;

– Xalqaro avtomobilda yo‘lovchi va yuk tashish to‘g‘risidagi hukumatlararo bitimga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi bayonnoma;

– Adliya vazirliklari o‘rtasida 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi;

– Madaniyat sohasida 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi;

– Neft mahsulotlari va suyuq kimyoviy yuklarni tashish uchun temir yo‘l vagonlarini yetkazib berish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi memorandum;

– Biologik xavfsizlikni ta’minlash masalalari bo‘yicha o‘zaro anglashuv memorandumi;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti hamda Turkmaniston Tashqi ishlar vazirligining Xalqaro munosabatlar instituti o‘rtasida O‘zbekiston – Turkmaniston ekspertlar kengashini tuzish to‘g‘risidagi memorandum;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti hamda Turkmaniston Davlat, huquq va demokratiya instituti o‘rtasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi memorandum;

– O‘rmon xo‘jaligi sohasida 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik bo‘yicha “yo‘l xaritasi”;

– Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hokimliklari bilan Lebap viloyati hokimligi, Toshkent viloyati hokimligi bilan Axal viloyati hokimligi hamda

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bilan Toshhovuz viloyati hokimligi o‘rtasida savdoiqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniygumanitar sohalardagi hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlar [6.].

Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligi konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarining bugungi holatini tahlil etar ekanmiz, Prezident Shavkat Mirziyoyevning hukumat tepasiga kelishi mintaqa davlatlari hamkorligini yangi bosqichga ko‘tarish uchun asos vazifasini o‘tamoqda.

Shu bois, tarix fani oldida turgan konseptual yondashuvdan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan teng huquqli hamkorlik aloqalariga doir masalalarni ilmiy jihatdan tadqiq va tahlil etish jarayoniga bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralar ekan, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va ushbu hujjat asosida qabul qilingan hujjatlar huquqiy poydevor vazifasini o‘taydi.

Dunyoda globallashuv jarayoni sodir bo‘layotgan bir sharoitda Markaziy Osiyo mamlakatlarining o‘z mustaqilligini mustahkamlash sari intilib, jahon hamjamiyatida munosib o‘rnini egallashga intilar ekan, mazkur davlatlarning hamkorlikka doir normativ-huquqiy hujjatlari mintaqada iqtisodiy taraqqiyotni, siyosiy barqarorlikni va madaniy-gumanitar hamkorlikning ravnaq topishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 92-maqsadida esa an’anaviy sheriklar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish, xalqaro hamkorlik geografiyasini kengaytirish, global ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirlariga qo‘shilish masalalari o‘z ifodasini topgan [3.].

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2025 yilning 4-6-noyabr kunlari AQShga amalga oshirgan amaliy tashrifi ikki davlat o‘rtasida strategik sheriklik aloqalarini izchil rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi. Xususan, O‘zbekiston yetakchisining sa’yi harakatlari bilan ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlar sifat jihatidan yangi mazmun kasb etib, hamkorlikning turli jabhalari – siyosat va xavfsizlik, iqtisodiyot, ilm-fan, ta’lim va madaniyatga doir muhim sohalarni o‘z ichiga oldi. O‘z navbatida, AQSh O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan qator islohotlarni jumladan, demokratlashtirish, inson huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohasidagi muvaffaqiyatlarini yuksak darajada e’tirof etganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, Vashington O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishini qo‘llab quvvatlagani mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga bo‘lgan ishonch va e’tirofning yorqin namunasidir.

Mazkur tashrifda AQShning yetakchi kompaniyalari, investitsiya fondlari va moliyaviy institutlari rahbarlari bilan o‘tkazilgan davra suhbatlari natijasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va AQSh savdo vaziri Xovard Latnik ishtirokida ikki tomonlama bitimlarni almashish marosimi bo‘ldi.

Xususan, quyidagi hujjatlar imzolangan:

- Geologiya vazirligi va “Denali Exploration group” kompaniyasi o‘rtasida nodir yer elementlarini ishlab chiqarish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida bitim;

- O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hamda “Re Element Technologies” kompaniyasi o‘rtasida nodir metallar sohasida loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida bitim;

- Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda “Flowserve” kompaniyasi o‘rtasida nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida bitim;

- Qishloq xo‘jaligi vazirligi va “Valmont Industries Inc” kompaniyasi o‘rtasida suvni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish to‘g‘risida bitim;

- Raqamli texnologiyalar vazirligi va “Palo Alto Networks” kompaniyasi o‘rtasida sun’iy intellekt sohasidagi hamkorlikni kengaytirish to‘g‘risida bitim;

- “Uzairways” va “Boeing” kompaniyalari o‘rtasida samolyotlarni yetkazib berish bo‘yicha shartnoma;

- “Datacrop” va “Luis Dreyfus Company” kompaniyalari o‘rtasida soya dukkaklari va shrot yetkazib berish bo‘yicha shartnoma;

- “O‘zsanoateksport” va “Cargill” kompaniyasi o‘rtasida paxta yetkazib berish bo‘yicha shartnoma [5.].

Darhaqiqat, ushbu hujjatlar O‘zbekistonning AQSh uchun ishonchli hamkori va strategik sherigi ekanligini yana bir bor namoyon etdi hamda amaliy jihatdan tasdiqlab berdi.

Bu esa, shubhasiz, “Yangi O‘zbekiston” strategiyasini hayotga tatbiq etishning dolzarbligini belgilab beradi va o‘z vaqtida erishilgan ikki va ko‘p tomonlama kelishuvlar qit’alararo hamkorlikning ravnaq topishida yangi davrni boshlab beradi.

Muxtasar qilib aytganda, davlatimizning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi huquqiy asoslarining Yangilangan Konstitutsiya tomonidan tartibga solinib turilishi xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona aloqalarni mustahkamlash hamda davlatlararo hamkorlikni rivojlantirishda muhim hissa qo‘shmoqda.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – B.4.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. // Xalq so‘zi, 2017 yil 20 sentyabr.

3. “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenining 2023 yil 11 sentyabrda PF№158-son farmoni. // Xalq so‘zi. 2023 yil 12 sentyabr soni.

4. Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2024-yil 19-aprel.

5. Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2025-yil 7-noyabr.
6. Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2025-yil 18-noyabr.
7. https://president.uz/uz/lists/view/6917

KONSTITUTSIYA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGINING KAFOLATIDIR

Turayeva Sayyora Rustambayevna
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
Universiteti professori tarix fanlari doktori

Kalit so‘zlar: milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, Inson, Inson huquqlari, bola huquqlari, tenglik, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, milliy markazlar.

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi fuqarolarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga oid huquq va erkinliklari kafolatlanganligi tahlil etildi. Barchaning qonun oldida tengligi, vijdon erkinligi, diniy bag‘rikenglikka, millatlararo totuvlik, bola huquqlariga oid konstitutsiya huquqlarning xalqaro huquq normalariga mosligi, mahalliy huquqiy merosimizdagi tarixiy ildizlari tahlil qilindi.

Ключевые слова: национальные ценности, общечеловеческие ценности, Человек, права человека, права детей, равенство, межнациональное согласие, религиозная толерантность, национальные центры.

Key words: national values, universal values, Human, human rights, children's rights, equality, interethnic harmony, religious tolerance, national centers.

Аннотация: В статье анализируются гарантии прав и свобод граждан в Конституции Республики Узбекистан, связанные с национальными и общечеловеческими ценностями. Анализируются конституционные права, связанные с равенством перед законом, свободой совести, религиозной толерантностью, межнациональным согласием, правами ребенка, а также их исторические корни в отечественном правовом наследии.

Abstract: This article analyzes the guarantees of civil rights and freedoms in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, related to national and universal values. It examines constitutional rights related to equality before the law, freedom of conscience, religious tolerance, interethnic harmony, and children's rights, as well as their historical roots in the national legal heritage.

Bugun O‘zbekistonda 130 dan oshiq turli madaniyat va dinga mansub aholi vakillari o‘zaro ahil-inoq yashab kelmoqda. Bag‘rikenglik tushunchasi yagona Vatan, bir zamin va bir hududda turli millat va elatga daxldor kishilarning, turli xil diniy e’tiqodli insonlarning orzu-umid, maqsad va niyatlar yo‘lida hamfikr va hamjihat bo‘lib yashashni anglatadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev

xalqimiz qalbida tobora chuqur va mustahkam o‘rin egallayotgan bag‘rikenglik tamoyili to‘g‘risidashunday deydi: “Bizning qadimiy va sahovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi”. 2023 yil 30 aprelda yangilangan konstitutsiyaning **19- moddasida** ko‘rsatilgan huquqi jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun odidagi tengligini ta’minlashga qaratilgan tizimli va izchil faoliyatni samarali tashkil etish yo‘lidan bormoqdamiz.[1:13]

O‘zbekistonning kelajagi tinchlik va bag‘rikenglik, madaniyatlararo uyg‘unlik va millatlararo totuvlik kabi omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni qabul qilindi. Farmonda 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi bayon etilgan bo‘lib, uning maqsadi yurtimizda olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdir.

Dasturning beshinchi yo‘nalishi xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo‘naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlashdan iborat.

Millatlaro totuvlik- mamlakatimizdagi turli millat va elatlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, do‘stlik va hamjihatlikni ifoda etuvchi mustahkam poydevordir. YuNESKO Bosh konferensiyasining 1995 yil 16- noyabrda bo‘lib o‘tgan 28 sessiyasida Bag‘rikenglik tamoyillari to‘g‘risidagi dekloratsiya qabul qilingan. Shundan buyon 16 noyabr – **Xalqaro bag‘rikenglik kuni** sifatida nishonlanadi. Chunki Millatlararo munosabatlar tinchlik masallasidir.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining **35- moddasida** Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan diniga e’tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlar majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilab qo‘yilgan. [1:24]

Vijdon erkinligi haqidagi qonun dinga e’tiqod qilish yoki o‘zga e’tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta’minlashga zarar yetkazgandagina cheklanishi mumkinligini ta’minlaydi. Mazkur me’yor 1966 yil 16 dekabr kuni BMT

Bosh Assambleyasi qabul qilgan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro paktning 18-moddasiga muvofiqdir.

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi ijtimoiy hayotda har doim muhim va murakkab masala bo‘lib kelgan. Binobarin, uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar yotadi. Vijdon erkinligi kishilarning ruhiy olamiga, uning sog‘lom va barkamolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois bu masalaning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va bajaradigan vazifalari g‘oyat muhim. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ustavidan tortib barcha xalqaro hujjat va shartnomalarda, hamma mamlakatlarning konstitutsiya va qonunlarida vijdon erkinligi o‘z ifodasini topgan. 1948 yilda qabul qilingan inson huquqlari umumiy Deklaratsiyasiga muvofiq har bir inson fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o‘z dini yoki e’tiqodini o‘zgartirish erkinligini, o‘z dini yoki e’tiqodiga o‘zicha, shuningdek, boshqalar bilan birgalikda amal qilish kafolatini, ibodat qilishda va diniy marosimlarda yakka tartibda yoki odamlar orasida birga qatnashish erkinligini o‘z ichiga oladi.

O‘zbekistonda bugungi kunda **16 konfessiya, 38 ta do‘stlik jamiyatlari va 153** ta milliy madaniy markazlar faoliyat ko‘rsatmoqda[2:33]. Ana shunday murakkab vaziyatda mamlakatimizda turli millat va dinga mansub insonlar o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash biz uchun borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hech shubhasiz, bu bizning zaminimizda tinchlik va osoyishtalikning mustahkam kafolati, xalqimizning bunyodkorlik salohiyatini, uning ertangi kunga bo‘lgan ishonchini oshirishning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Yanada ogoh va sergak bo‘lish, eng asosiy boyligimiz bo‘lgan va biz xaqli ravishda faxrlanadigan ko‘pmillatli xalqimizning birdamligi va jipsligini ko‘z qorachig‘idek asrash hamda yanada mustahkamlash O‘zbekistonni o‘z Vatani deb biladigan xar bir insonning muqaddas burchidir. Ma’lumki, qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab keladi. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida millatlararo va dinlararo keskinlik kuchayib bormoqda, shovinizm, millatchilik, diniy ziddiyatlar bosh ko‘tarmoqda. Bu illatlar davlatni yemirib, jamiyatni parchalab, radikal guruh va oqimlar uchun mafkura bazasiga aylanmoqda.

Yurtimizda hukm surayotgan do‘stlik va birdamlik muhiti - tinchlik va barqarorlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Ular umumiy uyimiz - jonajon O‘zbekistonimiz ravnaqi yo‘lida birlashib, barcha soha va tarmoqlarda

fidokorona mehnat qilmoqda, rivojlangan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishga munosib hissa qo‘shmoqda.

Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bizning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda, millati, tili va dinidan qat’i nazar, barcha fuqarolar teng huquq va erkinliklarga ega ekani mustahkamlab ko‘yilgan. Ularga o‘z milliy madaniyati, an’ana va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Mamlakatimizda millatlar va konfessiyalararo hamjihatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati izchil amalga oshirilmoqda.

Millatlararo munosabatlar va chet mamlakatlar bilan do‘stona aloqalarni yanada rivojlantirish, respublikamizda yashab turgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, an’ana va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish sohasida O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun qo‘shimcha ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilmoqda. Jamiyatda ko‘pmillatli katta oila his-tuyg‘usini, mamlakatimizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o‘rtasida do‘stlik va totuvlikni yanada mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, fuqarolarning teng huquqliligi ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta’minlanmoqda. Millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, mamlakatimiz hududida va undan tashqarida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida xalqaro hamkorlikni va chet mamlakatlar bilan do‘stona aloqalarni rivojlantirish, vatandoshlarni qo‘llab-quvvatlash va xorijdagi o‘zbek diasporalari bilan yaqin hamkorlik qilish, O‘zbekistonning jahon maydonidagi obro‘-e’tibori va imijini yuksaltirishga e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining davlat va jamiyatni rivojlantirishdagi ustuvor maqsadlarini, ilg‘or xorijiy tajribani e’tiborga olgan holda millatlararo munosabatlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish ishlari ustida faoliyat olib bormoqda.

Jumladan, milliy madaniy markazlar faoliyatini amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bir qator ishlar ko‘zda tutilgan. Ma’lumki, hozirgi vaqtda yurtimizda fuqarolarning vijdon va e’tiqod erkinligini ta’minlash, ularning bu boradagi huquqlarini himoya qilish maqsadida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ko‘lami va miqyosi tobora kengayib borayotgan bunday amaliy ishlarimiz Yangi O‘zbekistonni barpo etish, mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish, Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligini oshirishdek ezgu maqsadlarimizga uyg‘un va hamohang ekani ayniqsa e’tiborlidir. Biz xalqimiz,

avvalo yosh avlodimiz, shuningdek, jahon jamoatchiligiga islom dinining insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Islom dini - avvalo, tinchlik va do‘stlik, ahillik va birdamlik, bilim va ma’rifat dinidir. Mana shu oliy haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz lozim. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimizning mujassam ifodasi sifatida qadrlaymiz. Muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da’vat etadi. Yurtimiz zaminida kechgan birinchi va ikkinchi Uyg‘onish davrlarining ko‘plab yorqin namoyandalari islom va jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shganlarini alohida qayd etmoqchiman.

Diniy bag‘rikenglik azal-azaldan o‘zbek xalqi mentalitetining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Tarixning murakkab davrlarida yurtimiz musulmonlari pravoslav xristianlari hamda boshqa din va mazhab vakillariga mehr- shafqat va xayr-saxovat ko‘rsatib, beg‘araz yordam va ko‘mak berganlar. Ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur”, degan so‘zlari bugun ham dolzarb ahamiyatga ega.

Bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilgan harakatlarimiz butun dunyoga manzur bo‘lmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida **“Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik”** deb nomlangan maxsus rezolyusiyani qabul qilish taklifi O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgani va ushbu hujjatning qabul qilingani bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Muqaddas dinimizning ezgulik, insonparvarlik dini ekanini, ma’naviyatga, ilmga undashini, ota-bobolarimiz bunga beqiyos hissa ko‘shganlarini tasdiqlovchi ilmiy natijalarni ko‘rish va yangi tadqiqotlarga zamin yaratish - bizuchun asosiy maqsaddir.

Zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi kurashda “yumshoq kuch” sifatida ta’limning rolini oshirish Har qachongidan ham muhim vazifadir. O‘zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyusiyasi va Yoshlar huquqlari bo‘yicha konvensiyasini qabul qilinishi, bu masalani jahonning ko‘p ma’rifatli kishilari qo‘llab- quvvatlashi bu muhim hodisadir. Glaballashuvning yana bir turi insoniyat uchun muhim bo‘lgan umuminsoniy qadryatlarning dunyoga yoyilishi va undan butun dunyo xalqlari uchun manfaatli ekanligidir. Ma’rifatli dunyo va diniy bag‘rikenglik bu insoniyat uchun bugungi tahlikali davrda tinchlikni qaror toptirishga asos bo‘ladi. Aslida insoniyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bu tinchlikdir.

Mamlakatimizda diniy erkinlik, millatlararo hamjihatlik borasida ham vaziyat tubdan yaxshilandi. Bu boradagi faoliyatimizning o‘zagini “**Bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik - barqaror taraqqiyot omili”,** degan tamoyil tashkil etadi. Millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglikni yanada mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirmoqdamiz. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Xalqaro do‘stlik kuni deb belgilangan 30 iyul sanasini yurtimizda **“Xalqlar do‘stligi kuni”** deb e’lon qildik va 2021 yili uni keng nishonladik. Ishonchim komilki, bu bayram ezgu an’anaga aylanib, xalqimizni jonajon Vatanimiz bayrog‘i ostida yanada jipslashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Sharqning buyuk huquqshunoslaridan biri Burhoniddin Marg‘inoniy XII asrdayoq o‘zining “Hidoya” asarida har bir insonning haq-huquqini saqlash zarurligi to‘g‘risida muhim g‘oyani ilgari surgan edi.

Dunyo xalqlarida oilaviy qadryatlardan bola va uning millat davomchisi degan qadriyat mavjud. O‘zbek halqida ham oila muhim qadriyatlar beshigidir. Bola esa aziz ne’matdir. O‘zbekiston qonunchiligida “Bola huquqlari” borasida ham qator huquqiy asoslar ishlab chiqilgan. Konstitutsiyamizning 78- moddasida: “Farzandlar ota- onasining nasl- nasabi va fuqarolik holatidan qat’iy nazar, qonun oldida tengdir. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart- sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi”.[1:46]

Buyuk vatandoshimiz **Muhammad ibn Mahmud Ustrushoniyning XIII asrda yaratilgan “Jomi’ ahkom as-sig‘or” (“Bola huquqlari kodeksi”)** asari jahon tarixidagi bolalar huquqi bo‘yicha dastlabki mukammal huquqiy manbadir. Unda bolalar, xususan, yetim bolalar huquqlari, bolalik va otalikni belgilash, bola tarbiyasi, bolaning ota-onasi oldidagi burch va majburiyatlari kabi masalalar atroflicha tahlil qilinib, islom huquqi asosida qanday yechimlar mavjudligi ko‘rsatib berilgan[5]. Ya’ni, ushbu asar bola huquqlari masalasiga tamal toshi aynan tarixiy Movarounnahr - bugungi O‘zbekistonda qo‘yilgani hamda islom huquqshunosligida G‘arb sivilizatsiyasidan qariyb olti yuz yil avval bolalar hukuqining to‘la-to‘kis o‘rganilib, hayotga tatbiq etilganidan darak beradi.

Shundan xulosa qilish mumkinki, amaldagi O‘zbekiston Konstitutsiyasida konstitutsion islohotlar natijasida inson va uning huquqlariga oid normalar 3 barovarga ortdi. Davlatning fuqarolar oldidagi vazifalari kengaydi. Xalqaro andozalardagi xuquq normalari Konstitutsiyamizda yangada kengroq o‘z aksini topdi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining xalqchilligi, inson oliy qadriyat ekanligi mustahkamlandi.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent, “O‘zbekiston”, 2023. -128 b.
2. Mirziyoyev Sh. Bir bo‘lsak yagona xalqmiz, birlashsak- Vatanmiz. – Toshkent, “O‘zbekiston” nashryoti, 2024. - 376 b.
3. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1 jild. – O‘zbekiston. NMIU, 2017. – B. 235.
4. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6- jild.- Toshkent, “O‘zbekiston”, 2023. B. – 161.
5. Mirziyoyev. Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshent “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – B.68.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING HUQUQIY ASOSLARI

Shadmanov Erkin Sherkulovich,
O‘R JXU “Iqtisodiy fanlar” kafedrasi professori, i.f.d.;
Irgashev Dilmurod Ikramovich,
O‘R JXU “Iqtisodiy fanlar” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson qadri va huquqiy davlat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilingan. Tadqiqotda umuminsoniy qadriyatlar va inson huquqlari, konstitutsiyadagi adolat tamoyillari huquqiy davlat poydevorini mustahkamlovchi asosiy omillar sifatida yoritiladi. O‘zbekiston tajribasi xalqaro huquqiy me’yorlar bilan solishtirilib, inson qadri konsepsiyasining milliy siyosatda tutgan o‘rni aniqlangan.

Kalit so‘zlar: inson qadri, huquqiy davlat, inson huquqlari, adolat, konstitutsiya, huquqiy tizim, demokratik jamiyat.

Аннотация: В статье анализируется взаимосвязь между ценностью человека и правовым государством. Исследование раскрывает, что права человека, конституционные ценности и принципы справедливости служат основой укрепления правового государства. Опыт Узбекистана сопоставляется с международными нормами, что позволяет определить роль концепции человеческого достоинства в национальной политике.

Ключевые слова: человеческое достоинство, правовое государство, права человека, справедливость, конституция, правовая система, демократическое общество.

Abstract: This article analyzes the interrelation between human dignity and the rule of law. The study highlights that human rights, constitutional values, and the principles of justice form the foundation of a strong legal state. Uzbekistan's experience is compared with international legal standards to identify the significance of the concept of human dignity in national policy.

Key words: human dignity, rule of law, human rights, justice, constitution, legal system, democratic society.

Har bir fuqaroning shaxsiy daxlsizligi, adolatli sud himoyasiga ega bo‘lishi, fikr bildirish va erkin yashash huquqi demokratik boshqaruv tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson qadri har qanday jamiyatning eng oliy qadriyati bo‘lib, huquqiy davlat barpo etishning asosiy mezoni sifatida namoyon bo‘ladi. Huquqiy davlatning poydevori inson huquq va erkinliklarini e’tirof etish, himoya qilish hamda ularni amalda ta’minlashdan iborat. Shu bois inson qadri tushunchasi nafaqat ma’naviy, balki siyosiy-huquqiy jihatdan ham jamiyat taraqqiyotining mezoniga aylanadi.

O‘zbekiston Respublikasida umuminsoniy qadriyatlar va inson huquqlari masalasi Konstitutsiya va qonunlarda mustahkam o‘rin egallagan bo‘lib, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Xususan, “Inson qadri uchun” tamoyili mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning bosh g‘oyasiga aylangan. Mazkur yondashuv orqali davlat hokimiyati organlari faoliyatining barcha bosqichida inson manfaatlari ustuvorligi ta’minlanmoqda.

Zamonaviy huquqiy davlat konsepsiyasiga ko‘ra, inson qadri nafaqat konstitutsiyaviy norma sifatida, balki ijtimoiy-siyosiy amaliyotda ham real tarzda aks etishi zarur. Shu jihatdan, inson huquqlarini kafolatlash mexanizmlarini takomillashtirish, fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini kengaytirish va adolatli sud tizimini mustahkamlash huquqiy davlatning barqaror poydevorini yaratadi. Mazkur maqolada inson qadri va huquqiy davlat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni hamda O‘zbekistonda ushbu sohada olib borilayotgan islohotlarning ijtimoiy-huquqiy ahamiyati tahlil qilinadi[1].

Inson qadri tushunchasining nazariy asosi sifatida klassik va zamonaviy yondashuvlar o‘rganilgan. John Rawls adabiyotida adolatning cheklovchilik prinsiplari hamda fuqarolarning teng huquqliligi masalalari muhim o‘rin tutadi. Rawls 1971-yilgi asarlarida adolat paradigmasi orqali shaxsning qadrini himoya qilish mexanizmlarini tushuntiradi[2]. Ronald Dworkinning yondashuvi esa huquqlarni himoya qilish va sud amaliyotidagi integritet masalalarini ko‘taradi[3]. Dworkin 1977-yilda yozgan ishlari orqali huquq va axloq munosabatlarini tahlil etib, inson huquqlarining ustuvorligini ta’kidlaydi. James Griffin inson huquqlarining ma’nosini nazariy jihatdan ochib bergan bo‘lib, Griffin 2008-yilda huquqiy tizimlarda

inson qadriga asoslangan huquqiy kafolatlar konsepsiyasini takomillashtiradi[4]. Martha Nussbaumning imkoniyatlar (capabilities) yondashuvi inson qadri va ijtimoiy adolat o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Nussbaum 2000-yilda jamiyat siyosatida shaxs imkoniyatlarini kengaytirish orqali inson qadrini real tarzda ta’minlashga urg‘u beradi[5].

Huquqiy davlat (rule of law) va uning tarkibiy elementlari bo‘yicha adabiyotlarda ikki asosiy oqim ajralib turadi. Birinchisi — protsedural huquqiylikka urg‘u beruvchi yondashuv, ikkinchisi esa mazmuniy huquqiylik va inson huquqlarining konkret himoyasiga e’tibor qaratadi. A. V. Dicey o‘zining klassik yondashuvida huquqiy davlatning protsedural elementlarini — xavfsizlik, qonun ustuvorligi va sud mustaqilligini belgilaydi. Dicey 1885-yilda ilgari surgan asosiy tamoyillar orqali qonun oldida tenglik va sud nazorati rolini ta’kidlaydi[6]. Lon L. Fuller esa huquqning ichki axloqiyligi haqida yozgan. Fuller 1969-yilda huquqiy me’yorlarning ma’lum bir ichki mantiqqa ega bo‘lishi zarurligini asoslaydi[7]. Tom Binghamning amaliy yondashuvi huquqiy davlatning fuqarolar hayotiga bevosita ta’siri va sud-huquqiy himoya mezonlarini ochib beradi. Bingham 2010-yilda huquqiy davlat tamoyillarini amaliy auditoriya uchun yanada aniqlashtirgan[8].

Konstitutsiyaviy himoya, inson qadrining normativ o‘rni va sud amaliyoti masalalari bo‘yicha so‘nggi yillarda yozilgan asarlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Robert Alexy konstitutsiyaviy huquqlarni prinsip sifatida tahlil qiladi. Alexy 2002-yilda huquqiy prinsiplar va ularning murosaviy xususiyatlarini aniqlash orqali inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini nazariy jihatdan mustahkamlaydi[9]. Aharon Barakning ishlarida inson qadrining konstitutsiyaviy qiymati va sud amaliyotida uning qanchalik markaziy element ekanligi ko‘rib chiqilgan. Barak 2006-yilda konstitutsiyaviy talqin va sud-huquqiy ijtimoiy-himoya funksiyalarini yoritadi[10]. Ushbu nazariy asarlar sudlar va konstitutsiyaviy institutlar inson qadrini qanday amalga oshirishi mumkinligini tushuntiradi.

Xalqaro-huquqiy va institutsional hujjatlar ham mukammal tahlil obyektidir. Ular mamlakatlarning milliy huquqiy tizimlarida inson qadrini ta’minlash mexanizmlarini belgilaydi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Umumjahon inson huquqlari deklaratsiyasi inson qadri va asosiy huquqlar prinsiplarini universal hujjat sifatida belgilaydi. UDHR 1948-yilda davlatlararo majburiyatlar va ichki huquqiy himoya me’yorlarini shakllantirishda baza vazifasini o‘taydi. Shuningdek, Yevropa sudyosi va xalqaro organlar amaliyoti inson qadrini himoya qilish bo‘yicha pretsedentlarni yaratadi. Bu esa milliy sudlarga yo‘l-yo‘riq beradi.

O‘zbekistonga oid adabiyotlarda inson qadri va huquqiy davlat masalalarining milliy tafakkur va institutsional xususiyatlari o‘rganilgan. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni

davlatning ustuvor vazifasi sifatida belgilaydi. Konstitutsiya 1992-yilda qabul qilingan va keyingi islohotlar mamlakat huquqiy tizimida inson qadri tamoyilini mustahkamlash yo‘nalishlarini ko‘rsatadi. Milliy ilmiy adabiyotlarda konstitutsiyaviy islohotlar, sud tizimini modernizatsiyalash va fuqarolarning huquqiy ongini oshirish orqali huquqiy davlat poydevorini mustahkamlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Ushbu tadqiqotlar nazariy konsepsiyalarni milliy kontekstga moslashtirish hamda amaliy chora-tadbirlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhidan aniqlanishicha, inson qadri nazariy jihatdan huquqiy davlatning markaziy elementi sifatida shakllanib bormoqda. Nazariy ishlar shaxs qadrini huquqiy kafolatlar orqali amalga oshirishni talab etadi. Protsedural va mazmuniy yondashuvlar esa bu maqsadni ta’minlash uchun bir-birini to‘ldiruvchi instrumentlar sifatida qaraladi. Milliy kontekstda esa konstitutsiyaviy va institutsional islohotlar inson qadri prinsipini real himoya mexanizmlariga aylantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, adabiyotlar huquqiy davlat konsepsiyasini faqat formal tamoyillar darajasida qoldirmasdan, fuqaroning kundalik hayotidagi huquqiy kafolatlar va ijtimoiy imkoniyatlar bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi.

Konstitutsiya — har bir davlatning siyosiy mustaqilligi, huquqiy barqarorligi va jamiyat taraqqiyotining poydevori hisoblanadi. U davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy mezoni bo‘lib, inson huquq va erkinliklarini ta’minlashning kafolati sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois Konstitutsiyani “davlatning bosh qonuni” deb atash bejiz emas. U xalq irodasini, milliy qadriyatlarni va umuminsoniy g‘oyalarni huquqiy ifodada mujassamlashtiradi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakat mustaqilligining huquqiy asosini yaratib, demokratik jamiyat qurish dasturi sifatida xizmat qildi. Mazkur qonun xalq xohish-irodasini ifoda etib, mustaqil davlatchilikning huquqiy, siyosiy va iqtisodiy ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Keyingi yillardagi islohotlar jarayonida jamiyat rivojlanishi, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar Konstitutsiyaning ayrim normalarini zamon talablariga moslashtirishni taqozo etdi. Shu asosda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2023-yil 30-aprel kuni umumxalq referendumi o‘tkazilib, xalq tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilindi. Bu voqea O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash yo‘lida yangi tarixiy bosqichni boshlab berdi.

Yangilangan Konstitutsiya mazmun va mohiyat jihatidan tubdan boyidi. Bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Shu bilan birga, hujjatning 65 foizdan ortig‘i yangidan tahrir qilindi. Yangi tahrir “Inson — jamiyat — davlat” tamoyilini bosh g‘oya sifatida belgilab, inson manfaatlari va qadriyatlarini davlat siyosati markaziga qo‘ydi. Bu esa O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi mohiyatini yanada ochib berdi.

Aslida, 1992-yildan 2023-yilgacha Konstitutsiyaga jami 15 marta o‘zgartish kiritilgan bo‘lib, ular asosan davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan edi. Biroq 2023-yilgi islohotlar nafaqat qonunchilik tizimida, balki butun davlat boshqaruvi falsafasida yangi sahifa ochdi. Yangilangan Konstitutsiyada O‘zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida ta’riflandi.
1-moddadagi ushbu norma endilikda mamlakat taraqqiyotining qaysi yo‘nalishda borishini aniq belgilab berdi.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 154-moddasida 1-moddadagi qoidalarni qayta ko‘rib chiqish mumkin emasligi qat’iy belgilandi. Bu esa O‘zbekistonning hech qachon demokratiya, huquqiy davlatchilik va dunyoviylik prinsiplaridan voz kechmasligini anglatadi. Ya’ni, mamlakat kelajakda monarxiya yoki diniy respublika shaklida emas, faqat demokratiya va huquq ustuvorligi tamoyillari asosida rivojlanishini kafolatlaydi.

Konstitutsiyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi haqidagi yangi qoida ham katta ahamiyatga ega. 15-moddaga kiritilgan qo‘shimchaga ko‘ra, Konstitutsiya butun mamlakat hududida oliy yuridik kuchga ega va to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi. Bu fuqarolarga nafaqat qonunlarga, balki Konstitutsiyaning o‘ziga asoslangan holda sudlarga murojaat qilish imkonini beradi.

Yangi tahrirda fuqarolar tengligi va ijtimoiy adolat prinsiplari ham aniq ifoda etilgan. 19-moddaga muvofiq, imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat tamoyillariga mos bo‘lishi shart. Bu norma davlat qarorlari yoki farmonlari orqali turli preferensiyalar berish amaliyotiga chek qo‘ydi.

Konstitutsiyaning yana bir muhim yangiligi — “barcha noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi[1]” degan qoidadir. Bu tamoyil davlat organlari faoliyatida inson huquq va manfaatini ustuvor qo‘yishni ta’minlaydi. Masalan, pensiya tayinlash yoki hujjatlarni rasmiylashtirishda davlat tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolar fuqaro foydasiga hal etilishi lozim.

Inson huquqlari va erkinliklarini cheklash faqat Konstitutsiyada nazarda tutilgan hollarda, jamoat xavfsizligi yoki boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish maqsadida amalga oshirilishi mumkin. Bu norma fuqarolarning axborot izlash, olish va tarqatish erkinligiga ham taalluqlidir. Yangi tahrirda ta’lim sohasiga katta e’tibor berilgan. 52-moddada ilk bor o‘qituvchilarning jamiyatdagi o‘rni va roli konstitutsiyaviy darajada belgilab, ularning mehnati davlat tomonidan himoya qilinishi nazarda tutilgan. Bu modda bilan o‘qituvchilar davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchi sifatida tan olingan.

Shuningdek, yangi Konstitutsiyada yer xususiy mulk bo‘lishi mumkinligi qonuniy asosda mustahkamlandi. Bu norma iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish,

tadbirkorlikni rivojlantirish va mulkdorlar qatlamini shakllantirish yo‘lida muhim huquqiy qadam bo‘ldi.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatiga oid moddalar ham alohida ahamiyatga ega. Yangi tahrirda OAV erkinligi kafolatlanib, ularning faoliyatiga to‘siq yaratish yoki senzura joriy etish qonun bilan taqiqlangan. Bu norma so‘z erkinligini ta’minlash, jamiyatda ochiqlik va shaffoflik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlat boshqaruvida ham tuzilmaviy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Prezident vakolat muddati yetti yil etib belgilandi, Senat tarkibi qayta shakllantirildi va parlament palatalarining vakolatlari aniq taqsimlandi. Shu bilan birga, hokimlar bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari kengashiga rahbarlik qilish huquqidan mahrum etildi — bu boshqaruv tizimida vakolatlar taqsimotida shaffoflikni ta’minlaydi.

Yangi Konstitutsiyada “o‘lim jazosi taqiqlanadi” degan norma ham alohida ta’kidlandi. Shuningdek, shaxsning o‘z aybini tan olganligi uning aybdorligini isbotlash uchun yetarli asos bo‘lolmaydi, degan qoida qonun darajasiga ko‘tarildi. Sud-huquq sohasida qonunni buzgan holda olingan dalillardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi, deb belgilandi.

Inson huquqlariga oid moddalarning kengaytirilishi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘sini mustahkamladi. Yangilangan Konstitutsiyada BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Umumjahon deklaratsiyasining barcha asosiy prinsiplari o‘z aksini topgan.

Shu tariqa, 2023-yil 30-aprel kuni bo‘lib o‘tgan referendumda xalqimiz yangi O‘zbekistonning huquqiy asosini yaratdi. Yangi Konstitutsiya demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat qurish yo‘lidagi barqaror rivojlanish strategiyasini belgilab berdi. U nafaqat huquqshunoslar uchun, balki har bir fuqaro uchun hayotiy dastur, huquqiy madaniyat manbayi va milliy g‘urur ramzi hisoblanadi.

Demak, yangi tahrirdagi Konstitutsiya — bu zamon talablariga javob beradigan, inson qadrini e’zozlovchi, xalq irodasini ifoda etuvchi, yangi O‘zbekistonning huquqiy, siyosiy va ma’naviy qiyofasini belgilab beruvchi tarixiy hujjatdir.

Xulosa qilib aytganda, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning siyosiy, huquqiy va ijtimoiy hayotida tub burilish yasagan tarixiy hujjat sifatida e’tirof etiladi. U inson qadrini oliy qadriyat darajasiga ko‘tardi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalda ta’minlashga xizmat qiluvchi aniq mexanizmlarni belgilab berdi hamda “Inson — jamiyat — davlat” tamoyilini davlat siyosatining bosh yo‘nalishiga aylantirdi. Shu orqali yangi Konstitutsiya mamlakatni demokratik islohotlarning yangi bosqichiga olib chiqdi va xalq manfaatlarini huquqiy jihatdan himoyalashni yanada mustahkamladi.

Umuman olganda, Konstitutsiyaning yangilanishi O‘zbekistonning suvereniteti, huquqiy davlat tamoyillari va ijtimoiy adolat g‘oyalarini yanada

chuqurlashtirdi. Ushbu hujjat demokratik boshqaruv tizimini takomillashtirish, inson huquqlarini himoya qilish, shaffoflik va adolat mezonlarini kuchaytirish borasida ishonchli asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Yangi Konstitutsiya nafaqat davlat institutlari uchun yo‘l xaritasi, balki jamiyat taraqqiyoti va fuqarolik mas’uliyatining yangi bosqichini boshlab bergan umummilliy qadriyat sifatida tarixda o‘z o‘rnini egalladi.

References:

11. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023 – https://lex.uz/docs/-6445145
12. John Rawls. A Theory of Justice. – Cambridge: Harvard University Press, 1971. – 607 p.
13. Ronald Dworkin. Taking Rights Seriously. – Cambridge: Harvard University Press, 1977. – 293 p.
14. James Griffin. On Human Rights. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 376 p.
15. Martha C. Nussbaum. Women and Human Development: The Capabilities Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 312 p.
16. A.V. Dicey. Introduction to the Study of the Law of the Constitution. – London: Macmillan, 1885. – 413 p.
17. Lon L. Fuller. The Morality of Law. – New Haven: Yale University Press, 1969. – 262 p.
18. Tom Bingham. The Rule of Law. – London: Penguin Books, 2010. – 224 p.
19. Robert Alexy. A Theory of Constitutional Rights. – Oxford: Oxford University Press, 2002. – 518 p.
20. Aharon Barak. The Judge in a Democracy. – Princeton: Princeton University Press, 2006. – 352 p.

ROSSIYADA MAHALLIY O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISHNING KONSTITUTSIYAVIY MODELI: AVTONOMIYADAN DAVLAT HOKIMIYATI TIZIMIGA INTEGRATSIYALASHUVGACHA

Кузнецов Антон Константинович,
ФГБОУ ВО «Чувашский государственный
университет имени И.Н. Ульянова»
(Россия, г. Чебоксары) доцент, канд. ист. наук

Annotatsiya: Maqola mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning konstitutsiyaviy tartibga solinishini mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tashkiliy izolyatsiyasi prinsipiga asoslangan avtonomiya modelidan mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishni yagona davlat hokimiyati tizimining ajralmas elementi sifatida mustahkamlaydigan integratsiya modeliga qadar rivojlantirishga bag'ishlangan.

Kalit so‘zlar: mahalliy boshqaruv, konstitutsiyaviy islohot, davlat hokimiyati, munitsipal islohot, mahalliy hokimiyat.

Аннотация: Статья посвящена развитию конституционного регулирования местного самоуправления от модели автономии, основанной на принципе организационной обособленности органов местного самоуправления, к интеграционной модели, закрепляющей местное самоуправление как неотъемлемый элемент единой системы публичной власти.

Ключевые слова: местное самоуправление, конституционная реформа, публичная власть, муниципальная реформа, местная власть.

Annotation: The article is devoted to the development of constitutional regulation of local self-government from a model of autonomy based on the principle of organizational isolation of local self-government bodies to an integration model that establishes local self-government as an integral element of a unified system of public authority.

Key words: local government, constitutional reform, public power, municipal reform, local government

Критерием идентификации Конституции в массиве нормативных правовых актов выступает комплекс специфических свойств, присущих исключительно Основному закону государства. К числу таких свойств относится, прежде всего, верховенство в правовой системе, означающее, что все иное законодательство разрабатывается и применяется на основе и в строгом соответствии с конституционными положениями. Не менее важен учредительный характер Конституции, которая закрепляет фундаментальные основы государственного и общественного строя: права и обязанности субъектов, систему органов публичной власти, а также принципы их

взаимодействия друг с другом, с гражданами и на международной арене. Сущность Основного закона также раскрывается через свойство реальности, под которым понимается его адекватность сложившимся в обществе фактическим отношениям [2].

В свете изложенного, особую значимость приобретает конституционное закрепление основ местного самоуправления. Будучи наиболее приближенным к населению уровнем публичной власти, местное самоуправление оказывает непосредственное воздействие на качество жизни граждан. Эффективность его организации детерминирует реальную возможность осуществления конституционных прав населения на самостоятельное решение вопросов местного значения, что приобретает особую актуальность в условиях современных социально-экономических вызовов. Исследование российской модели местного самоуправления в сравнительно-правовом ключе вносит вклад в осмысление общих закономерностей эволюции институтов местной демократии в современных государствах [3].

Анализ эволюции конституционно-правового регулирования местного самоуправления в Российской Федерации позволяет выделить ряд последовательных этапов.

1. Этап конституционной автономии (1993-2003 гг.).

Конституция Российской Федерации 1993 года заложила основы модели автономии местного самоуправления, которая характеризовалась следующими ключевыми признаками:

- принцип организационной обособленности. Статья 12 Конституции РФ провозгласила, что органы местного самоуправления не входят в систему органов государственной власти. Данная норма стала краеугольным камнем концепции автономии, предполагающей самостоятельное решение населением вопросов местного значения;

- экономическая самостоятельность. Статья 132 Конституции РФ закрепила право органов местного самоуправления на самостоятельное управление муниципальной собственностью, формирование и исполнение местного бюджета, установление местных налогов и сборов;

- судебные гарантии. Статья 133 предусмотрела гарантии судебной защиты прав местного самоуправления и компенсацию дополнительных расходов, возникших в результате решений органов государственной власти [4].

Реализацией конституционных положений стал Федеральный закон от 28.08.1995 № 154-ФЗ «Об общих принципах организации местного самоуправления в Российской Федерации», который закрепил вариативность моделей организации местной власти; установил широкий перечень вопросов

местного значения; предоставил субъектам РФ значительные полномочия в регулировании местного самоуправления.

Таким образом, органы местного самоуправления во многом вобрали в себя черты общественного института. Однако на практике модель автономии столкнулась с системными проблемами: отсутствием реальной финансовой самостоятельности, нечетким разграничением полномочий, организационной нестабильностью[1].

Необходимо подчеркнуть, что если рассматривать местное самоуправление как конституционное право граждан, указывает Е.С. Шугрина, то регулирование таких прав, как право народа на осуществление своей власти через органы местного самоуправления, право граждан избирать и быть избранными в органы местного самоуправления и т.д. находится в ведении Российской Федерации (ст. 71) [5]. Таким образом, несмотря на либеральный характер модели механизм централизации ряда вопросов местного самоуправления все же был заложен изначально.

2. Трансформация модели и переход к интеграции (2003-2020 гг.)

Принятие Федерального закона от 06.10.2003 № 131-ФЗ «Об общих принципах организации местного самоуправления в Российской Федерации» ознаменовало начало движения к интеграционной модели, централизации основных вопросов:

- унификация организационных основ. Закон установил единые подходы к структуре органов местного самоуправления, введя исчерпывающий перечень обязательных органов;

- двухуровневая модель территориальной организации (поселения, муниципальные районы, городские округа);

- расширение государственного контроля. Появились механизмы контроля за осуществлением переданных государственных полномочий.

Особенностью данного этапа стало постепенное усиление элементов интеграции при формальном сохранении конституционного принципа автономии.

3. Конституционное закрепление интеграционной модели (2020-2025 гг.)

Конституционная реформа 2020 года стала переломным моментом в развитии модели местного самоуправления. Новая редакция статьи 132 Конституции РФ прямо закрепила вхождение органов местного самоуправления в единую систему публичной власти. Часть 1.1 статьи 131 Конституции предусмотрела возможность участия органов государственной власти в формировании органов местного самоуправления. Право муниципальных образований на «установление» местных налогов было заменено на «введение».

Таким образом, в конституционно-правовой доктрине и законодательной практике произошел концептуальный сдвиг. Он выразился в переходе от трактовки местного самоуправления в качестве обособленной, сугубо общественной формы власти «на местах» к его восприятию в качестве интегрального и неотъемлемого элемента единого механизма публичной власти в государстве.

Логическим завершением интеграционного процесса стало принятие Федерального закона от 20.03.2025 № 33-ФЗ «Об общих принципах организации местного самоуправления в единой системе публичной власти», который закрепил новые процедуры формирования органов МСУ с участием государственных органов; ввел механизмы персональной ответственности глав муниципальных образований перед региональной властью; установил институт совмещения государственных и муниципальных должностей.

Эволюция конституционной модели местного самоуправления в России демонстрирует переход от либеральной модели автономии к интеграционной модели, основанной на принципе единства публичной власти. Данная трансформация отражает поиск оптимального баланса между самостоятельностью местной власти и общегосударственными интересами в условиях укрепления вертикали управления.

Современная конституционная модель представляет собой синтез элементов автономии в решении вопросов местного значения и интеграции в систему публичного управления, что соответствует как историческим традициям российской государственности, так и современным вызовам управления сложноорганизованным обществом.

В качестве ключевого вектора дальнейшего развития местного самоуправления в Российской Федерации видится оптимизация механизмов взаимодействия между различными уровнями публичной власти. При этом фундаментальный признак муниципальной власти - ее максимальная приближенность к населению - должен оставаться неизменным. Соответственно, последующее совершенствование законодательства должно быть нацелено на создание правовых условий, обеспечивающих реализацию конституционной сущности местного самоуправления, которая заключается в самостоятельном и под свою ответственность решении вопросов непосредственного обеспечения жизнедеятельности населения.

References:

1. Золотов В.А. Развитие государственного и муниципального управления в России в 80-90-е годы XX века: дис. ... кандидата исторических наук. М., 1998. 191 с.

2. Иванова О.А., Васильева Ж.С., Кузнецов А.К., Михайлов И.В. Живая Конституция: от теории к практике // Вестник Российского университета кооперации. 2020. № 4 (42). С. 110-114.

3. Кузнецов А.К. Формирование системы местного самоуправления в Российской Федерации в 1990-е годы: к историографии вопроса // Вестник Чувашского университета. 2024. № 3. С. 54-69.

4. Местное самоуправление: современный российский опыт законодательного регулирования / под ред. К.Ф. Шеремета, И.И. Овчинникова. М.: ИГП РАН, 1998. 216 с.

5. Шугрина Е.С. Законодательство о местном самоуправлении: анализ состояния и тенденции развития // Муниципальное право. 2014. №4. С. 2-1

КОНСТИТУЦИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА – СИЛА И СПРАВЕДЛИВОСТЬ НАРОДА

Шаменова Гульжазира Мухтаровна,
старший преподаватель кафедры «Изучение языков»
Университета общественной безопасности Республики Узбекистан
Толегенова Умида,
курсант группы «132 Б» Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан

Аннотация: В статье анализируются основные положения обновлённой Конституции Республики Узбекистан, принятой на референдуме 2023 года, а также рассматриваются её демократические, правовые и социальные основы. Особое внимание уделяется концепции «Человек — высшая ценность», укреплению принципов справедливости и усилению роли народа как источника государственной власти.

Ключевые слова: права человека, новая Конституция, правовые основы, социальные основы, демократические основы, народ, справедливое общество, источник права, защита, закон.

Annotatsiya: ushbu maqolada 2023-yili referendumda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasining asosiy qoidalari tahlil qilingan, shuningdek, uning demokratik, huquqiy va ijtimoiy asoslari ko‘rib chiqilgan, “Inson eng yuqori qadriyat” tushunchasiga, adolat tamoyillarini mustahkamlashga va xalqning manba- davlat hokimiyati rolini kuchaytirishga alohifa e’tibor qaratilmoqda.

Kalit so‘zlar: inson huquqlari, yangi Konstitutsiya, huquqiy asoslar, xalq, adolatli jamiyat, huquq manbai, mudofaa, qonun.

Annotation: The article analyzes the main provisions of the updated Constitution of the Republic of Uzbekistan, adopted in a referendum in 2023, and

also examines its democratic, legal and social foundations. Special attention is paid to the concept of “Man is the highest value”, strengthening the role of the people as a source of state power.

Key words: human rights, new Constitution, legal foundations, social foundations, people, just society, source of law, protection, law.

Введение:Процесс модернизации государственного управления в Узбекистане в последние годы сопровождается масштабными политико-правовыми преобразованиями. Центральным событием этих реформ стало обновление Конституции Республики Узбекистан, принятое всенародным голосованием 30 апреля 2023 года. Обновлённая Конституция стала основой концепции «Новый Узбекистан», ориентированной на развитие демократических институтов, защиту прав человека и укрепление социального государства.

Актуальность исследования обусловлена тем, что Конституция является не только юридическим документом высшей силы, но и инструментом реализации воли народа, отражающим направления будущего развития страны. Изучение обновлённого Основного закона позволяет выявить новые тенденции политической модернизации, социального обновления и формирования справедливого общества.

Цель и задачи исследования.

Цель статьи — проанализировать содержание обновлённой Конституции Узбекистана и показать её роль как источника силы и справедливости народа.

Основные задачи исследования:

-Рассмотреть принципы разработки новой редакции Конституции.

-Проанализировать ключевые изменения, связанные с правами человека и социальными гарантиями.

-Охарактеризовать механизмы обеспечения справедливости и верховенства права.

-Оценить влияние Конституции на развитие гражданского общества и государственности.

Методология исследования

В работе использованы методы сравнительно-правового анализа, системного подхода и политико-правовой интерпретации документов. Источниковую базу составляют тексты Конституции Республики Узбекистан, официальные публикации, аналитические материалы и материалы общественных обсуждений.

Основная часть

1. Конституция как выражение воли народа

Одной из ключевых особенностей обновления Конституции стал широкий общественный диалог. В процессе обсуждения в органы власти поступили миллионы предложений, отражающих мнение различных групп населения: молодёжи, учителей, юристов, предпринимателей, работников социальной сферы.

Такой подход усилил легитимность Основного закона и превратил его в документ, созданный непосредственно с участием народа. Это подчёркивает принцип демократизма, закреплённый в Конституции: *«Народ является единственным источником государственной власти».*

2. Принцип «человек — высшая ценность» как основание силы Конституции

Особое внимание в новой редакции уделяется защите прав человека. В Основной закон включён расширенный перечень социальных, экономических и личных прав. Среди наиболее значимых новшеств можно выделить:

-усиление гарантии неприкосновенности личности и защиты от произвола;

-расширение прав на образование, медицинскую помощь, социальное обеспечение;

-защита прав женщин, детей, пожилых людей и лиц с инвалидностью;

-закрепление обязательств государства по развитию доступной среды и инклюзивного общества.

Эти изменения отражают направленность государственной политики на формирование гуманистического общества, где права человека стоят в центре всех реформ.

3. Справедливость как ключевой принцип государственного управления

Конституция Нового Узбекистана усилила требования к прозрачности и подотчётности органов государственной власти. Справедливость в системе государственного управления выражается в нескольких направлениях:

Независимость судебной власти. Конституционно закреплены дополнительные гарантии независимого суда, повышение статуса адвокатуры и расширение механизмов защиты граждан.

Борьба с коррупцией. Принцип открытости деятельности государственных органов и усиление роли общественного контроля создают условия для сокращения коррупционных рисков.

Социальная справедливость. Особое место занимает развитие институтов махалли, через которые осуществляется поддержка социально уязвимых групп населения.

В результате справедливость становится не только морально-этическим ориентиром, но и реальным механизмом государственного управления.

4. Развитие гражданского общества и политическая модернизация

Обновлённая Конституция создаёт правовые условия для активизации гражданского общества. Расширены полномочия общественных организаций, профсоюзов и молодёжных движений. Закреплена независимость СМИ, обеспечена свобода выражения мнения, повышена роль политических партий в формировании государственной политики.

Важным аспектом является укрепление института махалли как формы самоуправления граждан. Махалли становятся связующим звеном между населением и государством, участвуют в решении вопросов социальной поддержки, профилактики правонарушений и местного развития.

Обсуждение результатов

Проведённый анализ показывает, что обновлённая Конституция представляет собой комплексный документ, учитывающий современные тенденции государственного строительства: цифровизацию, открытость, инновационную экономику, развитие человеческого капитала. Основной закон не только закрепляет фундаментальные права, но и предлагает механизмы их реализации.

Сила Конституции проявляется в её способности объединять общество вокруг общих ценностей, укреплять стабильность и направлять реформы. Справедливость же становится ключевым элементом доверия населения к государству.

Заключение

Конституция Нового Узбекистана является важнейшим этапом в развитии национальной государственности. Она отражает волю народа, задаёт стратегические ориентиры и формирует основы справедливого и сильного общества.

Её принятие стало доказательством того, что реформы в Узбекистане основаны на принципах открытости, диалога и уважения к человеку. Конституция не только определяет правовые нормы, но и служит моральным ориентиром будущего, где человек, его права и достоинство стоят на первом месте.

Таким образом, обновлённая Конституция по праву может быть названа **силой и справедливостью народа,** а также фундаментом развития Нового Узбекистана.

References:

1. Конституция Республики Узбекистан: текст, принятый всенародным голосованием на референдуме 30 апреля 2023г. [электронный ресурс]: lex.uz, constitution.uz.
2. Мирзиёев Ш.М. «Свободная и процветающая, демократическая страна Узбекистан».
3. Мирзиёев Ш.М. «Обеспечение законности и интересов человека»

KONSTITUTSIYA VA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNI AMALGA OSHIRUVCHI IDORALAR FAOLIYATINI BOG'LOVCHI AYRIM XUSUSIYATLAR

G'iyosov Bahriddin Hasan o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash jarayonida ishtirok etuvchi davlat idoralarining faoliyatini tartibga soluvchi konstitutsiyaviy asoslar hamda ularning o'zaro hamkorligiga xos bo'lgan muhim jihatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiyaviy xavfsizlik, jamoat xavfsizligini boshqarish, qonun ustuvorligi, idoralararo muvofiqlashtirish, xavfsizlik sektorini isloh qilish, inson huquqlarini himoya qilish, institutsional javobgarlik, raqamli politsiya faoliyati, jamoatchilikka yo'naltirilgan politsiya faoliyati, milliy barqarorlik, dalillarga asoslangan siyosat, inqirozlarni boshqarish asoslari.

Аннотация: В статье рассматриваются конституционные основы регулирования деятельности государственных органов, обеспечивающих общественную безопасность в Республике Узбекистан, а также важные аспекты их взаимного сотрудничества**.**

Ключевые слова: Конституционная безопасность, управление общественной безопасностью, верховенство права, межведомственная координация, реформа сектора безопасности, защита прав человека, институциональная подотчетность, цифровая полиция, полиция, ориентированная на сообщество, национальная устойчивость, политика, основанная на фактических данных, структуры управления кризисами.

Annotation: This article discusses the constitutional framework regulating the activities of state agencies involved in ensuring public safety in the Republic of Uzbekistan, as well as important aspects of their mutual cooperation.

Keywords: Constitutional security, public safety governance, rule of law, interagency coordination, security sector reform, human rights protection,

institutional accountability, digital policing, community-oriented policing, national resilience, evidence-based policy, crisis management frameworks.

O‘zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi Konstitutsiyasining 15-moddasida “Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar” degan norma mustaxkamlab qo‘yilgan bo‘lsa, 20-moddasida esa “Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun etarli bo‘lishi kerak” deyilgan.[1]

Shu munosabat bilan, bugungi kunning eng muhim muammolardan biri bu ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, va ularga rioya qilish bo‘yicha faoliyatida fuqaro, huquqlari va erkinliklarini ta’minlash masalasida yuridik fan va amaliyot oldiga shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyatini o‘rganish zarurati bilan bog‘liq bir qator aniq vazifalarni qo‘yadi.

Inson hayoti va xavfsizligiga bevosita tahdid bo‘lgan sharoitda inson huquqlarini ta’minlash, mamlakat konstitutsiyaviy tuzumining zo‘ravonlik bilan o‘zgarishi tahdidi favqulodda qonunchilikni qo‘llashga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini muayyan cheklashga, shuningdek inson huquqlarini himoya qilishni taqqazo etadi. Birinchisi, insonning, shaxsning huquqlari va erkinliklari eng zaif bo‘lgan bir paytda (qurolli isyon, ommaviy tartibsizliklar, terroristik harakatlar, ayniqsa muhim obektlarni yoki ayrim hududlarni to‘sib qo‘yish yoki tortib olish, noqonuniy qurolli tuzilmalarni qo‘lga olishga oid faoliyatni) zo‘ravonlik harakatlariga barham berish bilan birga fuqarolarning hayoti va xavfsizligiga, huquqni muhofaza qilish va boshqa davlat organlarining normal faoliyatiga tahdid, shuningdek tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarni)nazarda tutadi. Ikkinchi yo‘nalish qonun va tartib maqbul darajada mamlakat ichida vaziyatni normallashtirishda davlat manfaatlarini aks ettiradi (fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish uchun chora-tadbirlar).

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ekstremal, xavfli elementlarni o‘z ichiga olgan quyidagi tushunchalar mavjud: favqulodda vaziyat, xavfsizlikka tahdid, favqulodda holat, harbiy holat, baxtsiz hodisa, urush holati, terroristik harakatlar va antiterror tezkor tadbirlari, sabotaj va boshqalar. Ko‘pincha bunday holatlar va harakatlar “xavfli (issiq) joylar”deb nomlanadi.

Sovet davri va undan keyingi MDH mamlakatlari yuridik fanlarida maxsus huquqiy rejim tushunchasi turli jihatlarda ko‘rib chiqilgan. Keling, boshqa olimlar tomonidan eng keng tarqalgan yondashuvlarni ko‘rib chiqaylik. Huquqshunos olim

D.N. Baxraxning fikricha huquqiy rejim ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning maxsus tartibini anglatadi.[2] Ushbu tartib qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi va huquqiy, tashkiliy va maxsus usul va vositalar majmuini ifodalaydi. Ularning qo‘llanilishi o‘rnatilgan rejim yo‘naltirilgan obektlarning to‘g‘ri ijtimoiy-huquqiy holatini va davlat apparati, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy hokimiyat organlari elementlarining barqaror ishlashini ta’minlashga imkon beradi.

Huquq-tartibot organlariga zarur mudofaa choralarini zudlik bilan qo‘llash zarurati ularning va boshqa shaxslarning hayotiga yoki sog‘lig‘iga jiddiy zarar yetkazadigan vaziyatlarda namoyon bo‘ladi.[3]

Bir qator olimlarning ilmiy tadqiqotlarida huquqiy rejim-bu davlat, jismoniy shaxslar va jamiyatlarning yaxlitligi va xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan vaqtinchalik chora sifatida turli sharoitlarda joriy etilgan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini cheklashga imkon beradigan davlat boshqaruvining o‘ziga xos shakli deb hisoblashadi. Boshqalar esa huquqiy rejimga xos bo‘lgan bir qator xarakterli xususiyatlarni keltirishadi. Xususan, bu rejimni o‘rnatish (mustaxkamlash) va uni ta’minlash uchun davlatning maxsus vakolatlarini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, uning belgilardan biri “vaqtinchalik va ma’lum davr chegaralar ichida muayyan subektlar yoki huquq obektlarini vakolatlarini ta’kidlab, ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohalarini o‘ziga xos tarzda tartibga solish maqsadining mavjudligi”,[4] huquqiy rejimning muhim xususiyati uning maqsadi-barcha subektlarning manfaatlarini qondirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta’minlashdir degan fikrlarni bayon qilishadi. Alohida huquqiy rejimlarga berilgan xususiyatlar, shu rejimlarning xususiyati va mohiyatini to‘liq qamrab olgan va bu ta’rifga berilgan tushunchaga qo‘shilamiz.[5]

Tiyib turish va muvozanat mexanizmini yaratish va hokimiyatni suiste’mol qilishning oldini olish uchun, qonun chiqaruvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga vakolat berdi O‘zbekiston Respublikasida yoki uning ayrim hududlarida urush yoki favqulodda holat joriy etish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holatni joriy etish to‘g‘risidagi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 15-dekabrdagi 737-sonli “Favqulodda holat to‘g‘risida” Konstitutsiyaviy Qonuniga[6] va 2022-yil 17-avgustdagi O‘RQ-790-sonli “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunlariga[7] muvofiq kuchga kiradi.

Yuqorida keltirilgan qonunlarga binoan, favqulodda holat rejimini ta’minlash maxsus vakolati ijro etuvchi hokimiyat organlari sifatida - Milliy gvardiya, ichki ishlar organlari, Davlat xavfsizlik xizmati, favqulodda vaziyat vazirligi va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari belgilangan, shuningdek ularga yuklatilgan

vazifalar: favqulodda holat, harbiy holat va huquqiy rejimni ta’minlashda ishtirok etish, terrorizmga qarshi tezkor tadbirlarni amalga oshirish, yana ular faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlar asosida mazkur organlar zimmasiga yuklatilgan.

Tadqiqotchi N.G.Yangol ta’kidlaganidek, favqulodda holat instituti xorijiy va mahalliy qonunchilikda etarli darajada shakllantirilgan bo‘lib, unda aholiga haqiqiy tahdid, hududiy yaxlitlik yoki boshqa tahdidlar (har bir davlat favqulodda choralarni joriy etish bo‘yicha o‘z maqsadlarini belgilaydi) mavjud bo‘lganda favqulodda holat e’lon qiladi.[8]

Belgilangan Qonunchilik hujjatlarida huquqiy rejimning butun mamlakatda yoki uning alohida hududida joriy etish paytida favqulodda yoki harbiy holat sharoitida bir qator choralarini qo‘llashni nazarda tutadi. Konstitutsiyaviy qonun normalarida ichki ishlar va Milliy gvardiya idoralarining favqulodda holat rejimini ta’minlovchi subekt sifatidagi o‘rni alohida ko‘rsatilmagan, biroq chora-tadbirlarning bajarilishini ta’minlash uchun mas’ul bo‘lgan subektlar harbiy holatning huquqiy rejimining ba’zilari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ichki ishlar organlari vakolatlari sifatida, boshqalari esa bilvosita, yoki yordamchi (xavfsizlik) funksiya sifatida inson huquqlari va erkinliklarining ba’zi cheklovlarini qo‘llashda ishtirok etadilar. Favqulodda (harbiy) holat huquqiy rejimining asosiy chora-tadbirlari ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari komendantlik soati joriy etilishini ta’minlashda ishtirok etishni o‘z ichiga oladi. Bu erda ichki ishlar organlarining huquqni muhofaza qilish organi sifatidagi, uning asosiy vazifasi jamoat xavfsizligi va tartibini ta’minlash shakllaridan biri sifatida jamoat joylarida jamoat tartibini saqlashdir. Jamoat xavfsizligi va tartibini ta’minlash bo‘yicha ichki ishlar va Milliy gvardiya idoralari faoliyati amaliyotida favqulodda rejim sharoitida fuqarolarning hujjatlarini tekshirishning qonuniyligi haqida savol tug‘iladi, bu holat (masalan, nazorat punktidan o‘tish paytida hujjatlarni tekshirish) ushbu organlari xodimlari hujjatlarni majburiy tekshirish uchun qonuniy asoslar etarli emaslar. Albatta “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi qonunning 13-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining, chet el fuqarolarining, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning shaxsiy ko‘rigini, ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar tekshiruvini, ashyolarni, uy-joyni va transport vositalarini ko‘zdan kechirishni o‘tkazish” nazarda tutilgan bo‘lsada, biroq ushbu qonunda bunday tekshiruvlarni qaysi davlat organi tomonidan amalga oshirilishi aniq belgilab qo‘yilmagan, odatda bunday tekshiruvlarni tinchlik sharoitida ichki ishlar yoki milliy gvardiya organlari xodimlari amalga oshirishi xammaga ma’lum, ammo favqulodda holatlar sharoitida bunday tekshiruvlarni amalga oshiruvchi organ aniq belgilanishi joiz.

Shunday ekan, Respublikamizda jamoat xavfsizligini ta’minlashni amalga oshiruvchi huquqni muxofaza qilish oranlarining o‘qotar quroldan foydalanishi va

qo‘llashini tartibga soluvchi huquqiy xujjatlarni qayta ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi deb o‘ylaymiz.[9]

Nazarimizda amaldagi Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi yoki “Milliy gvardiya to‘g‘risida”gi qonunlarga favqulodda holatlarda bunday tekshiruvlarni ichki ishlar yoki milliy gvardiya organlari tomonidan amalga oshirilishi to‘g‘risidagi aniq qoidalar kiritilishi zarur.

Shunga ko‘ra, favqulodda hollarda ichki ishlar va milliy gvardiya xodimlari fuqarolar tomonidan norozilikni oldini olish va vaziyatdan chiqib ketish uchun va shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish to‘g‘risidagi so‘rovni yoki qonun talablarini ixtiyoriy ravishda bajarishlari uchun ko‘proq fuqarolarning vaziyatni jiddiy ekanligini tushinishiga va huquqiy ongiga tayanishlari lozim. Shu bois ham ushbu qoida qonunchilikka ayrim tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali takomillashtirishni talab qiladi. Birinchidan, bizning fikrimizcha, tekshirish jarayonini alohida bandlarga ajratish kerak biror kishini yuzaki tekshirish va narsalarni yuzaki tekshirishni, transport vositalari, bagaj va yuklarni tekshirishdan ajratish joiz, ikkinchidan, ularni tekshirish asoslari ro‘yxatini kengaytirish lozim.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida favqulodda holatlar sharoitida inson huquqlarini cheklash institutining o‘ziga xos qonuniyatlarini aniqlash imkonini berdi, Xususan, 2020-yilda COVID-19 infeksiyasining tez fursatda dunyo bo‘ylab tarqab ketishi natijasida O‘zbekiston Respublikasining butun hududida favqulodda vaziyat joriy etildi, shu favqulodda karantin choralari davrida jamoat joylarida sodir etilgan jinoyatlar va huquqbuzarliklar soni keskin kamayib ketganligi aniqlandi. Quyida COVID-19 infeksiyasi sabab respublikamizda joriy etilgan favqulodda vaziyat davrida jamoat joylarida sodir etilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi diagrammalarni keltirib o‘tamiz:

Ushbu diagrammadan ko‘rinib turibdiki favqulodda vaziyat rejimi amalda bo‘lgan 2020-yilda boshqa davrlarga nisbatan jamoat joylarida sodir etilgan jinoyatlar va huquqbuzarliklar soni keskin kamaygan. Bu ko‘rsatgichga ma’lum ma’noda inson huquqlarini cheklash bilan bog‘liq holatlar ta’sir ko‘rsatgan. Bir vaqtni o‘zida biz jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni sonini kamaytirish uchun inson huquqlarini cheklash lozim degan fikrdan yiroqdamiz[10].

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida (bundan buyon matnda - MJTK) favqulodda holatlarda xavfsizlik sohasida ma’muriy javobgarlikni belgilaydigan ayrim normalar mavjud. Bular sirasiga MJTKning 29-moddasi kiradi. Ushbu moddaning dispozisiyasiga ko‘ra:Ma’muriy qamoqqa olish uch sutkadan o‘n besh sutkagacha muddatga, favqulodda holat tartibi sharoitida esa, jamoat tartibiga tajovuz qilganligi uchun — o‘ttiz sutkagacha muddatga qo‘llaniladi. Ma’muriy qamoqqa olish jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudi tomonidan, favqulodda holat tartibi sharoitida esa, shuningdek harbiy komendant yoki ichki

ishlar organi boshlig‘i tomonidan qo‘llaniladi. Ushbu sohadagi ma’muriy javobgarlikning asosiy maqsadi turli turdagi favqulodda holatlarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan sharoitlarda xavfsizlikni ta’minlash, shuningdek favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish va ularning salbiy oqibatlarini minimallashtirish mexanizmini yaratish bo‘yicha ma’muriy-huquqiy chora-tadbirlar majmuini joriy etishni o‘z ichiga olgan favqulodda holatni joriy etishdir. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 9-yanvardagi O‘RQ-420-sonli “Ma’muriy qamoqni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi[11] qonuniga favqulodda holatlar sharoitida ichki ishlar organlarining xibsga olish qabulxonalarida alohida holat joriy etishni tartibga solish maqsadida uni yangi 10^1-modda “Maxsus qabulxonalarda alohida holat joriy etish” nomli norma bilan to‘ldirish to‘g‘risidagi takliflarni qo‘llab quvvatlaymiz. Unga ko‘ra Favqulodda vaziyatlar ro‘y bergan, maxsus qabulxona joylashgan hududda favqulodda yoki harbiy holat joriy etilgan hollarda, urush davri mobaynida, ma’muriy qamoqqa olinganlar tomonidan guruh bo‘lib bo‘ysunmaslik, shuningdek ommaviy tartibsizliklar sodir etilganda maxsus qabulxonalarda alohida holat joriy etilishi mumkin.

Maxsus qabulxonalarda alohida holat tegishincha O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri (respublikaning barcha hududlarida joriy etishda), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlarining O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar prokurorlari bilan kelishilgan holda alohida holat joriy etilishiga sabab bo‘lgan holat bartaraf etilgunga qadar joriy etiladi” degan.

Shu erda yana bir holatga izoh berib o‘tish joiz, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 29-moddasi dispozisiyasida favqulodda holat tartibi, shuningdek harbiy komendant yoki ichki ishlar organi boshlig‘i tomonidan belgilanadi-degan qoida kiritilgan, biroq 29-modda dispozisiyasida xarbiy komendant favqulodda holat subekti sifatida ko‘rsatilmagan. Shu munosabat bilan ma’muriy qamoq jazosi qo‘llashga vakolatli bo‘lgan organlar qatoriga MJTKning 29-moddasi dispozisiyasi talablaridan kelib chiqqan holda yangi 10^1-moddaga hamda O‘zbekiston Respublikasining “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi qonunining 20-moddasiga (Hudud komendanti) harbiy komendatni ham qo‘shib qo‘yilsa maqsadga muvofiq bo‘lgan bo‘lardi.

Tadqiqotchi A.V.Basovning ta’kidlashicha, ichki ishlar organlari tomonidan konstitutsiyaviy institut normalarini qo‘llash “fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishni cheklash” quyidagilar bilan bog‘liq huquqiy omillarga asoslanadi “qonuniy maqsadga intilish”, “jamoat zarurati”, “muhim maqsadga erishish uchun”, “mutanosiblik”, “mulohazakorlik”, “huquq yoki

erkinliklarni amalga oshirishga minimal darajada aralashish”. Fuqaroga inson huquqlari va erkinliklarini cheklash ichki ishlar organlariga faqat bunday cheklash qilmish og‘irlik darajasiga mos darajada o‘lchash (proporsional) sharti bilan ruxsat beradi.[12]

Favqulodda holat huquqiy rejimi davrida ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat xavfsizligi va tartibi sohasidagi yordamchi vakolatlariga quyidagilar kiradi: aholining hayotiy faoliyatini ta’minlaydigan infratuzilma obektlari va maxsus himoya rejimi faoliyatini kuchaytirish. Boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan bir qatorda ushbu idoralar vakillari fuqarolardan ma’lum bir joyni tark etishni va ma’lum bir hududga kirishni cheklashni talab qilishga vakolatli. Ushbu turdagi ma’muriy va huquqiy cheklovlarning inson va fuqarolik huquqlari va erkinliklariga nisbatan qo‘llanilishi fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan harakat erkinligi huquqini bilvosita cheklashiga olib keladi. Qo‘shimcha chora-tadbirlar qatoriga yana favqulodda holat rejimi sharoitida mulkni davlatning ehtiyojlari uchun majburiy begonalashtirishni ham o‘z ichiga olishi mumkin. Ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari bo‘linmalari, harbiy ma’muriyatlar yoki mahalliy hokimiyatlarning tegishli topshirig‘iga binoan, mavjud hisoblar va idoraviy ma’lumotlar bazalari ma’lumotlari asosida quyidagilarni taqdim etishi mumkin: fuqarolar va yuridik shaxslardan tegishli mol-mulkning muayyan davrda mavjud bo‘lishi, ularni qidirish, topish va hibsga olish va shunga o‘xshash narsalar mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar. Bunday holda, huquqni muhofaza qilish organining vakillari transport vositasining harakatlanishini cheklash yoki mulkga haqiqiy egalik qilishni cheklash kabi ma’muriy va huquqiy cheklovlarni qo‘llaydilar.

Shuning uchun, har qanday vaziyatda asos paydevori bo‘lgan asosiy konstitutsiyaviy prinsiplarni mensimaslik, demokratik, huquqiy davlatning mavjudligi, siyosiy, harbiy va boshqa maqsadga muvofiq zarurat bo‘lishiga qaramay, inson va fuqaroning asosiy huquq va erkinliklari buzish mumkin emas degan xulosaga kelish kerak. To‘g‘ridan - to‘g‘ri harakat normalarida qonun chiqaruvchi ikkita huquqiy rejimni-favqulodda holat va favqulodda vaziyat rejimini ajratib turadi, bu bizning davlatimizning huquqni muhofaza qilish organlari, shu jumladan ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari faoliyatiga ta’sir qiladi. Mazkur idoralar xodimlari tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarishda ma’muriy va huquqiy cheklovlarni qo‘llash ular oldiga qo‘yiladigan vazifalar va xizmat faoliyati davomida duch keladigan qiyinchiliklarga bog‘liq, bu holda ularni qo‘llashning qonuniyligi ham, ma’lum bir turni tanlash ham muhim ahamiyatga ega.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi Konstitutsiyasi. -T.: 2023.

2. Гиёсов, Б. (2020). Анализ концепций использования и применения огнестрельного оружиЙ. *Обшество и инновасии*, *1*(1/C), 405-413.

3. Гиёсов, Б. (2020). Анализ некоторих вопросов, исключаюших преступност деяния при обеспечении общественной безопасности. *Обшество и инновасии*, *1*(2/C), 124-130.

4. Гиясов, Б. (2023). Важност вопросов безопасности в насиональном законодательстве. *Реформи в сфере подготовки юридических кадров в Узбекистане: анализ результатов и перспективние задачи*, *1*(1), 180-185.

5. Гиясов, Б. (2024). Значение огнестрельного оружия в предотвращении криминогенного воздействия на общественную безопасность. *Обшество и инновасии*, *5*(1), 33-40.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.12.2021 y., 03/21/737/1163-son

7. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 2022 y., 03/21/737/1163-son

8. Гиёсов, Б. (2020). O‘qотар qуролдан фойдаланиш ва qo‘ллаш тушунчаларининг таһлили. *Обshество и инновasии*, *1*(1/s), 405-413.

9. Гиёсов, Б. (2020). Жамоат хавфсизлигини та’минлашда qилмишнинг жиноуат еканлигини истисно етувчи айрим масалалар таһлили. *Обshество и инновasии*, *1*(2/S), 124-130.

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995 y., 3-son.

11. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 2-son, 24-modda.

KONSTITUTSIYA – MAMLAKATIMIZDA TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING MUSTAHKAM POYDEVORIDIR

Irgashev Dilmurod Ikromovich,
Jamoat xavfsizligi universiteti
“Iqtisodiy fanlar” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d., (PhD) dotsent,
Zurapov Ali Utkirovich,
Jamoat xavfsizligi universiteti
“Iqtisodiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi, i.f.f.d., (PhD) dotsent.

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda olib borilayotgan Konstitutsiyaviy islohotlarning inson qadrini ulug’lash hamda ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Konstitutsiya, inson qadr-qimmati, ta’lim, bilim olish huquqi, dekloratsiya, ta’lim shakllari, ta’lim sifati, ta’lim islohotlari.

Аннотация. В данной статье освещается широкомасштабная работа, направленная на прославление человеческой ценности проводимых в стране конституционных реформ, а также на развитие системы образования.

Ключевые слова. Конституция, человеческое достоинство, образование, право на образование, декларация, формы образования, качество образования, реформы образования.

Annotation. This article highlights the large-scale work aimed at glorifying the human value of the constitutional reforms carried out in the country, as well as the development of the education system.

Keywords. Constitution, human dignity, education, right to education, declaration, forms of education, quality of education, education reforms.

Konstitutsiya bu – avvalo, haq-huquqlar kafolati demakdir. Shunday ekan, inson huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat sifatida qaror topgan jamiyatgina taraqqiyotga erishadi. Shu munosabat bilan, Yangi O‘zbekistonni barpo etishda, birinchi navbatda, ana shunday qadriyatlarni qaror toptirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni himoya qilishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektor faoliyatining ochiqligi va o‘zaro hamkorligi samaradorligini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, qonun ijodkorligi jarayonida fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuvlar o‘tkazish amaliyoti takomillashtirilyapti.

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga ham ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. 30 iyun O‘zbekistonda Yoshlar kuni sifatida keng

nishonlanmoqda. O‘zbekiston Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlari agentligi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Mahallalarda 10 ming nafar yoshlar yetakchisi o‘z faoliyatini boshladi. Yigit-qizlarning biznes tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar ajratish, kasb-hunarga o‘qitish, fermerlikni qo‘llab-quvvatlash, farzandlar ta’lim-tarbiyasi, ularni sog‘lomlashtirish va bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, “Yoshlar daftari” orqali ularga ko‘maklashish kabi yo‘nalishlarda davlat tomonidan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rilmoqda.

Insonning bilim olish huquqlarini ta’minlash maqsadida bir-biri bilan chambarchas bog‘langan ta’lim – maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalarini rivojlantirish bo‘yicha beqiyos o‘zgarishlar yuz bermoqda. 2025 yilga borib 3-7 yoshdagi bolalarning 80 foizini maktabgacha ta’lim bilan qamrab olishni nazarda tutadigan Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi hayotga joriy etilmoqda.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab berdi. O‘tgan qisqa davrda jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy manzarasi butunlay o‘zgardi. Erkinlik va ochiqlik, qonun ustuvorligi, jahon hamjamiyati bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik, “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyil davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishiga aylandi. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ilm-fan va ta’lim-tarbiya sohasini davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirishga qaratilgan, oilada farzand tug‘ilganidan boshlab, kamolot yoshiga yetgunga qadar uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o‘rin topishiga xizmat qiladigan yaxlit va uzluksiz tizim yaratilmoqda.

O‘zbekiston bugungi kunda o‘zi tanlagan taraqqiyot yo‘lini jadal rivojlantirish maqsadida dadil qadamlar tashlamoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-huquqiy islohotlarning amaliy ifodasi o‘laroq, Asosiy qonunimiz bo‘lgan konstitutsiyamizning yangi tahriri qabul qilindi. Bu shuni ko‘rsatadiki, konstitutsiyaviy islohotlar erishilayotgan taraqqiyot natijasi bo‘lib, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun juda muhimdir, ya’ni, adolatli jamiyat va ijtimoiy-huquqiy davlat qurish yo‘lidagi ulkan qadamlardir.

Konstitutsiya har bir taraqqiy etgan davlatning negizi bo‘lgan huquqiy, siyosiy va mafkuraviy hujjati – mamlakatning Asosiy qonuni hisoblanadi. Fuqarolarning barcha orzu-niyatlari, kafolatlangan huquqlari va hayotdagi oliy maqsadlari Konstitutsiyada to‘liq o‘zining ifodasini topmog‘i lozimdir.

Yangi tahrirda qabul qilingan konstitutsiyamizga qadar ham fuqarolarimizning asosiy huquq va erkinliklari va mustaqil demokratik davlatimiznig mustahkam huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilib kelgan. Shu bilan birga mustaqillik yillarida inson qadrini ulug‘laydigan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini

qurish maqsadida keng qamrovli islohotlar, bosqichma-bosqich yangilanishlar amalga oshirilgan bo‘lib, bu borada boy milliy va xalqaro tajribalar to‘plandi.

Binobarin, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday islohotlar odamlarimizning sha’ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari bundan buyon jamikiy sohalarda ustuvor ekanligini davlatimizning qat’iy qoidasiga aylantirish, bir so‘z bilan aytganda, “Inson qadri barcha narsadan ulug‘dir” deb atalayotgan ezgu g‘oyasini hamda bunday ulkan ishlarimizning bosh tamoyili bo‘lgan “Inson-jamiyat-davlat” degan yondashuvni yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatiga chuqur singdirilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Barchamizga ma’lumki mamlakatmizda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni [1] qabul qilindi. Shu ma’noda, mazkur Konstitutsiyaviy Qonunda inson huquqlari va ta’lim sohalari bilan bog‘liq ilg‘or konstitutsiyaviy normalar o‘z aksini topgan. Bu shuni ko‘rsatadiki, konstitutsiyaviy islohotlar erishilayotgan taraqqiyot natijasi bo‘lib, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniq belgilab olishimiz uchun juda muhimdir, ya’ni, adolatli jamiyat va ijtimoiy-huquqiy davlat qurish yo‘lidagi ulkan qadamlardir.

Shu munosabat bilan yurtimizda ta’lim sifatini yuqori darajaga olib chiqish, shuningdek, ta’lim tashkilotlarida tahsil olish istagidagi xotin-qizlar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning ilmiy salohiyati va malakasini tizimli oshirib borishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida hukumatimiz rahbari tomonidan “Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta’lim olishlarini qo‘llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” [3] gi qarori qabul qilindi.

Bunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [4] Farmoniga muvofiq, 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab respublikadagi barcha xususiy, xorijiy va davlat oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarida kunduzgi, sirtqi va kechki ta’lim shaklida xotin-qizlarning to‘lov-kontrakt asosida tahsil olishi uchun imtiyozli shartlarda ta’lim kreditlarini moliyalashtirish maqsadida banklarga Davlat budjetidan mablag‘ ajratishning yangi tizimi joriy etildi.

Qarordan ko‘rishimiz mumkinki, xotin-qizlarimizga ta’lim kreditlarining 14 foiz stavkada ajratilishi, uning asosiy qismi talabaning rasmiy o‘qish muddati tugagandan so‘ng yettinchi oydan boshlab 7 yil davomida qaytarilishi, ta’lim kreditini rasmiylashtirishda va uning qaytarilishida talabaning doimiy daromad manbaiga ega bo‘lgan oila a’zolari va boshqa uchinchi shaxs birgalikda qarz oluvchi sifatida qatnashishiga ruxsat etililishi hamda «Ijtimoiy himoya yagona reyestri»ga kirgan oilalarning xotin-qizlariga ajratiladigan ta’lim kreditlari uchun garov va kafilliklarning talab etilmasligi xotin-qizlarimizga yaratilayotgan o‘ziga xos

imkoniyatlarning yaqqol dalili desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuningdek, qonunchilikda respublika oliy ta’lim muassasalariga ajratilgan qo‘shimcha davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari doirasida oliy ma’lumot olish istagida bo‘lgan iqtidorli xotin-qizlarning tanlovda ishtirok etishi uchun tavsiyanomalar berilishi ham nazarda tutilgan.

Bu shuni ko‘rsatadiki, ayollarga sifatli ta’lim olishlari uchun ko‘rsatilayotgan bunday e’tibor va g‘amxo‘rliklar, mamlakatimizda «Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi» sari tamoyili asosida ulug‘ maqsadlarni ko‘zlab amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida Vatanimiz ravnaqi va taraqqiyoti yo‘lida g‘ayratli, o‘z kelajagiga bee’tibor bo‘lmagan opa-singillarimizning yanada faol ishtirok etishlari hamda o‘zlarinig munosib hissalarini qo‘shishlariga zamin yaratadi.

Yana bir ahamiyatga molik yangilik shundaki, 2023 yildan boshlab, magistraturada o‘qiyotgan qizlarning kontrakt pullari to‘liq budjetdan qoplab berilishi hamda ta’lim kontraktlarini to‘lash uchun qizlarga ilk marotaba 7 yil muddatga foizsiz kredit berish tizimining joriy etilishi bo‘ldi. Ushbu tashabbus minglab oilalar va ularda istiqomat qilayotgan xotin-qizlarning ko‘ngliga quvonch va yorug‘lik olib kirdi. Sababi, bugungi kunda ming afsuski, oilada va jamiyatda zo‘ravonlikka uchrab kelayotgan xotin-qizlarning ko‘pchiligi, hayotda o‘z kasbiga ega bo‘lmagan, o‘qimagan ayollar bo‘lib qolmoqda. Endilikda, o‘qib ta’lim olish hamda o‘zi qiziqqan sohaning yetuk mutaxassisi bo‘lishni istagan har bir xotin-qiz ta’lim olib o‘z kelajagini qurish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, bo‘lajak onalarimizning bilimli va dunyoqarashi keng shaxs sifatida tarbiyalanishi, bizning buyuk xalq bo‘lib shakllanishimizda, O‘zbekiston o‘z oldiga maqsad qilgan Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ertangi kunimizning egalari bo‘lgan yoshlarni har tomonlama yetuk bo‘lib tarbiyalanishida onalarimizning o‘rni beqiyosdir.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunining 50-moddasida ta’lim olish huquqi aks etgan bo‘lib, unga yangidan kiritilgan qo‘shimcha to‘rtta norma bilan (eski konstitutsiyaning 41-moddasida uchta norma edi, yangisida jami yettita) mustahkamlanganligi, O‘zbekiton xalqining adolatli va sifatli ta’lim olish huquqlarining mustahkam kafolati bo‘ldi desak, ayni haqiqatdir. (50-modda [1]. Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi. Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim majburiydir. Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta

ta’lim davlat nazoratidadir. Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi).

Insonning ta’lim olish huquqi – ta’limning ajralmas qismi hisoblanadi, jumladan, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” [5] ning muqaddimasida har bir inson va jamiyatning har bir tashkiloti doimo ma’rifat va ta’lim yo‘li bilan inson huquq va erkinliklarining hurmat qilinishiga ko‘maklashishi zarurligi ta’kidlangan. Deklaratsiyaning 26-moddasida har bir inson ta’lim olish huquqiga ega ekanligi, ta’lim inson shaxsini to‘la barkamol qilishga va inson huquqlari hamda asosiy erkinliklariga nisbatan hurmatni kuchaytirishga qaratilmog‘i lozimligi qayd etilgan. Shu normalardan ham yaqqol ko‘rinib turibdiki, ma’rifat va ta’lim – inson huquqlari jamiyatda hurmat qilinishini ta’minlashning eng muhim omillaridan sanaladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti inson huquqlari bo‘yicha ta’limni amalga oshirish va qo‘llab-quvvatlashda jahon miqyosida yetakchi rol o‘ynaydi. BMT shafeligida 1993 yilda Vena shahrida o‘tkazilgan Inson huquqlari bo‘yicha butunjahon konferensiyasida inson huquqlari sohasidagi ta’lim va ma’rifatga alohida e’tibor qaratilib, ko‘plab muhim takliflar ilgari surilgani va ular asosida keyingi 30 yilda muhim ishlar amalga oshirilgani fikrimizni tasdiqlaydi.

Bugungi kunda dunyodagi barcha davlatlarda inson huquqlari bo‘yicha sifatli ta’limni amalga oshirish masalasi tobora dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Bunda inson huquqlari bo‘yicha ta’lim jamiyatda inson huquqlari madaniyatini rivojlantirishning samarali strategiyasi sifatida e’tirof etilayotgani e’tiborga sazovordir.

Muxtasar aytganda, yoshlarning sifatli ta’lim olishi va yetuk kadr bo‘lib yetishishlariga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ular tomonidan erishilayotgan yutuqlar salmog‘i ham kundan-kunga oshib bormoqda. Bu yutuqlar, huquq va erkinliklar hamda imkoniyatlardan nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlarimiz ham foydalanishi uchun ular yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yildi. Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda inson huquqlari bo‘yicha sifatli ta’lim va xalq manfaatlarining mustahkamlanishini konstitutsiyaviy asosda kafolatlash imkonini berdi.

Quyida ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha bir nechta yo‘nalishda istiqbolli takliflarni keltirib o‘tamiz, bu esa mamlakatimizda ta’lim tizimining ma’lum darajada oshishiga zamin yaratadi:

Talabalarning sifatli bilim olishlari uchun bugun yetarlicha motivatsiyani shakllantirish lozim. Bunda,

- shaxsiy ta’lim yo‘l xaritalari: har bir talabaning qobiliyati va qiziqishiga qarab individual o‘quv reja tuzish;

- STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Math) yondashuvini keng joriy etish;

- tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiruvchi fanlar (debat, innovatsiya loyihalari, dizayn fikrlash)ni o‘quv dasturlariga kiritish.

Raqamli ta’limni chuqurlashtirish zarur. Bunda,

- barcha ta’lim muassasalarida raqamli platformalar va sun’iy intellekt yordamidagi o‘qitish tizimlarini joriy etish;

- AR/VR (qo‘shimcha va virtual reallik) texnologiyalari asosida fanlarni interaktiv o‘qitish;

- onlayn kurslar va masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish (maxsus davlat platformalari orqali).

O‘qituvchilar malakasini oshirish muntazam oshirib boorish. Bunda,

- o‘qituvchilar uchun innovatsion pedagogika markazlari tashkil etish;

- xalqaro stajirovkalar va tajriba almashish dasturlarini joriy etish;

- mashinali o‘qitish va AI vositalaridan foydalanish bo‘yicha muntazam kurslar tashkil etish.

Ta’lim va mehnat bozori integratsiyasini mustahkamlash. Bunda,

- Oliy ta’lim muassasalarini ishlab chiqarish korxonalari bilan kooperatsiyaga kiritish;

- “Dual education” (ikki yo‘nalishli ta’lim) tizimini keng joriy etish: talabalar bir vaqtning o‘zida o‘qish va ish tajribasi ortiradi;

- bozor ehtiyojlariga mos yangi mutaxassisliklar va fanlarni kiritish.

Milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillarni uyg‘unlashtirib borish. Bunda,

- dars mazmunlariga ma’naviy tarbiya, vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini kiritish;

- ta’lim va madaniyat integratsiyasini kuchaytirish — muzeylar, teatrlar, kitobxonlikni ta’lim tizimi bilan bog‘lash;

Jonajon O‘zbekistonimizning yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasining bugungi kunda qonun ustuvorligi va inson haq-huquqlarini ta’minlashga qaratilgan islohotlar bundan keyin ham davom etadi. Darhaqiqat, ko‘lami va miqyosi tobora kengayib borayotgan bunday amaliy ishlar Yangi O‘zbekistonni barpo etish, mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish, Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligini oshirishdek ezgu maqsadlarga uyg‘un va hamohang bo‘lib, barcha yurtdoshlarimizni ana shu g‘oyalar atrofida yanada birlashtirishga xizmat qilayotgani, ayniqsa, e’tiborlidir. Bularning barchasi inson huquqlari sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishiga, O‘zbekistonda inson qadrini yuqori darajalarga ko‘tarilishi hamda odamlarimizning qonuniy haq-huquqlari va manfaatlarini munosib himoya qilinishini kafolatlaydigan xalqchil Konstitutsiyamizga bo‘lgan ishonchning ortishiga, shu bilan birga jamiyatda qonun

ustuvorligi ta’minlanishiga mustahkam zamin yaratmoqda. Shu o‘rinda aytish joizki, xalqimiz har qanday qiyinchilikka bardosh berishi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi. Tabiiyki, qonun ustuvor jamiyatda adolat qaror topadi, xalq davlatdan rozi bo‘ladi, jamiyat taraqqiyot va yuksalish sari ildam qadamlar tashlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni 2023-yil 1-may, O‘RQ-837.

2. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.10.2019 y., 06/19/5863/3979-son; 13.11.2020 y., 06/20/6110/ 1512-son; 17.03.2021 y., 06/21/6188/0216-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 18-iyul kuni “Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta’lim olishlarini qo‘llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-323-son qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni.

5. BMT Bosh Assambleyasining 1948 yil 10 dekabrdagi “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ni qabul qilish haqidagi 217 A (III) Rezolyutsiyasi.

6. https://yuz.uz/uz/news/referendum-nima

7. https://www.gazeta.uz/oz/2023/03/27/referendum/

8. https://advice.uz/oz/document/2899

9. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Referendum

ДАВЛАТ ХИЗМАТИ, ОЧИҚЛИК ВА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ: КОНСТИТУЦИЯ АСОСИДА КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ МИЛЛИЙ МОДЕЛИ

Нурмуҳаммедова Гўзалхон Баҳодировна,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети Жиноий-ҳуқуқий фанлар кафедраси доценти,
юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

Аннотация: Мазкур мақолада Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Конституцияси коррупцияга қарши курашнинг асосий ҳуқуқий пойдевори сифатида таҳлил қилинган. Давлат хизматида шаффофлик, ҳисобдорлик ва қонун устуворлигини таъминловчи конституциявий нормаларнинг моҳияти очиб берилган. “Ўзбекистон – 2030” стратегиясидаги коррупцияга қарши вазифалар, давлат харидларида очиқлик, норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг коррупцияга қарши экспертизаси, комплаенс-назорат тизимлари ва коррупция учун жавобгарлик статистикаси долзарб масала сифатида ёритилган. Шунингдек, давлат хизматининг институционал ислоҳотлари ва жамиятда коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни шакллантириш механизмлари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Конституция, коррупция, қонун устуворлиги, давлат хизмати, очиқлик, ҳисобдорлик, “Ўзбекистон–2030”, комплаенс, коррупцияга қарши сиёсат, CPI индекси.

Аннотация: В статье рассматривается новая редакция Конституции Республики Узбекистан как ключевая правовая основа национальной антикоррупционной политики. Анализируются конституционные принципы законности, прозрачности, подотчётности и справедливости, формирующие механизм противодействия коррупции. Особое внимание уделено задачам Стратегии «Узбекистан–2030», антикоррупционной экспертизе нормативных актов, внедрению комплаенс-контроля, цифровизации государственных услуг и открытости государственных закупок. Приведены актуальные статистические данные о коррупционных преступлениях и подчёркнута роль институциональных реформ в укреплении доверия общества к государству и правовой системе.

Ключевые слова: Конституция, коррупция, верховенство закона, государственная служба, прозрачность, подотчётность, Стратегия–2030, комплаенс-контроль, антикоррупционная политика, CPI.

Abstract: This article examines the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan as the primary legal foundation of the national anti-corruption framework. It highlights constitutional principles of legality, transparency,

accountability and integrity, which underpin the state's mechanisms for preventing and combating corruption. The analysis covers key objectives of the "Uzbekistan–2030" Strategy, anti-corruption expertise of legislation, compliance systems, digitalization of public services and transparency in public procurement. Recent statistical data on corruption-related offenses are presented, emphasizing the significance of institutional reforms for strengthening public trust and ensuring sustainable development.

Key words: constitution, corruption, rule of law, public service, transparency, accountability, Uzbekistan–2030, compliance, anti-corruption policy, CPI index.

Ўзбекистон Республикасининг Янги таҳрирдаги Конституцияси мамлакатда ҳуқуқ устуворлиги, давлат хизматининг шаффофлиги ва жамият олдида ҳисобдорликни таъминлашга қаратилган коррупцияга қарши миллий сиёсатнинг энг муҳим ҳуқуқий негизи ҳисобланади. Конституцияда ифода этилган демократия, очиқлик, адолат ва қонунийлик тамойиллари коррупцияга қарши курашнинг концептуал ва институционал пойдеворини белгилаб беради.

Ўзбекистон Республикасининг Янги таҳрирдаги Конституцияси давлат хизмати, очиқлик ва қонун устуворлиги каби тамойилларни мустаҳкамлайди. Муқаддимада «инсонпарвар демократик давлатни, очиқ ва адолатли жамиятни барпо этиш» назарда тутилган. Конституциянинг 2-моддасида «Давлат халқ иродасини ифода этган ҳолда унинг манфаатларига хизмат қилади»[1] дейилади, бу давлатнинг аҳоли манфаатига хизмат қилиш ва жамият олдида масъулиятли эканини таъкидлайди. Шунингдек, 14-моддада давлатнинг фаолияти *қонунийлик* ва ижтимоий адолат принципларига асосланганлиги қайд этилган. Конституциянинг 15-моддаси қонун ва конституциянинг олий ҳуқуқий кучга эга эканлиги белгиланган бўлса, 16-модда эса қонун нормаларининг конституцияга зид бўлмаслиги шарт қиларади[1].

Конституцияда биринчи марта очиқлик ва ҳисобдорлик принциплари алоҳида устувор йўналиш сифатида ҳуқуқий мустаҳкамланди. Давлат бюджети очиқлиги, ижро ҳокимияти фаолиятида шаффофлик ва коррупцияга қарши чоралар кўриш мажбурияти конституциявий даражада белгилаб қўйилиши – коррупцияни бартараф этишда ҳуқуқий кафолатларнининг янги босқичига қадам қўйилганини англатади.давлат бюджетини шакллантириш «очиқлик ва шаффофлик принциплари асосида» амалга оширилиши, давлат органларинингдек халқ олдида ҳисобдорлиги, ижро ҳокимияти фаолиятида очиқлик ва коррупцияга қарши чоралар кўриши давлатнинг асосий вазифаси этиб белгилаб қўйилган (115-модда, 10-банд). Шу билан бирга, янги таҳрирдаги Конституция давлат хизмати тизимини замонавий, масъулиятли ва самарали институт сифатида шакллантиришга йўналтирилган бўлиб, коррупция

хавфларини камайтириш учун ҳуқуқий, ташкилий ва маъмурий механизмларнинг мустаҳкамланишига хизмат қилади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2025 йил 5 март кунидаги Коррупцияга қарши курашиш миллий кенгаши йиғилишидаги нутқида “Ислоҳотлар йўлидаги энг катта тўсиқ ва ғов — бу коррупциядир. Буни дунё тажрибаси ҳам тўлиқ тасдиқлайди. Коррупция оқибатида жаҳон иқтисодиёти йилига 3 триллион доллар зарар кўраётгани бу глобал хавф эканидан далолат. Коррупция шундай ёвуз иллатки, у халқнинг давлатга, Конституция ва қонунларга ишончига путур етказади, барқарор ривожланиш ва хавфсизлик учун жиддий таҳдидга айланади”[2], дея алоҳида таъкидлаб ўтдилар.

“Ўзбекистон – 2030” стратегияси мамлакатнинг узоқ муддатли барқарор тараққиётини таъминлашга қаратилган концептуал дастур бўлиб, унда инсон манфаатлари, давлат бошқаруви самарадорлиги ва қонун устуворлигини кучайтириш устувор йўналиш сифатида белгиланган. Ушбу стратегия нафақат иқтисодий ва ижтимоий соҳаларни қамраб олади, балки давлат бошқарувида шаффофлик, ҳисобдорлик ва адолат тамойилларини мустаҳкамлаш орқали коррупцияга қарши тизимли курашни ҳам назарда тутади.

Стратегиянинг 89-мақсади — “Коррупциявий омилларни бартараф этиш тизимининг самарадорлигини ошириш, жамиятда коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни шакллантириш ишларини жадал давом эттириш”[3] — мамлакатда амалга оширилаётган ҳуқуқий ислоҳотлар тизимида фундаментал аҳамият касб этади. Бу мақсад миллий тараққиётнинг барча соҳаларида ҳалоллик, очиқлик ва қонун устуворлигини таъминлашни стратегик вазифа сифатида белгилайди.

Мақсаднинг илмий-қонуншунослик жиҳатдан аҳамияти шундаки, у коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги давлат сиёсати ва жиноят-ҳуқуқий тизимнинг энг устувор йўналишларини белгилаб берувчи методологик асос бўлиб хизмат қилади. Хусусан, унда белгиланган вазифалар —

- “Transparency International” ташкилоти томонидан эълон қилинадиган Коррупцияни қабул қилиш индексида (CPI) камида 50 поғонага кўтарилиш;
- давлат харидларида шаффофликни таъминлаш ва тўғридан-тўғри шартномалар орқали маблағларни талон-торож қилиш ҳолатларини икки баробарга камайтириш;
- барча норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни “коррупциядан холи қонунчилик” тамойили асосида ишлаб чиқиш — ҳам илмий-тадқиқот нуқтаи назаридан, ҳам ҳуқуқий амалиётда тадқиқ этиш учун муҳим манба ҳисобланади.

Сўнгги йилларда коррупцияга қарши ислоҳотлар доирасида ҳуқуқий базани такомиллаштиришга катта эътибор қаратилган. 2017 йилда қабул қилинган “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонун[4] коррупция тушунчасини аниқлаб, жиноят ва ҳуқуқбузарликлар билан мувофиқликни белгилайди. Шу билан бирга, ишни мувофиқлаштирувчи қатор Президент фармон ва қарорлари қабул қилинди: 2017 йилда Президент фармони билан ислоҳот дастури тасдиқланиб, амалга ошириш чоралари белгиланди; 2019 ва 2020 йилларда коррупция тизимини янада такомиллаштириш бўйича янги фармонлари (PF-5729, PF-6013) қабул қилинди. 2020 йил 29 июнда Президент қарорлари билан махсус коррупцияга қарши курашувчи орган – Коррупцияга қарши курашиш агентлиги[5] таъсис этилди.

Бундан ташқари, ички назорат механизмлари кучайтирилди: бир қатор давлат идораларида ичкарги текширув — комплаенс тизимлари йўлга қўйилди. Шу билан бирга, «Ҳуқуқий ҳужжатларнинг коррупцияга қарши экспертизацияси тўғрисида»ги қонун[6] (2023) қабул қилиб, қонун лойиҳаларида коррупцион хавф омилларини ўрганиш тизими жорий этилди.

Янги Ўзбекистонда коррупцияга қарши давлат сиёсати устувор мавзулардан бири ҳисобланади. Президент Ш.Мирзиёевнинг 2023–2025 йиллардаги чиқишларида коррупцияга қарши кураш юқори даражада муҳимлиги алоҳида таъкидланаётгани кузатилади. Хусусан, барча давлат идораларида комплаенс-чиқиш ва рақамли тортиш тизимлари жорий этилган, давлат харидлари тўлиқ рақамлаштирилган эканлиги алоҳида қайд этилди.

Сўнгги йилларда коррупцияга оид жиноятлар ва қонуний жазолаш жараёни аниқ рақамлар билан акс эттирилмоқда. Масалан, 2024 йилда мамлакат бўйича судлар томонидан 4 649 та жиноят иши бўйича жами 7 354 нафар шахс коррупцияга оид қилмишлар учун жавобгарликка тортилган ва шу фаолият оқибатида давлат манфаатларига 2,812 трлн сўм миқдорида зарар етказилганлиги маълум қилинди[7]. Ушбу жараёнларда ишга жойлаштириш, банк кредитлари ажратиш ёки бюджет маблағларини тақсимлаш каби ишлар билан боғлиқ жиноятлар аниқланганлиги қайд этилган (масалан, ишга жойлаштириш билан боғлиқ 123 та, кредитлар билан боғлиқ 292 та, бюджет билан боғлиқ 640 та ҳолат)[7]. Давлат органлари маълумотларида мактабгача ва умумий ўрта таълим тизимида коррупция ҳолатларининг энг кўп рўй берилганлиги таъкидланади: бу соҳада 654 нафар шахс коррупция учун айбланиб, умумий ҳолатнинг энг катта қисмини ташкил қилган[7]. Буюк Британия ва АҚШнинг танловлари каби масалалар мактабгача таълим соҳасида шаффофлик етишмаслиги билан боғлиқ эканлиги шарҳланган.

Transparency International ташкилоти таъкидлашича, коррупция «ҳар қандай соҳа»да — бизнесдан бошлаб жамоат хизматига қадар, жумладан соғлиқ

ва таълим тизимида ҳам юз беради[8]. Бу умумий тамойилга кўра, Ўзбекистонда ҳам анъанавий равишда таълим ва соғлиқни сақлаш тизими коррупция хавфи юқори бўлган соҳалардан саналади. Умуман, мавжуд статистик маълумотлар ва халқаро индекслар (Transparency International рейтинги) ҳақиқий вазиятнинг бир қисмини кўрсатади: масалан, республиканинг очиқлик индексида Ўзбекистон жадвалда сезиларли даражада яхшиланган қайд этилган[9].

Коррупция тушунчасини илмий таърифлашда баҳс-мунозаралар давом этмоқда. Амалда Ўзбекистон қонунларида коррупция давлат ваколатини шахсий манфаатлар йўлида суиистеъмол қилиш сифатида тартибга солинади[4]. Бироқ олимлар коррупция формаларини кенгроқ талқин қилишни истайдилар: масалан, лоббизм ёки протекционизм каби ҳолатлар ҳам коррупцион омил бўлиши мумкинлиги қайд этилади. Transparency International ташкилоти коррупцияни «ишониб топширилган ваколатни шахсий манфаат учун суиистеъмол қилиш» деб аниқлайди[11]. Бу таърифдан келиб чиқиб, коррупциянинг умумий ва иқтисодий оқибатлари ҳақида кенг тушунча олиб борилади. Илмий муаллифлар таъкидлашича, коррупция фақат қонунбузарлик шаклида эмас, балки оддий сармоядорлик операцияларидаги «қулчалар билан келадиган тузукликлар» орқали ҳам намоён бўлиши мумкин. Масалан, Япония қонунчилигида коррупция тушунчаси асосан давлат мансабдорларининг пора олиши ва ваколатини суиистеъмол қилиши орқали «ишониб топширилган ҳокимиятни шахсий манфаатга суиистеъмол этиш» сифатида қаралади[12].

Юридик ва иқтисодий таҳлилларга кўра, коррупция тушунчасини қонуний жиҳатдан кенгайтириш ва унга қарши чоралар самарадорлигини ошириш зарур. Масалан, амалдаги таърифларда лоббизм, протектионизм ва оилавий ёки таниш-билишчиликка асосланган фаворитизм каби ҳолатлар қамраб олинмаган, бу коррупциянинг бошқа кўринишларини ичга олиши лозимлиги таъкидланади. Шунингдек, таълим ва соғлиқни сақлаш каби ижтимоий ҳимоятга муҳтож соҳаларда коррупция даврдан даврга авж олиб, бюджет маблағлари тақсимотида шаффофлик танқислиги қайд этилади.

Ҳуқуқий фан ва қонунчилик амалиётида "коррупция" тушунчаси квалификация қилувчи белги сифатида, шунингдек, "коррупцияга оид жиноят" тушунчаси мустақил жиноий-ҳуқуқий категория сифатида аниқ белгиланмаган. Шу муносабат билан, коррупцияга оид жиноятларни квалификация қилиш масаласи жиноят ҳуқуқи нормаларига асосланган аниқ ва мукаммал ёндашувни талаб қилади. Зеро, жорий йилнинг 5 март куни Шавкат Мирзиёев раислигида Коррупцияга қарши курашиш бўйича миллий кенгаши йиғилишида ҳам “...ҳозирда қонунчиликда коррупциявий жиноятларнинг аниқ рўйхати йўқлигига эътибор қаратилган”[14].

“Коррупцияга оид жиноятлар” тушунчаси, турлари ва таснифига оид олимларнинг қарашлари ҳам турлича. Хусусан, Қ.Р.Абдурасулова “Коррупцияга оид ҳуқуқбузарликлар деганда, давлат органи ваколатини бажарувчи ёки унга тенглаштирилган шахс ўз хизмат лавозимидан ёки давлат органи мақомидан фойдаланиб моддий манфаат ва устунлик олиш учун содир этган ҳуқуққа хилоф хатти-ҳаракатлар”[15] сифатида таърифланган бўлса, Р.Р.Газимзяновнинг фикрича “коррупцион жиноятлар - бу фақатгина криминологик категория сифатида қаралиб, бир қатор ўзаро боғлиқ коррупцион жиноятлар мажмуида ифодаланади”[16]. Шунингдек, у бир қатор коррупцион жиноятларни таҳлил қилиши натижасида коррупцион жиноятлар - бу тарихий ўзгарувчан ҳодиса эканлиги, ўз-ўзидан унга нисбатан давлат ва жамиятнинг муносабати ҳам ўзгаргариши мумкин[16] деган хулосага келган.

И.А.Савенко таъкидлаганидек, коррупциявий жиноятларнинг жиноят-ҳуқуқий тавсифи коррупцияга қарши курашишнинг назарий ва амалий тизимидаги энг муҳим таянч элементлардан бири ҳисобланади. Бундай тавсиф фақатгина ушбу жиноятларнинг асосий аломатларини аниқлашга ёрдам берибгина қолмай, балки уларни объектив ёки субъектив жиҳатлари ўхшаш бўлган бошқа ҳуқуқбузарликлардан самарали ажратиш имконини беради[17].

И.А.Савенко ушбу жиноятларнинг асосида қуйидаги муҳим белгилари ажратади:

- ғаразгўйлик — моддий ёки номоддий манфаат кўриш нияти;
- давлат ишончини суиистеъмол қилиш — фуқаролар, ташкилотлар ва давлат органлари ишончини йўқотишга олиб келадиган хатти-ҳаракатлар;
- жамият манфаатларига қарши ҳаракат — давлат ва жамият томонидан ҳимоя қилинадиган манфаатларнинг бузилиши;
- мансаб ваколатларини қасддан қонунга хилоф фойдаланиш — шахс ўз вазифаларини адолатли ва холис бажариш ўрнига, улардан шахсий ёки бошқа фойда кўриш учун фойдаланади[17].

"Коррупция" ва "коррупцияга оид жиноят"лар каби ҳуқуқий тушунчаларни унификация қилиш ва уларни аниқлаштириш, коррупцияга қарши профилактика ва жиноий жазо механизмларининг самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Коррупцияга қарши халқаро ҳуқуқий механизмларнинг таҳлили шуни кўрсатадики, ушбу соҳада бир қатор муҳим халқаро-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинган бўлиб, улар коррупцияга қарши курашишда давлатларнинг ўзаро ҳамкорлиги ва миллий қонунчиликни такомиллаштиришга хизмат қилади.

Деярли барча халқаро ҳуқуқий ҳужжатларда коррупцияга оид жиноятлар тоифаси белгилаб берилган. Жумладан, БМТнинг 2003 йил 31 октябрдаги Коррупцияга қарши кураш тўғрисидаги Конвенцияси[18]нинг 15-25-

моддаларида, Европа Кенгаши томонидан 1999 йил 27 январда қабул қилиниб, 2000 йил 1 июлдан кучга кирган «Коррупция учун жиноий жавобгарлик тўғрисида»ги Конвенция[19]нинг 2-15-моддаларида, Америка Давлатлари Ташкилоти томонидан 1996 йил 26 мартда қабул қилинган «Коррупцияга қарши Америка-давлатлараро Конвенция»си[20]нинг 6-моддасида алоҳида мустаҳкамланиб қўйилган.

Хусусан, 2003 йил 31 октябрда БМТ Бош Ассамблеясининг 58/4-резолюцияси билан қабул қилинган Коррупцияга қарши Конвенция[21]си коррупцияга оид жиноятнинг турли шаклларини, жумладан, ғаразли мақсадда мансаб ваколатини суиистеъмол қилиш, хизмат лавозимини суиистеъмол қилиш, ноқонуний бойлик орттириш, порахўрлик, хусусий секторда мулкни ўзлаштириш ва растрата қилиш, жиноий йўл билан топилган мулкни легаллаштириш, жиноий йўл билан топилган мулкни яшириш, одил судловни амалга оширишга тўсқинлик қилиш кабиларни мустаҳкамлайди.

Шунингдек, 1996 йил 16 декабрда БМТ Бош Ассамблеясининг 51/191-резолюцияси билан қабул қилинган Халқаро тижорат операцияларида коррупция ва порахўрликка қарши курашиш тўғрисидаги Декларация халқаро савдо муносабатларида коррупциянинг салбий оқибатларини камайтиришга қаратилган.

Европа Кенгаши ҳам коррупцияга қарши курашиш бўйича муҳим халқаро-ҳуқуқий механизмларни шакллантирган. Жумладан, Европа Кенгашининг 1999 йилги "Коррупция учун жиноий жавобгарлик тўғрисидаги Конвенцияси" коррупция билан боғлиқ жиноятларни, хусусан, порахўрлик (пассив ва актив пора бериш), мансаб ваколатларидан шахсий манфаатлар йўлида фойдаланиш, коррупция билан боғлиқ жиноятлардан тушган даромадларни легализация қилиш ва банк ҳисобварақларига оид жиноятлар бўйича жазо чораларини белгилайди**.**

Америка давлатлари ташкилоти (АДТ) томонидан 1996 йил 26 мартда қабул қилинган Ҳамамерика коррупцияга қарши курашиш Конвенцияси ҳам коррупциянинг турли кўринишларини, жумладан, *порахўрлик (подкуп), мансаб ваколатларидан шахсий манфаат йўлида фойдаланиш (использование служебного положения в корыстных целях)* ва коррупция билан боғлиқ бошқа жиноятларни бартараф этишга қаратилган халқаро-ҳуқуқий воситаларни белгилайди.

1996 йил 16 декабрда 51/191-резолюцияси билан қабул қилинган Халқаро тижорат операцияларида коррупция ва порахўрликка қарши курашиш тўғрисидаги Декларацияси[22], 2000 йил 15 ноябрда 55/25-резолюцияси билан қабул қилинган Трансмиллий уюшган жиноятчиликка қарши Конвенцияси[23] ва Европа Кенгашининг 1999 йил 4 ноябрдаги Коррупция учун фуқаролик-

ҳуқуқий жавобгарлик тўғрисидаги Конвенция[24]си фақат порахўрлик учун жавобгарлик белгиланган.

“Коррупцияга қарши сиёсат тўғрисидаги қонунчилик асослари тўғрисида”ги Модель қонунига мувофиқ, 2003 йил 15 ноябрда МДҲга аъзо давлатлар Парламентлараро Ассамблеясининг 22-15-сон қарорига кўра коррупциявий ҳуқуқбузарликлар сифатида коррупция аломатларига эга бўлган фуқаролик-ҳуқуқий деликтлар, интизомий хатолар, маъмурий ҳуқуқбузарликлар, шунингдек, жиноятлар эътироф этилади.

Ушбу таснифдан келиб чиқиб, биз ҳам коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларни: коррупцияга оид қилмишлар ва коррупцияга оид жиноятлар сифатида таснифлаш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз, яъни:

коррупцияга оид қилмишлар — бу давлат хизматчилари томонидан ўз хизмат мажбуриятлари, манфаатлар тўқнашувини тартибга солувчи меъёрлар, одоб-ахлоқ ва хизмат этикаси қоидалари, шунингдек коррупция профилактикаси соҳасидаги ҳуқуқий талаблар билан белгиланган чекловларга риоя этмаслик натижасида вужудга келадиган, коррупция хавфини шакллантирувчи ва кучайтирувчи, давлат хизматининг шаффофлиги, холислиги ва ишончлилигига путур етказувчи интизомий, маъмурий ёки фуқаровий-ҳуқуқий ҳуқуқбузарликлар мажмуасидир;

коррупцияга оид жиноятлар — бу мансабдор шахслар, давлат хизматчилари, давлат иштирокидаги ташкилотлар ва фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органлари хизматчилари томонидан ўз мансаб ваколатлари ёки хизмат мавқеини қасддан, қонунга хилоф равишда суиистеъмол қилиш, шахсий, оилавий, гуруҳ ёки бошқа хусусий манфаатларни кўзлаб моддий ёки номоддий наф олиш (ёки бошқаларни шундай наф билан таъминлаш) орқали қонун билан қўриқланадиган ижтимоий муносабатларга жиддий тахдид солувчи ва жиноий жавобгарлик келтириб чиқарувчи ижтимоий хавфли қилмишлар мажмуасидир.

Коррупцияга оид жиноятларни таркибий таҳлил қилишда унинг субъектив ва объект компонентлари муҳим методологик аҳамият касб этади. Халқаро ва миллий ҳуқуқий тизимларда мансабдор шахс тушунчаси ҳамда жиноят объектлари талқинида муайян фарқлар мавжуд бўлиб, улар мамлакатнинг ҳуқуқий анъанаси, давлат бошқарув тизими ва халқаро мажбуриятларига боғлиқ равишда шаклланган.

Умуман олганда, интизомий коррупцион ҳуқуқбузарликлар билан жиноят таркибини ташкил этувчи коррупциявий ҳаракатлар ўртасида чегара ҳар доим ҳам равшан эмас. Бизнингча, жиноят кодекси нормаларини коррупцияга оид жиноятлар сифатида ажратишда қуйидаги мезонларни инобатга олиниши лозим:

- Фуқароларнинг тенг ҳуқуқлилик принципининг бузилиши;

- Мансаб ёки хизмат мавқеидан фойдаланиш;
- Ғаразгўйлик мақсадида моддий ёки номоддий фойда олиш мақсади
- Давлат ва жамият ҳаётининг муҳим соҳаларига зиён етказиш.

Юқоридаги таҳлиллар асосида тавсия қилинади:

Биринчидан, Қонуний таърифларни такомиллаштириш. Қонунларда коррупция тушунчасини кенгайтириш, жумладан лоббизм ва протекционизм каби ҳодисаларни ҳам қамраб олиш; «коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик» тушунчаси орқали ҳар қандай мансабдор ёки хусусий шахснинг коррупцион фаолиятига қонуний баҳо беришни мустаҳкамлаш.

Коррупцияга оид ҳуқуқий таърифни кенг ва чуқур ёндошув асосида қайта шакллантириш лозим, яъни унда моддий ва номоддий манфаатлар, субъектларнинг ваколати, келишув ва латентлик каби белгилар тизимли акс эттирилиши зарур. Жумладан, қуйидаги тушунчалар орқали, амалдаги қонунчиликдаги “коррупция” атамасини такомиллаштириш мақсадга мувофиқ:

“Коррупция – бу, шахснинг ўзига берилган мансаб ёки хизмат ваколатларидан, хизмат мавқеидан ёхуд таъсир ўтказиш имкониятларидан шахсий ёки ўзга шахслар (гуруҳ, ташкилот, оила аъзолари) манфаатларини кўзлаб, моддий ёки номоддий наф олиш ёки шундай нафни тақдим этиш мақсадида, қонунга хилоф равишда фойдаланиши, шунингдек давлат бошқаруви, хўжалик ёки жамоат муносабатларида шахсий ёки гуруҳвий манфаатлар йўлида қарор қабул қилиш жараёнига ноқонуний таъсир кўрсатишнинг турли шакллари — хусусан, муайян иқтисодий ёки сиёсий қарорларни ўз фойдасига қабул қилдириш учун манфаатли гуруҳлар орқали босим ўтказиш (лоббизм), хизмат ёки мансаб масалаларида қариндошлик ёки шахсий яқинлик асосида устунлик бериш (непотизм), муайян шахс ёки гуруҳни бошқаларга нисбатан асоссиз қўллаб-қувватлаш ёки ҳимоя қилиш (протекционизм), шунингдек расмий мавқе ёки шахсий алоқалардан фойдаланиб қарор қабул қилувчи шахсларга таъсир кўрсатиш орқали ноқонуний имтиёз ёки наф олиш (таъсир савдоси) каби яширин механизмлар орқали амалга ошириладиган қонунга хилоф фаолиятдир”.

Иккинчидан, Коррупциянинг жиноят-ҳуқуқий чегараларини аниқ белгилаш фақат таъриф билан эмас, балки жиноят таркиби, субъект таркиби, юридик оқибатлар ва махсус мотивлар билан боғлиқ белгилар мажмуи орқали амалга оширилиши керак.

Учинчидан, Ички назорат ва прогноз механизмларини кучайтириш. Давлат органларида ички текширув ва шаффофлик бўлинмаларининг фаолиятини таҳлил этиш, уларнинг самарадорлиги норасмий текширувлар орқали баҳоланиши; жиноят содир этилишидан олдин профилак-тик чоралар

кучайтириш, жумладан электрон хизмати кенгайтириш ва очиқ рақамли тизимларни кенг қўллаш.

Тўртинчидан, Соғлиқ ва таълим секторларини назорат қилиш. Коррупция кўп учрайдиган соҳалар (масалан, давлат харидлари, ер ресурсларини тақсимлаш, таълим ва тиббиёт) бўйича махсус мониторинг тизимини жорий этиш; тендерлар ва бюджет маблағлари тақсимлаш жараёнларини тўлиқ рақамлаштириш.

Бешинчидан, Ҳуқуқий онг ва жамоатчилик иштирокини ошириш. Муҳокамаларда журналистлар, фуқаролик жамоатчилик институтлари роли кучайтирилиши, ёшлар ва фуқаролар учун коррупцияга қарши тарбия дастурлари ташкил этилиши кераклиги қайд этилмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, умумий мақсад – коррупция сабабли келиб чиқиши мумкин бўлган салбий оқибатларни олдини олишга қаратилган ислоҳотлардир. Булар ҳуқуқий, институтционал ва амалий чора-тадбирлар бирдамлигида натижали амалга оширилади. Қонун устуворлиги ва очиқликни таъминлаш борасидаги конституциявий кафолатлардан келиб чиққан ҳолда, коррупцияга қарши кураш давлат сиёсати барча соҳаларга қамровли қилиб олиб борилиши керак.

References:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // https://lex.uz/docs/6445145
2. https://president.uz/uz/lists/view/7924
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармони // https://lex.uz/ru/docs/6600413
4. Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 19.11.2021 й., 03/21/729/1064-сон; 09.08.2023 й., 03/23/860/0571-сон; 05.06.2024 й., 03/24/931/0402-сон; 26.02.2025 й., 03/25/1038/0188-сон
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 июндаги “Ўзбекистон Республикаси Коррупцияга қарши курашиш агентлиги фаолиятини ташкил этиш тўғриси”ги ПҚ-4761-сон Қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.06.2020 й., 07/20/4761/1001-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 15.06.2022 й., 06/22/154/0524-сон)
6. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.08.2023 й., 03/23/860/0571-сон

7. Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида миллий маъруза (2024), 9-14 бетлар // https://aca.uz/storage/WY8ObPjgaahp6EPE7UapMNrGixt2jf-meta0JzQuNC70LvQuNC5INCc0LDRitGA0YPQt9CwIDIwMjQucGRm-.pdf

8. https://www.transparency.org/en/what-is-corruption#:~:text=Cor%20ruption%20c%20an%20ha,astructure%20a%20nd%20sp%20orts

9. https://www.transparency.org/

10. Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 19.11.2021 й., 03/21/729/1064-сон; 09.08.2023 й., 03/23/860/0571-сон; 05.06.2024 й., 03/24/931/0402-сон; 26.02.2025 й., 03/25/1038/0188-сон

11. https://www.transparency.org/en/what-is-corruption#:~:text=What%20is%20corruption%3F

12. The Legal 500 & The In-House Lawyer Comparative Legal Guide Japan: Bribery & Corruption (2nd edition) // aplawjapan.com

13. Амонов Ф. С., Нурмуҳаммедова Г. Б. Коорупция билан боғлиқ жиноятлар содир этилишига имкон берувчи шарт-шароитлар ва уларнинг олдини олиш масалалари //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 419-428.

14. https://president.uz/uz/lists/view/7924

15. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar profilaktikasi: O‘quv qo‘llanma / I. Ismailov, J. S. Muxtorov, S. B. Xo‘jaqulov; mas’ul muharrir Y.f.d., prof. Q. R. Abdurasulova. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – 51 b.

16. Газимзянов Р.Р. Коррупционная преступность в Республике Татарстан на рубеже веков (криминологическое исследование) автор.дис. на соис.уч.степ.канд.юрид.наук. Нижний Новгород – 2005. – С. 32.

17. Савенко И. А. Коррупционные преступления и меры их предупреждения (на материалах Краснодарского края): дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.08 / Савенко Ирина Алексеевна. — СПб., 2006. — 235 с.

18. http://www.un.org/ru/documents/ decl_conv/conventions/corruption.shtml

19. Convention drawn up on the basis of Article K.3 (2) (c) of the Treaty on European Union on the fight against corruption involving officials of the European Communities or officials of Member States of the European Union. Опубликована в Официальном Журнале (далее - ОЖ) N C 195, 25.06.1997. – С. 2 - 11.

20. http://docs.cntd.ru/document/901934990

21. Конвенция Организации Объединенных Наций против коррупции — Конвенции и соглашения — Декларации, конвенции, соглашения и другие правовые материалы

22. Декларация Организации Объединенных Наций о борьбе с коррупцией и взяточничеством в международных коммерческих операциях — Декларации — Декларации, конвенции, соглашения и другие правовые материалы
23. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/orgcrime.shtml
24. upload-2019-09-03-09-01-43.pdf

HARBIY XIZMATCHILARNING HUQUQIY HIMOYASINI KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLANISHI

Olimjonov Xushnudbek Maxamadsalim o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi dotsenti yu.f.b.f.d.(PhD), dotsent, mayor
Saminjonov Mashrab Abdugapporovich,
Maxsus-taktik tayyorgarlik va jangovar qo‘llash kafedrasi katta o‘qituvchisi,podpolkovnik

So‘nggi yillarda mamlakatimiz o‘zining dunyoda munosib o‘rnini egallagani avvalo, istiqlol sharofati bilan tanlangan yo‘l va qabul qilingan Konstitutsiyamizning hayotiy qoidalari samarasi orqali deyishimiz mumkin.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqida “Albatta, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz” – deb ta’kidlab o‘tgan.

Avvalo, inson, uning haq-huquqlari va baxt saodati davlat siyosati, barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor maqsadi bo‘lishi lozim. Jamiyat qurilishi va davlat siyosati ana shu g‘oyaga tayanishi hamda “Davlat - inson uchun” tamoyili asosida tashkil etilishi darkor. Mazkur tamoyilga amal qilish esa, insonni va uning manfaatlarini davlat siyosati va islohotlarning asosiy mezoniga aylantirish lozimligidan dalolat beradi. Bu nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda mazkur islohotlarning eng demokratik tamoyillarga mosligi, ularning pirovard maqsadi va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi inson manfaatlari, haq-huquqlari va erkinliklarini ta’minlashga qaratilganining e’tirof etilishiga sabab bo‘lmoqda.[3]

O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, fuqarolarga munosib turmush sharoitini yaratish, millatlararo totuvlikni ta’minlash va rivojlantirish, hokimiyat tizimini demokratlashtirish va fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga aylanib, “inson qadri uchun”[4] degan ulug‘ tushuncha markaziy o‘ringa qo‘yildi.

Darhaqiqat, hozirgi rivojlanish bosqichlari shiddat bilan avj olayotgan davrda inson qadrini ulug‘lash, huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning qobiliyatlari va iste’dodlarini qo‘llab-quvvatlash demokratik davlatlarning bosh mezoniga aylandi. Inson qadri uning tinch hayot kechirishi va osuda umr ko‘rishi, huquq va erkinliklarini davlat tomonidan himoyalanganligi, ijtimoiy-huquqiy jihatdan ta’minlanganligi kabi holatlar inson qadri ulug‘ ne’mat ekanligini anglatadi.

Mazkur yo‘nalishdagi islohotlarning tub mohiyatida erkin huquqiy sharoit, qonuniy kafolat yotadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimizning istiqlol va ozodlik uchun olib borgan mashaqqatli kurashi natijasi, milliy manfaatlarimiz va intilishlarimizga asoslangan, xalqaro huquq normalariga mos muhim manba bo‘lishi bilan bir qatorda, amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning bosh huquqiy kafolati hisoblanadi.

“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ga muvofiq, har bir inson jamiyat a’zosi sifatida milliy kuch-harakatlar hamda xalqaro hamkorlik vositasida va har bir davlatning tuzilishi, shuningdek, resurslariga muvofiq ijtimoiy ta’minotga va o‘zining qadr-qimmatini saqlash, shaxsning erkin rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi huquqini amalga oshirishga haqli[1].

Konstitutsiya mamlakatning asosiy yuridik hujjati bo‘lib, uning ustuvor normalari davlat tuzumi va ijtimoiy hayot me’yorlarini belgilab beradi. Bosh qomusimiz umuminsoniy demokratik prinsiplarni o‘zida mujassam etuvchi, insonni, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat deb e’tirof qiluvchi davlat hamda jamiyat tuzumining huquqiy asoslarini mustahkamlovchi yuridik hujjatdir.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 152-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi...”[2] deb mustahkamlangan.

Ushbu norma mamlakat Qurolli Kuchlarini tashkil etilishi va harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini huquqiy ta’minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois yuridik hujjatlarning negizi bo‘lgan mamlakat Konstitutsiyasi barcha sohalar kabi harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda insonning munosib hayoti va erkin rivojlanishini ta’minlaydigan shart-sharoit yaratish fuqaroning o‘zining sof shaxsiy ishi emas, balki milliy siyosat darajasiga ko‘tariladi. Shuningdek, armiyada amalga oshirilayotgan harbiy islohot tashqi siyosat va ichki ijtimoiy-iqtisodiy voqelik, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari chaqiriqlariga javob berishga mo‘ljallangan bo‘lib, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, harbiy ijtimoiy himoya tizimining huquqiy asoslarini zamon talabiga mos ravishda rivojlantirish, harbiy xizmatchilar turmushining farovonlik

darajasini ko‘tarishda qonun ustuvorligini ta’minlash davlat tomondan olib boriladigan ijtimoiy siyosatga bevosita bog‘liq. Bunday siyosatning asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va “Harbiy xizmatchilarning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari jamiyat hayotining muhim bo‘lagi bo‘lib, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlovchi asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. Mazkur faoliyatni amalga oshirish jarayoni huquq normalari bilan tartibga solinadi hamda Konstitutsiya, harbiy qonunchilik va harbiy nizomlarning talablariga asoslanadi [6].

Har bir davlatning Konstitutsiyasi o‘ziga xos jihatlariga ega bo‘lib, uning milliy xususiyatlari, an’analaridan kelib chiqadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatiga birinchi navbatda inson qadri eng oliy qadriyat ekanligi singdirilib, uning asosiy mantiqiy yo‘nalishi “inson-jamiyat-davlat” manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan.

Haqiqatdanham, Konstitutsiyada inson huquqlarining ustunligiga, fuqarolarning munosib hayot kechirishiga, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishga, xalq tinchligi va milliy totuvlik g‘oyalariga alohida ahamiyat berilgan. Shuningdek, Konstitutsiyada barcha demokratik davlatlarda bo‘lgani kabi barchaning qonun oldida tengligi, shaxsning davlatga nisbatan ustuvorligi kabi insonparvarlik tamoyillariga katta ahamiyat berilgan.

Xususan, Konstitutsiyaning 54-moddasida “Insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi”, deya belgilangan[2].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan asosiy maqsadlar, ya’ni, bozor iqtisodiyotiga asoslangan mustaqil demokratik davlat qurish, inson manfaatlari, qonun ustuvorligi va davlatda istiqomat qiluvchi turli millat va elat vakillari uchun ularning millati, tili, dini, irqi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar qonun oldida tenglik tamoyili ta’minlanadigan fuqarolik jamiyatini takomillashtirishni mustahkamlash hisoblanadi.

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi raisi A.Saidov o‘zining nutqida “O‘zbekistonda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalari ustunligi konstitutsiyaviy asosda e’tirof etiladi. Bugungi kunda mamlakatimiz inson huquqlari bo‘yicha 70 dan ziyod xalqaro hujjatlar, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan inson huquqlari bo‘yicha qabul qilingan 10 ta majburiy xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilib, o‘zining xalqaro majburiyatlarini muntazam ravishda bajarib kelmoqda”[5] – deb to‘xtalib o‘tdi.

Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilganidek fuqaro va davlat munosabatlari alohida ahamiyat kasb etib, o‘zaro huquq va majburiyatlar bilan bog‘lanishi belgilab berilgan bo‘lib, insonning Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan huquq va

manfaatlari hamda erkinliklarini odil sud qarorisiz hech qaysi yo‘l bilan cheklash mumkin emas, ular daxlsizdir.

Harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklari davlat tomonidan ta’minlanadi. Huquq va erkinliklarni sud orqali himoya qilish, har qanday tashkilot va harbiy xizmatchilarning qonun buzilish holatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqlari mavjud bo‘lib, ayrim holatlarda ularga nisbatan ko‘rilgan jazo choralari yuzasidan himoyalanishlari mumkin.

Mamlakatimizda Konstitutsiyamiz qabul qilingan kun, ya’ni, 8-dekabr sanasi – har yili xalqimiz tomonidan keng bayramona nishonlanib kelinadi. Ayni shu kunda xalqimizning ezgu orzu va intilishlarini o‘zida ifoda etadigan, jamiyatimiz rivojiga xizmat qiladigan eng ustuvor yo‘nalishlar belgilab olinadi va bu yo‘nalishlar keng rivojlantiriladi.

Shuningdek, xorij olimlarining fikrlariga yuzlanadigan bo‘lsak, Й.П.Юрченко “Институционализация военно-социональной работы в Вооружённых Силах Российской Федерации” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida harbiylik kasbining o‘ziga xos tomonlarini, harbiy ijtimoiy sohasini institutlashtirishni tahlillar asosida yoritib bergan. Rus harbiy nazariyotchisi В.М.Корякин “Правовые основы военно-социальной работы в Вооружённых Силах Российской Федерации” nomli dissertatsiya ishida esa harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini, umuman, harbiy tashkilotning asosiy ijtimoiy muammolarini tahlil qiladi va harbiy jamiyatdagi ijtimoiy qarama-qarshiliklarni hal qilishning asosiy yondashuvlarini asoslaydi[6].

Mazkur tahlillar natijasidan mamlakatimizda inson huquqlari sohasida olib borilayotgan ishlar negizida inson qadri eng yuqori darajada turganligini, fuqarolarni huquq va erkinliklarining himoyasi davlat tomonidan ta’minlanayotganligini, shuningdek, shaxsiy huquq va erkinliklar instituti normalarida insonning yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi, aybsizlik huquqi, sha’n va obro‘ga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqi, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish, fikr so‘z va e’tiqod erkinligi huquqi, o‘z huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish huquqi, vijdon erkinligi kabi konstitutsiyaviy tamoyillar o‘z ifodasini topgan bo‘lib, bugungi kunda ushbu tamoyillar asosida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan, xususan, sud-huquq tizimidagi islohotlarning bosh maqsadi inson huquqlari va ularning kafolatlariga qaratilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashni yanada takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar mavjud, birinchidan, sudlar faoliyatining mustaqilligini yanada mustahkamlash, ikkinchidan, advokatlar faoliyati vakolatlarini kengaytirish, uchinchidan, harbiy xizmatchilarning huquqiy ximoyasini takomillashtirish lozim.

Shu bilan birga, inson huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadi. Inson huquqlari, ozodlik, barqarorlik va taraqqiyot majmuini ifodalaydigan demokratik huquqiy va adolatli davlatni mustahkamlashning yangi mexanizmlarini joriy etish, qonun ustuvorligi hamda qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirish, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga mas'ul bo'lgan tashkilotlarning hamkorligini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Buning natijasida mamlakatimizda insonlar, qolaversa harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, yurtimizda demokratiya va umuminsoniy prinsiplarga to'liq roiya etishga qaratilgan yuksak maqsadlar amaliyotini yaratishimi mumkin.

References:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948-yil 10-dekabr // https://constitution.uz/uz/pages/human rights
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T., "O'zbekiston" NMIU. 2023 – 128 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. // Yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi. 06.11.2021. // www.president.uz
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent "O'zbekiston", 2021. – 464 bet.
5. Saidov A.X. Inson huquqlarini ta'minlash — bosh maqsadimiz // https://constitution.uz/uz/pages/maqola55
6. Hashimova G.I. Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-huquqiy himoya qilishning faol shakllari va ijtimoiy-huquqiy himoyasi tizimi // Markaziy osiyoda jamiyat, gender va oila xalqaro ilmiy jurnali. –T: 2024/4 (13) –B.51

КОНСТИТУЦИЯ – ГАРАНТ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ЛИЦ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

Алимова Гузал Алишеровна,
д.э.н., доцент, профессор кафедры
«Экономических дисциплин»

Аннотация. В статье анализируются конституционно-правовые основы социальной защиты лиц с ограниченными возможностями в Республике Узбекистан. Рассмотрены основные гарантии, предусмотренные Конституцией, а также практика реализации международных обязательств в этой сфере. Особое внимание уделено социально-экономическим аспектам, проблемам занятости и инклюзии.

Ключевые слова: Конституция, социальная защита, инвалиды, инклюзия, права человека, занятость, доступная среда.

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida imkoniyati cheklangan shaxslarni ijtimoiy himoya qilishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Konstitutsiyada belgilangan kafolatlar, xalqaro tajriba va ularning amalga oshirilish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, bandlik, ta’lim va ijtimoiy inklyuziya masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, ijtimoiy himoya, nogironlar, inklyuziya, inson huquqlari, bandlik, imkoniyati cheklangan shaxslar.

Abstract. The article analyzes the constitutional and legal foundations of social protection for persons with disabilities in the Republic of Uzbekistan. It discusses constitutional guarantees, mechanisms of implementation, and international experience. Particular attention is paid to socio-economic challenges, employment issues, and inclusive development.

Keywords: Constitution, social protection, persons with disabilities, inclusion, human rights, employment, accessibility.

Современный этап развития Республики Узбекистан характеризуется глубокими социально-экономическими и институциональными реформами, направленными на реализацию конституционного принципа *«Инсон қадри — энг олий қадрият»* («Ценность человека — высшая ценность»), закреплённого в новой редакции Конституции (2023 г.) [1]. В контексте построения социального государства важнейшее место занимает обеспечение социальной защиты уязвимых категорий населения, прежде всего лиц с ограниченными возможностями. Эти меры отражают стремление государства к формированию инклюзивного общества, где каждый гражданин имеет равные возможности для участия в общественной, трудовой и культурной жизни.

Конституция Республики Узбекистан закрепляет человека, его права и свободы как высшую ценность общества и государства. В статье 57 Основного закона прямо установлено, что государство обязано создавать условия для интеграции лиц с инвалидностью в общественную жизнь, обеспечивать доступ к образованию, здравоохранению, труду и социальной защите [2]. Тем самым Конституция выполняет роль гаранта недискриминации и равенства возможностей, что соответствует международным правовым стандартам в области прав человека.

По данным Агентства по делам инвалидов Республики Узбекистан, на начало 2024 года в стране проживает более 760 тысяч лиц с инвалидностью, из которых около 170 тысяч - дети и молодёжь. Лишь 35–37 % лиц трудоспособного возраста имеют постоянную занятость, а доступность городской инфраструктуры для инвалидов не превышает 30 % от установленных национальных стандартов [3]. Эти показатели демонстрируют наличие системных вызовов в реализации конституционных гарантий и необходимость совершенствования нормативно-правовых и организационных механизмов социальной интеграции.

Международный опыт подтверждает, что развитие инклюзивной политики является ключевым элементом устойчивого развития. Присоединение Узбекистана к Конвенции ООН о правах инвалидов (2009 г.) [4] создало основу для адаптации национального законодательства к глобальным стандартам, включая обеспечение доступной среды, равных прав на труд и образование, а также развитие специализированных служб реабилитации. В соответствии с этим в стране реализуются стратегические документы - Стратегия развития “Янги Ўзбекистон — 2022–2026” и Государственная программа “Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили” (2024), направленные на расширение инклюзивных возможностей и повышение уровня социальной защищённости [5].

Таким образом, обеспечение прав лиц с ограниченными возможностями представляет собой не только гуманистическую, но и конституционно-правовую задачу национального масштаба, тесно связанную с международными обязательствами Узбекистана по достижению Целей устойчивого развития ООН (ЦУР-10 «Сокращение неравенства» и ЦУР-11 «Устойчивые города и сообщества») [6]. Анализ роли Конституции как гаранта социальной защиты инвалидов позволяет определить уровень реализации принципов справедливости и равенства в современном узбекском обществе и выявить направления их совершенствования.

Анализ конституционно-правовых гарантий показывает, что современная модель социальной политики Узбекистана основывается на признании

социальной защищённости инвалидов как элемента конституционного строя государства. Конституция 2023 года впервые ввела положения, прямо закрепляющие права лиц с инвалидностью на равные возможности, что соответствует принципам статей 1 и 2 Конвенции ООН о правах инвалидов [1]. Однако реализация этих норм требует эффективного механизма правоприменения, согласования законодательства и институциональной поддержки.

В соответствии со статьёй 57 Конституции, государство обязано создавать условия для социальной адаптации, трудоустройства и реабилитации лиц с инвалидностью [2]. Реализация данного положения обеспечивается через ряд нормативных актов, в том числе Законом «О правах лиц с инвалидностью» (2020), постановлениями Кабинета Министров №728 (2022) «О программе развития инклюзивной инфраструктуры» и национальными стратегиями социальной защиты [3].

Тем не менее, фактическая занятость лиц с инвалидностью в 2024 году составляла лишь 36,2 %, что значительно ниже среднего уровня занятости по стране (63,5 %) [4]. Основные барьеры связаны с ограниченным доступом к профессиональному обучению, низким уровнем адаптации рабочих мест и отсутствием стимулов для работодателей.

В 2023 году на государственную поддержку инвалидов из бюджета Узбекистана направлено более 2,1 трлн сумов, что составляет около 0,4 % ВВП [5]. Из них 58 % направлены на пенсии и социальные выплаты, а лишь 17 % - на программы профессиональной реабилитации и занятости. Для сравнения, в странах ЕС этот показатель достигает 0,8–1,2 % ВВП, что демонстрирует необходимость диверсификации источников финансирования социальной поддержки в Узбекистане.

В целях повышения эффективности социальных расходов важно развивать механизмы государственно-частного партнёрства (ГЧП) и социального предпринимательства, ориентированные на трудовую интеграцию инвалидов. Например, в Германии с 2019 года действует модель *Inklusionsbetriebe*, предусматривающая налоговые льготы и компенсации для компаний, нанимающих не менее 30 % работников с инвалидностью [6]. Аналогичный подход может быть адаптирован в Узбекистане с учётом национальных условий.

Одним из центральных направлений социальной интеграции является формирование безбарьерной среды. По данным Министерства строительства и ЖКХ, на 2024 год лишь 27 % общественных зданий и 34 % транспортных узлов в стране соответствуют стандартам физической доступности [7]. В этой связи важным шагом стало принятие национальных строительных норм

(НҚС 2.08.02–23), включающих обязательные требования по адаптации объектов образования, транспорта и здравоохранения для лиц с ограниченными возможностями. Однако фактическое исполнение этих требований остаётся недостаточным из-за слабого контроля и дефицита кадров архитектурно-инженерного профиля, специализирующихся на инклюзивном проектировании. В цифровой сфере также наблюдается разрыв: менее 25 % государственных веб-порталов и сервисов адаптированы для пользователей с нарушениями зрения или слуха [8]. Это противоречит принципу цифровой инклюзии, закреплённому в национальной концепции “Digital Uzbekistan – 2030”. Образование рассматривается как ключевой инструмент реализации конституционного принципа равных возможностей. На сегодняшний день в Узбекистане функционируют 86 инклюзивных школ и 26 специализированных коррекционных учреждений, в которых обучается более 13 тысяч детей с ограниченными возможностями здоровья [9]. Однако доля таких учащихся, переходящих на уровень среднего специального и высшего образования, не превышает 18 %, что указывает на необходимость развития программ адаптированного дистанционного обучения, а также психологической и тьюторской поддержки. Международный опыт, прежде всего Финляндии и Южной Кореи, показывает, что внедрение индивидуальных *образовательных маршрутов* и гибких систем сертификации способствует повышению вовлечённости инвалидов в образование на 25–30 %.

Конституционные гарантии могут эффективно работать лишь при условии формирования высокой правовой и социальной культуры общества. Согласно опросам Центра социологических исследований при Институте макроэкономических и региональных исследований (ИМРИ), проведённым в 2024 году, 43 % респондентов всё ещё считают инвалидность «личным делом семьи», а не предметом социальной ответственности государства [10]. Это свидетельствует о необходимости системной просветительской работы, развития программ *инклюзивного волонтёрства* и участия гражданского общества в реализации принципов Конституции.

Выводы аналитического блока Проведённый анализ показывает, что Конституция Республики Узбекистан действительно выступает **фундаментальной гарантией социальной защиты лиц с ограниченными возможностями**, однако реализация закреплённых прав требует **укрепления институциональной базы, финансовой устойчивости и общественного контроля**.

Особое внимание должно уделяться:

1. совершенствованию механизмов трудовой интеграции и социального предпринимательства;

2. созданию безбарьерной физической и цифровой среды;

3. развитию инклюзивного образования и адаптационных программ;

4. активизации участия ННО и частного сектора в реализации социальных гарантий

Список литературы

1. United Nations. *Convention on the Rights of Persons with Disabilities*. New York, 2009.

2. *Конституция Республики Узбекистан* (новая редакция). Ташкент, 2023.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 8 сентябрдаги 728-сон қарори. — *lex.uz*.

4. Агентство по делам инвалидов Республики Узбекистан. *Социальный отчёт 2024*. Ташкент, 2024.

5. Министерство финансов Республики Узбекистан. *Бюджетный отчёт за 2023 год*. Ташкент, 2024.

6. Federal Ministry of Labour and Social Affairs (BMAS). *Inclusion Enterprises Report*. Berlin, 2023.

7. Ministry of Construction and Housing. *Accessibility Monitoring Report*. Tashkent, 2024.

8. Ministry for Digital Technologies. *Digital Accessibility Audit of Public Services*. Tashkent, 2024.

9. Ministry of Preschool and School Education. *Inclusive Education Annual Report*. Tashkent, 2024.

10. Institute for Macroeconomic and Regional Research (IMRI). *Social Perceptions of Disability Survey 2024*. Tashkent, 2024

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ЯНГИЛАНГАН КОНСТИТУЦИЯСИДА ЖАБРЛАНУВЧИ МАНФААТЛАРИНИНГ МУҲОФАЗАСИ

Тураева Дилноза Рустамбоевна,
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси жиноят ҳуқуқи кафедраси доценти, ю.ф.б.ф.д. (PhD)

Аннотация. Мақолада жабрланувчининг ҳуқуқ ва манфаатларини муҳофаза қилишнинг конституцион қоидаларда ифодаланиши ижтимоий ҳуқуқий зарурияти тахлил қилинган. Унда жабрланувчига жиноят туфайли етказилган зарарни қоплаш, жабрланувчининг ҳуқуқ ва манфаатларини муҳофаза қилиш механизмини такомиллаштиришга қаратилган таклифлар хусусида фикр-мулоҳазалар билдирилган.

Таянч тушунчалар: конституция, жиноят, жабрланувчи, муҳофаза қилиш механизми, ҳуқуқ ва ҳимоя, жиноят натижасида етказилган зарар.

Мамлакатимизда фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини жиноий тажовузлардан ҳимоя қилиш, шаъни ва қадр-қимматини камситилишига ҳамда қонуний манфаатлари чекланишига йўл қўймаслик мақсадида кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Конституциявий ислоҳотлар янги давлат ва жамият барпо этишга қаратилган бўлиб, “Янги Ўзбекистон – халқчил ва инсонпарвар давлат” тамойили асосида қонун устуворлиги, фуқаролар тенглиги, адолат, инсонпарварлик ва айбсизлик презумпцияси каби асосий принциплар изчил равишда мустаҳкамланмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек: “Янги Ўзбекистон – демократия, инсон ҳуқуқ ва эркинликлари борасида умумэътироф этилган норма ва принципларга қатъий амал қилган ҳолда, жаҳон ҳамжамияти билан дўстона ҳамкорлик тамойиллари асосида ривожланадиган, пировард мақсади халқимиз учун эркин, обод ва фаравон ҳаёт яратиб беришдан иборат бўлган ҳуқуқий давлатдир” [1].

Ҳуқуқий давлат шароитида барча фаолият қонуний асосларда ташкил этилади, давлат хизматчилари эса ҳар бир масалага ҳуқуқий ёндашув билан қараш ва қарор қабул қилиш маданиятига эга бўлиши талаб этилади.

Шунинг учун Асосий қонунимизда давлатнинг ижтимоий соҳадаги мажбуриятлари билан боғлик нормалар уч баробар кўпайтирилди. Хусусан, ҳар бир шахснинг малакали юридик ёрдам олиш ҳуқуқи кафолатланади, ҳуқуқбузарликлардан жабрланганларнинг ҳуқуқлари қонун билан муҳофаза қилинади. Давлат уларнинг ҳимояланиши, одил судловдан фойдаланиши ва етказилган зарарнинг қопланиши учун зарур шарт-шароитларни яратади [2]

Ислоҳотларнинг марказида – ҳалққа хизмат қилиш, аҳолини рози қилиш, уларнинг дарди билан яшаш, муаммоларини хал этиш устувор масалага айланган.

Суд-ҳуқуқ тизимини демократлаштириш, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолияти самарадорлигини ошириш ва аҳолининг одил судловга ишончини мустаҳкамлаш мақсадида “Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари” тамойили асосида 2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси тўғрисидаги ПФ-60 сонли Фармон [3] қабул қилинди. Ушбу Фармон суд-ҳуқуқ тизимини ислоҳ қилиш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш кафолатларини кучайтириш ҳамда илғор хорижий тажрибани ўрганиб, қонунчиликни такомиллаштириш вазифасини белгилади.

Конституциявий ислоҳотлар самарасида халқимиз ва мамлакатимиз ўз тараққиётининг янги, янада юксалиш даврига қадам қўйди.

Мамлакатимизнинг янгиланган Конституцияси фуқароларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини янада кенг ва тўла таъминлаш ҳамда миллий қонунчиликни янада такомиллаштиришга қаратилган янги моддалар билан бойиди. Хусусан,

Одил судловни амалга ошириш борасидаги давлат сиёсатининг энг катта ютуғи бу янгиланган Ўзбекистон Республикаси Конституциясида ҳуқуқбузарликлардан жабрланганлар [4] яъни “жабрланувчи” институтининг пайдо бўлишидир.

Конституция давлат зиммасига ҳуқуқбузарликлардан жабрланганларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бўйича қатор мажбуриятларни юклайди. Биринчидан, жабрланганларга ҳуқуқий, ижтимоий, моддий, психологик, тиббий ва бошқа ёрдам турларини кўрсатиш орқали уларнинг ҳимояланиши учун шарт-шароитлар яратилади;

Иккинчидан, ҳар бир шахсга одил судловдан фойдаланиш имконияти ва давлат органлари ҳамда мансабдор шахсларнинг ғайриқонуний ҳаракатларидан суд орқали ҳимояланиш ҳуқуқи кафолатланади;

Учинчидан, жабрланувчиларга етказилган моддий зарарни ўз вақтида ва тўлиқ қоплаш учун ташкилий-ҳуқуқий чоралар кўрилади. Масалан, фирибгарлик натижасида зарар қопланмаса, ҳуқуқбузарга амнистия ёки авф қўлланмаслиги мумкин.

Бундай қоидалар Бразилия, Озарбайжон, Миср, Чехия ва Молдова каби давлатлар конституцияларида ҳам мавжуд бўлиб, улар жиноят содир этган шахсларни жазолаш билан бирга жабрланувчиларнинг бузилган ҳуқуқларини тиклаш ва етказилган моддий-маънавий зарарни қоплашни кафолатлайди.

Барчамизга маълумки, ҳуқуқ назариясида “ижтимоий адолатни таъминлаш” фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини муҳофаза қилишда

муҳим аҳамият касб этади. Конституциянинг илгариги таҳрири 26-моддасида “Жиноят содир этганликда айбланаётган ҳар бир шахснинг иши судда қонуний тартибда, ошкора кўриб чиқилиб, унинг айби аниқланмагунча у барча шароитлар таъминлаб берилади” деб таъкидланган. Бироқ бир тарафлама ёндашувни кўришимиз мумкин эди. Қонунчиликда “тарафлар тенглиги”, “тарафлар тортишуви” тамойили асосида ишлар кўрилади.

Жиноятчиликка қарши курашиш масаласини муваффақиятли амалга ошириш учун у энг аввало, Конституцияга ва унда белгиланган принципларга мувофиқ амалга оширилиши лозим.

Одатда фуқароларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини муҳофаза қилиш ҳуқуқни муҳофаза қилиш фаолиятининг асосий йўналиши бўлиб, ҳуқуқ-тартиботни таъминлаш ва қонунчилик талабларига барча фуқаролар, ташкилотлар ҳамда давлат органларининг бирдай риоя этишини таъминлашга қаратилган. Давлатнинг ҳимоялаш функцияси мустақил бўлиб, унинг моҳияти инсон ҳуқуқ ва манфаатларини муҳофаза қилиш билан белгиланади [5].

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 13-моддасида “инсон, унинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни, қадр-қиммати ва бошқа ажралмас ҳуқуқлари олий қадрият ҳисобланади” деб белгиланган. Шу билан бирга, 26-моддада “инсоннинг шаъни ва қадр-қиммати дахлсиздир, уларни камситишга ҳеч қандай асос бўлиши мумкин эмас” деган қоида мустаҳкамланган.

Ушбу конституциявий нормалар давлатнинг асосий вазифаси инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш эканлигини ҳамда жиноятдан жабр кўрган шахслар давлат муҳофазаси остида бўлишини кафолатлайди.

Ҳуқуқ шахснинг жамиятдаги эркинлиги мавжудлигини белгилайди, бурч эса бу эркинлик меъёрини, чегарасини кўрсатиб беради ва шахсга ижтимоий масъулият юклайди. Қонуний манфаат ҳамма вақт ҳам шахс ҳуқуқларида намоён бўлмайди, бироқ у давлат муҳофазасида бўлади [6]. Шахснинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини муҳофаза қилиш билан бир пайтда давлат ўзи ҳамда бутун жамият манфаатларини муҳофаза қилади [7].

Процессуалист олим Д.М.Миразов эса “...инсоннинг эркинлиги бошқаларнинг ҳуқуқлари бошланадиган чегарага қадар бўлиши лозим”,– деб ҳисоблайди [8].

Б.А. Саидовнинг фикрича, шахснинг конституциявий ҳуқуқларига қўйиладиган чекловлар хусусияти ва амалга ошириш усулига кўра турли соҳалар, турлар ва шаклларга бўлинади. Улар ҳуқуқ тизимига боғлиқ ҳолда конституциявий, фуқаровий, маъмурий, жиноий ва бошқа турларга ажратилади. Чекловлар моҳияти, қонунга акс этиши, ҳуқуқ тури, ҳуқуқий акт, амал қилиш муддати, қонунийлик даражаси ва ҳажмига кўра таснифланади. Шакл

жиҳатидан эса улар мажбурият, тақиқ, муҳофаза ёки жазо чоралари кўринишида намоён бўлади. [9].

Б.Б.Муродов “ҳар бир ҳуқуқ эркинлик туридир, жиноят процессида шахс эркинлигининг меъёри унга тегишли бўлган конституциявий ва процессуал ҳуқуқларнинг йиғиндиси билан белгиланади [10] – деб тўғри таъкидлаган.

Демак, ҳимоя бу муҳофаза қилишнинг бир кўриниши, унинг шаклларидан бири бўлади. [11]

Жабрланувчиларнинг ҳуқуқ ва манфаатларининг муҳофаха қилиниши юзасидан ҳуқуқшунос олим Ғ.А.Абдумажидов: “Дастлабки терговда жабрланувчининг ҳуқуқларини муҳофаза қилиш йўлида қўшимча кафолотлар ўрнатилиши лозим” [12] лигини таъкидлаганлар.

Ўзбекистон Республикасининг янгиланган Конституциясида “муҳофаза қилиш” тушунчасини турли маъноларда қўллаб, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилишни давлатнинг асосий вазифаси сифатида белгилайди. Хусусан, Конституциянинг бир қатор моддаларида (13, 23, 26–31, 54–55, 60-моддалар) инсоннинг ҳаёти, шаъни, қадр-қиммати, эркинлиги ва шахсий дахлсизлиги олий қадрият сифатида белгиланиб, ҳар бир шахсга одил судлов, малакали юридик ёрдам, жабрланувчиларга давлат ҳимояси ва етказилган зарарнинг қопланиши кафолатланади.

Давлат органлари ва мансабдор шахсларнинг фуқаролар олдида масъуллиги, ҳамда барча шахсларнинг миллат, жинс, дин ёки ижтимоий келиб чиқишидан қатъи назар тенг ҳуқуқли эканлиги (19–20-моддалар) давлатнинг инсон ҳуқуқларини таъминлашдаги масъулиятини кучайтиради ва халқаро андозаларга мослигини тасдиқлайди [13].

Ҳуқуқ назариясига кўра, инсон ҳуқуқларини муҳофаза қилиш – бу шахс ҳуқуқ ва манфаатларига тажовузларни олдини олиш, бузилган ҳуқуқларни тиклаш ва етказилган зарарни қоплашга қаратилган давлат фаолиятидир [14].

Шу билан бирга қайд этиш жоизки, содир этилган жиноят натижасида жабрланганларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини муҳофаза қилишга қаратилган махсус норма ва қонунлар етарли эмас, фақат Жиноят процессуал кодексининг айрим моддаларидагина умумий тарзда берилган.

Жиноят процессида жиноят ҳақида тегишли идораларга хабар берганлиги учун жабрланувчига нисбатан руҳий ёки жисмоний зўрлик ишлатилганлиги учун алоҳида жавобгарликни белгиловчи махсус норма назарда тутилмаган. Аммо, Ўзбекистонда жабрланувчининг ҳуқуқ ва манфаатлари қонун йўли билан ҳимоя қилинмайди деб айта олмаймиз, чунки ЖКнинг бир қатор моддаларида жабрланувчиларнинг ҳуқуқ ва манфаатлари қонун йўли билан ҳимоя қилинади. Жумладан, ЖКнинг 97-моддаси иккинчи қисми “г” бандида “ўз хизмат ёки фуқаролик бурчини бажариш муносабати билан шахсни ёки унинг яқин

қариндошларини ўлдирганлик учун жавобгарлик белгиланган. Зеро жабрланувчининг жиноят ҳақида хабар бериши фуқаролик бурчи бўлса содир этилган жиноят оғир ёки ўта оғир бўлса, бу ҳақида хабар бериш шахсни мажбурияти ҳисобланади.

Юртимизнинг ҳуқуқшунос олимлари Б.Э.Зокиров ва Т.Р.Саитбаевларнинг фикрича, “аксарият жабрланувчилар, жисмоний ўч олинишидан, мулкларининг йўқ қилиниши ёки уларга шикаст етказилишидан қўрқиб, жиноятлар ҳақида арз қилмайдилар, гувоҳлар эса ўзларининг дастлабки кўрсатмаларидан воз кечадилар.” [15] Бундай ҳолатларда жабрланувчининг қонуний ҳуқуқ ва манфаатларини муҳофаза қилувчи ёки уларнинг хавфсизлигини таъминловчи моддалар назарда тутилмаган. Амалдаги жиноят кодексида жабрланувчининг жиноят иши юзасидан берган маълумотлари учун уларни ҳаёти, соғлиги, шаъни, қадр-қиммати, мол-мулкини ҳимоя қилиш учун махсус модда ёки норма назарда тутилмаганлиги туфайли айбдорлар содир қилинган жиноий ҳаракати учун умумий тарзда жавобгар бўладилар. Агарда ўлдириш ёки бошқа зўрлик ишлатиш билан қўрқитилган бўлса ЖКнинг 112-моддасига асосан жиноий жавобгарликка тортилишлари мумкин холос.

Бизга маълумки, одил судловга қўйилган минимал талаблардан ташқари халқаро нормаларда жиноятдан жабрланганларга кўмаклашиш зарурлигини назарда тутувчи ҳужжат БМТ Бош Ассамблеясининг 1985 йил 29 ноябрдаги резолюцияси билан “Жиноятчиликка қарши кураш ва ҳуқуқбузарлар билан муомилада бўлиш тўғрисида”ги VII Конгрессида “Жиноятдан ва ҳокимият ваколатини суиистеъмол қилишдан жабрланганлар учун одил судловнинг асосий принциплари тўғрисида” ги Декларация” [16] (Милан, Италия) қабул қилинган. Мазкур Декларацияга мувофиқ жабрланувчиларга нисбатан ҳамдардлик асосида ёндашиш ва уларнинг қадр-қимматини ҳурматлаш лозим бўлади. Улар одил судлов механизмига бевосита ёрдам ҳуқуқига эга бўлиб, миллий қонунчилик бўйича уларга етказилган зарарни қисқа муддат ичида қопланишини талаб қилиш ҳуқуқига эга. Декларацияга мувофиқ реституция (лот. restitutio – тиклаш) – бузилган ҳуқуқларини қайта тиклаш, мулкни қайтариш ёки етказилган зарарни қоплашни талаб қилади.

Шу билан бирга “жабрланувчиларнинг ҳуқуқий ҳимоя қилинмаганлигининг асосий сабаби аксарият суриштирувчи, терговчи, прокурор ва судьялар жабрланувчига жиноятни очишнинг вақтинчалик воситаси деб қарашидан иборат” деган фикрлар ҳам мавжуд. Бундай фикр оммавий онгга қаттиқ ўрнашиб қолган бўлиб, қонун чиқарувчи ҳам кўпинча шу нуқтаи назарга асосланганлигини кўриш мумкин. Жумладан, агарда жабрланувчи тергов органларига ёки судга узрли сабабларсиз келмаса, унга нисбатан мажбурий келтириш, кўрсатма беришдан бўйин товлаганлик учун эса

ҳеч бир муқобилсиз, фақат жиноий жавбгарликка тортилиши қонунлаштирилиб қўйилган.

Жабрланувчиларнинг ҳаёти, соғлиғи, қадр-қиммати ҳимоясини кафолатлайдиган чора-тадбирлар мажмуини ўзида мужассамлаштирган амалий механизмнинг ишлаб чиқилиши уларнинг амалий таъсирчанлигини таъминлашда муҳим қадам бўлади. Жиноят процесси иштирокчиларининг, айниқса жабрланувчилар ҳамда жиноятга у ёки бу даражада алоқадор бўлган бошқа шахсларни ҳуқуқий жиҳатдан ҳимоялаш масаласи илгари ҳам жуда долзарб муаммолардан бири бўлган бўлсада, ҳозирги шароитларда у кечиктирилмай ҳал этилиши зарур бўлган муаммолардан бири бўлиб қолмоқда.

Жамиятда барқарорликни таъминлаш мақсадида, содир қилинган жиноят юзасидан қонунчиликда иккита вазифа бажарилиши лозим:

биринчидан, қонун асосида ҳимоя қилинадиган манфаат мажбурлов чораси қўлланилганида бузиладиган манфаат ўртасидаги нисбатини яъни содир қилинган жиноят учун жавобгарлик;

иккинчидан, жиноят натижасида етказилган зарарни қоплаш масаласи яъни ушбу шахснинг қадр-қимматига етказиладиган зарар даражасини инобатга олган ҳолда қўлланилиши лозим.

Ҳозирги кунда содир этилган жиноят учун жавобгарлик масаласи хал этиляпти лекин жиноят натижасида етказилган зарар бартараф этиш чора-тадбирлари тўлиқ амалга оширилмаётганини кўришимиз мумкин.

Давлат фуқароларга нисбатан ҳар бирига қўлланиладиган индивидуал чиқарадиган нормаларга эга бўлиб, ҳуқуқлари бузилган фуқароларга ёрдам берилади. Мазкур нормаларда жиноятдан жабр кўрган шахсга тўланадиган компенсация тўловлари тўланади [17]. Бироқ ушбу тўловлар қайси маблағлар ҳисобидан тўланиши лозимлиги тўғрисидаги ҳуқуқий хужжат ва қонунчиликда у қаердан тўланиши, қай тартибда тўланиши механизми яратилмаган.

Фуқароларнинг ҳуқуқлари ўз вақтида ва тўлиқ шаклда қоплаш учун давлатнинг имкониятлардан фойдаланишга ваколатли бўлганлиги сабабли давлат мазкур ҳаракатларни амалга оширишни ўз бўйнига олган. Юқоридаги ҳолатлар нафақат жиноят процессуал нормалар талабларига жавоб бермаганлик балки бошқа соҳаларга тегишли бўлган нормалар бузилганда ва бунинг кўриб чиқилиш тартиби жиноят процессуал кодексига алоқадор бўлганда қўлланади.

Л.В.Бойцов томонидан айтилган юқоридаги фикрлардан хулоса қилиб айтиш мумкинки, реаблитация институти доирасига кирувчи фуқароларга нисбатан жиноий таъқибни ноқонуний ва асоссиз қўлланилиши комплекс моддий-ҳуқуқий ўрганиш фуқароларнинг жамият ва давлат манфаатлари йўлида ҳуқуқий ҳимоя қилинишини таъминлайди. Мазкур “моддий ва маънавий зарарни қоплаш билан боғлиқ бўлган муносабатлар институт сифатида бугун

пайдо бўлган эмас”,– деб фикр билдирган Б.Т.Безлепкин [18]. унинг ишларида мазкур фикрларни тасдиқловчи қуйидаги тушунчалар намоён бўлган: регламент қилинаётган муносабатлар бир-бири билан боғлиқ бўлиб, фуқаронинг жиноят содир этишда гумон қилиниши ёки айбланиши билан бевосита боғлиқ ҳисобланади. Мазкур муносабатларнинг субъекти таркиби биринчи томондан давлат яъни унинг номидан у берган ваколатлардан фойдаланган ҳолда фаолият юритувчи ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ва иккинчи томондан фуқаро яъни нотўғри, ноқонуний жабр кўрган шахс ҳисобланади. Жабрланувчининг ҳуқуқ ва манфаатларини химоя қилиш институтини таҳлил қилганда суд ва тергов органларининг юридик жавобгарлиги нуқтаи назари билан эмас балки ҳар бир фуқаронинг қонун билан қўриқланадиган ҳуқуқларини ҳимоя қилиш нуқтаи назаридан амалда қўллаш муҳимроқ ҳисобланади. Чунки ижтимоий, ҳуқуқий ҳимояланганлик нуқтаи назардан олиб қарайдиган бўлсак, фуқаро давлатга унинг органларига нисбатан ҳимояга мухтожроқ қатлам ҳисобланади. Шу сабабли ҳам ҳозирги кундаги қонунчиликнинг асосини аввало инсон ҳуқуқлари сўнг эса жамият ва давлат ҳуқуқлари ташкил қилади.

Давлат фаолиятининг бир тури бўлган жиноят ишларини юритишнинг ҳам асосий мақсадларидан бири жиноят ёки ақли норасо шахснинг ижтимоий хавфли қилмиши туфайли бузилган ҳуқуқларни қайта тиклаш ҳисобланади. Бу мақсад йўлида жиноят ишини юритишга маъсул бўлган давлат органлари ва мансабдор шахслари олдида турадиган энг мураккаб тўсиқлардан бири суд қарорларининг ижросини таъминлашдир. Чунки низо юзасидан қарор қабул қилишнинг ўзи жабрланувчининг ҳуқуқ ва манфаатларини муҳофазаси таъминланинишига эришилган ҳисобланмайди.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – моддалари талабларидан келиб чиқиб, жабрланувчининг манфаатларини ҳимоя қилиш ҳамда жиноят натижасида етказилган зарарларни қоплашни одил судловнинг асосий тамойилларидан бирига айлантириш лозим

Шунингдек, мазкур қоида айрим хорижий давлатларнинг Конституцияларида ҳам назарда тутилганлигини кузатишимиз мумкин. Масалан: Япония, Туркия, Таиланд Конституциясига асосан жабрланувчи ёки унинг оиласига давлат томонидан реституция тарзда адлия вазирлиги қошидаги махсус фонддан компенсация тўланади.

Россия Федерацияси Конституциясининг 52-моддасига мувофик “Жиноятдан ва мансаб ваколатларини суистеъмол қилиш оқибатидан жабрланганларнинг ҳуқуқлари қонун билан ҳимоя қилинади”.

Давлат жабрланувчиларга одил судловдан фойдаланиш ва етказилган зарарни қоплаш имкониятларини кафолатлайди.

Хусусий мулк ҳуқуқи Япония, Россия Федерацияси, Қозоғистон, Қирғизистон, Греция, Италия, Мексика, Руминия, Таиланд каби давлатлар конституцияларида ҳамда алоҳида қонунларда мустаҳкамлаб қўйилган.

Хусусан, 2025 йилнинг 15 апрель куни Руминия Депутатлар палатаси жиноятдан жабрланганлар ҳуқуқларини таъминлашнинг ҳуқуқий механизмини такомиллаштиришга қаратилган қонун қабул қилди.

Қонуннинг асосий мақсади жиноят қурбонларига айбланувчи ёки гумон қилинувчининг мол-мулки ҳисобидан зарарни, шу жумладан, маънавий зарарни қоплаш учун қўшимча имкониятлар беришдан иборат. Қонунда, шунингдек, ҳуқуқий бўшлиқларни бартараф этиш ва Жиноят-процессуал кодексининг таъминлаш чораларини қўллаш билан боғлиқ қоидаларини мувофиқлаштиришга қаратилган.

Прокурор ушбу аризани дарҳол кўриб чиқиши ва чора кўриши ёки уни қабул қилишни рад этиш ҳақида қарор қабул қилиши шарт. Ҳар икки томон – гумон қилинувчи (ёки айбланувчи) ва жабрланувчи қабул қилинган қарор ҳақида хабардор қилиниши лозим.

Бундан ташқари, давлат органларининг ўз ташаббуси билан кўрган таъминлаш чоралари ҳам жабрланувчи томоннинг манфаатларини кўзлаб, унинг алоҳида аризасисиз ҳам автоматик равишда ҳисобга олинишини назарда тутади. Бундай чораларни қўллаш рад этилган тақдирда жабрланувчи 3 кун ичида қарор устидан шикоят қилиш ҳуқуқига эга бўлади [19].

Суд томонидан таъминлаш чораларини кўриб чиқиш тезлаштирилган тартибда, тарафларни чақирмасдан, ёпиқ мажлисда амалга оширилади. Прокурорнинг иштироки шарт ҳисобланади.

Фикримизча давлатда шундай қонунлар жиноят ишлари бўйича жабрланганлар учун процессуал кафолатларни кучайтиришга, шунингдек, етказилган зарарни қоплаш учун янада самарали имкониятларни таъминлашга хизмат қилади.

Зеро, БМТнинг 1985 йил 29 ноябрдаги “Жиноятдан ва ҳокимият ваколатини суиистеъмол қилишдан жабрланганлар учун одил судловнинг асосий принциплари тўғрисида” ги декларациясини (Милан, Италия) ратификация қилиши ҳамда жабрланувчиларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш учун унинг қоидаларини миллий қонунчилигимизга имплементация қилиш ва БМТнинг 2002 йил 24 июлдаги Жиноят ишларида реституция (лот. restitutio - тиклаш) дастурини қўллашнинг асосий принциплари тўғрисидаги 2002/12-сон резолюциясини (Оттава, Канада) ратификация қилиш тавсия этилади.

БМТнинг “victim-centered” моделини қонунчилигимизга жорий этиш асосида “Жабрланувчиларни қўллаб-қувватлаш” фондини ташкил этиш

юзасидан таклиф этилган қонун лойиҳасини қабул қилиш лозим. Фонднинг асосий мақсади – жабрланувчиларнинг тергов ва суд жараёнидаги ҳуқуқий, психологик ва ижтимоий муаммоларини ҳал этиш, Фондни яратиш орқали давлат органлари билан ҳамкорликда ишлайдиган "қўллаб-қувватлаш тизими" ни Рақамли интеграцияси, яъни "Э – Суд" ҳамда "Э – жабрланувчи" тизими орқали фондни боғлаш унда жабрланувчининг шикоятини онлайн кузатиш имконини берувчи "Э – жабрланувчи" тизимини рақамли интеграция қилиш механизмларини ишлаб чиқиш. Бу тергов судьялари фаолиятини соддалаштиради ҳамда жабрланувчиларга бепул юридик маслаҳат бериш, ариза ва шикоятларни тузишда ёрдам бериш, терговда ва судда жабрланувчи шикоятини қайтариб олиш оқибатларини тушунтириб, ишни давом эттиришни тавсия этиши ёки муқобил шаклларидан фойдаланиши мумкинлигини тушунтириш, жиноятдан кейинги стресс, травма (хусусан, аёллар ва вояга етмаганлар учун) билан курашиш учун психологлар ва психотерапевтларни жалб қилиш; жабрланувчилар ва аҳоли учунҳуқуқий саводхонлигини ошириш учун семинарлар ташкил этишни ўз ичига қамраб олади. "Жабрланувчиларни қўллаб-қувватлаш" фондининг барқарор ва самарали фаолият юритиши учун кўп манбали (multi-source) молиялаштириш тизимини жорий этиш таклиф этилади. Бу Фонднинг давлат бюджетига қарамлигини камайтиради ва унинг мустақиллигини таъминлайди. Давлат томонидан ҳар йили давлат бюджети параметрларида Фонднинг маъмурий харажатлари, асосий дастурлари ва ходимлар меҳнатига ҳақ тўлаш учун мақсадли субсидиялар ажратиш, давлат божлари ва йиғимларнинг мақсадли улуши ҳисобидан, жиноят ишларини кўришда ундириладиган давлат божларининг ёки айрим жарима турларининг белгиланган фоизини Фонд даромадига йўналтириш (масалан, ноқонуний топилган даромадларнинг бир қисми), жиноий-ҳуқуқий жарималардан келиб тушадиган маблағларнинг белгиланган фоизи (масалан, 5-10%) Фонд ҳисобига ўтказилиши лозим. Бу жиноят натижасида етказилган зарарни қоплашдан ташқари, ижтимоий адолатни тиклаш тамойилини амалга ошишига хизмат қилади. Бундан ташқари ҳомийлик ва хайрия маблағлари юридик ва жисмоний шахсларнинг ихтиёрий хайрияларини йўналтириш, бунда ҳомийларга солиқ имтиёзларини тақдим этиш Фондга маблағ жалб қилишнинг қўшимча рағбати (мотивацияси) бўлиши мумкин. Халқаро ташкилотлар (БМТ, ЕХҲТ, ЮНИСЕФ ва б.) ҳамда хорижий фондларнинг мақсадли грантлари ҳисобидан фонд маблағларини шакллантириш мумкин.

Кўп манбали молиялаштириш тизимининг таклиф этилиши жабрланувчиларни қўллаб-қувватлаш тизимининг давлат сиёсати даражасида кафолатлайди. Жиноятчиликдан ундириладиган маблағларни жабрланувчиларга

йўналтириш ("victim-centered" моделнинг молиявий асоси) ижтимоий адолатни тиклаш (restorative justice) тамойилини ҳам мустаҳкамлайди.

Юқоридаги таклифларни амалиётга жорий қилиш Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида жиноятдан жабрланганларнинг манфаатларини муҳофазасини таъминловчи ҳуқуқий механизмни такомиллаштириш билан бир қаторда фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш кафолатларини мустаҳкамлайди.

References:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон Стратегияси. – Т., “Ўзбекистон” нашриёти, 2021 й., 464 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси .–Тошкент:yuridik adabiyotlar publish, 2024 й.– 112 б.
3. https://lex.uz/docs/5841063
4. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 29-модда, 6-қисм// 2024.: – 112 б.
5. *Мешкова О.Е.* Роль функций государства в формировании предметного и функционального критериев выделения отраслей в системе права // Вестник Омского университета. — 2021. — Вып. 5. — С. 82–85.
6. Саидов А., Таджихонов У. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. Т.2. – Т., 2001. – Б. 426; Петрухин И.Л. Личная жизнь: пределы вмешательства. – М., 1989. – С. 7; Красавчикова Л.О. Личная жизнь граждан под охраной закона. – М., 1983. – С. 12–20 Фозилов У.Э. Инсон ҳуқуқ ва эркинликлари кафолатининг ҳуқуқий механизмини оптималлаштириш хусусида фикрлар // Ҳуқуқ-Право-Law. – 2003. – №4. – Б. 90–92.
7. Давлат ва ҳуқуқ назарияси: Дарслик / Х.Т.Одилқориев, И.Т.Тультеев ва бошқ; проф. Х.Т.Одилқориев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. – Б. 114.
8. Миразов Д.М. Проблемы совершенствования проверки показаний на месте события по уголовно-процессуальному законодательству Республики Узбекистан. Автореф. дис. … кан. юрид. наук. – Т., 2004. – С. 18–19.
9. Чутбаев М.Р.: Дастлабки терговда гумон қилинувчи ва айбланувчининг ҳуқуқларини чеклаш чегараларини белгилаш муаммолари: Монография. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. – Б. 23.
10. *Муродов Б.Б.* Жиноят ишини тугатиш институтини такомиллаштириш. Юрид.ф.б фан док. (Doctor of Science) учун ёзилган диссертатsiяси – Т. 2018., – 230 б.
11. Матузов Н.И. Правовая система и личность. — Саратов, 2017. — С. 131.

12. Абдумажидов Ғ.А. Жиноят ишларини тергов қилиш ва судда кўриш: муаммолар ечимлар // Ўзбекистон Республикасининг янги кодекслари:назария ва амалиёт: Илмий амалий анжуман материаллари. –Т., –Б.35.

13. *Лукашева Е.А.* Общая теория прав человека. — М., 2016. — С. 169.

14. To‘laganova G.Z. Jinoyat protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. Mualliflar jamoasi / yu.f.d. prof. G.Z. To‘laganova, yu.f.n, dos. S.M.Raxmonovalarning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: TDYuU, 2017. – B. 77.

15. Зокиров Б., Саитбаев Т. Жабрланувчи ва гувоҳларни ҳимоя қилишнинг ҳуқуқий ва ташкилий муаммолари.// Ҳуқуқ-Право-Law. 2000. .№ 2.–51б.

16. Декларatsiя ООН от 29 ноября 1985 г. “Об основных принципах правосудия в отношении жертв преступлений и злоупотребления властью”. См.: Зайцев О.А. Государственная защита участников уголовного процесса. – М., 2020. – С.338–343.

17. Бойцов Л.В. Уголовная юстиция: гражданин, государство. Тверь, 2018.С.16.

18. Безлепкин Б.Т. Возмещение ущерба, причиненного гражданину незаконными действиями органов дознания, предварительного следствия, прокуратуры и суда. М., С. 354 (электрон манба. Мурожаат этилган вақт 2022 йил 28 май) http://lawlibrary.ru/article1015679.html.

19. https://www.digi24.ro/stiri/actualitate/social/deputatii-au-adoptat-un-proiect-care-imbunatatelte-reglementarile-legate-de-masurile-asiguratorii-pentru-victimele-infractiunilor-3199995://web.telegram.org/a/#-1002437158745

РАЗВИТИЕ ДЕТСКОЙ РЕКРЕАЦИОННОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ КАК ФАКТОР РЕАЛИЗАЦИИ КОНСТИТУЦИОННОГО ПРАВА НА БЛАГОПРИЯТНУЮ СРЕДУ

Алимова Райхона Баходировна,
Магистрант Банковско-финансовой Академии Республики Узбекистан

Аннотация. В статье исследуются правовые и институциональные аспекты развития детской рекреационной инфраструктуры как одного из ключевых инструментов реализации конституционного права граждан на благоприятную окружающую среду. Рассматриваются современные тенденции и статистические показатели развития рекреационных зон в Узбекистане, анализируется зарубежный опыт (Германия, Финляндия, Корея) в контексте экологического образования и охраны здоровья детей. Обосновано, что развитие детских экопарков, зелёных школ и рекреационных кластеров способствует укреплению экологических основ конституционного строя и повышению качества жизни населения. Сформулированы конкретные предложения по совершенствованию национальной политики в данной сфере.

Ключевые слова: конституционные права, благоприятная среда, детская рекреация, экопарк, экологическое образование, устойчивая среда.

Annotatsiya. Maqolada bolalar rekreatsion infratuzilmasini rivojlantirishning huquqiy va institutsional jihatlari, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirishdagi o‘rni tahlil etilgan. O‘zbekiston bo‘yicha rekreatsion zonalarning hozirgi holati va statistik ko‘rsatkichlari keltirilgan, shuningdek, Germaniya, Finlyandiya va Koreya tajribasi asosida ekologik ta’lim va sog‘lomlashtirish yo‘nalishlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, “yashil maktablar”, ekoparklar va bolalar uchun rekreatsion klasterlarni rivojlantirish konstitutsion huquqlarni mustahkamlash hamda aholining hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu asosda milliy siyosatni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: konstitutsiyaviy huquqlar, qulay muhit, bolalar rekreatsiyasi, ekopark, ekologik ta’lim, barqaror rivojlanish.

Abstract. The article examines the legal and institutional aspects of developing children’s recreational infrastructure as a key factor in implementing the constitutional right to a favorable environment. It analyzes current trends and statistical indicators of recreational zones in Uzbekistan and explores international experience (Germany, Finland, South Korea) in promoting environmental education and child health protection. The study substantiates that the creation of eco-parks, green schools, and recreational clusters for children strengthens the constitutional foundations of environmental rights and improves the overall quality of life. Specific recommendations are proposed to enhance national policy in this field.

Key words: constitutional rights, favorable environment, children’s recreation, eco-park, environmental education, sustainable development.

Современная государственная политика Узбекистана ориентирована на укрепление конституционных гарантий граждан, в числе которых особое место занимает право каждого на благоприятную окружающую среду [1]. Одним из ключевых направлений реализации этого права является формирование экологически и социально устойчивой детской рекреационной инфраструктуры, обеспечивающей условия для отдыха, оздоровления и гармоничного развития подрастающего поколения.

Детская рекреация сегодня рассматривается не только как элемент социальной сферы, но и как важнейший институт экологической и правовой культуры. Международная практика подтверждает, что доступ к качественным рекреационным зонам напрямую связан с реализацией экологических и социальных прав ребёнка, закреплённых в Конвенции ООН о правах ребёнка (1989) [2].

Конституция Республики Узбекистан (редакция 2023 года) закрепляет за каждым гражданином право на охрану здоровья, образование и благоприятную окружающую среду [1]. Это положение напрямую связывает развитие детских рекреационных зон с государственными обязательствами по созданию безопасных и экологичных условий жизни. В частности, в статье 75 указано, что государство обеспечивает охрану здоровья детей, развитие массового спорта и укрепление семейных ценностей. По данным Министерства дошкольного и школьного образования (2024), в стране функционирует свыше 250 детских оздоровительных лагерей, однако только 42 % из них соответствуют современным санитарно-экологическим стандартам [3]. При этом урбанизация и дефицит зелёных зон создают серьёзные вызовы для реализации конституционного права детей на отдых в экологически чистой среде.

Развитие детской рекреационной инфраструктуры в современном обществе приобретает не только культурное и образовательное, но и выраженное социально-экологическое значение. Согласно данным Комитета по экологии и охране окружающей среды Республики Узбекистан, на 2024 год в стране насчитывалось более 1 200 рекреационных и зелёных зон, однако лишь около 12 % из них адаптированы для системного экологического воспитания и детского отдыха. Это указывает на существенный резерв для формирования комплексной экологической политики, ориентированной на подрастающее поколение.

С точки зрения социальной функции, детская рекреационная среда выполняет несколько ключевых задач: формирование экологической культуры у детей и подростков через практическое взаимодействие с природой. По данным Программы ООН по окружающей среде (UNEP), раннее приобщение детей к экологическим практикам снижает вероятность антиэкологических моделей поведения во взрослом возрасте на 35–40 %. профилактика социального и психологического стресса. Урбанизация и рост плотности застройки в Ташкенте и других крупных городах привели к снижению нормы озеленённых зон до 8,5 м² на человека при рекомендуемом показателе ВОЗ - не менее 15 м². Создание детских парков и эколого-оздоровительных площадок компенсирует этот дефицит.

Инклюзивность и доступность. Современные детские экопарки обеспечивают равные условия для детей с ограниченными возможностями. В Финляндии, например, более 80 % природных рекреационных площадок имеют адаптированные маршруты и сенсорные зоны, что может стать моделью для внедрения в Узбекистане. Развитие локальных сообществ и “зелёной экономики”. Создание эколого-образовательных центров при детских парках

способствует занятости местного населения, развитию эковолонтёрства и экологического туризма. Экологическая составляющая инфраструктуры проявляется в снижении антропогенной нагрузки на городскую среду и формировании устойчивых природных экосистем. Так, по данным Министерства строительства и ЖКХ (2023 г.), внедрение систем «зелёного зонирования» вокруг школ и детсадов позволяет снизить уровень пыли и углекислого газа в воздухе до 18–22 % в радиусе 300 м. В совокупности с созданием водо- и энергосберегающих технологий (капельное орошение, солнечные панели, переработка отходов), детские экопарки становятся примером локальных экологических инноваций.

Социально-экологическая значимость подобных проектов заключается в том, что они служат реализацией статьи 54 Конституции Республики Узбекистан, закрепляющей право граждан на благоприятную окружающую среду. В то же время развитие детской рекреационной инфраструктуры способствует выполнению международных обязательств страны — в частности, Целей устойчивого развития ООН (ЦУР-3, ЦУР-11, ЦУР-13), направленных на охрану здоровья, устойчивость городов и борьбу с изменением климата.

Следовательно, развитие детской рекреационной инфраструктуры представляет собой стратегическое направление национальной экологической и социальной политики, в котором соединяются права ребёнка, интересы общества и задачи устойчивого развития.

Международный опыт. Мировая практика свидетельствует, что развитие детской рекреационной инфраструктуры рассматривается многими странами не только как элемент социальной политики, но и как инструмент реализации экологических и конституционных прав граждан. Опыт ведущих государств показывает, что экологически ориентированные пространства для детей служат устойчивым механизмом социализации, воспитания и охраны здоровья будущих поколений. Финляндия ещё одна страна, которая считается одной из наиболее успешных стран в интеграции экологического воспитания в систему детского отдыха. С 1994 года в стране действует программа «Eco-Schools», охватывающая более 60 % образовательных учреждений. При школах и детских садах создаются мини-экоцентры, рекреационные зоны и экологические тропы, где дети получают знания об охране природы через практические занятия.
Согласно исследованию Финского института окружающей среды, в школах, участвующих в программе, уровень экологической осведомлённости учеников на 45 % выше, чем в контрольных группах. Кроме того, участие родителей и местных сообществ способствует укреплению связей между семьёй, школой и муниципальными органами власти.

В Швеции действует сеть «Nature Schools» (природных школ), интегрированных в национальную систему образования. Эти учреждения совмещают функции образовательных центров и рекреационных площадок, где дети регулярно проводят занятия на открытом воздухе. По данным Шведского агентства охраны окружающей среды (Naturvårdsverket, 2022), 83 % муниципалитетов страны имеют специализированные детские экозоны, где используются солнечные панели, биотуалеты и системы сбора дождевой воды. В этих зонах дети обучаются бережному обращению с ресурсами, участвуют в озеленении и проектировании мини-парков. Такая модель способствует формированию у подрастающего поколения экологического мышления и чувства ответственности за окружающую среду.

В Германии активно реализуется концепция «Grüne Klassenzimmer» (Зелёный класс) – это форма детских экопарков и площадок, совмещающих отдых и экологическое образование. Более 12 000 подобных площадок функционируют при школах и детских садах, многие из них финансируются в рамках федеральной программы «Nationale Klimaschutzinitiative». Согласно данным Федерального министерства окружающей среды Германии (BMUV, 2023), внедрение таких зон позволило сократить детскую заболеваемость, связанную с гиподинамией, на 18 %, а также повысить уровень физической активности школьников на 27 %. Эти показатели напрямую связаны с доступом к экологически безопасным зонам отдыха.

В Японии большое внимание уделяется созданию экологических парков в густонаселённых городах. С 2010-х годов действует государственная программа «Green Community Parks», в рамках которой в каждой префектуре создаются зелёные зоны для детей с элементами экологического обучения. По данным Министерства окружающей среды Японии (2023), более 70 % парков используют возобновляемые источники энергии (солнечные батареи для освещения, системы сбора дождевой воды, переработка отходов). Эти меры способствуют сокращению углеродного следа на до 25 % по сравнению с традиционными детскими площадками.

Южная Корея развивает концепцию «Smart Eco-Park», в рамках которой детские площадки оборудуются датчиками качества воздуха, системами автоматического полива и солнечными панелями. Эти парки не только выполняют рекреационную, но и образовательную функцию, позволяя детям в игровой форме наблюдать за изменениями в экосистеме. Согласно данным Корейского института экологических инноваций, такие зоны помогают снизить уровень загрязнения микрочастицами (PM2.5) на до 20 %, а также экономить до 15 % электроэнергии за счёт «умного» управления инфраструктурой.

Таким образом, международный опыт демонстрирует, что успешное развитие детской рекреационной инфраструктуры требует межсекторального подхода, включающего: государственную политику в сфере устойчивого развития и образования; участие местных сообществ и частного сектора; применение инновационных технологий и принципов «зелёного строительства».

Для Узбекистана адаптация данных практик особенно актуальна в контексте реализации стратегии «Yashil makon» (2021- 2030) и Концепции экологического образования и воспитания молодёжи, утверждённой Министерством экологии.

Внедрение элементов международных моделей - «Eco-Schools» (Финляндия), «Nature School» (Швеция), «Grüne Klassenzimmer» (Германия) - в национальные программы может повысить эффективность реализации конституционного права на благоприятную среду и способствовать устойчивому развитию регионов.

Заключение

Развитие детской рекреационной инфраструктуры - это не только вопрос социальной политики, но и реальный механизм обеспечения конституционного права на благоприятную среду. Современные вызовы урбанизации, климатических изменений и роста детских заболеваний требуют системного подхода к организации безопасного и экологичного пространства для детей.

Предложения:

1. Принять государственную программу «Детская рекреация и зелёные зоны Узбекистана – 2030».
2. Включить экологические стандарты в лицензирование детских лагерей и парков.
3. Развивать систему «эко-волонтёрства» среди учащейся молодёжи.
4. Создать национальный мониторинг состояния детских рекреационных зон на основе GIS-технологий.
5. Привлекать международные фонды (UNICEF, UNEP, Green Climate Fund) к финансированию экологических инициатив в сфере детского отдыха.

Таким образом, развитие детской рекреационной инфраструктуры служит фундаментом реализации конституционного права на благоприятную среду, укрепления здоровья нации и формирования экологически ответственного гражданского общества.

Список литературы

1. Конституция Республики Узбекистан (новая редакция). Ташкент, 2023.
2. Convention on the Rights of the Child. United Nations, 1989.
3. Министерство дошкольного и школьного образования Республики Узбекистан. Отчёт о состоянии детских лагерей. Ташкент, 2024.
4. Государственный комитет по статистике Республики Узбекистан. Экологические показатели за 2024 год. Ташкент, 2025.
5. United Nations. Sustainable Development Goals Report 2024. New York, 2024.
6. Bundesministerium für Umwelt, Naturschutz und nukleare Sicherheit. *Grüne Schule Initiative.* Berlin, 2024.
7. Finnish Environment Institute (SYKE). *Children in Nature Program Report 2023.* Helsinki, 2023.
8. Ministry of Environment, Republic of Korea. *Eco-Campus Strategy 2023.* Seoul, 2023.
9. Министерство экологии, охраны окружающей среды и климата Республики Узбекистан. *Национальная стратегия «Зелёный Узбекистан – 2030».* Ташкент, 2024.

ПРАВОВАЯ КУЛЬТУРА КУРСАНТОВ КАК ОСНОВА КОНСТИТУЦИОННОГО СОЗНАНИЯ И ГРАЖДАНСКОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

Ходиев Рустамжон Хамдамович,
Замначальника учебно-методического управления
Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан

Аннотация. В статье анализируется значение правовой культуры курсантов как ключевого фактора формирования конституционного сознания и гражданской ответственности. Представлены основные компоненты правовой культуры, такие как правовые знания, правовое сознание, правовая деятельность и ценностно-нормативные установки. Особое внимание уделяется развитию конституционного сознания, проявляющемуся в осознании прав и обязанностей гражданина, а также готовности действовать в рамках закона.

Ключевые слова: правовая культура, конституционное сознание, гражданская ответственность, правовое воспитание, правовая деятельность, правовое сознание, правовые кейсы, военное образование.

Annotatsiya. Maqolada kursantlarning huquqiy madaniyati konstitutsiyaviy ong va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishdagi asosiy omil sifatida tahlil qilinadi.

Huquqiy madaniyatning asosiy komponentlari, jumladan huquqiy bilimlar, huquqiy ong, huquqiy faoliyat va qiymat-normativ yondashuvlar taqdim etiladi. Konstitutsiyaviy ongni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan, bu fuqaroning huquq va majburiyatlarini anglashi hamda qonun doirasida harakat qilishga tayyorligini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: huquqiy madaniyat, konstitutsiyaviy ong, fuqarolik mas’uliyati, huquqiy tarbiya, huquqiy faoliyat, huquqiy ong, huquqiy keyslar, harbiy ta’lim.

Abstract. The article analyzes the significance of cadets' legal culture as a key factor in the formation of constitutional consciousness and civic responsibility. The main components of legal culture, such as legal knowledge, legal awareness, legal activity, and value-normative attitudes, are presented. Special attention is given to the development of constitutional consciousness, manifested in the awareness of citizens’ rights and duties, as well as the readiness to act within the framework of the law.

Keywords: legal culture, constitutional consciousness, civic responsibility, legal education, legal activity, legal awareness, legal cases, military education

«Конституция является продуктом человеческого мышления и развития образования, а также правовой культуры. Любая Конституция отражает уровень культурной жизни и развития общества. В процессе своего развития каждая страна старается приблизить к себе свое национальное законодательство, признавая верховенство общепризнанных норм международного права, внедряя в законодательство обычаи, традиции и ценности» [1]. Современное общество предъявляет высокие требования к уровню правового сознания граждан, особенно к будущим офицерам и специалистам силовых ведомств. В условиях формирования демократического государства ключевым фактором становится не только знание норм права, но и их практическое применение, а также развитие правовой культуры личности.

Правовая культура курсантов является фундаментом формирования конституционного сознания и гражданской ответственности, способствуя воспитанию законопослушных, активных и социально ответственных граждан. Правовая культура представляет собой совокупность знаний, убеждений, ценностей и навыков, которые обеспечивают осознанное, уважительное и эффективное взаимодействие личности с правовой системой государства. Она формирует основу правосознания человека и определяет его поведение в рамках закона, обеспечивая гармоничное сочетание теоретических знаний и практических навыков. Именно через структурированные элементы правовой культуры реализуется способность гражданина действовать ответственно и в соответствии с правовыми нормами.

В научной литературе основные элементы правовой культуры представлены следующим образом: знания о праве – изучение Конституции, законов, правовых норм и процедур; правовое сознание – осознание значимости закона для общества и личной ответственности, правовая деятельность – умение применять нормы права на практике, соблюдение законности в повседневной жизни, ценностно-нормативный компонент – формирование убеждений о необходимости соблюдения прав и обязанностей. Известно, что «… в Узбекистане происходит глубокая трансформация общественного сознания. Этому способствовали проводимые в стране широкомасштабные реформы, дальновидная и последовательная политика главы государства, принятие обновлённой Конституции, реализуемые меры по укреплению правовых и демократических институтов. Особенностью текущего этапа развития является переход от формального восприятия правовых норм к их осознанному и повседневному применению. Граждане все активнее вовлекаются в процессы государственного управления, проявляют инициативу в общественной жизни, отстаивают права и законные интересы с опорой на конституционные нормы. Это свидетельствует о росте правовой грамотности населения и укреплении основ конституционной культуры» [2].

В контексте военного образования правовая культура особое значение приобретает, так как курсанты должны быть примером законопослушного поведения и основой правового порядка в будущей профессиональной деятельности. Развитие правовой культуры у курсантов напрямую связано с формированием их конституционного сознания, которое отражает не только знание законов, но и готовность применять их на практике.

Конституционное сознание – это осознание гражданином своих прав и обязанностей, закрепленных Конституцией, и готовность действовать в рамках правового поля. Для курсантов оно является ключевым показателем уровня правовой культуры. Данный вид сознания также имеет свои элементы. К ключевым элементам конституционного сознания относят знание основных положений Конституции и их практическое применение, понимание принципов разделения властей и верховенства закона, осознание значимости соблюдения прав и свобод граждан, готовность к гражданской активности в рамках правового поля. Развитие конституционного сознания у курсантов способствует формированию гражданской ответственности – способности принимать осознанные решения и отвечать за свои действия в профессиональной и социальной сферах.

Гражданская ответственность проявляется в готовности соблюдать закон в повседневной жизни и профессиональной деятельности; защищать права и свободы других граждан; участвовать в деятельности, направленной на

укрепление правопорядка; проявлять инициативу в решении социальных и правовых проблем. Формирование гражданской ответственности у курсантов возможно через комплексный подход, а именно – сочетание теоретической подготовки, практических кейсов, ролевых игр, симуляций судебных процессов и участия в общественных инициативах.

Для достижения названных целей необходим комплекс методов, направленных на формирование правовой культуры и гражданской ответственности у курсантов. В первую очередь это образовательные технологии, включающие лекции, семинары, дискуссии, а также анализ конституционных и правовых кейсов. Практическая деятельность курсантов предполагает участие в моделировании судебных процессов, правовых дебатах и др.

Особое внимание уделяется изучению Конституции как основного закона государства, закрепляющего права и обязанности граждан, включая обязанности военнослужащих. Интеграция конституционных и правовых знаний в профессиональную подготовку позволяет курсантам осознавать юридические аспекты военной службы и роль офицера как гаранта законности. Дополнительно активно используются цифровые платформы и симуляторы: интерактивные программы по изучению законов, тестирование знаний, онлайн-дискуссии. Например: [3]

1. Анализ конституционных кейсов.

Цель: Развитие конституционного сознания и умения применять законы на практике.

Задание: Курсанты получают кейс-ситуацию (например, нарушение прав гражданина в военной части). Им необходимо:

определить, какие статьи Конституции затрагиваются;

предложить законные способы решения ситуации;

обсудить последствия каждого варианта решения для граждан и государства.

2. Ролевые игры и моделирование судебного процесса.

Цель: Практическое применение правовых знаний и формирование гражданской ответственности.

Задание: А) Создать мини-судебный процесс (роль судьи, прокурора, адвоката, свидетеля).

Б) Рассмотреть нарушение прав в условной ситуации (например, нарушение служебных обязанностей офицером).

В) Вынести решение, опираясь на нормы Конституции и закона.

3. Дебаты на правовую тему.

Цель: Развитие критического мышления и правовой аргументации.

Задание: разделить курсантов на группы «за» и «против» по теме, например: «Гражданская активность офицера важнее формального соблюдения правил». Курсанты готовят аргументы, проводят дебаты, а затем делают совместный вывод, опираясь на законы.

4. Проектная работа: «Право и служба».

Цель: Интеграция правовых знаний в профессиональную подготовку.

Задание: Курсанты разрабатывают проект: как применить нормы Конституции и законы в конкретной профессиональной ситуации (например, при обеспечении правопорядка в воинской части); как укрепить доверие общества к силовым ведомствам через соблюдение закона; представляют проект однокурсникам с обсуждением возможных сложностей и решений.

Выполнение предложенных заданий способствует комплексному формированию правовой культуры курсантов, укреплению их конституционного сознания и развитию гражданской ответственности. Анализ конституционных кейсов, участие в ролевых играх и моделировании судебных процессов, проведение дебатов и проектная деятельность позволяют курсантам не только усвоить теоретические знания о Конституции и правовых нормах, но и применять их на практике в профессиональной и социальной сферах.

Высокий уровень правовой культуры курсантов и сознательное понимание Конституции способствует формированию критического мышления и способности оценивать правовые последствия своих действий, укреплению моральных и этических ориентиров, повышению доверия общества к силовым ведомствам и государственным институтам, а также подготовке компетентных и законопослушных офицеров, способных принимать самостоятельные решения в сложных профессиональных ситуациях. Следовательно, правовая культура курсантов является основой формирования конституционного сознания и гражданской ответственности. Системное изучение правовых норм, развитие конституционного сознания и вовлечение в практическую деятельность формируют у будущих офицеров устойчивые правовые ценности, готовность действовать в рамках закона и активно участвовать в жизни общества. Инвестиции в формирование правовой культуры – это вклад в развитие демократического, правового и социально ответственного государства.

Таким образом, «… развитое, духовно зрелое правосознание формирует у человека уважительное, почтительное отношение к конституции, позволяет осознать ее необходимость в общественной жизни как стабилизирующего инструмента правовой жизни страны» [4].

References:

1. https://gov.uz/ru/religions/news/view/29594

2. Рахманов А., Азимов С. Формирование конституционной культуры в условиях прямого действия обновленной Конституции – важное требование укрепления правового государства. http://www.nhrc.uz/ru/news/formirovanie-konstitutsionnoj-kultury-v-uslovijah-prjamogo-dejstvija-obnovlennoj-konstitutsii-vazhnoe-trebovanie-ukreplenija-pravovogo-gosudarstva

3. Ходиев Р.Х. Kursantlar uchun interfaol xukukiy-madaniy kazuslar to‘plami. – Тошкент, 2024.

4. Червонюк В.И. Конституция и конституционное правосознание. // Вестник Московского университета МВД России. №8, 2008.

5. Конституция Республики Узбекистан. https://lex.uz/docs/6445147#6446776

JAMIYAT FAROVONLIGI YO‘LIDA EKALOGIK ISLOHOTLAR HAMDA DEMOKRATIK O‘ZGARISHLARNING KONSTITUTSIYADA YANGIDAN VA YANADA MUSTAHKAMLANGANLIGI

Jalolov Alisherjon Abduxomid o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligigi universiteti Axborot texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi, mayor
Raxmatullayeva Rayhona Navro‘zjon qizi,
Jamoat xavfsizligiga universiteti yurisprudensiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
el.pochta: rayhonaraxmatullayeva37@gmail.com
Tel: +998991538707

Annotatsiya: Yangilangan konstitutsiyani jamiyat va davlat rivoji uchun ta'siri, ekalogik muammolarni chinakam muammo sifatida qabul qilinishi konstitutsiyada aks etishi, insoniyatni bu kabi muammolarga befarq bo‘lmaslikka undash.

Kalit so‘zlar: Ekologiya, Orol dengizi, hayvonot dunyosi, inqiroz, jamiyat, Konstitutsiya, yer, havo ifloslanishi.

Bugungi kunda har bir mustaqil davlatning o‘z rivojlanish hamda taraqqiyot yo‘li mavjud. Har bir davlatning o‘z huquqiy hujjatlari qonunlari hamda konstitutsiyasi mavjud, shu bilan birga O‘zbekistonda ham. Demokratik yuksalishni yanada amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi 2023-yil 30-aprelda bo‘lib o‘tgan referendumda yangi konstitutsiya muhokamasi bo‘lib o‘tgan edi. Bunga ko‘ra ko‘plab o‘zgarishlar hamda qo‘shimchalar kiritilgan edi. Bunga qadar 1992 yildan buyon konstititutsiyaga jami 15 marta o‘zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o‘zgarishlar ko‘lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiylarga ko‘'ra, konstitutsiya 65 foizga

yangilangan.[1] Ayniqsa, ekalogik o‘zgarishlarga urg'u berilgan. Konstitutsiyaning XI bob ya'ni Fuqarolarning burchlari bobida 62-modda berilgan. Ushbu moddada Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdliklari ta'kidlangan. Chunki, yer yuzi og'ir ahvolga kelib qolgani, ekalogik muammolar barcha xalqlar hayotiga salbiy ta'sir qilayotgani hech kimga sir emas. Ushbu muammolarga jiddiy qaragan holda bosh qonunimizga kiritildi, bunga barcha amal qilishi shart. Bundan tashqari, ekalogiya zarar yetkazgan insonlar uchun kodekslarda ko‘plab jazo choralari belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 49-moddasi Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkaziladi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘radi.[2]

Bugungi kunda turar joyga ehtiyoj ortib borar ekan ehtiyojni qondirish kerak. Bu masalada qonuniy hamda noqonuniy qurilishlar ko‘payib bormoqda. Qurilishlar orqasidan ko‘p chang miqdori atmosferaga chiqyapti hamda atmasferada uzoq muddat qolib ketmoqda . Ayniqsa Toshkent viloyatida bu jarayon ko‘p yuz beryapti. Hattoki, 2024-yil 29-fevralda Toshkent havoning ifloslanganlik darajasi bo‘yicha dunyoda
1-o‘ringa chiqqan edi. Boshqa paytlar esa quyi pog'onalarni egallab kelmoqda. Bu kabi vaziyatlarni oldini olish uchun maksimal darajada ma'sul xodimlarni jalb qilish ya'ni har bir ma'lum hudud uchun biriktirish kerak.

Yana bir muammolardan biri bu orol fojiasi hisoblanadi. Ushbu masala BMT darajasida ham muhokama qilindi. 1960-yildan beri Orol dengizi suvi qisqarib kelmoqda. 2017-yilda esa deyarli qurib bo‘lgan edi. Buning sababi esa Orol dengizini suv bilan ta'minlaydigan Amudaryo va Sirdaryo suvlarini haddan tashqari ko‘p ishlatilishidir. Hozirda Orol dengizi o‘rnida tuz hosil bo‘lgan, bu tuz shamol orqali uchib har xil kasalliklarga sabab bo‘lyapti. Buni oldini olish uchun ko‘proq cho‘l o‘simliklarini ekish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 68-moddasi Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy

boylik sifatida muhofaza qilishni ta’minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi mumkin.[3]

Yerosti boyliklaridan noqonuniy ravishda qazib olinishi ayniqsa oltinni qazib olinishi hamda sotilishi oqibatida davlat iqtisodiga zarar yetmoqda,ya'ni davlat mulki talon-taroj qilinmoqda. Ushbu holat ko‘p kuzatilmoqda.

O‘simliklar hamda hayvonot dunyosi turlari yo‘qolib ketishi oqibatida davlat ularni o‘z muhofazasiga oldi. "'Nega yo‘qolib ketyapti?" degan savolga bir nechta javoblar mavjud. Birinchi navbatda insoniyat ta'siriga bog'liq ya'ni noqonuniy ravishda qizil kitobga kiritilgan hayvonlarni ovlash hamda ov mavsumidan tashqari vaqtda boshqa hayvonlarni ko‘p miqdorda ovlash oqibatida sodir bo‘lyapti. Endi statistik ma'lumot keladigan bo‘lsak, 2023-yildagi nazorat tadbirlarida Respublika bo‘yicha ov qilish va baliq ovlash qoidalarini buzish bilan bog'liq jami 997 ta holat aniqlangan va 995 nafar shaxsga nisbatan 1,7 mlrd so‘mlik choralar ko‘rilgan. Bundan tashqari, 2024-yilning I va II-choraklarida ov qilish va baliq ovlash qoidalarini buzish bilan bog‘liq 287 ta holatda 298 nafar shaxsga nisbatan 957 mln so‘mlik jarima belgilangan.[4]

Bundan tashqari, yer xususiy mulk qilib beriladi qachonki yerdan tog'ri foydalanilganda ya'ni yer olingandan keyin bekor hech narsa ekilmasdan, qarovsiz ahvolda qoldirmaslik sharti bilan beriladi. Hozirgi kunda hattoki odamlar hovlisidagi yerdan foydalanishmayapti. Bunga, albatta, chora ko‘rish tartibi belgilandi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, yurtimizni ekalogik inqirozga hamda og'ir ahvolga keltirish o‘z qo‘limizda. Har bir natija qat'iy hamda rejali harakat bilan yuzaga keladi. Yuqorida ta'kidlab o‘tilgan muammolarga yechim ham harakat va intizom hisoblanadi. Yuqorida bir nechta taklif va tavsiyalar berib o‘tdim. Eng avval shuni esdan chiqarmaslik lozim, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni hozirgi avlodga chuqur o‘rgatish kerak, har bir qilayotgan ishini mohiyatini anglab yetishi zarur, vijdonli va oqil qilib tarbiyalanishi lozim. Atmosferada chang ko‘payib ketmasligi uchun qurilish sonini kamaytirish zarur. Orolbo‘yi hududlarda aholi salomatligi uchun ko‘proq cho‘l o‘simliklari ekish maqsadga muvofiqdir. O‘simliklar va hayvonot dunyosiga zarar yetkazmaslik uchun ovchilarga, avvalambor, huquqiy ongini rivojlantirish kerak, targ'ibot ishlari amalga oshirilib, ta'sir chorasini kuchaytirish kerak. Yerdan noto‘g'ri foydalanmaslik uchun mahalla raislari o‘z mahallasiga ma'sul bo‘lishi kerak. Har bir xonadon o‘rganilishi zarur.

References:

1. Azimov, F. (2024). YANGI KONSTITUTSIYA – TARAQQIYOT QOMUSI. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 3(13), 25–28. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/zdif/article/view/50433
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasi // https://lex.uz/docs/-6445145
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasi // https://lex.uz/docs/-6445145
4. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi. “Noqonuniy ov: joriy yilda 298 nafar shaxsga chora ko‘rilgan”. 23.07.2024-yil // https://gov.uz/oz/eco/news/view/16945

KONSTITUTSIYAVIY IMPERATIVLARNING HARBIY XIZMATCHILAR VA ULARNING OILA A’ZOLARIGA TAALUQLI QONUNCHILIKDA AKS ETTIRILISHI MASALALARI

Baqoyev Shahzod Hasan o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti
Oliy ta’limdan keyingi ta’lim fakulteti doktoranti

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi normativ-huquqiy tizimda qonun ustuvorligi prinsipini faqat deklarativ darajada emas, balki imperativ shaklda mustahkamladi. Mazkur qoidalar davlat faqat qonun chiqaruvchi organlar qabul qilgan qonunlar orqali fuqarolarning huquqiy holatiga imtiyoz yoki cheklovlar kiritishi mumkinligini belgilaydi. Bunday yondashuv demokratiya va huquqiy davlat prinsiplari, shu jumladan qonun ustuvorligi va fuqarolarning huquqiy tengligi tamoyillaridan kelib chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasi fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipini mustahkamlab, imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanishi lozimligi keltirilgan[1]. Unga ko‘ra Konstitutsiyada huquq normalarini belgilashda “imperativ” tamoyil joriy etilgan: ya’ni fuqarolarga beriladigan har qanday imtiyoz (masalan, soliq imtiyozlari, ijtimoiy nafaqalar, xizmatdagi yengilliklar) faqat Qonun bilan belgilanishi mumkin bo‘lib, bunday imtiyozlar ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.

Xuddi shunday, Konstitutsiyaning 21-moddasi huquq va erkinliklarning faqat qonunga muvofiq cheklanishi mumkinligini qat’iy qoida sifatida belgilangan[1]. Hech kim qonunchilikda nazarda tutilmagan majburiyatga (cheklovga) o‘z roziligisiz tortilishi mumkin emas.

Konstitutsiya 19 va 21-moddalarida belgilanganidek, fuqarolarga (jumladan, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolariga) imtiyoz berish yoxud ularning

huquqlarini cheklash vakolati faqat qonunga asosan bo‘ladi. Agar amaliyotda bunday imtiyoz yoki cheklovlar qonun bilan belgilanmasa, bu konstitutsiyaviy ziddiyatni keltirib chiqaradi. Ya’ni, qonun kuchiga ega bo‘lmagan hujjatlar bilan harbiy xizmatchilar yoki oila a’zolarining huquqiy holati belgilanishi Konstitutsiya ustunligi prinsipiga nomuvofiq bo‘ladi. Konstitutsiyaning 15-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so‘zsiz tan olinishi lozim[1].

Mahalliy olimlarimizdan X.T.Odilqoriyevning fikricha demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish maqsadida Konstitutsiya va qonun ustunligi hokimiyatlar taqsimlanishining o‘zaro tiyib turish va muvozanatlash mexanizmini ta’minlashga xizmat qiladi [2]. Bundan kelib chiqadiki, agar qonunga xilof ravishda quyi normativ hujjatlar biror imtiyoz yoki cheklov joriy etsa, amalda Konstitutsiya ustuvorligi tamoyili buzilgan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida” O‘RQ-682-son Qonunining 8-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining so‘zsiz ustuvorligi tan olinadi[3]. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinadi hamda uning normalari va prinsiplariga zid bo‘lishi mumkin emasligi belgilangan.

Harbiy xizmatchilar (oila a’zolari ham) singari alohida huquqiy maqomga ega guruhlar uchun beriladigan imtiyoz va qo‘shimcha kafolatlar hamda ularning ayrim huquqlariga kiritiladigan cheklovlar bevosita qonunda belgilanishi talab qilinadi. Bizningcha, bunday muhim masalalar ijroiya hokimiyatning normativ qarorlari ixtiyoriga qo‘yilmasdan, keng vakillik organi – parlament muhokamasi va nazorati ostida hal etilishi maqsadga muvofiq. Bu yondashuv ijtimoiy adolatni ta’minlashga, imtiyoz va cheklovlarning asossiz yoki suiiste’mol tarzda qo‘llanishini oldini olishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda amaldagi holatga nazar solsak, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolariga tegishli imtiyoz hamda cheklovlar bir qancha qonun hujjatlarida tarqoq holda tartibga solingan. Asosiy qonun sifatida – “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonun mavjud bo‘lib, unda harbiy xizmat turlari, chaqiruv, kontrakt xizmatining asosiy shartlari va harbiy xizmatga oid ayrim cheklovlar belgilangan[4]. Biroq mazkur Qonun harbiy xizmatchilarning ijtimoiy maqomi, imtiyoz va kafolatlari masalalarini shuningdek, cheklovlarning ayrimlari keltirilgan bo‘lsada barcha imtiyoz va cheklovlarni to‘liq qamrab olmaydi. Aksincha, amaliyotda ko‘plab imtiyozlar Prezident farmonlari yoki Hukumat qarorlari orqali tasdiqlangan Nizomlarda belgilab berilgan.

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolariga qo‘yilgan cheklovlar ham qisman qonun, qisman quyi normativ hujjatlarda uchraydi.

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1008-son Qonuniga ko‘ra Prokuratura, Bojxona, Ichki ishlar, Milliy gvardiya organlarida va harbiy xizmatni o‘tash bilan bog‘liq cheklovlar belgilangan[5]. Biroq ayrim muhim cheklovlar (masalan, harbiy xizmatchilarning ish tashlash huquqiga ega emasligi yoki garnizondan tashqariga o‘zboshimchalik bilan chiqishi mumkin emasligi) to‘g‘ridan-to‘g‘ri Qonun bilan emas, balki quyi normativ hujjatlar bilan tartibga solinishi kuzatilmoqda.

M.V.Baglay Konstitutsiyaga zid har qanday normativ-huquqiy hujjat yuridik kuchini yo‘qotishini, shu sababli konstitutsiyaviy nazorat organlari (Konstitutsiyaviy sud va boshqalar)ga Konstitutsiyaga muvofiqlikni ta’minlash vakolati berilganligini ta’kidlaydi [6].

Yuqoridagi holatlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston qonunchiligida harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari huquqiy maqomi, ularga tegishli imtiyozlar va ularning cheklovlari hozircha yakka tartibdagi maxsus Qonun darajasida to‘liq tartibga solinmagan. Aksincha, bu masalalar turli qonun osti hujjatlar va ko‘plab farmon-qarorlarda tarqoq holda keltirilgan. Bu esa Konstitutsiyada nazarda tutilgan talablarga zid.

Yuqorida keltirilgan tahlil va taqqoslashlar asosida, quyidagi ilmiy xulosalarni qilish mumkin:

Birinchidan, Konstitutsiya normalaridan kelib chiquvchi tamoyillarga asosan, harbiy xizmatchilar va oila a’zolarining huquqiy holatini belgilovchi imtiyoz va cheklovlar faqat qonun darajasidagi hujjatlarda mustahkamlanishi lozim. Bu tamoyil yordamida imtiyoz va cheklovlarni belgilash mas’uliyatini deputatlar muhokamasi va ijtimoiy fikrlar orqali ko‘rib chiqib qabul qilinishi lozimligini anglatadi. Shu sababdan, harbiy xizmatchilar yoki ularning oila a’zolari ijtimoiy-iqtisodiy imtiyozlarini, siyosiy-huquqiy cheklovlarini farmon yoki qaror bilan belgilash Konstitutsiyaga zid bo‘lib, huquqiy nomuvofiqlik paydo bo‘ladi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston amaliyotida harbiy xizmatchilar va oila a’zolariga oid huquqiy normalarning turli darajadagi manbalarda tarqoq holda mavjudligi qonun ijodkorligi jihatidan bo‘shliq mavjudligini ko‘rsatadi. Hozirga qadar harbiy xizmatchilarning maqomi va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish masalalarini kompleks ravishda qamrab oluvchi yagona Qonun qabul qilinmagani sababli, bu munosabatlar qisman Prezident qaror yoki farmonlari va hukumat qarorlarida tartibga solib kelingan. Ushbu holatni konstitutsiyaviy ziddiyat deb

baholash ilmiy va amaliy jihatdan o‘z asosiga ega, chunki bunday holatda normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasida buzilish yuzaga keladi. Mazkur nomuvofiqlikni bartaraf etish huquqiy davlat talabidir, zero Konstitutsiyaning ustunligi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi prinsipini ta’minlash zarur.

Yuqoridagi xulosalarga muvofiq, bizningcha jamoatchilik muhokamasiga taqdim etilgan “Harbiy xizmatchilar maqomi va ularni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihasiga harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolariga oid barcha imtiyoz va cheklovlarni kiritib yangi tahrirda muhokamaga taqdim etib qabul qilish lozim.

Qonunning predmeti keng qamrovli bo‘lib, harbiy xizmatchilarning huquqlari, majburiyatlari, javobgarligi, xizmat o‘tash bilan bog‘liq cheklovlar, shuningdek harbiylardan bo‘shagan fuqarolar va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qilish munosabatlarini tartibga solishi lozim.

Ushbu qonun kuchga kirishi bilan, konstitutsiyaviy talabning bevosita bajarilishi ta’minlanadi – imtiyoz va cheklovlar qonun darajasida bir joyga to‘planadi. Yuqoridagi takliflar amalga oshirilishi natijasida, O‘zbekiston Respublikasida harbiy xizmatchilar va ularning oilalariga oid imtiyoz hamda cheklovlar bevosita qonun bilan belgilangan holatga keladi, konstitutsiyaviy prinsiplar to‘liq ro‘yobga chiqadi. Bu, o‘z navbatida, Qurolli Kuchlarimiz shaxsiy tarkibining ijtimoiy himoyalanganligi va siyosiy-huquqiy maqomi barqaror kafolatga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Konstitutsiyaviy talablarga muvofiq qonunlar qabul qilinishi davlatimizning huquqiy demokratik tamoyillarga sodiqligini namoyon etadi va harbiy xizmatchilarning jamiyatdagi nufuzini oshiradi.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/uz/docs/-6445145

2. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. – 328 b. https://renessans-edu.uz/files/books/2024-12-19-05-41-29_97c00c052c868cb07a9e7dc9eadc2e5f.pdf

3. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida” O‘RQ-682-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-5378966

4. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yol 12-dekabrdagi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida” 436-II-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-78717

5. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1008-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-7242584

6. Конституционное право Российской Федерации : учеб. Б14 для вузов / М. В. Баглай. — 6-е изд., изм. и доп. — М. : Норма, 2007. - С.44. https://studfile.net/preview/16819409/

TOIFALANGAN OBYEKTLARNING HIMOYALASHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Axmadxonov Afzaliddin Abduvosi o‘g‘li,
Axborot texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi leytenant
Xikmatov Said Safoyevich,
batalyon komandiri podpolkovnik

Annotatsiya: Mazkur maqolada toifalangan obyektlarning konstitutsiyaviy himoyasi masalalari yoritilgan. Davlatning xavfsizlik strategiyasidagi toifalangan obyektlar ahamiyati, ularning himoyasini ta’minlashda konstitutsiyaviy huquqiy asoslar va bu yo‘nalishda takomillashtirish usullari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, huquqiy tamoyillar, xalqaro tajribadan foydalanish va milliy qonunchilikni modernizatsiya qilish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: toifalangan obyekt, konstitutsiyaviy himoya, xavfsizlik, milliy qonunchilik, takomillashtirish.

Kirish. Toifalangan obyektlar davlat xavfsizligi tizimining muhim qismi bo‘lib, ular ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta’minlashda strategik ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi fuqarolar va davlatning manfaatlarini himoya qilishni asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilaydi. Mazkur maqola toifalangan obyektlarning himoyasini konstitutsiyaviy tomondan ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan.

Asosiy qism

1. Toifalangan obyektlar tushunchasi va ahamiyati

Toifalangan obyektlar:

Strategik, iqtisodiy va milliy xavfsizlik uchun muhim bo‘lgan obyektlar (masalan, energetika inshootlari, davlat boshqaruvi binolari, harbiy obyektlar).

Ahamiyati:

Davlat suvereniteti va xavfsizligini ta’minlash.

Ijtimoiy infratuzilma barqarorligini saqlash.

Favqulodda vaziyatlarda zarur choralarni ko‘rish.

2. Konstitutsiyaviy asoslar

O‘zbekiston Konstitutsiyasi:

13-modda: davlat xavfsizligini ta’minlash prinsiplarini belgilaydi.

25-modda: shaxs va mulk daxlsizligini kafolatlaydi.

55-modda: tabiiy boyliklar va strategik obyektlar davlat mulki ekanligi ko‘rsatilgan.

Huquqiy kafolatlar:

Toifalangan obyektlarning himoyasini ta’minlovchi qonunchilik asoslari (masalan, “Milliy xavfsizlik to‘g‘risida”gi qonun, “Favqulodda holatlar to‘g‘risida”gi qonun).

3. Himoyani takomillashtirish yo‘nalishlari

1. Huquqiy bazani rivojlantirish:

Toifalangan obyektlarni muhofaza qilishga oid maxsus qonunlarni ishlab chiqish.

Jinoiy va ma’muriy javobgarlikni kuchaytirish.

2. Texnologik rivojlanish:

Obyektlarni xavfsizlik texnologiyalari (masalan, monitoring tizimlari, biometrik nazorat) bilan ta’minlash.

Sun’iy intellekt va IoT texnologiyalaridan foydalanish.

3. Xalqaro tajribani joriy qilish:

AQSh, Germaniya va Yaponiya kabi davlatlarning toifalangan obyektlarni muhofaza qilish bo‘yicha tajribalarini o‘rganish.

Xalqaro xavfsizlik standartlarini tatbiq etish.

4. Kadrlarga talab:

Maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan xavfsizlik xodimlarini jalb qilish.

Xodimlar uchun xavfsizlik sohasida doimiy treninglar tashkil qilish.

5. Jamoatchilik nazorati:

Mahalliy aholi va xususiy sektorni xavfsizlik choralariga jalb etish.

Aholi orasida toifalangan obyektlarning ahamiyati to‘g‘risida ma’lumot tarqatish.

Jahon tajribalaridan olib kelish yo‘llari va usullari

O‘zbekistonning toifalangan obyektlarni himoya qilish tizimini takomillashtirish uchun jahon tajribasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Quyida bu jarayonni amalga oshirishning asosiy yo‘llari va usullari keltirilgan.

1. Jahon tajribasini olib kelish yo‘llari:

1. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish:

Xalqaro shartnomalar: Jahon xavfsizlik tizimlariga ixtisoslashgan davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash. Masalan, AQSh, Germaniya, Yaponiya kabi davlatlarning xavfsizlik texnologiyalarini o‘rganish va tatbiq qilish.

Tashkilotlar bilan aloqalar: BMT, OSCE, NATO kabi xalqaro tashkilotlarning xavfsizlikka oid dasturlarida ishtirok etish.

2. Ilmiy-tadqiqot hamkorligi:

Ilmiy almashinuv dasturlari: Strategik obyektlarni himoya qilishga ixtisoslashgan xalqaro institutlar bilan hamkorlikda tadqiqotlar olib borish.

Tadqiqot markazlari bilan aloqalar: Jahon miqyosidagi xavfsizlik va strategik rejalashtirish markazlari bilan hamkorlik qilish.

3. Texnologiya transferi:

Tayyor yechimlarni import qilish: Jahon tajribasida sinovdan o‘tgan xavfsizlik texnologiyalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri import qilish.

Moslashtirish: Mahalliy sharoitlarga moslashgan texnologiyalarni ishlab chiqish uchun xorijiy texnologiyalarni tahlil qilish va o‘zgartirish.

4. Kadrlar malakasini oshirish:

Xorijda o‘qish va stajirovka: Toifalangan obyektlarni himoya qilish sohasida kadrlarni yetakchi davlatlarda o‘qitish.

Trening va seminarlar: Xalqaro ekspertlarni jalb qilib, mahalliy mutaxassislar uchun o‘quv dasturlarini tashkil qilish.

5. Xalqaro tajribani mahalliy qonunchilikka integratsiya qilish:

Xalqaro standartlar asosida yangi qonun va me’yoriy hujjatlar ishlab chiqish.

Xorijiy tajribalarni o‘rganib, ularni mahalliy huquqiy amaliyotga tatbiq qilish.

2. Jahon tajribasini joriy etish usullari:

1. Pilot loyihalarni amalga oshirish:

Jahon tajribasida samaradorligi isbotlangan xavfsizlik tizimlarini O‘zbekistonning yirik obyektlarida sinovdan o‘tkazish.

Sinov natijalariga ko‘ra, keng ko‘lamli tatbiqni amalga oshirish.

2. Texnologik infratuzilmani yaratish:

Zamonaviy monitoring tizimlari, biometrik xavfsizlik uskunalari va aqlli boshqaruv tizimlarini o‘rnatish.

IoT va sun’iy intellekt asosidagi xavfsizlik yechimlarini joriy qilish.

3. Mahalliy mutaxassislarni tayyorlash:

Xalqaro standartlarga muvofiq xavfsizlik xodimlarini o‘qitish.

Xorijda tahsil olgan mutaxassislarni milliy xavfsizlik tizimlariga jalb qilish.

4. Xalqaro sertifikatsiya tizimini joriy qilish:

Toifalangan obyektlarni muhofaza qilish bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarni xalqaro darajadagi sertifikatsiyadan o‘tkazish.

Xavfsizlik tizimlarini ISO standartlariga moslashtirish.

5. Davlat-xususiy hamkorlikni rivojlantirish:

Xususiy sektorni jalb qilish orqali zamonaviy xavfsizlik yechimlarini taklif qilish.

Mahalliy va xorijiy kompaniyalar bilan birgalikda loyihalar ishlab chiqish.

6. Xalqaro tajribani tahlil qilish va yutuqlarni moslashtirish:

Har bir mamlakatning toifalangan obyektlarni himoya qilishdagi yondashuvlarini o‘rganib, O‘zbekiston sharoitlariga moslashtirish.

Jahon miqyosidagi favqulodda vaziyatlar bo‘yicha tahliliy hisobotlardan foydalanish.

Toifalangan obyektlarning himoyasini rivojlantirish bo‘yicha takliflar

Toifalangan obyektlar himoyasini takomillashtirish O‘zbekistonning milliy xavfsizligi, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Quyida ushbu yo‘nalishda samaradorlikni oshirish uchun takliflar keltirilgan.

1. Qonunchilikni takomillashtirish

Maxsus qonunlar qabul qilish:

Toifalangan obyektlarni himoya qilishga oid maxsus qonunlarni ishlab chiqish. Ushbu qonunlar obyektlarning tasnifi, himoya darajalari va xavfsizlik choralarini aniq belgilashi lozim.

Javobgarlikni kuchaytirish:

Toifalangan obyektlarga zarar yetkazganlik uchun jinoiy va ma’muriy javobgarlikni oshirish.

Xalqaro standartlarga moslik:

Xavfsizlik tizimlarini xalqaro standartlarga (masalan, ISO 22301 va ISO 27001) moslashtirish.

2. Texnologik rivojlanish va innovatsiyalarni joriy etish

Monitoring va nazorat tizimlari:

Strategik ahamiyatga ega obyektlarda sun’iy intellekt va IoT texnologiyalariga asoslangan xavfsizlik tizimlarini o‘rnatish.

Misol: Biometrik kirish nazorati, videokuzatuv, aqlli signalizatsiya tizimlari.

Kiberxavfsizlikni kuchaytirish:

Toifalangan obyektlarning ma’lumotlar bazasi va boshqaruv tizimlarini kiberhujumlardan himoya qilish bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish.

Favqulodda vaziyatlarni oldindan tahlil qilish:

Obyektlarning xavf darajasini sun’iy intellekt yordamida oldindan aniqlash va xavfning oldini olish choralari ko‘rish.

3. Kadrlar salohiyatini oshirish

Maxsus o‘quv dasturlari:

Toifalangan obyektlarni himoya qilish sohasida ishlovchi mutaxassislar uchun doimiy treninglar va malaka oshirish kurslarini tashkil qilish.

Xalqaro tajribadan foydalanish:

Xorijiy davlatlarda xavfsizlik sohasidagi ilg‘or texnologiyalarni o‘rganish uchun malaka oshirish dasturlarini tashkil qilish.

Ichki nazoratni kuchaytirish:

Xavfsizlik xodimlari o‘rtasida maxsus tekshiruv va tayyorgarlik dasturlarini muntazam o‘tkazish.

4. Moliyaviy va infratuzilma resurslarini optimallashtirish

Davlat-xususiy hamkorlik:

Xususiy sektor bilan hamkorlikda zamonaviy xavfsizlik tizimlarini joriy etish.

Misol: Energetika va transport infratuzilmasini muhofaza qilishda xususiy kompaniyalarni jalb qilish.

Moliyalashtirishni kengaytirish:

Toifalangan obyektlarni himoya qilish uchun davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘larni ko‘paytirish, xalqaro grantlar va sarmoyalarni jalb qilish.

5. Jamoatchilik ishtirokini oshirish

Aholi xabardorligini oshirish:

Obyektlarning ahamiyati va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish bo‘yicha aholiga tushuntirish ishlari olib borish.

Misol: Televizion dasturlar, ijtimoiy tarmoqlar va mahalliy yig‘ilishlar orqali ma’lumot tarqatish.

Ommaviy monitoring tizimlari:

Mahalliy aholining xavfsizlik tizimlariga hissa qo‘shishi uchun maxsus mobil ilovalar va platformalar yaratish.

6. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish

Xorijiy ekspertlarni jalb qilish:

Toifalangan obyektlarni muhofaza qilish bo‘yicha xorijiy mutaxassislarni taklif qilish va maslahatlashuvlar o‘tkazish.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish:

Strategik obyektlar xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha xalqaro tadqiqot markazlari bilan hamkorlik qilish.

Xalqaro tajribalarni moslashtirish:

Boshqa davlatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish.

Ushbu takliflar toifalangan obyektlarning himoyasini kuchaytirish va milliy xavfsizlikni mustahkamlash uchun zamonaviy va kompleks yondashuvni ta’minlaydi. Bu nafaqat davlatning strategik manfaatlarini himoya qilish, balki barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun ham mustahkam poydevor yaratadi.

Xulosa

O‘zbekiston uchun jahon tajribasidan foydalanish strategik obyektlarning himoyasini kuchaytirishda katta ahamiyatga ega. Buning uchun xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, texnologiyalarni import qilish va moslashtirish, kadrlar malakasini oshirish hamda qonunchilik bazasini takomillashtirish talab etiladi. Bu yo‘nalishdagi harakatlar davlat xavfsizligini ta’minlashda mustahkam poydevor yaratadi.

Toifalangan obyektlarning himoyasini ta’minlash davlatning konstitutsiyaviy burchi bo‘lib, bu borada qonunchilik bazasini takomillashtirish, texnologik vositalardan foydalanish va xalqaro tajribani o‘rganish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonning milliy xavfsizlik strategiyasida toifalangan obyektlarni muhofaza qilish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilanishi zarur.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. “Milliy xavfsizlik to‘g‘risida”gi qonun, 1996-yil.
3. Abdullayev A. “Davlat xavfsizligi va strategik obyektlarni muhofaza qilish”. Toshkent, 2020.
4. Smith J. “Critical Infrastructure Protection”. Springer, 2019.
5. Xalqaro xavfsizlik masalalari bo‘yicha tadqiqotlar to‘plam

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA FUQOROLIK JAMIYATI INSTUTLARINING MUSTAHKAMLANISHI

Batirova Xadichabonu Mamadiyorovna,
Toshkent "Temurbeklar maktabi"harbiy-akademik litseyining
Davlat va huquq asoslari fani bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: Fuqorolik jamiyatining institutsional asoslarini mustahkamlash va uning davlat bilan bo‘lgan munosabatlaridagi o‘rni zamonaviy demokratik huquqiy davlat tuzilmalarining ajralmas va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Konstitutsiya nafaqat davlat boshqaruvi institutlarini, balki fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishi va taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy omil vazifasini bajaradi.

Аннотация: Укрепление институциональных основ гражданского общества и его роли во взаимоотношениях с государством является неотъемлемой и важной составной частью современных демократических правовых государств. Конституция выполняет функцию не только института государственного управления, но и основного фактора, обеспечивающего укрепление и развитие гражданского общества.

Annotation: Strengthening the institutional foundations of civil society and its role in relations with the state constitutes an integral and important component of modern democratic legal state structures. The Constitution functions not only as an institution of public administration, but also as a key factor ensuring the consolidation and development of civil society.

Kalit so‘zlar: konstitutsiya, fuqorolik jamiyati, institutlar, huquqiy asos, demokratik davlat, inson huquqlari, erkinliklar, davlat boshqaruvi, ijtimoiy hamkorlik, shaffoflik.

Keywords: constitution, civil society, institutions, legal framework, democratic state, human rights, freedoms, public administration, social partnership, transparency.

Ключевые слова: конституция, гражданское общество, институты, правовая основа, демократическое государство, права человека, свободы, государственное управление, социальное партнёрство, транспарентность.

Fuqorolik jamiyati instituti — bu jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, qatlamlar va shaxslarning o‘z vakillik organlari yoki mustaqil tuzilmalari orqali jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etish imkonini beruvchi mexanizmlardir. Mazkur institutlarning huquqiy maqomi, erkin faoliyat yuritish imkoniyatlari, davlat oldidagi daxlsizligi Konstitutsiyaviy normalar orqali kafolatlanadi. Huquqiy davlat barpo etishda ushbu institutlarning mustaqilligi va ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish Konstitutsiyaning mazmuniga chuqur singdirilgan. Bu esa, jamiyat a’zolarining o‘z manfaatlarini himoya qilish, umumjamiyat muammolarini hal etishda qatnashish huquqini tan oladi va rivojlantirishga yo‘naltirilgan konstitutsiyaviy kafolatlar tizimini yuzaga keltiradi. Konstitutsiyada jamiyatda fuqarolik jamiyati institutlarining mustahkam o‘rnini belgilangani jamiyat taraqqiyotining demokratik va huquqiy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Mamlakat taraqqiyotida fuqarolik jamiyati va davlat boshqaruvi o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, davlat organlarining shaffofligi, qonun ustuvorligi va so‘z erkinligi asosida fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyat ko‘rsatishi mummkin bo‘ladi. Shu bilan birga, konstitutsiyaviy normalar orqali jamiyatda har bir insonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda faol bo‘lishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi hamda bunday davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyatininig o‘zaro hamkorligi natijasida umumiy manfaatlar ta’minlanadi [1. 62-68-b].

Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlarining mustahkamlashga doir normalar jamiyatda keng qamrovli ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish, aholi orasida tashabbuskorlik va mas’uliyat tuyg‘usini mustahkamlash, turli sotsial-iqtisodiy va madaniy loyihalarda faol ishtirok etish uchun salohiyatli muhit yaratadi. Bunday muhitda demokratik boshqaruv asoslari, jamiyat a’zolarining yagona huquqiy hamda axloqiy qadriyatlar atrofida birlashuvi, ochiqlik va so‘z erkinligi tamoyillari ta’minlanadi. Fuqarolik jamiyati institutlarining konstitutsiyaviy huquqiy maqomi jamiyat a’zolari o‘rtasida o‘zaro hurmat, murosaga tayyorlik, hamjihatlik va zo‘ravonliksiz muomala madaniyatini shakllantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida ochiqlik, oshkoralik va xalq ishtirokini kengaytirish fuqarolik jamiyatining institutsional asoslarini mustahkamlashning bosh omillaridan hisoblanadi. Konstitutsiyada yaratilgan kafolatlar shu tufayli fuqarolik jamiyatining mustaqil va tashabbuskor kuch sifatida

rivojlanishiga, davlat faoliyatini kuzatish, baholash, takomillashtirish, samarali ijtimoiy nazorat tizimini shakllantirish uchun zarur imkoniyat va mexanizmlarni beradi [2. 23-29-b.]

Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlarining mustahkamlanishi, eng avvalo, inson huquqlari, erkinliklari va qonun ustuvorligini tan olish orqali amalga oshiriladi. Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari – so‘z, e’tiqod, harakat, uyushish, birlashish, yig‘ilish, siyosiy partiyalarning tuzilishi, davlat ishlarida bevosita yoki vakillik asosida ishtirok etish, axborot olish va tarqatish huquqlari konstitutsiya orqali kafolatlanadi. Bu esa, fuqarolik jamiyatining poydevorini tashkil qiladi va ularning amalda ta’minlanishi uchun zarur davlat tuzilmalari hamda mexanizmlarini yaratadi. Konstitutsiyadagi norma va prinsiplarda fuqarolarning ijtimoiy faolligini rag‘batlantirish, davlat boshqaruvi jarayonlarida ishtirokini kengaytirish, mamlakat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shish uchun zarur imkoniyatlar belgilab qo‘yiladi. Shuningdek, fuqarolik jamiyatining institutsional asoslari sotsial, madaniy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda jamiyat salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun keng yo‘l ochadi. Konstitutsiyada belgilangan ochiqlik, oshkoralik, mustaqil fuqarolik tashabbuslariga bo‘lgan hurmat, ularning faoliyati bo‘yicha davlat ichki aralashuvi va cheklovlarning chegarasi aniq belgilanadi, fuqarolik institutlarining o‘z holicha faoliyat ko‘rsatish, tashabbuslarni ilgari surish va amalga oshirish huquqlari konstitutsiyaviy mezonlarda kafolatlanadi. Bularning barchasi fuqarolik jamiyatining poydevorini yanada mustahkamlab, mamlakatda huquqiy davlat prinsiplarini amalda ta’minlash, ijtimoiy taraqqiyotga yo‘naltirilgan davlat boshqaruv tizimining shakllanishiga olib keladi. Konstitutsiyaviy asosda fuqarolik jamiyati mustahkamlansa, jamiyatda davlat va fuqaro o‘rtasida mas’uliyat, o‘zaro hamkorlik va ishonch kuchayadi. Shu jihatdan, konstitutsiyada mustahkamlangan fuqarolik jamiyati institutlari davlat tomonidan fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, jamiyatning barcha sohasida ochiqlik, shaffoflik va qonuniylikni qaror toptirishga xizmat qiladi [3. 49-55-b].

Mamlakat taraqqiyoti uchun muhim jihatlardan biri – bu huquqiy imkoniyatlarning tengligi va kafolatlanuvchanligidir. Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutsional asoslarining mustahkamlanishi natijasida ijtimoiy tanlov, tashabbuskorlik, davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati, davlat boshqaruvida fuqarolar ishtirokining rag‘batlantirilishi, ijtimoiy baraka va taraqqiyotga zamin tayyorlanadi. Bu esa davlat tomonidan inson huquqlari, erkinliklarining kafolatlari, fuqarolar manfaatlariga hurmat, ularning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sohadagi faolligini rag‘batlantirish orqali jamiyatni taraqqiyot sari yetaklaydi. Konstitutsiyada davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro muvozanatli faoliyat yuritishini ta’minlovchi normalar davlat boshqaruvida jamoatchilik ishtirokini, aholi manfaatlarini ko‘proq himoya qilish va davlat va jamiyat o‘rtasidagi mas’uliyatli aloqalarni rivojlantirish imkonini beradi. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy bazasini

mustahkamlash jamiyat hayotidagi faol ijtimoiy guruhlar, tabaqalar va tashkilotlarning mustaqilligi, o‘zaro hamkorligi va taraqqiyotini ta’minlaydi. Konstitutsiyada ochiqlik va oshkoralik, so‘z va axborot erkinligi, demokratik boshqaruv va fuqarolik institutlari faoliyati uchun zarur huquqiy sharoitlar kafolatlanadi. Fuqarolik jamiyati inson huquqlari va erkinliklarni amalga oshirish, himoya qilish, fuqarolar ishonchini, taraqqiyotini rag‘batlantirish va davlat boshqaruvida ommaviy ishtirokni ta’minlash uchun asosiy ijtimoiy va siyosiy mexanizmlardan biri sifatida shakllanadi. Konstitutsiya fuqarolik jamiyati institutlariga erkinlik va mustaqillik beradi; ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy masalalarda o‘z pozitsiyasini bildirish, muammolarni ochiq muhokama qilish, jamiyat va davlat o‘rtasida ochiq muloqotni ta’minlash uchun hudud yaratadi. Shuningdek, fuqarolik jamiyati orqali davlat organlari faoliyati ustidan ijtimoiy nazorat o‘rnatiladi, turli jabhalardagi inson huquqlari himoya qilinadi, jamiyatning sotsial-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi tashabbuslar ilgari suriladi [4. 14-21-b].

Huquqiy davlat barpo etishda konstitutsiyaga kiritilgan fuqarolik jamiyati institutlari normalari davlat boshqaruvida ochiqlik, oshkoralik, ishtirok va mas’uliyatlilikni qaror toptirish, shuningdek, fuqarolarning mamlakat taraqqiyoti uchun faolligini rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Fuqarolik jamiyati institutlarining konstitutsiyaviy huquqiy asoslari huquqiy davlatni shakllantirish, jamiyatning taraqqiyotini ta’minlash, fuqarolar o‘rtasida hamjihatlik va hamkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy muvozanatni ta’minlash uchun imkoniyatlar yaratadi. Fuqarolar tomonidan mustaqil tarzda tashkil etilgan jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, norasmiy tashkilotlar va boshqa fuqarolik jamiyatinstitutlari Konstitutsiya asosida ishlash, o‘z huquq va vakolatlarini erkin bajara olish huquqiga ega bo‘lishi mamlakatda demokratik jamiyat va huquqiy davlat poydevorini barpo etishda asosiy rol o‘ynaydi. Jamiyatda fuqarolik institutlari erkin va faol faoliyat ko‘rsata olishi, ijtimoiy hayotda fuqarolar va aholi guruhlarini o‘z manfaatlarini himoya qilishi, davlat boshqaruvida faol qatnashishi Konstitutsiyada mustahkamlangan mustaqil va mexanizmlarga asoslanadi. Konstitutsiya fuqarolarni o‘z hayoti, davlat va jamiyat taqdiri uchun mas’uliyatli bo‘lish, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shish, boshqaruvga bevosita yoki vakillar orqali ishtirok etish imkonini beradi. Huquqiy va demokratik davlatda bunday ishtirok, faol fuqarolik pozitsiyasi, mustahkamlangan fuqarolik jamiyati institutlari va asosiy qonunda kafolatlangan huquq va erkinliklar jamiyatda ijtimoiy baraka, ochiqlik, taraqqiyot va o‘zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.[5.37-41b].

Xulosa qilib aytganda, konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlarining mustahkamlanishi mamlakatda huquqiy davlat qurilishining eng muhim shartidir. Fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlash, demokratik boshqaruv asoslarini shakllantirish, davlat va jamiyat o‘rtasida mas’uliyat, hamkorlik va

ishonchni kuchaytirish uchun zarur konstitutsiyaviy asoslar yaratiladi. Fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi orqali jamiyatda ijtimoiy faollik, ishtirok va tashabbuskorlik kuchayadi, davlat va jamiyat hayoti ochiq, shaffof va qonuniy asosda yuritiladi. Bu esa mamlakat taraqqiyoti, baraka va mustahkam huquqiy jamiyat sari dadil qadamlar qo‘yilishini ta’minlaydi.

References:

1. Abdullayev, R. (2019). "Fuqarolik jamiyatining rivojlanishida ommaviy axborot vositalarining o‘rni." O‘zbekiston Davlat Huquqiy Axborot Markazi, 3(5), 62-68.

2. Ahmadaliyev, I. (2020). "Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida konstitutsiya va fuqarolik jamiyati institutlari." Ijtimoiy Fikr, 2(15), 23-29.

3. Baxromova, Z. (2021). "Fuqarolik jamiyati institutlari va ularning huquqiy maqomi." Toshkent Davlat Yuridik Universiteti Maqolalar To‘plami, 8(2), 49-55.

4. G‘ulomov, B. (2018). "O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati." Huquq va Inson, 10(4), 14-21.

5. Islomov, F. (2017). "O‘zbekiston Konstitutsiyasi va fuqarolik jamiyati: islohotlar tajribasi." Adolat, 5(22), 37-41.

KONSTITUTSIYADA IJTIMOIY DAVLATCHILIKNING HUQUQIY ASOSLARI VA IJTIMOIY DAVLATGA XOS INDEKATORLAR

Iskandarov Yodgor Baxtiyorovich,
Qorovul qo‘shinlari qo‘mondonlik ofitseri, polkovnik
Faxriyor Baxtiyorov Akromjon o‘g‘li,
Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi o‘qituvchisi, leytenant

Annotatsiya: O‘zbekistonda ijtimoiy davlatchilikning huquqiy asoslari asosan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan. O‘zbekiston ijtimoiy davlat sifatida tan olinib, davlat oilani to‘laqonli rivojlantirish, fuqarolarning bandligini ta’minlash, ishsizlikdan himoya qilish va kambag‘allikni qisqartirish kabi ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Konstitutsiyada mehnatni muhofaza qilish, eng kam ish haqini belgilash, ijtimoiy ta’minot, bepul ta’lim va tibbiy yordam ko‘rsatish kabi kafolatlar mavjud. Davlat ijtimoiy himoya siyosatini kuchaytiradi, inson huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan qonunlar va tizimlarni ishlab chiqadi, shuningdek, ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e'tibor beradi. Ushbu maqola orqali aynan shu yo‘nalishlar bo‘yicha huquqiy asosga ega bo‘lishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy himoya, indikator, suverenitet, prinsiplar, xalq hokimiyatchiligi, davlat organlari, temir daftar

Аннотация: Правовая основа социальной государственности в Узбекистане в основном закреплена в Конституции Республики Узбекистан.

Узбекистан признан социальным государством, а государство выполняет такие социальные функции, как всестороннее развитие семьи, обеспечение занятости граждан, защита от безработицы и сокращение бедности. Конституция содержит такие гарантии, как охрана труда, установление минимальной заработной платы, социальное обеспечение, бесплатное образование и медицинское обслуживание. Государство усиливает политику социальной защиты, разрабатывает законы и системы, направленные на обеспечение прав и свобод человека, а также уделяет особое внимание поддержке социально незащищенных слоев населения. В данной статье вы можете получить правовую основу в этих областях.

Ключевые слова: Социальное обеспечение, социальная защита, показатель, суверенитет, принципы, народная власть, государственные органы, железная тетрадь

Abstract: The legal basis of social statehood in Uzbekistan is mainly established in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. Uzbekistan is recognized as a social state, and the state performs such social functions as the full development of the family, ensuring the employment of citizens, protection from unemployment, and poverty reduction. The Constitution contains guarantees such as labor protection, setting a minimum wage, social security, free education, and medical care. The state strengthens social protection policies, develops laws and systems aimed at ensuring human rights and freedoms, and also pays special attention to supporting socially disadvantaged groups. Through this article, you can get a legal basis in these areas.

Key words: Social security, social protection, indicator, sovereignty, principles, people's power, state bodies, iron notebook

Bugungi kunda iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish aholining ehtiyoj, manfaat va maqsadlariga to‘laqonli xizmat qilib kelayotganligi ayni haqiqat. Mamlakatamizda ijtimoiy himoya sohasida berilgan so‘nggi statistik ma'lumotlarga ko‘ra kam ta'minlangan oilalar uchun bolalar nafaqasi va moddiy yordam 667 308 oilaga berilgan va bu uchun jami 3 milliard so‘m to‘langan. Elektr energiya va tabiiy gazni bazaviy me’yordan ortiq qilgan iste’moli uchun kompensatsiyalar 245 243 kishiga taqdim etilgan va jami 40 milliard so‘mdan ortiq mablag' ajratilgan.Homiladorlik va tug'ish nafaqasi 9 411 kishiga berilgan va jami 24 milliard so‘m to‘langan. Harbiy xizmat, haydovchilik guvohnomasi, o‘quv kurslari va kontrakt to‘lovlari uchun ham moddiy yordam ko‘rsatilgan, masalan, harbiy xizmatga jami 697.3 million so‘m ajratilgan. 2023-yilda O‘zbekistonda pensiya va nafaqa oluvchi shaxslar soni 4 715,7 ming nafarga yetgan; bu 2019-yilga nisbatan 24.3% oshish Demak, ijtimoiy himoya tizimi keng ko‘lamda va turli

guruhlarni qamrab olgan holda faoliyat yuritmoqda, jamiyatdagi eng muhtoj qatlamlarga moddiy yordam ko‘rsatish davom etmoqda. Bugungi kunning mazmun mohiyati insonlarning yashashga bo‘lgan ehtiyoji manfaat va maqsadlari ijtimoiy muhit asosini ijtimoiy muhit samaradorligini tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 1-moddasida o‘z aksini topgan O‘zbekiston boshqaruvning Respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik huquqiy ijtimoiy,dunyoviy davlat. Davlatning O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston degan nomlari bir ma‘noni anglatishi mamlakatimizning barcha soha indekatorlari siyosiy rejimga mos ravishda samarali ishlayotganligidan darak beradi. Biz maqolamizda shu indekatorlardan biri bo‘lgan va boshqa yo‘nalishlarga bevosita ta‘sir o‘tkazadigan ijtimoiy sohaga asosiy e‘tiborimizni qaratamiz. O‘zbekiston ijtimoiy davlatdir va bu tamoyil Konstitutsiyada mustahkamlangan. O‘zbekistonning ijtimoiy davlat ekanligini asoslovchi bir qator asoslar mavjud: Davlat bandlikni ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish, kambag‘allikni qisqartirish kabi ijtimoiy masalalar bo‘yicha majburiyatlarga ega.

Fuqarolarga eng kam ish haqidan past bo‘lmagan adolatli haq olish, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam olish huquqlari kafolatlangan.Har bir fuqaro uy-joyga ega bo‘lish, bepul umumiy o‘rta ta’lim va professional ta’lim olish, shuningdek, tibbiy yordam olish huquqiga ega. Ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalar uchun maxsus yordam va kafolatlar qonun bilan belgilangan.So‘nggi konstitutsiyaviy o‘zgartirishlar bilan ijtimoiy adolat, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida davlatning majburiyatlari kengaytirildi. Davlat oilaning rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy shart-sharoitlar yaratadi va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga intiladi. Shunday qilib, O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatida shakllanishi va rivojlanishi konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlangan va amalda ham ijtimoiy siyosat orqali qo‘llab-quvvatlanmoqda. O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekanligini asoslovchi yangiliklar asosan yangi Konstitutsiya va undagi o‘zgarishlar bilan bog'liq. Konstitutsiyada mamlakat ijtimoiy davlat sifatida mustahkamlanib, davlatning ijtimoiy adolat, inson huquqlari, kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta’minlash, ishsizlikdan himoya qilish kabi majburiyatlari kengaytirildi. Shuningdek, ta’lim, tibbiyot, ijtimoiy himoya va uy-joy bilan ta’minlash sohalarida davlatning yangi kafolatlari va majburiyatlari belgilandi.Yangiliklarning asosiy jihatlari shundan iboratki, Konstitutsiyada ijtimoiy davlat tamoyili ilk bora aniq belgilandi, davlat va jamiyatning asosiy burchi insonga e'tibor va g'amxo‘rlik ekani qayd etildi.Kambag‘allikni qisqartirish, ishsizlikdan himoya qilish bo‘yicha davlat o‘ziga yangi majburiyatlar oldi, ijtimoiy sohadagi normativlar uch barobarga oshirildi. Ta’lim sohasida davlat kafolatlari kengaytirilib, bepul umumiy o‘rta, boshlang‘ich professional ta’lim, oliy ta'lim grantlari taqdim etilmoqda. Tibbiy yordam bepul shaklda kafolatlanib, ijtimoiy ehtiyojmand

qatlamlarga davlat tomonidan uy-joy berish tizimi kuchaytirildi. “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”, “mahallabay” va “xonadonbay” ishlash usullari orqali ijtimoiy himoya tizimi yanada samarali amalga oshirilmoqda.Yoshlar, nogironlar, keksalar va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar har tomonlama qo‘llab-quvvatlanmoqda. Ushbu o‘zgarishlar mamlakatda ijtimoiy himoyani kuchaytirish, fuqarolarning hayot sifatini oshirish va tenglikni ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatining amalda mustahkamlanishidan dalolat beradi. Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasida ijtimoiy davlat tamoyilini asoslovchi va eng e’tibor qaratilishi kerak bo‘lgan bandlar quyidagilardan iborat: Davlat fuqarolarning bandligini ta’minlash, ishsizlikdan himoya qilish va kambag‘allikni qisqartirish choralarini ko‘radi. Har kim eng kam oylik maoshidan past bo‘lmagan miqdorda adolatli haq olish huquqiga ega. Qariganda, mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, ishsizlikda, boquvchisidan mahrum bo‘lganda ijtimoiy ta’minot olish huquqi kafolatlangan. Pensiyalar, nafaqalar va ijtimoiy yordam miqdorlari eng kam iste’mol xarajatlaridan kam bo‘lishi mumkin emas. Soliq va yig‘imlar adolatli bo‘lishi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to‘siq bo‘lmasligi kerak. Har kim uy-joyli bo‘lish huquqiga ega. Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi. Fuqarolarga tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi bepul ko‘rsatiladi. Aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta’minlash tartibi qonun bilan belgilanadi. Yollanib ishlovchilarga har yilgi haq to‘lanadigan mehnat ta’tilidan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi. Fuqarolar davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olishga haqli. Ushbu bandlar ijtimoiy davlatning asosiy konstitutsiyaviy tamoyillari bo‘lib, fuqarolarning eng kam daromaddan pastga tushmasligini, ijtimoiy himoyani, ta’lim va tibbiyot sohalarida davlatning kafolatlarini o‘z ichiga oladi. Bu bandlarga e’tibor qaratish O‘zbekistonda ijtimoiy davlat sifatida barqarorlik va fuqaro manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. 2025-yil 30-yanvarda imzolangan Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to‘g‘risidagi 17-sonli farmonning mazmun mohiyati demokratik o‘zgarishlar natijasida ijtimoiy tizimda imkoniyatlar rolini oshirishga yo‘l ochayotganligidan darak beradi. “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida har bir fuqaroni o‘zi va farzandlari kelajagi uchun mas’uliyat bilan yondashishga undaydigan va salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratish hamda ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish orqali oilalarning mehnat qilish imkoniyatini cheklovchi sabablarni bartaraf etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.Jumladan farmondagi mazmun mohiyat aynan shu yangiliklarga

qaratilgan. Xorijiy davlatlarda ijtimoiy tushuncha, ya'ni ijtimoiy davlat modeli ko‘plab mamlakatlarda mavjud bo‘lib, fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini himoya qilishga qaratilgan. Bunday davlatlarda ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va muhtojlarga yordam berish asosiy tamoyil hisoblanadi. Masalan, Buyuk Britaniya, Fransiya, Shvetsiya, Italiya, Germaniya, Shveysariya, AQSh kabi davlatlarda ijtimoiy davlat modeli qo‘llanilmoqda. Bu davlatlarda ish haqi, bandlik, sog'liqni saqlash, ta'lim va kambag'allikni qisqartirish kabi ijtimoiy himoya choralari keng joriy qilingan. Ijtimoiy davlatda hech kim e'tibordan chetda qolmaydi va muammolari bilan yolg'iz tashlab qo‘yilmaydi. Shuningdek, Yevropa va Amerika mamlakatlarida ijtimoiy ish va ijtimoiy xizmatlar tizimlari rivojlangan bo‘lib, bu sohada ijtimoiy farovonlik va himoya asosiy maqsad sifatida belgilangan. Demak, ijtimoiy tushuncha va ijtimoiy davlat modeli asosan G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika va boshqa rivojlangan davlatlarda keng tarqalgan. Skandinaviya modeli bilan kontinent modelining asosiy farqlari quyidagilardan iborat: Ijtimoiy siyosat va davlatning roli. Skandinaviya modeli ijtimoiy davlat tamoyillariga tayanib, keng ko‘lamli ijtimoiy himoya va tenglikka katta ahamiyat beradi. Bu modelda davlat soliqlar orqali katta daromad yig‘ib, ijtimoiy xizmatlar (ta’lim, sog‘liqni saqlash, ish bilan ta’minlash) sifatli va erkin taqdim etiladi. Kontinent modeli esa (odatda Germaniya, Fransiya kabi davlatlarga xos) ijtimoiy himoya tizimi mavjud bo‘lsa-da, soliqlar Skandinaviya ga nisbatan kamroq va nodavlat sektor roli yanada katta. Ushbu modelda bozor tamoyillari va ijtimoiy hamkorlik muhim.Soliq va ijtimoiy xarajatlar.Skandinaviya mamlakatlarida soliq stavkalari yuqori bo‘lib, ijtimoiy xarajatlarga ko‘proq ajratiladi.Kontinent modelida soliqlar nisbatan pastroq va ijtimoiy dasturlar kamroq «generoz» (ehsonkor) hisoblanadi.Ijtimoiy tenglik:Skandinaviya modeli iqtisodiy tenglikni yuqori darajada ta’minlashga intiladi.Kontinent modeli esa asosan ijtimoiy sug‘urta va kafolatlarga tayanib, ijtimoiy qatlamlar mavjudligini qisman saqlaydi. Bozor va davlat munosabatlari: Skandinaviya modelida davlat va bozor o‘rtasida muvozanat kuchli bo‘lib, davlat iqtisodiyotni va ijtimoiy siyosatni faol boshqaradi. Kontinent modelida davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlik asosiy yo‘nalish hisoblanadi, erkin bozor tamoyillari ko‘proq ustunlik qiladi.

Umuman olganda, Skandinaviya modeli «ijtimoiy demokratiya» va keng ijtimoiy tenglikni ta’minlaydigan tizim sifatida farqlanadi, kontinent modeli esa barqaror ijtimoiy himoya bilan bozor iqtisodiyotini uyg‘unlashtiradi.

Xorij tajribasi ijtimoiy yo‘nalish uchun samarali bo‘lishi mumkin lekin biz mamlakatamizda aholining ehtiyoj manfaat, maqsadlaridan kelib chiqib ijtimoiy yo‘nalishga asosiy e‘tiborimizni qaratayotganimiz tahsinga sazovordir.

Shunga ko‘ra, keltirib o‘tilgan fikr va mulohazalar bir qator ilmiy xulosalarni ilgari surish imkonini berdi:

Birinchidan Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasida ijtimoiy davlat tamoyilini yanada mustahkamlash va bu model asosida ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam ko‘rsatishni samarali olib boradigan davlat shakli sifatini ko‘rib chiqish.

Ikkinchidan, keksalar va nuroniylar uchun ijtimoiy faoliyatlarni oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida mahallalarda maxsus jamoatchilik va maslahat guruhlari tashkil qilish va bu orqali ularning ijtimoiy faolligini davom ettirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, davlat ijtimoiy xizmatlar orqali farovonlikni ta’minlashga, ijtimoiy tenglikni oshirishga, mulkiy tengsizlikni kamaytirishga, kam ta’minlanganlarga g‘amxo‘rlik qilishga mas’ul bo‘lib, faol ijtimoiy siyosat yuritmoqda. Yoshlar va aholi orasida ma’naviy-ma’rifiy, siyosiy-huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan dasturlar mavjud bo‘lib, inson huquqlari, ijtimoiy tenglikka oid siyosatlar kuchaytirilmoqda. Innovatsion ta’lim usullari va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan yangi yondashuvlar ijtimoiy davlatning samaradorligini oshirishga yordam bermoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekiston ijtimoiy davlat modeli inson qadrini ulug‘lash va har bir fuqaroning munosib yashash sharoitini yaratishni asosiy maqsad qilib olgan davlat tizimidir. Bu modelda davlat ijtimoiy adolat tamoyillari asosida aholining ijtimoiy tengligini ta’minlash, ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, kambag‘allikni qisqartirish va muhtojlarga samarali yordam ko‘rsatishni o‘z zimmasiga oladi. Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishlar bilan O‘zbekistonda “ijtimoiy davlat” tamoyili yanada mustahkamlandi, davlatning ijtimoiy majburiyatlari sezilarli darajada oshirildi. Ushbu tizimda fuqarolarning bandligini ta’minlash, ishsizlikdan himoya qilish, eng kam oylikdan past bo‘lmagan adolatli ish haqi belgilash, pensiyalar va ijtimoiy yordamlarni ta’minlash kabi asosiy yo‘nalishlar mavjud. Shuningdek, davlat bepul ta’lim, tibbiy yordam va uy-joy bilan ta’minlashni kafolatlaydi, oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Yangi O‘zbekiston ijtimoiy adolat va inson huquqlari himoyasiga asoslangan, fuqarolariga g‘amxo‘rlik qiladigan davlat sifatida shakllanish yo‘lida faol ish olib bormoqda.

References:

1. Yuldashev, S. (2024). Konstitutsiyaviy sud - o‘zbekiston respublikasi konsitutsiyasiga amal qilishning nazorat mexanizmi sifatida. *Modern Science and Research*, *3*(12), 86–92. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48840

2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrdagi 217 A (III) Rezolyusiyasi // https://constitution.uz/uz/pages/humanrights

3. Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi. 11-modda, 2-qism // https://constitution.uz/uz/pages/humanrights

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 20-modda, 4-qism // https://lex.uz/docs/6445145

5. BMTning Jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha sakkizinchi Konferensiyasi qoidalari. Gavana, Kuba, 27.08-07.09.1990-yil // https://www.unodc.org

6. Гиясов, Б. (2023). Важност вопросов безопасности в национальном законодательстве. *Реформы в сфере подготовки юридических кадров в Узбекистане: анализ результатов и перспективные задачи*, *1*(1), 180–185. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/legal-personnel/article/view/22381

7. Гиёсов, Б. (2020). Анализ некоторых вопросов, исключающих преступност деяния при обеспечении общественной безопасности. *Общество и инновации*, *1*(2/S), 124-130.

8. Гиясов, Б. (2024). Значение огнестрельного оружия в предотвращении криминогенного воздействия на общественную безопасность. *Общество и инновации*, *5*(1), 33–40. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss1-pp33-40

9. Giyosov Bahriddin Hasan Ogli, & Kholmurodov Doniyor Bakhtiyor Ogli. (2020). Legal Support For The Protection Of The Rights Of Witnesses In The Fight Against Organized Crime. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, *2*(11), 57–60. https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume02Issue11-10

10. Алексеев, С.Н. (2015). Общественный порядок как стратегическая sel совершенствования законодательства об административных правонарушениях. Юридическая техника, (9), 94-95.

QUROLLI KUCHLARDA XIZMAT TEKSHIRUVLARI O‘TKAZISHNG HUQUQIY ASOSLARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR

Xoliqov Sarvar Mingishovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Yusupov Ulug‘bek Abduxalil o‘g'li,
Axborot texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi, katta leytenant

Annotatsiya: ushbu tezisda harbiy xizmatchilarga nisbatan xizmat tekshiruvlarini tayinlash va o‘tkazish tartibiga oid qonunchilik o‘rganilgan. Shuningdek, bu boradagi xalqaro tajribalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: xizmat tekshiruvi, bayonnoma, zarar, harbiy xizmatchi, qonun.

Аннотация: в тезисе исследуется законодательство о порядке назначения и проведения служебных расследований в отношении военнослужащих, а также анализируется зарубежный опыт в данном направлении.

Ключевые слова: служебное расследование, протокол, ущерб, военнослужащий, закон.

Annotation: the thesis examines the legislation on the procedure for appointing and conducting official investigations in relation to military personnel, and also analyzes foreign experience in this area.

Key words: official investigation, protocol, damage, serviceman, law.

Respublikamizda so‘nggi yillarda xizmat tekshiruvi o‘tkazish masalalarini ilg‘or xorijiy tajriba hamda xalqaro-huquq normalaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish maqsadida mustahkam huquqiy va institutsional baza shakllantirilmoqda.

Xizmat tekshiruvini takomillashtirish yangi huquqiy institut sifatida rivojlanmoqda. Muammoning o‘rganilganlik holati uning asosan jinoyat-protsessual va harbiy ilmiy tadqiqotlar doirasida o‘tkazilgan ilmiy izlanishlarda qisman tadqiq etilganligini ko‘rsatadi. Jumladan, M.I.Alimov, O‘.M.Davletov, Z.G‘.Isoqov, Sh.J.Kurbanov, B.A.Choriev, M.Po‘latov, N.Yusupovlar ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda harbiy xizmatchilar bilan bog‘liq munosabatlarda xizmat tekshiruviga oid ayrim masalalarga o‘z e’tiborlarini qaratganlar. Xususan, N.A.Yusupov Milliy gvardiya organlarida xizmat tekshiruvi o‘tkazishning ma’muriy-huquqiy tartibga solinishi masalalarini tadqiq etgan.

Hozirgi kunda xizmat tekshiruvi o‘tkazishni takomilllashtirish bo‘yicha huquqni qo‘llash amaliyoti samaradorligini oshirish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, huquqbuzarliklar haqidagi xabarlarni hisobga olish va ular yuzasidan tekshiruvlar o‘tkazish bo‘yicha Qurolli Kuchlar tizimida yagona yondashuvni joriy etish bo‘yicha normativ-huquqiy asoslar va

tashkiliy mexanizmlarni kuchaytirish, ushbu jarayonlarda tezkor-qidiruv foliyati natijalaridan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha Jinoyat-protsessual kodeksi, “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi va “Milliy gvardiya to‘g‘risida”gi qonunlarni yanada takomillashtirish zarur [2].

Jumladan, Qurolli Kuchlarda xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish borasida muayyan milliy qonunchilik shakllangan. Bularga quyidagilar, ya’ni: O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni 26[1]-moddani (**Harbiy xizmatchilarga nisbatan xizmat tekshiruvi o‘tkazish**) misol qilib keltirish mumkin. Unga ko‘ra, harbiy xizmat davomida sodir bo‘lgan muayyan hodisa, qonunchilik hujjatlari yoki harbiy xizmat (ijro) intizomining buzilishi holatlari yuzasidan haqiqatni, harbiy xizmatchining hodisaga aloqadorligi va aybdorlik masalasini aniqlash maqsadida xizmat tekshiruvi o‘tkaziladi [3].

Qonun talabiga ko‘ra harbiy xizmatchilarga nisbatan xizmat tekshiruvini o‘tkazish tartibi vazirliklar va idoralarning ichki idoraviy hujjatlari bilan tasdiqlanadi.

Shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va Ichki ishlar vazirligining 2024-yil 30 iyuldagi 42qk, 28-son qo‘shma qarori bilan “Ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan xizmat tekshiruvlarini tayinlash va o‘tkazish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Yo‘riqnoma tasdiqlangan.

Bu kabi hujjatlar masalan, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2015-yil 14 sentabrdagi 727-son buyrug‘i bilan “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligida xizmat tekshiruvi o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnoma” tasdiqlangan. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida ham 2023-yil 12 martda “Milliy gvardiya organlarida xizmat tekshiruvini tayinlash va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 45-son buyrug‘ bilan alohida Yo‘riqnoma ishlab chiqilgan.

Biroq mazkur yo‘riqnomalardagi xizmat tekshiruvni o‘tkazish bo‘yicha o‘rnatilgan tartib umumiy tusga ega bo‘lib, harbiy xizmatchilarning aynan qilmishlari oqibatida o‘tkaziladigan voqea-hodisalarni tekshirish bilan cheklanmaydi. Unda intizomiy, ma’muriy yoki moddiy javobgarlik yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan holatlar bo‘yicha umumiy qoidalar nazarda tutilgan.

Shuningdek, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari va xodimlarining intizomiy javobgarligi va ularga nisbatan o‘tkaziluvchi xizmat tekshiruvining huquqiy asoslari sifatida 2020-yil 18 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-647-son qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlari, 2021-yil 22 apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida xodimlar tomonidan xizmatni o‘tash tartibini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5089-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xodimlarining

Intizom Ustavi” qayd etilgan [4].

Bu kabi tajribalar ayrim MDH mamlakatlari qonunchiligida ham kuzatiladi. Jumladan, Rossiya Federatsiyasida Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari va xodimlariga nisbatan intizomiy ish yuritish masalalari Rossiya Federatsiyasi Milliy gvardiyasi qo‘shinlari bosh qo‘mondonining (federal xizmat direktori) 2018-yil 30 yanvardagi “Rossiya Federatsiyasi Milliy gvardiyasi qo‘shinlarida xizmat tekshiruvi o‘tkazish tartibotini tasdiqlash haqida”gi №25-son buyrug‘i bilan tartibga solingan.

Qozog‘iston Respublikasining 2015-yil 10 yanvardagi “Qozog‘iston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi qonunini 6-moddasiga ko‘ra, Milliy gvardiya harbiylashtirilgan tuzilma bo‘lib, ushbu bo‘linmalarida intizomiy javobgarlik masalalari Qozog‘iston Respublikasi Qurolli Kuchlari, harbiylashtirilgan tuzilmalar va boshqa qo‘shin turlarining Umumharbiy nizomlari tarkibiy qismi bo‘lgan Intizom nizomi bilan tartibga solinadi.

Belarus Respublikasi Qurolli Kuchlar tizimida intizomiy ish yuritish masalalari Belarus Respublikasi Mudofaa vazirligining 08.04.2004 yildagi “Belarus Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat surishtiruv o‘tkazish tartibi haqidagi Yo‘riqnomani tasdiqlash to‘risida”gi 12-son Qarori bilan tartibga solingan.

Belarus Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat surishtiruvi o‘tkazishning ahamiyatli jihatlaridan biri shuki, jinoyat alomatlari bilan bog‘liq tergovga qadar tekshiruvi jarayonida o‘tkaziluvchi xizmat surishtiruvlarida voqea joyini ko‘zdan kechirish, ekspertiza tayinlash, gumon qilinuvchini ushlash va uni ushlash vaqtida shaxsiy tantuvdan o‘tkazish kabi tergov harakatlari o‘tkazilishi mumkinligi qayd etilgan.

Ukrainada ham Milliy gvardiya bo‘linmalarida xizmat surishtiruvini o‘tkazishning alohida shakli mavjud. Xizmat surishtiruvi o‘tkazish Ukraina Ichki ishlar vazirligining 2020 yil 21 apreldagi “Ukraina Milliy gvardiyasida xizmat surishtiruvi o‘tkazish Tartibotini tasdiqlash haqida”gi 347-son buyrug‘i bilan tartibga solingan.

Tartibotning ahamiyatli jihati shundan iboratki, agarda xizmat surishtiruvi irqi, tana rangi, siyosiy, diniy etiqodi, jinsi, yoshi, etnik va ijtimoiy kelib chiqishi, fuqaroligi, oilaviy va mulkiy holati, yashash joyi, til va boshqa belgilarini diskriminatsiyasi bo‘yicha o‘tkazilayotgan bo‘l-sa, ishga harbiy boshqaruv organining gender integratsiyasi masalalari bo‘yicha mutaxassisi jalb etiladi.

Xizmat surishtiruvi o‘tkazish muddati bir oy bo‘lib, yetarli asoslar bo‘lganda yana bir oyga uzaytirilishi mumkin. Harbiy xizmatchining ta’tilda bo‘lgan vaqti, kasalligi va boshqa uzrli sabablarga ko‘ra xizmat joyida bo‘lmaganligi xizmat surishtiruvi muddatlariga kirmaydi.

Yuqoridagi davlatlarda xizmat tekshiruvi o‘tkazishning huquqiy jihatlarini qiyosiy-huquqiy tahlil usulida o‘rganish davomida xizmat tekshiruvi o‘tkazish

masalalariga nisbatan davlat miqyosida Qurolli Kuchlarda yagona yondashuv belgilanganligi, protsessual-huquqiy masalalar, muddatlar, rad etish asoslari ko‘rsatilganligi, konfedensial hususiyat kasb etishi, protsess ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari aniq belgilanganligi kabi holatlar ijobiy va samarali tomonlari sifatida aniqlandi.

Shundan kelib chiqib, bu boradagi milliy qonunchiligimizni takomillashtirish xususida muayyan mulohazalar shakllantirildi.

Jumladan, bizning fikrimizcha, O‘zbekiston Qurolli Kuchlarida tergovga qadar tekshiruvni o‘tkazish protsessual tartibi O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2019-yil 11-sentabrdagi 46qk/22, 22, 30,76, 25-son qsho‘ma qarorlari bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish hamda hisobini yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnoma asosida amalga oshiriladi [5]. Mazkur yo‘riqnomaga tergovga qadar tekshiruv davrida o‘tkaziladigan xizmat tekshiruviga oid qoidalarni biroz kengroq yoritish maqsadga muvofiq.

Jumladan, yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagilar taklif etiladi:

birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2019-yil 11-sentabrdagi 46qk/22, 22, 30,76, 25-son qo‘shma qarorlari bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish hamda hisobini yuritish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnoma”ni quyidagicha mazmunda 45^1-band bilan to‘ldirish taklif etiladi:

“Tergovga qadar tekshiruv jarayonida xizmat tekshiruvini o‘tkazishda himoyachi sifatida advokatlar ishtirok etishlari mumkin. Advokatning ishda ishtirok etishiga u advokat guvohnomasini ko‘rsatganidan va muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi orderni taqdim etganidan keyin yo‘l qo‘yiladi”;

ikkinchidan, harbiy xizmatchilar (xodimlar)ning xizmatni o‘tash vaqtida olgan tan jarohati bilan holatlari yuzasidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlarida, harbiy xizmatchilar (xodimlar)ga kelgusida sug‘urta kompaniyasidan tegishli sug‘urta pullari to‘lanilishini ta’minlash maqsadida xizmat tekshiruvi xulosasining qaror qismiga sug‘urta kompaniyasiga murojaat qilish yuzasidan topshiriq kiritish tavsiya etiladi;

uchinchidan, Ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya hamda Mudofaa vazirligida xizmat tekshiruvlarini tayinlash va o‘tkazish tartibiga harbiy xizmatchi va xodimlar huquqlarining kafolatlariga oid muayyan qoidalarni kiritish lozim. Masalan, o‘ziga

nisbatan xizmat tekshiruvi o‘tkazilgan harbiy xizmatchi aybi tasdiqlanmasa, tergovga qadar tekshiruv natijasida jinoyat ishi qo‘zg‘atilmasa yoki xizmat tekshiruvi natijasi o‘z tasdig‘ini topmasa, ishdan chetlatilgan davr uchun pul ta’minoti to‘liq saqlanishini, ushbu davr harbiy xizmatchi (xodim)ning navbatdagi ta’til olish huquqini beradigan xizmat davri sifatida qayd etilishi bo‘yicha maxsus qoidalarni mustahkamlash lozim.

References:

1. Elektron manba: https:// globalfirepower.com/defense-spending-budget.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, www.lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida xodimlar tomonidan xizmatni o‘tash tartibini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5089-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, www.lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2019-yil 11-sentabrdagi 46qk/22, 22, 30,76, 25-son qsho‘ma qarorlari bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish hamda hisobini yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnoma.

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TA’LIM OLISHGA BO‘LGAN KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLARNING KAFOLATI SIFATIDA

Jabbarov A.R.
Tashkent International University катта ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада фуқароларнинг таълим олиш ҳуқуқини амалга оширишда давлат-хусусий шериклик институтининг аҳамияти ва қўлланилиши таҳлил қилинган. Муаллиф таълим соҳасидаги давлат ва хусусий сектор ўртасидаги ҳамкорлик орқали конституцион ҳуқуқларни амалга ошириш имкониятларини, шунингдек, мазкур жараёндаги ҳуқуқий, институционал ва амалий муаммоларни ёритиб беради. Мақолада илмий таҳлиллар, халқаро тажриба ва миллий қонунчилик асосида тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: таълим ҳуқуқи, давлат-хусусий шериклик, конституцион ҳуқуқлар, ижтимоий кафолат, таълим сиёсати, ҳуқуқий механизмлар.

ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОЕ ПАРТНЁРСТВО КАК ГАРАНТИЯ КОНСТИТУЦИОННОГО ПРАВА НА ОБРАЗОВАНИЕ

Аннотация: В статье анализируется значение и применение института государственно-частного партнёрства в обеспечении реализации права граждан на образование. Автор рассматривает возможности реализации конституционных прав через сотрудничество государства и частного сектора в сфере образования, а также освещает правовые, институциональные и практические проблемы данного процесса. На основе научного анализа, международного опыта и национального законодательства выработаны соответствующие рекомендации.

Ключевые слова: право на образование, государственно-частное партнёрство, конституционные права, социальные гарантии, образовательная политика, правовые механизмы.

PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP AS A GUARANTEE OF THE CONSTITUTIONAL RIGHT TO EDUCATION

Abstract: The article analyzes the significance and application of the public-private partnership (PPP) institution in ensuring the realization of citizens’ right to education. The author examines the possibilities of implementing constitutional rights through cooperation between the state and the private sector in the field of education, as well as highlights the legal, institutional, and practical challenges of this process. Based on scientific analysis, international experience, and national legislation, the article provides relevant recommendations.

Key words: right to education, public-private partnership, constitutional rights, social guarantees, education policy, legal mechanisms.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 50-moddasida ta’lim sohasida fuqarolarning huquqiy kafolatlari aniq belgilangan. Unga muvofiq, har bir shaxs ta’lim olish huquqiga ega bo‘lib, davlat ushbu huquqni amalga oshirish uchun uzluksiz ta’lim tizimini, uning turli shakl va yo‘nalishlarini, shu jumladan davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlarini rivojlantirishni ta’minlaydi [13]**.**

Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’limni bepul olishni kafolatlaydi, hamda umumiy o‘rta ta’limning majburiyligini belgilaydi. Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratida bo‘ladi, bu esa ta’lim sifati va fuqarolarning ta’lim olish huquqi davlat tomonidan himoya qilinishiga kafolat beradi.

Mazkur konstitusiyaviy norma ta’lim sohasida davlatning asosiy majburiyatlarini belgilab berib, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun huquqiy va institusional asos yaratadi. Chunki davlat ta’lim sohasini mustaqil moliyalashtirish va boshqarish imkoniyatlarining cheklanganligini hisobga olgan holda, xususiy sektor bilan sheriklikni ta’lim huquqini amalga oshirishning zamonaviy vositasi sifatida qo‘llaydi. Zamonaviy globallashuv va texnologik rivojlanish sharoitida davlatning yagona o‘zi ta’lim tizimiga bo‘lgan ulkan moliyaviy, texnik va tashkiliy talablarni to‘liq qondirishi qiyinlashmoqda. Yangi maktablar, innovatsion o‘quv markazlari va yuqori texnologik laboratoriyalar qurish, shuningdek, o‘quv jarayonlariga eng so‘nggi xalqaro standartlarni joriy etish katta miqdordagi investitsiyalarni va samarali menejmentni talab qiladi.

Ana shunday sharoitda **davlat-xususiy sheriklik (davlat-xususiy sheriklik)** ta’lim sohasidagi konstitusiyaviy kafolatlarni amalga oshirishning eng maqbul va zaruriy yo‘li sifatida maydonga chiqmoqda. davlat-xususiy sheriklik davlat va xususiy sektorning eng yaxshi jihatlarini birlashtirib, ta’lim xizmatlarining sifatini oshirish, infratuzilmani kengaytirish va davlat byudjetiga tushadigan yuklamani kamaytirish imkonini beradi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — fuqarolarning ta’lim olish huquqini amalga oshirishda **davlat-xususiy sheriklik** mexanizmidan foydalanishning **obyektiv zaruriyatini** asoslashdan iborat.

Umuman olganda, davlat-xususiy sheriklik ta’lim sohasida bir qator sabablar, jumladan, davlatning moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlari cheklanganligi sababli, ta’lim xizmatlarini kengaytirish va sifatini oshirish uchun muhim vosita sifatida ko‘rib chiqiladi.

• Resurslar bo‘shlig‘i va infratuzilma kamchiliklarini bartaraf etish**:** Ko‘pgina davlat ta’lim tizimlari resurs cheklovlari va samaradorlikning yetishmasligi bilan duch keladi**,** ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda [1]. Davlat-xususiy sheriklik

ta’limga yo‘naltirilgan moliyaviy resurslar darajasini oshirishga yordam beradi, pul uchun yaxshiroq qiymatni ta’minlaydi va maktab infratuzilmasiga bo‘lgan talab va mavjudlik o‘rtasidagi ulkan bo‘shliqni hal qiladi [11]. Bunga maktab qurilishi va modernizatsiyasiga xususiy sektor investitsiyalari orqali davlat mablag‘larini to‘ldirish kiradi [1].

• Ta’limga kirishni kengaytirish: davlat-xususiy sheriklik davlat maktablarining cheklangan imkoniyatlarini to‘ldirish va shu bilan aholining ko‘proq qismi uchun ta’limga kirishni kengaytirish uchun qabul qilinadi [11]. Xususiy tashkilotlarni jalb qilish orqali hukumatlar, masalan, mavjud xususiy maktablardan foydalangan holda ta’limga kirishni tezda kengaytirishi mumkin [6].

• Xususiy sektor tajribasi va innovatsiyalaridan foydalanish: Hukumatlar xususiy sektor bilimlari, ko‘nikmalari va innovatsiyalaridan foydalanish uchun davlat-xususiy sheriklik bilan shug‘ullanadi [11]. Xususiy sektor bilimlar mobilizatsiyasini rivojlantirish va innovatsiyalarni rag‘batlantirishda, bu esa ta’lim berish sifatini yaxshilashi mumkin, o‘ziga xos tarzda ustun deb hisoblanadi [11].

• Samaradorlik va tejamkorlikni oshirish: davlat-xususiy sheriklik orqali ta’lim sohasida raqobat bosimini joriy etish innovatsiyalar va samaradorlikni oshirishga olib kelishi mumkin [11]. Xususiy sektor ko‘pincha ixtisoslashuv va xususiy xodimlarning hisobdorligini oshirish hisobiga ayrim sohalarda yuqori samaradorlikni namoyish etadi

• Hukumatlarga asosiy vazifalarga e’tibor qaratish imkoniyatini berish: davlat-xususiy sheriklik hukumatlarga rejalashtirish, siyosatni ishlab chiqish, sifatni ta’minlash va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish kabi o‘zlari ustun bo‘lgan vazifalarga e’tibor qaratish imkonini beradi [11].

• Innovatsiyalar va sezgirlikni rag‘batlantirish: Jarayonlarga emas, balki natijalarga e’tibor qaratish orqali davlat-xususiy sheriklik xizmat ko‘rsatishda katta innovatsiyalarni rag‘batlantirishi va tajriba o‘tkazishni osonlashtirishi mumkin [11].

• Hisobdorlik va shaffoflikni oshirish: davlat-xususiy sheriklik shartnomalar orqali xarajatlarni yanada shaffofroq qilishga olib kelishi mumkin [11]. Ular ota-onalarning tanlash erkinligi va maktablar o‘rtasidagi raqobatni rag‘batlantirish orqali maktablar va o‘quvchilarning o‘quv natijalari uchun hisobdorlikni oshirishi mumkin [6].

• Operatsion cheklovlarni chetlab o‘tish: Hukumatlar operatsion cheklovlarni, ayniqsa inson resurslarini boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan cheklovlarni, masalan, moslashuvchan bo‘lmagan ish haqi miqyosini yoki davlat xizmati cheklovlarini yengish uchun davlat-xususiy sheriklikdan foydalanishi mumkin [11].

• Tizimli muammolarni hal qilish**:** Umuman olganda**,** davlat-xususiy sheriklik ta’limdagi tizimli muammolarni hal qilish uchun o‘zgaruvchan yondashuv sifatida qaraladi**,** ayniqsa davlat ta’lim tizimlari sezilarli cheklovlarga duch keladigan rivojlanayotgan mamlakatlarda **[1].** Ular davlatga bo‘lgan o‘sib borayotgan talablar

va cheklangan resurs muhitini hal qiladi**,** bu esa xususiy sektordan ta’limni moliyalashtirish va/yoki ta’minlash mas’uliyatini bo‘lishishni talab qiladi **[7].**

Har bir jamiyat taraqqiyotining muhim ustuni o‘sha jamiyatda ta’limga bo‘lgan munosabatlar darajasida ko‘rinadi. Shuning uchun har qanday boshqaruv shaklidagi davlatlar ta’limni rivojlantirishni o‘zining ustuvor vazifasi sifatida belgilaydi.

Biroq zamonaviy sharoitda ta’lim sohasidagi ehtiyojlar davlat imkoniyatlaridan ancha ortiq bo‘lib bormoqda. Yangi maktablar qurish, ta’lim sifatini oshirish, ilmiy salohiyatni mustahkamlash va innovatsion ta’lim infratuzilmasini yaratish kabi vazifalarni amalga oshirishda davlatning moliyaviy va tashkiliy resurslari cheklangan. Shu sababli, ta’lim sohasida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik — davlat-xususiy sheriklik mexanizmini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ta’lim olish huquqi fuqarolarning ijtimoiy-madaniy huquqlar tizimida muhim o‘rin tutadi. Bu huquq faqat ta’lim muassasasiga kirish imkoniyati bilan chegaralanmaydi, balki ta’limning sifatli, barqaror va hamma uchun teng imkoniyatli bo‘lishi bilan belgilanadi. Davlatning mazkur sohadagi vazifasi — fuqarolar uchun zarur huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy sharoitlarni yaratishdan iborat.

Konstitusion huquq sifatida ta’lim olish erkinligi davlat zimmasiga ikki turdagi majburiyatni yuklaydi:

Negativ majburiyat — ta’lim olish huquqiga noqonuniy aralashmaslik;

Pozitiv majburiyat — ta’lim tizimini tashkil etish va uning moddiy bazasini ta’minlash.

Aynan shu yerda davlat-xususiy sheriklikning roli namoyon bo‘ladi: davlat ta’lim sohasidagi majburiyatlarni to‘liq o‘z zimmasiga ololmagan sharoitda, xususiy sektor imkoniyatlaridan foydalanish orqali bu huquqning amalga oshishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklikning huquqiy asosi 2019 yil 10 mayda qabul qilingan “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunda belgilab berilgan. Unga ko‘ra, davlat-xususiy sheriklik — bu, davlat organi bilan xususiy sherik o‘rtasida ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha tuziladigan shartnomaviy munosabatdir**[14]**.

Davlat-xususiy sheriklikning qonuniy asosi mavjud bo‘lsa-da, uning ta’lim sohasidagi qo‘llanilishi hanuz yetarli darajada tizimli emas. Hozirgi kunga qadar dunyo miqiyosida allaqachon davlat-xususiy sheriklikning ijobiy tomonlari isbotlangan bo‘lsa-da, ular umummilliy miqyosdagi strategiyaga aylanmaganligi buning yorqin dalili.

Davlat-xususiy sheriklik (davlat-xususiy sheriklik) — bu davlat va xususiy sektorning uzoq muddatli hamkorlik munosabatlariga asoslangan institusional mexanizm bo‘lib, ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlar yoki infratuzilma loyihalarini

amalga oshirishga qaratilgan. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklikning afzalliklari bilan bir qatorda uning amaliy qo‘llanilishida bir qator **tizimli muammolar** mavjud bo‘lib, ular davlat boshqaruvi, moliyaviy barqarorlik, jamoatchilik ishonchi va loyihalar samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi.

1. Shartnomaviy va boshqaruv murakkabliklari

Ko‘plab davlat-xususiy sheriklik loyihalarda asosiy muammo **risklarning noto‘g‘ri taqsimlanishi** hisoblanadi: agar davlat xususiy sherikka ortiqcha xavf yuklasa, u yuqori foyda talab qiladi; aks holda, davlatning xatarni to‘liq o‘z zimmasiga olishi samaradorlikni kamaytiradi [4].

2. Moliyaviy va iqtisodiy xatarlar

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash davlat uchun katta muammodir, chunki **uzoq muddatli moliyalashtirish, kafolatlar va valyuta risklari** katta rol o‘ynaydi [12].

3. Operatsion va xizmat ko‘rsatish muammolari

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida **xizmat sifati va standartlari**ni ta’minlash muhim vazifadir. Aks holda, xususiy sherikning foyda motivi davlat xizmatlarining ijtimoiy vazifasi bilan to‘qnash keladi. Xususiy sektorning rentabellikka yo‘nalgan faoliyati ayrim hollarda xizmat sifatining pasayishiga yoki kam ta’minlangan aholi uchun xizmatlarga kirish imkoniyatining cheklanishiga olib kelishi mumkin [8].

4. Shaffoflik va javobgarlik muammolari

UNECEning 2023 yildagi “PPP Standard for SDGs” hujjatida ta’kidlanishicha, ko‘plab davlat-xususiy sherikliklarda **shaffoflik va hisobdorlik yetishmasligi** jamoatchilik ishonchiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [10]. Xususiy sheriklar bilan bog‘liq tijorat maxfiyligi davlat nazoratini cheklab, qaror qabul qilish jarayonlarini yopiq holga keltirishi mumkin.

5. Jamoatchilik ishonchi va ijtimoiy tenglik masalalari

Jamoatchilikni qaror qabul qilish jarayoniga jalb qilish, monitoring mexanizmlarini kuchaytirish va davlat nazoratini saqlab qolish davlat-xususiy sheriklikning barqaror samaradorligini ta’minlaydi [10].

Davlat-xususiy sheriklikning samaradorligini ta’minlash uchun uni faqat iqtisodiy instrument emas, balki **ijtimoiy mas’uliyatli, shaffof va hisobdor boshqaruv mexanizmi** sifatida shakllantirish zarur.

Ta’lim va boshqa ijtimoiy sohalarda davlat-xususiy sheriklik muvaffaqiyati — davlatning nazorati, xususiy sherikning mas’uliyati va jamoatchilikning ishonchi o‘rtasidagi muvozanatni to‘g‘ri saqlashga bog‘liq.

Davlat-xususiy sheriklik muammolarini bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar

Shartnomaviy va boshqaruv murakkabliklarini kamaytirish uchun

davlat-xususiy sheriklik shartnomalarini tayyorlashda standartlashtirilgan huquqiy modellar va tipik shartnoma shakllarini joriy etish;

loyiha muzokaralarini olib boruvchi davlat idoralarini xalqaro tajribaga asoslangan malaka oshirish dasturlariga jalb etish;

risklarni aniq baholash va ularni “who can best manage the risk” tamoyili asosida taqsimlash.

Moliyaviy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun

davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishda mustahkam fiskal nazorat va kafolatlarni hisobga olish mexanizmlarini joriy etish;

loyihalarni ilgari surishdan oldin “value for money” tahlilini majburiy ravishda o‘tkazish;

milliy valyutadagi moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va valyuta risklarini xedjlash vositalarini joriy etish.

Xizmat ko‘rsatish va operatsion samaradorlikni oshirish uchun

davlat-xususiy sheriklik shartnomalarida sifat ko‘rsatkichlari (KPIs) va javobgarlik mezonlarini aniq belgilash;

xususiy sheriklar faoliyatini davlat va jamoatchilik ishtirokidagi mustaqil monitoring tizimi orqali baholash;

ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlarda foydadan ko‘ra sifat va qamrov ustuvorligini ta’minlash.

Shaffoflik va javobgarlikni kuchaytirish uchun

barcha davlat-xususiy sheriklik shartnomalarini va moliyaviy natijalarini omma uchun ochiq ma’lumotlar bazasi (PPP Transparency Portal) orqali e’lon qilish;

“birlashgan hisobdorlik” tamoyilini joriy etish — ya’ni davlat va xususiy sherikning mas’uliyatini teng darajada aniqlash;

davlat auditi va parlament nazoratini kuchaytirish orqali hisobdorlik mexanizmlarini institusionallashtirish.

Jamoatchilik ishonchi va ijtimoiy tenglikni ta’minlash uchun

har bir loyiha avvalida jamoatchilik fikrini inobatga olish bo‘yicha konsultatsiyalar o‘tkazish;

davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishda inklyuzivlik va tenglik indikatorlarini majburiy talab sifatida kiritish;

foyda ko‘rish bilan bir qatorda ijtimoiy samaradorlikni baholash tizimini joriy etish.

Xulosa:

Fuqarolarning ta’lim olishdagi konstitusiyaviy huquqlarini ta’minlashda davlat-xususiy sheriklik dan foydalanish zaruriyati, asosan, davlatning mavjud resurslar bilan ta’limga bo‘lgan talabni to‘liq qondira olmasligidan kelib chiqadi. Xalqaro va milliy hujjatlar ta’lim olish huquqini ta’minlashda davlat-xususiy sheriklik ning rolini

tan oladi. Ammo, davlat-xususiy sheriklik ning huquqiy asoslarini mustahkamlash, hisobdorlikni oshirish, tenglikni ta’minlash va huquqiy meyoriy mexanizmlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Aks holda, davlat-xususiy sheriklik konstitusiyaviy huquqlarni ta’minlash o‘rniga, tengsizliklarni yanada chuqurlashtirishi mumkin.

Davlat-xususiy sherikliklarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun nafaqat moliyaviy va texnologik resurslar, balki samarali boshqaruv, huquqiy aniqlik, javobgarlik va shaffoflik mexanizmlari zarur. Xalqaro tajriba shundan dalolat beradiki, faqat ijtimoiy mas’uliyat va davlat nazoratini saqlagan holda davlat-xususiy sheriklik loyihalari haqiqiy “pul uchun qiymat”ni ta’minlay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 Ahmad, F. A., Alam, A. Role of Public-Private Partnerships in Transforming Education. — International Journal for Innovative Research in Multidisciplinary Field, Vol. 11, Issue 02, February 2025. — Pp. 186-…

2 Aslam M., Malik R., Riffat R.— Public-Private Partnerships in Education: Evidence from Pakistan. — Institute of Development and Economic Alternatives (IDEAS),

3 IMF. Public-Private Partnerships, Government Guarantees, and Fiscal Risk. — Washington, DC: International Monetary Fund, 2018. — 56 p.

4 McKinsey & Company. A Smarter Way to Think about Public-Private Partnerships. — 2021.

5 OECD. Public-Private Partnerships: In Pursuit of Risk Sharing and Value for Money. — Paris: OECD Publishing, 2012. — 186 p.

6 Patrinos, H. A., Barrera-Osorio, F., Guáqueta, J. The Role and Impact of Public-Private Partnerships in Education. — Washington, DC: The World Bank, 2009. — 146 p.

7 Patrinos H. A., Sosale S. Mobilizing the Private Sector for Public Education: A View from the Trenches. — Washington, DC: The World Bank, 2007. — 110 p.

8 PSI. Why Public-Private Partnerships Don’t Work. — Global Policy Forum, 2012. — 68 p.

9 Robertson, S. L., Mundy, K., Verger, A., Menashy, F. (ред.). Public Private Partnerships in Education: New Actors and Modes of Governance in a Globalizing World. — Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2012. — 320

10 UNECE. Standard on Public-Private Partnerships / Concession Legal Framework in Support of the Sustainable Development Goals and Its Accompanying Guide. — Geneva: United Nations Publications, 2023. — 108 p.

11 Verger, A., Moschetti, M. Public-Private Partnerships as an Education Policy Approach: Multiple Meanings, Risks and Challenges. — Paris: Open Society Foundations, 2016. — 36

12 World Bank. Key Issues in Public-Private Partnerships for the Poor. — Washington, DC: World Bank, 2008. — 32 p.

13Ўзбекистон Республикаси Конституsияси. — Тошкент: Ўзбекистон, 2023. — 68 б.

14Ўзбекистон Республикасининг “Давлат-хусусий шериклик тўғ‘рисида”ги Qонуни. — 2019 йил 10 май. — Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2019 й., № 5, 15–23-бетлар.

INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINI TA'MINLASHDA KONSTITUTSIYANING O‘RNI VA AHAMIYATI

Jumayev Akmal G`ulom o`g`li,
O`zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti talabasi
Mavlyanov Ravshanbek Tojimirzayevich,
O‘q otish tayyorgarligi kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining davlatimiz mustaqilligining yuridik asosi sifatidagi o‘rni, ahamiyati, Konstitutsiyamizning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning kafolati ekanligi, shuningdek Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar haqida qisqacha bayon qilingan.

Abstract: This article briefly describes the role and importance of the Constitution of the Republic of Uzbekistan as the legal basis of the independence of our state, the fact that our Constitution is a guarantee of ensuring human rights and freedoms, as well as the amendments and additions made to the Constitution.

Аннотация: В данной статье кратко раскрывается роль и значение Конституции Республики Узбекистан как правовой основы независимости нашего государства, то, что наша Конституция является гарантией обеспечения прав и свобод человека, а также изменения и дополнения, внесенные в Конституцию.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, shaxs va jamiyat, suveren davlat, demokratik davlat, Ijtimoiy davlat, huquqiy davlat, dunyoviy davlat, konstitutsiyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi, inson sha’ni, inson qadr-qimmati, xalqaro shartnoma.

Keywords: Constitution, individual and society, sovereign state, democratic state, social state, legal state, secular state, direct application of the constitution, human honor, human dignity, international treaty.

Ключевые слова: Конституция, личность и общество, суверенное государство, демократическое государство, социальное государство, правовое государство, светское государство, прямое действие конституции, человеческая честь, человеческое достоинство, международный договор.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e'lon qilgan sanadan e'tiboran xalqaro maydonda yangi, suveren davlat qaror topgan bo‘lsa, Konstitutsiya qabul qilinishi

barobarida mustaqillikning huquqiy tamal toshi ornatilgan. **Konstitutsiya** bu davlatning oliy yuridik kuchga ega asosiy qonuni hisoblanadi. Asosiy qonun davlat tuzilishini, uning asosiy prinsiplarini, inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini, davlat hokimiyati organlari tizimi, tarkibi, tashkil etish tartibi, vakolatlari, davlat va jamoat birlashmalarining o‘zaro munosabatlari asoslarini belgilovchi normalar yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Konstitutsiya davlat funksiyasi doirasini, uning shaxs va jamiyat bilan aloqasi asoslarini o‘rnatish bilan konstitutsiyaviy tuzum asoslarini belgilaydi. O‘zbekiston Konstitutsiyasi eng taraqqiy etgan davlatlarning tarixiy tajribasiga tayangan holda yaratilgan Konstitutsiya hisoblanadi. Konstitutsiyamizning yuridik kuchi quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Konstitutsiyaga muvofiq, O‘zbekiston - Prezidentlik boshqaruv shaklidagi suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat hisoblanadi. Konstitutsiyada davlatni, jamiyatni rivojlantirishning demokratik omillari belgilab berilgan bolib, xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai ekanligi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega, ya'ni prezident Konstitutsiyaga, qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo‘lgan farmonlar, qarorlar, farmoyishlar qabul qiladi. Konstitutsiyada O‘zbekiston Prezidenti fuqarolar tomonidan umumiy, teng, to‘g'ridan-to‘g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan yetti yil muddatga saylanishi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabr kuni respublika Oliy Kengashining o‘n ikkinchi chaqiriq bilan o‘n birinchi sessiyasida qabul qilingan. Shu kundan e'tiboran, O‘zbekiston Respublikasida 8-dekabr dam olish kuni bo‘lib umumxalq bayrami sifatida nishonlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tarkibiy tuzilishiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Konstitutsiyamiz Muqaddima, 6 bo‘lim, 27 bob va 155 ta modda iborat. Konstitutsiyaning birinchi bo‘limi, "Asosiy prinsiplar" deb nomlanadi. Bunda davlat shakli hamda suverenitetini namoyon etuvchi xususiyatlar belgilangan, ikkinchi bo‘limi "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" bo‘lib mazkur bo‘limda inson va fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisoiy, madaniy va ekologik huquqlari belgilangan. Konstitutsiyamizning uchinchi bo‘limi "Shaxs va jamiyat" deb nomlangan bo‘lib, uning boblarida jamiyatning iqtisodiy munosabatlarning negizi aks etgan, to‘rtinchi bo‘limi "Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi"ga bag'ishlangan. Unda davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi, Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy holati alohida-alohida boblarda belgilab berilgan. Konstitutsiyaning beshinchi bo‘limi, eng katta bo‘lim hisoblanib, "Davlat hokimiyatini tashkil etish" deb nomlanadi. Bu bo‘limda Oliy Majlis, O‘zbekiston Respublikasi prezidentini saylash tartibi, vakolatlari va o‘zaro munosabatlari asoslari belgilangan, shuningdek davlat boshqaruv organlarining tashkil etish tartibi ham shu bo‘limga kiradi. Konstitutsiyamizning oltinchi bo‘limi esa, "Konstitutsiyaga

o‘zgartirish kiritish tartibi"ga bag‘ishlangan va bunda konstititsiyaga qanday qilb o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish mumkinligi batafsil ko‘rsatilgan.

Konstitutsiya bilan jamiyat va davlat rivojlanishining demokratik prinsiplari belgilab qo‘yilgan. Respublikamizda ro‘y berayotgan demokratik o‘zgarishlar davomida Konstitutsiyaga ham o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritib kelinmoqda. Davlatimiz Konstitutsiyasiga hozirgi kunga qadar kiritilgan eng asosiy 15 ta ozgartirish va qo‘shimchalarni ko‘rib chiqamiz:

1. 1993 yil 28-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyamizning 77-moddasi 1-qismidagi "150 nafar deputatdan" degan so‘zlar "deputatlardan" degan so‘z bilan almashtirildi;

2. 2002 yil 27-yanvarda o‘tkazilgan umumxalq referendumi natijalariga ko‘ra hamda uning asosida 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan Qonunga muvofiq Konstitutsiyamizning XVIll, XIX, XX, XXIll boblariga o‘zgartirishlar va qoshimchalar kiritildi;

3. 2007 yil 11-apreldagi Qonun bilan Konstitutsiyamizning 89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritildi;

4. 2008 yil 25-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 77-moddasi birinchi qismiga o‘zgartirish kiritildi;

5. 2011 yil 18-aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyamizning 78, 80, 93, 96, 98-moddalariga o‘zgartirish, qo‘shimchalar kiritildi;

6. 2011 yil 12-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 90-moddasi ikkinchi qismiga tuzatish kiritildi;

7. 2014 yil 16-aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyamizning 32, 78, 93, 98, 103, 117-moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi;

8. 2017 yil 6-aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyamizning 80, 81, 83, 93, 107, 110, 111-moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi;

9. 2017 yil 31-mayda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyamizning 80, 93, 108, 109-moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi;

10. 2017 yil 29-avgustda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyamizning 99, 102-moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi;

11. 2018 yil 15-oktabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyamizning 105-moddaning birinchi qismidagi "ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) uning maslahatchilarini" degan sozlar "raisni (oqsoqolni)" degan so‘zlar bilan almashtirildi;

12. 2019 yil 18-fevralda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyamizning 80, 93-moddalariga o‘zgartirish kiritilib, Milliy xavfsizlik xizmati Davlat xavfsizlik xizmati deb yuritila boshlandi;

13. 2019 yil 5-martda qabul qilingan Qonunga asosan Konstitutsiyamizning 79, 93, 98-moddalarga o‘zgartirishlar kiritildi;

14. 2019 yil 4-sentabrda qabul qilingan Qonunga asosan saylov tog'risidagi qonun hujatlari takomillashtirilishi nunosabati bilan Konstitutsiyamizning 96, 117-moddalarga o‘zgartirishlar kiritildi;

15. 2023-yil 30-aprelda bo‘lib o‘tgan umumxalq referendumi asosida Konstitutsiyamizga juda ko‘plab o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Bunda asosiy e'tibor inson, uning qadri va huquqlari, erkinliklariga qaratildi. Mazkur umumxalq referendumi asosida Konstitutsiyamiz 65 % ga yangilandi, ya'ni 128 ta moddadan 155 ta moddaga, 275 ta normadan 434 ta normaga oshdi. Ushbu tadqiqotimizning asosiy qismini ham aynan 2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan umumxalq referendumi natijalari tashkil etadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda quyidagi o‘zgarishlar e'tiborga loyiqdir: Konstitutsiyamizning 1-moddasida O‘zbekiston - boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb qat'iy belgilangan. Bunda ***suveren*** - ichki va tashqi mustaqillikni anglatadi, ***demokratik davlat*** bu davlatning xalq hokimiyatchiligiga asoslanishini ko‘rsatadi, ***huquqiy davlat*** – insoniyatning ming yillar mobaynidagi mashaqqatli mehnati evaziga shakllangan taraqqiyot g‘oyasi bo‘lib, huquq normalariga, insonning qadr-qimmati, erkinligi va huquqlarini himoya qilishga qaratirilgan fundamental huquqiy prinsiplariga so‘zsiz rioya qiladigan, demokratik prinsiplar asosida qabul qilingan qonunlar oldida barcha teng va hisobdor bo‘lgan, hech kim qonundan ustun turmaydigan davlatdir. ***Ijtimoiy davlat*** har bir inson uchun farovon turmush darajasi, xususan sifatli ta’lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy-joyli bo‘lish sharoiti mavjud bo‘lgan, ijtimoiy tafovutlar yumshatilgan, muvozanatlashgan, hech bir fuqaro o‘z muammolari bilan yolg‘iz qolmaydigan adolatli davlat, ***dunyoviy davlat*** – diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan hamda davlat hokimiyati dindan ajratilgan, davlat boshqaruvi diniy qoidalar bilan emas, balki Konstitutsiya va qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan, qarorlar qabul qilishda diniy asoslarga tayanilmaydigan davlat hisoblanadi. Konstitutsiyamizning 15-moddasida *O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi*, degan norma belgilandi. **Konstitutsiyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi** – davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari, shu jumladan, sudlar tomonidan Konstitutsiya normalarini huquqni qo‘llash amaliyotida bevosita qo‘llagan holda qarorlar qabul qilish, fuqarolarning Konstitutsiya normalaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanishi va rioya etishini ko‘zda tutadi. Jumladan, vazirliklar, hokimliklar sudlar, prokuratura, ichki ishlar organlar va boshqa davlat organlari, mansabdor shaxslar muayyan bir holat yoki ish yuzasidan Konstitutsiyada belgilangan normalarni aniq ko‘rsatgan holda qarorlar qabul qiladi. Shuningdek, 15-moddada *O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan*

prinsip va normalari bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir degan norma mustahkamlandi. Bugungi kunda O‘zbekiston xalqaro huquqning to‘la huquqli subyekti sifatida xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan prinsiplari va normalarini qamrab olgan, birgina inson huquqlariga oid 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga qo‘shilgan. 1969-yil 23-maydagi “Xalqaro shartnomalar huquqi to‘g‘risida”gi Vena konvensiyasiga binoan ***xalqaro shartnoma*** – bitta yoki bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan bir nechta hujjatdan iborat bo‘ladigan, shartnoma, bitim, konvensiya, akt, pakt, bayonnoma, xatlar yoki notalar almashinuvi hamda xalqaro shartnomaning boshqacha nomlari va tuzilish usullaridan qat’i nazar, xorijiy davlat, xalqaro tashkilot bilan yozma shaklda tuzilgan, xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan xalqaro kelishuv hisoblanadi. Inson sha’ni va qadr-qimmati, daxlsizligi oliy qadriyat bo‘lib, huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatida uni amalda ta’minlash muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2022-yilning 20-iyun kuni Konstitutsiyaviy komissiya bilan uchrashuvda *“Inson qadrini yuksaltirish haqiqatda davlat hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy burchi va ustuvor vazifasi bo‘lmog‘i shart”*, deb ta’kidlagan edi. Shu nuqtai-nazardan, yangilangan Konstitutsiyamizning 26-moddasida *insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir*, degan insonparvar norma mustahkamlandi. ***Inson sha’ni*** – bu insonning boshqa odamlar oldida o‘z ahamiyatini anglashi yoki insonning ma’naviy obro‘sidir. ***Inson qadr-qimmati*** – bu shaxsning o‘zini o‘zi hurmat qilishi, jamiyat a’zosi sifatida o‘z mavqei va ahamiyatini anglashidir. Konstitutsiyamizda inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklarini ta'minlovchi va kafolatlovchi juda ko‘plab normalar bilan boyitildi. Albatta, bu davlatimizning demokratik huquqiy davlat ekanligini, shuningdek O‘zbekiston Respublikasidagi barcha insonlarning huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishni o‘z zimmasiga olganligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli ekanligi va har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi hamda har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqi kafolatlanganligi qat'iy belgilangan. Eng asosiysi shundaki, ***har kim O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli*** ekanligi Konstitutsiyamizda o‘z aksini topgan. Bunda *davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalari* degan so‘zlariga e'tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi

barcha sudlar va boshqa inson huquqlarini himoyalovchi davlat organlari, idoralarini o‘z ichiga oladi. Lekin, Konstitutsiyamizning yana bir moddasida 55-moddada ko‘rsatilgan normaga nisbatan farq qiluvchi norma belgilangan. Ya'ni, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 133-moddasida ***Konstitutsiyaviy sudning qarori qat’iy va uning ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas***ligi belgilangan. Agar fuqaro o‘z huquqlari va erkinliklari poymol etilayotganligi uchun konstitutsiyaviy sudga murojaat qilsa, konstitutsiyaviy sud esa fuqaroning huquqlari ham erkinliklari ham buzilmayotganligini aytib qaror chiqarsa fuqaro o‘zining huquqlarini himoya qilish uchun insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat qilolmaydi. Aynan mana shunday holatlar Konstitutsiyamizning 55-moddasiga zid bo‘lib qoladi. Bundan tashqari, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga jismoniy shaxslar murojaat qilishi ham mumkin emas. Bu esa o‘z o‘zidan ma'lumki Konstitutsiyamizning mazkur normasi amalda mutloqa ishlamaydi. Bunday kollizion holatlarni bartaraf etish uchun eng asosiysi inson huquqlari va erkinlliklarini to‘laligicha ta'minlash hamda Konstitutsiyamizdagi barcha normalarni amaliyotda ishlashi uchun ikkita normadan bittasini o‘zgartirish zarur. Shundan keyingina yuqorida keltirilgan misolimizdagi vaziyatlar bo‘lmaydi va inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari ta'minlanishi, himoyalanishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklarini ta'minlash, himoyalash va ularni yanada mustahkamlashning asosiy poydevoridir. Chunki, Konstitutsiyas butun davlatimiz hududida oliy yuridik kuchga ega, qolgan barcha qonun hujjatlari va qonunosti hujjatlaridan ustun turuvchi Bosh Qomusimizdir. Bundan tashqari, davlat insonning huquq va erkinliklarini ta'minlashni o‘zing eng oliy maqsadi ekanligini han aynan Konstitutsiyamizda qat'iy belgilangan.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent, "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, 2023-y. - 108 b. ISBN 978-9910-9690-5-8.

2. "ЯНГИЛАНАЁТГАН КОНСТИТУЦИЯ 100 САВОЛГА 100 ЖАВОБ". Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази, 2023 йил, ISBN 978-9943-8166-3-3.

3. Konstitutsiyaviy huquq. Husanov O.T. Darslik. - Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2025. - 640 bet.

4. Sputnik O‘zbekiston rasmiy sayiti, https://oz.sputniknews.uz/amp/20221208/ozbekiston-konstitutsiyasi 21150450.html.

5. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz

MAXSUS HUQUQIY FANLARDA KONSTITUTSIYANI O‘RGATISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Ikramov Alisher Aktamovich,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Maxsus huquqiy fanlarning nazariy asosida konstitutsiya turadi, chunki u huquqiy tizimning umumiy tamoyillarini belgilaydi. Konstitutsiyaning 7-moddasi (huquq ustuvorligi) barcha maxsus normalarga ustunlik qiladi:

Kalit so‘zlar: Maxsus huquq, demokratiya,maxsus huquq subyekti,

Konstitutsiya davlatning huquqiy tizimining cho‘qqisi bo‘lib, barcha qonunlar va huquqiy normalarning asosiy manbai hisoblanadi. Maxsus huquqiy fanlar – jinoyat huquqi, fuqarolik huquqi, mehnat huquqi, ma’muriy huquq va boshqalar – konstitutsiyaviy tamoyillarga asoslanib shakllanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yilgi tahrir) bu fanlarda asosiy yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada konstitutsiyaning maxsus huquqiy fanlardagi metodologik, nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Bu ahamiyat huquqshunoslik ta’limi va amaliyotida konstitutsiyani “huquqiy piramida”ning tepasi sifatida tushunishda namoyon bo‘ladi.

Maxsus huquqiy fanlarning nazariy asosida konstitutsiya turadi, chunki u huquqiy tizimning umumiy tamoyillarini belgilaydi. Konstitutsiyaning 7-moddasi (huquq ustuvorligi) barcha maxsus normalarga ustunlik qiladi:

- **Tamoyillar ierarxiyasi**: Konstitutsiya maxsus fanlarning asosiy prinsiplarini shakllantiradi. Masalan, 18-modda (inson huquqlari) jinoyat huquqida “aybsizlik prezumatsiyasi”ni, fuqarolik huquqida “shartnoma erkinligi”ni ta’minlaydi.
- **Tafsir vositasi**: Maxsus qonunlarning noaniqliklarini konstitutsiya orqali tushuntirish mumkin. Oliy sud amaliyotida (2022–2024 yillar) Konstitutsiyaga asoslangan 150 dan ortiq qaror chiqarilgan.

Bu rol huquqshunoslikda “konstitutsiyaviy huquqni maxsus fanlarning ‘mantiqiy asosi’” deb ataladi (prof. R. Qo‘chqorov fikri).

Konstitutsiya har bir maxsus fanda o‘ziga xos ahamiyatga ega. Quyidagi jadvalda asosiy misollar keltirilgan:

Masalan, jinoyat huquqida Konstitutsiyaning 27-moddasi (“Hech kim o‘z ixtiyri bo‘lmagan jinoyat uchun javobgar bo‘lmaydi”) Jinoyat kodeksining 12-moddasini to‘ldiradi va sud amaliyotida asosiy dalil bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim va ilmiy izlanishlardagi ahamiyati

Huquqshunoslik oliy ta’limida konstitutsiya maxsus fanlarning barcha dasturlarida majburiy komponent:

- **O‘quv jarayoni**: “Jinoyat huquqi” fani dasturida konstitutsiyaviy jazo tamoyillari 20% ni tashkil etadi. Talabalar konstitutsiyaga asoslangan case-study (sud ishlarini tahlil) orqali o‘qiydi.
- **Ilmiy tadqiqotlar**: Magistratura va PhD dissertatsiyalarida konstitutsiya maxsus fanlarning “integratsion markazi” sifatida o‘rganiladi. 2023-yilda O‘zbekiston Milliy universitetida 25 ta dissertatsiya shu mavzuda himoya qilingan.
- **Amaliy qo‘llash**: Advokatlar va sudyalar uchun konstitutsiyaviy nazorat mexanizmi (93-modda) maxsus huquqiy nizolarni hal qilishda asosiy vosita.

Ta’limdagi ta’sir ko‘rsatkichlari (Oliy ta’lim vazirligi, 2024):

Ko‘rsatkich	2020-yil	2024-yil	O‘sish (%)
Konstitutsiyaga asoslangan imtihonlar o‘tishi	72%	91%	+19
Maxsus fanlarda konstitutsiyaviy tahlil qobiliyati	65%	88%	+23

Amaliy ahamiyati va muammolar

Konstitutsiyaning maxsus fanlardagi roli sud va advokatura amaliyotida yaqqol namoyon:

- **Ijobiy tomonlar**: 2024-yilda Oliy sud tomonidan Konstitutsiyaga zid deb topilgan 40 ta maxsus norma bekor qilingan, bu huquqiy tizimning barqarorligini ta’minladi.

Muammo	Sabab	Yechim taklifi
Konstitutsiyaviy bo‘shliqlar	Maxsus qonunlarda noaniqlik	Konstitutsiyaviy sud joriy etish
Amaliyotdagi e’tiborsizlik	Ta’limdagi nazariy ortiqchalik	Integratsion darslar
Zamonaviy sohalarda (IT huquqi) kamchilik	Konstitutsiyada yangilanish yo‘q	2025-yilgi tahrirda kiritish

Yechim sifatida “Konstitutsiyaviy huquq va maxsus fanlar” bo‘yicha yagona platforma (konstitutsiya.uz) joriy etilmoqda.

Maxsus huquqiy fanlarda Konstitutsiyaning ahamiyati ularning nazariy asosi, metodologik ramzi va amaliy kafolati sifatida mujassam. U nafaqat qonunlar ierarxiyasini belgilaydi, balki huquqshunoslikning integratsiyasini ta’minlaydi. O‘zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlar (2023–2025) maxsus fanlarni yanada konstitutsiyaga moslashtirmoqda. Kelajakda konstitutsiyaviy nazoratni kuchaytirish orqali huquqiy tizimning samaradorligi oshadi. Bu esa jamiyatning huquqiy madaniyatini yangi bosqichga olib chiqadi.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yilgi tahrir).

2. R. Qo‘chqorov. “Konstitutsiyaviy huquqning maxsus fanlardagi o‘rni”. – Toshkent: Adolat, 2023.
3. Oliy sud Plenum qarorlari to‘plami (2022–2024).
4. “Huquqshunoslik ta’limi standarti” (Oliy ta’lim vazirligi, 2024).

MA’MURIY HUQUQ NORMALARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLASHTIRISH VA ELEKTRON BOSHQARUVNING O‘RNI

Gapparov Komiljon,
“DEFENDER-GAPPAROV”advokatlik byurosi rahbar

Annotatsiya: Mazkur maqolada ma’muriy huquq normalarining amalda qo‘llanish samaradorligini oshirishda raqamlashtirish va elektron boshqaruvning tutgan o‘rni tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar yordamida ma’muriy jarayonlarni soddalashtirish, standartlashtirish, nazorat qilish va shaffoflikni ta’minlash mexanizmlari ilmiy asosda asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’muriy huquq, raqamlashtirish, elektron boshqaruv, ma’muriy islohotlar, ma’lumotlar bazasi, shaffoflik, ijro intizomi, avtomatlashtirilgan monitoring, jamoatchilik nazorati, ma’muriy jarayonlar.

Аннотация: В статье анализируется роль цифровизации и электронного управления в повышении эффективности применения административного права. Научно обоснованы механизмы упрощения, стандартизации, контроля и обеспечения прозрачности административных процессов с использованием цифровых технологий.

Ключевые слова: Административное право, цифровизация, электронное управление, административные реформы, база данных, прозрачность, исполнительская дисциплина, автоматизированный мониторинг, общественный надзор, административные процессы.

Annotation: This article analyzes the role of digitalization and e-governance in increasing the effectiveness of the application of administrative law. Mechanisms for simplifying, standardizing, controlling and ensuring transparency of administrative processes using digital technologies are scientifically substantiated.

Key words: Administrative law, digitization, e-governance, administrative reforms, database, transparency, executive discipline, automated monitoring, public oversight, administrative processes.

Raqamlashtirish jarayoni ma’muriy huquq normalarining amalda ishlashini tubdan o‘zgartirmoqda. Avvallari murakkab tartib-taomillar ko‘p vaqt olgan bo‘lsa, elektron tizimlar ularni bir necha daqiqada bajarish imkonini berdi. Buning natijasida davlat organlari faoliyatidagi ortiqcha bosqichlar qisqartirildi. Aholi va biznes

subektlari uchun ma’muriy yuk sezilarli darajada kamaydi. Raqamli xizmatlar davlat apparati samaradorligini oshirdi. Eng muhimi, jarayonlarning ochiqligi kuchayib, fuqarolarda davlatga bo‘lgan ishonch ortdi. Shu bois raqamlashtirish ma’muriy normalarni takomillashtirishning asosiy omiliga aylandi.

Davlat organlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish hisobidan byurokratik to‘siqlarni qisqartirish va aholiga davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini yaxshilash maqsadida 30 ga yaqin turdagi litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi, 70 dan ziyod davlat xizmatlari soddalashtirildi, davlat tashkilotlari tomonidan 60 dan ortiq hujjatlarni talab qilish bekor qilindi. “Elektron hukumat” tizimining foydalanuvchilari soni 4 milliondan oshib, u orqali davlat idoralarining 130 dan ortiq axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari yaratildi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida qariyb 350 turdagi xizmatlar onlayn shaklda ko‘rsatilishi yo‘lga qo‘yildi.[1]

Ma’muriy huquq normalarining amalda to‘g‘ri ishlashi ko‘pincha jarayonlarning tezkorligi va ochiqligiga bog‘liq. Elektron hukumat tizimlari orqali hujjatlarni qabul qilish, ko‘rib chiqish va javob qaytarish jarayonlari ancha soddalashadi. Bu esa byurokratik to‘siqlarni kamaytiradi. Fuqarolar elektron xizmatlar orqali davlat bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qiladi. Natijada ma’muriy organlar faoliyatida shaffoflik ortadi. Raqamli imzo va elektron arizalar huquqiy protseduralarning hujjatlashtirilishini mustahkamlaydi. Bu tizim korrupsiyaga qarshi samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.[2]

Elektron boshqaruv ma’muriy jarayonlarning aniq, izchil va tartibli bo‘lishiga yordam beradi. Ma’muriy normalar ko‘pincha murakkab tartib-taomillarni o‘z ichiga oladi, raqamli tizim esa ularni soddalashtiradi. Masalan, onlayn ro‘yxatdan o‘tish, litsenziyalash va ruxsat berish kabi xizmatlar avvalgidan ancha tez amalga oshiriladi. Axborotlar yagona bazada jamlanib, davlat organlari o‘rtasidagi ma’lumot almashinuvi qulaylashadi. Bu esa qaror qabul qilish jarayonini ilmiy asosga yaqinlashtiradi. Elektron monitoring vositalari yordamida ma’muriy huquqbuzarliklar statistikasini real vaqt rejimida kuzatish mumkin. Bu ma’muriy siyosatni optimallashtiradi.

Raqamlashtirish jarayonida ma’muriy huquq normalari amalda qanday natija berayotgani oson aniqlanadi. Chunki barcha jarayonlar elektron tarzda qayd etiladi. Statistik ma’lumotlar avtomatik tarzda shakllanadi va ular asosida yangi normativ hujjatlar loyihalari ishlab chiqiladi. Elektron boshqaruv inson omilini kamaytiradi, bu esa xatoliklar ehtimolini minimallashtiradi. Shuningdek, fuqarolar murojaatlari elektron tarzda saqlanadigan bo‘lgani uchun ularni ko‘rib chiqish muddati aniq nazorat qilinadi. Ochiq ma’lumotlar portallari orqali davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati kuchayadi. Bu ma’muriy huquq normalarining samaradorligini tabiiy ravishda oshiradi.

Elektron boshqaruv tizimi ma’muriy xizmatlarning sifat ko‘rsatkichlarini doimiy ravishda nazorat qilish imkonini beradi. Har bir xizmatning bajarilish vaqti, bosqichlari va javobgarlari tizimda aniq ko‘rsatiladi. Bu jarayonlar ma’muriy normalarning amaldagi natijasini ochiq ko‘rsatib turadi. Aholi uchun masofadan turib murojaat qilish qulayligi ularning davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Raqamli texnologiyalar xizmatlarni sun’iy intellekt yordamida optimallashtirishga ham yo‘l ochadi. Natijada davlat boshqaruvi tezkor, izchil va ishonchli bo‘ladi. Bu esa ma’muriy huquqni takomillashtirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Ma’muriy huquq normalarining samaradorligini oshirishda raqamli infratuzilmaning rivoji alohida rol o‘ynaydi. Optik internet tarmoqlari, ma’lumotlar markazlari va himoyalangan serverlar bo‘lmasa, elektron boshqaruv to‘liq ishlamaydi. Shu bois davlat tomonidan texnik modernizatsiya siyosati kuchaytirilib bormoqda. Elektron hukumat portallari orqali ko‘rsatilayotgan xizmatlar yildan-yilga kengaymoqda. Bu esa fuqarolarning davlat bilan aloqasini soddalashtiradi. Texnik xavfsizlikning kuchayishi ma’lumotlar maxfiyligini ta’minlaydi. Shu yo‘l bilan ma’muriy huquq normalarining barqarorligi va ishonchliligi mustahkamlanadi.[3]

Raqamlashtirish jarayonlari ma’muriy islohotlarning asosiy dvigateliga aylandi. Hozirgi kunda ko‘plab ma’muriy organlar o‘z faoliyatini elektron tizimlar orqali yuritmoqda. Hujjat almashinuvi, arizalarni ko‘rib chiqish, jarimalarni rasmiylashtirish kabi amallar to‘liq raqamli shaklga o‘tmoqda. Bu jarayonlar ma’muriy normalarni qo‘llashga ketadigan vaqtni sezilarli darajada qisqartiradi. Shuningdek, elektron tizimda ijro intizomi keskin oshadi, chunki har bir harakat qayd etilib boriladi.[4] Bu esa ma’muriy huquq normalarining amaldagi samaradorligini kuchaytiruvchi muhim amaliy omildir.

Elektron boshqaruvning rivoji fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini kengaytiradi. Onlayn murojaatlar tizimi, jamoatchilik eshituvi platformalari va ochiq ma’lumotlar bazalari odamlarni qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb qiladi. Bu esa ma’muriy huquq normalarining demokratik tamoyillar asosida takomillashishiga xizmat qiladi. Raqamli platformalar orqali kelib tushgan takliflar yangi huquqiy normalar yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolarning fikri e’tiborga olingani ma’muriy islohotlarga ijtimoiy tayanch yaratadi. Shuningdek, elektron tizimlar davlat va jamiyat o‘rtasidagi kommunikatsiyani kuchaytiradi.

Raqamli boshqaruv shaffoflikni ta’minlashda ham katta imkoniyat yaratadi. Ochiq ma’lumotlar portallari orqali davlat organlarining ishlash ko‘rsatkichlari, xarajatlari, qarorlari haqida ma’lumot olish mumkin. Bu jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi. Fuqarolar davlat faoliyatida xolis kuzatuvchi emas, balki faol ishtirokchi darajasiga ko‘tarilmoqda.

Aynan shaffoflikka asoslangan boshqaruv esa ma’muriy huquq normalarining hayotiyligini ta’minlaydi.[5] Chunki ochiqlik bo‘lgan joyda huquq buzilishlari,

noqonuniy qarorlar yoki ortiqcha byurokratiya uchun joy qolmaydi. Raqamlashtirish jarayoni davom etar ekan, ma’muriy huquqni rivojlantirish bo‘yicha yangi vazifalar ham paydo bo‘lmoqda. Xususan, sun’iy intellektdan foydalanish, elektron sud va onlayn nazorat tizimlarini kengaytirish zarur. Bu esa mavjud qonunchilikni moslashtirishni talab qiladi. Yangi texnologiyalar bilan bog‘liq huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish kelajakdagi islohotlarning asosini tashkil etadi. Davlat boshqaruvi qanchalik raqamli bo‘lsa, ma’muriy normalar shunchalik barqaror, aniq va samarali bo‘ladi. Shu tariqa elektron boshqaruv ma’muriy huquqni modernizatsiya qiluvchi strategik omilga aylanmoqda.

References:

1. Mirziyoyev Sh. “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” // https://yuz.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.04.2025 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-71-son Farmoni // https://lex.uz/uz/docs/-7486412
3. Ogli, G. B. H., & Ogli, K. D. B. (2020). Legal Support For The Protection Of The Rights Of Witnesses In The Fight Against Organized Crime. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, *2*(11), 57-60.
4. Гиёсов, Б. (2020). Анализ концепций использования и применения огнестрельного оружия. *Общество и инновации*, *1*(1/S), 405-413.
5. Гиёсов, Б. (2020). Анализ некоторых вопросов, исключающих преступность деяния при обеспечении общественной безопасности. *Общество и инновации*, *1*(2/S), 124-130.

КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ГАРАНТИИ ЦИФРОВЫХ ФИНАНСОВЫХ АКЦИЙ

Хикматов Немат Жураевич
Самостоятельный соискатель PhD Ташкентского государственного транспортного университета

Аннотация: В статье всесторонне исследуются правовая природа цифровых финансовых акций (digital financial securities), формирующихся в условиях цифровой экономики, их статус как объекта имущественных прав, а также взаимосвязь с конституционными гарантиями, закреплёнными в Конституции Республики Узбекистан. В ходе исследования проанализированы возможности применения к цифровым активам основных конституционных норм — свободы экономической деятельности (ст. 53), неприкосновенности частной собственности (ст. 65) и защиты имущественных прав (ст. 67). Обоснована необходимость устранения существующих пробелов в национальном законодательстве и внедрения современных моделей государственного регулирования и надзора. На основе сравнительного анализа международного опыта, включая подход SEC США, режим MiCA ЕС, а также практику Сингапура и Японии, разработаны предложения и рекомендации, направленные на защиту прав инвесторов, обеспечение прозрачности рынка и предотвращение злоупотреблений на рынке цифровых активов.

Ключевые слова: цифровые финансовые акции, токенизированные ценные бумаги, блокчейн, имущественные права, конституционные гарантии, защита инвесторов, MiCA, SEC, рынок ценных бумаг, цифровые активы.

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the legal nature of digital financial securities, their status as a new object of property rights in the digital economy, and their correlation with the constitutional guarantees established in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. The study examines the applicability of key constitutional norms—such as economic freedom (Article 53), inviolability of private property (Article 65), and protection of property rights (Article 67)—to digital assets, identifying existing gaps in national legislation and substantiating the need to introduce modern regulatory and supervisory mechanisms. Through a comparative review of international practices, including the U.S. SEC approach, the EU MiCA framework, and the regulatory models of Singapore and Japan, the article develops proposals and recommendations aimed at protecting investor rights, ensuring market transparency, and preventing various forms of abuse in the digital asset market.

Keywords: digital financial securities, tokenized securities, blockchain, property rights, constitutional guarantees, investor protection, MiCA, SEC, securities market, digital assets.A

Введение. Бурное развитие цифровой экономики привело к формированию на финансовых рынках нового правового института цифровых финансовых акций (digital financial securities). Эти активы, основанные на технологии блокчейн, обеспечивают более высокий уровень безопасности, оперативности и прозрачности по сравнению с традиционными акциями. Однако, поскольку они выражают имущественные права, вопрос их конституционно гарантированной правовой защиты приобретает особую научно-практическую значимость.

Статья 53 Конституции Республики Узбекистан закрепляет свободу экономической деятельности, статья 65 неприкосновенность частной собственности, а статья 67 защиту имущественных прав.

Появление цифровых финансовых акций в национальной экономике требует переосмысления данных норм в современных условиях и чёткого определения защитной и надзорной роли государства на рынке цифровых активов [1].

Целью статьи является определение конституционно-правовых гарантий, применимых при пользовании и распоряжении цифровыми финансовыми акциями, анализ действующих правовых механизмов их защиты, а также разработка предложений по совершенствованию национального законодательства в данной сфере.

Анализ литературы показывает, что зарубежные исследователи рассматривают цифровые активы как новый объект права собственности и подчёркивают необходимость усиления их правовой защиты. Подходы SEC США и Европейского Союза уделяют особое внимание безопасности инвесторов и обеспечению прозрачности рынка. В национальных исследованиях же вопросы правового статуса цифровых активов, связанных с ними рисков и механизмов их конституционной защиты пока ещё недостаточно разработаны. Поэтому основная задача статьи заключается в углублённом правовом анализе обозначенной проблемы и выработке комплексных решений.

Материалы и методы.

В данном исследовании комплексно изучены правовая природа цифровых финансовых акций (digital financial securities), их статус в национальном и международном праве, а также механизмы их конституционно-правовой защиты. Прежде всего был проведён системный анализ того, каким образом нормы Конституции Республики Узбекистан — свобода экономической деятельности (ст. 53), неприкосновенность частной собственности (ст. 65) и

защита имущественных прав (ст. 67) — воздействуют на регулирование цифровых финансовых активов. Кроме того, исследованы правовые характеристики цифровых акций как объекта имущества, их отличия от традиционных ценных бумаг, их место в финансовом праве, особенности их оборота, а также классификация в рамках национальной правовой системы.

В рамках исследования был изучен подход Комиссии по ценным бумагам и биржам США (SEC) к регулированию токенизированных акций, правовые критерии систем MiFID II и MiCA (Markets in Crypto-Assets Regulation) Европейского Союза [2], а также практика регулирования рынка цифровых активов в Сингапуре, Японии и Республике Корея. На сравнительной основе проанализированы механизмы защиты инвесторов, обеспечения прозрачности рынка, а также налогового и финансового мониторинга [3].

В рамках национального законодательства были изучены Закон «О рынке ценных бумаг», Закон «Об электронной цифровой подписи», а также влияние норм Гражданского кодекса на определение правовой природы цифровых активов. Кроме того, выявлены риски, наблюдаемые на рынках цифровых финансов, такие как мошенничество, бесспорная (односторонняя) блокировка активов, осуществление оборота одного и того же актива в нескольких местах одновременно, а также новые формы использования инсайдерской информации. Их правовые последствия были оценены как в краткосрочной, так и в долгосрочной перспективе.

На этой основе был проведён научно обоснованный анализ согласованности конституционных гарантий в сфере цифровых финансовых акций с действующими правовыми механизмами, эффективности защитной, надзорной и регулятивной функций государства в условиях цифровой среды, а также выявлены существующие пробелы в правовом регулировании и возможные пути их устранения.

Использованные в данном исследовании методы, методология и научные подходы были направлены на всестороннее раскрытие правовой природы цифровых финансовых акций, их конституционных гарантий, а также их статуса в национальном и международном праве. В частности, с использованием сравнительно-правового метода были сопоставлены подход SEC США, нормативные режимы MiCA и MiFID II Европейского Союза, а также практика регулирования рынка цифровых активов в Японии, Сингапуре и Республике Корея с законодательством Республики Узбекистан.

Посредством нормативно-правового анализа были изучены нормы Конституции, национальные законы, подзаконные акты, судебная практика, а также рекомендации международных регуляторов — таких как IOSCO, FATF, SEC и ESMA, — что позволило определить правовую природу цифровых

финансовых акций как объекта имущественных прав и их место в системе правовых отношений. Одновременно с этим, с помощью системного анализа была дана структурная оценка участников рынка цифровых активов, полномочий государственных органов и особенностей технологии блокчейн; а экономико-правовой подход позволил исследовать инвестиционную привлекательность цифровых акций, их функции в экономическом обороте и влияние на финансовый рынок во взаимосвязи с правовыми категориями.

Исторический метод был использован для раскрытия процессов перехода к цифровой экономике, эволюции институтов права собственности и формирования электронных активов, тогда как эмпирический анализ включал изучение статистики зарубежных регуляторов, случаев правонарушений, связанных с токенизированными активами, а также судебной практики SEC и Европейского Союза.

В качестве объекта исследования были определены имущественные права, связанные с цифровыми финансовыми акциями, их государственная защита и регулирование; предметом исследования явились действующие конституционные гарантии в отношении цифровых акций, правовые механизмы, а также система правовых отношений между участниками рынка. Выбор объекта и предмета исследования объясняется тем, что цифровые финансовые активы формируют новые реальные правовые отношения и инвестиционные процессы в национальной экономике, а обеспечение их правовой защиты и регулирования обладает высокой прикладной значимостью.

Полученные результаты показывают, что при анализе правовой природы цифровых финансовых акций и критериев их конституционно-правовой защиты ключевыми динамическими показателями являются степень применения и эффективность реализации в отношении цифровых активов таких конституционных норм, как свобода экономической деятельности (ст. 53), неприкосновенность частной собственности (ст. 65) и защита имущественных прав (ст. 67).

Поскольку цифровые акции базируются на технологии блокчейн, они существенно отличаются от традиционных ценных бумаг по уровню безопасности, прозрачности и оперативности гражданского оборота, что обеспечивает проявление имущественных прав в новой цифровой форме.

Анализ международной практики, в частности подходов SEC США, режима MiCA Европейского Союза, а также регуляторных моделей Японии и Сингапура, показал, что функции государства по регулированию, надзору и защите инвесторов на рынке цифровых акций постоянно совершенствуются.

Анализ национального законодательства, в свою очередь, продемонстрировал, что в Законе «О рынке ценных бумаг», Законе «Об

электронной цифровой подписи» и Гражданском кодексе пока недостаточно сформированы нормы, охватывающие цифровые финансовые активы как самостоятельный правовой объект. Особенно подчеркнуто, что риски, связанные с токенизированными активами мошенничество, бесспорная блокировка активов, оборот одного и того же актива в нескольких сделках, использование инсайдерской информации требуют создания чётких правовых механизмов предотвращения и профилактики [4].

Анализ полученных научных и практических результатов создал прочную основу для правового укрепления института цифровых финансовых акций и позволил определить, каким образом конституционные гарантии реализуются в условиях цифровой экономики.

Практическая часть исследования подтверждает, что риски, наблюдаемые на рынке цифровых активов злоупотребление правом, манипулирование рынком, фиктивные транзакции, техническая возможность блокировки или утраты активов требуют внедрения новых моделей государственного контроля.

Проведённые в рамках исследования сравнительно-правовой и нормативный анализы позволили определить, что правовые механизмы, соответствующие международным стандартам в частности, классификация активов, обязательное раскрытие информации для инвесторов, лицензирование и аудит, ведение реестра цифровых активов могут быть успешно внедрены в национальную практику [5]. Достоверность полученных результатов была подтверждена посредством сопоставительного анализа эмпирических данных: судебных дел SEC США по токенизированным активам, статистики правоприменения Европейского Союза, а также международных случаев правонарушений в сфере цифровых активов.

Исследование показало, что правовая природа цифровых финансовых акций может быть полностью согласована с основополагающими правовыми принципами, закреплёнными в Конституции, однако для этого необходимо формирование чётких правовых дефиниций, специализированного правового режима и эффективных инструментов регулирования в национальной правовой системе.

Полученные результаты свидетельствуют о том, что усиление правовой защиты цифровых активов способствует не только повышению юридической безопасности, но и укреплению инвестиционного климата, повышению прозрачности финансового рынка и обеспечению реальной защиты имущественных прав граждан.

Анализ результатов исследования.

Анализ собранных в ходе исследования фактов показал, что в научной литературе и правоприменительной практике существуют существенно

расходящиеся подходы к определению правовой природы цифровых финансовых акций и их конституционных гарантий. Автор, сопоставив данные точки зрения, поддерживает позицию о необходимости признания активов, основанных на технологии блокчейн, новым объектом имущественных прав, поскольку они обладают функциональным и юридическим сходством с традиционными ценными бумагами, а их характеристики безопасность, прозрачность и оперативность оборота усиливают практическую реализацию конституционных гарантий права собственности в цифровой среде. Вместе с тем автор отвергает полное приравнивание токенизированных активов к криптоактивам, поскольку различия в их юридическом статусе, социально-экономической функции и регуляторных критериях пока лишены необходимой правовой определённости. Кроме того, автор критикует предлагаемые некоторыми исследователями модели «минимального государственного вмешательства», обосновывая необходимость усиленного государственного контроля, ведения реестров, лицензирования и аудита с целью обеспечения защиты прав инвесторов и стабильности рынка.

В ходе исследования были выявлены ряд практических препятствий, связанных с регулированием цифровых финансовых акций: отсутствие в национальном законодательстве чёткого правового определения цифровых финансовых активов; неразработанность механизмов, связывающих токенизированные акции с традиционными ценными бумагами; неопределённость распределения функций между государственными органами; отсутствие единых стандартов защиты прав инвесторов и механизмов адаптации конституционных гарантий к цифровой среде; недостаточность судебной практики; нерешённые вопросы цифровизации отчётности и юридического признания блокчейн-реестров. Особо отмечены новые формы правонарушений бесспорная блокировка активов, множественный оборот одного и того же актива, инсайдерские риски, по которым отсутствуют эффективные модели юридической ответственности. Всё это указывает на необходимость создания комплексной нормативной базы, определяющей правовую природу цифровых финансовых активов, интегрирующей их в систему конституционной защиты и обеспечивающей действенный государственный контроль на цифровых рынках.

Использованные методы сравнительно-правовой, нормативный анализ, системный подход, эмпирический анализ и экономико-правовая методология взаимно дополнили друг друга и позволили комплексно раскрыть правовую сущность института цифровых финансовых акций. Сопоставление результатов исследования с иностранными разработками, в частности правовой позицией SEC США по токенизированным активам, анализом режима MiCA в

Европейском Союзе, а также практикой Сингапура и Японии, показало, что выводы исследования соответствуют глобальным тенденциям и в ряде аспектов предлагают инновационные концептуальные модели, применимые к национальному праву. Особенно важными являются выводы о проявлении права собственности в цифровой форме, о государственном регулировании цифровых рынков и о конституционной защите прав инвесторов. Эти выводы гармонируют с международными исследованиями и одновременно формируют самостоятельную научную ценность с учётом социально-экономических реалий национального законодательства.

Выводы.

Результаты проведённого исследования свидетельствуют о том, что цифровые финансовые акции формируются в национальной правовой системе как новая, современная разновидность объекта права собственности, что обосновывает необходимость укрепления их конституционных гарантий посредством чётких правовых механизмов. Анализ показал, что несмотря на потенциальную применимость норм Конституции свободы экономической деятельности (ст. 53), неприкосновенности частной собственности (ст. 65) и защиты имущественных прав (ст. 67) к цифровым активам, в действующем законодательстве пока недостаточно сформированы правовая определённость, нормативное регулирование и институциональные механизмы государственного контроля в этой сфере.

В связи с этим предлагаются следующие ключевые рекомендации:

во-первых, в национальное законодательство необходимо ввести правовые дефиниции «цифровая финансовая акция», «токенизированная ценная бумага», «цифровой реестр»;

во-вторых, требуется внедрить систему специального лицензирования, правовой ответственности и ведения государственного реестра цифровых активов в соответствии со стандартами MiCA, SEC и IOSCO;

в-третьих, с целью защиты инвесторов должны быть установлены минимальные требования к прозрачности информации, финансовому мониторингу, аудиту и программно-технической безопасности;

в-четвёртых, следует разработать отдельный режим юридической ответственности за риски, связанные с токенизированными активами: мошенничество, незаконную блокировку активов, двойной оборот, инсайдерские злоупотребления;

в-пятых, для формирования устойчивой судебной практики и единых стандартов правоприменения необходимо подготовить методические рекомендации по реализации конституционных гарантий в цифровой среде;

в-шестых, эффективная интеграция цифровых финансовых акций в экономику требует юридического признания блокчейн-инфраструктуры и усиления технического и надзорного контроля со стороны государства.

В целом исследование показывает, что системное реформирование правового статуса и конституционных гарантий цифровых финансовых акций способно ускорить процессы цифровизации экономики, повысить прозрачность и стабильность финансовых рынков, а также значительно укрепить защиту имущественных прав граждан.

References:

1. Reshetnikova N., Magomedov M., Buklanov D. Digital finance technologies: Threats and challenges to the global and national financial security //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2021. – Т. 666. – №. 6. – С. 062139.
2. Hines B. Digital finance: Security tokens and unlocking the real potential of blockchain. – John Wiley & Sons, 2020.
3. Krysovatyy A., Desyatnyuk O., Ptashchenko O. Digital innovations and their ramifications for financial and state security //African journal of applied research. – 2024. – Т. 10. – №. 1. – С. 431-441.
4. Abbasov A., Ibrahimov V. THE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE SECURITIES MARKET AND FUTURE EFFECTS //Economic and Social Development: Book of Proceedings. – 2020. – Т. 4. – С. 228-233.
5. Ketterer J. A. Digital finance: New times, new challenges, new opportunities. – 2017.
6. Volodymyr K. et al. Digitization as an innovative segment of enterprise financial security management //VUZF Review. – 2020. – Т. 5. – №. 3. – С. 13.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH SOHASIDA MILLIY GVARDIYA FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Xo‘jamberdiyev Farrux Komilovich,
Jinoiy-huquqiy fanlar kaferdrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasining normativ-huquqiy bazasi, xususan Milliy gvardiya faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarining o‘rni va o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”, “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”, “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun, “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi Qonun hamda “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonun jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi asosiy huquqiy poydevor sifatida ko‘rib chiqiladi. Muallif tomonidan mazkur hujjatlar jamoat xavfsizligini ta’minlovchi maxsus va nomaxsus qonunlar sifatida tasniflanadi, ularning Milliy xavfsizlik konsepsiyasi bilan uzviy aloqadorligi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, Milliy gvardiya, normativ-huquqiy baza, maxsus va nomaxsus qonunlar, milliy xavfsizlik konsepsiyasi, favqulodda holat, vakolatlar, huquqiy tartibga solish, tasniflash.

Аннотация: В статье анализируется нормативно-правовая база в сфере обеспечения общественной безопасности в Республике Узбекистан, в частности, роль и взаимосвязь нормативных правовых актов, регламентирующих деятельность Национальной гвардии. В исследовании рассматриваются Законы Республики Узбекистан «О борьбе с терроризмом», «О охранной деятельности», «О защите населения и территорий от чрезвычайных ситуаций природного и техногенного характера», Конституционный закон «О чрезвычайном положении», Закон «О гражданской защите», а также Закон «О Национальной гвардии Республики Узбекистан» как основной правовой фундамент обеспечения общественной безопасности. Автором данные акты классифицируются как специальные и неспециальные законы, обеспечивающие общественную безопасность, раскрывается их органическая связь с Концепцией национальной безопасности.

Ключевые слова: общественная безопасность, Национальная гвардия, нормативно-правовая база, специальные и неспециальные законы, концепция национальной безопасности, чрезвычайное положение, полномочия, правовое регулирование, классификация.

Abstract: The article analyzes the regulatory and legal framework in the field of ensuring public security in the Republic of Uzbekistan, in particular the role and interrelation of legislative acts governing the activities of the National Guard. The study examines the Laws of the Republic of Uzbekistan “On Combating Terrorism”, “On Guarding (Security) Activities”, “On the Protection of the Population and Territories from Natural and Man-Made Emergency Situations”, the Constitutional Law “On the State of Emergency”, the Law “On Civil Protection”, as well as the Law “On the National Guard of the Republic of Uzbekistan” as the core legal foundation for ensuring public security. The author classifies these acts as special and non-special laws aimed at ensuring public security and reveals their intrinsic connection with the National Security Concept.

Key words: public security, National Guard, regulatory and legal framework, special and non-special laws, national security concept, state of emergency, powers, legal regulation, classification.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash zamonaviy davlatchilikning strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ushbu sohada amal qiladigan huquqiy mexanizmning puxtaligi bevosita inson huquqlari, jamiyat barqarorligi va davlat suverenitetini kafolatlash bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini takomillashtirish, ularning o‘zaro uyg‘unligi va huquqiy tizimdagi o‘rnini aniqlash masalalari nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillar ko‘lami kengayib borayotgan sharoitda jamoat xavfsizligini ta’minlashga oid normativ-huquqiy bazaning yaxlit va izchil bo‘lishi davlat siyosatining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Qonun hujjatlari, shu jumladan harbiy qonun hujjatlari jamoat xavfsizligini ta’minlashni huquqiy tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini qisman tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni [1], “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni [2], “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni [3], “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonuni [4] hamda boshqa bir qator qonunlar qabul qilingan.

Bulardan 2020-yil 18-noyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonun[5]i jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarining yuqori va eng asosiy darajasi sifatida davlat va jamiyatni qonunga xilof tajovuzlardan, ijtimoiy va millatlararo nizolardan himoya qilish, aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar hamda boshqa shu kabi tahdidlardan muhofaza qilish

kabi belgilangan majburiyat va vakolatlarini o‘zida aks ettirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Qonun[6]da Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyati bilan bog‘liq to‘g‘ridan-to‘g‘ri vazifa va majburiyatlar bo‘lmasa-da, jamoat xavfsizligini ta’minlashning ayrim tarkibiy elementlarini o‘zida mujassam etgan asosiy vazifalar, faoliyat yo‘nalishlari hamda vakolatlar o‘z aksini topgan. Vaholanki, bugungi kunda Milliy gvardiya Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi[7]ga muvofiq jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar qatoriga kiritilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni[8]ning 9^1-moddasiga muvofiq “terrorizmga qarshi kurashishda huquq tartiboti, shuningdek jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etish” vazifasi, “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni [9]ning “Qo‘riqlash faoliyatining asosiy vazifalari” nomli 4-modasiga muvofiq, “jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini hamda obyektlarini tajovuzlardan himoya qilish” hamda “qo‘riqlanadigan obyektlar hududida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga chek qo‘yish” vazifalari, “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni[10]ning 37-moddasiga muvofiq, “favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish chog‘ida jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etish” vazifasi, “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonuni [11]ning “Favqulodda holat rejimini saqlab turish uchun qo‘shimcha kuchlar va vositalarni jalb etish” nomli 23-moddasiga muvofiq “favqulodda holat joriy etilgan hududga kirish va undan chiqishning alohida rejimini saqlab turish; aholining hayot faoliyatini va transportning harakatlanishini ta’minlovchi obyektlarni hamda odamlarning hayoti va sog‘lig‘i, shuningdek atrof-muhit uchun yuqori xavf tug‘diradigan obyektlarni muhofaza qilish; qurol, jangovar va maxsus texnika qo‘llanilgan holda zo‘ravonlik harakatlari bilan birga yuz beradigan to‘qnashuvlarda ishtirok etayotgan qarama-qarshi kurashayotgan taraflarni ajratish; qonunga xilof qurolli tuzilmalar faoliyatiga chek qo‘yishda ishtirok etish” kabi vazifalarni bajarishi lozimligi belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, xalqaro huquqning umum e’tirof etgan prinsiplari va normalariga tayangan holda milliy xavfsizlik sohasida yagona davlat siyosati asosi O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasi hisoblanadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, hayotiy muhim milliy manfaatlarning tashqi va ichki tahdidlardan kafolatli himoyalanganlik holati O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligining mazmunini tashkil etib, uning barqaror rivojlanishi sharti hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasiga muvofiq quyidagilar Milliy xavfsizlik obyektlari etib belgilangan:

inson - uning huquq va erkinliklari;

jamiyat - uning ma’naviy va moddiy boyliklari;

davlat - uning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligi [12].

Bundan ko‘rinib turibdi-ki, Milliy gvardiya jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari, manfaatlarini himoya qilish, davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo‘riqlash, jamoat tartibini saqlash kabi vazifalarni bajarishda bevosita Milliy xavfsizlikning obyektlarini o‘zida mujassam etadi.

Hozirda jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasiga oid munosabatlarni tartibga solish uchun ko‘p miqdordagi qonunchilik hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, ularni tushunish va amalda to‘g‘ri qo‘llash uchun turli huquqiy mezonlar asosida tasniflashimiz lozim bo‘ladi. “Normativ-huquqiy hujjatlarni tasniflash, – deb yozadi Z.M.Islomov, – yuridik kuchi, mazmuni, harakat qilish doirasi, chiqargan subyektlari singari turli asoslarga ko‘ra amalga oshiriladi” [13].

Xususan, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasiga oid umumiy masalalarni tartibga soluvchi qonunlarning o‘zi ham ikki guruhga bo‘linadi: maxsus, ya’ni davlat va jamiyatni qonunga xilof tajovuzlardan, ijtimoiy va millatlararo nizolardan himoya qilish, aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar hamda boshqa shu kabi tahdidlardan muhofaza qilish sohasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi hamda maxsus bo‘lmagan – ya’ni garchand, qonunchilikning boshqa tarmog‘iga mansub bo‘lsa-da, umumiy jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasi normalarini qamrab olgan qonunlar. Birinchi guruhga O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi [14], 2000-yil 15-dekabr kunidagi “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi [15], 2022-yil 15-iyun kunidagi “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi [15], 2022-yil 17-avgust kunidagi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi [16], 2021-yil 15-dekabr kunidagi “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi [17], 2000-yil 26-maydagi “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi Qonun [18]lar va b.q.; ikkinchi maxsus bo‘lmagan guruhga “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida” [19], 2000-yil 31-avgustdagi “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”gi, 2004-yil 3-dekabrdagi “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi, 2015-yil 26-avgustdagi “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”gi qonunlar [20] va h.k.lar kiradi. Bundan tashqari, alohida qonunlar guruhi mavjud bo‘lib, ular ayrim umumiy tartibga soluvchi normalarni qamrab oladi. Ular sirasiga O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi va 2019-yil 10-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi (yangi tahrirdagi) qonunlari [21] va shu kabilar kiradi.

Shubhasiz, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonun [22] bu borada to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi, bosh, kompleks qonun hisoblanadi. Zero, u birinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida huquqni muhofaza qilishga doir norma va talablarni belgilaydi; ikkinchidan, boshqa barcha jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tartibga solishga oid qonun hujjatlari mazkur bosh hujjatning asosiy prinsip va talablariga mos bo‘lishi lozim; uchinchidan, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga hamda boshqa g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlarga chek qo‘yishda tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmni belgilab beradi.

Yuqorida qayd etilgan jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasiga oid amaldagi milliy va xalqaro-huquqiy hujjatlarning asosiy prinsiplari va harakat mexanizmi mushtarak holda mamlakatimizning jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi asosiy qonunida o‘z aksini topishi lozim. Vaholanki, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonun [23] bugungi kunda Milliy gvardiya tomonidan jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasiga oid huquqiy munosabatlarni qamrab olishga hamda mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlashga mas’ul bo‘lgan boshqa subyektlar bilan ushbu sohaga oid faoliyatning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-texnik mexanizmlarini muvofiqlashtirishga qodir emas, mazkur masala o‘zining qonuniy yechimini topmagan.

Fikrimizcha, biz buni quyidagilar bilan izohlashimiz mumkin:

birinchidan, hech bir qonunda bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etib borayotgan “jamoat xavfsizligi” tushunchasi o‘z mohiyatiga ko‘ra aniq yoritib berilmagan;

ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonuni [24]ning “Milliy gvardiyaning huquqlari” deb nomlanuvchi 26-moddasida Milliy gvardiya zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda o‘z vakolatlari doirasida huquqlari hamda amalga oshirishi mumkin bo‘lgan vakolatlari doirasi belgilab berilgan. Biroq, Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq vazifalar ya’ni ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash; terrorchilik harakatlarining hamda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish; favqulodda holat, alohida davr va terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o‘tkazish; shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish kabilarni bajarishda Milliy gvardiya organi harbiy xizmatchilarining huquqlari hamda vakolatlari o‘z aksini topmagan.

uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 15-dekabr kunidagi “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi O‘RQ-737-son Konstitutsiyaviy Qonuni [25]ning 21-moddasida jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq favqulodda holat rejimini ta’minlashda qo‘llaniladigan kuch va vositalar belgilab berilgan. Biroq, favqulodda

holatda jalb etiladigan harbiy xizmatchilarning qonunchilikka muvofiq favqulodda holat joriy etilgan hududda qanday vakolatlar, huquqlar hamda majburiyatlarga ega ekanligi yoritib berilmagan. Zero, vakolat, huquq hamda majburiyatlar doirasining belgilanmaganligi harbiy xizmatchilarning harakatlari o‘zida qonuniylik prinsipini aks ettirmaydi.

References:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 15 декабрдаги “Терроризмга қарши кураш тўғрисида”ги 167-II-сон Қонуни // lex.uz. (murojaat sanasi 27.08.2022-yil).
2. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 15 июндаги “Қўриқлаш фаолияти тўғрисида”ги ЎРҚ-778-сон Қонуни // lex.uz. (murojaat sanasi 27.08.2022-yil).
3. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 17 августдаги “Аҳолини ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш тўғрисида”ги ЎРҚ-790-сон Қонуни // lex.uz. (мурожаат санаси: 06.07.22 й.).
4. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 15 декабрдаги “Фавқулодда ҳолат тўғрисида”ги ЎРҚ-737-сон Конституциявий Қонуни // lex.uz. (мурожаат санаси: 06.07.22 й.).
5. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-647-son Qonuni // lex.uz. (murojaat sanasi 31.08.2022-yil).
6. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-647-son Qonuni // lex.uz. (murojaat sanasi 31.08.2022-yil).
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ–27-сон Фармони // lex.uz.(мурожаат санаси: 11.07.22 й.).
8. Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 15 декабрдаги “Терроризмга қарши кураш тўғрисида”ги 167-II-сон Қонуни // lex.uz. (murojaat sanasi 27.08.2022-yil).
9. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 15 июндаги “Қўриқлаш фаолияти тўғрисида”ги ЎРҚ-778-сон Қонуни // lex.uz. (murojaat sanasi 27.08.2022-yil).
10. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 17 августдаги “Аҳолини ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш тўғрисида”ги ЎРҚ-790-сон Қонуни // lex.uz. (мурожаат санаси: 06.07.22 й.).

11. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 15 декабрдаги “Фавқулодда ҳолат тўғрисида”ги ЎРҚ-737-сон Конституциявий Қонуни // lex.uz. (мурожаат санаси: 06.07.22 й.).

12. Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 29 августдаги “Ўзбекистон Республикасининг Миллий хавфсизлик концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 467-I-сон Қонуни // www.lex.uz (мурожаат санаси 19.01.2023 йил).

13. Исламов З.М. Общество. Государство. Право. – Ташкент, 2001. – С. 484.

14. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-647-son Qonuni // lex.uz. (murojaat sanasi 31.08.2022-yil).

15. Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 15 декабрдаги “Терроризмга қарши кураш тўғрисида”ги 167-II-сон Қонуни // lex.uz. (murojaat sanasi 27.08.2022-yil).

16. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 15 июндаги “Қўриқлаш фаолияти тўғрисида”ги ЎРҚ-778-сон Қонуни // lex.uz. (murojaat sanasi 27.08.2022-yil).

17. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 17 августдаги “Аҳолини ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш тўғрисида”ги ЎРҚ-790-сон Қонуни // lex.uz. (мурожаат санаси: 06.07.22 й.).

18. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 15 декабрдаги “Фавқулодда ҳолат тўғрисида”ги ЎРҚ-737-сон Конституциявий Қонуни // lex.uz. (мурожаат санаси: 06.07.22 й.).

19. Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 26 майдаги “Фуқаро муҳофазаси тўғрисида”ги ЎРҚ-80-II-сон Қонуни // lex.uz. (мурожаат санаси: 06.07.22 й.).

20. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 майдаги “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида” ЎРҚ-371-сон Қонуни // lex.uz. (murojaat sanasi 27.08.2022-yil).

21. Ўзбекистон Республикасининг “Радиациявий хавфсизлик тўғрисида”ги ЎРҚ-120-II-сон Қонуни (31.08.2000 йил); Ўзбекистон Республикасининг “Муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар тўғрисида”ги ЎРҚ-710-II-сон Қонуни (03.12.2004); Ўзбекистон Республикасининг “Аҳолининг санитария-эпидемиологик осойишталиги тўғрисида”ги ЎРҚ-393-сон Қонуни (26.08.2015) // lex.uz. (мурожаат санаси: 06.07.22 й.).

22. Ўзбекистон Республикасининг “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги ЎРҚ-913-XII-сон Қонуни (02.09.1993); Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг Вазирлар Маҳкамаси

тўғрисида”ги (янги таҳрирдаги) ЎРҚ-591-сон Қонуни (10.12.2019) // lex.uz. (мурожаат санаси: 06.07.22 й.).

23. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 18 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида”ги ЎРҚ-647-сон Қонуни // lex.uz. (мурожаат санаси: 06.07.22 й.).

24. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 18 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида”ги ЎРҚ-647-сон Қонуни // lex.uz. (мурожаат санаси: 06.07.22 й.).

25. Ўша манба.

26. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 15 декабрдаги “Фавқулодда ҳолат тўғрисида”ги ЎРҚ-737-сон Конституциявий Қонуни // lex.uz. (мурожаат санаси: 06.07.22 й.).

HARBIY XIZMATCHILAR SUG‘URTASINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Xoliqov Sarvar Mingishovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi, yuridik fanlar bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

Annotasiya: maqola davlat majburiy sug‘urtasining o‘rni va ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlanib, unda sug‘urta munosabatlariga oid ayrim muammolar ilmiy tahlil qilingan, shuningdek qonun hujjatlarini takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta, sug‘urta shartnomasi, sug‘urta puli, zarar, harbiy xizmatchi, qonun.

Yangi Konstitutsiyaning 48-moddasida fuqarolar sog‘lig‘ini saqlashga oid huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlari qatorida tibbiy sug‘urtani rivojlantirish qayd etilgan. Konstitutsiyada sug‘urta masalalarining aks etishi bejiz hisoblanmasdan, bu omil ijtimoiy himoya va ta’minotning birlamchi asosi hisoblanadi.

Shu bois dunyo davlatlari konstitutsiyalarida sug‘urta alohida e’tirof etilgan. Masalan, Ozarbayjon Konstitutsiyasi 38, 41-moddalarida, Qozog‘iston Konstitutsiyasi 28-moddasida, Qirg‘iziston Konstitutsiyasi 27-moddasida, Moldova Konstitutsiyasi 132-moddasida, Hindiston Konstitutsiyasi 23-moddasida, Ruminiya Konstitutsiyasi 67-moddasida, Ispaniya Konstitutsiyasi 45-moddasida davlat sug‘urtani har tomonlama rivojlantirishi, ixtiyoriy sug‘urtani qo‘llab-quvvatlashi, sug‘urtalash orqali ijtimoiy ta’minotni joriy qilishi, hatto davlat sug‘urta jamg‘armalarini tuzishi qayd etilgan.

Hatto, dunyo konstitutsionalizmi tajribasida sug‘urtaning alohida

xususiyatlariga oid maxsus qoidalarni uchratish mumkin. Masalan, Portugaliya Konstitutsiyasi 56-moddasida xodimlar manfaatlarini himoyalash maqsadida kasaba uyushmalari ijtimoiy sug‘urta tashkilotlarini boshqarishda ishtirok etishi mumkinligi qayd etilgan.

Turkiya Konstitutsiyasi 56-moddasida tibbiy xizmatlar bilan qamrab olish ko‘lamini kengaytirish maqsadida barcha insonlar uchun sog‘liqni sug‘urtalash joriy qilinishi qayd etilgan.

Sug‘urta masalasida dunyoda Shveyratsiya Konstitutsiyasi eng ilg‘or qoidalarni ifodalaydi. Uning 10 ta moddasida 36 ta holatda “sug‘urta” jumlasi bilan bog‘liq normalar keltirilgan. Konstitutsion normalar mazmuniga ko‘ra har bir shaxsni sug‘urtalash Shveysariyada majburiy ekanligi, hatto “onalik”, “qarilik”, “ishsizlik” holatlari alohida-alohida sug‘urtalanishi, ayniqsa sug‘urtaga yo‘naltirilgan mablag‘lar bo‘yicha soliqdan imtiyozlar taqdim etilishiga oid qoidalar e’tiborga molik.

Ta’kidlash joizki, sug‘urta masalasini barcha davlatlar o‘z konstitutsiyalarida ifodalagan, deb bo‘lmaydi. Masalan, Tojikiston, Turkmaniston, hatto ijtimoiy ta’minot rivojlangan Ispaniya, Irlandiya, Finlyandiya singari skandinaviya davlatlari Konstitutsiyalarida ushbu masalaga bag‘ishlangan alohida normalar uchramaydi. Biroq, bu bilan mazkur davlatlarda sug‘urta tizimi rivojlanmagan deb ayta olmaymiz.

Masalan, O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasida ham ilk bor sug‘urta masalasi ko‘tarildi, ungacha esa alohida qonunchilik bilan tartibga solinib kelgan. Binobarin, Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda sug‘urtaning 135 xildan ziyod turlari mavjud. Ilmiy adabiyotlarda “sug‘urta” tushunchasi ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy kategoriya sifatida talqin qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonunida sug‘urtaning huquqiy ahamiyat kasb etadigan bir qancha turlari keltirilgan. Ilk bor 1993-yil 6-mayda "Sug‘urta to‘g‘risida"gi qonun qabul qilinganda sug‘urtaning ixtiyoriy va majburiy turlari nazarda tutildi [1].

“Mazkur qonun davlat ijtimoiy sug‘urtasiga nisbatan tatbiq etilmaydi” deb ko‘rsatilgach, O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashi o‘z qarori bilan Vazirlar Mahkamasiga majburiy sug‘urtani tashkil etish va o‘tkazish tartibini ishlab chiqish vazifasini topshirilgan. Shu asosda 1994-yil 26-yanvarda Vazirlar Mahkamasining “Harbiy xizmatchilar va harbiy majburiyatli shaxslarning, oddiy askarlar hamda boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarning davlat majburiy shaxsiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi №38-son qarori qabul qilinib, 1994-yil 1 yanvaridan boshlab harbiy xizmatchilarning davlat majburiy sug‘urtasi joriy etildi [2].

Hozirgi kunda harbiy xizmatchilarning hayoti va sog‘lig‘i sug‘urtalanib, ularni moliyaviy muhofazalash maqsadida sug‘urta to‘lanishi o‘rnatilgan

Biroq, ta’kidlash joizki, harbiy xizmatchilarga tegishli 1994-yildagi sug‘urta mexanizmi eskirgan bo‘lib, Qurolli Kuchlarda amaliy muammolar yetilgan.

Shu boisdan harbiy xizmatchilarning majburiy davlat sug‘urtasini hozirda takomillashtirish o‘ta zarur, deb hisoblaymiz.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 26-yanvardagi “Harbiy xizmatchilar va harbiy majburiyatli shaxslarning, oddiy askarlar hamda boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarning davlat majburiy shaxsiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi №38-son qarori 2-bandi “v”ga asosan xizmatda olingan og‘ir va yengil jarohat uchun sug‘urta puli to‘lanishi belgilangan. Lekin amaliyotda harbiy xizmatchilar orasida xizmat davomida o‘rtacha og‘ir tan jarohatlari ko‘p uchrayotgani va buning uchun sug‘urta puli berilmayotganligi ham haqiqat.

Qoidaga ko‘ra, sug‘urta to‘lovini ta’minlashda sug‘urtalanuvchining yashash joyidagi vakolatli tuzilmalar hujjatlarni rasmiylashtirishda ko‘maklashishi lozim. Lekin amalda harbiy xizmatchining yashash joyidagi boshqarmalar emas, balki xizmat joyidagi harbiy qism bo‘linmalari eksterritorial tartibda ish ko‘rishadi va bu hozirgi sharoitda eng qulay ish usuli hisoblanadi.

Yoki masalan, vafot etgan harbiy xizmatchining oilasi 6 oy o‘tib meros guvohnomasini olgach, keyin sug‘urta pulini so‘rab murojaat qilishga majbur bo‘lmoqda. Bu esa oilaning ijtimoiy sharoitini ta’minlashga salbiy ta’sir qiladi. 6 oy o‘tgach oila a’zolari sug‘urta pulini ham esidan chiqarib yuborishi tabiiy holga aylangan.

Amaliyotdan ma’lum bo‘lishicha, sug‘urta maslasidagi ish jarayonida ham tizimli kamchiliklar uchraydi. Ish jarayonida arizalarni ko‘rib chiqish muddatlari buziladi, ba’zan malakali tushuntirishlar berilmaydi, sug‘urta pullarini to‘langan-to‘lanmaganligini qayd qilish doimiy nazoartag olinmaganligini ko‘rish mumkin.

Har chorakda ajratilgan pullar va amalga oshirilgan ishlar solishtirilmasligi esa sug‘urta uchun ajratilayotgan davlat mablag‘larini samarali va maqsadli ishlatilishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi.

Sug‘urta tizimidagi bunaqa muammolar nafaqat O‘zbekistonda, huquqshunos olim A.Chorshanbiyevning qayd etishicha, Tojikiston Qurolli Kuchlarida ham mavjud [3]. Muallif harbiy xizmatchilarga shikast yetkazilganda sug‘urta pulidan tashqari nafaqalar berilishi lozimligini, ushbu masalada alohida qonun qabul qilishni juda o‘rinli ta’kidlagan. Masalan, Rossiya Federatsiyasida bo‘lgani kabi.

Biz ham bu fikrga qo‘shilamiz. Chunki, bizda sug‘urta shartnomasida fors-major oydinlashtirilmagan, harbiy qism va muassasalarda harbiylar aksariyati sug‘urtadan bexabar, undan foydalanish samaradorligi oz.

Rossiya Federatsiyasi va boshqa ba’zi bir MDH mamlakatlari (Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon va b.)da sug‘urta masalalari alohida maxsus qonunlar bilan huquqiy tartibga solingan.

Sug‘urtaga oid 1998-yildagi Rossiya qonuni, 2004-yildagi Qirg‘iziston qonuni, 1997-yilgi Ozarbayjon qonunlarida sug‘urta munosabatlarining ob’ekti, subyektlari,

sug‘urta bozoridagi ochiq raqobat muhiti, sug‘urta summalarining aniq miqdorlariga oid e’tiborga molik qoidalar bor.

Masalan, harbiy xizmatchilar hayoti va sog‘lig‘ini sug‘urtalashga tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan, Rossiya qonunchiligi bo‘yicha shuningdek 2 yillik ish tajribasiga ega har qanday sug‘urta kompaniyasi da’vogarlik qilishi mumkin. Ya’ni sohada monopoliya yo‘q.

Qirg‘iziston qonuni bo‘yicha agar sug‘urta kompaniyalari 15 kunlik muddatda sug‘urta pulini to‘lab bermasa, qo‘shimcha ravishda moliyaviy jarimaga tortilishi mumkin.

Yuqoridagi davlatlar qonunining e’tiborga molik taraflaridan yana bir jihati shundaki, sug‘urta pullarining miqdori eng kam oylik ish haqi yoki bazaviy hisoblash miqdoriga emas, balki harbiy xizmatchining lavozim maoshi va unvon pulidan kelib chiqib karralab yoki aniq summalarda hisob-kitob qilinadi.

Masalan, Rossiyada vafot etgan harbiy xizmatchining oilasiga 2 mln.rubldan ortiq to‘lansa, Ozarbayjonda 11 ming manat belgilangan, Qirg‘iziston qonunchiligi bo‘yicha esa pul ta’minoti okladining 200 baravari miqdorida to‘lab beriladi. Hatto, moliyalashtirish kechiktirilgan har bir kun uchun 1% penya ham o‘rnatilgan.

Yuqoridagi xorijiy qonunchilikdagi sug‘urta munosabatlarida davlat xaridlari tizimining o‘rnatilganligi, bu jarayonda harbiy tashkilotlarda tender komissiyalari faoliyatiga oid me’yorlardan milliy qonunchiligimizni takomillashtirishda foydalansak, sug‘urta tizimini yaxshilash bo‘yicha ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Huquqshunos olimlardan R.A.Shaxbazov sug‘urta komissiyalarini tuzish harbiy bo‘linmalarda ko‘p jihatdan foydali, deb ta’kidlaydi. Bu borada AQSh gvardiyasi, Shvesiya va Italiya karabinerlari tajribasidan foydalanish ijobiy natijalar berad deb qayd etadi [4].

S.Vasilyev esa harbiy tuzilmalardagi moliya-iqtisod bo‘limlarining mas’uliyatini oshirib, harbiy xizmatchilar manfaatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida sug‘urta to‘lovlari ustidan qat’iy nazoratni taminlashi lozim, deb hisoblaydi [5].

Bizning fikrimizcha, qonunchiligimizda sug‘urta komissiyalari tashkil etilishi ta’qiqlanmagan, ular faoliyatini yo‘lga qo‘yish aslo foydadan holi bo‘lmaydi.

Olimlarning fikri bilan aytganda, harbiy xizmatchilar ijtimoiy ta’minotining zaruriy talabi sifatida sug‘urtani o‘z nomiga mos ravishda “majburiy joriy qilish” va ishlashini ham huddi shunday ta’minlashimiz lozim.

Buning uchun harbiy xizmatchilarning amaldagi davlat majburiy sug‘urtasini zamon talablariga mos takomillashtirish lozim. Bunda:

birinchidan, sug‘urta pulini olish deyarli imkonini bermaydigan va 2024 yilda tasdiqlangan kasalliklar ro‘yxatini qayta ko‘rib chiqish lozim, chunki ushbu kasalliklar ro‘yxati sug‘urta pulini deyarli olish imkonini bermaydi;

ikkinchidan, meros tarkibiga kiritiladigan pul tariqasida boquvchisi vafot etgandan keyin sug‘urta pulini olish uchun 6 oy o‘tib, keyin murojaat qilish tartibini bekor qilib, boquvchisi yo‘qotganlik pensiyasi singari harbiy xizmatchining ortida qolgan oila a’zolariga tezroq to‘lab berish maqsadga muvofiq;

uchinchidan, nafaqat og‘ir yoki yengil tan jarohati olganda, shuningdek o‘rtacha tan jarohati olinganda ham sug‘urta pulini to‘lashga oid huquqiy me’yor joriy qilish kerak;

to‘rtinchidan, amaldagi tartibga binoan harbiy xizmatchilar sug‘urta qilinadi, lekin xizmat o‘tayotgan og‘ir sharoitli joylarda ularning oilalari sug‘urta qilinmagan. Bizning fikrimizcha, sug‘urta tizimini o‘zgartirib, oila a’zolar uchun tibbiy sug‘urtani joriy qilish vaqti kelgan.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, tinchligimiz sog‘lom armiyaga va harbiylarga tayanadi. Harbiy xizmatni esa ba’zan xavf-xatarlari yuqori. Shu bois harbiy xizmatchilar va ular oilasi ta’minotining asosiy omili sifatida sug‘urta katta ahamiyatga ega. Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoyev qayd etganidek, harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolari hamda Qurolli Kuchlar faxriylarini ijtimoiy va huquqiy himoya qilishga bundan buyon ham ahamiyat qaratishimiz kerak…ish paytida mayib bo‘lganlik uchun tovon puli kabi to‘lovlarni qayta ko‘rib chiqish va O‘zbekistonda “Ijtimoiy sug‘urta to‘g‘risida”gi qonunni ishlab chiqish zarur” [6]. Ushbu fikrni davom ettirgan holda biz “Harbiy xizmatchilar (xodimlar)ning davlat majburiy shaxsiy sug‘urtasi to‘g‘risida” Qonun qabul qilishni taklif etamiz.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 120 b.
2. “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to‘plami”, 1994-yil, №1, 6-modda.
3. Чоршанбиев А. Возмещение вреда, причиненного жизни или здоровью военнослужащих: автореф...дисс. канд. юрид. наук. Душанбе. 2009. -С.4.
4. Шахбазов Р.А. Механизм правового регулирования социальной защиты военнослужащих внутренних войск МВД России (теоретико-правовой аспект): автореф...дисс. канд. юрид. наук. Санкт-Петербург. 2008 г. – С.15.
5. Василев С.В. Обязателное государственное страхованиев системе сотсиалной защиты военнослужащих: автореф...дисс.канд.экон.наук. Ярославл. 2004. – С.15.
6. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tas’hkil yetilganining 28 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi. // Xalq so‘zi gazetasi, 2020-yil 15-yanvar. №11 (7513).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYANING 66-MODDASI VA FK 358¹-MODDASIGA KO‘RA KORPORATIV SHARTNOMAGA ASOSAN HUQUQLARNI AMALGA OSHIRISHNING CHEGARALARI

Sattorov Mironshoh Xusenovich,
Toshkent davlat transport universitetining mustaqil izlanuvchisi (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasida belgilangan mulk huquqidan foydalanishning konstitutsiyaviy chegaralari hamda Fuqarolik kodeksining 9 va 358¹-moddalari asosida korporativ shartnomaga muvofiq korporativ huquqlarni amalga oshirishning huquqiy doirasini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda korporativ shartnoma institutining huquqiy tabiati, uning mulk huquqining ijtimoiy vazifasi bilan uyg‘unligi va huquqni suiiste’mol qilish doktrinasi bilan bog‘liqligi o‘rganiladi. Shuningdek, korporativ shartnoma orqali korporativ huquqlarni muvofiqlashtirish imkoniyatlari bilan birga, ovozlarni sun’iy boshqarish, qarorlarni bloklash, ishtirokchilar manfaatlarini cheklash kabi suiiste’mol shakllari yoritiladi. Tadqiqotning qiyosiy-huquqiy qismida Germaniya, Fransiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Shveysariya tajribasi tahlil qilinib, korporativ shartnomalar shartnoma erkinligining mahsuli bo‘lishi bilan birga, ularning qo‘llanilishi mulk huquqining ijtimoiy vazifasi va vijdonlilik tamoyillari bilan qat’iy chegaralanganligi asoslab berilgan. Yakuniy xulosalarda korporativ shartnoma institutini takomillashtirishga doir normativ-huquqiy va amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: korporativ shartnoma, mulk huquqi, Konstitutsiya 66-moddasi, FK 358¹-modda, FK 9-modda, huquqni suiiste’mol qilish, korporativ boshqaruv, fidutsiar majburiyatlar, korporativ muvozanat, qiyosiy-huquqiy tahlil.

Abstract. This article examines the legal boundaries of exercising corporate rights under a corporate agreement within the framework of Article 66 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, which establishes constitutional limits on the use of property rights, as well as Articles 9 and 358¹ of the Civil Code. The study explores the legal nature of the corporate agreement, its interrelation with the social function of property rights, and its connection with the doctrine prohibiting the abuse of rights. The article also highlights potential forms of abuse that may arise in the process of coordinating corporate rights through corporate agreements, including artificial control of voting, blocking decision-making, and restricting the interests of other participants. The comparative-legal section analyzes the experience of Germany, France, the USA, the United Kingdom, Japan, and Switzerland, demonstrating that although corporate agreements are a product of contractual freedom, their application is strictly limited by the social function of property rights

and the principles of good faith. The final part of the study presents normative and practical recommendations aimed at improving the corporate agreement framework in national legislation.

Keywords: corporate agreement, property rights, Constitution Article 66, Civil Code Article 358¹, Civil Code Article 9, abuse of rights, corporate governance, fiduciary duties, corporate balance, comparative legal analysis.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу конституционных пределов осуществления права собственности, закреплённых в статье 66 Конституции Республики Узбекистан, а также правовых рамок реализации корпоративных прав в соответствии с корпоративным договором на основании статей 9 и 358¹ Гражданского кодекса. В исследовании рассматриваются правовая природа института корпоративного договора, его соотношение с социальной функцией права собственности и связь с доктриной злоупотребления правом. Особое внимание уделено возможностям координации корпоративных прав посредством корпоративного договора, а также формам злоупотреблений, таким как искусственное управление голосами, блокирование решений и ограничение интересов участников. В сравнительно-правовой части статьи анализируется опыт Германии, Франции, США, Великобритании, Японии и Швейцарии. Обосновано, что корпоративные договоры, являясь проявлением свободы договора, в то же время строго ограничены социальной функцией права собственности и принципами добросовестности. В заключении выдвигаются нормативно-правовые и практические предложения по совершенствованию института корпоративного договора.

Ключевые слова: корпоративный договор, право собственности, статья 66 Конституции, статья 358¹ ГК, статья 9 ГК, злоупотребление правом, корпоративное управление, фидуциарные обязанности, корпоративный баланс, сравнительно-правовой анализ.

Kirish.

Korporativ munosabatlarni tartibga solishda ishtirokchilarning mulkiy va korporativ huquqlarini amalga oshirish chegaralari muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasida mulkdorning o‘ziga tegishli mol-mulkdan foydalanish erkinligi e’tirof etilgan bo‘lib, ushbu huquq atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, jamiyat va davlat manfaatlarini buzmasligi, boshqa shaxslarning huquqlariga tajovuz qilmasligi shartligi qayd etilgan. Demak, mulk huquqi mutlaq emas, balki ijtimoiy yo‘naltirilgan huquq sifatida belgilangan bo‘lib, uning amalga oshirilishi umumiy huquqiy tamoyillar — qonuniylik, vijdonlilik va adolat me’yorlari bilan cheklanadi.

Mazkur konstitutsiyaviy yondashuv fuqarolik qonunchiligida, xususan, Fuqarolik kodeksining 358¹-moddasida o‘z aksini topgan. Unga muvofiq, xo‘jalik

jamiyati ishtirokchilari o‘zaro korporativ shartnoma tuzish orqali ovoz berish, boshqaruvda ishtirok etish, ulushlarni sotish yoki sotmaslik, korporativ huquqlarni amalga oshirish yoki ulardan voz kechish kabi majburiyatlarni qabul qilishi mumkin. Biroq korporativ shartnoma ishtirokchilar irodasining erkin ifodasi bo‘lishi bilan birga, uning foydalanilishi Konstitutsiyadagi mulkdan foydalanish chegaralari va FK 9-moddasidagi huquqni suiiste’mol qilmaslik tamoyili bilan o‘zaro uyg‘un bo‘lishi zarur.

Boshqacha aytganda, korporativ shartnoma ishtirokchilarga korporativ huquqlarni vase’ tarzda tashkil etish imkonini bersa-da, bu erkinlik absolyutizmga aylanmaydi: shartnoma jamiyat ishiga asossiz aralashish vositasiga aylanmasligi, boshqa ishtirokchilar manfaatlariga zarar yetkazmasligi, korporativ boshqaruvning adolatli va shaffof mexanizmlarini buzmasligi kerak. Ustavga zid shartlar, ovoz berishni boshqaruv organlari ko‘rsatmasiga bog‘lash, korporativ huquqlarni cheklovchi noqonuniy mexanizmlar FK 358[1]-moddasiga muvofiq haqiqiy emas deb topiladi.

Shu boisdan, korporativ shartnoma institutining rivojlanishi mulk huquqining ijtimoiy vazifasi, korporativ avtonomiya va korporativ tartibga solishning huquqiy cheklovlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashni talab qiladi. Mazkur maqolada aynan shu masala — korporativ shartnomaga asosan korporativ huquqlarni amalga oshirish chegaralari, ularning konstitutsiyaviy va fuqarolik-huquqiy asoslari, huquqni suiiste’mol qilish holatlarini bartaraf etish mexanizmi hamda amaliyotda uchraydigan muammolar ilmiy-amaliy asosda tahlil etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Mavzuga oid milliy va xorijiy manbalar tahlili korporativ shartnoma instituti hamda mulk huquqini amalga oshirish chegaralarining nazariy asoslari yetarlicha keng qamrovli ekanini ko‘rsatadi. Milliy huquqshunos olimlar tomonidan mulk huquqining konstitutsiyaviy kafolatlari, uning ijtimoiy vazifasi, vinoyatsizlik va vijdonlilik tamoyillari borasida qator ilmiy qarashlar ilgari surilgan bo‘lsada, Fuqarolik kodeksining 358[1]-moddasi (korporativ shartnoma) amalda nisbatan yangi institut bo‘lgani bois, korporativ shartnoma orqali korporativ huquqlarni amalga oshirish chegaralari, uni suiiste’mol qilish xavflari, korporativ erkinlik va ustav talablari o‘rtasidagi muvozanat masalalari bo‘yicha mukammal tadqiqotlar yetarlicha emas.

Xorijiy adabiyotlarda esa korporativ shartnomalarning huquqiy tabiati, ishtirokchilarning korporativ irodasini muvofiqlashtirishdagi roli, korporativ huquqlarni cheklash va ularni suiiste’mol qilish bilan bog‘liq xavflar keng yoritilgan. Germaniyada korporativ kelishuvlar korporativ boshqaruvda ichki barqarorlikni ta’minlash vositasi sifatida qaraladi. Fransiyada “détournement de droit” doktrinasi korporativ huquqlarni yo‘nalishdan chekinib, zarar yetkazish maqsadida amalga

oshirilgan shartlarni haqiqiy emas deb topish imkonini beradi. AQSH va Buyuk Britaniyada esa shareholders agreement kompaniya ustavi bilan bir qatorda korporativ boshqaruvning muhim elementlaridan biri sifatida qo‘llaniladi. Xorijiy tajriba korporativ shartnomalardan unumli foydalanish bilan birga ular orqali huquqni suiiste’mol qilish holatlarini cheklash zarurligini ham ko‘rsatadi.

Ushbu tadqiqot korporativ shartnoma institutining huquqiy tabiati, uning mulk huquqining konstitutsiyaviy chegaralari bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda huquqni suiiste’mol qilish doktrinasi bilan munosabatini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, quyidagi ilmiy-metodologik yondashuvlarga asoslanadi:

O‘zR Konstitutsiyaning 66-moddasi, Fuqarolik kodeksining 9 va 358^1-moddalari, korporativ boshqaruv to‘g‘risidagi qonunlar hamda sud hujjatlari tizimli tarzda o‘rganilib, ular o‘rtasidagi huquqiy bog‘liqlik aniqlanadi.

Germaniya, Fransiya, AQSH, Yaponiya va Buyuk Britaniya qonunchiligida korporativ shartnoma va mulk huquqining chegaralanishi masalalari tahlil qilinib, ularning umumiy va farqli jihatlari milliy huquq bilan solishtiriladi.

mulk huquqining ijtimoiy vazifasi, korporativ huquqlarning amal qilinishi va huquqni suiiste’mol qilish to‘g‘risidagi ilmiy qarashlar, nazariyalar doktrinalar o‘rganiladi.

korporativ shartnoma instituti Konstitutsiya, Fuqarolik kodeksi, korporativ qonunlar va sud amaliyoti bilan bog‘liq yagona huquqiy mexanizm sifatida baholanadi.

Natijalar.

Tadqiqot davomida normativ-huquqiy manbalar tizimli tahlil qilinib, mulk huquqi, korporativ erkinlik va korporativ shartnoma orqali korporativ huquqlarni amalga oshirish chegaralari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va huquqiy bog‘liqlik har tomonlama yoritildi. Bu bog‘liqlik, avvalo, Konstitutsiya, Fuqarolik kodeksi va korporativ tuzilmalarni tartibga soluvchi qonunchilik o‘rtasidagi huquqiy muvozanat orqali namoyon bo‘ladi.

Birinchi navbatda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasi mulkdorga mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etishda keng erkinlik beradi. Biroq mazkur erkinlik mutlaq emas u “atrof-muhitga zarar yetkazmaslik”, “boshqa shaxslarning huquqlarini buzmaslik” va “jamiyat hamda davlat manfaatlarini ta’minlash” kabi chegaralar bilan bog‘langan. Demak, mulk huquqi konstitutsiyaviy ravishda kafolatlangan bo‘lsada, uning amalga oshirilishi ijtimoiy mas’uliyatni nazarda tutadi, bu esa korporativ munosabatlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, Fuqarolik kodeksining 9-moddasi Konstitutsiyadagi mazkur chegaralarni mazmun jihatdan to‘ldirib, huquqlarni amalga oshirishning umumiy standartini belgilaydi. Unga ko‘ra, har qanday huquq vijdonlilik, adolat tamoyillari

asosida amalga oshirilishi kerak. Bularning birortasiga amal qilinmasa, bu huquqni suiiste'mol qilish sifatida baholanadi. Demak, FK 9-moddasi korporativ shartnomalarda ishtirokchilar o‘z korporativ huquqlaridan qasddan, asossiz, boshqa ishtirokchilar manfaatlariga zarar yetkazuvchi tarzda foydalanishini cheklovchi universal huquqiy filtr vazifasini bajaradi.

Uchinchidan, FK 358^1-moddasida nazarda tutilgan korporativ shartnoma korporativ munosabatlarni tartibga solishda samarali mexanizm bo‘lib, ishtirokchilarga o‘z korporativ huquqlarini muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirish imkonini beradi. Biroq korporativ shartnoma orqali huquqlarni muvofiqlashtirish jarayonida, korporativ ovozni muvofiqlashtirish, qarorlar qabul qilishda bir tomonlama ustunlikni ta'minlash, aktivlar va ulushlarni tasarruf etishda cheklovlar belgilash, korporativ boshqaruvda ta'sirni sun'iy oshirish, kabi harakatlar huquqni suiiste'mol qilish xavfini keltirib chiqarishi mumkin.

Shu bois korporativ shartnomalar Konstitutsiyaning 66-moddasi va FK 9-moddasidagi chegaralar bilan birgalikda talqin qilinishi shart. Amalda korporativ erkinlik (FK 358^1-modda); huquqni suiiste'mol qilishni taqiqlovchi umumiy norma (FK 9-modda) o‘zaro bog‘langan holda yagona huquqiy mexanizm sifatida ishlaydi.

Ushbu tahlil shuni ko‘rsatadiki, korporativ shartnoma ishtirokchilarga shartnoma erkinligini bergan bo‘lsada, u Konstitutsiya va umumiy fuqarolik huquqi prinsiplari bilan chegaralangan bo‘lib, korporativ huquqlarni adolatli va vijdonli amalga oshirishni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa korporativ erkinlik bilan ijtimoiy mas'uliyatning yaxlit huquqiy muvozanatini belgilaydi.

Tadqiqotning qiyosiy-huquqiy tahlili Germaniya, Fransiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Shveysariya kabi rivojlangan huquqiy tizimlarda korporativ shartnoma va mulk huquqidan foydalanish chegaralarini o‘rganish imkonini berdi.

Nemis huquqidagi “Mulk egaligi majburiyat yuklaydi” tamoyili mulk huquqining ijtimoiy vazifasini mustahkamlab, korporativ munosabatlarda ishtirokchilarning faoliyati ham jamoat manfaatlari bilan uyg‘un ravishda amalga oshirilishi zarurligini belgilaydi [1].

Fransuz huquqida korporativ shartnomalar “huquq mazmunidan chetga chiqish” doktrinasi orqali baholanib, agar shartnoma a'zolik huquqlarini faqat zarar yetkazish, korporativ muvozanatni buzish yoki boshqa ishtirokchini chetlatish maqsadida tuzilgan bo‘lsa, u haqiqiy emas deb topilishi mumkin [2].

AQSh va Buyuk Britaniyada “Aksiyadorlar shartnomasi” korporativ boshqaruvning markaziy vositasi sifatida e'tirof etilgan bo‘lsada, umumiy huquq doktrinalari “adolatsiz shartlar doktrinasi”, “ishonchli shaxsning fidusiar majburiyati”, “huquqni suiiste'mol qilish” uning suiiste'mol qilinishiga yo‘l qo‘ymaydi va korporativ adolat prinsiplarini muhofaza qiladi [3].

Yaponiya va Shveysariya huquq tizimlarida esa korporativ huquqlarni amalga oshirish mulk huquqining ijtimoiy vazifasi, vijdonlilik, adolat va maqsadga muvofiqlik mezonlari bilan chuqur bog‘langan bo‘lib, korporativ shartnomalar ham aynan shu huquqiy vositalar orqali baholanadi. Ushbu qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda korporativ shartnoma shartnoma erkinligining mahsuli bo‘lishi bilan birga, uning suiiste’mol qilinishi mulk huquqining ijtimoiy vazifasi, korporativ muvozanat va huquqni vijdonli amalga oshirish prinsiplari bilan qat’iy chegaralangan [4].

Doktrinal tahlil shuni ko‘rsatadiki, korporativ shartnoma orqali korporativ huquqlarni muvofiqlashtirish korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishi mumkin bo‘lsada, u ayni paytda huquqni suiiste’mol qilish xavfini ham kuchaytiradi. Xususan, korporativ ovoz huquqini kelishilgan tarzda to‘liq nazorat qilish, qaror qabul qilish jarayonlarini sun’iy ravishda chalg‘itish, korporativ huquqlarni qasddan amalga oshirmaslik orqali vaziyatni boshqarish, shuningdek korporativ afzalliklarni boshqa ishtirokchilar manfaati hisobidan tortish kabi xatti-harakatlar korporativ shartnomaning “potensial suiiste’mol mexanizmlari” sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday vaziyatlarda Fuqarolik kodeksining 9-moddasi hal qiluvchi vosita rolini bajaradi va korporativ shartnoma doirasidagi har bir harakatning vijdonlilik, insof va adolat mezonlariga mosligini ta’minlab, korporativ huquqlarning shakldan tashqari, boshqa ishtirokchilarga zarar yetkazuvchi tarzda amalga oshirilishining oldini oladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, korporativ shartnoma milliy korporativ huquq tizimida mustaqil institut sifatida emas, balki O‘zR Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, sohaga oid qonunlar va sud amaliyoti bilan uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritadigan kompleks huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Sud amaliyoti korporativ shartnomalarning haqiqiyligi, ijrosi va ular orqali huquqlarni suiiste’mol qilish holatlarini baholashda muhim mezonlarni shakllantirib, amalda korporativ shartnomaning huquqiy tabiati va qo‘llanilish doirasini aniqlab bermoqda. O‘zR FK 358[1]-moddasi esa korporativ shartnomaning mazmun-mohiyati, ishtirokchilar majburiyatlari, ovoz berishni muvofiqlashtirish, korporativ huquqlarni o‘tkazish va cheklash mexanizmlarini belgilab, uning huquqiy chegaralarini aniq ajratib beradi. Shu bilan birga, O‘zR Konstitutsiyaning 66-moddasi mulk huquqi va korporativ erkinlikning umumiy konstitutsiyaviy o‘lchovini belgilab, korporativ shartnoma doirasidagi barcha huquqiy munosabatlar vijdonlilik, adolat, qonuniylik va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillariga mos bo‘lishi zarurligini kafolatlaydi. Ushbu elementlarning o‘zaro uyg‘unligi korporativ shartnomani milliy korporativ huquq tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida mustahkamlaydi.

O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, korporativ shartnoma institutining amaliy qo‘llanishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasida belgilangan mulkdan foydalanish erkinligi bilan bevosita bog‘liqdir. Konstitutsiyaga

ko‘ra, mulkdorga o‘z mol-mulkidan foydalanish, undan daromad olish va uni tasarruf etish huquqi berilgan bo‘lsada, bu erkinlik mutlaq emas. U boshqa shaxslarning huquqlarini buzmaslik, jamiyat va davlat manfaatlariga zid kelmaslik, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik kabi cheklovlar bilan tartibga solinadi. Mazkur konstitutsiyaviy chegara korporativ munosabatlarda ham amal qiladi: korporativ shartnoma ishtirokchilarining o‘z a’zolik huquqlaridan foydalanishlari konuniylik, adolat, vijdonlilik tamoyillariga qat’iy mos bo‘lmog‘i zarur. Shu nuqtayi nazardan, FK 9-moddasi korporativ shartnoma doirasida yuzaga keladigan barcha munosabatlar uchun umumiy “axloqiy-huquqiy vosita” sifatida namoyon bo‘ladi. U korporativ shartnoma yordamida a’zolik huquqlarini suiste’mol qilish masalan, ovozni sun’iy nazorat qilish, boshqa ishtirokchini chetlab o‘tish, korporativ jarayonlarni bir tomonlama boshqarish kabi harakatlarni to‘xtatishga imkon beradi. Shunday qilib, korporativ shartnoma institutining qo‘llanishi korporativ erkinlik va konstitutsiyaviy cheklovlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, korporativ shartnoma ishtirokchilarga a’zolik huquqlarini muvofiqlashtirilgan tarzda amalga oshirish imkonini beruvchi samarali huquqiy mexanizm bo‘lsada, u suiste’mol qilish uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin. Korporativ ovozlarni boshqarish bo‘yicha kelishuvlar, a’zolik huquqlarini qasddan amalga oshirmaslik orqali qarorlarni cheklash, aktivlarni tasarruf etishni sun’iy cheklash yoki boshqa ishtirokchilar manfaatlari hisobiga ustunlik olish kabi harakatlar korporativ shartnoma orqali vujudga kelishi mumkin bo‘lgan suiste’mol shakllaridir. Bu holatda FK 358^1-moddasi va u bilan birga amal qiluvchi FK 9-moddasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ular suiste’molni aniqlash va uni bartaraf etishning asosiy huquqiy mezonlarini belgilab beradi. Shu bilan birga, sud amaliyoti korporativ shartnomalarning haqiqiyligi, ulardagi majburiyatlarning mazmuni va ularning bajarilish darajasini baholash orqali korporativ shartnoma institutining real amaldagi chegaralarini belgilab bormoqda. Umuman olganda, muhokama shuni tasdiqlaydiki, korporativ shartnoma milliy huquqning mustaqil elementi bo‘lib qolmay, balki Konstitutsiya, FK, sohaviy qonunlar va sud amaliyoti bilan uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritadi hamda ushbu tizimning ichki barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot korporativ shartnoma institutining huquqiy tabiatini, uning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasida belgilangan mulkdan foydalanishning konstitutsiyaviy chegaralari va Fuqarolik kodeksining 9 hamda 358^1-moddalari bilan o‘zaro bog‘liqligini chuqur yoritib berdi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, korporativ shartnoma ishtirokchilarga korporativ huquqlarni tashkil etish va muvofiqlashtirishda katta erkinlik bersada, bu erkinlik mutlaq hisoblanmaydi. U Konstitutsiyada ko‘rsatilgan ijtimoiy mas’uliyat, qonuniylik,

vijdonlilik va adolat tamoyillari, shuningdek huquqni suiiste'mol qilishni taqiqlovchi FK 9-moddasi bilan qat'iy cheklangan.

Tadqiqotdan kelib chiqadigan asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

Konstitutsiyaning 66-moddasi mulkdorga keng korporativ erkinlik bergan bo‘lsada, bu erkinlik atrof-muhit, jamiyat, davlat va boshqa ishtirokchilar manfaatlarini himoya qilish bilan chegaralanadi. Demak, korporativ shartnoma ham aynan shu konstitutsiyaviy chegaralarda amal qiladi.

Fuqarolik kodeksining 9-moddasi korporativ shartnoma doirasidagi asosiy huquqiy vositasidir, ya'ni korporativ huquqlarning har qanday amalga oshirilishi adolat, vijdonlilik mezonlari asosida baholanadi. Korporativ ovozlarni kelishilgan tarzda nazorat qilish, korporativ qarorlarni sun'iy cheklash yoki boshqa ishtirokchini chetlatish kabi harakatlar huquqni suiiste'mol qilish sifatida baholanadi.

FK 358^1-moddasi korporativ shartnoma orqali korporativ munosabatlarni muvofiqlashtirishning chegaralarini aniq belgilab bergan, ustavga zid bo‘lgan shartlarni haqiqiy emas deb topadi va korporativ erkinlikning qonuniy doirasini belgilaydi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, Germaniya, Fransiya, AQSH, Yaponiya, Britaniya va Shveysariya huquq tizimlarida korporativ shartnomalar shartnoma erkinligining muhim ko‘rinishi bo‘lsada, ularning qo‘llanilishi mulk huquqining ijtimoiy vazifasi va huquqni suiiste'mol qilmaslik prinsiplari bilan qat'iy cheklangan. Milliy huquq tizimida ham aynan shu tendensiya rivojlanmoqda.

Sud amaliyoti korporativ shartnoma orqali korporativ huquqlarni suiiste'mol qilishning oldini olishda asosiy mexanizm vazifasini bajarib, korporativ erkinlik bilan huquqiy mas'uliyat o‘rtasidagi muvozanatni ta'minlab bermoqda.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, korporativ shartnoma institutni takomillashtirish uchun qator ustuvor yo‘nalishlar aniqlandi. Jumladan, Fuqarolik kodeksiga korporativ huquqlarni suiiste'mol qilishning aniq huquqiy mezonlarini kiritish (korporativ ovozni sun'iy boshqarish, qarorlarni cheklash, korporativ ustunlikni boshqa ishtirokchi hisobidan olish, korporativ ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish kabilar), korporativ shartnomalarni elektron reyestrda ro‘yxatdan o‘tkazish orqali ularning shaffofligini ta'minlash, korporativ shartnomalar ijrosi ustidan ichki va tashqi audit mexanizmlari hamda majburiy korporativ hisobotlar tizimini kuchaytirish, ishtirokchilarning fidutsiar (ishonchli) majburiyatlarini qonun darajasida mustahkamlash, sud amaliyoti uchun korporativ shartnomalar yuzasidan yagona huquqiy standartlar va tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek xorijiy tajribadan kelib chiqib korporativ etika, majburiyat va korporativ adolat standartlarini huquqiy tartibga solish orqali korporativ huquqlarni adolatli, shaffof va vijdonli amalga oshirishni ta'minlash taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland (Art. 14). Berlin: Bundesministerium der Justiz und für Verbraucherschutz. URL: https://www.gesetze-im-internet.de/gg/art_14.html

2. Arrêt “Pariset et Laumonnier-Carriol”, 26 novembre 1875. https://www.conseil-etat.fr.
https://www.legifrance.gouv.fr/codes/id/LEGITEXT000006070721/

3. Smith v. Atlantic Properties, Inc., 422 N.E.2d 798 (Mass. 1981). https://law.justia.com/cases/massachusetts/court-of-appeals/1981/422-ner2d-798.html. Gower’s Principles of Modern Company Law (11th edition) https://global.oup.com/academic

4. Zenichi Shishido. Japanese Corporate Governance: The Roles of Shareholders, Boards and Employees. Journal of Japanese Law, Vol. 28. Pp. 55-89. https://www.zjapanstudies.org

XUSUSIY MULK DAXLSIZLIGI VA HUQUQNI SUIISTE’MOL QILISH: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING 65-MODDASI ASOSIDA NAZARIY-AMALIY TAHLIL

Mamadaliyev Avvolbek Ziyoitdinovich,
Odil sudlov akademiyasi mustaqil izlanuvchisi (DSc),
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) e-mail:
avvalbekmamadaliev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasi bilan belgilangan xususiy mulk daxlsizligi kafolatlari hamda Fuqarolik kodeksining 9-moddasida mustahkamlangan huquqni suiiste’mol qilishni taqiqlash tamoyillari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qiladi. Tadqiqotda mulk huquqining ijtimoiy vazifasi, uning konstitutsiyaviy chegaralari, shuningdek, milliy va xorijiy huquq tizimlarida mulkdan maqsadga zid, vijdonsiz yoki zarar yetkazish tarzda foydalanishni cheklash mexanizmlari o‘rganiladi. Maqolada xorijiy davlatlar qonunchilik tajribasi asosida mulk huquqining mutlaq emasligi, balki jamoat manfaatlari bilan uyg‘un holda amalga oshirilishi zarurligi asoslab beriladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan ko‘rilgan investitsiya shartnomasi bo‘yicha nizo misolida mulk huquqidan vijdonsiz foydalanish, hisobotlarni soxtalashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy majburiyatlarni bajarmaslik kabi suiiste’mol shakllari tahlil qilinadi. Xulosada mulk huquqini suiiste’mol qilishning aniq mezonlarini FKda belgilash, monitoring va hisobdorlik tizimini kuchaytirish, shuningdek mulkning ijtimoiy vazifasini qonun darajasida mustahkamlash bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: xususiy mulk daxlsizligi, mulk huquqi, Konstitutsiyaninig 65-moddasi, huquqni suiiste’mol qilish, Fuqarolik kodeksi 9-moddasi, investitsiya majburiyatlari, shartnoma buzilishi, sud amaliyoti.

Abstract. This article provides a theoretical and practical analysis of the relationship between the constitutional guarantees of private property inviolability established in Article 65 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the prohibition of abuse of rights enshrined in Article 9 of the Civil Code. The study examines the social function of property rights, their constitutional limitations, as well as mechanisms for restricting the use of property in a purpose-inconsistent, bad-faith, or harmful manner under national and foreign legal systems. Based on international legislative experience, the article substantiates that property rights are not absolute and must be exercised in harmony with public interests. Using a dispute concerning an investment agreement reviewed by the Supreme Court of Uzbekistan, the article analyzes forms of abuse such as bad-faith use of property, falsification of reports, and failure to fulfill socio-economic obligations. The conclusion proposes defining clear criteria for abuse of property rights in the Civil Code, strengthening monitoring and accountability mechanisms, and legally reinforcing the social function of property.

Keywords: inviolability of private property, property rights, Article 65 of the Constitution, abuse of rights, Article 9 of the Civil Code, investment obligations, breach of contract, judicial practice.

Аннотация. В данной статье проводится теоретико-практический анализ взаимосвязи между гарантиями неприкосновенности частной собственности, закреплёнными в статье 65 Конституции Республики Узбекистан, и принципами недопустимости злоупотребления правом, установленными в статье 9 Гражданского кодекса. В исследовании рассматриваются социальная функция права собственности, его конституционные пределы, а также механизмы ограничения использования собственности вопреки её назначению, недобросовестно или с причинением вреда в национальных и зарубежных правовых системах. На основе анализа зарубежного законодательства обосновывается тезис о том, что право собственности не является абсолютным и должно осуществляться в гармонии с общественными интересами. На примере инвестиционного спора, рассмотренного Верховным судом Республики Узбекистан, анализируются формы злоупотребления правом собственности, такие как недобросовестное использование имущества, фальсификация отчётности и неисполнение социально-экономических обязательств. В заключении предлагается определить в Гражданском кодексе конкретные критерии злоупотребления правом собственности, усилить систему

мониторинга и отчётности, а также законодательно закрепить социальную функцию собственности.

Ключевые слова: неприкосновенность частной собственности, право собственности, статья 65 Конституции, злоупотребление правом, статья 9 Гражданского кодекса, инвестиционные обязательства, нарушение договора, судебная практика.

Kirish.

Xususiy mulk huquqi va uning daxlsizligi huquqiy davlatning asosiy ustunlaridan biri bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida mulkdor faqat qonunda belgilangan tartibdagina mulkidan mahrum qilinishi mumkinligi belgilangan. Mazkur konstitutsiyaviy kafolat fuqarolarning iqtisodiy erkinligini, mulkiy barqarorligini va huquqiy himoyasini ta’minlashga xizmat qiladi. Biroq mulk huquqi mutlaq xarakterga ega emas, u ijtimoiy vazifani ham bajaradi va uni amalga oshirishda boshqa shaxslarning huquqlari, jamoat manfaatlari va qonun talablari inobatga olinishi shart. Shu boisdan, mulkdor o‘z huquqidan qasddan, maqsadga zid yoki vijdonsiz tarzda foydalanganida, ya’ni boshqa shaxslarga zarar yetkazish, iqtisodiy raqobatni cheklash, atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatish orqali o‘z manfaatini mutlaqlashtirganida, bu holat huquqni suiiste’mol qilish sifatida baholanadi va Fuqarolik kodeksining 9-moddasida nazarda tutilgan huquqiy oqibatlar kelib chiqadi.

Amaliyotda mulk huquqini suiiste’mol qilish yer uchastkasidan maqsadga zid foydalanish, obyektni qayta jihozlashda qonun talablarini buzish, umumiy mulkdan foydalanishni asossiz cheklash, investitsiya majburiyatlarini bajarmaslik kabi turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, intellektual mulk, raqamli maydonlar, klasterlar va davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlarida ham suiiste’molning zamonaviy shakllari uchrab turibdi. Bunday hollarda Konstitutsiyaning 65-moddasi ikkinchi qismidagi mulk daxlsizligi kafolati mulkdorning noqonuniy xatti-harakatiga emas, balki uning qonuniy, vijdonli va adolatli foydalanish huquqiga tatbiq etiladi. Demak, Konstitutsiya mulkdan foydalanish erkinligini himoya qiladi, ammo uni suiiste’mol qilishni himoya qilmaydi. Shu ma’noda davlatning cheklov qo‘llashi yoki sud tomonidan mulkdorning ayrim xatti-harakatlariga daxldor qarorlar qabul qilinishi Konstitutsiyaga zid emas, aksincha qonun ustuvorligi va adolat tamoyillarining ta’minlanishi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Xorijiy mamlakatlarda xususiy mulk huquqi huquqiy tartibotning asosiy institutlaridan biri sifatida mustahkamlangan bo‘lsada, amaliyotda mulk huquqidan suiiste’mol qilishni cheklash tamoyili deyarli barcha rivojlangan huquq tizimlarida

qo‘llaniladi. Bu esa mulkka bo‘lgan hurmat va jamoat manfaatlarini himoya qilish o‘rtasida muvozanatni ta’minlaydi.

Germaniyada huquqida mulk huquqi Asosiy Qonunning 14-moddasi bilan kafolatlangan bo‘lib, unda “Eigentum verpflichtet”, ya’ni “mulk majbur qiladi” degan tamoyil belgilangan. Demak, mulkdor o‘z mulkidan faqat shaxsiy manfaati uchun emas, balki jamoat manfaatlariga zid bo‘lmagan holda foydalanishi shart. Germaniyaning Qo‘shnichilik huquqi haqidagi qonunlari, Yer kodeksi va Ekologik xavfsizlik to‘g‘risidagi qonunlar mulkdorning xatti-harakatlari boshqa shaxslarga zarar yetkazmaslik talabini qat’iy belgilaydi [1].

Fransiya Fuqarolik kodeksining 544-moddasi mulk huquqiga keng imkoniyatlar bersada, fransuz sud amaliyotida “détournement de droit” (huquqni yo‘nalishdan og‘dirish) doktrinasi mustahkam o‘rin olgan. Parij Apellyatsiya sudining bir qator qarorlarida mulkdorning faqat zarar yetkazish maqsadida amalga oshirgan harakatlari huquqni suiiste’mol qilish sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Bu Fransiya huquqida mulk mutlaq huquq emas, ijtimoiylashgan huquq sifatida talqin qilinishini ko‘rsatadi [2].

AQSh huquq tizimida mulk huquqi Konstitutsiyaning V-bobi bilan himoya qilingan bo‘lsada, AQSH Oliy sudining pretsedentlarida “abuse of property rights” va “nuisance” doktrinasi keng qo‘llaniladi. Masalan, Euclid v. Ambler Realty Co. Ishi [3]da Oliy sud mulkdorning o‘z mulkidan jamoat manfaatlariga zid tarzda foydalanishi cheklanishi mumkinligini tadqiqot doirasiga kiritgan. Shuningdek, monopoliya va raqobatga zid xatti-harakatlar bo‘yicha Sherman qonuni ham mulkdan foydalanish erkinligi cheklanishi mumkinligini tan oladi [4].

Buyuk Britaniyada mulk huquqi umumiy huquq (common law) tamoyillariga asoslanadi va “lawful use of property must not amount to unreasonable interference” qoidasiga ko‘ra, mulkdor qo‘shnilarga yoki jamoat manfaatlariga asossiz zarar yetkazsa, uning harakatlari suiiste’mol sifatida baholanadi. Britaniya sudlari “nuisance”, “trespass”, “abuse of rights” kabi doktrinalarni qo‘llagan holda mulkdan foydalanishni cheklaydi [5].

Yaponiya Fuqarolik kodesida ham mulk huquqi mutlaq huquq sifatida emas, balki ijtimoiy vazifaga ega huquq sifatida e’tirof etiladi. Kodeksning 206-209-moddalari mulkdan foydalanish boshqa shaxslarga zarar yetkazmasligi shartligini belgilaydi [6]. Yaponiya Oliy sudi amaliyotidagi “Building Shadow Case” kabi ishlarda [7] qurilish orqali qo‘shni hududni soya ostida qoldirish ham huquqni suiiste’mol qilish sifatida baholangan.

Shveysariya Fuqarolik kodeksi 2-moddasida “har qanday huquqni amalga oshirish vijdonlilikka zid bo‘lmasligi shart” deb belgilangan. U nafaqat mulk huquqiga, balki barcha fuqarolik huquqlariga tatbiq etiladi. Shveysariya huquqida

mulkdan foydalanishning maqsadga zid, adolatsiz yoki faqat zarar yetkazishga yo‘naltirilgan shakllari ochiq-oydin suiiste’mol sifatida baholanadi [8].

Ushbu tadqiqot xususiy mulk daxlsizligi hamda huquqni suiiste’mol qilish institutining nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, metodologik asos sifatida zamonaviy huquqiy tadqiqotlarning kompleks yondashuvi qo‘llanildi. Tadqiqot davomida konstitutsion huquq, fuqarolik huquqi, xorijiy huquqiy tizimlar, iqtisodiy sud amaliyoti hamda huquq falsafasiga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi.

Natijalar.

Mulk huquqni suiiste’mol qilish bilan bog‘liq holatlar yuqorida qayd etib o‘tilganidek, investitsiya bilan bog‘liq nizolarda xam mavjud. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudlov hay’ati kassatsiya instansiyasining 2023 yil 24 oktyabrdagi 4-1704-2101/1140-sonli iqtisodiy ishida mulk huquqini suiiste’mol qilish masalasi o‘rganilgan.

Shunday qilib mazkur ish materiallaridan ma’lum bo‘lishicha, “Andijon-Xanoy Ipagi” MCHJ va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi o‘rtasida tuzilgan oldi-sotdi shartnomasiga ko‘ra, xaridorga nol qiymatda berilgan obyekt uchun javobgar tomonidan 1 mlrd so‘m miqdorida investitsiya kiritish, pillani klaster usulida qayta ishlashni to‘liq yo‘lga qo‘yish, doimiy 50 nafar va mavsumiy 500 nafar ish o‘rni yaratish kabi investitsiyaviy-ijtimoiy majburiyatlar yuklangan.

Biroq, o‘tkazilgan nazorat o‘lchovlari, komissiya dalolatnomalari hamda bandlik markazi ma’lumotlaridan javobgar majburiyatlarni to‘liq va o‘z vaqtida bajarmagani (investitsiya summasi 280 mln so‘mga qo‘shib yozilgani, pilladan ipak tola va gazlama ishlab chiqarish jarayonlari to‘liq ishga tushirilmagani, ish o‘rinlari belgilangan miqdorga yetmagani) aniqlanib, shu bois da’vogarning shartnomani bekor qilish va jarima undirish talabi asosli deb topilgan.

Sud tomonidan FK 382-384-moddalari qo‘llanib, shartnoma majburiyatlarining “jiddiy buzilishi” huquqiy mezoni tan olingan va javobgar taklif-xatlarga javob bermagani ham shartnomani bekor qilish uchun qo‘shimcha asos sifatida baholangan.

Kassatsiya shikoyatida keltirilgan investitsiya to‘liq kiritilgani, uskunalar o‘rnatilgani yoki eksport amalga oshirilgani kabi dalillar nizo obyektida aynan shartnomada ko‘zda tutilgan texnologik klaster to‘liq ishlaganini isbotlamasligi sababli rad etilgan. Shu tariqa, Oliy sud pastgi instansiyalar qarorlarini o‘zgarishsiz qoldirib, majburiyatlar to‘liq bajarilmaganligi, investitsiya obyektida bajarilgan ishlar hajmini sun’iy oshirish holatlari aniqlangani va davlatga yetgan ehtimoliy iqtisodiy zarar mavjudligi sababli shartnomani bekor qilishni qonuniy deb topgan, bu esa investitsion shartnomalarda transparentlik, hisobdorlik va shartnoma intizomining majburiyligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur nizoda huquqni suiiste'mol qilish alomatlari javobgar "Andijon-Xanoy Ipagi" MCHJning xatti-harakatlarida yaqqol kuzatiladi. Javobgar davlatdan nol qiymatda berilgan obyektni egallab turgan holda, shartnoma va qo‘shimcha kelishuvda belgilangan investitsiya majburiyatlari, ish o‘rinlari yaratish va klaster texnologiyasini joriy etish kabi asosiy vazifalarni o‘z vaqtida va lozim darajada bajarmagan. Bajarilgan ishlar haqidagi hujjatlarda 280 mln so‘mlik qo‘shib yozish, ishlab chiqarish jarayonlari to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lsada, uni "bajarilgan" sifatida ko‘rsatish, davlat organlarining bir qator taklif va ogohlantirish xatlariga javob bermaslik, kassatsiya shikoyatida esa real faktlarga nomos keladigan, boshqa obyektda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo‘yicha hujjatlarni nizo obyektiga taalluqli qilib ko‘rsatish kabi harakatlar Fuqarolik kodeksining 9-moddasida nazarda tutilgan huquqni vijdonsiz amalga oshirish va huquqni suiiste'mol qilish mezonlariga mos keladi.

Sud bu holatlarni rasman "huquqni suiiste'mol qilish" deb baholamagan bo‘lsada, majburiyatlarning jiddiy buzilishi, hisobotlarning ishonchsizligi va ijtimoiy vazifalarning bajarilmaganligi bevosita huquqni suiiste'mol qilishning huquqiy-amaliy ko‘rinishlari sifatida baholanadi.

Muhokama.

Xususiy mulk daxlsizligi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy kafolatlar mulkdorning huquqlarini muhofaza qilishga qaratilgan bo‘lsada, ular mutlaq xarakterga ega emas. Konstitutsiyaning 65-moddasi mulkdan foydalanish erkinligini ta'minlagan holda, ushbu huquq faqat qonuniy, vijdonli va adolatli tarzda amalga oshirilgandagina himoya qilinishini nazarda tutadi.

Mulk huquqining ijtimoiy vazifasi, boshqa shaxslar manfaatlari va jamoat ehtiyojlari bilan uyg‘unlashgan holda amal qilish tamoyili nafaqat milliy huquqiy tizimlarda, balki Germaniya, Fransiya, AQSH, Britaniya, Yaponiya va Shveysariya kabi rivojlangan davlatlarda ham umumiy huquqiy qoida sifatida qo‘llaniladi.

"Andijon-Xanoy Ipagi" MCHJ bilan bog‘liq nizo amaliyotda mulk huquqining suiiste'mol qilinishi qanday namoyon bo‘lishini yaqqol ko‘rsatib berdi. Davlatdan nol qiymatda berilgan obyekt evaziga yuklangan investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlarning bajarilmasligi, hisobotlarda ma'lumotlarni sun'iy ravishda oshirish, texnologik jarayonlarni to‘liq yo‘lga qo‘ymaslik, ish o‘rinlarining kerakli miqdorda tashkil etilmasligi, davlat organlari tomonidan yuborilgan taklif va ogohlantirishlarga munosabat bildirilmasligi kabi holatlar Fuqarolik kodeksining 9-moddasida nazarda tutilgan vinoyatsizlik, vijdonlilik va adolat tamoyillarining buzilishi, ya'ni huquqni suiiste'mol qilishning yaqqol huquqiy-amaliy ko‘rinishlaridir.

Sudning shartnomani bekor qilish va jarima undirish haqidagi qarorining asosliligi shundaki, u mulkdorning iqtisodiy erkinligini cheklamagan, balki mulk huquqidan ijtimoiy mas'uliyatdan qochib, davlat va jamoat manfaatlariga zarar

yetkazish maqsadida noto‘g‘ri foydalanish holatini bartaraf etgan. Bu holat Konstitutsiyaning 65-moddasi, FK 382-384-moddalari va huquqni suiiste’mol qilish doktrinasiga to‘la mos keladi.

Shunday qilib, mazkur nizo milliy huquq tizimidagi muhim tamoyilni yana bir karra tasdiqlaydi. Konstitutsiya mulk huquqini himoya qiladi, ammo mulkdorning huquqni suiiste’mol qilishini himoya qilmaydi. Mulkdan foydalanish adolat, qonuniylik va ijtimoiy mas’uliyat asosida amalga oshirilgandagina uning daxlsizligi Konstitutsiyaviy kafolat sifatida tatbiq etiladi.

Xulosa.

Taklif sifatida, avvalo, Fuqarolik kodeksida mulk huquqini suiiste’mol qilishning aniq huquqiy mezonlarini belgilash, xususan mulkdan maqsadga zid foydalanish, ijtimoiy vazifani bajarmaslik, boshqa shaxslarga qasddan zarar yetkazish kabi holatlarni mustaqil tarzda kodda aks ettirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, investitsiyaviy majburiyatlarni bajarish yuzasidan monitoring va hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirish, hisobotlarni elektron platforma orqali real vaqt rejimida taqdim etish va soxtalashtirilgan ma’lumotlar uchun huquqiy javobgarlikni oshirish amaliyot samaradorligini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, Germaniya va Yaponiya davlatlari tajribasi asosida mulk huquqining ijtimoiy vazifasini milliy qonunchilikda aniqlash, davlatdan nol qiymatda yoki imtiyozli shartlarda olingan mulk bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy majburiyatlarning huquqiy tabiati va bajarilishini alohida tartibda belgilash maqsadga muvofiqdir.

Davlat organlari va mulkdor o‘rtasidagi munosabatlarda ochiqlik, hisobdorlik va ogohlantirish mexanizmlarini institutsional asosda takomillashtirish, shu jumladan mulkdan foydalanishni tekshirishda standartlashtirilgan chek-listlar, elektron dalolatnomalar va jamoat monitoringi instrumentlarini joriy etish huquqni suiiste’mol qilish holatlarini keskin kamaytiradi. Shu yo‘l bilan Konstitutsiyaning 65-moddasida nazarda tutilgan mulk daxlsizligi kafolati adolat, qonuniylik va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillari bilan uyg‘un holda, amalda to‘liq ta’minlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bundesministerium der Justiz. Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland. URL: https://www.gesetze-im-internet.de/gg/art_14.html

2. Legifrance. Code civil — Article 544. URL: https://www.legifrance.gouv.fr/codes/article_lc/LEGIARTI000006429861/

3. Village of Euclid v. Ambler Realty Co., 272 U.S. 365 (1926) U.S. Supreme Court. Euclid v. Ambler Realty Co. URL: https://supreme.justia.com/cases/federal/us/272/365/

4. National Archives. The Constitution of the United States: Fifth Amendment. URL: https://www.archives.gov/founding-docs/constitution-transcript.

5. British and Irish Legal Information Institute (BAILII). URL: https://www.bailii.org/

6. Japanese Law Translation Database. Civil Code (Japan). URL: https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/174

7. “Building Shadow Case”, Supreme Court of Japan, 1968. Supreme Court of Japan Decisions Database.

8. URL: https://www.courts.go.jp/app/hanrei_en/

9. Fedlex — Swiss Law Database. Swiss Civil Code (ZGB). URL: https://www.fedlex.admin.ch/eli/cc/24/233_245_233/en

KONSTITUTSIYA – IJTIMOIY ADOLAT VA INSON HUQUQLARI KAFOLATI

Isakov Sanjar Xazratqulovich,
Jamoat xavfsizligi universiteti O‘q otish tayyorgarligi kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari p.f.b.f.d. (PhD), dotsent, podpolkovnik

Har qanday davlatning bosh qonuni Konstitutsiya hisoblanadi. Konstutusiya so‘zi lug‘aviy jihatdan “Nizom”, “Qoidalar to‘plami”degan ma’noni anglatadi. Lekin mazmun-mohiyatiga ko‘ra, ushbu hujjat mamlakat, uning fuqarolari hayotida juda muhim va katta ahamiyatga ega ekanligini alohida e’tirof etish lozim.

Konstitutsiyamiz mustaqilligimizni mustahkamlash, xalqimizning tinch-osuda, farovon hayotini ta’minlashning muhim asosidir. Uning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini keng targ‘ib etish, aholi, ayniqsa, yoshlar ongu shuurida Vatanga sadoqat, qonunlarimizga hurmat tuyg‘usini mustahkamlash maqsadida o‘tkazilayotgan uchrashuv, davra suhbati, ochiq muloqot va boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlar yuksak samaralar bermoqda. “Inson huquqlari – eng oliy qadriyat”, “Inson, uning qadr-qimmati, haq-huquqi oliy qadriyat”, “Konstitutsiya – baxtimiz poydevori”, “Adolat – qonun ustuvorligida”, “Konstitutsiya va ma’naviyat mushtarakligi”, “Konstitutsiya – faxrimiz, g‘ururimiz” kabi mavzularda tashkil etilayotgan tadbirlarga taniqli olimlar, huquqshunoslar, shoir-yozuvchilar, san’atkorlardan iborat ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot guruhlari jalb etilgan.

Huquqiy targ‘ibotchilar uchrashuv va tadbirlar samaradorligini ta’minlash uchun viloyat adliya boshqarmasi tomonidan tayyorlangan o‘n yo‘nalishdagi targ‘ibot materiallaridan unumli foydalanmoqda. Unda Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyati va huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish asoslari, fuqarolarning huquq va burchlari sodda tilda chuqur sharhlab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi farmonida “Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy

davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalshlarini belgilab berdi”[2] deya ta’kidlangan.

Quyida yo‘nalishda ro‘y bergan o‘zgarishlar hujjatdagi ketma-ketlik bo‘yicha keltirib o‘tiladi.

O‘zbekiston – huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Konstitutsiyaning 1-moddasidagi “O‘zbekiston – suveren demokratik respublika” jumlasi quyidagicha o‘zgartirilmoqda: O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Boshqaruvning respublika shakli – davlat hokimiyatining oliy organlari xalq tomonidan muayyan muddatga saylanishini anglatadi.

Konstitutsiya to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi. 15-moddaga quyidagicha qo‘shimcha qo‘shildi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. Konstitutsiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishi fuqarolarga nafaqat qonunlar, balki bevosita konstitutsiyadagi normalarga ham asoslangan holda ish olib borishga, xususan sudga murojaat qilishga imkon beradi.

Imtiyozlar qonunda yozib qo‘yilishi shart emas. Yangi konstitutsiyaning 19-moddasi – fuqarolarning jinsi, millati, mavqeyi va hokazolardan qat’i nazar qonun oldida tengligi haqida. Bu moddaning 2-qismi quyidagicha o‘zgarmoqda: Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.

Barcha noaniqliklar – inson foydasiga Konstitutsiyaning yangi tahririga asosan: Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi.

Bundan tashqari, turli hujjatlarni yuritishda davlat organlari tomonidan xato-kamchilik o‘tgan taqdirda, masalan pensiya tayinlashda tegishli hujjatlar bazadan topilmay, noaniqlik yuzaga kelganida ham vaziyat fuqaro foydasiga hal etilishi kerak.

Inson huquqlari ijtimoiy axloq va jamoat tartibini saqlash maqsadida cheklanishi mumkin. Huquq va erkinliklarning cheklanishi masalasi avvalgi konstitutsiyada quyidagi ikkita norma bilan tartibga solingan edi: Insonning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas.

O‘qituvchilar alohida e’tirofda. Konstitutsiyaga o‘qituvchilar haqida modda qo‘shildi. U ikki banddan iborat: O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi. Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

Yer xususiy mulk bo‘lishi mumkin. O‘zbekistonda 2022 yildan e’tiboran qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish boshlangan. Shu bilan deyarli bir vaqtda, o‘tgan yili e’lon qilingan yangi konstitutsiya loyihasining birlamchi versiyasida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni xususiylashtirish mumkin emasligiga ishora qilingan edi.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to‘sqinlik qilish javobgarlikka sabab bo‘ladi. Avvalgi konstitutsiyaning “Ommaviy axborot vositalari” nomli bobi bitta moddadan iborat edi. Unda shunday deyilgandi: “Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi”. Yangi konstitutsiyaga ko‘ra, bu bob ikkita moddadan iborat bo‘ldi: Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo‘lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari o‘zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir. Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Mahalliy davlat hokimiyatidagi o‘zgarishlar. Hokimlar kengash raisligidan ketadi. Mahalliy davlat boshqaruvida vakillik va ijro etuvchi organlar bir-biridan ajratilmoqda. Bu boradagi hozirgi tartib hokimiyatning bo‘linish va hokimiyat bo‘g‘inlarining o‘zaro tiyib turish prinsipiga zid. Bosh qomusning yangi tahririga asosan, bunga barham berilib, mahalliy kengashlar saylanadigan vakillik organlari, hokimliklar esa ijro organlari deb belgilanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagilardan korinib turibdiki, davlatimizning inson huquqlarini himoya qilish yuzasidan Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo‘yilgan normalarni hayotga izchil tadbiq etish yo‘lida olib borilayotgan siyosati inson va uning huquqlarini ta’minlashga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasida hechkimning huquqi sud organining asoslantirilgan qaroridan tashqari hech bir organ yoki mansabdor shaxs tomonidan cheklanishi mumkun emas. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bizning fuqaroligimizning huquq va erkinliklarini ifodalovchi asosiy hujjatdir.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi farmoni https://lex.uz/docs/-6461609.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi https://lex.uz/docs/-6445145.
3. Internet manbalari: https://static. Oliygoh.uz/pdfs.

KONSTITUTSIYA – MILLAT ERKI, FUQAROLIK JAMIYATI VA INSON HUQUQLARINING MUHIM POYDEVORI

Raxmanov Farrux Erkinovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti O‘q otish tayyorgarligi kafedrasi boshlig‘i, p.f.b.f.d. (PhD), dotsent, podpolkovnik

Konstitutsiyamiz yurtimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish, xalqimiz uchun tinch, obod va farovon hayot barpo etishda O‘zbekistonning xalqaro maydonda munosib o‘rin egallashida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Konstitutsiya zamonaviy jamiyat hayotining barcha sohalaridagi samarali islohotlar qatorida fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish, ularning faoliyatini takomillashtirishga imkon yaratmoqda. Xususan, fuqarolik jamiyati huquqiy ustuvor bo‘lgan, fuqarolar huquq va erkinliklari to‘liq himoyalangan, davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolarning erkin ishtiroki ta’minlangan erkin fuqarolar makoni ekan, aynan bunday omillarning shakllanishi uchun huquqiy asos bo‘lgan qoidalar Konstitutsiyamizda o‘z ifodasini topgan. Binobarin, Yangi O‘zbekistonimiz Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakatimiz hayotida muhim tarixiy voqea bo‘lishi bilan birga, xalqimiz va millatimiz erkini kafolatlanishiga, yurtimizda qonun ustuvorligini yanada mustahkamlanishiga xizmat qilishi shubhsizdir.

Fuqarolarning huquqiy jihatdan yetuk darajaga yetishi, bir so‘z bilan aytganda, ularning huquqiy barkamolligi, kuchli qonunchilikning yo‘lga qo‘yilishi va fuqarolik jamiyatining mustahkamligi, Konstitutsiya va qonunlarga nisbatan fuqarolarda ulkan hurmat-ehtiromning yuzaga kelishi – tobora rivojlanib borayotgan O‘zbekistonning suvereniteti, davlatning mustaqilligini mustahkamlovchi, uning istiqbolini belgilab beruvchi omil hisoblanadi.

Alloma Yusuf Xos Hojib ham o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida turkiy hukmdorlarning ulkan davlatni boshqarish, davlat va fuqaro, olim va omi, turli kasb va tabaqa vakillari o‘rtasidagi munosabatlarida adolat, diyonat, aql va zako, qanoat tushunchalariga yuksak e’tibor qaratish kerakligi haqidagi masalani ilgari surgan edi. Bu tushunchalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgamagan, balki Bosh qomusimizda o‘z aksini topgan.

Xususan, Yangi Konstitutsiyamizning muqaddimasida “Biz, O‘zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e’lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatimizni anglagan holda, davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosiga tayanib, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, O‘zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarini hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlashni maqsad qilgan holda, ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e’lon qilamiz.” degan purma’no so‘zlar bilan, qomusimizning ijtimoiy-huquqiy qudrati belgilab berilgan.

Konstitutsiyaning 7-modasida “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan organlar tomonidangina amalga oshiriladi. Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o‘zlashtirish, hokimiyat organlari faoliyatini to‘xtatib qo‘yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi”, deb alohida ta’kidlab o‘tilgan. Shuningdek, Konstitutsiyaning 15-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi”, degan chuqur va xaqchil so‘zlar yozilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasinig 78-moddasi doirasida “Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Davlat va jamiyat

bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi”, deb asosli keltirilgan.

Albatta, yangi Konstitutsiyaning inson huquqlarini ta’minlashdagi roli va o‘rni to‘g‘risida qancha gapirsak oz. Shu bilan birga, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy tamoyili sifatda Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligi olinar ekan, qonun ustuvor bo‘lgan davlatda har bir inson va har bir fuqaro o‘zining huquqiy muhofazalanganligini his etadi, qolaversa, “huquq”, “qonun”, “jamiyat”, “fuqaro” tushunchalari o‘zaro birlashib, yagona maqsad – inson manfaatlarini tashkil etadi.

Konstitutsiya mustaqilligimizning huquqiy ramzi, xalqimiz xohish-irodasining oliy ifodasidir. Shu boisdan Konstitutsiya fuqarolarimizning ham siyosiy, ham ma’naviy, ham huquqiy erkinligining buyuk kafolati sifatida yashab kelmoqda. Zotan, xalq erkinligisiz, erkin tafakkursiz mamlakatni taraqqiy toptirish mumkin emas.

Konstitutsiyasi qabul qilingan kundan boshlab uni o‘rganish yillar davomida har bir fuqaro uchun ham qarz, ham farz ekanligini isbotlab berdi. Konstitutsiyani o‘rganish, anglab yetish orqali fuqarolarimiz insonning qadr-qimmatini, umrning, hayotning mazmunini, yashamoqlik mohiyatini teran idrok etadilar. Konstitutsiyamizning tom ma’nodagi tarixiy ahamiyati biz uchun mutlaqo yangi bo‘lgan milliy davlatchilik va uning ijtimoiy-siyosiy tizimini yaratish, demokratik tamoyillar asosiga qurilgan siyosiy va iqtisodiy tizimni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy poydevorni aynan Bosh qomusimiz belgilab berganida namoyon bo‘ladi.

Aslida Konstitutsiya – huquqiy va ma’naviy yetuklik mezonidir. Bunday deyilishiga sabab, avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarning ongiga singdirilishi bilan birga, ularda Vatan taqdiri uchun mas’ullikni, yagona Vatan tuyg‘usini shakllantiradi. Konstitutsiya o‘zida O‘zbekistonda yashovchi har bir xalq, har bir millat va elatning, har bir din vakilining hayotiy manfaat va intilishlarini aks ettiradi, unda mamlakatimizdagi barcha fuqarolarning huquqlari, Vatan oldidagi burch va mas’uliyatlari e’tirof etiladi, shuningdek, milliy mafkuramizning bosh maqsadi va g‘oyasini ham ifodalaydi.

Konstitutsiya – xalqimizning istiqlol yillarida erishgan ulkan tarixiy yutug‘idir. Zero, aynan Asosiy qonunimiz suveren davlatimizning huquqiy negizi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish va takomillashtirishning mustahkam poydevori, mustaqil davlatchiligimizning tamal toshi bo‘ldi. Bugun, vaqt o‘tishi bilan, hayotning o‘zi, mamlakatimiz erishayotgan yuksak marralar Konstitutsiyamizda mustahkamlab

qo‘yilgan, xalqimizning orzu-umidlari, bugungi va kelajak manfaatlariga javob beradigan qoida va prinsiplarning naqadar to‘g‘ri ekanini isbotlamoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy sharoitlarning barchasi davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitayotgan Buyuk Qomusimiz – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi sharofati tufaylidir.

References:

1. 1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-837-son Qonuni. https://lex.uz/pdfs/6445145

2. Жаҳон туркологиясининг буюк обидаси “Қутадғу билиг” ва уни ўрганишнинг долзарб масалалари. Халқаро конференция тўплами. – Тошкент. 2020. – 284 б.

3. Internet manbalari:

4. https://static. Oliygoh.uz/pdfs

5. https://e-library.sammu. uz/pdfs

CONSTITUTION AS THE MAIN LAW OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Namozova Dilnoza Berdimurotovna,
University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan, senior teacher at the Department of Languages

Translated from Latin, the word "constitutio" means "device". The Constitution is the Basic Law of our country. As a single political and legal document, it defines the basic principles of relations between a person, society and the state, the structure of state power, and enshrines the rights and freedoms of citizens that the state has taken under its protection.

Touching upon the question of the importance of the Constitution in the life of the country, first of all, it is necessary to realize the importance of the Basic Law. In the legal system of any country, the Basic Law is considered a normative legal document having the highest legal force. No law or other normative legal act may contradict the principles and norms of the Constitution. The Constitution provides a clear definition of the administrative-territorial and state structure, the powers of legislative, executive and judicial authorities, the functioning of the electoral system, the rights, freedoms and duties of citizens, the relationship between the individual and society, the State and citizens.

The Constitution is a solid legal basis for the successes and milestones achieved during the period of independence, and we are deeply aware of and appreciate all this.

The development strategy developed on the basis of the Constitution of the Republic of Uzbekistan has brought the country and society to a new level in a short time. Today, at the initiative of President Shavkat Mirziyoyev, large-scale reforms are being carried out to form a New Uzbekistan. In the implementation of the Development Strategy of the New Uzbekistan for 2022-2026, our Basic Law is of unlimited importance, since the practical implementation of all seven directions of the Strategy is inextricably linked with the Constitution. In particular, the second direction of the Strategy provides for the transformation of the principles of justice and the rule of law into a fundamental and necessary condition for the development of the country, ensuring the principle of "In the name of human honor and dignity." The process of transition to the construction of a New Uzbekistan, of course, required an update of the Basic Law. When drafting the updated Constitution, the proposals of the people were taken into account, and the adoption of the draft Constitutional Law was carried out by referendum.

A referendum is a form of direct expression of the will of citizens, expressed in voting on the most significant issues in order to adopt laws or other decisions. A referendum differs from an election in that in this process, voting is not for a specific candidate, but for the solution of a certain issue, whether it is the adoption of a law, bill, Constitution or amendments to it.

The decision adopted at the referendum has the highest legal force and can be canceled or changed only by referendum.

It should be noted that during the preparation of the draft Constitution, the opinions and proposals of the people were studied in two stages. At the first stage, more than 60 thousand proposals on drafting the Constitution were received from citizens. At the second stage, the draft Constitution was submitted for public discussion. Almost 5 million citizens were acquainted with the project through the media and the Internet; more than 150 thousand expressed their opinions and suggestions.

During the development of the project, international legal documents and the experience of more than 190 States were studied.

In the new version of the Constitution of Uzbekistan, the number of articles has been increased from 128 to 155, the number of norms from 275 to 434. Conceptual changes have been made to 91 of the 128 articles. In general, the Constitution has been changed by 65 percent.

It should be noted with special pride that a number of resolutions and decrees have been adopted aimed at improving state-building, the judicial and legal system,

liberalizing the economy, developing the social sphere, strengthening interethnic harmony and friendship, the work carried out according to these documents is rising to a qualitatively new level, which increases the confidence of our people in the future, further happy and a comfortable life.

The atmosphere of peace and generosity in our country, the solidarity and friendship of representatives of all nationalities and faiths are a vivid confirmation of this. In particular, Russian, Kazakh, Turkmen, Korean, and Ukrainian national cultural centers are effectively operating in the Republic of Karakalpakstan. In the preservation and development of one's native language, national traditions and customs by each nation, the legal guarantees enshrined in our Basic Law are of particular importance.

In conclusion, I would like to quote from the speech of President Shavkat Mirziyoyev at a meeting with members of the chambers of the Oliy Majlis, representatives of political parties and the public: "The most important thing is that now we will never turn away from the path of reforms, we will go forward and only forward on the basis of the new man–society–state system".

References:

1. www.president.uz
2. www.uza.uz

POSITIVE CHANGES FOR FOREIGN LANGUAGE TEACHERS IN THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Rashidova Munavvar Xaydarovna,
The University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan, Senior English language teacher at the Department of Foreign languages

Abstract: This article reflects on the positive changes that foreign language teachers have experienced in the Republic of Uzbekistan's new constitutional framework. By examining key amendments to the Constitution, the article provides insights into the provisions that have facilitated these changes. The amendments recognize the importance of foreign language education, integrate it into the curriculum, provide professional development opportunities, and offer support to foreign language teachers. These changes have enhanced the status and recognition of foreign language teachers and contributed to the overall development of language education in Uzbekistan.

Keywords: foreign language teachers, Uzbekistan, constitutional framework, positive changes, amendments, education, curriculum integration, professional development, support, cultural exchange, international collaboration.

The Republic of Uzbekistan has made significant strides in its educational system, particularly in the realm of foreign language education. This research article aims to reflect on the positive changes that foreign language teachers have experienced in Uzbekistan's new constitutional framework. By examining key amendments to the Constitution, we can gain insights into the specific provisions that have facilitated these changes. Furthermore, we will explore direct examples from the amended articles to illustrate the transformative impact on foreign language teachers in Uzbekistan.

Recognition of the importance of foreign language education:

The amended Article 43 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan reflects the recognition of the crucial role of foreign language education. It emphasizes the need for education to meet the requirements of the times and the labor market, including proficiency in foreign languages. This recognition has led to a shift in focus, with increased resources, attention, and support directed towards foreign language teaching and learning in Uzbekistan.

Integration of foreign language education in the curriculum:

The amended Article 43 further emphasizes the importance of comprehensive education, which includes the development of language skills. Uzbekistan has embraced this principle by integrating foreign language education throughout the curriculum. This integration ensures that students have the opportunity to develop proficiency in foreign languages from an early age, enabling them to communicate effectively in a globalized world. As a result, foreign language teachers are now an integral part of the educational system, with their expertise and contributions valued.

Professional development opportunities for foreign language teachers:

Amended Article 42 of the Constitution underscores the importance of continuous professional development for educators. This provision applies equally to foreign language teachers, who are now offered a range of professional development opportunities. Uzbekistan has implemented training programs, workshops, and conferences specifically tailored to enhance the skills and knowledge of foreign language teachers. By investing in their professional growth, Uzbekistan is equipping foreign language teachers with the necessary tools to deliver high-quality language education.

Support for foreign language teachers:

The amended Article 42 also recognizes the importance of providing educators with appropriate working conditions and opportunities for professional improvement. Uzbekistan has taken significant steps to support foreign language teachers, ensuring they have access to resources, materials, and technology necessary for effective language instruction. Additionally, the government has implemented measures to

improve the working conditions of foreign language teachers, including competitive salaries, favorable teaching environments, and opportunities for career advancement.

Promotion of cultural exchange and international collaboration:

The amended Article 41 of the Constitution highlights the importance of academic freedom, which encompasses the freedom to teach and conduct research. This provision has facilitated greater cultural exchange and international collaboration for foreign language teachers in Uzbekistan. Through partnerships with foreign educational institutions, exchange programs, and participation in international conferences, foreign language teachers have access to a broader range of resources and opportunities for professional growth.

The new construction of the Republic of Uzbekistan has brought about significant positive changes for foreign language teachers. Through amendments to the Constitution, Uzbekistan has recognized the importance of foreign language education, integrated it into the curriculum, provided professional development opportunities, and offered support to foreign language teachers. These changes have not only enhanced the status and recognition of foreign language teachers but have also contributed to the overall development and progress of language education in Uzbekistan. As Uzbekistan continues to prioritize foreign language education, it is essential to maintain and further enhance these positive changes, ensuring a bright future for both foreign language teachers and their students.

References:

1. Xaydarovna, Rashidova Munavvar, and Namozova Dilnoza Berdimurotovna. "Review of the research on boburology abroad and in Uzbekistan." *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research* 2.09 (2020): 55-60.

2. Рашидова, Мунаввар Хайдаровна. "Развитие коммуникативной компетенции в обучении курсантов устной речи." *Инновации в педагогике и психологии* 4.1 (2021).

3. Rashidova, M. X., and D. B. Namozova. "Teaching technical subjects through english." *ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: даврий анжуманлар: 10-қисм*: 32.

4. Rashidova, Munavvar Xaydarovna, and D. B. Namozova. "Effective methods of teaching." *Scientific and practical research in Uzbekistan. Тошкент* 10 (2021): 23.

KONSTITUTSIYAMIZDA BELGILANGAN NORMALARNING BOJXONAGA OID MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIKDAGI AHAMIYATI

Yusupov Shahboz Lutfullo o'g'li,
Mustaqil izlanuvchi Bojxona qo'mitasi Surishtiruv va ma'muriy amaliyot boshqarmasi bosh inspektor surishtiruvchi
E-mail: shahbozyusupov701@gmail.com +99888-167-45-54

Annotatsiya: Ushbu maqolada bojxonaga oid ayrim ma'muriy huquqbuzarliklar va ular uchun belgilangan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan mutanosiblik prinsipi nuqtayi nazaridan o'rganilib, fikr yuritilgan. Ijtimoiy xavfini yo'qotgan ma'muriy huquqbuzarliklar tahlil qilingan. Bir huquqbuzarlik uchun bir nechta moddada javobgarlik nazarda tutilgan bojxonaga oid huquqbuzarliklar o'rganilgan. Maqola xulosasida bojxonaga oid ayrim ma'muriy huquqbuzarliklarni O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik kodeksidan chiqarib tashlash yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Bojxona, ma'muriy huquqbuzarlik, ma'muriy javobgarlik, mutanosiblik prinsipi, ijtimoiy xavf, bir-birini takrorlovchi

Kirish. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasida davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari **mutanosiblik prinsipiga** asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerakligi belgilangan [1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi PF–67-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan kelib chiqadigan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ning 28-bandida jinoiy va ma'muriy jazo miqdorlarini qilmishning xususiyati, jazolashdan ko'zlangan maqsadga erishish uchun yetarliligiga qarab qayta ko'rib chiqish belgilangan [2].

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksidagi bojxona to'g'risidagi qonun-hujjatlarning buzilishi bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi ayrim moddalarni qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur maqolada *tadqiqot obyekti* sifatida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksidagi bojxonaga oid ayrim ma'muriy huquqbuzarliklar va ular bo'yicha javobgarlik choralari mutanosiblik prinsipi nuqta'i nazaridan tahlil qilindi.

Mutanosiblik prinspi bir qator Yevropa hamda Rus olimlari (N.V. Varlamova, Kristina Trykhlib va boshq.) tomonidan o'rganilgan.

Xususan, Kristina Trykhlib tomonidan bildirilgan fikrga tayanadigan bo'lsak, mutanosiblik prinsipiga ko'ra, jamiyki davlatlarning barcha qonuniy harakatlari va

qarorlari qonun bilan belgilanishi zarur va shaxsiy huquqlarni eng kam cheklashi kerak. Agar cheklash mutanosiblik prinsipi mohiyatiga ta’sir qilmasa va uning haqiqiy mazmunini yo‘qotishga olib kelmasa, huquqiy ta’sir chorasi adolatli bo‘lgan hisoblanadi [8].

Shuningdek, N.V. Varlamovaning fikriga ko‘ra, mutanosiblik prinsipi bugungi kunda davlat organlari tomonidan ularga berilgan vakolatlarni amalga oshirish asosiy mezoni hisoblanadi. Bu shaxslarning huquqlarini cheklaydigan choralar haddan tashqari bo‘lmasligi va ular qo‘llanilayotgan maqsadlarga mos kelishini talab qiladi [9]

Ushbu olimlarning fikriga qo‘shilgan holda, Ma’muriy huquqbuzarlik bo‘yicha javobgarlikni belgilashda, jazo chorasini qo‘llashda mutanosiblik prinsipiga rioya etish, ayni bir ma’muriy huquqbuzarlik uchun Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning bir nechta moddalarida javobgarlik belgilanishiga chek qo‘yish hamda xamda bir turdagi qilmishlar uchun bir xil jazo choralari qo‘llanilishini ta’minlash zarur.

Material va metodlar.

Ushbu maqola qiyosiy-huquqiy, tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Maqolada ikki vazifa ustuvorligi belgilandi:

- birinchi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda bojxonaga oid ma’muriy huquqbuzarliklarni tahlil qilish.

- ikkinchi, ayni bir ma’muriy huquqbuzarlik uchun Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning bir nechta moddalarida javobgarlik belgilanishi xamda bir turdagi qilmishlar uchun bir xil jazo choralari qo‘llanilishini ta’minlash yuzasidan takliflarni ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalari.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning **185^1**, **186^1**, **189**, **189^1**, **227**, **227^1 - 227^{27}** - moddalarida keltirilgan huquqbuzarliklar bojxona faoliyati bilan bog‘liq holatda sodir etilgan taqdirda, bojxonaga oid ma’mururiy huquqbuzarliklar hisoblanadi [4].

Bojxonaga oid ma’muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik masalasiga keladigan bo‘lsak, belgilanadigan javobgarlik, kelgusida mazkur turdagi huquqbuzarlik javobgarlikka tortilayotgan shaxs yoki boshqa shaxslar tomonidan sodir etilmasligiga ta’sir ko‘rsatishi alohida ahamiyaga molik masalalardandir.

Jumladan, MJtKning 227^3-moddasida tovarlar va transport vositalarini yetkazib berilgan joyda O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 218-moddasida nazarda tutilgan muddatda bojxona organlariga ko‘rsatmaslik hamda ularning hujjatlarini topshirmaslik bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-dekabrdagi “Tovarlarni bojxona tranziti bojxona rejimiga joylashtirish bilan

bog‘liq operatsiyalarni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 737-son qarori [5] hamda Adliya vazirligida 2022-yil 31-avgust kuni 3382-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan Bojxona qo‘mitasi qarori bilan tasdiqlangan “Tranzit deklaratsiyasini to‘ldirish, rasmiylashtirish, unga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish, uni qaytarib olish hamda bekor qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ga ko‘ra, TIF ishtirokchilari tomonidan bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar va transport vositalariga oid hujjatlar “Tranzit deklaratsiyasi” rasmiylashtirilgan holda bevosita chegara bojxona postlariga elektron tarzda taqdim qilish amaliyoti joriy etilgan bo‘lib, hujjatlarni manzil bojxona postiga yetkazish amaliyoti bekor qilingan [7].

Bundan tashqari, Bojxona kodeksining 218-moddasiga 2022-yil 1-fevraldagi O‘RQ-748-sonli Qonun bilan qo‘shimcha kiritilib, tovarlar va (yoki) transport vositalari uchun belgilangan yetkazib berish muddatlari tashuvchi tomonidan buzilgan taqdirda, tashuvchidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan miqdorda yig‘im undirilishi belgilangan bo‘lib, Vazirlar Mahkamasining 700-son qarori bilan bojxona nazorati ostida tashilayotgan tovar va transport vositalari uchun belgilangan yetkazib berish muddati o‘tkazib yuborilgan har bir kuni uchun BXMning 1 baravari miqdorida yig‘im undirilishi belgilangan [6].

Bundan tashqari statistik ma’lumotlarga qaraydigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 227^3-moddasi bilan 2022-yilda 1 ta, 2024-yilda 1 ta huquqbuzarlik holati rasmiylashtirilgan, 2023-yilda huquqbuzarlik aniqlanmagan.

Mazkur holatlar bo‘yicha sud qarorlari tahlili, ushbu huquqbuzarlik holatlarini MJtKning 227^4-moddasi *(Tovarlar, transport vositalari va ularning hujjatlarini bojxona organining ruxsatisiz berish, ularni yo‘qotish yoki yetkazib bermaslik)* bilan malakalash mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Bir-birini takrorlovchi normalarning mavjudligi aniqlangan huquqbuzarliklarni malakalashda qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda hamda ikki xil amaliyot yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Shuningdek, MJtKning 227^6-moddasida Kemalar va boshqa suzuvchi vositalarning bojxona nazorati ostida turgan kema va boshqa suzuvchi vositalar yoniga bojxona organining ruxsatisiz kelib to‘xtashi bilan bog‘liq ma’muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlik belgilangan.

Bugungi kunda, O‘zbekiston Respublikasida kema va boshqa suzuvchi vositalarni bojxona nazoratidan o‘tkazish bilan bog‘liq harakatlar faqat Surxondaryo viloyati bojxona boshqarmasi “Daryo porti” bojxona postida amalga oshiriladi.

“Daryo porti” TIF bojxona posti joylashgan “Termiz Daryo Porti” MCHJ hududi xalqaro port maqomiga ega emas. Shuningdek, Amudaryo daryosi orqali Afg‘onistonga tashiladigan yuklar ta’sischisi davlat tashkiloti hisoblangan “Termiz

Daryo Porti” MCHJga tegishli bo‘lgan kemalar va suzuvchi vositalar orqali amalga oshiriladi.

Amudaryo daryosi davlat chegara chizig‘i bo‘lgani sababli, ushbu hudud Chegara qo‘shinlariga tegishli bo‘lgan harbiy kemalar tomonidan nazorat qilinadi.

Shunga ko‘ra, boshqa davlatlarga hamda O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tgan tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan kemalar va boshqa suzuvchi vositalar ushbu hududga kiritilmaydi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, o‘tgan yillar mobaynida MJtKning 227^{6}-moddasi bilan birorta huquqbuzarlik holati aniqlanmagan.

Bu esa ushbu ma’muriy huquqbuzarlikning ijtimoiy xavfini yo‘qotganligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, MJtKning 227^{7}-moddasida Bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish tartibini buzish, ya’ni bojxona rasmiylashtiruvini boshlash va tugallash, uni o‘tkazish joyi, vaqti va taomili to‘g‘risidagi belgilangan talablarga rioya etmaslik bilan bog‘liq huquqbuzarlik uchun javobgarlik belgilangan.

Mazkur moddadagi javobgarlik MJtKning boshqa moddalarida ham nazarda tutilgan. Xususan, MJtKning 227-moddasida *“bojxona nazorati zonasi rejimining buzilishi”*, 227^{4}-moddasida *“tovarlar, transport vositalari va ularning hujjatlarini bojxona organining ruxsatisiz berish, ularni yo‘qotish yoki yetkazib bermaslik”*, 227^{8}-moddasida *“bojxona rasmiylashtiruvi tugallanmagan tovarlar va transport vositalari bilan g‘ayriqonuniy operatsiyalar, shuningdek bojxona organining ruxsatisiz yuk operatsiyalari va boshqa operatsiyalar o‘tkazish”*, 227^{13}-moddasida “tovarlarni saqlash uchun joylashtirish, ularni saqlash va ular bilan operatsiyalar o‘tkazish tartibini buzish” bilan bog‘liq huquqbuzarlik uchun javobgarlik belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 227^{7}-moddasi bilan 2022-yilda 5 ta, 2024-yilda 1 ta huquqbuzarlik rasmiylashtirilgan, 2023-yilda huquqbuzarlik aniqlanmagan.

Mazkur normaning umumiy mazmunga ega ekanligi hamda kodeksning xususiy xarakterga ega bo‘lgan boshqa moddalari bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish jarayonida sodir etilishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarni malakalash uchun yetarli bo‘lganligi sababli, amalda huquqbuzarlik holatlarini ushbu modda bilan malakalash zaruratini yuzaga keltirmayapti.

Shu bilan birga, 227^{17}-moddasida Tovarlarni yo‘q qilish tartibini buzish bilan bog‘liq huquqbuzarlik uchun javobgarlik belgilangan.

Ushbu moddada ko‘rsatilgan huquqbuzarliklar MJtKning 227^{10}-moddasi *(Tovarlar va transport vositalarini deklaratsiyalash tartibini buzish)* hamda 227^{18}-moddasi *(Muayyan bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlar va transport vositalari bilan g‘ayriqonuniy operatsiyalarni amalga oshirganlik)* bilan qamrab olingan.

Bunday, bir-birini takrorlovchi normalarning mavjudligi aniqlangan huquqbuzarliklarni malakalashda qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda hamda ikki xil amaliyot yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Shuningdek, bunday alohida norma Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Belarus va Tojikiston davlatlarida ham mavjud emas.

2019 – 2024-yillar davomida ushbu modda bilan bojxona organlari tomonidan huquqbuzarlik holatlari aniqlanmagan.

Bunday, bir-birini takrorlovchi normalarning mavjudligi aniqlangan huquqbuzarliklarni malakalashda qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda hamda ikki xil amaliyot yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Xorijiy mamlakatlar, xususan, Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Qozog‘iston va Qirg‘iziston davlatlarining Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodekslarida ushbu mazmundagi modda mavjud emas.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi MJtKda bir huquqbuzarlik uchun bir nechta moddada javobgarlik nazarda tutilgan bojxonaga oid huquqbuzarliklar bo‘yicha

M A ’ L U M O T

MJtKning moddasi	**Huquqbuzarlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan alternativ modda (MJtK)**
227[3]-modda. Tovarlar va transport vositalarini yetkazib berilgan joyda ko‘rsatmaslik hamda ularning hujjatlarini topshirmaslik *BHMning 7 baravarigacha (2,6 mln so‘m) miqdorda jarima.*	227[4]-modda. Tovarlar, transport vositalari va ularning hujjatlarini bojxona organining ruxsatisiz berish, ularni yo‘qotish yoki yetkazib bermaslik. *BHMning 15 baravarigacha (5,6 mln so‘m) miqdorda jarima;* *Takroran sodir etilganda, BHMning 30 baravarigacha (11,2 mln so‘m) miqdorda jarima.*
227[7]-modda. Bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish tartibi buzish *BHMning 15 baravarigacha (5,6 mln so‘m) miqdorda jarima.*	227-modda. Bojxona nazorati zonasi rejimining buzilishi *BHMning 5 baravarigacha (1,9 mln so‘m) miqdorda jarima.* 227[4]-modda. Tovarlar, transport vositalari va ularning hujjatlarini bojxona organining ruxsatisiz berish, ularni yo‘qotish yoki yetkazib bermaslik. *BHMning 15 baravarigacha (5,6 mln so‘m) miqdorda jarima;* *Takroran sodir etilganda, BHMning 30 baravarigacha (11,2 mln so‘m) miqdorda jarima.*

	227[8]-modda. Bojxona rasmiylashtiruvi tugallanmagan tovarlar va transport vositalari bilan g‘ayriqonuniy operatsiyalar, shuningdek bojxona organining ruxsatisiz yuk operatsiyalari va boshqa operatsiyalar o‘tkazish. *BHMning 15 baravarigacha (5,6 mln so‘m) miqdorda jarima;* *Takroran sodir etilganda, BHMning 30 baravarigacha (11,2 mln so‘m) miqdorda jarima.* 227[13]-modda. Tovarlarni saqlash uchun joylashtirish, ularni saqlash va ular bilan operatsiyalar o‘tkazish tartibini buzish *BHMning 10 baravarigacha (3,8 mln so‘m) miqdorda jarima;* *Takroran sodir etilganda, BHMning 20 baravarigacha (7,6 mln so‘m) miqdorda jarima.*
227[17]-modda. Tovarlarni yo‘q qilish tartibini buzish *BHMning 15 baravarigacha (5,6 mln so‘m) miqdorda jarima.*	227[10]-modda. Tovarlar va transport vositalarini deklaratsiyalash tartibini buzish. *BHMning 7 baravarigacha (2,6 mln so‘m) miqdorda jarima.* 22718-modda. Muayyan bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlar va transport vositalari bilan g‘ayriqonuniy operatsiyalarni amalga oshirganlik. *BHMning 15 baravarigacha (5,6 mln so‘m) miqdorda jarima;* *Takroran sodir etilganda, BHMning 30 baravarigacha (11,2 mln so‘m) miqdorda jarima.*

Tadqiqot natijalari tahlili.

Qonunchiligimizda mavjud nomalarni amaliyotda to‘g‘ri qo‘llash, zamon talablaridan kelib chiqib, ushbu normalarga umume’tirof etilgan tamoyillarni inobatga olgan holda o‘zgartirishlar kiritib takomillashtirib borish milliy qonunchiligimiz rivojidagi ulkan vazifalardan biridir.

Bojxonaga oid ma’muriy huquqbuzarliklar O‘zbekiston Respublikasi miqyosida oladigan bo‘lsak, o‘ziga xos xususiyatlari bilan, mamlakatning ba’zi tashkilotlarga a’zo bo‘lib kirgan yoki kirmaganligi jihatidan farq qiladi.

Xususan, Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘iston Respublikasi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a’zo sanaladi. Bundan tashqari, Ushbu davlatlar va Ozarbayjon Respublikasi Jahon savdo tashkilotining a’zosi hisoblanadi.

Ma’lumki, mazkur tashkilotlarga a’zolik o‘z o‘zidan bojxona tartibotlari bilan farq qiladi. Bojxona tartibotlaridagi o‘zgarishlar o‘z o‘zidan mazkur tartibotlarga

rioya etmaslikdan kelib chiqadigan huquqbuzarlik holatlarining ham turlichaligi bilan farqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Tarqqiyot strategiyasining 97-maqsadi Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishga bag‘ishlangan va tegishli vazifalar belgilangan [3].

Mazkur vazifalardan kelib chiqib, bojxonaga oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normalarni ham takomilashtirish lozim.

Tadqiqot jarayonidagi tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bojxonaga oid ayrim huquqbuzarliklar hozirgi kunga kelib ijtimoiy xavfini yo‘qotgan, ayrimlarida esa bir-birini takrorlovchi normalarning mavjudligi aniqlangan huquqbuzarliklarni malakalashda qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda hamda ikki xil amaliyot yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Yuqoridagi masalalarga yechim sifatida O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi to‘g‘risidagi kodeksidan bojxonaga oid ayrim moddalarni chiqarish maqsadga muvofiq.

Xulosalar.

Maqolada fikr yuritilgan tadqiqot natijalari va tadqiqot natijalari tahlilidan kelib chiqib quyidagi takliflarni keltiramiz:

birinchi, MJtKning boshqa moddalarida javobgarlik nazarda tutilganligi sababli, MJtKning 227^{3}, 227^{7}, 227^{17}-moddalarini MJtKdan chiqarib tashlash;

ikkinchi, Ijtimoiy xavfini yo‘qotganligi uchun MJtKning 227^{6}-moddasini MJtKdan chiqarib tashlash.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, bojxonaga oid ma’muriy huquqbuzarliklar va ular uchun javobgarlik masalalarida alohida e’tiborga olish kerak bo‘lgan jihatlar bisyor. Huquq sohasining mazkur yo‘nalishi doimiy takomillashtirib borishni talab etadi.

References:

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992-yil 8-dekabr

2. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan kelib chiqadigan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi PF-67-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2023-y., 06/23/67/0269-son

3.2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son

4. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. 1994-yil 22-sentyabr.

5. Tovarlarni bojxona tranziti bojxona rejimiga joylashtirish bilan bog‘liq operatsiyalarni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-dekabrdagi 737-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.01.2023-y., 09/23/737/0004-son

6. Bojxona yig‘imlari stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-noyabrdagi 700-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.11.2020-y., 09/20/700/1491-son

7. Tranzit deklaratsiyasini to‘ldirish, rasmiylashtirish, unga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish, uni qaytarib olish hamda bekor qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizom. Adliya vazirligida 2022-yil 31-avgust kuni 3382-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan Bojxona qo‘mitasi qarori bilan tasdiqlangan.

8. Kristina Trykhlib. The principle of proportionalityin the jurisprudence of the european court of human rights. 2021. –bet128.

9. N.V. Varlamova. Prinsip proporsionalnosti v sovremennoy konstitutsionno-pravovoy doktrine i praktike. Nauchnaya elektronnaya biblioteka “KiberLeninka”.https://cyberleninka.ru/article/n/prinsip-proportsionalnosti-v-sovremennoy-konstitutsionno-pravovoy-doktrine-i-praktike. (accessed 25.11.2024)

KONSTITUTSIYA – ERKIN FUQAROLIK JAMIYATIDA XAVFSIZ HAMKORLIKNI TA’MINLOVCHI QOIDA

G‘iyosov Bahriddin Hasan o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada Konstitutsiyaning erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish va davlat bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni ta’minlashdagi ustuvor o‘rni yoritilgan. Unda konstitutsiyaviy qadriyatlar, inson huquq va erkinliklarini kafolatlovchi normalar hamda davlat organlari faoliyatining ochiqligi va javobgarligini ta’minlovchi mexanizmlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Davlat-jamiyat hamkorligi, qonun ustuvorligi, demokratik boshqaruv, inson huquqlari, konstitutsiyaviy tamoyillar, milliy xavfsizlik, jamoat xavfsizligi, xavflarni boshqarish, xavfsizlik siyosati, barqaror xavfsizlik tizimi.

Аннотация: В статье рассматривается приоритетная роль Конституции в формировании свободного гражданского общества и обеспечении взаимодействия государства и общества. Анализируются конституционные ценности, нормы, гарантирующие права и свободы человека, а также механизмы, обеспечивающие открытость и подотчётность деятельности государственных органов.

Ключевые слова: Сотрудничество государства и общества, верховенство закона, демократическое управление, права человека, конституционные принципы, национальная безопасность, общественная безопасность, управление рисками, политика безопасности, устойчивая система безопасности.

Annotation: This article highlights the priority role of the Constitution in the formation of a free civil society and ensuring interaction between the state and society. It analyzes constitutional values, norms guaranteeing human rights and freedoms, and mechanisms ensuring the openness and accountability of state bodies.

Key words: State–society cooperation, rule of law, democratic governance, human rights, constitutional principles, national security, public safety, risk management, security policy, sustainable security system.

Mamlakatda fuqarolar olib borilayotgan islohotlarga o‘z qarashlarini, fikr va mulohazalarini erkin bildirishlari tabiiy. Qayd etish lozimki, Konstitutsiyaviy yangilanishlarga hamma ham birdayin munosabatda bo‘lishmaydi, ba’zilar xayrixoh, ba’zilar esa e’tirozli fikrlarini ilgari surishmoqchi bo‘lishadi. Darhaqiqat, har kimning zikri, fikri o‘zgacha. Hozirgi kunning dolzarb masalasi ham yangi tahrirdagi konstitutsiyaning kelgusidagi amalda ijrosi qanday bo‘lar ekan, degan turli fikrlar maydoni bilan boyigan desak yangilishmagan bo‘lamiz. Konstitutsiya nima uchun kerak, tabiiy savol?- Konstitutsiya orqali davlat o‘z boshqaruvini engillashtiradi,

ya’nikim inson, jamiyat, davlat o‘rtasidagi o‘zaro huquq va majburiyatlar umumlashadi hamda huquqiy tartibga solinadi.

Odatda, inson huquq va erkinliklariga rioya qilish va uni himoya qilishning uzluksizligini ta’minlash davlat organlari va mansabdor shaxslar zimmasidagi eng asosiy vazifadir. Ayniqsa, huquq-tartibot idoralari o‘ziga tegishli vakolat doirasida fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash va ularni ro‘yobga chiqarishni bevosita amalga oshiradilar.[1]

Nazarimizda, Konstitutsiya doimiy o‘zgarishda, yangilanishda bo‘lishi lozim. Agarda u hayotiy munosabatlardan ortda qoladigan bo‘lsa, o‘zining yuridik kuchi va ta’sirini ham yo‘qotadi. Darhaqiqat, har bir fuqaromiz bilishi lozimki konstitutsiya uning hayotida to‘siq bo‘ladigan muammolarni to‘g‘ridan - to‘g‘ri hal qiladigan, uning huquq va erkinliklarini ta’minlab beradigan, uning haqiqiy ma’noda huquqiy himoyachisi bo‘ladigan Asosiy qonun ekanligini anglashlari lozim. Konstitutsiyadan eng avvalo, har bir fuqaroning o‘zi bevosita manfaatdor ekanligi, uning har bir qoidasini bilishi va tushunishi kelajakda har qanday yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlarni engib chiqishida asosiy ko‘makchi bo‘lishini his qilishlari lozim.

E’tibor qaratadigan bo‘lsak, dunyo Konstitutsiyalari doimiy yangilanishlar mavjida rivojlanib boradi, muhim hayotiy munosabatlarni, insonlarning yangi huquq va majburiyatlar tizginini tartib solib boradi. Shu o‘rinda, AQSh Mustaqillik deklarasiyasi asoschilaridan biri Tomas Djeffersonning qiziq bir mulohazasi diqqatimizni e’tiborga tortadi, ya’ni uning taxminicha har 19 yilda konstitutsiyalar o‘zgarishi kerak, negaki shu vaqt orasida qariyb aholining yarim qismi yangilanadi va amaldagi konstitutsiya uning qiziqishlarini to‘liq qamrab ololmaydi. Nima deya baholaysiz, xulosa chiqarish o‘zingizdan!

Tahlillar shuni ko‘rsatiyaptiki 10 ta davlatda doimiy tarzda konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib borilmoqda. Bularga: Meksika, Yangi Zelandiya, Braziliya, Shveysariya, Avstriya, Isroil, Chili, Kolumbiya, Gruziya hamda Hindiston davlatlaridir. Deyarli, hozirgi kunda konstitutsiyasi o‘zgarmay qolgan davlatlar deyarli uchramaydi.

Ta’kidlash joizki, Konstitutsiya 1992-yilda qabul qilinganidan buyon unga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalarning qariyb barchasi asosan davlat va jamiyat qurilishi, jumladan Parlament, Prezident, Hukumat faoliyati, saylov tizimi, mahalliy boshqaruv, sud va boshqa organlar faoliyatiga taalluqli bo‘lgan.

Qayd etish lozimki, yangi tahrirda qabul qilinishi kutilayotgan konstitutsiya O‘zbekiston tarixida ilk bora referendum yo‘li bilan qabul qilinishi nazarda tutiliyapti. Ya’ni, demokratiyaning eng yuqori ko‘rinishi bo‘lmish xalqning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishi, fuqarolarning o‘z ovozini erkin bildirish orqali amalga oshiriladi.

Darhaqiqat, Konstitutsiyaning moddalari amaldagi 128 tadan 155 taga ko‘payib, normalari 275 tadan 434 taga oshgani, ya’ni, Asosiy qonunimizning 65 foiz matni xalqimiz takliflari asosida yangilangani, konstitutsiyaviy qonun loyihasini yangi tahrirdagi Konstitutsiya sifatida qabul qilish uchun barcha asoslar etarli ekanligini ta’kidlab o‘tishimiz lozim deb o‘ylayman.

O‘z navbatida, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilishi taklif etilayotgan normalarning yarmidan ko‘pi insonning huquq va erkinliklarini himoya qilishning kafolatlarini kuchaytirish va mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan.

Endi kirish so‘zdan keyin bevosita 30 aprel sanasiga qo‘yilgan yangi tahrirdagi konstitutsiya matnida belgilangan normalarning yuridik jihatlariga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, bu ko‘plab huquqiy asoslar bilan boyitilganligining guvohi bo‘lamiz. Konstitutsiya matnining Muqaddima qismida, inson huquq va erkinliklari, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat, adolatli jamiyat, insonparvar demokratik davlat, xalqaro huquqning umume’tirof etilishi kabi yuridik mohiyatni anglatuvchi qoidalarga ko‘zimiz tushadi.

Davlatning asosiy o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlaridan biri ham huquqiy mohiyatni maqsadga singdirishdir!

Mamlakatni demokratik yangilash, inson huquqlari va erkinliklari ishonchli himoyasining eng muhim kafolatlari sifatida Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlashning konstitutsiyaviy mexanizmlari sezilarli darajada mustahkamlandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasida,[1] davlatning asosiy maqsadiy yo‘nalishini ko‘rsatib beradigan norma keltiriladi, ya’ni davlatning huquqiy davlat ekanligi. Huquqiy davlat degani bu – Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga asoslangan davlatdir. Huquqiy davlatda mansabdor shaxslar hokimiyatni xohlaganicha o‘zlashtira olmaydi, o‘zi bilganicha qarorlar qabul qila olmaydi. Bunda barcha davlat organlari faqat qonunda belgilangan vakolatlardan kelib chiqib harakatlanadi.

Huquqiy davlatda barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi ta’minlanadi. Ko‘plab xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarida huquqiy davlat tushunchasining bevosita mustahkamlanganini kuzatishimiz mumkin. Xususan, Rossiya, Ozarbayjon, Portugaliya, Qozog‘iston, Fransiya, Turkiya kabi davlatlar konstitutsiyalarida huquqiy davlat, qonun ustuvorligiga rioya etish kabi qoidalar bevosita mustahkamlangan.

Huquqiy davlatning shakllanganini quyidagi belgilar bilan izohlashimiz mumkin:

birinchidan, konstitutsiya va qonunning ustunligi; *ikkinchidan*, inson huquq va erkinliklariga rioya etish, ularni himoya qilish va ta’minlash; *uchinchidan,* fuqaro va

davlatning o‘zaro mas’ulligi; *to‘rtinchidan,* amalda hokimiyatlar bo‘linish prinisipining ta’minlanishi; *beshinchidan,* sudlarning mustaqilligi; *oltinchidan,* huquqiy ong va madaniyatning yuqori darajada ekani va boshqa belgilarni qo‘rsatib o‘tish mumkin.

Bizning nazarimizda, yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 15-moddasida belgilangan, Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga ega bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi va mamlakatning butun hududida qo‘llanilishi normasi huquqiy davlatning muhim va asosiy ko‘rinishlaridan biri desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Konstitutsiya normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlashi masalasi konstitutsiyaviy islohotlarning eng muhim va dolzarb vazifasi hisoblanadi. Negaki, konstitutsiyada mavjud bo‘lgan normalar jamiyatdagi muhim muammolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solsagina, inson manfaatlariga xizmat qilsagina, uning yuridik kuchi, ta’siri seziladi va e’tirof etiladi. Konstitutsiyaviy islohotlarning eng muhim maqsadlaridan biri ham xalqning konstitutsiyaga bo‘lgan ishonchini kuchaytirish hamda konstitutsiyaviy yo‘l bilan ularning hayotiy masalayu, muammolarini hal etishdir.

Konstitutsiyaning mamlakat hayotida bevosita amal qilishini uchta xususiyatga qarab baholashimiz mumkin. *Birinchidan,* fuqaroning konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanishi; *ikkinchidan,* barcha subektlarning konstitutsiyada belgilangan talab va majburiyatlarga rioya qilishi*; uchinchidan,* vakolatli davlat organlarining konstitutsiyaviy normalarini qo‘llashi va ijrosini ta’minlashi lozim, ayniqsa sud organlarining roli keskin kuchayishi lozim. Bu esa, fuqarolarimiz uchun o‘z huquqlarini bevosita himoya qilish imkoniyatini beradi; sudlar inson huquqlarini himoyasiga oid muayyan ishlarni ko‘rayotganda konstitutsiyadagi inson huquqlariga oid normalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash imkoniyatini yaratadi; barcha darajadagi davlat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslari o‘z faoliyatida inson huqulariga bevosita amal qilishi qoidasiga rioya qilish shartligi mas’uliyatini his qiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 20-moddasida, fuqaro va davlat o‘rtasida o‘zaro huquq va majburiyatlarni belgilash, insonning huquq va erkinliklarining bevosita amal qilishi, huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipi, qonunchilikdagi noaniqlar inson foydasiga hal etilishi kabi muhim qoidalar tizimlashtirilgan holda belgilandi. Bu nihoyatda muhim qoidalar hisoblanadi, ya’ni inson huquq va erkinliklarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, mansabdorlar shaxslar tomonidan o‘z faoliyatida inson huquq va erkinliklarga rioya qilish va uni himoya qilish oliy maqsadga ko‘chayotganligi, so‘zimizning ayni isboti bo‘layotganligidan dalolat beradi.

Misol tariqasida, Germaniya Konstitutsiyasining 1-moddasida aytiladiki, quyida, ya’ni keyingi moddalarda sanab o‘tiladigan asosiy huquqlar qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati uchun bevosita amal qiladigan huquq

sifatida majburiydir, deb belgilab qo‘yilgan.[2] Ya’ni, fuqarolarning asosiy shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy huquqlarini nazarda tutadi.

Mazkur moddagi yangi normalar davlat organlari, mansabdor shaxslar qarorlari va faoliyatida qo‘llanilgan huquqiy ta’sir choralari ko‘zlangan qonuniy maqsadga erishish uchun mos va etarli bo‘lishi hamda manfaatdor shaxslarga imkon qadar qiyinchilik tug‘dirmasligi, kimgadir ortiqcha majburiyat yoki xarajat yuklashi mumkin emasligi, insonlarga moddiy va ma’naviy ziyon etkazilmasligini oldini olishga xizmat qiladi

Huquqiy davlatda barcha munosabatlar aniq qoidalar bilan tartibga solingan bo‘lishi kerak. Ammo hayotda shunday vaziyatlar yoki holatlar vujudga kelishi mumkinki, davlat va inson o‘rtasidagi ayrim munosabatlarning echimi qonunchilikda ko‘rsatilmagan yoki noaniqliklarga sabab bo‘lishi aniq. Mana shunday holatlarda muammo kimning foydasiga va qanday tartibda hal etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday holatda Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 20-moddasida belgilanganidek, “Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinadi”.[3]

Deylik, Soliq kodeksining[4] o‘zida muayyan bir masala yuzasidan turlicha norma belgilangan bo‘lishi yoki tadbirkorlikka oid bitta qonunda boshqa norma, ikkinchi qonunda boshqacha norma belgilangan bo‘lishi mumkin. Bunday nomuvofiqlikni, tabiiyki, soliq organi davlat foydasiga, fuqaro esa o‘z foydasiga talqin qilinishini xohlaydi. Konstitutsiyaga kiritilayotgan norma esa shunday nomuvofiqliklar davlat emas, inson foydasiga hal etiladi, degan qat’iy normani aniq-ravshan mustahkamlaydi.

Amaldagi konstitutsiyamiz normalariga e’tiborimizni qaratsak, ko‘p qoidalar umumiy tarzda ifodalanganligini ko‘ramiz. Ya’ni, fuqarolarning o‘z huquqlarini amalga oshirishda, himoyalashda aniq belgilangan qoidalarni kamroq uchratish mumkin. Shu maqsadda ham, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga tegishli normalarni kiritishning hayotiy zarurati paydo bo‘ldi. Misol tariqasida, O‘zbekistonda o‘lim jazosini taqiqlash; “Miranda qoidasi”ni qo‘llash, ya’ni, shaxsni ushlash chog‘ida uning huquqlari va nima sababdan ushlangani sodda tilda tushuntirilishi shartligi; shaxs sudning qaroriga qadar ko‘pi bilan qirq sakkiz soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emasligi; inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi; mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanish kabi yangi normalarni ko‘rsatib o‘tish lozim. Bu normalar so‘zsiz, fuqaroning kunlik hayotida duch keladigan muammolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solishga qaratilgandir. Shu maqsadda ham mazkur muammolarning echimini konstitutsiya darajada mustahkamlab qo‘yilishi, nihoyatda dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda sudlanganlik fakti nafaqat unga, balki uning oila a’zolari, qarindoshlari hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatish holatlari ba’zan uchrab kelmoqda edi. Qonun hujjatlari va sud amaliyoti zarur sharoitda kuch, jumladan o‘qotar quroldan foydalanish va qo‘llash huquqiga ega huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlarini (harbiy xizmatchilarini) qonuniy manfaatlarini birinchi navbatda hisobga olishi shart.[5]

Aytmoqchimizki, demokratik huquqiy jamiyatda davlat majburlovi qonuniylik rejimi sharoitida o‘z-o‘zidan amalga kiritilmaydi. Shunga o‘xshash huquqiy normani qo‘llash bo‘yicha maxsus faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj, asosan davlat majburlovidan foydalanish zarurati bilan belgilanadi. Ushbu huquqiy normalar davlat majburlovini qat’iy belgilangan sharoitda qo‘llashni nazarda tutadi. Amalda esa u faqat qonun vakolat bergan organlar tomonidangina qo‘llaniladi.[6]

Jumladan, bunga yurtimizda inson huquqlari va erkinliklarining har tomonlama himoya qilinishiga, shuningdek yuqoridagi halqaro huquqiy hujjatlarni O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilinishiga, mamlakatimizda inson huquqlarini ishonchli kafolatlanganligining namunasi sifatida qarash mumkin.[7]

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 37-moddasida ifoda qilingan zaruriy mudofaa huquqi fuqarolarning shaxsi, uy-joy va mulk haqidagi konstitusiyaviy qoidalarni kafolatlaydi, fuqarolarning davlat mulkini, davlat va jamoat manfaatlarini qo‘riqlash borasidagi Konstitusiyada belgilangan burchlarni amalga oshirishni ta’minlaydi.[8] Hech bir holatda inson o‘zining yaqinlari yo‘l qo‘ygan xatolar uchun javob berishi mantiqan oqlab bo‘lmaydigan holatdir! Shu maqsadda ham mazkur salbiy illatning oldini olish maqsadida, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 28-moddasida,shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lmasligi kerakligi, qat’iy belgilab qo‘yildi.

Konstitutsiyaviy islohotlarda muhim bir konseptual o‘zgarishga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, endilikda viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari mahalliy Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi to‘g‘risidagi norma qat’iy belgilab qo‘yildi. Endilikda, mahalliy hududlarda ikkita alohida mustaqil tuzilmaga bitta shaxsning rahbarlik qilishiga konstitutsiyaviy jihatdan chek qo‘yildi.

Alohida qayd etish lozimkki sudlarning faoliyatini moliyalashtirish faqat davlat budjetidan amalga oshirilishi hamda u odil sudlovni to‘liq va mustaqil amalga oshirish imkoniyatini ta’minlashi kerakligi to‘g‘risidagi norma *(140-modda)* va boshqa muhim bo‘lgan qoidalar mustahkamlab qo‘yilmoqda. Shuningdek, Konstitutsiyaviy sudning vakolatiga taalluqli masalalar doirasi kengaytirilmoqda va aniqlashtirilmoqda, uning sudyalari faoliyatining kafolatlari kuchaytirilmoqda. Endilikda, Konstitutsiyaviy sudga referendumga chiqarilayotgan masalalarning

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa berishi vakolati belgilanmoqda. Bu albatta, Konstitutsiyaviy sud faoliyatidagi mas’uliyatning oshayotganligidan dalolat beradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, bu konstitutsiyaviy o‘zgarishlar olib borilayotgan islohotlarning boshlanishi, eng muhimi bu yangi qoidalar inson, jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ridan- to‘g‘ri tartibga solishda o‘z kuchi va salmog‘ini ko‘rsatishi lozim bo‘ladi. Qolaversa, xalqimizning konstitutsiyaviy islohotlarga bo‘lgan ishonchini yanada orttirib borish zarur. Demakki, konstitutsiyamizning tegishli normalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi, bu konstitutsiyamizning majoziy ma’noda kuchsizlanishiga emas, aksincha, konstitutsiyamizning yanada takomillashuviga, xalq manfaatlarining kafolatlanishiga hamda insonlarning hayotiy zarurati aks etishiga xizmat qiladi.

References:

1. Гиясов Б. Важность вопросов безопасности в национальном законодательстве. Реформы в сфере подготовки юридических кадров в Узбекистане: анализ результатов и перспективные задачи, 2023, 1(1), стр. 180–185
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, “Adolat” milliy huquqiy axborot tizimi, 2023 y. – B.4.
3. Основной закон Федеративной Республики Германии // https://legalns.com
4. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi // https://lex.uz/docs/-4674902
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, “Adolat” milliy huquqiy axborot tizimi, 2023 y. – B.13.
6. Гиёсов Б. (2020). Анализ некоторых вопросов, исключающих преступность деяния при обеспечении общественной безопасности. *Общество и инновации*, *1*(2/S), 124–130. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol1-iss2/S-pp124-130
7. Гиясов Б. Значение огнестрельного оружия в предотвращении криминогенного воздействия на общественную безопасность //Общество и инновации. – 2024. – Т. 5. – №. 1. – С. 33-40.
8. Гиёсов, Б. (2020). Жамоат хавфсизлигини таъминлашда қилмишнинг жиноят эканлигини истисно этувчи айрим масалалар таҳлили. *Общество и инновации*, *1*(2/S), 124-130.

FUQAROLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARINI HIMOYA QILISH — O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUSIYASINING ASOSIY TAMOYILI

Axmedov Jamoliddin Davronovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
O‘quv-uslubiy boshqarmasi boshlig‘i,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Shokirjonova Ruxsora Murod qizi,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining
Maxsus fakulteti talabasi

Bugungi globallashuv davrida inson huquq va erkinliklari masalasi har bir davlat uchun eng dolzarb yo‘nalishlardan biridir. Insonning qadri, sha’ni va erkinligi — demokratik jamiyatning asosi sanaladi.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 2-moddasida “Har bir inson irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e’tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat’i nazar ushbu Deklaratsiyada e’lon qilingan barcha huquq va erkinlikka ega bo‘lishi zarur” [1] ligi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasini mustaqillikka erishgandan, ya’ni 1991 yil 30-sentabr kuni ratifikatsiya qildi va O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlarini himoya qilish masalasi konstitusiyaviy darajada mustahkamlandi. “Inson — jamiyat va davlatning oliy qadriyati” degan tamoyil O‘zbekistonning huquqiy siyosatida yetakchi o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining muqadimmasida “...O‘zbekistonning yagona xalqi inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligini tantanali ravishda e’lon qilishi” [2] qat’iy belgilab qo‘yilgan.

Konstitusiya muqaddimasi oddiy deklarativ matn emas, balki davlatning siyosiy-huquqiy mohiyati, mafkuraviy yo‘nalishi va konstitusion tuzumini asoslovchi normalar majmuasi sifatida xizmat qiladi. Unda davlat va jamiyat qurilishi uchun ma’naviy va huquqiy poydevor ifodalanadi. Muqaddima qonun normasi kabi bevosita qo‘llanilmasa-da, Konstitusiyani talqin qilishda, qonunlarni mazmunan anglashda va davlat siyosati yo‘nalishlarini belgilashda konseptual ahamiyatga ega.

Bu formula mamlakatdagi barcha fuqarolarni millatidan, irqi, tilidan, dinidan qat’i nazar, yagona siyosiy jamoaga — O‘zbekiston xalqiga mansubligini tasdiqlaydi.

Uning huquqiy ahamiyati quyida namoyon bo‘ladi:

davlat hokimiyatining yagona manbai – xalq ekaniga konstitusion asos yaratadi;

ijtimoiy barqarorlik va milliy totuvlikni mustahkamlaydi;

fuqarolarning huquqiy tengligini kafolatlovchi ideal va meyoriy tamoyil sifatida xizmat qiladi.

Inson huquq va erkinliklariga sodiqlik – konstitusion tuzumning asosiy tamoyili bo‘lib, Muqaddimada inson huquqlarini oliy qadriyat sifatida qayd etilishi o‘zida quyidagi xususiyatlarni ifodalaydi:

davlat hokimiyatining mazmunan insonparvar yo‘nalishini belgilaydi;

qonun ijodkorligida inson huquqlari konsepsiyasini ustuvor qonuniyat sifatida qo‘yadi;

davlat organlari faoliyatini inson huquqlariga moslashtirish majburiyatini yuklaydi.

Bu qoida, Konstitusiyaning 13-moddasidagi “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi” [3] degan qoida bilan uyg‘un holda milliy huquq tizimining asosiy mezonini shakllantiradi.

Muqaddimadagi mazkur formula O‘zbekiston davlatining siyosiy-falsafiy mohiyatini ifodalaydi. Unda xalqning yagona siyosiy subyekt sifatida birligi, inson huquqlari ustuvorligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi hamda davlat suvereniteti kabi tamoyillar Konstitusiyaning barcha normalari uchun konseptual yo‘nalishni belgilaydi. Shu jihati bilan ushbu qoida nafaqat ramziy, balki amaliy-huquqiy ahamiyatga ega ifoda hisoblanadi.

Inson huquqlari — insonning tug‘ilishidan boshlab unga tegishli bo‘lgan tabiiy va ajralmas huquqlardir. Har bir fuqaro teng huquqli, sha’n va qadr-qimmati hurmat qilinishi shart. Bu prinsip O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 13-moddasida mustahkamlangan. Shu modda asosida davlat organlari, mansabdor shaxslar, sudlar va hatto fuqarolarning o‘zlari ham inson huquqlariga hurmat bilan qarashi shart.

Huquq va erkinliklar nafaqat nazariy tushuncha, balki amaliy faoliyatni belgilovchi meyorlardir. Masalan, fuqarolarning yashash huquqi, shaxsiy daxlsizligi, saylash va saylanish huquqi, so‘z erkinligi, vijdon erkinligi, ta’lim olish va tibbiy xizmatdan foydalanish huquqlari inson hayotining turli jabhalarini qamrab oladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan mustaqil tizim shakllangan. Bunga Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman), Bolalar huquqlari bo‘yicha vakil, Milliy markazlar va nodavlat tashkilotlar kiradi.

Oliy Majlisning Inson huquqlari buyicha vakili (Ombudsman) instituti 1995 yilda tashkil etilgan. Ushbu institut MDH hududida birinchilardan bo‘lib O‘zbekistonda ta’sis etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 24 aprelda bo‘lib o‘tgan sakkizinchi sessiyasida “Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Shu kunga qadar

ushbu hujjat Ombudsman vazifalari va vakolatlarini kengaytirish zaruriyati nuqtai nazaridan takomillashtirilib, 2017 yilda yangi tahrirda qabul qilindi. Unga koʻra, Vakil oʻz vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarga tobe boʻlmagan tarzda amalga oshiradi va u Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisobdor [4].

2024 yil 29 fevraldan Oʻzbekiston Respublikasining "Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari boʻyicha vakili (Bolalar ombudsmani) toʻgʻrisida"gi Qonun kuchga kirdi va unga koʻra, bola huquqlari boʻyicha vakil (Bolalar ombudsmani) mansabdor shaxs boʻlib, u davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan bola huquqlari toʻgʻrisidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi [5].

Inson huquqlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Milliy markazi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 31 oktabrdagi "Inson huquqlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Milliy markazini tuzish toʻgʻrisida"gi Farmoniga asosan tashkil etilgan. Markaz inson huquqlari sohasidagi Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarish boʻyicha davlat organlari va boshqa tashkilotlarning oʻzaro hamkorligini, milliy maʼruzalar tayyorlanishini, inson huquqlarini himoya qilish boʻyicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirishni taʼminlovchi davlat organi hisoblanadi [6].

Shuningdek, sud-huquq islohotlari natijasida fuqarolarning konstitusiyaviy huquqlarini sud orqali himoya qilish imkoniyati kengaydi. Masalan, fuqarolar adolatsiz qaror yoki maʼmuriy harakatdan norozi boʻlsa, sudga murojaat qilib oʻz huquqini tiklashi mumkin. Bu — huquqiy davlat tamoyilining amaldagi ifodasidir.

Oʻzbekiston xalqaro miqyosda ham inson huquqlarini himoya qilishga katta eʼtibor qaratmoqda. Mamlakatimiz BMTning inson huquqlari boʻyicha koʻplab konvensiyalarini imzolagan, bu esa xalqaro maydonda Oʻzbekistonning masʼuliyatini yanada oshiradi.

Inson huquqlari haqida faqat nazariy bilimga ega boʻlish yetarli emas — ularni amalda himoya qila olish, ularni qadrlash, oʻz hayotida unga amal qilish ham muhim. Masalan, "Huquqiy ong" va "Fuqarolik masʼuliyati" tushunchalari insonning nafaqat oʻz huquqini, balki boshqalarning ham huquqini hurmat qilish zarurligini anglatadi.

Huquqiy madaniyat — jamiyatda adolat, tenglik va qonun ustuvorligini taʼminlovchi asosiy omillardan biridir. Har bir inson oʻz hayot faoliyatida huquqiy ongni shakllantirib, adolatparvarlik ruhida harakat qilsa, kelajakda jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlashga hissa qoʻshadi.

Har qanday huquqiy tizimda inson huquqlarini himoya qilishda muammolar uchrashi tabiiy. Bunday muammolar orasida huquqiy savodsizlik, maʼmuriy

sustkashlik yoki ba’zi holatlarda korrupsiya ham kiradi. Ammo O‘zbekistonda bu yo‘nalishda so‘nggi yillarda sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Masalan, “Inson qadri uchun” tamoyili asosida qabul qilinayotgan yangi qonunlar, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi, “e-sud” va “my.gov.uz” tizimlari insonning huquqini tez va qulay himoya qilish imkonini beradi. Bu jarayonlar davlat va fuqaro o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish — huquqiy davlatning asosiy tamoyillaridan biridir. Inson huquqlarini ta’minlash, ularni qonun bilan kafolatlash va amalda himoya qilish orqali davlat o‘z fuqarosiga bo‘lgan e’tiborini namoyon etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida inson huquq va erkinliklarini himoya qilish tizimi yanada mustahkamlanadi. Har bir fuqaro o‘z huquqini bilgan, unga rioya qilgan va boshqalarning ham huquqini hurmat qilgan jamiyat — chinakam demokratik jamiyatdir.

Demak, har birimiz, ayniqsa yoshlar, inson huquqlari masalasiga befarq bo‘lmasligimiz kerak. Chunki inson huquqlarini himoya qilish — faqat qonunlar orqali emas, balki har bir fuqaroning ongida, yuragida yashashi lozim bo‘lgan qadriyatdir.

References:

1. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi // https://lex.uz/docs/7338189
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi // https://lex.uz/docs/6445145
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi // https://lex.uz/docs/6445145
4. https://ombudsman.uz/uz/managements/ombudsman
5. https://lex.uz/docs/6823379
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Inson_huquqlari_boyicha_O’zbekiston_Respublikasi_Milliy_markazi

INGLIZ TILIDA MULOQOT SAMARADORLIGINI CLIL TEXNOLOGIYASI BILAN UYG‘UNLASHGAN HOLDA OSHIRISH

Ergasheva Shodiyaxon,
Toshkent davlat pedagogika universiteti 1-bosqich
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim huquqining amalda ro‘yobga chiqarilishi samaradorligini oshirishda CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasining imkoniyatlari tizimli ravishda tahlil qilingan. CLIL yondashuvi o‘quv jarayonida fan mazmuni va chet tilini integratsiyalash orqali talabalarning muloqot kompetensiyasini, fanlararo fikrlashini va akademik savodxonligini oshirishga xizmat qilishi ilmiy asoslar bilan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim huquqi, CLIL texnologiyasi, integratsiyalashgan o‘qitish, muloqot kompetensiyasi, ta’lim sifati, konstitutsiyaviy kafolatlar, pedagogik innovatsiyalar, akademik savodxonlik, inclusive education, multilingual education.

Аннотация. В данной статье систематически анализируется потенциал технологии CLIL (Content and Language Integrated Learning) в повышении эффективности реализации права на образование. Научно доказано, что подход CLIL способствует развитию коммуникативной компетенции, междисциплинарного мышления и академической грамотности учащихся посредством интеграции предметного содержания и иностранного языка в учебный процесс.

Ключевые слова: Законодательство об образовании, технология CLIL, интегрированное обучение, коммуникативная компетентность, качество образования, конституционные гарантии, педагогические инновации, академическая грамотность, инклюзивное образование, многоязычное образование.

Annotation. This article systematically analyzes the potential of CLIL (Content and Language Integrated Learning) technology in improving the effectiveness of the implementation of the right to education. The CLIL approach is scientifically proven to improve students communication competence, interdisciplinary thinking and academic literacy by integrating subject content and a foreign language in the learning process.

Key words: Education law, CLIL technology, integrated learning, communication competence, quality of education, constitutional guarantees, pedagogical innovations, academic literacy, inclusive education, multilingual education.

O‘zbekistonda ta’lim tizimi jadal islohotlardan o‘tmoqda. Maktablar va oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish zaruriyati tug‘ilgan. Hukumat va rahbarlik darajasida ta’lim huquqi — davlat va jamiyat taraqqiyoti asoslaridan biri deb e’tirof etilmoqda. Natijada, ta’limda innovatsiyalar, zamonaviy pedagogik usullar va xorijiy tillarni o‘zlashtirish bo‘yicha choralar kengaydi. Bu sharoitda milliy ta’lim huquqi samaradorligini oshirish uchun yangi pedagogik yondashuv zarur. Til o‘rganish va chet tillarini maktabda, kollej va universitetlarda ham kenglashtirish e’tibor markaziga aylandi. Zamonaviy globallashuv davrida, yoshlar xalqaro maydonda raqobatlashishi uchun chet tilini bilish muhim.

Bu, o‘z navbatida, talabalarni xalqaro standartlarga mos tayyorlashga yordam beradi. Chet tillari orqali madaniy almashinuv esa o‘ziga xos ko‘rinishga ega. Ya’ni, Chet tillari ta’limining muhim qismlaridan biri madaniy almashinuvdir. Konstitutsiyadagi madaniy rivojlanish prinsiplari chet tillarini o‘rganish orqali mamlakatning madaniy almashinuvini hamda xalqaro hamkorligini mustahkamlashga imkoniyat yaratadi. Chet tillarini bilish fuqarolarni boshqa xalqlar bilan madaniy muloqot qilishda, ularning madaniyatini tushunib etishda yordam beradi.[1] Darhaqiqat, tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega til o‘rganuvchilar tengdoshlaridan ustun bo‘lgan qobiliyatlarni namoyish etadilar. Bunday o‘quvchilar, shuningdek, fikrlash ko‘nikmalarini umrbod o‘rganish vositasi sifatida qabul qiladilar, bu esa intellektual, jismoniy, hissiy va ma'naviy muvozanatni mustahkamlaydi. Biroq, nazariyotchilar va o‘qituvchilar orasida tilni rivojlantirishda fikrlash qobiliyatlarining ahamiyati borasida keng tarqalgan kelishuvga qaramay, an’anaviy maktab muhiti ko‘pincha tilni o‘rganish va fikrlash qobiliyatlarini alohida birliklar sifatida ko‘rib chiqadi (Miraman & Tishman, 1988; Suhor, 1984). Aslida, Pica (2000) ta'kidlaganidek, til va fikrlash qobiliyatlarining integratsiyasi tarixan an'anaviy ingliz tilini o‘qitish metodologiyalari doirasida chetda bo‘lgan. Hatto tildan aloqa vositasi sifatida foydalanishga ustuvor ahamiyat beradigan kommunikativ til o‘qitish ham maqsadli tilda malakani yetarli darajada rivojlantirmagani uchun tanqid qilinadi. Haqiqiy tilni bilish o‘quvchilardan tildan foydalanishda ijodiy va tanqidiy fikrlashni talab qiladi.[2]

2023/2024-o‘quv yili uchun 48 ta davlat oliy ta‘lim muassasasining 20 ta xorijiy mamlakat bilan hamkorlikdagi qo‘shma ta‘lim dasturlari ekspertizadan o‘tkazildi. Ijobiy xulosa berilgan 289 ta qo‘shma ta‘lim 301 dasturi uchun 6 818 ta kvota kelishib berilgan. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotiga ko‘ra, O‘zbekistonda 1,3 million nafardan oshiq talaba tahsil olmoqda. Stipendiya dasturlari: Iqtidorli talabalarni nufuzli xorijiy muassasalarda oliy ta‘lim olishda qo‘llab-quvvatlovchi turli stipendiya dasturlari joriy etildi. Jumladan, 2018-yil 25-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5545-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va

vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi” Farmoni qabul qilindi. 2022-yilda Jamg‘arma tomonidan xorijiy davlatlarning nufuzli ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan stipendiatlar 479 tani tashkil etgan.[3]

Konstitutsiyamiz ham mamlakatimizdagi milliy tilni hurmat qilishni va uni rivojlantirishni ta’kidlaydi. Biroq, bu chet tillarini ham o‘rganish zarurligini bildirishini anglatadi. Milliy til va chet tillarning muvozanati ta’lim jarayonida juda muhimdir. Bu fuqarolarning madaniy muloqotini kuchaytirish va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Konstitutsiyada O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatini xalqning manfaatlari asosida rivojlantirishga bag‘ishlangan prinsiplar ham mavjud. Chet tillari o‘rganish xalqaro aloqalarni mustahkamlash, xorijiy hamkorliklar va madaniy almashinuvlarni kengaytirish uchun muhim shart hisoblanadi. Konstitutsiyada ta’lim sohasida samaradorlikni oshirish maqsadida oliy ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratiladi. Oliy ta’lim muassasalarida chet tillari bo‘yicha kurslar, seminarlar va ta’lim dasturlari ishlab chiqilishi kerak. Shu bois, til ta’limi va mazmunli darslar orqali bilim berish usullari izlanmoqda.

Aslini olganda, chet tili – xorijiy mamlakat tili bo‘lib, respublikamizda G‘arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o‘qitilib kelinmoqda. Bu tillar ta’lim muassasalarining o‘quv rejalaridan o‘rin olgan. Uchala tilni o‘qitish jarayoni turlicha kechadi. Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun’iy muhitda o‘rganiladi.[4] Misol uchun, til o‘rganishda bilimlarni yaratish muloqotning to‘rtta elementi bilan shakllanadi: yozuvchi, auditoriya (o‘quvchi), til va voqelik (kontekst). Yozuvchilar bilimni qabul qilishda o‘quvchining rolini ko‘rib chiqishga harakat qilganda, maqolani ishonchli tarzda taqdim etadilar (Hyland, 1996). Shunday qilib, to‘siqlar yozuvchilarga o‘zlarining bayonotlarini mos ravishda modulyatsiya qilishlariga imkon beradi, shuningdek o‘quvchiga virtual muloqot qilish imkoniyatini beradi.[5]

Bu jihatdan CLIL texnologiyasi — mazmun bilan tilni birlashtirgan yondashuv — ayniqsa dolzarb ko‘rinadi. CLIL yordamida talabalar bir vaqtda yangi mavzular, fanlar va tilni o‘rganadi. CLIL texnologiyasining afzalligi shundaki, u nafaqat til kompetensiyasini, balki kulturaviy, kommunikativ va ilmiy kompetensiyalarni ham rivojlantiradi. Talabalar masalan, tarix, tabiiy fanlar, iqtisodiyot yoki ijtimoiy fanlarni chet tilida o‘rganish orqali tilni amaliy muhitda qo‘llaydi. Bu esa til o‘rganishni quruq grammatikadan ko‘ra jonli, samarali va motivatsiyali qiladi. Natijada ta’lim huquqi samaradorligi oshadi: talaba faqat shartli bilim emas, balki amaliy ko‘nikmalar oladi.

O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi, bu shunchaki kun tartibiga qo‘yilgan oddiy masala emas, balki

davlat rahbari tomonidan e’tibor qaratilgan alohida huquq tarmog‘idir. Shuning uchun, Davlat dasturiga[6] muvofiq, xorijiy tillarni o‘rgatishni ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo‘nalishda ta’lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish maqsadida 2021-yil 1-sentabrdan boshlab xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi natijalarga erishgan maktablarni rag‘batlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini ta’sis etildi. Xususan, ta’lim muassasalarining kamida “C1” darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro tan olingan sertifikatga ega xorijiy tillar (ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan, arab, xitoy, yapon, koreys, turk, fors, pushtu, dari, urdu, hind) o‘qituvchilariga ularning bazaviy tarif stavkasiga nisbatan har oylik 50 foiz miqdorida qo‘shimcha ustama haqi to‘lab boriladigan bo‘ldi.[7]

Bundan tashqari, universitetlar, davlat dasturlari, xalqaro grantlar yordamida chet tilida ta’limni kengaytirish tashabbuslari ilgari surilmoqda. Bu — ta’lim huquqini adolatli ta’minlash va talabalar uchun keng imkoniyatlar yaratish yo‘lida muhim qadam. CLIL texnologiyasi o‘sha imkoniyatlarni to‘liq qo‘llashga mos keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 19-maydagi 312-son Qarori ham ushbu masalaga bag‘ishlangan bo‘lib, unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligi tashkil etilib, Agentlikning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy vakillari lavozimlari tashkil etildi. Shu bilan birga, mazkur idora davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va davlat ta’lim muassasalarining xorijiy tillarni o‘qitishni ommalashtirish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish, xorijiy va mahalliy hamkorlar bilan aloqalar o‘rnatib, ularning moliyaviy, tashkiliy va uslubiy ko‘magini mamlakatda xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishga jalb qilishni tashkil etish, vazirlik va idoralar bilan birgalikda davlat xizmatchilarining kasbiy faoliyatini xorijiy tillarda amalga oshirish imkoniyatini beruvchi uslubiyotlarni ishlab chiqib, amaliyotga joriy etishni o‘z zimmasiga oldi.[8]

CLIL asosida dars berish til o‘rganishni faqat dars tiliga bog‘lamaydi, balki fan mazmuni orqali tilni ichidan o‘rgatadi. Bu yondashuvda talabalar tilni o‘rgangan so‘ng, uni amalda qo‘llashadi: matn o‘qish, taqdimot tayyorlash, munozara, ilmiy-tadqiqot ishlari. Bu esa tilni chuqur o‘zlashtirishga olib keladi. Shuningdek, CLIL talabalar motivatsiyasini oshiradi — ular chet tilini faqat o‘rganish emas, balki o‘sha til yordamida yangi bilim va ko‘nikmalar olishini tushunadi. Ta’lim tizimida CLILni joriy etish uchun o‘qituvchilar tayyorgarligi muhim. Maxsus malaka oshirish kurslari, metodik qo‘llanmalar, xalqaro hamkorlik orqali o‘qituvchilar chet tilida ham, pedagogik jihatdan ham tayyor bo‘lishi lozim. Bu esa ta’lim sifati va adolatini ta’minlaydi. Agar o‘qituvchi faqat til bilsa, lekin fan mazmunini berishda tajriba

bo‘lmasa — CLIL samarasi cheklangan bo‘ladi. Shu bois, davlat tomonidan bu yo‘nalish qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Bu, bir tomondan bo‘lajak mutaxassislarning xorijiy til muloqot kompetensiyasi tayyorgarlikning ajralmas qismi bo‘lib, professional muammolarni hal qilish vositasi sifatida xorijiy tildan foydalanish jarayonida samarali o‘zaro ta’sir o‘tkazish imkoniyatlarini beradigan shaxsiy resursdir. Bunda o‘zbek tilida kitoblar shakli uslublararo (badiiy, so‘zlashuv, ilmiy, publitsistik va rasmiy-idoraviy uslublar) eng unumli ishlatiladigan grammatik shakl sifatida gradual parallel qatorning kuchli a’zosi sifatida namoyon bo‘lsa, tillarda funksional chegaralanish (vaziyatga ko‘ra ishlatilishi, og‘zaki nutqda reallashishi)ga, uslubiy va pragmatik jihatdan xoslanganlik (ko‘proq so‘zlashuvga xosligi)ka ega bo‘lgan kitob shakli eng kamunum sherik sifatida gavdalanadi.[9]

O‘qitishda metodik usul, muammoli vaziyatlardan foydalanish quyidagilarni ta’minlaydi: talabalarning muloqot kompetensiyalarini yanada rivojlantirish; yo‘naltirilgan kompetensiyani rivojlantirish; talabalarning ijodiy salohiyati va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish; muammoli-faollik yondashuvining mohiyatini ochib beradigan ingliz tilini integratsiyalashuv jarayonida professional muhim vazifalarni hal qilish asosida o‘z ufqlarini kengaytirish.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan modelda muloqot kompetensiyasi komponenti bu: kognitiv, rivojlanish, integral. Muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining modelini amalga oshirish maxsus texnologiyadan foydalanishni talab qiladi, unga muvofiq aloqa jarayonida til hodisalarining vazifasi ifoda shakllarini tuzishda ustuvor hisoblanadi. Barkamollikning mohiyati nafaqat talabaning xabardorligida, balki voqelik hodisalarini bilish va tushuntirishda, zamonaviy texnologiyalar va texnologiyalarni rivojlantirishda va amaliy hayotda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish qobiliyatida fuqaroning ijtimoiy rolini bajarish. Ta’limning hozirgi bosqichida muammoli o‘qitish barkamol rivojlangan ijodiy shaxsni shakllantiradi, mantiqiy fikrlashga, turli muammoli vaziyatlarda echim topishga, nafaqat yangi bilimlarni egallashga, balki yangi ko‘nikmalarni rivojlantirishga ham qodir. Mutaxassislarning muammoli-faollik yondashuvining mohiyati shundan iboratki, chet tili ta’limi jarayonida talabalar olingan bilimlarga tayanib, professional ahamiyatga ega bo‘lgan muammoni mustaqil kashf etadilar va tushunadilar, aqliy va amaliy tartibda harakat qiladilar.

Shunday qilib, xorijiy til darslarida talabalarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish, bir tomondan, shaxsiyatning rivojlanishiga, ikkinchi tomondan, kommunikativ qobiliyatga yordam beradi, bu unga shaxsiy hayotida rivojlanayotgan hayotiy va amaliy vaziyatlarni hal qilishga imkon beradi. to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati, shaxsiy javobgarlik, maqsadlarga yerishish bilan bog‘liq muammolarga e’tibor, mustaqil fikrlash, o‘ziga xoslik va o‘zini tuta bilish.

Xulosa qilib aytganda, CLIL texnologiyasi — ta’lim huquqi samaradorligini oshirishda zamonaviy va strategik vosita. U til, bilim va kompetensiyalarni birlashtirib, yoshlarni global maydonga tayyorlaydi. O‘zbekiston sharoitida CLIL joriy etilishi ta’lim tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtiradi. Talabalar, o‘qituvchilar va jamiyat bu integratsiyadan foyda ko‘radi. Bu shunchaki didaktik vosita emas, balki O‘zbekistonning intellektual, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi uzoq muddatli strategik mexanizmdir. Mazkur integratsiya natijasida yangi avlod malakali kadrlari shakllanib, millatning global raqobatbardoshlik saloxiyati oshadi.

References:

1. Ergasheva Sh.E., O‘zbekiston Konstitutsiyasining chet tillari o‘rganishdagi ahamiyati. “Yangilangan Konstitutsiya - inson – jamiyat – davlat munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy qonun: ilmiy tahlil va amaliy yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2024-yil 6-dekabr. 294-295-betlar.
2. Ergasheva Sh.E., Enhancing critical thinking skills at the lessons og foreign language. “Research-based transformation of teacher aducation: tradition as a basis for innovation” international conference on teacher education. P 547-551.
3. Ergasheva Sh.E. Ta’lim olish huquqini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari. “Inson qadrini ulug‘lovchi xalqparvar davlat barpo etish” мавзусидаги respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2023-yil 20-aprel. 132-bet.
4. Ergasheva Sh. Sun’iy intellekt orqali mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishishda xorijiy tillarning o‘rni. “Iqtisodiyotda sun’iy intellektni qo‘llashning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya maqola va tezislar to‘plami. 2025-yil 14-mart. 425-bet.
5. Ergasheva Sh.E., “Softening (hedging)” is a real language phenomenon. Teacher. ISSN: 2181-0850. VOLUME 2, ISSUE 3. Page 81-82.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son Farmoni // https://lex.uz/uz/docs/5260791#5263271
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son Qarori // https://lex.uz/uz/docs/5426736
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 312-son Qarori // https://lex.uz/uz/docs/5431845
9. Ergasheva Sh. Ingliz tilida lisoniy til taktikasi ma’nolarini farqlash usuli. “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy elektron jurnali. 103-bet.

ATROF-MUHIT HOLATI TO‘G‘RISIDA ISHONCHLI AXBOROT OLISH HUQUQI - EKOLOGIK TARAQQIYOT VA DEMOKRATIK HUQUQIY RIVOJLANISH POYDEVORI

Mamadaliyev Buzrukxo‘ja Xayrullayevich,
O‘zMU, Ijtimoiy fanlar fakulteti, Huquqiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi,
Toshkent shahri, O‘zbekiston Respublikasi, 90-320-48-42

Annotatsiya: tabiatni muhofaza qilish, atrof-muhit holati, ekologik taraqqiyot, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilish, atrof-muhit holati to‘g‘risida ishonchli axborotga ega bo‘lish.

Kalit so‘zlar: axborot, atrof-muhit, qaror, taraqqiyot, fuqarolar.

Аннотатsiя: охрана природы, состояние окружающей среды, экологическое развитие, patsiональное использование природных ресурсов, принятие решений по вопросам охраны окружающей среды, наличие достоверной информatsii о состоянии окружающей среды.

Ключевые слова: информatsiя, окружающая среда, решение, развитие, граждане.

Annotation: nature conservation, state of the environment, environmental development, rational use of natural resources, decision-making on environmental protection issues, availability of reliable information on the state of the environment.

Keywords: information, environment, decision, development, citizens.

Mamalakatimizda bugungi kunga kelib, davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim masalalardan biri bu tabiatni muhofaza qilish va ekologik muvozanatni saqlashdir. Texnologiya va sanoatning jadal rivojlanishi, aholi sonining ortishi hamda tabiiy resurslardan cheklovsiz foydalanish natijasida atrof-muhitga salbiy ta’sir kuchayib bormoqda. Shuning uchun ham fuqarolarning atrof-muhit holati to‘g‘risida ishonchli axborotga ega bo‘lishini, ekologik masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etishini ta’minlab berish davlatimiz tomonidan maqsad etib qo‘yilgan ekologik taraqqiyot va demokratik huquqiy rivojlanishning muhim asosi hisoblanadi. Fuqarolarning atrof-muhit holati to‘g‘risida ishonchli axborotga ega bo‘lish, ekologik masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etish masalasiga to‘xtalishdan avval ekologik taraqqiyot tushunchasi qanday ma’noga ega ekanligini tushuntirib o‘tmoqchimiz.

Ekologik taraqqiyot bu davlat va jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy sohalardagi olib borayotgan faoliyatlarini, davlatning sohalarda rivojlanishini tabiatga ehtiyotkorona munosabat bo‘lish bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan barqaror rivojlanish yo‘li hisoblanadi.

Ekologik taraqqiyotning asosiy maqsadi – insonlarning va ular faoliyatining tabiatga ta’siri natijasida kelib chiqadigan ekologik muammolarni kamaytirish, tabiiy

resurslardan oqilona foydalanish va kelajak avlodlar uchun sog‘lom muhitni ta’minlab berishdan iborat. Shuning uchun ham ekologik taraqqiyot davlatni barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, ekologik taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Tabiatni muhofaza qilish siyosati – suv, havo, yer va biologik xilma-xillikni asrab-avaylash, ifloslanish manbalarini kamaytirish;

2. Ekologik ta’lim va tarbiya – aholi, ayniqsa yosh avlodning tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishini shakllantirish;

3. “Yashil iqtisod”ni rivojlantirish – ishlab chiqarish jarayonlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish;

4. Qonunchilik va nazorat tizimi – davlat tomonidan ekologik xavfsizlikni ta’minlaydigan qonunlar va normativ-hujjatlarni qabul qilish.

Bugungi kunga kelib dunyoda tez hal qilinishi kerak bo‘lgan muammo bu albatta ekologik muammolardir. Xalqaro tashkilotlar, rivojlangan davlatlar tomonidan o‘tkazilayotgan tadbirlarning barchasida kun tartibidagi masalalar ichida eng avvalo, atrof-muhitni muhofaza qilish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, ingliz olimi Devid R. Boyd ham bu masalaga to‘xtalib, “Iqlim o‘zgarishi hamda insonning yashash, sog‘liq, ovqatlanish, suv va sanitariya, sog‘lom atrof-muhit, munosib turmush darajasi, uy-joy, mulk, o‘z taqdirini o‘zi belgilash kabi fundamental huquqlarining buzilishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tasdiqlaydi”[1]

Respublikamizda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida qabul qilingan qonunlar eng avvalo, jamiyatni sog‘lom turmush tarzini ta’minlashga qaratilgan. Fuqarolarning atrof-muhit holati to‘g‘risida ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqi, ekologik masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etish huquqi jamiyatda sog‘lom turmush tarzini ta’minlashda, ayniqsa katta ahamiyatga ega. Zero, toza, sog‘lom tabiat insonlarning ekologik huquqlari amalda ta’minlashni asosiy omili ekanligini dunyo ekolog ekspertlari ham ta’kidlab o‘tganlar. Chunonchi, “Sog‘lom atrof-muhitni inson huquqlaridan foydalanish uchun dastlabki shart sifatida ko‘rish mumkin, chunki u ma’lum bir huquqdan foydalanish uchun zarur (masalan, toza ichimlik suvi mavjudligi orqali sog‘liq huquqi) yoki umuman inson huquqlaridan foydalanish va ularni ta’minlash imkoniyatini beradi”[2].

2021 yil holatiga ko‘ra, BMTga a’zo 193 ta davlatdan 155 tasi sog‘lom atrof-muhitga bo‘lgan huquqni o‘z konstitutsiyasida, atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida, sud qarorlarida yoki xalqaro shartnomani ratifikatsiya qilish orqali tan olgan[3].

Sog‘lom atrof-muhitni yaratish, tabiatni salbiy ta’sirlardan himoya qilishda fuqarolarning ekologik huquqlarini amalda bajarilishi asosiy o‘rin tutib, ayniqsa fuqarolarning atrof-muhit holati to‘g‘risida ishonchli axborotga ega bo‘lish

huquqidan, ekologik masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etish huquqidan amalda foydalanishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolarning mazkur huquqlarining huquqiy asoslari bizning normativ-hujjatlarimizda o‘z ifodasini topgan.

Fuqarolarning atrof-muhit holati to‘g‘risida ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqi va atrof muhitga taalluqli qarorlar bilan tanishib chiqish huquqining rahbariy kafolati bu O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi hisoblanadi. Konstitutsiyamizning **49-moddasida** “Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkaziladi.

Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘radi.” [4]. Ushbu norma fuqarolarga atrof-muhit holati haqidagi ishonchli axborotga ega bo‘lishni ya’ni, tabiatga ta’sir etayotgan yoki ta’sir etishi mumkin bo‘lgan harakatlar (faoliyatlar) haqida to‘g‘ri ma’lumotlarni olishni, ular bilan tanishib chiqishni va ulardan foydalanishni kafolatlaydi. Shuningdek, asosiy qonunimizning **34-moddasida** “Davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari har kimga o‘z huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish imkoniyatini ta’minlashi shart” deb belgilangan [5]. Demak, barcha davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan qarorlar bilan tanishib chiqishga imkoniyat yaratib berishlari lozim. Fuqarolarning ushbu konstitutsiyaviy huquqi ularga atrof-muhit holati to‘g‘risida ishonchli axborotga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Fuqarolarning atrof-muhit holati to‘g‘risida ishonchli axborot olish huquqining kafolati asosiy Qonunimizdan tashqari milliy qonunchiligimizda ham o‘z aksini topgan. Xususan, fuqarolarning atrof-muhit holati to‘g‘risida ishonchli axborot olish huquqini ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 5 mayda qabul qilingan **“Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonuni** muhim o‘rin tutadi [6]. Chunki, ushbu qonunning qabul qilinishi fuqarolarning ekologik qarorlar qabul qilishda ishtirok etish va atrof muhitga taalluqli qarorlar bilan tanishib chiqishga bo‘lgan huquqlarini ta’minladi. Jismoniy va yuridik shaxslarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to‘g‘risidagi

axborotdan foydalanishini ta’minlash, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risida axborot olish huquqining kafolatlarini ta’minlash, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining qabul qilinayotgan qarorlar uchun mas’uliyatini oshirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risidagi axborotni tarqatish tartibini belgilash qonunning asosiy vazifalari etib belgilandi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan shuni xulosa qilishimiz mumkin-ki, O‘zbekiston Respublikasida ekologik taraqqiyotga katta e’tibor qaratilmoqda. Respublikamizda atrof muhitni muhofaza qilishga oid normativ-hujjatlar qabul qilinmoqda va mavjudlari shakllantirilmoqda, shuningdek “Yashil makon” umummilliy dasturi, hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish strategiyalari amalga oshirilmoqda. Bu choralar ekologik barqarorlikni ta’minlash, aholi sog‘ligini muhofaza qilish va tabiat resurslarini kelajak avlodlar uchun asrab qolishga xizmat qiladi. Zero, ekologik taraqqiyot bu faqatgina atrof-muhitni muhofaza qilish emas, balki inson va tabiatning uyg‘un hamkorligiga asoslangan yangi rivojlanish modelidir. U jamiyat taraqqiyotini barqaror, xavfsiz va insonparvar yo‘nalishda davom ettirishning asosiy garovidir.

References:

1. Devid R. Boyd (David R. Boyd), Britaniya Kolumbiya universitetining huquq, siyosat va barqarorlik kafedrasi dotsenti. U 2018 yil avgustidan BMTning inson huquqlari va atrof-muhit bo‘yicha maxsus ma’ruzachisi. https://www.the-possible.com/human-right-healthy-environment.
2. Jon Noks “Xavfsiz, toza va sog‘lom atrof-muhitdan foydalanish bilan bog‘liq inson huquqlari majburiyatlari masalasi bo‘yicha mustaqil ekspert hisoboti” (Mapping Report, UN Doc No A/HRC/25/53); Filipp Sands “Xalqaro ekologik huquq tamoyillari” (Cambridge University Press, 2-nashr, 2003); Patrisiya Birni va Alan Boyl “Xalqaro huquq va atrof-muhit” (Oxford University Press, 2-nashr, 2002); Shelton “Inson huquqlari, atrof-muhit huquqlari va atrof-muhitga bo‘lgan huquq"; Ksentini Fatma “Inson huquqlari va atrof-muhit bo‘yicha maxsus ma’ruzachining ma’ruzasi” (UN Doc E/CN.4/Sub.2/1994/9); Neil Popovich “Xalqaro inson huquqlari va davlat konstitutsiyalari bilan ekologik adolatni ta’minlash (Stanford Environmental Law Journal 338, 340); Inson huquqlari va atrofmuhit, Inson Huquqlari Kengashi 16/11, 16-sessiya, Kun tartibining 3-bandi, UN Doc A/HRC/Res/16/11 (24 March 2011).
3. Inson huquqlari kengashining 48 sessiyadagi hisoboti (2021 yil 13 sentyabr-11 oktyabr) A/76/53/Add.1 13 bet, https://documents-dds-ny.un.org/doc/UNDOC/GEN/G21/294/34/PDF/ G2129434.pdf?OpenElement.

4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023, 03/23/837/0241-son.

5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023, 03/23/837/0241-son.

6. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 19-son, 209-modda; 2017 y., 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.08.2019 y., 03/19/559/3670-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son; 29.11.2023 y., 03/23/880/0905-son.

HARBIY AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARGA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINI O‘QITISH TIZIMI VA UNDA “KONSTITUTSIYAVIY HUQUQQA KIRISH” FANINING O‘RNI

Shakirova Nafisa Abrarovna,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Toshkent “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi
nafisashakirova26@gmail.com
Tel:(94)-698-52-17

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Temurbeklar maktabi” Harbiy akademik litseylarida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘qitish tizimi va Konstitutsiyaviy huquqqa kirish fanini huquqiy adabiyot va darsliklar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Konstitutsiya turlari, huquqiy davlat,ijtimoiy davlat, dunyoviy davlat, dastur, qonun, harbiy, litsey

Barcha jamoalar uchun umumiy va doimiy konstitutsiya yaratish imkonsiz, har bir avlod o‘z konstitutsiyasini yaratish huquqiga ega.
Tomos Jeferson[3. 10-b]

O‘zbekiston Respublikasida amaldagi ta’lim qonunchiligi so‘nggi yillarda takomillashib, o‘quvchi yoshlarning bilim olishlari va ularni kelgusida yetuk va malakali kadr bo‘lib yetishishlari uchun huquqiy asos sifatida ahamiyatga egadir. Zotan, ta’lim olish huquqi mamlakatimizda konstitutsiyaviy kafolatlangani fikrimizning yorqin isbotidir. Ayniqsa, maktab va litseylarda huquq fanlarini o‘qitish borasida olib borilayotgan islohotlar haqida gap ketganda, alohida ta’kidlash lozimki, huquqiy fanlardagi mavzularning barchasi o‘quvchilarni huquqiy munosabatda ishtirok etishda huquq normalariga rioya etish asosida tarbiya qilinadi.

Bugungi kunda “Temurbeklar maktab”larida huquqiy ta’lim sifati va samaradorligini oshirish dolzarb ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 iyundagi PQ-4375-sonli “O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash

tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risida qaroriga muvofiq bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar**,** Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiyasi tarkibida prinsipial yangi «Temurbeklar maktabi» harbiy-akademik litseylari faoliyat yuritmoqda.

2024-2025-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent «Temurbeklar maktabi» harbiy-akademik litseyi tarixida ham muhim yil bo‘ldi.Ushbu yildan boshlab harbiy-akademik litseyida Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishida huquqshunoslik fanlari chuqurlashtirilgan fanlari tizimiga kiritildi.Natijada harbiy-akademik litseyimizda:

- Davlat va huquq asoslari;
- Konstitutsiyaviy huquqqa kirish;
- Huquqiy ko‘nikmalar

kabi fanlardan ta’lim jarayoni tashkil etilmoqda.

Ushbu fanlar orasida “Konstitutsiyaviy huquqqa kirish” fani Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishida 1-bosqich 2-semestrda 36 soat, 2-bosqich 3-semestrda 36-soat o‘tiladi.

Ushbu fan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2024-yil 20-avgustdagi 9-son majlis bayoni bilan ma’qullangan hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-sentabrdagi 333-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan dastur asosida darsning ishchi o‘quv rejasi, taqvim rejasi va dars rejasi tashkil etiladi. [2. 2-b]

Biz bilamizki, har bir mamlakatning o‘z huquq tizimi mavjud bo‘lib, shunga mos ravishda huquqiy fanlar tizimi mavjud. Mamlakatimiz huquqiy fanlar tizimida “Konstitutsiyaviy huquq” fani mavjud, va u Konstitutsiyaviy huquqni o‘rganishda, bu huquq bilan tartibga solinadigan munosabatlarni chuqur anglashda, Konstitutsiyaviy huquq normalarini takomillashtirishda alohida ahamiyatga ega.

Konstitutsiyaviy huquqqa kirish fani esa, O‘quv fani doirasida o‘rganilishi lozim bo‘lgan talablarga muvofiq Konstitutsiya va qonunlar bo‘yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlar berish, Konstitutsiyaning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini, uning mazmun-mohiyatini o‘quvchilar ongiga singdirish, qonunlarga hurmat tuyg‘usini uyg‘otish, yosh avlodning huquqiy ongini oshirish va huquqiy madaniyatini yuksaltirish hamda huquqiy davlatni bunyod etishda faol ishtirok etadigan huquqiy bilimga ega komil insonni tarbiyalashga qaratilgan.

Shuningdek, ushbu fan bo‘yicha o‘quvchilarda Konstitutsiyaviy huquq fanining mazmuni va mohiyatini tushuntirish, Konstitutsiyaviy huquq fanining bilishga oid bilimlarga ega bo‘lish, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini sharhlash bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish, muammoli vaziyatlarga

nisbatan qonun hujjatlarini izlash va qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, mantiqiy va muammoli savollar bo‘yicha huquqiy asoslantirilgan holda javob berish ko‘nikmasini shakllantirish, mustaqil ta’lim orqali o‘quvchilarga bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga ko‘maklashishdan iborat.

O‘quv fani davomida rivojlangan xorijiy mamlakatlarning, jumladan, huquqiga oid tajribalari bilan ham tanishadilar. [2. 3-b]

Harbiy-akademik litseyda Konstitutsiyaviy huquqqa kirish fanini o‘qitishning maqsadi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida o‘quvchilarga huquqiy bilimlar berish orqali ularda huquqiy ong va huquqiy tafakkurni shakllantirish;

o‘quvchilarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ularda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish;

Konstitutsiyaviy huquq fanini o‘qitishning asosiy vazifasi:

o‘quvchilarda konstitutsiyaviy burch, majburiyatlarni bilish va ularga rioya qilish ko‘nikmasini hosil qilish;

o‘quvchilarda o‘z xatti-harakatlarini belgilangan me’yorlar doirasida tartibga solish va boshqara olishni tarbiyalashdan iborat.

Ikki semestr davomida fan quyidagi mavzular asosida darslar tashkil etiladi:

1. Konstitutsiyaviy huquqqa kirish fani tushunchasi va ahamiyati;
2. Konstitutsiyaviy nazariya asoslari;
3. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzum asoslari;
4. Shaxsning huquqiy holati. Fuqarolik;
5. Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar va burchlar;
6. Fuqarolarning huquq va erkinliklarining kafolatlari;
7. Jamiyat va shaxs;
8. Ma’muriy hududiy va davlat tuzilishi;
9. Oliy davlat hokimiyat organlarini tashkil etish asoslari va qonun chiqaruvchi hokimiyat;
10. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti;
11. Ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshirishning huquqiy asoslari;
12. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tashkil etish;
13. Saylov tizimi;
14. Sud hokimiyatini amalga oshirish asoslari;
15. Advokatura instituti;
16. Prokuratura Moliya, pul va bank tizimini amalga oshirishning konstitutsiyaviy huquqiy asoslari organlar;
17. Mudofaa va xavfsizlik;
18. Konstitutsiya o‘zgartirish kiritish tartibi.

Demak, e’tibor bersak mavzular O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida tuzilgan bu esa, o‘quvchini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini nafaqat yod olishi shu bilan birga har bir darsda izchillik bilan fani chuqur o‘rganishiga undaydi.

Mavzulardan kelib chiqib darslarni tashkil etishda asosan quyidagi manbalardan foydalansak maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- 9-sinf Davlat va huquq asoslari darsligi;
- Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq;
- Yangilanayotgan Konstitutsiya. 100 savolga 100 javob;
- Husanov.O.T.Konstitutsiyaviy huquq atamalari.

Yuqoridagi manbalarni asosida darsni qiziqarli tashkil etishimiz mumkin. Masalan,

Konstitutsiyalar turlari haqida o‘quvchilarga qiziqarli ma’lumotlar yetkazishda biz, Davlat va huquq asoslari darsligidan foydalanishimiz lozim. Chunki ushbu darslikda ma’lumot o‘quvchiga qiziqarli qilib yetkazilgan.



[3. 7-b]

Yoki O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida:

“O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Davlatning “O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” degan nomlari bir ma’noni anglatadi.” . [1. 4-b]deb keltirilgan.

Ushbu moddani o‘quvchilarga qiziqarli qilib tushuntirishda Yangilanayotgan Konstitutsiya. 100 savolga 100 javob va Husanov.O.T.Konstitutsiyaviy huquq atamalari manbalari asosida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

“O‘zbekiston — huquqiy davlat”, deb mustahkamlanmoqda. Konstitutsiyada O‘zbekiston huquqiy davlat ekanligini alohida belgilash —Ispaniya, Turkiya konstitutsiyalarida o‘z davlatini huquqiy davlat deb belgilashga oid normalar mustahkamlangan. [4. 7-b]

Endi, Ijtimoiy davlat: Ijtimoiy davlat prinsiplari Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Xorvatiya, Turkiya va boshqa bir qator davlatlar konstitutsiyalarida

mustahkamlangan. O‘zbekistonni ijtimoiy davlat deb belgilash — ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar va jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni yumshatish, ayniqsa, ijtimoiy himoyalanmagan yoki ehtiyojmand qatlamni qo‘llab-quvvatlash orqali ularga munosib turmush sharoitini yaratishga xizmat qiladi.. [4. 8-b]

Dunyoviy davlat prinsiplari ko‘plab xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarida (Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston) mavjud. Masalan, o‘z konstitutsiyasida ushbu prinsipni belgilagan Turkiya tajribasi ham shundan dalolat beradi, dunyoviy taraqqiyot va barcha demokratik tizimlarda dunyoviy davlatning asosiy prinsiplaridan biri — vijdon erkinligi kafolatlangan.O‘zbekistonda 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2300 dan ortiq diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Turli diniy e’tiqodga mansub aholiga ega davlatda e’tiqod erkinligining kafolatlanishi siyosiy va huquqiy ahamiyat bilan birga, ijtimoiy ahamiyatga ega. Shu bois har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga egaligi, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilangan bo‘lib, shuningdek diniy e’tiqod bo‘yicha unga qo‘shimcha huquq yoki majburiyatlar yuklanmaydi. O‘zbekistonni dunyoviy davlat sifatida belgilash — dunyoviy taraqqiyot, turli din va mazhablar o‘rtasida barqarorlik va totuvlikning mustahkamlanishiga, diniy birlashmalarning mustaqil faoliyat yuritishiga, din va e’tiqod erkinligining ta’minlanishiga xizmat qiladi. [4. 11-b]

Yoki, Suverenitet so‘zini o‘quvchilarga tushuntirishda Suverenitet tushunchasi fransiyalik huquqshunos olim Jan Boden tomonidan kiritilgan hamda barcha xalqlar davlatchiligida mustaqillik ma’nosida ishlatilishini xalqaro ahamiyat kasb etishini [3. 15-b] misol qilib, keltirishimiz mumkin.

Birgina O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini 1-moddasini o‘quvchilarga tushuntirishda qancha qiziqarli ma’lumotlardan foydalansak bo‘ladi.

Har bir mavzuni o‘quvchilarga tushuntirishda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini har bir, bo‘limi, bobi, moddalarini chuqur tahlil qilgan holda o‘quvchilarimizga manbalar asosida, multimedia ishlanmalari, taqdimotlar, har bir mavzu yuzasidan qiziqarli kazus savollar va test topshiriqlari asosida darslarni tashkil etsak o‘quvchilarimiz kelajakda fuqarolik burchlari va majburiyatlarining mazmun-mohiyatini anglay oladigan hamda ularga ongli ravishda rioya qiladigan, huquq manbalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan, o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini huquqiy mexanizmlar asosida himoya qila oladigan shaxsni shakllantirish muhim ijtimoiy vazifalardan biridir. Bunday shaxs huquqiy voqea va hodisalarni tahlil qilish, ular yuzasidan asosli xulosa chiqarish, korrupsiyaning jamiyat hayotidagi salbiy oqibatlari to‘g‘risida yetarli bilimga ega bo‘lishi bilan birga, unga qarshi kurashishning me’yoriy-huquqiy asoslarini amaliyotda qo‘llash kompetensiyasini ham egallaydi.

Shuningdek, u jamiyat va davlat hayotida kechayotgan siyosiy jarayonlarda faol ishtirok eta oladigan, o‘zining huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini

ro‘yobga chiqarish jarayonida asosli, ijtimoiy mas’uliyatga tayangan qarorlar qabul qila oladigan ijtimoiy yetuk shaxs sifatida shakllanadi.

Mazkur talablarga javob beruvchi “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyining bitiruvchilari istiqbolda o‘z kasbiy yo‘nalishining yuqori malakali, raqobatbardosh va vatanparvar mutaxassisi sifatida kamol topishlari kutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati :

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – B.: 4

2. Konstitutsiyaviy huquqqa kirish.chuqurlashtirilgan, Akademik litseylar uchun na’munaviy o‘quv dastur 2024. – B.:2,3

3.Davlat va huquq asoslari 9-sinf: Respublika ta’lim markazi,2024– B.:7,10,15

4. Yangilanayotgan Konstitutsiya. 100 savolga 100 javob. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti. – Toshkent. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2023 yil. – B.:7,8,11.

BOLALAR HUQUQLARI DAVLAT HIMOYASIDA: VOYAGA YETMAGANLARDAGI OG'ISHLAR PROFILAKTIKASI (O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI ASOSIDA)

Obloqulova Shohista Xaydar qizi,
Jamoat xavfsizligi universiteti Psixologiya mutaxasisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi deviant (og‘ishli) xulq-atvor muammosining O‘zbekiston jamiyatidagi dolzarbligini tahlil qiladi. Maqolada huquqbuzarliklarning oldini olishda jazo choralaridan ko‘ra ijtimoiy-pedagogik yondashuv va Konstitutsiyaviy huquqlarni ta’minlash ustuvor ekanligini ta’kidlab, bolaning hayotini ijobiy ma’no va maqsadlar bilan to‘ldirish profilaktikaning eng samarali yo‘li ekanligini ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: deviant, huquqbuzarliklar, nazoratsizlik qarovsizlik, addiktiv xulq, destruktiv xulq, profilaktika ishi.

Анататсия: Данная статья анализирует актуальность проблемы девиантного (отклоняющегося) поведения среди несовершеннолетних в обществе Узбекистана. В статье подчёркивается, что социально-педагогический подход и обеспечение конституционных прав имеют приоритет перед мерами наказания в предотвращении правонарушений, а наполнение жизни ребёнка положительным смыслом и целями выдвигается как наиболее эффективный путь профилактики.

Ключевые слова: девиантное, правонарушения, безнадзорность, беспризорность, аддиктивное поведение, деструктивное поведение, профилактическая работа.

Annotation: This article analyzes the relevance of the problem of deviant (aberrant) behavior among minors in Uzbek society. The article emphasizes that a socio-pedagogical approach and the assurance of constitutional rights take precedence over punitive measures in the prevention of offenses, and suggests that filling a child's life with positive meaning and goals is the most effective way of prevention (prophylaxis).

Keywords: deviant, offenses (delinquency), neglect (lack of supervision), homelessness (destitution), addictive behavior, destructive behavior, preventive work (prophylactic work).

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida ijtimoiy normalarga va huquqiy talablarga zid bo‘lgan xulq-atvor (deviant xulq) namoyish etilishi dunyo miqyosida, binobarin O‘zbekiston jamiyatida ham dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Yosh avlod — har bir davlatning strategik resursi va kelajagi ekan, ularning sog'lom va qonunga itoatkor shaxs sifatida shakllanishi milliy xavfsizlik darajasidagi ahamiyatga egadir.

Hozirgi kunda deviant xulq-atvorning turlari juda ko‘p va xilma-xildir. Bularning eng xavflilari bevosita huquqbuzarliklar (mayda bezorilik, o‘g'rilik, ijtimoiy tartibni buzish) bo‘lsa, ularning ortida ko‘pincha addiktiv xulq-atvor (giyohvandlik, alkogolizm, tamaki mahsulotlariga ruju qo‘yish) yoki destruktiv xulq (o‘ziga yoki atrofidagilarga agressiya, vandalizm) yotadi. Zamonaviy dunyoda esa, internet va gadjetlarga haddan tashqari qaramlik (kiber-deviatsiya) kabi yangi og'ish turlari ham paydo bo‘lib, ular yoshlarning ijtimoiy hayotdan uzilib qolishiga sabab bo‘lmoqda.

Bunday og'ishlar shaxsning kelajakdagi hayotiga jiddiy zarar yetkazishdan tashqari, ijtimoiy muhitni buzadi va zarar yetkazadi, jinoyatchilik darajasini oshiradi va eng muhimi, butun jamiyatda ishonch va barqarorlikka juda katta putur yetkazadi. Voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi og'ishlar ko‘pincha oilaviy muammolar asosida shakillanadi, ta'limdagi bo‘shliqlar esa jamoaviy ongsizlik holatiga olib keladi, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik va nazoratning zaiflashuvi esa ularning to‘g’rilik eshigini yopib, buzg’unchilik tomon harakatlanishini taminlaydi, mana bular esa asosiy sabablardan biri bo‘lib kelmoqda.

Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – davlatning asosiy huquqiy hujjati sifatida – ushbu muammoga qarshi kurashish va uning oldini olish (profilaktika) uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratadi. Davlatning asosiy maqsadi nafaqat qonunni buzganlik uchun jazolash, balki avvalo, bolani himoya qilish va uni to‘g'ri yo‘lga yo‘naltirishdan iborat. Bu esa, bevosita Qonunchilik palatasi tomonidan 2010-yil 12-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2010-yil 28-avgustda ma’qullangan, moddalarni o‘zida mujassamlashtradi. Bu moddalar esa quyidagilar; **2-modda**. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va

huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risidagi qonunchilik, Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun hamda boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi: voyaga yetmagan — o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxs; voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi — voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi; ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmagan — voyaga yetmaganning nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida uning hayoti yoki sog‘lig‘i uchun xavf tug‘diradigan yoxud uni ta’minlash, tarbiyalash va unga ta’lim berish talablariga javob bermaydigan sharoitda bo‘lgan yoxud huquqbuzarlik yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etayotgan voyaga yetmagan;

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan oila — ota-ona yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslar voyaga yetmaganlarni ta’minlash, tarbiyalash va ularga ta’lim berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo‘layotgan oila;

Nazoratsiz — ota-ona yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmaganni ta’minlash, tarbiyalash va unga ta’lim berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida xulq-atvori nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan;

Yakka tartibdagi profilaktika ishi — ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni o‘z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishining oldini olishga doir faoliyat;

Qarovsiz — aniq yashash joyi bo‘lmagan nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan;

G‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar — voyaga yetmaganning muntazam ravishda spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarni iste’mol qilishida, fohishalik, tilanchilik bilan shug‘ullanishida ifodalanadigan xatti-harakatlari, shuningdek o‘zga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzadigan boshqa xatti-harakatlari[1].

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olishda davlatning yondashuvi hozirgi kunda tubdan o‘zgarmoqda. Bu jarayonning boshida Prezident **Shavkat Mirziyoyev**ning yoshlarga oid strategik qarashlari turadi. Davlat rahbari yoshlar bilan muloqotlarida har doim ularni himoya qilish va ularning sog'lom kamoloti uchun sharoit yaratish eng ustuvor vazifa ekanligini ta'kidlaydi.

Prezidentning 2020-yil dekabr oyida Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasidagi quyidagi so‘zlar bu borada davlat siyosatining chuqur ma'nosini ochib beradi desak mubolag’a bo‘lmaydi.

"Bizning asosiy vazifamiz — yoshlarimizning ilm olishi uchun sharoit yaratish, ularning iste'dod va qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashishdan iborat. Axir, ertangi kunimizning egalari aynan ular. Agar ularni to‘g'ri tarbiyalasak, ular ertaga o‘z Vataniga va oilasiga sodiq bo‘lib xizmat qiladi" [2].

Darhaqiqat bizning bugungi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri kelajak avlodga to‘g’ri ta’lim-tarbiya berish bilan birgalikda, ularning har sohada mukammal kadr qilib tayorlashimiz darkor. Buning uchun avvalo ta’lim oiladan to‘g’ri shakilda berilishi katta tasir ko‘rsatadi, xulqida turli og’ishlari bor bolalar bilan esa ko‘proq va samaraliroq chora tadbirlar ko‘rishimiz va ularni to‘g’ri yo‘lga boshlashimiz nafaqat yoshlarni kelajagini balki O‘zbekistinimizning kelajagini ham barpo etgan bo‘lamiz.

Bundan tashqari kelajak avlodda bilim salohiyatini kengaytirish va yangi texnologiyalarni chuqurroq o‘rgatishimiz kerak. Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yordamchisi **Saida Mirziyoyeva** “Zakovat-Gambit” shaxmat musobaqasi, munosabati bilan berilgan bayonotida shunday fikr mulohazalarini aytib o‘tadi. **"Bizning doimiy eng katta orzu-maqsadimiz yoshlar o‘rtasida bilim va aql-zakovatga qiziqishni trend darajasiga chiqarish bo‘lib kelgan."** Albatta, trend darajasiga chiqara olsakgina, haqiqatdan biz o‘zimiz kutgan natijaga erishamiz[3]. Natijaga erishish uchun barcha vazifalarni faqat Davlatimiz tomonidan amalga oshirilishini kutmasdan, men O‘zbekiston fuqarosiman, bu mening O;zbekistonim degan har bir shaxs o‘z hissasini qo‘shmig’i lozim.

Bundan tashqari Konstitutsiyamizda ham yoshlarni qo‘llab quvvatlash, ularning huquqlari, jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan rivojlanishi uchun barcha shart-sharoit yaratilganligi tasdiqlab qo‘yilgan. Bular esa Konstitutsiyamizning 78 va 79 moddalarida o‘z aksini topadi.

78-modda Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda, milliy va umumiy qadriyatlarga sodiqlikni,

mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishini, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg’ularini shakillantirish to‘g’risida g’amxo‘rlik qiladi.

79-modda Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik, huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag’batlantiradi. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakillanishi hamda rivojlanishi uchun ularning ta’lim olishga, sog’lig’ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishiga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi[4].

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida deviant xulq-atvorning oldini olish masalasi milliy xavfsizlik darajasidagi ahamiyatga ega bo‘lgan kompleks ijtimoiy muammo hisoblanadi. Bu og'ishlar (huquqbuzarlik, addiksiya, kiber-deviatsiya) nafaqat shaxsning kelajagiga, balki butun jamiyatdagi ishonch va barqarorlikka jiddiy putur yetkazadi. Ularning asosiy sabablari ko‘pincha oilaviy muammolar, ta'limdagi bo‘shliqlar, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik va nazoratning zaiflashuvi bilan bog'liq.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va maxsus qonunchilik (Profilaktika to‘g'risidagi qonun) bu muammoga qarshi kurashish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratadi. Davlatning asosiy maqsadi jazolash emas, balki avvalo bolani himoya qilish va uni to‘g'ri yo‘lga yo‘naltirishdan iborat bo‘lib, buning uchun yakka tartibdagi profilaktika ishi hamda ijtimoiy, huquqiy va tibbiy chora-tadbirlar tizimini nazarda tutadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning siyosati doirasida yoshlarning ilm olishi, iste'dod va qobiliyatini ro‘yobga chiqarishi uchun sharoit yaratish eng ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu yo‘nalishda bilim va aql-zakovatga qiziqishni trend darajasiga chiqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar – kelajak poydevori. Bu poydevorni mustahkamlash faqat davlatning emas, balki butun jamiyatning (oiladan tortib ta'lim muassasalari va har bir fuqaroning) umumiy mas'uliyatidir. Deviant xulq-atvorning oldini olish chuqur ijtimoiy-pedagogik yondashuv orqali, yoshlarning salohiyatini ro‘yobga chiqarish va ularda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Zero, yoshlarga bugun berilgan e'tibor va g'amxo‘rlik – bu ertangi kunning farovonligini ta'minlovchi kafolatdir.

Yoshlarga qilingan har bir sarmoya – bu jamiyatning o‘z istiqboliga kiritgan eng foydali investitsiyasidir.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.09.2010 yildagi O‘RQ-263-son

kuchga kirish sanasi 30.09.2010 Qonunchilik palatasi tomonidan 2010-yil 12-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2010-yil 28-avgustda ma’qullangan qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 28-iyun Videoselektor yig‘ilishi shaklidagi muloqot, Yoshlar siyosati sohasidagi ishlar sarhisobi, yangi vazifa va takliflar muhokamasi hamda yoshlar bilan muloqot

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yordamchisi Saida Mirziyoyeva 2023-yil 19-20-noyabr “Zakovat-Gambit” shaxmat musobaqasi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent; “O‘zbekiston” nashtiryoti, 2023 – 80b

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA – XALQIMIZNING HUQUQIY, EKOLOGIK VA RUHIY BARQARORLIGI POYDEVORI

Muhammadhonov Shuxratxon,
Universitet mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada Yangilangan Konstitutsiya – xalqimizning huquqiy, ekologik va ruhiy barqarorligi poydevori ekanligi, konstitutsiya tarixi, millat ruhiyatining ajralmas qismi ekanligi masalasi haqida hamda bugungi kunda uning rivojlanish yo‘li haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: konstitutsiya, davlat, huquq, ruhiy barqarorlik, xalq, erkinlik, tinchlik, bag‘rikenglik, tenglik, manfaatlar.

Har yili Konstitutsiyamiz qabul qilingan kun xalqimiz tomonidan yuqori va iliq kafiyatda kutib olinadi. Albatta, bu xalqimizning ruhiy barqarorligini ta’minlashda o‘ziga xos ko‘mak sifatida e’tiborimizni qaratadi. Darhaqiqat, jahondagi barcha mamlakatlarda konstitutsiya xalqning qomusi, unda har bir xalq vakillarining xuquqlari, manfaatlari, burchlari, erkinliklari mujassamlashtirilgan bir yuridik hujjat hisoblanadi. Aynan, shu sababdan har bir xalq ushbu kunni o‘zgacha shukuhda bayram qiladi. Bu bejiz emas. Yurtimizda uning qadr-qimmati, ahamiyatini har birimiz chin dildan his etib turamiz.

Konstitutsiya mamlakatimiz mustaqilligining huquqiy poydevori, inson huquq va erkinliklarining kafolati, birdamlik zanjiri, tenglik mezonidir. Davlatning erkin va adolatli fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik davlat bo‘lishida Konstitutsiyaning ahamiyati cheksiz. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi. Zero, davlat qurilishida Konstitutsiya va qonunlar ustuvor bo‘lar ekan, mamlakatda taraqqiyot bo‘ladi, adolat bo‘ladi, farovonlik bo‘ladi. Bu esa, ertangi kuniga ishonch bilan yashayotgan xalqimizning ruhiy barqarorligi, uning psixologik muvozanatini saqlash uchun juda muhim omillardan biridir. Qomusimiz yaratilishining murakkab va muhim, ayni chog‘da sharafli va albatta buyuk tarixiga nazar solar ekanmiz, hech shubhasiz, O‘zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning mustaqillik sari

uzoq yo‘ldagi izlanishlari natijasi ekaniga komil ishonch hosil qilamiz. Qolaversa, manfaatlarimiz va intilishlarimizdan kelib chiqqan holda, Asosiy Qonunimiz Sharq va G‘arb, Janub va Shimolning 100 ga yaqin mamlakatlari to‘plagan ilg‘or konstitutsiyaviy tajribalarni hisobga olgan holda yaratilganligini aytishimiz mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Asosiy Qonunimiz jahondagi eng mukammal konstitutsiyalardan biri ekanligini butun dunyo tan oldi. U har jihatdan ixcham va keng qamrovliligi, xalqchilligi bilan alohida ajralib turadi. Aynan, xalqchilligi yurtimizda istiqomat qilayotgan xalqimiz vakillarida o‘zlariga, jamiyatga, davlat organlariga, tashkilotlariga ishonch xissini oshiradi va albatta bu xalqimizning ruhiy barqarorligini ta’minlashda yuqori foydasini berib kelmoqda. Unda, ayniqsa, umumjahon tajribalari, demokratik tamoyillar, milliy davlatchilik merosi bo‘lgan “Avesto”dan tortib, Sohibqironnig “Temur tuzuklari”gacha bo‘lgan an’anaviy prinsiplarning omixta qilinganligi e’tiborga juda ham molikdir. Ko‘hna zaminimiz odamlari ko‘nglida ustuvor bo‘lgan adolat, haqiqat, iymon, olijanoblik, bag‘rikenglik, mardlik, tantilik kabi ulug‘ hislatlar Konstitutsiyamizdan munosib o‘rin olgan. U umuminsoniy g‘oyalar – tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do‘stlik, mamlakat va dunyo barqarorligi kabi eng ulug‘ g‘oyalarga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida har bir xalq vakilining ko‘ngliga xotirjamlik bahsh etibgina qolmasdan, ruhiy barqarorlik, tinchlikka shukronalik kabi psixologik yorqin hususiyatlarni taqdim etadi.Konstitutsiyada bayon etilgan tushunchalar shu qadar ahamiyatliki, hech bir odam ularsiz yashay olmaydi, negaki insonning har kuni duch keladigan muammolarni hal etishga qaratilgan faoliyati ko‘pincha mamlakat asosiy qonuniga kiritilgan qoidalar va moddalarga bog‘liqdir.Bosh qomusimiz muqaddimasida inson huquqlariga va davlat suvereniteti g‘oyalariga sodiqlik tantanali ravishda e’lon qilinib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyat anglangan holda, o‘zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanilib, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqat namoyon etilib, xalqaro huquqning umume’tirof qilingan qoidalari ustunligi tan olingan holda, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishini ta’minlashga intilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish ko‘zlanib, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta’minlash maqsadida qabul qilingan.

Konstitutsiya normalarini ijtimoiy hayotda qaror toptirish nafaqat jamiyatni yangilash va mamlakatni modernizatsiya va isloh etish, balki qonunlarning ustunligini ta’minlashga ham bevosita aloqadordir. O‘z-o‘zidan ayonki, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta’minlamasdan demokratik taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining uchinchi bobi Konstitutsiya va qonunning ustunligiga bag‘ishlangan bo‘lib, 15-moddasida «O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat

birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar», – deb ta’kidlangan.

Darhaqiqat, respublikamiz miqyosida faoliyat yuritayotgan barcha subyektlar Konstitutsiya va qonunlar doirasida faoliyat yuritadilar. Birorta ham normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyada ko‘rsatilgan normalar doirasidan chetda tuzilgan bo‘lishi yoki qonunlarga zid kelishi mumkin emas. Shu maqsadlarni ko‘zlab qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bugungi kunda mamlakatimizda suveren demokratik davlat barpo etish, inson manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta’minlash, iqtisodiyotimiz rivoji va turmushimiz farovonligini yuksaltirishning asosiy huquqiy kafolati bo‘lib kelmoqda. Albatta iqtisodiyotimiz rivoji va turmushimiz farovonligini har bir xalqimiz vakilining psixologik stresslardan, turli hildagi depressiyalardan himoyalovchi qlaqon balki, ruhiy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli demokratik islohotlar, ulkan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, ro‘y berayotgan barcha o‘zgarish va yangilanishlar asosi, milliy qonunchiligimiz poydevori bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jahon hamjamiyatida zamonaviy demokratik qonunchilik namunasi sifatida e’tirof etilmoqda. Mamlakatimizda davlatni jamiyatga, xalqqa xizmat qiluvchi institutga aylantirish, uning faoliyatini qonunlarga tayanib qurishga qattiq kirishilgan, desak xato bo‘lmaydi. Fuqaro – jamiyat – davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning oqilona va adolatli huquqiy yechimi Konstitutsiya bo‘lib, unda har bir insonning o‘z erki belgilab berilgan.

Xulosa o‘rnida shuni qayd etish lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatimizning shakllanishi va mustahkamlanishini, davlatimizning hududiy yaxlitligini, siyosiy va huquqiy tizimimiz barqarorligini, oldimizda turgan mas’uliyatli siyosiy va iqtisodiy vazifalarning ado etilishini, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishini, eng muhimi, inson huquq va erkinliklari kafolatlarini, har bir fuqaroning ruhiy barqarorligini ta’minlaydigan muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Bosh qomusimizning 49-moddasida fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir, deb belgilab qo‘yilgan.

Bosh qomusimiz yurtimizda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirish, jamiyat hayotining barcha sohalarini izchil liberallashtirish hamda modernizatsiya qilish, “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyilini hayotga tatbiq etishda eng muhim va mustahkam huquqiy asos bo‘layotganini alohida qayd etdi.

Konstitutsiya – baxtimiz kafolati, hayotimizning muhim mezoni hisoblanadi, – Bosh qomusimizning 41-moddasida har kim bilim olish huquqiga ega ekani ko‘rsatib

qo‘yilgani hamda umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlangani navqiron avlodning iqtidoru salohiyatini namoyish etishi yo‘lida katta imkon hisoblanadi. Bu muhtasham koshonada o‘tkazilgan anjuman ham yoshlarning yorug‘ kelajagini belgilab beruvchi mana shunday ezgu maqsadlarga mushtarakligi bilan katta ahamiyatga ega. Albatta iqtisodiyotimiz rivoji va turmushimiz farovonligi, ta’lim, tibbiyot davlat tomonidan kafolatlanganligi bu har bit fuqaroning o‘z ustida ishlashiga, yangidan-yangi g‘oyalarni hayotga tatbiq etishida muhim ahamiyat kasb etibgina qolmasdan, ruhiy barqarorlikni ta’minlovchi muxim vosita ekanligini ko‘rsatadi.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi.
2. My.gov.uz. sayti.
3. www. Lex. uz sayti.

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI BILAN O‘ZARO MUNOSABATLARINI QONUNIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI

Saidboyev Baxodir Djalolitdinovich,
O‘R JXU AT kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu matnda fuqarolik jamiyati institutlari va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning huquqiy asoslarini rivojlantirish masalalari yoritiladi. Fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayoni, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik birlashmalari va boshqa institutlarning rolini kuchaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat organlarining ochiqligi, shaffofligi, hisobdorligi va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini takomillashtirishning ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Mazkur yo‘nalishdagi huquqiy me’yorlarning takomillashuvi jamiyatda ijtimoiy faollikni oshirish va davlat boshqaruvida jamoatchilik ishtirokini kengaytirishga xizmat qilishi qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: Fuqarolik jamiyati institutlari, jamoatchilik hamkorligi, Ochiqlik, shaffoflik, (NNT), OAV, Ijtimoiy faollik

Mustaqil O‘zbekistonning Konstitusiyasi yangi mustaqil jamiyatning ishonchli huquqiy kafolatlarini shakllantirdi va mustahkamladi. O‘zbekiston Konstitusiyasining g‘oya va normalarida xalqimizning ko‘p asrlik tajriba va ma’naviy qadriyatlari, boy tarixiy-huquqiy merosi aks ettirilgani uning hayotiyligining kafolatidir.

O‘z ichki tuzilishi bilan O‘zbekiston Konstitutsiyasi jahon konstitutsiyaviy amaliyotiga to‘la mos keladi. Konstitutsiyamizning mazmun mohiyatiga uning qabul qilinishida birinchi navbatda inson huquqi oliy qadriyat ekanligi singdirilgan. Uning

asosiy mantiqiy yo‘nalishi quyidagicha: inson – jamiyat-davlat manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan.

Shu bilan birga, Asosiy Qonunimiz ko‘plab demokratik davlatlarda konstitusiyaviy qurilish sohasidagi ilg‘or tajribaning eng yaxshi jihatlarini, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining umume’tirof etilgan normalari hamda mazkur sohadagi boshqa xalqaro hujjatlarga asoslangan inson huquq va manfaatlari, erkinligini ta’minlash va himoya qilish mexanizmini o‘zida mujassam etgan.

Mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda mustaqil va barqaror, aholi keng qatlamlari qo‘llab-quvvatlaydigan hamda xalq o‘rtasida chuqur ildiz otgan fuqarolik jamiyati institutlarini vujudga kelishi va rivojlanishi, faoliyati qo‘llab-quvvatlanishi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Zero, fuqarolik jamiyati institutlari bo‘lmish fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari, partiyalar, harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoat tashkilotlari va fondlar, nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil qilib, uning mazmunini belgilab beradi.

Fuqarolik jamiyati institutlari inson huquqlari va manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy maqsadlarga erishish, ma’naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, hayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

Ular jamiyat a’zolarining fuqarolik faolliklari, milliy o‘zlikni anglashlari, siyosiy madaniyati, ma’naviyatining o‘sishiga xizmat qiladilar. Shuningdek ular jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta’minlashda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatishda, ijtimoiy fikr va ijtimoiy ongni shakllantirishda muhim vosita vazifasini o‘taydilar. Bugungi kunda jamoatchilik va fuqarolik nazorati instituti jamiyatning davlat bilan o‘zaro samarali aloqasini ta’minlash, odamlarning kayfiyatini, mamlakatda kechayotgan o‘zgarishlarga munosabatini aniqlashning muhim vositalaridan biriga aylanmoqda.

Shuning uchun ham davlat boshlig‘i bo‘lgan Prezident O‘zbekiston xalqi nomidan ish olib boruvchi organ sifatida vakillik funksiyasini amalga oshirib hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafili vakolatiga egaligi sabab fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro ijtimoiy-huquqiy munosabatlarga kirishadi. Agar S.V.Gordiyenkoning prezidentlik instituti konstruksiyasini tutib turuvchi 2 ta omil mavjud: birinchisi, ommaviy-siyosiy resurs, ikkinchisi, Prezidentlik boshqaruv moduli. G‘arb davlatlarida Prezident ommaviy-siyosiy resursga faol tayanadi degan fikridan kelib chiqadigan bo‘lsak, davlat boshlig‘ining fuqarolik jamiyati institutlari bilan faol munosabatlarga kirishishi ommaviy-siyosiy resursga xizmat qiladi.

Davlat boshlig‘i bo‘lgan Prezident boshqa davlat organlaridan farqli o‘laroq fuqarolar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylanishi tufayli qaysidir ma’noda davlat va jamiyat organi belgilarini uyg‘unlashtirgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirishga, fuqarolarning eng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash uchun zarur institusional baza yaratildi.

Bugungi kunda faoliyat ko‘rsatayotgan 9200 dan ziyod nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilishda, ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy maqsadlarga erishishda muhim rol o‘ynamoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi, “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonunlar va boshqa qonun hujjatlari shular jumlasidandir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro hamkorligi asosiy prinsiplarini qonunchilikda belgilangan O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi, davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirishi, davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitusiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘rishlari, davlat fuqarolik jamiyati institutlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlashi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib berishi, fuqarolik jamiyati institutlarining alohida ijtimoiy foydali dasturlariga davlat ko‘mak ko‘rsatishi mumkinligi, davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga aralashishiga, xuddi shuningdek fuqarolik jamiyati institutining davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘yilmasligi tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 maydagi PF-5430-son “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha maslahat kengashi tashkil etildi.

Maslahat kengashining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

davlatning va fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatni yanada jadal va har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan say-harakatlarini birlashtiruvchi

zamonaviy, demokratik hamda ochiq-oshkora maydon sifatida ularning yuqori darajadagi tizimli va samarali muloqotini yo‘lga qo‘yish;

o‘rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini aniqlash va milliy modelini shakllantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

fuqarolik jamiyatini va keng jamoatchilikni tashvishlantirayotgan dolzarb masalalarni muhokama qilish, shuningdek, mazkur sektorning holati va rivojlanish tendensiyasi haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini muntazam ravishda xabardor qilish;

davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorligining zamonaviy mexanizmlarini, ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish choralarini joriy qilish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

ilmiy va ekspertlar guruhlari ishtirokida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlarni tashkil etish yuzasidan tashabbus ko‘rsatish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi davlat siyosati va uning amaliy natijalari haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli ravishda o‘rganish, umumlashtirish va tahlil qilishni tashkil etish;

fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, mazkur institutlarning jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga takliflar kiritish;

fuqarolik jamiyatining rivojlanishini, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari bilan hamkorligi darajasini, shuningdek, ularning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qo‘shayotgan hissasini baholovchi ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish, bu ko‘rsatkichlar asosida davriy va maxsus, shu jumladan muqobil ma’ruzalar tayyorlanishini tashkil etish;

fuqarolik jamiyati institutlariga ularning xalqaro hamkorligini rivojlantirishda, ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganishda va ushbu tajribani O‘zbekiston sharoitida joriy etishda ko‘maklashish.

Maslahat kengashi faoliyati bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan muvofiqlashtiriladi. Maslahat kengashi faoliyatini tashkiliy jihatdan ta’minlash Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktabrda PQ-4501-son “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi.

Mazkur huquqiy asoslar hamda shakllangan mavjud amaliyotdan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik shakllarini 2 guruhga ajratish mumkin: Birinchi guruhga fuqarolik jamiyati

institutlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tashabbus, taklif bilan chiqishga oid hamkorlik shakllari kiradi. Ikkinchi guruhga esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining fuqarolik jamiyati institutlarini turli ijtimoiy muhim tadbirlarga jalb qilishiga oid hamkorlik shakllari mansub.

Qonun hujjatlari tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, fuqarolik jamiyati institutlaridan faqatgina siyosiy partiyalar va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ijro etuvchi hokimiyat organlarini shakllantirishga oid hamkorligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlarida mustahkamlangan. Boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik amaliyotda mavjud bo‘lib, odatda zaruriyatdan kelib chiqib amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikka alohida e’tibor qaratib, hamkorlikni ta’minlashning institusional asoslari - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish xizmati, Bosh vazir va hokimlarning o‘rinbosari – xotin qizlar qo‘mitasi raisi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimlarining jamoat tashkilotlari va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo‘yicha o‘rinbosarlari lavozimlari tashkil etildi.

Xulosa qilib aytganda o‘tgan yillarni tahlil qiladigan bo‘lsak, mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiyalashda, fuqarolarning siyosiy madaniyati, huquqiy ongi, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda, shuningdek demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda fuqarolik institutlarining rolini kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ularni qo‘llab quvvatlash bo‘yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qildi.

Konstitutsiya — har bir davlatning huquqiy asosi, uning barqarorligi va ravnaqi garovidir. U fuqarolar erkinligi, huquqlari va xavfsizligini ta’minlaydi, davlat boshqaruvining aniq va adolatli mexanizmlarini belgilaydi. Shu bois, Konstitutsiyaga hurmat va unga amal qilish har bir fuqaroning burchi hisoblanadi.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2023. – 80b.

2. Mirakulov M.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitusiyaviy-huquqiy maqomi: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti nashriyoti, 2019. – 180 b.

3. Гордиенко С.В. Институт Президенства в России, США, Франции, концептуальные основы, политико -административная практика (сравнительный анализ - М. 2004. Дисс. канд. полит. наук. kand. – С.15.

4. O‘zbekiston Respublikasi «Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuni, 12 dekabr 2002 y., № 439-II.

5. O‘zbekiston Respublikasining «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida»gi Qonuni, 24 aprel 1997y ., № 400-I.

6. Павлова Л.В.: «Современная концепция прав и свобод человека и ее трактовка всеобщей декларацией прав человека 1948 г.», Белорусский журнал международного права и международных отношений 1998 — № 5

7. https://www.uzdaily.uz/articles-id-30385.htm

8. http://kun.uz/ru/news/2016/11/05/slovo-svobodnoeotvetstvennoe-i-dostovernoe

9. http://www.un.org/ru/rights/expression/

AXBOROT OLISH TAMOYILLARI, KAFOLATI VA ERKINLIGI

Kamilov Maxmudjan Abdukaxarovich,
O‘R JXU AT kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu matnda Konstitutsiyaning jamiyat va davlat hayotidagi o‘rni, axborot erkinligi tamoyillari, fuqarolarning axborot izlash, olish va tarqatish huquqlarining kafolatlari yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 33-moddasi hamda “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun asosida axborotga bo‘lgan huquqning mazmuni, uning cheklanishi mumkin bo‘lgan holatlar, ommaviy axborot vositalarining mas’uliyati va axborotning ochiqligi talablari tushuntiriladi. Shuningdek, internet va zamonaviy texnologiyalarning axborot erkinligi rivojiga ta’siri, axborot xavfsizligi hamda boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish zaruriyati bilan bog‘liq jihatlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Axborot erkinligi, Axborot olish huquqi, 33-modda, Axborot xavfsizligi, Ommaviy axborot vositalari, Ochiqlik, shaffoflik, Internet va texnologiyalar

Konstitutsiya — har bir mustaqil davlatning siyosiy, huquqiy va ijtimoiy tuzumiga asos soluvchi, davlat hokimiyatining shakllari, fuqarolarning huquq va majburiyatlari, jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni belgilab beruvchi eng oliy huquqiy hujjatdir. U davlatning “pasporti”, millatning huquqiy poydevori va jamiyat taraqqiyotining asosiy kafolati hisoblanadi.

Konstitusiyaning qabul qilinishi ijtimoiy va davlat qurilishining barcha jabhalaridagi munosabatlarni, milliy qonunchiligimizning barcha sohalarini tartibga soluvchi aniq huquqiy tizimni tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi 33-moddasiga muvofiq har kim axborotni erkin qidirish, olish, tatqiqod qilish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqiga ega. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitusiyaviy tuzumni, aholining

sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yiladi mumkin.

Har bir fuqaroning axborot olish xuquqi kafolatlanadi.

Har kimning axborotni izlash, olish, tadqiq etish, uzatish va tarqatish huquqi davlat tomonidan himoya qilinadi.

Ochiqlik va oshkoralik, hamma erkin foydalanishi mumkinligi va haqqoniylik axborot erkinligining asosiy prinsiplaridir.

Axborot ochiq va oshkora bo‘lishi kerak, maxfiy axborot bundan mustasno.

Maxfiy axborotga quyidagilar kirmaydi:

fuqarolarning huquq va erkinliklari, ularni ro‘yobga chiqarish tartibi to‘g‘risidagi, shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomini belgilovchi qonun hujjatlari;

ekologik, meteorologik, demografik, sanitariya-epidemiologik, favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda aholining, aholi punktlarining, ishlab chiqarish obyektlari va kommunikatsiyalarning xavfsizligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan boshqa axborotlar;

kutubxonalarning, arxivlarning va O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslarga tegishli axborot tizimlarining ochiq fondlaridagi mavjud ma’lumotlar.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari jamiyat manfaatlariga taalluqli voqealar, faktlar, hodisalar va jarayonlar to‘g‘risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalariga xabar berishi shart.

Axborot undan hamma erkin foydalanishi mumkinligi ta’minlangan va haqqoniy bo‘lishi kerak. Axborotni buzib talqin etish va soxtalashtirish ta’qiqlanadi.

Ommaviy axborot vositalari o‘zlari tarqatayotgan axborotning haqqoniyligi uchun axborot manbai va muallifi bilan birgalikda qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasining «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida»gi Qonuni 11-moddasiga muvofiq ommaviy axborot vositalari e’lon qilinayotgan axborotning to‘g‘riligini tekshirib ko‘rishlari shart va ular axborot beruvchi bilan birgalikda uning to‘g‘riligi uchun javobgar bo‘ladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi bilan ommaviy axborot vositalari orqali tuhmat, haqorat qilish va raqobatchini obro‘sizlantirganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Axborot mulkdori, egasi axborot berishni rad etganligi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Internet, sun'iy yo'ldosh va raqamli eshittirish kabi yangi texnologiyalar, so'z va axborot erkinligi huquqini amalga oshirish uchun inqilobiy imkoniyatlar yaratadi. Ushbu texnologiyalar orqali taqiqlangan va buzilgan axborotni taqsimlashni cheklash bo'yicha vakolatli organlarning harakatlarini diqqat bilan o'rganish kerak. Bunday choralar yangi texnologiyalardan foydalanishning katta ijobiy salohiyatini cheklashi kerak. Boshqa ommaviy axborot vositalarida bosma, televideniye va radioeshittirishlar uchun yaratilgan qoidalar bu holatda qo'llanilishi mumkin emas. Shubhasiz, bolalar pornografiyasining tarqalishi, bir tomondan so'z erkinligi va axborot erkinligi huquqini to'liq amalga oshirish kabi qonunbuzarlikni bartaraf etish uchun yangi ommaviy axborot vositalaridan foydalanishga cheklashlar qo'yilishi kerak.

Davlat har kimning axborotni izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqini himoya qiladi. Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeiga qarab axborot olish huquqi cheklanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari hamda mansabdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda har kimga o'zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan axborot bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlab berishga, maqbul axborot resurslari yaratishga, foydalanuvchi fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlariga, ularning xavfsizligiga doir hamda jamiyat manfaatlariga taalluqli boshqa masalalar yuzasidan axborot bilan ommaviy tarzda ta'minlashga majburdirlar.

O'zbekiston Respublikasida senzuraga va axborotni monopollashtirishga yo'l qo'yilmaydi. Ma'lumotlarning mavjudligi, albatta, fuqarolarning axborot huquqlarini ta'minlashning muhim omilidir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonun axborotni izlash, so'rash, olish, tadqiq qilish, tarqatish, undan foydalanish va saqlash huquqlarini kafotlaydi, "Elektron hukumat" va boshqa "Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida" – so'nggi yillarda qonun hujjatlariga muvofiq davlat organlari, jamoat birlashmalari, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor axborotdan foydalanish va uni xammaga taqdim etishlari shart.

Ammo, axborot olish erkinligi mutlaq bo'lmasligi mumkin, ayniqsa, agar u jamoat xavfsizligi, odamlarning sha'ni va qadr-qimmati kabi muhim tushunchalarni o'z ichiga olsa, ushbu holatda buni cheklovlarsiz amalga oshira olmaysiz. Inson huquqlarini va asosiy erkinliklarini himoya qilish Yevropa konvensiyasi, maxfiy

ma’lumotlarning oshkor bo‘lmasligi, vakolatlari va xolisligini ta’minlash, obro‘ga yoki boshqalar huquqlarini himoya qilish, sog‘lig‘i yoki ma’naviyatini muhofaza qilish, milliy xavfsizlik, hududiy yaxlitligini yoki jamoat xavfsizligi manfaatlari kabi ifoda erkinliklarini cheklashga ruxsat beradi.

Butunjahon Internet tarmog‘i kuchli axborot oqimidir. Birlashgan millatlar tashkilotning e’tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish bo‘yicha maxsus ma’ruzachisi Frank La Rue (2011 yil 16 may) hisobotiga ko‘ra, Internetga kirish huquqi daxlsiz inson huquqidir. Va bu to‘g‘ri, chunki biz barchamiz axborot jamiyatining bir qismi bo‘lib, bugungi kunda axborot rivojlanishining xal qiluvchi omiliga aylandik. Shu bilan birga, ushbu huquq boshqa shaxs huquqi kabi ba’zi hollarda cheklangan bo‘lishi mumkin, chunki bu huquq boshqa shaxslarning huquqlariga muqarrar ravishda ta’sir etishi uchun cheklanmagan bo‘lishi mumkin emas.

Xulosa qilib etganda ma’lumot erkinligi – ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat yuritish (matbuot erkinligi), jamoat ahamiyatiga ega bo‘lgan davlat xizmatlaridan axborot olish huquqi, axborotni tarqatish erkinligi huquqi, jumladan, huquq va erkinliklarning bir guruhini tavsiflash uchun ishlatiladigan atama hisoblanadi.

Axborotlarni izlash, olish va tarqatish erkinligi eng muhim siyosiy va shaxsiy inson huquqlaridan biridir va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga kiritilgan. So‘z erkinligi, uning kengayishi axborot erkinligi – xalqaro huquqda tan olingan asosiy insoniy huquqdir.

Axborot erkinligi, masalan, o‘z fikrlarini ifoda etish erkinligi, axborot vositalariga va axborotga bog‘liq emas: og‘zaki, yozma ravishda, bosma, Internetda yoki badiiy ijod shaklida. Shunday qilib, ushbu erkinlikning huquqiy himoyasi ham axborot mazmuniga, ham uni ifodalash vositalariga bog‘liq. Axborot erkinligi Internet va zamonaviy axborot texnologiyalari kontekstida maxfiylikka bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, axborot erkinligi boshqa inson huquqlariga rioya qilish (maxfiylik, shaxsiy va oilaviy hayotga aralashishdan himoya qilish) va jamiyat manfaatlarini himoya qilish uchun (favqulotda vaziyat yoki harbiy qonunlar davrida cheklashlar) cheklangan bo‘lishi mumkin.

Qonun bilan himoyalangan so‘z erkinligi huquqining kafolati huquqiy demokratik davlatning ajralmas qismi hisoblanadi. Ko‘p tarafdorlik va keng ko‘lamli fikrlarni, fuqarolarning demokratik jarayonda to‘liq ishtirok etishi ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2023. – 80b.

2. Mirakulov M.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitusiyaviy-huquqiy maqomi: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti nashriyoti, 2019. – 180 b.

3. Гордиенко С.В. Институт Президенства в России, США, Франции, концептуальные основы, политико - административная практика (сравнительный анализ - М. 2004. Дисс. канд. полит. наук. kand. – С.15.

4. O‘zbekiston Respublikasi «Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuni, 12 dekabr 2002 y., № 439-II.

5. O‘zbekiston Respublikasining «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida»gi Qonuni, 24 aprel 1997 y ., № 400-I.

6. Павлова Л.В.: «Современная концепция прав и свобод человека и ее трактовка всеобщей декларацией прав человека 1948 г.», Белорусский журнал международного права и международных отношений 1998 — № 5

7. Учебное пособие Асмита Наик «Свобода выражения». Авторские права\\ Ассоциации по обучению в области прав человека (HREA), 2003.

KONSTITUTSIYA INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARI KAFOLATI

Xodjayeva Dildora Tuxtapulatovna,
Toshkent “Temurbeklar maktabi” harbiy –akademik litseyi
Davlat va huquq asoslari fani bosh o‘qituvchisi
El.pochta: dildoraxodjayeva@gmail.com
Tel:935949561

Annotatsiya: Ushbu maqolada Konstitutsiya – bu davlatning asosiy qonuni sifatida, jamiyat hayotining barcha jabhalarida huquqiy tartibot va adolatni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan huquq va erkinliklar har bir inson uchun muqaddas va daxlsiz ekanligini ifoda etadi.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, inson huquqlari, erkinliklar, kafolat, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, qonun ustuvorligi, adolat, tenglik, majburiyatlar.

Konstitutsiya norma va prinsiplari jamiyat taraqqiyotining huquqiy, siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy asosi bo‘lib xizmat qiladi. Inson huquqlari – bu har bir shaxsning yashash, erkin fikrlash, so‘z va matbuot erkinligidan foydalanish, ta’lim olish, ishlash, vijdon erkinligi va boshqa muhim huquqlaridan iborat. Konstitutsiyada zo‘r e’tibor qaratilgan masalalardan biri bu ushbu huquq va erkinliklarning kafolatlanishi hamda himoya qilinishidir. Bunday yondashuv davlat boshqaruvining barcha darajalarida konstitutsionlik va huquq ustuvorligini ta’minlaydi. Har qanday demokratik jamiyat taraqqiyotida konstitutsion huquqlar asosiy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. Konstitutsion huquq va erkinliklar amaliyotda to‘liq va tizimli amalga oshirilishi, fuqarolarning o‘z ijtimoiy, siyosiy va huquqiy mavqeini bemalol namoyon qilish imkoniyatini beradi. Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilgan har bir

norma – inson shaxsining ijtimoiy faolligini oshirish, uning sha’ni, qadr-qimmatini hurmat qilish va himoya qilish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Inson huquqlarining kafolati sifatida davlatning mas’uliyati ham yuqoriligicha qoladi. Konstitutsiya fuqarolarning huquqlari va erkinliklari qonun oldida tengligi, o‘z daxlsizligi, adolatli sud himoyasi, shaxsiy hayot daxlsizligi, ijtimoiy ta’minot, sog‘liqni saqlash, ta’lim olish va boshqa asosiy imkoniyatlarni kafolatlaydi. Aynan shu norma va tamoyillar, konstitutsiyaning jamiyat hayotidagi qadr-qimmatini oshiradi. Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini to‘laqonli tarzda amalga oshira oladigan ijtimoiy muhit shakllanadi [1.66-67-b].

Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklarning amalda ta’minlanishi – huquqiy davlat qurilishi uchun muhim mezon hisoblanadi. Bu jarayonda qonun ustuvorligi, davlat organlarining fuqarolar uchun ochiq va shaffof faoliyati, inson huquqlarini himoya qiluvchi mustaqil sud hokimiyatining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Konstitutsion huquq va erkinliklarni kafolatlovchi xalqaro norma va tamoyillar ham milliy qonunchilikka chuqur singimog‘i lozim. Barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining asosiy mezoni – Konstitutsiyada belgilangan inson huquq va erkinliklarini kafolatlash bilan uzviy bog‘liq. Innovatsion taraqqiyotlar, iqtisodiy islohotlar, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi yutuqlar ham fuqarolarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishi lozim. Fuqarolar o‘z hayotlarining barcha sohalarida konstitutsion kafolatlardan foydalanish imkoniyatiga egadirlar. Konstitutsiya davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi o‘laroq, inson manfaatlari himoyasining kuchli vositasidir. Inson huquqlari tizimini konstitutsion norma va tamoyillarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Insonning asosiy huquq va erkinliklari yo‘q joyda demokratik qadriyatlar, fuqarolik jamiyati institutlari, zamonaviy taraqqiyot bosqichlari shakllanmaydi. Konstitutsiyada o‘z ifodasini topgan inson huquqlarining kafolatlanishi, davlatning barcha fuqarolariga teng imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu tenglik jamiyatda sog‘lom raqobat, taraqqiyot va birdamlik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi [2.34-b].

Konstitutsiyada belgilangan asosiy tamoyillar va normalar qatorida har bir insonning huquq va erkinliklari eng yuqori qadriyat sifatida yondashilgan. Konstitutsiya – bu har bir shaxsning hayoti, sha’ni va qadr-qimmatiga nisbatan hurmatning oliy namunasidir. Inson huquqlarining kafolatlanishi, ularni buzilgan taqdirda tiklanish mexanizmlarining mavjudligi va davlatda mustaqil sud hokimiyatining faoliyat yuritishi jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Konstitutsiyaning inson huquq va erkinliklari himoyasidagi roli tasodifiy emas. Zero, milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda demokratik jamiyat qurish yo‘lidagi islohotlarning barchasi aniqlik va qat’iylik bilan aynan Konstitutsiyada aks etadi. U jamiyat hayotining barcha jabhalarida islohotlarni huquqiy jihatdan asoslash, inson salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish imkoniyatini

yaratadi. Har bir fuqaroga o‘zini jamiyatning to‘laqonli a’zosi deb his qilish imkoni paydo bo‘ladi. Konstitutsiya davlat va jamiyat mustahkamligining asosiy kafolati, xalq birligiga xizmat qiluvchi huquqiy me’yorlar majmui hisoblanadi. Har bir inson o‘z huquq va erkinliklarini mustaqil amalga oshirish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish mumkinligiga ishonadi. Fuqarolik jamiyati uchun konstitutsion huquqlarning chuqur ildiz otishi ijtimoiy adolat prinsiplari qaror topishiga asos bo‘ladi. Aynan shu asosda ijtimoiy baraka, tinchlik, dinga, vijdonga, fikrga hurmat kabi umuminsoniy qadriyatlar mustahkamlab boriladi [3.114-115-b].

Jamiyat taraqqiyotini to‘g‘ri yo‘lga solishda huquq va erkinliklarning konstitutsion kafolatlari muhim rol o‘ynaydi. Har bir shaxs o‘z qadr-qimmatini himoya qilish, intilish va erkin harakat qilishi, inson qadriga mos hayot kechirishi uchun imkoniyatlar ochiladi. Konstitutsiya xalq orzu-umidlari, taraqqiyotga daxldorliligi, o‘z kelajagiga ishonchining mustahkam poydevoridir. Shu sababli huquqiy davlat, demokratik jamiyat qurish yo‘lida qabul qilingan Konstitutsiya inson huquq va erkinliklarining eng ishonchli kafolati, asosiy himoyachisi sifatida e’tirof qilinadi. Konstitutsiyaviy boshqaruv, huquq ustuvorligining barqarorligi – jamiyat taraqqiyotining, xalq farovonligining, milliy birlik hamda mazmunli yashashning asosiy omilidir. Bu esa barcha fuqarolar uchun yakdil va mushtarak qadriyatlarni mustahkamlashga asos bo‘lib xizmat qiladi. Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilgan parlament, sud va ijroiya hokimiyatlari faoliyati birinchi navbatda inson huquq va erkinliklarini kafolatlashga xizmat qiladi. Mazkur yo‘nalishda, har bir davlat fuqarosi o‘z huquq va erkinliklarini to‘liq ro‘yobga chiqarishi, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy hayotda faol ishtirok etishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Insonning konstitutsiyaviy huquqlari buzilishi ehtimoli yuzaga kelganda, uni sud orqali yoki boshqa huquqiy vositalar orqali tiklash mexanizmlari muntazam mustahkamlanib bormoqda. Konstitutsiya zamonaviy davlatlarning huquqiy tizimida inson fidoiyligini, yosh avlod manfaatini, milliy mentalitetga mos qadriyatlarni va taraqqiyot strategiyalarini himoya qiluvchi huquqiy hujjatdir. Har bir inson o‘z maqsad-muddaolarini amalga oshirishda, umid va ishonchini yanada mustahkamlashda Konstitutsiyadan belgilangan keng imkoniyatlardan samarali foydalanadi. Konstitutsiyadagi huquqiy me’yorlarning doimiy takomillashuvi inson manfaatlariga hamohang bo‘lishini ta’minlaydi [4.41-42-b].

Fuqarolar va jamiyat a’zolarining huquq va erkinliklari noqonuniy cheklanishining oldini olish, xolislik, adolat va tenglik muhitini mustahkamlash Konstitutsiyaning asosiy go‘yasiga aylangan. Huquqlar va erkinliklarning kafolatlanishi insonlarni taraqqiyotga, ezgulikka, ijodkorlikka va erkin faoliyatga ruhlantiradi. Har bir insonning huquqi doimo davlat himoyasidadir. Inson huquqlari va erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlarini ta’minlashda davlatning asosiy mezonlariga muvofiqlik, xalqaro standartlarga moslashtirish uzoq muddatli

taraqqiyotning ijobiy poydevorini yaratadi. Inson mezani, uning sha’ni va or-nomusi kuchli qonun himoyasida bo‘lgan ijtimoiy muhitda baraka, taraqqiyot, osoyishtalik va birdamlik barpo etiladi. Konstitutsiyani o‘z hayotiga dasturulamal qilgan fuqaro, jamiyat va davlat mustahkam va barqaror huquqiy asosda faoliyat olib boradi. Bu yerda, inson huquqlari va erkinliklari eng muhim umumiy qadriyat sifatida e’tirof etiladi. Har bir huquq va erkinlikning kafolatlanishi taraqqiyot, baraka va ezgulikka yo‘l ochadi [5.86-b].

Xulosa:

Konstitutsiya har bir inson uchun huquq va erkinliklarning ishonchli, mustahkam kafolatidir. Inson huquqlarining konstitutsiyaviy himoyasi zamonaviy huquqiy davlat qurilishi, demokratik tamoyillar va adolatli jamiyat barpo etilishining asosiy negizini tashkil etadi. Konstitutsiyada belgilangan huquqlar va erkinliklar har bir inson uchun daxlsiz va muqaddas ekanligini ta’minlaydi. Inson huquqlarining kafolatlanishi fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshiradi, jamiyatda tinchlik va totuvlikni mustahkamlaydi. Har bir insonning konstitutsiyaviy huquqlari davlat va jamiyat rivojlanishining muhim omili sifatida, milliy taraqqiyotning asosiy kafolati bo‘lib qolaveradi. Davlat va jamiyat taraqqiyoti, farovon hayot, baraka va ezgulik asosi aynan konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarning kafolatlanishidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, M. & Jo‘raqulov, O. (2019). “Konstitutsiyaviy huquqlar va uni ta’minlash mexanizmlari”. Toshkent: Iqtisod-moliyaviy axborot nashriyoti.

2. Abdusalimov, S. (2020). “Inson huquqlari: amaliy va nazariy jihatlar”. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.

3. Atayeva, M. (2021). “Konstitutsiyaviy islohotlar va fuqarolik jamiyati rivoji”. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti.

4. G‘aniyeva, D. (2019). “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: asosiy tamoyillar va ularning zamonaviy muammolari”. Toshkent: “Huquq” nashriyoti.

5. Hasanov, B. (2017). “Inson huquq va erkinliklari: huquqiy asoslar”. Toshkent: Tafakkur nashriyoti.

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA - BARQAROR EKOLOGIK TARAQQIYOT VA DEMOKRATIK HUQUQIY RIVOJLANISH POYDEVORI

Payziyev Abbos Muhammadovich,
Jamoat xavfsizligi unversteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Turkmenov Umar Chori o‘g‘li,
Jamoat xavfsizligi unversteti Yurisprudensiya fakulteti 101-kechki guruh talabasi el.pochta turkmenovumar737@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi barqaror ekologik taraqqiyotni ta’minlash va demokratik huquqiy jamiyatni rivojlantirishdagi ahamiyati yoritiladi . Unda ekologik xavfsizlik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, fuqarolarning sog‘lom va erkin yashash huquqini kafolatlashga qaratilgan konstitutsiyaviy normalarning mazmuni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: konstitutsiya, huquq, ekologiya , norma, islohotlar, mas’uliyat, demokratiya, qaror, siyosiy tizim, davlat, tamoyil.

Hozirgi kunda insoniyat duch kelayotgan eng katta va dolzarb muammolardan biri bu ekologik muammodir. Insoniyat kelajagi uchun jiddiy xavf tug’dirayotgan bu masala bugungi kunda nafaqat olimlar va sohaga oid mutaxasislar, balki turli xalqaro tashkilotlar hamda siyosiy rahbarlar tomonidan ham dolzarb muammo sifatida e’tirof etilmoqda. Hayotning barcha sohalarida iqtisodiyotdan tortib shahar qurilishigacha, hatto kundalik qarorlar qabul qilish jarayonigacha ekologik omillarning hisobga olinishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois ko‘plab dvlatlar singari O‘zbekiston ham o‘z huququiy tizimida, eng avvolo Konstitiutsiyasida ekologik masalalarga alohida urg’u berib ularni mustahkamlab bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Muqaddimasidayoq ,, … mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, “ ushbu masalaga davlat siyosati sifatida qaralishi tahsinga sazovor. Konstitutsiyada davlat barqaror rivojlanish tamoyiliga tayangan holda, atrof-muhitni muhofaza qilish, uni tiklash va yaxshilash, ekologik barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha zarur choralarni amalga oshirishi belgilangan. Ushbu konstitutsiyaviy qoidalar “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy zamin vazifasini bajaradi. Konstitutsiyaning 49-moddasida har kimning qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g’risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqi hamda davlat fuqarolarining ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof – muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shahar sozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart sharoitlar yaratishi mustahkamlab qo‘yilgan. Iqtisodiy taraqqiyotning an’anaviy

yo‘lidan voz kechib, “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga o‘tish bugungi kunda nafaqat ayrim davlatlarning iqtisodiy siyosatiga, balki butun dunyo barqarorligiga ta’sir ko‘rsatadigan umumiy yo‘nalishga aylangan. Ko‘plab mamlakatlar uchun “yashil o‘sish” ustuvor maqsadga aylanib, global ekologik muammolarni bartaraf etishda muhim mexanizm sifatida ularning Konstitutsiyalarida ham o‘z aksini topgan. Mamlakatda “Yashil iqtisodiyot” strategiyasi qabul qilinib, energiya va suv resurslarini tejovchi texnologiyalarni joriy etish orqali ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan harakatlar davom etmoqda. Bu borada yirik sanoat korxonalari atrofida “Yashil belbog‘”lar tashkil etilmoqda. Hududlarda ko‘chat ekish va tuproq unumdorligini yaxshilash ishlari kengaytirilmoqda.

Mamlakatimizda bo‘lgan islohotlarga to‘xtalib o‘tsak. Bunga misol qilib ekologiya vazirligi tomonidan 2025-yil boshidan buyon atrof – muhitni asrashga qaratilgan 18 ta normativ hujjatlar ishlab chiqildi. 130 ming gektar maydonda o‘rmonlar yaratilib, Orolbo‘yi hududida katta o‘rmonchilik loyihalari amalga oshirildi. 2025 yil bahorida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 137 million daraxt va butalar ekilib, 55 ta yangi “yashil bog‘” tashkil qilindi. Bioxilma-xillikni saqlash uchun 2 426 ta tuvaloq tabiatga qo‘yib yuborildi, 5 669 gektar maydonda shifobaxsh o‘simliklar plantatsiyalari yaratildi. Shuningdek, 349 ming daraxt pasportlashtirilib, “Yashil makon” elektron platformasiga kiritildi. 50 ta xususiy kompaniya ishtirokida chiqindilarni yig‘ish va qayta ishlash uchun infratuzilma yaratildi, keng ko‘lamli investitsiyalar jalb qilindi. 44 ta sanoat korxonalarida chang va gaz tozalash uskunalari modernizatsiya qilinib, chiqindi suvlarini tozalash tizimlari qurildi va rekonstruksiya qilindi. Shuningdek turli hududlarda yerlarning rekultivatsiyasi va chiqindi poliginlarining yopilishi bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar ketmoqda.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy jarayonlar, davlat boshqaruvida yangicha yondashuvlarga bo‘lgan talab Konstitutsiyani zamon ruhiga mos ravishda yangilash zaruratini yuzaga keltirdi. Shu sababli 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni umumxalq referendumi orqali qayta ko‘rib chiqilib, yangilangan tahrirda hayotga tatbiq etildi. Yangi tahrirda shaxsning asosiy huquqlarini mustahkamlash, yoshlar siyosati, ta’lim tizimi, advokatura faoliyati, ekologiya hamda davlat boshqaruviga doir normalar sezilarli darajada kengaytirildi va yangilandi.Konstitutsiyaning kirish qismida O‘zbekiston xalqi inson huquq va erkinliklariga hurmat, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, davlat mustaqilligi tamoyillariga qat’iy rioya qilishini tantanali tarzda bildiradi. Shu bilan birga, demokratiya, tenglik, ozodlik, ijtimoiy adolat va birlashuv g‘oyalariga sadoqat ko‘rsatilib, inson va uning qadr-qimmati eng oliy mavqega ega bo‘lgan adolatli, ochiq va insonparvar davlatni barpo etish maqsadi bayon etiladi. Haqiqatan ham, mustaqillikdan so‘ng shakllangan Qomusimiz xalqimizga tili, dini, tarixi, ma’naviy merosi va asosiy huquqlarini qayta tiklab berdi hamda ularni qonuniy

asosda mustahkamladi. Shuningdek, u siyosiy hayotimizda ham muhim rol o‘ynab, davlat hokimiyatini boshqarishda xalqning bevosita ishtirok etishini ta’minlab berdi. Konstitutsiyaga kiritilgan muhim yangiliklar O‘zbekistonning huquqiy asoslarini yanada kuchaytirdi. Masalan, Konstitutsiyaning 1-moddasi zamonaviy ilmiy-nazariy yondashuvlar va globallashuv jarayonlarini hisobga olgan holda yangicha mazmun bilan boyitildi. Yangi talqinga ko‘ra, O‘zbekiston o‘zini ijtimoiy davlat sifatida belgiladi. Bu esa davlat zimmasiga har bir fuqaro uchun munosib hayot sharoitlarini yaratishdek katta mas’uliyatni yuklaydi. Ya’ni resurslarning adolatli taqsimlanishi, ijtimoiy tengsizlikning keskinlashishiga yo‘l qo‘ymaslik, kam ta’minlangan qatlamlar uchun sifatli tibbiyot va ta’lim imkoniyatlarini ta’minlash, samarali ijtimoiy himoya tizimini yuritish, imkoniyati cheklangan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi hamda to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan pensiya tizimi kabi jihatlar aynan shu tamoyilning mazmunini ifodalaydi. Oddiy qilib aytganda, bu hatto eng kam ta’minlangan oilaning farzandi ham boshqalar bilan teng sharoitda o‘qishi, sog‘lom hayot kechirishi kerakligini anglatadi.

Har qanday demokratik davlatning bosh maqsadi — inson huquqlarini himoya qilish va ta’minlashdir. O‘zbekistonda ham bu tamoyil davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Konstitutsiyaning 20-moddasi esa inson va davlat organlari o‘rtasida yuzaga keladigan barcha huquqiy tushunmovchiliklar fuqarolar foydasiga hal qilinishini konstitutsiyaviy qoida sifatida mustahkamladi. Ya’ni, agar qonunchilikda aniq ko‘rsatilmagan jihatlar bo‘lsa yoki turli talqinlar paydo bo‘lsa, davlat organlari bunday holatlarda inson manfaatini ustuvor qo‘yishi shart. Bundan tashqari, davlat idoralari tomonidan tayyorlangan hujjatlarda uchrashi mumkin bo‘lgan xatoliklar yoki noaniqliqlar ham fuqarolar foydasiga hal etilishi belgilab qo‘yilgan

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir 30.04.2023)
2. PQ-184-son (15.05.2025)
3. PF-16-son (30.01.2025)
4. „Yuridik kutubxona” electron tizimi
5. „Yuridik adabiyotlar publish” nashriyoti

ЎРТА ТАЪЛИМ БОСИҚИЧИДА ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Жўраев Қобилжон Олимжонович,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети магистратура тингловчиси, капитан

Аннотация: Жиноятчилик муаммоси ҳар қандай жамият учун долзарб масала бўлиб, айниқса вояга етмаганлар орасида жиноят содир этилишининг олдини олиш муҳим аҳамиятга эга. Мактаб ўқувчилари томонидан содир қилинадиган жиноятлар нафақат ёшларнинг келажагига салбий таъсир кўрсатади, балки жамиятнинг барқарорлигига ҳам хатар солади. Шу боисдан ушбу вояга етмаганлар қаторида жиноятчиликни камайтириш ва олдини олиш чораларини самарали йўлга қўйиш зарур.

Калит сўзлар: Вояга етмаганлар, ғайриижтимоий, хулқ атвор, ҳуқуқбузарлик, жиноятларнинг сабаблари, олдини олиш чоралари.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 10 сентябрдаги “Жиноятларнинг сабаблари ва уларнинг содир этилишига имкон берган шарт шароитларни муҳокама қилиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида” ги 565 сонли қарорида содир этилган жиноятларнинг келиб чиқиш сабаблари ва уларнинг содир этилишига имкон берган шарт шароитларни “Жиноятга қарши курашиш ҳақиқати ва адолати” тизими асосида жамоатчилик ўртасида муҳокама қилиш, бу борадаги ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширувчи ва унда иштирок этувчи органлар, муассасааларнинг ўзаро ҳамкорлигини таминлаш ҳамда уларнинг фаолиятини мувофиқлаштириш мақсади белгиланган. Бунда ҳудудларни комплекс ижтимоий – иқтисодий ривожлантириш бўйича сектор раҳбарлари томонидан ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширувчи ва унда иштирок этувчи органлар ҳамда муассасалар иштирокида жиноятларнинг сабабларини ўрганиш, уларнинг содир этилишига имкон берган шарт шароитларни аниқлаш ва бартараф этиш масалаларини жойига чиққан ҳолда “маҳаллабай” ва “соҳабай” муҳокама қилиш тартиби жорий қилинган.[1]

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2025 йил 5 март кунидаги Коррупцияга қарши курашиш миллий кенгаши йиғилишида иштирок этди. Бу йиғилишда мамлакатимиз президенти шундай деди.Бундан саккиз йил аввал ҳудудларни комплекс ривожлантириш бўйича секторлар фаолияти йўлга қўйилган эди. Бу тизим ижтимоий-иқтисодий муаммоларни ҳал этишга кўмаклашди. Шу билан бирга, сўнгги йилларда ҳудудлар салоҳияти ошди. Шу боис энди прокурор, ички ишлар ва солиқ раҳбарлари секторлар фаолияти билан шуғулланмаслиги белгиланди. Жиноятчиликнинг олдини

олиш, унга қарши курашиш бўйича қўшимча вазифалар қўйилди.[2] Жиноятчиликка қарши курашиш ва унинг олдини олиш масаласига давлат рахбари даражасида асосий этиборнинг қаратилиши бизни бу борадаги ишларни янада жадаллаштиришга ва бор куч қувватимиз билан жиноятчиликни жиловлашни тақозо этмоқда.

2025 йилнинг 9 ойида 1 164 нафар мактаб ўқувчилари томонидан 1 082 та олдини олиш мумкин бўлган жиноятни содир этган ва умумий олдини олиш мумкин бўлган жиноятларга нисбатан улуши 70.1 фоизни ташкил этган. Жиноят содир этган мактаб ўқувчиларининг асосий салмоғи (66.3 %) 5 та ҳудуд, яъни Фарғона (208 та) Тошкент шахри (175 та) Наманган (147 та) Тошкент (95 та) ва Самарқанд (93 та) вилоятлари ҳиссасига тўғри келган.

2025 йил 9 ойида вояга етмаганлар жиноятчилигининг субектив сабаб ва омиллари ўрганилганда моддий етишмовчилик 54 %, енгил даромад топишга қизиқиш 2,7 %, зўравонлик орқали ўзини кўрсатиш 16,6 %, жамиятда ўзининг бошқалардан устунлигини намойиш этиш 6,9 %, тарбиявий ёки ахлоқан бузиқлик 0,9 %, бошқа сабаблар 18,9 % ни ташкил қилган.

Вояга етмаганлар жиноятларининг самарали барвақт профиликтикаси биринчидан, жамиятда бола ҳуқуқлари, жумладан ижтимоий ҳимояга муҳтож бўлган болалар ҳуқуқлари кафолатларининг давлат, хусусан, унинг масъул орган ва мансабдор шахслари томонидан фуқаролик жамияти институтлари билан ижтимоий шерикликда тўлақонли таьминланишини;

иккинчидан, уларни жаҳонда юз бераётган глобаллашув, жадаллашув, манфаатлар тўқнашувининг кескинлашуви ва бошқа салбий жараёнлар ҳамда уларнинг оқибатлари тасиридан самарали ҳимоя қилиш тизими ва механизмларини яратишни;

учинчидан, таьлим тарбия соҳасидаги мавжуд бўшлиқ, хато ва камчиликлар тизимли бартараф этиш механизмларини такомиллаштириб боришни;

тўртинчидан, бу соҳада илмий тадқиқотларни янада кучайтириш, мазкур тизимга миллий қадриятларни ва илғор халқаро тажрибаларни уйғунлаштирган ҳолда жорий этиб борнишни тақозо этади[3] деган фикрни илгари сурган эди юридик фанлар доктори профессор Исмаилов Исамидин устозимиз. Биз устозимизнинг юқорида келтириб ўтилган фикрларига қўшиламиз.

Мактаб ўқувчилари ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикасини такомиллаштириш борасида қуйидагилар таклиф этилади.

1. Бугунги кунда мактаб ўқувчилари томонидан содир қилинадиган жиноятларнинг олдини олишда инспектор психолог, мактаб психологлари ва ўқитувчиларнинг самарали ишлашини янада такомиллаштириш мақсадида мактаб ичида “ижтимоий хавф гуруҳлари”ни аниқлаш тизимини

такомиллаштириш ва мактаб психологларига мобил илова кўринишида KPI электрон тизимини жорий қилиш. Биз биламизки ҳозирги кунда деярли барча давлат идоралари ва ташкилотлари рақамлаштирилган KPI тизимида ўз иш натижаларини қайд қилиб келмоқда. Бу тизим ўз навбатида ходимларнинг меҳнат унумдорлигини оширишда яхши самара бермоқда.

2. Мактаб ички рўйхатига киритилган ўқувчилар индивидуал иш режалари ишлаб чиқиш.

3. Мактабларда синф хоналар ва йўлакларни камералаштириш чора тадбирларини белгилаш ва босқичма босқич амалга ошириш. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 январ кунидаги “2025 йил Республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора тадбирлар тўғрисида” ги ПҚ-1 сонли қарорида жиноят содир этилиши эҳтимоли юқори бўлган жойлар ҳамда кўп қаватли уйларнинг ҳовли қисми тўлиқ кузатув камералари билан қамраб олиниши ва “ташвиш” тугмаларининг ўрнатилиши бэлгилаб қўйилган.[4] Мактабларда синф хоналар ва йўлакларни камералаштириш мактаб ҳудудини жиноятдан холи ҳудудга айланишини таминлайди.

4. Мактаб психологлари ва инспектор психологлар ҳамкорликда мактаб ички рўйхатига киритилган ўқувчилар шунингдек бугунги кунда амалиётда 10 тоифа деб юритиладиган ўқувчилар билан мунтазам тавишда ишлаш тизимини ишлаб чиқиш ва KPI тизими орқали мониторингини юритиб бориш. Юқорида айтиб ўтилган 10 тоифага кирувчи ўқувчилар қонунчиликда айнан келтириб ўтилмаган. Бироқ амалиёт давомида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда бу тоифага кирувчи ўқувчилар рўйхати шакллантирилади. Булар қуйидагилар: нотинч оила фарзандлари, ота онаси ажрашганлар, ота онаси узоқ муддат кетганлар, ажрим ёқасидаги оила фарзандлари, отаси ёки онаси муқаддам судланган оила фарзандлари, отаси ёки онаси профилактик ҳисобда турган оила фарзандлари, отаси ёки онаси ёки ҳар иккаласи вафот этган оила фарзандлари ва бошқалар. Жойларда бу тоифадаги ўқувчилар билан ишлаш самарадорлигини янада ошириш орқали ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликнинг олдини олиш мумкин.

5. Оила маҳалла мактаб тамойили асосида маҳаллаларда жиноятжиликка қарши профилактика тадбирларини кучайтириш.

6. Нотинч оила фарзандларининг маҳалла кесимида рўйхатини шакллантириш тизимини ишлаб чиқиш ва улар билан олиб бориладиган чора тадбирларни белгилаш.

7. Маҳалла кесимида ота онаси узоқ муддат кетган вояга етмаганларга васий ёки ҳомий тайинлаш чора тадбирларини белгилаш ва босқичма босқич амалга ошириш.

8. “Оилавий тарбияда назорат ва ишонч мувозанати” мавзусида мунтазам тренинглар ташкил этиш.

9. Ота-она, мактаб ва маҳалла ҳамкорлигини кучайтириш.

10. Болаларни спорт, маданият, ихтисослашган тўгаракларга жалб қилиш.

11. Инспектор психологларнинг иш самарадорлигини бахолаш ва мониторингини юритиш учун KPI тизимини яратиш ва уни мобил илова кўринишида ҳар бир ходим кесимида юритиш амалиётини жорий қилиш.

Мактаб ўқувчилари томонидан содир қилинадиган жиноятларнинг олдини олишда ижтимоий, психологик ва маънавий тарбияга алоҳида эътибор қаратиш зарур. Бу жараёнда мактаб, оила ва жамият ўртасидаги ҳамкорликни мустаҳкамлаш, ёшларнинг руҳий ва ижтимоий ҳолатини яхшилаш, ҳуқуқий саводхонликни ошириш муҳим аҳамият касб этади. Ўзбекистонда бу йўналишдаги ишлар олиб борилмоқда ва самарали натижаларга эришиш учун тадқиқотларни янада кенгайтириш зарур. Ушбу жиноятлар профилактикаси фақат жазо воситалари билан эмас, балки психологик, педагогик, ижтимоий ва ҳуқуқий комплекс чоралар орқали самарали ҳал этилади. Тавсия этилган чоралар тизимли татбиқ этилса, вояга етмаганлар ўртасидаги жиноятчилик даражасини пасайтириш, ижтимоий хавфсизликни мустаҳкамлаш ва ёш авлоднинг ҳуқуқий маданиятини ошириш мумкин бўлади.

References:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 10 сентябрдаги “Жиноятларнинг сабаблари ва уларнинг содир этилишига имкон берган шарт шароитларни муҳокама қилиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида” ги 565 сонли қарори

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2025 йил 5 март кунидаги “Коррупцияга қарши курашиш миллий кенгаши йиғилиши”даги нутқи.

3. Исамидин Исмаилов юридик фанлар доктори, профессор // Музаффар Зиёдуллаев юридик фанлар доктори, профессор // Бола ва Замон Научно-популярный журнал детской и возрастной консультации // №4 2024 й 8 бет.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 январ кунидаги “2025 йил Республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора тадбирлар тўғрисида” ги ПҚ-1-сонли қарори.

ЎЗБЕКИСТОНДА КОНСТИТУЦИЯ ҚАБУЛ ҚИЛИНГАНЛИГИНИНГ 33 ЙИЛГИ МУНОСАБАТИ БИЛАН ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИГА ВА ТАТБИҚ ЭТИШГА БОҒЛИҚ МАСАЛАЛАР

Исматуллаева Ширин,
Ўзбекистон Республикаси Транспорт вазирлиги ҳузуридаги
Тошкент давлат транспорт университети
Халқаро оммавий ҳуқуқ кафедраси мустақил тадқиқотчиси

Аннотация Ушбу мақолада Ўзбекистонда олиб борилаётган кенг қамровли ислоҳотлар даврида қабул қилинган норматив ҳуқуқий ҳужжатларни илмий-амалий, тарихий-назарий, қиёсий-ҳуқуқий жиҳатлари ўрганилиб, амалиётда шаклланиб қолган муаммовий вазиятларга ҳуқуқий бахо бериш орқали ечимга эришилган таклиф ва тавсиялар таҳлил этилган.

Калит сўзлар: Конституция, ҳуқуқий асос, манфаат, ислоҳотлар, рақобатбардош, жамоатчилик назорати, самара, инсон қадри, қадрият.

Ўзбекситонда демократик давлат, барқарор ривожланаётган, ташқи дунё учун очиқ ва рақобатбардош, инсонпарвар ва адолатли ҳуқуқий давлат қуриш, шунингдек инсон унинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатлари энг олий қадрият сифатида тан олинган фуқаролик жамиятини шакллантириш ва унинг ўзига хос хусусиятларини аниқлаштириш, самарали механизмини татбиқ этишни ва ушбу жараёнларда давлат органлари фаолиятини ҳуқуқий баҳолаш долзарб масалага айланган [8]. Ҳозирги кунда Ўзбекистонда ислоҳотларни тўғри амалга татбиқ эта олиш энг муҳим мақсадларимиздан биридир. Бош қомусимизнинг қабул қилинганлигининг 33 йиллиги муносабати билан “Инсон қадри” таълимотининг энг муҳим ва асосий мазмуни этиб белгилаб олиши фуқаролик жамиятининг фаоллаши, хукумат сиёсатига ўз фикри, илми, таклиф ва тавсиялари билан фаол қатнашишига имконият беради.

Ислоҳотларни амалиётга татбиқ этиш, уларнинг ижобий натижаси олинганлиги юзасидан сарҳисоби фуқароларимиз ўртасида қизиқиш ва муҳокамага кескин сабаб бўладиган ҳоллардан биридир. ОАВ орқали ушбу жараёнларни кенг таҳлил қилиб, маълумот тариқасида бериб борилса, қўшимча савол ва музокараларни олдини олишга муяссар бўламиз. Ахборот асрида жаҳонда глобализация жараёнларининг шиддат билан ўсиб бориши мамлакатнинг “ақилли бошқарув тизими” асосида бошқарув тизимларини такомиллаштириш, ихчам ва натижадорликка асосланган давлат бошқаруви механизмини яратишни ҳам талаб этади. Бу жараёнларда эса қабул қилинаётган норматив ҳуқуқий ҳужжатлар ижросини таъминлаш ва маъмурий муносабатларни тартибга солишда марказий ўрин тутувчи давлат фуқаролик хизматчилари фаолият самарадорлигини ошириш, уларнинг вазифа ва

ваколатларини сифатли бажаришда катта таъсир қиладиган манфаатлар тўқнашувини олдини олиш муҳим аҳмият касб этади.

Бугунги кунда ҳам мамлакатда коррупцияга ва манфаатлар тўқнашуви билан боғлиқ ҳолатлар учраётган давлатнинг иқтисодий салоҳияти ва бошқа ислоҳотларнинг самарали амалга оширилишига жиддий тўсиқ бўлмоқда. Давлатимиз раҳбари ҳам мазкур масалага эътибор қаратиб, ислоҳотлар йўлидаги энг катта тўсиқ ва ғов-бу коррупция эканлигини, коррупция оқибатида жаҳон иқтисодиёти йилда 3 триллион доллар зарар (жаҳон ялти ички маҳсулотини 4 фоизи) кўрсатилаётган-бу глобал хавф эканлигини айтиб ўтди [9].

Манфаатлар тўқнашуви ҳам ҳуқуқий, ҳам илмий, ҳам сиёсатшунослик нуқтаи назардан сиёсатшунос, сотсиолог, менежмент тадқиқотчилар ва ҳуқуқшунос олимларнинг эътибор марказида бўлиб келмоқда. Бугунги кундаги замонавий кўринишлар ва юзага келиш эхтимолларининг ортиб бораётганлиги унга нисбатан ҳуқуқий таҳлил ва илмий муносабатни шакллантириш долзарблигини янада оширмоқда. Фикримизча, сўзлар бирикмасидан ҳосил бўлган манфаатлар тўқнашуви категориясини, аввало, ҳар бир сўзнинг ўзаро маъноси англаш орқали кўриб чиқиш керак.

Масалан, “манфаат” атамаси бевосита, наф, фойда, эҳтиёж ва ҳоҳиш, шуниндек қийматга эришиш маънолари билан узвий боғлиқдир. Бу борада, хорижий ҳуқуқшунос олимларнинг фикрларида эътибор қаратадиган бўлсак, М.Першиннинг фикрича, манфаат субьектнинг ўзига хос ҳаёт шароитларига муносабати, эътиёжи билан боғлиқ ҳолат бўлса [10], С.Михайловнинг қайд этишича, манфаат субьекти ва унинг атрофидаги шароитлар ўртасидаги боғлиқликдир [11].

Ғ.Муродиллаев эса, манфаатни жисмоний шахсларнинг шахсий эҳтиёжларини қондириш билан боғлиқ тушунча сифатида ифодалайди. Ўзбек тилининг изохли луғатида эса, манфаат сўзи арабча сўздан олинган бўлиб, фойда, даромад, моддий, маънавий ва бошқа жиҳатдан кўриладиган наф деган маънони англатиши қайд этилган [12].

“Тўқнашув” сўзи эса, асосан салбий ҳолатни ифодалайдиган ва барча ижтимоий муносабатларда ишлатиладиган атама саналади. Хусусан, социологияда конфликт томонларнинг ижтимоий ўзаро таъсири жараёнида манфаатлар, мақсадлар ва эҳтиёжларнинг тўқнашуви натижасида юзага келадиган вазият саналади [13]. Иқтисодий соҳада эса конфликт бу томонларнинг иқтисодий фойда ва даромад олиш жараёнидаги қарама-қаршилигини англатадиган тушунчадир [14]. Лекин, шу ўринда қуйидаги фикрларга тўлалигича қўшилиш мумкинки, бошқа соҳаларда тўқнашув атамасини нейтрал ва баъзи ўринларда ривожланиш, рақобат нуқтаи назаридан

ижобий ҳодиса сифатида баҳолаш мумкин бўлса-да, лекин юридик соҳада тўқнашув салбий ва уни доимо бартарф этиш ёки ҳал қилиш зарурдир [15]. Тушунчанинг аниқ моҳиятини очиб берадиган Ўзбек тилининг изоҳли луғатига эътибор берадиган бўлсак, тўқнашув сўзи лотинча “conflictus” сўзидан олинган бўлиб, қарама-қаршилик томонлар, қарама-қарши фикр, куч, келишмовчилик ва низо, шунингдек қарама-қарши куч ва фикрларнинг тўқнашуви маъноларни билдиради [16]. Фикримизча, таҳлилий манфаатлар тўқнашувини илмий-доктринал, миллий-ҳуқуқий ва халқаро-ҳуқуқий жиҳатдан таҳлил қилиш унинг моҳиятини ва юридик соҳадаги ижтимоий-ҳуқуқий аҳамиятини янада тўлиқроқ тушуниш имконини беради.

Ўзбек луғатида учрайдиган ушбу атамалар норматив ҳуқуқий ҳужжатларда мазмун моҳияти мантиқ моҳиятига асосан, сўз туркуми моҳиятини очиб беришга боғлиқ ҳолларда ишлатилинишда ўз ифодасини топган.

Бирлашган миллатлар ташкилотининг Коррупцияга қарши ковенциясининг 7-моддасига асосан ҳар бир иштирокчи давлат ўз ички қонунчиликнинг асосий тамойилларига мувофиқ ошкораликни таъминлайдиган ва манфаатлар тўқнашувининг олдини олувчи тизимларни яратиш, қўллаб-қувватлаш ва мустаҳкамлашга интилиш бегиланган [17]. Бундан ташқари 8-моддада оммавий хизматдаги (давлат хизмати) мансабдор шахслар ўз фнукцияларини амалга оширишлари давомида турли манфаатдорик билан боғлиқ манфаатлар тўқнашувига йўл қўймаслигига оид нормалар белгиланган. Мазкур халқаро ҳужжатлар манфаатлар тўқнашувининг айнан таърифи берилмаган бўлса-да, юқоридаги қоидалардан манфаатлар тўқнашуви давлат хизмати соҳасида, хизматчиларнинг ўз ваколатларини амалга оширишлари давомида, шахсий манфаатдорлик асосида юзага келишини англаш мумкин.

Халқаро ҳуқуқда айнан ушбу илатни йўқ қилиш ёки унга қарши курашиш ишлари жадал суръатда олиб бораётганлиги, халқаро рейтингларда давлатларнинг бу тизимга қарши курашишдаги ўрнини кўрсатиб келиниши аччиқ ҳақиқатдир. Хукумат фаолиятида ҳар дойим маълумотлар, олиб борилаётган сиёсат ошкора, шаффоф тарзда бохабар қилиб турилинса, ушбу муаммони қисман ечими ижобий ўзгаришлар асносида топилган бўлар эди. Ҳозирги ахборот асри давридаги фуқароларда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданият мустақил равишда ривожланиб бормоқда, интернет саҳифаларда маълумотга эга бўлиши, очиқ, эркин бўлганлиги сабаб, инсон маълумотни тез сифатли топиш имконияти мавжуд. Тахлил қилиш, қиёслаш ва прогнозлаштириш бу мутаҳссисга тегишлидир.

References:

9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2024 йил 19 ноябрдаги Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг биринчи мажлисидаги нутқида белгиланган устувор вазифаларни амалга ошириш бўйича сенатнинг ҳаракатлар дастурини тасдиқлаш тўғрисида. 03 декабрь 2024 йилдаги КҚ-9-V-сонли Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси сенати кенгашининг Қарори.

10. Дадашева. А.А. (2019). Ўзбекистонда маҳаллий ижро ҳокимияти органларининг давлат жамият бошқарув тизимидаги ўрни. Tadqiqot.Uz. https://doi.org/10.26739/2181-9130-2019-11-б.

11. Dadasheva A.A. Public opinion and government evaluation in new uzbekistan - The American Journal of Interdisciplinary Innovations …, 2022 18.

12. Дадашева А.А. - Взаимодействие органов представительной власти на местах и самоуправления граждан в осуществлении действенного общественного контроля. Fuqarolik jamiyati. Гражданское общество, 2021 19.

13. Дадашева А.А. - Маҳаллий ижро ҳокимияти фаолияти устидан жамоатчилик назоратини натижадорлигини оширишнинг илмий-назарий ечимлари. журнал правовых исследований, 2020. 20 бет.

14. Дадашева А.А. Давлат хизматини ислоҳ қилиш шароитида ҳокимлар фаолияти устидан жамоатчилик назоратини амалга оширишнинг асосий йўналишлари - Academic research in educational sciences, 2022. 21 бет.

15. Дадашева А.А. Ўзбекистон Республикаси–конституциявий ислоҳотлар давр талаби - Academic research in educational sciences, 2022. 124 бет.

16. Дадашева А.А. Маҳаллий ижроия органлари фаолияти устидан таъсирчан жамоатчилик назорати механизмларини шакллантириш. Монография. «Yangi kitob» нашриёти. Тошкент 2020 й. 314 б.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 5-mart kuni o‘tkazilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishidagi ma’ruzasidan. https://president.uz/oz/lists/view/7924.

10. Першин М. В. Общая психология / под ред. А. В. Петровского. М., 1997. С. 101; Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. М., 2016. С. 630.

11. Глезерман Г.Е. Интерес как социологическая категория // Вопросы философии – 2006. – № 10. – С. 15-26.

12. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, E.Begmatov va boshq. A.Madvaliyevning tahriri ostida. T.: -Davlat ilmiy nashriyoti. B. 404, 540

13. Социологическая энциклопедия: В 2 т. Национальный общественно-научный фонд / Руководитель научного проекта Г. Ю. Семигин; Главный редактор В. Н. Иванов. – М.: Мысль, 2003. – С. 482.

14. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б..Современный экономический словарь. – 2-е изд., испр. М.: ИНФРА –М. – 479 с. – 2009.

15. М.Ф.Федоров. Конфликт интересов: доктрина и законодательное регулированиею. Право и Государство: теория и практика. 2017. № 9(153). С. 1
16. https://izoh.uz/word/to%E2%80%98qnash
17. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/corruption.shtml

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН КОНСТИТУЦИЯСИ ВА ИНКЛЮЗИВ МЕҲНАТ БОЗОРИ: НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАВҚЕИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Аҳмедова Дилбар Давроновна,
Ўзбекистон Республикаси ЖХУ мустақил изланувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада Янги Ўзбекистон Конституциясида мустаҳкамланган тенглик, камситишга йўл қўймаслик ва ҳар бир шахснинг муносиб меҳнат шароитларига бўлган конституциявий ҳуқуқи инклюзив меҳнат бозори концепцияси билан уйғун ҳолда таҳлил этилган. Ногиронлиги бўлган шахсларнинг меҳнат соҳасидаги ҳуқуқий мақоми, қонунчиликда мавжуд бўшлиқлар, амалдаги муаммолар ҳамда халқаро тажриба асосида такомиллаштириш таклифлари илмий жиҳатдан асосланган.

Калит сўзлар: ногиронлиги бўлган шахслар, Конституция, тенглик, камситиш, инклюзив меҳнат бозори, ҳуқуқий мақом, меҳнат ҳуқуқи, ижтимоий адолат.

Аннотация: В статье анализируются конституционные гарантии равенства, недопущения дискриминации и права на труд, закреплённые в Конституции Нового Узбекистана, в контексте формирования инклюзивного рынка труда. Особое внимание уделено правовому статусу лиц с инвалидностью как отдельной категории участников трудовых отношений, проблемам реализации их трудовых прав, институциональным и нормативным пробелам, а также механизмам адаптации рабочей среды. На основе международных стандартов (КРПИ, конвенции МОТ) и сравнительного зарубежного опыта обоснована необходимость дальнейшего совершенствования законодательства, укрепления гарантий занятости, стимулирования работодателей и расширения возможностей профессиональной реабилитации. Сформулированы практические рекомендации по развитию моделей инклюзивной занятости в условиях модернизации социального государства.

Ключевые слова: инвалидность; инклюзивный рынок труда; Конституция Нового Узбекистана; равенство; недискриминация; трудовые права; адаптация рабочей среды; социальная защита; занятость; международные стандарты.

Abstract: The article examines the constitutional guarantees of equality, non-discrimination, and the right to work enshrined in the Constitution of New Uzbekistan within the framework of building an inclusive labour market. Special attention is given to the legal status of persons with disabilities as a distinct category of participants in labour relations, the challenges of implementing their labour rights, existing institutional and legal gaps, and mechanisms for workplace adaptation. Drawing on international standards (CRPD, ILO conventions) and comparative foreign practice, the article substantiates the need for further improvement of national legislation, strengthening employment guarantees, incentivizing employers, and expanding opportunities for professional rehabilitation. Practical recommendations are proposed for the development of inclusive employment models in the context of the modernization of the social state.

Keywords: disability; inclusive labour market; Constitution of New Uzbekistan; equality; non-discrimination; labour rights; workplace accommodation; social protection; employment; international standards.

Янги Ўзбекистон тараққиёт концепциясида инсон қадри, тенглик ва адолат устувор ўринга кўтарилди. 2023 йилда қабул қилинган янгиланган Конституцияда [1] (хусусан, 20, 21, 22, 42, 43-моддалар) шахснинг меҳнат ҳуқуқига доир кафолатлар, камситишга йўл қўймаслик, ижтимоий ҳимоя ва инклюзив жамият қуриш тўғрисидаги нормалар янги мазмун касб этди. Меҳнат соҳасида ногиронлиги бўлган шахсларнинг иштироки, уларнинг меҳнат ҳуқуқий муносабатларда алоҳида тоифа сифатида ҳуқуқий мақомини аниқ белгилаш масаласи – замонавий ижтимоий-ҳуқуқий сиёсатнинг асосий йўналишларидан биридир.

Давлат томонидан инклюзив меҳнат бозорини шакллантириш фақат ижтимоий вазифа эмас, балки иқтисодий барқарорлик, инсон капитали сифати, рақобатбардош меҳнат сектори учун муҳим омил ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан ногиронлиги бўлган шахсларнинг меҳнатга оид ҳуқуқий мақомини такомиллаштириш — миллий қонунчилик ва инсон ҳуқуқлари соҳасидаги устувор вазифадир.

Конституциядаги тенглик ва инклюзив меҳнатнинг ҳуқуқий асослари бир қатор нормаларида ногиронлиги бўлган шахсларнинг меҳнат соҳасидаги ҳуқуқий мавқеини белгилайди.

Янги Ўзбекистон Конституциясида ногиронлиги бўлган шахсларнинг меҳнат соҳасидаги ҳуқуқий мақомини мустаҳкамловчи қатор нормалар мавжуд бўлиб, улар умумий тенглик тамойилидан тортиб то инклюзив муҳитни яратишгача бўлган ҳуқуқий кафолатлар тизимини ташкил этади. Хусусан, **21-модда**да жамиятнинг барча аъзолари, жумладан ногиронлиги бўлган шахслар

учун *тенглик ва камситишга йўл қўймаслик* тамойили мустаҳкамланган. Ушбу моддага кўра, фуқаролар ирқи, миллати, тили, жинси, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди ёки ногиронлик ҳолатига кўра ҳуқуқ ва эркинликларни амалга оширишда чекловлардан ҳимоя қилинади. Меҳнат муносабатларида бу тамойил ишга қабул қилиш, лавозимда ўсиш, иш ҳақи, меҳнат шароити ва ишдан бўшатиш каби жараёнларда ҳар қандай камситишни қонунан тақиқлайди.

Шунингдек, **22-модда** инсон шаъни ва қадр-қимматини ҳимоя қилишни Конституция даражасида белгилар экан, ногиронлиги бўлган шахсларга нисбатан ҳурматли муносабат, уларнинг шахсий қадри ва ижтимоий аҳамиятини эътироф этишни давлатнинг мутлақ бурчи сифатида белгилайди. Меҳнат соҳасида бу модда иш жойларида камситиш, таҳқирлаш, ижтимоий изоляция ва психологик босимга йўл қўйилмаслигини, меҳнат муҳитида инсонпарварлик ва ҳурмат принципларининг таъминланишини талаб қилади.

Меҳнат муносабатлари билан боғлиқ **42-модда** меҳнат қилиш, эркин фаолият юритиш, адолатли ва хавфсиз меҳнат шароитларига эга бўлиш ҳуқуқини белгилаб, ногиронлиги бўлган шахслар учун меҳнат бозорида тенг имкониятларни кафолатлайди. Ушбу модда меҳнат муҳитини адаптация қилиш, техник ёрдам воситалари билан таъминлаш, махсус иш режими ёки масофавий иш имкониятларини яратиш каби механизмларни давлат мажбурияти сифатида белгилайди. Бу норма меҳнат фаолиятидан четга суриб қўйилган ёки жисмоний имкониятлари чекланган шахсларни меҳнат бозорига қайтаришда ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилади.

Ижтимоий ҳимоя ҳуқуқини кафолатловчи **43-модда**, давлат зиммасига ногиронлиги бўлган шахслар учун қўшимча ижтимоий кафолатлар, реабилитация, таълим, тиббий ёрдам, бандликда кўмак ва моддий қўллаб-қувватлаш каби механизмларни шакллантириш вазифасини юклайди. Ижтимоий ҳимоянинг меҳнат билан боғлиқ қисми реабилитация марказлари фаолияти, қайта тайёрлаш дастурлари ва ишга жойлаштириш хизмати орқали амалга оширилади.

Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқларини давлат томонидан *қўшимча муҳофаза қилиш* ва *инклюзив муҳитни таъминлаш* вазифаларини алоҳида тартибини эса **46-модда** белгилайди. Бу норма бошқа моддалардаги умумий кафолатларнинг амалда ишлаши учун конкрет давлат мажбуриятларини назарда тутади. Хусусан, инклюзив таълим, инклюзив меҳнат сиёсати, архитектуравий ва рақамли муҳитда қулайликлар яратиш, иш берувчиларни рағбатлантириш, жамоатчилик онгини ўзгартириш ва камситишга қарши тарғибот ишлари ана шу модда орқали ҳуқуқий асосга эга бўлади. Ушбу моддалар биргаликда ногиронлиги бўлган шахслар учун меҳнат соҳасида тенг имкониятларни таъминлаш, инклюзив меҳнат бозорини ривожлантириш, инсон

қадрини юксалтириш ва ижтимоий адолатни қарор топтиришнинг яхлит конституциявий асосини шакллантиради.

Бу нормалар ногиронлиги бўлган шахсларнинг меҳнат соҳасидаги ҳуқуқий мақомини стратегик даражада белгилаб, инклюзив меҳнат бозорини барпо этишда конституциявий асос бўлади.

Инклюзив меҳнат бозори — меҳнат муносабатларида фаол иштирок этиш имконияти ҳамма учун таъминланган, камситишлардан холи, адаптация ва реабилитация механизмлари ишлайдиган меҳнат тизимидир.

Конституцияда белгиланган тенглик тамойили инклюзив меҳнат бозори учун қуйидаги мезонларни белгилайди: меҳнат муҳитини адаптация қилиш (техник ва архитектуравий қулайликлар), махсус иш ўринлари яратиш, мантиқий мослашув механизмларини ҳуқуқий мустаҳкамлаш, касбий реабилитация ва қайта тайёрлаш тизимини кучайтириш, меҳнатда камситиш учун давлат жавобгарлигини кучайтириш.

Амалдаги Меҳнат[2] кодексида ногиронлиги бўлган шахсларга қуйидаги кафолатлар назарда тутилган: меҳнатга қабул қилишда камситишга йўл қўймаслик,махсус иш режимлари, иш вақти ва меҳнат шартларида енгилликлар, соғлигига зарар етказмайдиган иш турлари, меҳнат шартномасини бекор қилишда қўшимча кафолатлар. Шу билан бирга, “Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари тўғрисида”ги Қонун[3] меҳнат соҳасидаги ҳуқуқларни алоҳида тартибга солади, бироқ бир қатор механизмларнинг аниқ ишлашини таъминлаб бермайди: квоталаш механизми амалда ҳар доим ишламайди, олий таълим ва касб-ҳунар тизимида адаптация етарли эмас, тушунчасининг ҳуқуқий таърифи йўқ, иш берувчиларнинг мажбуриятлари етарли даражада аниқланмаган.

Илмий таҳлиллар ва статистика шунга далолат қиладики: ногиронлиги бўлган шахсларнинг бандлик даражаси 20–25%дан ошмайди, иш берувчилар қонун талабларини бажармаган ҳолларда самарали жавобгарлик механизми заиф, меҳнат муҳитининг техник адаптацияси паст, меҳнат биржаларида инклюзив хизматлар етарли даражада йўлга қўйилмаган, олий ва ўрта махсус ўқув юртларида инклюзив таълим салоҳияти тўлиқ ишга тушмаган, реабилитация ва қайта тайёрлаш дастурлари тармоғи кенг эмас. Бу эса ўз навбатидамуаммолар конституциявий нормаларнинг амалий самарасига тўсқинлик қилмоқда.

Ногиронлиги бўлган шахсларнинг меҳнат ҳуқуқини таъминлашда БМТнинг қуйидаги ҳужжатлари муҳим аҳамиятга эга:

-“Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисида”ги Конвенция (CRPD)[4] — мослашув, камситишни бартараф этиш, инклюзив муҳит яратишни талаб қилади.

-ОІТ Конвенциялари (№111, №159) — бандликда нотенгликка қарши чоралар, реабилитация тизими.[5]

АҚШда иш берувчиларнинг ногиронлиги бўлган шахслар учун мослаштирилган муҳит яратиши мажбурий. Мантиқий мослашувни рад этиш камситиш сифатида қаралади.

Европа Иттифоқи эса инклюзив меҳнат бозорини қонун эмас, балки давлат дастурлари, грантлар, солиқ имтиёзлари билан қўллаб-қувватлайди.

Жанубий Корея, Японияда **к**воталаш қатъий бўлиб, реабилитация марказлари меҳнат бозоридан ажралмаган ҳолда ишлайди, махсус технологик лойиҳаларга давлат субсидиялари мавжуд. Ушбу стандартлар Ўзбекистон учун ҳуқуқий ва институционал модел сифатида хизмат қилиши мумкин.

Илмий таҳлиллар қуйидаги ҳуқуқий муаммоларни кўрсатади: “ақлан тушунарли мослашув”нинг ҳуқуқий таърифи йўқ, иш берувчи мажбуриятлари аниқ белгиланмаган, квоталаш механизмида рағбатлантириш ва назорат етарли эмас, корхоналарда адаптация харажатларини қоплаш механизми мавжуд эмас, камситишни исботлаш процедуралари мураккабдир.

Бугунги кунда меҳнат биржаларида инклюзив хизматлар заиф, реабилитация марказлари меҳнат бозорига интеграцияланмаган, олий таълим муассасаларида инклюзив инфратузилма етарли эмас**,** ахборот-коммуникация технологиялари имкониятларидан тўлиқ фойдаланилмайди.

Ижтимоий-психологик омилларга келсак, иш берувчиларда стереотиплар мавжуд, бўлиб, жамоатчиликда ногиронлик – меҳнат қобилияти йўқ деган noto‘g‘ri тасаввурлар сақланиб қолган, меҳнат муҳитини ўзгартириш харажатдан қочиш объекти сифатида қаралади.

Юқоридаги тахлилларга кўра қуйидаги ногиронлиги бўлган шахсларнинг меҳнат ҳуқуқий мақомини такомиллаштиришга қаратилган таклифлар илгари сурилди:

Конституция нормаларини амалда татбиқ этиш механизмларини қонунчиликда мустаҳкамлаш:

-“Мантиқий мослашув” тушунчасини Меҳнат кодексига киритиш.

- Иш берувчилар учун ҳуқуқий мажбуриятлар: архитектуравий қулайлик, техник мослаштириш, ІТ адаптация.

- Квоталашни иқтисодий рағбатлантириш орқали самарали қилиш.

2. Инклюзив меҳнат муҳити яратишнинг иқтисодий механизмлари:

- Корхоналар учун солиқ камайтириш чоралари.

- Адаптация харажатларини давлат томонидан субсидиялаш.

- Инклюзив корхоналар учун грантлар ва давлат буюртмаларида преференциялар.

3. Институционал ислоҳотлар:

- Ногиронлар учун “Инклюзив Меҳнат Марказлари” ташкил этиш.

- Реабилитация ва касбий тайёргарликни меҳнат бозорига боғланган ҳолда қайта қуриш.

- Олий таълим муассасаларида инклюзив таълимни кенгайтириш.

4. Ахборот ва рақамли технологияларни кенг жорий этиш –

- Масофавий иш турларини ривожлантириш.

- Меҳнатга оид рақамли платформаларда инклюзив интерфейслар яратиш.

- Иш берувчилар учун онлайн-консалтинг платформалар.

5. Жавобгарлик механизмларини кучайтириш:

- Меҳнатда камситиш ҳолатларини тезкор ҳал этиш учун маъмурий ва фуқаролик-ҳуқуқий механизмларни кечиктирмасдан татбиқ этиш.

- Камситиш фактларини исботлаш учун ҳуқуқий ёрдам ва адвокатура хизматларини кучайтириш.

Янги Ўзбекистон Конституцияси ногиронлиги бўлган шахсларнинг меҳнат соҳасидаги ҳуқуқларини кафолатлаган ҳолда, инклюзив меҳнат бозорини барпо этишга ҳуқуқий асос яратди. Бироқ қонунчилик нормаларининг амалда тўлиқ ишлаши учун институционал, иқтисодий, ҳуқуқий ва ижтимоий механизмларни янада такомиллаштириш зарур. Меҳнат бозорида ногиронлиги бўлган шахсларнинг тўлақонли иштирокини таъминлаш — инсон қадрини юксалтириш, жамиятнинг барқарор ривожига эришиш ва Янги Ўзбекистоннинг демократик тамойиллари рўёбга чиқишининг муҳим кафолатидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент, 2023.

2. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси -Тошкент, 2023.

3. «Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари тўғрисида»ги Қонун , «Аҳоли бандлиги тўғрисида»ги Қонун,

5. United Nations. Convention on the Rights of Persons with Disabilities (CRPD). – 2006. –ILO Convention No. 111 on Discrimination in Employment and Occupation. – 1958.

6. ILO Convention No. 159 on Vocational Rehabilitation and Employment of Disabled Persons. – 1983. European Union Disability Strategy 2021–2030.

7. Americans with Disabilities Act (ADA). – 1990.

MAJBURIY JAMOAT ISHLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYASI

Mirsaatov Sanjarali Imamaliyevich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ma’muriy huquqda majburiy jamoat ishlari institutining shakllanish jarayoni, tarixiy asoslari va uning huquqiy mexanizmlaridagi evolyutsiya tahlil qilinadi. Asarda ushbu institutning joriy etilishiga olib kelgan ijtimoiy-huquqiy ehtiyojlar, fuqarolarning ma’muriy javobgarligini individuallashtirishga qaratilgan yondashuvlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Majburiy jamoat ishlari, ma’muriy huquq, ma’muriy jazo, jamoat tartibi, kengaytirilgan huquqiy mexanizm, insonparvarlik tamoyillari, jazo individuallashtirilishi, huquqiy islohotlar, profilaktik ta’sir, xalqaro tajriba.

Аннотация: В статье анализируется процесс становления института обязательных работ в административном праве, его исторические основы и эволюция правовых механизмов. В работе освещаются социально-правовые потребности, обусловившие введение данного института, а также подходы, направленные на индивидуализацию административной ответственности граждан.

Ключевые слова: Принудительные работы, административное право, административное наказание, общественный порядок, расширенный правовой механизм, гуманистические принципы, индивидуализация наказания, правовые реформы, превентивное воздействие, международный опыт.

Annotation: This article analyzes the process of formation of the institution of compulsory community service in administrative law, its historical foundations and the evolution of its legal mechanisms. The work highlights the socio-legal needs that led to the introduction of this institution, as well as approaches aimed at individualizing the administrative responsibility of citizens.

Keywords: Compulsory community service, administrative law, administrative punishment, public order, expanded legal mechanism, humanitarian principles, individualization of punishment, legal reforms, preventive impact, international experience.

Majburiy jamoat ishlari ma’muriy jazolarning nisbatan yengil, ammo tarbiyaviy ahamiyati kuchli bo‘lgan turi sifatida shakllangan. Bu institutning paydo bo‘lishi jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olishda yumshoq, lekin samarali choralar zarurligi bilan bog‘liq. Dastlab ma’muriy jazo tizimi jarima va ogohlantirishga tayangan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan jamoat ishlari ijtimoiy foydali mehnat orqali tarbiyalash modeli sifatida qo‘llanila boshlandi. Mazkur jazo turi

shaxsni jamiyat oldidagi mas’uliyatini his etishga undaydi. Shu tariqa majburiy jamoat ishlari ma’muriy huquq tizimida mustahkam o‘rin egallay boshladi.[1]

Bu institut shaxslarni jarimaga tovon topa olmagan hollarda ham mas’uliyatga tortadi — ya’ni ijtimoiy-samarali jazo turi orqali odamlarga huquqiy ta’lim beradi, huquqbuzarlikning qaytarilishini kamaytirishga xizmat qiladi.

Majburiy jamoat ishlarining shakllanishiga xalqaro huquqiy tajriba ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ko‘plab davlatlarda yengil huquqbuzarliklarni moliyaviy jazolash o‘rniga ijtimoiy mehnat bilan almashtirish tendensiyasi shakllangan. Bu yondashuv jazo siyosatining insonparvarlashuviga xizmat qiladi. Natijada respublikamiz qonunchiligi ham zamonaviy talablarni hisobga olib, jamoat ishlarini ma’muriy jazo sifatida belgiladi. Xalqaro standartlarga moslashuv ushbu institutning huquqiy bazasini yanada mustahkamlagan. Shu orqali jamoat ishlari global huquqiy evolyutsiya jarayonining bir qismiga aylandi. Amaliyotda majburiy jamoat ishlari ko‘pincha profilaktik maqsadga xizmat qiladi. Chunki bu jazo turi shaxsni jamiyat foydasiga xizmat qiluvchi mehnat bilan shug‘ullantiradi. Ijtimoiy makonlarni tozalash, obodonlashtirish, jamiyatga xizmat ko‘rsatish kabi faoliyatlar shaxsda ijobiy mas’uliyat tuyg‘usini shakllantiradi. Jarima to‘lash imkoniyati bo‘lmagan fuqarolar uchun bu jazo real alternativa vazifasini bajaradi. Shuningdek, jamoat ishlarini o‘tash jarayonida huquqbuzarlar o‘z xatolarining amaliy oqibatlarini anglab yetishadi. Bu esa qayta huquqbuzarlik xavfini kamaytiradi.

Majburiy jamoat ishlari — ayniqsa aliment to‘lashdan bo‘yin tovlovchilarga nisbatan jazo sifatida qo‘llanilmoqda, bu odatdagi jarima yoki ma’muriy qamoqqa nisbatan jamiyat foydasiga mehnat ko‘rsatish orqali jazoni joriy qiladi.[2]

Majburiy jamoat ishlarining samaradorligi ko‘p jihatdan uni tashkil etish mexanizmlariga bog‘liq. Tashkiliy jihatdan bu jarayon mahalliy hokimliklar, obodonlashtirish xizmatlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasidagi hamkorlik orqali amalga oshiriladi. Mehnatni taqsimlash, xavfsizlikni ta’minlash va nazorat mexanizmlari puxta tashkil etilishi zarur. Shuningdek, jamoat ishlarini o‘tash jadvali shaxsning asosiy bandligi bilan moslashtirilishi kerak. To‘g‘ri tashkil etilgan jamoat ishlari ma’muriy jazo tizimining samaradorligini oshiradi.

Бу борадаги қонунийликни таъминлашда 1994 йил сентябрда қабул қилинган ва 1995 йил 1 апрелдан кучга кирган Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси ҳам катта аҳамиятга эгадир. Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги Кодекс реал шароитлардан, янгича принциплар ва воқеликлардан келиб чиқади. Унда қадриятларга тубдан қайта баҳо берилган, унга инсон ва фуқаронинг ҳуқуқлари ва эркинликлари асос қилиб олинган бўлиб, улар халқаро миқёсда эътироф қилинган демократик принципларга, халқимизнинг маънавий ва ахлоқий мезонлари ҳамда анъаналарига тўла мос келади. Кодексда асосий тамойил сифатида ҳаққоний

манфаатлар ғояси ўз ифодасини топган. Худди ана шу муҳим қоида ҳуқуқбузарликлар учун жавобгарликнинг муқаррарлигини ҳам, жазо чораси қўлланилишини ҳам белгилаб берган.[3]

Rivojlanish tendensiyalaridan biri sifatida majburiy jamoat ishlarini raqamlashtirish jarayoni yuz bermoqda. Endilikda jamoat ishlariga jalb etilgan shaxslarni elektron monitoring qilish, ularning mehnat soatlarini raqamli tarzda qayd etish imkoniyatlari paydo bo‘ldi. Bu jarayon nazoratni kuchaytiradi va inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi. Elektron tizimlar orqali ma’lumotlar bazasi shakllantirilib, ma’muriy jarayonlar shaffoflashmoqda. Bu raqamli yondashuv ma’muriy jazo mexanizmlarining zamonaviylashuviga sabab bo‘lmoqda.

Majburiy jamoat ishlari institutining yana bir rivojlanish yo‘nalishi — jazoning differensiallashtirilishi hisoblanadi. Huquqbuzarlikning turi, shaxsning yoshiga yoki ijtimoiy holatiga ko‘ra jamoat ishlarining mazmuni va davomiyligi farqlanishi mumkin. Masalan, ekologik huquqbuzarlik qilgan shaxslar ko‘proq tabiatni muhofaza qilish yo‘nalishidagi ishlarga jalb qilinishi mumkin. Bu yondashuv jazoning tarbiyaviy samarasini kuchaytiradi. Differensiallashtirilgan jazo ma’muriy siyosatning adolat tamoyiliga ham mos keladi.[4]

Kelajakda majburiy jamoat ishlarining qo‘llanish doirasi yanada takomillashishi kutilmoqda. Bunda jazoning insonparvarlik, tarbiya, qayta moslashuv va ijtimoiy integratsiya kabi jihatlari kuchaytiriladi. Shuningdek, jamoat ishlarini o‘tash uchun yangi sohalar — ekologiya, ijtimoiy xizmat, madaniyat va jamoatchilik xavfsizligi yo‘nalishlari kengaytirilishi mumkin. Raqamli boshqaruv bilan uyg‘unlashgan jazo tizimi ma’muriy huquqni yanada modernizatsiya qiladi. Bu o‘z navbatida jamiyatdagi tartib-intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston tajribasi ko‘rsatadiki, majburiy jamoat ishlari — ma’muriy va ijtimoiy jazolar tizimida samarali mexanizm bo‘lib, huquqbuzarliklarni jazolashda adolat, ijtimoiy foyda va reabilitatsiyani birlashtirish imkoniyatini beradi. Mazkur institutni yanada takomillashtirish uchun:

1) jamoat ishlari moddalari kodeksda aniq va keng qamrovli bo‘lishi,

2) mehnat turi, davomiyligi, nazorat mexanizmlari belgilanishi,

3) jazo ijrosi jarayonida shaxslar huquqlari va munosib sharoitlari kafolatlanishi,

4) statistik monitoring va samaradorlik bahosi yuritilishi lozim.[5]

Qonunchilik islohotlarining yana bir muhim jihati — majburiy jamoat ishlarini ijro etish mexanizmlarining takomillashtirilishidir. Sud qarorlari asosida jazoni bajarishni nazorat qiluvchi organlar faoliyati raqamlashtirilmoqda. Masalan, 2021–2024 yillarda ma’muriy jazolarning ijrosida elektron monitoring, elektron hujjatlashtirish tizimlari bosqichma-bosqich joriy etildi. Bu jarayon nazoratning shaffofligini oshiradi va subyektiv omillarni kamaytiradi. Huquqbuzar shaxsning

tomonidan o‘tamagan soatlari, bajarilgan ish hajmi elektron tarzda qayd qilinishi amaliyotni soddalashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ma’muriy jazo sifatida majburiy jamoat ishlaridan foydalanishda xalqaro standartlarga mos kelishga intilmoqda. Xususan, Yevropa davlatlaridagi “community service” modeli o‘rganilib, undagi ijtimoiy reabilitatsiya yondashuvlari milliy norma tizimiga moslashtirib qo‘llanilmoqda. Majburiy ishlarga jalb qilingan shaxslarning mehnat sharoitlari, xavfsizligi, jismoniy holati va sog‘lig‘i qonun bilan himoya qilinishi ham har bir islohotda asosiy mezon sifatida ko‘rilmoqda.[6] Bu institutning huquqiy poydevori kuchayishi fuqarolarning davlat tizimiga bo‘lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Бу каби амалиёт dasturlarи Kanadada o‘nlab yillar davomida katta muvaffaqiyatga erishgan bo‘lsa-da, 300 000 dan ortiq qochqinlarni xususiy homiylar tomonidan mamlakatga qabul qilish imkonini bergan bo‘lsa-da, boshqa dasturlarning aksariyati Suriya inqiroziga javoban va Qochqinlar bo‘yicha global shartnomaga muvofiq majburiyatlar sifatida nisbatan yaqinda ishlab chiqilgan. Hozirgi vaqtda Yevropaning ko‘plab mamlakatlari, jumladan, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Germaniya va Shimoliy mamlakatlar: Finlyandiya va Shvetsiya hamjamiyatga asoslangan homiylik dasturlari va shunga o‘xshash jamoatchilikni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini sinovdan o‘tkazdilar yoki hatto yo‘lga qo‘ydilar.

Kelgusida majburiy jamoat ishlari institutini takomillashtirish bo‘yicha bir qator strategik vazifalar belgilangan. Jumladan, jamoat ishlarining turlarini kengaytirish, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikni kuchaytirish va mehnatni xavfsiz tashkil etish bo‘yicha alohida standartlar ishlab chiqilishi rejalashtirilmoqda. Shuningdek, ijtimoiy foydali mehnatning samaradorligi bo‘yicha yillik monitoring o‘tkazish tizimi joriy etilishi ko‘zda tutilgan. Bu tizimlar orqali jazo turi sifatida majburiy jamoat ishlari yanada samarali, adolatli va tarbiyaviy ahamiyatga ega shaklga aylanadi.

References:

1. Гиёсов, Б. (2020). Ўқотар қуролдан фойдаланиш ва қўллаш тушунчаларининг таҳлили. *Общество и инновации*, *1*(1/s), 405-413.
2. New law: Child support defaulters face up to 120 hours of mandatory community service // https://kun.uz/en/news
3. Хожиев Н. Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг айрим нормалари такомиллаштирилди. 29.11.2025 // https://uza.uz/uz/posts
4. Гиясов, Б. (2024). Значение огнестрельного оружия в предотвращении криминогенного воздействия на общественную безопасность. *Общество и инновации*, *5*(1), 33-40.

5. Ogli, G. B. H., & Ogli, K. D. B. (2020). Legal Support For The Protection Of The Rights Of Witnesses In The Fight Against Organized Crime. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, *2*(11), 57-60.

6. Ғиёсов, Б. (2020). Жамоат хавфсизлигини таъминлашда қилмишнинг жиноят эканлигини истисно этувчи айрим масалалар таҳлили. *SOCIETY AND INNOVATIONS Учредители: in Science*, *2*, 124-130.

KONSTITUTSIYA – INSON HUQUQ VA ERKINLIGINING MUSTAHKAM ASOSI

Rizoqulova Ruhsora G‘ulom qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik” fakulteti talabasi
Ilmiy rahbar: Yuldashova Gavherjan,
TDYU professori, y.f.d., professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangilangan Konstitutsiya inson huquq va erkinligining mustahkam asosi haqida so‘z yuritiladi. Konstitutsiya asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham insoh huquq va erkinliklaribi ta’minlashga doir maqsadlar izohlab berilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan xalq hokimiyatchiligi, inson qadri, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik kabi ezgu g‘oyalarning yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda o‘z aksini topayotganligi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi, Konstitutsiya, xalq hokimiyatchiligi, inson qadri, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat, birdamlik, ezgu g‘oyalar, islohotlar.

O‘zbekiston Respublikasining Yangilangan Konstitutsiyasida qayd etilganidek, “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi” [1].

Ta’kidlash joizki, “O‘zbekiston–2030” strategiyasida (2023-yil 11-sentabrdagi PF№158) belgilab berilganidek, “har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, ularning huquq va erkinliklarini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi [2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-noyabrdagi F-60-son “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi Farmoyishiga ko‘ra “yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan xalq hokimiyatchiligi, inson qadri, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik kabi ezgu g‘oyalarning yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda o‘z aksini topayotganini ko‘rsatib berish [3]

Asosiy qonunimiz va qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarni hayotga keng tatbiq etish, millatlararo munosabatlar sohasida Yangi O‘zbekiston davlat siyosatini ro‘yobga chiqarish maqsadida samarali tizim yo‘lga qo‘yildi.

Jumladan, 2024-yilda o‘tgan saylovlar natijasida saylangan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar va tuman (shahar)lar Kengashlari deputatlarining 11,2 foizini mamlakatimizda yashayotgan boshqa millat vakillari tashkil qiladi. Ulardan 175 nafari tojik, 111 nafari qozoq, 33 nafari turkman, 29 nafari rus, 21 nafari qirg‘iz va boshqa millatga mansub [4].

Mamlakatimiz tarixida ilk bor aralash saylov tizimi – majoritar va proporsional saylov tizimi asosida saylangan Qonunchilik palatasi deputatlarining 12,7 foizi - 5 nafari rus, 3 nafardan qozoq va tojik, 2 nafari koreys, 1 nafardan turkman va qirg‘iz millatiga mansubligi yurtimizda yashayotgan turli millat vakillari Yangi O‘zbekistonning bunyodkorlari ekanligidan dalolat beradi [5].

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari sohasi institutsional jihatdan yildan-yilga tubdan takomillashtirilib, noyob tizim yaratilishi yo‘lida muhim qadamlar tashlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-52 son Farmoni [5] hamda mazkur farmon ijrosini ta’minlash maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-115-son Qarori [6] chiqqanligi O‘zbekistonda umummilliy totuvlikni ta’minlash va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishda muhim hujjat sanaladi.

Darhaqiqat, sohani tubdan isloh qilish to‘g‘risidagi Farmon asosida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi negizida **O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi** tashkil etildi [7]. Unga ko‘ra quyidagi tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirildi:

Birinchidan: Qo‘mita millatlararo munosabatlar hamda xorijdagi vatandoshlar masalalari sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi, davlat organlari va tashkilotlarning ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organiga aylandi;

ikkinchidan: Qo‘mita O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasiga bevosita hisobdor bo‘lganligi uning statusini oshirib, vakolat va imkoniyatlarini kengtirdi;

uchinchidan: Qo‘mitaga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan rais rahbarlik qilmoqda;

to‘rtinchidan: Qo‘mita raisining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan ikki nafar o‘rinbosari mavjud;

beshinchidan: joylarda millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar bilan ishlash masalalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo‘yicha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklanadi va ular ushbu masalalar bo‘yicha Qo‘mita oldida hisobdordir;

oltinchidan: Qo‘mita O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining huquq va majburiyatlari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Bu esa, o‘z navbatida, Yangi O‘zbekistonda millatlararo totuvlikni ta’minlashning muhim omili sanalgan umummilliy birdamlik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, **Xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish** bo‘yicha ham qator vazifalar amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan.

Jumladan, Vazirlar Mahkamasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining “Xorijdagi vatandoshlar orqali bilimlarni transfer qilish” (TOKTEN) dasturi namunasida **xorijdagi vatandoshlarning** Yangi O‘zbekiston iqtisodiy qudratiga qo‘shayotgan hissasini yanada oshirish maqsadida **innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladigan inson kapitali transferini amalga oshirish**, bunda yuqori malakali mutaxassislarni barcha sohalarda sun’iy intellektni tatbiq etish uchun ta’lim, sog‘liqni saqlash tashkilotlariga, qishloq xo‘jaligi va xususiy sektor korxonalariga yo‘naltirishga qaratilgan aniq **tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni belgilash,** shubhasiz mazkur sohani yangi bosqichga olib chiqadi [8].

Ta’kidlash joizki, Yangi O‘zbekistonda millatlararo totuvlikni ta’minlash mqsadida yagona fuqaroviy o‘zlikni shakllantirish yo‘lidagi samarali yutuqlar tufayli “dunyoda Yangi O‘zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va mamlakatimiz bilan hamkorlikka intilish tamoyillari kuchaydi. ... Azal-azaldan o‘zaro qardosh va birodar bo‘lgan mamlakatlarimiz ko‘pgina mintaqaviy va global masalalar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bo‘yicha yaqin hamkorlikda harakat qilishni boshladi. Jahon siyosatshunosligida “Markaziy Osiyo ruhi degan ibora paydo bo‘ldi” [9].

Qayd etish joizki, “avvalo, mintaqamizdagi davlatlar bilan do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari yo‘lga qo‘yildi. Chegaralar ochildi, odamlar qavmu

qarindoshlari bilan aloqalarini tiklab, bir mamlakatdan ikkinchi davlatga emin-erkin borib kela boshladi” [10].

Asosiy Qomusda keltirilishacha, “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratdi [11].

Binobarin, o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman xalqlari madaniy hamkorligi, qardoshligi va do‘stligining tarixiy ildizlarini ancha qadimiyligi, ushbu xalqlarning yashash sharoiti, urf-odatlari, turmush-tarzi bir-biriga nihoyatda yaqinligi mintaqa xalqlarining tarixiy hamkorligi va madaniy-gumanitar hamkorlikning qadim-qadimdan meros bo‘lib kelishi, Yangi O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarni ahil-inoq, do‘stona ruhda, o‘zaro manfaatli tarzda rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, O‘zbekiston qo‘shni davlatlar bilan yaqin do‘stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratib, o‘tgan tarixan qisqa davrda yurtimizning Markaziy Osiyo mintaqasi va jahon miqyosidagi siyosiy o‘rni va nufuzi keskin oshdi. Dunyoda Yangi O‘zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va mamlakatimiz bilan hamkorlikka intilish tamoyillari kuchaydi [12]. Bu haqda gapirganda, 2025 yil mart oyida O‘zbekiston – Qirg‘iziston – Tojikiston chegaralari o‘zaro tutashgan nuqtada “Do‘stlik” stelasi o‘rnatilgani mamlakatlar o‘rtasidagi yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yangi bosqichga kutarganligining yana bir yorqin dalilidir.

Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimizda millatlararo totuvlik siyosatini mustahkamlash maqsadi yo‘lida istiqomat qilayotgan millatlar uchun turli sohalarda faoliyat ko‘rsatishlari, teng huquqli erkin fuqaro sifatida bir butun holda yashashlari uchun davlatimiz tomonidan barcha sharoitlar yaratilganligi, mamlakatimizda turli millatga mansub yurtdoshlarimiz O‘zbekiston ularning Vatani ekanini tobora teranroq anglab yetmoqdalar, milliy madaniyatlarning gullab-yashnashini butun O‘zbekiston taraqqiyotining bir qismi sifatida qabul qilmoqdalar va islohotlarning amalga oshirilishiga o‘z hissalarini ko‘shishga intilmoqdalar. Shuning bilan birga, barcha millat vakillari fuqarolar teng huquqli deb tan olinib, ularda umummilliy iftixor sanalgan davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) va milliy qahramonlarga hurmat ruhi shakllandi. Barchani vatanparvarlik va tarixiy merosga bo‘lgan yuksak ehtiromda tarbiyalanmoqda. Ya’ni, turli millat va madaniyatlarni yo‘qotish emas, balki ularni saqlagan holda umumfuqarolik asosida birlashish, milliy-madaniy rang-baranglikka hurmat bilan yondashish orqali Yangi O‘zbekistonda millatlararo totuvlik siyosati natijasida umummilliy taraqqiyot va ijtimoiy hayot yutuqlariga erishilmoqda. Binobarin, o‘zaro hamkorlik, totuvlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar natijasi o‘laroq, yurtimizda istiqomat

qilayotgan turli millat va elat vakillari madaniyatini ravnaq toptirish hamda yangicha mazmun bilan boyitishda muhim omil bo‘lmoqda.

Muxtasar qilib fikrimni Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning quyidagi so‘zlari bilan yakunlashni joiz deb bildim: “Biz Asosiy qonunimizga tayangan holda, mana shunday noyob Konstitutsiyamizning asosiy ijodkori bo‘lgan ko‘pmillatli, bag‘rikeng va olijanob xalqimiz bilan birga ulkan maqsadlarimizga albatta yetamiz! Yangi O‘zbekistonni barchamiz birgalikda barpo etamiz!” [13].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, Тошкент, “Ўзбекистон”, 2023. –Б.6.

2. “Ўзбекистон–2030” стратегияси (2023 йил 11 сентябрдаги ПФ№158). // Халқ сўзи, 2023 йил 12 сентябрь.

3. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.11.2025 й., 08/25/60/1070-сон.

4. Ўзбекистон Республикаси Миллатлараро муносабатлар ва хориждаги ватандошлар масалалари бўйича Қўмитаси жорий архиви материаллари.

5. Янги Ўзбекистон газетаси, 2025 йил 21 март.

6. https://lex.uz/uz/docs/-7438958 (Мурожаат этилган сана: 09.10.2025.).

7. Янги Ўзбекистон газетаси, 2025 йил 21 март.

8. Янги Ўзбекистон газетаси, 2025 йил 20 март.

9. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. // Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Янги Ўзбекистон” газетаси бош муҳаррири Салим Дониёровнинг саволларига жавоблари. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2021 йил 17 август.

10. Мирзиёев Ш.М. Ватанимиз мустақиллиги – биз учун куч-қудрат ва илҳом манбаи, тараққиёт ва фаровонлик асоси. // Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг 30 йиллик байрамига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2021 йил 1 сентябрь.

11. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. – B.6.

12. https://president.uz/uz/lists/view/6917 .

ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ МОЛОДЕЖНЫХ КОНСУЛЬТАТИВНЫХ ГРУПП ПРИ КЕНГАШАХ НАРОДНЫХ ДЕПУТАТОВ

Саттаров Шахзод Талатович,
независимый соискатель УМЕД
el.pochta: azizjonyuldoshev237@gmail.com
Tel: (99) *9252212*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq deputatlari Kengashlari huzuridagi yoshlar maslahat guruhlarini shakllantishning ilmiy va huquqiy jihatlari tahlil qilindi. Unda yoshlar maslahat guruhlari nomzodlarni tanlash va ko‘rsatish tartibining qonunchilikda yo‘qligi aniqlanadi va ushbu kamchilikni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, maslahat, jamoatchilik, kengash, shakllanish, muvozanat, nodavlat, tashkilotlar.

Аннотация: В статье проведен анализ научных и правовых вопросов формирования молодежных консультативных групп при Кенгашах народных депутатов. Было выявлено отсутствие в законодательстве порядка отбора и выдвижения кандидатов в состав молодежных консультативных групп и разработаны предложения по устранению этого недостатка.

Ключевые слова: молодёжь, консультативный, общественный, совет, формирование, баланс, негосударственные, организации

Abstract: This article analyzes the scientific and legal aspects of the formation of youth advisory groups under the Kengashes of People's Deputies. The lack of a legislative procedure for selecting and nominating candidates for youth advisory groups was identified, and proposals for addressing this deficiency were developed.

Key words: youth, advisory, public, council, formation, balance, non-governmental, organizations

В целях реализации государственной молодежной политики, поддержки общественно-политической активности молодежи и развития гражданского общества Президент Республики Узбекистан предложил создать молодежные консультативные группы (МКГ) при Кенгашах народных депутатов (КНД) [1]. В рамках оказания методической помощи КНД верхней палатой Парламента Узбекистана 26 февраля 2025 года было утверждено типовое положение МКГ [2]. Правильное формирование МКГ позволит эффективной организации их деятельности.

Глава 4 Примерного положения определяет нормы формирования состава МКГ и состоит из 7 пунктов. Согласно пункту 11 количество членов МКГ, как правило, не должна превышать 50% количества депутатов соответствующего

КНД. С учетом количества депутатов КНД можно сказать, что такое количество членов МКГ является недостаточной. Например, верхняя палата Парламента Узбекистана состоит из 65 сенаторов, а Молодёжный парламент при нём имеет 100 членов [3]. В зарубежных странах, как правило, местные представительные органы и молодёжные совещательные органы при них имеют равное количестве членов [4].

В определении требований к кандидатам в члены МКГ существуют как положительные аспекты, так и спорные вопросы. Согласно пунктам 9, 10 и 12 Типового положения членом МКГ может быть:

- лица в возрасте 16-30 лет;
- лидеры молодежи махаллей;
- студенты высших учебных заведений;
- учащиеся средних специальных, общеобразовательных и специализированных школ;
- наиболее активные и инициативные молодые люди, работающие в различных сферах, добившиеся положительных результатов.
- лицо не являющеяся депутатом местного Кенгаша.

Отсутствие требования гражданства Узбекистана к кандидатам в члены МГК является положительным аспектом, поскольку этим учитываются рекомендации некоторых международных организаций по реализации статьи 19 Всеобщей декларации прав человека [5]. Однако требование быть наиболее активным и инициативным, иметь положительные результаты ограничивают конкурентность и равенство возможности быть членом МГК.

Согласно пункту 9 Типового положения состав МКГ формируется постоянными комиссиями по молодежной политике, культуре и спорту областных и Ташкентского городского КНД, районных (городских) КНД (далее - Постоянная комиссия) с учетом гендерного равенства.

Порядок отбора и выдвижения кандидатов в Типовом положение не определен. Только в абзаце втором пункта 10 указано, что кандидатов в члены МКГ также могут рекомендовать территориальные подразделения Агентства по делам молодежи и политических партий. Исходя из норм Примерного положения отбор и выдвижение кандидатов осуществляется непосредственно Постоянной комиссией.

Следовательно, отсутствие четких и прозрачных процедур отбора кандидатов является одним из наиболее серьезных недостатков в формировании МГК. Фактически процесс отбора остается субъективным и не всегда соответствует принципам открытости и конкурентности. Отсутствие четких процедур отбора приводит к снижению легитимности состава МГК и может негативно сказаться на эффективности их работы.

Учитывая, что МГК являются совещательными органами при КНД, в правовом регулировании их формирования и функционирования целесообразно учитывать нормы законодательства об общественных советах при государственных органах и практику их применения. Несмотря на то, что существующее данное законодательство не содержит детальные процедуры формирования общественных советов, оно устанавливает общепризнанные нормы.

В Типовом положении об общественном совете при государственном органе не определен порядок отбора и выдвижения кандидатов в состав общественных советов [6]. При этом из пункта 13 Типового положения следует, что состав общественных советов, как правило, включает в себя представителей негосударственных некоммерческих организаций, средств массовой информации и других институтов гражданского общества [3]. Применение данной нормы и к МГК послужило бы повышению их активности и эффективности.

Указом Президента Республики Узбекистан от 4 марта 2021 за № УП-6181 определено доведение в деятельности общественных советов при каждом государственном органе (по отношению к общей численности представителей негосударственных некоммерческих организаций, включенных в состав общественных советов) числа представителей негосударственных некоммерческих организаций, созданных по инициативе граждан, до 5 процентов в 2021 году и 25 процентов в 2025 году [7]. Эта мера повысит уровень объективности принимаемыми общественными советами решений.

В формировании МГК и других общественных советов актуальным остаётся вопрос обеспечения сбалансированности их состава [8, 47]. В этих целях в статье 9 Закона РК «Об общественных советах» от 2 ноября 2015 года установлено, что от юридического лица, являющегося некоммерческой организацией, в общественный совет может быть избран только один представитель. При этом это лицо не может быть членом больше одного общественного совета республиканского уровня и может избираться не более двух раз подряд [9]. Эти нормы не позволяют одной организации и отдельному лицу расставлять приоритеты своих интересов при принятии решений.

Также, в целях восполнения пробелов в законодательстве Узбекистана Национальное движение «Юксалиш» при поддержке Агентства США по международному развитию (USAID) подготовило методическое пособие по формированию общественных советов при государственных органах [10]. В данном пособии рекомендуется формировать состав ЖК путем проведения конкурса в 6 этапов оргкомитетом и избирательной комиссией, сформированной при широком участии негосударственных некоммерческих организаций.

В результате исследований законодательства об общественных советов и практики их применения были выдвинуты предложения по совершенствованию правовых основ их формирования. В частности, в типовые положения об общественном совете при государственном органе и МГК предлагается внести следующие нормы:

1) общественные советы (МГК) и их составы формируются Постоянными комиссиями из числа представителей институтов гражданского общества, путем открытого голосования в соответствии с Положением об Общественном совете (МГК). При этом они формируются на основе предложений институтов гражданского общества в соответствии с Положением об Общественном совете (МГК).

2) процедура формирования нового состава общественных советов (МГК) начинается за два месяца до истечения срока полномочий действующего состава общественных советов (МГК) в соответствии с порядком, установленным настоящей главой.

3) от одного института гражданского общества в Общественный совет (МГК) может быть избран только один представитель. Одно и то же лицо может быть избрано членом Общественного совета (МГК) не более одного раза.

4) объявление о формировании МКГ публикуется рабочей группой в средствах массовой информации и (или) размещается на интернет-ресурсе государственного органа с указанием их наименования, почтового адреса, сроков подачи документов, адреса электронной почты, на которые направляются документы и иные сведения для участия в конкурсе.

5) рабочая группа проводит отбор в соответствии с Положением об Общественном совете (МГК) и формирует состав Общественного совета (МГК).

В заключении можно сказать, что формирование общественных советов при государственных органах, в том числе и МГК при КНД является важным шагом на пути к построению открытого и демократического общества. Однако для достижения максимальной эффективности необходимо постоянно совершенствовать механизмы их формирования и деятельности.

Использованная литература:

1. Маҳаллий кенгашлар ҳузурида ёшлар гуруҳларини ташкил этиш ташаббуслари илгари сурилди // https://uza.uz/uz/posts/mahalliy-kengashlar-huzurida-yoshlar-guruhlarini-tashkil-etish-tashabbuslari-ilgari-surildi_688458.

2. Типовое положение о молодежной консультативной группе при областном, районном, городском Кенгаше народных депутатов. Утверждено

Постановлением Кенгаша Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан от 26.02.2025 года за № ПК-102-V // https://lex.uz/docs/7433852.

3. Сегодня в Сенате Олий Мажлиса состоялось первое заседание Молодежного парламента при верхней палате парламента // https://gov.uz/ru/yoshlar/news/view/35274

4. Положение о Молодежном парламенте при Думе Артемовского городского округа. Утверждено решением Думы Артемовского городского округа от 25.09.2024 № 361 // https://artemduma.ru/?page_id=7578.

5. Participation of immigrants and foreign residents in political life in the Council of Europe member states // http://assembly.coe.int/nw/xml/XRef/Xref-XML2HTML-en.asp?fileid=16876&lang=en.

6. Типовое положение об общественном совете при государственном органе. Утверждено Постановлением Президента Республики Узбекистан от 4 июля 2018 года № ПП-3837 // https://lex.uz/docs/3808835.

7. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции развития гражданского общества в 2021 — 2025 годах» от 4 марта 2021 за № УП-6181 // https://lex.uz/docs/5319760/

8. Yuldoshev A. The Prospects For The Formation Of Public Councils Under The Ministries In Uzbekistan //The American Journal of Political Science Law and Criminology. – 2021. – Т. 3. – №. 06. – С. 46-53.

9. Закон Республики Казахстан «Об общественных советах» от 2 ноября 2015 года № 383-V ЗРК // https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z1500000383.

10. Создание и развитие общественных советов при государственных органах Республики Узбекистан: методическое пособие. – Т., 2021.

MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDAN MAHALLIY O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARIGA O‘TISH TENDENSIYASI (MDH MAMLAKATLARI MISOLIDA)

R. Davletov
tadqiqotchi

Ma’lumki, ko‘pgina zamonaviy davlatlarda barcha mahalliy ishlar umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali tuzilgan maxsus mahalliy boshqaruv organlari, shuningdek, markaz tomonidan tayinlangan mahalliy boshqaruv organlari tomonidan boshqariladi. Mahalliy yoki shahar o‘zini o‘zi boshqarish - bu ma’lum bir mamlakatning ma’lum bir ma’muriy-hududiy birligi aholisini bevosita ifodalovchi maxsus saylangan organlar tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy boshqaruv tizimi.

Yevropa Kengashi tomonidan 1985-yil 15 oktabrda qabul qilingan Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning Yevropa Xartiyasi mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning umumiy ta’rifini beradi, u amalda universal bo‘lib, barcha demokratik davlatlar tomonidan qabul qilingan. Xartiyada mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish "mahalliy jamoalarning davlat ishlarining muhim qismini nazorat qilish, uni qonun doirasida, o‘z mas’uliyati ostida va aholi manfaati uchun boshqarish huquqi va samarali qobiliyati" sifatida ta’riflanadi [1].

Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish konsepsiyasi asosan mahalliy jamoalar har qanday demokratik rejimning asosiy elementlaridan biri ekanligi va fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi aksariyat zamonaviy davlatlarning demokratik tamoyillarining ajralmas qismi ekanligi haqidagi asosga asoslanadi.

Mahalliy hokimiyat organlarining ahamiyati shundaki, fuqarolar kundalik hayotlarida ushbu organlarning faoliyati bilan duch kelishadi.

Ushbu organlar ma’lum hududiy birlikda aholining turmush tarzi uchun sharoit yaratishga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Mahalliy hokimiyat organlari tashkiliy birlikka egaligi, ma’lum mulkka egalik qilish va uni boshqarish, bitimlar tuzish, mahalliy byudjetni boshqarish kabi vakolatlarga ega ekanligi katta ahamiyatga ega. Shuning uchun, bozor iqtisodiyoti sharoitida mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish zarurati odatda har qanday mamlakat aholisining ko‘pchiligi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi va himoya qilinadi [2].

A.A.Mishinning fikricha, maxalliy boshqaruv ikki turdagi organlar tomonidan amalga oshiriladi: davlat administratsiyasi organlari va maxalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari. Davlat administratsiyasi organlari yuqoridan tayinlanadi va markaziy hukumatga to‘liq bo‘ysunadi. Ular davlat administratsiyasi agentlari sifatida faoliyat yuritadi, hukumat, vazirliklar, departamentlar va shunga o‘xshashlarni taqdim etadi. Administrativ-hududiy birliklarda davlat ishlarini

markaziy administratsiya vakillari tomonidan boshqarish odatda maxalliy boshqaruv deb ataladi [3].

Ilmiy va o‘quv adabiyotlarida, shuningdek ko‘plab mamlakatlar qonunchiligida “mahalliy boshqaruv” tushunchasi bilan bir qatorda “mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish” tushunchasi qo‘llaniladi.

Mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish deb hududiy birlik aholisining o‘zi, uning saylangan organlari va ularning ma’muriy apparati tomonidan mahalliy ahamiyatga ega ishlarni boshqarish ataladi. Mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish – joylardagi markazsizlashgan boshqaruv shakli. Mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarining asosiy belgilari ularning saylanganligi va maxalliy ahamiyatga ega ishlarni boshqarishda nisbiy mustaqilligidir (o‘z ijroiya apparatining mavjudligi, munitsipiy mulk shaklidagi moddiy baza, maxalliy soliqlarni belgilash va undirish huquqi, normativ hujjatlar chiqarish).

Tabiiy huquq doktrinasiga ko‘ra “sun’iy ravishda” yaratilgan (ya’ni markaziy hokimiyat organlarining harakatlari bilan) ma’muriy-hududiy birliklar (masalan, viloyatlar) va faqat markaziy hokimiyat organlari tomonidan tan olingan “tabiiy” mavjud bo‘lgan subyektlarni (masalan, tuman, shahar) ajratib turadi. Birinchilarini boshqarishda davlat manfaatlari ustunlik qilishi kerak, ikkinchilari esa muhim avtonom huquqlarga ega bo‘lishi va asosan mahalliy manfaatlar bilan boshqarilishi mumkin, deb ishoniladi [4]. Shuning uchun ham ko‘pchilik mamlakatlarda eng quyi pog‘onada mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish – kengashlar asosiy vakolatlarga ega bo‘ladi, yuqori pog‘ona esa markaziy hukumat tomonidan tayinlanadigan vakil orqali boshqariladi.

Dunyoda mahalliy boshqaruvning asosiy modellari sifatida anglo-sakson (ingliz) modeli, kontinental (fransuz) modeli va sovet modeli ko‘rsatiladi [5].

Anglo-sakson modeli (Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada, Avstraliya va b.) mahalliy vakillik organlarining o‘z vakolatlari doirasida rasman mustaqil faoliyat yuritishini va markaziy (yoki federal) hokimiyatga bo‘ysunmasligini nazarda tutadi. Munitsipal birlik aholisi mahalliy vakillik organlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylaydi. Bu modelda kontinental modeldan farqli o‘laroq markazdan mahalliy hokimiyatni nazorat qilish uchun tayinlanadigan biror mansabdor shaxs bo‘lmaydi. Mahalliy kengashlar markaziy hokimiyat vakolatiga kirmaydigan mahalliy masalalarni mustaqil ravishda va o‘z mas’uliyatida hal qiladi. Davlat organlari mahalliy hokimiyat ustidan asosan bilvosita nazoratni amalga oshiradi: faoliyatni moliyalashtirish, vazirlik tekshiruvlari, sud nazorati yoki qonunlar orqali.

Markaziy hokimiyat va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish o‘rtasidagi munosabatlar **«intra vires»** prinsipi bilan belgilanadi, ya’ni mahalliy hokimiyat faqat qonunda aniq ko‘rsatilgan harakatlarni amalga oshirishi mumkin. Boshqa barcha

harakatlar vakolatdan tashqari **(ultra vires)** deb hisoblanadi va sud tomonidan noqonuniy deb topilishi mumkin.

Kontinental (fransuz) modeli dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida (kontinental Yevropa, Afrika, Lotin Amerikasi, Yaqin Sharq) qo‘llaniladi. U munitsipal birliklarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat boshqaruvi (davlat ma’muriyati) va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning birlashuviga asoslanadi. Ma’muriy-hududiy birliklardagi davlat ma’muriyati vakillari mahalliy vakillik organlari faoliyati ustidan nazorat o‘rnatadi, o‘z navbatida bu organlar yuqoriroq davlat hokimiyatiga bo‘ysunadi. Masalan, Italiyada regionlar provinsiyalar, kommunalar va boshqa mahalliy tuzilmalar chiqargan hujjatlarning qonuniyligi ustidan nazorat o‘rnatishga haqli. Germaniyada munitsipalitetlar davlat boshqaruvi tizimida uchinchi daraja sifatida kiritilmagan, balki ular land ma’muriyatining bir qismidir. Federatsiya va munitsipalitetlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri huquqiy munosabat yo‘q. Munitsipalitetlar ustidan nazorat faqat land organlarining vazifasi. Nazorat organi munitsipalitetning barcha ishlari haqida ma’lumot olishga, muassasalarni ko‘zdan kechirishga, buxgalteriya va naqd pullarni tekshirishga, hisobot va hujjatlar talab qilishga haqli.

Ushbu ikki model (anglo-sakson va kontinental) o‘rtasidagi farqlar jiddiy emas va asta-sekin kamayib bormoqda. Ikkala model ham o‘xshash prinsiplarga asoslanadi: mahalliy hokimiyat organlari erkin va raqobatli saylovlar orqali shakllanadigan vakillik organlaridir.

Shu o‘rinda olimlar I.Xamedov va I.Say O‘zbekistonda bo‘lg‘usi **mahalliy boshqaruv islohotlarining asosiy konseptual masalasi — bu o‘zgarishlarga asos bo‘ladigan modelni tanlash**. ... Hokim mahalliy kengash rahbari bo‘lgan vaqtda, kengash o‘zining davlat organi sifatidagi maqomini yo‘qotib, munitsipal hokimiyat organiga aylanishi mumkinligi hech kimning xayoliga ham kelmagan. Biroq yangi sharoitlarda joylardagi vakillik organlarini, shuningdek, ularning hokimlar bilan o‘zaro hamkorligining tashkiliy-huquqiy mexanizmini tubdan o‘zgartirish islohotlarning dolzarb vazifasiga aylanmoqda [6] – deb ta’kidlaydi.

Mazkur olimlarning fikricha muhim konstitusiyaviy o‘zgarishlarga qaramay, mahalliy kengashlar haligacha munitsipal emas, balki davlat hokimiyati organlari hisoblanadi.

Agar islohotning maqsadi mahalliy kengashlarni joylarda umumdavlat siyosatini amalga oshirish uchun mas’ul organlar emas, balki hududlar aholisining manfaatlarini ifodalovchi organlar, ya’ni «xalqning haqiqiy ovozi» ta’rifiga va «aholi manfaatlariga xizmat qilish» tamoyiliga javob beradigan munitsipal hokimiyatning vakillik organlariga aylantirish deb hisoblasak, mahalliy boshqaruvni *kontinental model bo‘yicha isloh qilish yo‘li eng maqbul ko‘rinadi* – degan fikrini eslatib o‘tish joiz [7]. Bizni fikrimizcha esa maqsad model tanlash emas, balki O‘zbekistonning

milliy manfaatlariga javob beradigan, davlatchiligimiz rivojlanishining tarixiy qadriyatlari, xalqimizning hozirgi kundagi mentaliteti, davlat xizmatchilarining siyosiy-huquqiy ongi va madaniyati, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi kabilarni hisobga olib, dunyodagi eng ijobiy mahalliy boshqaruv modellari elementlarini uyg‘unlashtirish lozim.

Sovet modeli. U asosan Sovet Ittifoqi va boshqa sotsialistik davlatlarda amal qilgan. Hozirgi kunda bu model faqat bir necha mamlakatda saqlanib qolgan.

Sovet modeli hokimiyatlarni bo‘linishi prinsipini inkor qiladi va teskari prinsip – vakillik organlari (kengashlar) suverenitetiga asoslanadi. Sotsialistik davlatda mahalliy kengashlarning asosiy vazifasi mamlakatning har bir hududida markaziy hukumat funksiyalarini ta’minlash bilan cheklanadi.

Vakillik organlari (kengashlar) xalq suverenitetidan kelib chiqadigan boshlang‘ich qonuniy hokimiyat deb hisoblanadi, boshqa barcha davlat organlari esa kengashlardan kelib chiqadi va ularga hisobdordir. Mahalliy ijro etuvchi organlar (ijroiya qo‘mitalari) ham mahalliy kengashlar tomonidan o‘z a’zolaridan tashkil qilinadi va yuqori daraja ijro etuvchi organiga hamda mahalliy kengashga bo‘ysunadi [8].

I.Xamedov, I.Say turli darajadagi mahalliy kengashlarning bir-biriga bo‘ysunishi, garchi ular tegishli hudud aholisi tomonidan saylansa-da, ushbu organlarning davlat-boshqaruv xususiyatiga ega ekanligidan dalolat beradi – deb hisoblaydi. Ularning fikricha mahalliy kengash vakolatida ma’murchilik va vakillik asoslarining bunday qorishib ketishi faqat mahalliy boshqaruvning sovet modeliga xos. Mamlakatdagi mahalliy boshqaruv tizimida hokimlarning maqomi kengashlarning to‘laqonli hokimiyatiga asoslangan sovet modelini to‘liq takrorlamasa-da, ushbu modelning Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi postsovet modifikatsiyasi mantig‘iga to‘liq mos keladi. ... Shunday qilib, islohotning boshlang‘ich nuqtasi mahalliy boshqaruvning sovet modeliga asoslangan mahalliy davlat boshqaruvining postsovet tizimi deb hisoblanishi zarur [9].

Shu nuqtai nazardan masalani tarixiy rakursda ko‘radigan bo‘lsak, sobiq Ittifoq Konstitusiyasida hududiy davlat apparati mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi deb nomlangan edi. Unga ko‘ra viloyatlar, avtonom viloyatlar, avtonom okruglar, tumanlar, shaharlar, shahar tumanlari, shaharchalar va qishloq aholi punktlaridagi davlat hokimiyati organlari tegishli xalq deputatlari Kengashlari hisoblanadi.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari umumdavlat manfaatlari va Kengash hududida yashovchi fuqarolarning manfaatlaridan kelib chiqib, barcha mahalliy ahamiyatga ega masalalarni hal qilishi, yuqori darajadagi davlat organlarining qarorlarini amalga oshirishi, quyi darajadagi xalq deputatlari kengashlari faoliyatiga rahbarlik qilishi, respublika va umumittifoq ahamiyatiga ega masalalarni muhokama qilishda ishtirok etishi va ular bo‘yicha o‘z takliflarini kiritishi belgilangan edi.

Ijro organlari bu davrda alohida hokimiyat tarmog‘i bo‘lmay, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining ijro va ma’muriy organlari deb nomlanib, ushbu organlar deputatlar orasidan saylanardi.

O‘tgan asrning 90-yillarida sobiq Ittifoqqa a’zo davlatlar mustaqil bo‘lib, har biri o‘z davlat boshqaruv shakli, davlat tuzilishini mustaqil belgilash imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Davlat tuzilishi uchun muhim bo‘lgan mahalliy boshqaruvning konstitusiyaviy-huquqiy asoslarini qiyosiy-tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, aksariyat davlatlar mahalliy davlat hokimiyati tushunchasidan voz kechib, asosiy qonunlarida mahalliy boshqaruv (ommaviy boshqaruv) va o‘zini o‘zi boshqarish organlari tushunchasini ishlatish yo‘liga o‘tishdi.

Armaniston Konstitusiyasining 9-bobi “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish” deb nomlanib, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish jamoalar doirasida amalga oshirilishi, Jamoa bu bir yoki bir nechta aholi punktlari aholisining uyushmasi hisoblanishi, Jamoa - bu ommaviy huquqqa muvofiq yuridik shaxs ekanligi, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari - bu besh yil muddatga saylanadigan oqsoqollar jamoa kengashi va jamoa rahbari hisoblanishi belgilab qo‘yilgan.

Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakolatlari majburiy va ixtiyoriy jamoat vazifalarini bajarish maqsadida o‘z vakolatlari bo‘lishi yoki davlat tomonidan berilishi mumkin. Majburiy jamoat vazifalari qonun bilan, ixtiyoriy vazifalar esa jamoa oqsoqollar kengashining qarorlari bilan belgilanadi.

Davlat organlarining vakolatlarini yanada samarali amalga oshirish maqsadida ushbu vakolatlar qonun bilan mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga berilishi mumkin.

Hukumatning vakolatli organi qonun bilan belgilangan hollarda va tartibda jamoaning o‘z vazifalarini bajarishi ustidan huquqiy nazoratni amalga oshiradi.

Vakolatli davlat organlari qonun bilan belgilangan hollarda va tartibda davlat tomonidan berilgan vakolatlarning amalga oshirilishi ustidan huquqiy va professional nazoratni amalga oshiradilar [10].

Armanistonda bir pog‘onali mahalliy boshqaruv tizimi mavjud. Mamlakat viloyatlarga (marzelarga) bo‘lingan bo‘lsa-da, ular markaziy hukumatning ma’muriy birliklari hisoblanadi va o‘zini o‘zi boshqarish maqomiga ega emas.

Mamlakat 10 ta viloyatga (marzelarga) bo‘lingan bo‘lsa-da, bular o‘zini o‘zi boshqarishning alohida darajalari emas. Ular markaziy hukumatni ifodalovchi ma’muriy birliklar bo‘lib, ularning rahbarlari tayinlanadi.

Belarus Respublikasi Konstitusiyasi V-bo‘limi **mahalliy boshqaruv va o‘zini o‘zi boshqaruv deb nomlanib**, unda mahalliy boshqaruv va o‘zini o‘zi boshqarish fuqarolar tomonidan mahalliy deputatlar Kengashlari, ijro etuvchi va ma’muriy organlar, hududiy jamoat o‘zini o‘zi boshqarish organlari, mahalliy

referendumlar, yig‘ilishlar va davlat va jamoat ishlarida bevosita ishtirok etishning boshqa shakllari orqali amalga oshiriladi [11] – deb belgilangan.

Mahalliy ijro etuvchi organlar rahbarlari Belarus Respublikasi Prezidenti tomonidan yoki u tomonidan belgilangan tartibda tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli mahalliy deputatlar Kengashlari tomonidan lavozimga tasdiqlanadi.

Mahalliy deputatlar Kengashlari, ijro etuvchi organlar o‘z vakolatlari doirasida **umumdavlat manfaatlari va tegishli hududda yashovchi aholining manfaatlaridan** kelib chiqqan holda mahalliy masalalarni hal qiladilar va yuqori darajadagi davlat organlarining qarorlarini amalga oshiradilar.

Belarus qonuchiligiga ko‘ra mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish — bu tegishli hududda yashovchi aholi tomonidan mustaqil ravishda yoki saylangan organlari orqali mahalliy ahamiyatga ega ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy masalalarni hal qilish shaklidir. Bu faoliyat umumdavlat manfaatlari va fuqarolar manfaatlari, ma’muriy-hududiy birliklarining rivojlanish xususiyatlari asosida o‘zining moddiy-moliyaviy bazasi va jalb qilingan mablag‘lardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish shakllaridan biri bu mahalliy deputatlar kengashlari hisoblanadi.

Mahalliy boshqaruv esa — bu mahalliy ijro va farmoyish organlari orqali mahalliy ahamiyatga ega masalalarni hal qilish shakli bo‘lib, uning maqsadi umumdavlat manfaatlari va fuqarolar manfaatlariga muvofiq qarorlar qabul qilishdir.

Belarusda ikki pog‘onali mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish amal qiladi: viloyat va tuman darajasi.

Ozarbayjon Konstitusiyasining IV bo‘limi **mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish** deb nomlanib, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish munitsipalitetlar tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan.

Eng muhim joyi shundaki, 1995 yilda ushbu Konstitusiya qabul qilinganda, uning o‘tish qoidalarida “Ushbu Konstitutsiya kuchga kirgandan so‘ng, Ozarbayjon Respublikasi xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining vakolatlari tugaydi. Ozarbayjon Respublikasi qonunchiligi bilan xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga berilgan vakolatlar mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladi” deb belgilab qo‘yilgan edi [12].

Munitsipalitet munitsipalitet raisi va ularning o‘rinbosarlarini, shuningdek doimiy va boshqa qo‘mitalarni saylash, mahalliy byudjetni va uning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tasdiqlash, munitsipalitet mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, ekologik dasturlarini qabul qilish va amalga oshirish vakolatlariga ega. Munitsipalitetlarga qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan qo‘shimcha vakolatlar berilishi mumkin. Ushbu vakolatlarni amalga oshirish uchun ularga tegishli moliyaviy

resurslar ajratilishi kerak. Bunday vakolatlarning amalga oshirilishini tegishli ravishda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorat qiladi.

Munitsipalitetlar tomonidan vakolatlarini mustaqil ravishda amalga oshirish **Ozarbayjon davlatining suverenitetiga zarar yetkazmasligi** mumkin.

Qonunda belgilangan hollarda va tartibda munitsipalitetlar o‘z faoliyati to‘g‘risida Ozarbayjon Respublikasi Milliy Majlisiga hisobotlar taqdim etadilar [13].

Ozarbayjon qonunchiligiga ko‘ra Ozarbayjon Respublikasida mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish – bu fuqarolar faoliyatini tashkil etishning shunday tizimiki, u ularga qonun doirasida mustaqil va erkin ravishda mahalliy ahamiyatga ega masalalarni hal qilish va mahalliy aholi manfaatlari yo‘lida davlat ishlarining bir qismini amalga oshirish huquqini ta’minlaydi. Bu huquqlar Konstitusiyaning 144-moddasining II qismiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ushbu huquqlar qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda, munsipalitetlar (vakillik kollegial organlari) orqali amalga oshiriladi. Munsipalitetlar o‘z a’zolaridan iborat bo‘lib, ular umumiy, teng, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va yashirin ovoz berish asosida erkin, shaxsan ovoz berish yo‘li bilan saylanadi.

Munsipalitetlar o‘z vazifalarini bajarish maqsadida ular oldida hisobdor bo‘lgan *doimiy ishlovchi ijro organlarini tashkil etishi* mumkin.

Ozarbayjonda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish bir pog‘onali, mahalliy kengashlar tuman va respublikaga bo‘ysunuvchi shaharlarda mavjud emas, ular Prezident tomonidan tayinlanadigan ijro organi rahbarlari tomonidan boshqariladi.

Gruziya Konstitusiyasining to‘qqizinchi bobi **“Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish”** deb nomlanib, unga muvofiq **Gruziya fuqarolari mahalliy masalalarni mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning vakillik va ijro etuvchi organlari orqali tartibga soladilar.** Vakillik organlari umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali saylanadi. **Ijro etuvchi organlar vakillik organlarining qarorlarini amalga oshiradi va ularga hisobdordir.**

O‘zini o‘zi boshqarish organi ommaviy huquqqa muvofiq yuridik shaxsdir. O‘zini o‘zi boshqarish organining chegaralarini belgilash, tugatish yoki o‘zgartirish to‘g‘risidagi qarorlar Parlament tomonidan Hukumat tavsiyasiga binoan va tegishli **o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan maslahatlashgandan** so‘ng qabul qilinadi.

Davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakolatlari chegaralangan. O‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat yoki avtonom respublikalarning mutlaq vakolatiga kirmaydigan va qonun bilan o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakolatlaridan chiqarib tashlanmaydigan barcha masalalar bo‘yicha o‘z tashabbusi bilan va qonunchilikka muvofiq qarorlar qabul qilish huquqiga ega.

O‘zini o‘zi boshqarish organi o‘z vakolatlarini mustaqil ravishda amalga oshiradi va ular uchun Gruziya qonunchiligida belgilangan chegaralar doirasida javobgar bo‘ladi. Organik qonun bilan belgilangan o‘zini o‘zi boshqarish organining vakolatlari to‘liq va mutlaqdir.

Davlat tegishli moddiy va moliyaviy resurslarni o‘tkazish orqali qonunchilik hujjati yoki shartnoma asosida o‘zini o‘zi boshqarish organiga vakolatlarni topshiradi.

Davlat organlari o‘zini o‘zi boshqarish organi faoliyati ustidan huquqiy nazoratni amalga oshiradilar. Tegishli qarorlar qabul qilinishini ta’minlash uchun o‘zini o‘zi boshqarish organi faoliyatini nazorat qilishga faqat berilgan vakolatlar asosida qabul qilingan qarorlarga nisbatan yo‘l qo‘yiladi. Davlat nazorati organik qonun bilan belgilangan tartibda va mutanosiblik tamoyiliga muvofiq amalga oshiriladi.

Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi organi organik qonunchilikka muvofiq o‘zining tashkiliy tuzilmasini mustaqil ravishda belgilaydi va kadrlar masalalari bo‘yicha organik qonunchilik va davlat xizmatini tartibga soluvchi qonunchilikka muvofiq qarorlar qabul qiladi.

Davlat organlari mahalliy hokimiyat organlari bilan ***maslahatlashuvlar asosida*** mahalliy hokimiyat masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qiladi.

Mahalliy ahamiyatga ega masalalarni davlat suverenitetiga putur yetkazmasdan amalga oshirilishi lozim [14].

Gruziyada ham mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish bir pog‘onali.

Qozog‘iston Konstitusiyasining VIII bo‘limi **“Mahalliy davlat boshqaruvi va o‘zini o‘zi boshqarish”** deb nomlanib, mahalliy davlat boshqaruvi tegishli hududdagi ishlarning holati uchun mas’ul bo‘lgan mahalliy vakillik va ijro etuvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi – deb belgilangan. Biroq Konstitusiyaning o‘zida mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishga oid normada bu huquq maslihatlar orqali amalga oshirilishi belgilab o‘tilgan. Shuning uchun ham ayrim ekspertlar “Qozog‘iston Respublikasi Konstitusiyasining VIII bo‘limi "Mahalliy davlat boshqaruvi va o‘ini o‘zi boshqarish to‘g‘risida" ning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda *"davlat boshqaruvi" va "mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish" tushunchalari o‘rtasida aniq farq yo‘q.* Amalda, bu mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmaganligini anglatadi. ... asosiy xato shundaki, Qozog‘istonda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish modeli mintaqaviy, mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan davlat boshqaruvi va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish funksiyalari va vakolatlarini birlashtirish asosida shakllantirilgan va rivojlanmoqda. ... Shuningdek, bir xil tashkiliy va huquqiy tuzilmalar doirasida davlat funksiyalari va mahalliy boshqaruv funksiyalarining kombinatsiyasini ko‘rish mumkin” [15] deb ta’kidlashmoqda.

Qozog‘iston qonunchiligiga ko‘ra mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish – bu aholi tomonidan mustaqil ravishda yoki ***maslixatlar*** (mahalliy kengash)va boshqa mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari orqali amalga oshiriladigan faoliyat bo‘lib, mahalliy ahamiyatga ega masalalarni o‘z mas’uliyatida hal qilishga qaratilgan. Bu faoliyat qonun va boshqa normativ huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qozog‘istonda mahalliy boshqaruv uch pog‘onali: viloyat – tuman – qishloq darajalari. 2021 yilda birinchi marta qishloq darajasidagi hokimlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov bo‘lib o‘tdi. Qishloq darajasida mahalliy vakillik organi – maslihatlar mavjud emas. Ular faqat viloyat va tuman darajasida tashkil etiladi [16].

Moldova qonunchiligiga ko‘ra mahalliy organlar “mahalliy ommaviy boshqaruv organlari” deb nomlanadi. Mahalliy ommaviy boshqaruv – bu qonuniy tartibda tashkil etilgan, alohida ma’muriy-territoriya birligi aholisining umumiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida faoliyat yurituvchi mahalliy davlat organlarining jamlanmasi.

Qishloqlarda (kommunalarda) va shaharlarda (munsipiyalarda) mahalliy avtonomiyani amalga oshirishda mahalliy ommaviy boshqaruvi organlari sifatida mahalliy kengashlar – vakolatli hokimiyat organlari va primarlar – ijro hokimiyati organlari faoliyat yuritadi.

Tumanlarda esa mahalliy avtonomiyani amalga oshirishda tuman kengashlari – vakolatli hokimiyat organlari va tuman raislari – ijro hokimiyati organlari faoliyat yuritadi.

Mahalliy va tuman kengashlari, primarlar va tuman raislari mustaqil boshqaruv organlari sifatida faoliyat yuritib, qishloqlar (kommunalar), shaharlar (munsipiyalar) va tumanlardagi jamoat ishlarini qonuniy asosda hal qiladilar.

Markaziy va mahalliy ommaviy boshqaruv organlari hamda birinchi va ikkinchi darajali ommaviy hokimiyat organlari o‘rtasidagi munosabatlar qonunda ko‘rsatilgan istisnolardan tashqari bo‘ysunuvchilik xususiyatiga ega emas.

Mahalliy ommaviy hokimiyat organlari faoliyati ustidan har qanday ma’muriy nazorat qonuniylik va konstitusiya prinsiplariga rioya etilishini ta’minlashdan boshqa maqsadda qo‘llanilmaydi.

Markaziy davlat organlari mahalliy ommaviy boshqaruvi masalalari bo‘yicha mahalliy ommaviy hokimiyat organlarining vakillik assotsiatsiyalari bilan maslahatlar olib borishi mumkin [17].

Moldovada ikki pog‘onali mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tizimi amal qiladi: tuman va qishloqlar, kommunalar darajasi. Tuman darajasi ijro organi rahbari mahalliy kengash tomonidan saylansa, qishloq, kommuna darajasi ijro organi rahbari to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylovlarda saylanadi [18].

Ukraina qonunchiligiga koʻra mahalliy oʻzini oʻzi boshqarish – bu davlat tomonidan kafolatlangan huquq va haqiqiy imkoniyat, ya'ni hududiy jamoaning (qishloq aholisi yoki bir necha qishloq, shaharcha, shahar aholisining ixtiyoriy birlashmasi) Konstitusiya va Ukraina qonunlari doirasida amalga oshiriladigan, mustaqil ravishda yoki mahalliy oʻzini oʻzi boshqarish organlari va mansabdor shaxslar mas'uliyati ostida mahalliy ahamiyatga ega masalalarni hal qilish qobiliyati.

Mahalliy oʻzini oʻzi boshqarish qishloq, posyolok va shahar jamoalari tomonidan toʻgʻridan-toʻgʻri hamda qishloq, shaharcha va shahar kengashlari va ularning ijro organlari orqali, shuningdek, tuman va viloyat kengashlari orqali, ya'ni qishloq, shaharcha va shahar jamoalari manfaatlarini ifoda etuvchi organlar orqali amalga oshiriladi.

Mahalliy oʻzini oʻzi boshqaruvi vakillik organi – deputatlardan iborat saylanadigan organ (sovet), qonunga muvofiq mahalliy jamoaning manfaatlarini ifoda qilish va uning nomidan qarorlar qabul qilish huquqiga ega.

Kengashning ijro organlari – qishloq, shaharcha, shahar, tuman kengashlari tomonidan Konstitusiya va qonunga muvofiq mahalliy oʻzini oʻzi boshqaruv vakolatlari va ijro funksiyalarini amalga oshirish uchun tashkil etilgan organlar [19].

Ukrainada mahalliy oʻzini oʻzi boshqarish xalq hokimiyati, qonunchilikka rioya qilish, ochiqlik, kollegiallik, mahalliy va davlat manfaatlarini uygʻunlashtirish, saylanuvchanlik, qonunchilikda belgilangan vakolatlar doirasida huquqiy, tashkiliy va moliyaviy mustaqillik, organlar va mansabdor shaxslarning mahalliy jamoaga hisobdorligi va mas'uliyati, davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, mahalliy oʻzini oʻzi boshqarish huquqlarining sud orqali himoya qilinishi prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

Ukrainada uch pogʻonali mahalliy boshqaruv: viloyat – tuman – qishloq, shaharcha, shahar. Viloyatlar va tumanlarda, shuningdek, Kiyev shahrida ijro hokimiyati mahalliy davlat ma'muriyatlari tomonidan amalga oshiriladi. Mahalliy davlat ma'muriyati mahalliy ijro hokimiyati organi boʻlib, ijro hokimiyati organlari tizimining bir qismidir [20].

Mahalliy davlat ma'muriyatlari rahbarlari Ukraina Prezidenti tomonidan Vazirlar Mahkamasining tavsiyasi bilan Ukraina Prezidenti tomonidan Ukraina Prezidenti vakolat muddatiga tayinlanadi.

Ukraina Vazirlar Mahkamasining tuman davlat ma'muriyatlari rahbarlari lavozimlariga nomzodlar tegishli viloyat davlat ma'muriyatlari rahbarlari tomonidan koʻrsatiladi. Har bir lavozimga bitta nomzod koʻrsatiladi.

Agar mahalliy davlat ma'muriyati mahalliy oʻzini oʻzi boshqarish manfaatlariga ta'sir qiluvchi masalalarni koʻrib chiqayotgan boʻlsa, tegishli mahalliy oʻini oʻzi boshqarish organlari oldindan xabardor qilinadi. Ushbu organlarning vakillari va hududiy jamoalarning mansabdor shaxslari mahalliy davlat ma'muriyati

tomonidan bunday masalalarni ko‘rib chiqishda ishtirok etish va fikr va takliflar bildirish huquqiga ega.

Faqatgina qishloq va shaharcha hokimlari aholi tomonidan saylanadi.

Qirg‘izistonda mahalliy o‘zi o‘zi boshqarish – bu mahalliy jamoatning o‘z manfaatlari yo‘lida va o‘z mas’uliyatida mustaqil faoliyati bo‘lib, mahalliy ahamiyatga ega masalalarni hal qilishga qaratilgan.

Mahalliy keneshlar – mahalliy o‘zi o‘zi boshqarishning vakillik organlari bo‘lib, ular ayil aymaklarda va shaharlarda mahalliy jamoatlar tomonidan 5 yil muddatga saylanadi.

Qirg‘izistonda mahalliy boshqaruvning uch pog‘onali viloyat – tuman – qishloq, shaharcha tizimi amal qiladi. Uning viloyat va tuman darajalarida saylanadigan mahalliy kengashlar yo‘q. Barcha hududiy ishlari Prezident tomonidan tayinlanadigan hokimlar hal qiladi. Faqatgina qishloq va shahar darajasida mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish amal qiladi.

Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga ko‘ra mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish — bu Rossiya Federatsiyasining Konstitusiyasi tomonidan tan olingan va kafolatlangan, fuqarolarning o‘zini o‘zi tashkil etish shakli, u orqali xalq o‘z vakolati doirasida jamiyat hayotini ta’minlash bilan bog‘liq masalalarni (maxalliy ahamiyatga ega masalalar) mustaqil ravishda hal qiladi. Bu vakolatlar Rossiya Federatsiyasining Konstitusiyasi, federal qonunlar hamda federal qonunlar tomonidan belgilangan hollarda — Rossiya Federatsiyasi subyektlarining qonunlari doirasida amalga oshiriladi.

Konstitusiyaga muvofiq, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari Rossiya Federatsiyasida yagona ommaviy hokimiyat tizimiga kiradi.

Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi.

Federal qonunlarga muvofiq, ommaviy hokimiyat organlari mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish vazifalarini hal qilishda ishtirok etadi.

Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish **shahar okrugi, munitsipal okrug, federal ahamiyatga ega shaharning shahar ichidagi munitsipal tashkiloti turidagi munitsipalitetlar**da amalga oshiriladi [21].

Federatsiya subyektlari, shu jumladan viloyatlar mahalliy davlat hokimiyati organlari hisoblanadi.

Turkmaniston Konstitusiyasida mahalliy davlat hokimiyati organlari ham bor, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish ham mavjud.

Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda qonunda belgilangan tartibda mahalliy vakillik organlari - xalq maslahati tuziladi, ularning a’zolari tegishli ma’muriy-hududiy birliklarda yashovchi Turkmaniston fuqarolari tomonidan saylanadi.

Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tizimi Gengeshlar (jamoalar) va hududiy jamoat o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan iborat.

Gengeshlar - bu tegishli ma’muriy-hududiy birliklarda yashovchi Turkmaniston fuqarolari tomonidan saylanadigan vakillik organlari.

Turkmanistonda shaharlarda, etraplarda, shaharchalarda va Gengeshliklarda mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv organi – Gengesh tashkil etiladi.

Gengeshlarga qonun bilan ayrim davlat vakolatlari berilishi mumkin, ularni amalga oshirish uchun zarur moddiy va moliyaviy resurslar ajratiladi. Ushbu vakolatlarning amalga oshirilishi davlat tomonidan nazorat qilinadi.

Gengesh o‘z a’zolari orasidan Gengesh ishini boshqaradigan va unga hisobdor bo‘lgan arxinni saylaydi.

Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi [22].

MDHga a’zo davlatlardan faqat O‘zbekiston va Tojikistonda [23] mahalliy organlar – mahalliy davlat hokimiyati organlari deb nomlanadi.

Sobiq Ittifoqqa a’zo bo‘lgan Latviya [24], Litva [25], Estoniya [26]da mahalliy boshqaruv – mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish deb nomlanadi.

Yuqoridagilarni tahlil qilish shuni ko‘rsatmoqdaki:

Birinchidan, Sobiq SSSRning 15 ta respublikasi (hozirgi 15 mustaqil davlat) mahalliy boshqaruv tizimini 1991 yildan keyin isloh qildi. Biroq ko‘pchilikda sovet modelining (iyerarxik-unitar) elementlari saqlanib qoldi – mahalliy organlar saylanadi, lekin markaziy hukumat yetarli nazorat vakolatlariga ega. Xususan, RF, Belarus, Ozarbayjon, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston.

Latviya, Litva, Estoniya esa anglo-sakson modelida rivojlanmoqda. Boshqa respublikalarda esa kontinental va sovet modelining gibrid modeli shakllangan.

Ikkinchidan, sobiq Ittifoqqa a’zo 15 ta davlatdan 11 tasida mahalliy kengashlar – mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari sifatida belgilanmoqda, Qozog‘istonda mahalliy kengash ham mahalliy boshqaruv, ham o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida keltirib o‘tilgan, Rossiya Federatsiyasi Federatsiya bo‘lganligi bois – faqatgina shahar okrugi, munitsipal okrug, shahar ichidagi munitsipalitetlar o‘zini o‘zi boshqarish organlariga kiritilgan. Faqat O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikistondagina mahalliy davlat hokimiyati deb nomlanadi;

Uchinchidan, aksariyat davlatlarda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari umumdavlat manfaatlari va tegishli hududda yashovchi aholining manfaatlaridan kelib chiqqan holda mahalliy masalalarni hal qilishlari, davlatning suverenitetiga zarar yetkazmasliklari prinsip sifatida mustahakmlangan;

To‘rtinchidan, ayrim davlatlarda mahalliy Kengashlar yuqori ma’muriy-hududiy birliklar (viloyat, o‘lka va b.) darajasida tuzilmagan (Qirg‘iziston), ba’zi

mamlakatlarda esa ma’muriy-hududiy birliklar faqat bir pog‘onada tashkil etilgan (Ozarbayjon, Litva, Estoniya);

Beshinchidan, ayrim davlatlar mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarini faqat eng quyi darajada tan olgan. Masalan, Turkmanistonda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish faqat rayonga bo‘ysunuvchi shaharlarda, qishloqlarda, shaharchalarda faoliyat ko‘rsatadi. Qirg‘izistonda qishloq va shahar darajasidagina mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyat yuritadi. Yuqori darajadagi ishlarni ijro hokimiyati mustaqil amalga oshiradi. Rossiyada ham mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish shahar va qishloq darajasida tan olingan;

Oltinchidan, Konstitusiya va qonunlarda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga davlat vakolatlari detsentralizatsiya asosida (tegishli resurs, moddiy-moliyaviy asoslar) berilishi mumkinligi belgilanmoqda;

Yettinchidan, o‘rganilgan davlatlarda ayrim davlatlarda mahalliy boshqaruv organlari yuqori turuvchi organlariga bo‘ysunishi belgilangan bo‘lsa, ayrimlarida esa faqat qonunda belgilangan hollarda bo‘ysunishi belgilab qo‘yilgan;

Sakkizinchidan, o‘rganilgan davlatlarning ayrimlarida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat rahbarlari mahalliy Kengashlardan tasdiqdan o‘tmasdan, yuqori turuvchi organlar (Prezident, hukumat) tomonidan tayinlanadi (Ozarbayjon, Ukraina, Turkmaniston, Qirg‘iziston). Ayrimlarida esa ijro hokimiyati mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organining ijro hokimiyati hisoblanib, uning rahbarlari yuqoridan qo‘yilmaydi (Latviya, Litva, Estoniya, Moldova). Ayrimlarida mahalliy ijro organi rahbarlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylovlarda fuqarolar tomonidan saylanganligi bois mahalliy kengashning ijro organi bo‘lib hisoblanmaydi (Gruziya).

References:

1. https://rm.coe.int/168007a105
2. Конституционное право зарубежных стран: Учебник для вузов / Под общ. ред. чл.-корр. РАН, проф. М. В. Баглая, д. ю. н., проф. Ю. И. Лейбо и д. ю. н., проф. Л. М. Энтина. — М.: Норма, 2004. — С.303.
3. Мишин А.А. Конституционное (государственное) право зарубежных стран: Учебник для вузов" (17-е издание, исправленное и дополненное). — М.: Статут, 2013. – С.287.
4. Mabileau A., Le système local en France, Paris, Montchrestien, 1991., Galès P., Du gouvernement des villes à la gouvernance urbaine, revue française de science politique, volume 45, n 1, 1995., Hill, D M. Democratic Theory and Local Government, George Allen and Unwin, London Jackson, R.M. Machinery of Local Government, Macmillan Co. Ltd., London, 1959.
5. Chirkin, V.E. Comparative Constitutional Law (International Relations 2002)

6. https://www.gazeta.uz/uz/2025/03/27/local-government-reform/
7. https://www.gazeta.uz/uz/2025/03/27/local-government-reform/
8. E.Vodyanitskaya. Local Government. – Max Planck Encyclopedia of Comparative Constitutional Law [MPECCoL], December 2016. // Oxford Constitutions (http://oxcon.ouplaw.com)
9. https://www.gazeta.uz/uz/2025/03/27/local-government-reform/
10. https://www.president.am/ru/constitution-2015/
11. https://etalonline.by/document/?regnum=v19402875
12. https://e-qanun.az/framework/897
13. https://president.az/ru/pages/view/azerbaijan/constitution#section_4
14. https://www.constituteproject.org/constitution/Georgia_2018
15. https://www.tinfo.kz/news/politika/mestnoe-samoupravlenie-%E2%80%93-fundament-gosudarstva.html
16. https://cabar.asia/en/kazakhstan-the-visibility-of-local-self-government-reforms-only-multiplies-problems-in-the-regions
17. https://www.legis.md/cautare/getResults?doc_id=107461&lang=ru
18. https://terri.cemr.eu/en/country-profiles/moldova.html
19. https://zakon.rada.gov.ua/go/280/97-%D0%B2%D1%80
20. https://zakon.rada.gov.ua/go/586-14
21. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_501319/eb81b30d34d25b572f9b7b164d60c647eda3ee64/
22. https://minjust.gov.tm/ru/hukuk/merkezi
23. https://mfa.tj/ru/main/tadzhikistan/konstitutsiya
24. https://mvd.riga.lv/na/Samouprav(08_10_15).pdf
25. https://e-seimas.lrs.lt/portal/legalAct/lt/TAD/17164a805a5c11eba1f8b445a2cb2bc7?jfwid=1fu0almum
26. https://www.fin.ee/ru/mestnoe-municipalitety

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA – BARQAROR EKOLOGIK TARAQQIYOT VA DEMOKRATIK HUQUQIY RIVOJLANISH POYDEVORI

Akramjonov Iqboljon Akramjon o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistraturasi magistranti
Suyundiqova Bahora O‘tkir qizi,
Jamoat Xavfsizligi Universitet Yurisprudensiya yo‘nalishi 101 k/gr talabasi
el.pochta: suyundikovabahora@gmail.com
Tel: (90) 807 80 02

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi yangilangan Konstitutsiyasining mazmun – mohiyati yoritilgan. Unga ko‘ra ekologik barqarorlikni ta’minlash, inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash, demokratik jamiyatni mustahkamlash masalalari tahlil qilinadi. Qabul qilingan yangi Konstitutsiyamiz bugungi kunga kelib, bajarilayotgan islohotlarning huquqiy poydevorini yaratib, jamiyatni barqaror rivojlanish sari yo‘naltiruvchi bosh yo‘l xaritasiga aylandi.

Kalit so‘zlar: inson qadri, demokratiya, huquqiy davlat, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, adolat, islohotlar.

Аннотация: В статье рассматриваются содержание и суть обновлённой Конституции Республики Узбекистан. В ней анализируются вопросы обеспечения экологической устойчивости, гарантий прав и свобод человека, укрепления демократического общества. Принятая сегодня новая Конституция создала правовую основу для проводимых реформ и стала главной дорожной картой, ведущей общество к устойчивому развитию.

Ключевые слова: человеческое достоинство, демократия, верховенство права, устойчивое развитие, экологическая безопасность, справедливость, реформы

Abstract: This article discusses the content and essence of the updated Constitution of the Republic of Uzbekistan. According to it, the issues of ensuring environmental sustainability, guaranteeing human rights and freedoms, and strengthening a democratic society are analyzed. Our new Constitution, which was adopted today, has created the legal foundation for the ongoing reforms and has become the main roadmap guiding society towards sustainable development.

Keywords: human dignity, democracy, rule of law, sustainable development, environmental security, justice, reforms.

Kirish

Shubhasizki, bugungi kunda O‘zbekiston yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Bu jarayonda esa Asosiy qonunimizning yangi tahriri davlatimizning siyosiy, ijtimoiy va ekologik hayotiy tayanchiga aylandi.

Konstitutsiyaviy islohotlar davlatimizning demokratik va huquqiy poydevorini mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, ekologik barqaror rivojlanish konsepsiyasi tabiat resurslarini saqlash va kelajak avlod uchun sog‘lom atrof-muhit yaratishga yo‘naltirilgan. Ushbu ikki yo‘nalish ham o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishda muhim harakterga ega. Maqolada yangilangan konstitutsiya va ekologik barqaror rivojlanish prinsiplarining demokratik huquqiy davlat poydevorini kuchaytirishdagi roli tahlil qilinadi.

Yangi konstitutsiyaning mazmuni va ahamiyati

2023-yilgi Konstitutsiyada inson qadri, jamiyat manfaatlari va davlat mas’uliyati bir-birini to‘ldiruvchi tamoyillar sifatida belgilandi. Unda “ Inson – jamiyat – davlat” tamoyili asosiy yo‘nalishi bo‘lib, fuqarolarning farovon hayoti va hquqularini himoya qilish asosiy vazifa sifatida belgilangan.

Ekologik barqarorlik – yangi davr talabi

Global ekologik muommolar kuchayib borayotgan bir paytda, O‘zbekiston Konstitutsiyasida **ekologik xavfsizlik** masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Bilamizki, Konstitutsiyada belgilangan normalarning olib borilayotgan ekologik siyosatda o‘rni va ahamiyati beqiyos. Aynan yangi tahrirlangan qonunda davlat organlari va turli xil jamoat birlashmalarining ekologik faoliyatini shakllantirishda bir nechta muhim asosiy prinsiplar mustahkamlandi hamda fuqoralarning ekologik burchlari, xususan, Konstitutsiyamizning 9-bobida *“ Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari”* alohida ko‘rsatmalar ostida belgilangan va kafolatlangan.

Har bir fuqaro sog’lom atrof-muhitda yashash huquqi to‘g’risida O‘zbekiston Konstitutsiyasining 49-moddasida: “Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g’risida ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega.” deb belgilangan. Bu nafaqat huquqiy norma balki kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyat ifodasidir.

Shuningdek, **“Yashil makon”** umummilliy loyihasi, **“Yashil iqtisodiyot” strategiyasi** va **energiya tejovchi texnologiyalarni rivojlantirish** – davlatning o‘z oldiga belgilab qo‘ygan ekologik islohotlarni amalda ro‘yobga chiqarishga yordam beradigan amaliy dasturlardir.

Demokratik-huquqiy islohotlarning yangi bosqichi

Demokratik huquqiy islohotlarning yangi bosqichi O'zbekistonda 2023-yildan boshlab yangi konstitutsiyaviy islohotlar orqali boshlandi.

Bugungi holatdan kelib chiqsak, Konstitutsiyamizda inson huquqlari, adolat va qonun ustuvorligi prinsiplari yanada kuchaytirildi.

Barcha davlat organ tarmoqlari o‘rtasida muvozanat tizimi mustahkamlandi. Sud hokimyatining mustaqilligi qayta tiklandi, Ombusdman institutining huquqlari hamda vakolatlari kengaytirildi va fuqorolarning davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatlari oshirildi.*(O‘z. Res. Konstitutsiyasi 36-moddasi: “O‘zbekiston*

Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega...")

Yangi Konstitutsiya O‘zzbekistonni yanada ochiq, adolatli va insonparvar demokratik davlat sifatida shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli, endilikda fuqarolarning har qanday huquqi qonuniy himoya ostida, har bir qaror esa albatta, jamoatchilik nazoratida bo‘lishi belgilangan.

Umuman olganda, demokratik huquqiy islohotlar “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asosida olib borilmoqda.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati uyg’unligi

Fuqarolik jamiyati – bu faqat nodavlat tashkilotlar emas, balki ongli fuqarolar, jamoalar, kasb egalari va ta’lim muassasalari orqali shakllanadigan kompleks ijtimoiy tizimdir**.**

Huquqiy davlatni barpo etish esa, nafaqat yangi qonunlarni qabul qilish, balki ana shu jamiyatda ularni ongli ravishda qo‘llay olish, ya’ni huquqiy madaniyatni shakllantirish demakdir. Bunday davlatda esa adolat, ochiqlik hamda yuqorida ta’kidlanganidek, fuqarolarning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 3-bo‘limida: “*fuqarolik jamiyati institutlari*” ning o‘rni va ahamiyati alohida e’tirof etilgan.

Unga ko‘ra, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari (OAV), jamoatchilik kengashlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari (mahalla) kabi tuzilmalar faoliyatiga juda keng ko;lamli imkoniyatlar yaratildi. Bu esa davlat hamda jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlab, boshqaruvning shaffofligini ta’minlab berdi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu borada shunday degan edi; *“ Yangi O‘zbekistonni Barpo etishda eng muhim tamoyil – xalq bilan muloqot, jamoatchilik fikrini inobatga olishdir. Har bir qaror avvalo xalq manfaatlariga xizmat qilishi kerak. ”*

Yechim va Takliflar

1.Ekologik tarbiyani kuchaytirish: Maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’lim muassasalarida ekologik madaniyat bo‘yicha alohida darslar, amaliy mashg’ulotlar joriy etish.

2.”Yashil iqtisodiyot” ni kengaytish: Ishlab chiqarish korxonalarida ekologik me’yorlarga amal qilmagan holatlarga javobgarlikni kuchaytirish, energiya tejovchi texnologiyalarni kuchaytirish va rag’batlantirish kerak.

3.Jamoatchilik nazoratni oshirish: Ekologik va ijtimoiy loyihalar ustidan jamoatchilik nazoratni amalga oshiruvchi onlayn platformalarni yaratish hamda fuqarolar ushbu platforma orqali shikoyat, taklif yoki e’tiroz yuborib, ularning ko‘rib

chiqish jarayonini onlayn kuzatish imkoniga ega bolishlari xalq ishonchini kuchaytiradi.

4.Huquqiy madaniyatni kuchaytirish: Aholi o‘rtasida huquqiy bilimlarni kuchaytirish, ularni qonunlardan xabardor etish, mahallalarda inson huquqlari mavzusi doirasida doimiy seminarlar, profilaktik ishlar tashkil etilishi lozim.

Xulosa

Konsititutsiyaviy islohotlarning mohiyati shundaki, endilikda inson huquqlari, ekologik xavfsilik, qonun ustuvorligi va ijtimoiy bir butun tizim sifatida qaralmoqda.

Asosiy qonunimizda ekologik huquqularni mustahkamlash orqali O‘zbekiston tabiatni himoya qilishni davlat siyosatining markaziy yo‘nalishiga aylantirdi. Ushbu normalar demokratik jarayonlarni faollashtirib, davlat va jamiyat o‘rtasida huquqiy ishonch muhitini shakllantiradi. Natijada, Konstitutsiya faqat davlat hokimyatining emas, balki xalq irodasining huquqiy ifodasi sifatida faoliyat yuritmoqda. Mana shu sabablar tufayli, Konstitutsiyani barqaror ekologik taraqqiyot va demokratik-huquqiy rivojlanishning strategik kafolati deb baholashimiz mumkin.

References:

1.Oliy Majlisga murojaatnoma, 2022-yil 20-dekabr, www.president.uz

2. Konstitutsiya--ekologik-barqarorlikning-huquqiy-poydevori
https://yuz.uz/uz/news/

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya (yangi tahriri,2023 30-aprel) https://lex.uz

4. Konsititutsiyaviy islohotlar-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati https://yuz.uz/uz/news/

KONSTITUTSIYADA HOKIM BIR VAQTNING O‘ZIDA MAHALLIY KENGASH RAISI BO‘LISHI BEKOR QILINMOQDA!

Turdaliyev Shamsiddin Asqaraliyevich,
izlanuvchi

Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizga kiritilgan hokimning bir vaqtning o‘zida mahalliy kengash raisi bo‘lishi normasining bekor qilinishi, hokimiyatlar bo‘linish prinsipining hududlarda to‘laqonli ijro etilishining zaruriy huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Bu konseptual o‘zgarishga muvofiq, yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 120, 121-moddalariga, xalq deputatlari Kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qilishi; viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi; tegishli hududdagi ijro etuvchi hokimiyatga viloyat, tuman va shahar hokimi boshchilik qilishi kabi muhim normalar belgilab qo‘yildi [1].

Mazkur norma asosida mahalliy darajada vakillik va ijro etuvchi hokimiyat funksiyalari ajratildi. Hokimlarning xalq deputatlari Kengashlariga boshchilik qilishi haqidagi qoidaning chiqarilishi, ularning Kengashlar oldida mas’uliyatini oshirishga, hokimliklar faoliyati ustidan Kengash va deputatlar nazoratini kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Qolaversa, mamlakatda amalga oshirilayotgan ma’muriy islohotlarning tizimli **mantiqiy davomi bo‘ldi**.

Bu islohotning joriy etilishi hokimiyat vakolatlarini bo‘linish prinsipini mahalliy darajada tatbiq etishga, mahalliy kengashlar faoliyati samaradorligini, hokimlarning xalq vakillari oldidagi mas’uliyatini oshirishga olib keladi. Qolaversa, hududlarda xalq manfaatlarini to‘liq ta’minlashga, xalq deputatlari Kengashlarining hududlardagi mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo‘g‘inga aylantirishga xizmat qiladi.

Bu nima beradi degan tabiiy savol tug‘ilishi mumkin?

birinchidan, bir shaxsning ikkita mustaqil tizimga rahbarlik qilish huquqi konstitutsiyaviy jihatdan bekor qilindi;

ikkinchidan, xalq vakillari o‘zlari orasidan rahbarlik qiladigan mustaqil shaxsni demokratik tarzda saylab olish imkoniyati yaratildi;

uchinchidan, hokimlarning kengash oldidagi mas’uliyati va javobgarligi kuchaytirildi;

to‘rtinchidan, hokimiyatlar bo‘linishi va o‘zaro tiyib turish mexanizmini real amalda ishlashiga zaruriy kafolat, qolaversa shu davrgacha mahalliy davlat hokimiyati tizimidagi mantiqsiz boshqaruv tizimiga so‘zsiz chek qo‘yadi;

beshinchidan, mahalliy boshqaruv tizimining xalqqa yaqinlashish imkoniyatini kengaytiradi.

Mahalliy darajada hokimiyatlar bo‘linishi prinsipini amalga oshirish yoki boshqacha aytganda ijro va vakillik organi rahbarligini alohida mustaqil shaxslarga topshirish masalasi uzoq yillardan buyon keng jamoatchilikning diqqat e’tiborida keldi. Alohida ta’kidlash lozimki, Konstitutsiya qabul qilingandan buyon ushbu masala aktual bo‘lib kelmoqda. Hokimlik institutining o‘zi 1992 yildan boshlab mahalliy davlat boshqaruvi tizimiga kirib kelgan. O‘sha davr uchun muhim sanalgan, mahalliy boshqaruvga tayangan hokimlik instituti keng vakolatlarga ega bo‘ldi, ya’ni ham ijro ham vakillik organlariga rahbarlik qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Oxirgi yillarda mazkur nomaqbul an’anaga chek qo‘yish maqsadida, Davlat rahbari boshchiligida ulkan amaliy islohotlar amalga oshirila boshlandi. Xususan, 2017 yil 8 sentabrda qabul qilingan “Ma’muriy islohotlar konsepsiyasi”da [2] mahalliy davlat hokimiyati tizimini tashkil etishda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipining amaliy ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash, alohida vazifa sifatida belgilab qo‘yildi.

Demokratik o‘zgarishlar natijasida, mahalliy vakillik organlarining mahalliy ijro hokimiyati ustidan vakillik nazoratini o‘rnatish vakolatlar kengaya bordi. E’tirof etish kerakki, 2017 yil 14 sentabrda Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi qonunga kiritilgan o‘zgartirishlarga muvofiq, ijro organlari rahbarlari, shu jumladan, sog‘liqni saqlash, adliya, ichki ishlar organlari rahbarlarining belgilangan muddatlarda Kengashlar oldida hisobot va axborot berish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Yana bir muhim o‘zgarishlarga qaraydigan bo‘lsak, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunga (O‘RQ-636-son, 14.09.2020 y.), xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi faoliyatiga tashkiliy-texnikaviy va boshqa jihatlardan xizmat ko‘rsatish vazifasi hokimliklar tuzilmasidan tegishli xalq deputatlari Kengashi kotibiyati zimmasiga yuklatilishi bo‘yicha yangi norma kiritildi. Bu o‘zgarishlar ham albatta qaysidir ma’noda mahalliy kengashlar faoliyatiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi.

Xorijiy mamlakatlarda mahalliy boshqaruv qay tarzda o‘z ifodasini topgan?

Ta’kidlash lozimki, mahalliy darajada ijro va vakillik organini alohida tarzda tashkil etilishi va boshqarilishi xorijiy mamlakatlar amaliyotida ham kuzatishimiz mumkin. Masalan, Fransiya Respublikasida har bir hududiy birlik iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik masalalar uchun mas’ul bo‘lgan va mahalliy xarajatlarni nazorat qiluvchi Kengash (1986 yildan beri to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylovlar orqali saylanadi) tomonidan boshqariladi. Mahalliy ijro hokimiyati Prezident tomonidan tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan eng yuqori ijro etuvchi mansabdor shaxs – prefekt tomonidan boshqariladi.

Qo‘shni davlatimiz Qozog‘iston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati va o‘zini o‘zi boshqarish to‘g‘risida”gi qonuniga (2001 yil 23 yanvar) e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, mazkur qonunning 19-moddasiga ko‘ra [3], Maslaxat raisi

(Qozog‘istonda mahalliy vakillik organi rahbari shunday nomlandi) doimiy asosda ishlaydigan mansabdor shaxs hisoblanadi. U deputatlar orasidan ochiq yoki yashirin ovoz berish yo‘li bilan deputatlar umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan saylanadi.

Shuningdek, mazkur qonunning 1-moddasi, to‘rtinchi bandiga muvofiq, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organi — viloyat, respublika ahamiyatidagi shahar va poytaxt, tuman (viloyat ahamiyatidagi shahar) hokimi (Qozog‘istonda Akim deb yuritiladi) boshchiligidagi kollegial ijroiya organi bo‘lib, tegishli hududda o‘z vakolatlari doirasida mahalliy boshqaruvni amalga oshiradi. Ko‘rib turganimizdek, Qozog‘istonda mahalliy ijro hokimiyati va mahalliy vakillik organlari faoliyat yuritishi mustaqil tarzda amalga oshirilar ekan.

Mahalliy kengashlar faoliyati takomillashmoqda!

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaviy normaga asosan, **“Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir”** konstitutsiyaviy prinsipini amalga oshirishga xizmat qiluvchi hokimlik idoralari rahbarlarining xalq deputatlari Kengashlari oldida hisobot beradigan samarali tizim yo‘lga qo‘yiladi. Eng muhimi, hokimlarni o‘zlari qaror qabul qilib, o‘zlari boshchilik qiladigan kengashlarda ushbu qarorlarni tasdiqlatish, keyinchalik uning ijrosini nazorat qilish kabi amaliyotga chek qo‘yiladi.

E’tibor qaratadigan bo‘lsak, oxirgi yillarda mahalliy kengashlarning faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida bir qancha ijobiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Aytishingiz mumkin bu nimalarda ko‘rinmoqda?

Misol tariqasida, Senat tomonidan mahalliy Kengashlarning **“E-Kengash”** elektron tizimiga joylashtirilgan qarorlari qonunchilikka mosligi **kunlik monitoring qilib borilmoqda**.

Hisobot davrida mahalliy Kengashlar tomonidan qabul **qilingan 16 mingdan ziyod** qaror, shuningdek, mahalliy Kengashlar raislarining **1 959 ta** farmoyishi tahlil qilinib, **97 ta qaror** va **6 ta** Kengash raisi farmoyishi **bekor qilindi** hamda **15 ta** qaror va farmoyish **qonunchilik talablariga moslashtirildi**, shuningdek, aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish hamda kelgusida qayta takrorlanishining oldini olish bo‘yicha tavsiyalar har oy yakuni bo‘yicha mahalliy Kengashlarga kiritib borilmoqda.

Qolaversa, mahalliy kengashlarda nafaqat rasmiyatchilik uchun hisobot va axborotlarni eshitish, balkim unga huquqiy baho berish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, eshituvlar natijasida rahbarlarga nisbatan tegishli chora ko‘rish bo‘yicha 362 marotaba taklif kiritilgan bo‘lib, ulardan **34 nafari** egallab turgan lavozimiga noloyiq deb topilgan. Albatta, bu tahlillardan ham ko‘rinib turibdiki, mahalliy ijro hokimiyatining kengashlar va deputatlar oldidagi mas’uliyati, javobgarligining oshib borayotganligidan yaqqol nishonadir [4].

Bilamizki, deputatlar bu xalq tomonidan saylanadigan, unga eng yaqin ko‘makdosh, yelkadosh bo‘lgan insondir. Shunday ekan qonun doirasida, vakolatlar ko‘magida deputatlar xalqning qalbiga kirishi lozim, ya’nikim ular hayotida uchrayotgan muammolarni qonuniy yechimlarini ko‘rish choralarni tizimli tarzda amala oshirishlari lozim bo‘ladi.

Tahliliy ma’lumotlarga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, birgina 2022 yil yakunlari bo‘yicha mahalliy Kengash deputatlari tomonidan o‘rganishlar natijasida, aholi murojaatlari asosida mutasaddi idora va tashkilotlar rahbarlariga **19 mingdan ziyod deputat so‘rovi** yuborilgan, so‘rov natijalari **216 marta** sessiyalarda muhokama etilgan. Natija nima bo‘lgan degan tabiiy savolga quyidagi ma’lumotlar asosida javob qaytarishimiz mumkin bo‘ladi. Mahalliy kengash deputatlarining o‘z saylov okruglarida aholi vakillari bilan uchrashuvlarda ko‘tarilgan 72 mingdan ortiq muammoli masalalarning **61 mingdan ortig‘i (85%)** ijobiy hal etilgan [5].

Mahalliy boshqaruvda yangi bosqichda qanday islohotlar guvohi bo‘lmoqdamiz!

Xabaringiz bor, Davlat rahbari tomonidan joriy yilning 20 iyun sanasida Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvda “ **...** hokimlar bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari kengashlariga ham boshchilik qilishi haqidagi qoidani Konstitutsiyadan chiqarib tashlash vaqti keldi, deb hisoblayman” deya ta’kidlab, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatidagi jiddiy o‘zgarishlarni konstitutsiyaga kiritish taklifini bergan edilar.

Darhaqiqat, 2022 yil 21 dekabrda qabul qilingan, “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonga muvofiq, ikkinchi bosqichda mahalliy davlat hokimiyati organlarini 2023 yil 1 aprelga qadar isloh qilish bo‘yicha choralar ko‘rilishini ta’minlash belgilandi [5].

Bu Farmon orqali, ijro etuvchi hokimiyat organlari shtat birliklari, shu jumladan rahbar lavozimlarini 30 foizgacha maqbullashtirish va adolatli mehnatga haq to‘lash tizimini joriy etish; respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining funksiyalarini tartibga solish orqali ularni kamida 10 foizga qisqartirish; xususiy sektorga o‘tkaziladigan davlat funksiyalari sonini kamida 3 barobarga oshirish, rahbarlarning aholi takliflari asosida faoliyatini yo‘lga qo‘yish va jamoatchilik oldida hisobdorligini kuchaytirish kabi muhim vaziflar belgilandi.

Albatta, mazkur islohotlar joylarda, samarali va ixcham boshqaruvni amalga oshirish, ortiqcha sarf-xarajatlar, qaytariladigan vazifa va funksiyalarning oldini oladi, eng muhimi har tomonlama samaradorlikka erishish imkoniyati eshigini ochib beradi desak, xato qilmagan bo‘lamiz..

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyaning mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini samarali tashkil etish, shoshma shosharlikka yo‘l qo‘ymaslik maqsadida ham aniq bir normalar belgilandi.

Xususan, viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari Kengashi raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi haqidagi qoidalar quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi. Xususan: viloyatlar hamda Toshkent shahar vakillik va ijro etuvchi davlat hokimiyati organlariga nisbatan 2024 yilda xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari deputatlarining navbatdagi saylovlari yakunlari bo‘yicha; tuman hamda shahar vakillik va ijro etuvchi davlat hokimiyati organlariga nisbatan esa 2026 yil 1 yanvardan e’tiboran amalga kiritiladi.

Muxtasar qilib aytar ekanmiz, ilgari hokim bir vaqtning o‘zida ham ijroiya, ham vakillik hokimiyatiga rahbarlik qilgan. Endigi kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra, hokim faqat ijro hokimiyatiga, mahalliy Kengashlarga esa o‘zlari tomonidan saylanadigan deputatlardan biri rais bo‘ladi. Qolaversa, mazkur yangi norma orqali mahalliy hokimiyat organlari vakolatlari barcha sohalarda aniq va batafsil belgilandi, bu orqali ayniqsa, mahalliy xalq deputatlari Kengashlarining davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki kuchaytiriladi, joylardagi mahalliy aholini manfaatlarini amalda ta’minlash imkoniyatlari oshiriladi. Ushbu o‘zgarishlar kelgusida mahalliy davlat hokimiyati organlarining samarali faoliyat olib borishiga xizmat qiladi.

References:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент, “Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази, 2023 й. – Б.91 -92.
2. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 37-сон, 979-модда.
3. https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z010000148_
4. https://Senat.uz/. Ўзбекисто Республикаси Олий Мажлис Сенатининг 2024 йилдаги фаолияти. Б.13.
5. https://Senat.uz/. Ўзбекисто Республикаси Олий Мажлис Сенатининг 2022 йилдаги фаолияти. Б.13.
6. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 24.12.2022 й., 06/22/269/1117-сон.

KRIMINALISTIKA TAVSIYALARINING KONSTITUTSIYAVIY PROTSESSUAL TALABLARGA MUVOFIQLIGIGA TANQIDIY NAZAR

Mathalikov Rasul,
O’zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Maqolada muallifning kriminalistika tavsiyalarining konstitutsiyaviy protsessual talablarga muvofiqligi borasidagi tanqidiy qarashlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: tanqidiy nazar, muvofiqlik, kriminalistika tavsiyalari, konstitutsiyaviy protsessual talablar.

Аннотация: рассматриваются некоторые критические взгляды автора на соответствие криминалистических рекомендаций конституционным процессуальным требованиям.

Ключевые слова: критические взгляды, соответствие, криминалистические рекомендации, конституционные процессуальные требования.

Abstract: The article examines the author’s critical views regarding the compliance of forensic recommendations with constitutional procedural requirements.

Key words: critical perspective, compliance, forensic recommendations, constitutional procedural requirements.

Kriminalistika taktika va metodikasi jinoyatlarni muvaffaqiyatli, to‘g‘ri va tezkor ochish hamda tergov qilishni, dalillarni to‘plashni va jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlashni ta’minlashga qaratilgan. Shu sababli, har qanday kriminalistika tavsiyalari, avvalo, protsessual talablarga qat’iy rioya etishga asoslanishi lozim, chunki ular faqatgina jinoyat-protsess doirasida amalga oshiriladi.

Kriminalistika taktikasining asosiy vazifasi — tergov va boshqa harakatlarni eng samarali tarzda tashkil etish hamda tergov jarayonida kriminalistika faoliyatining ishtirokchilari o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlashdir. Ma’lumki, kriminalistika taktikasi bilish predmetini jinoyat subyektlarining, tergov doirasiga tushib qolgan boshqa shaxslarning va tergovni amalga oshirayotganlarning xatti-harakatlaridagi mantiqiy-psixologik hamda boshqa xususiyatlar tashkil etadi. Bundan tashqari, tergovchi tomonidan amalga oshiriladigan tergov va boshqa harakatlarning reja-tashkiliy va vaziyatga oid jihatlari, shuningdek, uning barcha vosita va usullardan iborat taktik arsenali ham bu sohaga kiradi [1].

Protsessual qonun qoidalari 1995 yil 1 apreldan O’R JPK kuchga kirishi bilan o‘zgargan va muntazam ravishda o‘zgarishda davom etmoqda. Kriminalistikaning nazariy va amaliy ishlanmalari ham uzluksiz rivojlanmoqda, biroq ular har doim ham

amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikning zamonaviy talablarini hisobga olmaydi. Bu ayniqsa tergov harakatlari taktikasi sohasida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Mazkur ziddiyat eng ko‘p gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini so‘roq qilish taktikasi bo‘yicha kriminalistika tavsiyalarini ko‘rib chiqishda namoyon bo‘ladi. Kriminalistika gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini so‘roq qilish jarayonida psixologik aloqa o‘rnatish usullarini, ishonch muhitini yaratishni va tergovchining so‘roq qilinuvchining shaxsiga qiziqishini qat’iy tavsiya etadi. Biroq RU JPKdagi himoyachi-advokatning majburiy ishtirok etishi haqidagi qoidalar bilan qanday muvofiqlashish mumkin? Axir himoyachisiz gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchidan biror tan olish ko‘rsatmalarini olish, aslida, ma’nosizdir (O’R JPK 51, 53, 95^1, 550-moddalar va boshqalar). Kriminalistika darsliklarida esa tergovchi qanday yo‘l tutishi kerakligi to‘g‘risida tavsiyalar juda kam uchraydi: masalan, agar gumon qilinuvchi himoyachisiz hech narsa demasa yoki ishga tayinlangan advokatdan noroziligini bildirsa [2].

Himoyachi-advokatning ishtirokiga oid muammolarga bag‘ishlangan protsessual tadqiqotlar ko‘p bo‘lsa-da, kriminalistlar asarlarida so‘roqda himoyachining majburiy ishtiroki haqidagi talablar har doim ham e’tiborga olinmaydi. Himoyachi faol ishtirok etgan hollarda ham taktik tavsiyalar o‘z ahamiyatini yo‘qotadi, chunki u so‘roq jarayonida ayblanuvchiga maslahat beradi, ishga daxlsiz savollarni rad etadi yoki ishonch o‘rnatishga qaratilgan kriminalistika tavsiyalari asosida berilgan savollarga to‘sqinlik qiladi.

Kriminalistika tavsiyalarini qo‘llashdagi yana ko‘proq nomuvofiqliklar va qiyinchiliklar voyaga yetmagan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini so‘roq qilishda yuzaga chiqadi. Chunki O’R JPK 425-moddasiga ko‘ra, so‘roqda quyidagilar ishtirok etadi: tergovchi (surishtiruvchi), voyaga yetmagan ayblanuvchi (gumon qilinuvchi), himoyachi, qonuniy vakil (masalan, ona), pedagog (sinf rahbari), psixolog. Protsessual talablar bajarilgan bo‘lsa-da, bunday so‘roqning kriminalistik taktika va isbot qiymati haqida qay darajada gapirish mumkin? Aniqki, ota-ona va pedagog ishtirokidagi sharoitda voyaga yetmagan shaxs o‘zining noqonuniy xatti-harakatini tan olish ehtimoli juda past. Shunga qaramay, kriminalistika taktikasi tergovchiga voyaga yetmagan bilan ishonchli munosabat o‘rnatishni tavsiya etadi, go‘yo boshqa majburiy ishtirokchilar mavjud emasdek.

Kriminalistlar ko‘plab tergov harakatlari faqat sud qaroriga binoan amalga oshirilishini yetarli darajada hisobga olmayotgandek taassurot tug‘iladi. Sudga murojaat qilingandan keyin qarorni kutish muddati 24 soatgacha davom etishi mumkin (O’R JPK 18, 29-moddalar). Shunga qaramay, tergov harakatlarini darhol o‘tkazish tavsiya etiladi. Holbuki, masalan, sud qarorisiz uyda tintuv yoki olib qo‘yish o‘tkazish va keyinchalik sudni xabardor qilish olingan dalillarning yaroqsiz deb topilishiga olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda esa sud qarorini kutish

sharoitida tergov sirini va kutilmaganlik elementini qanday saqlash bo‘yicha taktik tavsiyalar zarur bo‘lar edi.

O’R JPK talabi bo‘yicha, uyda tintuv o‘tkazilganda tintuv qilinayotgan shaxsning o‘zi yoki uning voyaga yetgan oila a’zolari qatnashishi kerak (O’R JPK 160-modda). Kriminalistika bu borada deyarli tavsiyalar bermaydi: agar ayblanuvchi yolg‘iz yashasa, nima qilish kerak? qarindoshlarni qayerdan topish mumkin? uy-joy tashkiloti vakilini taklif etish mumkinmi? Shuningdek, ofis xonalarida tintuv vaqtida qo‘riqchilar qarshilik ko‘rsatgan taqdirda tergovchi qanday yo‘l tutishi kerakligi bo‘yicha ham tavsiyalar mavjud emas. Amaldagi tavsiyalar, asosan, kichik kvartiralar, kommunal turar-joylar yoki kichik qishloq hovlilari uchun mo‘ljallangan. Kriminalistika esa yuzlab kvadrat metr maydonga ega bo‘lgan kvartiralar, kirish joyida qo‘riqchisi bor uylarda yoki bir necha gektar maydonga ega bo‘lgan shaxsiy mulklarda tintuv o‘tkazishni deyarli hisobga olmaydi.

Shuningdek, shaxsiy tintuv o‘tkazish bo‘yicha zamonaviy kriminalistika tavsiyalari ham mavjud emas (O’R JPK 2-modda). Masalan, narkotik moddalarni tashuvchilar tanasidan olib chiqish jarayonini qanday amalga oshirish va hujjatlashtirish kerak [3]? Buni shaxsiy tintuv sifatida, tergov eksperimenti sifatida yoki ekspertiza doirasida solishtirma tadqiqot uchun namuna olish tartibi sifatida

baholash lozimmi?

Yuzlashtirish, kriminalistika tavsiyalariga ko‘ra, guvohlik berayotgan shaxsning pozitsiyasiga tergovchi ishongan taqdirda o‘tkaziladigan tergov harakati sifatida ko‘riladi. Biroq O’R JPK 122-moddasiga muvofiq, agar ilgari so‘roq qilingan ikki shaxs ko‘rsatmalarida sezilarli zidliklar mavjud bo‘lsa, yuzlashtirish majburiydir.

Muallif fikricha, kriminalistika protsessual harakatlarning tergov harakatlariga kirmaydigan turlariga yetarlicha e’tibor qaratmaydi. Ular faqat rejalashtirishga oid bo‘limlarda tilga olinadi. Holbuki, amaliyotda hibsga olish [4], ehtiyot chorasini tanlash, ayblovni e’lon qilish, jinoyat ishining materiallari bilan tanishtirish va boshqalarning taktikasi eng katta qiyinchiliklar bilan bog‘liqdir.

Masalan, himoya tomoni tomonidan jinoyat ishining materiallari bilan uzoq vaqt tanishish orqali tergov muddatlarini cho‘zish muammosi jinoyat protsessi bo‘yicha ilmiy ishlarda ko‘tarilgan (O’R JPK 217-moddasi). Qisman bu muammo kriminalistika nuqtai nazaridan — tergovga qarshi faoliyatni yengib o‘tish masalasida ham ko‘rib chiqiladi. Ammo jinoyat ishining materiallari bilan tanishish muddatlarini cho‘zilishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan umumiy taktik tavsiyalar deyarli yo‘q — go‘yo kriminalistlar bunday protsessual talab va u bilan bog‘liq muammolardan xabardor emasdek. Holbuki, tergovni muvaffaqiyatli va o‘z vaqtida yakunlash hamda materiallar bilan tanishtirish uchun nafaqat protsessual normalarga rioya etish, balki to‘g‘ri taktika ham muhimdir: ayblanuvchi va himoyachi bilan munosabatlarni to‘g‘ri

yo‘lga qo‘yish, tergovni tugallangan deb hisoblashning optimal vaqtini belgilash — bularning barchasi kriminalistika doirasiga kiradi.

Metodik va taktik jihatga ega bo‘lgan protsessual harakatlarga, shuningdek, jinoyat ishining tergovga taalluqliligini aniqlash, jinoyat ishlarini birlashtirish yoki ajratish, ishni reabilitatsiya qilmaydigan asoslarda tugatish va boshqalar kiradi.

Kriminalistika tavsiyalari maxsus bilimlardan foydalanish sohasida ham zamonaviy talablarga to‘liq javob bermaydi. Masalan, odatda himoyachi-advokat topshirig‘i asosida o‘tkaziladigan «mustaqil ekspertizalar»ning daliliy ahamiyati protsessual tadqiqotlarda tahlil qilinadi. Ammo kriminalistika taktikasi tergovchining bunday manba bilan ishlash masalalarini deyarli hisobga olmaydi, holbuki uning mavjudligi va axborot ahamiyati shubhasizdir.

Hozirgi vaqtda kriminalistika taktika bo‘limida nafaqat tergov harakatlari taktikasi, balki dastlabki tergov organlarining protsessual harakatlar taktikasi ham o‘z aksini topishi lozim, deb hisoblanadi.

Kriminalistika nazariy-amaliy xarakterga ega fan bo‘lishi bilan birga, O’R JPK talablariga asoslanganligi sababli, avvalo, ularga mos kelishi va ularni hisobga olishi zarur. Protsessual qonunga asoslanmagan taktika qo‘llanilmaydi, ma’nosizdir va qonuniylik buzilishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun kriminalistika taktikasi qoidalarini bayon etishdagi umumiy yondashuvni o‘zgartirish, uni birinchi navbatda O’R JPK qoidalarining real, emas formal hisobga olinishi hamda tergov amaliyotida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan amaliy ishlanmalarga asoslash lozim.

So‘ngi yillarda tergov metodikasiga bag‘ishlangan ko‘plab kriminalistika ishlari eskirgan ko‘rinadi. Kriminalistika darsliklarida tergov metodikasi an’anaviy tarzda qotilliklar, sog‘liqqa zarar yetkazish, zo‘rlash, o‘g‘rilik, talonchilik, bosqinchilik, bezorilik va boshqalarni qamrab oladi. Biroq jinoyatchilik tuzilmasi sezilarli darajada o‘zgargan. Hozirgi vaqtda kriminalistika darsliklarida noqonuniy tadbirkorlik, noqonuniy bank faoliyati, kontrabanda, moliyaviy firibgarlik, ekstremizm, mansab jinoyatlari va shu kabi dolzarb jinoyatlarni tergov qilish metodikasi deyarli yo‘q. Biroq yangi turdagi jinoyatlarni tergov qilish metodikasiga bag‘ishlangan metodik tavsiyalar va dissertatsion tadqiqotlar mavjud, ammo ular kriminalistika darsliklarida hanuz munosib o‘rin topmagan.

Xulosa qilib aytganda, kriminalistika bo‘yicha fundamental asarlar nafaqat ushbu fan klassik qoidalariga asoslanishi, balki amaldagi protsessual talablar va jinoyatlarni tergov qilishning dolzarb muammolarini ham hisobga olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qarang: Zakurlaev A.K. Kriminalistika: Darslik. – T.: IMPRESS MEDIA, 2022.

2. Masalan, qarang: Kriminalistika taktikasi: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDYuI, 2000; Norboev A., Abdumajidov G.A., Alimov R., Zakutskiy A.S. Kriminalistika. Darslik. – T.: OOO Koxi-nur, 2008.

3. Qarang: Pulatov Yu.S., Zohirov R.X. Tullik organlari faoliyatini ichki bo‘shliq orqali tashilayotgan narkotik vositalarni aniqlash bo‘yicha tashkil etish: O‘quv-amaliy qo‘llanma. – T.: OHTi, 2010. – 81 b.

4. Masalan, qarang: Payziev A.M., Pulatov Yu.S. Jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni ushlash: Uslubiy tavsiyanoma. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2021. – 87 b.

YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA INSON HAMDA FUQARONING HUQUQ VA ERKINLIKLARI KAFOLATI

Raxmatov Kamoljon Ximmat o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti tinglovchisi, kapitan
Tel: (97) 317-27-94

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasida inson va fuqaroning huquq hamda erkinliklarini kafolatlashga doir asosiy tamoyillar har tomonlama, xususan, huquq va erkinliklarning daxlsizligi, shaxsning sha’ni va qadr-qimmati, so‘z va e’tiqod erkinligi, shaxsiy va sud-huquqiy kafolatlar, ijtimoiy himoya va davlatning inson huquqlarini ta’minlashdagi majburiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi, inson huquqlari, fuqarolik erkinliklari, huquqiy kafolatlar, sud himoyasi, huquqiy davlat, asosiy tamoyillar.

Аннотация: В статье всесторонне раскрыты основные принципы обеспечения прав и свобод человека и гражданина в Конституции Нового Узбекистана, в частности: неприкосновенность прав и свобод, честь и достоинство личности, свобода слова и вероисповедания, личные и судебно-правовые гарантии, социальная защита, а также обязанности государства по обеспечению прав человека.

Ключевые слова: Конституция Нового Узбекистана, права человека, гражданские свободы, правовые гарантии, судебная защита, правовое государство, основные принципы.

Annotation: The article comprehensively examines the main principles of guaranteeing human and civil rights and freedoms in the Constitution of New Uzbekistan. It highlights, in particular, the inviolability of rights and freedoms, human dignity, freedom of speech and religion, personal and judicial-legal guarantees, social protection, as well as the obligations of the state in ensuring human rights.

Key words: Constitution of New Uzbekistan, human rights, civil liberties, legal guarantees, judicial protection, rule of law, fundamental principles.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy islohotlar inson qadri, erkinligi va farovonligini ta’minlashga qaratilgan yangi davlat konsepsiyasini shakllantirdi. Ushbu jarayonning eng muhim bosqichlaridan biri sifatida 2023-yil 30-aprel kuni umumxalq referendumida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yangi tahriri inson huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etgan holda, ularni kafolatlashning aniq mexanizmlarini belgilab berdi.

Konstitutsiyaning yangi tahririda huquqiy davlat, tenglik, ijtimoiy adolat va fuqarolarning erkinlik hamda daxlsizlik huquqlarini ta’minlash tamoyillari mustahkamlangan.[1] Bu - davlat siyosatining markazida “inson - jamiyat – davlat” tamoyilini joylashtirish, shaxs sha’ni, qadr-qimmati, erkinligi va fuqarolik huquqlarini himoya qilishni asosiy vazifa sifatida belgilash demakdir.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, Yangi Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklar jamiyat va davlat hayotiga yangi sifat, yangi normativ-me’yoriy baza olib kirgan; endi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan savol - bu normalarning **huquqiy asosi**, **kafolatlari**, va ularning **amaliyotga tatbiqi**. Shu bois, ushbu ilmiy maqola Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasida inson va fuqaroning huquq hamda erkinliklari qanday kafolatlanganini, ularning huquqiy asoslarini, kafolat mexanizmlarini va amaliyotdagi imkoniyat hamda cheklovlarini tahlil qilishga qaratiladi.

O‘zbekistonda inson huquqlarini rag‘batlantirish, himoya qilish va ularga rioya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash sohasida aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi bo‘lgan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining qabul qilindi. Ushbu hujjatda yaqin va o‘rta istiqbolda O‘zbekistonning taraqqiyot tendensiyalari, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini kompleks rivojlantirish yo‘nalishlari aniq belgilab berilgan.

Taraqqiyot strategiyasining ahamiyati shundaki, uning ishlab chiqilishida mavjud muammolar e’tiborga olingan va echimini kutayotgan dolzarb vazifalar aks ettirilgan. Eng muhimi, ushbu dasturiy hujjatning ishlab chiqilishida xalqimiz faol ishtirok etdi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Inson qadri uchun” tamoyilini barcha islohotlarimizning bosh mezoni sifatida belgiladik. “Davlat - inson uchun” degan ezgu g‘oyani hayotga tatbiq etish maqsadida 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan

Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini bevosita xalqimiz bilan maslahatlashib, odamlarimizning fikr va takliflari asosida ishlab chiqdik”.

O‘zbekiston tarixida 2023-yil aprel oyida ilk bor konstitutsiyaviy referendum o‘tkazildi, uning tamal toshi inson huquq va manfaatlarini ta’minlash, inson qadr-qimmatini himoya qilishdan iborat bo‘ldi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya O‘zbekistonning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatidagi ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlariga taalluqli konstitutsiyaviy normalar 3 baravardan ortiq ko‘paydi va 50 dan ortiq moddani tashkil etdi. Konstitutsiyada inson huquqlari, so‘z va vijdon erkinligi, millati, tili va dinidan qat’i nazar, barcha fuqarolarning teng huquqliligi tamoyillariga sodiqlik mustahkamlangan.[2]

O‘zbekiston Respublikasi yangi Konstitutsiyasida inson huquq va erkinliklari to‘liq o‘z aksini topgan desak, mubolag’a bo’lmaydi. Xususan, Konstitutsiyaning II bo‘limi “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlanadi. Ushbu bo’lim 7 bobdan iborat bo’lib, unda Umumiy qoidalar; Fuqarolik; Shaxsiy huquq va erkinliklar; Siyosiy huquqlar; Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar; Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari va Fuqarolarning burchlari belgilab berilgan. Ayni kunda, Inson huquqlariga oid BMT tomonidan 70 ga yaqin, Yevropa Kengashi Bosh assambleyasi tomonidan 160 dan ziyod, YuNESKO tomonidan 70 dan ortiq, Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti tomonidan 30 dan ortiq xalqaro konvensiyalar, deklaratsiyalar, paktlar qabul qilingan.

Ma’lumki, BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiya bilan 1948-yil 10-dekabrda “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” qabul qilingan. Aytish joizki, dunyodagi ko’pchilik rivojlangan mamlakatlar konstitutsiyalaridagi inson huquq va erkinliklarini kafolatlash aynan BMTning “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” rezolyutsiyasiga mos ravishda qabul qilingan. Ma’lumki, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” Muqaddimasida “Insoniyat oilasining hamma a’zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligini e’tiborga olib inson huquqlarini mensimaslik va uni poymol etish insoniyat vijdoni qiynaladigan vahshiyona ishlar sodir etilishiga olib kelganini, kishilar so’z erkinligi va e’tiqod erkinligiga ega bo’ladigan hamda qo’rquv va muhtojlikdan holi sharoitda yashaydigan dunyoni yaratish insonlarning ezgu intilishidir deb e’lon qilingan.

E’tiborlisi, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi normalar “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bilan bir xilligini ko’rish mumkin. Xususan, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 3-moddasi. “Har bir inson yashash, erkin bo’lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir” deb belgilangan. Shu asnoda, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini 24-moddasida ham “Yashash

huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir"deb belgilangan. Shuningdek, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 5-moddasi: "Hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'rlovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak"deb belgilangan. E'tiboli jihatlardan biri esa aynan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 26-moddasining ikkinchi qismini o'qiymiz. "Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas"degan normani ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 9-moddasi, "Hech kim asossiz qamalishi, ushlanishi yoki quvg'in qilinishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan. Aynan ushbu qoida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasida o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkin. Unda "Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas"deb belgilangan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki mamlakatimiz Konstitutsiyasi fuqarolarning huquq va erkinliklari borasida "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning asosiy g'oyalari va qoidalarini o'zida to'liq aks ettirgan.[3]

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya, tom ma'noda, inson huquq va manfaatlarining huquqiy kafolati hisoblanadi. Buni bir emas, bir nechta misollarda ko'rish mumkin.

Birinchidan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyadagi barcha normalar yagona tushuncha, ya'ni "inson qadri" degan tushunchaning atrofiga qurilgan. Xususan, huquqiy davlat tushunchasidan tortib, sudga murojaat qilish, uy-joy bilan ta'minlanish, so'z erkinligi va boshqa huquqlar, avvalo, insonga tegishli hisoblanadi.

Ikkinchidan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat va jamiyat ishlarini boshqarish inson bilan maslahatlashgan holda amalga oshirilishi belgilangan. Jumladan, 9-moddaning birinchi qismiga muvofiq, "Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumxalq ovoziga - referendumga qo'yiladi.". Ma'lumki, referendumda fuqarolar ishtirok etadi, munosib tanlovini amalga oshiradi. Shu o'rinda insonning davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini ko'rish mumkin.

Uchinchidan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqi ekani, inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyat ekani, O'zbekistonda o'lim jazosi taqiqlanishi alohida qayd etildi. Mazkur norma Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyada (2-modda), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda (2, 6-moddalar) nazarda tutilgan.

O'zbekiston qonunchiligida javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish jinoyati uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgani tufayli, ushbu ishlar bo'yicha jinoyat qonunlarining to'g'ri qo'llanilishini

ta’minlash zarurligi alohida ahamiyat kasb etadi. Jinoyat kodeksining 97-moddasi qasddan odam o‘ldirish uchun javobgarlik o‘rnatadi.

Mazkur o‘zgartirish nafaqat o‘lim jazosini bekor qilish, balki qat’iy ravishda O‘zbekiston o‘lim jazosi taqiqlanishini, e’lon qilmoqda. Bu kabi normalar bir qator xalqaro hujjatlarda aniq qoida sifatida belgilangan. Xususan, BMTning 1966-yil 16-dekabrdagi “Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi Xalqaro paktning 6-moddasida “Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir. Bu huquq qonun bilan muhofaza qilinadi. Hech kim o‘zboshimchalik bilan hayotdan mahrum etilishi mumkin emas”. O‘lim jazosini taqiqlash mazkur Paktga 1989-yil 15-dekabrdagi ikkinchi qo‘shimcha protokol talablaridan kelib chiqadi.

To‘rtinchidan, Konstitutsiyaning 29-moddasida har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlangan. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko‘rsatilishi ham belgilandi.

Sir emas, zarur hollarda malakali yuridik yordam olishga barchaning ham qurbi yetmaydi. Shunday vaziyatda, fuqaro o‘z muammosi bilan yolg‘iz qolmasligi kerak. Davlat baholi qudrat yordam qo‘lini cho‘zishi lozim va shart. Shu bois, muhtoj fuqarolarga davlat hisobidan yuridik yordam olish Konstitutsiyada alohida belgilanishi ham ijtimoiy, ham huquqiy nuqtai nazardan ulkan ahamiyat kasb etadi.

Amaldagi qonunchiligimizga muvofiq bugungi kunda bepul yuridik yordam asosan jinoyat protsessual qonunchiligi doirasida ko‘rsatiladi. Fuqarolik ishlari, mehnat nizolari va boshqa yo‘nalishlarda davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatilmaydi. Konstitutsiyadagi mazkur yangilik fuqarolarimiz nafaqat jinoyat ishlari doirasida, balki fuqarolik, mehnat va boshqa sohalarda ham davlat hisobidan yuridik yordam olishi mumkinligini anglatadi.

Beshinchidan, Konstitutsiyaning 33-modasida “Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga egaligi, davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi, axborotni izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligi, tartibini ta’minlash, shuningdek, davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yilishi” qayd etildi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “oshkoralik va so‘z erkinligi bu - davr talabi, bu - O‘zbekistondagi islohotlarning talabi”, deb mamlakatimiz transformatsiyasining eng muhim yo‘nalishini belgilab berdi.

Konstitutsiyamizga kiritilgan yangi normalar orqali, birinchidan, har bir shaxsning internet tarmog‘iga kirishini ta’minlash uchun davlat shart-sharoit yaratishga majburligi belgilansa, ikkinchidan, axborotni, shu jumladan, internetdan

foydalangan holda izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqlarni cheklashga qaysi hollarda yo‘l qo‘yilishi aniq belgilandi.

Ma’lumki, internetga kirish, erkin foydalanish huquqi insonning so‘z erkinligi huquqi doirasiga kiradi. Ushbu huquq davlat chegaralaridan qat’i nazar yozma ravishda yoki ifodalashning boshqa usullarida turli axborot va g‘oyalarni qidirish, olish va tarqatish erkinligini qamrab oladi. Shu bilan birga, mazkur huquqlarni amalga oshirish alohida majburiyat va mas’uliyat yuklaydi.

O‘zbekistonda mobil telefondan foydalanuvchi aholi 25 million nafardan, internetdan foydalanuvchilar esa, 30 million kishidan oshdi. Odamlarimiz bankda hisob raqami ochish, mahsulot yoki xizmatlar uchun to‘lovlar qilish, 400 ga yaqin davlat xizmatlaridan uyidan chiqmasdan, telefon orqali foydalanmoqda.

Mazkur huquq raqamlashtirish asrida demokratik, huquqiy va adolatli jamiyat qurayotgan barcha davlatlar uchun muhim. Ularni Konstitutsiyamizda mustahkamlash, birinchidan, fuqarolarimizning axborotni izlash, olish va tarqatish huquqini hamda internet jahon axborot tarmog‘iga kirish va undan erkin foydalanish huquqini kafolatlasa, ikkinchidan, mazkur huquqlarni suiiste’mol qilinmasligini oldini olish, fuqarolarimizning himoyasi va xavfsizligini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Axborotni izlash, olish, tarqatish yo‘nalishidagi cheklovlar va ularni buzganlik uchun javobgarlik amaldagi qonunchiligimizning normalarida aniq belgilab berilgan.

So‘z erkinligi huquqi va uni muayyan sharoitda cheklash mumkinligi to‘g‘risidagi normalar barcha inson huquqlari bo‘yicha xalqaro hujjatlarda o‘z aksini topgan, xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa konvensiyasida ham shu kabi normalar batafsil ochib berilgan.

Oltinchidan, Konstitutsiyaning 54-moddasida “Insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir” deya ta’kidlandi.

Mamlakat o‘z tarixida birinchi marta BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashiga a’zo etib saylandi, 2021 yil 22 fevralda Jeneva shahrida video-anjuman shaklida bo‘lib o‘tgan 46-sessiyasida muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston inson huquqlari bo‘yicha 80 dan ziyod xalqaro hujjatlarga, jumladan BMTning 7 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo‘shilgan bo‘lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan tuzilmaning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi va shartnomaviy qo‘mitalariga muntazam ravishda milliy ma’ruzalarni taqdim etib kelayotganini qayd etish o‘rinli.

Bundan tashqari, milliy qonunchilikni inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy standartlar bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Shuningdek, 2020 yilda ilk bor Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy strategiyasi va uning “yo‘l xaritasi” qabul qilindi. Hujjatda aniq ifodalangan 78 vazifani amalga oshirish belgilangan.

Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmini yanada takomillashtirish hamda Prezidentning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni samarali va o‘z vaqtida amalga oshirish maqsadida o‘sha yil 22 iyundagi PF-6012-son Farmoni bilan “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy strategiyasi” hamda BMTning inson huquqlari bo‘yicha ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalari xabarnomalari va qarorlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi davlat organlarining o‘zaro hamkorlik qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi. Mazkur hujjatlarda mamlakat yurisdiksiyasi ostida bo‘lgan shaxslar BMTning inson huquqlari bo‘yicha ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalariga Respublika ishtirokchisi bo‘lgan xalqaro shartnomalar bilan kafolatlangan huquqning O‘zbekiston tomonidan buzilgani to‘g‘risidagi yozma murojaat qilish tartibi ham belgilangan.

Bosh qomusimizda ushbu normaning mavjudligi respublikaning Statistik salohiyat indeksi, Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi, Huquq ustuvorligi indeksi, Boshqaruv sifati indikatorlari kabi bir qator xalqaro reytinglardagi o‘rni yaxshilanishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini kafolatlash bo‘yicha mustahkam huquqiy asos yaratgan. Konstitutsiya shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, so‘z va e’tiqod erkinligini ta’minlash, shaxsiy va sud-huquqiy kafolatlarni mustahkamlash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish kabi asosiy prinsiplarni belgilaydi. Shuningdek, yangi tahrirda kiritilgan demokratik yangiliklar va mexanizmlar fuqarolarning huquqiy himoyasini samarali amalga oshirish imkonini beradi. Shu tariqa, Yangi Konstitutsiya huquqiy davlatni barpo etish va inson huquqlarini amaliyotda ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri) - Toshkent: 2023.
2. Inson huquqlari. http://www.insonhuquqlari.uz
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. https://lex.uz

KONSTITUTSIYADA FUQAROLARNING JAMIYAT HAYOTIDA O‘Z IJTIMOIY FAOLLIKLARINI AMALGA OSHIRISHNING MUHIM SHAKLLARI

Raxmatov Mizrob Majitovich,
Jamoat xavfsizligi universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada fuqarolarning jamiyat hayotida o'z ijtimoiy faolliklarini amalga oshirishning muhim shakllari, ijtimoiy faollik hamda fuqarolik ijtimoiy faollik tushunchalari, ijtimoiy faollik yuzasidan keng xorijiy tajriba tahlil qilingan. Ushbu tahlillar natijasi mamlakatimizda fuqarolarning jamiyat hayotida o'z ijtimoiy faolliklarini amalga oshirish yuzasidan bir qancha taklif va tavsiyalar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: fuqaro, jamiyat, ijtimoiy faollik, fuqarolik faollik, xalqaro maydon, shakllar.

Аннотация: В данной статье проанализированы важнейшие формы реализации гражданами своей социальной активности в жизни общества, понятия социальная активность и гражданская социальная активность, обширный зарубежный опыт социальной активности. Результатом этих анализов стал ряд предложений и рекомендаций по осуществлению гражданами своей социальной активности в общественной жизни нашей страны.

Ключевые слова: гражданин, общество, социальная активность, гражданская активность, международная арена, формы.

Abstract: This article analyzes the most important forms of citizens' realization of their social activity in the life of society. In addition, this article analyzes the concepts of social activity and civic social activity. in addition, extensive foreign experience of social activity was analyzed. The results of these analyses were a number of proposals and recommendations for citizens to implement their social activity in the public life of our country.

Key words: citizen, society, social activity, civic activity, international arena, forms.

O‘zbekistonda islohotlarning davomiyligini ta’minlash hamda demokratik fuqarolik jamiyatini shakllantirish, yoshlar, xususan, ularning ijtimoiy faolligiga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 19-sentyabrdagi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida: “... Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virus” tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb

hisoblaymiz” – degan fikrlari dunyo hamjamiyati tomonidan ham keng e’tirof etilmoqda.

Konstitutsiyamizning 36-moddasida ham fuqarolarning davlat organlarining faoliyatlari ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanishi ko‘rsatib o‘tilgan. Shunga muvofiq, 2018-yilning 12-aprel kuni 21 moddadan iborat O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingani ham bu masalaning huquqiy asosi hisoblanadi. Qonunga ko‘ra, fuqarolik jamiyatining to‘rtta asosiy institutlari jamoatchilik nazorati subyekti hisoblanadi. Ularga O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari kiradi.

Inson ijtimoiy faolligining asosida uning huquqiy kafolati, erkinligi, jamiyatda demokratik mezonlarning mavjudligi yotadi. Insonlarning birgalikda yashashining kafolati bu jamiyatda, butun dunyoda huquqning, huquqiy madaniyatining mavjudligidir. Shunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 25-moddasida yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqi erkinligi, 27-moddasida har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga, 41-moddasida har bir shaxs mulkdor bo‘lishiga haqli ekanligi, 50-moddasida har kim bilim olish huquqiga ega ekanligi, 53-moddasida har kimga ilmiy-texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafotlatlanligi belgilab berilgan. Har qanday inson faoliyati-bu uning ongi, fikri, tafakkuri va dunyoqarashining real hayotiy faoliyatiga aylanishi samarasidir. Boshqacha qilib aytganda, mustaqil fikrlashning mahsulidir. Yoshlarning zamon talablari darajasida ta’lim-tarbiya olish, vatanparvar bo‘lishi, salomatligini mustahkamlashi, o‘z kuchi, bilim va salohiyatini namoyon etishi uchun barcha sharoit yaratilmoqda. Konstitutsiyamizning 38-moddasida fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega ekanligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, Konstitutsiyamizning 36-moddasida fuqarolar huquqiy-siyosiy faolliklarini jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok qilish yo‘li bilan namoyon etishlari ham ko‘zda tutilgan.

Ijtimoiy faollik deganda kishi qaysi kasbning egasi bo‘lishidan, qanday lavozimda ishlashidan qat’iy nazar, uning jamiyat rivojiga hissa qo‘shishga, zamondan ortda qolmaslikka bo‘lgan harakatini tushunish mumkin. “Ijtimoiy tarmoqlar ijtimoiy faollikni kuchaytirib yubordi”, degan mazmundagi fikrlarni ham mavjud. Lekin ijtimoiy faollik bilan ijtimoiy tarmoqlardagi faollik o‘rtasida katta farq bor. Ijtimoiy tarmoqlardan turib o‘zining subyektiv fikrlarini ulashib, kechayotgan voqea hodisalarga faqat va faqat negativ munosabat bildirib o‘tirish, bu hali ijtimoiy faollik degani emas. Har qanday ijtimoiy hodisaga nimadir sabab bo‘ladi, nimadir turtki beradi. Ijtimoiy faollik ham o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladigan jarayon emas[1].

Ijtimoiy faollik inson shaxsi sifati darajasining asosiy ifodasi bo‘lib, uning yuksak qadriyatdagi ehtiyojlarini qondirish usuli va sifat ko‘rsatkichidir. Shu jihatdan shaxs faoliyati sotsiologiyada keng va kichik (tor) ijtimoiy darajalarda o‘rganiladi. Shaxsning bunday darajalarda o‘rganilishi metodologik ahamiyat kasb etadi[2].

Masalan, fuqarolar faolligi masalasi sotsiologiyada ko‘proq o‘rganilgan masalalardan biri sifatida alohida e’tirof etish lozim. N.Aberkrombi, D.Djeri, D.Djeri, B.S.Terner va S.Xill xorij sotsiologlarining ta’kidlashlaricha, fuqarolar o‘z ehtiyorilari bilan nodavlat sektorida ishtirok etishi sotsiumni integratsiyalashuviga va ijtimoiy bahamjihatlikka olib boradi[3].

Amerikalik tadqiqotchi X.Anxer va L.Salamonlarning tahliliga ko‘ra, “ko‘ngillilar” tushunchasining G‘arb mamlakatlaridagi tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, “volunteering” atamasi Buyuk Britaniya va AQShda, fransuzcha “voluntariat”, shvedcha “frivillig verksamhet”, italyancha “voluntariato”, nemischa “ehrenamt” tarixiy vujudga kelishining mazmun-mohiyat jihatdan bir xildir. Biroq, tushunchalarni ijtimoiy-siyosiy jihatdan ishlatish usuli turlichadir. Ularning aniqlashlaricha, Buyuk Britaniya va Avstraliyada ko‘ngillilar, ya’ni fuqarolar faolligi fuqarolik jamiyati institutlari, davlat va xususiy sektordan alohida faoliyat yurituvchi jamoat sektori sifatida tan olinadi. Boshqa tadqiqotlarda esa fuqarolar faolligi davlat va jamiyatga ijtimoiy foydali xizmatlarni keltiruvchi faoliyat turi sifatida baho beriladi[4].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, dunyo bo‘yicha (nemis, fransuz, rus va boshqa tillarida) keng qo‘llanilayotgan “Volontyor” atamasi o‘zining mohiyatiga ko‘ra, ingliz tilidagi «Volunteering» tushunchasining ekvivalenti hisoblanadi. Volontyorlik – bu ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladigan, jamiyat farovonligiga o‘z hissasini qo‘shadigan foydali ish mahsulidir. Bularning barchasi fuqarolar faolligi bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu atamani turli tillarda ishlatilishi o‘zgacha ma’no, mohiyat va funksiyalarni anglatadi. Nemis tilida uning mohiyatiga mos keluvchi ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladigan, ijtimoiy foydali bo‘lgan va nihoyat, fuqarolar faolligi natijasida amalga oshiriladigan xatti-harakatlari yig‘indisidir[5].

Ko‘ngillilar faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar yuridik talablar asosida qattiq nazorat qilinadi. Masalan, ko‘ngillilar jyurilari tomonidan nazorat qilinishi mumkin. Ko‘ngillilar xizmati – ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi va ishtirokchining mas’uliyati ham ixtiyoriydir. Nemis tilidagi - “Bürgerliches Engagement”, ya’ni “Fuqarolar faolligi” atamasining etimologik kelib chiqishi fransuzcha “Engagement” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bog‘lanmoq, biror narsani amalga oshirishda ishtirok etmoq kabi ma’nolarni anglatadi.

Ushbu tushuncha insonning ichki motivatsiyasi, biror faoliyat turida o‘z xohishiga ko‘ra ishtirok etishi tushuniladi. Nemis tilidagi “Freiwilligenarbeit”, “ehrenamtliche Arbeit”, yoki “freiwilliges-, ehrenamtliches Engagement”

tushunchalari sinonim tushunchalar hisoblanadi. Barcha tushunchalar bir ma’noni, ya’ni fuqarolar (ko‘ngillilar) faolligini anglatadi. Germaniyada “Ko‘ngillilar xizmati” (Ehrenamt) va fuqarolar faolligi (Vürgerschaftliches Engagement) tushunchalari keng tarqalgan.

Germaniyada fuqarolik jamiyati shakllanishi, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va farovonlikni ta’minlanishida fuqarolar faolligi, ko‘ngillilar xizmati, o‘ziga o‘zi yordam ko‘rsatishi hamda xalqaro atama bo‘lgan volontyorlik tushunchalari baravariga ishlatiladi.

Tadqiqotchi Simsaning tarifiga ko‘ra, “fuqarolar faolligi” (Bürgerliches Engagement), fuqarolar amalga oshirishi zarur bo‘lgan majburiyatlar, ya’ni uyushgan, individual holda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etish shu bilan birga obshinalar hayotini yaxshi tomonga o‘zgartirishga erishish tushuniladi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda shuni aytish joizki, fuqarolar faolligi bir qancha ko‘rsatkichlar va o‘lchovlarni o‘zida mujassamlashtiradi: vaqt o‘lchovida (ko‘ngillilarni to‘liq yoki qisman ish kunida band bo‘lishi), iqtisodiy jihati (volontyor faoliyati uchun pul olishi yoki olmasligi), ijtimoiy jihatidan (volontyor individual yoki jamoa bo‘lib faoliyat olib borishi yoki bormasligi) kabilar muhim ahamiyat kasb etadi[6]. Yevropa va AQShda ko‘ngillilar faoliyati qisman ish vaqtida shug‘ullanishi va haq to‘lanmaydigan faoliyat turi sifatida ko‘riladi.

Rivojlanayotgan davlatlarda esa to‘liq bo‘lmagan ish kuniga qisman haq to‘lash tushuniladi. Lekin, uning asosiy tub mohiyati shundaki, fuqarolar faolligi Germaniyada sotsium tomonidan qadriyat sifatida tan olinishidir. Masalan, “Volunteering” tushunchasini eksperimental tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, amerikaliklar tilida ushbu tushuncha ko‘ngillilar faoliyatini qadriyat sifatida tan olinishi va ularni jamiyat farovonligi yo‘lida birgalikda harakat qilishi, subyektiv jihatdan esa ishtirokchidan ma’lum bilim va ko‘nikmalarni talab qiladigan xatti-harakatlar majmuidir[7].

Fuqarolar faolligi tushunchasini xorijiy adabiyotlardan yondashuvlarda fuqarolar faolligi ishtirokchilarning o‘zlar uchun ham katta qiymatga ega ekan. K.Bidermanning ta’kidlashicha, fuqarolar faolligi g‘oyalari va faoliyatiga sodiq bo‘lishlik amalga oshiriladigan ijtimoiy foydali ishlarning sifatini yanada oshishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati sari intilishda fuqarolar faolligisiz erishib bo‘lmaydi. Bugungi kunda fuqarolar faolligi tushunchasi doimiy ravishda sog‘liqni saqlash, sport, madaniyat, dam olish, fan-ta’lim, tarbiya sohalarida keng ishlatilmoqda. Yevropa yoshlari orasida fuqarolar faolligi ommalashishga ulgurdi. Ayniqsa, aholining yordamga muhtoj qatlamiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish orqali ularning ijtimoiylashuviga imkoniyat yaratib bermoqda. “Fuqarolar faolligi” atamasining tub mazmun-mohiyati AnketKomissiya

(Enquete-Kommission)ning ma’ruzasida kengroq va batafsilroq yoritilgan. Unga ko‘ra, “Fuqarolar faolligi” – shaxs tashabbuskorligi, intilishlari va xatti-harakatlar yig‘indisi bo‘lib, u ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi, moddiy manfaatdorlik ko‘zlanmaydi, ammo ijtimoiy ahamiyatga molik muammolar hal qilishga qaratilgan yakka shaxs yoki guruhlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turi hisoblanadi[8].

“Fuqarolar faolligi” atamasi avvallari qo‘llanilgan “ijtimoiy foydaga qaratilgan faoliyat” “ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish”, “ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladigan faollik”, “o‘z o‘ziga yordam ko‘rsatish” kabi tushunchalarni o‘z ichiga olgan ko‘lami va ma’nosi jihatdan keng bo‘lgan tushuncha hisoblanadi. Komissiyaning fikricha, “fuqarolar faolligi” atamasining bunday talqini, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi xohish, istaklari va intilishlarini to‘g‘ri yo‘naltirishga ko‘maklashadi. “Fuqarolar faolligi” - shunday serma’no va serqirra tushunchaki, aksariyat hollarda, u haq to‘lanmaydigan faoliyat turi, ixtiyoriylikka asoslangan shaxs faoliyati, volontyorlik, biror sohada jonbozlik ko‘rsatish, o‘zgalarga beg‘araz yordam berish, NNTlarga a’zo bo‘lish, norasmiy faoliyat yuritish va nihoyat, fidoiylikni anglatadi.

Bundan tashqari, u boshqa turli tuman erkin faoliyat turlarini ham anglatishi mumkin[9]. Germaniya ijtimoiy-siyosiy sohasida “Fuqarolar faolligi” tushunchasining ko‘p yillar davomida qo‘llanilishi natijasida, u quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ldi: aholining u yoki bu sohada “faollik, jonbozlik” ko‘rsatishi ixtiyoriydir. Fuqarolar faolligini amalga oshiruvchi ishtirokchi zimmasiga yuklatilgan ishonch va mas’uliyat bilan belgilanadi Anket-Komissiyaning Bundestagdagi faoliyati yakunlagandan so‘ng “Fuqarolar faolligi” quyi qo‘mitasini tuzishga qaror qilindi. 2002-yildan boshlab ushbu qo‘mita siyosat, jamoat arboblari, olimlar, tadqiqotchilar, qolaversa oddiy fuqarolar uchun muzokaralar olib borish markaziga aylandi. Sobiq Ittifoq davlatlarida fuqarolar faolligi tushunchasi siyosiy oppozitsiya namoyishlarida, protestlarida ishtirok etish tushunilar ekan. Ko‘pgina adabiyotlarda fuqarolar faolligi tushunchasi fuqaro madaniyati zamonaviy tushunchasi bilan bog‘laydilar. Tom ma’noda fuqaro madaniyati ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etish madaniyati, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, ijtimoiy integratsiya, jamiyat birligi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni barqarorligini harakatlar birligi sifatida tan olinadi. Fuqaro madaniyati yuksak ko‘rinishi fuqarolik jamiyatining yetukligining shartlaridan biri sifatida ta’riflanadi[10].

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Qayumov U. Rol semi v formirovani nravstvennix i duxovnix osnov obshestva. “Ijtimoiy fikr”. 2004. 4- son. 93-94 betlar.

2. Tursunova N. Yoshlarning ijtimoiy faolligi: tushuncha va fazilatlari. “Ijtimoiy fikr”. 2004. 3-son. 149-150 betlar.

3. Аберкромби Н. Социологический словарь. – 2-е изд., перераб. и доп. изд. – М.: ЗАО «Издательство «Экономика», 2004. – С. 188.; Джери, Д., Джери, Д. Большой толковый социологический словарь: русскоанглийский, англорусский в 2 тт., том 1. – М.: Вече-АСТ, 1999. – С. 83

4. Anheier H. K., Salamon L. M. Volunteering in cross-national perspective: Initial comparisons. Civil Society Working Paper 10. 2001. – P. 5

5. Кристиане Бидерман. Координация работы добровольцев и менеджмент волонтерских программ в Великобритании. Перевод: Мария Санникова Ингрид Мюллер с.4.

6. Anheier H. K., Salamon L. M. Volunteering in cross-national perspective: Initial comparisons. Civil Society Working Paper 10. 2001. – P. 8

7. Лисовская Т. А. Концепт volunteering в сознании американцев // Вестник ВГГУ. 2010.т 4. № 2. – С. 74

8. Enquete-Kommission «Zukunft des Bürgerschaftlichen Engagements»: Bürgerschaftliches Engagement: auf dem Weg in eine zukunftsfähige Bürgergesellschaft. Bericht. Deutscher Bundestag. Opladen: Leske+Budrich, 2002.

9. Сюзанна Ланг/Александра Хэртель/Михаэль Бюрш. «Гражданское общество и гражданская активность в России». Фонд Фридриха Эберта. 2010 г.С.3.

10. https://dic.academic.ru/dic.nsf/politology/45/

YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI: QONUNCHILIKDAGI BARCHA ZIDDIYATLAR VA NOANIQLIKLAR INSON FOYDASIGA TALQIN ETILADI

Baxtiyorov Ixtiyor Baxtiyor o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi, kapitan
ibaxtiyorov2007@gmail.com
Tel: (93) 296-97-20

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekistonning yangi tahriridagi Konstitutsiyasida “qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi” tamoyilining davlat organlari faoliyatidagi o‘rni, sud amaliyotidagi ahamiyati, ma’muriy, fuqarolik, jinoyat va mehnat huquqi tarmoqlaridagi qo‘llanilishi chuqur tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, Konstitutsiya, ziddiyatlar, noaniqliklar, huquqiy aniqlik, konstitutsiyaviy tamoyil, inson huquqlari, sud amaliyoti, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy davlat.

Аннотация: В статье подробно проанализирована роль принципа «все противоречия и неясности в законодательстве толкуются в пользу человека», закреплённого в новой редакции Конституции Нового Узбекистана, в деятельности государственных органов, его значение в судебной практике, а

также применение в административном, гражданском, уголовном и трудовом праве.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, Конституция, противоречия, неясности, правовая определённость, конституционный принцип, права человека, судебная практика, нормативно-правовые акты, правовое государство.

Annotation: The article provides an in-depth analysis of the role of the principle “all contradictions and ambiguities in the legislation shall be interpreted in favor of the individual,” as enshrined in the new edition of the Constitution of New Uzbekistan, in the activities of state bodies. It also examines its significance in judicial practice and its application in administrative, civil, criminal, and labor law.

Key words: New Uzbekistan, Constitution, contradictions, ambiguities, legal certainty, constitutional principle, human rights, judicial practice, normative legal acts, rule of law.

Yangi O‘zbekiston davlatchiligi taraqqiyotida konstitutsiyaviy islohotlar tub burilish nuqtasini tashkil etadi. 2023-yil 30-aprelda referendum orqali qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri inson huquq va erkinliklarini davlat siyosatining markaziga qo‘yganligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Yangi Konstitutsiyaning asosiy mazmuni - inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi - degan qoida huquqiy davlat qurishning zamonaviy tamoyillaridan biridir.

Mazkur tamoyil xalqaro huquq standartlariga, xususan, inson huquqlari ustuvorligi va huquqiy aniqlik prinsiplariga mos keladi. U konstitutsiyaviy nazariya, amaliy sud faoliyati, ma’muriy ish yuritish, parlament qonunchiligi, davlat boshqaruvi hamda fuqarolarning huquqiy munosabatlaridagi himoyasini kuchaytiradi. Tamoyilning konstitutsiyaviy-huquqiy mohiyati deganda Konstitutsiyaning 15-moddasida belgilangan quyidagi norma: “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi[1]” – aniq ochib beradi.

Bu norma tamoyilni qo‘llashning asosiy yuridik poydevori hisoblanadi. Chunki: har qanday qonun, qaror, kodeks, nizom yoki idoraviy hujjat Konstitutsiyaga zid bo‘lishi mumkin emas. Agarda ziddiyat bo‘lsa, Konstitutsiya moddalari ustuvor hisoblanib, uning moddalaridagi normalar qo‘llanadi. Konstitutsiya bevosita sud qarorlarida qo‘llanishi mumkin. Demak, “inson foydasiga talqin” qoidasi Konstitutsiyaning bevosita amal qilish xususiyatini mustahkamlaydi.

Shuningdek, insonning oliy qadriyat sifatida e’tirof etilishi Konstitutsiyaning 13-moddasida asosiy g‘oyani belgilaydi: “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya

umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”. Ushbu konstitutsiyaviy tamoyil “inson qadri uchun” degan ustuvor maqsadimizni o‘zida aks ettirgan.

Shu bilan birga, Yangi Konstitutsiyaning 14-moddasi davlatning barcha faoliyati inson manfaatlariga xizmat qilishini belgilaydi: “Davlat o‘z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi.” Demak, ziddiyatli holatlarda faqat huquqiy texnika emas, balki inson manfaatini ustuvor qo‘yish davlatning konstitutsiyaviy majburiyatidir, faqatgina inson farovonligi nuqtayi nazaridangina amalga oshiriladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri tamoyil Konstitutsiyaning 20-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan o‘zaro huquq va majburiyatlar bilan bog‘liqdir. Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas. Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi. Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak. Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi.” Mazkur tamoyil shuni anglatadiki: ya’ni qonunchilikdagi ziddiyatlar - ikki yoki undan ortiq normaning bir-biriga mos kelmasligi hamda qonunchilikdagi noaniqlik - normaning bir nechta talqinda qo‘llanishi mumkinligini anglatadi. Lekin talqinning inson foydasiga bo‘lishi deganda fuqaroga eng qulay, eng adolatli, huquqni kengaytiruvchi imtiyozlar qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi.

Tamoyilning xalqaro-huquqiy asoslari sifatida BMT va xalqaro paktlarda “inson foydasiga talqin - BMT Inson huquqlari qo‘mitasining qarorlarida inson huquqiga oid noaniqliklarga nisbatan “kengroq talqin qilish” qoidasiga doim urg‘u beriladi. Masalan: Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 26-moddasida: “Barcha kishilar qonun oldida tengdirlar va hech bir kamsitishsiz qonun orqali teng himoya qilinish huquqiga egadirlar. Bu borada har qanday turdagi kamsitish qonun bilan taqiqlab qo‘yilishi va qonun barcha shaxslarga hech bir kamsitishsiz, jumladan irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy va boshqa e’tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, tug‘ilishi (nasli-nasabi)dan va boshqa holatidan qati nazar kamsitishga qarshi teng va samarali muhofazani kafolatlashi kerak”. Shuningdek, Qiynoqlarga qarshi konvensiya[2], Yevropa inson

huquqlari sudi qarorlari (ECHR)[3], bularning barchasi Yangi O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasidagi tamoyil bilan uzviy uyg‘unlikni taqozo etadi.

Yangi Konstitutsiya matni asosida tamoyil qo‘llaniladigan holatlar deb, 21-modda: “Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin.”

Agar normativ hujjat bir tomondan sha’nni himoya qilsa, boshqa tomondan jarima yoki cheklov belgilasa, noaniqlik yuzaga keladi. Bu holda sha’nni ustuvor qo‘yuvchi talqin qo‘llanadi. Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 27-moddasida: “Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas. Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas. Shaxsni ushlash chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart”. Agar ma’muriy organ ma’lumot yig‘ishda ikki xil normaga tayanayotgan bo‘lsa, mazkur qonunchilikdagi noaniqlik shaxs foydasiga hal qilinadi.

Shu bilan birga 33-moddada: “Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yiladi”. “Ommaviy axborot vositalari qonunchilikka muvofiq axborotni izlash, olish, tadqiq etish, tarqatish, undan foydalanish, uni saqlash huquqiga ega hamda tarqatilayotgan axborotning xolisligi va ishonchliligi uchun belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi[4]”. Agar idora ma’lumotni berish yoki bermaslik bo‘yicha ikkita qarama-qarshi me’yorni qo‘llasa, fuqaroga eng qulay yechim tanlanishi shart.

Qomusimizning 35-moddasida: “Vijdon erkinligi - hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”. Shuningdek, “Dinga e’tiqod qilish yoki o‘zga e’tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan darajadagina

cheklanishi mumkin[5]”.Qonunchilikdagi mazkur noaniqlik yuzaga kelgan diniy masalalarda cheklov emas, erkinlik kengroq talqin qilinishi ko‘zda tutilgan.

“Murojaat qilish huquqi - har kim bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda davlat organlariga hamda tashkilotlariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, mansabdor shaxslarga yoki xalq vakillariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqilishi shart”- ekanligi Konstitutsiyaning 40-moddasida belgilangan. “Murojaatlar, ularning shakli va turidan qat’i nazar, bir xil ahamiyatga ega bo‘ladi[6]”. Agar muddat noaniq bo‘lsa, shakl talabi tushunarsiz bo‘lsa, tartibning ikki xil izohi bo‘lsa, fuqaro foydasiga yechim belgilanadi.

Yana bir misol, 55-moddada sud himoyasi - har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Agar apellatsiya muddati, protsedura yoki vakolat noaniq bo‘lsa - fuqaro foydasiga talqin etiladi.

Tamoyilning sud amaliyotidagi o‘rniga keladigan bo‘lsak, O‘zbekiston sudlari tamoyilni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llay oladi, chunki: Konstitutsiya bevosita amal qiladi, “O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritadi[7]”, sud qarorlari konstitutsiyaviy normalarga asoslanishi shart. Sud amaliyotida protsessual noaniqlik - fuqaro foydasiga hal qilinadi, javobgarlik masalasida ikkita norma mavjud - qulayroq qoida tanlanadi. Ishni yuritish tartibida ziddiyat - eng kam cheklovchi mexanizm qo‘llanadi.

Tamoyilning davlat boshqaruvidagi ahamiyatiga keladigan bo‘lsak, Konstitutsiyadagi mazkur tamoyil davlat organlari faoliyatida bir qator vazifalarni bajaradi, jumladan:

- noqonuniy qarorlar sonini kamaytiradi,
- ma’muriy arbitrajning oldini oladi,
- fuqarolar ishonchini oshiradi,
- xizmat tekshiruvlarida adolatni ta’minlaydi.

Yangi O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida belgilangan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi tamoyilining huquq tarmoqlaridagi amaliy qo‘llanishiga to‘xtalib o‘tamiz.

Xususan, Ma’muriy huquqda: Ma’muriy jarimalar bo‘yicha bahsda noaniqlik vujudga keladigan bo‘lsa fuqaro foydasiga talqin etiladi. Ruxsatnoma olishdagi normativ ziddiyat yuzaga kelgan taqdirda fuqaro uchun eng yengil talab qo‘llaniladi.

Bundan tashqari, Fuqarolik huquqida shartnoma talqinida ikki qarama-qarshi izoh bo‘lsa, iste’molchi foydasiga talqin etiladi.

Shuningdek, Jinoyat huquqida noaniq normaga duch kelingan taqdirda ayblanuvchi foydasiga, shu bilan birga, jazoni belgilashdagi ikki xillik yuz bersa, eng yengil qoidani qo‘llash amaliyotidan foydalaniladi.

Mehnat huquqida esa ishga tiklash bo‘yicha tartib noaniq bo‘lsa, xodim foydasiga, kompensatsiya talqinida ziddiyat uchrasa xodimga kengroq huquq beradigan norma qo‘llanadi.

Qonunchilikdagi ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi tamoyili huquqiy aniqlikni oshiradi, chunki noaniqliklar yo‘qoladi, qonunlar bir xil qo‘llanadi, davlat organlari mansabdor shaxslarining ixtiyoriy qaror chiqarishiga chek qo‘yiladi. Shaxs foydasiga talqin etilishi mutanosib ravishda ortiqcha aralashuvga yo‘l qo‘ymaydi, huquqni cheklashni minimal darajada saqlaydi.

Davlat organlari xato qilishi natijasida yuzaga kelgan ziddiyatlar ham inson foydasiga hal qilinadi.

Mazkur tamoyilni amalda qo‘llashni zaruratga aylantiruvchi holatlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatishimiz mumkin: turli vazirliklarning idoraviy hujjatlari bir-biriga zid bo‘lishi, qonun osti hujjatlarining haddan tashqari ko‘pligi, aksariyat moddalarda qonunchilik bilan tartibga solinishi belgilanganligi – kabilarni ko‘rsatishimiz mumkin.

Mazkur tamoyil xalqaro standartlarga to‘liq mos bo‘lib, Yangi O‘zbekistonning inson huquqlariga tayangan modern konstitutsiyaviy siyosatining asosiy elementiga aylangan.

Qonunchilikda yuzaga keladigan har qanday ziddiyat va noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi tamoyilining qo‘llanilish zaruratini bartaraf qilish uchun normativ-huquqiy hujjatlarning inventarizatsiya qilinishi, keraksiz hamda ortiqcha me’yorlarni bekor qilinishi, normativ-huquqiy monitoring tizimining kuchaytirilishi, idoraviy normativ-hujjatlarni Konstitutsiya bilan moslashtirish kabi amaliyot joriy etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi,

Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasining 20-moddasida mustahkamlangan “qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi” tamoyili huquqiy davlat qurishning eng muhim mexanizmlaridan biridir. U insonning oliy qadriyat ekanini, davlat organlarining mas’uliyatini, huquqiy aniqlik va barqarorlikni, sud himoyasining kengaytirilishini, davlatning fuqarolar oldidagi majburiyatlarini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz

2. “Qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g’ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi muomala va jazolashga qarshi Konvensiya. BMT. https://lex.uz

3. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi. https://uz.wikipedia.org/wiki/Inson_huquqlari_bo‘yicha_Yevropa_sudi.

4. Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida qonun. https://lex.uz
5. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida qonun. https://lex.uz
6. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida qonun. https://lex.uz.
7. Sudlar to‘g‘risida qonun. https://lex.uz

O‘ZBEKISTON REPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI - HARBIY XIZMATCHILAR HUQUQ-MAJBURIYATLARI VA HARBIY INTIZOMNI MUSTAHKAMLASHDAGI ISLOHOTLAR ASOSI

Yunusov Ulug‘bek Abdullayevich,
JXU Magistratura boshlig‘i dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasisi asosida harbiy sohada olib borilgan islohotlar, yangi qabul qilingan harbiy nizomlarning harbiy xizmatchilar huquq va majburiyatini mukammallashtirishdagi o‘rni, harbiy intizomni mustahkamlashdagi ahamiyati keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiyasi, harbiy xizmatchi, huquq, majburiyat, harbiy intizom, rejalashtirish, tashkillashtirish, samaradorlik, nazorat, ibrat, tashashbus, axloqiy-ruhiy barqarorlik.

Аннотация: В данной статье широко освещены реформы, проводимые в военной сфере на основе Конституции Республики Узбекистан, роль вновь принятых военных уставов в совершенствовании прав и обязанностей военнослужащих, а также их значение в укреплении воинской дисциплины.

Ключевые слова: Конституция, военнослужащий, право, обязанность, воинская дисциплина, планирование, организация, эффективность, контроль, образец (или *пример*), инициатива, морально-психологическая устойчивость.

Abstract: This article provides a detailed overview of the reforms carried out in the military sphere based on the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the role of newly adopted military regulations in improving the rights and duties of servicemen, and their significance in strengthening military discipline.

Key words: Constitution, serviceman (military personnel), right, duty, military discipline, planning, organization, effectiveness, control, example, initiative, moral and psychological stability.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasisida fuqarolik jamiyatining qaror topishi uchun demokratik huquqiy davlatni barpo etish asosiy vazifa etib belgilangan. Fuqarolar jamiyatini qurish uchun esa bir qancha ishlar amalga oshirilishi zarur. Shulardan biri fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarining haqiqiy kafolatini ta’minlashdir.

Konstitutsiya har bir davlat taraqqiyotining poydevori bo‘lgan huquqiy, siyosiy va mafkuraviy hujjat – mamlakatning asosiy qonuni hisoblanadi. 1992-yil 8-dekabrda

qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari, mustaqil demokratik davlatimiz, erkin jamiyatimizning mustahkam huquqiy asosi bo‘lib xizmat qildi. Fuqarolarning eng muhim orzu-intilishlari va maqsadlari asosiy qonunimiz – Konstitutsiyada to‘liq ifoda etiladi. Mustaqillik yillarida Konstitutsiya asosida inson qadri ulug‘lanadigan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish maqsadida keng qamrovli yangilanishlar va islohotlar amalga oshirildi, bu borada boy tajriba to‘plandi. O‘zbekiston bugun o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan adolatli va xalqparvar davlat barpo etish yo‘lida dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalarni to‘laqonli amalga oshirish uning maqsadi, ko‘lamiga monand va munosib bo‘lgan yangi mustahkam konstitutsiyaviy makonni shakllantirishni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, konstitutsiyaviy islohotlar tabiiy rivojlanish natijasi bo‘lib, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun o‘ta ahamiyatli hisoblanib, adolatli jamiyat qurish yo‘lida ulkan qadamdir. Shu ma’noda olib borilgan islohotlar samarasi 2023 yil 1 may kuni Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasisi tasdiqlandi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasisida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonning sha’ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari bundan buyon barcha sohalarda ustuvor ahamiyat kasb etishini qat’iy qoidaga aylantirildi, bir so‘z bilan aytganda, “Inson qadri uchun” g‘oyasini hamda bugungi islohotlarning bosh tamoyili bo‘lgan “Inson – jamiyat – davlat” degan yondashuvni yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatida o‘z aksini topdi.

Konstitutsiyaning 64-moddasida – **“**O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar” deb belgilangan. Bu o‘z navbatida harbiy xizmatni o‘tashni rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat qilish, samaradorlikka erishish, istiqbolli rejalarni ishlab chiqish uchun sohaga katta mas’uliyat yuklaydi.

Shu ma’noda Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi harbiy sohadagi boshqaruvning me’yoriy hujjatlarini o‘rganib chiqish, harbiy xizmatchilarning huquq-majburiyatlari, intizomini mustahkamlash borasida islohotlar o‘tkazish uchun katta turtki bo‘ldi.

Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari talablari o‘rganib chiqilib yangi tahrirdagi harbiy nizomlarni qabul qilish bo‘yicha o‘rnatilgan tartibda takliflar ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevral PF-23-son Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlari 3 ta

ilova bilan tasdiqlandi. Jumladan, 1-ilova bilan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining ichki xizmat nizomi”, 2-ilova bilan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom nizomi”, 3-ilova bilan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining garnizon va qorovumik xizmatlari nizomi” yangi tahrirda faoliyatga tadbiq etildi.

Bu qabul qilingan harbiy nizomlarda harbiy xizmatchilarning huquq majburiyatlari va intizomini mustahkamlashga katta ahamiyat qaratildi desak mubolag‘a bo‘lmasligini harbiy nizomlarga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarda ko‘rishimiz mumkin.

Shu ma’noda o‘zgartirish va qo‘shimchalarga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, Umumharbiy so‘zi – Harbiy so‘zi bilan o‘zgartirilib, to‘liq matnda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlari deb yuritilishi belgilandi.

“O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining ichki xizmat nizomi” bo‘yicha amaldagi tahrirda 3 bo‘lim, 12 bob, 113 paragraf, 438 band, 17 ilovadan iborat bo‘lgan bo‘lsa, yangi tahrirda 3 bo‘lim, 10 bob, 58 paragraf, 318 band, 5 ilovada tasdiqlandi. Nizom 41% ga o‘zgartirildi. Ichki xizmatni tashkillashtirishga doir fundamental prinsiplar va yondashuvlar, yakkaboshchilik prinsiplari aniqlashtirildi va belgilandi, ortiqcha detallashtirish istisno qilindi.

“O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom nizomi” bo‘yicha amaldagi tahrirda 5 bo‘lim, 121 banddan iborat bo‘lgan bo‘lsa, yangi tahrirda 3 bo‘lim, 13 paragraf, 97 bandda tasdiqlandi. Nizom 24% ga o‘zgartirildi. Harbiy intizomning mohiyati, unga rioya qilish bo‘yicha majburiyatlari, rag‘batlantirish va intizomiy ta’zirlarning turlari, ularni qo‘llash va ular bo‘yicha shikoyat qilish, harbiy xizmatchilarning murojaatlarini ko‘rib chiqish tartibi belgilandi.

“O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining garnizon va qorovumik xizmatlari nizomi” bo‘yicha amaldagi tahrirda 3 bo‘lim, 12 bob, 64 paragraf, 358 band, 14 ilovadan iborat bo‘lgan bo‘lsa, yangi tahrirda 3 bo‘lim, 11 bob, 49 paragraf, 319 band, 16 ilovada tasdiqlandi. Nizom 16% ga o‘zgartirildi. Ortiqcha detallashtirish istisno qilindi, garnizon va qorovullik xizmatlarini tashkillashtirishga doir fundamental prinsiplar va yondashuvlar belgilandi.

Xulosa o‘rnida, Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi harbiy sohada ham islohotlar o‘tkazilishiga katta turtki bo‘ldi, o‘z navbatida harbiy xizmatchilar faoliyatini rejalashtirish, tashkillashtirish va nazorat samaradorligini oshirish, bugungi kun talabi asosida harbiy xizmatni tashkil etish, malakali, tajribali, tashabbuskor va ibratli harbiy xizmatchilarni shakllantirish, ularni huquq va majburiyatlarining mazmun-mohiyatini to‘laqonli anglab vazifalarini bajarishlari uchun katta zamin yaratadi. Harbiy nizomlarda harbiy xizmatchilarning huquqlari yanada mukammallashtirilishi bo‘linmalarda intizomni yanada mustahkamligiga,

harbiy xizmatchilar axloqiy-ruhiy holatining barqarorligiga ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasisi. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son).

2. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining ichki xizmat nizomi. 2025-yil 14-fevral PF-23. 1-ilova.

3. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom nizomi. 2025-yil 14-fevral PF-23. 2-ilova.

4. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining garnizon va qorovullik xizmatlari nizomi. 2025-yil 14-fevral PF-23. 2-ilova.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН КОНСТИТУЦИЯСИ – ЭРКИН ВА ФАРОВОН ҲАЁТ ГАРОВИ

Хакназаров Азиз Бахтиёрович,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети тингловчиси, лейтенант

Аннотация: Мазкур мақолада Янги Ўзбекистоннинг сиёсий-ҳуқуқий ҳаётида янги таҳрирда қабул қилинган Конституциянинг ўрни ва аҳамияти таҳлил қилинган. Муаллиф томонидан Конституциянинг инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлашдаги ўрни, давлат ва жамият муносабатларини янги босқичга олиб чиқишдаги роли ҳамда “ижтимоий давлат” тамойилининг ҳуқуқий мазмуни ёритилган.

Калит сўзлар: Янги Ўзбекистон, Конституция, инсон ҳуқуқлари, демократик ислоҳотлар, ижтимоий давлат, ҳуқуқий маданият, адолат, фаровон ҳаёт.

Аннотация: В данной статье проанализирована роль и значение Конституции в новой редакции, принятой в политико-правовой жизни Нового Узбекистана. втор рассматривает место Конституции в обеспечении прав и свобод человека, её роль в выведении отношений между государством и обществом на новый уровень, а также правовое содержание принципа «социального государства».

Ключевые слова: Новый Узбекистан, Конституция, права человека, демократические реформы, социальное государство, правовая культура, справедливость, процветающая жизнь.

Abstract: This article analyzes the role and significance of the Constitution in its new edition, adopted in the political and legal life of New Uzbekistan. The author

examines the Constitution's role in ensuring human rights and freedoms, its function in elevating the relationship between the state and society to a new level, as well as the legal content of the principle of a "social state."

Keywords: New Uzbekistan, Constitution, human rights, democratic reforms, social state, legal culture, justice, prosperous life.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 17 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси Конституцияси куни байрамига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш тўғрисида"ги Ф-53-сон фармойишида "Конституция — эркин ва фаровон ҳаёт гарови!" деган ҳаётий шиорнинг моҳияти ва аҳамиятини, янги таҳрирдаги Конституция асосида инсон ҳуқуқ ва эркинликлари соҳасида мутлақо янги босқичга ўтилганлигини очиб бериш вазифаси белгиланган[36]. Шу боисдан ушбу мақолани айнан шу мавзуга бағишлаймиз.

Айтиш жоизки, инсоният тарихи ихтироларга бой. Шу ихтиролар натижасида хаёт ривожланиб, яшаш учун имкониятлар кенгайиб боради. Хар қандай ихтиролар у табиат қонуни бўлсин, жамият қонуни бўлсин, ёки турмуш тарзини енгиллаштирадиган бўлсин ё тасодиф туфайли ёки зарурият туфайли вужудга келади. Ихтироларни, янгиликларни вужудга келишига инсон ақл-заковати, турмуш тарзи, онги таъсир қилади.

Инсоният тарихида инсонларни ақл-заковати махсули сифатида ихтиро қилинган ва тараққиётга катта хисса қўшган ихтиролардан бири Конституциядир. У дастлаб алохида бир мақсад, вазифани бажариш учун вужудга келган бўлса, кейинчалик унинг вазифалари кенгайиб борди.

Конституция дастлаб АҚШда вужудга келганида унинг тўғридан-тўғри вазифаси хокимият бўлиниши принципини ўрнатиш билан, давлат хокимиятининг чеклаш, тартибга солиш бўлиб, шу орқали инсоннинг эркинлигини таъминлаш бўлган. АҚШ Конституцияси тўртта масалани яъни: қонун чиқарувчи хокимият, ижро хокимияти, суд хокимияти, федерация ва унинг субъектларининг ваколатларини белгилаб қўйган. Унда инсон ҳуқуқлари, жамиятнинг бошқа институтларини мустахкамлаш каби масалалар кўзда тутилмаган. Фақат инсон ҳуқуқларига тааллуқли "Конгресс инсон ҳуқуқларига зид қонун қабул қилиши мумкин эмас" деган қоида мавжуд бўлган. Кейинчалик АҚШ Конституциясига киритилган ўзгариш ва қўшимчалар инсон ҳуқуқларига тааллуқли бўлди[37] ва Конституция фақат ҳокимиятни ташкил қилиш ва фаолиятига тегишли хужжатдан инсон ҳуқуқларини белгиловчи хужжатга

[36] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 17 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси Конституцияси куни байрамига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш тўғрисида"ги Ф-53-сон фармойиши // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, https://lex.uz/docs/7160383

[37] Конституционное право зарубежных стран: учеб. для вузов / под общ. ред. М. В. Баглая. – М.: НОРМА, 2010. – С. 431-438

айлана борди. Натижада хокимият билан инсон манфаати ўртасида мутаносиблик вужудга келди.

Кейинги Конституциялар, ҳокимият ва инсон муносабатида инсон манфаатларини устиворлигини таъминлаш йўлидан борди. Буни Конституцияларда дастлаб, биринчи навбатда инсон ҳуқуқларига тааллуқли масалалар ҳал қилинганида ҳам кўриш мумкин. Жумладан Германия Федерацияси Конституциясининг 1-бўлими "Асосий ҳуқуқлар" деб аталиб, унинг 1-моддасида "Инсон қадри дахилсиздир. Уни хурмат қилиш ва химоя қилиш хар қандай давлат хокимиятининг бурчидир" деб белгиланган[38].

Шунингдек кейинги қабул қилинаётган Конституцияларда инсон масаласи Конституцияларнинг дастлабки бобларида берилмоқда. Лекин хамма Конституцияларда ҳам инсон ҳуқуқлари Конституцияда устивор масала бўлиб хисобланса ҳам, инсон ҳуқуқларини давлат манфаатларига хизмат қилдириш холлари учраб туради. Жумладан Собиқ иттифоқ давридаги Конституцияларда ҳам инсон ҳуқуқлари кенг белгиланган бўлсада улардан давлат манфаати йўлида фойдаланиш кўрсатиб қўйилган эди. Масалан СССР Конституциясида фуқароларга митинглар, намойишлар ўтказиш ҳуқуқи берилиб, бу хуқуқдан фақат социалистик тузумни риожлантириш учун фойдаланиш мумкунлиги белгилаб қўйилган эди. (СССР Конституциясининг 50-моддаси)[39]. Ҳудди шундай қоида ЎзССР Конституциясида ҳам бўлган.

1991 йилдаги Ўзбекистоннинг мустақиллиги ўз Конституциясини мустақил қабул қилиш имкониятини берди. Конституция лоихасини тайёрлашда демократик хорижий мамлакатлар Конституцияларини, халқаро ҳуқуқ нормаларини ўрганиш, тахлил қилиш натижасида бўлажак Конституциямизда инсон ҳуқуқлари бош масала қилиб олинди.

Конституциянинг иккинчи бўлими "Инсон ва фуқароларнинг асосий ҳуқуқлари, эркинликари ва бурчлари" деб номаниб унинг 6 та боби инсон ҳуқуқларига бағишланди". Унда барча фуқароларнинг миллатидан қатий назар қонун олдида тенглиги белгиланди[40].

Ўзбекистонда яшовчи барча миллатларнинги нафақат қонун олдида барча масалаларда тенглиги эълон қилинди. Конституциямизда барча миллатларни хамма сохада тенглиги таъминланганлигига бекорга урғу бераётганимиз йўқ. Чунки айрим энг демократик давлатлар Конституцияларида ҳам шу мамлакатдаги асосий миллат мавқеи юқори қўйилиши холлари мавжуд. Масалан Германия Конституциясининг 3-моддасида "Барча кишилар қонун олдида тенг" деган қоида мавжуд. Лекин унинг бир неча моддаларида тегишли

[38] Конституции мира (Сборник конституций государств мира. т. 1) Составители и авторы введения, вступитель ных статей У.Таджиханов и А.Х.Саидов. – Т.: Академия МВД, 1997. – С. 360-342
[39] Совет Социалистик Республикалари Иттифоқининг Конституцияси. Т: "Ўзбекистон", 1977 йил.
[40] Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 8 декабрдаги Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2021. – 76 б.

ҳуқуқ немисларгагина тегишлилиги кўрстилган. Конституциянинг 8-моддасида “Барча немислар қуролсиз, аввалдан огохлантирмай тинч йиғилиши мумкин”, 11-модасида “Барча немислар федерациянинг худудида эркин кўчиб юриши мумкин” деган қоидалар мавжуд. 122-моддада “Барча немислар эркин касб, иш жойи, таълим олиши, яшаш жойини эркин танлаш ҳуқуқига эга” деб ёзиб қўйилган. Бундай холатни Ўзбекистон Конституциясида учратмайсиз. Ўзбекистон фуқароси қайси миллатга мансуб бўлмасин барча Конституциявий ҳуқуқлардан бирдек фойдаланади.

Ўзбекистонда 2023 йида янги тахрирда Конституция қабул қилиниши масаласи кўтарилганда, унда инсон ҳуқуқларини янада кенгайтириш, инсон ҳуқуқларини таъминлаш механизмини, инсон ҳуқуқларини таъминлашда давлат маъсулиятини кучайтириш зарурати мавжудлигидан келиб чиқилди. Буни Конституциянинг қуйидаги янги холатларида кўриш мумкин.

Аввало Конституция Олий юридик кучга эгалиги, тўғридан-тўғри амал қилувчи хужжат эганлиги белгиланди (15-модда). Инсон ҳуқуқ ва эркинликлари бевосита амал қилиши, Инсон ҳуқуқ ва эркинликлари қонунларининг, давлат органлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, уларнинг мансабдор шахслари фаолиятининг мохияти ва мазмунини белгилаши;

Давлат томонидан инсонга нисбатан қўлланиладиган ҳуқуқий таъсир чоралари мутаносиблик принципига асосланиши ва қонунларда назарда тутилган мақсадларга эришиш учун етарли бўлиши кераклиги; Инсон билан давлат органларининг ўзаро муносабатларида юзага келадиган қонунчиликдаги барча зиддиятлар ва ноаниқликлар инсон фойдасига талқин этилиши белгилаб қўйилди (20-модда).

Конституцияда инсон ҳуқуқлари ва эркинликлари анча кенгайтирилди. Янги ҳуқуқлар ва қоидалар белгиланди. Буни аввалги “Иқтисодий ва ижтимоий ҳуқуқлар” боби, “Иқтисодий, ижтимоий, маданий ва экологик ҳуқуқлар” деб ўзгартирилганида ҳам кўриш мумкин. Аввалги Конституцияда инсон хуқуқлари учун 23 модда ажратилган бўлса, янги тахрирдаги Конституцияда 34 модда мавжуд бўлди (11 та янги модда). Инсон ҳуқуқларига тааллуқли моддалардаги нормалар 37 дан 98 та кўпайди. Бу дегани фақат янги моддалар қўшилиб қолинмай, янги нормалар билан бойитилди[41].

Ўлим жасоси тақиқланади; инсонни шаъни ва қадр-қиймати дахлсиздир, ҳеч нарса уларни камситиш учун асос бўлиши мумкин эмас; ҳеч ким қонунга асосланмаган холда хибисга олиниши, ушлаб турилиши, қамоққа олиниши, қамоқда сақланиши ёки уни озодлиги бошқача тарзда чекланиши мумкин эмас. Шахсни суднинг қарорисиз 48 соатдан ортиқ ушлаб туриш мумкин эмаслиги, уни ушлаш чоғида унга тушинарли тилда унинг ҳуқуқлари ва ушлаб туриш

[41] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси (янги таҳрири). – T.:Yuridik adabiyotlar publish, 2023. – 112 б.

сабаблари тушунтирилиши шартлиги; айбсизлик призумцияси аниқ белгиланганлиги, айбсизликка оид барча шубхалар, уларни бартараф этиш имконияти тугаган бўлса айбланувчи, судланувчи ёки махкумнинг фойдасига ҳал қилиниши; хар ким ўзига ва яқин қариндошларига қарши гувохлик беришга мажбур эмаслиги; агар шахснинг ўз айбини тан олганлиги унга қарши ягона далил бўлса, у айбдор деб топилиши ва жазоланиши мумкин эмаслиги; озодликдан махрум этилган шахслар ўзига нисбатан инсоний муомалада бўлиниши ҳамда инсон шахсига хос бўлган шаъни ва қадр-қиймати хурмат қилиниши ҳуқуқига эгалиги; шахснинг судланганлиги ва бундан келиб чиқадиган ҳуқуқий оқибатлар унинг қариндошлари ҳуқуқларини чеклаш учун асос бўлиши мумкин эмаслиги тўғрисидаги қоидаларни ўрнатилиши инсонпарвар давлат йўлидан бораётганимизни кўрсатади.

Конституциямизда фуқароларнинг сиёсий сохадаги хуқуқларни ҳам кенгайтирилди, унга мутлақо янги “Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари давлат хизматига киришда тенг ҳуқуққа эгадирлар” деган қоида киритилди (37-модда). Бу фуқароларнинг давлат бошқарув ишларида иштирокига тенг имконият яратади. Конституцияга хомиладорлиги ёки боласи борлиги сабабли аёлларни ишга қабул қилишни рад этиш, ишдан бўшатиш ва уларнинг иш ҳақини камайтиришни тақиқловчи қоидани киритилиши эса, аёлларни жамиятдаги ўрни муносиб бўлишига қаратилган эътибордир.

Ҳар кимни уй-жойи бўлиш ҳуқуқи, ҳар ким қулай атроф-мухитга, унинг холати тўғрисида ишончли ахборотга эга бўлиши ҳуқуқи, ўқитувчиларнинг мақомини алохида белгиланиши, шаъни, қадр-қимматини химоя қилиниши, уларга алохида ғамхўрлик қилиш кераклиги, давлат фуқароларнинг бандлигини таъминлаш, ишсизликдан химоя қилиш, камбағалликни қисқартириш чораларини кўришини Конституцияда қайд қилиниши ва Конституциявий даражада белгиланиши Ўзбекистонни халқпарвар давлат эканлигидан далолат беради.

Янги тахрирдаги Конституциянинг кучли ва таъсирчан жихатларидан яна бири-унда инсон ҳуқуқларининг кафолатларини белгилашга янгича ёндашувдир. Конституциянинг 54-моддасида “Инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш давлатнинг олий мақсадидир. Давлат инсон ҳамда фуқаронинг Конституция ва қонунларида мустаҳкамланган ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлайди” – деб мустаҳкамлаб, ўз зиммасига катта, маъсулиятни олди. Бу норма давлатнинг мақсади асосида, маъсулиятини Конституциявий даражада мустаҳкамлади. Бу тарзда маъсулятни мустаҳкамланганлиги барча давлат Конституцияларида учравермайди.

Конституциядаги инсон ҳуқуқларини белгиловчи кўплаб моддаларда шу нормани ижросини таъминлаш давлат зиммасида эканлигини ёзиб қўйилганлиги давлатнинг шу маъсулятидан келиб чиқади.

Давлатнинг маъсуляти-мажбурияти бир неча моддаларда, шу нормани “таъминлаш”, “шарт-шароит яратиш”, “чора кўриш”, “ғамхўрлик қилиш учун шарт-шароит яратиш” каби маъсулияти тўғридан-тўғри Конституция моддаларида кўрсатилган (29, 33, 43, 47, 49, 50, 53, 57-моддалар). Конституцияда инсон ва фуқароларнинг ҳуқуқлари кафолатлари тизими, фуқароларга ўз ҳуқуқларини химоя қилиш имкониятлари кенгайтирилди. Жумладан хар ким ўз ҳуқуқ ва эркинликларини қонунда тақиқланмаган барча усуллар билан химоя қилишга ҳақли эканлиги; ҳар ким қонунчилик ва халқаро шартномаларига мувофиқ, агар давлатнинг ҳуқуқий химояга доир барча ички воситаларидан фойдаланиб бўлинган бўлса, инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликларини химоя қилувчи халқаро органларга мурожат қилишига хақли эканлиги белгиланди (55-модда).

Бу мутлақо янги ва ҳуқуқларни ҳимоя қилишининг кучли воситасидир. Конституцияда инсон ҳуқуқларини химоялашда инсон ҳуқуқлари бўйича миллий институтлар вазифаси белгиланди. Унга асосан, миллий институтлар инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини химоя қилишнинг мавжуд шакллари хамда воситаларини тўлдиради, фуқаролик жамиятини ривожлантиришга инсон ҳуқуқлари маданиятини юксалтиришга кўмаклашади (56-модда).

Конституцияда мехнатга лаёқатсизлар, ёлғиз кексалар, ногиронлиги бўлган шахслар, ахолининг эҳтиёжманд қисми, хотин-қизлар ҳуқуқи алохида химояланиши белгиланди.

Фуқаро ҳуқуқларини химоялаш фақат шахснинг ҳуқуқий холатига тааллуқли бобларда, моддалардагина эмас, Конституциянинг бошқа моддаларида хам учрайди. Конституциянинг 133-моддасида, фуқаролар, агар суд орқали химоя қилишнинг бошқа барча воситалардан фойдаланиб бўлинган бўлса, судда кўриб чиқилиши тугалланган муаян ишда суд томонидан ўзига нисбатан қўлланилган қонуннинг Конституцияга мувофиқлиги тўғрисидаги шикоят билан Конститутциявий судга мурожат қилишга ҳақли, - деган қоида бунга мисол бўлади. Конституцияга киритилган бу янги қоида, фуқаролар ҳуқуқини кафолатларини кучайтириши билан бирга, Конституциявий суд фаолиятини кучайтиришга хам қаратилди.

Шунингдек, Конситутцияга махсус “Адвокатура” бобининг киритилиши ҳам инсон ҳуқуқларини таъминлаш чораларини кучайтирилганлигини кўрсатади. Тажрибадан маълумки, инсон ҳуқуқларини Конституцияда белгиланиши масалани бир томони, Конституцияларда у турлича ва хар томонлама белгиланиши, чиройли сўзлар билан ёзиб қўйилиши мумкун. Совет

давридаги Конституцияларда хам инсон ҳуқуқлари яхши белгиланган эди. Лекин уларни амал қилиши қониқарсиз эди. Шунинг учун Конституциямизда инсон ҳуқуқларини мукаммал ва кенг белгиланиши билан муаммолар хал бўлмайди. Уларни амал қилишини таъминловчи кучли механизм ва шароитлар бўлиши зарур.

Ўзбекистон Президентининг қуйидаги “Хаммамиз яхши тушунамизки, қонунларни қабул қилиш – бу ишнинг бир қисми холос. Асосий масала-қонунларнинг мазмун-мохиятини халқимизга ва маъсул ижрочиларга ўз вақтида етказиш, уларнинг ижросини тўғри ташкил этиш хамда қонун талабларига қатъий амал қилишни таъминлашдан иборатдир” деган сўзлари хам буни кўрсатади[42].

Шунинг учун Конституция нормаларини хаётга тадбиқ этишни таъминлашни кўзда тутувчи, Президентнинг 2023 йил 8 майда “Янги тахрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясини амалга ошириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони қабул қилинди[43]. Фармонда Конституция нормаларини, жумладан инсон ҳуқуқларига тегишли нормалари таъминлашнинг кучли механизм ва тадбирлари белгиланди. Конституция нормаларини бажарилиши учун кўплаб иқтисодий имкониятларини яратиш чора-тадбирлари кўрилмоқда. Булар Ўзбекистоннинг “Ижтимоий давлат” хусусиятига мос келади.

Хулоса ўрнида шу таъкидлаш жоизки, Янги Ўзбекистон Конституцияси – бу нафақат янги ҳуқуқий ҳужжат, балки Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясининг ҳуқуқий пойдеворидир. У инсон ҳуқуқлари, эркинликлари ва қадрини олий қадрият сифатида белгилаган, халқ манфаатларига хизмат қилувчи давлат тизимини барпо этишни мақсад қилган.

Шунинг учун ҳам Янги Ўзбекистон Конституцияси ҳақиқатан ҳам эркин ва фаровон ҳаётнинг гаровидир. Унинг ҳар бир моддаси жамиятнинг барқарорлиги, халқнинг фаровонлиги ва давлатнинг куч-қудратини таъминлашга қаратилгандир.

Шубҳасиз, Янги Ўзбекистон Конституцияси мамлакатимизни келгуси ўн йилликларда ҳам тараққиёт ва фаровонлик сари етаклайдиган мустаҳкам ҳуқуқий пойдевор бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

[42] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни катьият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 1-жилд, 2017. – Б. 107.

[43] Ўзбекистон Президентининг 2023 йил 8 майдаги “Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясини амалга ошириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-67-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 10.05.2023 й., 06/23/67/0269-сон.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 17 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Конституцияси куни байрамига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш тўғрисида”ги Ф-53-сон фармойиши // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, https://lex.uz/docs/7160383

2. Конституционное право зарубежных стран: учеб. для вузов / под общ. ред. М. В. Баглая. – М.: НОРМА, 2010. – С. 431-438

3. Конституции мира (Сборник конституций государств мира. т. 1) Составители и авторы введения, вступитель ных статей У.Таджиханов и А.Х.Саидов. – Т.: Академия МВД, 1997. – С. 360-342

4. Совет Социалистик Республикалари Иттифоқининг Конституцияси. Т: “Ўзбекистон”, 1977 йил.

5. Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 8 декабрдаги Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2021. – 76 б.

6. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси (янги таҳрири). – Т.:Yuridik adabiyotlar publish, 2023. – 112 б.

7. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни катьият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 1-жилд, 2017. – Б. 107.

8. Ўзбекистон Президентининг 2023 йил 8 майдаги “Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясини амалга ошириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-67-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 10.05.2023 й., 06/23/67/0269-сон.

RAQAMLI DAVRDA BOLA TA’LIM-TARBIYASINI HUQUQIY TA’MINLASHNING DOLZARB MASALALARI

Akramova Shaxnoza Abrorovna,
O’zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
Harbiy-vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar
bilan ijtimoiy ishlash kafedrasi boshlig’i o’rinbosari,
pedagogika fanlari doktori, professor,podpolkovnik
e-mail: xabibasevinch@mail.ru mob.tel: +998974122305

Annotatsiya: Maqolada bola ta’lim-tarbiyasini amalga oshirishning huquqiy asoslari, internet muhitidagi zamonaviy tahdidlar va “qonunlar bor — nega salbiy holatlar saqlanmoqda?” degan muammoga ilmiy-amaliy yondashuv bayon etiladi. O‘zbekistondagi milliy huquqiy baza va uning ijro mexanizmlari tahlil qilinib, kiberjinoyatchilik dinamikasi, kiberbulling va onlayn seksual ekspluatatsiyaga oid xalqaro statistik signallar qiyosiy jadvalda keltiriladi. YEI (DSA), Buyuk Britaniya (Online Safety) va AQSH (COPPA) tajribalariga tayanilgan holda, bolani raqamli muhitda himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: bola huquqlari, ta’lim-tarbiya, oila mas’uliyati, profilaktika, kiberbulling, kiberxavfsizlik, DSA, COPPA, onlayn xavfsiz dizayn.

Bola tarbiyasi “faqat oila ishi” yoki “faqat maktab mas’uliyati” emas — bu **davlat, jamiyat, ota-ona va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi huquqiy majburiyatlar kompleksi.** Ayniqsa, raqamli muhitda bola hayotining katta qismi virtual olamga ko‘chgani sababli, tarbiya va himoya mexanizmi ham internet realligiga moslashishi shart.

Bugungi raqamli sharoitda “tarbiya” tushunchasining o‘zi kengaydi: u faqat axloq-odob emas, balki **axborot xavfsizligi, raqamli himoya, psixologik barqarorlik va huquqiy madaniyat**ni ham qamraydi. Shu sabab qonunchilikda bolaning ta’lim olish huquqi bilan bir qatorda uning **zo‘ravonlikdan, sha’n-qadrni kamsitishdan, majburlashdan va axborot xavflaridan** himoyasi masalasi ham asosiy o‘ringa chiqyapti.

Prezident Shavkat Mirziyoyev davlat siyosatida ta’lim-tarbiyani ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab, bu sohadagi islohotlarni inson kapitali va kelajak taraqqiyoti bilan bevosita bog‘laganini ko‘p bor ta’kidlagan. Aynan shu nuqtadan qaralganda, bola ta’lim-tarbiyasini huquqiy ta’minlash “tarbiya haqidagi shiorlar” emas, balki aniq kafolat, majburiyat va himoya mexanizmlariga tayanadigan ijtimoiy-huquqiy tizimdir. Biroq zamonaviy sharoitda tarbiyaning ta’sir maydoni faqat oila, mahalla va maktab bilan cheklanmaydi: internet orqali global platforma madaniyati, algoritmlar va transchegaraviy axborot oqimi bola ongiga har kuni ta’sir ko‘rsatyapti.

Shu bois huquqiy asoslar qanchalik mukammal bo‘lmasin, agar ular raqamli muhitga xos ijro va profilaktika instrumentlari bilan to‘ldirilmasa, “huquqiy norma bor — natija nega to‘liq emas?” degan ziddiyat tabiiy ravishda yuzaga chiqadi.

Milliy huquqiy bazaga suyanganda, bola ta’lim-tarbiyasi avvalo davlat tomonidan kafolatlangan ta’lim tizimi va ota-onaning qonuniy mas’uliyati orqali amalga oshiriladi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda ta’lim jarayonining mazmuniy yo‘nalishi belgilangan bo‘lib, maktabgacha ta’lim va tarbiya bolani o‘qitish va tarbiyalash, uni intellektual, ma’naviy-axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan ta’lim turi sifatida belgilanadi. Shu bilan birga, bolani keyingi ta’lim bosqichiga tayyorlash — huquqiy kafolat sifatida erta bosqichdan boshlanishi uchun 6–7 yoshdagi bolani boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlash normasi ham qonunchilikda qayd etilgan. Demak, tarbiya “keyin qaraladigan masala” emas, davlat tomonidan normalashtirilgan ijtimoiy vazifadir. Bu vazifaning ikkinchi tayanchi — ota-onaning (qonuniy vakilning) majburiyatidir: oila qonunchiligida ota-onaning bolani tarbiyalashi shartligi, uning kamoloti va ta’limi uchun javobgarligi huquqiy norma darajasida mustahkamlangan. Uchinchi tayanch — bolaning huquqlarini kafolatlaydigan qonunlar orqali himoya mexanizmi: bola manfaati buzilsa, vakolatli organlarga murojaat qilish, xavf holida tezkor himoya choralarini ishga tushirish kabi kafolatlar bolani “huquq subyekti” sifatida kuchaytiradi. Shu tarzda milliy baza shakllantirilgan: kafolat (ta’lim), majburiyat (ota-ona), himoya (bola huquqlari), profilaktika (huquqbuzarliklarni oldini olish) bir zanjirda.

Ammo “meyor bor” degani “xavf yo‘q” degani emas. Raqamli hayotning real ko‘lami va undagi xavflar statistikada juda yorqin ko‘rinadi. Bir tomondan, yoshlar orasida internetdan foydalanish tafovuti ancha katta: UNICEF tadqiqotiga ko‘ra, 14–30 yoshlilar orasida **53,9% internetdan “hech qachon” foydalanmasligi, 25,4% esa “har kuni” foydalanishi** qayd etilgan (ayniqsa qishloq va qizlar orasida farq sezilarli). Bu ikki xil xavfni tug‘diradi: (a) internetdan foydalanmaydigan qatlamda raqamli savodxonlik pastligi sabab manipulyatsiya va aldovlarga nisbatan immunitet zaif; (b) internetdan har kuni foydalanadigan qatlamda esa kiberbulling, guruh ta’siri, “gruming”, shaxsiy ma’lumotlarni tarqatish kabi xatarlar tezroq uchraydi.

Ikkinchi tomondan, kibermuhitdagi huquqbuzarliklar jadal o‘smoqda. IIV tizimidagi rasmiy ma’lumotga ko‘ra, **2019 yilda axborot texnologiyalari orqali 863 ta jinoyat** qayd etilgan bo‘lsa, **2024 yilda 58 800 ta**ga yetgan; 2024 yilda kiberjinoyatlar **umumiy jinoyatchilikda 44,4%** ulushga chiqqani, fuqarolarning **1 trln 909 mlrd so‘mdan ortiq** mablag‘i talon-taroj qilingani va kiberjinoyatlarning **98%** qismi bank kartalari bilan bog‘liq ekani ko‘rsatilgan. Bu raqamlar bola tarbiyasi masalasini ham bevosita kesib o‘tadi: chunki ota-ona moliyaviy xavfsizligi buzilgan

xonadonda stress kuchayadi, nazorat susayadi; bola esa telefon, akkaunt, “link” madaniyatini kattalardan o‘rganadi va kattalar xatosi bolaning odatiga aylanadi.

O‘zbekiston sharoitida kiberxavfsizlik va raqamli hayot

Ko‘rsatkich	Manbadagi holat	Tarbiyaga ta’siri
2019: IT orqali jinoyatlar	863 ta	Onlayn aldov/manipulyatsiyaga qarshi immunitet pastligi
2024: IT orqali jinoyatlar	58 800 ta	Xonadon moliyaviy xavfsizligi va bola raqamli odatlari xavf ostida
2024: kiberjinoyat ulushi	44,4%	“Ommaviy xatar” — profilaktika maktab-oila darajasida shart
Talon-taroj qilingan mablag‘	1,909 trln so‘m+	Oilada ijtimoiy-psixologik bosim, nazorat susayishi
Internetdan “hech qachon” foydalanmaslik	53,9% (14–30 yosh)	Raqamli savodxonlik tengsizligi, xavfni tanimaslik
Internetdan “har kuni” foydalanish	25,4% (14–30 yosh)	Kiberbulling/kontent xatarlari va o‘rgatilmagan “onlayn axloq”

Endi asosiy savol: **nega qonunlar bo‘lsa ham salbiy holatlar bor?** Bu yerda oddiy “ijro past” degan javob yetarli emas; sabablar tizimli:

1. **Raqamli muhit transchegaraviy**: kontent, chatlar, botlar va firibgarlik sxemalari davlat chegarasini tanimaydi; milliy qonun ijrosi esa ko‘pincha milliy yurisdiksiya bilan cheklanadi. IIV ma’lumotlarida ham kiberjinoyatning transmilliy muammoga aylanib borayotgani ta’kidlanadi.

2. **Qonun — “meyor”, tarbiya esa — “amaliyot”**: bola uchun qonun matnini ota-ona, o‘qituvchi, psixolog va platforma siyosati “qayta tarjima” qilib bermasa, meyor kundalik hayotga aylanmaydi.

3. **Algoritmlar va iqtisodiy rag‘bat**: platformalarda e’tibor iqtisodi (attention economy) ishlaydi — provokatsion kontent ko‘proq ko‘riladi, ko‘proq tarqaladi. Shuning uchun tarbiya faqat “taqiq” emas, “mediaimmunitet” hamdir.

4. **Raqamli savodxonlikning notekisligi**: UNICEF hisoboti internetdan foydalanishda katta tafovut borligini ko‘rsatadi; demak, tarbiya bir vaqtning o‘zida ham “onlaynda xavfsiz bo‘lish”, ham “onlaynni tushunish” kompetensiyalarini talab qiladi.

Internet tahdidlari bolalar uchun oddiy “yomon kontent” bilan cheklanmaydi. Xalqaro manbalarda kiberbulling va “onlayn gruming/aldamchi muloqot” o‘sib borayotgani qayd etiladi. Masalan, HBSC xalqaro hisobotida o‘quvchilar o‘rtasida kiberbulling ko‘rsatkichlari va trendlar qayd etilgan. AQShda NCMEC ta’kidlaganidek, “online enticement” (bolani onlayn muloqot orqali jinsiy maqsadda aldash/yo‘ldan urish) haqidagi hisobotlar ko‘lami juda katta darajaga chiqqan. Bu

misollar O‘zbekiston uchun ham “erta ogohlantirish signali”: xavflar arxitekturasi umumiy, faqat masshtab va namoyon bo‘lish shakllari farq qilishi mumkin.

Shu yerda **xorijiy tajriba**ning muhim jihati ko‘rinadi: ko‘p mamlakatlar “faқat jazo” emas, **platforma majburiyatlari + yoshni aniqlash/age assurance + bolalar ma’lumotlarini himoya qilish** triadasiga o‘tmoqda.

Bola onlayn xavfsizligi -xorijiy yondashuvlar

Hudud/mamlakat	Asosiy huquqiy yondoshuv	Amaliy mexanizm
YEI (DSA)	Voyaga yetmaganlar himoyasi va xavfsizligi	Voyaga yetmaganlarga nisbatan profillash asosida reklama cheklovlari va platformalarning “minorlar xavfsizligi” choralari
Buyuk Britaniya (Online Safety Act)	Bolalarga zararli kontentdan himoya bo‘yicha xizmat provayderi majburiyatlari	Yoshni tekshirish/baholash (“highly effective age assurance”) bo‘yicha regulyator (Ofcom) yo‘riqnomalari va talablar
AQSH (COPPA)	13 yoshgacha bolalarning onlayn shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish	Bolalarga qaratilgan servislarda yoki boladan ma’lumot olinayotgani ma’lum bo‘lsa, ota-ona roziligi talab etiladi
Avstraliya (Online Safety)	“Bazaviy onlayn xavfsizlik kutilmalari” va yoshga oid cheklovlar	BOSE bilan provayderlardan xavfni kamaytirish choralari; 2025 yildan ayrim platformalarda 16 yoshgacha akkauntga cheklov siyosati kiritilgani haqida rasmiy ma’lumotlar

O‘zbekiston uchun bu tajribadan chiqadigan asosiy xulosa: bola ta’lim-tarbiyasining huquqiy kafolatlari endi “maktab ichi”da emas, **platformalar siyosati va raqamli infratuzilma** bilan tutash joyda samara beradi. Shuning uchun milliy huquqiy asosni amaliy samaraga aylantirishda uchta ustun zarur: (1) huquqiy normalarni hayotga tatbiq etuvchi institusional hamkorlik, (2) oila–maktab darajasida raqamli tarbiya kompetensiyalari, (3) kontent va platforma xavflarini boshqarishning aniq reglament va indikatorlari.

O‘zbekiston sharoitida ilmiy-amaliy yechimlar ham aynan shu mantiqqa suyangan holda tizimlashtirilsa, samara oshadi.

Birinchi navbatda, mavjud qonunchilikdagi tarbiya va bola huquqlari kafolatlarini saqlagan holda, ta’lim muassasalari, mahalla va profilaktika subyektlari uchun “bitta keys — bitta algoritm” tamoyilida yagona safeguarding reglamentini joriy etish maqsadga muvofiq: kiberbulling/shantaj/gruming alomati aniqlansa kim

nima qiladi, qay tartibda psixologik yordam ko‘rsatiladi, dalillar qanday saqlanadi, qachon va qaysi organga murojaat qilinadi — barchasi bir xil va oddiy bo‘lishi kerak.

Ikkinchidan, profilaktika “bir martalik targ‘ibot”dan chiqib, umumta’limning bosqichma-bosqich kompetensiyasiga aylanishi zarur: zararli havolaga kirmaslik, kod bermaslik, akkaunt maxfiyligi, kiberbullingka javob algoritmlari, raqamli odob va huquqiy madaniyat o‘quvchining amaldagi ko‘nikmasiga aylansin; bu kiberjinoyat sxemalarida “ijtimoiy muhandislik” ulushi yuqori ekanini ko‘rsatuvchi tahlillar bilan ham mos keladi.

Uchinchidan, bolalar foydalanadigan xizmatlar uchun “xavfsiz dizayn” (privacy-by-default, safety-by-design) tamoyillari bo‘yicha aniq talablar ishlab chiqish kerak: bolalar akkauntlarida ochiqlikni cheklash, noma’lum kontaktlardan himoya, kontent tavsiyalarida xavfni pasaytirish, oson shikoyat va bloklash, bolalarga qaratilgan reklama va profillashtirishni cheklash — bu amniga salmoqli ta’sir qiladigan instrumentlar.

To‘rtinchidan, ishonchli murojaat kanallarini kuchaytirish talab etiladi: bola uchun “aytishim mumkin” bo‘lgan xavfsiz yo‘l bo‘lmasa, qonun amalga tushmaydi; shu bois psixologik xizmatlar, call-markazlar/chat-murojaat va tezkor huquqiy yordam o‘rtasida bog‘lanish mexanizmi qo‘yilishi kerak (latentlikni kamaytirish uchun).

Beshinchidan, monitoringsiz siyosat bo‘lmasligini tan olish lozim: kiberbulling, onlayn shantaj, murojaatlar, ko‘rilgan choralar va natijalar bo‘yicha milliy ko‘rsatkichlar paneli yuritilsa, profilaktika “sezgi”ga emas, ma’lumotga tayangan holda boshqariladi.

Yakunda aytish mumkinki, O‘zbekistonda bola ta’lim-tarbiyasining huquqiy asoslari mavjud va tizimli; muammo ularning raqamli reallikdagi ijro qismini kuchaytirishda. Ta’lim va tarbiyani davlat siyosatida ustuvor deb belgilash haqidagi pozitsiya amalda “qonun + ijro + profilaktika + platforma mas’uliyati” zanjiriga aylantirilsa, salbiy holatlar sababini bartaraf etish mumkin bo‘ladi. Raqamlar esa bizdan tezroq qaror talab qilyapti: kiberjinoyatchilik dinamikasi keskin o‘sib borayotgan, kiberbulling esa xalqaro o‘lchovda ham har oltinchi o‘smir darajasida uchrayotgan bir paytda, bola tarbiyasining huquqiy kafolati albatta internet muhitida amal qiladigan muhofaza arxitekturasi bilan qo‘shib qurilishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (yangi tahrir) — ta’lim va oilaga oid normalar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi — ota-onaning ta’lim-tarbiya majburiyati.
3. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun — ota-ona va ta’lim ishtirokchilari majburiyatlari.

4. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun — bolani zo‘ravonlikdan himoya qilish, murojaat huquqi.

5. UNICEF, Uzbekistan Situation Analysis — “Children’s rights in a digital world” bo‘limi (internetdan foydalanish ma’lumotlari). Elektron resurs: https://www.unicef.org/uzbekistan/en/media/6731/file/SitAnen.pdf.pdf

6. Spot (29.05.2025) — kiberjinoyatchilik statistikasi va usullari. Elektron resurs: https://www.spot.uz/oz/2025/05/29/cybercrime/

7. WHO/Europe Vsemirnaya organizatsiya zdravooxraneniya

8. UNICEF Elektron resurs: https://www.unicef.org/eca/press-releases/unicef-poll-more-third-young-people-30-countries-report-being-victim-online-bullying?utm_source=chatgpt.com

9. EU Digital Services Act (Regulation 2022/2065) Elektron resurs: https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2022/2065/oj/eng

10. European Commission (14.07.2025) — DSA doirasida bolalarni himoya qilish bo‘yicha qo‘llanmalar. Elektron resurs: https://digital-strategy.ec.europa.eu/en/library/commission-publishes-guidelines-protection-minors

КОНСТИТУЦИЯ – ФУҚАРОЛАРНИ ИЖТИМОИЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШНИНГ МУСТАҲКАМ КАФОЛАТИ

Астанов Шахзод Шойимович,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети тингловчиси, лейтенант

Аннотация: Ушбу мақолада Конституциянинг фуқаролар ижтимоий ҳимояси ва фаровонлигини таъминлашдаги ўрни, ижтимоий давлат тамойилининг амалий мазмуни, фуқароларнинг асосий ижтимоий ҳуқуқларининг ҳуқуқий кафолатлари ҳамда уларни амалга ошириш механизмлари илмий- назарий жиҳатдан таҳлил қилинади.

Шунингдек, ижтимоий ҳимоянинг замонавий йўналишлари ва давлат сиёсатининг асосий вазифалари ёритилади.

Аннотация: В данной статье научно-теоретически анализируются роль Конституции в обеспечении социальной защиты и благосостояния граждан, практическое содержание принципа социального государства, правовые гарантии основных социальных прав граждан и механизмы их реализации. Также освещаются современные направления социальной защиты и основные задачи государственной политики.

Annotation: In this article, the role of the Constitution in ensuring social protection and the well-being of citizens, the practical essence of the social state principle, the legal guarantees of citizens’ fundamental social rights, and the mechanisms for their implementation are analyzed from a scientific and theoretical

perspective. The article also highlights modern directions of social protection and the main tasks of state policy.

Калит сўзлар: Конституция, ижтимоий давлат, фуқаролар ҳуқуқлари, ижтимоий ҳимоя, ижтимоий хизматлар, ижтимоий адолат.

Ключевые слова: Конституция, социальное государство, права граждан, социальная защита, социальные услуги, социальная справедливость.

Keywords: Constitution, social state, citizens' rights, social protection, social services, social justice.

Мамлакатимизда 2023 йил 30 апрель куни ўтказилган референдумда иштирок этган фуқароларнинг 90,21 фоизи янги таҳрирдаги Конституциямизни ёқлаб овоз бергани ҳам бу фикрни яққол тасдиқлайди, шу билан бир қаторда, Бош қомусимизда халқимизнинг Янги Ўзбекистонни барпо этиш бўйича орзу-умидлари ва интилишлари ўз аксини топганини ифода этади.

Ҳар қандай демократик давлатнинг барқарор ривожланиши авваламбор инсон ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларининг таъминланишига боғлиқ. Давлатнинг устувор вазифаси сифатида эътироф этиладиган ижтимоий ҳимоя тизими эса мазкур ҳуқуқларнинг амалда рўёбга чиқиши учун ҳуқуқий ва институционал асос вазифасини бажаради. Конституция фуқароларнинг ижтимоий ҳимояга бўлган ҳуқуқини кафолатловчи олий юридик ҳужжат сифатида ижтимоий сиёсатнинг пойдеворини белгилайди. Шу маънода, ижтимоий давлат тамойили, инсон қадрининг устуворлиги ва фуқароларнинг ижтимоий фаровонлиги конституциявий нормалар орқали мустаҳкамлангани ижтимоий барқарорликнинг муҳим омили ҳисобланади.

Янги таҳрирдаги Конституция 7-моддаси биринчи бандида «Халқ давлат ҳокимиятининг бирдан-бир манбаи», деган норма белгилаб қўйилган. Бу норма тимсолида Ўзбекистон Республикасида жаҳон миқёсида умумэътироф этилган халқ ҳокимиятчилиги принципи, яъни халқ суверенитетнинг ташувчиси ва давлат ҳокимиятининг ягона манбаи эканини англатувчи тамойил мустаҳкамлаб қўйилган.

Шундан келиб чиқиб, кейинги йилларда мамлакатимизда Янги Ўзбекистон — инсон шаъни ва қадр-қиммати, ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатлари олий қадрият ҳисобланган давлат бўлиши; халқ давлат органларига эмас, давлат органлари халққа хизмат қилиши; «одамлар ташвиши билан яшаш», халқимизнинг қонуний талаб-истаклари ва хоҳиш-иродасини рўёбга чиқариш давлат органлари фаолиятини баҳолашнинг энг муҳим мезонига айланиши; барча муҳим қарорлар аҳоли иштирокида, фуқаролик жамияти институтлари билан маслаҳатлашув асосида қабул қилиниши каби

принцип ва ғояларни ҳаётга татбиқ этишга қаратилган тизимли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Демократиянинг талабу таомили ва устунлиги ҳам шунда. Бунда қонун чиқарувчи ва ижро органларидан инсон ҳуқуқларини таъминлаш; демократик ислоҳотларни чуқурлаштириш ва мамлакатни модернизация қилишда парламент ва сиёсий партиялар, фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситаларининг ролини кучайтириш; ҳокимият тармоқларини тийиб туриш ва мувозанатни сақлашда парламент ролини ошириш; давлат хизматлари сифати ва самарадорлигини яхшилаш, давлат органлари фаолиятининг ҳисобдорлиги ва очиқлигини кучайтириш ҳамда парламент ва жамоатчилик назорати механизмларини амалга татбиқ этиш масалаларига алоҳида эътибор қаратиш талаб этилади.

Ижтимоий давлат тамойили замонавий ҳуқуқшуносликда инсоннинг муносиб ҳаёт кечиришини таъминлашга қаратилган конституциявий институт сифатида талқин қилинади. Бу тамойилга кўра, давлат фуқароларнинг ижтимоий эҳтиёжларини қондириш, аҳолининг ҳимояга муҳтож қатламларини қўллаб-қувватлаш, кам таъминланган оилаларнинг моддий ва маънавий турмуш даражасини яхшилаш юзасидан тизимли чоралар кўриши лозим.

Ижтимоий давлат тамойили, аввало, инсон қадрини улуғлаш тамойили билан узвий боғлиқ. Инсон қадрининг устувор бўлиши — пенсия таъминоти, ижтимоий нафақалар, меҳнат муҳофазаси, тиббий ёрдам, таълим олиш имкониятлари ва бошқа ижтимоий хизматларнинг кафолатли амал қилишига олиб келади. Демак, ижтимоий давлат фуқароларга нисбатан нафақат ҳуқуқий кафолатлар, балки реал amaliy ёрдамни ҳам назарда тутади.

Фуқароларнинг ижтимоий ҳуқуқлари ва уларнинг конституциявий кафолатлари

Фуқароларнинг ижтимоий ҳуқуқлари ҳар қандай демократик жамиятнинг ажралмас қисми ҳисобланади. Ушбу ҳуқуқлар қуйидаги йўналишларни ўз ичига олади:

1. Таълим олиш ҳуқуқи

Конституция фуқароларнинг бепул умумий таълим олиш ҳуқуқини кафолатлайди. Таълимнинг ижтимоий аҳамияти унинг аҳолининг интеллектуал салоҳиятини ошириш, иқтисодий ўсиш ва инновацион тараққиётга туртки бериши билан белгиланади.

2. Тиббий хизматдан фойдаланиш ҳуқуқи

Соғлиқни сақлаш — ижтимоий давлатнинг асосий вазифаларидан бири. Конституцияда қайд этилган тиббий ёрдамнинг кафолатланган минимумлари аҳолининг саломатлигини муҳофаза қилиш ва касалликлар профилактикасида муҳим аҳамиятга эга.

3. Меҳнат ва муносиб яшаш даражаси ҳуқуқи

Конституция ҳар бир инсоннинг меҳнат қилиш, адолатли иш ҳақи олиш, меҳнат шароитларининг хавфсизлигига эга бўлиш ва ишсизликдан ҳимоя қилиш ҳуқуқларини таъминлайди. Ижтимоий давлатнинг вазифаси — муносиб турмуш даражасини таъминлаш учун рақобатбардош иқтисодий шароитлар яратиш.

4. Пенсия ва ижтимоий нафақалар ҳуқуқи

Ногиронлиги бўлган шахслар, кексалар, боқувчисини йўқотганлар ва бошқа эҳтиёжманд тоифалар учун давлат томонидан йўналтириладиган молиявий қўллаб-қувватлаш ижтимоий барқарорликнинг муҳим кафолати ҳисобланади.

Конституциямиз Муқаддимасида давлат ва жамият тараққиётининг ҳуқуқий мафкураси, халқимиз Янги Ўзбекистонни бунёд этиш йўлида таянадиган конституциявий қадриятлар ва тамойиллар аниқ белгилаб берилган.

Биринчи тамойил — инсон ҳуқуқ ва эркинликларига, миллий ва умуминсоний қадриятларга, давлат суверенитети принципларига содиқлик. Бу билан Конституциямиз инсоннинг асрлар давомида дунёда шаклланган асосий маънавий-ахлоқий қадриятлари ва асосий ҳуқуқларини ўзида мужассам этган ҳолда, инсоннинг олий қадрияти — унинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни ва қадр-қиммати эканини эълон қилди.

Конституциямизнинг аввалги таҳриридан фарқли ўлароқ, унинг янги таҳрирининг асосий ғояси шахснинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини, инсон шаъни ва қадр-қимматини таъминлаш, илгари мавжуд бўлган “давлат — жамият — шахс” парадигмасини янги: “инсон — жамият — давлат” тамойилига ўзгартиришдан иборат.

Давлатимиз раҳбари таърифига кўра, инсон қадри — мамлакатнинг ҳар бир фуқароси учун тинч ва хавфсиз ҳаёт, фундаментал ҳуқуқ ва эркинликлар, малакали тиббий хизмат, сифатли таълим, кучли ва манзилли ижтимоий ҳимоя ҳамда соғлом экологик муҳит таъминланишини, муносиб турмуш шароити ва замонавий инфратузилманинг босқичма-босқич яратилишини англатади.

Бугунги кунда инсон қадр-қиммати, унинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини таъминлаш ғояси давлатимизнинг бутун ички ва ташқи сиёсатининг тамал тошига, Янги Ўзбекистонда олиб борилаётган демократик ислоҳотларнинг энг муҳим ҳаракатлантирувчи кучига ҳамда ушбу эзгу саъй-ҳаракатларни ўзаро боғлаб турувчи муҳим омилга айланди.

Хулоса ўрнида таъкидлашимиз мумкинки, бугун Конституциямизнинг янги нормаларида асосий эътибор инсон, жамият ва давлатнинг барқарор ривожланишини таъминлашга қаратилганини ишонч билан таъкидлаш мумкин. Янги таҳрирдаги Асосий Қонуннинг қабул қилиниши билан бу борада янада

мустаҳкам конституциявий-ҳуқуқий асос яратилди. Бинобарин, Янги Ўзбекистон ўзининг ушбу соҳалардаги халқаро мажбуриятларига қатъий содиқлигини яна бир бор намоён этди.

Конституциямизда Европа, Осиё, Шарқ ва Америка минтақаларида жойлашган дунё давлатларининг ижобий конституциявий тажрибаси ўз аксини топган. Асосий Қонунимиз ҳуқуқшунос олимлар, сиёсатшунослар, кўплаб халқаро ташкилотлар мутахассислари томонидан синчиклаб ўрганилган бўлиб, унга инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро ҳуқуқ нормалари қўшимча равишда уйғунлаштирилгандир.

Ишончимиз комилки, халқаро ташкилотлар вакиллари ва экспертлар холис ва тўғри таъкидлаганларидек, Ўзбекистон Конституциясининг янги таҳрирда қабул қилиниши "Инсон шаъни ва қадр-қиммати учун" тамойили асосида халқ фаровонлигини янада юксалтириш, инсон, фуқаролик жамияти ва давлатни жадал ривожлантириш учун мустаҳкам замин яратди.

Фойдаланилган адабиётлар:

5. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси - Т 2023 йил.

6. “Янги таҳрирдаги Конституция — инсон шаъни, қадр-қиммати ва ҳуқуқларининг мустаҳкам кафолати” — Constitution.uz таҳлилий мақоласи.

7. Конституция “Ижтимоий ҳимоя Конституция билан кафолатланган” — УЗА мақоласи. Uza.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASIDA SAYLOV HUQUQINING KAFOLATLARI

Axmedov Sh.O.
Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi o‘qituvchisi kapitan
Xadjayev M.A.
Jamoat xavfsizligini ta’minlash kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi konstitutsiyamizda saylov huquqiga qaratilgan e’tibor, uning bugungi kunda davlatimiz siyosatida tutgan o‘rni va ahamiyati, shuningdek yangicha saylov borasidagi o‘zgarishlarning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, qonun, Yangi O‘zbekiston, saylov, huquq, majburiyat, cheklov, kafolat, inson huquqlari, davlat, demokratiya, deputat, okrug xalqaro tajriba.

Аннотация: В данной статье рассматривается акцент на избирательном праве в нашей новой Конституции, его роль и значение в политике нашей страны сегодня, а также особенности изменений на новых выборах.

Ключевые слова: Конституция, закон, Новый Узбекистан, выборы, право, обязанность, ограничение, гарантия, права человека, государство, демократия, депутат, округ, международный опыт.

Abstract: This article discusses the focus on the right to vote in our new Constitution, its role and importance in the politics of our country today, as well as the specific features of changes in the new election.

Key words: Constitution, law, New Uzbekistan, election, right, obligation, limitation, guarantee, human rights, state, democracy, deputy, district, international experience

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamdagi islohotlar avvalo inson qadrini ulug‘lash, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, bu borada qonun va qonunosti hujjatlari tobora takomillashtirilib borilmoqda. Ayniqsa, aholining siyosiy va huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish, mamlakat taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini yanada mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Saylov jarayoni bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarning huquqiy asoslarini muntazam o‘rganib borish va takomillashtirish – bu jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish davridagi o‘ta dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda deyarli barcha davlatlarda konstitutsiya saylov qonunchiligining asosiy huquqiy poydevori hisoblanadi. Shu jihatdan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ham asosiy qonun maqomida saylov qonunchiligining mustahkam huquqiy negizi sifatida namoyon bo‘ladi.

2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumiga asosan qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri mamlakatdagi demokratik islohotlarning muhim bosqichi hisoblanadi. Ushbu Konstitutsiya O‘zbekistonning milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan taraqqiyot yo‘lini mustahkamlaydi.

Saylov qonunchiligiga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarga ko‘ra, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovi aralash saylov tizimi asosida o‘tkazilishi belgilandi. Quyi palata deputatlarining 50 foizi, ya’ni 75 nafari odatdagidek mojaritar saylov tizimiga muvofiq bir mandatli saylov okruglaridan saylandi. Qolgan 50 foizi, ya’ni 75 nafari proporsional saylov tizimi asosida yagona saylov okrugida partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan deputatlikka nomzodlar ro‘yxati (partiya ro‘yxati) bo‘yicha saylandi. Demak, saylovchi saylovda ikkita byulleten orqali ovoz berdi: birinchisida aniq bir nomzodga ovoz bersa, boshqasida o‘zi ishongan siyosiy partiyani belgiladi.

Bu - mamlakatimizning milliy saylov tizimi tarixidagi g‘oyat muhim yangilik. Aralash saylov tizimining afzalligi - o‘zida amaldagi mojaritar va proporsional saylov tizimlarining eng ilg‘or tamoyillarini uyg‘unlashtirganida.

Amaliyotga joriy etilayotgan proporsional saylov tizimida saylovchi deputatlikka nomzodga emas, balki siyosiy partiyalarga ovoz beradi. Qonunchilik palatasidagi ellik foiz deputatlik o‘rinlari siyosiy partiyalarga berilgan ovozlarga mutanosib ravishda siyosiy partiyalarning deputatlikka nomzodlar ro‘yxatlari o‘rtasida taqsimlanadi.

Ma’lumki, amaldagi saylov qonunchiligiga ko‘ra, siyosiy partiyalar har bir saylov okrugi bo‘yicha aniq nomzodni ilgari surardi. Saylov okrugi bo‘yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning ellik foizidan ortig‘i ularga yoqlab ovoz bergandagina deputat etib saylanishi mumkin edi. Jumladan, Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o‘tkazish uchun bir yuz ellikta hududiy saylov okrugi tuzilib, ularning har biridan bir nafardan deputat saylanardi.

Mojaritar saylov tizimida siyosiy partiyalar faoliyatini samarali rivojlantirish, ularni huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining qudratli vositasiga aylantirishga monelik qiluvchi muayyan muammolar mavjudligi ham sir emas. Qolaversa, mojaritar tizimda siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan nomzodlarning hech biri saylovchilarning yarmidan ko‘pining ovozini ololmasligi mumkin. Bu esa takroriy ovoz berishni o‘tkazish, qo‘shimcha tashvish va xarajat demakdir. Jumladan, 2019-yilda o‘tkazilgan parlament saylovlarida 25 ta saylov okrugida takroriy ovoz berish o‘tkazilgan.

Bundan tashqari, bo‘shab qolgan deputatlar o‘rnini to‘ldirish uchun saylov komissiyalari faoliyatini qaytadan tiklash zarur. Bu esa minglab odamlarni yana saylov komissiyalari ishiga jalb etish, saylovchilarni yana ovoz berishga da’vat etish bilan bog‘liqdir. Proporsional saylov tizimining afzalligi – bunday holatlarda partiya tomonidan ko‘rsatilgan ro‘yxat bo‘yicha navbatdagi nomzod deputatlik o‘rnini

egallaydi. Partiyalar tomonidan shakllantirilgan ro‘yxatlar keng jamoatchilik e’tiboriga havola qilinadi.

Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlaridagi deputatlik o‘rinlarida ham muayyan o‘zgarishlar yuz beradi. Endilikda deputatlik o‘rinlari soni aholi sonidan kelib chiqqan holda tegishli mahalliy Kengash tomonidan quyidagicha belgilanadi:

- aholi soni 2 million nafargacha bo‘lgan hududlarda – 30 tadan 40 tagacha;
- aholi soni 2 milliondan 3 million nafargacha bo‘lgan hududlarda – 40 tadan 50 tagacha;
- aholi soni 3 million nafardan ortiq bo‘lgan hududlarda – 50 tadan 60 tagacha.

Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlaridagi deputatlik o‘rinlari soni aholi sonidan kelib chiqqan holda tegishli mahalliy Kengash tomonidan quyidagicha belgilanadi:

- aholi soni 30 ming nafargacha bo‘lgan hududlarda – 10 tadan 15 tagacha;
- aholi soni 30 mingdan 100 ming nafargacha bo‘lgan hududlarda – 15 tadan 20 tagacha;
- aholi soni 100 mingdan 300 ming nafargacha bo‘lgan hududlarda – 20 tadan 25 tagacha;
- aholi soni 300 ming nafardan ortiq bo‘lgan hududlarda – 25 tadan 30 tagacha.

Ilgari xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarida teng tartibda - oltmish nafargacha, tuman va shahar Kengashlarida esa o‘ttiz nafargacha deputatlik o‘rni bo‘lgan.

Saylov kodeksiga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o‘tkazishda O‘zbekiston Respublikasining butun hududi yagona saylov okrugi hisoblanadi.

Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o‘tkazish uchun esa yetmish beshta hududiy bir mandatli saylov okrugi tuziladi. Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o‘tkazish bo‘yicha bir mandatli saylov okruglari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan har besh yilda bir marta tuziladi.

Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan nomzodlar ro‘yxati asosida Qonunchilik palatasiga saylov o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasining butun hududi yagona saylov okrugi hisoblanadi.

Joriy yilda butun dunyo bo‘ylab, ta’bir joiz bo‘lsa, yirik saylov marafoni bo‘lib o‘tmoqda. Yil davomida dunyo aholisining yarmidan ko‘pini tashkil qiluvchi 70 ga yaqin davlatda Prezident va parlament saylovlari o‘tkaziladi. Yevroparlamentga saylov va Fransiyaning muddatidan oldin parlament saylovi shular jumlasidandir.

Konstitutsiyamizga muvofiq, Markaziy saylov komissiyasi 2024-yil 27-oktabrda parlament saylovini o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Shu kuni mahalliy vakillik organlariga, ya’ni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, shuningdek, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) Kengashlari deputatligiga ham saylov o‘tkazildi.

Shu o‘rinda saylov Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasida belgilangan mutlaqo yangicha ijtimoiy-siyosiy sharoitda o‘tganligi alohida ahamiyatga egaligini ta’kidlash lozim. Binobarin, keyingi yillarda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakatimizni modernizatsiya qilish maqsadida parlament va siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, saylov va referendumlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Bu borada o’tgan Saylov jamiyatimizning siyosiy yetukligini, Yangi O‘zbekistonni qurish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar qo‘llab-quvvatlanayotganini yana bir bor baralla namoyon etdi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida katta vakolatlarga ega bo‘lgan holda tashkil etilgan va o’tkazilgan parlament saylovi – bu borada navbatdagi muhim qadam hisoblanadi.

Konstitutsiya va saylov qonunchiligiga muvofiq, mamlakatimizda saylovlar umumiy, teng va to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 128-moddasiga ko‘ra, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas. Ushbu moddaning davomida sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganlik uchun sudning hukmiga ko‘ra ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan faqat qonunga muvofiq va sud qarori asosida mahrum etilishi mumkinligi belgilangan.

Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi. Binobarin, O‘zbekiston Prezidenti qayd etganidek, “Yangi O‘zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume’tirof etilgan norma va prinsiplarga qat’iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do‘stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo‘lgan davlatdir”.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ilk bor Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovlari aralash saylov tizimi, ya’ni majoritar-proporsional tizim asosida

o‘tkazildi, saylov jarayoniga zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalar joriy qilindi. Xususan “E-Saylov” axborot tizimi, uning afzalliklari va imkoniyatlari, shuningdek birinchi marotaba saylovlarda elektron ovoz berish qurilmasi sinovdan o‘tkazilganligi ham fuqarolarning saylov huquqini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko’lamli islohotlarning yorqin namunasi deb aytish mumkin. Bundan tashqari bo‘lib o‘tgan saylov mamlakatimizda demokratik davlatchilik amal qilayotganligining yorqin namunasi bo‘ldi. Ushbu muhim ijtimoiy-siyosiy jarayon fuqarolarning saylash va saylanish bo‘yicha konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishda, davlat organlarini milliy qonunchilik va xalqaro saylov standartlariga to‘la mos ravishda demokratik tarzda shakllantirishda hamyurtlarimizning yanada faol ishtirok etishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining yangi taxirdagi Konstitutsiyasi. *(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son)*
3. Qonunchilik milliy ma’lumotlar bazasi lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasining eski taxirdagi Konstitutsiyasi. *(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi 08.12.1992y.,)*
5. Milliy saylov tizimi: demokratik islohotlarning yangi davri” maqola. Zayniddin Nizamxodjaev, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Raisi, O‘zbekiston Qahramoni
6. Akmal Saidov, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari axborotnomasi
7. https://nsp.gov.uz
8. https://president.uz
9. https://kun.uz

KONSTITUTSIYA – INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARI KAFOLATIDIR

Sattorov Farrux Akromovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ish “Konstitutsiya – inson huquq va erkinliklari kafolatidir” mavzusiga bag‘ishlanib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining shaxsning asosiy huquq va erkinliklarini ta’minlashdagi normativ-huquqiy hamda institutsional mexanizmlarini tahlil qiladi. Tadqiqotda Konstitutsiyaning demokratik

huquqiy davlat barpo etishdagi o‘rni, inson huquqlarining ustuvorligi, ularning daxlsizligi va kafolatlanganligi kabi fundamental tamoyillar ilmiy-nazariy asosda yoritilgan.

Аннотация: Данная научная работа посвящена теме «Конституция — гарантия прав и свобод человека» и анализирует нормативно-правовые и институциональные механизмы обеспечения основных прав и свобод личности, закреплённых в Конституции Республики Узбекистан. В исследовании рассматривается роль Конституции в построении демократического правового государства, а также фундаментальные принципы приоритета прав человека, их неприкосновенности и гарантированности, раскрытые в теоретико-правовом аспекте.

Annotation: This scholarly work is devoted to the topic “The Constitution as a Guarantee of Human Rights and Freedoms” and analyzes the normative-legal and institutional mechanisms for ensuring the fundamental rights and freedoms of individuals as established by the Constitution of the Republic of Uzbekistan. The study examines the role of the Constitution in building a democratic, rule-of-law state and highlights fundamental principles such as the primacy of human rights, their inviolability, and their guaranteed protection within a theoretical and legal framework.

Kalit so‘zlari : Konstitutsiya, inson huquqlari, erkinliklar, huquqiy davlat, demokratiya, kafolat, qonun ustuvorligi, fuqarolarning huquq va burchlari, adolat, tenglik, ijtimoiy himoya.

Ключевые слова : Конституция, права человека, свободы, правовое государство, демократия, гарантия, верховенство закона, права и обязанности граждан, справедливость, равенство, социальная защита.

Key words : Constitution, human rights, freedoms, rule of law, democracy, guarantee, supremacy of law, rights and duties of citizens, justice, equality, social protection.

Konstitutsiya – davlatning boshqaruv tizimi, huquqiy asoslari va jamiyat hayotining barcha jabhalarini tartibga soluvchi oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan hujjatdir. Har bir demokratik jamiyatda Konstitutsiya nafaqat siyosiy tuzum poydevori, balki eng avvalo inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlovchi tamoyillar majmuasidir. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson va fuqaro huquq va erkinliklarining ustuvorligi alohida e’tirof etilgan bo‘lib, unda “Inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyatdir” degan g‘oya milliy davlat qurilishining bosh mezoniga aylangan.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar, xususan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida qabul qilingan o‘zgartish va qo‘shimchalar, xalqning manfaatlarini to‘la aks ettirishga,

inson huquqlarini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda Konstitutsiya nafaqat huquqiy hujjat, balki jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligi, taraqqiyoti va fuqarolarning farovon hayotining bosh kafolatiga aylandi.

Shuningdek, xalqaro inson huquqlari standartlari bilan uyg‘unlikni ta’minlash ham O‘zbekiston Konstitutsiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tamoyillari bilan o‘zaro mushtaraklik Konstitutsiyaning zamonaviy demokratik talablar asosida takomillashtirilayotganining yorqin dalilidir. Natijada Konstitutsiya fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, shaxsiy va madaniy huquqlarini himoya qiluvchi mustahkam huquqiy poydevor vazifasini bajarib kelmoqda. Shu bois, “Konstitutsiya – inson huquq va erkinliklari kafolatidir” degan g‘oya, bugungi O‘zbekistonning demokratik rivojlanish modeli va davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan birini tashkil etadi.

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bugungi kunda har bir davlatning rivojlanishi, ijtimoiy barqarorligi va demokratiya mustahkamligining asosiy mezoni sifatida qaraladi. Global miqyosda inson sha’ni, erkinligi va tengligini kafolatlovchi huquqiy me’yorlar tobora kuchayib bormoqda. Shu bilan birga, texnologik taraqqiyot, axborot maydonining kengayishi, xalqaro iqtisodiy va siyosiy aloqalarning intensivlashuvi davlat va fuqarolar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarning yangi talablarini yuzaga keltirmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, Konstitutsiya inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning asosiy vositasi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etdi. 2023-yilda qabul qilingan Konstitutsiya jamiyatda fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlash, davlat boshqaruvida shaffoflikni kuchaytirish kabi vazifalarni belgilab berdi. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar, xususan, fuqarolarning siyosiy va iqtisodiy huquqlarini kengaytirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi imkoniyatlarni oshirish, shuningdek, sud-huquq tizimini yanada mustahkamlash, mavzuning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Zamonaviy dunyoda inson huquqlari global standartlarga muvofiq himoya qilinishi nafaqat davlatning ichki siyosati, balki xalqaro maydondagi obro‘-e’tibori bilan bevosita bog‘liq. O‘zbekistonning BMT Inson huquqlari bo‘yicha normativlari va boshqa xalqaro hujjatlarga integratsiyasi, shuningdek, Konstitutsiyada belgilangan fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash mexanizmlari mamlakatni demokratik rivojlanish yo‘lida mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik, adolatli boshqaruv, fuqarolarning hayot sifatini oshirish va iqtisodiy taraqqiyot uchun poydevor hisoblanadi. Shu bois, Konstitutsiyaning inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashdagi roli bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. Fuqarolarning o‘z huquqlarini bilishi va davlat

tomonidan kafolatlanishi, ijtimoiy adolat va barqaror jamiyatni yaratishda hal qiluvchi omil bo‘lmoqda.

Shunday qilib, “Konstitutsiya – inson huquq va erkinliklari kafolatidir” degan g‘oya bugungi kunda nafaqat huquqiy prinsip, balki mamlakatning demokratik taraqqiyotining, fuqarolarning ijtimoiy va siyosiy faolligining, hamda huquqiy davlat qurilishining eng dolzarb va zamonaviy mezonlaridan biriga aylangan.

Tursunboyeva Sarvinoz singari mualliflar — aynan O‘zbekiston sharoitida “Konstitutsiya — huquq va erkinlik kafolati” degan fikrni ilmiy asos bilan ko‘rsatgan.

Dar haqiqat Konstitusiyamizning avvalgi tahriridan farqli o‘laroq, uning yangi tahririning asosiy g'oyasi shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, inson sha'ni va qadr-qimmatini ta'minlash, ilgari mavjud bo‘lgan "davlat — jamiyat — shaxs" paradigmasini yangi: "inson — jamiyat — davlat" tamoyiliga o‘zgartirishdan iborat. Davlatimiz rahbari ta'rifiga ko‘ra, inson qadri — mamlakatning har bir fuqarosi uchun tinch va xavfsiz hayot, fundamental huquq va erkinliklar, malakali tibbiy xizmat, sifatli ta'lim, kuchli va manzilli ijtimoiy himoya hamda sog'lom ekologik muhit ta'minlanishini, munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilmaning bosqichma-bosqich yaratilishini anglatadi.

Konstitutsiya davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi. Uning ahamiyati davlat boshqaruvi tizimini shakllantirishdan tortib, fuqarolar huquqlarini himoya qilishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, siyosiy barqarorlik va xalq farovonligi ko‘p jihatdan Konstitutsiyaning naqadar kuchli va amalda qo‘llanilayotganiga bog‘liq. Bu jihatlar hozirgi zamon davlatlari tajribasida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Birinchi navbatda, Konstitutsiya huquqiy davlat barpo etish uchun poydevor hisoblanadi. Qonun ustuvorligini ta’minlash, davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari o‘rtasidagi vakolatlarni muvozanatlash va fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirishda Konstitutsiyaning roli beqiyosdir. Masalan, demokratiya prinsiplariga asoslangan davlatlarda Konstitutsiya erkinlik, tenglik va adolat tamoyillarini o‘zida mujassam etadi. Bu tamoyillar esa davlat va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, Konstitutsiya fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlovchi huquqiy tizimni yaratadi. Har bir shaxsning yashash, ta’lim olish, mehnat qilish va erkin fikr bildirish huquqlari Konstitutsiya orqali mustahkamlanadi. Bu esa jamiyatda fuqarolar o‘rtasida ishonch va barqarorlikni kuchaytiradi. O‘zbekiston Konstitutsiyasida ham shaxs huquq va erkinliklari, fuqarolarning qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan. Bu qoidalar jamiyat taraqqiyotiga zamin yaratib, inson huquqlari va manfaatlarini ta’minlashning muhim shartidir.

Uchinchidan, Konstitutsiya davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay huquqiy sharoitlarni yaratishda Konstitutsiyaning asosiy prinsiplariga tayaniladi. Iqtisodiy faoliyatning erkinligi va davlat tomonidan kafolatlanishi bozor mexanizmlarining samarali ishlashiga ko‘maklashadi. Shuningdek, Konstitutsiya ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy kafolatidir. Unda xalq manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy tenglikni ta’minlash, ta’lim va tibbiyot xizmatlarining qulayligini oshirish kabi dolzarb masalalar huquqiy jihatdan mustahkamlanadi. Bu o‘z navbatida jamiyatda ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olishga yordam beradi.

Bugungi kunda inson qadr-qimmati, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash g'oyasi davlatimizning butun ichki va tashqi siyosatining tamal toshiga, yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlarning eng muhim harakatlantiruvchi kuchiga hamda ushbu ezgu sa'y-harakatlarni o‘zaro bog'lab turuvchi muhim omilga aylandi. Agar dunyo mamlakatlari Konstitusiyalarida insonning 110 dan ortiq huquqlari qayd etilganini hisobga olsak, hozirgi kunda shundan 90 tasi yangi tahrirdagi Konstitusiyamizda mavjud. Ya'ni bu Konstitusiya, tom ma'noda, O‘zbekona "inson huquqlari to‘g'risidagi Bill"ga aylandi, deyishga barcha asoslar bor. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalarda ta'kidlanganidek, erkinlik shaxsning o‘z huquqlarini amalga oshirishida davlat aralashuvining yo‘qligini anglatadi. Shu ma'noda, konstitusiyaviy islohotlarda huquqiy, ijtimoiy davlat imperativini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Birdamlik, adolatli ijtimoiy siyosat, inson kapitalini rivojlantirish tamoyillari ustuvorligiga tayanildi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Konstitutsiya jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida asosiy tayanch va kafolat sifatida namoyon bo‘ladi. Quyidagi muhim natijalarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

Huquqiy tizimning mustahkamlanishi: Konstitutsiya qonunlarning yagona tizimini shakllantiradi va davlat hokimiyatining barcha tarmoqlarini muvozanatli faoliyat ko‘rsatishga undaydi.

Fuqarolar huquqlarini himoya qilish: Har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini kafolatlash Konstitutsiyaning asosiy vazifalaridan biridir. Bu esa jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Iqtisodiy rivojlanish va farovonlik: Konstitutsiya iqtisodiy faoliyatning erkinligi, xususiy mulkni himoya qilish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashni kafolatlaydi. Natijada, mamlakatda iqtisodiy o‘sish va fuqarolarning farovon hayoti ta'minlanadi.

Ijtimoiy tenglik va barqarorlik: Konstitutsiya orqali ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy xizmatlarning qulayligi huquqiy jihatdan ta’minlanadi. Bu esa jamiyatdagi ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga yordam beradi.

Demokratik qadriyatlarni qaror toptirish: Konstitutsiya davlatning demokratik rivojlanish yo‘lini belgilaydi. Erkinlik, tenglik va adolat tamoyillari fuqarolar ongida demokratik qadriyatlarni shakllantiradi.

Yuqorida keltirilgan natijalar Konstitutsiyaning erkin va farovon hayot garovi sifatidagi o‘rnini yaqqol ko‘rsatadi. Shu sababli, Konstitutsiya tamoyillariga rioya qilish va uni hayotga tatbiq etish jamiyat rivoji va davlat barqarorligining asosiy sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. Tursunboyeva, S. “Konstitutsiya — huquq va erkinlik kafolati”. Ilmiy maqola. – Toshkent, 2023.
3. BMT Bosh Assambleyasi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – Nyu-York, 1948.
4. Konstitutsiyaviy huquq asoslari. – Toshkent: Huquqiy bilimlar darsligi, 2023.
5. Davlat va huquq asoslari. – Toshkent: Oliy ta’lim darsligi, 2022.
6. Xalqaro inson huquqlari standartlari. – BMT huquqiy normativlari to‘plami, 2023.
7. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Hukumat nashri, 2023.
8. Inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash. – Ilmiy tahlil va maqolalar to‘plami, Toshkent, 2023.
9. Huquqiy davlat va Konstitutsiya tamoyillari. – Toshkent: Huquqiy nashrlar, 2022.

Iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi Konstitutsiya roli. – Toshkent: Tadqiqot maqolalari, 2023.

СЕРВИТУТ ВА УНИ БЕЛГИЛАШ ТЎҒРИСИДАГИ ШАРТНОМАЛАРНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Алламуродов Одилжон Абдуқодирович
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети мустақил изланувчиси

Сервитут ва уни белгилаш тўғрисидаги шартномаларнинг конституциявий-ҳуқуқий асослари Сервитут – бошқа шахсга тегишли бўлган

мулкдан чекланган тарзда фойдаланиш ҳуқуқи бўлиб, у фуқаролик ҳуқуқида объект ва субъект манфаатлари мувозанатини таъминловчи муҳим институтлардан бири ҳисобланади. Сервитутлар мулкдорнинг тўла ҳуқуқини чеклаётгани сабабли, уларнинг ҳуқуқий режими нафақат фуқаролик қонуни билан, балки конституциявий-ҳуқуқий принциплар билан ҳам бевосита боғлиқдир.

Сервитут тўғрисидаги шартномаларнинг қонунийлиги, уларнинг шаклланиш механизми ва чекловларнинг адолатлилиги Конституцияда мустаҳкамланган мулк дахлсизлиги, табиат ресурсларидан оқилона фойдаланиш, қонун устуворлиги ва хусусий манфаат билан жамоат манфаати ўртасидаги мувозанат каби тамойиллар асосида таъминланади.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси мулк шаклларининг тенглигини, мулк дахлсизлигини ва унинг қонуний муҳофазасини кафолатлайди. Мулкка дахл қилиш фақат қонунда назарда тутилган ҳолларда ва белгиланган тартибда, одилона асосларда амалга оширилиши мумкин.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 65-моддасига кўра, Ўзбекистон Республикасида барча мулк шаклларининг тенг ҳуқуқлилиги ва ҳуқуқий жиҳатдан ҳимоя қилиниши таъминланади. Хусусий мулк дахлсиздир. Мулкдор ўз мол-мулкидан қонунда назарда тутилган ҳоллардан ва тартибдан ташқари ҳамда суднинг қарорига асосланмаган ҳолда маҳрум этилиши мумкин эмас.

Сервитут эса мулкдорга тегишли айрим ҳуқуқларни чеклаган ҳолда, бошқа шахс манфаатларини таъминлашни кўзда тутади. Шу сабабли сервитутлар мулкнинг конституциявий дахлсизлигига зид бўлмаслиги, мулкдор ҳуқуқларини асоссиз камайтирмаслиги лозим.

Сервитут фақат хусусий манфаатни эмас, балки жамоат манфаатини ҳам таъминлаши мумкин. Масалан: электр энергияси линиялари ўтказиш, магистрал сув қувурларини ўтказиш, йўлдан умумий фойдаланиш. Конституцияга кўра, жамоатчилик эҳтиёжи хусусий манфаатдан устун келган ҳолларда, чеклов қонуний тартибда, ҳақ эвазига ва адолат мезонларига риоя этган ҳолда жорий этилади.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 66-моддасига кўра, мулкдор ўзига тегишли бўлган мол-мулкка ўз хоҳишича эгалик қилади, ундан фойдаланади ва уни тасарруф этади. Мол-мулкдан фойдаланиш атроф-муҳитга зарар етказмаслиги, бошқа шахсларнинг, жамият ва давлатнинг ҳуқуқларини ҳамда қонуний манфаатларини бузмаслиги керак.

Конституцияда сервитут муносабатларини бевосита тартибга солувчи нормалар мавжуд бўлмаса-да, унинг мулк дахлсизлиги, хусусий мулк ҳуқуқига риоя этиши, қонун устуворлиги, адолат ва пропорционаллик тамойиллари

орқали сервитутларни белгилашда асосий меъёрий платформани шакллантиради.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси 173-моддасига мувофиқ, ўзганинг ер участкасидан пиёда ва транспортда ўта олишни таъминлаш, электр узатгич, алоқа ва қувур линияларини ўтказиш ва улардан фойдаланиш, сув билан таъминлаш учун, шунингдек кўчмас мулк эгасининг эҳтиёжларини сервитут белгиламай туриб таъминланиши мумкин бўлмаган бошқа эҳтиёжларини қондириш учун сервитут белгиланиши мумкин.

Сервитутнинг конституциявий жиҳати қуйидаги ҳолларда яққол намоён бўлади:

сервитут мулкдор ҳуқуқини чеклар экан, бундай чеклов қонуний мақсадга йўналтирилган бўлиши шарт;

сервитут жорий этишда ўртача пропорционаллик таъминланиши;

мулкдорга етказилган зарар ёки ноқулайлик учун компенсация масаласи ҳал этилиши.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси 354-моддасига мувофиқ, Фуқаролар ва юридик шахслар шартнома тузишда эркиндирлар. Шартнома тузишга мажбур қилишга йўл қўйилмайди, шартнома тузиш бурчи ушбу Кодексда, бошқа қонунда ёки олинган мажбуриятда назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно.

Конституция ва Фуқаролик кодексига мувофиқ, фуқаролар шартнома тузишда эркин бўлсада, бироқ сервитут тўғрисидаги шартнома мулк тўла ҳуқуқини мутлақ чеклаб қўймаслиги, жисмоний ёки юридик шахсни ҳуқуқий жиҳатдан ночор ҳолатга қўймаслиги, конституциявий ҳуқуқлар билан зиддиятга кирмаслиги шарт.

Агар сервитут жамоат манфаати учун зарур бўлса (масалан, қувур, электр линияси), шартнома эмас, балки маъмурий қарор асосида ҳам ўрнатилиши мумкин. Бу ҳолатда, конституциявий пропорционаллик, адолатли компенсация, фуқаролар ҳуқуқини чеклашнинг асосланганлиги албатта таъминланиши лозим.

Конституциявий-ҳуқуқий тамойиллар сервитутга билвосита ўз таъсирига эга бўлиб, улар қуйидагиларда номоён бўлади:

1. Пропорционаллик тамойили. Ўзганинг мулкига чеклов жорий этишда мақсад қонуний бўлиши, чеклов зарурат туфайли амалга оширилиши, чеклов ва мақсад ўртасида мутаносиблик бўлиши талаб қилинади.

2. Мулкдорга етказилган зарар учун адолатли товон ундирилиши — конституциявий кафолатдир. Акс ҳолда сервитут “мулкдан мажбурий маҳрум қилиш” сифатида баҳоланиши мумкин.

3. Суд ҳимояси ва ҳуқуқий аниқлик. Конституция фуқароларга сервитутни белгилаш, уни бекор қилиш, унинг доирасини ўзгартириш бўйича судга мурожаат қилиш ҳуқуқини беради.

Сервитут ва уни белгилаш тўғрисидаги шартномалар фақат фуқаролик муносабатлари эмас, балки конституциявий-ҳуқуқий муносабатларни ҳам қамраб олади. Чунки у мулк ҳуқуқини чеклашга оид институт сифатида қуйидаги конституциявий принциплар билан узвий боғлиқ: мулк дахлсизлиги, қонун устуворлиги, пропорционаллик, жамоат ва хусусий манфаатлар мувозанати.

Шу жиҳатдан, сервитутни белгилаш ва уни шартнома билан тартибга солишда нафақат фуқаролик ҳуқуқи нормаларини, балки конституциявий кафолатларни ҳам ҳисобга олиш ҳуқуқий барқарорлик ва жамият манфаатларининг мувофиқлигини таъминлайди.

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA - BARQAROR VA EKOLOGIK TARAQQIYOT VA DEMOKRATIK HUQUQIY RIVOJLANISH POYDEVORI

Rasulova Nodira Sardarovna,
Jamoat xavfsizligi universiteti professori, tarix fanlari doktori, dotsent
Tohirova Jasmina Inomjon qizi
Jamoat xavfsizligi universiteti, Maxsus fakultet 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining barqaror rivojlanish, ekologik o’zgarishlar va demokratik huquqiy tizimni mustahkamlashdagi roli tahlil qilinadi va konstitutsiyaviy islohotlarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sohalarga ta’siri, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlari ko’rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: konstitutsiya, huquq, islohotlar, transmilliy, modernizatsiya, ekologiya, burch, kafolatlari, fuqaro.

Аннотация: В статье анализируется роль новой Конституции Республики Узбекистан в обеспечении устойчивого развития, изменении окружающей среды и укреплении демократической правовой системы, а также рассматривается влияние конституционных реформ на социальную, политическую и экономическую сферы, а также механизмы защиты прав и свобод граждан.

Ключевые слова: конституция, право, реформы, транснациональный, модернизация, экология, обязанность, гарантии, гражданин.

Abstract: This article analyzes the role of the new Constitution of the Republic of Uzbekistan in sustainable development, environmental changes and strengthening the democratic legal system, and examines the impact of constitutional reforms on the social, political and economic spheres, as well as mechanisms for protecting the rights and freedoms of citizens.

Keywords: constitution, law, reforms, transnational, modernization, ecology, duty, guarantees, citizen.

Bugungi globallashib borayotgan va siyosiy-ijtimoiy jarayonlar tobora murakkablashib borayotgan davrda davlat barqarorligi va jamiyat farovonligini ta’minlashning eng muhim omili – bu mukammal, zamonaviy va xalq manfaatiga xizmat qiladigan Konstitutsiyadir. O’zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi esa zamonaviy talab va ehtiyojlarni hisobga olgan holda qayta shakllantirilib, inson huquqlarini ustuvor qo’ygan, ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan va demokratik rivojlanishning aniq poydevorini yaratuvchi normativ hujjat sifatida maydonga chiqdi.

O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so’ng 1992-yil 8-dekabrda dastlabki konstitutsiyasini qabul qildi va u davlatning siyosiy, ijtimoiy hamda huquqiy tuzilishini belgilovchi asosiy hujjat sifatida xizmat qilgan bo’lsada, XXI asrning murakkab global tendensiyalari, iqtisodiy hamkorlik, transmilliy jarayonlar, ihjtimoiy-siyosiy o’zgarishlar milliy huquq tizimini tubdan modernizatsiya qilishni talab qildi. Shu sabab bilan yangi tahrirning qabul qilinishida bir qator omillar turtki bo’ldi:

Birinchidan, demokratik institutlarni rivojlantirish ehtiyoji dolzarb edi. Sud tizimini mustaqil qilish, parlament vakolatlarini kengaytirish va mahalliy hokimiyat organlarining samaradorligini oshirish va siyosiy barqarorlikni kengaytirish zarurati va siyosiy ishtirokm paydo bo’ldi.

Ikkinchidan, iqtisodiy barqarorlik va rivojlanishni ta’minlash masalasi muhim ahamiyat kasb etdi. Xususiy mulk va tadbirkorlik huquqlarini mustahkamlash, investorlar uchun qulay huquqiy muhit yaratish va milliy iqtisodiy mustaqillikni kuchaytirish yangi Konstitutsiyaning ustuvor yo‘nalishlari bo‘ldi.

Uchinchidan, inson huquqlari va erkinliklarini kengaytirish dolzarb masala sifatida ko‘tarildi. So‘z erkinligi, siyosiy ishtirok, ta’lim va sog‘liqni saqlash huquqlarini himoya qilish jamiyatdagi adolat va tenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, ekologik barqarorlikni ta’minlash zarurati ham yangi tahrirning muhim omili bo‘ldi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni himoya qilish mexanizmlarini huquqiy jihatdan mustahkamlash kelajak avlodlar uchun farovon va barqaror hayotni kafolatlaydi.

Shunday qilib, yangi Konstitutsiya davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, demokratik qadriyatlarni mustahkamlash va milliy huquqiy tizimni global standartlarga moslashtirishga qaratilgan strategik hujjat sifatida yuzaga keldi. O’zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitusiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o’tkazilgan O’zbekiston Respublikasi referendumida 90,21 foiz aholi tomonida “Konstitutsiya meniki, seniki, bizniki! Konstitutsiya o’zimizniki” shiori ostida umumxalq ovoz berishi orqali qabul qilindi. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddima, 6 bo’lim, 27 bob va 155 moddadan iborat.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “inson qadri uchun” konsepsiyasi yangi tahrirdagi konstitutsiyaning asosiy ruhini belgilab berdi va inson huquqlari va erkinliklarini kengaytirish, ularni kafolatlashni mustahkamlashga qaratilgan. Konstitutsiyaning ikkinchi bo’limi “Inson

va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlanib 19-64-moddalarni o’z ichiga olib, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilishni belgilaydi. Jumladan, so‘z erkinligi, siyosiy faollik, saylovlarda ishtirok etish, ta’lim olish, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoyaga ega bo‘lish kabi huquqlar davlat tomonidan kafolatlanadi va jamiyatdagi adolat va tenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Masalan Konstitutsiyasing 20-moddasi, barcha qonunchilikdagi noaniqliklarni inson foydasiga talqin qilishni belgilab qo’ydi, ya’ni shaxs manfaatlarini davlat maqsadlaridan ustun qo‘yadi, bu esa fuqarolar huquqlarini himoya qilishning muhim kafolatidir. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasida inson oliy qadriyat sifatida tan olinib, uning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlat faoliyatining markaziy vazifasi sifatida belgilanishi, xususan 54-modda orqali, mamlakatning konstitutsiyaviy me’yoriy bazasini insonparvarlik tamoyili asosida mustahkamlashga qaratilgan. Bundan tashqari, 55-modda har bir shaxsga milliy va xalqaro huquqiy institutlarga murojaat qilish, shuningdek, davlat organlari qarorlari va harakatlaridan kelib chiqadigan huquqiy nizolarni sud orqali hal qilish huquqini kafolatlaydi. Bu esa O‘zbekistonning inson huquqlari sohasida xalqaro majburiyatlarga muvofiqligini mustahkamlashda hal qiluvchi vosita hisoblanadi. Shu tarzda, Konstitutsiya insonning huquq va erkinliklarini ta’minlashni davlatning oliy maqsadi sifatida belgilash orqali huquqiy kafolatlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Yangilangan Konstitutsiyada ekologiya masalalariga ham alohida e’tibor qaratildi. Masalan, 49-moddada fuqarolarning qulay va sog‘lom atrof-muhitda yashash huquqi mustaqil, bevosita amal qiluvchi konstitutsiyaviy norma sifatida mustahkamlandi. Orolbo‘yi mintaqasining ekologik fojiasi oqibatlarini bartaraf etish davlatning alohida konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilandi. Bu bilan ekologik xavfsizlik masalasi ixtiyoriy davlat siyosatidan majburiy huquqiy javobgarlik doirasiga olib chiqildi. Ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan davlat strategiyalari ham konstitutsiyaviy maqom kasb etdi va quyidagi islohotlar amalga oshirilishdi.

1. 2025-yilning “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” deb e’lon qilinishi mazkur islohotlarning amaliy bosqichini ifodalaydi

2. 2025-yil 15-may 2025: “2030-yilgacha aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi” tasdiqlandi.

3. 2025-yil 18-noyabrda Ekologiya va iqlim o’zgarishi milliy qo’mitasi tashkil etildi.

Bu kabi dasturlarning ishlab chiqilishi barqaror ekologik taraqqiyot uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Konstitutsiyada davlatning demokratik huquqiy tamoyillar asosida faoliyat yuritishi mustahkamlandi. Konstitutsiyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi, xalqaro shartnomalarning ustuvorligi, fuqarolarning davlat organlariga bevosita murojaat qilish huquqi, shaffof boshqaruv va jamoatchilik nazorati tizimining mustahkamlanishi mamlakatda huquqiy davlat qurish jarayonining sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarilganini ko‘rsatadi. Sud hokimiyatining mustaqilligi, advokatning maqomi va himoya huquqining kengayishi, majburiy mehnatning qat’iy man etilishi, shuningdek, har bir fuqaroning sud qarorisiz

uy-joydan mahrum qilinmasligi kabi normalar inson sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishning konstitutsiyaviy mezoniga aylandi.

Konstitutsiyaning “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida qayta qurilgani esa mamlakatda ijtimoiy tenglik, adolat va farovonlikni ta’minlashga qaratilgan normativ asosni mustahkamlaydi. Endilikda davlat ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy, ijtimoiy yordam va bandlik sohalarida keng ko‘lamli majburiyatlarni zimmasiga olgan. Masalan, oliy ta’limdan foydalanish imkoniyatining kengaytirilishi, bepul tibbiy xizmat kafolatlari, kam ta’minlangan guruhlar (nogironligi bo‘lgan shaxslar, yetim bolalar, yolg‘iz ayollar) huquqlarini himoya qilish bo‘yicha aniq konstitutsiyaviy normalarning mavjudligi davlatning ijtimoiy siyosatini aniq va majburiy huquqiy asosga o‘tkazganini anglatadi.

Bularning barchasi inson huquqlari, ekologiya va demokratik boshqaruv tizimining o‘zaro integratsiyasiga asoslangan zamonaviy konstitutsiyaviy modelni shakllantirdi. Davlatimiz atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va siyosiy-huquqiy institutlarning ochiqligi bilan fuqarolarning huquqlarini himoya qiladi va demokratik jamiyatni rivojlantiradi. Bu holat davlatning barcha organlari faoliyatida “inson – jamiyat – davlat” tamoyili bilan namoyon bo’lmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yangilangan Konstitutsiya O‘zbekistonning inson huqulari, ekologik taraqqiyot, ijtimoiy adolatli va demokratik-huquqiy rivojlanishga yo‘naltirilgan kelajak konsepsiyasining huquqiy poydevoridir. U nafaqat bugungi demokratik islohotlar, balki mamlakatning uzoq muddatli ekologik strategiyalari, xalqaro maydondagi integratsiyasi va inson huquqlari bo‘yicha global standartlarga moslashuvi uchun ham mustahkam konstitutsiyaviy asosni yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi http://lex.uz//docs/-6445145
2. “Konstitutsiyaviy huquq asoslari” G.M Tansikbayeva, V.A. Kostetskiy Toshkent 2019
3. “Yangi Konstitutsiya ishonchli kelajak garovi” ilmiy maqola Safarov, Azizbek Azim o’g’li https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-konstitutsiya-ishonchli-kelajak-garovi
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiya kuni munosabati bilan tabrigi https://old.gov.uz/oz/events/view/245
5. “Konstitutsiyaviy huquq” O.T. Xusanov Toshken:Adolat 2013

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi hisobotlari 2025 http://lex.uz//uz/docs/-7847341

ATROF-MUHITNI HIMOYA QILISH VA UNING HOLATINI NAZORAT QILISHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Rasulova Nodira Sardarovna,
Jamoat xavfsizligi universiteti professori, tarix fanlari doktori, dotsent
Janadilova Sayra
Jamoat xavfsizligi universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va uning holatini monitoring qilishning O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida o‘z aksini topgan asosiy tamoyillari yoritiladi. Inson huquqlarining ustuvorligi, yashash uchun qulay tabiiy muhitga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquq, davlatning ekologik siyosatdagi majburiyatlari, fuqarolarning ekologik madaniyatini oshirish, ekologik audit va monitoring tizimining konstitutsiyaviy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, mamlakatda barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy negizlari keng yoritilib, zamonaviy yondashuvlar asosida ilmiy nazariy qarashlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Atrof-muhit, ekologik xavfsizlik, konstitutsiyaviy asoslar, muhofaza, monitoring, ekologik huquq, ekologik majburiyat, barqaror rivojlanish, tabiiy resurslar, ekologik siyosat.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные принципы охраны окружающей среды, обеспечения экологической безопасности и мониторинга ее состояния, отраженные в недавно измененной Конституции Республики Узбекистан. Анализируются приоритет прав человека, конституционное право на благоприятную природную среду для жизни, обязанности государства в экологической политике, совершенствование экологической культуры граждан, а также конституционные основы системы экологического аудита и мониторинга. Также широко освещаются правовые основы устойчивого развития, экологической безопасности и рационального использования природных ресурсов в стране, и представлены научно-теоретические взгляды, основанные на современных подходах.

Ключевые слова: Окружающая среда, экологическая безопасность, конституционные основы, охрана, мониторинг, экологическое право, экологическая обязанность, устойчивое развитие, природные ресурсы, экологическая политика.

Annotation: This article covers the basic principles of environmental protection, ensuring environmental safety and monitoring its condition, reflected in the new Constitution of the Republic of Uzbekistan. The priority of human rights, the constitutional right to a comfortable natural environment for living, the obligations of

the state in environmental policy, improving the environmental culture of citizens, the constitutional foundations of the environmental audit and monitoring system are analyzed. Also, the legal foundations of sustainable development, environmental safety and rational use of natural resources in the country are widely covered, and scientific theoretical views are presented based on modern approaches.

Keywords: Environment, environmental safety, constitutional foundations, protection, monitoring, environmental law, environmental obligation, sustainable development, natural resources, environmental policy.

Atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi XXI asrning eng dolzarb global muammolaridan biri hisoblanadi. Ekologik xavfsizlikning milliy darajadagi kafolatlari hamda insonning tabiiy muhitdan bahramand bo‘lish huquqini ta’minlash demokratik davlatlarning konstitutsiyaviy siyosatida alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi ham ushbu jarayonning ajralmas qismi bo‘lib, unda ekologik barqarorlik, tabiiy muhitni asrash va ekologik nazoratga oid tamoyillar alohida yoritilgan. Yangi Konstitutsiya ekologik munosabatlarni zamonaviy talablarga mos ravishda qayta ko‘rib chiqib, ekologiya masalasini nafaqat davlat siyosati darajasida, balki jamiyat va har bir fuqaroning umumiy mas’uliyati sifatida e’tirof etadi.

Konstitutsiyada insonning sog‘lom va xavfsiz muhitda yashash huquqi asosiy, ajralmas va daxlsiz huquqlardan biri sifatida e’tirof etilishi ekologik siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan sanaladi. Bu tamoyil mamlakatda atrof-muhitni muhofaza qilish borasida davlatning faol majburiyatlarini belgilabgina qolmay, balki ekologik xavfsizlikning kafolatlanishini huquqiy darajada ta’minlaydi. Yangi konstitutsion yondashuvga ko‘ra, insonning huquq va erkinliklari faqat siyosiy yoki iqtisodiy sohalarda emas, balki ekologik barqarorlik bilan ham chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Tabiiy muhitning ifloslanishi, ekologik jarayonlarning buzilishi, atmosfera va suv resurslarining yomonlashuvi bevosita inson salomatligi va hayot sifati bilan aloqador ekan, ekologik normalar konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi tabiiy zarurat sifatida qaraladi.

Davlatning ekologik siyosati, eng avvalo, atrof-muhitni muhofaza qilishning ilmiy asoslangan, tizimli va uzluksiz bo‘lishini taqozo etadi. Konstitutsiya doirasida davlatga yuklatilgan asosiy majburiyatlardan biri bu — tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni tiklash va kelajak avlodlar uchun saqlab qolishdir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya ekologik sohada barqaror rivojlanish tamoyilini bosh mezon sifatida belgilab, iqtisodiy taraqqiyot hamda ekologik barqarorlik o‘rtasida muvozanatni saqlashni davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida ko‘rsatadi. Bunda milliy iqtisodiyotning resurs iste’moli, ishlab chiqarish texnologiyalarining ekologik

xavfsizligi va yashil iqtisodiyot tamoyillari konstitutsiyaviy normalar asosida belgilangan majburiyatlar sifatida namoyon bo‘ladi.[3]

Atrof-muhitning holatini doimiy monitoring qilish, ekologik nazoratni kuchaytirish va ekologik audit tizimini joriy etish ham Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan tamoyillardandir. Ushbu yondashuv davlatning faqatgina qonun chiqaruvchi yoki nazorat qiluvchi organlari emas, balki ilmiy muassasalar, jamoat tashkilotlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ishtirokida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan kompleks tizimini taqozo etadi.

Bu esa, ekologik boshqaruvning samaradorligini oshirib, atrof-muhitni muhofaza qilishga oid statistik, ilmiy va analitik ma’lumotlarning to‘liq shakllanishiga xizmat qiladi. Yangi Konstitutsiyaning II-bo‘lim 9-bob 49-moddasida ekologik mas’uliyatning jamiyatdagi o‘rni alohida ta’kidlanadi. “49-modda. Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkaziladi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘radi.”[1]

Ya’niki, ushbu modda mazmuni avvalo har bir shaxsning qulay, sog‘lom va xavfsiz atrof-muhitda yashashga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqini e’tirof etishdan boshlanadi. Bu yondashuv ekologik huquqlarni insonning asosiy huquq va erkinliklari qatoriga qo‘shadi. Chunki atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi yoki ekologik muhitning yomonlashuvi inson salomatligi va hayot sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois konstitutsiyaviy darajada har kimning “qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqi” mustahkamlanishi davlatning ekologiya sohasidagi siyosiy, huquqiy va ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytiradi. Moddaning ikkinchi qismida “atrof-muhit holati to‘g‘risida ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqi” alohida qayd etilgan bo‘lib, bu ekologik shaffoflik tamoyilining konstitutsiyaviy ifodasidir. Ekologik ma’lumotlarning yashirilishi, noto‘g‘ri ko‘rsatilishi yoki fuqarolardan berkitilishi jamiyat xavfsizligiga bevosita tahdid solishi mumkin. Shu sababli Konstitutsiya davlat organlariga atrof-muhit bo‘yicha ma’lumotlarni ochiq, to‘g‘ri va ishonchli tarzda taqdim etish majburiyatini yuklaydi. Bu yondashuv fuqarolarning ekologik ongini oshirishga, jamoatchilik faolligini kuchaytirishga va ekologik masalalarda davlat hamda jamiyat o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Moddaning keyingi qismi shaharsozlik faoliyati

bilan bog‘liq ekologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan. Shaharsozlik jarayonlari — qurilish, infratuzilma, yo‘llar, sanoat obyektlari barpo etilishi — ekologik muvozanatga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois Konstitutsiya davlatni shaharsozlik sohasida jamoatchilik nazorati uchun sharoit yaratishga majbur qiladi. Bu tamoyil ekologik demokratiyaning muhim unsuri bo‘lib, fuqarolarga o‘z yashash hududida qanday obyektlar qurilayotgani, bu jarayonlarning tabiatga va sog‘liqqa qanday ta’sir qilishi haqida nazorat qilish imkoniyatini beradi. Jamoatchilik nazorati korrupsiyaning oldini oladi, ekologik talablarga zid bo‘lgan loyihalarning tasdiqlanishiga yo‘l qo‘ymaydi, aholining fikri inobatga olinishi esa hududlarni adolatli va barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, moddaning davomida “shaharsozlik hujjatlari jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilishi” talabi konstitutsiyaviy normalashtirilgan. Bu esa faqat nazorat bilan cheklanmay, fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Loyiha va rejalar aholining hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan hujjatlar bo‘lgani uchun ularning ochiqligi va muhokamasi davlat boshqaruvida shaffoflik va adolat tamoyillarini mustahkamlaydi. Moddada alohida e’tibor “barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq davlatning ekologik vazifalari”ga qaratilgan. Barqaror rivojlanish — ekologiya, iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning muvozanatli rivojlanishini anglatadi. Konstitutsiyada bu tamoyilning mustahkamlanishi O‘zbekistonning ekologik xavfsizlik bo‘yicha xalqaro standartlarga mos yo‘nalishda borayotganining yaqqol isbotidir. Davlatning atrof-muhitni tiklash, yaxshilash va muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rishi majburiyati ekologik siyosatning strategik ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi. Bu talablar atmosferani tozalash, suv resurslarini muhofaza qilish, chiqindilarni kamaytirish, biologik xilma-xillikni asrash kabi keng ko‘lamli vazifalarni qamrab oladi. Moddaning oxirida alohida bir hudud — Orolbo‘yi mintaqasiga e’tibor qaratilishi ekologik adolat tamoyilining yorqin ifodasidir.

Orol fojiasi nafaqat ekologik inqiroz, balki ijtimoiy, demografik va iqtisodiy oqibatlarga ega bo‘lgani sababli, Konstitutsiya davlatning ushbu hududni tiklash bo‘yicha majburiyatlarini aniq belgilab beradi. Orolbo‘yi aholisi ko‘p yillar davomida chang bo‘ronlari, suv tanqisligi, kasalliklarning ko‘payishi, ish o‘rinlarining qisqarishi kabi og‘ir muammolarga duch kelgan. Shuning uchun Konstitutsiyaning bu yerda ekologik tiklanish bilan birga mintaqani iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishni ham davlat zimmasiga yuklashi hududning reabilitatsiya qilinishi kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi kerakligini ko‘rsatadi.[1]

Shuningdek, yangi Konstitutsiya ekologik xavf tug‘diruvchi faoliyat ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlarini kuchaytiradi. Bu degani, fuqarolar, nodavlat tashkilotlar va ekologik harakatlar davlat ekologik siyosati ustidan ochiq monitoring olib borish huquqiga ega. Ushbu yondashuv demokratiya prinsiplarini ekologik

boshqaruvda ham qo‘llash imkonini yaratadi. Ekologik jarayonlarning ochiqligi, havoning, suvning va tuproqning holati bo‘yicha ma’lumotlar shaffof taqdim etilishi fuqarolik jamiyatining rivoji va davlat ekologik siyosatining samaradorligini ta’minlaydi.

Atrof-muhitni muhofaza qilishning konstitutsiyaviy asoslari, shuningdek, ekologik huquqbuzarliklarga qarshi kurash tizimini mustahkamlaydi. Konstitutsiyaviy yondashuvga ko‘ra, tabiatga yetkazilgan zararni qoplash, ekologik talablarga amal qilmagan shaxslar yoki tashkilotlarga nisbatan javobgarlikning kuchaytirilishi atrof-muhitning yanada ishonchli himoyasini ta’minlaydi. Bu tamoyillarning barchasi ekologik siyosatning konstitutsiyaviy asosda mustahkamlanishi, ekologik xavfsizlikning davlat tomonidan kafolatlanishi hamda jamiyatning ekologik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi atrof-muhitni muhofaza qilish va uning holatini nazorat qilish bo‘yicha ilg‘or, zamonaviy va xalqaro standartlarga mos yondashuvlarni o‘zida mujassam etadi. Inson va tabiat uyg‘unligi, ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish, resurslardan oqilona foydalanish, ekologik nazoratni kuchaytirish va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish kabi tamoyillar mamlakatning ekologik siyosatini mustahkam konstitutsiyaviy asosga ega ekanini ko‘rsatadi. Bu yondashuv kelajak avlodlarga sog‘lom, toza va barqaror tabiiy muhitni qoldirishga xizmat qiluvchi muhim huquqiy kafolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri), 2023.
2. Karimov, A. “Ekologiya huquqi asoslari.” – Toshkent: Adolat, 2020.
3. Rasulov, B. “Atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish.” – Toshkent: Fan, 2021.
4. Xolmatov, Q. “Ekologik xavfsizlik va davlat boshqaruvi.” – Toshkent: Universitet, 2019.
5. Qayumov, T. “Ekologik siyosat va huquqiy tartibot.” – Samarqand, 2022.

MUTANOSIBLIK, TENGLIK VA ADOLAT PRINSIPLARI: O‘ZBEKISTONDA KONSTITUTSION HUQUQIY KAFOLATLARNI TA’MINLASHDAGI ROLI

Iroda Rejametova

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, p.f.n., dotsent

Durdona Rustamova

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti 3-bosqich kursanti

Har qanday huquqiy davlatning asosi – Konstitutsiyadir. Konstitutsiya fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat organlarining vakolatlarini belgilaydi va huquqiy kafolatlarni ta’minlaydi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi fuqarolik jamiyatini barpo etishda, huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlashda, ijtimoiy adolatni ta’minlashda asosiy huquqiy hujjat sifatida xizmat qiladi.

Konstitutsion kafolatlar insonning huquq va erkinliklarini amalga oshirishini ta’minlaydi, davlat va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarda mutanosiblik va barqarorlikni ta’minlaydi. O‘zbekistonda konstitutsion kafolatlarning asosiy prinsiplari qatorida mutanosiblik, tenglik va adolat prinsiplari alohida ahamiyat kasb etadi.

Mutanosiblik prinsipi davlat organlari tomonidan fuqarolarning huquqlarini ta’minlashda va ularga nisbatan chora-tadbirlarni qo‘llashda huquqiy moslik va balansni nazarda tutadi. Tenglik prinsipi barcha fuqarolarning huquqlari va majburiyatlari shu shartlar asosida bir xil darajada qo‘llanilishini ta’minlaydi, diskriminatsiyaning oldini oladi. Adolat prinsipi esa huquqni qo‘llashda faqat qonun asosida, xolis va haqqoniy qarorlar qabul qilinishi kerakligini nazarda tutadi.

Konstitutsion kafolatlar – bu fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini qonuniy tarzda himoya qilishni ta’minlaydigan huquqiy mexanizmlar to‘plami hisoblanadi. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 1-moddasida mamlakatning demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekani qayd etilgan, bu esa barcha konstitutsion kafolatlarning asosiy huquqiy zamini hisoblanadi.

Qonunchilikda mutanosiblik, tenglik va adolat prinsiplari huquqiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Mutanosiblik, asosan, qonun va qarorlarning shaxs va davlat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatini ta’minlashda namoyon bo‘ladi. Tenglik prinsipi qonunning barcha fuqarolar uchun bir xil qo‘llanilishini ta’minlaydi, shuningdek ijtimoiy hamda iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi. Adolat prinsipi esa qonuniy qarorlar qabul qilishda faqat ob’ektiv mezonlarga asoslanishini ta’minlaydi.

Mutanosiblik prinsipi konstitutsion huquqshunoslikda muhim o‘rin egallaydi va huquqiy normalar hamda chora-tadbirlar shaxsga qo‘llanganda fuqaro va davlat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi. Ushbu prinsipning mazmuni faqat qonunlarning qo‘llanilishini tartibga solishda emas, balki davlat va jamiyat munosabatlarida adolat, ijtimoiy barqarorlik va huquqiy muvozanatni ta’minlashda ham ifoda topadi.

O‘zbekistonda mutanosiblik prinsipi qonunchilikda quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

1. Javobgarlikni qonuniy tartibda qo‘llash Mutanosiblik prinsipi davlat organlari va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tomonidan chora-tadbirlarni qonuniy me’yorlar asosida qo‘llashni talab qiladi. Bu, o‘z navbatida, shaxsning huquqlarini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va jazoning me’yoriy asosini

ta’minlaydi. Masalan, huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan qo‘llanadigan choralar shaxsning huquqlari va erkinliklari bilan uyg‘un bo‘lishi shart.

2. Jazo va choralarni shaxsning qonuniy manfaatlariga muvofiq qo‘llash Qonunchilikda jazo va boshqa huquqiy choralar faqat shaxsning sodir etgan huquqbuzarligi bilan mutanosib ravishda qo‘llanishi lozim. Adolat prinsipiga muvofiq, jazo keskinlikda emas, balki shaxsning harakati va javobgarlik darajasi bilan muvozanatda bo‘lishi kerak. Bu huquqshunoslikda “proportionality” (mutanosiblik) deb ataladi va qonunlarning samarali hamda adolatli qo‘llanilishini ta’minlaydi.

3. Davlat organlari va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarda balansni ta’minlash Mutanosiblik prinsipi davlat va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarda adolatli muvozanatni ta’minlaydi. Bu prinsip davlat organlarining vakolatlari va fuqarolarning huquqlari o‘rtasidagi cheklovlarni to‘g‘ri taqsimlashda muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, davlat nazorat idoralari tomonidan qo‘llaniladigan choralar fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlariga zarar yetkazmasligi lozim.

Mutanosiblik prinsipining amaliy ahamiyati faqat huquqni muhofaza qilish va jazo qo‘llash bilan cheklanmaydi. Ushbu prinsip davlat va fuqarolar o‘rtasida ishonch muhitini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Fuqarolar davlat organlarining qarorlariga va huquqiy chora-tadbirlariga ishonch bildirganda, huquqiy barqarorlik, ijtimoiy va siyosiy hamkorlik samarali rivojlanadi. Shuningdek, mutanosiblik prinsipi qonunlarning sub’ektiv qo‘llanilishini adolatli qilish orqali shaxsning huquqiy barqarorligi va fuqarolik huquqlarining kafolatlanishini ta’minlaydi.

Qisqacha aytganda, mutanosiblik prinsipi O‘zbekistonda konstitutsion huquqiy tizimning asosiy kafolatlaridan biri bo‘lib, u qonunchilikda va amaliy faoliyatda shaxs va davlat manfaatlari o‘rtasidagi huquqiy muvozanatni ta’minlaydi, ijtimoiy adolat va huquqiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Tenglik prinsipi konstitutsion huquqshunoslikda asosiy huquqiy tamoyillardan biri bo‘lib, barcha fuqarolarning huquqlari va majburiyatlarini bir xil qo‘llashni nazarda tutadi. Ushbu prinsip huquqiy davlatning poydevorini tashkil etadi va fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlariga teng kirishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida har bir shaxs turli millat, irq, jins, ijtimoiy manfaatlar va dinga qaramay teng huquqqa ega ekani, diskriminatsiya har qanday shaklda qonuniy ravishda qo‘llanilishi mumkin emasligi ochiq-oydin qayd etilgan. Bu modda fuqarolarning huquqiy barqarorligini ta’minlashda va ijtimoiy adolatni amalga oshirishda asosiy huquqiy asos hisoblanadi.

Tenglik prinsipining amaliy ahamiyati quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

1. Diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik Prinsip barcha fuqarolarning huquq va imkoniyatlari bir xil darajada ta’minlanishi kerakligini nazarda tutadi. Bu esa

davlat organlari va tashkilotlar tomonidan shaxsning irq, millat, jins, ijtimoiy maqomi yoki diniga asoslangan taqsimot va cheklovlardan holi bo‘lishini ta’minlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, huquqiy barobarlikka rioya qilmaslik ijtimoiy ziddiyatlar va adolatsizlikka olib keladi.

2. Ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarni teng taqsimlash Tenglik prinsipi fuqarolarning davlat dasturlari, ijtimoiy yordam va iqtisodiy resurslarga teng kirishini ta’minlaydi. Bu fuqarolar o‘rtasida ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi va davlat va jamiyat munosabatlarida ishonch muhitini shakllantiradi. Masalan, ta’lim, tibbiyot va davlat xizmatlariga kirishda barcha uchun bir xil imkoniyatlarni yaratish ushbu prinsipning amaliy ko‘rinishi hisoblanadi (Baranov, 2017).

3. Davlat organlari va fuqarolar o‘rtasida adolatlilik va shaffoflikni ta’minlash Tenglik prinsipi davlat organlarining qarorlari va fuqarolarga nisbatan qo‘llaniladigan chora-tadbirlar adolatli va ochiq bo‘lishi lozimligini nazarda tutadi. Bu fuqarolarning davlat organlariga ishonchini mustahkamlaydi, huquqiy barqarorlikni ta’minlaydi va korrupsiya xavfini kamaytiradi.

Shu bilan birga, tenglik prinsipi nafaqat qonunchilikda, balki qonunlarning amaliy qo‘llanilishida ham ta’minlanishi lozim. Amalda, barcha fuqarolarning huquqlari va majburiyatlari teng qo‘llanilsa, bu ijtimoiy adolat, huquqiy barqarorlik va demokratik davlatning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Qisqacha aytganda, tenglik prinsipi O‘zbekistonda konstitutsion kafolatlarning asosiy ustunlaridan biri bo‘lib, davlat va fuqarolar o‘rtasida adolatli, shaffof va muvozanatli munosabatlarni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu prinsipning samarali tatbiqi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi, huquqiy barqarorlikni ta’minlaydi va diskriminatsiyaning oldini oladi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida takidlash kerakki, O‘zbekistonda konstitutsion kafolatlar inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat va fuqarolar o‘rtasida huquqiy muvozanat va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Konstitutsiya va undagi konstitutsion prinsiplar, xususan mutanosiblik, tenglik va adolat prinsiplari, davlat va jamiyatning huquqiy tartibini mustahkamlashda asosiy huquqiy zaminni tashkil qiladi.

Mutanosiblik prinsipi davlat organlari tomonidan fuqarolarning huquqlariga nisbatan chora-tadbirlarni qonuniy va huquqiy moslikda qo‘llash orqali shaxs va davlat manfaatlari o‘rtasida muvozanatni ta’minlaydi.

Tenglik prinsipi barcha fuqarolarning huquqlari va imkoniyatlarini diskriminatsiyadan holi ravishda bir xil qo‘llashni kafolatlaydi va ijtimoiy hamda iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi.

Adolat prinsipi huquqni qo‘llashda xolislik, ob’ektivlik va qonuniylikni ta’minlaydi, davlat va shaxs o‘rtasida adolatli qarorlar qabul qilishning huquqiy kafolati hisoblanadi.

Ushbu prinsiplarning qonunchilikda va amaliyotda samarali tatbiqi fuqarolarning huquqiy barqarorligini ta’minlaydi, davlat organlari faoliyatida ochiqlik va ishonch muhitini shakllantiradi hamda ijtimoiy adolatni amaliy ravishda ta’minlaydi. Shu tariqa, mutanosiblik, tenglik va adolat prinsiplari O‘zbekistonda konstitutsion huquqiy tizimning ustunlaridan biri sifatida davlat va fuqarolar o‘rtasida huquqiy muvozanatni ta’minlaydi va demokratik davlatni barpo etishda asosiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 2017.
2. Axmedov, Sh. Konstitutsion huquq va huquqiy davlat tamoyillari. Toshkent: «O‘quvchi» nashriyoti. 2019
3. Baranov, A. Ijtimoiy adolat va huquqiy kafolatlar. Moskva: Yurist nashriyoti. 2017
4. Кузнесов, В. Принципы конституционного права. Санкт-Петербург: Юридическая литература. 2016
5. Nazarov, R. Adolat, mutanosiblik va tenglik prinsiplari. Toshkent: «Huquqshunoslik» jurnali, №3, 2020 s. 45–57.
6. Соловёв, М. Конституционное право и права человека. Москва: Норма. 2018

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI 3

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich, ... 4

KONSTITUTSIYAVIY ME’YORLAR VA MAHALLIY O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARINING EKOLOGIK NAZORATDAGI VAKOLATLARI 5

Djurayev Rustam Mirzayevich, ... 5

KONSTITUTSIYADA INSON VA DAVLATGA OID HUQUQIY QADRIYATLARNING ILMIY TAHLILI..... 10

Mamayusupov Sarvar Dexkanovich, ... 10

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYADA YUQORI HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNING MAMLAKAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI ... 13

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich, ... 13

ЯНГИ ТАҲРИРДАГИ КОНСТИТУЦИЯДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ ТЎҒРИСИДАГИ ХАЛҚАРО ҲУЖЖАТ ҚОИДАЛАРИНИ АКС ЭТИШИ 18

Хусанов Азат Тиллабоевич, ... 18

KONSTITUTSIYA - FUQAROLAR HUQUQ VA ERKINLIKLARINI KAFOLATLOVCHI ASOSIY QONUN! 22

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich 22

ЦЕННОСТНЫЙ ФУНДАМЕНТ ОБНОВЛЕННОЙ КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ БЕЛАРУСЬ: СИНТЕЗ ПРАВА И НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ 30

Лемешевский Олег Олегович 30

СУВ БОЙЛИКЛАРИНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ АСОСЛАРИ 35

Турсунов Ойбек Ботирович, ... 35

ДАВЛАТ ЭКОЛОГИК СИЁСАТИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ: ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ ВА ИСТИҚБОЛДАГИ ВАЗИФАЛАР..... 39

Турғунов Ойбек Каримович, ... 39

Нуридуллаев Аслиддин Ахторович,..... 39

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ КОНСТИТУЦИЯСИ – ПАРЛАМЕНТАРИЗМ ВА ПАРЛАМЕНТ ФАОЛИЯТИНИНГ МУҲИМ МАНБАИ СИФАТИДА 45

Ахмедов Даврон Куванович,..... 45

Сафаров Джахонгир..... 45

BUTUN BELARUS XALQ ASSAMBLEYASI – BELARUS RESPUBLIKASIDA XALQ HOKIMIYATINING OLIY VAKILLIK ORGANI HISOBLANADI..... 56

Бруяко Александр Николаевич 56

Яновский Владислав Евгеньевич..... 56

ҚУЛАЙ АТРОФ ТАБИИЙ МУҲИТГА ЭГА БЎЛИШ ҲУҚУҚИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ КАФОЛАТЛАРИ..... 61

Усмонов Муҳаммади Бахритдинович,..... 61

МУРОЖААТ ҚИЛИШ ҲУҚУҚИ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ИНСТИТУТ СИФАТИДА..... 67

Юлдашов Содиқ Оқбаевич 67

“ИНСОН ҚАДРИ УЧУН” ҒОЯСИНИНГ УСТУВОР ЭТГАН ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ КОНСТИТУЦИЯСИ..... 72

Дадашева Ақида Абдужаббаровна..... 72

TA’LIM OLISHNING KONSTITUSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI VA UNI RIVOJLANISHI..... 82

Choriyev Murod Shokirjonovich..... 82

КОНСТИТУЦИЯДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИК: МЕҲНАТ МУНОСАБАТЛАРИДА ТАЗЙИҚ ВА КАМСИТИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ ПРОФИЛАКТИКАСИ..... 85

Усманова М.А. 85

УМУММИЛЛИЙ БОЙЛИГИМИЗНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ ҲУҚУҚИЙ КАФОЛАТЛАРИ..... 90

Рўзиев Рустам Джабборович..... 90

Каримов Алибек Валиевич 90

YERDAN OQILONA FOYDALANISH VA UNI MUHOFAZA QILISNNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI 97

Bobokulov Shoxnazar Ochilovich..... 97

ПРИОРИТЕТЫ КОНСТИТУЦИОННОЙ РЕФОРМЫ: УЗБЕКИСТАН – СОЦИАЛЬНОЕ ГОСУДАРСТВО 102

Туйчибаева Шахноза Шакировна, ... 102

АДОЛАТ ВА ТАРАҚҚИЁТ МЕЗОНИ – ЎЗБЕКИСТОН КОНСТИТУЦИЯСИ: БУГУНГИ КУН ТАЛАБЛАРИ ВА ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ҚИЁФАСИ 105

Нурматов Мирғолиб Мирзаевич, ... 105

СУДЬЯ ЛАВОЗИМИГА ТАНЛАШ, ТАЙИНЛАШ ВА УЛАР ФАОЛИЯТИГА ДОИР КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАР 108

Саид-Газиева Нилуфар Шерзодовна,..... 108

ЎЗБЕКИСТОНДА ҲУҚУҚИЙ ДАВЛАТ ҚУРИШ ПРИНЦИПИ ВА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯЛАШ МЕХАНИЗМИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ АСОСЛАРИ 113

Эшмуҳаммад Қодиров,..... 113

YOSHLAR HUQUQ VA ERKINLIKLARINING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI 117

Achilov Alisher Temirovich, ... 117

KONSTITUTSIYA ILM VA BILIM OLISHNING GAROVIDIR 121

Xamidov G‘aybulla Saypillayevich, ... 121

ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ В ВОИНСКИХ ЧАСТЯХ РЕСПУБЛИКИ БЕЛАРУСЬ..... 125

Саковец Игорь Николаевич,..... 125

СЕМЬЯ КАК БАЗОВАЯ ЦЕННОСТЬ ДЛЯ ОБЩЕСТВА И ГОСУДАРСТВА 131

Медведев Владимир Александрович, ... 131

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI SIYOSIY PARTIYALAR FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSI 135

Rasulova Nodira Sardarovna,..... 135

КОНСТИТУЦИЯ - ГАРАНТ НАЦИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ..... 140

Казаков Акмал Алишерович, ... 140

КОНСТИТУЦИЯ НА ЗАЩИТЕ ЧАСТНОЙ СОБСТВЕННОСТИ 145

Махмудов Носир Махмудович,..... 145

HAR BIR INSON SHAXSIY HAYOTINING DAXLSIZLIGI, SHAXSIY VA OILAVIY SIRGA EGA BO‘LISH, O‘Z SHA’NI VA QADR-QIMMATINI HIMOYA QILISH HUQUQIGA EGA..... 149

Muxammadiyev Ayub..... 149

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING HUQUQIY ASOSLARI..... 153

Shadmanov Erkin Sherkulovich,..... 153

Irgashev Dilmurod Ikramovich, ... 153

MA’MURIY ISLOHOTLARNING KONSTITUTSIYA NORMALARI BILAN UYG‘UNLIGI 159

G‘.T.Xakimov, ... 159

OLIY TA’LIM TASHKILOTLARINING FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIGINI VUJUDGA KELISHI ASOSLARI 165

Xomidov E.O..... 165

O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA BELGILANGAN YOSHLAR HUQUQLARINI TA’MINLASHDA NARKOJINOYATLARGA QARSHI PROFILAKTIKANING AHAMIYATI..... 169

Payziyev Abbos Muxammadovich,..... 169

BARQAROR RIVOJLANISH VA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNING HUQUQIY POYDEVORI 176

Pulatova Zulfiya Abduazizovna,..... 176

O‘ZBEKISTONDA SIYOSIY PARTIYALAR FAOLIYATINING KONSTITUTSIYAVIY-ME’YORIY ASOSLARI 179

Rasulova Nodira Sardarovna,..... 179

Tolipov Abdug‘affor Abdunabi o‘g‘li, ... 179

ЎЗБЕКИСТОН КОНСТИТУЦИЯСИ 53-МОДДАСИГА КЎРА ШАХСНИНГ ИЖОД ҚИЛИШ ЭРКИНЛИГИНИНГ КАФОЛАТЛАРИ 185

Бабакулов З.К..... 185

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI -FUQAROLARINING EKOLOGIK HUQUQLARINI AMALGA OSHIRISHNING KAFOLOTI 193

Utegenov O.D. 193

DEMOKRATIK ISLOHOTLAR SHAROITIDA XALQ DEPUTATLARI KENGASHLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI..... 198

Yo‘ldoshev Azizjon Ergash o‘g‘li 198

ҚОНУН ИЖОДКОРЛИГИДА ХАЛҚ ИРОДАСИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ КАФОЛАТЛАРИ..... 202

Хусанова Мухтабар,..... 202

ПРАВО НА ОТДЫХ – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО ЧЕЛОВЕКА 208

Разикова Шахзода Алишеровна..... 208

MILLIY QONUNCHILIKKA XALQARO GUMANITAR HUQUQ NORMALARINI IMPLEMENTATSIYA QILISH MEXANIZMLARI..... 212

Ravshanov Ulug‘bek Maxmurbekovich,..... 212

ЎЗБЕКИСТОНДА ИНФРАТУЗИЛМАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТРАНСПОРТ СОҲАСИДАГИ ҲУҚУҚИЙ ТИЗИМНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ВА САМАРАЛИ МЕХАНИЗМИНИ ЖОРИЙ ЭТИШДА ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИНИНГ МУҲИМЛИЛИГИ..... 216

Юсупов Жамолбек Зокирович, ... 216

DAVLATIMIZDA YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA QONUN, FARMONLAR VA ME’YORIY HUJJATLARINING AHAMIYATI 225

G‘ovsiddinova Nozanin Sunnatullo qizi,..... 225

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA - O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TARAQQIYOTINING KAFOLATI 228

Jurayev Jasur Maxsutovich, ... 228

HARBIY XIZMATCHILAR VA ULARNING OILA A’ZOLARINI IJTIMOIY HIMOYA QILISHDA INSON QADRI VA ADOLAT TAMOYILLARI 235

Djaydakbayev F.T. 235

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA – ADOLAT TANTANASI..... 240

Davletov O‘.M..... 240

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ КОНСТИТУЦИЯСИДА “ОИЛА ВА НИКОҲ МУҚАДДАС” ТУШУНЧАСИ МИЛЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ КАТЕГОРИЯ СИФАТИДА..... 244

Рустамова Нилуфар Рустамовна,..... 244

MAMLAKATIMIZDA MUQOBIL VA HARBIY XIZMATNI O‘TASHNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI..... 249

Davlatov Jamoliddin Qurbonboy o‘g‘li, ... 249

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLAR VA FUQAROLIK HUQUQI INSTITUTLARI O‘ZARO UYG‘UNLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOT 253

Mirzaxo‘jayev Madiyorxo‘ja Doniyorxo‘ja o‘g‘li,..... 253

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ЯНГИ КОНСТИТУЦИЯСИ - ДЕМОКРАТИК РИВОЖЛАНИШ ЙЎЛИДА ЯНГИ ҚАДАМ 259

Кутлимуратов Махмуджон Шарипбаевич,..... 259

KONSTITUTSIYA VA IQTISODIY BARQARORLIK: HUQUQIY ASOSLAR VA AMALIY AHAMIYAT 264

Akmal Bozorov Amonovich, ... 264

KONSTITUTSIYA – FAROVON HAYOTIMIZ VA TARAQQIYOTNING ASOSIY POYDEVORI 268

Xamidov G‘aybulla Saypillayevich, ... 268

Gulyamov Normahamat Shermuhamatovich, ... 268

КОНСТИТУЦИЯ – ГАРАНТ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ЛИЦ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ 271

Алимова Гузал Алишеровна,..... 271

XORIJIY DAVLATLAR JINOYAT QONUNCHILIGIDA ODAM O‘G‘IRLASH UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI VA O‘ZIGA XOS JIHATLARI..... 276

Ortiqov Abror Nemat o‘g‘li, ... 276

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY MAMLAKATLAR HAMKORLIGINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI 283

Mirzayev G‘ulom Rizoqulovich,..... 283

KONSTITUTSIYA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGINING KAFOLATIDIR 290

Turayeva Sayyora Rustambayevna..... 290

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING HUQUQIY ASOSLARI..... 296

Shadmanov Erkin Sherkulovich,..... 296

Irgashev Dilmurod Ikramovich, ... 296

ROSSIYADA MAHALLIY O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISHNING KONSTITUTSIYAVIY MODELI: AVTONOMIYADAN DAVLAT HOKIMIYATI TIZIMIGA INTEGRATSIYALASHUVGACHA..... 303

Кузнецов Антон Константинович,..... 303

КОНСТИТУЦИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА – СИЛА И СПРАВЕДЛИВОСТЬ НАРОДА 307

Шаменова Гульжазира Мухтаровна, ... 307

Толегенова Умида, ... 307

KONSTITUTSIYA VA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNI AMALGA OSHIRUVCHI IDORALAR FAOLIYATINI BOG‘LOVCHI AYRIM XUSUSIYATLAR 311

G‘iyosov Bahriddin Hasan o‘g‘li, ... 311

KONSTITUTSIYA – MAMLAKATIMIZDA TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING MUSTAHKAM POYDEVORIDIR 319

Irgashev Dilmurod Ikromovich, ... 319

Zurapov Ali Utkirovich, ... 319

ДАВЛАТ ХИЗМАТИ, ОЧИҚЛИК ВА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ: КОНСТИТУЦИЯ АСОСИДА КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ МИЛЛИЙ МОДЕЛИ 326

Нурмуҳаммедова Гўзалхон Баҳодировна, ... 326

HARBIY XIZMATCHILARNING HUQUQIY HIMOYASINI KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLANISHI 337

Olimjonov Xushnudbek Maxamadsalim o‘g‘li, ... 337

Saminjonov Mashrab Abdugapporovich, ... 337

КОНСТИТУЦИЯ – ГАРАНТ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ЛИЦ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ 342

Алимова Гузал Алишеровна, ... 342

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ЯНГИЛАНГАН КОНСТИТУЦИЯСИДА ЖАБРЛАНУВЧИ МАНФААТЛАРИНИНГ МУҲОФАЗАСИ 347

Тураева Дилноза Рустамбоевна,..... 347

РАЗВИТИЕ ДЕТСКОЙ РЕКРЕАЦИОННОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ КАК ФАКТОР РЕАЛИЗАЦИИ КОНСТИТУЦИОННОГО ПРАВА НА БЛАГОПРИЯТНУЮ СРЕДУ 357

Алимова Райхона Баходировна,..... 357

ПРАВОВАЯ КУЛЬТУРА КУРСАНТОВ КАК ОСНОВА КОНСТИТУЦИОННОГО СОЗНАНИЯ И ГРАЖДАНСКОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ 363

Ходиев Рустамжон Хамдамович, ... 363

JAMIYAT FAROVONLIGI YO‘LIDA EKALOGIK ISLOHOTLAR HAMDA DEMOKRATIK O‘ZGARISHLARNING KONSTITUTSIYADA YANGIDAN VA YANADA MUSTAHKAMLANGANLIGI 368

Jalolov Alisherjon Abduxomid o‘g‘li, ... 368

Raxmatullayeva Rayhona Navro‘zjon qizi, ... 368

KONSTITUTSIYAVIY IMPERATIVLARNING HARBIY XIZMATCHILAR VA ULARNING OILA A’ZOLARIGA TAALUQLI QONUNCHILIKDA AKS ETTIRILISHI MASALALARI 371

Baqoyev Shahzod Hasan o‘g‘li, ... 371

TOIFALANGAN OBYEKTLARNING HIMOYALASHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI 375

Axmadxonov Afzaliddin Abduvosi o‘g‘li, ... 375

Xikmatov Said Safoyevich, ... 375

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA FUQOROLIK JAMIYATI INSTUTLARINING MUSTAHKAMLANISHI 380

Batirova Xadichabonu Mamadiyorovna, ... 380

KONSTITUTSIYADA IJTIMOIY DAVLATCHILIKNING HUQUQIY ASOSLARI VA IJTIMOIY DAVLATGA XOS INDEKATORLAR 384

Iskandarov Yodgor Baxtiyorovich, ... 384

Faxriyor Baxtiyorov Akromjon o‘g‘li, ... 384

QUROLLI KUCHLARDA XIZMAT TEKSHIRUVLARI O‘TKAZISHNG HUQUQIY ASOSLARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR 391

Xoliqov Sarvar Mingishovich, ... 391

Yusupov Ulug‘bek Abduxalil o‘g'li, ... 391

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TA’LIM OLISHGA BO‘LGAN KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLARNING KAFOLATI SIFATIDA 396

Jabbarov A.R. 396

INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINI TA'MINLASHDA KONSTITUTSIYANING O‘RNI VA AHAMIYATI 403

Jumayev Akmal G`ulom o`g`li, ... **403**

Mavlyanov Ravshanbek Tojimirzayevich, ... **403**

MAXSUS HUQUQIY FANLARDA KONSTITUTSIYANI O‘RGATISHNING ZAMONAVIY METODLARI 409

Ikramov Alisher Aktamovich, ... **409**

MA’MURIY HUQUQ NORMALARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLASHTIRISH VA ELEKTRON BOSHQARUVNING O‘RNI 411

Gapparov Komiljon, ... **411**

КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ГАРАНТИИ ЦИФРОВЫХ ФИНАНСОВЫХ АКЦИЙ 415

Хикматов Немат Жураевич **415**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH SOHASIDA MILLIY GVARDIYA FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 423

Xo‘jamberdiyev Farrux Komilovich, ... **423**

HARBIY XIZMATCHILAR SUG‘URTASINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI 430

Xoliqov Sarvar Mingishovich, ... **430**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYANING 66-MODDASI VA FK 3581-MODDASIGA KO‘RA KORPORATIV SHARTNOMAGA ASOSAN HUQUQLARNI AMALGA OSHIRISHNING CHEGARALARI 435

Sattorov Mironshoh Xusenovich, ... **435**

XUSUSIY MULK DAXLSIZLIGI VA HUQUQNI SUIISTE’MOL QILISH: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING 65-MODDASI ASOSIDA NAZARIY-AMALIY TAHLIL 443

Mamadaliyev Avvolbek Ziyoitdinovich, ... **443**

KONSTITUTSIYA – IJTIMOIY ADOLAT VA INSON HUQUQLARI KAFOLATI 450

Isakov Sanjar Xazratqulovich, ... **450**

KONSTITUTSIYA – MILLAT ERKI, FUQAROLIK JAMIYATI VA INSON HUQUQLARINING MUHIM POYDEVORI 453

Raxmanov Farrux Erkinovich, ... **453**

POSITIVE CHANGES FOR FOREIGN LANGUAGE TEACHERS IN THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN 458

Rashidova Munavvar Xaydarovna,..... 458

KONSTITUTSIYAMIZDA BELGILANGAN NORMALARNING BOJXONAGA OID MA’MURIY HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIKDAGI AHAMIYATI..... 461

Yusupov Shahboz Lutfullo o‘g‘li,..... 461

KONSTITUTSIYA – ERKIN FUQAROLIK JAMIYATIDA XAVFSIZ HAMKORLIKNI TA’MINLOVCHI QOIDA..... 469

G‘iyosov Bahriddin Hasan o‘g‘li, ... 469

FUQAROLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARINI HIMOYA QILISH — O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUSIYASINING ASOSIY TAMOYILI 476

Axmedov Jamoliddin Davronovich, ... 476

Shokirjonova Ruxsora Murod qizi,..... 476

INGLIZ TILIDA MULOQOT SAMARADORLIGINI CLIL TEXNOLOGIYASI BILAN UYG‘UNLASHGAN HOLDA OSHIRISH 480

Ergasheva Shodiyaxon,..... 480

ATROF-MUHIT HOLATI TO‘G‘RISIDA ISHONCHLI AXBOROT OLISH HUQUQI - EKOLOGIK TARAQQIYOT VA DEMOKRATIK HUQUQIY RIVOJLANISH POYDEVORI..... 486

Mamadaliyev Buzrukxo‘ja Xayrullayevich,..... 486

HARBIY AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARGA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINI O‘QITISH TIZIMI VA UNDA “KONSTITUTSIYAVIY HUQUQQA KIRISH” FANINING O‘RNI 490

Shakirova Nafisa Abrarovna, ... 490

BOLALAR HUQUQLARI DAVLAT HIMOYASIDA: VOYAGA YETMAGANLARDAGI OG'ISHLAR PROFILAKTIKASI (O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI ASOSIDA)..... 495

Obloqulova Shohista Xaydar qizi,..... 495

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA – XALQIMIZNING HUQUQIY, EKOLOGIK VA RUHIY BARQARORLIGI POYDEVORI 500

Muhammadhonov Shuxratxon, ... 500

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI BILAN O‘ZARO MUNOSABATLARINI QONUNIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI 503

Saidboyev Baxodir Djalolitdinovich, ... 503

AXBOROT OLISH TAMOYILLARI, KAFOLATI VA ERKINLIGI 508

Kamilov Maxmudjan Abdukaxarovich, ... 508

KONSTITUTSIYA INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARI KAFOLATI 512

Xodjayeva Dildora Tuxtapulatovna, ... 512

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA - BARQAROR EKOLOGIK TARAQQIYOT VA DEMOKRATIK HUQUQIY RIVOJLANISH POYDEVORI 516

Payziyev Abbos Muhammadovich, ... 516

Turkmenov Umar Chori o‘g‘li, ... 516

ЎРТА ТАЪЛИМ БОСИҚИЧИДА ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 519

Жўраев Қобилжон Олимжонович, ... 519

ЎЗБЕКИСТОНДА КОНСТИТУЦИЯ ҚАБУЛ ҚИЛИНГАНЛИГИНИНГ 33 ЙИЛГИ МУНОСАБАТИ БИЛАН ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИГА ВА ТАТБИҚ ЭТИШГА БОҒЛИҚ МАСАЛАЛАР 523

Исматуллаева Ширин, ... 523

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН КОНСТИТУЦИЯСИ ВА ИНКЛЮЗИВ МЕҲНАТ БОЗОРИ: НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАВҚЕИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ 527

Аҳмедова Дилбар Давроновна, ... 527

MAJBURIY JAMOAT ISHLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYASI 533

Mirsaatov Sanjarali Imamaliyevich, ... 533

KONSTITUTSIYA – INSON HUQUQ VA ERKINLIGINING MUSTAHKAM ASOSI 537

Rizoqulova Ruhsora G‘ulom qizi, ... 537

Ilmiy rahbar: Yuldashova Gavherjan, ... 537

ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ МОЛОДЕЖНЫХ КОНСУЛЬТАТИВНЫХ ГРУПП ПРИ КЕНГАШАХ НАРОДНЫХ ДЕПУТАТОВ 542

Саттаров Шахзод Талатович, ... **542**

MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDAN MAHALLIY O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARIGA O‘TISH TENDENSIYASI (MDH MAMLAKATLARI MISOLIDA) 547

R. Davletov **547**

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA – BARQAROR EKOLOGIK TARAQQIYOT VA DEMOKRATIK HUQUQIY RIVOJLANISH POYDEVORI561

Akramjonov Iqboljon Akramjon o‘g‘li, ... **561**

Suyundiqova Bahora O‘tkir qizi, ... **561**

KONSTITUTSIYADA HOKIM BIR VAQTNING O‘ZIDA MAHALLIY KENGASH RAISI BO‘LISHI BEKOR QILINMOQDA! 565

Turdaliyev Shamsiddin Asqaraliyevich, ... **565**

KRIMINALISTIKA TAVSIYALARINING KONSTITUTSIYAVIY PROTSESSUAL TALABLARGA MUVOFIQLIGIGA TANQIDIY NAZAR 570

Mathalikov Rasul, ... **570**

YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA INSON HAMDA FUQARONING HUQUQ VA ERKINLIKLARI KAFOLATI 574

Raxmatov Kamoljon Ximmat o‘g‘li, ... **574**

KONSTITUTSIYADA FUQAROLARNING JAMIYAT HAYOTIDA O‘Z IJTIMOIY FAOLLIKLARINI AMALGA OSHIRISHNING MUHIM SHAKLLARI 581

Raxmatov Mizrob Majitovich, ... **581**

YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI: QONUNCHILIKDAGI BARCHA ZIDDIYATLAR VA NOANIQLIKLAR INSON FOYDASIGA TALQIN ETILADI 586

Baxtiyorov Ixtiyor Baxtiyor o‘g‘li **586**

O‘ZBEKISTON REPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI - HARBIY XIZMATCHILAR HUQUQ-MAJBURIYATLARI VA HARBIY INTIZOMNI MUSTAHKAMLASHDAGI ISLOHOTLAR ASOSI 592

Yunusov Ulug‘bek Abdullayevich, ... **592**

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН КОНСТИТУЦИЯСИ – ЭРКИН ВА ФАРОВОН ҲАЁТ ГАРОВИ 595

Хакназаров Азиз Бахтиёрович, ... **595**

RAQAMLI DAVRDA BOLA TA’LIM-TARBIYASINI HUQUQIY TA’MINLASHNING DOLZARB MASALALARI 603

Akramova Shaxnoza Abrorovna, ... 603

КОНСТИТУЦИЯ – ФУҚАРОЛАРНИ ИЖТИМОИЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШНИНГ МУСТАҲКАМ КАФОЛАТИ 608

Астанов Шахзод Шойимович, ... 608

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASIDA SAYLOV HUQUQINING KAFOLATLARI 613

Axmedov Sh.O. 613

Xadjayev M.A. 613

KONSTITUTSIYA – INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARI KAFOLATIDIR 617

Sattorov Farrux Akromovich 617

СЕРВИТУТ ВА УНИ БЕЛГИЛАШ ТЎҒРИСИДАГИ ШАРТНОМАЛАРНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ 622

Алламуродов Одилжон Абдуқодирович 622

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA - BARQAROR VA EKOLOGIK TARAQQIYOT VA DEMOKRATIK HUQUQIY RIVOJLANISH POYDEVORI 625

Rasulova Nodira Sardarovna, ... 625

Tohirova Jasmina Inomjon qizi 625

ATROF-MUHITNI HIMOYA QILISH VA UNING HOLATINI NAZORAT QILISHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI 629

Rasulova Nodira Sardarovna, ... 629

Janadilova Sayra 629

MUTANOSIBLIK, TENGLIK VA ADOLAT PRINSIPLARI: O‘ZBEKISTONDA KONSTITUTSION HUQUQIY KAFOLATLARNI TA’MINLASHDAGI ROLI 633

Iroda Rejametova 633

Durdona Rustamova 633

“YANGILANGAN KONSTITUTSIYA–BARQAROR EKOLOGIK TARAQQIYOT VA DEMOKRATIK HUQUQIY RIVOJLANISH POYDEVORI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya
MATERIALLARI TO‘PLAMI

2025-yil 3-dekabr

Texnik muharrir: Ergashev J.U.
Dizayner: Qurbonov B.B.

Bosishga ruxsat etildi __.__.2025. Buyurtma № __. Formati 60x84/16.
Times New Roman garniturasi bilan raqamli usulda bajarilgan.
Hajmi 39,37 sh.b.t. 39,35 t.h.t. Adadi ___nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi